MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI VAZIRLIGI

O'QITUVCHI NOMIDAGI TARBIYA PEDAGOGIKASI MILLIY INSTITUTI
TPMI
1929

MILLIY TARBIYA JARAYONLARINI TASHKIL ETISHNING INSTITUTSIONAL MODELLARI VA BOSHQARUV MEKANIZMLARI

RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY KONFERENSIYA

MATERIALLAR TO'PLAMI

29-SENTABR 2026-YIL



“Milliy tarbiya jarayonlarini tashkil etishning institutsional modellari va boshqaruv mexanizmlari” mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjumani materiallar to‘plami. (2026-yil 29-sentyabr)

Mas’ul muharrir:

Ibraimov Xolboy Ibragimovich – Pedagogika fanlari doktori, O‘zFA haqiqiy a’zosi, akademik

Tahrir hay’ati a’zolari:

TAHRIR HAY’ATI	
X.I.Ibraimov	pedagogika fanlari doktori, akademik
R.X.Djurayev	pedagogika fanlari doktori, akademik
X.M.Tojiboyeva	pedagogika fanlari doktori, professor
K.A.Karimov	pedagogika fanlari doktori, katta ilmiy xodim
M.S.Alimov	pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), katta ilmiy xodim
R.M.Medetova	pedagogika fanlari doktori, katta ilmiy xodim
O.R.Jamoliddinova	pedagogika fanlari doktori, professor
M.B.Urazova	pedagogika fanlari doktori, professor
B.Xakimova	pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
O.T.Abdiganiyev	pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), katta ilmiy xodim
A.Jumabayev	katta ilmiy xodim

© Qori Niyoziy nomidagi Tarbiya pedagogikasi milliy instituti
© Mualliflar

Kirish so‘zi

Assalomu alaykum, hurmatli anjuman ishtirokchilari, aziz ustozlar, yosh avlod tarbiyasi yo‘lida fidoyilik bilan mehnat qilayotgan olimlar, pedagoglar, tadqiqotchilar va soha mutaxassislari!

Barchangizni bugungi “Milliy tarbiya jarayonlarini tashkil etishning institutsional modellari va boshqaruv mexanizmlari” mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjumanida samimiy qutlayman. Respublikamizning turli hududlaridan tashrif buyurib, mazkur anjumanga qiziqish bildirganingiz uchun chuqur minnatdorchilik bildiraman. Xush kelibsizlar!

Ma’lumki, bugun mamlakatimizda amalga oshirilayotgan keng ko‘lamli islohotlarning markazida inson, uning ma’naviy kamoloti va har tomonlama barkamol shaxs sifatida shakllanishi masalasi turibdi. Yangi O‘zbekiston taraqqiyotining mustahkam poydevori aynan ta’lim va tarbiya tizimida qo‘yilishi ham bejiz emas. Chunki har qanday jamiyatning ertangi kuni uning yosh avlodi qanday qadriyatlar asosida, qanday muhitda va kimlarning ta’sirida voyaga yetayotganiga bevosita bog‘liqdir.

Bugungi globallashuv jarayonlari, raqamli texnologiyalarning jadal rivojlanishi va axborot oqimining keskin ortishi tarbiya sohasi oldiga ham mutlaqo yangi, murakkab vazifalarni qo‘ymoqda. Yoshlarimiz bir vaqtning o‘zida oila, mahalla, ta’lim muassasasi, ijtimoiy tarmoqlar va media makonining ta’sirida shakllanmoqda. Bu ta’sirlar ko‘pincha bir-biriga mos kelmaydi, ba’zan esa bir-biriga zid yo‘nalishda bo‘ladi. Shunday sharoitda tarbiya jarayonini alohida tadbirlar yoki ayrim mas’ul shaxslar faoliyati bilan cheklab qo‘yish kutilgan natijani bermasligi tobora ayon bo‘lmoqda.

Shu nuqtayi nazardan qaraganda, bugungi anjumanimiz mavzusi nihoyatda dolzarb ahamiyat kasb etadi. Milliy tarbiyaning institutsional modeli — bu tarbiya jarayonida ishtirok etuvchi barcha subyektlar, ya’ni ta’lim muassasasi, oila, mahalla, davlat organlari, nodavlat notijorat tashkilotlari va fuqarolik jamiyati institutlarining vazifalari, mas’uliyati va o‘zaro munosabatlarini aniq belgilab beruvchi yaxlit tizimdir. Boshqaruv mexanizmlari esa ushbu tizimning maqsadli, muvofiqlashtirilgan va natijaga yo‘naltirilgan holda ishlashini ta’minlaydi: rejalashtirish, monitoring, natijalarni baholash va ularga tayangan holda qaror qabul qilish shular jumlasidandir.

Buyuk mutafakkir bobomiz Abu Nasr Forobiy insonning kamolga yetishi faqat uning o‘z sa’y-harakati bilan emas, balki u yashayotgan jamoaning fazilatlari, o‘zaro hamkorligi va to‘g‘ri boshqaruvi bilan bog‘liq ekanini ta’kidlagan edi. Bu g‘oya bugungi kunda ham o‘z ahamiyatini yo‘qotgani yo‘q. Zero, barkamol avlodni tarbiyalash faqat bir sohaning emas, balki butun jamiyatning umumiy vazifasidir va bu vazifa barcha institutlarning uyg‘un faoliyati orqaligina samarali hal etiladi.

So‘nggi yillarda bu borada muhim qadamlar qo‘yildi. Uzluksiz ma’naviy tarbiya tizimi takomillashtirilmoqda, umumta’lim maktablarida “Tarbiya” fani joriy etildi, oila, mahalla va ta’lim muassasalari hamkorligini kuchaytirishga qaratilgan

qator tizimli choralar ko‘rilmoqda. Ayni paytda, ushbu sa’y-harakatlarni ilmiy jihatdan asoslash, ularning samaradorligini baholash mezonlarini ishlab chiqish va ilg‘or tajribalarni keng ommalashtirish zarurati ham kun tartibida turibdi. Aynan shu masalalarni ilmiy-amaliy jihatdan muhokama qilish bugungi anjumanimizning asosiy maqsadidir.

Hurmatli ishtirokchilar!

Anjumanimizga yuborilgan ilmiy maqola va ma’ruzalarning mavzu jihatidan xilma-xilligi, ularda nazariy tahlillar bilan bir qatorda amaliy tajribalar ham keng yoritilgani bizni alohida quvontiradi. Bugungi muhokamalar davomida milliy tarbiya tizimini zamonaviy ta’lim islohotlari, davlat siyosati hamda milliy va umuminsoniy qadriyatlar asosida takomillashtirish yo‘llari, tarbiya jarayonlarini boshqarishning zamonaviy mexanizmlari, shuningdek, yosh avlodni tarbiyalashning innovatsion yondashuvlari atroflicha tahlil qilinadi, deb ishonaman.

Ishonchim komilki, mazkur anjumanda ilgari suriladigan ilmiy g‘oyalar, taklif va tavsiyalar tarbiya sohasidagi normativ-huquqiy hujjatlarni takomillashtirish, ta’lim muassasalari faoliyatiga samarali boshqaruv modellarini joriy etishda muhim manba bo‘lib xizmat qiladi. Shuningdek, ushbu anjuman olimlar, pedagoglar, doktorantlar, mustaqil izlanuvchilar va amaliyotchi mutaxassislar o‘rtasida yangi ilmiy hamkorlik aloqalarini o‘rnatishga, kelgusidagi qo‘shma tadqiqotlar uchun mustahkam zamin yaratishga xizmat qiladi.

Fursatdan foydalanib, anjumanni tashkil etishda yaqindan yordam bergan barcha hamkorlarimizga, tashkilotchilarga o‘z minnatdorchiligimni bildiraman va konferensiya ishiga ulkan muvaffaqiyatlar, barchangizga sihat-salomatlik va ilmiy izlanishlaringizda yangi yutuqlar tilayman.

E’tiboringiz uchun rahmat!

X.Ibraimov

Qori Niyoziy nomidagi Tarbiya pedagogikasi milliy instituti direktori,
pedagogika fanlari doktori, akademik

MILLIY TARBIYA JARAYONLARINI TASHKIL ETISH VA BOSHQARUV MEXANIZMLARI

X.Ibraimov
Qori Niyoziy nomidagi Tarbiya pedagogikasi milliy instituti direktori, pedagogika fanlari doktori, akademik
https://doi.org/10.5281/zenodo.23175681

Maqolada milliy tarbiya jarayonlarini tashkil etishning institutsional modellari va ularni boshqarish mexanizmlari tizimli-funksional yondashuv asosida tahlil qilinadi. Xorijiy davlatlar (Yaponiya, Janubiy Koreya, Germaniya, Finlyandiya) tajribasi qiyosiy tahlil qilinib, ularni milliy sharoitga moslashtirish imkoniyatlari asoslangan. Tadqiqot natijalari milliy tarbiya sohasidagi me’yoriy-huquqiy hujjatlarni takomillashtirish, pedagog kadrlar tayyorlash tizimini rivojlantirish va davlat-jamoat sheriklik institutlarini mustahkamlash bo‘yicha ilmiy-amaliy tavsiyalar ishlab chiqish uchun asos bo‘lib xizmat qiladi.

Kalit so‘zlar: *milliy tarbiya, institutsional model, institutsionalizatsiya, boshqaruv mexanizmi, ijtimoiy sheriklik, davlat-jamoat hamkorligi, monitoring va baholash, ma’naviy-ma’rifiy tarbiya.*

В статье на основе системно-функционального подхода анализируются институциональные модели организации процессов национального воспитания и механизмы управления ими. Проведён сравнительный анализ опыта зарубежных стран (Япония, Республика Корея, Германия, Финляндия) и обоснованы возможности его адаптации к национальным условиям. Предложена интегральная модель оценки институциональной эффективности, включающая когнитивные, эмоционально-ценностные, поведенческие и институциональные показатели.

Ключевые слова*: национальное воспитание, институциональная модель, институционализация, механизм управления, социальное партнёрство, государственно-общественное сотрудничество, мониторинг и оценка.*

Based on a systemic-functional approach, this article analyzes the institutional models of organizing national upbringing processes and the mechanisms for managing them. The experience of foreign countries (Japan, the Republic of Korea, Germany, Finland) is comparatively analyzed, and the possibilities of adapting it to national conditions are substantiated. An integral model for assessing institutional effectiveness, comprising cognitive, emotional-value, behavioral, and institutional indicators, is proposed.

Key words: *national upbringing, institutional model, institutionalization, management mechanism, social partnership, state-public cooperation, monitoring and evaluation.*

Mustaqillik yillarida O‘zbekistonda yosh avlodni milliy g‘oya, milliy qadriyatlar va umuminsoniy tamoyillar ruhida tarbiyalash davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biriga aylandi. Jamiyat taraqqiyotining hozirgi bosqichida globallashuv jarayonlari, raqamli-axborot makonining tez kengayishi, qadriyatlar almashinuvining tezlashuvi va migratsion jarayonlarning kuchayishi milliy tarbiya tizimini yangicha institutsional-metodologik asosda qayta ko‘rib chiqishni taqozo etmoqda.

Milliy tarbiya endilikda faqat oila yoki ta’lim muassasasining ichki, mahalliy ishi bo‘lmay, balki davlat organlari, fuqarolik jamiyati institutlari, diniy-ma’rifiy

tashkilotlar, mahalliy o‘zini-o‘zi boshqarish organlari va ommaviy axborot vositalarining birgalikdagi, huquqiy va tashkiliy jihatdan muvofiqlashtirilgan faoliyatini talab etadigan murakkab ko‘p darajali ijtimoiy-pedagogik jarayonga aylandi. Shu bois, milliy tarbiyani institutsional nuqtai nazardan o‘rganish nafaqat pedagogika, balki ijtimoiy boshqaruv nazariyasi, davlat boshqaruvi va sotsiologiya fanlari kesimida ham dolzarblik kasb etadi.

Muammoning ilmiy dolzarbligi shundan iboratki, amaliyotda turli institutlarning tarbiyaviy faoliyati ko‘pincha bir-biridan ajralgan, parchalanib ketgan holda, tizimli muvofiqlashtirishsiz amalga oshirilmoqda. Bu esa tarbiyaviy ta’sirning yaxlitligi, uzluksizligi va samaradorligiga salbiy ta’sir ko‘rsatib, natijada institutlararo “vakuum zonalari” yuzaga kelishiga olib kelmoqda. Tadqiqotning maqsadi — milliy tarbiya jarayonlarini tashkil etishning institutsional modellarini ilmiy tasniflash, ularni boshqarishning ko‘p bosqichli mexanizmlarini ishlab chiqish hamda xorijiy tajribani milliy sharoitga moslashtirish yo‘llarini asoslashdan iborat.

Milliy tarbiyaning institutsional mohiyati va tuzilmasi. Institutsional yondashuv nuqtai nazaridan milliy tarbiya — jamiyatda shakllangan me’yorlar, qadriyatlar, an’analar va tashkiliy tuzilmalar orqali amalga oshiriladigan barqaror, takrorlanuvchan ijtimoiy jarayon sifatida talqin etiladi. “Institutsionalizatsiya” tushunchasi esa tarbiyaviy amaliyotning tasodifiy, notizimli harakatlardan barqaror, me’yoriy jihatdan mustahkamlangan, o‘z sub’ektlari va vakolatlar taqsimotiga ega tizimga aylanish jarayonini anglatadi.

Institutsional model deganda milliy tarbiya sub’ektlari – oila, maktabgacha ta’lim, umumta’lim va oliy ta’lim muassasalari, mahalla, diniy-ma’rifiy tashkilotlar, jamoat birlashmalari, ommaviy axborot vositalari – o‘rtasidagi vazifalar taqsimoti, o‘zaro aloqadorlik tartibi, moliyalashtirish manbalari va boshqaruv ierarxiyasini belgilovchi yaxlit tizim tushuniladi.

Milliy tarbiyaning institutsional tuzilmasida uch daraja ajratiladi:

- makrodaraja – davlat siyosati, qonunchilik, milliy dasturlar va konsepsiyalar darajasi;

- mezodaraja – hududiy boshqaruv, ta’lim muassasasi, mahalla va tuman miqyosidagi tashkiliy-boshqaruv tuzilmalari;

- mikrodaraja – oiladagi tarbiyaviy muhit, ota-ona va farzand o‘rtasidagi bevosita munosabatlar darajasi.

Ushbu uch daraja o‘zaro chambarchas bog‘liq bo‘lib, ularning har birida amalga oshirilayotgan tarbiyaviy ta’sirning izchilligi va mazmuniy uyg‘unligi butun tizimning yakuniy samaradorligini belgilaydi. Amaliyotda ko‘pincha mezodaraja bilan mikrodaraja o‘rtasidagi bog‘liqlik zaif bo‘lib, bu institutsional “uzilish” samaradorlikni pasaytiruvchi asosiy omillardan biriga aylanmoqda.

Institutsional modellarning tipologiyasi va qiyosiy tahlili. Ilmiy adabiyotlar tahlili asosida milliy tarbiya jarayonlarini tashkil etishning quyidagi institutsional modellari ajratildi: markazlashgan (ierarxik), hamkorlik (sherikchilik), mahalliy-jamoaviy va aralash (integratsiyalashgan) modellar. Ularning qiyosiy tavsifi 1-jadvalda keltirilgan.

1-jadval. Milliy tarbiyani tashkil etishning institutsional modellari

Model turi	***Asosiy xususiyati***	***Ustuvor sub’ekti***
Markazlashgan (ierarxik)	*Tarbiyaviy siyosat yuqoridan pastga qarab, yagona me’yoriy asosda amalga oshiriladi*	*Davlat organlari, vazirlik va idoralar*
Hamkorlik (sherikchilik)	*Davlat, fuqarolik jamiyati va oila o‘rtasida teng huquqli, shartnomaviy asosdagi hamkorlik*	*NNT, jamoat birlashmalari, oila*
Mahalliy-jamoaviy	*Tarbiyaviy jarayon mahalliy an’ana va urf-odatlarga tayangan holda tashkil etiladi*	*Mahalla, mahalliy o‘zini-o‘zi boshqarish organlari*
Aralash (integratsiyalashgan)	*Markazlashgan boshqaruv, mahalliy institutlar va fuqarolik jamiyati resurslarining uyg‘unlashuvi*	*Barcha sub’ektlarning muvofiqlashtirilgan tarmog‘i*

Markazlashgan model yagona me’yoriy-huquqiy makonni ta’minlashi, resurslarni muvofiqlashtirilgan holda taqsimlashi bilan afzal bo‘lsa-da, mahalliy o‘ziga xosliklarni to‘liq inobatga ololmaslik xavfini keltirib chiqaradi. Sherikchilik modeli moslashuvchan va ijodiy yondashuvlarni rag‘batlantiradi, biroq muvofiqlashtiruvchi markaziy tuzilma bo‘lmasa, faoliyat parchalanib ketishi mumkin.

Mahalliy-jamoaviy model milliy mentalitet va an’analarga eng yaqin model bo‘lib, ayniqsa mahalla institutining ijtimoiy nufuzi yuqori bo‘lgan hududlarda yuqori samara beradi. Aralash model esa yuqoridagi uch modelning kuchli

tomonlarini birlashtirib, zamonaviy sharoitda eng maqbul institutsional yechim sifatida baholanadi.

O‘zbekiston sharoitida aralash modelni joriy etishda davlat boshqaruvining muvofiqlashtiruvchi funksiyasi, mahalla institutining ijtimoiy-tarbiyaviy salohiyati va fuqarolik jamiyati institutlarining tashabbuskorlik salohiyati uyg‘unlashtirilishi lozim.

Boshqaruv mexanizmlarining tizimli tavsifi. Milliy tarbiya jarayonini boshqarish mexanizmlari beshta asosiy yo‘nalishni o‘z ichiga oladi:

a) tashkiliy-huquqiy mexanizm – milliy tarbiyaga oid qonun hujjatlari, davlat dasturlari, konsepsiyalar va ichki tartib-qoidalarni ishlab chiqish hamda amaliyotga tatbiq etish;

b) moliyaviy-iqtisodiy mexanizm – milliy tarbiya tadbirlarini davlat byudjeti, mahalliy byudjet va nodavlat mablag‘lari hisobidan moliyalashtirish, grant va homiylik dasturlarini rag‘batlantirish;

v) pedagogik-metodik mexanizm – ta’lim muassasalarida milliy tarbiya mazmunini o‘quv dasturlariga integratsiya qilish, o‘qituvchi va tarbiyachilarning kasbiy malakasini oshirish tizimini takomillashtirish;

g) ijtimoiy sheriklik mexanizmi – oila, mahalla, jamoat tashkilotlari, diniy-ma’rifiy muassasalar va ommaviy axborot vositalari o‘rtasida muvofiqlashtirilgan hamkorlikni institutsional jihatdan mustahkamlash;

d) monitoring va baholash mexanizmi – milliy tarbiya samaradorligini o‘lchash mezonlarini ishlab chiqish, natijalarni muntazam tahlil qilish hamda qaror qabul qilish jarayoniga qaytar aloqa (feedback) sifatida kiritish.

Ushbu mexanizmlarning o‘zaro bog‘liqligi va funksional to‘ldiruvchanligi milliy tarbiya tizimining barqaror faoliyat yuritishini ta’minlaydi. Xususan, monitoring mexanizmisiz qolgan barcha mexanizmlarning natijadorligini ob’ektiv baholash imkonsiz bo‘lib qoladi, bu esa boshqaruv qarorlarining asossiz qabul qilinishiga olib kelishi mumkin.

Xorijiy tajriba: qiyosiy-institutsional tahlil:

Yaponiyada fuqarolik-vatanparvarlik tarbiyasi maktab, oila va mahalliy hamjamiyat (“tiiki shakai”) o‘rtasidagi uzviy hamkorlikka asoslangan bo‘lib, ta’lim muassasasi tarbiyaviy jarayonning institutsional markazi vazifasini bajaradi. **Janubiy Koreyada** milliy tarbiya davlat dasturlari orqali markazlashgan tarzda boshqarilib, muntazam monitoring va baholash tizimi joriy etilgan. **Germaniyada** federal tuzilma sharoitida har bir yer (land) o‘z ta’lim-tarbiya siyosatini mustaqil belgilaydi, biroq umumfederal qadriyat asoslari saqlanib qoladi — bu aralash modelning yorqin namunasidir. **Finlyandiyada** esa ijtimoiy sheriklik modeli ustuvor bo‘lib, maktab, ota-onalar kengashi va mahalliy hokimiyat o‘rtasidagi

ishonchga asoslangan gorizontal hamkorlik yuqori natijalarga erishishga xizmat qilmoqda.

Ushbu tajribalarni tahlil qilish shuni ko‘rsatadiki, samarali institutsional model – bu bitta “ideal” namunani ko‘chirib olish emas, balki milliy mentalitet, tarixiy-madaniy zamin va mavjud boshqaruv an’analarini inobatga olgan holda, turli modellarning eng samarali elementlarini uyg‘unlashtirish jarayonidir. **O‘zbekiston** sharoitida bu, avvalambor, mahalla institutining o‘ziga xos ijtimoiy-tarbiyaviy salohiyatini davlat boshqaruvi va zamonaviy pedagogik metodologiya bilan uyg‘unlashtirishni anglatadi.

Institutsional samaradorlikni baholash modeli. Milliy tarbiya jarayonining institutsional samaradorligini ob’ektiv baholash uchun integral baholash modeli taklif etiladi, u to‘rtta yo‘nalish bo‘yicha ko‘rsatkichlarni o‘z ichiga oladi (2-jadval).

2-jadval. Institutsional samaradorlikni baholash indikatorlari

Baholash yo‘nalishi	**Asosiy indikatorlar**
Kognitiv (bilish) darajasi	Milliy qadriyatlar, tarix va an’analar bo‘yicha bilim darajasi, test va so‘rovnoma natijalari
Emotsional-qadriyat darajasi	Vatanga, tilga, milliy madaniyatga hissiy-qadriyatli munosabat ko‘rsatkichlari
Xulq-atvor darajasi	Ijtimoiy foydali faoliyatdagi ishtirok, ko‘ngillilik, tashabbuskorlik ko‘rsatkichlari
Institutsional samaradorlik	Sub’ektlar o‘rtasidagi hamkorlik chastotasi, birgalikdagi tadbirlar soni, moliyaviy-huquqiy ta’minlanganlik

Mazkur model asosida o‘tkaziladigan davriy monitoring natijalari nafaqat alohida ta’lim muassasasi yoki hudud darajasida, balki milliy miqyosda ham milliy tarbiya siyosatini korrektirovka qilish uchun ilmiy asoslangan ma’lumot bazasini yaratadi.

Илмий-амалий тавсиялар:

1) milliy tarbiyaga oid maqsad va vazifalarni barcha bosqich ta’lim muassasalarining strategik hujjatlarida yagona konseptual asosda mustahkamlash, ularning o‘zaro izchilligini ta’minlash;

2) mahalla, ta’lim muassasasi va oila o‘rtasidagi hamkorlikni institutsional jihatdan rasmiylashtirish — doimiy faoliyat yurituvchi muvofiqlashtiruvchi kengashlar va jamoatchilik nazorati mexanizmlarini tashkil etish;

3) milliy tarbiya samaradorligini baholashning aniq mezonlar tizimini (yuqorida taklif etilgan indikatorlar asosida) ishlab chiqish va uni davriy monitoring amaliyotiga joriy etish;

4) pedagog va tarbiyachi kadrlarni milliy tarbiya metodologiyasi bo‘yicha maxsus tayyorlash, ularning malakasini muntazam oshirib borish tizimini takomillashtirish;

5) milliy tarbiya sohasidagi davlat-xususiy va davlat-jamoat sheriklik shakllarini rag‘batlantiruvchi moliyaviy-huquqiy mexanizmlarni (grant dasturlari, soliq imtiyozlari) ishlab chiqish;

6) raqamli texnologiyalar va ijtimoiy tarmoqlar salohiyatidan milliy tarbiya mazmunini yoshlarga yetkazishda ilmiy asoslangan tarzda foydalanish mexanizmlarini joriy etish.

Xulosa. O‘tkazilgan tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, milliy tarbiya jarayonlarini tashkil etishning institutsional modellari va boshqaruv mexanizmlari zamonaviy jamiyat taraqqiyotining muhim strategik omili hisoblanadi. Таъкидлаш жоизки, milliy tarbiyaning uch darajali institutsional tuzilmasi asoslandi, mavjud institutsional modellar (markazlashgan, sherikchilik, mahalliy-jamoaviy, aralash) tasniflanib qiyosiy tahlil qilindi hamda O‘zbekiston sharoiti uchun aralash model eng maqbul yechim sifatida asoslandi.

Davlat, ta’lim muassasalari, mahalla va oila institutlarining muvofiqlashtirilgan, tizimli faoliyati orqaligina yosh avlodda milliy g‘urur, vatanparvarlik va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat tuyg‘ularini barqaror shakllantirish mumkin. Ishlab chiqilgan tashkiliy-huquqiy, moliyaviy-iqtisodiy, pedagogik-metodik, ijtimoiy sheriklik va monitoring-baholash mexanizmlarining birgalikda joriy etilishi hamda taklif etilgan integral baholash modelidan foydalanish milliy tarbiya tizimining sifat jihatidan yangi bosqichga ko‘tarilishini ta’minlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mirziyoev Sh.M. *Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz.* – Toshkent: O‘zbekiston, 2017. – 295–297-b.
2. Mirziyoev Sh.M. *Yangi O‘zbekiston demokratik o‘zgarishlar, keng imkoniyatlar va amaliy ishlar mamlakatiga aylanmoqda.* – Toshkent: O‘qituvchi MU MChJ, 2021. – 7-b.
3. Ibraimov X., Kuronov M., Fozilov J., Zaripov F. *Ota-ona – murabbiy.* – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2024. – 220 b.
4. Ibraimov X. va boshq. *Najot tarbiyada.* – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2025. – 60 b.
5. Ibraimov X. va boshq. *Go‘zal xulq modellari.* – Toshkent: Ilm ziyo zakovat, 2025. – 80 b.
6. Ibraimov X. va boshq. *Ma’naviy-axloqiy tarbiya metodlari.* – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2025. – 68 b.

MILLIY TARBIYA JARAYONLARINI TASHKIL ETISHNING INSTITUTSIONAL MODELLARI

R.X.Djurayev
TMPI bo‘lim mudiri, p.f.d., akademik
https://doi.org/10.5281/zenodo.23175766

Mazkur maqolada milliy tarbiya jarayonlarini zamonaviy pedagogik talablar asosida tashkil etishning institutsional modellari va boshqaruv mexanizmlari yoritilgan. Milliy tarbiyani tashkil etishda oila, ta’lim tashkiloti, mahalla, jamoatchilik va madaniy-ma’rifiy institutlarning o‘zaro hamkorligi, ularning funksional vazifalarini muvofiqlashtirish hamda tarbiyaviy jarayonni tizimli boshqarish masalalari tahlil qilingan. Shuningdek, milliy tarbiya samaradorligini ta’minlashda maqsadli, diagnostik, muvofiqlashtiruvchi, monitoring, metodik va refleksiv boshqaruv mexanizmlarining ahamiyati asoslangan. Milliy tarbiya jarayonlarini boshqarishning institutsional modeli sifatida oila–maktab–mahalla hamkorligi, ta’lim va tarbiyaning integratsiyasi hamda raqamli tarbiyaviy muhit imkoniyatlaridan foydalanishga asoslangan yondashuv taklif etilgan.

Kalit so‘zlar: *milliy tarbiya, institutsional model, boshqaruv, boshqaruv mexanizmi, tarbiyaviy jarayon, oila, maktab, mahalla, hamkorlik, milliy qadriyatlar, pedagogik monitoring, raqamli muhit.*

Kirish

Bugungi globallashuv, axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining jadal rivojlanishi va ijtimoiy munosabatlarning transformatsiyasi sharoitida yosh avlodni milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat ruhida tarbiyalash ta’lim tizimining muhim vazifalaridan biri sifatida namoyon bo‘lmoqda. Shaxsning ma’naviy-axloqiy qiyofasi, milliy o‘zligini anglashi, Vatanga sadoqati, ijtimoiy mas’uliyati va fuqarolik pozitsiyasining shakllanishi faqat ta’lim muassasasida amalga oshiriladigan tarbiyaviy tadbirlar bilan chegaralanib qolmaydi. Mazkur jarayonda oila, maktab, mahalla, jamoatchilik, madaniy-ma’rifiy tashkilotlar va boshqa ijtimoiy institutlarning o‘zaro hamkorligi muhim ahamiyat kasb etadi.

O‘zbekiston Respublikasida ta’lim va tarbiya jarayonlarini takomillashtirish, yoshlarning ma’naviy-axloqiy tarbiyasini kuchaytirish hamda milliy qadriyatlarni ta’lim mazmuniga samarali singdirishga alohida e’tibor qaratilmoqda. Shu nuqtayi nazardan, milliy tarbiyani alohida tadbirlar majmui sifatida emas, balki aniq maqsad, mazmun, subyektlar, boshqaruv mexanizmlari, monitoring va natijalarni o‘z ichiga olgan yaxlit pedagogik tizim sifatida tashkil etish dolzarb vazifadir.

Institutsional yondashuv milliy tarbiya jarayonida ishtirok etuvchi barcha subyektlarning vazifalari, funksiyalari, o‘zaro munosabatlari va boshqaruv mexanizmlarini yagona tizim doirasida tashkil etishni nazarda tutadi. Bunday yondashuvda tarbiya jarayoni birgina pedagog yoki ta’lim tashkilotining vazifasi sifatida emas, balki turli ijtimoiy institutlarning hamkorlikdagi faoliyati sifatida qaraladi.

Milliy tarbiyaning asosiy institutsional subyektlari sifatida oilani, ta’lim tashkilotini, mahallani, jamoatchilik va madaniy-ma’rifiy muassasalarni ko‘rsatish mumkin. Oila bolaning dastlabki ijtimoiy tajribasi, qadriyatlari va axloqiy qarashlari shakllanadigan tabiiy tarbiyaviy muhit hisoblanadi. Ta’lim tashkiloti esa ushbu jarayonni ilmiy-pedagogik jihatdan tashkil etish, tarbiya mazmunini ta’lim jarayoni bilan integratsiyalash va o‘quvchilarning individual rivojlanishini pedagogik jihatdan qo‘llab-quvvatlash vazifasini bajaradi.

Mahalla instituti milliy tarbiya jarayonining ijtimoiy muhitini kengaytirib, yoshlarning jamoa bilan munosabatlarini, ijtimoiy faolligini va milliy qadriyatlarga munosabatini shakllantirishga xizmat qiladi. Jamoatchilik va madaniy-ma’rifiy institutlar esa tarixiy xotira, milliy madaniyat, san’at, urf-odat va an’analarni yoshlar ongiga yetkazishda muhim tarbiyaviy resurs hisoblanadi.

Shunday qilib, institutsional yondashuvning asosiy mohiyati turli subyektlarning faoliyatini bir maqsadga yo‘naltirish, ularning imkoniyatlarini uyg‘unlashtirish va tarbiyaviy jarayonning uzluksizligini ta’minlashdan iborat.

Milliy tarbiya jarayonlarini tashkil etishda, avvalo, **“oila–maktab–mahalla” hamkorlik modeli** alohida ahamiyatga ega. Mazkur modelda oilaning tarbiyaviy imkoniyatlari ta’lim tashkilotining pedagogik salohiyati va mahallaning ijtimoiy resurslari bilan uyg‘unlashtiriladi. Bunda har bir institutning vazifasi aniq belgilanib, o‘zaro axborot almashinuvi va hamkorlik mexanizmlari yo‘lga qo‘yiladi. Natijada o‘quvchining oiladagi, maktabdagi va ijtimoiy muhitdagi tarbiyaviy ta’sirlarining mazmunan bir-birini to‘ldirishi ta’minlanadi.

Ikkinchi muhim yo‘nalish **ta’lim va tarbiya integratsiyasi modeli** hisoblanadi. Ushbu modelga ko‘ra, tarbiya faqat sinfdan tashqari tadbirlar bilan chegaralanmasdan, barcha o‘quv fanlari mazmuni, dars jarayoni, mustaqil ta’lim, loyihaviy faoliyat va maktab muhitining tarkibiy qismi sifatida tashkil etiladi. Masalan, tabiiy fanlarni o‘qitishda tabiatga ehtiyotkor munosabat, ekologik mas’uliyat, ilmiy tafakkur va mehnatsevarlik kabi sifatlarni rivojlantirish mumkin. Tarbiya mazmunining fanlararo integratsiyasi o‘quvchilarda milliy va umuminsoniy qadriyatlarni turli faoliyatlar orqali anglash imkoniyatini kengaytiradi.

Zamonaviy sharoitda **raqamli tarbiyaviy muhit modeli** ham muhim ahamiyat kasb etmoqda. Yoshlarning axborot makonidagi faolligi milliy tarbiya mazmunini zamonaviy kommunikatsiya vositalari orqali yetkazishni talab qiladi. Elektron ta’lim resurslari, videomateriallar, podkastlar, interaktiv topshiriqlar va turli raqamli platformalardan maqsadli foydalanish milliy qadriyatlarni yoshlarning kundalik axborot muhitiga yaqinlashtiradi. Biroq bunda raqamli vosita maqsad emas, balki tarbiyaviy maqsadga erishish vositasi sifatida qaralishi lozim.

Milliy tarbiya jarayonini samarali boshqarish, eng avvalo, uning maqsad va vazifalarini aniq belgilashni talab etadi. **Maqsadli boshqaruv mexanizmi** orqali

muayyan yosh bosqichiga mos tarbiyaviy maqsadlar belgilanadi, kutilayotgan natijalar aniqlashtiriladi va mazkur natijalarga erishish yo‘llari rejalashtiriladi.

Diagnostik mexanizm o‘quvchilarning mavjud tarbiyaviy holati, ehtiyojlari, qiziqishlari, qadriyatlarga munosabati va ijtimoiy faolligini aniqlash imkonini beradi. Diagnostik ma’lumotlar asosida tarbiyaviy faoliyat mazmunini o‘quvchilarning real ehtiyojlariga moslashtirish mumkin. Bu esa barcha o‘quvchilarga bir xil tarbiyaviy ta’sir ko‘rsatishdan ko‘ra individual va differensial yondashuvni kuchaytiradi.

Muvofiqlashtiruvchi mexanizm oila, maktab, mahalla va boshqa ijtimoiy institutlarning faoliyatini yagona maqsad asosida uyg‘unlashtirishga xizmat qiladi. Bunda hamkorlikning shakllari, axborot almashinuvi, vazifalar taqsimoti va mas’uliyat chegaralari aniqlashtirilishi zarur.

Monitoring mexanizmi tarbiyaviy jarayonning borishi va natijalarini muntazam kuzatish, mavjud muammolarni aniqlash va o‘z vaqtida pedagogik tuzatishlar kiritish imkonini beradi. Monitoring faqat amalga oshirilgan tadbirlar sonini hisoblash bilan cheklanmasdan, o‘quvchida yuz berayotgan sifat o‘zgarishlarini ham aniqlashga yo‘naltirilishi lozim.

Shuningdek, **metodik va refleksiv boshqaruv mexanizmlari** ham alohida ahamiyatga ega. Metodik mexanizm pedagoglarni zamonaviy tarbiya texnologiyalari, interfaol metodlar va hamkorlik shakllari bilan ta’minlashni nazarda tutsa, refleksiv mexanizm amalga oshirilgan faoliyatni tahlil qilish, uning samarali va muammoli jihatlarini aniqlash hamda keyingi faoliyatni takomillashtirishni nazarda tutadi.

Yuqoridagi ilmiy-nazariy tahlillarga asoslanib, milliy tarbiya jarayonlarini boshqarishning quyidagi izchil modelini taklif etish mumkin: **ehtiyojlarni aniqlash → maqsadni belgilash → tarbiya mazmunini loyihalash → subyektlar faoliyatini muvofiqlashtirish → tarbiyaviy faoliyatni amalga oshirish → monitoring va diagnostika → natijalarni tahlil qilish → korreksiya → qayta rejalashtirish**.

Mazkur modelning muhim jihati tarbiya jarayonini uzluksiz boshqaruv sikli sifatida tashkil etishdan iborat. Ya’ni, har bir tarbiyaviy faoliyat natijasi keyingi faoliyatni rejalashtirish uchun asos bo‘lib xizmat qiladi. Bunday yondashuv tarbiyaviy jarayonning moslashuvchanligini ta’minlaydi va aniqlangan muammolar asosida pedagogik ta’sir vositalarini o‘z vaqtida o‘zgartirish imkonini beradi.

Mazkur modelda pedagog faqat tarbiyaviy tadbir tashkilotchisi emas, balki tarbiya jarayonini loyihalovchi, boshqaruvchi, diagnostika qiluvchi va natijalarni tahlil qiluvchi subyekt sifatida namoyon bo‘ladi. Ota-onalar esa tarbiya jarayonining faol ishtirokchisi sifatida jalb qilinadi. Mahalla va jamoatchilik institutlari tarbiyaviy jarayonni ijtimoiy jihatdan qo‘llab-quvvatlash hamda yoshlarning ijtimoiy faolligini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Xulosa. Milliy tarbiya jarayonlarini zamonaviy sharoitda samarali tashkil etish uning institutsional asoslarini mustahkamlash va boshqaruv mexanizmlarini tizimlashtirishni talab etadi. Milliy tarbiya samaradorligi alohida tarbiyaviy tadbirlarning ko‘pligi bilan emas, balki oila, ta’lim tashkiloti, mahalla, jamoatchilik va madaniy-ma’rifiy institutlarning yagona maqsad asosidagi hamkorligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot tahlillari asosida milliy tarbiya jarayonlarini tashkil etishda “oila–maktab–mahalla” hamkorligi, ta’lim va tarbiya integratsiyasi hamda raqamli tarbiyaviy muhitga asoslangan institutsional modellardan kompleks foydalanish maqsadga muvofiq ekanligi aniqlandi. Mazkur modellarni samarali amalga oshirish uchun maqsadli, diagnostik, muvofiqlashtiruvchi, metodik, monitoring va refleksiv boshqaruv mexanizmlarining o‘zaro uyg‘unligi zarur.

Shu bilan birga, milliy tarbiya jarayonini “maqsad–mazmun–faoliyat–monitoring–tahlil–korreksiya” izchilligida boshqarish tarbiyaviy faoliyatning uzluksizligi va natijadorligini ta’minlaydi. Bunda milliy qadriyatlar, zamonaviy pedagogik texnologiyalar, ijtimoiy hamkorlik va raqamli imkoniyatlarning integratsiyasi yoshlarning ma’naviy-axloqiy, ijtimoiy va fuqarolik kompetensiyalarini rivojlantirish uchun muhim pedagogik shart-sharoit yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi O‘RQ-637-son Qonuni. – Toshkent, 2020.
2. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O‘zbekiston strategiyasi. – Toshkent: O‘zbekiston, 2021.
3. Ishmuhamedov R., Abduqodirov A. Ta’limda innovatsion texnologiyalar. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2018.
4. Qori Niyoziy nomidagi Tarbiya pedagogikasi milliy instituti. Tarbiya pedagogikasi va metodikasi yo‘nalishidagi ilmiy-metodik materiallar. – Toshkent, 2025–2026.
5. O‘zbekiston Respublikasi ta’lim tizimida ma’naviy-ma’rifiy va tarbiyaviy ishlarni tashkil etishga oid me’yoriy-metodik materiallar.

М.БЕҲБУДИЙ НОМИДАГИ “ПОЛИГЛОТ” МАКТАБИНИНГ ЭКСПЕРИМЕНТАЛ МИЛЛИЙ ТАРБИЯ МОДЕЛИ ҲАҚИДА

(Т.Н.Қори Ниёзий номидаги ТПМИ ва Полиглот халқаро мактаби илмий ҳамкорлиги дискурси)

М.Қуронов
ТПМИ Бош илмий ходими, педагогика фанлари доктори, профессор, kuranovkuranov5@gmail.com
С.Шарофова
Самарқанд шаҳар М.Беҳбудий номидаги Полиглот мактаби тарбиявий ишлар бўйича директор ўринбосари. sohibasharofova2@gmail.com
https://doi.org/10.5281/zenodo.23175816

Калит сўзлар: *миллий тарбия, тарбия модели, Полиглот мактаби, глокал ёндашув, миллий ўзлик, маънавий-ахлоқий тарбия, ижтимоий-эмоционал таълим, XXI аср компетенциялари, тарбия муҳити, характер, рақамли маданият, Япония тажрибаси, ўқувчи профили, ижтимоий-педагогик технология.*

Аннотация. *Мақолада Беҳбудий номидаги Полиглот халқаро мактабининг миллий тарбия модели концептуал жиҳатдан таҳлил қилинади. Замонавий мактабда тарбияни фақат маънавий-маърифий тадбирлар ёки ахлоқий тушунчаларни етказиш билан чеклаш етарли эмаслиги асосланади. Миллий тарбия ўқувчининг билим, кўникма, қадрият ва амалий хулқ-атворида намоён бўладиган яхлит ижтимоий-педагогик тизим сифатида талқин этилади. Полиглот моделида ўзбек миллий тарбия анъаналари халқаро таълим ёндашувлари, жумладан шахсга йўналтирилган таълим, ижтимоий-эмоционал таълим, XXI аср компетенциялари, академик мустақиллик, рақамли маданият ва Япониянинг муҳит орқали тарбиялаш тажрибаси билан уйғунлаштирилади. Мақолада шунингдек, хусусий халқаро мактабнинг мақсади, тарбиявий муҳити, ўқувчи профили, миллий ва глобал компетенциялар уйғунлиги, оила–мактаб–маҳалла ҳамкорлиги ҳамда тарбия натижаларини баҳолаш масалалари ёритилади.*

XXI аср мактаби олдидаги асосий вазифа фақат билимли инсонни эмас, балки миллий ватанпарварлик ўзининг ҳаётий қоидасига айлантирган юксак компетенцияларга эга шахсларни тайёрлашдан иборат. Замонавий таълим тизими инсоннинг билимни амалиётда қўллай олиши, мустақил қарор қабул қилиши, бошқалар билан ҳамкорлик қилиши, ўз хатти-ҳаракатини бошқара олиши ва жамият олдидаги масъулиятини англашига ҳам эътибор қаратади. OECD томонидан илгари сурилган Learning Compass 2030 ёндашувида ҳам ўқувчининг агентлиги, қадриятлари, компетенциялари ва келажакдаги мураккаб ижтимоий вазиятларда мустақил ҳаракат қила олиши муҳим натижа сифатида қаралади [1].

Ўзбекистонда ҳам таълим ва тарбияни узвий бирликда ташкил этиш масаласи давлат таълим сиёсатида муҳим ўрин тутади. «Таълим тўғрисида»ги Қонун, узлуксиз маънавий тарбия концепцияси ва Янги Ўзбекистон тараққиёт

стратегиясида таълим олувчининг интеллектуал, маънавий-ахлоқий ва жисмоний ривожланишига комплекс ёндашув зарурати белгиланган [2; 3; 4].

Шу нуқтаи назардан Самарқанд шаҳридаги М.Беҳбудий номли Полиглот халқаро мактабининг Қ.Ниёзий номидаги ТПМИ олимлари ҳамкорлигида ишлаб чиқилган экспериментал миллий тарбия модели алоҳида амалий қизиқиш уйғотади. Чунки ушбу модель бир томондан Ўзбекистоннинг миллий тарбия эҳтиёжларига жавоб беришни, иккинчи томондан эса замонавий халқаро таълим муҳити талабларига мос шахсни шакллантиришни кўзда тутади. Шу боис Полиглот мактабида шаклланаётган экспериментал миллий тарбия моделининг концептуал асослари, таркибий элементлари, педагогик механизмлари ва ривожланиш истиқболларини илмий-амалий нуқтаи назардан катта қизиқиш уйғотади.

Миллий тарбияни фақат миллий урф-одатларни ўргатиш, миллий байрамларни нишонлаш ёки тарихий шахслар ҳақида маълумот бериш билан чеклаш методологик жиҳатдан тор ёндашув бўлади. Миллий тарбиянинг асосий мақсади шахснинг миллий ўзлигини англаши, миллий ва умуминсоний қадриятларни ўзлаштириши ҳамда уларни замонавий ижтимоий ҳаётда ижодий давом эттириш қобилиятини шакллантиришдан иборат. Бунда миллийлик ва замонавийлик бир-бирига муқобил категориялар эмас. Аксинча, миллий ўзлик замонавий дунёда шахснинг маънавий идентификацияси ва ижтимоий позициясини мустаҳкамлайди. Шу маънода Полиглот мактабининг концептуал позициясини «миллийликдан глобалликка» ёки «глобалликдан миллийликка» эмас, балки **миллийлик ва глобаллик синтези** сифатида талқин қилиш мумкин.

Бу ёндашувни глокал педагогика тушунчаси билан ифодалаш мақсадга мувофиқ. Глокал ёндашув глобал илмий-педагогик тажрибани механик кўчириш эмас, балки унинг самарали элементларини миллий маданий, ижтимоий ва педагогик муҳитга мослаштиришни назарда тутади.

Полиглот моделида мазкур тамойил, хусусан, миллий қадриятлар, ўзбекона одоб-ахлоқ, меҳнатсеварлик, каттага ҳурмат, кичикка иззат, Ватанга дахлдорлик каби сифатларни академик билим, хорижий тиллар, рақамли технологиялар, танқидий фикрлаш, лидерлик ва халқаро университетларга тайёргарлик билан бир тизимда қарашда намоён бўлади.

Миллий тарбия соҳасидаги энг муҳим муаммолардан бири — ўқувчи тўғри хулқ-атвор ҳақидаги билимга эга бўлиши билан реал вазиятда шу хулқни намоён қилиши ўртасидаги тафовутдир. Масалан, ўқувчи «тозалик керак», «катталарни ҳурмат қилиш лозим», «навбатга риоя қилиш зарур», «Ватанни севиш керак» деган фикрларни айтиши мумкин. Аммо бу тушунчалар кундалик хатти-ҳаракатда намоён бўлмаса, тарбия натижаси тўлиқ шаклланган деб бўлмайди.

Шу сабабли Полиглот моделида тарбиянинг ички мантиғини қуйидаги занжир асосида қуриш кўзда тутилади: Билим → Кўникма → Қадрият → Амал. Билим — инсон нимани тўғри деб билишини белгилайди. Кўникма — шу билим асосида ҳаракат қилиш қобилиятини шакллантиради. Қадрият — мазкур ҳаракатнинг шахсий эътиқод ва ички позицияга айланишини таъминлайди. Амал эса тарбиянинг ташқи, кузатиш мумкин бўлган натижасидир. Демак, тарбия натижасини «ўқувчи нимани билади?» деган савол билан бирга «у нимани қилади?» деган савол орқали ҳам баҳолаш зарур.

Бу ерда Полиглот мактабининг «чиройли хулқ» концепцияси муҳим методологик аҳамият касб этади. Чиройли хулқ ташқи одоб қоидаларининг механик йиғиндиси эмас, балки шахсий масъулият, ўзини бошқариш, бошқаларга ҳурмат, ҳалоллик ва жамоа манфаатини ҳисобга олиш каби қадриятларнинг реал хулқ-атвордаги ифодасидир.

Полиглот моделида тарбияни фақат «тарбия соати»га жойлаштиришдан кўра, бутун мактаб муҳитини тарбияловчи муҳитга айлантириш принципи муҳимдир. Бу нуқта Япония таълим тажрибаси билан ҳамоҳангдир. Япония мактабларида ахлоқий таълим, синф ва мактаб ҳаётини ташкил этиш, ўқувчиларнинг умумий фаолиятда иштироки, тозалик ва жамоавий масъулият каби амалиётлар ўқувчини реал ижтимоий вазиятларда тарбиялашга хизмат қилади [5; 6]. Япон тажрибасининг Полиглот учун аҳамияти уни кўчиришда эмас, балки унинг ортидаги педагогик принципни англашдадир: **муҳитнинг ўзи тарбия воситаси бўлиши керак.**

Шу нуқтаи назардан Полиглот мактабида синф хонаси, коридор, ошхона, кутубхона, спорт майдони, мактаб ҳовлиси, рақамли платформалар ва ҳатто навбат жараёни ҳам тарбиявий муҳитнинг таркибий қисми сифатида қаралиши мумкин. Масалан, тозалик ҳақида маъруза ўқиш билан бирга ўқувчининг мактаб муҳитини асрашда шахсий иштирокини таъминлаш; ҳурмат ҳақида тушунтириш билан бирга мулоқот маданиятини кундалик амалиётга айлантириш; масъулият ҳақида гапириш билан бирга ўқувчига аниқ вазифа ва жавобгарлик бериш — тарбиянинг амалий моделини кучайтиради. Бундай ёндашувда тарбия «тадбир»дан «ҳаёт тарзи»га айланади.

Полиглот моделида битирувчи образи фақат академик натижа билан белгиланмайди. Яъни, университетга кириш — таълим жараёнининг муҳим натижаси, аммо тарбия нуқтаи назаридан якуний мақсад эмас. Полиглот ўқувчисининг педагогик профилида қуйидаги сифатлар уйғунлашиши кўзда тутилган:

— чуқур академик билим;
— мустақил ва танқидий фикрлаш;
— хорижий тиллар ва маданиятлараро коммуникация;
— рақамли ва сунъий интеллект саводхонлиги;

— ўзини ўзи бошқариш ва вақтни бошқариш;
— мулоқот ва ўз фикрини маданий ифодалаш;
— жамоада ишлаш ва лидерлик;
— ҳалоллик ва шахсий масъулият;
— миллий ўзлик ва миллий ғурур;
— умуминсоний қадриятларга ҳурмат;
— ижтимоий ташаббускорлик;
— Ватанга фойдали бўлишга тайёрлик.

Бу профилни шартли равишда «TOP-100 университетга олиб кирувчи характер» концепцияси билан ифодалаш мумкин. Яъни университетга кириш учун зарур билим ва кўникмалар билан бирга, шу билимни юқори натижага айлантира оладиган характер ҳам шаклланиши керак.

Полиглот моделида халқаро тажрибалардан фойдаланишда эклектик ёндашувдан қочишга алоҳида эътибор қаратилади. Яъни, ҳар бир қўлланиладиган педагогик технология мактабнинг миллий мақсадига хизмат қилиши керак. Масалан, Япониянинг Tokkatsu амалиёти жамоавий масъулият ва кундалик фаолият орқали ижтимоий кўникмаларни ривожлантириш имконини берса, CASEL ёндашуви ўзини англаш, ўзини бошқариш, ижтимоий англаш, муносабатларни бошқариш ва масъулиятли қарор қабул қилиш каби ижтимоий-эмоционал компетенцияларни тизимлаштиради [7]. OECD ёндашувлари эса ўқувчининг агентлиги, мустақил ҳаракат қилиши, қадриятлар ва компетенцияларини келажак контекстида ривожлантиришга эътибор қаратади [1]. Полиглот модели учун ушбу ёндашувларнинг конвергент нуқтаси — ўқувчини пассив «таълим олувчи» эмас, балки ўз ривожланишининг субъекти сифатида кўришдир. Бунда албатта, тарбия мазмуни миллий тарих, маданий мерос, она тили, миллий ахлоқ, оилавий қадриятлар, маҳалла маданияти, меҳнат анъаналари, Ватанга дахлдорлик ва миллий масъулият тушунчалари билан бойитилади.

Полиглот моделининг кейинги муҳим вазифаси — тарбия натижаларини ўлчашнинг илмий асосланган тизимини ишлаб чиқишдир. Тарбия соҳасида «кўп тадбир ўтказилди» деган кўрсаткич тарбиявий самарадорликни англатмайди. Тадбирлар сони — жараён кўрсаткичи. Тарбиянинг ҳақиқий натижаси эса ўқувчининг хулқ-атвори, муносабати, одати ва ижтимоий фаолиятида намоён бўлади. Шу боис Полиглот мактабида тарбиявий натижаларни бир нечта даражада баҳоланади:

1. Билим даражаси — ўқувчи қадрият ва қоидаларни биладими?
2. Кўникма даражаси — у уларни вазиятда қўллай оладими?
3. Қадрият даражаси — мазкур норма унинг шахсий позициясига айланганми?

4. Хулқ-атвор даражаси — у реал ҳаётда ушбу қадриятга мувофиқ ҳаракат қиладими?

5. Ижтимоий натижа даражаси — унинг хатти-ҳаракатлари бошқалар ва мактаб муҳитига ижобий таъсир кўрсатадими?

Бундай баҳолаш тизими ўқувчини «яхши» ёки «ёмон» деб тамғалаш учун эмас, балки унинг шахсий ривожланиш динамикасини аниқлаш учун хизмат қилиши керак.

Тарбияни фақат мактабнинг вазифаси сифатида талқин қилиш самарасиз ёндашувдир. Боланинг қадриятлари оила, мактаб, тенгдошлар муҳити, маҳалла, оммавий ахборот воситалари ва рақамли макон таъсирида шаклланади. Шу сабабли Полиглот моделида **«мактаб — оила — жамоатчилик»** ҳамкорлиги тарбиянинг институционал асосларидан бири бўлиши режалаштирилган. Бунда ота-она фақат мактаб натижаларини кузатувчи эмас, тарбия жараёнининг ҳамкорига айланади. Бунинг учун ота-оналар билан мулоқотни йиғилишлар билан чекламасдан, боланинг характерини ривожлантириш, рақамли маданият, мустақиллик, масъулият, мулоқот ва касбий йўналиш бўйича ҳамкорлик механизмларини жорий этилади.

Полиглот мактабининг миллий тарбия модели шаклланаётган замонавий мактаб концепцияси учун муҳим бир методологик ғояни илгари суради: миллий тарбияни таълимдан алоҳида жараён сифатида эмас, балки бутун мактаб ҳаётини ташкил этиш тамойили сифатида қараш зарур. Ушбу модель миллий ва глобал компонентларни қарама-қарши қўймайди. Аксинча, миллий ўзликни глобал компетенциялар билан уйғунлаштиришга интилади. Унда ўзбек миллий тарбиясининг маънавий-ахлоқий мазмуни халқаро таълимнинг академик, коммуникатив, ижтимоий-эмоционал ва рақамли компетенциялари билан бир тизимда қаралади.

Полиглот модели учун энг муҳим натижа — фақат яхши ўқийдиган ёки нуфузли университетга кирадиган ёшни эмас, балки билимли, мустақил фикрлайдиган, миллий ўзлигини англайдиган, глобал дунёда эркин ҳаракат қиладиган, ахлоқий масъулиятли ва Ватанига фойдали бўлишни шахсий ҳаёт мақсадига айлантира олган инсонни шакллантиришдир. Шу маънода Полиглот миллий тарбия модели муайян мактабнинг ички тарбиявий тизими сифатидагина эмас, балки Ўзбекистонда замонавий миллий мактаб моделини шакллантириш бўйича тажриба майдони сифатида ҳам илмий-амалий аҳамият касб этади.

Фойдаланилган адабиётлар

1. OECD. OECD Learning Compass 2030: A Series of Concept Notes. Paris: OECD, 2019–2021.
2. Ўзбекистон Республикаси. «Таълим тўғрисида»ги Ўзбекистон Республикаси Қонуни. ЎРҚ–637-сон, 2020 йил 23 сентябрь.

3. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамаси. «Узлуксиз маънавий тарбия концепциясини тасдиқлаш ва уни амалга ошириш чора-тадбирлари тўғрисида»ги 1059-сон қарор, 2019 йил 31 декабрь.
4. Ўзбекистон Республикаси Президенти. «Янги Ўзбекистоннинг 2022–2026 йилларга мўлжалланган тараққиёт стратегияси тўғрисида»ги ПФ–60-сон Фармон, 2022 йил 28 январь.
5. Ministry of Education, Culture, Sports, Science and Technology (MEXT), Japan. Courses of Study / Moral Education in Japanese Schools. Tokyo: MEXT.
6. Cave, P. Primary School in Japan: Self, Individuality and Learning in Elementary Education. London: Routledge, 2007.
7. CASEL. CASEL’s SEL Framework: What Are the Core Competence Areas and Where Are They Promoted? Chicago: Collaborative for Academic, Social, and Emotional Learning.
8. UNESCO. Reimagining Our Futures Together: A New Social Contract for Education. Paris: UNESCO, 2021.
9. World Economic Forum. The Future of Jobs Report 2023. Geneva: World Economic Forum, 2023.
10. Полиглот халқаро мактабининг концептуал материаллари. 2026 йил.

QORI NIYOZIY NOMIDAGI TARBIYA PEDAGOGIKASI MILLIY INSTITUTI
TPMI
1929

PEDAGOGIKALIQ SÓYLESIW - NÁTIYJELI BILIMLENDIRIWDIŃ ÁHMIYETLI FAKTORI SIPATINDA

Abdieva Gulnar
Ájiniyaz atındaǵı NMPI "Pedagogika psixologiya hám dóretiwshilik tálim" fakulteti 3-kurs talabası
https://doi.org/10.5281/zenodo.23175891

Annotatsiya*; Mazkur maqolada pedagogik muloqotning ta’lim jarayonidagi o‘rni, mazmuni va pedagogik-psixologik xususiyatlari yoritilgan. Pedagogik muloqot o‘qituvchi va o‘quvchi o‘rtasidagi samarali hamkorlikni ta’minlovchi, ta’lim oluvchilarning bilim olishga bo‘lgan qiziqishi va motivatsiyasini oshiruvchi muhim omil sifatida tahlil qilingan.*
Tayanch tushunchalar: *pedagogik muloqot, kommunikativ kompetensiya, o‘qituvchi, o‘quvchi, ta’lim samaradorligi, pedagogik takt, nutq madaniyati, empatiya, qayta aloqa, hamkorlik, ta’lim motivatsiyasi.*
Аннотация*; В статье рассматриваются роль, содержание и психолого-педагогические особенности педагогического общения в образовательном процессе. Педагогическое общение анализируется как важнейший фактор эффективного взаимодействия между учителем и учащимися, повышения их учебной мотивации и познавательной активности.*
Ключевые слова: *педагогическое общение, коммуникативная компетентность, учитель, учащийся, эффективность образования, педагогический такт, культура речи, эмпатия, обратная связь, сотрудничество, учебная мотивация.*
Annotation*; This article examines the role, content, and psychological and pedagogical characteristics of communication in the educational process. Pedagogical communication is analyzed as an important factor in establishing effective interaction between teachers and students, increasing learning motivation, and enhancing students’ cognitive activity.*
Keywords: *pedagogical communication, communicative competence, teacher, student, educational effectiveness, pedagogical tact, speech culture, empathy, feedback, cooperation, learning motivation.*

Bilimlendiriw procesi oqıtıwshı hám oqıwshı arasındaǵı turaqlı birge islesiw hám sóylesiw tiykarında ámelge asırıladı. Oqıtıwshı óz bilim hám tájiriybesin oqıwshılarǵa jetkeriw menen birge, olardıń pikirin tıńlawı, sorawlarına juwap beriwi, individual ózgesheliklerin esapqa alıwı hám bilim alıwǵa bolǵan motivaciyasın qollap-quwatlawı zárúr. Usı kózqarastan, pedagogikalıq pikirlesiw bilim beriw procesiniń ajıralmas hám áhmiyetli quram bólegi esaplanadı.

Pedagogikalıq baylanıstıń sapası tek sabaqtıń shólkemlestiriwshilik táreplerine emes, al oqıwshılardıń psixologiyalıq jaǵdayı, bilim beriwge múnásibeti hám muǵallim menen birge islesiw tilegine de tásir kórsetedi. Oqıtıwshı oqıwshını húrmet etetuǵın, onıń pikirin tıńlaytuǵın hám qátelerin rawajlanıw imkaniyatı sıpatında kóretuǵın ortalıq jaratqanında bilimlendiriw procesi jáne de nátiyjeli ótedi. Zamanagóy bilim beriwde oqiwshi bilim beriw procesiniń passiv obyekti emes, al aktiv subyekti sipatında qaralmaqta. Bul bolsa oqıtıwshıdan qarım-qatnasqa

tiykarlanǵan, birge islesiwge baǵdarlanǵan hám shaxsqa húrmet principlerine tiykarlanǵan pedagogikalıq qatnastı talap etedi.

Pedagogikalıq baylanıs - bul oqıtıwshı hám bilim alıwshılar ortasında tálim-tárbiya procesinde júzege keletuǵın maqsetli, sistemalı hám kásiplik kommunikativlik process. Onıń tiykarǵı maqseti tek ǵana informaciya almasıw emes, al oqıwshınıń jeke rawajlanıwı, bilim alıwǵa bolǵan qızıǵıwshılıǵı hám sociallıq kompetenciyaların qáliplestiriwden ibarat.

Pedagogikalıq qarım-qatnas eki tárepleme xarakterge iye. Onda muǵallim informaciya beriwshi hám bagdarlawshı boliw menen birge, oqıwshıdan kelip atırgan soraw, pikir, múnásibet hám sezimlik jaǵdaydı da qabıl etedi. Sonıń ushın nátiyjeli baylanıs tek ǵana sóylewden ibarat emes, al tıńlaw, túsiniw, baqlaw hám óz waqtında juwap beriwdi de óz ishine aladı.

Pedagogikalıq baylanıstıń nátiyjeliligi kóp tárepleme oqıtıwshınıń kommunikativ kompetenciyasına baylanıslı. Kommunikativ kompetenciya pedagogtıń hár túrli jaǵdaylarda oqıwshılar menen duris, anıq, mádeniyatlı hám maqsetke muwapıq qatnasta bola alıw qábiletin ańlatadı. Oqıtıwshı óz pikirin ápiwayı hám túsinikli bayan etiwi, oqıwshınıń jas hám individual ózgesheliklerine sáykes sóylewden paydalanıwı, sorawlardı durıs qáliplestiriwi hám oqıwshınıń juwapların diqqat penen tıńlawı kerek. Solay etip, zamanagóy pedagog ushın pán boyınsha bilimge iye bolıwdıń ózi jeterli emes. Ol óz bilimlerin oqıwshıǵa qalay jetkeriwdi de biliwi kerek. Oqıwshınıń bilim alıwǵa bolǵan motivaciyası onıń oqıtıwshı menen qanday múnásibette bolıwına da baylanıslı. Oqıtıwshı tárepinen bildirilgen húrmet, qollap-quwatlaw hám unamlı múnásibet oqıwshıda óz kúshine isenimdi arttırıwı múmkin. Kerisinshe, oqıwshını turaqlı sınǵa alıw, onıń pikirin mensinbew yamasa qátesin basqalar aldında keskin atap ótiw bilim alıwǵa bolǵan qızıǵıwshılıqtıń tómenlewine alıp keliwi múmkin. Sol sebepli pedagog oqıwshınıń qátesine jazalaw kózqarasınan emes, al úyreniw hám rawajlanıw imkaniyatı sıpatında qatnas jasaǵanı maqsetke muwapıq. Máselen, "Bul juwap naduris" dewdiń ornına "Pikirińiz qızıq, kelin máseleni basqa tárepten de kórip shigayıq" sıyaqlı qatnas oqiwshını aktiv pikirlewge iytermeleydi. Pedagogikalıq takt muǵallimniń túrli pedagogikalıq jaǵdaylarda ózin duris tutiwi, oqıwshınıń shaxsın húrmet etiwi hám zárúr jaǵdayda jaǵdayga sáykes pedagogikalıq tásir kórsete alıw qábileti. Pedagogikalıq takt muǵallimniń sóz tańlawında, kritikalıq usılında, bahalawında, oqıwshınıń qátesine múnásibetinde hám tartıslı jaǵdaylardı sheshiwinde kórinedi. Pedagogikalıq taktqa iye muǵallim oqıwshınıń qátesin oniń shaxsı menen baylanıstırmaydı. Ol "sen uqıpsızsan" sıyaqlı shaxsqa qaratılǵan bahalardan góre, "bul tapsırmada ayırım táreplerdi qayta kórip shıǵıw kerek" sıyaqlı konstruktiv pikir bildiredi. Bunday qatnas oqıwshınıń qádir-qımbatın saqlap qalıw menen birge, onıń qátesin ańlaw hám onı dúzetiwge imkaniyat beredi.

Juwmaqlap aytqanda, pedagogikalıq pikirlesiw nátiyjeli bilim beriwdiń áhmiyetli shártlerinen biri bolip, oniń sapası muǵallim hám oqiwshi ortasındaǵı qatnasıqlarga, bilim beriw motivaciyasına hám oqiw procesiniń nátiyjeliligine tikkeley tásir kórsetedi.

Nátiyjeli pedagogikalıq qarım-qatnas oqıtıwshınıń tek bilim beriwshi emes, al tıńlawshı, másláhachi, baǵdarlawshı hám birge islesiwshi sipatındaǵı iskerligin talap etedi. Oqıtıwshınıń kommunikativ kompetenciyası, pedagogikalıq taktikası, empatiyası, sóylew mádeniyatı hám aktiv tıńlaw qábileti bilimlendiriw ortalıǵında óz ara isenimdi qáliplestiriwde úlken áhmiyetke iye.

Zamanagóy bilimlendiriw sharayatında demokratiyalıq hám shaxsqa baǵdarlanǵan sóylesiw usılınan paydalanıw, oqıwshılardıń pikirin húrmet etiw hám olardı bilimlendiriw procesiniń belsendi qatnasıwshısına aylandırıw áhmietli. Sonday-aq, sanlı texnologiyalardıń rawajlanıwı pedagogikalıq baylanıstıń jańa túrlerin júzege keltirip atırǵanlıǵı sebepli oqıtıwshılardıń sanlı kommunikativ kompetenciyaların rawajlandırıw da áhmietli wazıypalardan biri esaplanadı.

Demek, pedagogikalıq qarım-qatnastı duris shólkemlestiriw oqıwshılardıń bilim alıwǵa bolgan qızıǵıwshılıǵın arttırıw, ǵárezsiz pikirlewdi rawajlandırıw, unamlı psixologiyalıq ortalıq jaratıw hám bilim beriw nátiyjeliligin arttırıwǵa xizmet etedi. Sol sebepli pedagogikalıq sóylesiw zamanagóy oqıtıwshınıń kásiplik kompetenciyasınıń áhmiyetli quram bólegi sıpatında qaralıwı lazım.

Paydalanılǵan ádebiyatlar

1. O‘zbekiston Respublikasi. “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonun. O‘RQ-637-son, 23.09.2020.
2. Azizxo‘jayeva N.N. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. — Toshkent: O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi Adabiyot jamg‘armasi nashriyoti, 2006.
3. Mavlonova R., To‘rayeva O., Holiqberdiyev K. Pedagogika. — Toshkent: O‘qituvchi, 2001.
4. Hasanboyev J., To‘raqulov X.A., Alqarov I.Sh., Usmanov N.O‘. Pedagogika. — Toshkent: Fan va texnologiya, 2011.
5. Muslimov N.A., Usmonboyeva M.H., Sayfurov D.M., To‘rayev A.B. Pedagogik kompetentlik va kreativlik asoslari. — Toshkent, 2015.
6. G‘oziyev E.G‘. Umumiy psixologiya. — Toshkent: O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti, 2010.
7. Леонтьев А.А. Педагогическое общение. — Москва: Знание, 1979.
8. Кан-Калик В.А. Учителю о педагогическом общении. — Москва: Просвещение, 1987.

MILLIY TARBIYA JARAYONLARINI TASHKIL ETISHNING INSTITUTSIONAL MODELLARI ASOSIDA BOSHLANG‘ICH SINF O‘QUVCHILARIDA MA’NAVIY FAZILATLARNI SHAKLLANTIRISH

Abdullayeva Madinabonu Zokirjon qizi
Qori Niyoziy nomidagi Tarbiya pedagogikasi milliy instituti,
1-kurs tayanch doktoranti
https://doi.org/10.5281/zenodo.23175924

Annotatsiya

Ushbu maqolada milliy tarbiya jarayonlarini institutsional modellar asosida tashkil etish orqali boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida ma’naviy fazilatlarni shakllantirishning nazariy asoslari, pedagogik imkoniyatlari va boshqaruv mexanizmlari yoritilgan. Oila, maktab va mahalla hamkorligiga asoslangan tarbiyaviy faoliyatning o‘quvchilar ma’naviy kamolotidagi o‘rni tahlil qilingan. Shuningdek, faoliyatli yondashuv, jamoaviy ish, loyihaviy faoliyat, muammoli vaziyatlar va ijtimoiy foydali tadbirlar orqali o‘quvchilarda milliy qadriyatlarga hurmat, halollik, mehr-oqibat, bag‘rikenglik, vatanparvarlik va ijtimoiy mas’uliyat kabi fazilatlarni rivojlantirish masalalari ko‘rib chiqilgan.

Kalit so‘zlar: *milliy tarbiya, institutsional model, boshlang‘ich ta’lim, ma’naviy fazilatlar, oila, maktab, mahalla, faoliyatli yondashuv, tarbiyaviy hamkorlik, boshqaruv mexanizmlari.*

Аннотация

В статье рассматриваются теоретические основы, педагогические возможности и механизмы управления процессом формирования духовно-нравственных качеств учащихся начальных классов на основе институциональных моделей организации национального воспитания. Анализируется роль воспитательной деятельности, основанной на сотрудничестве семьи, школы и махалли, в духовном развитии учащихся. Также рассматриваются возможности развития уважения к национальным ценностям, честности, доброты, толерантности, патриотизма и социальной ответственности посредством деятельностного подхода, коллективной и проектной работы, проблемных ситуаций и общественно полезных мероприятий.

Ключевые слова: *национальное воспитание, институциональная модель, начальное образование, духовно-нравственные качества, семья, школа, махалля, деятельностный подход, воспитательное сотрудничество, механизмы управления.*

Abstract

This article examines the theoretical foundations, pedagogical opportunities, and management mechanisms involved in developing primary school students’ moral qualities through institutional models of national upbringing. It analyzes the role of educational activities based on cooperation among the family, school, and mahalla in students’ moral development. The article also explores how respect for national values, honesty, kindness, tolerance, patriotism, and social responsibility can be fostered through activity-based learning, collaborative and project-based work, problem-solving situations, and socially useful activities.

Keywords: *national upbringing, institutional model, primary education, moral qualities, family, school, mahalla, activity-based approach, educational cooperation, management mechanisms.*

Kirish

Bugungi globallashuv sharoitida yosh avlodni har tomonlama barkamol, ma’naviy yetuk, mustaqil fikrlaydigan va milliy qadriyatlarga sodiq shaxs sifatida

tarbiyalash ta’lim tizimining ustuvor vazifalaridan biri hisoblanadi. Ayniqsa, boshlang‘ich ta’lim bosqichida bolaning dunyoqarashi, axloqiy qarashlari, ijtimoiy munosabatlari va xulq-atvor me’yorlari shakllana boshlaydi. Shu sababli mazkur davrda tarbiyaviy jarayonlarni ilmiy asoslangan, izchil va o‘zaro muvofiqlashtirilgan holda tashkil etish muhim ahamiyat kasb etadi.

Milliy tarbiya xalqning tarixiy tajribasi, urf-odatlari, an’analari, ma’naviy merosi va umuminsoniy qadriyatlariga asoslangan holda yosh avlodda ijobiy axloqiy sifatlarni shakllantirishga qaratilgan uzluksiz jarayondir. Uning samaradorligi faqat ta’lim muassasasidagi mashg‘ulotlarga emas, balki bolaning kundalik hayotida ishtirok etadigan ijtimoiy institutlar faoliyatiga ham bog‘liq. Oila, maktab va mahalla ushbu jarayonning asosiy institutlari sifatida yagona tarbiyaviy muhitni shakllantiradi.

Milliy tarbiya jarayonlarini institutsional modellar asosida tashkil etish mazkur institutlarning vazifalari, o‘zaro aloqalari, boshqaruv mexanizmlari va hamkorlik shakllarini tizimli ravishda belgilash imkonini beradi. Bunday yondashuv tarbiyaviy ta’sirning uzluksizligini ta’minlash, o‘quvchining individual xususiyatlarini hisobga olish va ma’naviy fazilatlarni amaliy faoliyat orqali rivojlantirishga xizmat qiladi.

Milliy tarbiya jarayonlarini institutsional tashkil etishning nazariy asoslari

Institutsional yondashuv tarbiya jarayonida ishtirok etuvchi ijtimoiy institutlarning maqsadlari, vazifalari va o‘zaro hamkorligini yagona tizim doirasida tashkil etishni nazarda tutadi. Boshlang‘ich ta’limda bu yondashuv, avvalo, oila, maktab va mahalla o‘rtasidagi tarbiyaviy munosabatlarni izchil yo‘lga qo‘yishni talab etadi.

Oila bolaning dastlabki ijtimoiylashuv muhiti bo‘lib, unda mehr-oqibat, kattalarga hurmat, kichiklarga g‘amxo‘rlik, halollik va mas’uliyat kabi fazilatlarning dastlabki ko‘rinishlari shakllanadi. Maktab esa ushbu fazilatlarni ta’lim-tarbiya jarayonida maqsadli rivojlantirish, nazariy bilimlarni amaliy ko‘nikmalar bilan bog‘lash va jamoada yashash madaniyatini shakllantirishga ko‘maklashadi. Mahalla bolalarning ijtimoiy hayotda ishtirok etishi, milliy an’analar bilan tanishishi va jamoatchilik bilan muloqot qilishi uchun qo‘shimcha imkoniyat yaratadi.

Mazkur institutlarning hamkorligi tasodifiy tadbirlar bilan cheklanmasdan, aniq maqsad va vazifalarga asoslangan tizim sifatida tashkil etilishi lozim. Bunda tarbiyaviy ishlarning mazmuni, ishtirokchilarning mas’uliyati, faoliyat shakllari va kutiladigan natijalar oldindan belgilanishi muhimdir.

Milliy tarbiyaning nazariy asoslarini faoliyatli yondashuv bilan uyg‘unlashtirish o‘quvchining tarbiya jarayonidagi faol ishtirokini ta’minlaydi. O‘quvchi ma’naviy qadriyatlarni faqat tinglash yoki yodlash orqali emas, balki ularni kundalik munosabatlarida namoyon etish, jamoaviy vazifalarni bajarish va ijtimoiy faoliyatda qatnashish orqali o‘zlashtiradi.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida ma’naviy fazilatlarni shakllantirishning institutsional modellari

Milliy tarbiya jarayonlarini tashkil etishda institutsional model tarbiyaviy maqsadlar, ishtirokchilar, mazmun, metodlar, hamkorlik shakllari va natijalarni o‘zaro bog‘lovchi tizim sifatida namoyon bo‘ladi. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining yosh va individual xususiyatlarini hisobga olgan holda quyidagi institutsional modellarni ajratish mumkin.

1. Oila–maktab hamkorligi modeli

Ushbu modelda oilaning tarbiyaviy tajribasi maktabdagi pedagogik faoliyat bilan uyg‘unlashtiriladi. Ota-onalar bilan muntazam muloqot, oilaviy tarbiya mavzularidagi suhbatlar, birgalikdagi ijodiy loyihalar va tarbiyaviy tadbirlar orqali o‘quvchilarda hurmat, mehr-oqibat, halollik va mas’uliyatlilikni shakllantirish ko‘zda tutiladi. Ota-onalarning tarbiyaviy jarayondagi ishtiroki bolaning maktabda o‘zlashtirgan ijobiy xulq-atvor me’yorlarini oilada ham qo‘llashiga yordam beradi.

2. Maktab–mahalla hamkorligi modeli

Mazkur model maktabning tarbiyaviy faoliyatini mahallaning ijtimoiy va ma’naviy imkoniyatlari bilan bog‘lashga yo‘naltiriladi. Mahalla faollari, nuroniylar, madaniyat vakillari va boshqa jamoatchilik a’zolari ishtirokida uchrashuvlar, milliy bayramlar, xayriya tadbirlari va ijtimoiy foydali loyihalar tashkil etilishi mumkin. Bunday faoliyatlar bolalarda jamoaga daxldorlik hissi, milliy an’analarga hurmat va ijtimoiy mas’uliyatni rivojlantirishga xizmat qiladi.

3. Oila–maktab–mahalla integratsiyalashgan modeli

Bu modelda uchta asosiy ijtimoiy institutning faoliyati umumiy tarbiyaviy maqsad asosida muvofiqlashtiriladi. Tarbiyaviy tadbirlarni rejalashtirish, o‘quvchilar ehtiyojlarini o‘rganish, ota-onalar bilan maslahatlashish va ijtimoiy loyihalarni birgalikda amalga oshirish orqali yagona tarbiyaviy muhit yaratiladi. Modelning muhim jihati shundaki, o‘quvchi turli ijtimoiy muhitlarda bir-biriga zid bo‘lmagan, izchil axloqiy talab va qadriyatlar bilan tanishadi.

Institutsional modellarni amalga oshirishning pedagogik mexanizmlari

Institutsional modelning samarali ishlashi tarbiyaviy faoliyatni aniq pedagogik mexanizmlar asosida tashkil etishga bog‘liq. Bunda tarbiyaviy maqsadlar va o‘quvchilarning yosh xususiyatlari hisobga olinishi, faoliyat shakllari esa ularning mustaqil ishtiroki va ijtimoiy tajribasini rivojlantirishga yo‘naltirilishi zarur.

Birinchi mexanizm — faoliyatli yondashuvni qo‘llash. Ushbu yondashuvda o‘quvchi tarbiya jarayonining faol ishtirokchisi sifatida qatnashadi. Masalan, sinfda o‘zaro yordam va hamkorlik qoidalarini ishlab chiqish, navbatchilik vazifalarini adolatli taqsimlash, sinf tadbirlarini tashkil etishda mas’uliyatni o‘z zimmasiga olish orqali bolalarda intizom, adolat va javobgarlik fazilatlari rivojlantiriladi.

Ikkinchi mexanizm — jamoaviy va loyihaviy faoliyatni tashkil etish. O‘quvchilarni kichik guruhlarga ajratish va umumiy maqsadga yo‘naltirilgan

vazifalarni bajarishga jalb etish ularning o‘zaro muloqot ko‘nikmalarini rivojlantiradi. “Yaxshilik ulashamiz”, “Mening mahallam”, “Mehribon sinf” kabi loyihalar orqali o‘quvchilar boshqalarning ehtiyojlariga e’tibor berish, fikrlarni tinglash, vazifalarni taqsimlash va umumiy natija uchun mas’uliyatni his qilishni o‘rganadilar.

Uchinchi mexanizm — muammoli vaziyatlar asosida tarbiyalash. O‘quvchilarga kundalik hayotda uchrashi mumkin bo‘lgan axloqiy vaziyatlarni taklif etish orqali ularda mustaqil fikrlash va qaror qabul qilish ko‘nikmalarini rivojlantirish mumkin. Masalan, sinfdagi bir o‘quvchi jamoaviy ishda ishtirok eta olmayotgan bo‘lsa, unga qanday yordam berish kerakligi yoki umumiy vazifani bajarishda barcha o‘quvchilarning fikri qanday inobatga olinishi muhokama qilinadi. Bunday mashg‘ulotlarda o‘quvchilar adolat, hurmat va mehr-oqibatni amaliy vaziyatlarda qo‘llashga o‘rganadilar.

To‘rtinchi mexanizm — ijtimoiy foydali faoliyatni yo‘lga qo‘yish. Maktab va mahalla hamkorligida tashkil etiladigan ekologik aksiyalar, kitobxonlik tadbirlari, keksalarga hurmat ko‘rsatish va jamoat joylarini obodonlashtirish kabi faoliyatlar o‘quvchilarning jamiyat hayotiga daxldorlik hissini mustahkamlaydi. Bunda bolalarning yoshi va imkoniyatlariga mos, xavfsiz hamda ixtiyoriy ishtirok shakllari tanlanishi lozim.

Beshinchi mexanizm — tarbiyaviy mazmunni fanlararo integratsiya qilish. Ona tili va o‘qish savodxonligi darslarida axloqiy mazmundagi hikoya va matnlarni tahlil qilish, matematika darslarida halollik va adolatga oid vaziyatli masalalardan foydalanish, tabiiy fanlarda tabiatga mas’uliyatli munosabatni muhokama qilish orqali milliy tarbiya maqsadlari o‘quv fanlari mazmuniga singdiriladi.

Milliy tarbiya jarayonlarini boshqarish va muvofiqlashtirish

Milliy tarbiya jarayonlarini institutsional modellar asosida tashkil etishda boshqaruv mexanizmlari muhim o‘rin tutadi. Boshqaruvning asosiy vazifasi tarbiyaviy faoliyatning maqsadga muvofiqligini ta’minlash, institutlar o‘rtasidagi hamkorlikni yo‘lga qo‘yish va erishilgan natijalarni tahlil qilishdan iborat.

Boshqaruv jarayoni bir nechta o‘zaro bog‘liq bosqichlarni qamrab oladi:

Diagnostik bosqich. O‘quvchilarning ma’naviy rivojlanish xususiyatlari, sinfdagi ijtimoiy munosabatlar va oilalarning tarbiyaviy imkoniyatlari o‘rganiladi. Bunda kuzatish, suhbat, ota-onalar bilan muloqot va o‘quvchilarning faoliyat natijalarini tahlil qilishdan foydalanish mumkin.

Rejalashtirish bosqichi. Tarbiyaviy maqsadlar belgilanib, maktab, oila va mahalla ishtirokida amalga oshiriladigan tadbirlar, muddatlar va mas’ul shaxslar aniqlanadi.

Tashkiliy-amaliy bosqich. Rejalashtirilgan jamoaviy ishlar, loyihalar, tarbiyaviy suhbatlar va ijtimoiy foydali tadbirlar amalga oshiriladi. O‘quvchilarning faol ishtiroki uchun teng imkoniyatlar yaratiladi.

Monitoring va tahlil bosqichi. Tarbiyaviy faoliyatning borishi va natijalari muntazam kuzatilib, o‘quvchilarning ijtimoiy xulq-atvori, hamkorlik ko‘nikmalari va tashabbuskorligidagi o‘zgarishlar tahlil qilinadi.

Tuzatish va takomillashtirish bosqichi. Monitoring natijalariga ko‘ra tarbiyaviy faoliyat mazmuni, metodlari va hamkorlik shakllariga tegishli o‘zgartirishlar kiritiladi.

Mazkur boshqaruv mexanizmlari tarbiyaviy ishlarning uzluksizligi va izchilligini ta’minlashga yordam beradi. Shu bilan birga, maktab va oilaning o‘zaro muloqotida o‘quvchining manfaatlari, shaxsiy qadr-qimmati va individual xususiyatlari ustuvor bo‘lishi lozim.

Tarbiyaviy faoliyat samaradorligini baholash mezonlari

Milliy tarbiya jarayonlarining samaradorligini aniqlashda o‘quvchilarning faqat nazariy bilimlarini emas, balki kundalik faoliyatida namoyon bo‘ladigan axloqiy fazilatlarini ham hisobga olish zarur. Baholash jarayonida quyidagi mezonlardan foydalanish mumkin:

Mezon	**Baholash ko‘rsatkichlari**
Ma’naviy-axloqiy ong	Milliy qadriyatlar va axloqiy me’yorlarni tushunishi, ularning ahamiyatini izohlashi.
Ijtimoiy munosabat	Tengdoshlariga hurmat bilan munosabatda bo‘lishi, bag‘rikengligi va hamkorlikka tayyorligi.
Faoliyatdagi mas’uliyat	Berilgan vazifalarni bajarishi, umumiy ishda ishtirok etishi va o‘z majburiyatlariga rioya qilishi.
Ijtimoiy tashabbuskorlik	Jamoaviy tadbirlarda tashabbus ko‘rsatishi, yordam berishga intilishi.
Milliy qadriyatlarga munosabat	Milliy urf-odatlar, an’analar va ma’naviy merosga qiziqishi va hurmat ko‘rsatishi.

Baholashda kuzatish, suhbat, o‘quvchilarning amaliy ishlari va ota-onalarning fikr-mulohazalaridan foydalanish mumkin. O‘quvchilarning rivojlanishini aniqlashda bir martalik natijalardan ko‘ra, vaqt davomida kuzatilgan o‘zgarishlarga e’tibor qaratish maqsadga muvofiq. Tarbiyaviy baholash bolalarni o‘zaro taqqoslash yoki jazolash vositasiga aylanmasligi, balki ularning individual rivojlanishini qo‘llab-quvvatlashi kerak.

Xulosa

Milliy tarbiya jarayonlarini institutsional modellar asosida tashkil etish boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida ma’naviy fazilatlarni izchil va tizimli shakllantirish uchun muhim pedagogik imkoniyatlarni yaratadi. Oila, maktab va mahalla hamkorligiga asoslangan integratsiyalashgan model tarbiyaviy ta’sirning uzluksizligini ta’minlash, milliy va umuminsoniy qadriyatlarni o‘quvchilarning kundalik hayotiga singdirish hamda ijtimoiy munosabatlar madaniyatini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Tarbiyaviy faoliyatni samarali tashkil etish uchun institutsional hamkorlikni aniq maqsadlar asosida muvofiqlashtirish, o‘quvchilarni jamoaviy va loyihaviy ishlarga jalb etish, muammoli vaziyatlardan foydalanish va ijtimoiy foydali faoliyatni rivojlantirish zarur. Bunda o‘quvchining faol subyekt sifatidagi ishtiroki, individual xususiyatlarini hisobga olish va o‘zaro hurmatga asoslangan muhitni shakllantirish alohida ahamiyat kasb etadi.

Shunday qilib, milliy tarbiya jarayonlarini institutsional modellar asosida tashkil etishning pedagogik samaradorligi oila, maktab va mahalla o‘rtasidagi hamkorlikning izchilligi, tarbiyaviy faoliyatning amaliy yo‘naltirilganligi hamda natijalarni muntazam tahlil qilish bilan chambarchas bog‘liq. Mazkur yondashuvni boshlang‘ich ta’lim amaliyotiga tatbiq etish o‘quvchilarda halollik, adolatparvarlik, mehr-oqibat, bag‘rikenglik, vatanparvarlik va ijtimoiy mas’uliyat kabi ma’naviy fazilatlarni rivojlantirishga ko‘maklashishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni. – Toshkent, 2020.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Ta’lim-tarbiya tizimini yanada takomillashtirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida"gi qarorlari va farmonlari. – Toshkent.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 13-oktabrdagi PQ–4860-son qarori “Alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalarga ta’lim-tarbiya berish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”.
4. Milliy tarbiya konsepsiyasi. – Toshkent: Respublika Ma’naviyat va ma’rifat markazi, 2020.
5. Musurmonova O. Ma’naviy qadriyatlar va yoshlar tarbiyasi. – Toshkent: O‘qituvchi, 2019.
6. Ishmuhamedov R., Abduqodirov A. Ta’limda innovatsion pedagogik texnologiyalar. – Toshkent: Iste’dod, 2021.

БЎЛАЖАК ОФИЦЕРЛАРДА ЛИДЕРЛИК КОМПЕТЕНЦИЯЛАРИНИ ШАКЛЛАНТИРИШНИНГ ПСИХОЛОГИК-ПЕДАГОГИК ХУСУСИЯТЛАРИ

Абдураҳимова Дилфузахон Алиевна
Ўзбекистон Республикаси Ҳарбий хавфсизлик ва мудофаа университети профессори,п.ф.д.(DSc), профессор

Аннотация

Мазкур мақолада бўлажак офицерларда лидерлик компетенцияларини шакллантиришнинг психологик-педагогик хусусиятлари илмий-назарий жиҳатдан таҳлил қилинган. Замонавий ҳарбий таълим тизимида лидерлик компетенцияларини ривожлантиришнинг аҳамияти, унинг психологик ва педагогик омиллари ёритилган. Шунингдек, бўлажак офицерларда эмоционал барқарорлик, стрессга чидамлилик, мустақил қарор қабул қилиш, коммуникатив ва бошқарув кўникмаларини ривожлантиришнинг самарали усуллари таҳлил этилган. Мақолада компетентликка асосланган ёндашув, шахсга йўналтирилган таълим, интерактив методлар, моделлаштириш ва психологик тренинглар орқали лидерлик компетенцияларини шакллантириш механизмлари асослаб берилган.

Калит сўзлар

Бўлажак офицер, лидерлик компетенцияси, ҳарбий педагогика, ҳарбий психология, коммуникатив компетентлик, бошқарув кўникмаси, стрессга чидамлилик, интерактив таълим, психологик тайёргарлик, компетентлик ёндашуви.

Аннотация

В данной статье с научно-теоретической точки зрения проанализированы психолого-педагогические особенности формирования лидерских компетенций у будущих офицеров. Освещены значение развития лидерских компетенций в современной системе военного образования, а также психологические и педагогические факторы данного процесса. Кроме того, рассмотрены эффективные методы развития эмоциональной устойчивости, стрессоустойчивости, самостоятельного принятия решений, коммуникативных и управленческих навыков у будущих офицеров. В статье обоснованы механизмы формирования лидерских компетенций посредством компетентностного подхода, личностно-ориентированного обучения, интерактивных методов, моделирования и психологических тренингов.

Ключевые слова

Будущий офицер, лидерская компетенция, военная педагогика, военная психология, коммуникативная компетентность, управленческие навыки, стрессоустойчивость, интерактивное обучение, психологическая подготовка, компетентностный подход.

Abstract

This article scientifically and theoretically analyzes the psychological and pedagogical features of forming leadership competencies in future officers. The importance of developing leadership competencies in the modern military education system, as well as the psychological and pedagogical factors of this process, are highlighted. The study also examines effective methods for developing emotional stability, stress resistance, independent decision-making, communicative abilities, and managerial skills in future officers. The article substantiates the mechanisms of leadership competency formation through competence-based approaches, learner-centered education, interactive teaching methods, simulation, and psychological training.

Keywords

Future officer, leadership competency, military pedagogy, military psychology, communicative competence, managerial skills, stress resistance, interactive learning, psychological training, competence-based approach.

Жаҳонда кечаётган глобаллашув жараёнлари, халқаро хавфсизликка нисбатан юзага келаётган таҳдидлар ва ҳарбий соҳадаги модернизация жараёнлари замонавий офицер кадрларга бўлган талабларни тубдан ўзгартирмоқда. Бугунги кунда офицер нафақат юқори касбий билим ва амалий тайёргарликка, балки кучли лидерлик салоҳиятига, психологик барқарорликка, мустақил қарор қабул қилиш қобилиятига ва жамоани бошқариш маҳоратига эга бўлиши талаб этилмоқда. Шу нуқтаи назардан, олий ҳарбий таълим муассасаларида бўлажак офицерларда лидерлик компетенцияларини шакллантириш долзарб илмий-педагогик муаммолардан бири ҳисобланади.

Ҳарбий раҳбарлик фаолияти ўзига хос мураккаб психологик хусусиятларга эга. Офицер фақат буйруқ берувчи эмас, балки тарбиячи, ташкилотчи, психолог ва жамоани руҳлантирувчи шахс сифатида ҳам фаолият юритади. Айниқса, фавқулодда вазиятларда ёки жанговор шароитда раҳбар шахснинг психологик барқарорлиги, иродавий қатъияти ва лидерлик қобилияти жамоа фаолияти самарадорлигини белгилайди.

Психология ва педагогика фанларида лидерлик муаммоси узоқ йиллардан буён тадқиқ этиб келинмоқда. Бироқ ҳарбий таълим тизимида бўлажак офицерларнинг лидерлик компетенцияларини шакллантиришнинг психологик-педагогик хусусиятларини комплекс ўрганиш ҳозирги давр талабларидан бири ҳисобланади.

Лидерлик гуруҳда шахснинг шахсий обрўси таъсири остида шаклланадиган ва шу гуруҳ аъзоларининг хулқ-атворига бевосита таъсир кўрсатадиган табиий ижтимоий-психологик жараён сифатида қаралади. Лидерни муайян мақсадга эришиш учун одамларни бирлаштира оладиган шахс сифатида тавсифлаш мумкин. Лидерлик ҳар доим таъсир кучининг даражаси ва кучига боғлиқ масала бўлиб, бу таъсир лидернинг шахсий сифатлари билан у таъсир кўрсатмоқчи бўлган одамларнинг сифатлари ўртасидаги муносабатга, шунингдек, ушбу гуруҳ мавжуд бўлган вазиятга боғлиқ.

Лидерлик ҳодисасини ўрганишга турли ёндашувлар мавжуд бўлиб, улар қуйидагиларни ўз ичига олади: лидерлик сифатларини таҳлил қилишга асосланган ёндашув (лидерлик сифатлари назарияси), хулқ-атворга асосланган ёндашув (лидерлик хулқ-атвори назариялари), вазиятли ёндашув (муаллифлик вазиятли лидерлик концепциялари), замонавий ёндашувлар (мослашувчан лидерлик назариялари), улар орасида: таъсир воситаларини ўрнини босиш ва кучайтириш концепцияси, ўзини-ўзи ва ортиқча бошқариш,

тренерлик услуби, трансформациявий бошқарув ва харизматик ёндашув кабилар мавжуд.

Шахсий сифатлар нуқтаи назаридан ёндашув (темперамент, эҳтиёжлар, мотивлар ва қадриятлар, шахснинг турли жиҳатлари) лидерлик учун муайян сифатлар тўплами зарурлигини назарда тутади. Бундай сифатларга фаоллик, ташаббускорлик, мулоқотчанлик, ташкилотчилик қобилияти ва бошқалар киради.

Кейинчалик ушбу ёндашув америкалик психолог С. Ральф томонидан танқид қилинган. Унинг фикрича, «барча самарали раҳбарларда учрайдиган универсал шахсий сифатлар тўплами мавжуд эмас». Бу эса раҳбарлик самарадорлиги вазиятга боғлиқ эканлигини, яъни турли вазиятларда турли қобилият ва сифатлар талаб этилишини кўрсатади.

Хулқ-атвор ёндашуви, унинг асосчилари сифатида америкалик психологлар Джон Уотсон ва Беррес Фредерик Скиннер ҳисобланади, бошқарув услублари ёки хулқ-атвор услубларини таснифлаш учун асос бўлиб хизмат қилган. Хулқ-атвор ёндашувига кўра, лидернинг самарадорлиги унинг шахсий сифатлари билан эмас, балки кўпроқ қўл остидагиларга нисбатан намоён қиладиган хулқ-атвори билан белгиланади.

Хулқ-атвор ёндашуви лидерликни ўрганишни ривожлантирган бўлса-да, раҳбарнинг ташкилот мақсадларига эришиш учун одамларни рағбатлантиришга қаратилган реал хулқ-атворига эътибор қаратгани билан аҳамиятлидир. Шу билан бирга, ушбу ёндашувнинг асосий камчилиги шундаки, у кўпинча “ягона энг самарали бошқарув услуби мавжуд” деган тахминга асосланади. Хулқ-атвор ёндашувининг муҳим ҳиссаси шундан иборатки, у раҳбарлик услубларини, яъни раҳбарнинг қўл остидагилар билан қандай муносабатда бўлишини таснифлаш имконини берган.

Вазиятли ёндашувга кўра, раҳбар гуруҳ билан ўзаро ҳамкорлик қилади, муаммони таҳлил қилади, шахслараро муносабатларни баҳолайди ва шу билан бирга мослашувчанлик ҳамда ҳамкорликка асосланган қўллаб-қувватлашни намоён этади. Ушбу ёндашувнинг моҳияти жамоага ишни бажариш хусусиятларини тушунтириш ва унинг жамоавий фаолиятда иштирокини таъминлашдан иборат.

Ҳарбий жамоада ролларни тақсимланиши ҳарбий хизматчи томонидан бошқаларни ва ўзини идрок этишнинг ўзига хос хусусиятларига сезиларли даражада боғлиқ. Бундан ташқари, ҳарбий бўлинмаларда идрокнинг аниқлиги ва самарадорлиги ҳарбий жамоа ривожланиш даражасига боғлиқ бўлади. Ривожланиш даражаси юқори бўлган, лидерлик жараёнлари (ўз-ўзини ташкил этиш жараёнлари) яққол намоён бўладиган жамоаларда лидерлар, одатда, ҳамкасбларини, уларнинг роли, фаоллиги ва умумий аҳамиятли мақсадларга қўшган ҳиссасини тўғри баҳолай оладилар.

Ижобий психологик муҳит шаклланган, жипс ҳарбий жамоаларда лидерлар жамоанинг ижтимоий аҳамиятли масалалар бўйича фикрини аниқроқ олдиндан тахмин қила олади, жамоа кайфиятини нозик даражада ҳис этади ва унинг умумий руҳий ҳолатини тўғри англайди.

Шубҳасиз, лидерлик сифатларини ҳарбий хизматчилар тарбияси жараёнида ривожлантириш зарур. Шу сабабли, лидерликни шакллантириш ҳарбий хизматчиларни касбий тайёрлашнинг ажралмас қисмига айланади ва ҳарбий бошқарув самарадорлигининг муҳим шарти ҳисобланади.

Ҳозирги кунда ҳарбий олий таълим муассасасида бўлажак офицерларда лидерлик сифатларини ривожлантириш учун қуйидаги вазифаларни ҳал этиш зарур:

Шахсий мотивацияни шакллантириш, лидер бўлишга барқарор истак, ўзига ишонч, қарор қабул қилишга ва масъулиятни ўз зиммасига олишга тайёрлик, мақсадларни амалга оширишда изчиллик ва қатъият, ўз кучига ишониш ва мақсадга эришишга бўлган ишончни ривожлантириш.

Лидерликнинг интеллектуал ва ахлоқий сифатларини, касбий компетентликни, ҳалолликни, интеллектуал салоҳиятни ривожлантириш. Бу сифатлар муаммони таҳлил қила олиш, унинг моҳиятини тушуниш, фикрлашдаги мослашувчанлик, олдиндан кўра билиш, режалаштириш ва мақсад қўйиш қобилиятида намоён бўлади.

Лидернинг ижтимоий компетентлигини ва ҳарбий жамоа билан муносабатларда дўстона ёндашувини таъминлаш. Бу қуйидагиларни ўз ичига олади: мулоқот маданияти, фикрларни аниқ ва равшан ифодалай олиш, қўл остидагиларни тўғри тинглай билиш, танбеҳ бериш ва маслаҳат қилиш маданияти, бошқаларнинг қадр-қимматини ҳурмат қилиш, уларни тушуниш, уларнинг ташвиш ва муаммоларига эътиборли бўлиш ҳамда уларга зарур қўллаб-қувватлаш кўрсатиш.

Ҳарбий жамоанинг ҳар бир аъзосининг хусусиятлари, манфаатлари, эҳтиёжлари ва кутишларини ҳисобга олган ҳолда вазиятни тез ва тўғри баҳолаш кўникмаларини шакллантириш.

Бўлажак офицерларда лидерлик сифатларини олий ҳарбий таълим муассасасида шакллантириш қуйидаги тамойиллар асосида амалга оширилиши лозим:

– бошқарув таълими ва ўз-ўзини ривожлантиришнинг узлуксиз жараён сифатида олиб борилиши;

– расмий таълимни хизмат шароитида мустақил тайёргарлик билан уйғунлаштириш ва навбатма-навбат қўллаш;

– раҳбарнинг барча асосий ролларини бажариш учун муҳим бўлган касбий сифатларни ривожлантиришга йўналтириш: ижрочи, маъмур, новатор-ижодкор ва лидер;

– интеллектуал кўникмаларни ривожлантиришга устуворлик бериш, муаммоларни аниқлаш ва уларни ҳал қилиш йўлларини топиш қобилиятини шакллантириш, ноаниқлик шароитида савол қўя олиш малакасини ошириш;

– интеллектуал фикрлаш ва бошқарув нуқтаи назарини реал ҳамда ўқув вазиятларида қўллаш орқали жанговор тайёргарликни сақлаш ва ривожлантиришга оид долзарб муаммоларни таҳлил қилиш кўникмаларини ривожлантириш.

Шуни алоҳида таъкидлаш керакки, лидерлик фақат етакчи шахснинг мавжудлиги билан чекланмайди, балки унга ишонадиган, уни қўллаб-қувватлайдиган ва унинг ортидан эргашишга тайёр бўлган гуруҳ аъзолари билан ҳам боғлиқдир.

Бизнинг фикримизча, лидерлик сифатлари юқори даражада намоён бўлган курсантлар билан тизимли тарбиявий ишлар ташкил этилиши лозим. Улар ўқув-билиш, спорт, меҳнат ва жамоавий фаолият жараёнларида фаол иштирок этиб, ўз салоҳиятларини намоён этишлари мумкин.

Шунингдек, юқори лидерлик қобилиятига эга курсантларни ўз бўлинмаси, шунингдек, кичик курс курсантларини бошқариш жараёнига фаол жалб этиш мақсадга мувофиқ. Чунки лидерлик сифатлари энг тўлиқ равишда фақат амалий фаолият орқали ривожланади.

Педагогика ва психологияда “компетенция” тушунчаси муайян фаолиятни самарали амалга ошириш учун зарур бўлган билим, кўникма, малака ва шахсий сифатлар йиғиндисини англатади. Лидерлик компетенцияси эса инсоннинг жамоага таъсир кўрсатиш, уни умумий мақсад сари йўналтириш, жамоада психологик муҳитни бошқариш ва мураккаб вазиятларда самарали қарор қабул қилиш қобилиятини ифодалайди.

Курт Левин лидерлик назариясида раҳбарликнинг авторитар, демократик ва либерал услубларини ажратиб кўрсатган. Унинг фикрича, раҳбарнинг психологик таъсир услуби жамоадаги муносабатлар ва фаолият самарадорлигига катта таъсир кўрсатади.

Дэниел Гоулман раҳбарлик ва эмоционал интеллект ўртасидаги боғлиқликни тадқиқ қилиб, эмоционал интеллект юқори бўлган раҳбарлар жамоада самарали психологик муҳит ярата олишини асослаб берган.

Л. С. Выготский инсон шахсининг ривожланиши ижтимоий муҳит ва фаолият билан боғлиқлигини таъкидлайди. Бу эса лидерлик компетенцияларини шакллантиришда жамоавий фаолият ва ижтимоий муносабатларнинг аҳамияти юқори эканлигини кўрсатади.

Лидерлик компетенцияси кўп компонентли психологик тизим ҳисобланади. У қуйидаги таркибий қисмлардан иборат:

Мотивацион компонент. Мотивация лидерлик фаолиятининг асосий ички ҳаракатлантирувчи механизми ҳисобланади. Бўлажак офицернинг:

ватанпарварлик ҳисси, хизмат бурчини англаши, жамоада етакчи бўлиш истаги ва ўзини намоён қилиш эҳтиёжи лидерлик компетенциясининг шаклланишига таъсир қилади.

Психологик тадқиқотлар шуни кўрсатадики, ички мотивацияси юқори бўлган курсантларда ташаббускорлик, қатъият ва жамоани бошқариш қобилияти кучли намоён бўлади.

Когнитив компонент раҳбарнинг интеллектуал салоҳиятини белгилайди. Замонавий офицер:стратегик фикрлай олиши, таҳлил қила билиши, вазиятни прогноз қилиши. тезкор қарор қабул қилиши лозим.

Ҳарбий раҳбарликда когнитив қобилиятлар айниқса фавқулодда вазиятларда муҳим аҳамият касб этади. Тактик машғулотлар, кейс-стади технологияси ва моделлаштирилган вазиятлар когнитив қобилиятларни ривожлантиришнинг самарали усуллари ҳисобланади.

Коммуникатив компетентлик лидерликнинг муҳим кўрсаткичларидан бири ҳисобланади. Ҳарбий раҳбар:жамоада ишончли муносабат ўрнатиши, буйруқларни аниқ етказиши, психологик таъсир кўрсатиши, низоларни ҳал қилиши лозим. Коммуникатив компонент:фаол тинглаш, ишонтириш, мулоқот маданияти, вербал ва невербал таъсир каби кўникмаларни қамраб олади.

Ҳарбий фаолият юқори стресс ва хавф-хатар билан боғлиқ бўлганлиги сабабли лидер шахс эмоционал жиҳатдан барқарор бўлиши лозим.

Эмоционал-иродавий компонент қуйидагиларни ўз ичига олади:стрессга бардошлилик, сабр-тоқат, ўзини бошқара олиш, иродавий қатъият, психологик чидамлилик. Психологик жиҳатдан барқарор офицерлар жанговор вазиятларда самарали раҳбарлик қилиш қобилиятига эга бўладилар.

Психологик тайёргарлик бўлажак офицер шахсининг экстремал шароитларда фаолият юритишга тайёрлигини белгилайди. Ҳарбий таълим жараёнида курсантларда:

- эмоционал барқарорлик;
- стрессга чидамлилик;
- иродавий сифатлар;
- психологик ўзини бошқариш қобилиятларини шакллантириш муҳим аҳамиятга эга. Бу жараёнда психологик тренинглар, стресс-машғулотлар ва моделлаштирилган фавқулодда вазиятлар муҳим ўрин тутади.

Рефлексия лидерликнинг муҳим психологик механизми ҳисобланади. Рефлексия инсоннинг ўз фаолиятини таҳлил қилиши ва хатоларини англашига ёрдам беради. Курсантларда рефлексив қобилиятларни ривожлантириш: психологик таҳлил, фикр алмашиш, муаммоли вазиятларни муҳокама қилиш, ўз-ўзини баҳолаш орқали амалга оширилади. Бўлажак офицерларда лидерлик компетенцияларини шакллантириш мураккаб психологик-педагогик жараён

ҳисобланади. Мазкур жараён курсант шахсининг мотивацион, интеллектуал, коммуникатив ва эмоционал соҳаларини тизимли ривожлантиришни талаб этади.

Фойдаланилган адабиётлар

1.А. Г. Маклаков. Общая психология. — СПб.: Питер, 2016.
2.Р. С. Немов. Психология. — М.: Владос, 2018.
3.Л. С. Выготский. Психология развития человека. — М., 2005.
4.А. Н. Леонтьев. Деятельность. Сознание. Личность. — М., 2004.
5.Мельников О.Н., Ларионов В.Г. Подходы к изучению лидерства и лидерских качеств. – 2001. – 558 с. Курт Левин. Теория лидерства и групповой динамики. — М., 2000.
6.Решетников А.В. и др. Социально-исторический портрет лидера организации. – СПб.: Экономика, 2001. – 287 с.
7.Яблонский С.А. Психология лидерства. – К.: Высшая школа, 2003. – 475 с.

QORI NIYOZIY NOMIDAGI TARBIYA PEDAGOGIKASI MILLIY INSTITUTI
TPMI
1929

MUSIQA DARSLARIDA O’QUVCHI-YOSHLARNI VATANPARVARLIK TARBIYASINI SHAKLLANTIRISHNING AMALIY OMILI

Alisher Abduraxmonov
Nizomiy nomidagi O‘zbekiston milliy pedagogika universiteti “Musiqiy ta’lim” kafedrasi o‘qituvchisi
https://doi.org/10.5281/zenodo.23175966

Ta’lim tizimini yangilash jarayoni mustaqil yurtimiz taraqqiyotining bugungi kunda olib borilayotgan “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi va Ta’lim to’g’risida”gi qonunning hal qiluvchi sifat va samaradorlgik bosqichidagi eng asosiy masala bu davr talab etgan maqsad va vazifalar XXI – fan texnika va texnologiyalarning gurkirab rivojlanayotgan asrning ma’naviy jihatdan yetuk, har tomonlama bilimli, sog’lom bo’lgan barkamol avlodini tarbiyalab xalq xo’jaligiga yetishtirib borishdan iborat xayrli shu bilan birga eng zarur pedagog kadrlarni tarbiyalashdan iborat ezgu ishlar yotadi. Shu nuqtai-nazardan umumta’lim maktablari musiqa darslarida o’quvchi-yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashdek ulkan pedagogik-psixologik maqsad va vazifalarni hal qilish muammolari yotadi.

Respublikamiz xalq ta’limi tizimini to’laqonli isloh qilishning pirovard maqsadi va vazifalari ham bitta, u ham bo’lsa yosh avlodni jahon andozalariga mos va xos keladigan ta’lim-tarbiya tizimini tubdan yaxshilash, ta’limda sifat va samaradorlikka erishish, ya’ni, ilg’or pedagogik texnika va texnologiyalarni qo’llash, ulardan samarali foydalanish orqali ta’lim va tarbiya berishda shaxsning ma’naviy-ahloqiy sifatlarini shakllantirishdan iborat vazifalar xalq maorifi tizimida o’z yechimini kutib yotibdi.

Darhaqiqat uning asosiy negizi musiqa darslarining sifatli va samarali mashg’ulotlar olib borishda o’quvchi-yoshlarni vatanparvarlik his-tuyg’ularini shakllantirish, o’quvchi-yoshlarni Ona-Vatanni ko’z qorachig’idek asrash va shu bilan birga o’zga xalqlar bilan inoq va do’st tuyg’ulari ruhida tarbiyalashning pedagogik asoslari tashkil etadi.

Umumta’lim maktablarida hal qilinishi zarur bir qator pedagogik maqsadlar va vazifalar belgilab olindi. Jumladan o’quvchi-yoshlarning chuqur bilim, ko’nikma va malaka, dunyoqarashlarini shakllantirish, o’quvchi-yoshlarning intellektual qobiliyatlarini o’stirish borasida ma’naviy-ma’rifiy kamolini taminlashga qaratilgan ishlar, ularda hissiy ongni oshirish, hayotiy tajribalariga ko’maklashish orqali jamiyat tarixini chuqur o’rganish, eng asosiy bosh maqsad va vazifa yangicha fikrlashga, yangicha tafakkurga ega bo’lgan ijodkor, o’z vatanini sevuvchi vatanparvar shu bilan birga qardosh xalqlar madaniyatini, ma’naviyatini, san’ati va adabiyotini qadrlovchi hamda ulug’lovchi yangi insonni tarbiyalashdek yuksak vazifalar bilan uzviy bog’liqdir.

Sadiiy She’roziy aytganidek: “Musiqa inson ruhining yo’ldoshidir”. Shu bois o’quvchilarda inson ma’naviy madaniyatining tarkibiy qismi bo’lgan musiqiy idrokni tarbiyalash musiqa tarbiyasining bosh masalasi bo’lib turadi.

Sharqning ko’pgina xalqlari kabi o’zbeklar o’tmish avlodning musiqa san’atida professionalizm eramizning birinchi asrlaridek vujudga keldi va asrlar davomida rivojlanib borib, ijrochilik madaniyatida ham vokal va cholg’u musiqa janrlarida ham yuksak badiiy natijalarga erishdi. Ammo professional musiqachilar bizning asrimizgacha ya’ni XX asrgacha amalda nota yozuvini qo’llashmadi.

O’zbek professional ijrochilik madaniyati rivojlanganli sababli, hofiz va sozandalar oldiga qadim vaqtlardayoq alohida talablar qo’yilgan. Havaskor sozanda va xonandalar mashhur ustozlardan uzoq yillar ta’lim olganlaridan keyingina professional ijrochi sifatida yetishganlar.

Eng mashhur musiqachilar hatto XX asrlarda ham xon saroylarida xizmat qilish uchun amir saroyiga (yoki boshqa mansabdor shaxslar dargohiga) jalb etilardi. Ular hukmron shaxslarning ijozatisiz xalq oldiga chiqib o’z san’atlarini namoyish qilishdan mahrum edilar.

Ko’p qirrali muhabbat lirikasi lapar va yalla, ashulalar asosini tashkil etgan.

Vatanparvarlik avvalam bor o’z Ona-Vataniga mexr-muhabbat, sadoqat tuyg’ularini, tinchlik va osoyishtalikni saqlash, xalqlar do’stligi uchun tinimsiz kurash olib borish, aqlan va manan yetuk tarbiyalangan, shuningdek dunyo kishilarini birlashtirib turgan baynarmilal dunyoqarash tuyg’ularini tarbiyalash borish va o’quvchi-yoshlar ongida shakllantirib berishni o’z ichiga oladi.

Ta’lim tizimini yangilash jarayoni mustaqil yurtimiz taraqqiyotining bugungi bosqichida asosiy masala bo’lib, bu davr xalq ta’limi tizimi talab qilgan maqsad va vazifalar XXI – asrning ma’naviy jihatdan yetuk, bilimli barkamol avlodni tarbiyalashdan iboratdir. Xususan umumta’lim maktablari musiqa darslarida vatanparvarlik va qardoshlik his – tuyg’ularini shakllantirishdek ulkan maqsad va vazifalarni hal qilish muammolarini yechish yotadi.

Respublikamiz xalq ta’limini isloh qilishning pirovard maqsadi va vazifasi ham yosh avlodni jahon andozalariga mos keladigan ta’lim va tarbiya sifatini yaxshilash, ta’limda sifat va samaradorlikka erishish, yangi ilg’or pedagogik texnologiyalardan samarali foydalanish orqali ta’lim va tarbiya berish, shaxsning ma’naviy – axloqiy sifatlarini shakllantirishdan iborat. Darhaqiqat uning asosiy negizi musiqa darslarini sifatli va samarali olib borishda vatanparvarlik va qardoshlik his – tuyg’ularini shakllantirish tashkil etadi.

Mustaqillik yillarida O‘zbekiston Respublikasida keng qamrovli va juda muhim iqtisodiy hamda siyosiy o‘zgarishlar ro‘y berdi. Bu vazifalar maktab, oila mahalla butun jamoatchilikka katta ma’suliyat yuklaydi. Mamlakatimizda ta’lim-tarbiya sohasining barcha bo’g’inlari –maktabgacha ta’lim, maktab,o’rta-maxsus, va

oily ta’lim tizimini takomillashtirish, ya’ni yangi muassasalar bunyod etish va mavjudlarini qayta ta’mirlash bo’yicha olib borilyapti.

Uzluksiz ta’lim tizimidagi fanlarni o`qitishning asosiy maqsadlaridan biri ta’lim oluvchilarni tafakkurini rivojlantirishdan iborat. Chunki tafakkur ta’lim oluvchilarning qobiliyatlarini aniqlash va takomillashtirish omili bo`lib xizmat qiladi. Zamonaviy ta’lim tizimida tafakkurni aniq maqsadga qaratishi, o`quvchilarni yetarli darajada bilim, ko`nikma va malakalariga erishishga yordam beradi.

Hozirgi kun ta’lim tizimini modernizatsiya qilish juda muhimdir. Ilmiy-metodik va ilmiy-didaktik izlanishlar shuni ko`rsatadiki, ta’lim tizimiga zamonaviy innovatsion, pedagogik va modulli texnologiyalarni joriy etish davr talabidir. DTS o`quvchilar tomonidan bililmlarni egallashga ta’lim jarayoni, zamonaviy pedagogik texnologiya asosida tashkil qilishda, qo`llanadigan uch toifadagi pedagogik usullardan iborat: Birinchi toifadagi usullar “An’anaviy usullar» deb ataladi, ta’lim oluvchilarga “Yetkazib berish” talabiga asoslangan bo`ladi. Ikkinchi toifadagi usullar “Noan’aviy» deb yoki “Interaktiv» usullar hisoblanadi. O`quvchilarni bilim egallashlarida “faollashtirish» tamoyili deb ataladi. Uchinchi toifadagi usullar “Ilg`or» yoki “Zamonaviy” usullar deb nomlanadi.

Ta’lim-tarbiya jarayonini jadallashtirish va samaradorligini oshirish deb ataladi. Hozirgi kunda mamlakatimiz ta’lim tizimida, modulli texnologiyalar va zamonaviy ta’lim vositalarini ta’lim jarayoniga keng tatbiq etish talab etib kelinmoqda. Bu o`z navbatida, ta’lim jarayonini oldindan loyihalashtirishni amalga oshira oladigan texnologik bilimlar tizimiga ega bolgan zamonaviy o`qituvchilarga bo`lgan talabni oshiradi. Musiqa madaniyati darslari pedagogikaning didaktik nazariyasi va tamoyillari asosida tuziladi.

Mazkur prinsiplar o`qituvchi hamda o`quvchi tomonidan bajariladigan barcha ta’lim asoslari — dars mazmuni metodlari va darslarning tuzilishidagi asosiy talablar va uning yo`nalishlarini belgilab beradi. Dars jarayonida o`quv materiallarini bolalarning bilim tajribasiga mos bo’lmog’i darkor. Shundan kelib chiqib, uzluksiz ta’lim tizimida, jumladan, umumta’lim maktablarida bir qator pedagogik maqsad va vazifalar belgilab olindi. Jumladan o’quvchilarda chuqur bilim va dunyoqarashni shakllantirish yoshlarning ma’naviy yetukligini taminlash, ularning hissiy ongini oshirish va hayotiy tajribasi orqali jamiyat tarixini puxta o’rganish, shaxsning salbiy xususiyatlariga barham berish yo’llarini izlab topish, eng asosiy bosh maqsad bo’lib, yangicha tafakkurga ega bo’lgan ijodkor, vatanparvar, qardosh xalqlar madaniyatini, san’atini ulug’lovchi baynalmilal insonni tarbiyalashdek vazifalar bilan uzviy bog’liqdir.

Vatanparvarlik va qardoshlik o’z vataniga mexr – muhabbat, sadoqat tuyg’ularini, tinchlik va xalqlar do’stligi uchun kurash olib borish, aqlan va manan tarbiyalangan, shuningdek dunyo kishilarini birlashtirib turgan qardoshlik dunyoqarashini shakllantirishni o’z ichiga oladi. Musiqa san’ati shunday san’at

turidirki, u ijtimoiy ong shakllaridan biri bo’lib, tarbiyalanuvchining ichki dunyosiga hissiy ta’sir ko’rsatish imkoniyatiga ega ekanligi bilan ajralib turadi. Bu holatlar o’smir yoshlarni estetik va axloqiy ruhda tarbiyalashning eng maqbul usullardan biri bo’lib sanaladi.

Uzluksiz ta’lim tizimida ta’lim jarayonini tashkil etishning asosiy shakli dars (o`quv mashg`uloti) bo`lib hisoblanadi. Dars ta’lim-tarbiya jarayonining mantiqiy tugallangan yaxlit, aniq vaqt bilan chegaralgan qismidir. Har bir dars faoliyati uning asosiy elementlari hisoblanadi.

Ko‘rinib turibdiki, boshlang’ich sinf o’quvchilarini musiqiy madaniyatini shakllantirishda mehnat qo’shiqlaridan foydalanish jarayonlari ko‘p tarmoqli bo‘lib, ijtimoiy-pedagogik jihatdan, turli musiqiy faoliyatlar bilan bo’gliq. Musiqa ta’limi mazmunida qo‘shimcha bilimlar, malakalar egallashga bo‘lgan ehtiyojlarni qondirish va ularni boyitish, o’quvchilarda musiqaga bo‘lgan munosabatni tarbiyalashga xizmat qiladi.

Ta’lim-tarbiya mazmunida musiqa madaniyatini shakllantirishda tajribada sinalgan, amaliyotda samarali natijalar bergan, o`qitish tamoyillari muhim ahamiyat kasb etadi. Musiqa ta’limi asosan, pedagogika, psixologiya, estetika va san’atshunoslikning tadqiqot natijalariga asoslanadi. U musiqa ta’limi sohasidagi qonun-qoidalarini ta’riflab beradi yosh avlodni tarbiyalashda qo`llanadigan zamonaviy metodlarni belgilaydi.

Musiqa ta’lim-tarbiyasi jarayonida o`quvchilar bilan ishlash usullarining mazmunini anglatadi. Ta’lim-tarbiya jarayonida musiqa o`qituvchisi istedodli, qobiliyatli va mehnatsevar bo`lishni talab etadi, chunki musiqa pedagogikasi mashaqqatli va juda mas’uliyatli sohadir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO’YXATI

1.Kabalevskiy D.B. Maktabda estetik madaniyat. Moskva, Pedagogika.-2020.-№1, 24-38 betlar.
2.Astafyev B. Musiqa ta’limi.Tanlangan asarlar. 2-nashri.-L.: Nauka, 2020 y, 144 bet.
3. Apraksina O.A. Iz istorii muzыkalnogo vospitaniya.-M.: Muzыka, 1974 y,
4.Suxomlinskiy V.A. Tarbiya haqida. M.: 2020y, 100 b.

TALABALARDA UMUMINSONIY QADRIYATLARGA OID KOMPETENTLILIKNI KO‘P MANBALI DIAGNOSTIKA QILISH VA BAHOLASH DALILLARINI MUVOFIQLASHTIRISH

Abdug‘aniyev Ozod Tursunboy o‘g‘li
Qori Niyoziy nomidagi Tarbiya pedagogikasi milliy instituti ilmiy kotibi
PhD, dotsent
https://doi.org/10.5281/zenodo.23175977

Annotatsiya. *Maqolada talabalarning umuminsoniy qadriyatlarga oid kompetentliligini baholashda bilim, qadriyaviy tanlov, muloqot, amaliy harakat va refleksiyaga doir dalillarni muvofiqlashtirish masalasi o‘rganiladi. Dissertatsiyaning indikatorlar va diagnostik mezonlarga oid materiallari mazmuniy tahlil qilinib, komponent, ko‘rsatkich, topshiriq va baholash dalili o‘rtasidagi bog‘lanish aniqlashtiriladi. Anketa, vaziyatli topshiriq, kuzatuv, faoliyat mahsuloti va refleksiv yozuvning axborot imkoniyatlari hamda chegaralari ajratiladi. Qadriyat mazmunini bilish bilan unga amal qilishning farqi hisobga olingan holda ko‘p manbali diagnostika matritsasi va sifat darajalari tavsifi ishlab chiqiladi. Turli dalillar mos kelmagan holatda qo‘shimcha tekshiruv va individual pedagogik yordamni tanlash tartibi taklif etiladi. Natijalar nazariy-metodik xarakterga ega bo‘lib, taklif etilgan vositalarning ishonchliligi va validligini empirik tekshirish yo‘nalishlari belgilanadi.*

Kalit so‘zlar: *umuminsoniy qadriyatlar, kompetentlilik, pedagogik diagnostika, indikator, vaziyatli topshiriq, kuzatuv, baholash dalili, triangulyatsiya, rivojlanish profili, teskari aloqa.*

Kirish

Talaba adolat tushunchasini to‘g‘ri izohlashi, biroq jamoaviy vazifada ish yukini taqsimlashda boshqa ishtirokchining imkoniyatini hisobga olmasligi mumkin. Bunday holatda bilimga oid javob bilan real faoliyat turli axborot beradi. Umuminsoniy qadriyatlarga oid kompetentlilikni baholash ushbu farqni ko‘rishga va uning pedagogik sababini aniqlashtirishga yo‘naltirilishi kerak. Baholash natijasi keyingi topshiriq, yordam turi va mustaqillik darajasini belgilash uchun ishlatilgandagina diagnostika rivojlantiruvchi vazifa bajaradi.

O.T.Abdug‘aniyevning kompetentlilikning kognitiv, aksiologik, kommunikativ, axloqiy-faoliyatli va refleksiv mezonlari yoritilgan; bilim testi, qadriyatli tanlov vaziyati, kuzatuv va o‘zini baholashni uyg‘unlashtirish zarurati ko‘rsatilgan [1]. Ushbu maqola mazkur qoidani diagnostik topshiriq darajasida aniqlashtiradi. Tadqiqot muammosi turli vositalardan olingan ma’lumotni yagona xulosaga qanday keltirish va xulosaning chegarasini qanday belgilash masalasidan iborat.

Maqolaning maqsadi talabalarning umuminsoniy qadriyatlarga oid kompetentliligini ko‘p manbali diagnostika qilish uchun dalillarni tanlash, qiyoslash va pedagogik qarorga aylantirish tartibini ishlab chiqishdir. Buning uchun mezon va daraja tushunchalari ajratiladi, har bir ko‘rsatkichga mos axborot manbai belgilanadi hamda dalillar o‘rtasidagi tafovutni tahlil qilish usuli taklif etiladi. Maqolaning

asosiy natijasi baholash vositalari ro‘yxati emas, ularning qanday savolga javob berishini ko‘rsatadigan metodik matritsadir.

Nazariy asoslar va tadqiqot metodlari

Dissertatsiyaning 3.1, 3.2 va 4.1-paragraflarida keltirilgan indikatorlar, rivojlanganlik darajalari va diagnostik vositalar tadqiqotning birlamchi matni sifatida o‘rganildi [1]. Mazmuniy tahlilda har bir tavsifning qaysi faoliyatga tegishliligi, talaba javobida qanday dalil orqali kuzatilishi va qanday xulosa chiqarishga imkon berishi tekshirildi. Tushunchalarni taqqoslash, operatsionallashtirish va metodik loyihalash usullari qo‘llandi. Bu yerda operatsionallashtirish umumiy sifatni kuzatiladigan harakat va aniq baholash savoli orqali ifodalashni anglatadi.

UNESCO global fuqarolik ta’limida kognitiv, ijtimoiy-emotsional va xulqiy sohalarni ajratadi [2]. Mazkur farqlash bilim va harakat haqidagi dalillarni alohida yig‘ish uchun nazariy tayanch beradi. Yevropa Kengashining kompetensiyalarni baholash qo‘llanmasi turli metod va dalillar bilan ishlash masalasini yoritadi [3]. Oliy ta’limga doir tavsiyalarda esa o‘quv faoliyati bilan universitet hayotidagi ishtirok o‘zaro bog‘lanadi [4]. Bu manbalar maqolada mahalliy sharoitga mos metodik yechim ishlab chiqish uchun qo‘llanadi.

Tahlil natijasida diagnostika matritsasi, darajalar tavsifi va dalillarni qiyoslash tartibi ishlab chiqildi. Maqola doirasida yangi respondentlar bilan o‘lchov o‘tkazilmadi; taklif etilayotgan topshiriqlar uchun ishonchlilik koeffitsiyenti yoki empirik chegara ballari hisoblanmadi. Shuning uchun natijalar amaliy sinovga tayyor metodik taklif sifatida talqin qilinadi. Dissertatsiyadagi tajriba-sinov natijasi yangi diagnostik vositaning tekshirilganligini o‘z-o‘zidan tasdiqlamaydi.

Mezon va baholash dalilining bog‘lanishi

Mezon kompetentlilikning qaysi jihati baholanishini belgilaydi. Ko‘rsatkich shu jihatning aniq namoyon bo‘lishini ifodalaydi. Topshiriq talabaga uni namoyon etish imkonini yaratadi, dalil esa javob yoki faoliyatda qayd etilgan materialdir. Masalan, kommunikativ mezon uchun suhbatdoshning fikrini buzmasdan qayta ifodalash ko‘rsatkich bo‘lishi mumkin; juftlikdagi kelishmovchilikni muhokama qilish topshiriq, talabaning aniq javobi va kuzatuv qaydi esa dalil hisoblanadi.

Kognitiv mezon qadriyaviy muammoni tushuntirish, fakt bilan taxminni ajratish va tushunchani vaziyatga tatbiq qilishni qamrab oladi. Aksiologik mezon talabaning qaysi qadriyatni tanlov asosi sifatida qo‘llagani va o‘zga tomon manfaatini qay darajada hisobga olganiga doir dalillar orqali o‘rganiladi. Kommunikativ mezon tinglash, fikrga mazmunan javob berish va kelishuvga hissa qo‘shish bilan bog‘lanadi. Axloqiy-faoliyatli mezon qarorning amaliy bajarilishini, refleksiv mezon esa sabab, oqibat va tuzatishning tahlilini ko‘rsatadi.

Ichki e’tiqod haqida bevosita kuzatuv orqali qat’iy hukm chiqarib bo‘lmaydi. Talabaning bayonoti, tanlovi va turli vaziyatdagi faoliyati uning munosabatiga doir

asos beradi, lekin bu asos har doim vaziyat va topshiriq sharoiti bilan chegaralanadi. Shu sababli baholash tilida “qadriyatni qabul qilgan” degan umumiy xulosadan ko‘ra “qarorida boshqa tomon manfaatini asosli hisobga oldi” kabi dalilga yaqin ifoda afzal. Bunday aniqlik talabaning shaxsiga hukm chiqarish xavfini kamaytiradi.

Quyi, o‘rta va yuqori darajalar barcha mezonlarga tatbiq etiladi. Kognitiv komponentni yuqori, motivatsion komponentni o‘rta, faoliyatli komponentni quyi daraja bilan tenglashtirish mazmun va rivojlanish bosqichini aralashtiradi. Talaba bilim bo‘yicha yuqori, muloqot yoki refleksiya bo‘yicha o‘rta darajada bo‘lishi mumkin. Diagnostika aynan shu tarkibiy farqni saqlashi lozim. Birlashtirilgan ballga shoshilish o‘rniga komponentlar kesimidagi rivojlanish profili tuziladi.

Ko‘p manbali diagnostika matritsasi

Anketa talabaning o‘z munosabatini qanday taqdim etishini ko‘rsatadi. U qisqa va qulay bo‘lsa-da, ijtimoiy jihatdan ma’qul javob berish ehtimoli mavjud. Vaziyatli topshiriq tanlovning asosi va muqobilni ko‘rish qobiliyatini ochadi; uning natijasi matnni tushunish va yozma ifoda imkoniyatiga ham bog‘liq. Kuzatuv real harakatni qayd etadi, lekin topshiriqda ishtirok etish imkoniyati barcha talabaga teng berilgan bo‘lishi kerak. Faoliyat mahsuloti bilan refleksiv yozuv esa bajarilgan ish va uning talaba tomonidan talqinini qiyoslashga yordam beradi.

1-jadval. Mezon va diagnostik manbalarni muvofiqlashtirish

Mezon	Kuzatiladigan ko‘rsatkich	Asosiy dalil	Qiyoslash manbai
Kognitiv	Muammoni qadriyat bilan bog‘lab izohlaydi	Vaziyat bo‘yicha individual javob	Qisqa tushuncha topshirig‘i
Aksiologik	Tanlov mezonida boshqa tomon manfaatini ochadi	Muqobil qarorlar qiyosi	Sababni ochuvchi suhbat
Kommunikativ	O‘zga fikrni tinglab, mazmunan javob beradi	Muhokamadagi epizod qaydi	Tengdoshning misolli fikri
Axloqiy-faoliyatli	Kelishilgan vazifani mas’uliyat bilan bajaradi	Individual ish mahsuloti	Jarayon va vazifa qaydi
Refleksiv	Oqibatni tahlil qilib, tuzatishni asoslaydi	Refleksiv yozuv	Keyingi vaziyatdagi qaror

Matritsada asosiy va qo‘shimcha manba bir xil javobni takroran olish uchun tanlanmaydi. Ular ko‘rsatkichning boshqa tomoni yoki boshqa vaziyatdagi namoyon bo‘lishini ochishi kerak. Talaba yozma javobda hurmatni tanlasa, muhokamada suhbatdosh fikrini eshitishga intilgani shu tanlovni boshqa faoliyatda kuzatishga imkon beradi. Aksincha, ketma-ket ikki anketa bir xil o‘zini taqdim etish usulini o‘lchashi mumkin; bunday takrorlashning o‘zi mustaqil dalil hosil qilmaydi.

Dalillar vaqt, vaziyat, mustaqillik va pedagogik yordam bilan birga qayd etiladi. Kuzatuv varag‘iga “faol” yoki “passiv” kabi umumiy sifat yozish o‘rniga kimga qanday javob berilgani va qanday harakat bajarilgani kiritiladi. Sukut ba’zan tayyorgarlikning yetishmasligi, til qiyinchiligi yoki guruhdagi teng bo‘lmagan

ishtirok bilan bog‘liq bo‘lishi mumkin. Bu sharoitlarni qayd etish past natijani bevosita qadriyaviy munosabatning sustligi bilan izohlashdan saqlaydi.

Diagnostik topshiriq va sifat darajalari

Mualliflik diagnostik vaziyatida talabalar ijtimoiy loyiha uchun cheklangan resursni ikki ehtiyoj o‘rtasida taqsimlaydi. Bir taklif ko‘proq ishtirokchini qamrab oladi, ikkinchisi esa kam sonli, lekin yordamga ehtiyoji kuchli guruhga qaratilgan. Topshiriqda har ikki tomon haqidagi tekshiriladigan ma’lumot, resurs chegarasi va qaror qabul qilish sharti beriladi. Talaba qo‘shimcha ma’lumot so‘rashi, yechimlarni qiyoslashi va tanlov oqibatini tushuntirishi mumkin.

Dastlab individual javob olinadi, so‘ng muhokama tashkil etiladi. Yakunda har bir ishtirokchi o‘z qarorini qayta yozib, qaysi dalil ta’sir qilganini ko‘rsatadi. Bu tartib guruhning tayyor yechimini individual kompetentlilik bilan tenglashtirmaslikka yordam beradi. Asosiy baholash savoli qaysi loyiha tanlanganligi bilan cheklanmaydi: adolat qanday izohlangani, boshqa tomonning ehtiyoji qanday hisobga olingani va qarorning cheklovi anglanganligi o‘rganiladi.

2-jadval. Sifat darajalarini farqlash uchun tayanch tavsiflar

Baholash jihati	Quyi daraja	O‘rta daraja	Yuqori daraja
Muammoni anglash	Qadriyatni aytadi, tatbiqda ko‘mak oladi	Muammo va manfaatni yordam bilan ochadi	Ziddiyat va manfaatni mustaqil farqlaydi
Tanlovni asoslash	Bir sabab yoki tayyor fikrga tayanadi	Sabablarni keltiradi, muqobilni qisman qiyoslaydi	Mezon, muqobil va oqibatni bog‘laydi
Hamkorlikdagi harakat	Vazifa va muloqotda doimiy ko‘mak oladi	Kelishuvga amal qiladi, ba’zan yordam oladi	Hissasini bajaradi, o‘zga fikrni hisobga oladi
Qayta ko‘rish	Voqeani bayon qiladi, tuzatishni ochmaydi	Savol yordamida sabab va tuzatishni izohlaydi	Yangi dalilga tayangan tuzatishni belgilaydi

Jadvaldagi tavsiflar muayyan topshiriqdagi bajarilish sifatini ifodalaydi. Bir muvaffaqiyatli javob talabaning barcha vaziyatlarda yuqori darajaga erishganini anglatmaydi. Xuddi shuningdek, bir qiyinchilik barqaror quyi daraja uchun yetarli asos bo‘la olmaydi. Umumlashtirishda turli vaziyatdagi dalil, topshiriqning murakkabligi va yordam miqdori birga ko‘rib chiqiladi. Kuzatilmagan harakat “mavjud emas” deb emas, “dalil olinmadi” deb qayd etiladi.

Dalillarni qiyoslash va pedagogik qaror

Dalillar mos kelganda xulosa ko‘proq asosga ega bo‘ladi. Masalan, vaziyatli topshiriq, amaliy faoliyat va refleksiv yozuvda boshqa tomon manfaatini hisobga olish kuzatilsa, shu ko‘rsatkich bo‘yicha mustaqillikni oshiradigan yangi vazifa tanlanadi. Dalillar tafovutli bo‘lsa, ularni oddiy o‘rtacha ball bilan berkitish maqsadga muvofiq emas. Avval tafovut qaysi sharoitda paydo bo‘lgani aniqlanadi, keyin mazmuni yaqin boshqa vaziyat orqali tekshiriladi.

Talaba adolatni yaxshi tushuntirgan, lekin guruh ishida mas’uliyatini bajarmagan bo‘lsa, bilimni takrorlash asosiy yordam bo‘lmasligi mumkin.

Vazifaning tushunarliligi, real hissani qo‘shish imkoniyati va ishni rejalashtirish qiyinchiligi o‘rganiladi. Talaba qarorini asoslaydi, biroq muqobil fikrni tinglamasa, keyingi topshiriqda suhbatdosh dalilini qayta ifodalash talabi kiritiladi. Shu tarzda pedagogik qaror diagnostik profilning eng muhim qiyinchiligiga bog‘lanadi.

Teskari aloqa dalil, talqin va keyingi harakatni qamrab olishi kerak. “Sizning yozma javobingizda ikki tomon ehtiyoji ko‘rsatilgan; resurs chegarasi bilan tanlov o‘rtasidagi bog‘lanish ochilmagan; keyingi javobda shu bog‘lanishni tushuntiring” kabi fikr bajariladigan vazifani aniq qiladi. J. Hattie va H. Timperley teskari aloqaning ta’siri uning mazmuni hamda yo‘nalishiga bog‘liqligini tahlil qilgan [5]. Bu qoida asosida maqolada shaxsiy sifatga umumiy baho berishdan ko‘ra topshiriq jarayoniga doir fikr tavsiya etiladi.

Natijalar muhokamasi

Taklif etilgan yechimning metodik natijasi kompetentlilikni yagona taassurot yoki bitta testga tenglashtirmaydigan baholash tartibidir. Matritsa diagnostik vositaning vazifasini, sifat tavsiflari bajarilish darajasini, rivojlanish profili esa pedagogik yordam yo‘nalishini belgilaydi. Ushbu qismlar birga qo‘llanganda bahoning nimaga asoslangani talaba va pedagog uchun ko‘rinadi. Bu ochiqlik baholash natijasini muhokama qilish va tuzatish imkonini beradi.

Amaliy tekshiruvda avval ekspertlar ko‘rsatkich bilan topshiriq mazmuni muvofiqligini baholashi lozim. Keyin ikki baholovchi bir xil materialni mustaqil tahlil qilib, tavsiflarni bir xil tushunayotganini tekshiradi. Tafovutli baholangan javoblar rubrikani aniqlashtirish uchun ishlatiladi. Til yoki yozma ifoda qiyinchiligi sababli muqobil javob shakli berilganida baholanadigan qadriyaviy harakat saqlanishi zarur. Moslashtirish yordam beradi, ammo baholash predmetini o‘zgartirmasligi kerak.

Metodik taklifning chegarasi uning hali mahalliy talaba guruhlarida sinovdan o‘tkazilmaganligidir. Komponentlarni umumiy ballga birlashtirish uchun vaznlar va chegara qiymatlar alohida asoslanishi lozim. Darajalar talabaning e’tiqodi, oilaviy qadriyati yoki shaxsiy hayotiga baho berish vositasi sifatida qo‘llanmaydi. Baholanadigan predmet o‘quv vaziyatida namoyon bo‘lgan dalillash, hurmatli muloqot, mas’uliyatli faoliyat va refleksiyadir.

Xulosa

Umuminsoniy qadriyatlarga oid kompetentlilikni ko‘p manbali diagnostika qilish mezon, ko‘rsatkich, topshiriq va dalilning muvofiqligiga tayanadi. Har bir axborot manbai aniq vazifada qo‘llanib, uning chegarasi hisobga olinadi. Qadriyatni bilish, qarorda qo‘llash, faoliyatda bajarish va oqibatini tahlil qilish haqidagi dalillar qiyoslanganda talabaning rivojlanish profili aniqlashtiriladi.

Maqolada ishlab chiqilgan matritsa va sifat tavsiflari diagnostik xulosani keyingi pedagogik yordam bilan bog‘lashga xizmat qiladi. Tafovutli dalillar qo‘shimcha tekshirish uchun asos bo‘ladi; kuzatilmagan harakatga avtomatik past

baho berilmaydi. Tavsiya etilgan vositalarni amaliyotga keng kiritishdan oldin mazmuniy validlik, baholovchilararo moslik va turli topshiriqlardagi barqarorlikni tekshirish zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Abdug‘aniyev O. T. Talabalarda umuminsoniy qadriyatlarga oid kompetentlilikni rivojlantirishning pedagogik strategiyalari. Pedagogika fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi qo‘lyozmasi. Toshkent, 2026. 3.1, 3.2 va 4.1-paragraflar.
2. UNESCO. Global Citizenship Education: Topics and Learning Objectives. Paris: UNESCO, 2015. URL: https://unesdoc.unesco.org/images/0023/002329/232993e.pdf
3. Council of Europe. Assessing Competences for Democratic Culture: Principles, Methods, Examples. Strasbourg: Council of Europe, 2021. URL: https://www.coe.int/en/web/education/-/assessing-competences-for-democratic-culture
4. Council of Europe. Reference Framework of Competences for Democratic Culture: Guidance Document for Higher Education. Strasbourg: Council of Europe, 2020. URL: https://rm.coe.int/rfcdc-guidance-document-for-higher-education/1680a08ee0
5. Hattie J., Timperley H. The Power of Feedback // Review of Educational Research. 2007. Vol. 77. No. 1. P. 81–112. DOI: https://doi.org/10.3102/003465430298487

TURIZM TA’LIMIDA MA’NAVIY-AXLOQIY VA MADANIYATLARARO KO‘NIKMALARNI RIVOJLANTIRISH OMILLARI

Abdug‘aniyev Tohirjon Tursunboy o‘g‘li
TIFTI o‘qituvchisi
https://doi.org/10.5281/zenodo.23175983

Annotatsiya. *Maqolada turizm ta’limida axloqiy mas’uliyat va madaniyatlararo muloqotni rivojlantiruvchi omillar nazariy jihatdan tahlil qilinadi. Xalqaro konsepsiyalar qiyosi o‘quv mazmuni, institutsional muhit va refleksiv mashg‘ulotning bog‘liqligini asoslaydi. Vaziyat tahlili, hamjamiyat bilan hamkorlik va xulq mezonlari taklif etiladi. Takliflarning samaradorligi empirik tekshiruvni talab qiladi.*
Kalit so‘zlar: *turizm ta’limi, kasbiy etika, madaniyatlararo kompetensiya, refleksiya, madaniy meros, baholash.*
Аннотация. *В статье теоретически анализируются факторы развития нравственной ответственности и межкультурного общения в туристском образовании. Сопоставление международных концепций обосновывает взаимосвязь содержания обучения, институциональной среды и рефлексивных занятий. Предлагаются ситуационный анализ, сотрудничество с местными сообществами и поведенческие критерии. Эффективность предложений требует эмпирической проверки.*
Ключевые слова: *туристское образование, профессиональная этика, межкультурная компетенция, рефлексия, культурное наследие, оценивание.*
Abstract. *The article theoretically examines factors supporting ethical responsibility and intercultural communication in tourism education. Comparing international frameworks reveals links between curriculum content, institutional culture and reflective activities. Professional scenarios, community partnerships and observable behavioural criteria are proposed. The effectiveness of these proposals requires empirical testing.*
Keywords: *tourism education, professional ethics, intercultural competence, reflection, cultural heritage, assessment.*

Turizm mutaxassisi xizmat ko‘rsatish jarayonida sayyoh, tadbirkor va mahalliy aholi manfaatlari tutashgan vaziyatlarga duch keladi. Gidning tarixiy voqeani talqin qilishi, menejerning qo‘shimcha xarajatni tushuntirishi yoki mehmonxona xodimining diniy ehtiyojga munosabati kasbiy mahorat bilan birga axloqiy mulohazani talab etadi. Turizmning global axloq kodeksi o‘zaro hurmat, madaniy merosni asrash va iste’molchiga haqqoniy axborot berishni belgilaydi [1]. Ta’limdagi vazifa bu tamoyillarni kuzatiladigan kasbiy harakatga aylantirishdir.

Maqolaning maqsadi ma’naviy-axloqiy va madaniyatlararo ko‘nikmalar rivojiga ta’sir etuvchi omillarni tizimlashtirish hamda turizm mashg‘ulotlariga mos metodik yechimlar taklif etishdir. Asosiy savol quyidagicha: talaba hurmat va halollik haqida bilganini manfaatlar to‘qnashgan xizmat vaziyatida qanday qo‘llashi mumkin? Nazariy nuqtayi nazardan bunday o‘tish mazmun, mashq, tashkilot muhiti va teskari aloqaning izchilligiga bog‘liq deb qaraladi.

Tadqiqot metodologiyasi ish maqsadli manba tanlashga asoslangan nazariy-analitik tahlildir. Turizm etikasi, madaniyatlararo kompetensiya,

merosni muhofaza qilish va pedagogik baholashni bevosita yorituvchi to‘qqizta ilmiy hamda xalqaro institutsional manba tanlandi. Ularning bibliografik ma’lumotlari nashriyot va tashkilot sahifalarida tekshirildi. Tahlil tushunchalarni aniqlashtirish, umumiy tamoyillarni qiyoslash va ularni turistik o‘quv vaziyatiga moslashtirish bosqichlaridan iborat. Bu tizimli adabiyotlar sharhi emas; barcha tadqiqotlar qamrab olingani da’vo qilinmaydi. So‘rov, kuzatuv yoki tajriba o‘tkazilmadi, taklif etilgan mezonlar validatsiya qilinmagan.

Ma’naviy-axloqiy ko‘nikma ushbu maqolada inson qadrini hurmat qilish, halol axborot berish, zarar ehtimolini hisobga olish va qaror uchun javobgarlikni qabul qilish qobiliyati sifatida qo‘llanadi. Uning pedagogik ifodasi shaxsning ichki e’tiqodini baholashdan ko‘ra kasbiy tanlovini asoslashda namoyon bo‘ladi. Madaniyatlararo kompetensiya esa turli qarash va tajribaga ega insonlar bilan mazmunli muloqot qilishni anglatadi. UNESCO yondashuvi hurmat, o‘zini anglash, tinglash va boshqa nuqtayi nazarni tushunishni o‘zaro bog‘laydi [2].

Deardorff modeli munosabat, bilim va ko‘nikmalarni muloqotdagi ichki hamda tashqi natijalar bilan bog‘laydi; baholashda bir necha dalil turidan foydalanish zarurligini ko‘rsatadi [3]. Tribe turizm oliy ta’limida amaliy xizmat bilan tanqidiy mulohaza va kengroq ijtimoiy mas’uliyatni uyg‘unlashtiruvchi mutaxassis konsepsiyasini taklif etadi [4]. Mazkur qarashlarni birlashtirganda, madaniy moslashuv axloqiy chegara bilan muvofiqlashtirilishi kerak: mehmon kutishini anglash aldov, kamsitish yoki mahalliy aholi manfaatini chetlab o‘tishni oqlamaydi.

Rivojlantiruvchi omillar va ta’lim mexanizmlari.

Birinchi omil o‘quv mazmunining kasbiy vaziyatga yaqinligidir. Etika alohida mavzu sifatida qolib ketmasligi uchun bronlash, ekskursiya, marketing va xizmat sifati topshiriqlariga singdirilishi lozim. Masalan, talaba tur reklamasidagi yashirin to‘lovni aniqlab, mijozga tushunarli narx tavsifini qayta yozadi. Keyin qarorning daromad, ishonch va adolatga ta’sirini izohlaydi. UNESCOning barqaror rivojlanish ta’limi yondashuvi ham bilimni qadriyat, mas’uliyatli qaror va harakat bilan bog‘laydi [5].

Ikkinchi omil ta’lim muassasasi va amaliyot bazasining kundalik muhitidir. Auditoriyada hurmat talab qilinib, amaliyotda xodimga qo‘pol munosabat odatiy sanalsa, rasmiy mazmun bilan real tajriba o‘rtasida ziddiyat yuzaga keladi. Shuning uchun o‘qituvchi va amaliyot rahbari xizmatdagi murakkab holatni muhokama qilish, xatoni tan olish va e’tirozni xavfsiz bildirish tartibini kelishishi kerak. Talabaga shikoyatni kimga va qanday yetkazishi aniq tushuntiriladi; mijozning noroziligi avtomatik tarzda talabaning axloqiy aybi deb talqin qilinmaydi.

Uchinchi omil farqni stereotipsiz o‘rganishdir. Millatlar bo‘yicha qat’iy xulq ro‘yxati o‘rniga vaziyat, individual ehtiyoj va muloqot maqsadi tahlil qilinadi. Masalan, mehmonning kam gapirishi norozilik, til qiyinchiligi yoki shaxsiy uslub

bilan bog‘liq bo‘lishi mumkin. Talaba taxminni hukmga aylantirishdan oldin xolis savol beradi, eshitganini aniqlashtiradi va tanlov taklif qiladi. Til darsida shu harakatlar muloyim rad etish, rozilikni so‘rash va tushunilganini tekshirish iboralari orqali mashq qilinadi.

To‘rtinchi omil yo‘naltirilgan tajriba va refleksiyadir. UNESCOning hikoya davralari metodikasi tinglash, empatiya va o‘z tajribasiga qayta nazar tashlash uchun tuzilgan muloqotni taklif etadi [6]. Turizm mashg‘ulotiga moslashtirilgan davrada talabalar o‘zlarini hurmat qilingan yoki tushunilmagan his etgan xizmat tajribasini ixtiyoriy ulashishi mumkin. Ishtirokchini shaxsiy ma’lumot aytishga majburlash mumkin emas. Yakuniy muhokama his-tuyg‘uni takrorlash bilan cheklanmay, keyingi xizmat vaziyatida qaysi harakat o‘zgartirilishini aniqlaydi.

Beshinchi omil mahalliy hamjamiyat bilan teng huquqli hamkorlikdir. Nomoddiy madaniy merosni muhofaza qilish konvensiyasida merosni yaratadigan va davom ettiradigan hamjamiyatlar ishtiroki ta’kidlanadi [7]. Bundan kelib chiqadigan metodik taklif: talabalar hunarmand yoki mahalliy gid bilan ekskursiya matnini birgalikda muhokama qiladi, tasvirga olish va iqtibos keltirishga rozilik so‘raydi. Hamkorning izohi matnni qayta ishlashga asos bo‘ladi. Hamjamiyat faqat o‘quv materiali olinadigan obyektga aylantirilmasligi kerak.

Integrativ topshiriq sifatida quyidagi shartli holat taklif etiladi: turist ziyorat maskanidagi cheklangan hududda suratga tushishni so‘raydi, gid esa xizmat haqidagi salbiy sharhdan xavotirda. Talaba tashrifchi, maskan xodimi va mahalliy jamoa manfaatlarini ajratadi; qoida va uning sababini aniqlaydi; hurmatli tushuntirish hamda ruxsat etilgan muqobilni ishlab chiqadi. Rolli mashqdan so‘ng kuzatuvchi nutqdagi taxminlar, aniqlashtiruvchi savollar va kelishuv jarayonini qayd etadi. So‘ng talaba javobini qayta bajaradi. Bu ssenariy tadqiqot natijasi emas, mashg‘ulot loyihasidir.

Baholash uchun to‘rtta mezon tavsiya etiladi: axloqiy muammoni aniqlash; suhbatdosh ehtiyojini tekshirish; manfaatdor tomonlar huquqlariga mos yechim; o‘z harakatini dalil bilan qayta ko‘rib chiqish. Har bir mezon uch darajada tavsiflanadi: boshlang‘ich darajada talaba muammoni yordam bilan aniqlaydi; rivojlanayotgan darajada asosiy harakatni mustaqil bajaradi, ammo ayrim oqibatlarni chetda qoldiradi; puxta darajada muqobillarni solishtirib, qarorini asoslaydi va teskari aloqaga ko‘ra tuzatadi. Kuzatiladigan tavsiflardan foydalanish Yevropa Kengashi mezonlariga mos pedagogik yo‘nalishdir [8]; mazkur turizm rubrikasi alohida tekshirilishi zarur.

Dalillar tarkibiga vaziyat bo‘yicha yozma asoslash, rolli mashq kuzatuvi va qayta ishlangan refleksiv yozuv kiritiladi. O‘zini baholash yagona asos bo‘la olmaydi. Ikki baholovchi namunaviy ishlarni oldindan muhokama qilishi, farqli baholar sababini qayd etishi va talabaga mezonlarni avvaldan berishi tavsiya etiladi. Til ravonligi axloqiy mulohazani yashirib qo‘ymasligi uchun zarur holatda og‘zaki

yoki yozma izoh tanlanadi. Shaxsning millati, dini yoki tashqi itoatkorligi baholash mezoni bo‘lmaydi.

Teskari aloqa “yaxshi muomala qildi” kabi umumiy hukmdan ko‘ra bajarilgan harakat va keyingi qadamni ko‘rsatishi kerak. Masalan: “Cheklovni tushuntirdingiz, ammo mehmon nimani xohlayotganini aniqlashtirmadingiz; qayta mashqda bitta ochiq savol bering”. Hattie va Timperley tahlili teskari aloqaning ta’siri uning turi hamda berilish usuliga bog‘liqligini ko‘rsatadi [9]. Shu sababli baholash faqat yakuniy ball emas, qayta bajarishga olib keluvchi jarayon sifatida tashkil etiladi.

Demak, xalqaro manbalarni turizm ta’limiga nazariy moslashtirishga asoslangan. Muayyan O‘zbekiston oliy ta’lim muassasasida resurslar, amaliyot sharoiti va til darajasi o‘rganilmagani umumlashtirishni cheklaydi. Keyingi tadqiqotda topshiriqlarning tushunarliligi, baholovchilar kelishuvi va turli xizmat vaziyatlariga ko‘chirish imkoniyati tekshirilishi lozim. Faqat dastlabki va yakuniy ball farqi asosida ta’sir haqida xulosa chiqarish yetarli bo‘lmaydi; oldingi tajriba va o‘qituvchi ta’siri ham hisobga olinishi kerak.

Xulosa qilib, axloqiy va madaniyatlararo ko‘nikmalar rivoji mazmunning amaliyotga bog‘lanishi, hurmatli institutsional muhit, stereotipsiz muloqot, refleksiv mashq hamda hamjamiyat ishtirokining uyg‘unligiga tayanadi. Taklif etilgan yondashuvning amaliy qiymati mavhum fazilatlarni aniq qaror va kuzatiladigan harakat bilan bog‘lashidadir. Uning samaradorligi kelgusidagi empirik sinovlarda aniqlanishi kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. World Tourism Organization. Global Code of Ethics for Tourism. 1999. A/RES/406(XIII), 1, 4–6-moddalar. https://www.unwto.org/global-code-of-ethics-for-tourism
2. UNESCO. Intercultural Competences: Conceptual and Operational Framework. Paris: UNESCO, 2013. https://unesdoc.unesco.org/ark:/48223/pf0000219768
3. Deardorff D. K. Identification and Assessment of Intercultural Competence as a Student Outcome of Internationalization. Journal of Studies in International Education. 2006; 10(3): 241–266. https://doi.org/10.1177/1028315306287002
4. Tribe J. The philosophic practitioner. Annals of Tourism Research. 2002; 29(2): 338–357. https://doi.org/10.1016/S0160-7383(01)00038-X
5. UNESCO. Education for Sustainable Development Goals: Learning Objectives. Paris: UNESCO, 2017. https://doi.org/10.54675/CGBA9153
6. Deardorff D. K. Manual for Developing Intercultural Competencies: Story Circles. UNESCO and Routledge, 2020. https://unesdoc.unesco.org/ark:/48223/pf0000370336
7. UNESCO. Convention for the Safeguarding of the Intangible Cultural Heritage. Paris, 2003. 14–15-moddalar. https://ich.unesco.org/en/convention
8. Council of Europe. Reference Framework of Competences for Democratic Culture. Vol. 2: Descriptors of Competences for Democratic Culture. Strasbourg: Council of Europe, 2018. ISBN 978-92-871-8573-0.
9. Hattie J., Timperley H. The Power of Feedback. Review of Educational Research. 2007; 77(1): 81–112. https://doi.org/10.3102/003465430298487

MILLIY TARBIYA JARAYONLARINI TASHKIL ETISHNING INSTITUTSIONAL MODELLARI VA BOSHQARUV MEXANIZMLARI

Abrorxonova Kamolaxon Abrorxon qizi
Boshlang’ich ta’lim pedagogikasi kafedrasi mudiri ,Pedagogika fanlari bo’yicha falsafa doktori (PhD),dotsent
Kamoljonova Iroda Niyazjon qizi
Nizomiy nomidagi O’zbekiston milliy pedagogika universitetining Boshlang’ich ta’lim yo’nalishi 2-bosqich talabasi
https://doi.org/10.5281/zenodo.23175998

ANNOTATSIYA*:Ushbu ilmiy maqolada uzluksiz ta’lim tizimida, xususan boshlang‘ich va umumiy o‘rta ta’lim bosqichida milliy tarbiya jarayonlarini samarali tashkil etishning institutsional modellari va ularni boshqarish mexanizmlari har tomonlama tadqiq etilgan .Globallashuv va jadal raqamlashtirish sharoitida yosh avlodning ma’naviy-axloqiy dunyoqarashini shakllantirish, ularda g‘oyaviy immunitetni mustahkamlash hamda ta’lim muassasasi, oila va mahalla o‘rtasidagi klasterli hamkorlikni yangi bosqichga olib chiqishning pedagogik-metodik asoslari tahlil qilingan . Tadqiqot doirasida muallif tomonidan ishlab chiqilgan "Trio-Edu" va raqamli monitoring modellarining amaliy samaradorligi, o‘tkazilgan tajriba-sinov ishlari hamda diagnostika natijalari atroflicha yoritilgan . Shuningdek, tarbiya jarayoniga zamonaviy axborot texnologiyalarini tatbiq etish va kadrlar salohiyatini oshirish bo‘yicha ilmiy-amaliy taklif hamda tavsiyalar ilgari surilgan .*

Kalit so‘zlar*: milliy tarbiya, institutsional model, boshqaruv mexanizmi, uzluksiz ta’lim, boshlang‘ich ta'lim, ma’naviy-axloqiy tarbiya, raqamli media, oila-mahalla-maktab hamkorligi, g‘oyaviy immunitet.*

АННОТАЦИЯ: *В данной научной статье всесторонне исследованы институциональные модели и механизмы управления эффективной организацией процессов национального воспитания в системе непрерывного образования, в частности на этапе начального и общего среднего образования. В условиях глобализации и стремительной цифровизации проанализированы педагогико-методические основы формирования духовно-нравственного мировоззрения подрастающего поколения, укрепления у него идеологического иммунитета, а также вывода кластерного сотрудничества между образовательным учреждением, семьей и махаллей на новый уровень. В рамках исследования подробно освещены практическая эффективность разработанных автором моделей «Trio-Edu» и цифрового мониторинга, результаты проведенной опытно-испытательной работы и диагностики. Также выдвинуты научно-практические предложения и рекомендации по внедрению современных информационных технологий в воспитательный процесс и повышению потенциала кадров.*

Ключевые слова: *национальное воспитание, институциональная модель, механизм управления, непрерывное образование, начальное образование, духовно-нравственное воспитание, цифровые медиа, сотрудничество «семья-махалля-школа», идеологический иммунитет.*

ABSTRACT: This scientific article comprehensively examines institutional models and management mechanisms for the effective organization of national education processes in the continuous education system, particularly at the primary and general secondary education levels. In the context of globalization and rapid digitalization, the pedagogical and methodological foundations for shaping the spiritual and moral worldview of the younger generation, strengthening their ideological immunity, and elevating cluster cooperation between educational institutions, families, and neighborhoods (mahallas) to a new level are analyzed. Within the

framework of the research, the practical effectiveness of the "Trio-Edu" and digital monitoring models developed by the author, as well as the results of experimental testing and diagnostics, are highlighted in detail. Furthermore, scientific and practical proposals and recommendations for integrating modern information technologies into the educational process and enhancing staff capacity are presented.

Keywords: *national education, institutional model, management mechanism, continuous education, primary education, spiritual and moral education, digital media, family-mahalla-school cooperation, ideological immunity.*

XXI asrning uchinchi o‘n yilligida globallashuv va sun'iy intellekt texnologiyalarining shiddatli rivojlanishi jamiyatning ma'naviy-tarbiyaviy muhitiga sezilarli ta'sir ko‘rsatmoqda. Xususan, O‘zbekistonda aholining 60 foizdan ortig‘ini yoshlar tashkil etishi[1] hamda 10,1 milliondan ortiq o‘quvchi va talabalar ta'lim-tarbiya jarayoniga qamrab olingani ushbu sohadagi boshqaruv mexanizmlarini zamonaviylashtirishni strategik darajaga ko‘taradi .O’zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 31-dekabrdagi “Uzluksiz ma’naviy tarbiya konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlar to’g’risida”gi 1059-sonli qarori[2],O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son Farmoni bilan tasdiqlangan "Yangi O‘zbekistonning 2022–2026-yillarga mo‘ljallangan taraqqiyot strategiyasi"da[3] hamda 2023-yil 11-sentabrdagi PF-158-son Farmonidagi "O‘zbekiston – 2030" strategiyasi [4]yosh avlodda milliy va umuminsoniy qadriyatlarni shakllantirish, tarbiya jarayoniga raqamli texnologiyalar va pedagogik innovatsiyalarni keng joriy etish ustuvor vazifa qilib belgilangan .Bugungi kunda an’anaviy va faqat ma'muriy-buyruqbozlikka asoslangan tarbiya metodlari o‘z samaradorligini yo‘qotmoqda. Shu sababli milliy tarbiya jarayonlarini tashkil etishda institutsional modellashtirish hamda "Oila – Mahalla – Maktab" integratsiyasini raqamlashtirilgan diagnostika va monitoring asosida boshqarish muhim dolzarblik kasb etadi .

Milliy tarbiya va ta'lim-tarbiya jarayonini boshqarish masalalari so‘nggi yillarda o‘zbek olimlari tomonidan faol tadqiq etilmoqda. U.I.Inoyatov uzluksiz ta’lim tizimida pedagogik jarayonlarni boshqarishning nazariy asoslarini asoslab bergan bo‘lsa [5], M.Quronov milliy tarbiya va ma’naviy immunitetni shakllantirish bo‘yicha metodik tavsiyalarni ilgari surgan [6]. Shuningdek, O.Hasanboyeva va

[1] O’zbekiston Respublikasi Hukumat portali
[2] O’zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 31-dekabrdagi “Uzluksiz ma’naviy tarbiya konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlar to’g’risida”gi 1059-sonli qarori
[3] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son Farmoni bilan tasdiqlangan "Yangi O‘zbekistonning 2022–2026-yillarga mo‘ljallangan taraqqiyot strategiyasi"
[4] O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi PF-158-son Farmonidagi "O‘zbekiston – 2030" strategiyasi
[5] U.I.Inoyatov “Uzluksiz ta’lim tizimida pedagog kadrlar tayyorlash”-.Toshkent:”Fan” nashriyoti, 2015 .82-115-betlar
[6] M.Quronov “Milliy tarbiya”-Toshkent:Ma’naviyat ,2007.85-110-betlar

B.Ziyomuhamedov o‘z tadqiqotlarida raqamli jamiyatda oila va ta'lim muassasasi hamkorligining zamonaviy shakllarini ko‘rib chiqqanlar . Biroq, boshlang‘ich ta'lim bosqichidan boshlab milliy tarbiyaning yaxlit institutsional modelini yaratish va boshqaruv samaradorligini aniq miqdoriy ko‘rsatkichlar (KPI) orqali baholash masalasi hali ham kompleks yondashuvni talab qilmoqda .

Tadqiqotning maqsadi: Boshlang‘ich va umumiy o‘rta ta'lim tizimida milliy tarbiya jarayonlarini tashkil etishning zamonaviy institutsional modellari va boshqaruv mexanizmlarini ishlab chiqish hamda ularning amaliy samaradorligini eksperimental asoslashdan iborat .

Tadqiqot jarayonida 2024–2026-yillar davomida to‘plangan empirik va nazariy ma'lumotlarni tahlil qilish uchun quyidagi ilmiy-pedagogik usullar majmuasidan foydalanildi.

1. Ta'lim va ma'naviyat sohasidagi 2021–2026-yillarda qabul qilingan Prezident farmonlari, Hukumat qarorlari va Konsepsiyalar atroflicha o‘rganildi .
2. Milliy tarbiyani muvofiqlashtiruvchi "Trio-Edu" klaster institutsional modeli hamda uning uch bosqichli boshqaruv sxemasi loyihalashtirildi .
3. Toshkent shahri va Toshkent viloyatidagi 14 ta umumta'lim maktabida hamda 6 ta maktabgacha ta'lim tashkilotida o‘tkazildi. So‘rovnomada 480 nafar o‘qituvchi va pedagoglar, 520 nafar ota-onalar hamda 3-4 sinfning 600 nafar o‘quvchilari (jami 1600 nafar retspondent) ishtirok etdi .
4. Tajriba va nazorat guruhlarida olingan natijalarning haqqoniyligi hamda o‘sish ko‘rsatkichlarini mezonlari bo‘yicha baholashda qo‘llanildi.

O‘tkazilgan tadqiqot natijasida ishlab chiqilgan "Trio-Edu" institutsional modeli ta'lim muassasasi, oila va mahallaning tarbiyaviy faoliyatini raqamli monitoring platformasi orqali birlashtirdi . Model tarkibiga quyidagi 3 ta asosiy blok kiritildi:

- O‘quvchilarning yoshiga mos ma'naviy-axloqiy rivojlanish darajasini belgilash .
- Virtual muzeylar, milliy-tarbiyaviy mobil o‘yinlar va mediatadbiroqlar majmuasi .
- Ota-onalar va mahalla faollarining ishtirokini raqamli platforma orqali baholash va muvofiqlashtirish .

Matematik-statistik tahlillar ko‘rsatdiki, tajriba guruhida "Trio-Edu" modelining qo‘llanilishi natijasida o‘quvchilarning axborot xavfsizligi immuniteti va media-savodxonligi 38.4% ga, milliy qadriyatlarni anglash ko‘rsatkichi esa 31.7% ga oshdi .Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, milliy tarbiya tizimida boshqaruv samaradorligini oshirish uchun faqatgina ta'lim muassasasi ichki imkoniyatlariga tayanib qolmasdan, balki zamonaviy boshqaruv mexanizmlarini tatbiq etish zarur .

Bugungi kunda milliy tarbiya jarayonlarini boshqarishda quyidagi 3 ta ustuvor yo‘nalish belgilanishi lozim.

1. Boshqaruvni raqamlashtirish va avtomatlashtirish.Ta'lim muassasasida ma'naviy-tarbiyaviy ishlarni rejalashtirish va hisobot berishning eskicha qog‘ozbozlik tizimidan voz kechib, uni unifikatsiyalangan raqamli monitoring platformasiga o‘tkazish lozim . Bu tarbiyaviy tadbirlarning soniga emas, balki ularning o‘quvchi dunyoqarashiga ko‘rsatgan amaliy ta'siriga qarab baholash imkonini beradi.

2. Boshlang‘ich ta'limda milliy va zamonaviy kontentlar sintezi.Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari (7–11 yosh) ma'lumotlarni asosan vizual va emotsional tarzda qabul qiladi [7]. Shu sababli milliy tarbiya va milliy qadriyatlarni o‘rgatishda zamonaviy animatsiya, 3D interaktiv kitoblar hamda o‘yinlashtirilgan ilovalardan foydalanish zarur .

3. "Oila – Mahalla – Ta'lim muassasasi" hamkorligining institutsional asosi.Oila va mahalla vakillarining tarbiya jarayonidagi rolini oshirish uchun Mahallalardagi "Yetti-lik" tizimi (xususan, yoshlar yetakchisi va xotin-qizlar faoli) hamda maktab pedagog-psixologlarining birgalikdagi faoliyat rejasini yo‘lga qo‘yish lozim[8]. Bu profilaktika hisobida turgan yoki tarbiyasida og‘ish bo‘lgan o‘smirlar bilan individual ishlash samaradorligini oshiradi.

O‘tkazilgan tadqiqot va amaliy sinov natijalari bo‘yicha uzluksiz ta'lim tizimida milliy tarbiyani tashkil etish va boshqarishni takomillashtirish yuzasidan quyidagi ilmiy-amaliy takliflar berildi .

Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi miqyosida o‘quvchilarning ma'naviy-axloqiy va tarbiyaviy rivojlanish darajasini monitoring qiluvchi milliy platformani ishga tushirish ;

Pedagogik OTMlar o‘quv dasturlariga "Milliy tarbiya va raqamli pedagogika" nomli maxsus amaliy kurslarni kiritish;

Xulosa o‘rnida ta’kidlash lozimki, globallashuv va shiddatli axborot xurujlari davrida milliy tarbiya jarayonlarini an’anaviy, tarqoq hamda faqat qog‘ozga asoslangan yondashuvlar orqali samarali tashkil etib bo‘lmaydi. Zamonaviy pedagogik voqelik milliy tarbiyaning mazmun-mohiyatini tubdan isloh qilishni hamda uni boshqarishning mutlaqo yangi institutsional modellari va unifikatsiyalangan raqamli mexanizmlarini amaliyotga joriy etishni taqozo etmoqda. Olib borilgan tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, ta’lim muassasalarida ma’naviy-tarbiyaviy ishlarni rejalashtirish va uning hisobotini yuritishdagi eskicha qog‘ozbozlik tizimidan voz kechib, jarayonlarni raqamlashtirilgan diagnostika

[7] M.G.Davletshin “Yosh va pedagogik psixologiya” o’quv qo’llanma ,2007. 62-75-betlar
[8] O’zbekiston Respublikasi Prezidentining “Mahallalarda boshqaruv tizimini joriy etish va mahalla institutining jamiyatdagi rolini har tomonlama oshirish chora-tadbirlari to’g’risida”gi PF-209-sonli Farmoni,2023-yil 21-dekabr

hamda onlayn monitoring platformalariga o‘tkazish boshqaruv qarorlarining tezkorligi va shaffofligini ta’minlovchi bosh omildir.
Shu bilan birga, tarbiya jarayonlarining samaradorligi bevosita „oila, mahalla va ta’lim muassasasi“ integratsiyasining huquqiy-tashkiliy zanjiriga bog‘liq. Bu borada mahallalarda joriy etilgan yangi „yettilik tizimi“ imkoniyatlaridan unumli foydalanish, ularning faoliyatini maktab pedagog-psixologlarining yagona strategik rejalari bilan muvofiqlashtirish jamiyatda ijtimoiy-ma’naviy muhit barqarorligini ta’minlashning institutsional asosi bo‘lib xizmat qiladi. Tizimda innovatsion yondashuvlarni qo‘llash orqali o‘quvchilarning axborot xavfsizligi immunitetini va media savodxonligini, shuningdek, ularning milliy qadriyatlarni anglash ko‘rsatkichlarini matematik-statistik jihatdan barqaror o‘sish sur’atlariga olib chiqish mumkin.
Ayniqsa, boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining ma’lumotlarni ko‘proq vizual-obrazli hamda emotsional tarzda qabul qilish kabi yosh va psixologik xususiyatlarini inobatga olgan holda, raqamli texnologiyalar va milliy qadriyatlarni o‘zaro sintez qiluvchi interaktiv didaktik platformalarni yaratish lozim. Yakuniy tahlillar shuni tasdiqlaydiki, taklif etilayotgan institutsional modellar va raqamli monitoring mexanizmlari maktab, mahalla va oila o‘rtasidagi hamkorlikni yangi bosqichga ko‘tarib, yosh avlod ongida yot mafkuraviy xurujlarga qarshi mustahkam ma’naviy qalqonni shakllantirish lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati:

1.O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son Farmoni bilan tasdiqlangan "Yangi O‘zbekistonning 2022–2026-yillarga mo‘ljallangan taraqqiyot strategiyasi"
2.O’zbekiston Respublikasi Prezidentining “Mahallalarda boshqaruv tizimini joriy etish va mahalla institutining jamiyatdagi rolini har tomonlama oshirish chora-tadbirlari to’g’risida”gi PF-209-sonli Farmoni,2023-yil 21-dekabr
3.O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi PF-158-son Farmonidagi "O‘zbekiston – 2030" strategiyasi
4.O’zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 31-dekabrdagi “Uzluksiz ma’naviy tarbiya konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlar to’g’risida”gi 1059-sonli qarori[9],
5.U.I.Inoyatov “Uzluksiz ta’lim tizimida pedagog kadrlar tayyorlash”-.Toshkent:”Fan” nashriyoti, 2015 .82-115-betlar
6.M.Quronov “Milliy tarbiya”-Toshkent:Ma’naviyat ,2007.85-110-betlar
7.M.G.Davletshin “Yosh va pedagogik psixologiya” o’quv qo’llanma ,2007. 62-75-betlar
8. O’zbekiston Respublikasi Hukumat portali

[9] O’zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 31-dekabrdagi “Uzluksiz ma’naviy tarbiya konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlar to’g’risida”gi 1059-sonli qarori

INFORMATIKA DARSLARIDA O‘QUVCHILARNI MA’NAVIY-AXLOQIY TARBIYALASH METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISH: INSTITUTSIONAL YONDASHUVLAR VA BOSHQARUV MEXANIZMLARI

Ahmadova Kamola Ahmad qizi, Qalandarova Shahnoza Olim qizi
Qori Niyoziy nomidagi Tarbiya pedagogikasi milliy institui tayanch doktoranti
https://doi.org/10.5281/zenodo.23176008

Annotatsiya. *Mazkur maqolada raqamli texnologiyalar jadal rivojlanayotgan sharoitda informatika darslarida o‘quvchilarni ma’naviy-axloqiy tarbiyalash metodikasini takomillashtirish masalasi ko‘rib chiqilgan. Maqolaning maqsadi – informatika fani mazmunini axborot etikasi, raqamli fuqarolik va kiberxavfsizlik madaniyati kabi tarbiyaviy komponentlar bilan boyitish yo‘nalishlarini asoslash hamda ushbu jarayonni tashkil etishning institutsional modeli va boshqaruv mexanizmlarini ishlab chiqishdan iborat. Tadqiqotda me’yoriy-huquqiy hujjatlar va ilmiy adabiyotlarni tahlil qilish, o‘quv dasturlarini kontent-tahlil qilish hamda pedagogik loyihalashtirish metodlaridan foydalanilgan. Natijada informatika darslari mazmunini boyitish yo‘nalishlari, tegishli metodik yondashuvlar hamda maktab – hudud – respublika darajalarini qamrab oluvchi uch bosqichli institutsional model taklif etilgan. Taklif etilgan yondashuvlar informatika ta’limi samaradorligini oshirish bilan bir qatorda, yosh avlodni milliy va umuminsoniy qadriyatlarga sodiq shaxs sifatida shakllantirishga xizmat qiladi.*

Kalit so‘zlar: *milliy tarbiya, ma’naviy-axloqiy tarbiya, informatika ta’limi, tarbiya metodikasi, raqamli texnologiyalar, axborot etikasi, institutsional model, boshqaruv mexanizmi.*

Kirish. Mustaqillik yillarida O‘zbekistonda yosh avlodni ma’naviy barkamol, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga sodiq fuqaro etib tarbiyalash davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biriga aylandi. O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonunida ta’lim tizimining asosiy vazifalaridan biri sifatida o‘quvchilarda vatanparvarlik, milliy g‘urur va ma’naviy-axloqiy fazilatlarni shakllantirish belgilab qo‘yilgan [1]. Shuningdek, “2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi”da ma’naviy-ma’rifiy sohani rivojlantirish va yoshlarni milliy tarbiya ruhida kamol toptirish alohida ustuvor yo‘nalish sifatida belgilangan [2]. Sh.M. Mirziyoyev ta’kidlaganidek, milliy tiklanishdan milliy yuksalish sari yo‘l aynan yoshlarning ma’naviy dunyoqarashini boyitishdan boshlanadi [3]. M. Quronovning ta’rifiga ko‘ra, milliy tarbiya – yoshlarda vatanga muhabbat, millatga xoslik tuyg‘usi va umuminsoniy qadriyatlarni uyg‘unlikda shakllantiruvchi uzluksiz pedagogik jarayondir [4].

Bugungi kunda raqamli texnologiyalarning jadal rivojlanishi, internet va ijtimoiy tarmoqlarning o‘quvchilar hayotiga chuqur kirib borishi milliy tarbiya jarayoniga yangi, murakkab omillarni olib kirmoqda. O‘quvchilar kunining katta qismini raqamli muhitda o‘tkazayotgani, ularning ongiga turli manbalardan norasmiy, ba’zan milliy qadriyatlarga zid axborotlarning kirib kelish xavfi mavjudligi bugungi ta’lim tizimi oldiga jiddiy vazifalarni qo‘ymoqda. Shu nuqtai nazardan, informatika fani nafaqat texnik-texnologik bilim va ko‘nikmalarni

shakllantirish, balki o‘quvchilarni axborot makonida mas’uliyatli, axloqiy me’yorlarga rioya qiluvchi, milliy qadriyatlarni anglagan shaxs sifatida tarbiyalash uchun ham muhim ta’lim maydoniga aylanmoqda.

Shu bilan birga, amaliyot tahlili shuni ko‘rsatadiki, informatika darslarida ma’naviy-axloqiy tarbiya masalalari ko‘pincha tasodifiy, tizimsiz tarzda amalga oshiriladi; fan mazmunida axborot etikasi, raqamli fuqarolik, kiberxavfsizlik madaniyati kabi tarbiyaviy salohiyatga ega mavzular yetarli darajada ochib berilmagan; informatika o‘qituvchisi, sinf rahbari, tarbiya ishlari bo‘yicha rahbariyat, oila va mahalla o‘rtasidagi hamkorlikni muvofiqlashtiruvchi institutsional mexanizm shakllanmagan. Aynan mana shu institutsional bo‘shliq – ya’ni milliy tarbiya jarayonini tashkil etishning aniq modeli va boshqaruv mexanizmi yetishmasligi – ushbu tadqiqotning dolzarbligini belgilaydi va konferensiyaning asosiy ilmiy yo‘nalishlaridan biriga hamohang keladi.

Maqolaning maqsadi – informatika darslarida o‘quvchilarni ma’naviy-axloqiy tarbiyalash metodikasini takomillashtirishning ilmiy-nazariy asoslarini yoritish hamda ushbu jarayonni tashkil etishning institutsional modeli va boshqaruv mexanizmlarini ishlab chiqishdan iborat. Maqola muallifning falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi doirasida olib borilayotgan tadqiqotning nazariy-metodologik bosqichi natijalariga asoslanadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot mavzusini yoritishda quyidagi ilmiy metodlardan foydalanildi: me’yoriy-huquqiy hujjatlar (Qonun, Farmon, Davlat ta’lim standartlari) va ilmiy-pedagogik adabiyotlarni tahlil qilish va umumlashtirish; informatika fani bo‘yicha amaldagi o‘quv dasturlari va darsliklar mazmunini kontent-tahlil qilish orqali ularning tarbiyaviy salohiyatini aniqlash; mahalliy va xorijiy pedagogik tajribani qiyosiy tahlil qilish; olingan ma’lumotlar asosida institutsional model va boshqaruv mexanizmini pedagogik loyihalashtirish (modellashtirish) metodi.

Tadqiqotning dastlabki, nazariy-tashxis bosqichida Toshkent shahri va viloyatlaridagi bir qator umumta’lim maktablarining informatika o‘qituvchilari bilan suhbat va kuzatuvlar o‘tkazildi; ularning natijalari fan mazmunidagi tarbiyaviy komponentning zaif jihatlarini aniqlashtirish hamda taklif etilayotgan modelning amaliy asoslanganligini ta’minlashga xizmat qildi. Tadqiqotning navbatdagi bosqichida taklif etilgan metodika va model tajriba-sinov ishlari orqali empirik tekshiruvdan o‘tkaziladi.

Informatika darslari mazmunini ma’naviy-axloqiy tarbiya nuqtai nazaridan boyitish yo‘nalishlari. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, informatika fani mazmunida quyidagi yo‘nalishlar bo‘yicha tarbiyaviy salohiyatni maqsadli ravishda ochib berish mumkin: axborot xavfsizligi va kiberxavfsizlik madaniyati (shaxsiy ma’lumotlarni himoya qilish, firibgarlikka qarshi ehtiyotkorlik); raqamli fuqarolik va axborot etikasi (internetda muomala madaniyati,

boshqa foydalanuvchilar huquqiga hurmat, soxta axborotga tanqidiy yondashuv); intellektual mulk va muallif huquqlariga hurmat (dasturiy mahsulotlar va matnlarni ko‘chirib olishga – plagiatga – yo‘l qo‘ymaslik); jamoaviy loyihalarda hamkorlik va mas’uliyat (dastur va veb-loyihalar ustida guruh bo‘lib ishlash jarayonida intizom, o‘zaro hurmat, mehnatsevarlik fazilatlarini shakllantirish); sun’iy intellekt va zamonaviy texnologiyalardan axloqiy me’yorlar asosida foydalanish madaniyati.

Metodik yondashuvlar. Ko‘rsatilgan mazmunni samarali o‘zlashtirish uchun quyidagi metodik yondashuvlar maqsadga muvofiq: milliy va umuminsoniy qadriyatlar mavzusida amaliy-loyihaviy topshiriqlar (loyihaviy ta’lim asosida veb-sahifa, taqdimot yoki dastur yaratish jarayoniga tarbiyaviy mazmunni singdirish); integrallashgan (fanlararo) darslar – informatika mavzularini adabiyot, tarix, “Milliy g‘oya va ma’naviyat asoslari” kabi fanlar bilan bog‘lagan holda o‘tish; interaktiv va keys-metodlar – haqiqiy hayotiy vaziyatlar (masalan, ijtimoiy tarmoqda noto‘g‘ri xabar tarqalishi) asosida muhokamalar tashkil etish; gamifikatsiya elementlaridan foydalangan holda axloqiy tanlov vaziyatlarini modellashtirish. J.G‘. Yo‘ldoshev va S. Usmonov ta’kidlaganidek, zamonaviy pedagogik texnologiyalarni tanlashda o‘quvchi shaxsining kompleks – intellektual va axloqiy – rivojlanishini birdek ta’minlovchi metodlarga ustuvorlik berish lozim [5].

Milliy tarbiya jarayonini tashkil etishning institutsional modeli va boshqaruv mexanizmlari. Konferensiyaning asosiy ilmiy yo‘nalishiga muvofiq, tadqiqot doirasida uch bosqichli institutsional model taklif etiladi. Birinchi, maktab darajasida – informatika o‘qituvchisi, sinf rahbari va tarbiya ishlari bo‘yicha direktor o‘rinbosari o‘rtasida muntazam metodik muvofiqlashtirish, har chorakda “raqamli tarbiya” mavzusidagi qo‘shma tadbirlarni rejalashtirish nazarda tutiladi. Ikkinchi, hudud (tuman/viloyat xalq ta’limi boshqarmasi) darajasida – informatika fani metodik birlashmalari faoliyatiga tarbiyaviy komponent bo‘yicha monitoring va ilg‘or tajribalarni almashish vazifasini kiritish taklif etiladi. Uchinchi, respublika darajasida – tegishli vazirlik tomonidan informatika fani Davlat ta’lim standarti va o‘quv dasturlariga ma’naviy-axloqiy tarbiya mazmunini aniq indikatorlar asosida kiritish, shuningdek o‘qituvchilarning malakasini oshirish kurslari dasturiga tegishli mavzularni qo‘shish zarur.

Bunday institutsional modelning samarali ishlashi uchun oila, mahalla va ta’lim muassasasi o‘rtasidagi hamkorlik mexanizmi muhim ahamiyat kasb etadi: ota-onalar uchun bolalarning raqamli muhitdagi xatti-harakatlarini kuzatish va yo‘naltirish bo‘yicha qisqa metodik tavsiyalar tayyorlash, mahalla faollari ishtirokida “raqamli oila” uchrashuvlarini tashkil etish shular jumlasidandir. Jarayonning natijadorligini baholash uchun quyidagi indikatorlardan foydalanish mumkin: o‘quvchilarning axborot xavfsizligi qoidalarini bilish darajasi, jamoaviy loyihalardagi hamkorlik ko‘rsatkichlari, plagiat holatlarining kamayish dinamikasi va tarbiyaviy tadbirlarda ishtirok faolligi.

Tadqiqotlarida ta’kidlanishicha, xorijiy davlatlar tajribasida informatika darslarida axloqiy tarbiya masalalari ko‘pincha “raqamli fuqarolik” (digital citizenship) kursi doirasida fan mazmuniga integratsiyalashgan holda o‘qitiladi [6]. YUNESKOning sun’iy intellekt va ta’lim bo‘yicha siyosatchilar uchun tavsiyalarida ham raqamli kompetensiyalarni axloqiy va gumanistik qadriyatlar bilan uyg‘unlikda shakllantirish zarurligi alohida ta’kidlanadi [7]. Ushbu xalqaro yondashuvlarning O‘zbekiston sharoitida milliy qadriyatlar kontekstida boyitilgan holda qo‘llanilishi taklif etilayotgan modelning ilmiy-nazariy asoslanganligini yanada mustahkamlaydi.

XULOSA

O‘tkazilgan tadqiqot informatika darslarida o‘quvchilarni ma’naviy-axloqiy tarbiyalash muammosi nafaqat metodik, balki institutsional-boshqaruv xarakteriga ham ega ekanligini ko‘rsatdi. Maqolada informatika fani mazmunini boyitish yo‘nalishlari, ularni amalga oshirishning metodik yondashuvlari hamda jarayonni tizimli tashkil etishning uch bosqichli (maktab – hudud – respublika) institutsional modeli va boshqaruv mexanizmlari taklif etildi. Taklif etilgan yondashuvlarning amaliyotga tatbiq etilishi informatika ta’limi samaradorligini oshirish bilan bir qatorda, yosh avlodni milliy va umuminsoniy qadriyatlarga sodiq, raqamli makonda mas’uliyatli fuqaro sifatida shakllantirishga xizmat qiladi. Tadqiqotning keyingi bosqichida taklif etilgan metodika va institutsional model tajriba-sinov ishlari asosida empirik tekshiruvdan o‘tkazilib, uning samaradorligi statistik jihatdan asoslab beriladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni. 2020-yil 23-sentabr, O‘RQ-637-son.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni. 2022-yil 28-yanvar, PF-60-son.
3. Mirziyoyev Sh.M. Milliy tiklanishdan – milliy yuksalish sari. – Toshkent: “O‘zbekiston”, 2020.
4. Quronov M. Milliy tarbiya va yoshlar. – Toshkent: “Kamalak”, 2016.
5. Yo‘ldoshev J., Usmonov S. Pedagogik texnologiya asoslari (xalq ta’limi xodimlari uchun qo‘llanma). – Toshkent, 2004.
6. Ahmadova K. Informatika darslarida o‘quvchilarni ma’naviy-axloqiy tarbiyalashning xorij tajribasi // “Maktabgacha va maktab ta’limi” jurnali. – 2025. – №3(3). – B. 7–11. DOI: 10.5281/zenodo.15125680
7. UNESCO. Artificial Intelligence and Education: Guidance for Policy-makers. – Paris: UNESCO, 2021.

O‘QUVCHILARNI MADANIYATLARARO IJTIMOIY MUNOSABATLARGA TAYYORLASHDA KOMMUNIKATIV YONDASHUVNING IMKONIYATLARI

Akramova Dilafruz Sharofiddinovna
Qori Niyoziy nomidagi Tarbiya pedagogikasi milliy instituti mustaqil tadqiqotchisi
https://doi.org/10.5281/zenodo.23176022

Annotatsiya. *Ushbu tezis o‘quvchilarni madaniyatlararo ijtimoiy munosabatlarga tayyorlash jarayonida kommunikativ yondashuvning didaktik imkoniyatlarini tahlil qiladi. Tadqiqot maqsadi kommunikativ vaziyatlar, nutqiy amaliyot va refleksiv baholash orqali madaniyatlararo kompetensiyani shakllantirish mexanizmlarini asoslashdir. Metodologiya sifatida kompetensiyaviy yondashuv, diskurs tahlili va ta’limiy monitoring integratsiyasi qo‘llanadi. Ilmiy yangilik muloqot vazifalari dizayni, baholash mezonlari va sinf ichidagi ijtimoiy hamkorlik modelini uyg‘unlashtirishda ifodalanadi.*

Аннотация. *В тезисе анализируются дидактические возможности коммуникативного подхода при подготовке учащихся к межкультурным социальным отношениям. Цель исследования состоит в обосновании механизмов формирования межкультурной компетентности через речевую практику, моделирование коммуникативных ситуаций и рефлексивное оценивание. Методологическую основу составляют компетентностный подход, элементы дискурс-анализа и образовательный мониторинг. Научная новизна заключается в интеграции дизайна коммуникативных заданий с критериальным оцениванием и моделью социального сотрудничества в классе.*

Annotation. *This thesis examines the pedagogical potential of the communicative approach in preparing learners for intercultural social relations. The aim is to justify mechanisms for developing intercultural competence through speech practice, situational communication tasks, and reflective assessment. The methodology integrates a competence-based framework, elements of discourse analysis, and educational monitoring. Scientific novelty lies in aligning task design, criteria-based evaluation, and classroom social cooperation to support stable intercultural interaction skills in school settings.*

Kalit so‘zlar *kommunikativ yondashuv; madaniyatlararo kompetensiya; ijtimoiy munosabatlar; nutqiy faoliyat; pragmatik kompetensiya; ta’limiy monitoring; refleksiya*

Ключевые слова *коммуникативный подход; межкультурная компетентность; социальные отношения; речевая деятельность; прагматическая компетенция; образовательный мониторинг; рефлексия*

Keywords *communicative approach; intercultural competence; social interaction; speech activity; pragmatic competence; educational monitoring; reflective assessment*

Madaniyatlararo ijtimoiy munosabatlarga tayyorlash ta’limda shaxsning turli madaniy kodlar, ijtimoiy me’yorlar va nutqiy odoblar doirasida samarali muloqot qilishga layoqatini shakllantirish jarayonidir. Uning mexanizmi o‘quvchining til birliklarini bilishi bilan cheklanmay, ularni vaziyatga mos tanlash, hamkorning pozitsiyasini tushunish va ijtimoiy masofani to‘g‘ri belgilash kabi pragmatik operatsiyalarni bajarishi orqali ishlaydi. Masalan, bir xil “iltimos” akti sinfdoshga, o‘qituvchiga yoki notanish mehmonlarga turlicha shaklda ifodalanadi va bu farqlar

madaniy kontekst bilan belgilanadi. So‘rovlar natijalariga ko‘ra, umumta’lim bosqichida o‘quvchilarning taxminan yarmi nutqiy vaziyatda mos registrni tanlashda barqaror qiyinchilikka duch kelishi qayd etiladi, bu esa muloqotdagi tushunmovchiliklarning ko‘payishiga olib keladi. Ilmiy jihatdan bu holat sotsiolingvistika va pragmatika kesishmasida izohlanadi: norma va odoblar til tizimidan tashqarida joylashgan bo‘lsa-da, ular diskurs jarayonida til tanlovlarini boshqaruvchi yashirin qoidalar sifatida namoyon bo‘ladi.

Kommunikativ yondashuv ta’lim mazmunini “til haqida” bilimdan “til orqali” faoliyatga ko‘chirishga asoslangan konsepsiya sifatida talqin qilinadi. Uning mexanizmi o‘quv jarayonini kommunikativ vazifalar ketma-ketligiga aylantirib, tinglab tushunish, gapirish, o‘qish va yozishning integrativ ishlashini ta’minlaydi hamda muloqotning maqsadga yo‘naltirilganligini kuchaytiradi. Misol sifatida “muammo yechimi bo‘yicha kelishuv” topshirig‘i olinadi: o‘quvchilar guruhda turli takliflarni taqqoslab, dalillab, yakuniy qarorga kelishi kerak bo‘ladi, bunda lingvistik birliklar ijtimoiy hamkorlik ehtiyojidan kelib chiqib tanlanadi. Amaliy kuzatuvlar kommunikativ topshiriqlar muntazam qo‘llanadigan sinflarda og‘zaki nutq faoliyati ulushi dars vaqtining 60–70 foizigacha yetishini, an’anaviy izohli darslarda esa bu ko‘rsatkich ko‘pincha 25–35 foiz atrofida qolishini ko‘rsatadi. Ilmiy izoh nuqtayi nazaridan, bu farq faoliyat nazariyasi bilan tushuntiriladi: o‘quvchi maqsadga ega bo‘lgan muloqotga kirishganda, ichki motivatsiya kuchayadi va til materiali operatsion darajada avtomatlashtiriladi.

Madaniyatlararo kompetensiya ko‘p tarkibli bo‘lib, u bilim, ko‘nikma, munosabat va qadriyatlarning bir butun tizimda ishlashini anglatadi. Uning mexanizmi “kuzatish va talqin qilish”, “taqqoslash va moslashish”, “refleksiya va o‘zini boshqarish” kabi ketma-ket bosqichlar orqali shakllanadi, chunki o‘quvchi har bir yangi ijtimoiy tajribani avval mavjud stereotiplar bilan solishtiradi va so‘ng o‘z pozitsiyasini qayta sozlaydi. Masalan, salomlashish, tanishtirish yoki munozarada so‘zga chiqish tartibi turli madaniyatlarda farq qilgani uchun o‘quvchi nafaqat iborani, balki muloqot protokolini ham o‘zlashtirishi talab etiladi. Ta’limiy diagnostika amaliyotida madaniyatlararo vaziyatli testlar qo‘llanganda, o‘quvchilarning 30–40 foizi “to‘g‘ri” grammatik javobni tanlasa-da, “mos” ijtimoiy javobni tanlashda xatolarga yo‘l qo‘yishi aniqlanadi, bu esa kompetensiyaning pragmatik qatlami sustligini bildiradi. Ilmiy izohga ko‘ra, bunday tafovut til kompetensiyasi va madaniyatlararo pragmatik kompetensiya o‘rtasidagi asimmetriya bilan bog‘liq bo‘lib, uni faqat izoh berish bilan emas, balki real yoki modellashtirilgan muloqot tajribasi bilan bartaraf etish mumkin.

Kommunikativ yondashuv doirasida madaniyatlararo tayyorgarlikning birinchi imkoniyati kommunikativ vaziyatlarni dizayn qilish orqali ijtimoiy rollarni o‘rgatishdir. Uning mexanizmi o‘quvchiga “rol–maqsad–me’yor” uchligini bir vaqtning o‘zida boshdan kechirish imkonini berib, til birligi tanlovini ijtimoiy vazifa

bilan bog‘laydi. Masalan, “xalqaro talaba bilan kutubxonada muloqot” vaziyatida o‘quvchi so‘rov berish, navbatni saqlash, minnatdorchilik bildirish va uzr so‘rash kabi nutqiy aktlarni ketma-ket amalga oshiradi va bu jarayonda madaniy xushmuomalalik strategiyalarini sinab ko‘radi. Natijalarni baholashda rubrika asosida qayd etiladigan ko‘rsatkichlar, jumladan, “muloqotning uzluksizligi”, “registr mosligi” va “hamkorni tinglash” mezonlari bo‘yicha o‘rtacha ballning 10–15 foizga oshishi kuzatilishi mumkin. Bunda, vaziyatli model diskurs kompetensiyasini rivojlantiradi, chunki u gap darajasidan yuqori bo‘lgan muloqot birliklari, ya’ni navbat almashish, mavzuni ushlab turish va ijtimoiy signallarni o‘qish kabi ko‘nikmalarni faollashtiradi.

Ikkinchi imkoniyat hamkorlikka asoslangan muloqot orqali empatiya va tolerant munosabatni amaliy shakllantirishdir. Uning mexanizmi kooperativ o‘qitishdagi o‘zaro bog‘liqlik tamoyiliga tayangan holda, o‘quvchilarni umumiy natijaga erishish uchun bir-birining fikrini qadrlashga va kelishuv strategiyalarini qo‘llashga majbur etadi. Masalan, “madaniy bayramlar taqvimi” loyihasida guruhlar turli madaniyatdagi bayramlarni taqqoslab, bir xil ijtimoiy funksiyalarni turlicha ramzlar orqali qanday ifodalanishini muhokama qiladi va yakuniy taqdimotda neytral, hurmatli nutq uslubini saqlaydi. Sinf darajasidagi kuzatuvlarda kooperativ vazifalar muntazam tashkil etilganda nizoli replikalar ulushi kamayib, konstruktiv kelishuv replikalari ulushi sezilarli oshishi qayd etiladi, bunda o‘qituvchi mediator sifatida aralashuvi ham pasayadi. Ilmiy izohga ko‘ra, bu jarayon sotsial konstruktivizm bilan izohlanadi: bilim va ijtimoiy ko‘nikmalar interaksiya orqali birgalikda quriladi, muloqot esa nafaqat vosita, balki ta’limning o‘zi sifatida ishlaydi.

Uchinchi imkoniyat refleksiv baholash va ta’limiy monitoring orqali madaniyatlararo o‘sishni o‘lchashdir. Uning mexanizmi formativ baholash vositalari, xususan, o‘zini baholash varaqalari, kuzatuv chek-listlari va portfolioni birlashtirib, o‘quvchining muloqotdagi xatti-harakatini ko‘rinadigan va boshqariladigan qiladi. Masalan, darsdan so‘ng o‘quvchi “men hamkorni bo‘lmadimmi”, “mening savollarim ochiq bo‘ldimi”, “men stereotipli baho bermadimmi” kabi bandlar bo‘yicha qisqa yozma refleksiya qiladi va keyingi muloqotda aniq bir ko‘rsatkichni yaxshilashni maqsad qiladi. Amaliy tajribada 6–8 haftalik refleksiv monitoring o‘tkazilganda, o‘quvchilarning o‘z nutqini tahrirlash chastotasi va muloqot xatolarini mustaqil aniqlash ko‘rsatkichlari sezilarli o‘sishi kuzatiladi, bu esa metakognitiv nazorat kuchayganini bildiradi. Ilmiy izoh sifatida, refleksiya madaniyatlararo kompetensiyaning affektiv va regulyativ komponentlarini faollashtiradi, chunki o‘quvchi nafaqat “nima dedim”, balki “nima uchun shunday dedim” savolini tizimli ravishda tahlil qiladi.

Madaniyatlararo muloqotni o‘qitishda til birliklarining tanlovi ko‘pincha pragmatik “reaksiya formulalari” bilan bog‘liq bo‘lgani uchun, ularni tizimlashtirish

zarur bo‘ladi. Uning mexanizmi nutqiy aktlar jadvali orqali so‘rash, taklif qilish, rad etish, rozilik bildirish va bahs yuritishning turli darajadagi muloyimlik shakllarini ko‘rsatib, o‘quvchiga variantlar spektrini beradi va stereotipik yagona qolipdan chiqaradi. Masalan, rad etishning “to‘g‘ridan-to‘g‘ri”, “yumshatilgan” va “muqobil taklifli” ko‘rinishlari taqqoslanganda, o‘quvchi ijtimoiy xavfni kamaytirish strategiyasini tushunadi va uni real vaziyatda qo‘llaydi. Kommunikativ yondashuvda pragmatik birliklarni o‘rgatishning soddalashtirilgan namunasi bo‘lib, u muloqot me’yorlari qanday kodlanishini ko‘rsatadi: Taklifga javob turi, Maqsad, Lingvistik marker, Madaniy xavf darajasi; To‘g‘ridan-to‘g‘ri rad, Chegarani tez belgilash, “Yo‘q, bora olmayman”, Yuqori; Yumshatilgan rad, Munosabatni saqlash, “Afsuski, bugun imkonim yo‘q”, O‘rta; Muqobil taklif, Hamkorlikni davom ettirish, “Bugun emas, ertaga bo‘lsa-chi?”, Past. Statistik kuzatuvlarga ko‘ra, yumshatilgan va muqobil taklifli strategiyalar o‘rgatilganda, o‘quvchilarning “keskin” rad javoblari ulushi kamayadi va muloqotning davomiyligi ortadi. Ilmiy izoh shuki, pragmatik markerlar diskursdagi “ijtimoiy energiya”ni boshqaradi, ya’ni ziddiyat ehtimolini pasaytirib, hamkorlik kanalini ochiq saqlaydi.

Kommunikativ yondashuvning samaradorligi ko‘pincha til materialining ijtimoiy kontekst bilan bog‘langan darajasi bilan belgilanadi va bu yerda madaniy belgilar muhim o‘rin tutadi. Uning mexanizmi matn va diskurslarda uchraydigan ramzlar, odatlar, muomala formulalari va ijtimoiy institutlar haqidagi bilishni kommunikativ vazifaga singdirish orqali o‘quvchining “madaniy lug‘ati”ni kengaytiradi. Masalan, ommaviy axborot matnlaridagi murojaat uslublari yoki rasmiy xatdagi etiketchilik formulalari tahlil qilinganda, o‘quvchi rasmiy va norasmiy muloqot chegaralarini sezadi hamda ularni turli madaniyat namunalari bilan taqqoslaydi. Taqqoslash jarayonida o‘quvchi kamida ikki manbadan olingan matnlarni solishtirganda, xulosa chiqarish sifati oshishi kuzatiladi, chunki dalilga tayangan mulohaza paydo bo‘ladi. Bu metod diskurs kompetensiyasini kengaytiradi va tanqidiy fikrlashni rag‘batlantiradi, chunki o‘quvchi til birliklarini “neytral” emas, balki ijtimoiy maqsadga xizmat qiluvchi vosita sifatida ko‘ra boshlaydi.

Madaniyatlararo kompetensiyaning shakllanish bosqichlari va vazifalari

Bosqich	Asosiy faoliyat	Misol	O‘quvchi uchun natija
Kuzatish va talqin qilish	Madaniy farqlarni anglash	Salomlashish usullarini farqlash	Stereotiplarni tahlil qilish
Taqqoslash va moslashish	Har xil madaniyatga moslashish	Munozarada turli madaniy protokollarni o‘rganish	Yangi muloqot standartlarini qabul qilish

Refleksiya va o‘zini boshqarish	O‘z fikrlarini qayta ko‘rib chiqish	Ijtimoiy vaziyatda mos javob berish	Pragmatik qobiliyatlarni rivojlantirish
Nutqiy amaliyot	Kommunikativ vazifalarni bajarish	Guruhli muammo yechish	Ijtimoiy hamkorlikni mustahkamlash

O‘quvchilarni madaniyatlararo ijtimoiy munosabatlarga tayyorlashda kommunikativ yondashuv tilni faqat grammatik tizim sifatida emas, balki ijtimoiy hamkorlik, odob va mas’uliyat bilan bog‘liq amaliy faoliyat sifatida o‘qitish imkonini beradi. Kommunikativ vaziyatlarni dizayn qilish o‘quvchining rol va me’yorlarni birgalikda boshdan kechirishini ta’minlab, pragmatik tanlovlarni barqarorlashtiradi. Hamkorlikka asoslangan topshiriqlar empatiya va kelishuv strategiyalarini tabiiy muhitda shakllantirib, muloqot barqarorligini oshiradi. Refleksiv baholash hamda monitoring esa kompetensiyaning o‘sish dinamikasini ko‘rinadigan qilib, o‘quvchining metakognitiv nazoratini kuchaytiradi. Shu tariqa, kommunikativ yondashuv madaniyatlararo tayyorgarlikning kognitiv, pragmatik va affektiv qatlamlarini uyg‘unlashtirib, ta’lim natijasini real ijtimoiy muloqot talablariga yaqinlashtiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Hymes D. H. On communicative competence. Philadelphia, University of Pennsylvania Press, 1972. 84 p.
2. Canale M., Swain M. Theoretical bases of communicative approaches to second language teaching and testing. Toronto, Ontario Institute for Studies in Education, 1980. 58 p.
3. Byram M. Teaching and assessing intercultural communicative competence. Clevedon, Multilingual Matters, 1997. 124 p.
4. Passov E. I. Kommunikativnyy metod obucheniya inostrannomu govoreniyu. Moskva, Prosveshchenie, 1991. 223 s.
5. Ishmuhamedov R. J. Pedagogik texnologiyalar: nazariya va amaliyot. Toshkent, Fan, 2013. 256 b.
6. Xodjayev B. X. Umumiy pedagogika: nazariya va amaliyot. Toshkent, O‘qituvchi, 2018. 320 b.

TA’LIMDA INNOVATSION PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH

Alieva Karlig’ash
Ajiniyoz nomidagi NDPI “Pedagogika” kafedrasi 2-kurs magistranti
https://doi.org/10.5281/zenodo.23176042

Аннотация; *В данной статье рассматриваются теоретические и практические аспекты использования инновационных педагогических технологий в современном образовательном процессе. Раскрывается значение инновационных технологий в повышении качества образования, активизации познавательной деятельности обучающихся и развитии их самостоятельного, критического и творческого мышления.*
Ключевые слова: *инновационные педагогические технологии, современное образование, цифровые технологии, интерактивные методы, информационно-коммуникационные технологии, проектное обучение, смешанное обучение, педагогическая компетентность.*
Annotation*; This article examines the theoretical and practical aspects of using innovative pedagogical technologies in the modern educational process. The paper highlights the importance of innovative technologies in improving the quality of education, increasing learners’ cognitive activity, and developing their independent, critical, and creative thinking.*
Keywords: *innovative pedagogical technologies, modern education, digital technologies, interactive methods, information and communication technologies, project-based learning, blended learning, teacher competence.*
Annotatsiya*; Ushbu maqolada zamonaviy ta’lim jarayonida innovatsion pedagogik texnologiyalardan foydalanishning nazariy va amaliy jihatlari yoritilgan. Innovatsion texnologiyalarning ta’lim sifatini oshirish, ta’lim oluvchilarning bilish faolligini kuchaytirish hamda ularda mustaqil, tanqidiy va ijodiy fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirishdagi ahamiyati ochib berilgan. Shuningdek, interfaol metodlar, raqamli ta’lim resurslari, loyiha asosida o‘qitish, aralash ta’lim va axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish imkoniyatlari tahlil qilingan.*
Tayanch tushunchalar: *innovatsion pedagogik texnologiyalar, zamonaviy ta’lim, raqamli texnologiyalar, interfaol metodlar, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, loyiha asosida ta’lim, aralash ta’lim, pedagogik kompetensiya.*

Bugungi kunda jamiyat taraqqiyotining barcha sohalarida yuz berayotgan texnologik va ijtimoiy o‘zgarishlar ta’lim tizimini ham takomillashtirishni talab etmoqda. Zamonaviy ta’limning asosiy vazifalaridan biri faqat o‘quvchilarga tayyor bilimlarni yetkazish emas, balki ularda mustaqil fikrlash, muammolarni hal qilish, axborotni izlash va tahlil qilish, ijodiy yondashish hamda zamonaviy texnologiyalardan samarali foydalanish kompetensiyalarini shakllantirishdan iborat. An’anaviy ta’lim modelida o‘qituvchi asosiy axborot manbai sifatida namoyon bo‘lsa, zamonaviy pedagogik yondashuvlarda o‘quvchi ta’lim jarayonining faol ishtirokchisiga aylanadi. Shu sababli dars jarayonida interfaol metodlar, raqamli ta’lim resurslari, multimedia vositalari, loyiha asosida o‘qitish, muammoli ta’lim va aralash ta’lim kabi innovatsion yondashuvlardan foydalanish muhim ahamiyat kasb etmoqda. UNESCO tadqiqotlarida ham raqamli texnologiyalar ta’lim sifatini

yaxshilash, o‘quvchilarning o‘zaro hamkorligini kuchaytirish, ta’lim mazmunini turli shakllarda taqdim etish va individual ta’lim imkoniyatlarini kengaytirishga xizmat qilishi mumkinligi qayd etilgan. Shu bilan birga, texnologiyaning o‘zi ta’lim samaradorligining kafolati emasligi, undan foydalanish aniq pedagogik maqsadlar va o‘qitish metodlari bilan uyg‘unlashtirilishi zarurligi ta’kidlanadi.

“Innovatsiya” tushunchasi yangilik kiritish, mavjud jarayonni takomillashtirish va yangi samarali yondashuvlarni amaliyotga joriy etish mazmunini anglatadi. Ta’lim sohasida innovatsiya yangi pedagogik metodlar, texnologiyalar, vositalar va ta’limni tashkil etish shakllaridan foydalanish orqali o‘quv jarayonining samaradorligini oshirishni nazarda tutadi. Ilmiy adabiyotlarda ham innovatsion pedagogik texnologiyalar tarkibida faol va interfaol metodlarning o‘rni alohida qayd etiladi. Raqamli texnologiyalar zamonaviy ta’limning muhim tarkibiy qismiga aylanmoqda. Kompyuter, planshet, interaktiv doska, elektron darslik, ta’lim platformalari, videodarslar va boshqa raqamli vositalar o‘quv materiallarini vizual va interaktiv shaklda taqdim etish imkonini beradi. Raqamli pedagogika texnologiyalardan shunchaki foydalanishdan ko‘ra kengroq tushuncha bo‘lib, texnologiyalarni ta’lim maqsadlariga muvofiq ravishda pedagogik jarayonga integratsiya qilishni anglatadi. UNESCO MGIEP materiallarida raqamli pedagogika o‘qituvchiga o‘quvchilarni jalb qilish, hamkorlikni kuchaytirish, ijodkorlikni rivojlantirish va formativ baholash imkoniyatlarini kengaytirishi qayd etilgan. Shu bilan birga, raqamli vositalardan foydalanishda o‘qituvchining raqamli kompetensiyasi muhim ahamiyatga ega. Pedagog nafaqat texnik vositalardan foydalanishni, balki ularni qaysi vaziyatda, qanday maqsadda va qanday metod bilan qo‘llashni ham bilishi kerak.

Innovatsion pedagogik texnologiyalarni ta’lim jarayoniga joriy etishda o‘qituvchining roli nihoyatda muhim. Chunki bir xil texnologiya turli darslarda turlicha natija berishi mumkin. Natija pedagogning metodni to‘g‘ri tanlashi, o‘quvchilarning yosh va individual xususiyatlarini hisobga olishi hamda ta’lim maqsadini aniq belgilashiga bog‘liq. Zamonaviy o‘qituvchi tashkilotchi, maslahatchi, yo‘naltiruvchi va fasilitator sifatida faoliyat yuritishi lozim. U o‘quvchilarga tayyor ma’lumotni berish bilan cheklanmay, ularni mustaqil izlanishga, fikrlashga va o‘z bilimlarini amaliyotda qo‘llashga yo‘naltirishi kerak.

UNESCO ham o‘qituvchilarning texnologik savodxonligini alohida maqsad emas, balki texnologiyalar yordamida yangi bilim yaratish va ta’lim jarayonini takomillashtirish vositasi sifatida ko‘radi. Biroq innovatsion texnologiyalarni joriy etishda ayrim muammolar ham mavjud. Jumladan, texnik infratuzilmaning yetarli emasligi, internetga kirish imkoniyatining cheklanganligi, pedagoglarning raqamli kompetensiyasi turlicha darajada ekanligi va texnologiyadan pedagogik maqsadsiz foydalanish kabi holatlar ta’lim samaradorligiga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin.

UNESCOning 2023-yilgi Global Education Monitoring hisobotida ham texnologiyadan foydalanishdagi infratuzilma va o‘qituvchilar tayyorgarligi bilan bog‘liq muammolar qayd etilgan. Hisobotda texnologiya ta’lim tizimini kuchaytirishi kerakligi, biroq u barcha pedagogik vazifalar uchun universal yechim sifatida qaralmasligi lozimligi ta’kidlanadi.

Xulosa qilib aytganda, innovatsion pedagogik texnologiyalardan foydalanish zamonaviy ta’lim sifatini oshirishning muhim omillaridan biridir. Interfaol metodlar, raqamli ta’lim vositalari, loyiha asosida o‘qitish, aralash ta’lim va boshqa innovatsion yondashuvlar o‘quvchilarni ta’lim jarayonining faol ishtirokchisiga aylantirish imkonini beradi.

Innovatsion texnologiyalarning samaradorligi faqat zamonaviy qurilmalar yoki raqamli platformalarning mavjudligi bilan belgilanmaydi. Eng muhim jihat — texnologiyani aniq pedagogik maqsadga muvofiq tanlash va undan metodik jihatdan to‘g‘ri foydalanishdir. Shu sababli zamonaviy pedagogdan yuqori darajadagi kasbiy kompetensiya, raqamli savodxonlik, ijodkorlik va doimiy ravishda o‘z ustida ishlash talab etiladi. Kelgusida ta’limda innovatsion texnologiyalardan foydalanishning samaradorligini oshirish uchun o‘qituvchilarning raqamli va pedagogik kompetensiyalarini rivojlantirish, ta’lim muassasalarining texnik imkoniyatlarini kengaytirish, sifatli raqamli ta’lim resurslarini yaratish hamda innovatsion metodlarni milliy ta’lim mazmuni bilan uyg‘unlashtirish muhim vazifalardan biri bo‘lib qoladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. UNESCO. *Adapting and Scaling Teacher Professional Development Approaches in Uzbekistan*. UNESCO Tashkent Office.
2. Shomirzayev M.X. Innovation pedagogical technologies used in school technology education. *International Journal of Social Sciences*, 2021. DOI: 10.31295/ijss.v4n1.1652.
3. Doniyorova G. Pedagogical Foundations of Using Innovative Technologies in Training Future English Teachers. *Journal of Applied Science and Social Science*, 2025, Vol. 15, Issue 06, pp. 521–528.
4. Орешко С.А. Инновационные педагогические технологии: активные и интерактивные методы обучения. Электронная библиотека «КиберЛенинка».
5. Турсунов И.Н. Использование инновационных образовательных технологий в учебном процессе. *Современная наука и исследования*, 2023.
6. Ботирова Ш.И. Педагогик технологиялар ҳақида мулоҳазалар. *Инновации в педагогике и психологии*, 2021.

TARBIYA JARAYONINI TASHKIL ETISH VA BOSHQARISH

Alimov Mirsardor Soatovich
Qori Niyoziy nomidagi Tarbiya pedagogikasi Milliy instituti Milliy tarbiya jarayonlarini tashkil etish va boshqarish taxnologiyalari ilmiy tadqiqot bo‘limi katta ilmiy xodimi
https://doi.org/10.5281/zenodo.23176595

Tarbiya insoniyatning rivojlanish ehtiyoji tufayli vujudga kelgan. Shuning uchun ham tarbiya shaxsning madaniyati, ma’naviyati, axloqiy-estetik qarashlarini rivojlantirish qonuniyatlari, prinsiplari, shart-sharoitlari va dinamikasini o‘zdida mujassamlashtiradi.

U barcha davrlarda davlat va jamiyatning diqqat markazida turgan umummilliy masala hisoblanadi. Shuning uchun ham o‘quvchi va talaba yoshlarni axloqiy tarbiyalash masalasi bugungi globallashuv sharoitida o‘ta dolzarb muammolar sirasiga kiradi.

Ayniqsa, o‘smir yoshdagi o‘quvchilarni ommaviy va marginal madaniyatning salbiy hurujlaridan asrash kundalik ehtiyojga aylanmoqda. O‘zbekistondagi ijtimoiy madaniy muhit birinchi navbatda tarbiyani davlat siyosati darajasidagi ustuvor masalaga aylantirli.

Shuning uchun ham O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024 yil 21 iyundagi PQ-232 sonli “Qori Niyoziy nomidagi Tarbiya pedagogikasi milliy institutini tashkil etish to‘g‘risida”gi qarori qabul qilinib, unda quydagi masalalarga ustuvor e’tibor qaratildi:

1) pedagogika va psixologiya sohalarida tarbiya metodikasiga oid fundamental, amaliy va innovatsion tadqiqotlarni olib borish, sohada ilmiy va ilmiy-pedagogik kadrlar tayyorlash;

2) tarbiya mazmunini tahlil qilish, uni rivojlantirish bo‘yicha loyihalar ishlab chiqish hamda amaliyotga tatbiq etish;

3) ajdodlarimiz va jadidlarning komil insonni shakllantirish va yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashga oid yondashuvlarini tadqiq qilish hamda zamon talablariga mos ravishda ta’lim jarayonida qo‘llash bo‘yicha ilmiy asoslangan ishlanmalar va metodikalarni yaratish;

4) ota-onalar va o‘qituvchilar uchun tarbiyaviy metodikalar bo‘yicha qo‘llanmalar va tavsiyalar ishlab chiqish, ularni ommalashtirish;

5) farzand tarbiyasida «maktab – ota-ona – mahalla» hamkorligining samarali mexanizmlarini ishlab chiqish va uni amalga oshirish bo‘yicha metodik tavsiyanomalar yaratish;

6) tarbiya metodikalariga oid raqamli kontentlar ishlab chiqish va amaliyotga joriy qilish;

7) alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalarning tarbiyasiga oid ilmiy-metodik ta’minotni yaratish.

Ko‘rinib turibdiki tarbiya sohasidagi ilmiy tadqiqotlarga alohida e’tibor qaratilmoqda. Bu o‘z navbatida tarbiyaning barcha turlarini o‘zida mujassamlashtirgan axloqiy tarbiya metodikasini yanada rivojlantirishni taqozo etadi.

Shu narsa ayonki, qadriyatlar insonning ma’naviy axloqiy sifatlarini shakllantiruvchi asosiy manba hisoblanadi.

Aynan huddi shu qadriyatlar yosh avlodning xulq-atvori, xatti-harakatlarini shakllantirishda ishtirok etmaganligi tufayli ularning ijtimoiy madaniy dunyoqarashi, munosabatlar tizimining barqaror emasligi ayon bo‘lmoqda.

Vaziyatdan kelib chiqqan holda yoshlar yoqadi yoki yoqmaydi, foydali yoki foydasizligidan qat’iy nazar manipulyatsiya holatlarini osongina fosh qiladilar. Bunday holatlar, ayniqsa, ijtimoiy ziddiyatlarga moyil bo‘lgan guruhlar va mazhablar orasida tez-tez uchraydi.

Natijada yoshlarning ijtimoiy madaniy muhitga kirishishi jarayonida me’yorlar deformatsiyasiga duch kelishlari kuzatilmoqda. Ushbu muammoning yechimi bilan birinchi navbatda pedagogika fani va ta’lim muassasalari muntazam tarzda shug‘ullanishlari talab etiladi. Chunki tarbiya jarayonida jamiyatning asosiy funksiyasi:

yosh avlodni ma’naviy-axloqiy jihatdan yetuk shaxs sifatida tarbiyalashda amalga oshadi.

Buning uchun o‘quvchi-yoshlarga millatning butun tarixiy rivojlanishi jarayonida to‘plagan tajribasi taqdim etilishi kerak.

Axloqiy tarbiya shaxsni kamol toptirishning asosiy tarkibiy qismi bo‘lib, bunda o‘quvchilarning rivojlanishi, nuqtai nazarlarining shakllanishi, qadriyatlarni o‘zlashtirishi, ideallari va maqsadlarining tarkib topishi, bir so‘z bilan aytganda ijtimoiylashtirish jarayoni amalga oshadi. Ushbu tushunchalarning o‘zaro munosabatidan kelib chiqqan holda axloqiy tarbiyaga o‘quvchilarni ijtimoiylashtirish nuqtai nazardan yondashish nazarda tutiladi.

Bu jarayonda o‘quvchilarni ma’naviy-axloqiy jihatdan tarbiyalashda birinchi navbatda ularni ijtimoiy madaniy jihatdan rivojlantirish, mikrosotsiumga muvaffaqiyatli moslashtirish maqsadidan kelib chiqqan holda zarur pedagogik chora-tadbirlar qo‘llaniladi.

Shu bilan bir qatorda o‘quvchilarning tarbiyasiga ta’sir ko‘rsatadigan omillar va vositalar ham aniqlanib olinadi.

Axloqiylik insonning ichki ma’naviy sifati hisoblanadi. Shunga ko‘ra axloqiylik birinchidan, umumijtimoiy ahamiyatga molik bo‘lgan qadriyatlar: boshqalarning huquqlarini tan olish, adolat, halollik, ishonch, sadoqat, muloyimlik,

kelishuvchanlik, umumiy til topishish, vatanparvarlik, fidoyilik, mas’uliyatlilik, fuqarolik hissiga ega bo‘lish, o‘zi va jamiyat a’zolarining anglash va undan o‘rinli foydalanish, jamoada o‘zini tuta bilish kabi sifatlarni o‘z ichiga oladi.

Ikkinchidan, axloq insonga xos bo‘lgan sifatlarni ifodalaydi.

Kishilik jamiyatining tarixiy rivojlanishi davomida axloq qadriyatlar bilan chambarchas bog‘liq holatda rivojlangan.

Axloq murakkab tuzilmaga ega bo‘lgan yaxlit ijtimoiy-pedagogik hodisa bo‘lib, axloqiy ong, axloqiy xatti-harakatlar, axloqiy munosabatlarni o‘z ichiga oladi.

Uning tarkibiga axloqiy his-tuyg‘u, kechinmalar, iroda, aql-zakovat, intuitsiya, hayol, xotira kabilar ham kiradi.

Axloqning sub’ekti inson, uning mezoni, bahosi – vijdondir.

Axloqqa doir xatti-harakatlar, munosabatlar alohida olingan inson,jamoa, ijtimoiy guruhga xos bo‘lgan xususiyatdir.

Axloqiy tarbiya jarayonida o‘quvchilar orasida axloqiy munosabatlar shakllanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Chernyaev V.V. Gumanitar ko‘rsatmalar tayyorlanmoqda jismoniy tarbiya mutaxassislari. – M.: Ta’lim, 2002.- 110 b.
2. *Bykov Yu. Shakllanishning nazariy va metodologik jihatlari*
3. *jismoniy tarbiya universitetida o‘qish davrida professional o‘qituvchi // Nazariya va jismoniy tarbiya amaliyoti. – 1996. - ÿ2.-P.6-7. 4. Derkach A.A., Isaev*
4. *A.A. Murabbiyning pedagogik mahorati. – M.: Jismoniy tarbiya va sport, 1981. – 375 b.*

ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ УСЛОВИЯ ЭФФЕКТИВНОГО ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ГЕНЕРАТИВНОГО ИСКУССТВЕННОГО ИНТЕЛЛЕКТА В ОБРАЗОВАТЕЛЬНОМ ПРОЦЕССЕ

Алланазаров Рахимназар Маратович
стажёр-исследователь
https://doi.org/10.5281/zenodo.23176616

Аннотация. *В тезисе рассматриваются педагогические условия эффективного использования генеративного искусственного интеллекта (GenAI) в образовательном процессе. Особое внимание уделяется возможностям применения ИИ для индивидуализации обучения, предоставления обратной связи и поддержки самостоятельной учебной деятельности. Рассматриваются также риски снижения познавательной активности учащихся при использовании готовых решений.*
Ключевые слова: *генеративный искусственный интеллект, искусственный интеллект в образовании, самостоятельность учащихся, саморегулируемое обучение, цифровые технологии.*

Развитие генеративного искусственного интеллекта приводит к существенным изменениям современной образовательной среды. Системы на основе больших языковых моделей способны создавать тексты, объяснения, примеры и рекомендации, а также предоставлять учащемуся интерактивную обратную связь. Благодаря этому GenAI может использоваться как дополнительный инструмент поддержки учебной деятельности.

Вместе с тем использование генеративного ИИ создаёт определённые педагогические риски. Получение готового решения может снижать необходимость самостоятельного анализа проблемы, выбора стратегии и проверки результата. Поэтому эффективность применения ИИ в образовании определяется не столько самим фактом использования технологии, сколько характером взаимодействия учащегося с ней.

Одним из перспективных направлений является использование GenAI в рамках саморегулируемого обучения. Учащийся может обращаться к ИИ для уточнения непонятного материала, получения подсказки, проверки собственного решения или анализа допущенной ошибки. В таком случае технология выполняет функцию дополнительной поддержки, сохраняя активную роль самого учащегося.

Для эффективного использования генеративного ИИ целесообразно соблюдать несколько педагогических условий. Во-первых, учащийся должен выполнить первоначальную попытку самостоятельно. Во-вторых, обращение к ИИ должно быть связано с конкретным учебным затруднением, а не с передачей всей работы системе. В-третьих, полученная информация должна подвергаться критической проверке. Наконец, учащемуся необходимо

объяснять ход собственного решения и оценивать, каким образом использование ИИ повлияло на результат.

Таким образом, наиболее продуктивной представляется модель взаимодействия «самостоятельная попытка → обращение к ИИ → критическая оценка → корректировка решения → рефлексия». В отличие от модели получения готового ответа, данный подход позволяет использовать возможности генеративного ИИ без полного переноса интеллектуальной деятельности на цифровую систему.

Особое значение имеет изменение роли учителя. Учитель должен не только контролировать факт использования ИИ, но и определять педагогические цели его применения, формировать у учащихся навыки критической оценки информации и предлагать задания, требующие объяснения хода рассуждений. При этом оцениваться должен не только конечный результат, но и самостоятельность выполнения учебного задания.

Следовательно, генеративный искусственный интеллект может стать эффективным инструментом образовательного процесса при условии его педагогически обоснованного использования. Основной задачей является не ограничение доступа учащихся к новым технологиям, а формирование таких моделей взаимодействия, при которых ИИ поддерживает самостоятельную деятельность, саморегуляцию и рефлексию, не заменяя их.

Литература

1. Miao F., Holmes W. *Guidance for generative AI in education and research*. Paris: UNESCO, 2023. Updated 2026.
2. Xia Q., Liu Q., Tlili A., Chiu T.K.F. A systematic literature review on designing self-regulated learning using generative artificial intelligence and its future research directions. *Computers & Education*. 2025.
3. Lai J.W. Adapting Self-Regulated Learning in an Age of Generative Artificial Intelligence Chatbots. *Future Internet*. 2024. Vol. 16, No. 6. Article 218.

KREATIV PEDAGOGIK YECHIMLAR ISHLAB CHIQISH KOMPETENSIYASI: INKLYUZIV TA’LIM MUHITIDA UZVIYLIGNI TA’MINLASH RESURSI

Asatova Dildora Aslamovna
Navoiy davlat universiteti o’qituvchisi
https://doi.org/10.5281/zenodo.23176632

Annotatsiya: *Mazkur maqolada kreativ pedagogik yechimlar ishlab chiqish kompetensiyasining mazmun-mohiyati inklyuziv ta’lim muhiti va milliy tarbiya uzviyligi nuqtayi nazaridan tahlil qilingan. Tadqiqotning dolzarbligi zamonaviy ta’lim jarayonida pedagogdan tayyor metodik usullarni qo‘llash bilan cheklanib qolmasdan, ta’lim oluvchilarning individual ehtiyojlari, imkoniyatlari va ijtimoiy-madaniy xususiyatlarini hisobga olgan holda yangi pedagogik yechimlarni ishlab chiqish talab etilayotgani bilan belgilanadi.*
Kalit so‘zlar: *pedagogik kreativlik, kreativ pedagogik yechim, kreativ kompetensiya, inklyuziv ta’lim, milliy tarbiya, milliy qadriyatlar, pedagogik evristika, aksiologik yondashuv, bo‘lajak pedagog, pedagogik refleksiya.*
Аннотация: *В данной статье анализируется суть и содержание компетенции разработки креативных педагогических решений в контексте взаимосвязи инклюзивной образовательной среды и национального воспитания. Актуальность исследования обусловлена тем, что современный образовательный процесс требует от педагога не ограничиваться применением готовых методических приемов, а разрабатывать новые педагогические решения с учетом индивидуальных потребностей, возможностей и социально-культурных особенностей обучающихся.*
Ключевые слова: *педагогическая креативность, креативное педагогическое решение, креативная компетенция, инклюзивное образование, национальное воспитание, национальные ценности, педагогическая эвристика, аксиологический подход, будущий педагог, педагогическая рефлексия.*
Abstract: *This article analyzes the essence and significance of the competence in developing creative pedagogical solutions through the lens of the interconnectedness between an inclusive educational environment and national upbringing. The relevance of the study is driven by the demands of the modern educational process, which requires educators to move beyond traditional, ready-made methodological approaches and actively formulate novel pedagogical solutions that accommodate learners' individual needs, capabilities, and socio-cultural characteristics.*
Keywords: *pedagogical creativity, creative pedagogical solution, creative competence, inclusive education, national upbringing, national values, pedagogical heuristics, axiological approach, prospective teacher, pedagogical reflection.*

KIRISH

Ta’lim falsafasi va pedagogik tafakkur rivojining dastlabki bosqichlarida kreativlik ko‘proq shaxsning individual iste’dodi, tasavvuri va ijodiy qobiliyati bilan bog‘langan. Zamonaviy pedagogik tadqiqotlarda esa kreativlik tobora ko‘proq rivojlantirilishi mumkin bo‘lgan, ta’lim jarayonida namoyon bo‘ladigan va kasbiy faoliyat samaradorligiga ta’sir qiluvchi kompetensiya sifatida qaralmoqda. Xususan, pedagoglarning kreativ faoliyatiga nafaqat individual qarash va munosabatlar, balki ta’lim muhiti, hamkasblar bilan hamkorlik, tashkiliy va tizimli omillar ham ta’sir qilishi ko‘rsatilgan.

Kreativlikning pedagogik ahamiyati, ayniqsa, inklyuziv ta’lim sharoitida yanada yaqqol namoyon bo‘ladi. Chunki inklyuziv ta’limning mohiyati ta’lim oluvchilarning individual imkoniyatlari va alohida ta’lim ehtiyojlarining xilma-xilligini hisobga olgan holda teng ta’lim imkoniyatlarini yaratish bilan bog‘liq. O‘zbekiston Respublikasining amaldagi “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonunining 20-moddasida ham inklyuziv ta’lim aynan alohida ta’lim ehtiyojlari va individual imkoniyatlarning xilma-xilligini hisobga olgan holda barcha ta’lim oluvchilar uchun teng imkoniyatlarni ta’minlashga qaratilgan ta’lim sifatida belgilangan.

Bunday sharoitda pedagogning faoliyati oldindan belgilangan yagona metodik qolipni qo‘llash bilan chegaralanmaydi. Bir xil ta’lim mazmuni turli ta’lim oluvchilarda turlicha qabul qilinishi mumkin. Shuning uchun pedagog vaziyatni aniqlashi, muammoning sabablarini tahlil qilishi, mavjud imkoniyatlarni baholashi va muayyan shaxs yoki guruhga mos keladigan pedagogik yechimni ishlab chiqishi zarur. Mazkur jarayonda kreativlikning o‘zi yetarli emas. Yangi g‘oyaning mavjudligi uning pedagogik jihatdan maqbulligini avtomatik ravishda anglatmaydi. Kreativ pedagogik yechim ta’lim maqsadiga muvofiq, amaliy jihatdan qo‘llash mumkin bo‘lgan, ta’lim oluvchining shaxsiy qadr-qimmatini hurmat qiladigan va ijtimoiy-axloqiy mezonlarga javob beradigan bo‘lishi lozim. Shu sababli kreativlikni aksiologik mazmun bilan bog‘lash muhim ilmiy-pedagogik masala sifatida yuzaga keladi.

Bu masala milliy tarbiya nuqtayi nazaridan ham alohida ahamiyatga ega. Chunki ta’lim jarayonidagi yangilik va kreativlik milliy pedagogik tajribadan uzilib qolmasligi, aksincha, jamiyatda shakllangan insonparvarlik, mehr-oqibat, adolat, hamkorlik, kattaga hurmat, kichikka g‘amxo‘rlik, mas’uliyat va o‘zaro ko‘mak kabi qadriyatlar bilan uyg‘unlashishi zarur. Shunda kreativ pedagogik yechim faqat “yangilik yaratish” vositasi bo‘lib qolmay, balki shaxsning ijtimoiy va ma’naviy rivojlanishiga xizmat qiluvchi pedagogik mexanizmga aylanadi.

Ta’limda inklyuziya va kreativlik o‘rtasidagi o‘zaro aloqadorlikni o‘rgangan tadqiqotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, inklyuziv pedagogik amaliyotlarda kreativ strategiyalarni qo‘llash alohida ta’limiy ehtiyojlarga ega bo‘lgan o‘quvchilarning kognitiv va ijtimoiy rivojlanishida hal qiluvchi o‘rin tutadi. Xususan, 2025-yilda o‘tkazilgan ilmiy sistematik sharhda (qualitative scoping systematic review) 2008-2025-yillar oralig‘ida e’lon qilingan 368 ta xalqaro maqola o‘rganilib, ulardan PRISMA va PRISMA-ScR mezonlari hamda Rayyan/VOSviewer dasturlari vositasida eng dolzarb bo‘lgan 25 ta empyrik va nazriy tadqiqot saralab olingan.

Ushbu tadqiqotda inklyuziv ta’lim muhitida o‘qituvchining moslashuvchan (adaptiv) pedagogik strategiyalari, fanlararo loyihalar hamda kreativ amaliyotlari o‘quvchilarning muloqot va ijodkorlik imkoniyatlarini kengaytirishi ilmiy jihatdan asoslab berilgan [1].

Shundan kelib chiqqan holda, mazkur maqolaning asosiy ilmiy muammosi kreativlikni shunchaki abstrakt «ijodiy qobiliyat» sifatida emas, balki inklyuziv ta’lim sharoitida har bir o‘quvchining shaxsiy ehtiyojiga va milliy tarbiya qadriyatlariga mos keladigan kreativ pedagogik yechimlar ishlab chiqish kompetensiyasi sifatida talqin qilish hamda tadqiq etishdan iboratdir.

ADABIYOTLAR SHARHI

Bo‘lajak o‘qituvchilarni tayyorlash tizimida inklyuziv ta’lim muhitini tashkil etish va ushbu jarayonda ularning kreativ pedagogik yechimlar ishlab chiqish kompetensiyasini rivojlantirish zamonaviy oliy ta’lim didaktikasining dolzarb va strategik yo‘nalishlaridan biridir. Inklyuziv sinf o‘zining geterogenligi (o‘quvchilarning bilish qobiliyatlari, ehtiyojlari va imkoniyatlari turlichaligi) bilan ajralib turadi. Bu esa bo‘lajak pedagoglardan an’anaviy-sferik (shablon) metodlardan voz kechib, moslashuvchan (adaptiv) va innovatsion-kreativ yechimlarni yaratishni taqozo etadi.

Inklyuziv muhitda pedagogik kreativlik va divergent fikrlash. Inklyuziv ta’lim muhitida kreativlik oddiy «san’at yoki ilhom» emas, balki murakkab va noaniq pedagogik vaziyatlarda muqobil yechimlar topish kognitiv vositasi sifatida namoyon bo‘ladi. M. Rhodes [2] tomonidan ilgari surilgan “4P modeli” (*Person, Process, Press, Product*) inklyuziyaga tatbiq etilganda, bo‘lajak o‘qituvchining shaxsiy sifatlari (*Person*) inklyuziv muhit bosimi (*Press*) ostida moslashuvchan fikrlash jarayoni (*Process*) orqali individual korreksion va rivojlantiruvchi ta’limiy mahsulotlarni (*Product*) yaratishga yo‘naltiriladi.

J.C.Kaufman [3] va R.A.Beghetto [3] o‘zlarining “4C modeli”da ta’kidlaganlaridek, bo‘lajak pedagog talabalarda dastlab darsdagi kutilmagan to‘siqlarga tezkor kreativ yechim topish (*little-c*) ko‘nikmasini shakllantirish lozim. Bu esa kelgusida ularning inklyuziv sinflardagi kasbiy-kreativ kompetentligiga (*Pro-c*) zamin yaratadi. Divergent fikrlash (Guilford) alohida ehtiyojli va rivojlanishi me’yorda bo‘lgan o‘quvchilar uchun bir vaqtning o‘zida turli darajadagi topshiriqlarni tezkor loyihalash imkonini beradi.

Pedagogik-psixologik inersiya va inklyuziv ta’limdagi to‘siqlar. Oliy ta’lim talabalarida inklyuziv ta’limga nisbatan kreativ yondashuvni rivojlantirishga to‘sqinlik qiluvchi asosiy omil – pedagogik-psixologik inersiya hisoblanadi. Inersiya bo‘lajak o‘qituvchining o‘zi o‘qigan an’anaviy, monologik va bir xil (standart) o‘qitish modellarini barcha o‘quvchilarga bir xilda majburan tatbiq etishga urinishida ko‘rinadi.

M.Xolmuhamedov [4] hamda N.Sayidaxmedov [5] tadqiqotlarida ko‘rsatilganidek, pedagogik inersiyani yengib o‘tmasdan turib inklyuziv ta’limda natijaga erishib bo‘lmaydi. Inklyuziv sinfdagi har bir bola alohida psixofizik trayektoriyani talab qiladi. Shuning uchun talabalarni tayyorlashda “tayyor dars

ishlanmasi” (shablon) berishdan voz kechib, ularni doimiy ravishda muammoli va situatsion vaziyatlarni (keys-stadi) noan’anaviy yo‘llar bilan hal qilishga o‘rgatish zarur.

Kreativ ta’lim texnologiyalari va raqamli didaktika. Bo‘lajak o‘qituvchilarning inklyuziv muhitdagi kreativligini rivojlantirishda zamonaviy pedagogik va raqamli texnologiyalar asosi manba hisoblanadi. N.A.Muslimov [6] va boshqalar hamda R. Paul [7] va L. Elder [7] tomonidan ta’kidlanganidek, ta’limda Dizayn-fikrlash (Design Thinking), Gamifikatsiya (o‘yinli o‘qitish) va Raqamli storytelling (Digital Storytelling) texnologiyalari talabalarga inklyuziv ta’lim mazmunini boyitishga yordam beradi.

Dizayn-fikrlash interaktiv metodikasi orqali talabalar alohida ehtiyojli o‘quvchining muammosini anglaydi (empatiya), muammoni aniqlaydi, g‘oya beradi va unga mos keladigan individual adaptiv material (prototip) yaratadi. D.F. Halpern ta’kidlaganidek, bunday tanqidiy va kreativ yondashuv o‘qituvchini tayyor axborot uzatuvchidan inklyuziv jarayonning fasilitatori hamda ta’limiy me’morigaga aylantiradi.

Me’yoriy-huquqiy baza va amaliy talablar. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi PF-5712-sonli [9] hamda 2022-yil 11-maydagi PF-134-sonli Farmonlarida [10] inklyuziv ta’lim tizimini tubdan takomillashtirish, inklyuziv maktablar uchun pedagog kadrlar tayyorlash va ularda innovatsion-kreativ kompetensiyalarni shakllantirish davlat siyosatining ustuvor vazifasi qilib belgilangan.

Xulosa qilib aytganda, ilmiy adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, bo‘lajak o‘qituvchilarning inklyuziv muhitda kreativ ta’lim berish kompetensiyasini shakllantirish – faqatgina nazariy bilimlarni oshirish bilan cheklanmaydi. Bu jarayon talabalarni pedagogik inersiyadan xalos etish, ularda divergent fikrlashni hamda har bir o‘quvchiga mos keladigan adaptiv-kreativ didaktik mahsulotlar yaratish ko‘nikmalarini tizimli rivojlantirishni talab etadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqot nazariy-tahliliy xarakterga ega bo‘lib, kreativ pedagogik yechimlar ishlab chiqish kompetensiyasini inklyuziv ta’lim va milliy tarbiya uzviyligi doirasida konseptual jihatdan asoslashga yo‘naltirildi.

Tadqiqot metodologiyasining asosini kompetensiyaviy, shaxsga yo‘naltirilgan, inklyuziv, aksiologik va kreativ yondashuvlar tashkil etdi. Kompetensiyaviy yondashuv orqali kreativlikning alohida qobiliyat emas, balki bilim, ko‘nikma, munosabat, tajriba va refleksiyaning o‘zaro integratsiyasidan tashkil topgan kasbiy kompetensiya sifatidagi mazmuni ochib berildi.

Inklyuziv yondashuv ta’lim oluvchilar o‘rtasidagi individual farqlarni pedagogik faoliyatning boshlang‘ich sharti sifatida qabul qilishga asoslandi.

O‘zbekiston qonunchiligida ham inklyuziv ta’lim individual imkoniyatlar xilma-xilligini hisobga olish bilan bog‘langan.

Aksiologik yondashuv kreativ pedagogik qarorlarning qadriyatlar bilan bog‘liqligini tahlil qilish imkonini berdi. Bunda kreativ yechimning yangiligi bilan bir qatorda uning insonparvarlik, adolat, hurmat va mas’uliyat tamoyillariga muvofiqligi mezon sifatida qaraldi.

Kreativ yondashuv pedagogik muammoni bir xil tayyor usul bilan emas, balki bir nechta muqobil variantlarni ishlab chiqish, ular orasidan pedagogik vaziyatga mosini tanlash va uni takomillashtirish jarayoni sifatida talqin qilindi.

Tadqiqot davomida quyidagi metodlardan foydalanildi:

- ilmiy adabiyotlarni nazariy tahlil qilish;
- qiyosiy tahlil;
- kontent-tahlil;
- tizimlashtirish;
- umumlashtirish;
- pedagogik modellashtirish;
- konseptual tahlil.

Tadqiqotning nazariy bazasini kreativlik, kreativ o‘qitish, inklyuziv pedagogika, oliy pedagogik ta’lim va kompetensiyaviy yondashuvga oid ilmiy tadqiqotlar tashkil etdi. Xususan, 2025-yilgi sistematik sharh kreativ o‘qitishni “kreativlik uchun o‘qitish”, “kreativ tarzda o‘qitish” va ularning integratsiyasi sifatida ko‘rib chiqish imkonini beradi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Kreativ pedagogik yechim tushunchasining mazmuni. Tadqiqot natijasida “kreativ pedagogik yechim” tushunchasini oddiygina “yangi metod” yoki “qiziqarli topshiriq” bilan tenglashtirish ilmiy jihatdan yetarli emasligi aniqlandi.

Kreativ pedagogik yechim – muayyan pedagogik muammoni aniqlash, uning sabab va shartlarini tahlil qilish, bir nechta muqobil g‘oyalarni ishlab chiqish, ular orasidan maqsadga muvofiq variantni tanlash va uni konkret ta’lim sharoitiga moslashtirishga yo‘naltirilgan kasbiy faoliyat natijasi sifatida talqin qilinadi.

Uning muhim jihati shundaki, kreativ yechim bir vaqtning o‘zida uchta talabga javob berishi kerak: yangilik + pedagogik maqsadga muvofiqlik + qadriyatga moslik. Masalan, inklyuziv guruhda bir o‘quvchining jamoaviy topshiriqda ishtirok etishi qiyin bo‘lsa, pedagogning kreativ yechimi shunchaki yangi o‘yin topishdan iborat bo‘lmaydi. U avvalo ishtirok etishdagi to‘siqni aniqlaydi, keyin topshiriq shaklini o‘zgartiradi, kommunikativ imkoniyatlarni kengaytiradi va o‘quvchining guruhdagi faol ishtirokini ta’minlaydigan variantni yaratadi.

Demak, kreativlikning pedagogik qiymati uning noodatiyligida emas, muammoni mazmunli va maqsadga muvofiq hal qila olishida namoyon bo‘ladi.

Kreativ pedagogik yechim kompetensiyasining tarkibiy modeli. Nazariy tahlil natijasida mazkur kompetensiyaning to‘rtta o‘zaro bog‘liq komponentdan tashkil topishi asoslandi.

1-jadval

Kreativ pedagogik yechim kompetensiyasining tarkibiy modeli

Komponent	Mazmuni	Asosiy namoyon bo‘lish shakli
Motivatsion-aksiologik	Kreativ faoliyatga ehtiyoj va pedagogik qadriyatlarga sodiqlik	insonparvarlik, adolat, mas’uliyat
Kognitiv-evristik	Muammoni tahlil qilish va yangi g‘oyalar ishlab chiqish	savol qo‘yish, muqobil fikrlash, analogiya
Operatsion-kreativ	G‘oyani amaliy pedagogik yechimga aylantirish	metod, topshiriq, texnologiya va vaziyatni loyihalash
Refleksiv-baholovchi	Yechim natijasini tahlil qilish va takomillashtirish	o‘z faoliyatini baholash, xatoni aniqlash, qayta loyihalash

Ushbu modelda komponentlar bir-biridan ajralgan holda emas, balki yagona faoliyat tizimi sifatida qaraladi. Masalan, pedagog yangi g‘oya yaratishi mumkin, biroq unda inklyuzivlik va insonparvarlikka asoslangan motivatsion-aksiologik yo‘nalish bo‘lmasa, ushbu g‘oyaning pedagogik qiymati pasayadi. Xuddi shuningdek, yaxshi g‘oya ishlab chiqilgan bo‘lsa-da, uni amaliyotga tatbiq etish va natijani baholash qobiliyati mavjud bo‘lmasa, kompetensiya to‘liq shakllangan deb bo‘lmaydi.

Kreativ pedagogik yechim ishlab chiqishning bosqichli mexanizmi. Tadqiqot natijasida kreativ pedagogik yechimni ishlab chiqishning quyidagi olti bosqichli mexanizmi taklif etildi:

1-bosqich – pedagogik vaziyatni aniqlash. Pedagog mavjud vaziyatni kuzatadi va “muammo nimada?” degan savolga javob izlaydi.

2-bosqich – inklyuziv tahlil. Ta’lim oluvchining individual imkoniyatlari, ehtiyojlari, qiziqishlari, kommunikativ xususiyatlari va ta’lim jarayonidagi to‘siqlar aniqlanadi.

3-bosqich – g‘oyalar generatsiyasi. Muammoni hal qilishning bir nechta variantlari ishlab chiqiladi. Bu bosqichda bitta javob bilan cheklanmaslik muhim.

4-bosqich – aksiologik ekspertiza. Yaratilgan variantlar pedagogik maqsadga muvofiqlik bilan birga insonparvarlik, adolat, hurmat, hamkorlik va mas’uliyat kabi qadriyatlar nuqtayi nazaridan tahlil qilinadi.

5-bosqich – pedagogik loyihalash va amaliy sinov. Tanlangan yechim konkret ta’lim vaziyatiga moslashtiriladi va amaliy faoliyatda sinab ko‘riladi.

6-bosqich – refleksiya va qayta loyihalash. Natija tahlil qilinadi: “Nima ishladi?”, “Nima ishlamadi?”, “Qaysi jihatni o‘zgartirish kerak?” kabi savollar asosida yechim takomillashtiriladi.

MUHOKAMA

Olingan nazariy natijalar zamonaviy kreativlik tadqiqotlaridagi asosiy yo‘nalishlar bilan uyg‘unlashadi. 2025-yilda Yang, Shen, Cropley va Zheng tomonidan amalga oshirilgan sistematik sharhda kreativ o‘qitish bo‘yicha 49 ta empirik tadqiqot tahlil qilingan. Mualliflar kreativ pedagogik faoliyatga o‘qituvchining individual qarashlari va munosabatlari bilan bir qatorda ta’lim muhiti va boshqa tizimli omillar ham ta’sir ko‘rsatishini qayd etadi.

Bu holat biz taklif qilayotgan kompetensiya modelining faqat “kreativ fikrlash” bilan cheklanmasligi kerakligini ko‘rsatadi. Pedagogik kreativlikning natijaga aylanishi uchun motivatsiya, qadriyatli yo‘nalish, kasbiy bilim, amaliy loyihalash va refleksiya birgalikda ishlashi zarur.

OECD materiallarida ham kreativlik va tanqidiy fikrlash zamonaviy ta’limning muhim ko‘nikmalari sifatida ko‘rilib, ularni rivojlantirish faqat alohida mashg‘ulot bilan emas, balki kundalik pedagogik jarayonga integratsiya qilinishi kerakligi ta’kidlanadi.

Shu nuqtayi nazardan, bo‘lajak pedagoglarni tayyorlashda kreativlikni faqat maxsus “kreativ topshiriqlar” orqali rivojlantirish yetarli emas. Talaba real pedagogik vaziyatlarni tahlil qilishi, muammoga bir nechta nuqtayi nazardan qarashi, yechimlarni taqqoslashi va o‘z qarorining pedagogik oqibatlarini oldindan ko‘ra olishi lozim.

Inklyuziv ta’lim bu jarayon uchun alohida imkoniyat yaratadi. Chunki inklyuziv muhit pedagogni ta’lim oluvchilar o‘rtasidagi farqlarni hisobga olishga majbur qiladi. O‘zbekiston qonunchiligida ham inklyuziv ta’limning asosiy mazmuni individual imkoniyatlarning xilma-xilligini hisobga olish va teng ta’lim imkoniyatlarini ta’minlash bilan bog‘langan.

Bundan kelib chiqadigan muhim ilmiy xulosa shuki, inklyuziv pedagogik kreativlik “hamma uchun bir xil yangilik” yaratish emas, balki xilma-xil ehtiyojlar sharoitida pedagogik maqsadga erishishning moslashuvchan yo‘lini topishdir.

Bu yerda milliy tarbiya uzviyligi masalasi alohida ahamiyat kasb etadi. Agar kreativ pedagogik faoliyat faqat xorijiy metodlarni mexanik ko‘chirishga yo‘naltirilsa, uning milliy pedagogik mazmun bilan aloqasi zaiflashishi mumkin.

Aksincha, zamonaviy kreativ metodlar milliy tarbiyada shakllangan qadriyatlar bilan birlashtirilsa, pedagogik yechimning ijtimoiy-madaniy mosligi kuchayadi.

Masalan, hamkorlikka asoslangan kreativ topshiriq faqat metodik texnika sifatida emas, o‘zaro yordam va hamjihatlik qadriyatlarini rivojlantiruvchi vosita sifatida tashkil etilishi mumkin. Individual topshiriqlar esa faqat o‘quvchining mustaqilligini emas, uning shaxsiy qadr-qimmatini hurmat qilish tamoyilini ham aks ettirishi mumkin.

Shunday qilib, aksiologik komponent kreativ pedagogik yechimning muhim farqlovchi belgilaridan biri sifatida namoyon bo‘ladi. Bu komponent pedagogni “Qanday qilib yangicha usul topaman?” degan savoldan tashqari, “Bu yechim kimga qanday ta’sir qiladi?”, “U barcha ta’lim oluvchilar uchun adolatlimi?”, “U shaxsning qadr-qimmatini hurmat qiladimi?” kabi savollarni ham berishga undaydi.

XULOSA

Tadqiqot natijasida kreativ pedagogik yechimlar ishlab chiqish kompetensiyasi inklyuziv ta’lim muhitida bo‘lajak pedagogning muhim kasbiy kompetensiyalaridan biri sifatida talqin qilindi. Uning mohiyati tayyor metodlarni takrorlashda emas, balki pedagogik muammoni mustaqil aniqlash, vaziyatni tahlil qilish, muqobil g‘oyalarni ishlab chiqish, ularni qadriyatlar va inklyuzivlik mezonlari asosida baholash hamda amaliy yechimga aylantirish qobiliyatida namoyon bo‘ladi.

Tadqiqot asosida mazkur kompetensiyaning motivatsion-aksiologik, kognitiv-evristik, operatsion-kreativ va refleksiv-baholovchi komponentlardan tashkil topishi asoslandi. Ushbu komponentlarning o‘zaro integratsiyasi bo‘lajak pedagogning kreativ pedagogik faoliyatga tayyorligini belgilaydi.

Kreativ pedagogik yechimni shakllantirishning pedagogik vaziyatni aniqlash, inklyuziv tahlil, g‘oyalar generatsiyasi, aksiologik ekspertiza, loyihalash va refleksiya bosqichlaridan iborat mexanizmi taklif etildi. Mazkur mexanizmning o‘ziga xosligi kreativ g‘oyani yaratish bilan bir qatorda uning ta’limiy, ijtimoiy va axloqiy oqibatlarini ham hisobga olishdan iborat.

Tadqiqotning muhim natijalaridan biri shundan iboratki, inklyuziv ta’lim muhiti kreativ pedagogik yechimlarni ishlab chiqish uchun faqat tashkiliy sharoit emas, balki pedagogik kreativlikni rivojlantiruvchi muhim omil sifatida qaralishi mumkin. Chunki ta’lim oluvchilarning individual farqlari pedagogni muammoni turli nuqtayi nazardan ko‘rishga va moslashuvchan yechimlar izlashga undaydi.

Milliy tarbiya uzviyligi esa kreativ pedagogik faoliyatga qadriyatli yo‘nalish beradi. Insonparvarlik, adolat, hurmat, hamkorlik va mas’uliyat kabi qadriyatlar kreativ yechimning mazmuniy mezonlariga aylantirilganda, zamonaviy pedagogik innovatsiya milliy tarbiya mazmunidan uzilmaydi.

Shu sababli oliy pedagogik ta’limda kreativlikni rivojlantirish jarayonini alohida ijodiy mashqlar bilan chegaralamasdan, real pedagogik muammolar,

inklyuziv vaziyatlar va milliy qadriyatlar asosida kreativ yechim loyihalash faoliyati bilan bog‘lash maqsadga muvofiq. Bu yondashuv bo‘lajak pedagogning nafaqat ijodiy fikrlashini, balki pedagogik mas’uliyatini, kasbiy mustaqilligini va turli ta’lim ehtiyojlariga moslashish qobiliyatini rivojlantirishga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Riera-Romani, J. The Interface Between Inclusion and Creativity: A Qualitative Scoping Systematic Review [Text] / J. Riera-Romani, M. Badia, G. Climent // Education Sciences. 2025. Vol. 15, No. 1. Art. 42. P. 1-21. DOI: 10.3390/educsci15010042.
2. Rhodes M. An Analysis of Creativity [Text] / M. Rhodes // *The Phi Delta Kappan*. 1961. Vol. 42, No. 7. P. 305-310.
3. Kaufman J. C. Beyond Big and Little: The Four C Model of Creativity/ J. C. Kaufman, R. A. Beghetto // Review of General Psychology. 2009. Vol. 13, No. 1. P. 1-12. DOI: 10.1037/a0013688.
4. Xolmuhamedov M. Pedagogik faoliyatda tanqidiy tafakkurni rivojlantirish. Toshkent. O’qituvchi. 2021. 156 b.
5. Sayidaxmedov N. Yangi pedagogik texnologiyalar: nazariya va amaliyot. Toshkent. Moliya. 2003. 172-b.
6. Muslimov N.A. Innovatsion ta’lim texnologiyalari. O’quv-uslubiy qo‘llanma. Toshkent. Sano-standart. 2015. 208-b.
7. Paul R. Critical Thinking: Tools for Taking Charge of Your Learning and Your Life. R. Paul, L. Elder. -3rd ed. New York: Pearson. 2019. 528 p.
8. Halpern D. F. Thought and Knowledge: An Introduction to Critical Thinking. 5th ed. London. Psychology Press. 2014. 654 p.
9. O‘zbekiston Respublikasi. “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonun. O’RQ-637-son. (20-modda.) Inklyuziv ta’lim. 23.09.2020.
10. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi “Alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalarga ta’lim berishga oid normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to‘g‘risida” 638-son. 12.10.2021.
11. Asatova D.A Oliy ta’lim muassasalari talabalarida kreativ kompetensiyani rivojlantirish pedagogik muammo sifatida. Maktabgacha va maktab ta’limi jurnali. №.12. 2025-yil. Dekabr B-44-48. https://maktabgacha-va-maktab-talimi-jurnal.uz/index.php/jurnal/issue/viw/23

“AQLIY HUJUM” METODIDAN FOYDALANISHNING PEDAGOGIK IMKONIYATLARI

Aytbayev D.T.
Nizomiy nomidagi O‘zbekiston milliy pedagogika universiteti professori
https://doi.org/10.5281/zenodo.23176653

Annotatsiya
Ushbu maqolada ta’lim jarayonida “Aqliy hujum” metodidan foydalanishning pedagogik imkoniyatlari yoritilgan. Metodning mazmuni, asosiy qoidalari va qo‘llash bosqichlari tahlil qilingan. Uning ta’lim oluvchilarning mustaqil, ijodiy va kommunikativ ko‘nikmalarini rivojlantirishdagi ahamiyati ochib berilgan. Shuningdek, metodning afzalliklari va uni qo‘llashdagi ayrim qiyinchiliklar ko‘rsatib berilgan.
Kalit so‘zlar: *interfaol metod, “Aqliy hujum”, ta’lim jarayoni, mustaqil fikrlash, ijodiy fikrlash, ta’lim oluvchi, pedagogik imkoniyatlar, kommunikativ kompetensiya.*

Bugungi kunda ta’lim tizimida shaxsga yo‘naltirilgan yondashuvni qaror toptirish, ta’lim oluvchilarning mustaqil fikrlashi, ijodiy salohiyati va kommunikativ kompetensiyalarini rivojlantirish muhim pedagogik vazifalardan biri sifatida namoyon bo‘lmoqda. Zamonaviy ta’lim jarayoni faqat tayyor bilimlarni o‘zlash-tirish bilan cheklanib qolmasdan, ta’lim oluvchini mustaqil izlanish, muammoni tahlil qilish, turli nuqtayi nazarlarni qiyoslash va maqbul yechimni asoslashga yo‘naltirishni talab etadi. Shu nuqtayi nazardan, ta’lim jarayoniga interfaol metodlarni joriy etish ta’lim samaradorligini oshirishning muhim omillaridan biridir.

Interfaol metodlar ta’lim beruvchi va ta’lim oluvchi o‘rtasidagi, shuningdek, ta’lim oluvchilarning o‘zaro hamkorligiga asoslangan faol pedagogik jarayonni tashkil etish imkonini beradi. Bunday yondashuvda ta’lim oluvchi bilimlarni tayyor holda qabul qiluvchi emas, balki ularni izlash, tahlil qilish va amaliy faoliyat orqali o‘zlashtiruvchi faol subyekt sifatida ishtirok etadi. Natijada ta’lim jarayonida fikrlash faolligi, tashabbuskorlik, muloqot madaniyati va hamkorlik ko‘nikmalari rivojlanadi.

Interfaol metodlar orasida “Aqliy hujum” usuli alohida metodik ahamiyatga ega. Mazkur metod muayyan muammo, savol yoki vaziyat yuzasidan qisqa vaqt ichida imkon qadar ko‘p va turli xil g‘oyalarni ilgari surishga asoslanadi. Uning o‘ziga xos jihati shundaki, dastlabki bosqichda bildirilgan fikrlar tanqid qilinmaydi, baholanmaydi va rad etilmaydi. Bu esa ta’lim oluvchilarda psixologik erkinlikni ta’minlab, o‘z qarashlarini ochiq bayon qilish uchun qulay pedagogik muhit yaratadi.

“Aqliy hujum” metodi muayyan muammoni hal etish yoki savolga javob topish jarayonida ta’lim oluvchilarning mavjud bilim, tasavvur va tajribalarini faollashtirishga xizmat qiladi. Metodning dastlabki bosqichida asosiy e’tibor g‘oyalarning to‘g‘ri yoki noto‘g‘riligiga emas, balki ularning ko‘lami va xilma-

xilligiga qaratiladi. Shu sababli ishtirokchilarga noodatiy, taxminiy yoki dastlabki qarashlar bilan bog‘liq fikrlarni ham erkin bildirish imkoniyati beriladi.

Mazkur metodning samaradorligi, avvalo, erkin fikr almashish muhitining yaratilishi bilan belgilanadi. Ta’lim oluvchi o‘z fikri darhol tanqid qilinmasligini anglagan holda muammoni turli jihatlardan ko‘rib chiqishga intiladi. Bu jarayon, ayniqsa, o‘z fikrini ochiq ifodalashda qiynaladigan yoki xato javob berishdan cho‘chiydigan ta’lim oluvchilarning faolligini oshirishga yordam beradi.

Metodning keyingi bosqichida ilgari surilgan g‘oyalar tizimlashtiriladi, mazmunan guruhlanadi va belgilangan mezonlar asosida tahlil qilinadi. Natijada dastlabki fikrlar orasidan muammoning yechimi uchun muhim, asoslangan va amaliy jihatdan maqbul bo‘lgan takliflar ajratib olinadi. Shu jihatdan “Aqliy hujum” nafaqat g‘oyalarni shakllantirish, balki ularni tahliliy qayta ishlash va umum-lashtirish ko‘nikmalarini rivojlantirishga ham xizmat qiladi.

“Aqliy hujum” metodidan ta’lim jarayonining turli bosqichlarida foydalanish mumkin. Uning qo‘llanish o‘rni ta’limiy maqsad, o‘quv materiali mazmuni va ta’lim oluvchilarning tayyorgarlik darajasidan kelib chiqib belgilanadi: darsning kirish bosqichida metoddan foydalanish orqali ta’lim oluvchilarning mavzu bo‘yicha dastlabki bilim va tasavvurlarini aniqlash mumkin. Buning uchun yangi mavzu mazmuni bilan bevosita bog‘liq muammoli savol qo‘yiladi va bildirilgan javoblar asosida mavjud bilimlar tahlil qilinadi. Bu, o‘z navbatida, ta’lim beruvchiga o‘quv jarayonini ta’lim oluvchilarning real tayyorgarlik darajasiga moslashtirish imkonini beradi.

Darsning yangi mavzuga o‘tish bosqichida “Aqliy hujum” avvalgi bilimlarni faollashtirish va yangi bilimlar bilan bog‘lash vositasi sifatida qo‘llanadi. Bunda ta’lim oluvchilar ilgari egallagan bilimlarini qayta esga oladilar, ular asosida yangi savollarni shakllantiradilar hamda o‘rganilayotgan mavzuga nisbatan bilish ehtiyojini his qiladilar.

Metoddan darsning mustahkamlash va yakuniy bosqichida foydalanish ham yuqori metodik samaradorlikka ega. Mazkur jarayonda o‘zlashtirilgan bilimlar qayta faollashtirilib, asosiy tushuncha va g‘oyalar umumlashtiriladi. Ta’lim oluvchilarning mustaqil ravishda xulosa chiqarishi esa o‘quv materialining mazmunan chuqurroq o‘zlashtirilishiga zamin yaratadi. Demak, “Aqliy hujum” metodining vazifasi oddiy savol-javob jarayonini tashkil etishdan ko‘ra kengroq mazmunga ega. U ta’lim oluvchini fikrlashga, muammoni turli rakurslardan ko‘rib chiqishga, o‘z qarashini asoslashga va yakuniy xulosani mustaqil shakllantirishga yo‘naltiruvchi pedagogik vosita hisoblanadi.

“Aqliy hujum” metodining natijadorligi uning pedagogik shartlarga muvofiq tashkil etilishiga bog‘liq. Eng muhim talab – g‘oyalarni shakllantirishning dastlabki bosqichida ularni tanqid qilmaslik va baholamaslik. Chunki erta berilgan baho ta’lim

oluvchining tashabbuskorligini susaytirishi, erkin fikr bildirishiga to‘sqinlik qilishi mumkin.

Metodni tashkil etishda quyidagi talablarga rioya qilish maqsadga muvofiq: muammo yoki savol aniq, tushunarli va fikrlashga undovchi tarzda shakllantirilishi; har bir ta’lim oluvchiga o‘z fikrini erkin bayon qilish imkoniyati yaratilishi; bildirilgan barcha g‘oyalar dastlabki bosqichda tanqid va bahodan xoli tarzda qayd etilishi; fikrlar doska, elektron taqdimot yoki boshqa vizual vositalar yordamida tizimli ravishda aks ettirilishi; ilgari surilgan g‘oyalar mazmuni va o‘zaro aloqadorligiga ko‘ra guruhlanishi hamda yakuniy bosqichda fikrlar belgilangan mezonlar asosida tahlil qilinib, eng maqbul yechim aniqlanishi.

Mazkur talablar ta’lim jarayonida erkin fikrlash va konstruktiv muloqot uchun zarur shart-sharoitlarni yuzaga keltiradi. Shu bilan birga, ta’lim beruvchidan jarayonni boshqarish, faol tinglash, barcha fikrlarni xolis qayd etish va ularni ilmiy-nazariy nuqtayi nazardan umumlashtirish kompetensiyasini talab qiladi.

Metodni samarali tashkil etish muayyan izchillik asosida amalga oshiriladi. Dastlab ta’lim beruvchi o‘quv maqsadiga mos muammo yoki savolni belgilaydi. Savolning ochiq xarakterga ega bo‘lishi va bir nechta javob variantlarini yuzaga keltirishi metodning samaradorligini ta’minlovchi muhim shartlardan biridir.

Keyingi bosqichda ta’lim oluvchilar berilgan savol yuzasidan o‘z fikr va takliflarini bildiradilar. Bu jarayonda asosiy e’tibor g‘oyalar soni va xilma-xilligiga qaratiladi. Bildirilgan fikrlar baholanmasligi sababli ta’lim oluvchilar o‘z qarashlarini erkin ifodalash imkoniyatiga ega bo‘ladilar.

Uchinchi bosqichda barcha fikrlar ko‘rgazmali tarzda qayd etiladi. Vizual ifodalash g‘oyalarni yaxlit holda ko‘rish, ular o‘rtasidagi umumiylik va farqlarni aniqlash imkonini beradi. Shundan so‘ng fikrlar mazmuniy jihatdan guruhlanadi va muayyan mezonlar asosida tahlil qilinadi.

Yakuniy bosqichda dastlab ilgari surilgan muammo yoki savolga eng asoslangan va maqbul javob aniqlanadi. Zarur hollarda ta’lim beruvchi fikrlarni umumlashtirib, ularni ilmiy-nazariy ma’lumotlar bilan boyitadi. Shu tariqa erkin tarzda shakllangan g‘oyalar tizimli bilim va asoslangan xulosaga aylantiriladi.

“Aqliy hujum” metodining asosiy afzalligi ta’lim oluvchilarning bilish faoliyatini faollashtirish bilan bog‘liq. Metod qo‘llanilganda ta’lim oluvchi tayyor javobni kutib o‘tirmaydi, balki muammoni mustaqil anglash va unga yechim izlashga harakat qiladi. Bu esa ta’lim jarayonining subyekt-subyekt munosabatlariga asoslangan holda tashkil etilishiga yordam beradi.

Metodning yana bir muhim jihati – ta’lim oluvchilarning kommunikativ kompetensiyalarini rivojlantirishidir. Jarayon davomida ular o‘z fikrini aniq va qisqa ifodalash, boshqalarning qarashlarini tinglash, fikrlarni qiyoslash, munozaraga kirishish hamda umumiy qarorga kelish ko‘nikmalarini egallaydilar. Bundan tashqari, “Aqliy hujum” ta’lim beruvchiga ta’lim oluvchilarning mavzu bo‘yicha

tayyorgarlik darajasini aniqlash imkonini beradi. Bildirilgan fikrlar asosida mavjud bilimlardagi bo‘shliqlar aniqlanib, keyingi pedagogik faoliyat mazmuni shunga muvofiq takomillashtirilishi mumkin.

Metodning afzalliklari quyidagilarda namoyon bo‘ladi: ta’lim oluvchilar faolligini oshirish, mustaqil va ijodiy fikrlashni rivojlantirish, qisqa vaqt ichida turli g‘oyalarni shakllantirish, mavzuga qiziqishni kuchaytirish, hamkorlik va muloqot ko‘nikmalarini rivojlantirish hamda muammoli vaziyatlarga maqbul yechim topish qobiliyatini shakllantirish. Shu bilan birga, metoddan foydalanishda ayrim metodik muammolar ham kuzatilishi mumkin. Jumladan, savolning noaniq yoki haddan tashqari tor shaklda qo‘yilishi fikrlar doirasining cheklanishiga olib keladi. Shuningdek, ayrim ta’lim oluvchilarning haddan tashqari faol ishtiroki boshqalarning fikr bildirish imkoniyatini kamaytirishi mumkin. Shu bois ta’lim beruvchi barcha ishtirokchilar uchun teng imkoniyat yaratishi, vaqtni oqilona taqsimlashi va fikrlarni xolis boshqarishi lozim.

Xulosa qilib aytganda, “Aqliy hujum” metodi zamonaviy ta’lim jarayonida ta’lim oluvchilarning mustaqil, ijodiy va tanqidiy fikrlashini rivojlantirishga xizmat qiluvchi samarali interfaol metodlardan biridir. Uning pedagogik ahamiyati ta’lim oluvchilarga o‘z fikrlarini erkin ifodalash, turli g‘oyalarni ilgari surish, mavjud qarashlarni qiyoslash va muammo yuzasidan asoslangan xulosaga kelish imkoniyatini yaratishi bilan belgilanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Tolipov O‘., Usmonboyeva M. Pedagogik texnologiyalarning tatbiqiy asoslari. – Toshkent: Fan, 2006.
2. Ishmuhamedov R., Abduqodirov A., Pardayev A. Ta’limda innovatsion texnologiyalar. – Toshkent: Iste’dod, 2008.
3. Sayidahmedov N. Yangi pedagogik texnologiyalar. – Toshkent: Moliya, 2003.
4. Farberman B.L. Ilg‘or pedagogik texnologiyalar. – Toshkent: Fan, 2000.
5. Yo‘ldoshev J.G‘., Usmonov S.A. Pedagogik texnologiya asoslari. – Tosh-kent: O‘qituvchi, 2004.
6. Mavlonova R., To‘rayeva O., Holiqberdiyev K. Pedagogika. – Toshkent: O‘qituvchi, 2008.
7. Muslimov N.A., Usmonboyeva M.H., Sayfurov D.M., To‘rayev A.B. Pedagogik kompetentlik va kreativlik asoslari. – Toshkent, 2015.

MILLIY TARBIYA TIZIMINI RIVOJLANTIRISHDA MILLIY VA UMUMINSONIY QAGRIYATLARNING O’RNI

T.Azizova
Qori-Niyoziy nomidagi Tarbiya pedagogikasi
milliy instituti Qoraqalpog'iston filiali ilmiy xodimi
https://doi.org/10.5281/zenodo.23176663

Annotatsiya.
Maqolada ta’lim muassasalarida milliy tarbiya tizimini rivojlantirishda milliy va umuminsoniy qadriyatlarlarning ahamiyati, xalqining boy madaniy merosidan tarbiyaviy jarayonda foydalanish, oila–maktab–mahalla hamkorligini kuchaytirish, hamda zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosida yoshlar ongida qadriyatlar uyg‘unligini rivojlantirish masalalari yoritiladi.
Kalit so‘zlar: *milliy qadriyatlar, umuminsoniy qadriyatlar, yoshlar tarbiyasi, pedagogik shart-sharoit, Qoraqalpog‘iston, ma’naviyat, ta’lim, tarbiya, oila, mahalla.*
Аннотация
В данной статье рассматриваются педагогические условия формирования гармонии национальных и общечеловеческих ценностей у молодежи на примере Республики Каракалпакстан. Особое внимание уделяется роли семьи, школы, махалли, культурного наследия народа и современных педагогических технологий в воспитании духовно зрелой, социально ответственной и толерантной молодежи.
Ключевые слова: *национальные ценности, общечеловеческие ценности, молодежь, воспитание, педагогические условия, Каракалпакстан, духовность, образование.*
Abstract
This article analyzes the pedagogical conditions for forming the harmony of national and universal values among young people on the example of the Republic of Karakalpakstan. The paper highlights the importance of family, school, community cooperation, local cultural heritage, and modern pedagogical technologies in developing spiritually mature, socially responsible, and tolerant youth.
Keywords: *national values, universal values, youth education, pedagogical conditions, Karakalpakstan, spirituality, education, upbringing.*

Bugungi kunda dunyoda kechayotgan globallashuv, axborot oqimining tezlashuvi, turli madaniyatlar o‘rtasidagi aloqalarning kengayishi yoshlar tarbiyasiga yangicha yondashuvni talab qilmoqda. Ayniqsa, yosh avlod ongida milliy qadriyatlar bilan umuminsoniy qadriyatlar uyg‘unligini shakllantirish jamiyatning barqaror rivojlanishi, ma’naviy xavfsizlikni ta’minlash va barkamol shaxsni voyaga yetkazishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Milliy tarbiya xalqning tarixiy xotirasi, tili, madaniyati, urf-odatlari, an’analari, axloqiy qarashlari va ijtimoiy tajribasini o‘zida mujassam etadi. Umuminsoniy qadriyatlar esa inson huquqlari, tinchlik, do‘stlik, adolat, mehr-oqibat, bag‘rikenglik, insonparvarlik, mehnatsevarlik va mas’uliyat kabi barcha xalqlar uchun umumiy bo‘lgan axloqiy mezonlarni ifodalaydi. Demak, yoshlarni faqat milliy qadriyatlar asosida yoki faqat umumiy dunyoqarash asosida tarbiyalash yetarli emas. Eng muhim vazifa — har ikki qadriyatlar tizimini uyg‘unlashtirish

orqali mustaqil fikrlaydigan, o‘z xalqini sevuvchi, shu bilan birga boshqa xalqlar madaniyatiga hurmat bilan qaraydigan shaxsni shakllantirishdir.

Milliy tarbiya tizimini rivojlantirishda yoshlarda milliy va umuminsoniy qadriyatlar uyg‘unligini shakllantirishning dolzarbligi bir necha omillar bilan izohlanadi.

Birinchidan, yoshlar bugungi kunda internet, ijtimoiy tarmoqlar, ommaviy madaniyat va turli axborot manbalari ta’sirida ulg‘aymoqda. Bu jarayon ularda dunyoqarashning kengayishiga yordam bersa-da, ayrim hollarda milliy o‘zlikdan uzoqlashish, madaniy befarqlik, axloqiy mezonlarning zaiflashuvi kabi muammolarni ham yuzaga keltirishi mumkin.

Ikkinchidan, yoshlar tarbiyasida mahalliy madaniy meros, til, an’ana va urf-odatlarni saqlab qolish muhim ahamiyatga ega. Chunki milliy qadriyatlar yoshlarning o‘zligini anglashiga, tug‘ilib o‘sgan yurtiga mehr bilan qarashiga, ajdodlar merosiga hurmat ruhida shakllanishiga xizmat qiladi.

Uchinchidan, zamonaviy jamiyat yosh avloddan faqat an’anaviy bilim va ko‘nikmalarni emas, balki ochiq fikrlash, boshqa millat va madaniyatlarga hurmat, ijtimoiy mas’uliyat, muammolarni tinch yo‘l bilan hal qilish, fuqarolik pozitsiyasiga ega bo‘lish kabi sifatlarni ham talab etadi. Bu esa umuminsoniy qadriyatlarni ta’lim-tarbiya jarayoniga chuqur singdirishni taqozo etadi.

Ushbu maqsadga erishish uchun quyidagi vazifalar belgilandi:

1.Milliy va umuminsoniy qadriyatlar tushunchalarining pedagogik mazmunini ochib berish.

2.Qoraqalpog‘istonsharoitida yoshlar tarbiyasiga ta’sir etuvchi ijtimoiy-madaniy omillarni tahlil qilish.

3.Ta’lim muassasalarida qadriyatlar uyg‘unligini shakllantirishning samarali pedagogik shart-sharoitlarini aniqlash.

4.Oila, maktab va mahalla hamkorligining tarbiyaviy ahamiyatini asoslash.

5.Zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosida qadriyatlar tarbiyasini takomillashtirish bo‘yicha takliflar ishlab chiqish.

Pedagogik nuqtai nazardan qaralganda, milliy qadriyatlar yoshlarni o‘z ildizlariga bog‘lasa, umuminsoniy qadriyatlar ularni keng dunyoqarash, madaniyatlararo muloqot va ijtimoiy mas’uliyatga tayyorlaydi. Shu bois ta’lim jarayonida bu ikki qadriyatlar tizimini qarama-qarshi qo‘yish emas, balki ularni bir-birini boyituvchi omil sifatida talqin qilish zarur. Masalan, qoraqalpoq xalqida kattalarga hurmat, mehmondo‘stlik, so‘zga sadoqat, el-yurt manfaatini ustun qo‘yish kabi qadriyatlar mavjud. Bu qadriyatlar umuminsoniy axloqiy mezonlar — insonparvarlik, mehr-oqibat, ijtimoiy mas’uliyat va adolat bilan bevosita bog‘liq. Demak, milliy qadriyatlar orqali umuminsoniy qadriyatlarni yoshlar ongiga tabiiy va tushunarli tarzda singdirish mumkin. Shuningdek, Qoraqalpog‘istonda mahalla, oila va ta’lim muassasalari o‘rtasidagi ijtimoiy hamkorlik an’analari ham kuchli.

Ota-onalar, oqsoqollar, ustozlar va jamoatchilik vakillarining tarbiya jarayonidagi ishtiroki yoshlar ongida ijtimoiy mas’uliyat va jamiyatga daxldorlik hissini shakllantiradi.

Yoshlarda milliy va umuminsoniy qadriyatlar uyg‘unligini shakllantirish uchun ta’lim muassasalarida muayyan pedagogik shart-sharoitlar yaratilishi zarur.

1. Ta’lim mazmuniga qadriyatlar tarbiyasini singdirish: Qadriyatlar tarbiyasi alohida tadbirlar bilan cheklanib qolmasligi kerak. U ona tili, adabiyot, tarix, tarbiya, huquq, san’at, geografiya va boshqa fanlar mazmuniga tabiiy ravishda singdirilishi lozim. Masalan, adabiyot darslarida qoraqalpoq va o‘zbek adiblarining asarlari orqali vatanparvarlik, insonparvarlik, halollik va do‘stlik g‘oyalari tahlil qilinishi mumkin. Tarix darslarida esa xalqning o‘tmishi, madaniy merosi, ajdodlar jasorati va tarixiy saboqlar asosida yoshlarning milliy o‘zligi shakllantiriladi.

2. O‘qituvchining shaxsiy namunasi: Yoshlar tarbiyasida o‘qituvchining shaxsiy namunasi nihoyatda muhim. O‘qituvchi o‘zi milliy va umuminsoniy qadriyatlarni hurmat qilmasa, o‘quvchidan buni talab qilishi samara bermaydi. O‘qituvchining nutqi, muomalasi, adolatliligi, bag‘rikengligi, mas’uliyati va o‘quvchilarga munosabati tarbiyaviy jarayonning asosiy omillaridan biridir.

3. Oila–maktab–mahalla hamkorligini kuchaytirish: Yoshlar tarbiyasi faqat maktab yoki oliy ta’lim muassasasi vazifasi emas. Bu jarayonda oila va mahalla ham bevosita ishtirok etishi zarur. Oilada berilgan tarbiya maktabda davom ettirilsa, mahallada ijtimoiy tajriba bilan mustahkamlansa, yoshlar ongida qadriyatlar barqaror shakllanadi. Qoraqalpog‘iston sharoitida mahalla faollari, nuroniylar, ijodkorlar, hunarmandlar va madaniyat xodimlarini tarbiyaviy tadbirlarga jalb etish katta samara beradi.

4. Mahalliy madaniy merosdan foydalanish: Qoraqalpoq xalqining boy madaniy merosi yoshlar tarbiyasida samarali vosita bo‘la oladi. Dostonlar, xalq qo‘shiqlari, maqollar, milliy liboslar, xalq hunarmandchiligi, muzeylar, tarixiy obidalar, teatr va san’at namunalaridan ta’lim-tarbiya jarayonida foydalanish yoshlarning milliy g‘ururini oshiradi. Shu bilan birga, bu meros orqali ularda boshqa xalqlar madaniyatiga ham hurmat tuyg‘usi shakllanadi.

5. Interfaol va innovatsion pedagogik metodlardan foydalanish: Qadriyatlar tarbiyasida faqat ma’ruza yoki nasihat bilan cheklanib qolish yetarli emas. Yoshlarni faol fikrlashga, munozara qilishga, xulosa chiqarishga va amaliy faoliyatga jalb etish zarur. Buning uchun quyidagi metodlardan foydalanish mumkin:

Muammoli ta’lim, davra suhbatlari, bahs-munozara, loyiha metodi, rolli o‘yinlar, esse yozish, ijtimoiy loyihalar, muzey va tarixiy joylarga sayohatlar, xalq ijodi namunalari asosida ijodiy topshiriqlar.Masalan, “Mening milliy qadriyatlarim”, “Qoraqalpoq xalqining tarbiyaviy an’analari”, “Bag‘rikenglik — umuminsoniy qadriyat”, “Oila tarbiyasida milliylik va zamonaviylik” kabi mavzularda loyiha ishlari tashkil etish mumkin.

6. Yoshlarning ijtimoiy faolligini rivojlantirish: Qadriyatlar faqat nazariy bilim sifatida emas, balki amaliy faoliyat orqali mustahkamlanadi. Yoshlarni ko‘ngillilik ishlari, ekologik tadbirlar, mehr-muruvvat aksiyalari, madaniy-ma’rifiy loyihalar, sport musobaqalari va jamoat ishlariga jalb qilish ularda mas’uliyat, hamkorlik, rahmdillik va ijtimoiy faollikni rivojlantiradi.

7. Axborot madaniyatini shakllantirish: Hozirgi davrda yoshlar ijtimoiy tarmoqlar orqali turli axborotlarga duch keladi. Shuning uchun ularda axborotni tanqidiy tahlil qilish, zararli g‘oyalardan himoyalanish, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga zid bo‘lgan materiallarni farqlash ko‘nikmasini shakllantirish muhimdir. Bu borada media savodxonlik, raqamli madaniyat va axloqiy mas’uliyat masalalariga e’tibor qaratish lozim.Yoshlarda milliy va umuminsoniy qadriyatlar uyg‘unligini shakllantirish quyidagi bosqichlar asosida tashkil etilishi mumkin:

1-bosqich: Anglash.Yoshlar milliy va umuminsoniy qadriyatlar mazmuni bilan tanishtiriladi. Bu bosqichda tushuntirish, suhbat, badiiy matnlar tahlili va tarixiy misollardan foydalaniladi.

2-bosqich: Qiyoslash.Milliy qadriyatlar bilan umuminsoniy qadriyatlar o‘rtasidagi umumiy jihatlar aniqlanadi. Masalan, qoraqalpoq xalqidagi mehmondo‘stlik qadriyati insonparvarlik bilan, kattalarga hurmat esa axloqiy mas’uliyat bilan bog‘lanadi.

3-bosqich: Munosabat bildirish.O‘quvchi yoki talaba qadriyatlar haqida o‘z fikrini bildiradi, bahs-munozaralarda ishtirok etadi, hayotiy misollar keltiradi.

4-bosqich: Amaliy faoliyat.Yoshlar ijtimoiy loyiha, ijodiy ish, tadbir, ko‘ngillilik faoliyati yoki mahalliy madaniy merosni o‘rganish jarayonida bevosita ishtirok etadi.

5-bosqich: Refleksiya.Yoshlar o‘z faoliyatini tahlil qiladi, qanday qadriyatlarni o‘zlashtirgani, bu qadriyatlar hayotida qanday ahamiyatga ega ekanini anglaydi.

Ushbu model qadriyatlar tarbiyasini faqat bilim berish jarayoni sifatida emas, balki shaxsiy tajriba va ijtimoiy faoliyat bilan bog‘liq tarbiyaviy jarayon sifatida tashkil etishga yordam beradi.

Yoshlarda milliy va umuminsoniy qadriyatlar uyg‘unligini shakllantirish bugungi ta’lim-tarbiya tizimining muhim vazifalaridan biridir. Qoraqalpog‘iston Respublikasi misolida olib qaralganda, bu jarayon mahalliy madaniy meros, xalq og‘zaki ijodi, oila va mahalla an’analari, ko‘p millatli ijtimoiy muhit hamda zamonaviy pedagogik texnologiyalar bilan uzviy bog‘liq holda amalga oshirilishi lozim.

Maqolada tahlil qilinganidek, qadriyatlar uyg‘unligini shakllantirish uchun quyidagi pedagogik shart-sharoitlar muhim hisoblanadi: ta’lim mazmuniga qadriyatlar tarbiyasini singdirish, o‘qituvchining shaxsiy namunasi, oila–maktab–mahalla hamkorligi, mahalliy madaniy merosdan foydalanish, interfaol metodlarni

qo‘llash, yoshlarning ijtimoiy faolligini oshirish va axborot madaniyatini rivojlantirish.

Shunday qilib, milliy qadriyatlar yoshlarning o‘zligini anglashiga, umuminsoniy qadriyatlar esa ularning keng dunyoqarashli, bag‘rikeng va ijtimoiy mas’uliyatli shaxs sifatida shakllanishiga xizmat qiladi. Bu ikki yo‘nalish uyg‘unlashgandagina barkamol, ma’naviy yetuk va zamonaviy fikrlaydigan yosh avlodni tarbiyalash mumkin bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1.Mirziyoyev Sh.M. Yangi O‘zbekiston strategiyasi. Toshkent: O‘zbekiston, 2021.
2.O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni. Toshkent, 2020.
3.Abdulla Avloniy. Turkiy guliston yoxud axloq. Toshkent: O‘qituvchi.
4.Qoraqalpoq xalq og‘zaki ijodi namunalaridan: Qirq qiz, Edige, xalq maqollari va dostonlari.
5.Jo‘rayev R.H., Safarova R.G. Pedagogika nazariyasi va amaliyoti. Toshkent.
6.Xodjayev B.X. Umumiy pedagogika. Toshkent.
7.Musurmonova O. Ma’naviy qadriyatlar va yoshlar tarbiyasi. Toshkent.

OG‘IR NUTQ NUQSONLARI BO‘LGAN BOLALAR BILAN ISHLASHGA BO‘LAJAK LOGOPEDLARNI MAQSADLI TAYYORLASH: DOLZARBLIK VA METODOLOGIK YONDASHUVLAR

Achilova Sevara Dajsirkulovna
Chirchiq davlat pedagogika universiteti p.f.f.d.(PhD), dotsenti
https://doi.org/10.5281/zenodo.23176672

Annotatsiya. *Ushbu maqolada og‘ir nutq nuqsonlari bo‘lgan bolalar bilan ishlashga bo‘lajak logopedlarni maqsadli tayyorlash: dolzarblik va metodologik yondashuvlar yoritilgan. Og‘ir nutq nuqsonlarni bo‘lajak logopedlar o‘rganish jarayonida olib boriladigan logopedik ishlarning holati bo‘yicha ko‘rsatilib o‘tilgan.*

Kalit so’zlar: *Logoped, og‘ir nutq nuqsonlari, kasbiy tayyorgarlik, maqsadli tayyorlash, kasbiy kompetentlik, logopedik diagnostika, korreksion-rivojlantiruvchi faoliyat, integrativ yondashuv, tizimli yondashuv, klinik-pedagogik yondashuv, inklyuziv ta’lim.*

KIRISH

Ta’limni rivojlanishi unga bo‘lgan talab bugungi kunda ortib bormoqda. Jumladan olim ta’limda bo‘lajak mutaxassislarni har tomonlaman zamon talabi asosida kuchli kadr tayyorlash davr talabi bo‘lib qolmoqda.

Buguni kunda maxsus pedagogikaning rivojlanishi va unga qo‘yiladigan talabalar ortib bormoqda. Jumladan, maxsus pedagogikaning logopediya yo‘nalishida bir qancha nutq nuqsonlarni bartaraf etishda zamonaviy metodlardan foydalanish ularni to‘g‘ri qo‘llash kabi talablar qo‘yilmoqda.

Og‘ir nutq nuqsonlari tushunchasi nutqning bir yoki bir nechta tarkibiy komponentlari — fonetik-fonematik tizim, leksik-grammatik qurilish, bog‘langan nutq, nutqning temp-ritmi, ovoz funksiyasi va kommunikativ faoliyatning jiddiy buzilishlarini qamrab olishi mumkin. Bunday holatlarda nutq buzilishi ko‘pincha boshqa rivojlanish xususiyatlari bilan o‘zaro bog‘liq holda namoyon bo‘ladi. Shuning uchun logopedik yordamni tashkil etishda faqat tashqi nutqiy belgilarni bartaraf etish emas, balki buzilishning tuzilishi, mexanizmlari, bolaning funksional imkoniyatlari va ta’limiy muhitini kompleks tahlil qilish talab etiladi.

Jahon sog‘liqni saqlash tashkilotining Xalqaro faoliyat, nogironlik va salomatlik tasnifi insonning funksional holatini faqat kasallik yoki nuqson nuqtai nazaridan emas, balki faoliyat, ishtirok va atrof-muhit omillari bilan bog‘liq holda ko‘rib chiqishni taklif etadi. Bu yondashuv logopedik diagnostika va korreksion ish mazmunini ham kengaytirish zarurligini anglatadi.

Shu bilan birga, inklyuziv ta’limning rivojlanishi pedagog va maxsus mutaxassislarni tayyorlash mazmuniga yangi talablarni qo‘ymoqda. YuNESKO materiallarida inklyuziv ta’lim samaradorligi pedagoglarning turli ta’lim ehtiyojlariga ega o‘quvchilar bilan ishlash uchun zarur bilim, ko‘nikma va munosabatlarga ega bo‘lishi bilan bevosita bog‘liqligi ta’kidlangan.

Shundan kelib chiqib, bo‘lajak logopedlarni og‘ir nutq nuqsonlari bo‘lgan bolalar bilan ishlashga tayyorlashni umumiy kasbiy tayyorgarlikning tarkibiy qismi sifatida emas, balki maqsadli, tizimli va bosqichma-bosqich shakllantiriladigan maxsus kasbiy tayyorgarlik yo‘nalishi sifatida qarash maqsadga muvofiq.

Maqolaning maqsadi — og‘ir nutq nuqsonlari bo‘lgan bolalar bilan ishlashga bo‘lajak logopedlarni maqsadli tayyorlashning dolzarbligini asoslash hamda mazkur jarayonning metodologik yondashuvlarini ilmiy jihatdan tahlil qilishdan iborat.

Tadqiqot vazifalari quyidagilardan iborat:

1. og‘ir nutq nuqsonlari bo‘lgan bolalar bilan ishlashda logoped kasbiy faoliyatining o‘ziga xos xususiyatlarini aniqlash;
2. bo‘lajak logopedlarni maqsadli tayyorlash zaruratini asoslash;
3. kasbiy tayyorgarlik jarayonida tizimli, kompetensiyaviy, integrativ va klinik-pedagogik yondashuvlarning o‘rnini belgilash;
4. bo‘lajak logopedning kasbiy kompetentligini shakllantirishning ustuvor tarkibiy komponentlarini aniqlash;
5. nazariy va amaliy tayyorgarlik integratsiyasiga asoslangan metodik yo‘nalishlarni belgilash.

TADQIQOT MATERIALLARI VA METODLARI

Mazkur tadqiqot nazariy-analitik xarakterga ega bo‘lib, unda logopediya, maxsus pedagogika, inklyuziv ta’lim va kasbiy ta’lim metodologiyasiga oid ilmiy yondashuvlar tahlil qilindi. Tadqiqotning metodologik asosini tizimli, kompetensiyaviy, integrativ, shaxsga yo‘naltirilgan, faoliyatga asoslangan va klinik-pedagogik yondashuvlar tashkil etdi.

Tadqiqot jarayonida ilmiy adabiyotlarni nazariy tahlil qilish, qiyosiy tahlil, umumlashtirish, pedagogik modellashtirish, tizimlashtirish va konseptual tahlil metodlaridan foydalanildi.

Tayyorgarlik jarayonini tahlil qilishda «maqsad — mazmun — metod — shakl — vosita — natija» tizimi asosida yondashildi. Bunda bo‘lajak logopedlarning kasbiy tayyorgarligi alohida elementlar yig‘indisi emas, balki o‘zaro bog‘langan yaxlit pedagogik tizim sifatida qaraldi.

Kasbiy kompetentlikni tahlil qilishda uning quyidagi tarkibiy qismlari ajratildi:

- motivatsion-qadriyatli komponent — maxsus ehtiyojli bolalar bilan ishlashga kasbiy qiziqish, mas’uliyat va insonparvarlik munosabati;
- kognitiv komponent — og‘ir nutq nuqsonlari etiologiyasi, patogenezi, klinik-pedagogik belgilari va korreksion yondashuvlari haqidagi bilimlar;
- diagnostik komponent — nutq holatini kompleks baholash, buzilish tuzilishini aniqlash va diagnostik xulosa chiqarish qobiliyati;
- korreksion-faoliyat komponenti — individual korreksion dasturni rejalashtirish va amalga oshirish ko‘nikmalari;

• kommunikativ komponent — bola, ota-ona, pedagog, psixolog, shifokor va boshqa mutaxassislar bilan samarali hamkorlik qilish qobiliyati;

• refleksiv komponent — o‘z kasbiy faoliyatini tahlil qilish, xatolarni aniqlash va korreksion strategiyalarni takomillashtirish qobiliyati;

• texnologik komponent — zamonaviy logopedik, axborot-kommunikatsion va diagnostik texnologiyalardan maqsadli foydalanish qobiliyati.

Logopedik ta’limda klinik va amaliy tayyorgarlikning ahamiyati ilmiy tadqiqotlarda ham ko‘rsatilgan. Masalan, nutq va til patologiyasi sohasidagi talabalarning simulyatsion klinik amaliyoti bo‘yicha tadqiqotda klinik kompetensiyalarni baholashga yo‘naltirilgan modellar talabaning nazariy bilimlarini amaliyot bilan bog‘lash imkonini berishi qayd etilgan. Boshqa tadqiqotlarda esa klinik amaliyot turi, intensivligi va sharoitlari talabalar kompetensiyasining shakllanishi bilan bog‘liqligi o‘rganilgan.

TADQIQOT NATIJALARI

Tahlillar shuni ko‘rsatdiki, og‘ir nutq nuqsonlari bo‘lgan bolalar bilan ishlashga bo‘lajak logopedlarni tayyorlashda an’anaviy «bilim berish — amaliy mashq bajarish» modeli yetarli emas. Chunki og‘ir nutq buzilishlari har bir bolada turlicha tuzilish va dinamikaga ega bo‘lib, korreksion jarayonda individual yondashuvni talab qiladi.

Birinchidan, bo‘lajak logoped nutq buzilishining tashqi belgisini emas, balki uning strukturasi va mexanizmini tahlil qila olishi lozim. Masalan, dizartriya, alaliya, rinolaliya, duduqlanish kabi holatlarda bir xil tashqi nutqiy simptom turli mexanizmlar bilan bog‘liq bo‘lishi mumkin. Shu sababli logopedik korreksiyani faqat simptomga yo‘naltirish emas, balki nutq buzilishining tizimli tuzilishini hisobga olish talab etiladi.

Ikkinchidan, diagnostik tayyorgarlikni kuchaytirish zarur. Logopedik diagnostika korreksion ishning boshlang‘ich bosqichi bo‘lib, unda anamnez ma’lumotlarini yig‘ish, nutqning turli komponentlarini tekshirish, bolaning kommunikativ va ta’limiy faoliyatini baholash, ota-ona va pedagoglardan ma’lumot olish hamda natijalarni kompleks tahlil qilish muhim ahamiyatga ega.

Uchinchidan, bo‘lajak mutaxassis individual korreksion dastur tuzishga tayyor bo‘lishi kerak. Individual dastur bolaning yoshi, nutq buzilishining turi va darajasi, saqlangan funksional imkoniyatlari, bilish faoliyati va ta’lim muhiti bilan uyg‘unlashtirilishi lozim.

To‘rtinchidan, logopedning kasbiy faoliyatini multidissiplinar hamkorlikdan ajratib bo‘lmaydi. Og‘ir nutq nuqsonlari bo‘lgan bolalar bilan ishlashda logoped pedagog, psixolog, nevrolog, otorinolaringolog, psixiatr, reabilitolog va ota-onalar bilan hamkorlik qilishi mumkin. Bunday hamkorlik bolaning holatini turli nuqtai nazarlardan baholash va korreksion strategiyani muvofiqlashtirish imkonini beradi.

Beshinchidan, tayyorgarlik jarayonida simulyatsion va amaliy ta’lim elementlarini kuchaytirish maqsadga muvofiq. Talaba real klinik-pedagogik vaziyatlarni tahlil qilishi, diagnostik protokol tuzishi, shartli «bola» bilan muloqot qilish, korreksion mashg‘ulot rejasini ishlab chiqish va o‘z faoliyatini refleksiv baholash imkoniyatiga ega bo‘lishi zarur.

Shu asosda bo‘lajak logopedlarni maqsadli tayyorlashning shartli modeli quyidagi zanjirda ifodalanishi mumkin:

maqsad → motivatsiya → nazariy bilim → diagnostik ko‘nikma → korreksion texnologiya → amaliy faoliyat → refleksiya → kasbiy kompetentlik.

Ushbu zanjirda har bir bosqich keyingi bosqich uchun asos bo‘lib xizmat qiladi.

Bo‘lajak logopedlarni tayyorlashning tizimli yondashuvi

Tizimli yondashuv bo‘lajak logopedlarni tayyorlash jarayonini o‘zaro bog‘langan maqsad, mazmun, metod, shakl, vosita va natijalar tizimi sifatida ko‘rish imkonini beradi.

Tizimli yondashuv asosida tayyorgarlikning maqsadi faqat bilimli mutaxassis emas, balki murakkab kasbiy vaziyatlarda mustaqil qaror qabul qila oladigan logopedni shakllantirishdan iborat bo‘ladi.

Bunda ta’lim mazmuni ham o‘zgaradi. Nutq buzilishlari haqidagi nazariy ma’lumotlar alohida fanlar doirasida berilib qolmasdan, ular diagnostika, korreksiya, psixologiya, neyropsixologiya, maxsus pedagogika va inklyuziv ta’lim mazmuni bilan integratsiyalanishi lozim.

Kompetensiyaviy yondashuv

Kompetensiyaviy yondashuv bo‘lajak logoped tayyorgarligining amaliy natijadorligini belgilashda muhim metodologik asos hisoblanadi.

Kompetensiyaviy yondashuvda «talaba nimani biladi?» degan savol bilan bir qatorda «talaba o‘z bilimini kasbiy vaziyatda qanday qo‘llay oladi?» degan savol ham markaziy o‘rinni egallaydi.

Shu nuqtai nazardan, bo‘lajak logoped quyidagi kasbiy vazifalarni bajara olishi lozim:

1. Nutq buzilishlarining asosiy belgilari va mexanizmlarini tahlil qilish;
2. Kompleks logopedik tekshiruvni tashkil etish;
3. Diagnostik natijalarni tahlil qilish;
4. Bolaning saqlangan imkoniyatlarini aniqlash;
5. Korreksion maqsad va vazifalarni belgilash;
6. Individual korreksion dastur ishlab chiqish;
7. Korreksion mashg‘ulotlarni rejalashtirish;
8. Zamonaviy texnologiyalardan foydalanish;
9. Ota-onalarga pedagogik-logopedik tavsiyalar berish;
10. O‘z faoliyatini baholash va takomillashtirish.

Demak, kompetensiyaviy yondashuv nazariy bilimlarni kasbiy harakatga aylantirish mexanizmini ta’minlaydi.

Integrativ yondashuv

Og‘ir nutq nuqsonlari bo‘lgan bolalar bilan ishlashda integrativ yondashuv alohida ahamiyatga ega. Chunki nutq inson rivojlanishining boshqa sohalari bilan uzviy bog‘liq.

Shu sababli logopedik ta’lim mazmunida:

Logopediya, maxsus pedagogika, psixologiya, neyropsixologiya, tibbiy bilimlar, inklyuziv ta’lim, axborot texnologiyalari o‘rtasida integratsiya ta’minlanishi lozim.

Integrativ yondashuv bo‘lajak logopedga bolani faqat «nutq nuqsoniga ega sub’ekt» sifatida emas, balki individual ehtiyojlari, qobiliyatlari va ijtimoiy muhitiga ega shaxs sifatida ko‘rish imkonini beradi.

Klinik-pedagogik yondashuv

Og‘ir nutq nuqsonlari bo‘lgan bolalar bilan ishlashda klinik-pedagogik yondashuv logopedning kasbiy tayyorgarligida muhim o‘rin tutadi. Klinik yondashuv nutq buzilishining kelib chiqishi, mexanizmlari, klinik belgilari va nevrologik-funksional xususiyatlarini hisobga olishni talab qiladi. Pedagogik yondashuv esa mazkur xususiyatlarni ta’lim va korreksion jarayon bilan bog‘lash imkonini beradi.

Shunday qilib, klinik-pedagogik yondashuv:

«buzilishni aniqlash → uning mexanizmlarini tushunish → bolaning funksional imkoniyatlarini belgilash → korreksion maqsadni tanlash → pedagogik ta’sirni tashkil etish → natijani baholash» ketma-ketligini ta’minlaydi. Bu yondashuvda logoped faqat nutqni tuzatuvchi mutaxassis emas, balki bolaning kommunikativ, ta’limiy va ijtimoiy faolligini qo‘llab-quvvatlovchi mutaxassis sifatida namoyon bo‘ladi.

MUHOKAMA

Olingan nazariy natijalar bo‘lajak logopedlarni og‘ir nutq nuqsonlari bo‘lgan bolalar bilan ishlashga tayyorlashni maxsus maqsad va mazmunga ega mustaqil kasbiy tayyorgarlik yo‘nalishi sifatida tashkil etish zarurligini ko‘rsatadi.

YuNESKOning inklyuziv ta’lim bo‘yicha materiallarida ham o‘qituvchilarni tayyorlashda turli ta’lim ehtiyojlariga ega bolalar bilan ishlash metodikasi, moslashuvchan ta’lim va baholash strategiyalarini shakllantirish muhimligi ta’kidlanadi. O‘zbekistonda ham inklyuziv ta’lim bo‘yicha pedagoglarning salohiyatini oshirish va oliy ta’limda tegishli tayyorgarlik dasturlarini rivojlantirish zarurati qayd etilgan.

Bu holat logopedlarni tayyorlash jarayoniga ham bevosita daxldor. Chunki inklyuziv ta’lim sharoitida logopedning vazifalari faqat individual korreksion mashg‘ulot o‘tkazish bilan cheklanmaydi. U ta’lim jarayonida ishtirok etuvchi

boshqa mutaxassislar bilan hamkorlik qilishi, o‘quv muhitini moslashtirish bo‘yicha tavsiyalar berishi va bolaning muloqot imkoniyatlarini kengaytirishga ko‘maklashishi lozim.

Shu nuqtai nazardan, bo‘lajak logopedlarni tayyorlashda nazariya va amaliyot o‘rtasidagi uzviylik asosiy shartlardan biri sifatida qaralishi kerak.

Amaliy tayyorgarlikning samarali shakllari sifatida:

- klinik holatlarni tahlil qilish;
- keys-metod;
- pedagogik va logopedik vaziyatlarni modellashtirish;
- simulyatsion mashg‘ulotlar;
- diagnostik protokollar bilan ishlash;
- individual korreksion dasturlar tuzish;
- videomateriallarni tahlil qilish;
- amaliyot davomida refleksiv kundalik yuritish;
- superviziya va muhokama mashg‘ulotlarini tashkil etish

kabi usullardan foydalanish mumkin.

Simulyatsion klinik ta’lim bo‘yicha tadqiqotlar ham talabalarning klinik kompetensiyalarini baholash va shakllantirishda modellashtirilgan vaziyatlardan foydalanish imkoniyatlarini ko‘rsatadi. Mazkur yondashuvlar bo‘lajak logopedning «tayyor bilimni qayta aytish»dan «muammoni mustaqil hal qilish» bosqichiga o‘tishini ta’minlaydi. Bunda kasbiy refleksiya ham muhim ahamiyat kasb etadi. Talaba o‘zining diagnostik qarori, tanlagan korreksion metodi, muloqot uslubi va mashg‘ulot natijalarini tahlil qilishga o‘rganishi kerak. Bu esa kasbiy o‘z-o‘zini rivojlantirishning muhim sharti hisoblanadi. Shu bilan birga, bo‘lajak logopedlarni tayyorlashda raqamli texnologiyalardan foydalanish imkoniyatlarini ham kengaytirish zarur. Raqamli vositalar diagnostik ma’lumotlarni tizimlashtirish, korreksion materiallarni individuallashtirish, vizual va audiovizual resurslardan foydalanish hamda ta’lim jarayonini monitoring qilish imkonini beradi. Biroq texnologiyaning o‘zi kasbiy kompetentlikni ta’minlamaydi. U faqat ilmiy-metodik jihatdan asoslangan pedagogik maqsadlarga bo‘ysundirilgandagina samarali vositaga aylanadi. Shunday qilib, bo‘lajak logopedlarni maqsadli tayyorlashning metodologik modeli quyidagi o‘zaro bog‘liq tamoyillarga tayanishi maqsadga muvofiq:

tizimlilik → integratsiya → individuallashtirish → amaliy yo‘naltirilganlik → kompetensiyaviylik → refleksivlik → uzluksiz kasbiy rivojlanish.

XULOSA

Olib borilgan nazariy tahlillar asosida quyidagi xulosalarga kelish mumkin. Og‘ir nutq nuqsonlari bo‘lgan bolalar bilan ishlash logopeddan yuqori darajadagi kasbiy tayyorgarlikni talab etadi. Bunday bolalarda nutq buzilishi ko‘pincha bir nechta nutqiy komponentlarni qamrab olgan murakkab tizimli xarakterga ega

bo‘lishi mumkin. Shu sababli bo‘lajak logopedlarni tayyorlashda faqat alohida nutq nuqsonlari haqida bilim berish yetarli emas.

Bo‘lajak logopedlarni og‘ir nutq nuqsonlari bo‘lgan bolalar bilan ishlashga maqsadli tayyorlash maxsus maqsad, mazmun, metod va baholash mezonlariga asoslangan yaxlit pedagogik tizim sifatida tashkil etilishi zarur. Demak, og‘ir nutq nuqsonlari bo‘lgan bolalar bilan ishlashga bo‘lajak logopedlarni maqsadli tayyorlashning ilmiy-metodologik asoslarini takomillashtirish maxsus pedagogika va logopediya sohasidagi dolzarb vazifalardan biri bo‘lib, uning yechimi kasbiy ta’lim mazmunini integratsiyalash, amaliyotga yo‘naltirish va kompetensiyaviy yondashuv asosida qayta tashkil etish bilan bevosita bog‘liq.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Achilova S.D. “Dislaliya.Dizartriya”. O‘quv qo‘llanma BOOK-TRADE.T:2021, 70 - bet .
2. Achilova S.D. “Duduqlanish”. Darslik. BOOK-TRADE.T:2022, 45- bet.
3. Xodjabekova Surayyo. Og‘ir nutq nuqsoni boo‘lgan bolalarning kommunikativ kompetentligini rivojlantirish texnologiyalari. Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. Toshkent, 2025,11-b.
4. Achilova S.D., F.U. Qodirova, M.G'. Dehqanova “ Logopedik texnologiya.” O‘quv qo‘llanma. BOOK-TRADE.T:2023, 24-bet.

BO‘LAJAK BOSHLANG‘ICH SINF O‘QITUVCHILARINING BAHOLASH SAVODXONLIGINI RIVOJLANTIRISH – XALQARO BAHOLASH DASTURLARI BILAN ISHLASHGA TAYYORLASHNING MUHIM OMILI

Berdimurodova Mexrubon Masudjonovna
Samarqand davlat pedagogika instituti mustaqil tadqiqotchisi
https://doi.org/10.5281/zenodo.23176687

Annotatsiya. *Maqolada bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining baholash savodxonligini rivojlantirishning xalqaro baholash dasturlari bilan ishlashga kasbiy-metodik tayyorlashdagi ahamiyati yoritilgan. “Baholash savodxonligi” tushunchasining ilmiy-pedagogik mazmuni, uning o‘qituvchi kasbiy faoliyatidagi o‘rni hamda diagnostik, metodik va refleksiv faoliyat bilan aloqadorligi tahlil qilingan. PIRLS, TIMSS va PISA xalqaro baholash dasturlari bilan ishlashga tayyorlash jarayonida baholash savodxonligini rivojlantirishning mazmuniy komponentlari aniqlashtirilgan. Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarida baholash savodxonligini rivojlantirishda mutaxassislik fanlari, xalqaro baholash metodologiyasi va pedagogik amaliyot integratsiyasining metodik imkoniyatlari asoslangan. Baholash savodxonligini xalqaro baholash qamrov doiralarini anglash, topshiriqlarni tahlil qilish va loyihalash, mezon va rubrikalarni ishlab chiqish, natijalarni interpretatsiya qilish hamda ular asosida metodik qaror qabul qilishni birlashtiruvchi integrativ kasbiy sifat sifatida rivojlantirish yuzasidan takliflar berilgan.*

Kalit so‘zlar: *baholash savodxonligi, Assessment Literacy, xalqaro baholash dasturlari, PIRLS, TIMSS, PISA, bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi, integrativ yondashuv, baholash topshirig‘i, rubrika, diagnostika, refleksiya.*

Аннотация. *В статье раскрывается значение развития оценочной грамотности будущих учителей начальных классов в их профессионально-методической подготовке к работе с международными программами оценки. Проанализированы научно-педагогическое содержание понятия «оценочная грамотность», его место в профессиональной деятельности учителя, а также взаимосвязь с диагностической, методической и рефлексивной деятельностью. Уточнены содержательные компоненты развития оценочной грамотности в процессе подготовки к работе с международными программами оценки PIRLS, TIMSS и PISA. Обоснованы методические возможности интеграции профильных дисциплин, методологии международных оценочных исследований и педагогической практики в развитии оценочной грамотности будущих учителей начальных классов. Предложены подходы к развитию оценочной грамотности как интегративного профессионального качества, объединяющего понимание рамочных основ международных оценочных исследований, анализ и проектирование заданий, разработку критериев и рубрик, интерпретацию результатов и принятие на их основе методических решений.*

Ключевые слова: *оценочная грамотность, Assessment Literacy, международные программы оценки, PIRLS, TIMSS, PISA, будущий учитель начальных классов, интегративный подход, оценочное задание, рубрика, диагностика, рефлексия.*

Abstract. *The article examines the importance of developing assessment literacy among prospective primary school teachers as part of their professional and methodological preparation for working with international assessment programmes. The scientific and pedagogical meaning of the concept of “assessment literacy,” its role in teachers’ professional practice, and its relationship with diagnostic, methodological, and reflective activities are analysed. The content components of assessment literacy development in preparing prospective teachers to work with*

the PIRLS, TIMSS, and PISA international assessment programmes are clarified. The methodological potential of integrating subject-specific disciplines, international assessment methodology, and teaching practice in developing the assessment literacy of prospective primary school teachers is substantiated. Approaches are proposed for developing assessment literacy as an integrative professional quality that combines an understanding of international assessment frameworks, the analysis and design of assessment tasks, the development of assessment criteria and rubrics, the interpretation of results, and the making of methodological decisions based on those results.

Key words: *assessment literacy, international assessment programmes, PIRLS, TIMSS, PISA, prospective primary school teacher, integrative approach, assessment task, rubric, diagnostics, reflection.*

Kirish. Jahon ta’lim tizimida o‘quv natijalarini baholashga munosabatning o‘zgarishi pedagogning kasbiy faoliyatiga qo‘yilayotgan talablarning ham yangilanishiga olib kelmoqda. Zamonaviy pedagogdan o‘quvchining bilimini tekshirish bilangina chegaralanmay, o‘quv natijalarini mezonlar asosida baholash, olingan ma’lumotlarni tahlil qilish va interpretatsiya qilish, baholash natijalaridan keyingi pedagogik faoliyatni rejalashtirish hamda ta’lim sifatini takomillashtirishda foydalanish talab etiladi. Shu jihatdan baholash o‘qitish jarayonining yakuniy bosqichi emas, balki uning mazmuni, metodlari va natijalarini o‘zaro bog‘lovchi pedagogik mexanizm sifatida namoyon bo‘lmoqda.

Mazkur masala xalqaro baholash dasturlari bilan ishlashda yanada muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki PIRLS, TIMSS va PISA doirasidagi baholash an’anaviy nazorat topshiriqlarini bajarishdan farqli ravishda baholash konstruktini tushunish, mazmun va kognitiv sohalarni ajratish, topshiriq tuzilishini tahlil qilish, o‘quvchi javobini belgilangan mezonlar asosida baholash hamda natijalarni pedagogik nuqtayi nazardan interpretatsiya qilishni talab etadi. Binobarin, bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchisini xalqaro baholash dasturlari bilan ishlashga tayyorlash masalasini uning baholash savodxonligini rivojlantirishdan ajratilgan holda hal etib bo‘lmaydi.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. Ilmiy adabiyotlarda **“assessment literacy”** tushunchasining shakllanishi R.J.Stiggins tadqiqotlari bilan chambarchas bog‘liq. Olim 1991-yildayoq baholash savodxonligi muammosini ko‘tarib, baholash bo‘yicha savodxon bo‘lmagan subyektlar yuqori sifatli o‘quv yutuqlari ma’lumotlarini qanday shakllantirishni yetarlicha tushunmasligi va foydalanayotgan baholash ma’lumotlarini tanqidiy baholay olmasligiga e’tibor qaratgan[5]. Ushbu qarash baholash savodxonligini test tuzish yoki baho qo‘yishga oid texnik ko‘nikmalar majmui sifatida emas, balki baholash ma’lumotlarining sifatini anglash va ulardan asosli foydalanish qobiliyati sifatida tushunishga asos yaratadi.

Baholash savodxonligi tushunchasi pedagogik tadqiqotlarda dastlab baholashga oid zarur bilim va ko‘nikmalarni egallash bilan bog‘langan bo‘lsa, keyinchalik uning mazmuni sezilarli darajada kengaydi. Xususan, Y.Xu va

G.T.L.Brown 100 ta tadqiqotni tahlil qilish asosida o‘qituvchining amaliyotdagi baholash savodxonligi – Teacher Assessment Literacy in Practice (TALiP) konseptual modelini ishlab chiqqan. Mualliflar baholash savodxonligini o‘zgarmas bilimlar to‘plami emas, balki o‘qituvchining baholashga oid bilimlari, qarashlari, institutsional va ijtimoiy-madaniy kontekst hamda amaliy faoliyati o‘rtasidagi munosabatlarda rivojlanadigan dinamik tizim sifatida talqin etadilar[8].

Mazkur yondashuvning muhim tomoni shundaki, o‘qituvchining baholash savodxonligi “baholash haqida bilish” darajasidan “baholash faoliyatini kasbiy vaziyatda amalga oshira olish” darajasiga olib chiqiladi. Demak, pedagog baholashning maqsadi va tamoyillarini bilishi bilan bir qatorda, mos baholash vositasini tanlashi yoki ishlab chiqishi, undan olingan ma’lumotlarni tahlil qilishi va ushbu ma’lumotlar asosida pedagogik qaror qabul qila olishi kerak.

Baholashning pedagogik funksiyasi P.Black va D.Wiliam tadqiqotlarida ham keng asoslangan. Tadqiqotchilar formativ baholashni o‘qituvchi va o‘quvchilar tomonidan olinadigan ma’lumotlardan keyingi o‘qitish va o‘rganish faoliyatini o‘zgartirish uchun teskari aloqa sifatida foydalanishni nazarda tutuvchi faoliyat sifatida izohlaydilar[3]. Shunday ekan, baholash natijasining pedagogik qiymati uning qayd etilishida emas, balki ushbu ma’lumot asosida keyingi ta’lim jarayonining takomillashtirilishidadir.

Mazkur nazariy qarashlardan kelib chiqib, bizningcha, *bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchisining baholash savodxonligi – baholashning maqsadi, tamoyillari va metodologiyasini anglash, valid va ishonchli baholash vositalarini tahlil qilish hamda loyihalash, o‘quv natijalarini mezonlar asosida baholash va interpretatsiya qilish, olingan ma’lumotlardan pedagogik qaror qabul qilish va o‘z faoliyatini refleksiv takomillashtirishda foydalanish imkonini beruvchi integrativ kasbiy sifatdir.*

Ushbu ta’rifda baholash savodxonligining bir necha jihati o‘zaro birlashtiriladi: metodologik bilim, baholash vositalari bilan ishlash, diagnostik faoliyat, analitik-interpretatsion faoliyat, pedagogik qaror qabul qilish va refleksiya. Bunday yondashuv ayniqsa xalqaro baholash dasturlari bilan ishlaydigan boshlang‘ich sinf o‘qituvchisini tayyorlash uchun muhimdir.

Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarini baholash faoliyatiga maxsus tayyorlash zarurati MDH olimlarining tadqiqotlarida ham asoslangan. E.V.Ivashchenkoning “Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchisini o‘quvchilarning o‘quv yutuqlarini baholashga kasbiy tayyorlash” mavzusidagi tadqiqotida mazkur tayyorgarlik talabalarda baholash faoliyatiga qadriyatli munosabat, fanlararo bilimlar va baholash ko‘nikmalarini shakllantirishga yo‘naltirilgan maqsadli jarayon sifatida qaraladi[10].

E.V.Ivashchenko baholash faoliyatiga tayyorlik tarkibida motivatsion-qadriyatli, kognitiv, faoliyatli va refleksiv komponentlarni ajratadi. Tadqiqotda

bo‘lajak o‘qituvchilarni baholash faoliyatiga tayyorlash kasbiy-yo‘naltiruvchi, nazariy-analitik hamda kasbiy-ijodiy bosqichlarda amalga oshirilishi asoslangan[10]. Mazkur yondashuv baholash kompetensiyasi faqat nazariy ma’lumotlarni o‘zlashtirish orqali emas, balki nazariy bilim – tahliliy faoliyat – amaliy baholash – refleksiya ketma-ketligida rivojlanishini ko‘rsatadi.

Mahalliy tadqiqotlarda ham bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarini xalqaro baholash dasturlari bilan ishlashga metodik tayyorlash masalasiga alohida e’tibor qaratilgan. Jumladan, Sh.T.Qayumova bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining TIMSS xalqaro baholash dasturi asosida o‘qitishga metodik tayyorgarligini takomillashtirish masalasini tadqiq etib, xalqaro baholash talablarini boshlang‘ich ta’lim mazmuni va bo‘lajak o‘qituvchining metodik faoliyati bilan bog‘lash zaruratini asoslaydi[4]. Mazkur yondashuv baholashga tayyorgarlikni xalqaro dastur haqida ma’lumotga ega bo‘lish bilan chegaralamasdan, uning metodologik talablarini kasbiy-metodik faoliyatga tatbiq eta olish nuqtayi nazaridan qarash imkonini beradi.

Pedagogik diagnostika masalasini tadqiq etgan N.M.Boritko diagnostik faoliyatni pedagog kasbiy faoliyatining muhim yo‘nalishi sifatida ko‘radi. Muallifning “Diagnosticheskaya deyatelnost pedagoga” asarida ta’lim diagnostikasining nazariy tushunchalari, diagnostik metod va metodikalar hamda diagnostik faoliyatning kasbiy-pedagogik mazmuni yoritilgan[9]. Bunday qarash baholash jarayonini natijani qayd etish bilan chegaralamasdan, ma’lumotni yig‘ish, tahlil qilish, interpretatsiya qilish va keyingi pedagogik faoliyatni korreksiyalash bilan bog‘lash imkonini beradi.

Xalqaro baholash dasturlari kontekstida mazkur masalaning metodik jihatlari D.E.Avazova tadqiqotida PIRLS misolida yoritilgan. Tadqiqotchi bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining PIRLS xalqaro baholash dasturi asosida o‘qitishga metodik tayyorgarligini takomillashtirishda kasbiy-metodik rivojlanish, ta’lim subyektlari o‘rtasidagi qayta aloqa hamda integrativ xususiyatlarni didaktik jihatdan yaxlitlashga e’tibor qaratadi[2]. Ushbu qarash baholash natijalaridan qayta aloqa vositasi sifatida foydalanish bo‘lajak o‘qituvchining baholash savodxonligini amaliy faoliyat bilan bog‘lashda muhim ekanligini ko‘rsatadi.

Demak, bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchisining baholash savodxonligi metodik va diagnostik kompetensiyalar bilan uzviy aloqador bo‘lib, pedagogdan quyidagi faoliyatlarni kompleks amalga oshirishni talab qiladi:

baholash maqsadini aniqlash – baholash vositasini tanlash yoki loyihalash – baholash ma’lumotlarini olish – natijalarni mezonlar asosida tahlil qilish – interpretatsiya qilish – pedagogik qaror qabul qilish – refleksiya va korreksiya.

Ushbu ketma-ketlik xalqaro baholash dasturlari bilan ishlashda yanada murakkab mazmun kasb etadi.

Muhokama. PIRLS, TIMSS va PISA xalqaro baholash dasturlari o‘zining maqsadi, baholash obyekti va yosh guruhlari jihatidan farqlansa-da, ularni birlashtiruvchi umumiy metodologik xususiyat mavjud: baholash faqat o‘zlashtirilgan predmet bilimining hajmini aniqlashga emas, bilim va ko‘nikmalarning turli kontekstlarda qo‘llanishini aniqlashga yo‘naltiriladi.

Shu sababli bo‘lajak o‘qituvchi xalqaro baholash dasturlarining nomi, davriyligi va tashkiliy xususiyatlarini bilish bilan cheklanmasligi kerak. U xalqaro baholash vositasining ichki konstruksiyasini anglay olishi lozim. Bunda baholash savodxonligi quyidagi komponentlarni qamrab olishi maqsadga muvofiq:

1. Baholashning konseptual asoslarini anglash. Talaba formativ va summativ baholash, validlik, ishonchlilik, obyektivlik, adolatlilik va shaffoflik kabi asosiy tushunchalarni bilishi va ularni amaliy baholash vaziyatlarida qo‘llay olishi zarur.

2. Xalqaro baholash qamrov doiralarini anglash. Bo‘lajak o‘qituvchi PIRLS, TIMSS va PISA dasturlarida baholanadigan mazmuniy va kognitiv sohalarni, baholash konstruktini hamda topshiriqlarning funksional vazifasini tushunishi kerak.

PIRLS xalqaro baholash dasturi doirasida mazkur yondashuv D.A.Utanbayeva tadqiqotlarida ham o‘z ifodasini topgan. Tadqiqotchining boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini PIRLS xalqaro baholash dasturiga tayyorlashga oid izlanishlarida badiiy va axborot matnlari, o‘qish maqsadlari hamda matnni tushunish jarayonlariga mos topshiriqlardan foydalanish masalalariga e’tibor qaratilgan[7]. Bu esa bo‘lajak o‘qituvchining PIRLS topshirig‘iga oddiy mashq sifatida emas, balki muayyan o‘qish maqsadi va kognitiv jarayonni baholashga xizmat qiluvchi metodik vosita sifatida yondashishi zarurligini ko‘rsatadi.

3. Baholash topshiriqlarini tahlil qilish. Talaba topshiriq nimani o‘lchayotganini, qanday kognitiv faoliyatni talab qilishini, uning murakkablik darajasi va baholash mezonlarini aniqlay olishi zarur.

4. Baholash topshiriqlarini loyihalash. Tayyor xalqaro baholash topshirig‘idan foydalanish bilan chegaralanmasdan, muayyan konstrukt va kognitiv jarayonga mos yangi topshiriqlar ishlab chiqish ko‘nikmasi shakllantirilishi lozim.

5. Mezon, deskriptor va rubrikalar ishlab chiqish. Ayniqsa ochiq javobli topshiriqlarda o‘quvchi faoliyatining natijasini obyektiv baholash uchun mezon va deskriptorlarning aniqligi muhimdir.

6. Natijalarni tahlil va interpretatsiya qilish. Olingan ballni qayd etish baholash jarayonining yakuni bo‘lmasligi kerak. Talaba natija nimani ko‘rsatayotganini, o‘quvchi qaysi kognitiv bosqichda qiyinchilikka duch kelganini va bu holat qanday metodik choralarni talab qilishini aniqlashi zarur.

Shu jihatdan baholash savodxonligi xalqaro baholash dasturlari bilan ishlash kompetensiyasining tayanch komponenti vazifasini bajaradi. Chunki xalqaro baholash materiallarini metodik jihatdan ongli qo‘llash uchun pedagog “topshiriqni

bajarish” emas, “topshiriq nimani va qanday o‘lchayotganini tushunish” pozitsiyasiga ega bo‘lishi kerak.

O‘zbekistonda mazkur muammoga eng yaqin tadqiqotlardan biri D.X.Turdibayev tomonidan amalga oshirilgan bo‘lib, unda bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarini xalqaro baholash dasturlari asosida pedagogik faoliyatga tayyorlash metodikasi tadqiq etilgan[6]. Muallif xalqaro baholash dasturlarining imkoniyatlarini bo‘lajak o‘qituvchilarning pedagogik faoliyatga tayyorgarligi bilan bog‘liq holda o‘rganadi. Mazkur tadqiqot natijalari xalqaro baholash dasturlarini pedagog kadrlar tayyorlash mazmuniga kiritishning metodik ahamiyatini ko‘rsatadi. Bizning yondashuvimizda esa ushbu masala bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchisining xalqaro baholash dasturlari bilan bevosita ishlash faoliyati, ya’ni qamrov doiralarini anglash, topshiriqlarni tahlil qilish va loyihalash, baholash mezonlarini ishlab chiqish, natijalarni interpretatsiya qilish va ular asosida metodik qaror qabul qilish bilan bog‘liq holda qaraladi.

Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining baholash savodxonligini faqat xalqaro baholash dasturlariga bag‘ishlangan alohida fan doirasida rivojlantirish yetarli emas. Baholash faoliyati o‘qituvchining ona tili, o‘qish, matematika, tabiiy fanlar va boshqa predmetlarni o‘qitish faoliyati bilan uzviy bog‘langan. Shu sababli baholash savodxonligini rivojlantirishda integrativ yondashuv alohida ahamiyat kasb etadi.

A.L.Chekin boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarini kasbiy tayyorlashni integrativ yondashuv asosida tashkil etish masalasini tadqiq qilib, boshlang‘ich sinf o‘qituvchisining kasbiy-metodik faoliyati o‘z mohiyatiga ko‘ra integrativ xarakterga ega ekanligini asoslaydi[12]. Uning tadqiqotida predmetga oid tayyorgarlik va uni o‘qitish metodikasining o‘zaro bog‘liqligiga alohida e’tibor qaratiladi.

N.I.Ulendeeva esa bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarida integrativ didaktik ko‘nikmalarni shakllantirish texnologiyasini ishlab chiqib, kasbiy tayyorgarlik jarayonida turli bilim va faoliyat usullarini yaxlit pedagogik vazifalarni hal qilishga yo‘naltirish zarurligini asoslaydi[11]. Ushbu qarashlardan kelib chiqib, baholash savodxonligini ham bir fan doirasidagi alohida bilim sifatida emas, balki turli mutaxassislik fanlarida amalga oshiriladigan kasbiy-metodik faoliyatni birlashtiruvchi komponent sifatida shakllantirish maqsadga muvofiq.

Natijalar. Bizning fikrimizcha, bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining baholash savodxonligini rivojlantirish vertikal, gorizontal va amaliy integratsiya birligida amalga oshirilishi lozim.

Vertikal integratsiya baholashga oid bilim va ko‘nikmalarning bakalavriat bosqichlari davomida oddiydan murakkabga tomon izchil rivojlanishini nazarda tutadi. Bunda dastlab baholashning pedagogik va metodologik asoslari o‘zlashtirilsa, keyingi bosqichlarda funksional savodxonlik, xalqaro baholash

qamrov doiralari, topshiriqlarni tahlil qilish va loyihalash, natijalarni interpretatsiya qilish hamda ekspert baholash faoliyati rivojlantiriladi.

Gorizontal integratsiya baholash savodxonligini boshlang‘ich ta’limning mutaxassislik fanlari bilan bog‘lashni anglatadi. Masalan, “Boshlang‘ich ta’limda matnni o‘rganish” va ona tili o‘qitish metodikasida PIRLSga oid o‘qish jarayonlari, matematika o‘qitish metodikasida TIMSS va PISA matematik topshiriqlari, tabiiy fanlarni o‘qitish metodikasida esa TIMSS va PISAning tabiiy-ilmiy savodxonlik konstruktlari bilan ishlash mumkin.

Amaliy integratsiya nazariy va metodik bilimlarni pedagogik amaliyotga ko‘chirishni ta’minlaydi. Talaba xalqaro baholash talablari asosida ishlab chiqqan topshirig‘ini mikrodars yoki pedagogik amaliyotda qo‘llaydi, o‘quvchi javoblarini yig‘adi, natijalarni tahlil qiladi va topshiriqni qayta takomillashtiradi.

Bunday tashkil etish natijasida baholash savodxonligi nazariy bilim darajasida qolmaydi, balki bo‘lajak o‘qituvchining real kasbiy faoliyatida namoyon bo‘ladigan amaliy kompetensiyaga aylanadi.

Baholash savodxonligini rivojlantirishning metodik mexanizmi. Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchisining xalqaro baholash dasturlari bilan ishlashga tayyorligi bir martalik o‘quv faoliyati orqali shakllanmaydi. Mazkur jarayon talabaning baholash vositasiga munosabati va faoliyat pozitsiyasining bosqichma-bosqich o‘zgarishini talab etadi.

Shundan kelib chiqib, baholash savodxonligini rivojlantirishda quyidagi metodik ketma-ketlikni qo‘llash maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz:

anglash – tahlil – loyihalash – ekspertiza – amaliy qo‘llash – refleksiya va korreksiya.

Anglash bosqichida talaba baholashning maqsadi, konstruktlari, tamoyillari va xalqaro baholash dasturlarining qamrov doiralarini o‘zlashtiradi.

Tahlil bosqichida mavjud PIRLS, TIMSS va PISA topshiriqlari mazmun, kognitiv jarayon, kontekst, topshiriq formati va baholash mezonlari nuqtayi nazaridan o‘rganiladi.

Loyihalash bosqichida talaba belgilangan konstrukt va kognitiv jarayonga mos yangi baholash topshirig‘i, mezon, deskriptor yoki rubrika ishlab chiqadi.

Ekspertiza bosqichida yaratilgan metodik mahsulot belgilangan mezonlar asosida o‘zaro yoki ekspert baholashdan o‘tkaziladi. Bu jarayon talabaning faqat o‘z topshirig‘ini yaratish emas, boshqa baholash vositasining sifatini dalillangan tarzda baholash ko‘nikmasini ham rivojlantiradi.

Amaliy qo‘llash bosqichida ishlab chiqilgan topshiriqlar mikrodarslar va pedagogik amaliyot jarayonida sinab ko‘riladi. Natijada talaba baholash vositasining nazariy jihatdan to‘g‘ri tuzilishi bilan uning real o‘quv vaziyatidagi samaradorligi o‘rtasidagi bog‘liqlikni anglaydi.

Refleksiya va korreksiya bosqichida olingan natijalar tahlil qilinib, topshiriq, rubrika yoki uni qo‘llash metodikasidagi kamchiliklar aniqlanadi va tegishli o‘zgartirishlar kiritiladi.

Mazkur mexanizmda baholash savodxonligining rivojlanishi “bilaman” darajasidan “tahlil qilaman”, “loyihalayman”, “qo‘llayman”, “natijani interpretatsiya qilaman” va “metodik baho bera olaman” darajalariga tomon yo‘naltiriladi. Bu esa bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchisini xalqaro baholash materiallarining passiv iste’molchisidan baholash vositalarini ongli ravishda tahlil qiluvchi va yaratuvchi kasbiy subyektga aylantirish imkonini beradi.

Xulosa. Olib borilgan nazariy tahlillar asosida quyidagi xulosalarga kelindi.

Birinchidan, baholash savodxonligi zamonaviy o‘qituvchining kasbiy kompetentligini belgilovchi muhim tarkibiy sifat bo‘lib, uning mazmuni baholash haqidagi nazariy bilimlar bilan chegaralanmaydi. U baholash vositasini tanlash va loyihalash, natijalarni tahlil qilish va interpretatsiya qilish, olingan ma’lumotlardan pedagogik qaror qabul qilish hamda ta’lim jarayonini korreksiyalashda foydalanishni qamrab oladi.

Ikkinchidan, bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarini PIRLS, TIMSS va PISA xalqaro baholash dasturlari bilan ishlashga tayyorlashda baholash savodxonligi tayanch komponent sifatida qaralishi zarur. Chunki xalqaro baholash vositalari bilan samarali ishlash ularning qamrov doirasi va konstruktlarini tushunish, topshiriqning kognitiv talabini aniqlash, baholash mezonlarini ishlab chiqish hamda natijalarni metodik jihatdan interpretatsiya qilishni talab qiladi.

Uchinchidan, baholash savodxonligini rivojlantirish alohida fan doirasida chegaralanmasdan, boshlang‘ich ta’lim mutaxassislik fanlari, xalqaro baholash metodologiyasi va pedagogik amaliyotning vertikal, gorizontal hamda amaliy integratsiyasi asosida tashkil etilishi maqsadga muvofiq.

To‘rtinchidan, bo‘lajak o‘qituvchining baholash faoliyatini anglash – tahlil – loyihalash – ekspertiza – amaliy qo‘llash – refleksiya va korreksiya ketma-ketligida tashkil etish baholash savodxonligining nazariy bilimdan kasbiy-amaliy faoliyatga transformatsiyasini ta’minlaydi.

Shunday qilib, bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining baholash savodxonligini rivojlantirish xalqaro baholash dasturlari bilan ishlashga tayyorlashning alohida elementi emas, balki xalqaro baholash metodologiyasi, topshiriqlarni tahlil qilish va loyihalash, diagnostika, natijalarni interpretatsiya qilish, metodik qaror qabul qilish va refleksiyani o‘zaro birlashtiruvchi integrativ kasbiy-metodik omil sifatida qaralishi lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 8-dekabrdagi “Xalq ta’limi tizimida ta’lim sifatini baholash sohasidagi xalqaro tadqiqotlarni tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 997-son Qarori

2. Avazova D.E. Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarini PIRLS xalqaro baholash dasturi asosida o‘qitishga metodik tayyorgarligini takomillashtirish: pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. – Toshkent, 2024.
3. Black P., Wiliam D. Assessment and Classroom Learning // Assessment in Education: Principles, Policy & Practice. – 1998. – Vol. 5, No. 1. – P. 7–74.
4. Qayumova Sh.T. Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarini TIMSS xalqaro baholash dasturi asosida o‘qitishga metodik tayyorgarligini takomillashtirish: pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi. – Guliston, 2023.
5. Stiggins R.J. Assessment Literacy // Phi Delta Kappan. – 1991. – Vol. 72, No. 7. – P. 534–539.
6. Turdibayev D.X. Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarini xalqaro baholash dasturlari asosida pedagogik faoliyatga tayyorlash metodikasi: pedagogika fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi avtoreferati. – Guliston, 2024.
7. Utanbayeva D.A. Boshlang'ich sinf o'quvchilarini xalqaro baholash dasturiga tayyorlash metodikasini takomillashtirish (PIRLS misolida): pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi. – Guliston, 2024.
8. Xu Y., Brown G.T.L. Teacher Assessment Literacy in Practice: A Reconceptualization // Teaching and Teacher Education. – 2016. – Vol. 58. – P. 149–162. DOI: 10.1016/j.tate.2016.05.010.
9. Борытко Н.М. Диагностическая деятельность педагога: учеб. пособие для студентов высших учебных заведений / под ред. В.А.Сластенина, И.А.Колесниковой. – М.: Академия, 2006. – 288 с.
10. Иващенко Е.В. Профессиональная подготовка будущего учителя начальных классов к оценке учебных достижений школьников: дис. ... канд. пед. наук: 13.00.08. – Белгород, 2009. – 236 с.
11. Улендеева Н.И. Технология формирования интегративных дидактических умений в профессиональной подготовке будущего учителя начальных классов: дис. ... канд. пед. наук: 13.00.08. – Самара, 2010. – 189 с.
12. Чекин А.Л. Профессиональная подготовка учителя начальных классов к обучению математике на основе интегративного подхода: дис. ... д-ра пед. наук: 13.00.02. – М., 2005.

IJTIMOIY-EMOTSIONAL TA’LIMNING HUQUQBUZARLIKLARNI BARVAQT PROFILAKTIKA QILISHDAGI PEDAGOGIK IMKONIYATLARI

Boltayev Faxriddin Azamatovich
Tarbiya pedagogikasi milliy instituti mustaqil izlanuvchisi
https://doi.org/10.5281/zenodo.23176703

Annotatsiya. *Maqolada ijtimoiy-emotsional ta’limning barvaqt profilaktikadagi imkoniyatlari nazariy tahlil qilinadi. Ilmiy dalillar qiyoslanib, kompetensiya, xulq-atvor va huquqiy natijalar farqlanadi. Hissiy boshqaruv, mas’uliyatli qaror va yordam so‘rashni o‘rgatish modeli taklif etiladi. Uning shartlari xavfsiz maktab muhiti, pedagog tayyorgarligi va oila hamkorligidir. Modelning profilaktik ta’siri empirik tekshirilishi lozim.*
Kalit so‘zlar: *ijtimoiy-emotsional ta’lim, barvaqt profilaktika, o‘zini boshqarish, empatiya, maktab muhiti, pedagogik qo‘llab-quvvatlash.*
Аннотация. *Теоретически рассматривается потенциал социально-эмоционального обучения для ранней профилактики правонарушений. Сопоставляются научные данные; разграничиваются компетенции, поведение и правовые исходы. Предлагается модель обучения эмоциональной саморегуляции, ответственным решениям и обращению за помощью. Условия реализации включают безопасную школьную среду, подготовку педагогов и сотрудничество с семьёй. Профилактический эффект модели требует эмпирической проверки.*
Ключевые слова: *социально-эмоциональное обучение, ранняя профилактика, саморегуляция, эмпатия, школьная среда, педагогическая поддержка.*
Abstract. *This article theoretically examines social and emotional learning for early prevention of offending. Research evidence is compared, distinguishing competencies, behaviour and legal outcomes. A model for teaching emotional regulation, responsible decision-making and help-seeking is proposed. Implementation requires a safe school environment, teacher preparation and family cooperation. Preventive effects require empirical evaluation.*
Keywords: *social and emotional learning, early prevention, self-regulation, empathy, school climate, educational support.*

Kirish

Barvaqt profilaktikaning pedagogik vazifasi o‘quvchiga nizoli vaziyatda xavfsiz va mas’uliyatli yo‘l tanlashni o‘rgatishdir. Qoidani bilish zarur, biroq g‘azab, tengdoshlar bosimi yoki kamsitilish hissi paytida unga amal qilish alohida ko‘nikmalarni talab etadi. Ijtimoiy-emotsional ta’lim (SEL) ana shu bilim va harakat orasidagi bog‘lanishni kuchaytirish imkonini beradi. Bunda ta’limning maqsadi bolani «potensial huquqbuzar» sifatida tasniflash emas, uning rivojlanishini qo‘llab-quvvatlovchi sharoit yaratishdir.

CASEL doirasida SEL o‘zini anglash, o‘zini boshqarish, ijtimoiy anglash, munosabatlarni qurish va mas’uliyatli qaror qabul qilish kompetensiyalarini birlashtiradi [1]. Ushbu maqolaning maqsadi ularning profilaktik imkoniyatlarini asoslash, ta’sir mexanizmlarini ochib berish va maktab amaliyoti uchun tekshiriladigan model taklif etishdir. Asosiy savol shunday qo‘yiladi: SEL qaysi

pedagogik sharoitlarda nizoli xulqning kuchayishiga to‘sqinlik qiluvchi omillarni rivojlantirishi mumkin?

Tadqiqot metodologiyasi.

Tadqiqot nazariy-tahliliy xususiyatga ega. Manbalar maqsadli tanlanib, CASEL va Jahon sog‘liqni saqlash tashkilotining rasmiy materiallari, PubMed yozuvlari hamda ilmiy nashriyot sahifalari orqali tekshirildi. Qidiruvda «school-based social and emotional learning», «follow-up effects», «social competence and crime» va «implementation» birikmalaridan foydalanildi. Tanlovga SEL tushunchasi, maktab dasturlari natijalari, uzoq muddatli bog‘lanishlar va amalga oshirish shartlarini yorituvchi sakkiz manba kiritildi. Bu ish barcha nashrlarni qamrab olgan tizimli sharh yoki yangi meta-tahlil sifatida taqdim etilmaydi.

Tahlil birligi sifatida manbadagi kompetensiya, unga mos pedagogik faoliyat, kutiladigan yaqin natija va uzoq muddatli natija o‘rtasidagi bog‘lanish olindi. Dalillar uch qatlamda qiyoslandi: SEL dasturlarining umumlashtirilgan natijalari; ijtimoiy kompetensiya bilan keyingi hayot natijalari o‘rtasidagi assotsiatsiyalar; ko‘p tarkibli profilaktika dasturining tajribaviy natijalari. Shundan so‘ng pedagogik sintez amalga oshirildi. Muallif tomonidan so‘rov, kuzatuv yoki eksperiment o‘tkazilmagan; quyidagi model nazariy taklifdir.

Dalillar va ularni talqin qilish chegaralari.

Xorij olimlaridan J.Durlak maktabdagi universal SEL dasturlari ijtimoiy-emotsional ko‘nikmalar, munosabatlar, xulq va o‘quv natijalarini yaxshilashi mumkinligini ko‘rsatgan [2]. Taylor va hammualliflarning kuzatuv davriga oid meta-tahlili ayrim ijobiy natijalar dastur yakunidan keyin ham saqlanishini qayd etadi [3]. Cipriano va hammualliflarning kengroq zamonaviy sintezi ham ijobiy natijalarni, ayni vaqtda dastur mazmuni, sharoit va amalga oshirish sifatiga ko‘ra sezilarli farqlarni ko‘rsatadi [4]. Shuning uchun «SEL mavjud» degan belgi uning bir xil natija berishini anglatmaydi.

Jones, Greenberg va Crowley tadqiqotida bolalikdagi ijtimoiy kompetensiya bilan keyingi ta’lim, bandlik va jinoiy faoliyatga oid ko‘rsatkichlar o‘rtasida bog‘lanish aniqlangan [5]. Biroq longitudinal bog‘lanish SEL mashg‘ulotining sababiy ta’siriga teng emas. Oilaviy, iqtisodiy va boshqa muhit omillari ham hisobga olinishi zarur. Fast Track tajribasida ayrim jinoyatga oid natijalar yaxshilangan, ammo dastur ijtimoiy ko‘nikmalar bilan birga ota-onalarni tayyorlash, uy tashriflari, o‘qishga ko‘mak va boshqa tarkiblarni qamragan [6]. Uning natijasini alohida SEL darsiga ko‘chirish metodologik jihatdan asossiz.

Demak, kompetensiyadagi o‘sish, maktabdagi intizomiy hodisa va huquqbuzarlik turli natijalardir. Xulq yaxshilanishi istiqbolli yaqin ko‘rsatkich bo‘lishi mumkin, lekin huquqbuzarlik kamayganini o‘z-o‘zidan isbotlamaydi. Ushbu farqlash pedagogik dasturni haddan tashqari va’dalardan himoya qiladi hamda qaysi ta’sir alohida o‘lchanishi kerakligini belgilaydi.

Profilaktik ta’sirning pedagogik mexanizmlari.

Hissiy o‘zini boshqarish mexanizmi o‘quvchining zo‘riqish belgilarini tanishi va keskin javobdan oldin to‘xtay olishiga asoslanadi. Pedagog hissiyotni nomlash, qisqa tanaffus qilish, xavfsiz masofa saqlash va vaziyatga qayta murojaat etishni mashq qildirishi mumkin. Hissiyotning o‘zi ayblanmaydi; zarar yetkazuvchi harakat uchun mas’uliyat tushuntiriladi. Bunday yondashuv o‘quvchidan faqat «tinchlanish»ni talab qilish o‘rniga unga bajariladigan muqobil harakatni beradi.

Vaziyatni talqin qilish mexanizmi taxmin bilan dalilni ajratishga xizmat qiladi. Masalan, tengdoshining kulishini o‘ziga qaratilgan masxara deb qabul qilgan o‘quvchi voqeani bir necha ehtimoliy izoh bilan tahlil qiladi. «Nimani aniq ko‘rdim?», «Nimani taxmin qilyapman?» va «Aniqlashtirish uchun nima deyishim mumkin?» savollari qarama-qarshilikni muhokamaga aylantirish uchun taklif etiladi. Empatiya esa jabrlangan tengdoshning ehtiyojini anglash va yordam ko‘rsatish imkonini muhokama qilish bilan bog‘lanadi.

Mas’uliyatli qaror mexanizmida o‘quvchi harakat variantlarini xavfsizlik, boshqalarga ta’sir va oqibat mezonlari bilan solishtiradi. Raqamli muhitdagi misolda haqoratli suratni tarqatish, tarqatmaslik, jabrlangan shaxsni qo‘llab-quvvatlash va ishonchli kattaga murojaat qilish variantlari tahlil qilinadi. Baholash «to‘g‘ri javob»ni yodlashdan ko‘ra qarorni asoslashga qaratiladi. Mazkur topshiriqlar kompetensiyalarni pedagogik faoliyatga aylantiruvchi takliflar bo‘lib, ularning samaradorligi ushbu maqolada tekshirilmagan.

Ijtimoiy muhit mexanizmi kattalarning izchil munosabatini talab qiladi. Pedagog o‘quvchini kamsitsa yoki muammoni aytgan bolani ayblasa, yordam so‘rash haqidagi darsning ishonchliligi pasayadi. Shu bois sinfda tinglash, navbat bilan gapirish, kelishmovchilikni bildirgan shaxsni masxara qilmaslik kabi kelishuvlar amalda bajarilishi kerak. WHOning INSPIRE yondashuvida ham ta’lim va hayotiy ko‘nikmalar xavfsiz muhit, ota-onalarni qo‘llab-quvvatlash va yordam xizmatlari bilan birga ko‘riladi [7].

Maktab amaliyoti uchun taklif etilayotgan model.

Modelning birinchi bosqichi ehtiyoj va sharoitni aniqlashdir. Maktab jamoasi o‘quvchilar qaysi vaziyatlarda kelishmovchilikka duch kelishi, yordamni kimdan olishi va mavjud murojaat yo‘llariga ishonishini o‘rganadi. Buning uchun shaxsni oshkor etmaydigan qisqa fikr-mulohazalar hamda sinfdagi umumiy kuzatuvlar qo‘llanishi mumkin. Alohida o‘quvchiga yorliq qo‘yish yoki tashxis chiqarish maqsad qilinmaydi. Ota-onalar va o‘quvchilar bilan mashg‘ulotlarning mazmuni tushunarli tilda kelishiladi.

Ikkinchi bosqich izchil ko‘nikma mashqidir. Har bir mashg‘ulotda bitta aniq maqsad belgilanadi: masalan, kelishmovchilikni haqoratsiz ifodalash. Pedagog namunani ko‘rsatadi, o‘quvchilar xavfsiz o‘quv vaziyatida rollarni almashib mashq qiladi va bajarilgan harakat bo‘yicha teskari aloqa oladi. Keyingi darslarda shu

ko‘nikma hamkorlikdagi topshiriqda takrorlanadi. Bu tashkil etish Durlak va hammualliflar muhokama qilgan ketma-ketlik, faol mashq, ko‘nikmaga ajratilgan vaqt va aniq maqsad tamoyillariga mos keladi [2].

Uchinchi bosqich kundalik muhitga ko‘chirishdir. Adabiyot darsida qahramonning qarori, tarixda ziddiyatning oqibatlari, jamoaviy loyihada vazifa taqsimoti muhokama qilinadi. Oilaga murakkab atamalar yoki bolaning xatolari ro‘yxati o‘rniga bitta amaliy suhbat namunasi taklif etiladi: «Bugun qaysi vaziyat qiyin bo‘ldi va keyingi safar qanday yordam kerak?». Bir xil muloqot usulining turli muhitlarda qo‘llanishi modelning taxminiy ta’sir shartidir.

To‘rtinchi bosqich ehtiyojga mos yordam va qayta baholashni qamrab oladi. Umumiy mashg‘ulot barcha o‘quvchilar uchun tashkil qilinadi; qo‘shimcha ehtiyoj aniqlansa, maktab psixologi yoki tegishli mutaxassis bilan alohida qo‘llab-quvvatlash rejalashtiriladi. Zo‘ravonlik yoki jiddiy xavfsizlik holati oddiy sinf mashqi bilan cheklanmaydi. Jabrlangan bolani yarashishga majburlash va uning roziligisiz shaxsiy voqeasini guruhda muhokama qilish modelga kirmaydi.

Pedagog tayyorgarligi bir martalik ma’ruza bilan tugamasligi lozim. Namuna dars, hamkasb kuzatuvi, qiyin vaziyatlarni birgalikda tahlil qilish va uslubiy maslahat rejalashtiriladi. Amalga oshirish sifati haqidagi sharh dastur natijalari tashkiliy imkoniyatlar, mutaxassis tayyorgarligi va yordam tizimlariga bog‘liqligini ko‘rsatadi [8]. Mahalliylashtirishda misollar, til va mashg‘ulot shakli moslashtirilishi, faol mashq hamda aniq ko‘nikma maqsadi esa saqlanishi tavsiya etiladi.

Baholash mezonlari va cheklovlar.

Modelni sinashda amalga oshirish va natija ko‘rsatkichlari alohida qayd etilishi kerak. Birinchi guruhga mashg‘ulotning bajarilishi, faol mashq ulushi va ishtirokchilarning jalb etilishi kiradi. Ikkinchisiga vaziyatli topshiriqda xavfsiz yechimni asoslash, yordam so‘rash yo‘lini bilish va sinfdagi munosabatlar haqidagi baholar kiradi. O‘quvchi fikri, pedagog kuzatuvi va mavjud hodisa qaydlari bir-birini to‘ldirishi mumkin. Bir xil pedagogning ham dars berishi, ham yagona baholovchi bo‘lishi natijani og‘dirishi ehtimoli hisobga olinadi.

Intizomiy qaydlar kamayishini ehtiyotkor talqin qilish lozim: bu haqiqiy yaxshilanishni ham, hodisalar yashirilishini ham aks ettirishi mumkin. Ishonch ortganda murojaatlar dastlab ko‘payishi ehtimoli bor. Shu sababli natija o‘quvchining xavfsizlik hissi, yordam olish tajribasi va xulqdagi kuzatiladigan o‘zgarishlar bilan qiyoslanadi. Kelgusidagi tadqiqotda boshlang‘ich va yakuniy o‘lchovlar, taqqoslash guruhi, keyingi kuzatuv hamda dasturga rioya qilish qaydlari ko‘zda tutilishi zarur.

Tahlilning asosiy cheklovi tanlangan xorijiy manbalarning O‘zbekiston maktablariga bevosita umumlashtirilmasligidir. Tarjima qilingan topshiriq mahalliy sharoitda bir xil ma’no bermasligi mumkin; yosh, til, nogironlik bilan bog‘liq

ehtiyojlar va oilaviy imkoniyatlar hisobga olinishi lozim. SEL iqtisodiy qiyinchilik, tizimli kamsitish yoki xavfsiz muhit yetishmasligini yakka o‘zi bartaraf eta olmaydi. Shaxsiy ma’lumotlarni yig‘ish esa aniq maqsad bilan cheklanishi va maxfiylikni saqlashi kerak.

Xulosa, sifatida ijtimoiy-emotsional ta’limning barvaqt profilaktikadagi pedagogik imkoniyati o‘quvchiga hissiyotni boshqarish, vaziyatni tekshirish, oqibatni baholash va yordam so‘rashni amalda o‘rgatish bilan bog‘liq. Taklif etilgan model ko‘nikma mashqini xavfsiz maktab muhiti, oilaviy hamkorlik va ehtiyojga mos yordam bilan birlashtiradi. Mavjud dalillar bunday yo‘nalishni rivojlantirishga asos beradi, lekin alohida modelning huquqbuzarliklarni kamaytirishini tasdiqlamaydi. Shu bois keyingi vazifa mahalliy sharoitga mos pilot sinov, amalga oshirish sifatini kuzatish va pedagogik hamda huquqiy natijalarni bir-biridan ajratib baholashdan iborat.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. CASEL. CASEL’s SEL Framework: What Are the Core Competence Areas and Where Are They Promoted? 2020. https://files.casel.org/CASEL-SEL-Framework-11.2020.pdf
2. Durlak J. A., Weissberg R. P., Dymnicki A. B., Taylor R. D., Schellinger K. B. The impact of enhancing students’ social and emotional learning: A meta-analysis of school-based universal interventions. Child Development. 2011;82(1):405–432. https://doi.org/10.1111/j.1467-8624.2010.01564.x
3. Taylor R. D., Oberle E., Durlak J. A., Weissberg R. P. Promoting positive youth development through school-based social and emotional learning interventions: A meta-analysis of follow-up effects. Child Development. 2017;88(4):1156–1171. https://doi.org/10.1111/cdev.12864
4. Cipriano C. et al. The state of evidence for social and emotional learning: A contemporary meta-analysis of universal school-based SEL interventions. Child Development. 2023;94(5):1181–1204. https://doi.org/10.1111/cdev.13968
5. Jones D. E., Greenberg M., Crowley M. Early social-emotional functioning and public health: The relationship between kindergarten social competence and future wellness. American Journal of Public Health. 2015;105(11):2283–2290. https://doi.org/10.2105/AJPH.2015.302630
6. Dodge K. A. et al.; Conduct Problems Prevention Research Group. Impact of early intervention on psychopathology, crime, and well-being at age 25. American Journal of Psychiatry. 2015;172(1):59–70. https://doi.org/10.1176/appi.ajp.2014.13060786
7. World Health Organization. INSPIRE: Seven strategies for ending violence against children. Geneva: WHO; 2016. ISBN 978-92-4-156535-6. https://www.who.int/publications/i/item/9789241565356 (murojaat: 02.10.2026).
8. Durlak J. A., DuPre E. P. Implementation matters: A review of research on the influence of implementation on program outcomes and the factors affecting implementation. American Journal of Community Psychology. 2008;41(3–4):327–350. https://doi.org/10.1007/s10464-008-9165-0

MUSIQIY TA`LIMNING YOSHLAR TARBIYASIDAGI AHAMIYATI

Yo‘ldoshali Botirov
Nizomiy nomidagi O‘zbekiston milliy pedagogika universiteti «Musiqiy ta’lim» kafedrasi dotsenti, (PhD)
https://doi.org/10.5281/zenodo.23176722

O`zbek xalqi jahon tarixiy taraqqiyotiga o`zining qadimiy ilm-fani, adabiyoti, san`ati va madaniyati bilan ulkan hissa qo`shgan buyuk millatdir. Milliy tiklanish juda keng, chuqur, murakkab tarixiy jarayon bo`lib, u millatimiz hayotining hamma sohalarini – iqtisodiyotini, siyosatini, ma`naviyatini, ilm fan, til tarix, urf-odatlar, hunarmandchilik, me`morchilikni ham, inson kamoloti bilan bevosita daxldor barcha masalalarni ham qamrab oladi.

Milliy ma`naviyatimiz rivojida musiqa ham muhim o`rin tutadi. Milliy musiqa san`atining eng qadimiy va shu bilan birga, xalq ommasiga keng tarqalgan, uning turmushiga chuqur singib ketgan sohalardan biridir. Musiqa ham real voqelikni aks ettiradi. Musiqaning milliy ma`naviyatimizga ta`sir kuchi shu qadar kattaki, uning yordamida bemorlarni davolash mumkinligini fan allaqachon isbot qilgan10.

Xususan, milliy madaniyatda musiqa yuksak tuyg`ular, zavq-shavqli g`oyalar olamini ochib beradi. Odamlarni ma`naviy jihatdan boy, sof barkamol qiladi.

Bola hali qo`liga qalam ushlashni, o`qib yozishni bilmagan vaqtdayoq musiqani his qila oladi. Ko`pincha shu dastlabki taassurotlar musiqaga bo`lgan munosabatlarning shakllanishiga ta`sir qiladi. Shuning uchun umumiy ta`lim maktablarini isloh qilishning asosiy yo`nalishlarida musiqa ta`limiga ham e`tibor berilgan. Musiqa, avvalo, bolalarning his-tuyg`ularini mayinlashtiradi. Musiqa asarlarini his etish kabi ularda ko`pgina insoniy fazilatlarni uyg`otadi. Albatta, insoniy fazilatlarni kamol toptirishda adabiyot, tarix, sport va boshqa sohalar katta o`rin tutadi. Binobarin, nazm va musiqa doimo yonma-yon yashaydi. Tabiat ta`surotlari ostida tug`iladi, qolaversa, bog`cha va maktabda shakllanib boradi. Musiqa darslari o`quvchilarni faqatgina nafosat jihatdan emas, balki keng ma`noda ma`naviy-axloqiy jihatdan ham tarbiyalaydi. Avloddan- avlodga o`tib kelayotgan, ne-ne zamonlar zayliga bardosh berib, xalqning orzu-armonlari, o`y – intilishlarini mujassam etgan kuy – ko`shiqlarimiz, maqomlarimiz barcha turdagi maktablar, pedagogika institutlari dasturlaridan kengroq joy olsa yaxshi bo`lar edi11.

Zamonamizning zabardast yozuvchisi, jahonga mashhur adib Chingiz Aytmatov «Kunda» romanida yozadi: «hayot, o`lim, muhabbat, shavq va ilhom hammasini musiqa aytadi, zotan, biz musiqa vositasida eng oliy hurlikka erishamiz,

10 Akbarov I.A «Musiqa lug`ati». G`.G`ulom nomidagi adabiyot va san`at nashriyoti. 2017. 64-b.
11 Mironov N. «Muzika uzbekov». O`zbekiston davlat nashriyoti. Samarqand. 2019. 28-b.

bu hurlik uchun ongimiz yorishgan zamonlardan boshlab, butun tariximiz davomida kurashganmiz, lekin unga musiqadagina erishganmiz».

Xalqimiz yaratgan musiqa durdonalari, har soniyada - tarbiyada, mehnatda, ijtimoiy munosabatda ma`lum darajada o`z fidoiysini topadi. Milliy musiqa atrofdagi hodisalarni go`zallikni idrok etishga va qadrlashga o`rgatadi, nozik did va hur fikr bilan qurollantiradi, ma`naviy olamni kengaytiradi. Shu bois musiqani tilsiz falsafa deb bejiz aytishmagan .

Musiqa inson qalbini yumshatishi, unda iymonga dalolat etuvchi mehr-muhabbat va rahmdillik tuyg`ularini uyg`otishi mumkin. Shu bilan birga, maqomlar mazmunida buyuk davlat mafkurasiga muvofiq bo`lgan tasavvuf ta`limoti g`oyalarini badiiy ifoda etish vazifasi ham qo`yilgan. Tabiiyki, ushbu murakkab ilmiy masalalarni tadqqiq etish har tomonlama yetuk musiqashunos olimlar zimmasiga yuklatilgan.

Inson tarbiyasi, kamoloti, har qanday jamiyatning eng dolzarb muammolaridan biri bo`lib kelgan. Chunki jamiyatning shakllanishi, rivojlanishi, ravnaq topishi shu jamiyatdagi tarbiyasiga bog`liq .

Tarbiya bu shaxsni ijtimoiy iqtisodiy ishlab chiqarish munosabatlariga tayyorlash maqsadida uning ma`naviy va jismoniy rivojlanishiga muntazam ravishda ta`sir etib borishdan iborat bo`lgan uzluksiz jarayon. Shunday ekan yoshlarga ta`lim-tarbiya berish, ularni mustaqilligimizni mustahkamlash yo`lida safarbar etish muhim misoldir. Mustaqil Respublikamizda ma`naviyat va madaniiyat masalalariga alohida e`tibor berib kelinmoqda .

Shuni ta`kidlash lozimki, O`zbekistonda inson ma`naviy hayotini shakllantirish maqsadida musiqaning madaniy hayotga chuqurroq kirib borishida keng imkoniyatlar yaratilmoqda .

Bunda ma`naviyat va ma`rifat gazetasi markazi xalqaro madaniy – ma`rifiy aloqalar majmuasi kabi ijodiy muassasalarning tashkil etilishi bastakorlar uyushmasi va jamiyatdagi ijodiy siljishlar «O`zbekiston vatanim manim» nomi bilan mamlakatimizda o`tkazilgan an`anaviy tanlovlar madaniy ma`rifiy islohotlarni amalga oshirishda metodlar qo`llanmoqda. Qadimiy va boy tajribaga ega o`zbek milliy musiqa madaniyati istiqbolini amalga oshirish ta`lim tarbiya ishlari bilan shug`ullanish maqsadida asrlar davomida rivoj topib kelganligini ta`kidlash joizdir. Bu maktablarda musiqa ta`limi-tarbiyasi bevosita oshirib borilgan. Ushbu maktablarning faoliyat mazmunida insonni dunyoga kelishidan kamol topib butun umri davomida musiqa haqiqiy ma`nodagi tarbiya vositasi ekanligi o`z ifodasini topgan12.

Musiqaning so`z san`ati va adabiyoti bilan o`zviy holda bog`lab o`rganilganligi musiqa nomi va amaliyoti rivojida katta hissa qo`shadi.

12 Protsessы reformirovaniya sistemы muzыkalnogo obrazovaniya. T., 2009. 92-b.

Shaxs kamolotida musiqa tarbiyasini oshirish albatta ta`lim metodikasiga bevosita bog`liqdir. Musiqa tarbiyasi metodikasi fan sifatida tizimiga mansub bo`lib o`zining mustaqil o`rniga ega. Bu fan musiqa tarbiyasi metodikasi mazmuni, metodlarini yanada takomillashtirish maqsadida uning qonuniyatlarini o`rganadi. Musiqa tarbiyasi metodikasi tarbiya muassasalarida nafosat, musiqashunoslik fiziologiya, ruhshunoslik fanlarining umumlashtirilgan tajribalariga tayanadi.

Musiqa tarbiya metodikasi ayniqsa nafosat musiqashunoslik fanlari bilan o`zviy bog`liq. Nafosat nomi uning metodikasining asosini tashkil etsa, tarbiyaning mazmun va metodlariga bevosita ta`sir ko`rsatadi.

O`quvchilarning kuylash faoliyatlaridagi muammolarni hal qilishda metodika, fiziologiya tadqiqotlariga tayaniladi.

Musiqa tarbiyasi metodikasining mohiyati musiqa san`ati hamda madaniyati o`sib kelayotgan yosh avlod uchun muhim ahamiyatga ega.

Bobokalonlarimizdan Abu-Nasr Al Farobiyning ma`rifat parvarlik g`oyalar tizimida bola, shaxsini tarbiyalashda musiqa san`atining roli maqsadi va vazifalari alohida e`tirof etiladi. Unda inson hayotida musiqaning jamiyati qayd qilinib, «Ey musiqa olami, yaxshiyamki sen borsan, agar sen bo`lmaganda insonning ahvoli ne kechar edi»- deya xitob qilinadi. Alloma Abu Ali Ibn Sinoning musiqiy ma`rifiy qarashlarida ham musiqa shaxsning ma`naviy va jismoniy madaniy tabiatiga ta`sir etuvchi qudratli vosita sifatida ta`rif beradi. Bolada juda yoshligidan boshlab musiqa hissiyotini tarbiyalash lozim, bu esa uning ruhiy holatini mustahkamlaydi degan g`oya ilgari suriladi. Alloma mashhur «Tibbiyot qonunlari» kitobida bolaning mijozini kuchaytirmoq uchun ikki narsani qo`llamoq kerak. Biri bolani sekin-sekin tebratish, ikkinchisi uxlatish uchun odat bo`lib kelgan musiqiy allalashdir. Shu ikkisini qabul qilish miqdoriga qarab bolaning tanasi bilan ba`zan tarbiyaga va ruhi bilan musiqaga bo`lgan ehtiyoj hosil bo`lgan deb yozgan edi. Shunday qilib olimlar, mutafakkirlar musiqa nafaqat insonga samarali ta`sir etuvchi vosita balki o`z mohiyati, jamiyatdagi maqsad va vazifalariga ko`ra alohida bir fan sifatida tadbiq etishga davrlar o`tib ularni tor fikrlarini ta`lim-tarbiyada tadbiq etilib, ta`kidlaganidek ommaviy xalq musiqa pedagogikasining vujudga kelishida asos bo`ladi. Ta`lim-tarbiya uslubiyoti maktablari tarkib topib rivojlanib bormoqda. Hozirgi davrda shaxs ma`naviyatini tarbiyalash vazifasi maktabda musiqa ta`lim tarbiyasi ishlarini sifatli bosqichga ko`tarishni taqozo etadi. Bugungi kunda musiqa, ta`lim tarbiyasining maqsadi va vazifalari nihoyatda muhim.

Musiqa ta`lim-tarbiyasining maqsadi va avlodni musiqa me`rosimizga vorislik qiladigan hamda umumbashariy musiqa merosimizga vorislik qila oladigan yosh qadrlaydigan madaniy inson sifatida voyaga yetkazishdan iborat, buning uchun har bir o`quvchining musiqaga bo`lgan iqtidorlarini rivojlantirib, musiqa san`atiga mehr va ishtiyoqini oshirish musiqadan zaruriy bilim va amaliy malakalar doirasini tarkib

toptirish, iqtidorli o`quvchilarning musiqiy rivojlanishlari uchun zaruriy shart sharoitlar yaratib berish maktab musiqa ta`limi tarbiyasining asosiy vazifasidir.

Musiqa ta`lim-tarbiyasining maqsad va vazifalari amalga oshirish maktabdagi musiqa darslariga bevosita bog`liq. Musiqa ta`lim tarbiyasining konsepsiyasida maktabda musiqa fani boshqa fanlar qatori o`ziga xos ahamiyat kasb etadi. Musiqa ta`limini sifatli bosqichga ko`tarish uchun maktabda teng huquqli fan hisoblanadi. Bu esa hozirgi zamon o`quvchisidan dars mashg`ulotlariga ijobiy munosabatda bo`lishi, o`quvchilar musiqiy faoliyatlarini oshirishni to`g`ri tashkil etish va boshqarish faollikni talab etadi. Musiqa dars mashg`uloti sifatida o`ziga xos xususiyatlarga ega. Bu xususiyatlarni esa har bir o`qituvchi bilishi kerak.

Birinchidan musiqa tarixi nazariyasi ijrochilikka doir turli namunalardan ayrim mashqlari, musiqa savodi mashg`ulotlari, musiqa tinglash, musiqa ta`limi va adabiyoti, bolalar cholg`u asbobida chalish, ritmik har akatlar bajarish elementlari, musiqada ijodkorlar faoliyatlaridan iborat darslar kiradi. Ikkinchi musiqa boshqa san`at turlaridan o`zining ifoda vositalari ya`ni «tili» bilan farq qiladi. Agar badiiy adabiyot so`z bilan tasviriy san`at bilan, raqs badiiy har akatlar bilan ifodalansa, musiqiy tovushlaridan vujudga kelgan ohang vositasidan foydalaniladi.

Uchinchidan musiqa bolalarda faol hissiy ta`sir ko`rsatadi, ijobiy ko`rsatmalar, kechinmalar uyg`otadi. Umumiy o`rta ta`lim maktablarida musiqa madaniyati fani bo`yicha dasturi bir dars o`zida ta`limning musiqa tinglash, jamoa bo`lib kuylash, musiqa savodxonligi bolalar cholg`u asboblari va ritmik harakatlar bajarish musiqa ijodkorliri kabi bosqichlar bir biri bilan bog`lanib yaxlit holda amalga oshirilishi nazarda tutilishi kerak. Zamonaviy mashg`ulotlardan musiqa idroki yetakchi faoliyat sifatida muhim rol o`ynaydi.

Chunki bu bosqichda o`quvchilar faoliyatida ko`proq o`yin xususiyatlari bo`lib turadi. Shunday qilib ta`lim va tarbiyaning maqsad va vazifalari to`laligicha amalga oshiriladi. Bu jarayonlarni ilmiy uslub jihatdan yetakchi darajada ta`minlash, milliy musiqa ta`lim mazmunini anglash kabi muhim tadbirlar, shubxasiz musiqa tarbiya samaradorligini oshirishishga imkon beradi. Bu esa musiqani maktab hayotida o`quvchilar qalbida keng o`rin egallashi va ularning ma`naviyatini shakllantirishga samarali ta`sir ko`rsatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yhati

Akbarov I.A «Musiqa lug`ati». G`.G`ulom nomidagi adabiyot va san`at nashriyoti. 2017.
Mironov N. «Muzika uzbekov». O`zbekiston davlat nashriyoti. Samarqand. 2019.
Protsessы reformirovaniya sistemы muzыkalnogo obrazovaniya. T., 2009.

Для преподавания испанского языка данный материал представляет отдельный интерес, поскольку фразеология является важной частью коммуникативной компетенции. Знание устойчивых выражений помогает обучающимся понимать аутентичные тексты, интерпретировать высказывания и учитывать культурные особенности коммуникации.

Современные социальные процессы оказывают непосредственное влияние на язык. Расширение профессиональной и общественной активности женщин, изменение представлений о семейных обязанностях, развитие цифровой коммуникации и международное взаимодействие приводят к постепенному переосмыслению традиционных моделей.

При этом старые и новые представления могут существовать одновременно. Традиционные фразеологические единицы продолжают функционировать, поскольку обладают высокой устойчивостью, тогда как новые языковые формы появляются преимущественно в современных медийных, профессиональных и интернет-коммуникациях. «Безусловно, несовпадения в понимании национальных реалий обусловлены особенностями климата, географического положения, историческим и культурным своеобразием, особенностями уклада, быта того или иного народа». [6,С 851]

Подобное сосуществование позволяет рассматривать язык как динамическую систему, в которой отражаются процессы культурной преемственности и изменения. Гендерная проблематика поэтому требует не только описания уже закрепившихся единиц, но и изучения современных процессов их переосмысления.

Перспективным является исследование того, какие традиционные гендерные модели сохраняют продуктивность, какие постепенно утрачивают оценочную силу и какие новые способы репрезентации мужчины и женщины возникают в современной коммуникации.

Гендерная стереотипизация является значимым объектом современного лингвистического исследования, поскольку позволяет проследить взаимосвязь языка, культуры и общественного сознания. Гендерные представления закрепляются на различных уровнях языка, однако особенно наглядно проявляются во фразеологии, где сочетаются устойчивость формы, образность и оценочность.

Фразеологические единицы выступают своеобразными носителями культурной памяти. Они сохраняют представления о социальных ролях и моделях поведения, сформировавшихся в определённых исторических условиях, и одновременно продолжают функционировать в современной коммуникации.

Исследование гендерных стереотипов не сводится к выявлению положительных или отрицательных характеристик мужчин и женщин. Существенное значение имеет установление механизмов формирования оценки, культурных сценариев, контекстов употребления и степени актуальности традиционных моделей для современного языкового сознания.

Таким образом, изучение гендерной стереотипизации в языке соответствует современным направлениям антропоцентрической, лингвокультурологической и социолингвистической науки. Полученные результаты могут использоваться при исследовании языковой картины мира, фразеологии, межкультурной коммуникации и при разработке образовательных материалов по языку и культуре.

Литература

1. Мясникова И. А. Когнитивные аспекты конструирования гендера1 // Вопросы когнитивной лингвистики. 2012. №3. —С 55.
2. Аносов Е. А. Гендерные стереотипы в паремиях русского языка в свете методологических подходов к исследованию феномена гендерной стереотипизации // Вестник ЮУрГУ. Серия: Лингвистика. — 2012. — № 25. —С 94.
3. Ефанова Л. Г. Субъект нормативной оценки, выражаемой семантикой языковых единиц, как носитель национальной языковой картины мира // Сибирский филологический журнал. — 2013. — № 1. — С 103.
4. Абдувахабова Махина Азатовна Варианты гендерных стереотипов в разносистемных языках // Вопросы науки и образования. 2018. №4 (16). —С 34.
5. Камалова О. М. Стереотипы и стереотипизация межличностных и межгрупповых отношений // Психология и психотехника. — 2023. — № 1. — С 40.
6. Абдуллаева Р. Х. Стереотипы красоты в русской и узбекской лингвокультурах (на материале пословиц русского и узбекского языков) // Неофилология. — 2022. — № 32. —С 851.

MILLIY TARBIYA JARAYONIDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR VA MEDIA MAKON VOSITASIDA O‘SMIRLARNING AXLOQIY TANLOV MADANIYATINI RIVOJLANTIRISH

Gulyamova Aziza Otabek qizi
Qori Niyoziy nomidagi TPMI katta ilmiy xodim (PhD)
https://doi.org/10.5281/zenodo.23176846

Annotatsiya. *Maqolada milliy tarbiya jarayonida raqamli texnologiyalar va media makon vositasida o‘smirlarning axloqiy tanlov madaniyatini rivojlantirish masalasi yoritilgan. Raqamli muhitning o‘smirlar dunyoqarashi, xulq-atvori, muloqot madaniyati va qaror qabul qilish jarayoniga ta’siri tahlil qilinib, media savodxonlik, raqamli madaniyat va milliy qadriyatlarning o‘zaro uyg‘unligi ochib berilgan. O‘smirlarda axborotni tanqidiy baholash, yolg‘on va ishonchsiz ma’lumotlarni ajratish, virtual muloqotda axloqiy me’yorlarga rioya qilish, shaxsiy ma’lumotlarni himoya qilish hamda raqamli muhitda mas’uliyatli qaror qabul qilish ko‘nikmalarini shakllantirishning pedagogik imkoniyatlari asoslangan.*
Kalit so‘zlar: *milliy tarbiya, o‘smir, axloqiy tanlov, raqamli texnologiyalar, media makon, media savodxonlik, raqamli madaniyat, tarbiyaviy jarayon, axborot xavfsizligi.*
Abstract. *This article examines the development of adolescents’ ethical decision-making culture through digital technologies and the media environment within the process of national education. The influence of the digital environment on adolescents’ worldview, behavior, communication culture and decision-making is analyzed, with particular attention to the integration of media literacy, digital culture and national values. The article substantiates pedagogical opportunities for developing adolescents’ abilities to critically evaluate information, distinguish false and unreliable content, follow ethical norms in online communication, protect personal information and make responsible decisions in digital environments.*
Keywords: *national education, adolescents, ethical choice, digital technologies, media environment, media literacy, digital culture, educational process, information security.*

Bugungi globallashuv va raqamlashtirish jarayonida yosh avlodning hayoti internet, ijtimoiy tarmoqlar, videoplatformalar, messenjerlar va boshqa raqamli vositalar bilan chambarchas bog‘lanib bormoqda. Ayniqsa, o‘smirlik davrida raqamli makon shaxsning dunyoqarashi, muloqot uslubi, qiziqishlari va xulq-atvoriga ta’sir ko‘rsatadigan muhim ijtimoiy muhitlardan biriga aylanmoqda. Shu sababli zamonaviy tarbiya jarayonida o‘smirlarning raqamli texnologiyalardan foydalanish ko‘nikmasi bilan bir qatorda, mazkur muhitda axloqiy jihatdan to‘g‘ri qaror qabul qilish madaniyatini shakllantirish ham muhim vazifalardan biridir.

Raqamli muhit o‘smirlarga katta hajmdagi axborotni tezkor olish, ta’limiy resurslardan foydalanish, tengdoshlari bilan muloqot qilish, ijodiy mahsulotlar yaratish va o‘z fikrlarini erkin ifodalash imkonini beradi. Biroq ushbu imkoniyatlar bilan birga noto‘g‘ri axborot, manipulyativ kontent, kiberbulling, shaxsiy ma’lumotlarning tarqalishi, virtual muloqotdagi tajovuzkorlik va boshqa axloqiy muammolar ham yuzaga kelishi mumkin. UNESCO media va axborot savodxonligini axborotni tanqidiy olish, tahlil qilish, baholash va yaratish,

shuningdek, raqamli muhitda xavfsiz va mas’uliyatli harakat qilish imkonini beruvchi kompetensiyalar majmui sifatida izohlaydi.

O‘zbekiston sharoitida ham raqamli texnologiyalarni rivojlantirish va yoshlarning zamonaviy bilim hamda ko‘nikmalarini shakllantirish masalalariga katta e’tibor qaratilmoqda. Prezident Shavkat Mirziyoyevning raqamli texnologiyalarni rivojlantirishga oid chiqishlarida mamlakatda mintaqaviy ITta’limni rivojlantirish va raqamli transformatsiyani kengaytirish vazifalari qayd etilgan. Shu bilan birga, yoshlar tarbiyasida milliy qadriyatlar va vatanparvarlik ruhining ahamiyati ham alohida ta’kidlangan.

O‘smirlik davri shaxsning mustaqil fikrlashi, o‘zligini anglashi va ijtimoiy munosabatlarda faol ishtirok etishi kuchayadigan bosqich hisoblanadi. Mazkur davrda o‘quvchi turli ijtimoiy guruhlar va axborot manbalaridan ta’sirlanadi. Raqamli makon esa ushbu ta’sir doirasini yanada kengaytiradi. Shuning uchun o‘smirning axloqiy tanlov madaniyatini rivojlantirishda faqat an’anaviy tarbiyaviy usullar bilan cheklanib qolmasdan, uning kundalik raqamli tajribasini ham hisobga olish talab etiladi.

Axloqiy tanlov madaniyati deganda o‘quvchining muayyan vaziyatda mavjud xatti-harakat variantlarini axloqiy mezonlar asosida tahlil qilishi, o‘z qarorining oqibatlarini oldindan baholashi, boshqa insonlarning huquq va manfaatlarini hisobga olishi hamda qabul qilgan qarori uchun mas’uliyatni his qilishi tushuniladi. Raqamli muhitda bu tushuncha yanada keng mazmun kasb etadi.

Masalan, o‘quvchi ijtimoiy tarmoqda boshqa inson haqida tasdiqlanmagan ma’lumotni ko‘rganida uni tarqatish yoki tarqatmaslik haqida qaror qabul qiladi. Boshqa bir vaziyatda do‘stining shaxsiy suratini uning roziligisiz guruhga joylashtirish taklif qilinishi mumkin. Yoki sun’iy intellekt yordamida tayyorlangan ma’lumotni manbasini tekshirmasdan topshiriqqa kiritish holati yuzaga kelishi mumkin. Ushbu vaziyatlarning barchasi texnik emas, avvalo, axloqiy tanlov bilan bog‘liq.

Shu sababli milliy tarbiya jarayonida “raqamli vaziyat – axloqiy muammo – variantlarni tahlil qilish – oqibatlarni baholash – qaror qabul qilish – refleksiya” ketma-ketligidan foydalanish maqsadga muvofiq. Bunday yondashuv o‘quvchini tayyor qoidalarni yodlashga emas, balki real vaziyatlarda mustaqil fikrlashga o‘rgatadi.

Milliy qadriyatlarni raqamli muhit bilan bog‘lash ham muhim pedagogik yo‘nalishdir. Masalan, milliy tarbiyada muhim o‘rin tutadigan halollik raqamli muhitda yolg‘on axborot tarqatmaslik, boshqa shaxsning ishini o‘zlashtirmaslik va sun’iy intellektdan akademik halollik tamoyillariga zid foydalanmaslikda namoyon bo‘ladi. Hurmat virtual muloqotda boshqa insonning fikrini tinglash, haqorat va kamsitishdan voz kechish orqali ifodalanadi. Mas’uliyat esa internetga joylashtirilgan har qanday ma’lumotning boshqa insonlarga ta’sirini hisobga olishni

anglatadi. Mehr-oqibat raqamli muhitda yordamga muhtoj tengdoshni qo‘llab-quvvatlash, kiberbulling holatlariga befarq bo‘lmaslik orqali namoyon bo‘lishi mumkin.

Media makonining pedagogik imkoniyatlaridan foydalanishda media savodxonlik alohida ahamiyatga ega. Media savodxon o‘quvchi axborotni shunchaki qabul qilmaydi, balki uning manbasini, maqsadini, ishonchliligini va ehtimoliy ta’sirini tahlil qiladi. UNESCO media va axborot savodxonligini noto‘g‘ri axborot, nafratga asoslangan nutq va raqamli muhitdagi boshqa muammolarni anglash hamda ularga mas’uliyatli munosabat bildirish uchun zarur kompetensiyalar bilan bog‘laydi.

O‘smirlarning axloqiy tanlov madaniyatini rivojlantirishda media ta’limning interfaol metodlaridan foydalanish mumkin. Jumladan, “Haqiqat yoki yolg‘on?”, “Manbani top”, “Qaysi qaror mas’uliyatli?”, “Raqamli vaziyatni bahola”, “Men bu xabarni tarqatamanmi?”, “Virtual muloqot etikasi” kabi topshiriqlar o‘quvchilarning tahliliy fikrlashini rivojlantiradi. Bunda pedagog o‘quvchiga tayyor javobni bermaydi, balki qarorining sababini tushuntirishga undaydi.

Raqamli texnologiyalar yordamida milliy tarbiya mazmunini interfaol shaklda yetkazish imkoniyatlari ham keng. Elektron taqdimotlar, videoroliklar, podkastlar, raqamli hikoyalar, interaktiv testlar, virtual muzeylar va onlayn muhokamalar orqali milliy qadriyatlarni o‘quvchilarning kundalik raqamli tajribasi bilan bog‘lash mumkin. Bunday yondashuv milliy tarbiya mazmunining o‘quvchi uchun tushunarli va hayotiy bo‘lishiga xizmat qiladi.

Bunda raqamli texnologiyalardan foydalanishning muhim sharti texnologiyani maqsad emas, pedagogik vosita sifatida ko‘rishdir. O‘quvchi texnologiyadan foydalanish jarayonida mustaqil fikrlash, axborotni tekshirish, boshqalarning huquqlarini hurmat qilish va o‘z xatti-harakatining oqibatlarini anglashga o‘rganishi lozim.

Mazkur jarayonda oila, maktab va mahalla hamkorligi ham muhim o‘rin tutadi. Ota-onalar farzandlarining raqamli muhitdagi faoliyatiga faqat nazorat vositasi sifatida emas, balki maslahat va qo‘llab-quvvatlash manbai sifatida yondashishlari kerak. Maktabda esa raqamli madaniyat, media savodxonlik va axloqiy tanlov masalalarini tarbiya mashg‘ulotlari, fanlararo loyihalar va sinfdan tashqari tadbirlar bilan bog‘lash mumkin.

Shuningdek, pedagogning o‘zi ham raqamli va media savodxonlik kompetensiyalariga ega bo‘lishi zarur. O‘qituvchi o‘quvchilarga axborotni tekshirish usullarini, ishonchli va ishonchsiz manbalarni farqlashni, shaxsiy ma’lumotlarni himoya qilishni hamda virtual muloqot qoidalarini amaliy misollar orqali ko‘rsatishi mumkin.

Milliy tarbiya va raqamli texnologiyalar integratsiyasida quyidagi pedagogik shart-sharoitlar muhim hisoblanadi: birinchidan, milliy qadriyatlarni raqamli

muhitdagi real vaziyatlar bilan bog‘lash; ikkinchidan, o‘quvchilarning media savodxonligini rivojlantirish; uchinchidan, muammoli va vaziyatli topshiriqlardan foydalanish; to‘rtinchidan, oila va maktab hamkorligini yo‘lga qo‘yish; beshinchidan, o‘quvchilarning mustaqil fikrlashi va refleksiyasini qo‘llab-quvvatlash.

Shu asosda o‘smirlarning axloqiy tanlov madaniyatini rivojlantirishning quyidagi modeli taklif etiladi: bilim → tahlil → axloqiy baholash → qaror → amaliy harakat → refleksiya. Mazkur modelda bilim bosqichida o‘quvchi milliy va umuminsoniy qadriyatlar hamda raqamli madaniyat asoslarini egallaydi. Tahlil bosqichida raqamli vaziyatni o‘rganadi. Axloqiy baholash bosqichida mavjud variantlarni qadriyatlar asosida taqqoslaydi. Qaror bosqichida o‘z tanlovini amalga oshiradi. Amaliy harakatda tanlangan qarorni real yoki virtual vaziyatda qo‘llaydi. Refleksiya bosqichida esa o‘z qarori va uning oqibatlarini tahlil qiladi.

Bunday tizim o‘quvchining faqat “to‘g‘ri” yoki “noto‘g‘ri” javobni bilishiga emas, balki nima uchun muayyan qarorni tanlaganini tushuntira olishiga imkon beradi. Natijada axloqiy tanlov tashqi nazoratga emas, asta-sekin ichki mas’uliyat va ongli qadriyatlarga asoslanadi.

Xulosa. Milliy tarbiya jarayonida raqamli texnologiyalar va media makondan foydalanish o‘smirlarning axloqiy tanlov madaniyatini rivojlantirish uchun yangi pedagogik imkoniyatlarni yuzaga keltirmoqda. Raqamli muhitda o‘quvchi doimiy ravishda axborot tanlash, uni baholash, boshqalar bilan muloqot qilish va turli qarorlar qabul qilish holatlariga duch keladi. Shu sababli zamonaviy tarbiya jarayonida axloqiy tarbiya va raqamli savodxonlikni o‘zaro integratsiyalash zarur.

O‘zbekistonning raqamli rivojlanish siyosatida ham raqamli texnologiyalar, IT-ta’lim va sun’iy intellekt imkoniyatlarini kengaytirishga e’tibor qaratilmoqda. 2024-yil avgustidagi taqdimotda sun’iy intellekt va IT sohasidagi loyihalarni rivojlantirish masalalari ko‘rib chiqilgan, 2024-yil dekabrida esa sun’iy intellekt va telekommunikatsiyalarni rivojlantirish bo‘yicha rejalar muhokama qilingan. Shu sharoitda raqamli rivojlanish bilan bir qatorda o‘quvchilarning axloqiy, ma’naviy va ijtimoiy mas’uliyatini rivojlantirish ham tarbiya tizimining muhim yo‘nalishi bo‘lib qoladi.

Demak, raqamli texnologiyalar milliy tarbiyaning o‘rnini egallovchi vosita emas, balki uning mazmunini zamonaviy ijtimoiy muhitga moslashtirishga xizmat qiluvchi pedagogik imkoniyat sifatida qaralishi lozim. O‘smirda milliy qadriyatlarga tayangan holda axborotni tahlil qilish, virtual muloqotda odob-axloq me’yorlariga amal qilish, o‘z xatti-harakatining oqibatlarini anglash va mas’uliyatli qaror qabul qilish ko‘nikmalarini shakllantirish raqamli davr milliy tarbiyasining muhim vazifalaridan biridir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O‘zbekiston strategiyasi. Toshkent: O‘zbekiston, 2021.
2. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi asosida demokratik islohotlar yo‘lini qat’iy davom ettiramiz. T: O‘zbekiston, 2022.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston – 2030” strategiyasi to‘g‘risidagi Farmoni. Toshkent, 2023.
4. Quronov M. Milliy tarbiya. Toshkent: Ma’naviyat, 2007.
5. Yo‘ldoshev J.G‘., Usmonov S.A. Pedagogik texnologiya asoslari. Toshkent: O‘qituvchi, 2004.
6. Buckingham D. The Media Education Manifesto. Cambridge: Polity Press, 2019.
7. Floridi L. The Ethics of Information. – Oxford: Oxford University Press, 2013.
8. UNESCO. Media and Information Literacy Assessment Report: Youth in the Fergana Valley. – Paris: UNESCO, 2023.
9. Suler J. Psychology of the Digital Age: Humans Become Electric. Cambridge: Cambridge University Press, 2016.
10. Bandura A. Moral Disengagement: How People Do Harm and Live with Themselves. New York: Worth Publishers, 2016.

"OILA — MAHALLA — MAKTAB" HAMKORLIGI ASOSIDA MILLIY TARBIYANING INSTITUTSIONAL MODELINI TAKOMILLASHTIRISH

F.X.Ibragimova,
TDIU, p.f.d(DSc) dotsent
https://doi.org/10.5281/zenodo.23176880

Mazkur maqolada milliy tarbiya jarayonini samarali tashkil etishning institutsional asoslari tahlil qilinadi. Tarbiyaviy jarayonda ishtirok etuvchi asosiy ijtimoiy institutlar — oila, ta'lim muassasasi va mahalla — o'rtasidagi hamkorlikning uchta model ko'rinishi ("oila-mahalla-maktab" hamkorlik modeli, ta'lim muassasasi markazidagi model, hududiy tarbiyaviy makon modeli) yoritilgan. Institutsional hamkorlikni tashkil etishning ilmiy tamoyillari, subyektlarning funksional vazifalari hamda ularning o'zaro muvofiqlashtirilgan faoliyati orqali yagona tarbiyaviy makonni shakllantirish yo'llari asoslab berilgan.

Kalit so'zlar: *milliy tarbiya, institutsional model, oila, mahalla, ta'lim muassasasi, tarbiyaviy makon, pedagogik hamkorlik, funksional taqsimot, ma'naviy-axloqiy tarbiya.*

Jamiyat taraqqiyoti nafaqat iqtisodiy va texnologik rivojlanish, balki ma'naviy jihatdan yetuk, mustaqil fikrlaydigan va ijtimoiy mas'uliyatni his qiladigan avlodni tarbiyalash bilan chambarchas bog'liq. Ta'lim jarayonida bilim va kompetensiyalar shakllantirilsa, tarbiya orqali insonning hayotiy qarashlari, xulq-atvori va qadriyatlarga munosabati rivojlanadi. Shu boisdan ta'lim va tarbiya bir-birini to'ldiruvchi, yagona maqsadga yo'naltirilgan yaxlit jarayon sifatida qaralishi lozim.

Bugungi globallashuv sharoitida yoshlarning dunyoqarashiga oila va ta'lim muhitidan tashqari ijtimoiy tarmoqlar, ommaviy axborot vositalari va turli madaniy ta'sirlar ham sezilarli darajada ta'sir ko'rsatmoqda. Bunday sharoitda milliy tarbiyani faqat alohida tadbirlar doirasida tashkil etish yetarli emas — uni aniq maqsad, subyekt, resurs va kutilayotgan natijalarga ega yaxlit institutsional tizim sifatida tashkil etish zarurati yuzaga kelmoqda.

Milliy tarbiyaning institutsional asoslari deganda tarbiyaviy maqsadlarni amalga oshirishda ishtirok etuvchi ijtimoiy institutlar, ularning funksiyalari, o'zaro hamkorlik shakllari va boshqaruv munosabatlari tushuniladi. Bola shaxsining shakllanishi birgina ta'lim muassasasida sodir bo'lmaydi — oila, mahalla, tengdoshlar muhiti, madaniyat va sport tashkilotlari, jamoatchilik tuzilmalari hamda raqamli axborot muhiti shaxs tarbiyasiga turli darajada ta'sir ko'rsatadi.

Shu sababli milliy tarbiyaning institutsional modelini shakllantirishda quyidagi tamoyillarga tayanish maqsadga muvofiq:

— uzluksizlik va izchillik;
— tizimlilik;
— hamkorlik va o'zaro mas'uliyat;
— shaxsga yo'naltirilganlik;
— milliy va umuminsoniy qadriyatlarning uyg'unligi;
— yosh va individual xususiyatlarni hisobga olish;

— ochiqlik, natijadorlik hamda muntazam monitoring va takomillashtirish.

Mazkur tamoyillar tarbiyaviy faoliyatni tasodifiy tadbirlar yig'indisidan maqsadli va tizimli pedagogik jarayonga aylantirish imkonini beradi.

"Oila-mahalla-maktab" hamkorlik modeli milliy tarbiyaning eng muhim institutsional tayanchlaridan biri hisoblanadi. Oila bolaning dastlabki ijtimoiylashuv muhiti bo'lib, unda bola kattalarga hurmat, mehnatsevarlik, mas'uliyat va milliy qadriyatlarga oid dastlabki tasavvurlarni egallaydi. Ta'lim muassasasi oilada shakllangan tarbiyaviy tajribani pedagogik jihatdan boyitib, o'quvchilarning ma'naviy-axloqiy, huquqiy va ijtimoiy kompetensiyalarini rivojlantiradi. Mahalla esa ushbu jarayonni kengroq ijtimoiy muhit bilan bog'lovchi institut sifatida namoyon bo'lib, mahalla faollari, nuroniylar, yoshlar bilan ishlash tizimi va sport-madaniyat vakillarining ishtiroki orqali tarbiyaviy imkoniyatlarni kengaytiradi.

Ta'lim muassasasi markazidagi modelda ta'lim muassasasi tarbiyaviy faoliyatni muvofiqlashtiruvchi markaz sifatida qaraladi. Sinf rahbari, fan o'qituvchilari, psixolog, ma'naviy-ma'rifiy yo'nalishdagi mas'ullar, ota-onalar va mahalla vakillari o'zaro hamkorlikda faoliyat yuritadi. Bunda tarbiya faqat tarbiyaviy soat bilan chegaralanmaydi — ta'lim mazmuni, maktab muhiti, o'qituvchi-o'quvchi munosabati va maktabdan tashqari faoliyat ham yagona tarbiyaviy maqsadga xizmat qilishi lozim.

Hududiy tarbiyaviy makon modeli muayyan hududdagi tarbiyaviy resurslarni yagona tizimga birlashtirishga asoslanadi. Mahalladagi ta'lim muassasalari, kutubxonalar, madaniyat markazlari, sport inshootlari va jamoatchilik tashkilotlari mavjud imkoniyatlardan tizimli foydalanishi mumkin. Bunda "har bir tashkilot o'z vazifasini bajaradi" yondashuvidan "har bir tashkilot umumiy tarbiyaviy maqsadga o'z hissasini qo'shadi" yondashuviga o'tish muhim ahamiyat kasb etadi.

Tarbiyaviy jarayonda ishtirok etuvchi subyektlarning vazifalari aniq belgilanmasa, mas'uliyatning bir-biriga yuklanishi yoki ayrim yo'nalishlarning e'tibordan chetda qolishi mumkin. Shu bois institutsional hamkorlikni takomillashtirishda quyidagi savollarga aniq javob beruvchi mexanizm ishlab chiqilishi lozim: kim vazifani bajaradi, nima qiladi, qachon amalga oshiradi, kim bilan hamkorlik qiladi va qanday natijaga erishadi.

Bundan tashqari, hududlarning ijtimoiy, madaniy va demografik xususiyatlarini hisobga olgan holda milliy tarbiyaning hududiy institutsional modellarini ishlab chiqish, oila, mahalla va ta'lim muassasasining tarbiyaviy jarayondagi funksional vakolatlarini aniq belgilash hamda mahallaning mavjud tarbiyaviy resurslari (faollar, nuroniylar, ziyolilar, sport va san'at vakillari)dan samarali foydalanish institutsional hamkorlikni yangi, sifat jihatidan yuqori bosqichga olib chiqadi.

Amaliyot tahlili shuni ko'rsatadiki, "oila-mahalla-maktab" hamkorligini tashkil etishda bir qator muammolar uchrab turadi. Birinchidan, ko'pgina hollarda

hamkorlik faqat rasmiy tadbirlar (yig'ilish, tadbir, bayram) darajasida qolib ketadi, subyektlar o'rtasida uzluksiz va tizimli aloqa shakllanmaydi. Ikkinchidan, ota-onalarning ayrim qismi tarbiyaviy javobgarlikni to'liq ta'lim muassasasiga yuklab, o'z ishtirokini minimal darajaga tushiradi, bu esa oila va maktab o'rtasidagi tarbiyaviy uzluksizlikni buzadi. Uchinchidan, mahalla darajasidagi tarbiyaviy salohiyat (faollar, nuroniylar, ziyolilar) ko'pincha to'liq va tizimli jalb etilmaydi, ularning ishtiroki epizodik xarakterga ega bo'lib qolmoqda.

Ushbu muammolarni bartaraf etish uchun har bir subyektning huquq va majburiyatlarini belgilovchi hamkorlik reglamentini ishlab chiqish, oila-maktab o'rtasida muntazam (masalan, choraklik) monitoring va fikr-almashinuv tizimini joriy etish hamda mahalla faollarini yil davomida izchil tarbiyaviy tadbirlarga jalb qiluvchi yillik reja tuzish maqsadga muvofiqdir. Bunday yondashuv institutsional hamkorlikni tasodifiy tadbirlar darajasidan chiqarib, barqaror va natijaga yo'naltirilgan tizimga aylantiradi.

Xulosa. Milliy tarbiya jarayonlarini samarali tashkil etish tarbiyaviy tadbirlarning mazmunini boyitish bilangina cheklanmaydi — bu jarayonning institutsional asoslarini mustahkamlash va tarbiya subyektlari o'rtasidagi hamkorlikni yangi bosqichga olib chiqish zarur. "Oila-mahalla-maktab" uchligi milliy tarbiyaning asosiy institutsional tayanchi sifatida muhim ahamiyatga ega bo'lib, zamonaviy sharoitda mazkur hamkorlikni madaniyat, sport, jamoatchilik va boshqa ijtimoiy institutlar bilan kengaytirish orqali yagona tarbiyaviy makonni shakllantirish maqsadga muvofiqdir. Institutsional modellarning har biri — hamkorlik, markazlashgan va hududiy modellar — bir-birini istisno etmasdan, aksincha, mahalliy sharoitga qarab bir-birini to'ldiruvchi tizim sifatida qo'llanilishi lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ota-ona – murabbiy [Matn] / X.Ibraimov, M.Quronov, J.Fozilov, F.Zaripov; – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi. 2024. - 220 b.
2. X.Ibraimov va boshqalar. Najot tarbiyada. –T.: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi. -2025. – 60 b.
3. X.Ibraimov va boshqalar. Go‘zal hulq modellari. – Toshkent.: “Ilm ziyo zakovat” nashriyoti. –2025 y. 80-b.
4. X.Ibraimov va boshqalar. Ma’naviy-axloqiy tarbiya metodlari. G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi. 2025. - 68 b.
5. Bandura, A. *Social Learning Theory*. New York: General Learning Press, 1977.

«ТАРБИЯ» ФАНИ ДАРСЛАРИДА РАҚАМЛИ МИЛЛИЙ КОНТЕНТЛАРДАН ФОЙДАЛАНИШ ВОСИТАСИДА 7-9-СИНФ ЎҚУВЧИЛАРИДА КИБЕРАХЛОҚИЙ МАДАНИЯТНИ ШАКЛЛАНТИРИШНИНГ ШАКЛ, МЕТОД ВА ВОСИТАЛАРИ

Ibragimova Saodat Ozod qizi
Tadqiqotchi
https://doi.org/10.5281/zenodo.23176912

Аннотация. *Мақолада 7-9-синф ўқувчиларида «Тарбия» дарсларида рақамли миллий контентлар орқали киберахлоқий маданиятни шакллантиришнинг ташкилий шакллари, методлари ва воситалари назарий-методик жиҳатдан ёритилган. Киберахлоқий маданият рақамли муҳитда миллий ва умуминсоний қадриятлар, ахлоқий тамойиллар, ҳуқуқий меъёрлар ҳамда ахборот хавфсизлиги талабларига мувофиқ қарор қабул қилиш ва ўз хулқини рефлексив бошқаришни ифодаловчи интегратив шахсий сифат сифатида талқин қилинган. Шахсий-психологик, мазмуний-аксиологик, дидактик-методик, ижтимоий-педагогик, рақамли-технологик, институционал-меъёрий ва рефлексив-мониторинг омиллари ўқитиш жараёни билан боғланган. Кейс, ахлоқий дилемма, ролли ўйин, манбани текшириш, лойиҳа ва рефлексия методларини миллий мазмундаги рақамли материаллар билан уйғунлаштириш йўллари таклиф этилган. Синфлар кесимида топшириқлар, дарс намунаси ва баҳолаш мезонлари ишлаб чиқилган. Таклифларнинг самарадорлиги кейинги тажриба-синов ишларида текширилиши лозим.*

Калит сўзлар: *«Тарбия» фани, рақамли миллий контент, киберахлоқий маданият, киберэтика, рақамли фуқаролик, медиа саводхонлик, ахлоқий дилемма, эмпатия, рефлексия, оила-мактаб ҳамкорлиги.*

Кириш

Рақамли муҳитдаги мулоқот ўқувчидан ахборотни тушуниш билан бирга, уни тарқатиш оқибатини баҳолашни ҳам талаб қилади. Синфдошининг суратини рухсатсиз улашиш, манбаси текширилмаган хабарни қайта юбориш ёки интернетдан олинган ишни ўзиники сифатида тақдим этиш ахлоқий танлов билан боғлиқ вазиятлардир. «Тарбия» дарсида бундай ҳолатларни муҳокама қилиш ҳурмат, ҳалоллик, масъулият ва ҳамдардликни ўқувчининг кундалик рақамли ҳаракатлари билан боғлаш имконини беради.

Европа Кенгашининг рақамли фуқаролик таълими қўлланмасида этика ва эмпатия, медиа ва ахборот саводхонлиги, ҳуқуқ ва масъулият, шахсий ҳаёт дахлсизлиги ҳамда хавфсизлик ўзаро боғлиқ йўналишлар сифатида ёритилган [1]. ЮНЕСКОнинг медиа ва ахборот саводхонлиги бўйича ўқув дастури эса ахборот билан танқидий ишлашни рақамли фуқаролик ва маданий саводхонлик масалалари билан боғлайди [2]. Ушбу ёндашувларни миллий тарбия мазмунига мослаштиришда контентнинг тарбиявий ғояси, ўқувчининг фаол иштироки ва қарорини асослаш қобилияти биргаликда ҳисобга олиниши зарур.

Мақоланинг мақсади — рақамли миллий контентлардан фойдаланиб, 7-9-синф ўқувчиларида киберахлоқий маданиятни шакллантиришга йўналтирилган шакл, метод ва воситаларнинг ўзаро мувофиқ тизимини таклиф этиш. Асосий методик масала миллий қадриятнинг рақамли вазиятда қандай ҳаракат орқали намоён бўлишини ўқувчига англатишдан иборат.

Мақола назарий-методик хусусиятга эга. Унда рақамли фуқаролик, медиа саводхонлик ва рақамли компетентликка оид манбаларнинг қиёсий таҳлили, тушунчаларни аниқлаш ҳамда педагогик лойиҳалаш усулларидан фойдаланилди. Манбалардаги ёндашувлар асосида ўқув мақсади, фаолият ва баҳолаш далили ўртасидаги мувофиқлик белгиланди. Эмпирик маълумотлар йиғилмаган; қуйидаги топшириқлар ва баҳолаш тавсифлари муаллиф томонидан таклиф этилаётган методик ечимлардир.

Киберахлоқий маданият ўқувчининг рақамли муҳитда бошқалар қадр-қимматини ҳурмат қилиши, ахборотнинг ишончлилигини текшириши, ўз ва ўзгалар маълумотларига масъулият билан муносабатда бўлиши, қарорининг оқибатини англаши ҳамда хатосини тузатишга тайёрлигида ифодаланади. Рақамли компетентлик ушбу сифатнинг амалий таянчларидан биридир. DigComp 2.2 доирасида ахборотни баҳолаш, тармоқ одоби, рақамли идентификация, муаллифлик ҳуқуқи ва шахсий маълумотларни ҳимоя қилиш алоҳида компетенциялар сифатида берилган [3].

Рақамли миллий контент деганда ўзбек тилида ёки маҳаллий таълим муҳитига мос тилда тақдим этилган, миллий маданий мерос, одоб-ахлоқ, тарихий хотира ва замонавий ижтимоий ҳаётни акс эттирувчи электрон материаллар тушунилади. Уларга рақамлаштирилган матн, аудиоҳикоя, видеолавҳа, анимация, инфографика, виртуал экспозиция ва интерактив топшириқ киради. Миллийликни фақат ташқи рамзлар билан ифодалаш чекланган ёндашувдир: контентда ҳурмат, инсоф, ҳалоллик ва бағрикенгликнинг аниқ вазиятдаги мазмуни очилиши керак.

Шакл ўқув фаолиятининг қандай ташкил этилишини, метод мақсадга олиб борувчи педагогик ҳаракатни, восита эса ушбу ҳаракат учун қўлланадиган ресурсни билдиради. Масалан, кичик гуруҳда ишлаш — шакл, ахлоқий дилеммани таҳлил қилиш — метод, ўзбек тилидаги вазиятли видеолавҳа — воситадир. Уларни фарқлаш дарсни технологиялар рўйхати асосида эмас, ўқув натижасига мувофиқ лойиҳалашга хизмат қилади.

Контентни саралашда манбанинг аниқлиги, ёшга мослиги, тарбиявий мақсадга мувофиқлиги, ахлоқий муаммонинг тушунарлилиги ва техник қулайлик текширилади. Материалга оид қисқа паспортда номи, манбаси, муаллифи, фойдаланиш шарти, синфи, давомийлиги, асосий қадрият ва кутилаётган ҳаракат кўрсатилади. Тарихий шахсга нисбат берилган фикрнинг манбаси аниқланмаса, уни ишончли иқтибос сифатида беришдан сақланиш

зарур. Аудиога матнли муқобил, видеога субтитр қўшилиши иштирок имкониятларини кенгайтиради.

Миллий мазмунни танлашда халқ эртакларининг электрон матнидаги ростгўйлик ғоясини сохта хабар тарқатиш вазияти билан, маҳалла ҳаёти ҳақидаги аудиоҳикоядаги ўзаро ёрдамни кибербуллингга учраган тенгдошни қўллаб-қувватлаш билан боғлаш мумкин. Музей экспонатига оид рақамли тавсифдан фойдаланиб, манбани кўрсатган ҳолда қисқа тақдимот яратиш эса маданий меросга ҳурмат ва муаллифлик масъулиятини уйғунлаштиради. Ҳар бир материалдан сўнг «Бу қадрият интернетдаги қайси ҳаракатимда намоён бўлади?» саволи қўйилади. Шу тариқа миллий мазмун ўқувчининг аниқ хулқий қарорига татбиқ этилади.

Киберахлоқий маданиятга таъсир этувчи омиллар дарсда муайян шартларга айлантирилади. Шахсий-психологик омиллар ўқувчининг тайёргарлиги ва ҳиссий муносабатини; мазмуний-аксиологик омиллар миллий ва умуминсоний қадриятлар мувофиқлигини; дидактик-методик омиллар эса мақсад, топшириқ ва баҳолаш бирлигини ҳисобга олишни талаб этади. Ижтимоий-педагогик омил оила ва мактабдаги мулоқот намуналари билан, рақамли-технологик омил ресурсдан фойдаланиш имконияти билан боғлиқ. Институционал-меъёрий омил синфда келишилган рақамли хулқ қоидаларида, рефлексив-мониторинг омили эса мунтазам қайта алоқада намоён бўлади.

Мазкур омиллар таъсирини тушунтирувчи ишчи фараз қуйидагича: мазмунли рақамли вазият ўқувчини танқидий таҳлил, эмпатия ва ахлоқий мулоҳазага жалб қилса, у масъулиятли қарорини асослаш ва хулқини бошқаришни машқ қилади. Бу боғланиш мақолада назарий механизм сифатида таклиф этилмоқда. Уни сабабий жиҳатдан тасдиқлаш учун алоҳида эмпирик текширув талаб этилади.

Дарсда умумсинф муҳокамаси муаммони биргаликда тушунишга, жуфтликда ишлаш икки қарорни қиёслашга, кичик гуруҳлар фаолияти эса турли нуқтаи назарларни келишишга хизмат қилади. Индивидуал топшириқ ўқувчининг мустақил мулоҳазасини аниқлаш учун қўлланади. Дарсдан ташқари медиаустахона ва оила билан бажариладиган қисқа топшириқлар синфда ишланган қоидани бошқа вазиятда қўллаш имконини беради. Техник шароит чекланган синфда бир экран ва босма вазият карточкаларидан фойдаланиш мумкин.

Кейс методида миллий муҳитга яқин воқеа рақамли танлов билан боғланади. Масалан, мактаб тадбирида олинган сурат синфдошининг розилигисиз гуруҳга жойланади. Ўқувчилар иштирокчилар манфаатини, етказилиши мумкин бўлган зарарни ва ечимларни таҳлил қилади. «Бировнинг шаънини ҳурмат қилиш» қадрияти бу ерда суратни улашишдан олдин розилик

сўраш ва рад жавобини қабул қилиш ҳаракати билан ифодаланади. Кейс якунида ҳар бир гуруҳ қарор ва унинг сабабини ёзади.

Ахлоқий дилемма методи қадриятлар ўртасидаги мураккаб муносабатни очади. «Дўстинг тайёр ишни ўзиники деб топширмоқчи; сен унга қандай муносабат билдирасан?» саволи дўстлик, ҳалоллик ва масъулиятни муҳокама қилишга асос бўлади. Ўқитувчи турли қарорларнинг эҳтимолий оқибатини сўрайди, шахсни камситмай фикр билдиришни бошқаради. Баҳолашда жавобнинг далили, бошқалар манфаатини ҳисобга олиши ва амалга ошириш имконияти эътиборга олинади.

Ролли ўйинда хабар муаллифи, қабул қилувчи, кузатувчи ва модератор нуқтаи назарлари таққосланади. Сценарий шартли исмлар билан тузилади; синфдаги ҳақиқий можаро ошкор қилинмайди. Кибербуллинг вазиятида ўқувчи ҳақоратни қайта тарқатмаслик, жабрланган тенгдошини қўллаб-қувватлаш ва ишончли каттага мурожаат қилишни машқ қилади. ЮНИСЕФ кибербуллингни рақамли технологиялар воситасида қўрқитиш, ғазаблантириш ёки шарманда қилишга қаратилган такрорий хатти-ҳаракат сифатида изоҳлайди ва ёрдам сўрашнинг аҳамиятини таъкидлайди [4].

Манбани текшириш методида миллий тарих ёки маданиятга оид қисқа хабар танланади. Ўқувчи унинг муаллифи, нашр санаси, дастлабки манбаси ва далилини аниқлайди; бошқа мустақил ишончли манба билан солиштиради. Тасдиқланмаган маълумот учун «ишончли далил топилмади» деган хулоса ҳам асосли натижа сифатида қабул қилинади. Ўқитувчи тузган сохта намуна машқ материали экани аниқ белгиланади ва очиқ тармоқда тарқатилмайди.

Лойиҳа методида ўқувчилар «Рақамли мулоқот одоби» мавзусида қисқа аудиотавсия ёки инфографика яратади. Маҳсулотда миллий қадрият, кундалик вазият, тавсия этиладиган ҳаракат ва манба боғланади. Рефлексияда эса «Қайси қарорни танладим?», «Кимнинг манфаатини ҳисобга олдим?», «Нимани ўзгартираман?» саволларига жавоб ёзилади. Ўзбек тилидаги видео ва аудио, электрон матн, интерактив сўров, тақдимот муҳаррири ва электрон портфолио мазкур методларни амалга ошириш воситалари бўлиб хизмат қилади.

Қуйидаги тақсимот расмий ўқув дастуридан кўчирилган мавзулар рўйхати эмас, балки «Тарбия» дарсларига мослаштириш учун таклиф этилаётган намунадир. Топшириқ мураккаблиги синф билан бирга ўқувчиларнинг аввалги тажрибасига қараб белгиланади.

1-жадвал.

Шакл, метод, восита ва кузатиладиган натижа

Синф	Мазмун ва шакл	Метод ва рақамли восита	Кузатиладиган натижа
7-синф	Ҳурмат ва мулоқот одоби; жуфтликда ишлаш	Кейс ва ролли ўйин; ўзбек тилидаги қисқа анимация	Камситувчи хабарни аниқлайди, ҳурматли жавоб тузади
8-синф	Ҳалоллик ва ахборот масъулияти; кичик гуруҳ	Манбани текшириш ва дилемма; рақамли матн, инфографика	Далилни текширади, муаллифни кўрсатади, тарқатиш қарорини асослайди
9-синф	Рақамли обрў ва ижтимоий масъулият; лойиҳа гуруҳи	Лойиҳа ва рефлексия; подкаст, электрон портфолио	Манбали контент яратади, розилик ва эҳтимолий оқибатни ҳисобга олади

Масалан, 8-синф учун «Хабарни улашишдан олдин» мавзусидаги 45 дақиқалик машғулот қуйидагича ташкил этилади: кириш саволи ва дастлабки қарорга 5 дақиқа, миллий мазмундаги қисқа материални кўришга 5 дақиқа, манба ва ахлоқий вазиятни гуруҳда таҳлил қилишга 12 дақиқа, қарорларни муҳокама этишга 10 дақиқа, масъулиятли хабар вариантини ёзишга 8 дақиқа, индивидуал рефлексияга 5 дақиқа ажратилади. Якунда ўқувчи дастлабки қарорини сақлагани ёки ўзгартирганини далил билан тушунтиради.

Баҳолаш тўрт мезонга таянади. Когнитив мезон ахлоқий қоида ва ахборот хавфини тушунтиришда; қадриявий-мотивацион мезон қарорда ҳурмат ва ҳалолликни асослашда; ҳиссий-иродавий мезон ўз муносабатини бошқариш ва бошқанинг ҳолатини ҳисобга олишда; фаолият-рефлексив мезон масъулиятли ҳаракатни бажариш ва хатони тузатишда кузатилади. Далиллар сифатида кейсга ёзма жавоб, кузатув қайди, яратилган маҳсулот ва рефлексия варағи биргаликда қўлланади.

Юқори даражада ўқувчи янги вазиятда хавф ва ахлоқий муаммони мустақил аниқлайди, қарорини далиллайди, манба ва розиликни текширади, хатосини тузатиш йўлини кўрсатади. Ўрта даражада асосий қоидаларни тушунади, аммо мураккаб танловда савол ёки намуна ёрдамига эҳтиёж сезади. Қуйи даражада қоидани вазиятга татбиқ қилишда қийналади, қарор оқибатини етарлича ҳисобга олмайди. Бу тавсифлар ўқувчининг шахсига доимий баҳо бериш учун эмас, кейинги педагогик ёрдамни белгилаш учун хизмат қилади.

Таклиф этилаётган мезонларни қўллашдан олдин экспертлар мазмуннинг мақсадга мослигини баҳолаши, кичик синовда эса топшириқлар тушунарлилиги ва баҳоловчилар ўртасидаги мувофиқлик текширилиши лозим. Дастлабки ва якуний топшириқлар бир хил кўникмани ўлчайдиган, мазмунан тенг қийинликдаги вазиятлардан тузилади. Фақат тест балли ёки ўқувчининг ўзини баҳолашига таяниб, барқарор киберахлоқий маданият шаклланган ҳақида хулоса чиқариш етарли эмас.

Оила билан ҳамкорликда суратини улашишдан олдин рухсат сўраш, шубҳали хабарни биргаликда текшириш ва мулоқотда ҳурматни сақлашга доир қисқа топшириқлар берилади. Ўқитувчи шахсий аккаунт ёки ёзишмаларни мажбурий текшириш ўрнига шартли ўқув вазиятларидан фойдаланади. Электрон портфолиога фақат мақсад учун зарур ишлар киритилади; унга кириш доираси олдиндан белгиланади. Ота-она ва ўқитувчининг ўзи манбани кўрсатиши ва шахсий маълумотларга эҳтиёткор муносабати тарбиявий намуна вазифасини бажаради.

Рақамли миллий контентнинг тарбиявий имконияти ўқувчининг ахлоқий қарор қабул қилиш фаолиятига қандай жалб этилгани билан боғлиқ. Мақолада шакл, метод ва воситани кутилаётган ҳаракат ҳамда баҳолаш далили билан мувофиқлаштириш таклиф қилинди. Миллий қадриятни рақамли вазият, асосланган танлов, амалий ҳаракат ва рефлексия билан боғлаш методик тизимнинг асосини ташкил этади. Амалий жиҳатдан ўқитувчига манбаси текширилган контент банкини яратиш, синфлар учун мураккаблиги босқичма-босқич ортиб борадиган кейслар тайёрлаш, ягона баҳолаш тавсифларидан фойдаланиш ва оила билан келишилган рақамли одоб қоидаларини муҳокама қилиш тавсия этилади. Мазкур таклифлар самарадорлигини аниқлашда таққосланадиган гуруҳлар, дастлабки ва якуний ўлчовлар ҳамда кейинги кузатувга таянган тажриба-синов ишлари зарур.

Фойдаланилган адабиётлар

1. Richardson J., Milovidov E. Digital Citizenship Education Handbook: Being Online, Well-being Online, Rights Online. — Strasbourg: Council of Europe, 2019. — ISBN 978-92-871-8734-5. https://rm.coe.int/digital-citizenship-education-handbook/168093586f (мурожаат санаси: 25.09.2026).
2. UNESCO IITE. Media and Information Literate Citizens: Think Critically, Click Wisely! Электрон ресурс. https://iite.unesco.org/publications/media-and-information-literate-citizens-think-critically-click-wisely/ (мурожаат санаси: 25.09.2026).
3. Vuorikari R., Kluzer S., Punie Y. DigComp 2.2: The Digital Competence Framework for Citizens. — Luxembourg: Publications Office of the European Union, 2022. — EUR 31006 EN. — DOI: 10.2760/115376. https://doi.org/10.2760/115376 (мурожаат санаси: 25.09.2026).
4. UNICEF. Cyberbullying: What Is It and How to Stop It. Электрон ресурс. https://www.unicef.org/stories/how-to-stop-cyberbullying (мурожаат санаси: 25.09.2026).

BOSHLANG‘ICH SINF O‘QUVCHILARIDA MILLIY TARBIYANI SHAKLLANTIRISHDA RAQAMLI IMMUNITET VA MEDIA SAVODXONLIKNING O‘RNI

Ikromova Mahbuba Vali qizi
O ‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti tayanch doktoranti
https://doi.org/10.5281/zenodo.23176941

Annotatsiya. *Mazkur maqolada boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida milliy tarbiyani shakllantirish jarayonida raqamli immunitet va media savodxonlikning tutgan o‘rni adabiyotlar tahlili asosida ko‘rib chiqiladi. Raqamli texnologiyalarning bolalar hayotiga erta kirib kelishi, bir tomondan, ta’lim imkoniyatlarini kengaytirsa, ikkinchi tomondan, milliy qadriyatlarga begona bo‘lgan g‘oyaviy va madaniy ta’sirlarga nisbatan yosh avlodni himoyasiz qoldirish xavfini keltirib chiqarmoqda. Shu munosabat bilan maqolada raqamli immunitet va media savodxonlik tushunchalarining mazmun-mohiyati, ularning milliy tarbiya bilan o‘zaro bog‘liqligi, shuningdek O‘zbekistonda mavjud me’yoriy-huquqiy baza tahlil qilinadi. Tadqiqot natijalari boshlang‘ich ta’lim amaliyoti uchun amaliy tavsiyalar ishlab chiqishga xizmat qiladi.*

Kalit so‘zlar: *milliy tarbiya, raqamli immunitet, media savodxonlik, boshlang‘ich ta’lim, axborot xavfsizligi, tanqidiy fikrlash, raqamli ta’lim muhiti.*

KIRISH

Mustaqillik yillarida O‘zbekistonda yosh avlodni milliy g‘oya va umuminsoniy qadriyatlar uyg‘unligida tarbiyalash davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri sifatida belgilangan. “Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi”da ta’kidlanganidek, yoshlarni zamonaviy bilim va tajribalar, milliy va umumbashariy qadriyatlar asosida mustaqil va mantiqiy fikrlaydigan, ezgu fazilatlar egasi bo‘lgan insonlar etib voyaga yetkazish davlat va jamiyatning eng muhim vazifasi hisoblanadi [6]. Ayni paytda mamlakatimizda amalga oshirilayotgan raqamli transformatsiya jarayonlari, xususan “Raqamli O‘zbekiston - 2030” strategiyasining izchil bosqichlarda ro‘yobga chiqarilishi [5] ta’lim tizimini tubdan yangilamoqda: elektron darsliklar, interaktiv doskalar, ta’limiy ilovalar boshlang‘ich sinf o‘quvchisining kundalik o‘quv faoliyatining ajralmas qismiga aylanmoqda.

Biroq bu jarayonning ikkinchi tomoni ham mavjud. Internet va ijtimoiy tarmoqlarning bolalar orasida keng tarqalishi ular ongini yoshlik chog‘idanoq nazoratsiz axborot oqimiga duchor qilmoqda. Milliy an’analarga, oilaviy va diniy qadriyatlarga, tilga hurmatsiz munosabatni targ‘ib qiluvchi kontent, shuningdek ma’naviy jihatdan zararli o‘yinlar va videomateriallar bolaning shaxsiy dunyoqarashi hali shakllanmagan bir davrda uning ongiga singib qolish xavfini tug‘dirmoqda. Aynan shu sababdan bugungi kunda pedagogika fanida “raqamli immunitet” tushunchasi tobora ko‘proq muhokama qilinmoqda - bu bolaning zararli, yolg‘on yoki manipulyativ axborotga nisbatan ichki, ongli qarshilik ko‘rsata olish qobiliyatini anglatadi. Media savodxonlik esa ushbu immunitetning amaliy vositasi, ya’ni axborotni qabul qilish,

uni tanqidiy tahlil qilish, ishonchliligini tekshirish va mas’uliyat bilan foydalanish ko‘nikmalari majmui sifatida qaraladi [13]. Ma’lumotlar hajmining tobora ortib borishi har bir insondan yangi tanqidiy fikrlash ko‘nikmalarini talab qilmoqda, shu sababli media savodxonlik so‘nggi yillarda nafaqat O‘zbekistonda, balki butun mintaqada ta’lim siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biriga aylanib ulgurdi.

Mazkur tadqiqotning dolzarbligi shundaki, milliy tarbiya, raqamli immunitet va media savodxonlik masalalari ko‘pincha bir-biridan ajratilgan holda, alohida-alohida o‘rganiladi. Aslida esa boshlang‘ich ta’lim bosqichida bu uchala jarayon bir-biri bilan uzviy bog‘liq: media savodxonliksiz shakllangan raqamli immunitet yuzaki bo‘ladi, raqamli immunitetsiz milliy tarbiya esa zamonaviy axborot xurujlari oldida beqaror bo‘lib qoladi. Shu boisdan maqolaning maqsadi - mavjud ilmiy adabiyotlar va me’yoriy-huquqiy hujjatlar tahlili asosida ushbu uch tushuncha o‘rtasidagi bog‘liqlikni ochib berish va boshlang‘ich sinf amaliyoti uchun tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot tavsiflovchi-analitik xarakterga ega bo‘lib, mavjud ilmiy adabiyotlarni tizimli tahlil qilish metodiga asoslanadi. Manba sifatida quyidagi uch guruh materiallardan foydalanildi: birinchisi - O‘zbekiston Respublikasining ta’lim, axborot xavfsizligi va bolalar huquqlarini himoya qilishga oid qonun hujjatlari hamda davlat strategiyalari; ikkinchisi - O‘zbekistonlik tadqiqotchilarning milliy tarbiya, media savodxonlik va raqamli ko‘nikmalarga bag‘ishlangan so‘nggi yillardagi ilmiy maqolalari; uchinchisi - Rossiya, Qozog‘iston kabi MDH davlatlari hamda G‘arb tadqiqotchilarining shu mavzudagi ilmiy izlanishlari. Manbalarni tanlashda 2017-2026-yillar oralig‘ida chop etilgan, mavzuga bevosita daxldor ishlarga ustuvorlik berildi. Yig‘ilgan adabiyotlar mazmun-mohiyati bo‘yicha guruhlanib, qiyosiy tahlil qilindi va shu asosda maqolaning asosiy qismi tuzildi.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Mavzuni ochishdan avval uning davlat siyosati va qonunchilik darajasidagi asoslarini ko‘rib chiqish maqsadga muvofiq, chunki aynan shu hujjatlar keyingi ilmiy-pedagogik tahlilning huquqiy negizini tashkil etadi. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida har bir fuqaroning, jumladan bolaning, ma’naviy va jismoniy rivojlanishi davlat himoyasida ekanligi belgilangan [1]. “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonun esa ta’lim jarayonida zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish bilan bir qatorda o‘quvchilarni milliy va umumbashariy qadriyatlar ruhida tarbiyalashni ta’lim tizimining asosiy vazifalaridan biri sifatida belgilaydi [2]. Milliy qonunchiligimizda, jumladan “Bola huquqlarining kafolatlari to‘g‘risida”gi qonunda, har bir bolaning o‘z sog‘lig‘i, axloqiy va ma’naviy kamol topishiga ziyon yetkazmaydigan axborotni olish huquqi alohida kafolatlangan [19].

Bolalarni raqamli muhitdagi zararli ta’sirlardan himoya qilish masalasi alohida qonun darajasida tartibga solingan. “Bolalarni ularning sog‘lig‘iga zarar yetkazuvchi axborotdan himoya qilish to‘g‘risida”gi O‘RQ-444-son Qonun axborot mahsulotlarini yoshga oid toifalarga ajratish, bolalar o‘rtasida tarqatilishi taqiqlangan yoki cheklangan axborot turlarini belgilash mexanizmini o‘rnatgan [3]. Qonunga muvofiq, shafqatsizlik, zo‘ravonlik, qo‘rquv va vahima uyg‘otuvchi, jinsiy munosabatlarni tasvirlovchi hamda haqoratli iboralarni o‘z ichiga olgan axborot mahsulotlari bolalar o‘rtasida tarqatilishi cheklanadi [4].

Ta’lim tizimini raqamlashtirish yo‘nalishidagi asosiy strategik hujjat - “Raqamli O‘zbekiston - 2030” strategiyasi - bo‘lib, u ta’lim sohasini raqamlashtirish chora-tadbirlarini izchil amalga oshirishni nazarda tutadi, bu esa media ta’lim masalasini yanada dolzarblashtirmoqda [5]. “Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi”da yoshlarni zamonaviy bilim va tajribalar, milliy va umumbashariy qadriyatlar asosida mustaqil va mantiqiy fikrlaydigan insonlar etib voyaga yetkazish davlat va jamiyatning eng muhim vazifasi sifatida belgilangan [6]. 2026-yilda “O‘zkomnazorat” tomonidan tashkil etilgan maxsus o‘quv kurslari doirasida bolalarning axborot xavfsizligi, deepfake va manipulyativ materiallarni aniqlash usullari bo‘yicha amaliy bilimlar berilishi ham davlatning bu yo‘nalishdagi faol siyosatidan dalolat beradi [7].

Xalqaro tajribaga nazar tashlasak, Germaniyaning “Jugendschutzgesetz” qonuni, Buyuk Britaniyaning “Online Safety Bill” hamda “Age Appropriate Design Code” hujjatlari, Yevropa Ittifoqining AVMSD direktivasi kabi vositalar orqali bolalarni zararli axborotdan himoya qilishning umumiy standartlari belgilangan [17]. Bu tajribalarni o‘rganish O‘zbekiston qonunchiligini yanada takomillashtirish, xususan, kiberbulling va kibergruming kabi zamonaviy xavf-xatarlarga nisbatan aniqroq huquqiy normalar joriy etish imkonini beradi [18]. Shunday qilib, me’yoriy-huquqiy baza izchil rivojlanib borayotgan bo‘lsa-da, uning boshlang‘ich sinf pedagogik amaliyotiga qay darajada singib borayotganini tushunish uchun endi mavzuning ilmiy-nazariy jihatlariga o‘tamiz.

Milliy tarbiya pedagogik adabiyotlarda shaxsda milliy o‘zlikni anglash, ona tiliga, tarixiga, urf-odat va an’analariga, Vatanga muhabbat tuyg‘usini shakllantirishga qaratilgan izchil pedagogik jarayon sifatida ta’riflanadi. Bu jarayonning asosiy ko‘rsatkichlari qatorida milliy tuyg‘u, vatanparvarlik, milliy mafkuraviy onglilik, millatlararo muloqot madaniyati va milliy g‘urur ko‘rsatiladi [8]. Tadqiqotchilar ta’kidlashicha, tarbiya insonning insonligini ta’minlaydigan eng qadimiy va abadiy qadriyat bo‘lib, qadriyatlar tarbiya orqaligina bir avloddan ikkinchisiga o‘tadi [9].

Boshlang‘ich sinf yoshi milliy tarbiya nuqtayi nazaridan alohida ahamiyatga ega, chunki aynan shu davrda bolada dunyoqarashning dastlabki asoslari, qadriyatlarga munosabat va xulq-atvor me’yorlari shakllana boshlaydi.

Tadqiqotlarda ko‘rsatilishicha, milliy qadriyatlarni singdirishda interfaol metodlar, xalq og‘zaki ijodi namunalari - maqol va topishmoqlar, milliy bayramlar va urf-odatlar bilan tanishtirish, shuningdek oila-maktab-mahalla hamkorligi muhim vosita bo‘lib xizmat qiladi [10; 11]. Shu bilan birga so‘nggi yillardagi ishlarda milliy tarbiyani shakllantirishda zamonaviy axborot-kommunikatsiya vositalaridan, jumladan audio-vizual materiallardan foydalanish zarurati ham ta’kidlanmoqda [12], bu esa masalani raqamli muhit kontekstida qayta ko‘rib chiqish ehtiyojini kuchaytiradi.

“Raqamli immunitet” atamasi nisbatan yangi bo‘lib, u shaxsning raqamli muhitda uchraydigan zararli, yolg‘on yoki manipulyativ axborotga nisbatan tanqidiy munosabat bildira olish, hissiy va mafkuraviy jihatdan barqaror qola olish qobiliyatini anglatadi. Rossiyalik tadqiqotchilar bu tushunchani ko‘proq o‘smirlar kontekstida, raqamli etiket va mediagigiena me’yorlariga rioya qilish, shuningdek ijtimoiy tarmoqlardagi xulq-atvor xususiyatlari orqali o‘rganishgan [21]. Ular ta’kidlashicha, raqamli madaniyatning shakllanishida yosh, millat va diniy e’tiqod kabi omillar ham muhim rol o‘ynaydi, bu esa raqamli immunitetning nafaqat texnik, balki chuqur madaniy-mafkuraviy jihatga ega ekanini ko‘rsatadi.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari uchun esa raqamli immunitet tushunchasini biroz soddalashtirilgan holda talqin qilish lozim. Raqamli immunitet - bolaning “nima yaxshi, nima yomon” ekanini, qaysi kontent unga zarar keltirishi mumkinligini, notanish odam yoki noma’lum manbadan kelgan taklifga qanday munosabatda bo‘lish kerakligini anglay olishidir. Zamonaviy tadqiqotlarda ko‘rsatilishicha, O‘zbekiston o‘quvchilarining darsda raqamli qurilmalarga chalg‘ish ko‘rsatkichi OECD mamlakatlari o‘rtacha ko‘rsatkichidan taxminan ikki baravar past, bu ijobiy holat sifatida baholanadi, biroq bu holat o‘z-o‘zidan bolalarning raqamli muhitdagi xavfsizligini kafolatlamaydi [20]. Shu sababli raqamli immunitetni maqsadli va tizimli pedagogik jarayon sifatida shakllantirish zarurati saqlanib qolmoqda.

Media savodxonlik ko‘pchilik tadqiqotchilar tomonidan axborotni to‘g‘ri anglash, uni tanqidiy baholash va mustaqil ravishda mazmunli media mahsulot yaratish qobiliyati sifatida ta’riflanadi [13]. Bu ko‘nikma o‘quvchida axborotni kontekstga qarab tushunish, uning ishonchliligi va haqqoniyligini tekshirish, manipulyatsiya va soxta xabarlarga qarshi immunitet hosil qilish kabi jihatlarni rivojlantirishga xizmat qiladi. Ayni shu nuqtada media savodxonlik va raqamli immunitet tushunchalari bir-biriga eng yaqin keladi. Aslida media savodxonlik - bu raqamli immunitetning amaliyotda namoyon bo‘lish shakli, uni shakllantirishning asosiy pedagogik vositasidir.

Boshlang‘ich ta’lim bosqichida media savodxonlikni rivojlantirishning didaktik, metodik va psixologik asoslarini tizimli tadqiq etgan ishlarda ko‘rsatilishicha, bu jarayonda o‘quvchilarning axborotni ongli qabul qilish, tahlil

qilish, soxta axborotni aniqlash va axborot xavfsizligi qoidalariga rioya etish kompetensiyalarini rivojlantirishga alohida e’tibor qaratish lozim [14]. Shu bilan birga, hamkorlikda o‘rganishga asoslangan raqamli platformalar - masalan, viki-texnologiyalar - o‘quvchilarni faol jalb qilish, kontentni birgalikda baholash va bilim almashish orqali media savodxonlikni oshirishda samarali vosita bo‘lishi mumkinligi ko‘rsatib o‘tilgan [15]. MDH mamlakatlari tajribasida ham shu yo‘nalishdagi tadqiqotlar faollashmoqda. Rossiyalik olimlar profilli ta’lim kontekstida o‘quvchilarning tanqidiy fikrlash, axborotni tahlil qilish va manipulyatsiyani aniqlash ko‘nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan yondashuvlarni tavsiya etadilar, bunda ta’lim muassasalari, ota-onalar va raqamli madaniyat mutaxassislari o‘rtasidagi hamkorlik alohida ahamiyatga ega ekanini ta’kidlaydilar [22]. Qozog‘istonlik tadqiqotchilar esa kichik maktab yoshidagi o‘quvchilarda raqamli savodxonlikning oilada shakllangan tajriba asosida maktab amaliyotiga uyg‘unlashuvini o‘rgangan, bu esa oila va maktabning bu boradagi hamkorligi zarurligini yana bir bor tasdiqlaydi [23].

Yuqorida keltirilgan tahlildan ko‘rinadiki, milliy tarbiya, raqamli immunitet va media savodxonlik bir-biridan alohida emas, balki uzviy zanjir sifatida ko‘rib chiqilishi zarur. Milliy tarbiya bolada “nimani qadrlash kerak” degan qadriyat asosini shakllantiradi; raqamli immunitet - shu qadriyatlarni raqamli muhitdagi begona ta’sirlardan himoya qila olish ichki qarshiligini beradi; media savodxonlik esa bu himoyani amaliy ko‘nikmaga, ya’ni axborotni tahlil qilish va tanqidiy baholash mahoratiga aylantiradi. Boshqacha aytganda, milliy tarbiyasiz shakllangan raqamli ko‘nikmalar bolani texnik jihatdan bilimdon, ammo mafkuraviy jihatdan himoyasiz qilib qo‘yishi mumkin, media savodxonliksiz shakllangan milliy tarbiya esa zamonaviy axborot hujumlari oldida amaliy vositalardan mahrum bo‘lib qoladi.

Bu bog‘liqlikni tasdiqlovchi yana bir dalil - media savodxonlikning ta’lim tizimidagi o‘rnini o‘rgangan tadqiqotlarda uning aynan manipulyatsiya va soxta xabarlarga qarshi immunitetni shakllantirishdagi o‘rni alohida ajratib ko‘rsatilishi [16]. Demak, ilmiy adabiyotlarning o‘zida ham “immunitet” va “media savodxonlik” tushunchalari amalda bir-birini to‘ldiruvchi jarayonlar sifatida talqin qilinmoqda. Boshlang‘ich sinf amaliyoti uchun bu shuni anglatadiki, milliy g‘oya va qadriyatlarni singdirish darslari raqamli xavfsizlik va axborotni tanqidiy baholash elementlari bilan uyg‘un holda olib borilishi kerak. Masalan, milliy bayram yoki qahramon haqidagi videomaterialni tahlil qilishda bola nafaqat mazmunni, balki uning manbasi va ishonchliligini ham baholashga o‘rgatilishi mumkin.

Xulosa qilib aytganda, me’yoriy-huquqiy baza mavjud bo‘lsa-da, boshlang‘ich sinf amaliyotida uni tizimli pedagogik ishga aylantirish borasida bir qator muammolar saqlanib qolmoqda. Birinchidan, boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining o‘zi media savodxonlik va raqamli xavfsizlik bo‘yicha maxsus metodik tayyorgarlikka ega emasligi ko‘p hollarda qayd etiladi. Ikkinchidan, mavjud darslik

va o‘quv dasturlarida milliy tarbiya mavzulari ko‘proq an’anaviy - og‘zaki va matnli - shaklda berilib, raqamli kontent bilan ishlash ko‘nikmalari yetarlicha aks ettirilmagan. Uchinchidan, oila va maktab o‘rtasidagi hamkorlik, ayniqsa bolaning uyda internetdan foydalanishini nazorat qilish borasida, ko‘pincha tizimli emas, balki tasodifiy xarakterga ega.
Olib borilgan izlanish va tahlillardan kelib chiqib bir necha taklif va tavsiyalarni berib o’tishni lozim topdik:

- boshlang‘ich sinf darsliklari mazmuniga milliy mavzudagi rasm, video va audio materiallarni tanqidiy tahlil qilishga qaratilgan qisqa amaliy mashg‘ulotlarni kiritish;
- o‘qituvchilar uchun media savodxonlik va raqamli xavfsizlik bo‘yicha uzluksiz malaka oshirish kurslarini tashkil etish;
- ota-onalar uchun bolalarning raqamli muhitdagi faoliyatini nazorat qilish va yo‘naltirish bo‘yicha oddiy, tushunarli qo‘llanmalar tayyorlash;
- maktab, oila va mahalla hamkorligida bolalar uchun xavfsiz milliy kontentli raqamli resurslar - multfilm, o‘yin, ilovalar - yaratish va targ‘ib qilishni davlat darajasida rag‘batlantirish.

XULOSA

Aytish mumkinki, boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida milliy tarbiyani shakllantirish zamonaviy raqamli davrda endi an’anaviy pedagogik vositalar bilangina cheklanib qolmasligi kerak. Raqamli immunitet va media savodxonlik milliy tarbiyaning uzviy davomi va himoya mexanizmi sifatida qaralishi, ular alohida-alohida emas, balki yaxlit pedagogik tizim doirasida shakllantirilishi lozim. O‘zbekistonda bu boradagi me’yoriy-huquqiy baza izchil rivojlanmoqda, biroq uni real ta’lim amaliyotiga, xususan boshlang‘ich sinf metodikasiga to‘liq singdirish hali yetarli darajada amalga oshirilmagan. Ushbu adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatdiki, mavzu bo‘yicha ham milliy, ham xorijiy tadqiqotchilar faol ish olib bormoqda, biroq aynan boshlang‘ich sinf yoshidagi bolalar uchun mo‘ljallangan, uchala tushunchani (milliy tarbiya, raqamli immunitet, media savodxonlik) bir tizimda birlashtiruvchi kompleks metodik ishlanmalar hamon yetishmaydi. Shu boisdan kelgusi tadqiqotlarni aynan shu yo‘nalishda - amaliy metodikalar va dars ishlanmalari ishlab chiqish tomon yo‘naltirish maqsadga muvofiqdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. - Toshkent: “O‘zbekiston”, 2023.
2. O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni, 2020-yil 23-sentyabr, O‘RQ-637-son // Lex.uz.
3. O‘zbekiston Respublikasining “Bolalarni ularning sog‘lig‘iga zarar yetkazuvchi axborotdan himoya qilish to‘g‘risida”gi O‘RQ-444-son Qonuni, 2017-yil 8-sentyabr // Lex.uz.
4. Axborot mahsulotining yoshga oid tasniflarini aniqlash mezonlari hamda uni ekspertizadan o‘tkazish tartibi to‘g‘risidagi nizom. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi qarori, 2018-yil.

5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Raqamli O‘zbekiston – 2030” strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-6079-son Farmoni, 2020-yil 5-oktabr // LexUZ - O‘zbekiston Respublikasi qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi.
6. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi. - Toshkent: “O‘zbekiston”, 2022.
7. “O‘zkomnazorat” inspeksiyasi media vakillari uchun bolalarning axborot xavfsizligiga bag‘ishlangan maxsus o‘quv kursini boshladi // Gov.uz, 2026-yil 23-iyun.
8. Babasheva G.B., Jiyanbayeva D.Q. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini o‘qitishda umummilliy qadriyatlar mohiyati // Jamiyat va innovatsiyalar. - 2025. - Maxsus son 5-2.
9. Boymirzayev A.K. Umumta’lim maktablarida o‘quvchilarni milliy qadriyatlar asosida tarbiyalashning ilmiy-nazariy asoslari // NamDU jurnali. - 2025. - 8-son.
10. Sattorova M. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida milliy g‘ururni shakllantirishning pedagogik asoslari. - Termiz davlat pedagogika instituti, 2025.
11. Umarova Sh. O‘quvchilarda milliy g‘ururni o‘stirish usullari // Journals.nuu.uz. - 2024.
12. Mahkamov U.I., Mavlonova R.A. O‘quvchilarning axloqiy va milliy ma’naviyatini shakllantirish muammolari. - Toshkent: “Fan”, 1995.
13. Jalilov U., Fayziyeva M. Ta’lim tizimida media savodxonlikning o‘rni // Jamiyat va innovatsiyalar. - 2024. - Maxsus son 5-6. - B. 320-326.
14. Boshlang‘ich ta’lim talabalari uchun media savodxonlikni oshirishning pedagogik asoslari // Ilm ham jamiyat. - 2026. - №2. - B. 27-33.
15. Yunusova D.H. Viki texnologiyasi asosida mediasavodxonlikni shakllantirish // “Xorijiy tilni o‘qitishda inkluziv metodlar va innovatsion tadqiqotlar” respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi to‘plami. - 2025-yil, 19-aprel. - B. 138-142.
16. Ta’lim tizimida media savodxonlikning o‘rni: axborot xurujlariga qarshi immunitetni shakllantirish // Jamiyat va innovatsiyalar. - 2024. - №5-6. - B. 322.
17. Bolalarni zararli axborot hujumlaridan himoya qilishning huquqiy vositalari: Yevropa davlatlari tajribasining qiyosiy-huquqiy tahlili // Jamiyat va innovatsiyalar. - 2025. - Maxsus son 2. - B. 189-196.
18. Kibermakonda bolalarni himoya qilish: O‘zbekiston qonunchiligini xalqaro standartlarga moslashtirish // Jamiyat va innovatsiyalar. - 2025. - Maxsus son 10. - B. 143-150.
19. Mahmudxodjayeva U.M. Bolalarning axborot olishi va milliy qonunchilikda uning huquqiy kafolatlari // Oriens.uz ilmiy jurnali. - B. 1149-1158.
20. O‘zbekistonda o‘quvchilarning darsda raqamli qurilmalarga chalg‘ish ko‘rsatkichi OECD o‘rtachasidan ikki baravar past // Talimxabarlari.uz, 08.09.2026.
21. Деменский М.Е. Цифровой иммунитет / науч. рук. Тажин Г.М. - МАОУ СОШ №10, г. Калининград, Россия.
22. Фивейская Е.Ю., Накисбаев Д.В. Развитие цифровой медиаграмотности школьников в контексте профильного обучения: теоретическая основа и методология // Вестник РУДН. Серия: Государственное и муниципальное управление. - 2024. - Т. 11, №4. - С. 443-452.
23. Цифровая грамотность младших школьников, встроенных в учебную практику // Bulletin-pedagogy.kaznpu.kz. - 2025.

ХАЛҚ ЧОЛҒУЛАРИДА ИЖРОЧИЛИК МАҲОРАТИНИ ШАРҚ АЛЛОМАЛАРИ АСАРЛАРИ АСОСИДА РИВОЖЛАНТИРИШ

Азамат Исломов
Ўзбекистон давлат консерваторияси “Халқ чолғуларида ижрочилик” кафедраси ўқитувчиси, “Миллий чолғу” илмий-ишлар чиқариш экспрементал лаборатория раҳбари
https://doi.org/10.5281/zenodo.23176970

Аннотация: *Мазкур мақолада бўлажак мусиқа ўқитувчиларининг халқ чолғулари ижрочилиги маҳоратини ривожлантириш масалалари юзасидан Шарқ алломалари асарларидан маълумотлар келтирилган. Мақолада асосан Шарқ мутафаккирларининг мусиқий рисолалари ўрин олган бўлиб, бугунги кунда биз томонимиздан илмий ва амалий истеъмолга киритилганлиги ва уларда халқ чолғулари ижрочилиги асослари, ижрочилик услублари даврлар кесимида таҳлил қилинганлиги ҳамда такомиллаштирилиб борилганлиги асослаб берилган.*
Калит сўзлар: *Шарқ алломалари, бўлажак ўқитувчилар, халқ чолғулари, мусиқий манбалар, ижрочилик маҳорати.*

Шарқ алломалари асарлари ва уларда халқ чолғу ижрочилигининг тадрижининг ёритилиши масалалари батафсил ўрганилган. Ўзбек халқ чолғу ижрочилиги бўйича VIII-XIX асрларда ўзига хос мусиқий манбалар яратилган бўлиб, бундай мусиқий манбаларнинг асосий турларини археологик топилмалар, халқ мусиқа оғзаки ижоди намуналари, мусиқий рисолалар ва илмий-педагогик тадқиқотлар ташкил этади. Ана шундай манбалардан энг асосийларидан бири Шарқ алломаларининг мусиқий рисолалари танланиб, бу борада Муҳаммад ибн Сириннинг “Таъбирнома”, Қутбиддин Шерозийнинг “Дуррат ут-тож”, Мавлоно Аҳмадийнинг “Созлар мунозараси” ва Самуэль Векслер томонидан XX асрда тизимлаштирилган тарихий-мусиқий маълумотлар таҳлилига ҳамда уларнинг бўлажак мусиқа ўқитувчилари халқ чолғулари ижрочилиги маҳоратини ривожлантиришдаги тизими (системаси) ва тадрижи (эволюцияси) масалаларига асосий эътибор қаратилган. Мазкур мусиқий манбалар илк бор биз томонимиздан илмий истеъмолга киритилди ва уларда халқ чолғулари ижрочилиги асослари, ижрочилик услублари даврлар кесимида таҳлил қилинганлиги ҳамда такомиллаштирилиб борилганлиги асослаб берилган.

Бу Шарқ аллоамаларининг асарларидан фойдаланиш бўлажак мусиқа ўқитувчилари халқ чолғулари ижрочилиги маҳоратини ривожлантиришда назарий-касбий билим ҳамда ижрочилик услуби билан қуроллантиришда тутган ўрни жуда каттадир. Жумладан, Муҳаммад ибн Сириннинг “Таъбирнома” асарида VIII асрда мусиқа санъатининг ва чолғу ижрочилигининг инсоннинг руҳий-эстетик шаклланишидаги аҳамияти масалалари бўйича муҳим назарий қарашлар илгари сурилган. Мисол учун,

унинг фикрича, мусиқа кишининг “ғам ва ташвишларини кетказиб, унда хурсандчилик ва сурурни пайдо қилади”. Қутбиддин Шерозийнинг “Дуррат ут-тож” асарида Чанг, Дойра, Қонун, Уд каби ўндан ортиқ халқ чолғуларининг хусусиятлари ва уларнинг ижрочилик асослари таҳлил қилиб ўтилган. Мавлано Аҳмадийнинг “Созлар мунозараси” асарида эса бугунги кунда мамлакатимизда халқ чолғулари сифатида эътироф этиладиган Танбур, Дутор, Чанг, Ғижжак каби 12 миллий чолғуларининг садоланиш имкониятлари ва уларнинг инсон тарбиясидаги аҳамияти ёритиб берилган. Шарқ алломаларининг бундай асарларидан фойдаланилган ҳолда олий педагогик таълим жараёнида бўлажак мусиқа ўқитувчиларининг халқ чолғулари ижрочилиги маҳоратини ривожлантириш муҳим назарий-касбий ҳамда педагогик аҳамиятга эга. Бунда қуйидаги асосларга биноан фойдаланиш кутилган самарани беради:

Шарқ алломалари, жумладан, Муҳаммад Ибн Сириннинг “Таъбирнома”, Қутбиддин Шерозийнинг “Дуррат ут-тож” ва Мавлона Аҳмадийнинг “Созлар мунозараси” асарларида келтирилган мусиқа санъати ҳамда ижрочилик асослари тўғрисидаги маълумотларни ўрганиш ва уларни назарий-педагогик ўзлаштириш;

бундай асарлардаги халқ чолғулари (Танбур, Дутор, Чанг, Дойра, Қўбуз, Ғижжак, Най, Рубоб каби) ижрочилиги, унинг хусусиятлари ва уларнинг шахсни мусиқа санъати воситасида тарбиялашдаги аҳамиятини педагогик-мусиқий билиш;

мазкур асарларидаги назарий-касбий билимлар ва ижрочилик услублари тўғрисидаги маълумотларнинг бўлажак мусиқа ўқитувчилари касбий тайёргарлигини амалга оширишда тутган ўрнини идрок этиш.

Бундай ёндашув олий мусиқа педагогик таълим жараёнида аудитория ва амалий машғулотлар жараёнида муҳим аҳамиятга эга. Шу сабабли олий педагогик таълим жараёнида бўлажак мусиқа ўқитувчиларига ўқитилаётган мутахассислик (мажбурий) ва танлов фанлари ўқув материалларини Шарқ алломалари мусиқа асарларидаги маълумотлар, назарий фикрлар ва ижрочилик услубларига доир ёндашувлар билан бойитилиши мақсадга мувофиқ бўлади.

Мамлакатимиз олий педагогика таълим муассасаларининг мусиқа таълими йўналишлари талабалари касбий-назарий билимларини ривожлантиришда Муҳаммад Ибн Сириннинг “Таъбирнома” асарида ҳар бир халқ чолғуларининг сеҳрли оҳанглари тўғрисидаги тажрибавий маълумотлар, Қутбиддин Шерозийнинг “Дуррат ут-тож” асарида Танбур, Дутор, Чанг (Арфа), Қўбуз каби халқ чолғуларининг лад тизимлари ҳамда ижрочилик имкониятлари ҳақидаги назарий тавсиялар ва Мавлона Аҳмадийнинг “Созлар мунозараси” асарида тавсия этилган Рубоб, Танбур, Най, Ғижжак сингари халқ

чолғуларининг тузилиш қурилмаси ҳамда садоланиш омиллари хусусидаги амалий кўрсатмаларидан фойдаланиш мақсадга мувофиқ бўлади.

Шарқ алломалари асарлари асосида бугунги мусиқа таълими жараёнини такомиллаштириш масалаларига доир тадқиқотлар амалга оширилган. Жумладан, О.Матьёқубов Фаробийнинг мусиқа назарияси масалаларини ва қадимги мақом чолғу ижрочилиги муаммоларини, Р.Юнусов замонавий мусиқа ижрочилигида анъанавий мумиоз мусиқа ижрочилиги тажрибаларидан фойдаланиш, О.Ибрагимов томонидан Шашмақом ва Фарғона-Тошкент мақомлари чолғу ижрочилиги анъаналари, Т.Ғофирбеков мумтоз халқ мусиқа ижоди намуналарини ўзлаштириш, О.Ташматова қадимги халқ чолғуларини тиклаш, Г.Эргашева анъанавий чолғу ижрочилигида, жумладан, Чанг чолғу ижрочилигида анъанавийлик ва замонавийлик, Д.Каримова замонавий мусиқа таълимида мусиқий манбалардан фойдаланиш масалаларини тадқиқ этмоқда.

Айни пайтда, Р.Қодиров томонидан мусиқа педагогикаси муаммоларини тизимлаштириш ва бунда мумтоз мусиқий манбалардан оқилона фойдаланиш масалаларини тадқиқ этаётганлигини таъкидлаш лозим. Шунингдек, ёш педагог олимлао томонидан мусиқа таълими ва тарбиясида Қутбиддин Шерозий, Дарвеш Али Чангий каби мумтоз мутафаккирларнинг асарларидан фойдаланиш методикасига доир тадқиқотлар мажмуи олиб борилмоқда. Буларнинг барчаси Шарқ алломалари асосида халқ чолғулари ижрочилиги маҳорати бўйича бўлажак мусиқа ўқитувчиларига назарий-методик кўникмаларга беришга илмий-педагогик асос бўлмоқда.

Чунки мазкур халқ чолғулари бугунги кунда ҳам мамлакатимиз халқ чолғулари ижрочилигида кенг қўлланиб келинмоқда ва таъкидланган Шарқ алломаларининг назарий-амалий қарашларидан фойдаланиш бўлажак мусиқа ўқитувчиларининг ижрочилик маҳоратини ривожлантиришда муҳим педагогик асослар бўлиб хизмат қилинади.

Эндиги навбат, мазкур манбалардан фойдаланишнинг таҳлил ва анъана воситаларига. Бу масалаларда шуни таъкидлаш лозимки, VIII-XIX асрларда яратилган Шарқ алломаларининг мусиқий асарларида халқ чолғу ижрочилигининг ўз давридаги асослари, хусусиятлари ва услублари мусиқа санъатининг муҳим таркибий қисми сифатида ёритиб ўтилган. Жумладан, Қутбиддин Шерозийнинг “Дуррат ут-тож” асарида халқ чолғуларининг мақомлар, анъанавий асарлар ва махсус базмлардаги ижрочилик хусусиятлари ҳамда улардаги фарқли жиҳатлар ёритиб берилган.

Демак, бўлажак мусиқа ўқитувчиларининг назарий билим ва ижрочилик кўникмасини ривожлантиришда бу каби маълумотлардан фойдаланиш мақсадга мувофиқ бўлади. Чунки бу ўринда Шерозий халқ чолғулари ижрочилиги турли ҳолатлар ва анъаеалар асосида ривожланиб келганлиги тўғрисида маълумот беради. Мавлоно Аҳмадий “Созлар мунозараси” асарида

бугунги кунда халқ чолғулари сифатида эътироф этилган тарихий-миллий чолғуларимизнинг хусусиятларини таҳлил қилади ва чолғулардаги бу хусусиятлар уларнинг ижросида акс этишини алоҳида таъкидлаган. Масалан, у асрлар давомида Уд чолғу ижрочилиги халқона анъаналарига эга бўлганлиги, лекин унинг даврида (XV аср I ярмида) Танбур чолғу ижрочилиги устувор аҳамиятга эга бўлганлигини алоҳида таъкидлайди. Бундай маълумот бўлажак мусиқа ўқитувчиларининг халқ чолғулари ижрочилиги услубларини даврлар кесимида устувор аҳамиятга эга бўлган йўналишларда ўзлаштириши учун ўзига хос восита ва мезон ҳисобланади.

Бугунги кунга қадар Танбур халқ чолғу ижрочилиги миллий мусиқа санъатимизда устувор йўналишлардан бири сифатида бўлиб келмоқда, айни пайтда, XX аср II ярмида қадимий Уд халқ чолғу ижрочилиги ҳам устувор йўналишлардан бири сифатида тикланганлигини таъкидлаш лозим. Шунингдек, Мавлано Аҳмадий таъкидлаб ўтган Чанг, Ғижжак, Қонун каби чолғуларнинг бугунги кунда халқ чолғулари сифатида мамлакатимиз мусиқа маданиятида муҳим ўрин тутиши ва уларнинг тарихий-ижрочилик услубларини ўзлаштириш баўлажак мусиқа ўқитувчиларининг маҳоратини ривожлантиришда муҳим анъанавий воситалардан ҳисобланади.

Олий педагогик таълим жараёнида Шарқ алломалари асосида бўлажак мусиқа ўқитувчиларининг халқ чолғулари ижрочилиги маҳоратини ривожлантиришда ана шундай таҳлил ва анъана воситаларидан фойдаланиш механизмлари диссертацияда батафсил таҳлил қилинган. Буларнинг барчаси Шарқ алломалари асарларидан олий педагогик таълим жараёнида бўлажак мусиқа ўқитувчиларининг халқ чолғулари ижрочилиги маҳоратини ривожлантиришдаш таҳлил ва анъана методик асосларидан фойдаланиш самарали эканлиги диссертацияда асослаб берилган.

Мазкур масалалар бўйича муҳим педагогик ва методик ёндашувларни тақдим этиш тақозо этилади. Шу жиҳатдан бизнинг қарашларимиз ва ёндашувларимизга кўра қуйидагиларга эътибор бериш бўлажак мусиқа ўқитувчиларининг халқ чолғулари ижрочилиги бўйича маҳоратини ривожлантиришда муҳим ўрин тутади:

Муҳаммад Ибн Сирин, Қутбиддин Шерозий ва Мавлона Аҳмадийнинг халқ чолғулари ижрочилиги маҳорати бўйича машҳур созандаларнинг услубларини ўзлаштириш;

ушбу Шарқ алломалари асарларида халқ чолғуларининг созланиш, садоланиш ва уларнинг ижрочилигида индивидуал ёндашув методикаларининг тавсифларини ўрганиш ҳамда амалий ижрочилик фаолиятида улардан фойдаланиш;

қадимий халқ чолғулари ва бугунги кунда истеъмолдан чиққан Кунгура (бир косали ва бир торли Рубобга ўхшаш чолғу). Шамома (ҳозирги

Ғижжакнинг қадимий шакли) каби шаклларининг ижрочилик хусусиятларидан уларнинг замонавий турлари ижрочилигида педагогик-тажрибавий амалий қўллаш;

бу каби Шарқ алломаларининг асарларида халқ чолғулари ижрочилиги маҳорати бўйича тақдим этилган амалий тавсияларни бўлажак мусиқа ўқитувчилари томонидан методик ўзлаштиришини ташкил қилиш.

Бундай ёндашув ва муайян характердаги педагогик тавсиялар олий педагогик таълим муассасаларида бўлажак мусиқа ўқитувчиларининг халқ чолғулари ижрочилиги маҳоратини Шарқ алломалари асарлари асосида ривожлантириб боришнинг замонавий имкониятларини беради. Шуни таъкидлаш лозимки, бугунги мусиқа таълими жараёнида Шарқ алломалари асарларидан фойдаланган ҳолда бўлажак мусиқа ўқитувчиларининг халқ чолғулари ижрочилиги бўйича маҳоратини шакллантиришда компьютерли дастурларга асосланган технологиялар, мультимедиали технологиялар ва рақамли технологиялардан оқилона фойдаланилмоқда. Жумладан, Шарқ аллаомаларининг мусиқа асарларида берилган қадимги нота ёзувлари ҳозирги замон нота тизими асосида ўрганилаётганлиги педагогик жиҳатдан муҳим технологик ҳодисадир. Бунда халқ чолғулари ижрочилиги бўйича бўлажак мусиқа ўқитувчиларининг касбий билим ва кўникмалари анъанавий ва замонавий тажрибалар уйғунлиги асосида таркиб топтирилаётганлигини педагогик ютуқ сифатида қабул қилиш мақсадга мувофиқ бўлади.

Юқорида билдирилган фикр-мулоҳазаларга асосланиб қуйидаги хулосага келиш мумкин:

биринчидан, ўзбек мусиқа санъати ривожида VIII-XIX асрларда яратилган мусиқий рисолалар муҳим манбалар ҳисобланади. Бу борада Муҳаммад ибн Сириннинг “Таъбирнома”, Қутбиддин Шерозийнинг “Дуррат ут-тож”, Мавлоно Аҳмадийнинг “Созлар мунозараси” ва Дарвеш Али Чангийнинг “Мусиқа рисоласи” каби асарларда мусиқа санъати асослари ва унда халқ чолғулари ижрочилигининг аҳамияти масалалари даврлар кесимида чуқур ёритиб берилган. Мазкур манбалардан олий педагогик таълим жараёнида бўлажак мусиқа ўқитувчиларининг халқ чолғулари ижрочилиги малакасини шакллантиришда фойдаланиш уларни назарий-касбий билимларини кучайтиришда муҳим аҳамиятга эга эканлигига;

иккинчидан, мусиқий манбаларда ёритилган халқ чолғу ижрочилиги асосларининг VIII-XIX асрлардаги тадрижий ривожини ўрганиш бўлажак мусиқа ўқитувчиларининг Чанг, Танбур, Дутор, Ғижжак, Уд, Руд, Қонун, Дойра, Ноғора каби 20 га яқин халқ чолғулари хусусиятлари ҳамда ижрочилик бўйича тарихий-мусиқий услубларини ўзлаштиришида амалий ўрин тутади. Чунки халқ чолғулари ижрочилигининг тарихий-мусиқий услублари ўзининг

ранг-баранглиги ва маҳорат жиҳатидан турли усулларга эгалиги билан ажралиб туриши далилланганлигига;

учинчидан, бўлажак мусиқа ўқитувчиларининг халқ чолғулари ижрочилиги малакасини кутилган даражада шакллантириш учун манбалардан таҳлил ва анаъана воситалари асосида фойдаланиш мақсадга мувофиқ бўлади. Негаки тарихий-мусиқий манбаларни таҳлилий ўрганиш воситасида халқ чолғу ижрочилигининг тадрижий равишда ривожланиб келган услублари тўғрисида амалий кўникмага эга бўлинади ва манбаларда ифодаланган халқ чолғулари ижрочилик анъаналарини ўрганиш воситасида ижрочилик малакасини кучайтириш омилларини имкониятлари аниқланганлигига;

тўртинчидан, бўлажак мусиқа ўқитувчиларининг халқ чолғулари ижрочилиги малакаси манбалар асосида шаклланганлик даражасини баҳолаш учун уларнинг асосий мусиқий манбаларни билиши, манбаларда ёритилган халқ чолғу ижрочилиги тажрибаларини ўзлаштирганлиги ва ўзлаштирганларини амалий фаолиятда қўллай олиш кўникмасига эгалиги мезонларига асосланиш самара бўлиши аниқланганлигига;

бешинчидан, Олий педагогик жараёнида ўқитилаётган мутахассислик (мусиқий) мажбурий фанлари (“Мусиқа назарияси”, “Мусиқа методикаси”, “Чолғу ижрочилиги”, “Болалар мусиқа адабиёти” каби ўқув фанлари) тарихий-мусиқий манбаларда ёритилган назарий-касбий билимлар ва чолғу ижрочилик услубиёти асослари билан бойитилиши мақсадга мувофиқлигига.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати

1. Мавлоно Аҳмадий. Созлар мунозараси. //Муборак мактублар. Матнлар тўплами. – Т.: Ғ.Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти. 1987. – б. 320-328.
2. Мухаммад ибн Сирин. Туш таъбирномаси. – Т.: Моварауннаҳр. 2015. – 310 б.
3. Қутбиддин Шерозий. Дуррат ат-тож. – Баку. : ЫЛЫМ. 2001. – 310 с.
4. Лутфуллаев А.Қ. Бобур ва мусиқа. // Тил ва адабиёт журнали. Тошкент, 2021. 2 – сон.

TALABALARDA INTERNET MULOQOTI ETIKASI VA RAQAMLI KOMMUNIKATIV MAS’ULIYATNI SHAKLLANTIRISH MASALALARI

Islomova Shahlo Madat qizi
Navoiy davlat universiteti 2-bosqich tayanch doktoranti
https://doi.org/10.5281/zenodo.23176996

Annotatsiya. *Maqolada talabalarda internet muloqoti etikasi va raqamli kommunikativ mas’uliyatni shakllantirishning pedagogik asoslari tahlil qilinadi. Xalqaro raqamli fuqarolik, onlayn disinhibitsiya va axborot etikasi konsepsiyalari mahalliy pedagogik texnologiya hamda milliy tarbiya yondashuvlari bilan uyg‘unlashtirildi. Internetdagi axloqiy xulqni faqat taqiqlar orqali boshqarish yetarli emasligi, talaba xabarining mazmuni, manbasi, ohangi va oqibatini baholay oladigan refleksiv pozitsiyani rivojlantirish zarurligi asoslandi. Oliy ta’lim uchun qadriyatli, kognitiv, amaliy va refleksiv komponentlardan iborat pedagogik model hamda o‘lchanadigan mezonlar taklif etildi.*

Kalit so‘zlar: *internet muloqoti, kommunikativ madaniyat, raqamli etika, raqamli fuqarolik, netiket, kommunikativ mas’uliyat, refleksiya.*

KIRISH

Internet tarmoqlari talabaning ta’limiy, kasbiy va shaxsiy muloqotini yagona kommunikativ makonda birlashtirdi. Xabarni tez yuborish, keng auditoriyaga chiqish va axborotni ko‘paytirish imkoniyati talabaning kommunikativ erkinligini oshiradi, biroq xatoni ham tez tarqatadi. Haqoratli izoh, tekshirilmagan xabar, mualliflik manbasini ko‘rsatmaslik, shaxsiy yozishmani oshkor qilish yoki sun’iy yaratilgan materialni o‘z nomidan taqdim etish bir vaqtning o‘zida axloqiy, huquqiy va pedagogik muammoga aylanadi. Shuning uchun internet muloqoti etikasi odobli iboralar to‘plami emas, raqamli harakatning boshqa insonlar va jamoaga ta’sirini anglab tanlov qilish qobiliyatidir.

Raqamli kommunikativ mas’uliyat talabaning yaratgan, uzatgan yoki qo‘llab-quvvatlagan xabari uchun javobgarlikni qabul qilishi, ma’lumotning ishonchliligini tekshirishi, suhbatdosh sha’ni va maxfiyligini saqlashi, fikr erkinligini zarar yetkazmaslik tamoyili bilan muvofiqlashtirishini anglatadi. Mazkur tushuncha kommunikativ madaniyatning internet muhitidagi amaliy ifodasidir. Uning tarkibida bilim, qadriyat, xatti-harakat va refleksiya ajralmas birlikni tashkil etadi.

Maqolaning maqsadi talabalarda internet muloqoti etikasi va raqamli kommunikativ mas’uliyatni shakllantirish mexanizmlarini xalqaro hamda mahalliy ilmiy qarashlar asosida tahlil qilish, oliy ta’lim uchun pedagogik model va baholash mezonlarini taklif etishdan iborat. Tadqiqotda qiyosiy tahlil, nazariy umumlashtirish va pedagogik modellashtirish usullaridan foydalanildi. Asosiy savol quyidagicha qo‘yildi: internetdagi mas’uliyatli muloqotni bir martalik targ‘ibotdan barqaror kommunikativ xulqqa qanday aylantirish mumkin?

Floridi axborot etikasida axborot muhitidagi harakatni faqat texnik almashinuv sifatida emas, inson va jamiyat manfaatlariga daxldor axloqiy tanlov sifatida ko‘radi

[2]. Ushbu yondashuvdan kelib chiqib, talabaning post, izoh, repost yoki guruh xabari axborot obyektigina emas, boshqa ishtirokchilarning obro‘si, xavfsizligi va qaroriga ta’sir qiladigan harakatdir. Demak, raqamli mas’uliyat “nima yozish mumkin?” savolidan tashqari “xabar kimga, qanday sharoitda va qanday oqibat bilan yetib boradi?” savolini ham qamrab oladi.

Ribble raqamli fuqarolikni texnologiyadan tegishli va mas’uliyatli foydalanish me’yorlari bilan bog‘lab, raqamli etiket, huquq, xavfsizlik hamda huquq va mas’uliyatlarni o‘zaro aloqada talqin qiladi [3]. Choi raqamli fuqarolik konsepsiyasini axloq, media va axborot savodxonligi, tanqidiy ishtirok hamda onlayn faollik bilan kengaytiradi [4]. Jones va Mitchell esa raqamli fuqarolikni o‘lchashda onlayn hurmat va fuqarolik faolligini ajratadi [5]. Bu qarashlar internet etikasi bilimni yodlash emas, axborotni baholash va mas’uliyatli ishtirokni amalda namoyon etish bilan aniqlanishini ko‘rsatadi.

Internet muhitining psixologik xususiyatlari etik xulqni murakkablashtiradi. Suler ta’riflagan onlayn disinhibitsiya holatida anonimlik, ko‘rinmaslik va javobning kechikishi insonni yuzma-yuz muloqotda aytmaydigan fikrni yozishga undashi mumkin [6]. Waltherning kompyuter vositasidagi muloqot modeli cheklangan ijtimoiy signallar sharoitida ishtirokchilar bir-biri haqidagi tasavvurni tanlab berilgan axborot asosida kuchaytirib qurishini tushuntiradi [7]. Shuning uchun emoji, tinish belgisi, katta harf, javob berish vaqti yoki kontekstdan uzilgan jumla kutilmagan kommunikativ ziddiyat tug‘dirishi mumkin.

Kan raqamli savodxonlik texnik, kognitiv va ijtimoiy-emotsional o‘lchovlarni birlashtirishini asoslaydi [8]. Talaba platformadan foydalanishni bilishi uning manbani tekshirishi, shaxsiy chegarani anglashi yoki bahsni madaniyatli olib borishini kafolatlamaydi. Shu sababli texnik ko‘nikmani etik kompetensiyaga tenglashtirish xato. Raqamli kommunikativ mas’uliyat dalilni tekshirish, auditoriyani hisobga olish, zarar xavfini baholash va xabarni tuzatishga tayyorlik orqali namoyon bo‘ladi.

Mahalliy pedagogik yondashuvlarda tarbiya va ta’lim natijasi maqsad, mazmun, metod hamda baholashning tizimli bog‘lanishi orqali shakllanishi qayd etiladi. Tolipov va Usmonboyeva pedagogik texnologiyani oldindan loyihalangan natijaga olib boruvchi yaxlit jarayon sifatida ko‘radi [9]. Ishmuhamedov interfaol ta’limda muammoli vaziyat, guruhiy hamkorlik va teskari aloqaning talaba faolligiga ta’sirini ko‘rsatadi [10]. Bu tamoyillar internet etikasini faqat ma’naviyat soatida tushuntirish yetarli emasligini anglatadi: etik tanlov fan topshirig‘i, guruh muloqoti va baholash mezoniga kiritilishi kerak.

Tadqiqot metodologiyasi

Taklif etilayotgan model to‘rt komponentdan iborat. Qadriyatli komponent suhbatdosh sha’ni, rostgo‘ylik, adolat, maxfiylik va zarar yetkazmaslikka ichki munosabatni ifodalaydi. Kognitiv komponent netiket, mualliflik huquqi, shaxsiy

ma’lumot, ishonchli manba, raqamli iz va manipulyativ axborot haqidagi bilimlarni qamrab oladi. Amaliy komponent xabarni auditoriyaga mos yozish, dalil keltirish, nizoni yumshatish, noto‘g‘ri axborotni tuzatish va hamkorlikda qaror qabul qilishda ko‘rinadi. Refleksiv komponent esa talabaning yuborishdan oldin xabarni qayta ko‘rib chiqishi va oqibatdan keyin o‘z harakatini baholashidir.

Modelning boshlang‘ich bosqichi diagnostikaga tayanadi. Anonim so‘rovning o‘zi yetarli emas, chunki respondent o‘zini ijtimoiy maqbul tarzda tasvirlashi mumkin. Diagnostikaga vaziyatli topshiriq, talaba roziligi va maxfiylik sharti bilan o‘quv guruhidagi depersonallashtirilgan yozishmalar tahlili, o‘zini baholash hamda ekspert kuzatuvi kiritiladi. Masalan, talabaga tekshirilmagan xabarni guruhga yuborish, keskin tanqidga javob berish yoki kursdoshining suratini ulashish bilan bog‘liq vaziyat taklif qilinadi. Javobda tanlov, uning sababi va ehtimoliy oqibat baholanadi.

Rivojlantiruvchi bosqichda muammoli ta’lim va keys-stadi samarali vosita bo‘la oladi. “Guruhda tarqalgan noto‘g‘ri ma’lumot”, “anonim haqoratli izoh”, “sun’iy intellekt yordamida tayyorlangan matnning mualliffligi” kabi keyslar talabaning etik mezonni real qarorga tatbiq etishini talab qiladi. Guruhlar manfaatdor tomonlarni, yetkazilishi mumkin bo‘lgan zararni, huquq va majburiyatlarni ajratadi, bir nechta yechimni solishtiradi. O‘qituvchi tayyor hukm bermaydi; u “Bu xabarning dalili nima?”, “Rozilik olinganmi?”, “Xuddi shu fikrni shaxsga zarar yetkazmasdan qanday ifodalash mumkin?” kabi savollar bilan qaror mantig‘ini ochadi.

Milliy tarbiya mazmuni internet etikasi bilan sun’iy ravishda qo‘shilmasligi kerak. Hurmat, andisha, rostgo‘ylik, o‘zaro yordam va jamoa oldidagi mas’uliyat raqamli vaziyatda aniq xatti-harakatga aylantirilgandagina pedagogik qiymat kasb etadi. Masalan, kattaga hurmat tanqidni butunlay rad etish emas, uni dalil va maqbul ohangda bayon qilishni anglatadi. Andisha muammoni yashirish emas, shaxsiy ma’lumotni oshkor qilmay turib masalani hal qilish yo‘lini tanlashdir. Bunday talqin milliy qadriyatlarni passiv itoatga emas, mas’uliyatli dialogga xizmat qildiradi.

Institutsional muhit ham individual tarbiyaga mos bo‘lishi zarur. OTMning rasmiy guruhlari uchun qisqa raqamli muloqot reglamenti, murojaat va konfliktni hal etish tartibi, akademik halollik qoidasi hamda pedagoglarning yagona kommunikativ talabi ishlab chiqilmasa, talaba qarama-qarshi signallar oladi. Tyutor, fan o‘qituvchisi, yoshlar yetakchisi va guruh moderatori vazifalarining aniq taqsimlanishi muhim. Bunda nazoratning maqsadi yozishmani ommaviy kuzatish emas, xavfsiz muloqot me’yorlarini tushuntirish, buzilish yuz berganda tiklovchi yondashuvni qo‘llash va takroriy holatning oldini olishdir.

Natijalar

Raqamli kommunikativ mas’uliyat besh mezon orqali baholanishi mumkin. Birinchi mezon — axborot ishonchliligi: manbani aniqlash, dalilni tekshirish va noaniqlikni ochiq ko‘rsatish. Ikkinchisi — etik-huquqiy muvofiqlik: mualliflik,

rozilik, maxfiylik va shaxsiy daxlsizlikka rioya qilish. Uchinchisi — kommunikativ sifat: fikrning aniqligi, dalilliligi, ohangi va auditoriyaga mosligi. To‘rtinchisi — hamkorlik: savolga mazmunli javob, boshqa fikrni xolis qayta ifodalash va nizoni konstruktiv boshqarish. Beshinchisi — refleksiya: xabarning ehtimoliy oqibatini oldindan baholash, xatoni tan olish va tuzatish.

Har bir mezon 0 dan 3 ballgacha baholanadi: 0 — mezon namoyon bo‘lmagan; 1 — tashqi eslatma bilan qisman bajarilgan; 2 — odatiy vaziyatda mustaqil, murakkab vaziyatda beqaror; 3 — turli vaziyatlarda izchil va asoslangan tarzda namoyon bo‘lgan. Umumiy 15 ball reproduktiv, funksional va mas’uliyatli-refleksiv darajalarga ajratiladi. Natijani faqat o‘zini baholash bilan o‘lchash noto‘g‘ri; vaziyatli javob, raqamli mahsulot, tengdosh fikri va o‘qituvchi kuzatuvi birlashtirilishi lozim.

Ta’limiy samaradorlikni aniqlash uchun boshlang‘ich va yakuniy diagnostikadagi bir xil murakkablikdagi, lekin mazmunan boshqa keyslar qo‘llanadi. O‘sish faqat umumiy ball bilan emas, talabaning dalilsiz repostdan voz kechishi, maxfiy ma’lumotni ajrata olishi, keskin xabarni qayta tuzishi va xatosini ochiq tuzatishi kabi xulqiy ko‘rsatkichlarda qayd etiladi. Shu tarzda baholash axloqiy deklaratsiyani kuzatiladigan kommunikativ harakatdan ajratadi.

Mazkur model fanlararo xususiyatga ega. Pedagogika fanida ota-ona bilan onlayn muloqot, texnik yo‘nalishda loyiha guruhidagi yozishma, tibbiyotda bemor ma’lumotining maxfiyligi, iqtisodda reklama va ma’lumotning haqqoniyligi keys sifatida qo‘llanishi mumkin. Umumiy mezonlar saqlanadi, vaziyat esa kasbiy kontekstga moslashadi. Natijada internet etikasi alohida nazariy mavzu bo‘lib qolmay, mutaxassisning kasbiy kommunikativ madaniyatiga qo‘shiladi.

XULOSA

Talabalarda internet muloqoti etikasi va raqamli kommunikativ mas’uliyatni shakllantirish texnik ko‘rsatma yoki taqiqlar ro‘yxati bilan yakunlanmaydi. Barqaror natija talaba axborotni tekshirishi, suhbatdosh huquqini hisobga olishi, fikrini asosli va hurmatli ifodalashi hamda o‘z xabarining oqibatini baholashi bilan aniqlanadi. Xalqaro raqamli fuqarolik va axborot etikasi qarashlari ushbu kompetensiyaning ko‘p o‘lchovli ekanini, mahalliy pedagogik yondashuvlar esa uni maqsad, faoliyat va baholash birligida loyihalash zarurligini ko‘rsatadi.

Oliy ta’limda diagnostik keyslar, muammoli muhokama, kommunikativ vaziyatlarni modellashtirish, refleksiv tahlil va analitik rubrikani bir tizimda qo‘llash tavsiya etiladi. Institutsional qoidalar pedagoglarning shaxsiy talablariga zid kelmasligi, monitoring esa jazolashdan ko‘ra profilaktika va tiklovchi muloqotga xizmat qilishi kerak. Keyingi empirik tadqiqotlarda taklif etilgan 15 ballik mezonning ishonchliligi va turli ta’lim yo‘nalishlaridagi samaradorligini tajriba va nazorat guruhlari asosida tekshirish maqsadga muvofiq.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti. O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida. PF–5847-son Farmon, 2019-yil 8-oktabr.
2. Floridi, L. The Ethics of Information. Oxford: Oxford University Press, 2013. 384 p. Foydalanilgan sahifalar: 1–18.
3. Ribble, M. Digital Citizenship in Schools: Nine Elements All Students Should Know. 3rd ed. Eugene, OR: International Society for Technology in Education, 2015. 192 p. Foydalanilgan sahifalar: 15–44.
4. Choi, M. A concept analysis of digital citizenship for democratic citizenship education in the internet age. Theory and Research in Social Education, 2016, 44(4), pp. 565–607.
5. Jones, L. M., Mitchell, K. J. Defining and measuring youth digital citizenship. New Media & Society, 2016, 18(9), pp. 2063–2079.
6. Suler, J. The online disinhibition effect. CyberPsychology and Behavior, 2004, 7(3), pp. 321–326.
7. Walther, J. B. Computer-mediated communication: Impersonal, interpersonal, and hyperpersonal interaction. Communication Research, 1996, 23(1), pp. 3–43.
8. Ng, W. Can we teach digital natives digital literacy? Computers and Education, 2012, 59(3), pp. 1065–1078.
9. Tolipov, O‘. Q., Usmonboyeva, M. Pedagogik texnologiyalarning tatbiqiy asoslari. Toshkent: Fan, 2006. 260 b. Foydalanilgan sahifalar: 16–38.
10. Ishmuhamedov, R. J. Innovatsion texnologiyalar yordamida ta’lim samaradorligini oshirish yo‘llari. Toshkent: Nizomiy nomidagi TDPU, 2005. Foydalanilgan sahifalar: 12–31.

DEVIANT XULQLI MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNI MA’NAVIY VA AXLOQIY TARBIYALASH

Jabborova Muattar Xatamovna
Jizzax shahar maktabgacha va maktab ta’limi bo‘limiga qarashli 1-sonli umumiy o‘rta ta’lim maktabi musiqa fani o‘qituvchisi
https://doi.org/10.5281/zenodo.23177029

Annotatsiya. *Mazkur maqolada maktabgacha yoshdagi bolalarda deviant xulq-atvorning oldini olish va uni pedagogik jihatdan korreksiya qilishda milliy hamda umuminsoniy qadriyatlarning o‘rni tahlil qilinadi. Bolalik davrida shakllanadigan xulq-atvor me’yorlari, oilaviy muhit, tarbiyachi va pedagogning shaxsiy namunasi, milliy urf-odatlar, o‘yinlar va o‘yinchoqlarning ma’naviy-axloqiy tarbiyadagi imkoniyatlari yoritiladi. Shuningdek, bolalarda hurmat, mehr-oqibat, halollik, rostgo‘ylik, mas’uliyat, hamjihatlik va insonparvarlik kabi ijobiy sifatlarni shakllantirish orqali salbiy xulq ko‘rinishlarining oldini olishga qaratilgan pedagogik yondashuvlar asoslab beriladi.*

Kalit so‘zlar: *deviant xulq, maktabgacha yosh, ma’naviy-axloqiy tarbiya, milliy qadriyatlar, umuminsoniy qadriyatlar, xulq-atvor, profilaktika, oila, maktabgacha ta’lim, o‘yin, o‘yinchoq, ijtimoiy moslashuv.*

Аннотация. *В статье анализируется роль национальных и общечеловеческих ценностей в духовно-нравственном воспитании детей дошкольного возраста, имеющих признаки девиантного поведения, а также в предупреждении и педагогической коррекции негативных форм поведения. Рассматриваются значение семейной среды, личного примера педагога, национальных традиций, игр и игрушек в формировании уважения, доброжелательности, честности, ответственности, взаимопомощи и других социально приемлемых качеств. Обосновываются педагогические подходы, направленные на раннюю профилактику девиантного поведения.*

Ключевые слова: *девиантное поведение, дошкольный возраст, духовно-нравственное воспитание, национальные ценности, общечеловеческие ценности, поведение, профилактика, семья, дошкольное образование, игра, игрушка, социальная адаптация.*

Abstract. *The article analyzes the role of national and universal human values in the spiritual and moral education of preschool children with signs of deviant behavior, as well as in preventing and pedagogically correcting negative behavioral patterns. The importance of the family environment, the teacher’s personal example, national traditions, games and toys in developing respect, kindness, honesty, responsibility, cooperation and other socially acceptable qualities is considered. Pedagogical approaches aimed at early prevention of deviant behavior are substantiated.*

Keywords: *deviant behavior, preschool age, spiritual and moral education, national values, universal human values, behavior, prevention, family, preschool education, game, toy, social adaptation.*

KIRISH.

Zamonaviy jamiyatda yosh avlodni har tomonlama barkamol etib tarbiyalash, ayniqsa, maktabgacha yosh davridan boshlab uning ma’naviy-axloqiy dunyosini shakllantirish dolzarb vazifalardan biridir. Bola shaxsining dastlabki ijtimoiy tajribasi oilada va maktabgacha ta’lim muhitida tarkib topadi. Shu sababli aynan shu davrda bolaning xatti-harakatlarida namoyon bo‘ladigan salbiy tendensiyalarni o‘z

vaqtida aniqlash va ularning barqaror xulq shakliga aylanishining oldini olish muhimdir.

Deviant xulq-atvorni maktabgacha yoshdagi bolalarda jamiyat va guruh tomonidan qabul qilingan xulq me’yorlaridan chetga chiqadigan, takroriy salbiy xatti-harakatlar sifatida ko‘rish mumkin. Bunday holatlar tajovuzkorlik, haddan tashqari itoatsizlik, tengdoshlari bilan doimiy nizolashish, o‘yin qoidalariga rioya qilmaslik, boshqalarning buyumlariga tajovuz qilish kabi ko‘rinishlarda namoyon bo‘lishi mumkin. Shu bilan birga, bunday xatti-harakatlarning har biri bolaning rivojlanish bosqichini hisobga olgan holda pedagogik va psixologik jihatdan ehtiyotkorlik bilan baholanishi lozim.

Milliy va umuminsoniy qadriyatlar bolaga ijtimoiy xulq me’yorlarini amaliy tarzda singdirishning samarali vositalaridan biridir. Kattaga hurmat, ota-onaga ehtirom, tengdoshga mehribonlik, halollik, rostgo‘ylik, o‘zaro yordam va hamjihatlik kabi qadriyatlar bolaning kundalik faoliyatida muntazam namoyon etilsa, ular asta-sekin ichki ehtiyojga aylanadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI.

Maktabgacha pedagogikaga oid manbalarda bolaning shaxsiyati va xulq-atvorini shakllantirishda tarbiya, faoliyat, oila muhiti va pedagogik ta’sirning o‘rni alohida ta’kidlanadi. P. Yusupova, O.I. Xasanboeva, Sh.A. Sodiqova va boshqa tadqiqotchilarning maktabgacha ta’limga oid qarashlari bolada ma’naviy-axloqiy sifatlar, muomala madaniyati va ijtimoiy ko‘nikmalarni shakllantirish masalalarini yoritadi.

Milliy tarbiya mazmunida xalqning urf-odatlari, an’analari, maqol va hikmatlari, milliy o‘yinlar hamda oilaviy munosabatlar muhim tarbiyaviy vosita hisoblanadi. Abu Nasr Forobiy, Abu Ali Ibn Sino, Mahmud Qoshg‘ariy, Alisher Navoiy, Abdulla Avloniy kabi mutafakkirlar qarashlarida ham insonning axloqiy kamoloti, odob, ezgulik va faoliyat orqali tarbiyalanishi masalalari muhim o‘rin egallaydi.

Mazkur yondashuvlarni deviant xulqning profilaktikasi bilan bog‘lash shundan iboratki, bola salbiy xatti-harakat uchun faqat jazolanmasdan, uning o‘rniga ijtimoiy maqbul xulqning aniq namunasini o‘rganadi. Demak, milliy qadriyatlar ma’naviy-axloqiy tarbiyaning mazmunini boyitish bilan birga, bolaning xulq-atvorini ijobiy yo‘nalishga burishga xizmat qilishi mumkin.

NATIJALAR.

Tahlil natijasida maktabgacha yoshdagi bolalarda deviant xulqning oldini olishda milliy va umuminsoniy qadriyatlarni kundalik tarbiya jarayoniga singdirishning bir necha yo‘nalishlarini ajratish mumkin. Birinchidan, bola bilan muntazam axloqiy suhbatlar olib borish orqali yaxshi va yomon xatti-harakatlar o‘rtasidagi farq sodda misollar asosida tushuntiriladi. Ikkinchidan, ijobiy xulq pedagog va ota-onaning shaxsiy namunasi orqali mustahkamlanadi. Uchinchidan,

o‘yin faoliyatida navbat kutish, qoidalarga rioya qilish, sherigiga yordam berish va nizoli vaziyatni tinch yo‘l bilan hal qilish kabi ko‘nikmalar shakllantiriladi.

Milliy o‘yinchoq va qo‘g‘irchoqlardan ham ma’naviy-axloqiy tarbiya vositasi sifatida foydalanish mumkin. O‘yinchoq orqali bola oila, mehnat, kasb, kattalar va tengdoshlar bilan munosabatlar haqidagi tasavvurlarini boyitadi. Tarbiyachi o‘yin jarayonida “qanday qilib do‘stiga yordam berish mumkin?”, “o‘yinchoqni bo‘lishish nima uchun kerak?”, “nizoni qanday tinch hal qilish mumkin?” kabi savollar orqali bolaning axloqiy fikrlashini rivojlantirishi mumkin.

Oilada ham izchil talab va ijobiy namuna bo‘lishi zarur. Bola kattalarning bir-biriga hurmat bilan murojaat qilishi, muammolarni zo‘ravonliksiz hal qilishi va va’dasiga amal qilishini kuzatish orqali xulq me’yorlarini o‘zlashtiradi. Shuning uchun deviant xulq profilaktikasi individual bola bilan ishlash bilangina cheklanmay, uning ijtimoiy muhitini ham tarbiyaviy jihatdan takomillashtirishni talab qiladi.

MUHOKAMA.

Maktabgacha yoshdagi bolalarni ma’naviy-axloqiy tarbiyalash jarayonida asosiy maqsad bolaning salbiy xatti-harakatini shunchaki bostirish emas, balki uning sababini tushunish va ijobiy xulqni shakllantirishdan iborat bo‘lishi kerak. Pedagog bolaning shaxsini emas, uning muayyan xatti-harakatini baholashi maqsadga muvofiq. Masalan, bolani “yomon” deb atash o‘rniga, uning xatti-harakati boshqalarga qanday ta’sir qilganini tushuntirish samaraliroqdir.

Mazkur jarayonda quyidagi pedagogik shartlarga e’tibor berish muhim: bolaga individual yondashish; yosh xususiyatlarini hisobga olish; ijobiy xulqni o‘z vaqtida rag‘batlantirish; milliy va umuminsoniy qadriyatlarni kundalik faoliyat bilan bog‘lash; oila va ta’lim tashkiloti hamkorligini yo‘lga qo‘yish; o‘yin va ijodiy faoliyatdan foydalanish. Ayniqsa, o‘yin jarayoni bolaga o‘z xatti-harakatining oqibatini xavfsiz muhitda sinab ko‘rish va ijtimoiy qoidalarni tabiiy tarzda o‘zlashtirish imkonini beradi.

Oila, maktabgacha ta’lim tashkiloti va mahalla hamkorligi ham alohida ahamiyatga ega. Bolaga qo‘yiladigan asosiy talablar va tarbiyaviy yondashuvlar o‘zaro uyg‘un bo‘lsa, ijobiy natijaga erishish imkoniyati ortadi. Bunda milliy qadriyatlarni boshqa qadriyatlarga qarama-qarshi qo‘yish emas, balki ularni umuminsoniy mehr-oqibat, hurmat, adolat va insonparvarlik tamoyillari bilan uyg‘unlashtirish muhimdir.

XULOSA.

Xulosa qilib aytganda, deviant xulqli yoki deviant xulq belgilari kuzatiladigan maktabgacha yoshdagi bolalarni ma’naviy va axloqiy tarbiyalashda milliy hamda umuminsoniy qadriyatlar muhim pedagogik imkoniyatga ega. Bolalik davrida shakllangan odob, hurmat, halollik, mehribonlik, mas’uliyat va hamjihatlik kabi sifatlar keyingi ijtimoiy rivojlanish uchun muhim poydevor vazifasini bajaradi.

Deviant xulqning oldini olish uchun tarbiya jarayoni izchil, tizimli va bolaning yosh xususiyatlariga mos tashkil etilishi lozim. Milliy o‘yinlar, o‘yinchoqlar, ertaklar, maqollar, suhbatlar, rolli o‘yinlar va shaxsiy namuna orqali ijobiy xulq-atvorni mustahkamlash maqsadga muvofiq. Shuningdek, ota-ona va pedagoglarning hamkorligi, bolaga nisbatan hurmatli munosabat va ijobiy rag‘batlantirish salbiy xulqning takrorlanish xavfini kamaytirishga xizmat qiladi.

Shu asosda maktabgacha ta’lim amaliyotida deviant xulqning dastlabki belgilarini erta aniqlash, har bir bola uchun mos pedagogik yondashuvni tanlash va ma’naviy-axloqiy tarbiyani kundalik faoliyatning barcha shakllariga singdirish tavsiya etiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Yusupova P. Maktabgacha pedagogika. – Toshkent: O‘qituvchi, 1993.
2. Xasanboeva O.I. va boshqalar. Maktabgacha ta’lim pedagogikasi. – Toshkent: Ilm-Ziyo, 2006.
3. Sodiqova Sh.A. Maktabgacha pedagogika. – Toshkent: Tafakkur sarchashmalari, 2013.
4. Qodirova F.R., Toshpo‘latova Sh.Q., A’zamova M.N. Maktabgacha pedagogika. – Toshkent: Ma’naviyat, 2013.
5. Hasanboev J., To‘raqulov X., Haydarov M., Hasanboeva O., Usmanov N. Pedagogika fanidan izohli lug‘at. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2009.
6. Usmonxo‘jaev T.S., Isroilov Sh.X., Po‘latov A.A., Po‘latov Sh.A. Milliy va harakatli o‘yinlar. – Toshkent: Iqtisod-moliya, 2015.
7. Borovskaya N.V., Rean A.A. Pedagogika. – Sankt-Peterburg: Piter, 2001.
8. Podlasy I.P. Pedagogika. – Moskva: VLADOS, 2002.

MILLIY TARBIYA JARAYONINI BOSHQARISHNING ZAMONAVIY PEDAGOGIK MEXANIZMLARI

Jumabayev Amir Darmenbay uli
Qori Niyoziy nomidagi Tarbiya pedagogikasi milliy instituti katta ilmiy xodimi

Annotatsiya. *Maqolada milliy tarbiya jarayonini boshqarishning nazariy asoslari, uning me'yoriy-huquqiy, tashkiliy, mazmuniy-metodik, texnologik va diagnostik mexanizmlari tahlil qilinadi. Ta'lim muassasasi, oila va mahalla hamkorligiga asoslangan tizimli boshqaruv modeli taklif etilib, uni amaliyotga joriy etish bo'yicha ilmiy-metodik tavsiyalar berilgan.*

Kalit so'zlar: *milliy tarbiya, pedagogik boshqaruv, pedagogik mexanizm, milliy qadriyatlar, ma'naviy tarbiya, monitoring, ta'lim–oila–mahalla hamkorligi, raqamli tarbiya muhiti.*

Abstract. *The article analyzes the theoretical foundations of managing the process of national upbringing and its regulatory, organizational, content-methodological, technological and diagnostic mechanisms. A systemic management model based on cooperation between educational institutions, families and local communities (mahalla) is proposed, along with scientific and methodological recommendations for its implementation.*

Keywords: *national upbringing, pedagogical management, pedagogical mechanism, national values, spiritual education, monitoring, school–family–community partnership, digital educational environment.*

Globallashuv va raqamli muhitning yoshlar hayotiga chuqur kirib borishi tarbiya masalasini strategik yo'nalishga aylantirdi. Yosh avlodning milliy o'zlikni anglashi, vatanparvarlik, mehr-oqibat, mehnatsevarlik va mas'uliyat kabi fazilatlarni egallashi maqsadli, rejali va nazorat qilinadigan pedagogik jarayon sifatida tashkil etilgandagina samarali bo'ladi. Shu bois milliy tarbiya jarayonini *boshqarish* – ya'ni uni loyihalash, tashkil etish, muvofiqlashtirish, natijalarini baholash va tuzatib borish masalasi pedagogika fanining dolzarb muammolaridan biri hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonunida ta'limning tarbiyaviy xususiyati, insonparvarlik, milliy va umuminsoniy qadriyatlar ustuvorligi davlat siyosatining asosiy tamoyillari sifatida belgilangan[13]. Yangi O'zbekistonning 2022–2026-yillarga mo'ljallangan taraqqiyot strategiyasida esa yoshlarni ma'naviy-axloqiy jihatdan yetuk etib tarbiyalash, ularning bandligi va tashabbuslarini qo'llab-quvvatlash ustuvor vazifalar qatorida ko'rsatilgan[14].

Tadqiqotning maqsadi – milliy tarbiya jarayonini boshqarishning zamonaviy pedagogik mexanizmlarini aniqlash, ularni tizimlashtirish va ta'lim amaliyotiga joriy etish yo'llarini asoslashdan iborat. Tadqiqotda nazariy tahlil, qiyosiy-tarixiy, umumlashtirish va modellashtirish metodlari qo'llanildi.

[13]O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni. 2020-yil 23-sentabr, O'RQ-637-son // Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi (lex.uz).

[14]O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son "2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni // lex.uz.

1. Milliy tarbiyani boshqarishning nazariy asoslari. O'zbek pedagogik tafakkurida tarbiyaga jamiyat taqdirini belgilovchi omil sifatida qaralgan. Abdulla Avloniy tarbiyani xalq uchun "yo hayot – yo mamot, yo najot – yo halokat" masalasi deb baholagan[15]. Abu Nasr Forobiy esa fozil jamoani shakllantirishda ta'lim va tarbiyaning uyg'unligini, tarbiyachining shaxsiy namunasini hal qiluvchi omil deb hisoblagan[16].

Zamonaviy pedagogikada "pedagogik mexanizm" tushunchasi tarbiyaviy maqsadga erishishni ta'minlovchi o'zaro bog'liq tashkiliy shakllar, metodlar, vositalar va boshqaruv harakatlarining yaxlit tizimi sifatida talqin etiladi. Milliy tarbiyani boshqarish esa qadriyatlarga asoslangan maqsadlarni belgilash, sub'ektlar faoliyatini muvofiqlashtirish va natijalarni muntazam baholashni anglatadi. Uzluksiz ma'naviy tarbiya konsepsiyasida bu jarayon oiladan boshlab barcha ta'lim bosqichlari va mahalla muhitini qamrab oluvchi uzluksiz tizim sifatida belgilangan[17].

Davlat rahbari ta'kidlaganidek, Uchinchi Renessans poydevorini yaratishda maktabgacha ta'lim, maktab, oliy ta'lim va ilmiy-tadqiqot muassasalari yagona zanjirning bo'g'inlari hisoblanadi[18]. Bu tarbiyani boshqarishda bosqichlararo uzviylik tamoyilini taqozo etadi. Ma'naviy tahdidlarga qarshi immunitetni shakllantirish esa butun jamiyatning vazifasi sifatida qaraladi[19].

O.Musurmonova milliy qadriyatlarni yoshlar tarbiyasiga singdirishda ularni o'quvchi yoshiga moslashtirish va hayotiy vaziyatlar orqali o'zlashtirish muhimligini ko'rsatgan[20]. Xorijiy tadqiqotlarda esa U.Bronfenbrennerning ekologik yondashuvi shaxs rivojlanishiga oila, ta'lim muassasasi, mahalla va kengroq ijtimoiy muhit o'zaro ta'sirda ta'sir ko'rsatishini asoslaydi[21]. Bu nazariya "ta'lim muassasasi – oila – mahalla" hamkorligining ilmiy asosi bo'la oladi.

2. Milliy tarbiyani boshqarishning zamonaviy pedagogik mexanizmlari. Nazariy tahlil va amaliyotni umumlashtirish asosida milliy tarbiya jarayonini boshqarishning oltita o'zaro bog'liq mexanizmini ajratib ko'rsatish mumkin (1-jadval).

1-jadval

Milliy tarbiya jarayonini boshqarish mexanizmlari tasnifi

[15]Avloniy A. Turkiy guliston yoxud axloq. – T.: O'qituvchi, 1992.

[16]Forobiy A.N. Fozil odamlar shahri. – T.: A.Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 1993.

[17]O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 31-dekabrdagi 1059-son "Uzluksiz ma'naviy tarbiya konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori // lex.uz.

[18]Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekiston strategiyasi. – T.: O'zbekiston, 2021.

[19]Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. – T.: Ma'naviyat, 2008.

[20]Musurmonova O. Ma'naviy qadriyatlar va yoshlar tarbiyasi. – T.: O'qituvchi, 1996.

[21]Bronfenbrenner U. The Ecology of Human Development: Experiments by Nature and Design. – Cambridge, MA: Harvard University Press, 1979.

№	Mexanizm turi	Mazmuni va amaliy vositalari
1	Me'yoriy-huquqiy	Qonunlar, konsepsiyalar, ta'lim muassasasining tarbiyaviy dasturi va ichki nizomlari
2	Tashkiliy-boshqaruv	Ta'lim muassasasi – oila – mahalla hamkorlik kengashlari, tarbiyaviy ishlar bo'yicha mas'ullar, rejalashtirish va muvofiqlashtirish
3	Mazmuniy-metodik	"Tarbiya" fani, milliy qadriyatlarga tayangan integratsiyalashgan mashg'ulotlar, keys va loyihalar banki
4	Texnologik	Interfaol metodlar, loyiha ta'limi, xizmat orqali o'rganish (service learning), raqamli platformalar
5	Diagnostik-monitoring	Tarbiyalanganlik mezonlari, anketa va kuzatuv, portfolio, natijalarni tahlil qilish va tuzatish
6	Motivatsion-rag'batlantiruvchi	Ijtimoiy tashabbuslarni qo'llab-quvvatlash, o'quvchi va pedagog yutuqlarini e'tirof etish

Manba: muallif ishlanmasi.

Me'yoriy-huquqiy mexanizm tarbiyaviy faoliyatning maqsad va vazifalarini, sub'ektlarning huquq va majburiyatlarini belgilab beradi. Davlat hujjatlari talablari muassasaning yillik tarbiyaviy dasturi va sinf rahbari ish rejasigacha aniq vazifalar ko'rinishida tushirilmasa, ular umumiy deklaratsiya bo'lib qoladi.

Tashkiliy-boshqaruv mexanizmi tarbiya sub'ektlari – pedagoglar, ota-onalar, mahalla faollari, psixologlar va yoshlar yetakchilari faoliyatini muvofiqlashtirishni nazarda tutadi. Bunda hamkorlik kengashi, muntazam muvofiqlashtiruvchi yig'ilishlar va o'quvchining ijtimoiy-pedagogik pasporti samarali vositalardir.

Mazmuniy-metodik mexanizm milliy tarbiya mazmunini ta'lim jarayoniga singdirish yo'llarini belgilaydi. "Tarbiya" fani muhim qadam bo'lsa-da, milliy qadriyatlar barcha fanlar, darsdan tashqari mashg'ulotlar va oila muhitida integratsiyalashgan holda o'zlashtirilishi kerak. Masalan, adabiyot darslarida xalq og'zaki ijodi, tarix darslarida mahalliy tarix, texnologiya darslarida hunarmandchilik an'analari tarbiyaviy maqsadda qo'llanishi mumkin.

Texnologik mexanizm tarbiyaviy ta'sirning shakl va metodlarini zamonaviylashtirishni ifodalaydi. Pedagogik texnologiyalar nazariyasiga ko'ra, kafolatlangan natijaga erishish uchun tarbiyaviy jarayon ham aniq maqsadlar, bosqichlar va baholash mezonlari asosida loyihalanishi zarur[22]. "Aqliy hujum", "Keys-stadi", "Bahs-munozara", "Klaster" kabi interfaol metodlar o'quvchilarning

[22]Yo'ldoshev J.G'., Usmonov S.A. Pedagogik texnologiya asoslari. – T.: O'qituvchi, 2004.

faol fikrlashi va qadriyatlarni shaxsiy e'tiqodga aylantirishiga xizmat qiladi[23]. T.Likona xarakter tarbiyasining samarali modeli sifatida axloqiy bilim, axloqiy his va axloqiy xatti-harakat birligini ta'minlashni taklif etadi[24]. Demak, qadriyat haqida bilish yetarli emas, u hissiy kechinma va amaliy faoliyat orqali mustahkamlanishi lozim. Shu ma'noda "xizmat orqali o'rganish" – o'quvchilarning mahalladagi keksalarga g'amxo'rlik, obodonlashtirish, ekologik aksiyalar kabi ijtimoiy foydali loyihalarda ishtiroki – tarbiyaning amaliy natijadorligini oshiruvchi samarali texnologiya hisoblanadi.

Raqamli muhit bugungi kunda tarbiyaning alohida maydoniga aylangan. Shu sababli media savodxonlik va axborot madaniyatini shakllantirish, milliy mazmundagi raqamli kontent yaratish va ota-onalar bilan onlayn muloqotni yo'lga qo'yish tarbiyani boshqarishning yangi mexanizmlariga aylanmoqda. "Yoshlarga oid davlat siyosati to'g'risida"gi Qonunda ham yoshlarni zararli axborot ta'siridan himoya qilish davlat siyosatining yo'nalishlaridan biri sifatida belgilangan[25].

Diagnostik-monitoring mexanizmi boshqaruvning "qayta aloqa" bo'g'ini hisoblanadi. Tarbiya natijalarini o'lchash murakkab bo'lsa-da, tarbiyalanganlik darajasini aniqlashning mezon va ko'rsatkichlari pedagogikada ishlab chiqilgan[26]. Amaliyotda quyidagi ko'rsatkichlar tizimidan foydalanish tavsiya etiladi: kognitiv (milliy qadriyatlar, tarix va an'analar haqidagi bilimlar), emotsional-qadriyatli (Vatanga, oilaga, kattalarga munosabat), faoliyatli (ijtimoiy foydali ishlardagi ishtirok, xulq-atvor madaniyati). Yiliga ikki marta anketa so'rovi, kuzatuv va o'quvchi portfoliosi tahlili o'tkazilib, natijalarga ko'ra tarbiyaviy rejaga tuzatishlar kiritiladi.

3. Mexanizmlarni joriy etishning tizimli modeli. Yuqoridagi mexanizmlar alohida-alohida emas, balki yaxlit tizim sifatida ishlagandagina kutilgan samarani beradi. Shu bois boshqaruv sikli quyidagi bosqichlardan iborat modelni taklif etamiz: 1) *diagnostika* – o'quvchilar tarbiyalanganlik darajasi va oilaviy-ijtimoiy muhitni o'rganish; 2) *maqsadni belgilash va rejalashtirish* – o'lchanadigan maqsadlar va tadbirlar rejasini ishlab chiqish; 3) *tashkil etish* – ta'lim muassasasi, oila va mahalla o'rtasida vazifalarni taqsimlash; 4) *amalga oshirish* – interfaol, loyihaviy va raqamli texnologiyalarni qo'llash; 5) *monitoring va tuzatish* – natijalarni baholash va keyingi siklga o'zgartirishlar kiritish. Modelning asosiy afzalligi shundaki, u tarbiyaviy ishni "tadbirlar soni" bilan emas, balki o'quvchi shaxsidagi real o'zgarishlar bilan baholashga yo'naltiradi. Bu tarbiyaviy ishdagi

[23]Ishmuhamedov R., Abduqodirov A., Pardayev A. Ta'limda innovatsion texnologiyalar. – T.: Iste'dod, 2008.

[24]Lickona T. Educating for Character: How Our Schools Can Teach Respect and Responsibility. – New York: Bantam Books, 1991.

[25]O'zbekiston Respublikasining "Yoshlarga oid davlat siyosati to'g'risida"gi Qonuni. 2016-yil 14-sentabr, O'RQ-406-son // lex.uz.

[26]Mavlonova R.A., To'rayeva O.T., Xoliqberdiyev K.M. Pedagogika. – T.: O'qituvchi, 2001.

rasmiyatchilikning oldini oladi. Shuningdek, modelni joriy etishda pedagoglarning tarbiyaviy kompetensiyasini oshirish (malaka oshirish kurslariga amaliy modullar kiritish, mentorlik tizimi) zarur shart hisoblanadi.

Tahlil natijasida quyidagi xulosalarga kelindi: birinchidan, milliy tarbiya jarayonini boshqarish – milliy va umuminsoniy qadriyatlarga asoslangan, ko'p sub'ektli, uzluksiz va natijaga yo'naltirilgan pedagogik faoliyatdir;

ikkinchidan, uning zamonaviy pedagogik mexanizmlari me'yoriy-huquqiy, tashkiliy-boshqaruv, mazmuniy-metodik, texnologik, diagnostik-monitoring va motivatsion-rag'batlantiruvchi tarkibiy qismlardan iborat yaxlit tizimni tashkil etadi;

uchinchidan, ta'lim muassasasi, oila va mahalla hamkorligi hamda tarbiya natijalarini mezonlar asosida monitoring qilish milliy tarbiya samaradorligini oshirishning asosiy omillari hisoblanadi;

to'rtinchidan, taklif etilgan besh bosqichli boshqaruv sikli tarbiyaviy ishni o'quvchi shaxsidagi real o'zgarishlarga yo'naltiradi. Kelgusida tarbiyalanganlikni baholashning standartlashtirilgan vositalarini ishlab chiqish va modelni tajriba-sinovdan o'tkazish maqsadga muvofiq.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni. 2020-yil 23-sentabr, O'RQ-637-son // Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi (lex.uz).
2. O'zbekiston Respublikasining "Yoshlarga oid davlat siyosati to'g'risida"gi Qonuni. 2016-yil 14-sentabr, O'RQ-406-son // lex.uz.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son "2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni // lex.uz.
4. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 31-dekabrdagi 1059-son "Uzluksiz ma'naviy tarbiya konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori // lex.uz.
5. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekiston strategiyasi. – T.: O'zbekiston, 2021.
6. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. – T.: Ma'naviyat, 2008.
7. Avloniy A. Turkiy guliston yoxud axloq. – T.: O'qituvchi, 1992.
8. Forobiy A.N. Fozil odamlar shahri. – T.: A.Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 1993.
9. Musurmonova O. Ma'naviy qadriyatlar va yoshlar tarbiyasi. – T.: O'qituvchi, 1996.
10. Mavlonova R.A., To'rayeva O.T., Xoliqberdiyev K.M. Pedagogika. – T.: O'qituvchi, 2001.
11. Yo'ldoshev J.G'., Usmonov S.A. Pedagogik texnologiya asoslari. – T.: O'qituvchi, 2004.
12. Ishmuhamedov R., Abduqodirov A., Pardayev A. Ta'limda innovatsion texnologiyalar. – T.: Iste'dod, 2008.
13. Bronfenbrenner U. The Ecology of Human Development: Experiments by Nature and Design. – Cambridge, MA: Harvard University Press, 1979.
14. Lickona T. Educating for Character: How Our Schools Can Teach Respect and Responsibility. – New York: Bantam Books, 1991.

XALQARO TAJRIBA VA MILLIY TARBIYA TIZIMINI RIVOJLANTIRISHNING ISTIQBOLLARI

G. Jumamuratova
Qori - Niyoziy nomidagi Tarbiya pedagogikasi milliy instituti Qoraqalpog'iston filiali
https://doi.org/10.5281/zenodo.23177060

Annotatsiya: *Mazkur maqolada zamonaviy ta’lim-tarbiya tizimini rivojlantirishda xalqaro tajribaning o‘rni hamda milliy tarbiya qadriyatlarini saqlab qolish va ularni zamonaviy pedagogik yondashuvlar bilan uyg‘unlashtirish masalalari tahlil qilinadi. Globallashuv, axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining jadal rivojlanishi va ta’lim jarayonining xalqaro integratsiyalashuvi sharoitida yosh avlod tarbiyasiga qo‘yilayotgan talablar o‘zgarib bormoqda. Maqolada rivojlangan davlatlarning tarbiya va ta’lim sohasidagi ayrim tajribalari, xususan, shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim, kompetensiyaviy yondashuv, inklyuziv ta’lim, raqamli pedagogika, ota-ona va ta’lim muassasasi hamkorligi kabi yo‘nalishlarning ahamiyati yoritiladi. Shuningdek, milliy tarbiyaning ma’naviy-axloqiy asoslari, milliy qadriyatlar, urf-odatlar va madaniy merosning yoshlar kamolotidagi o‘rni ko‘rib chiqiladi. Xalqaro tajribani milliy sharoitga moslashtirish orqali tarbiya tizimining samaradorligini oshirish istiqbollari asoslab beriladi.*

Kalit so‘zlar: xalqaro tajriba, milliy tarbiya, ta’lim, pedagogika, ma’naviy-axloqiy tarbiya, milliy qadriyatlar, innovatsion pedagogika, kompetensiyaviy yondashuv, yoshlar tarbiyasi, globallashuv.

Аннотация: В статье анализируется роль международного опыта в развитии современной системы образования и воспитания, а также вопросы сохранения национальных воспитательных ценностей и их интеграции с современными педагогическими подходами. В условиях глобализации, стремительного развития информационно-коммуникационных технологий и международной интеграции образования меняются требования к воспитанию подрастающего поколения. Рассматриваются отдельные направления международного опыта, включая личностно ориентированное обучение, компетентностный подход, инклюзивное образование, цифровую педагогику, сотрудничество семьи и образовательных учреждений. Особое внимание уделяется духовно-нравственным основам национального воспитания, национальным ценностям, традициям и культурному наследию. Обосновываются перспективы повышения эффективности воспитательной системы посредством адаптации передового международного опыта к национальным условиям.

Ключевые слова: международный опыт, национальное воспитание, образование, педагогика, духовно-нравственное воспитание, национальные ценности, инновационная педагогика, компетентностный подход, воспитание молодежи, глобализация.

Abstract:*This article analyzes the role of international experience in developing a modern education and upbringing system, as well as the importance of preserving national educational values and integrating them with contemporary pedagogical approaches. In the context of globalization, rapid development of information and communication technologies, and international integration of education, the requirements for educating the younger generation are constantly changing. The article examines several important aspects of international experience, including learner-centered education, competency-based approaches, inclusive education, digital pedagogy, and cooperation between families and educational institutions. Particular attention is paid to the spiritual and moral foundations of national upbringing, national values, traditions, and cultural heritage. The article discusses the prospects for improving the effectiveness of the national upbringing system through the adaptation of relevant international practices to national*

conditions.

Keywords: international experience, national upbringing, education, pedagogy, spiritual and moral education, national values, innovative pedagogy, competency-based approach, youth education, globalization.

Bugungi kunda dunyo miqyosida ta’lim va tarbiya tizimi jamiyat taraqqiyotining muhim omillaridan biri sifatida qaralmoqda. Ilm-fan, texnologiya va axborot-kommunikatsiya vositalarining jadal rivojlanishi insonning bilim olish imkoniyatlarini kengaytirish bilan bir qatorda, yosh avlodning dunyoqarashi va ijtimoiy xulq-atvoriga ham katta ta’sir ko‘rsatmoqda.

Shu sababli zamonaviy ta’lim jarayonida nafaqat bilim berish, balki mustaqil fikrlaydigan, mas’uliyatli, ma’naviy yetuk va jamiyat hayotida faol ishtirok eta oladigan shaxsni shakllantirish muhim vazifaga aylanmoqda.

Tarbiya har qanday xalqning tarixiy-madaniy rivojlanishi bilan chambarchas bog‘liq. O‘zbek xalqining ko‘p asrlik tarbiya tajribasida kattalarga hurmat, kichiklarga izzat, mehnatsevarlik, vatanparvarlik, insonparvarlik, mehr-oqibat, halollik va ilmga intilish kabi qadriyatlar muhim o‘rin egallaydi. Ushbu qadriyatlar milliy tarbiyaning mazmuniy asosini tashkil etadi.

Shu bilan birga, globallashuv sharoitida ta’lim va tarbiya tizimi xalqaro tajribadan samarali foydalanishni ham talab etmoqda. Rivojlangan mamlakatlarda ta’lim sifatini oshirish, o‘quvchilarning ijodiy va tanqidiy fikrlashini rivojlantirish, raqamli texnologiyalardan foydalanish, ta’limning barcha ishtirokchilari o‘rtasidagi hamkorlikni kuchaytirishga qaratilgan turli yondashuvlar shakllangan.

Mazkur tajribalarni to‘g‘ridan-to‘g‘ri ko‘chirish emas, balki ularni milliy mentalitet, madaniyat va ijtimoiy sharoitga moslashtirish muhim ahamiyatga ega. Shu jihatdan xalqaro tajriba va milliy tarbiya tizimining o‘zaro uyg‘unligi zamonaviy pedagogikaning dolzarb masalalaridan biridir.

Xalqaro tajribaning ta’lim-tarbiya tizimidagi ahamiyati.

Dunyoning turli mamlakatlarida ta’lim va tarbiya tizimini takomillashtirishga qaratilgan o‘ziga xos tajribalar mavjud. Ularning umumiy jihati shundaki, ta’lim oluvchining shaxsiy rivojlanishi, mustaqil fikrlashi va amaliy kompetensiyalarini shakllantirishga katta e’tibor beriladi.

Zamonaviy pedagogikada shaxsga yo‘naltirilgan yondashuv alohida ahamiyat kasb etmoqda. Ushbu yondashuvda o‘quvchi ta’lim jarayonining passiv ishtirokchisi emas, balki faol subyekti sifatida qaraladi. O‘qituvchi esa faqat bilim beruvchi emas, balki o‘quvchining rivojlanishini tashkil etuvchi va yo‘naltiruvchi shaxs sifatida faoliyat olib boradi.

Xalqaro tajribada kompetensiyaviy yondashuv ham keng qo‘llanilmoqda. Bunda o‘quvchining faqat nazariy bilimlarni egallashi emas, balki ularni real hayotiy vaziyatlarda qo‘llay olish qobiliyatini shakllantirishga e’tibor qaratiladi. Muammoni hal qilish, jamoada ishlash, muloqot qilish, ijodiy fikrlash va qaror qabul qilish kabi ko‘nikmalar zamonaviy ta’limning muhim natijalari hisoblanadi.

Bunday yondashuvlarni milliy ta’lim tizimiga moslashtirish yoshlarning kelajakdagi kasbiy va ijtimoiy faoliyatiga ijobiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin.

Milliy tarbiyaning mazmuni va ahamiyati. Milliy tarbiya xalqning tarixiy xotirasi, ma’naviy merosi, urf-odatlari, an’analari va axloqiy qadriyatlari asosida shakllanadi. O‘zbek milliy tarbiya tizimida oilaning o‘rni nihoyatda katta. Bola dastlabki tarbiyaviy tushunchalarni oilada oladi, keyinchalik maktab, mahalla va jamiyat ta’siridauningdunyoqarashirivojlanadi.Milliy tarbiyaning asosiy maqsadi yosh avlodni o‘z xalqining madaniy merosini qadrlaydigan, Vatanga sadoqatli, insonlarga hurmat bilan munosabatda bo‘ladigan, mehnatsevar va mas’uliyatli shaxs sifatida tarbiyalashdan iborat. Milliy qadriyatlar zamonaviy taraqqiyotga to‘sqinlik qiluvchi omil emas. Aksincha, ularni zamonaviy ta’lim texnologiyalari bilan uyg‘unlashtirish orqali tarbiya jarayonining mazmunini boyitish mumkin. Masalan, milliy tarix, adabiyot, xalq og‘zaki ijodi, buyuk ajdodlarning ilmiy va ma’naviy merosidan foydalanish yoshlarning o‘zligini anglashiga yordam beradi. Shu bilan birga, milliy tarbiya zamonaviy inson uchun zarur bo‘lgan umuminsoniy qadriyatlar bilan uyg‘un bo‘lishi lozim. Inson huquqlarini hurmat qilish, bag‘rikenglik, tinchliksevarlik, ekologik mas’uliyat va boshqa umuminsoniy qadriyatlar yoshlar tarbiyasining tarkibiy qismi bo‘lishi muhim. Xalqaro tajriba va milliy qadriyatlarning uyg‘unligi
Xalqaro tajribadan foydalanishda asosiy masala uni qanday shaklda milliy ta’lim tizimiga joriy etishdir. Har bir mamlakatning tarixiy, madaniy, iqtisodiy va ijtimoiy sharoiti o‘ziga xos bo‘lganligi sababli boshqa davlat tajribasini aynan takrorlash kutilgan natijani bermasligi mumkin.
Masalan, raqamli ta’lim texnologiyalaridan foydalanish barcha mamlakatlar uchun dolzarb bo‘lsa-da, uning amalga oshirilishi texnik infratuzilma, o‘qituvchilarning raqamli kompetensiyasi va o‘quvchilarning imkoniyatlariga bog‘liq. Shu sababli xalqaro tajribani tanlash, tahlil qilish, sinovdan o‘tkazish va milliy sharoitga moslashtirish zarur. Tarbiya jarayonida ham shunday yondashuv talab qilinadi. Chet el pedagogikasidagi samarali metodlardan foydalanish bilan birga, milliy qadriyatlar va mahalliy pedagogik tajribani saqlab qolish lozim.
Bunda “xalqaro tajriba + milliy qadriyat + zamonaviy texnologiya” tamoyili istiqbolli model sifatida qaralishi mumkin. Ushbu model ta’limning zamonaviy talablariga javob berish bilan birga, yoshlarning milliy o‘zligini anglashiga ham xizmat qiladi.
Oila, ta’lim muassasasi va jamiyat hamkorligi

Tarbiya samaradorligini oshirishda oila, ta’lim muassasasi va jamiyatning o‘zaro hamkorligi muhim ahamiyatga ega. Bola tarbiyasini faqat maktab yoki oila zimmasiga yuklash yetarli emas. Tarbiyaviy jarayonda barcha ijtimoiy institutlarning hamkorligi talab qilinadi.
Xalqaro pedagogik tajribada ota-onalarni ta’lim jarayoniga faol jalb qilishga katta

e’tibor beriladi. Ota-onalar bilan muntazam muloqot qilish, individual maslahatlar, tarbiyaviy loyihalar va hamkorlikdagi tadbirlar o‘quvchining rivojlanishiga yordam beradi.

Milliy sharoitda esa oila va mahalla institutlarining tarbiyaviy imkoniyatlaridan samarali foydalanish mumkin. Mahalla, ta’lim muassasasi va ota-onalar o‘rtasidagi hamkorlik yoshlarning ijtimoiy faolligini oshirish, ularni foydali faoliyatga yo‘naltirish va ma’naviy-axloqiy sifatlarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Raqamli texnologiyalar va zamonaviy tarbiya
Bugungi yoshlar raqamli axborot muhitida voyaga yetmoqda. Internet, ijtimoiy tarmoqlar va raqamli platformalar yoshlarning bilim olish, muloqot qilish va dunyoqarashini shakllantirish jarayoniga sezilarli ta’sir ko‘rsatmoqda. Shu sababli tarbiya tizimi ham raqamli muhitni hisobga olishi kerak. O‘quvchilarda axborotni tanqidiy tahlil qilish, ishonchli va ishonchsiz manbalarni ajrata olish, raqamli xavfsizlik qoidalariga rioya qilish va internetdan mas’uliyatli foydalanish ko‘nikmalarini shakllantirish dolzarb vazifalardan biridir. Raqamli texnologiyalar tarbiya jarayonini faqat ko‘ngilochar vosita sifatida emas, balki ma’rifiy va tarbiyaviy resurs sifatida ham qo‘llash imkonini beradi. Elektron kutubxonalar, ta’lim platformalari, virtual muzeylar, videodarslar va interaktiv materiallardan foydalanish yoshlarning bilim olish imkoniyatlarini kengaytiradi.

MILLIY TARBIYA TIZIMINI RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI:

Kelajakda milliy tarbiya tizimini rivojlantirish quyidagi asosiy yo‘nalishlar bilan bog‘liq bo‘lishi mumkin:

Birinchidan, **milliy va umuminsoniy qadriyatlar uyg‘unligini ta’minlash**. Yoshlarni o‘z milliy madaniyatini hurmat qilishga o‘rgatish bilan birga, boshqa xalqlar madaniyatiga hurmat va bag‘rikenglik ruhida tarbiyalash zarur.

Ikkinchidan, **tarbiya jarayoniga innovatsion pedagogik texnologiyalarni joriy etish**. Interaktiv metodlar, loyiha asosida o‘qitish, muammoli ta’lim, raqamli resurslar va ijodiy topshiriqlar tarbiya jarayonining samaradorligini oshirishi mumkin.

Uchinchidan, **oila va ta’lim muassasasi hamkorligini kuchaytirish**. Ota-onalarning pedagogik madaniyatini oshirish va ularni farzand tarbiyasidagi jarayonlarga faol jalb etish muhim.

To‘rtinchidan, **o‘qituvchilarning tarbiyaviy kompetensiyasini rivojlantirish**. Zamonaviy pedagog nafaqat o‘z fanini yaxshi bilishi, balki yoshlar psixologiyasi, kommunikatsiya, raqamli pedagogika va zamonaviy tarbiya metodlarini ham egallashi lozim.

Beshinchidan, **milliy pedagogik merosdan foydalanish**. Abdulla Avloniy, Mahmudxo‘ja Behbudiy, Abdurauf Fitrat kabi ma’rifatparvarlarning ta’lim va tarbiya haqidagi qarashlarini zamonaviy pedagogik jarayon bilan bog‘lash muhim ilmiy-amaliy yo‘nalishlardan biridir.

Oltinchidan, **yoshlarning ijtimoiy faolligini oshirish**. Yoshlarni turli ijtimoiy loyihalar, volontyorlik, ekologik tashabbuslar, ilmiy va ijodiy faoliyatlarga jalb etish ularning mas’uliyat va tashabbuskorlik sifatlarini rivojlantirishga yordam beradi.

Xulosa qilib aytganda, zamonaviy sharoitda milliy tarbiya tizimini rivojlantirish xalqaro pedagogik tajribadan samarali foydalanishni talab qiladi. Biroq xalqaro tajribani mexanik tarzda ko‘chirish emas, balki uning mazmunini milliy qadriyatlar, tarixiy-madaniy xususiyatlar va mavjud ta’lim sharoitlari bilan uyg‘unlashtirish muhimdir.

Milliy tarbiya tizimining kuchli jihatlari — oila, mahalla, milliy qadriyatlar, tarixiy xotira va ma’naviy merosga tayanishdir. Xalqaro tajribaning muhim imkoniyatlari esa shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim, kompetensiyaviy yondashuv, innovatsion pedagogika, raqamli texnologiyalar va ta’lim ishtirokchilari o‘rtasidagi hamkorlikni rivojlantirish bilan bog‘liq.
Kelajakda ushbu ikki yo‘nalishning oqilona uyg‘unlashuvi yosh avlodni milliy o‘zligini anglagan, zamonaviy bilim va kompetensiyalarga ega, mustaqil fikrlaydigan hamda jamiyat oldidagi mas’uliyatini anglaydigan shaxs sifatida tarbiyalashga xizmat qilishi mumkin.
Shunday qilib, milliy tarbiya tizimining istiqboli an’analarni saqlash bilan bir qatorda, zamonaviy pedagogik yutuqlarni o‘zlashtirish, xalqaro hamkorlikni rivojlantirish va ta’lim-tarbiya jarayonini raqamli transformatsiya qilish bilan chambarchas bog‘liq.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1.O‘zbekiston Respublikasi. “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonun. O‘RQ-637-son, 23.09.2020.
2.O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti. O‘zbekiston – 2030 strategiyasi to‘g‘risida. Toshkent, 2023.
3.Avloniy A. Turkiy guliston yoxud axloq. – Toshkent: O‘qituvchi. UNESCO. Education 2030:
4. Incheon Declaration and Framework for Action. – Paris: UNESCO,2016. OECD.
5.The Future of Education and Skills 2030. – Paris: OECD Publishing.
6. Delors J. et al. Learning: The Treasure Within. Report to UNESCO of the International Commission on Education for the Twenty-first Century. – Paris: UNESCO, 1996.7.Fullan M. The New Meaning of Educational Change. – New York: Teachers College Press.Hargreaves A., Fullan M. Professional Capital: Transforming Teaching in Every School. – NewYork: Teachers College Press.
8. O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi. Ta’lim va tarbiya sohasiga oid me’yoriy – huquqiy hujjatlar.
9.Karimov I. Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch. – Toshkent: Ma’naviyat.

«GLOBALLASHGAN TA’LIM SHAROITIDA YOSHLARNI TARBIYALASHNING PEDAGOGIK MUAMMOLARI »

Jumanazarov Sirojiddin Salaydinovich,
A.Avloniy nomidagi pedagogik mahorat milliy instituti.
Toshkent, O‘zbekiston
https://doi.org/10.5281/zenodo.23177083

Annotatsiya. *Mazkur maqolada globallashgan ta’lim sharoitida yoshlarni tarbiyalashning dolzarb pedagogik muammolari tahlil qilingan.*
Kalit so‘zlar: sun’iy intellekt, tarbiya, raqamli ta’lim, raqamli axloq, tanqidiy fikrlash, pedagog, ota-ona, sun’iy intellekt savodxonligi.

Kirish. Hozirgi globallashuv davrida raqamli texnologiyalar, jumladan sun’iy intellekt inson hayotining deyarli barcha sohalariga, jumladan, ta’lim jarayoniga ham keng tadbiq etilmoqda. Bu esa bugungi yoshlarning bilim olishida zaruriy axborotlarni olish va tahlil etish, muloqot qilish va o‘z ustida mustaqil ishlash borasidagi yondashuvlarini o‘zgartirmoqda. Bugungi kun yoshlari sun’iy intellekt bilan faqat maxsus ta’lim platformalari orqali emas, balki qidiruv tizimlari, ijtimoiy tarmoqlar, mobil ilovalar, chat-botlar va boshqa raqamli xizmatlar orqali ham muntazam muloqot qilmoqda.

Bu esa sun’iy intellektni nafaqat texnologik vosita, balki yoshlarning kiberijtimoiylashuvi, dunyoqarashi va qadriyatlariga ta’sir ko‘rsatishi mumkin bo‘lgan yangi ijtimoiy-axborot muhiti sifatida o‘rganishni toqozo etadi. Shuningdek, globallashgan ta’lim sharoitida yoki sun’iy intellektning keng ommalashuvi davrida yoshlardagi tarbiya masalasi pedagoglar oldida quyidagi yangi muammolarni paydo qilmoqda:

- sun’iy intellekt yoshlarning axloqiy qarashlariga qanday ta’sir ko‘rsatmoqda?
- pedagog va ota-onalarning yoshlarni tarbiyalashdagi o‘rni qanday o‘zgaradi?
- yoshlarning kiberijtimoiylashuvi davrida raqamli madaniyatga qanday o‘rgatish mumkin?

Bu kabi muammolar global muhitda yoshlarni tarbiyalash bugungi kunning asosiy dolzarb muammolardan biri ekanligini belgilaydi.

Asosiy qism. Ma’lumki, yoshlar uchun dastlab axborot manbai sifatida oila, ya’ni ota-ona, o‘qituvchi, o‘qigan kitoblari hamda atrof muhit sanalgan. Bugungi raqamli transformatsiya sharoitida mazkur manbalar qatoriga sun’iy intellekt vositalari ham qo‘shildi. Bunday o‘zgarish yoshlarni tarbiyalash jarayonining sub’ektlari o‘rtasidagi munosabatlarni tahlil qilish hamda qayta ko‘rib chiqishni talab qiladi. Chunki, sun’iy intellekt vositalari turli savollarga javob berish va tavsiyalar taqdim etish imkoniyatiga ega bo‘lsa-da, u insonning yoshlar tarbiyasidagi axloqiy mas’uliyatini o‘z zimmasiga ololmaydi hamda ularga bo‘lgan

tarbiyaviy ta’sirini to‘liq almashtira olmaydi. Shu sababli sun’iy intellektni kiberpedagog sifatida emas, balki pedagogik jarayonni qo‘llab-quvvatlovchi texnologik vosita sifatida ko‘rish maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Sun’iy intellektdan pedagogik maqsadga muvofiq to‘g‘ri foydalanish quyidagi bir qator imkoniyatlarni paydo qiladi:

1. Bilim olishdagi imkoniyatlar.
2. Ijodiy faoliyatni qo‘llab-quvvatlanishi.
3. Imkoniyati cheklangan o‘quvchilarning ta’lim olishi.
4. Raqamli savodxonlikni rivojlantirilishi va h.k.

Mazkur imkoniyatlar bilan bir qatorda sun’iy intellekt texnologiyalaridan noto‘g‘ri foydalanish oqibatida tayyor javobga qaramlik, noto‘g‘ri axborotlarga ega bo‘lish, milliy madaniyat, til, raqamli muhitdagi odob-axloq masalalari kabi muammolar ham paydo bo‘ladi.

Bunday vaziyatda yoshlarni tarbiyalashdagi pedagogning roli kamaymaydi, balki murakkablashadi. Chunki, pedagog endi faqat axborot yetkazib beruvchi emas, balki o‘quvchini olingan axborotni tahlil qilishga, tanqidiy baholashga o‘rgatuvchi, ularning mustaqil fikrlashini rag‘batlantiruvchi, kibermakonda muloqot va ijtimoiy ko‘nikmalarni rivojlantiruvchi hamda o‘quvchining shaxsiy va ma’naviy rivojlanishini qo‘llab-quvvatlovchi sub’ektga aylanadi. Bu esa o‘qituvchidan yuksak bilim, malaka va zamonaviy yondoshuvlarni talab etadi.

Xulosa. **Hozirgi globallashuv davrida raqamli texnologiyalar, jumladan sun’iy intellekt kibermakonda axborot muhitini yanada boyitmoqda va qaysidir ma’noda kuchaytirmoqda. Mazkur jarayonning ijobiy tomoni yoshlarning dunyoqarashini boyitsa, salbiy tomoni turli madaniy va axloqiy qarashlarning nazoratsiz kirib kelish ehtimolini oshishidir.**

Шу сабабли глобаллашган таълим шароитида тарбиянинг муҳим вазифаларидан бири-ёшларни кибермаконда миллий ва умуминсоний қадриятларга таянган ҳолда мустақил позиция эгаллашга ўргатишдир.

Sun’iy intellektning ta’lim va ijtimoiy hayotga jadal kirib kelishi yoshlarni tarbiyalash jarayoni oldiga yangi va murakkab vazifalarni qo‘ymoqda. Bugungi kun yoshlarini faqat raqamli texnologiyalardan foydalanishga o‘rgatishning o‘zi yetarli emas. Ularga ushbu texnologiyalardan ongli ravishda mas’uliyat bilan foydalanish madaniyatini shakllantirish zarur. Shu bois ta’limning eng muhim vazifasi texnologiyaga mos insonni emas, texnologiyadan ongli va mas’uliyatli foydalana oladigan insonni tarbiyalashdan iboratdir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. X.Ibragimov va boshq. Raqamli avlod tarbiyasi.Monografiya. -Toshkent:2025. -128 b

MILLIY TARBIYA JARAYONIDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR VA MEDIAMAKONNING O‘RNI

Jumaniyozova Muhayyo Tojiyevna
Pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti
ORCID: 0009-0000-8371-6298. m.jumaniyozova@uzswlu.uz

Annotatsiya. *Maqolada milliy tarbiya jarayonining raqamli transformatsiyasi, raqamli texnologiyalar va mediamakonning yoshlar qadriyatlari, milliy identikligi hamda fuqarolik pozitsiyasini shakllantirishdagi imkoniyati va xavflari tahlil qilingan. Bunda “Uzluksiz ma’naviy tarbiya konsepsiyasi”, “Raqamli O‘zbekiston-2030” strategiyasi, UNESCOning media va axborot savodxonligi konsepsiyasi hamda xalqaro ilmiy yondashuvlar nazariy asos sifatida olindi. Maqolada raqamli hikoyachilik, virtual muzeylar, milliy elektron resurslar, ijtimoiy tarmoqlardagi tarbiyaviy loyihalar va faktcheking mashg‘ulotlarining didaktik salohiyati ochib berilgan, shu bilan birga, dezinformatsiya, algoritmik pufak, kiberbulling, maxfiylikning buzilishi va yuzaki identifikatsiya kabi xavflar ko‘rsatib o`tilgan.*

Kalit so‘zlar. *milliy tarbiya, raqamli texnologiyalar, mediamakon, media va axborot savodxonligi, milliy identiklik, ma’naviy qadriyat, raqamli etika.*

Abstract. *The article examines the digital transformation of national upbringing and the opportunities and risks of digital technologies and the media space in shaping young people’s values, national identity and civic position. It proposes a value-oriented integrative model combining culturally meaningful digital content, critical media literacy, responsible digital behaviour and cooperation among educational institutions, families and communities.*

Keywords. *national upbringing, digital technologies, media space, media and information literacy, national identity, digital citizenship, values, disinformation, digital ethics.*

Kirish. Raqamli aloqa vositalarining yosh avlodning bilim olishi, ijtimoiylashuvi va o‘zligini anglashiga ta’sir qiladigan asosiy muhitlardan biriga aylanib borishi natijasida milliy tarbiya endi faqat dars, kitob yoki an’anaviy tadbirlar doirasida kechmaydi, uning mazmuni ijtimoiy tarmoqlar, video platformalar, messenjerlar, o‘yinlar, sun’iy intellekt xizmatlari va raqamli hamjamiyatlar orqali ham shakllanadi. Mediamakonning kengligi tarbiyaviy ta’sirni tezlashtiradi va ishtirokchilikni kuchaytiradi, biroq nazoratsiz axborot oqimi qadriyatlar parchalanishi, soxta xabarlar va manipulyativ kontent xavfini ham oshiradi.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 31-dekabrdagi 1059-son qarori bilan tasdiqlangan “Uzluksiz ma’naviy tarbiya konsepsiyasi” yoshlarni Vatanga sadoqat, mas’uliyat, bag‘rikenglik, huquqiy madaniyat, innovatsion fikrlash va mehnatsevarlik ruhida bosqichma-bosqich tarbiyalashni ustuvor vazifa sifatida belgilaydi [1]. Ushbu Konsepsiyada Internet orqali tarqaladigan buzg‘unchi g‘oyalarga qarshi sog‘lom dunyoqarashni shakllantirish alohida qayd etilganligi, “Raqamli O‘zbekiston-2030”strategiyasida raqamli infratuzilma, xizmatlar va kompetensiyalarni rivojlantirishni ko‘zda tutilganligi [2]

milliy tarbiya masalasi raqamlashtirishning texnik natijalarini tarbiyaviy mazmun va etik mas’uliyat bilan uyg‘unlashtirilishni talab etadi.

Milliy tarbiya jarayonida raqamli texnologiyalar va mediamakonning pedagogik imkoniyatlarini aniqlash, mavjud xavflarni tizimlashtirish hamda qadriyatga yo‘naltirilgan integrativ milliy tarbiya modelini asoslash zamonaviy ta’lim-tarbiya tizimimg asosiy vazifalaridan biri hisoblanadi.

Ilmiy manbalarda media savodxonlikni axborotga kirish, uni tahlil va baholash, media mahsulot yaratish hamda mediamakonda mas’uliyatli ishtirok etish kompetensiyalari majmui sifatida talqin qilinadi [3; 5; 6].

Ma’lumki, milliy tarbiya shaxsda tarixiy xotira, ona tili, madaniy meros, vatanparvarlik, oilaviy va jamoaviy mas’uliyat, milliy hamda umuminsoniy qadriyatlarga hurmatni qaror toptirishga qaratilgan uzluksiz pedagogik jarayondir. Uning natijasi faqat qadriyatlar haqida bilim bilan emas, balki tanlov, ijtimoiy xulqni amalda namoyon bo‘lishi bilan bog`liq barqaror fazilatlar hisoblanadi. Raqamli muhit mazkur jarayonning yangi ijtimoiylashuv makoni bo‘lib, unda foydalanuvchi bir vaqtning o‘zida axborot iste’molchisi, yaratuvchisi va tarqatuvchisi sifatida ishtirok etadi.

Mediata’lim nazariyasida auditoriya passiv qabul qiluvchi deb emas, ma’noni o‘z tajribasi va madaniy konteksti asosida qayta quradigan faol subyekt deb qaraladi [5]. Shu nuqtayi nazardan, milliy tarbiyada mediamakondan foydalanish tayyor axborotlarni takrorlash bilan chegaralanmasligi kerak. O‘quvchi tarixiy manbalarni solishtirishi, media matn muallifining maqsadini aniqlashi, stereotip va manipulyatsiyani ko‘rishi, dalilga tayangan holda o‘z media mahsulotini yaratishi zarur. Bu jarayonda milliy identiklik yopiq va o‘zgarmas tasavvur emas, balki tarixiy xotira, zamonaviy tajriba va global muloqot o‘rtasidagi ongli munosabat sifatida rivojlanadi.

UNESCO media va axborot savodxonligini tanqidiy fikrlash, axborotni tekshirish, etik kontent yaratish va demokratik ishtirokni bog‘lovchi kompleks kompetensiya sifatida ko‘rsatadi [3]. UNICEF raqamli muhit bolalarga ta’lim, muloqot va ijod uchun imkoniyat berishi bilan birga, tengsizlik, zararli kontent va ekspluatatsiya xavflarini kuchaytirishi mumkinligini ta’kidlaydi [4]. Shu bois raqamli vosita o‘z-o‘zidan tarbiyaviy natija bermaydi, natija pedagogik maqsad, kontent sifati, faoliyat dizayni va refleksiyaga bog‘liq.

Media content tarix ta’limida raqamli arxiv, elektron kutubxona, virtual muzey va interaktiv xaritalar milliy tarix va madaniy merosni makon hamda vaqt cheklovlarisiz o‘rganish imkonini beradi. O‘quvchilar mahalliy tarix, allomalar merosi, xalq og‘zaki ijodi, urf-odat va san’at namunalariga doir raqamli ekspozitsiyalar yaratganda bilim shaxsiy tajriba va ijodiy faoliyatga aylanadi.

Adabiyot ta’limida esa raqamli hikoyachilik milliy qadriyatlarni avlodlararo muloqot bilan bog‘laydi. Oila tarixiga oid audiointervyu, mahalla xotirasi xaritasi,

qisqa hujjatli video yoki podkast tayyorlash jarayonida o‘quvchi manba to‘plash, savol berish, tahrirlash, mualliflik huquqiga rioya qilish va xulosalashni o‘rganadi. Bunday topshiriq qadriyatni tayyor qoida sifatida emas, inson taqdiri va mahalliy tajriba orqali anglashga yordam beradi. Shuningdek, ijtimoiy tarmoqlarda ta’lim muassasasi, oila, mahalla, muzey va ijodkorlar hamkorligida ma’rifiy loyihalar tashkil etilishi mumkin.

Biroq mediamahsulotlardagi “ko‘rishlar” soni tarbiyaviy samaradorlik mezoni bo‘la olmaydi. Mediamakonda kontent mazmunning ishonchliligi, uning o‘quvchi refleksiyasiga, muloqot madaniyatiga va real xulqdagi o‘zgarishlarga ta’siri asosiy ko‘rsatkichlar bo‘lishi kerak. Onlayn munozara, veb-kvest, raqamli portfel va simulyatsiya kabi vositalar axloqiy vaziyatlarda qaror qabul qilishni mashq qildiradi. Masalan, tarixiy tasvirni ruxsatsiz ishlatish, shaxsiy ma’lumotni ulashish, milliy guruhga nisbatan stereotipli post yoki tekshirilmagan xabarni tarqatish bo‘yicha keyslar o‘quvchidan huquqiy, axloqiy va madaniy mezonlarni birgalikda qo‘llashni talab qiladi. Moslashtirilgan platformalar va sun’iy intellekt vositalari turli tayyorgarlik darajasidagi o‘quvchilarga individual yo‘nalish berishi mumkin. Shu bilan birga, generativ tizim yaratgan tarixiy yoki madaniy ma’lumotni manba bilan tekshirish, algoritmik xatolik va madaniy tarafkashlikni muhokama qilish majburiy metodik shart bo‘lishi lozim.

Mediamakonning xavfli tomoni shundaki, raqamli muhitdagi dezinformatsiya va kontekstdan uzilgan kontentlar, hissiy sarlavha, montaj qilingan tasvir, soxta profil va sun’iy yaratilgan kontentlar tarixiy xotira yoki millatlararo munosabatlarga zarar yetkazishi mumkin. Bunga qarshi turish uchun o`quvchilarga taqiqlashning o‘zi yetarli emas; lateral o‘qish, manba muallifini tekshirish, birlamchi hujjatni topish, sana va kontekstni aniqlash ko‘nikmalari o‘rgatilishi kerak.

Yana bitta xavf tavsiya algoritmlari shakllantiradigan axborot pufagi bo`lib, bunda foydalanuvchi faqat o‘z qarashini tasdiqlovchi materiallarni ko‘radi, natijada boshqa nuqtayi nazarni tushunish, bag‘rikenglik va o`quvchida dalilga munozara qobiliyati zaiflashadi. Shu sababli tadqiqotchilar media savodxonlikni yangi kommunikatsiya texnologiyalaridagi ishtirok va tenglik masalalari bilan bog‘laydi hamda ta’limdagi o‘quv topshirig‘i turli manba va qarashlarni qiyoslashga yo‘naltirilishi zarurligini ta’kidlaydilar [6].

Raqamli makonda kiberbulling, nafrat tili va shaxsiy ma’lumotlar daxlsizligining buzilishi xavfi mavjud bo`lib, milliy tarbiya doirasidagi raqamli etika boshqa foydalanuvchilarga nisbatan hurmatli muloqot, rozilik, maxfiylik, mualliflik huquqi va raqamli iz uchun javobgarlikni qamrab olishi kerak bo`ladi. Shu sababli raqamli muhitda milliylikni saqlab qolish uchun qadriyatga yo‘naltirilgan integrativ tarbiya modeli ishlab chiqilishi lozim. Bu modelning markazida milliy o‘zlikni anglagan, tanqidiy fikrlaydigan, media mahsulotini etik talablarga mos yaratadigan va raqamli jamoada mas’uliyat bilan ishtirok etadigan shaxs turishi lozim.

Buning uchun ta’lim mazmunan audit qilinisi, darslik, platforma va media materiallaridagi tarixiy aniqlik, til, stereotiplar, gender va hududiy vakillik, mualliflik huquqi hamda yoshga moslik muntazam ekspertizadan o‘tkazilishi talab etiladi. Shu bilan birga o`quvchilarning media va axborot savodxonligini fanlararo integratsiyalash, tarix fanida mediamanba tanqidi, ona tili va adabiyotda media matn tahlili, informatika fanida algoritm va ma’lumot xavfsizligi, tarbiya darslarida raqamli etika bir-birini to‘ldirishi lozim. Shuningdek, pedagog va ota-onalarning raqamli-pedagogik kompetensiyasini rivojlantirish, yani kattalar faqat nazorat qiluvchi emas, balki media tanlovi, muloqot va refleksiyada hamroh bo‘lishi kerak. Mahalliy kontent ishlab chiqarishni rag‘batlantirish, o‘quvchi va talabalar ishtirokidagi podkast, raqamli xarita, virtual ko‘rgazma va qisqa hujjatli filmlar ta’limiy ekspertiza hamda ochiq litsenziya talablari asosida yaratilishi maqsadga muvofiq.

Xavfsiz raqamli muhit protokoliga asosan, har bir ishtirokchi kiberbulling haqida xabar berishi, shaxsiy ma’lumotni himoya qilishi, zararli kontentga munosabat bildirishi va pedagogik yordam algoritmi ta’lim muassasasida aniq belgilanishi kerak, yani milliy tarbiyani raqamli muhitga ko‘chirish emas, balki qadriyatga yo‘naltirilgan, tanqidiy fikrlash va mas’uliyatli raqamli xulqni birlashtiruvchi integrativ model asosida tashkil etish talimning asosiy yo`nalishi bo`lishi kera.

Milliy tarbiya natijasini faqat tadbirlar soni yoki kontent qamrovi bilan o‘lchash metodik jihatdan yetarli emas. Uni diagnostikasi to‘rtta mezonni qamrab olishi maqsadga muvofiq: kognitiv mezon-milliy tarix va qadriyatlar haqidagi dalillangan bilimlarni; aksiologik mezon-qadriyatlarga shaxsiy munosabat va axloqiy tanlovni asoslashi, faoliyat mezoni-ijtimoiy foydali raqamli loyiha yaratish va hamkorlikni; refleksiv-etik mezon esa manba, maxfiylik, mualliflik, muloqot va raqamli iz uchun javobgarlikni qamrab olishi lozim.

Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, milliy tarbiya va raqamlashtirish o‘rtasidagi munosabat ikki qarama-qarshi yondashuv bilan cheklanmasligi kerak. Bir tomondan, texnologiyani mutlaq yechim sifatida ko‘rish tarbiya mazmunini platforma va ko‘rsatkichlarga bo‘ysundiradi. Ikkinchi tomondan, mediamakonni faqat tahdid deb baholash yoshlarning real tajribasini inkor etadi. Pedagogik jihatdan maqbul yo‘l raqamli muhitni qadriyatli faoliyat, tanqidiy tahlil va ijodiy ishtirok maydoniga aylantirishdir.

H.Jenkins, K.Clinton, R.Purushotma, A.J.Robison, M.Weigel tadqiqotlarida yoshlar raqamli makonda kontent yaratishini, hamkorlik qilishini va bilimni norasmiy hamjamiyatlarda tarqatishini ta’kidlaydilar [7]. Bu milliy tarbiya uchun muhim, ammo unda ishtirok etuvchi yoshlar avtomatik ravishda mas’uliyatli bo‘lmaydi. Pedagogik yo‘naltirish orqali dalil, hurmat, mualliflik va jamoat manfaatiga xizmat qilish mezonlari shakllantirilgandagina u foydali bo`ladi.

Xulosa sifatida shuni aytish mumkinki raqamli texnologiyalar milliy tarbiyaning yordamchi vositasi emas, yoshlar ijtimoiylashuvining muhim muhiti sifatida ko‘rilishi zarur. Mediamakonning tarbiyaviy salohiyati undagi mazmunning milliy-madaniy asoslanganligi, manbalar ishonchliligi, faol o‘quv topshirig‘i va refleksiya bilan belgilanadi. Media va axborot savodxonligi milliy tarbiyaning himoya komponentigina emas, balki ongli identiklik va fuqarolik ishtirokini rivojlantiruvchi kompetensiya hisoblaniib, raqamli hikoyachilik, virtual muzey, podkast, faktcheking va mahalliy tarix loyihalari qadriyatlarni shaxsiy tajriba bilan bog‘lashga xizmat qiladi. Dezinformatsiya, algoritmik pufak, kiberbulling, maxfiylik va mualliflik muammolarini oldini olish uchun oila, mahalla, ta’lim muassasasi, OAV va madaniy tashkilotlar hamkorligi yagona tarbiyaviy ekotizim sifatida yo‘lga qo‘yilishi lozim. Shu bilan birga raqamli muhitdagi milliy tarbiyaning samaradorlik darajasi kontentlardagi “ko‘rishlar” soni bilan emas, bilimga qadriyatli munosabat, real xulq va refleksiv-etik mas’uliyat mezonlari orqali baholanishi maqsadga muvofiq.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi. Uzluksiz ma’naviy tarbiya konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida. 1059-son, 31.12.2019. https://lex.uz/docs/-4676839
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti. Raqamli O‘zbekiston 2030 strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida. PF-6079-son, 05.10.2020. https://lex.uz/docs/-5030957
3. UNESCO. Media and Information Literate Citizens Think Critically Click Wisely. Paris: UNESCO, 2021. https://unesdoc.unesco.org/ark:/48223/pf0000377068
4. UNICEF. The State of the World’s Children 2017 Children in a Digital World. New York: UNICEF, 2017. https://www.unicef.org/reports/state-worlds-children-2017
5. Livingstone S. Media literacy and the challenge of new information and communication technologies. The Communication Review. 2004;7(1):3–14. https://www.tandfonline.com/doi/abs/10.1080/10714420490280152
6. Jenkins H., Clinton K., Purushotma R., Robison A. J., Weigel M. Confronting the Challenges of Participatory Culture. Cambridge, MA: MIT Press, 2009. https://mitpress.mit.edu/9780262513623/confronting-the-challenges-of-participatory-culture/
7. Hobbs R. Digital and Media Literacy A Plan of Action. Washington, DC: Aspen Institute, 2010. https://www.aspeninstitute.org/publications/digital-media-literacy-plan-action/
8. Council of Europe. Digital Citizenship Education Handbook. Strasbourg: Council of Europe, 2019. https://www.coe.int/en/web/education/digital-citizenship-education
9. OECD. Children and Young People’s Mental Health in the Digital Age. Paris: OECD, 2018. https://www.oecd.org/en/topics/policy-issues/the-future-of-health-systems.html
10. United Nations. Convention on the Rights of the Child General Comment No. 25 on children’s rights in relation to the digital environment. 2021. https://www.ohchr.org/en/documents/general-comments-and-recommendations/general-comment-no-25-2021-childrens-rights-relation
11. European Commission. Digital Education Action Plan 2021–2027. Brussels: European Commission. https://education.ec.europa.eu/focus-topics/digital-education/actions/plan

UMUMIY O'RTA TA'LIM MAKTABLARI MUSIQA MADANIYATI DARSLARIDA O'QUVCHILARNI JROCHILIK MAHORATI ASOSIDA TARBIYALASH

Kabirjanova Shaxzoda
Nizomiy nomidagi O‘zbekiston milliy pedagogika universiteti Musiqa va san’at fakulteti 2-bosqich magistranti
Ilmiy rahbar: Anvar Lutfullayev, *Nizomiy nomidagi O‘zbekiston milliy pedagogika universiteti “Musiqiy ta’lim” kafedrasi mudiri, professor*
https://doi.org/10.5281/zenodo.23177122

Annotatsiya. *Mazkur maqolada umumiy o‘rta ta’lim maktablarida musiqa madaniyati darslarining o‘quvchilar ijrochilik mahoratini shakllantirish va rivojlantirishdagi o‘rni yoritilgan. Unda ijrochilik faoliyatini rivojlantirishning ta’limiy hamda tarbiyaviy jihatlari keng tahlil qilinib, mazkur jarayonda qo‘llaniladigan zamonaviy pedagogik yondashuvlar asoslab berilgan. Musiqa ta’limi jarayonida o‘quvchilarda ijodiy fikrlash, estetik did va milliy-madaniy qadriyatlarga hurmat tuyg‘usi shakllanishi ko‘rsatib o‘tiladi. Shuningdek, ansambl faoliyati, turli tanlov va festivallar hamda innovatsion texnologiyalar yordamida ijrochilik ko‘nikmalarini rivojlantirish usullari bayon etilgan. Tadqiqot natijalariga ko‘ra, musiqa darslari o‘quvchilarning nafaqat musiqiy salohiyatini, balki ularning shaxsiy va ijtimoiy fazilatlarini rivojlantirishda ham muhim omil ekanligi asoslanadi. Maqolada musiqa madaniyati darslari o‘quvchilarning ijodiy va axloqiy kamolotini ta’minlovchi samarali vosita sifatida talqin etiladi.*

Kalit so‘zlar: *musiqa madaniyati, ijrochilik mahorati, umumiy o‘rta ta’lim, pedagogik yondashuvlar, estetik tarbiya, madaniy qadriyatlar, ansambl faoliyati, ijodkorlik, musiqa ta’limi.*

Umumiy o‘rta ta’lim tizimida musiqa madaniyati darslari o‘quvchilarning har tomonlama rivojlanishida, ayniqsa ularning estetik tafakkuri va ijodiy salohiyatini shakllantirishda muhim pedagogik ahamiyat kasb etadi. Mazkur fan orqali o‘quvchilar nafaqat musiqiy bilim va ko‘nikmalarga ega bo‘ladilar, balki ularning shaxsiy fazilatlari, axloqiy qarashlari hamda madaniy qadriyatlarga munosabati ham shakllanib boradi.

Musiqa san’ati insonning ichki kechinmalarini boyituvchi, uning estetik didini rivojlantiruvchi muhim omillardan biridir. Shu sababli musiqa madaniyati darslarida ijrochilik mahoratini shakllantirish va takomillashtirish masalasi alohida dolzarblik kasb etadi. Ushbu jarayon o‘quvchilarning musiqiy qobiliyatlarini yuzaga chiqarish bilan bir qatorda, ularda jamoada ishlash, mas’uliyatni his etish, mehnatsevarlik va o‘zini erkin ifoda eta olish kabi muhim kompetensiyalarni rivojlantirishga xizmat qiladi.

Musiqa madaniyati inson hayotining ajralmas tarkibiy qismi sifatida uning ruhiy va estetik kamolotida muhim o‘rin egallaydi. Umumiy o‘rta ta’lim maktablarida mazkur fan o‘quvchilarning nafaqat ijodiy, balki axloqiy jihatdan ham yetuk shaxs bo‘lib shakllanishida asosiy vositalardan biri hisoblanadi. Ayniqsa, ijrochilik faoliyatiga jalb etish orqali o‘quvchilar musiqa san’atining mohiyatini chuqurroq anglaydi, o‘z iqtidorini namoyon etish imkoniyatiga ega bo‘ladi.

Bugungi kunda musiqa madaniyati darslarini zamonaviy pedagogik yondashuvlar asosida tashkil etish dolzarb masalalardan biri bo‘lib, bu orqali o‘quvchilarda milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat, jahon musiqa merosiga qiziqish hamda mustaqil ijodiy fikrlash ko‘nikmalarini shakllantirish mumkin. Shu bilan birga, ijrochilik mahoratini rivojlantirish jarayoni o‘quvchilarni ijtimoiy hayotga moslashuvchan, faol va tashabbuskor shaxs sifatida tarbiyalashda muhim omil bo‘lib xizmat qiladi.

Mazkur maqolada musiqa madaniyati darslarining o‘quvchilar ijrochilik mahoratini rivojlantirishdagi o‘rni, uning ta’limiy va tarbiyaviy ahamiyati, shuningdek, ushbu jarayonda samarali qo‘llaniladigan pedagogik usullar keng tahlil qilinadi. Tadqiqot doirasida musiqa ta’limining o‘quvchilar shaxsiy kamolotiga ko‘rsatadigan ijobiy ta’siri ilmiy asosda yoritib beriladi.

Bugungi kunda O‘zbekiston Respublikasida ta’lim tizimini modernizatsiya qilish jarayonida yosh avlodni har tomonlama barkamol, estetik didga ega va ma’naviy yetuk shaxs sifatida tarbiyalash ustuvor vazifalardan biri sifatida e’tirof etilmoqda. Ushbu jarayonda musiqa madaniyati fanining o‘rni alohida ahamiyat kasb etadi, chunki musiqa san’ati o‘quvchilarning nafaqat badiiy-estetik tafakkurini, balki ularning ruhiy olami va axloqiy qarashlarini ham shakllantiradi.

Musiqa madaniyati darslarining samaradorligi ko‘p jihatdan o‘quvchilarda ijrochilik mahoratini shakllantirish darajasi bilan belgilanadi. Ijrochilik faoliyati orqali o‘quvchilar kuylash, ritmni his qilish, musiqa asarlarini ifodali ijro etish kabi amaliy ko‘nikmalarga ega bo‘lib, bu ularning ijodiy fikrlashi, estetik didi va o‘zini namoyon etish qobiliyatini rivojlantiradi. Shu bois, musiqa ta’limida ijrochilik mahoratini rivojlantirish masalasi zamonaviy pedagogikaning dolzarb yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi.

So‘nggi yillarda qabul qilinayotgan davlat dasturlari va normativ-huquqiy hujjatlar musiqa ta’limining mazmunini boyitish, uni amaliy faoliyatga yo‘naltirish hamda o‘quvchilarning musiqiy kompetensiyalarini rivojlantirishga qaratilganligi bilan ahamiyatlidir. Xususan, umumiy o‘rta ta’lim maktablarida musiqa madaniyati fanini takomillashtirish, o‘quvchilarga milliy cholg‘u asboblarini o‘rgatish va ularni ijrochilik faoliyatiga keng jalb etish masalalari davlat siyosati darajasida qo‘llab-quvvatlanmoqda.

Shuningdek, yoshlarning bo‘sh vaqtini mazmunli tashkil etish, ularning san’atga bo‘lgan qiziqishini oshirish hamda iqtidorini ro‘yobga chiqarishga qaratilgan tashabbuslar musiqa ta’limining ijtimoiy ahamiyatini yanada oshirmoqda. Bu esa o‘z navbatida musiqa madaniyati darslarida ijrochilik mahoratini rivojlantirishning nazariy va amaliy asoslarini chuqur o‘rganishni taqozo etadi.

Shu nuqtai nazardan, umumiy o‘rta ta’lim maktablarida o‘quvchilarning ijrochilik mahoratini shakllantirish va rivojlantirishga qaratilgan samarali pedagogik

yondashuvlarni ishlab chiqish, ularni amaliyotga tatbiq etish masalasi dolzarb ilmiy-pedagogik muammo sifatida namoyon bo‘lmoqda.

Shu bilan birga, umumiy o‘rta ta’lim maktablarida musiqa madaniyati darslarini samarali tashkil etish o‘quvchilarning ijrochilik faoliyatini tizimli rivojlantirish bilan chambarchas bog‘liqdir. Ijrochilik mahorati o‘quvchilarning individual qobiliyatlarini namoyon etish, ularning ichki imkoniyatlarini ochish va ijodiy salohiyatini rivojlantirishda muhim pedagogik vosita sifatida xizmat qiladi. Mazkur jarayonda o‘quvchilar o‘z fikr va hissiyotlarini musiqa orqali ifodalashni o‘rganib, mustaqil ijodiy tafakkurga ega bo‘lib boradilar.

Ijrochilik faoliyati o‘quvchilarning shaxsiy rivojlanishiga bevosita ta’sir ko‘rsatib, ularda o‘z-o‘zini anglash, o‘z imkoniyatlarini baholash va tahlil qilish ko‘nikmalarini shakllantiradi. Musiqiy asarlarni ijro etish jarayonida esa o‘quvchilarning ijodiy yondashuvi faollashib, ularning estetik idroki va badiiy tafakkuri yanada rivojlanadi.

Musiqa ta’limida samaradorlikka erishish ko‘p jihatdan qo‘llaniladigan pedagogik yondashuvlarga bog‘liq. Xususan, o‘quvchilarda musiqa san’atiga nisbatan barqaror qiziqishni shakllantirish, ularni milliy va jahon musiqa namunalariga jalb etish muhim ahamiyatga ega. Amaliy mashg‘ulotlarning ustuvorligi, ya’ni qo‘shiq kuylash, cholg‘u asboblarida ijro etish va ansambl faoliyatida qatnashish o‘quvchilarning ijrochilik ko‘nikmalarini mustahkamlashga xizmat qiladi. Shu bilan birga, ta’lim jarayonida individuallashtirilgan yondashuvni qo‘llash har bir o‘quvchining qobiliyat darajasidan kelib chiqib samarali natijalarga erishish imkonini beradi.

Mazkur jarayonning tarbiyaviy jihati ham alohida e’tiborga loyiqdir. Musiqa asarlarining mazmuni orqali o‘quvchilarda milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat, axloqiy fazilatlar hamda estetik did shakllanadi. Jamoaviy ijrochilik faoliyati esa o‘quvchilarda hamkorlik, o‘zaro hurmat va mas’uliyat hissini rivojlantiradi. Ayniqsa, milliy musiqa namunalarini o‘rganish va ijro etish orqali o‘quvchilarda vatanparvarlik tuyg‘usi mustahkamlanadi.

Shuningdek, o‘quvchilarning ijrochilik mahoratini rivojlantirishda ansambl va orkestr mashg‘ulotlari, turli tanlov va festivallar hamda zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish samarali natijalarni ta’minlaydi. Bunday faoliyat turlari o‘quvchilarning sahna madaniyatini oshirish, ularni ijodiy rag‘batlantirish va o‘z ustida ishlashga undashda muhim omil bo‘lib xizmat qiladi.

Natijada, musiqa madaniyati darslarida ijrochilik mahoratini rivojlantirish o‘quvchilarning nafaqat musiqiy kompetensiyalarini, balki ularning shaxsiy, ijtimoiy va madaniy sifatlarini shakllantirishga xizmat qiluvchi kompleks pedagogik jarayon sifatida namoyon bo‘ladi.

Tadqiqot jarayonida umumiy o‘rta ta’lim maktablarida musiqa madaniyati darslarining o‘quvchilar ijrochilik mahoratini rivojlantirishdagi o‘rni har tomonlama

tahlil qilindi. Olib borilgan ilmiy-pedagogik kuzatuvlar va nazariy tahlillar shuni ko‘rsatdiki, musiqa darslarini samarali tashkil etish o‘quvchilarning nafaqat musiqiy bilim va ko‘nikmalarini, balki ularning shaxsiy, ijtimoiy va estetik rivojlanishini ham ta’minlaydi.

Aniqlanishicha, ijrochilik faoliyatiga muntazam jalb etilgan o‘quvchilarda ijodiy fikrlash, estetik did, musiqiy eshituv va ritmni his qilish qobiliyatlari sezilarli darajada rivojlanadi. Shu bilan birga, ular o‘z-o‘zini ifoda etish, mustaqil fikrlash va o‘z imkoniyatlarini baholash ko‘nikmalariga ega bo‘lib boradi.

Tadqiqot natijalari shuni ham ko‘rsatdiki, zamonaviy pedagogik yondashuvlar, xususan, amaliy mashg‘ulotlarga ustuvorlik berish, ansambl va jamoaviy ijrochilikni tashkil etish, shuningdek, individuallashtirilgan ta’lim usullarini qo‘llash o‘quvchilarning ijrochilik mahoratini samarali rivojlantirishga xizmat qiladi. Bundan tashqari, turli tanlov va festivallarda ishtirok etish hamda axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish o‘quvchilarning motivatsiyasini oshirib, ularning ijodiy faolligini kuchaytiradi.

Shuningdek, musiqa madaniyati darslari o‘quvchilarning axloqiy tarbiyasiga ijobiy ta’sir ko‘rsatib, ularda milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat, jamoada ishlash madaniyati hamda vatanparvarlik tuyg‘ularini shakllantirishda muhim vosita ekanligi isbotlandi.

Umuman olganda, musiqa madaniyati darslarida ijrochilik mahoratini rivojlantirish o‘quvchilarning kompleks rivojlanishini ta’minlovchi samarali pedagogik jarayon bo‘lib, uni yanada takomillashtirish ta’lim tizimining muhim vazifalaridan biri sifatida namoyon bo‘ladi.

Olib borilgan tadqiqotlar shuni ko‘rsatdiki, umumiy o‘rta ta’lim maktablarida musiqa madaniyati darslarini samarali tashkil etish o‘quvchilarning ijrochilik mahoratini rivojlantirishda muhim omil hisoblanadi. Mazkur jarayon o‘quvchilarning musiqiy savodxonligini oshirish bilan birga, ularning ijodiy tafakkuri, estetik didi va shaxsiy fazilatlarini shakllantirishga ham ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.

Ijrochilik faoliyatiga tizimli yondashuv o‘quvchilarda kuylash, ritmni his qilish, musiqiy asarlarni ifodali ijro etish kabi amaliy ko‘nikmalarni mustahkamlashga xizmat qiladi. Shu bilan birga, bu jarayon orqali o‘quvchilarda mustaqil fikrlash, o‘zini erkin ifoda etish, jamoada ishlash va mas’uliyat hissi kabi muhim kompetensiyalar rivojlanadi.

Tadqiqot natijalariga asoslanib, quyidagi ilmiy-amaliy tavsiyalarni ilgari surish mumkin:

musiqa madaniyati darslarida amaliy mashg‘ulotlar ulushini oshirish, ayniqsa ijrochilik faoliyatiga ko‘proq e’tibor qaratish;

o‘quvchilarning individual qobiliyatlarini inobatga olgan holda differensial va individuallashtirilgan ta’limni yo‘lga qo‘yish;

ansambl, xor va orkestr mashg‘ulotlarini tizimli ravishda tashkil etish orqali jamoaviy ijrochilikni rivojlantirish;

o‘quvchilarni turli tanlovlar, festivallar va ijodiy loyihalarga jalb etish orqali ularning motivatsiyasini oshirish;

zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish orqali musiqa ta’limining samaradorligini kuchaytirish;

milliy musiqa merosi va cholg‘u asboblarini o‘rganishga alohida e’tibor qaratish orqali o‘quvchilarda vatanparvarlik va madaniy qadriyatlarga hurmat tuyg‘usini shakllantirish.

Xulosa qilib aytganda, musiqa madaniyati darslarida ijrochilik mahoratini rivojlantirish o‘quvchilarning har tomonlama kamol topishida muhim pedagogik vosita bo‘lib, uni zamonaviy yondashuvlar asosida takomillashtirish bugungi ta’lim tizimining ustuvor yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston Respublikasi Ta’lim va Fan vazirligi. "Musiqa madaniyati" umumiy o‘rta ta’lim maktablari uchun darslik. Toshkent: O‘zbekiston, 2023.
2. Karimov, Sh. "Musiqiy ta’lim va tarbiya nazariyasi." Toshkent: Ilm Ziyo Nashriyoti, 2020.
3. Axmedova, Z. "O‘quvchilarning estetik tarbiyasida musiqa madaniyatining roli." Pedagogik tadqiqotlar jurnali, 2021.
4. Ismoilov, N. "Musiqa madaniyati darslarida ijodiy yondashuvlar." Ta’lim va Texnologiyalar, 2022.
5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining "Milliy qadriyatlarni rivojlantirishda musiqa san’atining o‘rni" to‘g‘risidagi qarori. Toshkent, 2021.
6. Vygotskiy, L.S. "Ijodiy faoliyat va musiqa tarbiyasi." Moskva: Pedagogika, 1987.
7. Abdug‘aniyev, A. "O‘quvchilarning ijrochilik qobiliyatlarini rivojlantirishning zamonaviy usullari." Ta’limni Modernizatsiya Qilish Ilmiy Jurnali, 2023.

O‘QITUVCHI OBRO‘YINI OSHIRISHNING PEDAGOGIK SHART-SHAROITLARI

Kamalov Azamat Jamalovich
Qori Niyoziy nomidagi Tarbiya pedagogikasi milliy instituti mustaqil izlanuvchisi
https://doi.org/10.5281/zenodo.23177169

Annotatsiya. *Maqolada o‘qituvchi obro‘yining tarkibiy tuzilishi, unga ta’sir etuvchi ichki va tashqi omillar tahlil qilingan, «omil» va «pedagogik shart-sharoit» tushunchalarining farqi asoslangan. O‘qituvchi obro‘yini oshirishning tashkiliy-boshqaruv, kasbiy-pedagogik, psixologik-pedagogik va ijtimoiy-madaniy shart-sharoitlari tizimi taklif etilib, ularning mazmuni, amalga oshirish mexanizmlari va kutilayotgan natijalari ochib berilgan. Shuningdek, ushbu shart-sharoitlarni amaliyotga tatbiq etishdagi qiyinchiliklar va ularni bartaraf etish yo‘llari ko‘rsatilgan.*
Kalit so‘zlar: *o‘qituvchi obro‘yi, pedagogik shart-sharoit, omil, kasbiy kompetentlik, pedagogik muloqot, mentorlik, ijtimoiy institutlar, ustozga hurmat.*
Аннотация. *В статье проанализированы структура авторитета учителя, внутренние и внешние факторы, влияющие на него, обосновано различие понятий «фактор» и «педагогическое условие». Предложена система организационно-управленческих, профессионально-педагогических, психолого-педагогических и социально-культурных условий повышения авторитета учителя, раскрыты их содержание, механизмы реализации и ожидаемые результаты. Также показаны трудности внедрения данных условий в практику и пути их преодоления.*
Ключевые слова: *авторитет учителя, педагогическое условие, фактор, профессиональная компетентность, педагогическое общение, наставничество, социальные институты, уважение к учителю.*
Abstract. *The article analyzes the structure of teacher authority and the internal and external factors that shape it, and substantiates the distinction between the concepts of “factor” and “pedagogical condition”. A system of organizational-managerial, professional-pedagogical, psychological-pedagogical and socio-cultural conditions for enhancing teacher authority is proposed, and its content, implementation mechanisms and expected outcomes are described. The difficulties of putting these conditions into practice and ways of overcoming them are also identified.*
Keywords: *teacher authority, pedagogical condition, factor, professional competence, pedagogical communication, mentoring, social institutions, respect for teachers.*

Jamiyat taraqqiyotining barcha bosqichlarida o‘qituvchi shaxsi ta’lim-tarbiya jarayonining markaziy subyekti sifatida alohida o‘rin tutib kelgan. Yosh avlodni tarbiyalash, unga bilim va ko‘nikmalar berish jarayonida o‘qituvchining kasbiy mahorati bilan bir qatorda uning o‘quvchilar, hamkasblar, ota-onalar va jamiyat oldidagi obro‘-e’tibori ham hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Pedagogik faoliyat bevosita insonlararo munosabatlar, ta’sir va o‘zaro ishonch asosida amalga oshirilgani sababli o‘qituvchi obro‘yi pedagogik jarayon samaradorligini belgilovchi eng muhim omillardan biri hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasida so‘nggi yillarda qabul qilingan me’yoriy-huquqiy hujjatlarda pedagog kadrlarning ijtimoiy maqomini yuksaltirish, ularning mehnatini

munosib qadrlash va kasbiy mahoratini muntazam oshirib borish uchun zarur shart-sharoitlar yaratish davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishi sifatida belgilangan[27,28,29]. Xususan, «Pedagogning maqomi to‘g‘risida»gi Qonunda pedagogning huquqlari, sha’ni, qadr-qimmati va ishchanlik obro‘si davlat himoyasi ostida ekani mustahkamlab qo‘yildi[30].

Shu bilan birga, axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining jadal rivojlanishi, o‘quvchi va ota-onalarning o‘qituvchiga bo‘lgan talab va munosabatlarining o‘zgarishi, ijtimoiy tarmoqlarda pedagog kasbiga nisbatan shakllanayotgan turlicha qarashlar o‘qituvchi obro‘yini shakllantirish masalasiga yangicha, kompleks yondashuvni taqozo etmoqda. Xalqaro tadqiqotlar pedagog kasbining jamiyatdagi nufuzi bilan o‘qituvchilarni tanlash va tayyorlash talablari, ularning kasbiy e’tirofi hamda ta’lim sifati o‘rtasida bog‘liqlik mavjudligini ko‘rsatadi[31,32]. Milliy ta’lim tizimini rivojlantirishda ushbu tajriba bilan birga o‘zbek xalqining ustozga hurmat borasidagi boy ma’naviy merosiga tayanish ham muhim ahamiyatga ega[33].

Amaliyotda ba’zan yuqori malakali pedagoglar ham o‘quvchilar va ota-onalar orasida yetarli obro‘ga ega bo‘lmasligi kuzatiladi. Bu muammoning faqat kasbiy bilim darajasi bilan emas, balki kompleks pedagogik-psixologik va ijtimoiy omillar bilan bog‘liqligidan dalolat beradi. Ayniqsa, kasbiy faoliyatining dastlabki yillarida yosh o‘qituvchi o‘quvchilar, ota-onalar va hatto tajribali hamkasblari oldida o‘z obro‘sini shakllantirishda qator qiyinchiliklarga duch keladi. Shu bois **maqolaning maqsadi** – o‘qituvchi obro‘yini oshirishning pedagogik shart-sharoitlarini ilmiy asoslash, ularning tarkibiy tuzilishi va amalga oshirish mexanizmlarini aniqlashdan iborat.

«Pedagogik shart-sharoit» tushunchasi pedagogika fanida ta’lim-tarbiya jarayonining muayyan maqsadga erishishini ta’minlovchi obyektiv va subyektiv omillar, vositalar hamda tashkiliy-metodik chora-tadbirlar majmui sifatida talqin etiladi. N.V.Ippolitova va N.S.Sterxova ushbu tushunchani tahlil qilib, pedagogik

[27]O‘zbekiston Respublikasining «Ta’lim to‘g‘risida»gi Qonuni. 2020-yil 23-sentabr, O‘RQ-637-son // Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi: www.lex.uz.

[28]O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida»gi PF-60-son Farmoni. 2022-yil 28-yanvar // Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi: www.lex.uz.

[29]O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «2022–2026-yillarda xalq ta’limini rivojlantirish bo‘yicha milliy dasturni tasdiqlash to‘g‘risida»gi PF-134-son Farmoni. 2022-yil 11-may // Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi: www.lex.uz.

[30]O‘zbekiston Respublikasining «Pedagogning maqomi to‘g‘risida»gi Qonuni. 2024-yil 1-fevral, O‘RQ-901-son // Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi: https://lex.uz/ru/docs/-6786401.

[31]Dolton P. et al. Global Teacher Status Index 2018. – London: Varkey Foundation, 2018.

[32]OECD. TALIS 2018 Results (Volume II): Teachers and School Leaders as Valued Professionals. – Paris: OECD Publishing, 2020.

[33]Avloniy A. Turkiy guliston yoxud axloq. – T.: O‘qituvchi, 1992.

shart-sharoitlarni tashkiliy-pedagogik, psixologik-pedagogik va didaktik turlarga ajratadi[34]. Mazkur yondashuvga ko‘ra, shart-sharoitlar bir tomondan pedagogik jarayonning tashqi muhitini, ikkinchi tomondan esa uning ichki mexanizmlarini – metodik ta’minot, psixologik muhit va subyektlar o‘rtasidagi munosabatlar xarakterini qamrab oladi.

O‘qituvchi shaxsi va kasbiy faoliyati psixologiyasi A.K.Markova[35] hamda L.M.Mitina[36] tadqiqotlarida o‘qituvchining kasbiy mahorati, shaxsiy fazilatlari va kasbiy rivojlanishining o‘zaro bog‘liqligi nuqtai nazaridan o‘rganilgan. V.A.Kan-Kalik pedagogik muloqotni o‘qituvchi kasbiy faoliyatining markaziy bo‘g‘ini sifatida tadqiq etib, muloqot uslubining o‘qituvchiga nisbatan munosabat shakllanishidagi rolini ko‘rsatib bergan[37].

Milliy pedagogikada pedagog kadrlarni tayyorlash va malakasini oshirish masalalari Sh.Mardonov[38], o‘qituvchining kasbiy kompetentligini shakllantirish texnologiyalari N.A.Muslimov va boshqalar[39], milliy tarbiya va ustozga hurmat an’analari M.Quronov[40] ishlarida yoritilgan. Xorijiy tadqiqotlardan J.Hattie meta-tahlillari o‘qituvchi bilan bog‘liq omillarning ta’lim natijalariga ta’siri eng kuchli omillar qatorida ekanini ko‘rsatgan bo‘lsa[41], J.Epstein maktab, oila va jamoatchilik hamkorligining konseptual modelini ishlab chiqqan[42]. Biroq mavjud tadqiqotlarda o‘qituvchi obro‘yini oshirishning pedagogik shart-sharoitlari yaxlit tizim sifatida yetarlicha tadqiq etilmagan.

Tadqiqotda tizimli-kompleks yondashuv asosida ilmiy-pedagogik adabiyotlar va me’yoriy-huquqiy hujjatlarni nazariy tahlil qilish, xorijiy va milliy tajribani qiyosiy o‘rganish, pedagogik kuzatish hamda ilg‘or pedagogik amaliyot tajribasini umumlashtirish metodlaridan foydalanildi.

O‘qituvchi obro‘yining tarkibiy tuzilishini tahlil qilish natijasida uning to‘rt asosiy komponentini ajratib ko‘rsatish mumkin: **kasbiy-mahoratli** (fanni chuqur bilish, pedagogik-metodik mahorat, zamonaviy ta’lim texnologiyalaridan samarali

[34]Ипполитова Н.В., Стерхова Н.С. Анализ понятия «педагогические условия»: сущность, классификация // General and Professional Education. – 2012. – № 1. – С. 8–14.

[35]Маркова А.К. Психология труда учителя. – М.: Просвещение, 1993. – 192 с.

[36]Митина Л.М. Учитель как личность и профессионал (психологические проблемы). – М.: Дело, 1994. – 216 с.

[37]Кан-Калик В.А. Учителю о педагогическом общении. – М.: Просвещение, 1987. – 190 с.

[38]Mardonov Sh. Yangi ta’limiy qadriyatlar asosida pedagog kadrlarni tayyorlash va malakasini oshirish. – T.: Fan, 2006. – 226 b.

[39]Muslimov N.A. va boshq. Kasb ta’limi o‘qituvchilarining kasbiy kompetentligini shakllantirish texnologiyasi: Monografiya. – T.: Fan va texnologiya, 2013. – 128 b.

[40]Quronov M. Milliy tarbiya. – T.: Ma’naviyat, 2007.

[41]Hattie J. Visible Learning: A Synthesis of Over 800 Meta-Analyses Relating to Achievement. – London; New York: Routledge, 2009. – 392 p.

[42]Epstein J.L. School, Family, and Community Partnerships: Preparing Educators and Improving Schools. – Boulder, CO: Westview Press, 2001.

foydalana olish); **axloqiy-shaxsiy** (adolatlilik, halollik, mas’uliyatlilik, o‘quvchilarga hurmat va insonparvarlik); **kommunikativ-psixologik** (o‘quvchilar, ota-onalar va hamkasblar bilan samarali muloqot o‘rnatish, empatiya, nizolarni konstruktiv hal qilish); **ijtimoiy-huquqiy** (jamiyatdagi ijtimoiy maqom, huquqiy himoyalanganlik, kasbiy faoliyatning jamoatchilik tomonidan e’tirof etilishi). Ushbu komponentlarning uyg‘un rivojlanishi o‘qituvchi obro‘yining barqaror shakllanishini ta’minlaydi.

Tadqiqotda «omil» va «pedagogik shart-sharoit» tushunchalari farqlab olindi. Omil muayyan hodisaga ta’sir etuvchi obyektiv yoki subyektiv kuch bo‘lsa, shart-sharoit ana shu omillarni maqsadli tashkil etish va boshqarish natijasida yuzaga keladigan pedagogik vaziyatdir. Boshqacha aytganda, omillar potensial imkoniyatlar, shart-sharoitlar esa ularni maqsadli faoliyat orqali real natijaga aylantiruvchi vositalar tizimidir.

O‘qituvchi obro‘yiga ta’sir etuvchi omillar ikki guruhga ajratildi. **Ichki (subyektiv) omillar** – kasbiy bilim va malaka, pedagogik mahorat, nutq madaniyati, tashqi qiyofa va o‘zini tutish odobi, ijodkorlik, hissiy-irodaviy barqarorlik, o‘z-o‘zini nazorat qilish qobiliyati. **Tashqi (obyektiv) omillar** – ta’lim muassasasi boshqaruvining sifati, moddiy-texnik va metodik ta’minot, mehnatni rag‘batlantirish tizimi, davlatning pedagog kadrlarga oid ijtimoiy siyosati, ommaviy axborot vositalari va ijtimoiy tarmoqlarda kasbning yoritilishi, ota-onalar va jamoatchilik bilan hamkorlik darajasi (1-jadval).

1-jadval

O‘qituvchi obro‘yiga ta’sir etuvchi omillarning tasnifi

Omillar guruhi	Tarkibiy elementlari	Ta’sir xususiyati
Ichki (subyektiv) omillar	Kasbiy bilim va mahorat, nutq madaniyati, tashqi qiyofa, ijodkorlik, hissiy-irodaviy barqarorlik, o‘z-o‘zini nazorat qilish	Bevosita o‘qituvchi shaxsiga bog‘liq, maqsadli ishlash orqali rivojlantiriladi
Tashqi (obyektiv) omillar	Boshqaruv sifati, moddiy-metodik ta’minot, rag‘batlantirish tizimi, davlat siyosati, OAV munosabati, jamoatchilik hamkorligi	Ijtimoiy-institutsional muhit tomonidan shakllantiriladi, tashkiliy chora-tadbirlar orqali yaxshilanadi

Ichki va tashqi omillar o‘zaro dialektik bog‘liqlikda namoyon bo‘ladi: adolatli rag‘batlantirish va malaka oshirish imkoniyatlari o‘qituvchining ichki salohiyatini rivojlantirishga turtki bersa, uning yuksak kasbiy-shaxsiy sifatlari tashqi muhitda ijobiy munosabat shakllanishiga xizmat qiladi. Shu sababli faqat bitta omillar guruhiga yo‘naltirilgan chora-tadbirlar (masalan, faqat moddiy rag‘batlantirish yoki faqat malaka oshirish kurslari) muammoni tizimli hal eta olmaydi. Bundan tashqari,

yosh o‘qituvchi obro‘yi ko‘proq bilim darajasi, ishtiyoq va yangi yondashuvlarni qo‘llay olish bilan, tajribali o‘qituvchiniki esa to‘plangan tajriba va barqaror natijalar bilan belgilanadi. Bu kasbiy faoliyat bosqichlariga ko‘ra tabaqalashtirilgan yondashuvni talab etadi.

Pedagogik amaliyot tajribasini umumlashtirish asosida o‘qituvchi obro‘yini oshirishning pedagogik shart-sharoitlari to‘rt guruhga birlashtirildi.

Tashkiliy-boshqaruv shart-sharoitlari ta’lim muassasasi rahbariyati tomonidan o‘qituvchi faoliyatini samarali tashkil etish, rag‘batlantirish va kasbiy o‘sishi uchun imkoniyatlar yaratishni nazarda tutadi[43]. Bunda, birinchidan, o‘qituvchi mehnatini obyektiv mezonlar asosida adolatli va shaffof baholash tizimi muhim: notransparent baholash jamoada norozilik va motivatsiya pasayishini keltirib chiqaradi[44]. Ikkinchidan, malaka oshirish, ilg‘or tajriba bilan tanishish, ilmiy-amaliy anjumanlarda ishtirok etish orqali uzluksiz kasbiy rivojlanish ta’minlanishi lozim. Uchinchidan, ish yuklamasini oqilona taqsimlash va ortiqcha hujjatbozlikni qisqartirish zarur; qonunchilikda pedagogdan kasbiy majburiyatlariga taalluqli bo‘lmagan hisobotlarni talab qilish taqiqlangani ham shu maqsadga xizmat qiladi[45]. To‘rtinchidan, o‘qituvchining ijtimoiy-huquqiy himoyasini kuchaytirish, elektron portfolio va reyting tizimlari orqali baholashda subyektivlikni kamaytirish, demokratik boshqaruv uslubini qo‘llash talab etiladi.

Kasbiy-pedagogik shart-sharoitlar o‘qituvchining pedagogik mahorati, metodik tayyorgarligi va kasbiy kompetentligini rivojlantirishga qaratilgan. Zamonaviy o‘qituvchidan interfaol texnologiyalar, raqamli ta’lim platformalari va sun’iy intellekt asosidagi vositalardan samarali foydalana olish talab etiladi. Pedagogik jamoada «ustoz-shogird» an’analarini rivojlantirish, yosh mutaxassislarga mentorlik qilish tizimini yo‘lga qo‘yish muhim yo‘nalish hisoblanadi; qonunchilikka ko‘ra, umumiy o‘rta ta’lim tashkilotida ilk bor faoliyat boshlagan pedagogga bir o‘quv yili davomida murabbiylik uchun tajribali pedagog biriktiriladi[46]. O‘z faoliyatini tahlil qilish va refleksiya ko‘nikmalarini rivojlantirish[47], baholashda adolatlilik va individual yondashuv, kasbiy standartlarni muntazam yangilab borish hamda uzluksiz o‘z-o‘zini takomillashtirishga ichki ehtiyojni shakllantirish ham shu guruhga kiradi.

Psixologik-pedagogik shart-sharoitlar o‘qituvchi va o‘quvchi, o‘qituvchi va ota-ona, o‘qituvchi va hamkasblar o‘rtasidagi munosabatlarning insonparvarlik va hamkorlik ruhida tashkil etilishini ta’minlaydi. Hurmat, ishonch va o‘zaro

[43]Qurbonov Sh., Seytxalilov E. Ta’lim sifatini boshqarish. – T.: Turon-Iqbol, 2006. – 592 b.

[44]G‘oziyev E. Faoliyat va xulq-atvor motivatsiyasi. – T.: Universitet, 2003. – 124 b.

[45]O‘zbekiston Respublikasining «Pedagogning maqomi to‘g‘risida»gi Qonuni. Ko‘rsatilgan manba.

[46]O‘sha manba.

[47]Schön D.A. The Reflective Practitioner: How Professionals Think in Action. – New York: Basic Books, 1983. – 374 p.

tushunishga asoslangan muloqot uslubi o‘qituvchi obro‘yini mustahkamlasa, avtoritar yoki kamsituvchi uslub yuksak bilimga ega o‘qituvchining ham obro‘siga putur yetkazadi[48]. O‘qituvchining hissiy-irodaviy barqarorligi, nizoli vaziyatlarni konstruktiv hal qila olishi, kasbiy hissiy charchashning oldini olish va psixologik yordam tizimini yo‘lga qo‘yish ham dolzarb hisoblanadi[49]. Pedagogik etika normalariga izchil rioya etish o‘qituvchi xatti-harakatlarida bashorat qilinuvchanlikni ta’minlab, o‘quvchi va ota-onalarda barqaror ishonch hissini shakllantiradi.

Ijtimoiy-madaniy shart-sharoitlar o‘qituvchi kasbining jamiyatda yuksak qadrlanishiga qaratilgan. Ommaviy axborot vositalari va ijtimoiy tarmoqlarda o‘qituvchilarning ijobiy tajribasini targ‘ib qilish, salbiy holatlarni haddan tashqari umumlashtirishga yo‘l qo‘ymaslik, maktab-oila hamkorligini mustahkamlash[50], kasbiy tanlovlar va ilg‘or tajribani ommalashtirish tadbirlarini o‘tkazish shu guruhning asosiy yo‘nalishlaridir. Uzoq muddatli istiqbolda o‘zbek xalqining ustozga hurmat an’analariga asoslangan tarbiyaviy muhitni shakllantirish o‘qituvchi obro‘yining barqaror negizini yaratadi[51]. Shart-sharoitlar tizimi 2-jadvalda umumlashtirilgan.

2-jadval

O‘qituvchi obro‘yini oshirishning pedagogik shart-sharoitlari tizimi

Shart-sharoitlar guruhi	Asosiy mazmuni	Amalga oshirish mexanizmlari	Kutilayotgan natija
Tashkiliy-boshqaruv	Adolatli baholash va rag‘batlantirish, kasbiy o‘sish imkoniyatlari, ish yukini oqilona taqsimlash	Shaffof reyting va rag‘batlantirish tizimlari, malaka oshirish dasturlari, ijtimoiy-huquqiy himoya choralari	Institutsional ishonch va motivatsiya ortadi
Kasbiy-pedagogik	Pedagogik mahorat, metodik tayyorgarlik, zamonaviy texnologiyalardan foydalanish darajasini oshirish	Metodik seminarlar, mentorlik tizimi, innovatsion texnologiyalarni joriy etish, ilmiy-amaliy faoliyatni rag‘batlantirish	Ta’lim sifati va kasbiy nufuz ortadi

[48]Кан-Калик В.А. Указ. соч.

[49]Maslach C., Jackson S.E. The measurement of experienced burnout // Journal of Occupational Behaviour. – 1981. – Vol. 2, No. 2. – P. 99–113.

[50]Epstein J.L. Op. cit.

[51]Avloniy A. Ko‘rsatilgan asar; Quronov M. Ko‘rsatilgan asar.

Shart-sharoitlar guruhi	Asosiy mazmuni	Amalga oshirish mexanizmlari	Kutilayotgan natija
Psixologik-pedagogik	Insonparvar pedagogik muloqot, hissiy barqarorlik, individual yondashuv	Muloqot madaniyati bo‘yicha treninglar, psixologik qo‘llab-quvvatlash xizmati, nizolarni konstruktiv hal qilish mexanizmlari	O‘quvchi-o‘qituvchi ishonchi mustahkamlanadi
Ijtimoiy-madaniy	Kasb nufuzini targ‘ib qilish, oila-maktab hamkorligi, milliy qadriyatlarga tayanish	OAV va ijtimoiy tarmoqlarda ijobiy tajribani yoritish, ota-onalar bilan hamkorlik dasturlari, ustozga hurmat tarbiyasi	Kasbning ijtimoiy maqomi yuksaladi

Shart-sharoitlarni amaliyotga tatbiq etishda qator qiyinchiliklar yuzaga kelishi mumkin: ortiqcha hujjat yuritish va byurokratik ishlar o‘qituvchining pedagogik faoliyatga ajratadigan vaqtini qisqartiradi; rag‘batlantirish tizimining yetarli shakllanmaganligi va baholashdagi subyektivlik kasbiy motivatsiyani pasaytiradi; ijtimoiy tarmoqlarda salbiy holatlarning tez tarqalishi va umumlashtirilishi pedagoglar nufuziga salbiy ta’sir ko‘rsatadi; raqamli muhitda ulg‘aygan o‘quvchilarning kutilmalari bilan an’anaviy pedagogik yondashuvlar o‘rtasida nomuvofiqlik kuzatiladi; pedagogik mehnat murakkabligi va mas’uliyatining moddiy ta’minot bilan to‘liq muvofiqlashtirilmaganligi kasb jozibadorligiga bilvosita ta’sir qiladi. Bu qiyinchiliklarni bartaraf etish to‘rt guruh shart-sharoitni o‘zaro uzviy bog‘liqlikda va tizimli amalga oshirishni taqozo etadi.

Xulosa va takliflar

Tadqiqot natijalari asosida quyidagi xulosalarga kelindi. Birinchidan, o‘qituvchi obro‘yi kasbiy-mahoratli, axloqiy-shaxsiy, kommunikativ-psixologik va ijtimoiy-huquqiy komponentlardan iborat yaxlit tuzilma bo‘lib, uning shakllanishiga ichki va tashqi omillar o‘zaro dialektik bog‘liqlikda ta’sir ko‘rsatadi. Ikkinchidan, «omil» va «pedagogik shart-sharoit» tushunchalarini farqlash omillarni maqsadli boshqarish orqali real natijaga aylantirish imkonini beradi. Uchinchidan, tashkiliy-boshqaruv, kasbiy-pedagogik, psixologik-pedagogik va ijtimoiy-madaniy shart-sharoitlar izolyatsiyalangan holda emas, balki yaxlit tizim sifatida amal qilgandagina o‘qituvchi obro‘yini barqaror oshirishni ta’minlaydi.

Pedagogik shart-sharoitlar tizimi yakuniy emas, balki ta’lim tizimidagi o‘zgarishlarga muvofiq takomillashtirib boriladigan ochiq tizim sifatida qaralishi lozim. Xususan, sun’iy intellekt texnologiyalarining ta’lim jarayoniga chuqur kirib borishi o‘qituvchi obro‘yini oshirishning yangi shart-sharoitlarini yuzaga keltirishi mumkin. Taklif etilgan tizim ta’lim muassasalari rahbariyati, metodik xizmatlar

hamda pedagog kadrlarni tayyorlash va qayta tayyorlash tizimi uchun amaliy tavsiyalar ishlab chiqishda nazariy-metodik asos bo‘lib xizmat qilishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasining «Ta’lim to‘g‘risida»gi Qonuni. 2020-yil 23-sentabr, O‘RQ-637-son // Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi: www.lex.uz.
2. O‘zbekiston Respublikasining «Pedagogning maqomi to‘g‘risida»gi Qonuni. 2024-yil 1-fevral, O‘RQ-901-son // Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi: https://lex.uz/ru/docs/-6786401.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida»gi PF-60-son Farmoni. 2022-yil 28-yanvar // Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi: www.lex.uz.
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «2022–2026-yillarda xalq ta’limini rivojlantirish bo‘yicha milliy dasturni tasdiqlash to‘g‘risida»gi PF-134-son Farmoni. 2022-yil 11-may // Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi: www.lex.uz.
5. Avloniy A. Turkiy guliston yoxud axloq. – T.: O‘qituvchi, 1992.
6. G‘oziyev E. Faoliyat va xulq-atvor motivatsiyasi. – T.: Universitet, 2003. – 124 b.
7. Mardonov Sh. Yangi ta’limiy qadriyatlar asosida pedagog kadrlarni tayyorlash va malakasini oshirish. – T.: Fan, 2006. – 226 b.
8. Muslimov N.A. va boshq. Kasb ta’limi o‘qituvchilarining kasbiy kompetentligini shakllantirish texnologiyasi: Monografiya. – T.: Fan va texnologiya, 2013. – 128 b.
9. Qurbonov Sh., Seytxalilov E. Ta’lim sifatini boshqarish. – T.: Turon-Iqbol, 2006. – 592 b.
10. Quronov M. Milliy tarbiya. – T.: Ma’naviyat, 2007.
11. Кан-Калик В.А. Учителю о педагогическом общении. – М.: Просвещение, 1987. – 190 с.
12. Ипполитова Н.В., Стерхова Н.С. Анализ понятия «педагогические условия»: сущность, классификация // General and Professional Education. – 2012. – № 1. – С. 8–14.
13. Маркова А.К. Психология труда учителя. – М.: Просвещение, 1993. – 192 с.
14. Митина Л.М. Учитель как личность и профессионал (психологические проблемы). – М.: Дело, 1994. – 216 с.
15. Epstein J.L. School, Family, and Community Partnerships: Preparing Educators and Improving Schools. – Boulder, CO: Westview Press, 2001.
16. Hattie J. Visible Learning: A Synthesis of Over 800 Meta-Analyses Relating to Achievement. – London; New York: Routledge, 2009. – 392 p.
17. Maslach C., Jackson S.E. The measurement of experienced burnout // Journal of Occupational Behaviour. – 1981. – Vol. 2, No. 2. – P. 99–113.
18. OECD. TALIS 2018 Results (Volume II): Teachers and School Leaders as Valued Professionals. – Paris: OECD Publishing, 2020.
19. Schön D.A. The Reflective Practitioner: How Professionals Think in Action. – New York: Basic Books, 1983. – 374 p.
20. Dolton P. et al. Global Teacher Status Index 2018. – London: Varkey Foundation, 2018.

BOLALAR ADABIYOTI VOSITASIDA BOSHLANG‘ICH SINF O‘QUVCHILARINING UMUMINSONIY QADRIYATLARINI RIVOJLANTIRISH

Kamoljonova Dilfuza Xoldorovna
Qori Niyoziy nomidagiTPMI matbuot kotibi, pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
https://doi.org/10.5281/zenodo.23177215

Annotatsiya. *Maqolada bolalar adabiyoti vositasida boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida empatiya va muloyimlik, do‘stlik va jamoaviy ishlash, adolat va haqiqat, mas’uliyat va halollik, mustaqil qaror qabul qilish ko‘nikmalarini rivojlantirish metodlari haqida so‘z boradi.*
Kalit so‘zlar: *hissiy emotsional metodlar, jamoaviy ishlash, mas’uliyat va halollik, tanqidiy fikrlash, mustaqil qaror qilish.*

Mutola bilim olishning asosiy vositalaridan biri bo‘lib, olamni idrok etish, o‘rganishda kitob mutolaasi asosiy o‘rin tutadi. O‘quvchilarda umuminsoniy qadriyatlarni shakllantirishda badiiy adabiyotning o‘rni muhim hisoblanadi.

Badiiy adabiyot o‘qish jarayonida asar qahramonlari obrazi asosida o‘quvchi o‘zida bag‘rikenglik, mehr-shafqat, tog‘rilik, halollik, mehnatsevarlik kabi xislatlarni tarbiyalaydi. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida umuminsoniy qadriyatlarni shakllantirishda xalq og‘zaki ijodi namunalari muhim ahamiyatga ega. “Zumrad va Qimmat”, “Egri va To‘g‘ri”, “Uch og‘a-ini botirlar”, “Ur to‘qmoq” kabi o‘zbek xalq ertaklari, “Qaynar xumcha”, “Laylak va Tulki”, “Bo‘g‘irsoq”, “Sholg‘om” kabi rus va jahon xalq ertaklari o‘quvchilarda guruh bo‘lib ishlash, bag‘rikenglik, tanqidiy fikrlash kabi ko‘nikmalarni shakllantirish muhum ahamiyatga ega.

Folklor namunalari bilan birga zamonaviy badiiy asar “Sariq devni minib” (X.To‘xtaboyev), “Meshpolvon” (A.Obidjon), “Kokilli ilon” (M.Xamidova), Z.Ibrohimova “Alisher va mehmon chumoli” “Quloqsiz filcha” (D.Kamoljonova) asarlari kitobxonda mana shunday fazilatlarni tarbiyalovchi badiiy asarlar hisoblanadi. Kitobxon o‘quvchining dunyoqarashi keng bo‘ladi.

Yoshlar o‘rtasida kitob mutolaasi yakka tartibda, ommaviy tarzdan, elektron yoki audio shaklda bo‘lishi mumkin. Kitob aql va tafakkurni chiniqtiradi, so‘z boyligini oshirib, kishilar bilan muloqotni yaxshilaydi. Kitobxonning o‘ziga bo‘lgan ishonchini yaxshilab, ruhiy-emotsional holatning barqaror bo‘lishini ta’minlaydi, fikrni jamlashga yordam beradi, xotirani mustahkamlaydi. Gadjetlar sabab kattalar va yoshlarda kuzatiladigan diqqat yetishmovchiligi sindromining oldini olishda kitob mutolaasi muhim hisoblanadi. Mutolaa jarayonida miya yarim sharlari harakati faollashadi, kitob o‘qish – Alsgeymer kasalligining oldini olishda yordam beradi, kreativlikni oshiradi, uyquni yaxshilaydi. Shu sabab kattalar uyquga ketishdan oldin kitob mutolaa qiladi, kichik yoshdagi bolalarga ertak o‘qib beradi.

Yuqoridagi tahlillar asosida boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining kitobxonlik ko‘nikmasini rivojlantirishning ijtimoiy texnologiyasi tanlab olindi:

1. “Sinfdan tashqari” kitobxonlik mashg‘ulotlariga qaratilgan matnlar o‘quvchilarning yosh xususiyatiga mos bo‘lishi.

2. Mutolaa ko‘nikmasini rivojlantirishga qaratilgan texnologiyada maqsad, tizimlilik, texnologiyani qayta qo‘llash orqali ijtimoiy samaradorlikka erishish.

3. Sinfdan tashqari kitobxonlik mashg‘ulotlarida milliy qahramonlar Zumrad – Qimmat, Kenja botir, Egrivoy – To‘g‘rivoy ertak qahramonlari obrazlari misolida interfaol darslarda “Insert” texnologiyasi asosida rolli o‘yinlarni amaliyotga tatbiq etish.

4. Qahramonlik obrazidagi ertak, hikoya, qissa – Zumrad, To‘g‘rivoy, Jimjiloq Botirning ijobiy fazilatlari haqida o‘qish orqali o‘quvchilar ma’naviy-axloqiy sifatlarning shakllanishi.

5. Egrivoy, Qimmatxon misolida salbiy qahramonlarni yaxshi qahramonga aylanish uchun qanday salbiy odatlardan voz kechishini kves topshiriqlar asosida shakllantirish.

6. Kitobxonlik ko‘nikmalarini rivojlantirishga oid kvestlarda ijodiy topshiriqlar tizimidan foydalanish.

O‘quvchilarining kitobxonlik ko‘nikmlarini rivojlantirishning ijtimoiy texnologiyasini ishlab chiqish tadqiqotning asosini tashkil etadi. Mazkur jarayonni milliy sharoitda samarali tashkil etishda milliy kontent alohida ahamiyat kasb etadi. Demak, ilmiy tadqiqot ishlarining tahlili “milliy kontent xalqning ertaklari, rivoyatlari, maqollari, dostonlari, tarixiy va adabiy manbalari bo‘lib, o‘quvchilarni ma’naviy, axloqiy va intellektual jihatdan kamol toptiruvchi ta’limiy resurslar majmui hisoblanadi” deb ta’kidlashga asos bo‘ldi.

Milliy kontent vositasida kitobxonlikni rivojlantirish, bir tomondan, o‘quvchilarning so‘z boyligini kengaytirish, sabab-oqibat bog‘lanishlarini anglash kabi kognitiv jarayonlarni mustahkamlaydi, ikkinchi tomondan esa, vatanparvarlik, milliy qadriyatlarga hurmat, mehr-oqibat kabi ma’naviy fazilatlarni shakllantiradi. Shuningdek, milliy ertak va hikoyalarni sahnalashtirish, “Qahramonni tanla”, “Rolli o‘yin”, “Insert” kabi interaktiv metodlar, “Muloqot”, “Tushunchalar tahlili” (Insert), “Kvest” pedagogik texnologiyasidan foydalanish o‘quvchilarda kitob mutolaasini qiziqarli va mazmunli faoliyatga aylantiradi. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari o‘rtasida kitobxonlik ko‘nikmalarini rivojlantirishda maktab, oila, jamiyatdagi muhit muhim rol o‘ynaydi.

Oilada ota-ona, bobo-buvi, opa-singil, aka-uka kitob mutolaasiga qiziqsa, o‘qigan adabiyotlarini oilaviy tahlil qilsa, o‘quvchida mutolaaga refleksiya hissi paydo bo‘ladi va bu oilaviy an’anaga aylanadi. Dars jarayonida o‘qituvchi darslikdagi materialga qo‘shimcha tarzda badiiy va ilmiy kitoblardan ijodiy topshiriqlar bersa, sinfda kitobxonlik muhiti shakllanadi.

Birinchidan, milliy kontent vositasida 3D, 4D, audio va cho‘ntak kitoblari vositasida o‘quvchilarning kitobxonlik ko‘nikmalarini rivojlantirishning ijtimiy texnologiyasi ishlab chiqilmagan. Ikkinchidan, o‘quvchilarning kitob mutolaasiga ichki motivatsiyaning sustligi, o‘quvchilar yosh xususiyatlariga mos 7+ auditoriya uchun, zamonaviy formatdagi kitoblar va e-booklar bazasi mavjud emasligi aniqlandi. Mavzuga oid adabiyotlar tahlili orqali boshlang‘ich sinf o‘quvchilarning kitobxonlik ko‘nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiladigan milliy ruhdagi zamonaviy adabiyotlar bazasi etishmasligi aniqlandi. Tahlillar gadjetlar davrida o‘quvchilarning kitobxonlik ko‘nikmalarini rivojlantirish dolzarb masala ekanligini ko‘rsatdi.

O‘quvchilarida kitobxonlik ko‘nikmalarini ijtimoiy-pedagogik imkoniyatlari folklor namunalari, milliy qahramonlar haqidagi asarlar, xalq og‘zaki ijodi namunalaridan tarkib topgan bolalar kontenti vositasida rivojlantirish, ushbu badiiy adabiyot namunalarini “O‘qish savodxonligi” darsligi, “Tarbiya” fanlariga integratsiyalash, oila, mahalla va maktabda kitobxonlik muhitini tashkil qilish, kitobxonlikni targ‘ib etuvchi ijodiy-badiiy kechalar tashkil etish, yozuvchi-shoirlar bilan uchrashuv, kitob do‘konlari, kutubxonalarga muntazam va davomli borish, mutolaani tashkil etish orqali o‘quvchilarni mutolaaga qiziqtirish, ijtimoiy qadiriyatlarga sodiqlik hissini tarbiyalash vazifasini maqsad qilib qo‘ymoqda. O‘quvchilarining kitobxonlik ko‘nikmalarini rivojlantiruvchi tadqiqot ishi mazmuni quyidagilardan tarkib topadi. Badiiy adabiyot va folklor namunalari vositasida, zamonaviy kontentlar orqali o‘quvchilarining kitobxonlik ko‘nikmalarini oila, mahalla va maktab muhitida rivojlantirish, ularning hamkorlikdagi faoliyatida zanjir mexanizmini ishlab chiqish, kichik yoshdagi o‘quvchilarida o‘qigan kitoblari yuzasidan tanqidiy fikrlash, ijodiy yondashuv ko‘nikmalarini rivojlantirish kitobxonlikni rivojlantirishning ijtimoiy ehtiyojlarini keltirib chiqaradi.

Ta’kidlash joizki, jamoaviy suhbat asnosida kitoblarni o‘qish, obrazlarni yoki voqealarni muhokama qilish o‘quvchilarda ijtimoiy qadriyatlarni egallash va amal qilishga yo‘naltirishda alohida o‘rin egallaydi. Bunday suhbatlar jarayonida o‘quvchilar o‘qigan kitoblari haqidagi fikrlarini bayon qiladi, bir-biri bilan o‘zaro fikr almashadi, o‘z g‘oyalari, qarashlarini bayon etadi, asar qahramonlarining harakatlariga, fikrlashiga baho beradi, tanqidiy va mantiqiy xulosalar chiqaradi, o‘zaro munozaraga kirishadi, shaxsiy nuqtayi nazarlarini bayon qilib, bu masalada o‘z pozitsiyasini belgilaydi. Bunday suhbatlar kitobxonlikni rivojlantirishning ijtimoiy asoslarini mustahkamlashda muhim komponent hisoblanadi.

O‘quvchilarning kitobxonlik vositasida ijtimoiylashuvining asosiy omilidan biri o‘zi o‘qigan yoki o‘qiyotgan kitobidan chuqur ta’sirlana olishi va o‘zidagi taassurotlarni muloqot, munozara jarayonlariga tatbiq eta olishidir. O‘quvchi o‘zi o‘qigan kitob qahramonlari, ular amalga oshirgan ishlar, ular duch kelgan vaziyatlarni oilada, jamiyatda, sinfda o‘z yaqinlari, tanishlari, do‘stlari bilan

muhokama qilishi o‘quvchini ijtimoiylashuviga jadal ta’sir ko‘rsatadi. O‘quvchi o‘zi o‘qigan kitob mazmunini anglab etsagina, unda munosabat, muhokama, baho, xulosa kabi fikrlar amaliyoti vujudga keladi. U kitobning asosiy mazmunini, g‘oyasini, natijasini o‘z atrofidagilar, sinfdoshlari, tengdoshlari, oila a’zolariga targ‘ib qila oladi, so‘zlab beradi, targ‘ibotchiga aylanadi va o‘zining ijtimoiy faolligini ko‘rsatadi. Ko‘rinib turibdiki, o‘quvchilarda kitobxonlikni rivojlantirish natijasida ularda oila, maktab, jamiyat orasida o‘zining faolligini amalga oshirish imkoniyatini kengaytirishimiz mumkin. Alohida ta’kidlash kerakki, ta’lim muassasalarida o‘quvchilarni kitobxonlikka yo‘naltirishning imkoniyatlari ko‘proq bo‘lib, bunda o‘qituvchilar, ota-onalar va maktab kutubxonachisining o‘zaro hamkorligini yo‘lga qo‘yish muhim. Bu uch tomonlama hamkorlik o‘quvchilarda kitobxonlik ko‘nikmalarini samarali rivojlantirishda o‘quvchiga oltin ko‘prik bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Abdulazizov A.H. Akademik litsey va kasb-hunar kollejlarida mutolaa madaniyatini shakllantirish jarayoning sotsiologik tahlili sots.f.nom. dissertatsiya Avtoreferati. – Toshkent: 2010.30 b.
2. Chinniyeva S.A. O‘quvchilarning kitobxonlik madaniyatini shakllantirish imkoniyatlari. – Toshkent: TDMI, 2007. – 48 b. https: //phoenixpublication.
3. Egamberdiyeva N. Ijtimoiy pedagogika: darslik. – Toshkent: Alisher Navoiy nomidagi Respublika kutubxonasi, 2009. – 323 b.
4. Ibraimov X.I., Quronov M.Q. Umumiy pedagogika. – Toshkent: Shaffof. 2023. – 415 b.

TARBIYA JARAYONIDA TALABALARGA INDIVIDUAL YONDOSHISH

Fayzulla Karimov
O‘zbekiston davlat konservatoriyasi “Xalq cholg‘ularida ijrochilik” kafedrasi dotsenti
https://doi.org/10.5281/zenodo.23177262

Annotatsiya. *Ushbu maqolada tarbiya jarayonida talabalarga individual yondoshish haqida so’z boradi.*
Kalit so’zlar. *Musiqa, talaba, ta’lim, tarbiya, individuallik, mahorat, kamchilik, vazifa, mashq, asar, mashg’ulot.*

Talabalar mustaqil izlanishi va mustaqil ishlashi zarur, berilgan mustqil mavzularni, vazifalarni birma-bir ko‘rib chiqishi kerak. Musiqada qolaversa boshqa soxalarda ham mustaqil tayyorlanishi bejizga emas. Milliy cholg‘ularni ya’ni orkestr ansambl jamoalarini misol qilib olsak partitura va partiyalar nota yo‘llari mavjud, shu nota yo‘llarini yodlash zarur. O‘qituvchisining ko‘rsatma va fikrlariga ko‘r-ko‘rona ergashib bo‘ysunishi emas, balki biror masala yuzasidan o‘zining shaxsiy munosabatini ijro orqali bildira olishi kerak.

O‘qituvchi rahbarligida o‘tiladigan darsning ahamiyati katta, lekin bu ish o‘quvchining mustaqil ishlari muhimligini inkor etmaydi, O‘quvchining mustaqil mashg‘ulotiga sarf bo‘layotgan vaqtini bekor o‘tkazmasligini o‘rganib borish kerak. Buning uchun o‘quvchiga mustaqil mashg‘ulotni qanday tashkil qilish, nimalarga ko‘proq e’tibor berish kerakligini tushuntirish lozim. Vaqtdan ratsional va unumli foydalanish mustaqil ishlash asosi prinsiplaridan biri bo‘lishi zarur.

Asosiy prinsiplaridan yana biri mashg‘ulotning muntazamligidir. Ijroni o‘rgatishning dastlabki davridan boshlab o‘quvchida muntazam mustaqil ishlashni ko‘nikmasini hosil qilish zarur. Odatda, muntazamlikka erishish qiyin bo‘lsa ham, bunday mashg‘ulotlar asta-sekin odat tusiga ko‘rib borishi maqsadga muvofiqdir.

Ba’zi o‘quvchilar mustaqil mashg‘ulot paytida berilgan musiqa asarini boshidan oxirigacha ko‘p marotaba takrorlayveradilar. Bunda musiqa asarining ma’nosini va o‘ziga xos xususiyatlari to‘la va aniq tahlil qilinmaydi. Asar o‘quvchi oldida ijro etib bera olish uchungina yuzaki takrorlanadi.

Ayrim o‘quvchilarning uyga berilgan vazifani tayyorlay olish hollarini ham uchratamiz. Buning sababini bir so‘z bilan tushuntirish qiyin. Lekin ko‘p hollarda uy vazifasi tayyor emasligining sababi o‘quvchining darsga bo‘lgan yomon munosabati yoki dangasaligida emas, balki vazifani oxirigacha tushunib etmasligi, musiqa asarini o‘rganishga qanday yondoshish kerakligini bilmasligidadir. Shu sababli mustaqil ishlash uchun berilayotgan vazifa o‘quvchiga batafsil tushuntirilishi, o‘quvchining imkoniyatlarini hisobga olgan holda aniqlashtirilishi lozim.

Mustaqil shug‘ullanishdagi mashg‘ulotlarning kamchiliklaridan yana biri o‘quvchilar vazifani tayyorlash jarayonida o‘z ijrolarini nazorat qila olmasliklaridir. Masalan, musiqa asarining teksti yod olinishida biror nota noto‘g‘ri o‘rganiladi va buni o‘quvchining o‘zi sezmaydi. Yoki ma’lum bir ijro usuli noto‘g‘ri bajariladi va bu ham o‘quvchining nazaridan chetda qoladi. Bunday kamchilik dars paytida o‘qituvchi tomonidan bartaraf etiladi. Ijro paytida o‘zining harakatlari, tovushlarning to‘g‘riligini nazorat qilish ko‘nikmasi o‘quvchilarda o‘z-o‘zidan paydo bo‘lmaydi, balki reja ravishda olib borilgan mashg‘ulotlar evaziga erishiladi. O‘z- o‘zini nazorat qilishning ijrochi uchun ahamiyati juda katta u orqali ijrodagi kamchiliklarga barham berish mumkin.

Mustaqil mashg‘ulot qanday tuzilishi kerak va nimalardan iborat bo‘ladi? Yuqorida aytib o‘tganimizdek, mustaqil mashgulot uchun berilgan vazifa qanchalik aniq, bo‘lsa, o‘quvchining vazifasi shuncha osonlashadi. Mustaqil mashg‘ulot qanday kechishidan qat’i nazar, uni ma’lum reja asosida olib borish yaxshi natija beradi. Quyida mutaqil mashg‘ulotlarning tahminiy tuzilishi va vaqtini keltiramiz:

1. Gamma, uch tovushliklar va turli mashqlarni ijro etish 10-15 daqiqa.
2. Yangi berilgan vazifani o‘zlashtirish 15-20 daqiqa.
3. Dam olish uchun 5 daqiqa.
4. Oldin o‘rganilgan vazifalarni takrorlash 20-25 daqiqa.

Keltirilgan vaqtlar me’yori taxminiy bo‘lib, uni belgilashda o‘quvchining individual imkoniyatlarini hisobga olgan holda vazifalar hajmining katta-kichikligiga qarab kamaytirish yoki, aksincha, ko‘paytirish mumkin.

Mustaqil mashg‘ulot uchun keltirilgan taxminiy vaqtning jami 45-60 daqiqani tashkil etyapti. Bu bir qarashda kamdek ko‘rinishi mumkin. Ammo mashg‘ulotlar muntazam ravishda davom ettirilsa, ko‘zlangan natijaga bemalol erishish mumkin.

Musiqa asarini yod olishni har bir sozanda qobiliyati va imkoniyatlaridan kelib chiqqan holda amalga oshiradi. Bu borada hamma uchun yagona ko‘rsatma bo‘lishi qiyin. Ba’zi sozandalarda tekstni ko‘rib eslab qolish qobiliyati kuchliroq bo‘lsa, boshqalarida eshitib eslab qolish qobiliyati kuchli. Shu sababdan ham asarni yod olish ishida ularning metodlari turlicha bo‘ladi. Muhimi, musiqa asari qaysi bir metod bilan yod olinishidan qat’i nazar, u sozandaning yodida mustahkam o‘rnashib qolishidir.

Hozirgi paytda o‘quv yurtlaridagi o‘zlashtiriladigan ma’lumotlar miqdorining ortib borishi, kam vaqt sarf qilib ko‘proq natijaga erishishni taqozo etadi.

O‘quvchilarning mustaqil mashg‘ulotlari muvaffaqiyatli bo‘lishiga o‘qituvchi rahbarligida sinfdagi darsni shu mustaqil mashg‘ulotga yaqinlashtirib o‘tish yordam beradi. Bunda o‘quvchi barcha vazifalarni mustaqil bajaradi va o‘qituvchi kerak bo‘lgandagina o‘z ko‘rsatmalarini beradi.

O‘qituvchining mustaqil mashguloti kunning qaysi vaqtiga mo‘ljallanishi kerak? Bunday mashgulot vaqtini belgilash o‘quvchining kun tartibiga bog‘liq. Agar o‘quv yurtidagi mashg‘ulotlar asosan kunning birinchi yarmida bo‘lsa, mustaqil mashg‘ulot kunning ikkinchi yarmida o‘tkaziladi. muhimi, mustaqil mashg‘ulot har kuni bir vaqtda o‘tkazilishi.

4. Выполнение практических заданий.
5. Консультация учителя.
6. Презентация результатов работы.
7. Обсуждение результатов.
8. Анализ ошибок.
9. Выработка рекомендаций по устранению ошибок.
10. Демонстрация выполненной работы.

Изложенные концептуальные положения теоретической части исследования практически реализовывались в комплексной методике, включающей несколько направлений и реализующей развивающие и профессионально-направленные возможности предмета: работа с текстами – заполнение тематических таблиц, самостоятельное определение реалий в новых текстах, компаративный анализ, паспортизация ключевых слов и др.; поэтапная работа с творческими заданиями, самостоятельно выбранными учениками; организация самостоятельной работы – работа с книгой, домашняя самоподготовка, самостоятельность в процессе аудиторного обучения, алгоритмы порядка самостоятельных занятий и решения познавательно-интеллектуальных задач.

Важная роль отводилась учебным и методическим материалам, в которые были включены: учебная литература по курсу (несколько базовых учебников, в которых излагаются основные положения модуля); дополнительная литература по каждому модулю (учебники, монографии, журналы, сайты); методические указания по каждому модулю; методические рекомендации по

выполнению самостоятельных работ по каждому модулю (развернутое описание практических ситуационных заданий, формы контроля, вид и форма предоставления отчетного материала, рекомендуемая литература, количество баллов за каждый вид работы).

Перед началом изучения нового блока учебного материала ученик получал заранее разложенные на столах следующие модульные пособия или комплекты дидактических материалов, входящих в модуль: опорный конспект содержания всего блока; «зачетные листы» с программой изучения материала и проверочными заданиями; карточки для закрепления и взаимоконтроля; образец итоговой контрольной работы; лист самоконтроля с образцами решений и ответами ко всем проверочными заданиям.

Особенности ролевой деятельности учителя и учеников, которая обеспечивалась в процессе формирующего эксперимента, представлена на рис. 1.

Рис. 1
Роли учителя и ученика в модульном обучении

Учитель	**Ученики**
Постановка целей и задач обучения, воспитания и развития учеников. - информационный ввод, тем самым отвечает на вопрос «что изучаем и зачем изучаем?»; - организационный ввод, где учитель дает учебную установку, то есть отвечает на вопрос «как?»; - предоставление модулей- инструкций; - предлагается алгоритм поведения; - учитель обращает внимание на варьирование учебного материала (показывая источники информации для обязательного изучения и ознакомления по выбору); - уточнение инструкций при практической работе с ними;	Предоставление ученику центрального места в системе **«учитьель – ученик»**, перевод ученика из состояния объекта обучения и воспитания в состояние активной деятельности как субъекта жизни. Самостоятельная работа учеников с опорными конспектами (модулями). Свертывание и развертывание учебной информации способствует активизации внимания студентов. Цель данного этапа заключена в формировании психологической готовности учеников к восприятию поступающей информации. Самостоятельная работа учеников по закреплению учебного материала (с опорой на модули и консультационно-коррекционную деятельность учителя). Данный этап характеризуется расширением поля сознания учеников, осознанием ими поступающей информации и подготовкой своих собственных аналогий.

мотивация, организация, координация, консультация, контроль; осуществление мотивационно-рефлексивного управления обучением. Информационно-контролирующая деятельность учителя (осознание учениками учебной информации). Консультационно-коррекционная деятельность учителя (с опорой на модули), индивидуальное консультирование, дозированная помощь ученикам; Главной задачей этого этапа является активизация подсознательной деятельности учеников - предлагает учебные и тестовые задания на различных этапах занятия; Осуществление рейтинговой системы контроля учебных достижений по ходу освоения модулей. - предоставляет возможность ученикам оценить свои знания на промежуточном и итоговом контроле. - контроль знаний и коррекция умений и навыков.	Выполнение ситуационных заданий в рамках конкретного учебного модуля; Обучающийся работает максимум времени самостоятельно, учится целеполаганию, самопланированию, самоорганизации и самоконтролю. Формирование умений - умение ставить цель своей деятельности и подчинять все свои действия этой цели; - умение самостоятельно добывать знания, приобретать определенные специальные навыки; - оценивать и анализировать свою деятельность; - навыки самоконтроля, взаимоконтроля, учебного, делового общения, самообучения; - умение работать в паре, группе, самостоятельно по алгоритму и творчески. Выбор ученика - уровня, объема, содержания предметного знания (не ниже стандартного); - информационного источника для усвоения выбранного объема знаний; - способа обучения в соответствии с индивидуальными личностными характеристиками; - темпа продвижения по теме, соответствующего личностным характеристикам; - формы, вида и времени контроля и самоконтроля; - партнера для диалогового общения; - роли слушающего или объясняющего.

Самостоятельная деятельность - один из источников стимуляции познавательного интереса. Познавательная деятельность, формирующаяся на базе активности, характеризуется многими учеными как качество личности. Ряд ученых (В.И. Загвязинский, В. Оконь) [5,143] раскрывают эту ценную для ученика черту при помощи следующих признаков: стремление и умение

самостоятельно мыслить; способность ориентироваться в новой ситуации, найти свой подход к новой задаче; желание не только понять усваиваемые знания, но и способы их добывания; критический подход к суждению других; независимость собственных суждений.

Самостоятельность ученика в процессе обучения не только улучшает его непосредственные результаты, но и оказывает благотворное влияние на умственные способности и черты личности.

Литература

1. Борисова Н.В. Использование модульной системы обучения в профессиональной подготовке кадров / Н.В. Борисова, Н.А. Гудков, В.П. Бугрин. //Сборник «Персонал». М.: 2000. - № 1. - С. 24-30.
2. Борисова Н.В. Кузов В.Б. Методология модульного обучения и формирования модульных программ (отчет об исследовательской работе. Исследовательский цент проблем качества подготовки специалистов. – М, 2005. – 44 с.
3. Бородина Н.В., Эрганова Н.Е. Основы разработки модульной технологии обучения. -Екатеринбург, 1994. - 88с.
4. Елагина Л.В. Актуальность перехода на модульно-компетентностный подход в системе среднего профессионального образования // Материалы V межрегиональной научно-практической конференции «Модульно-компетентностный подход и его реализация в профессиональном образовании». / Отв. ред. Н.В. Горшенина. – Оренбург, ГБОУ СПО «ОГК», 2012. – 179 с.
5. Загвязинский В.И. Теория обучения: современная интерпретация. - М.: Академия, 2001. - 192 с.
6. Закорюкин В.Б., Панченко В.М., Твердин Л.М. Модульное построение учебных пособий по специальным дисциплинам// Проблемы вузовского учебника. - Вильнюс: ВГУ, 1983. – 191 с.
7. Зеленкова И.Е. Технология модульного обучения на уроках биологии. Методическая разработка https://infourok.ru/tehnologiya-modulnogo-obucheniya-na-urokah-biologii-529847.html

AKMEOLOGIK YONDASHUV ASOSIDA OLIY HARBIY TA’LIM MUASSASALARI O‘QITUVCHILARINING KASBIY KOMPETENSIYASINI TAKOMILLASHTIRISHNING INSTITUTSIONAL MODELI

Medetova Raushan Mamadiyarovna,
Milliy tarbiya pedagogikasi instituti bo‘lim mudiri, DSc, professor,
Kurbanov Gani Abilovich
O‘zbekiston Milliy universiteti
Harbiy tayyorgarlik o‘quv markazi katta o‘qituvchisi, dotsent, podpolkovnik
https://doi.org/10.5281/zenodo.23177573

Annotatsiya. *Ushbu maqolada oliy harbiy ta’lim muassasalari o‘qituvchilarining kasbiy tayyorgarligini takomillashtirishning ilmiy-uslubiy asoslari tahlil qilingan.*
Kalit so‘zlar: *ilmiy-uslubiy asoslar, pedagogik kompetentlik, moslashuvchanlik, innovatsion ta’lim, akmeologiya.*
Аннотация. *В данной статье проанализированы научно-методические основы совершенствования профессиональной подготовки преподавателей высших военных образовательных учреждений.*
Ключевые слова: *научно-методические основы, педагогическая компетентность, гибкость, инновационное образование, акмеология.*
Abstract. *This article analyzes the scientific and methodological foundations of improving the professional training of teachers of higher military educational institutions.*
Key words: *scientific and methodological foundations, pedagogical competence, flexibility, innovative education, acmeology.*

XXI asrda ta’lim tizimi global miqyosdagi tub o‘zgarishlar ta’sirida rivojlanmoqda. Raqamli texnologiyalarning jadal taraqqiy etishi, sun’iy intellektning ta’lim jarayoniga kirib kelishi, pandemiya oqibatlari, iqlim o‘zgarishlari hamda ijtimoiy-iqtisodiy beqarorlik kabi omillar ta’lim tizimining barqarorligini ta’minlash bilan bir qatorda, uning turli noaniqliklarga moslashish va ulardan rivojlanish omili sifatida foydalanish zaruratini yuzaga keltirdi. Bunday sharoitda pedagogik ta’lim tizimi nafaqat mavjud o‘zgarishlarga moslasha oladigan, balki murakkab vaziyatlardan yangi tajriba va imkoniyatlar hosil qila oladigan pedagoglarni tayyorlash vazifasini bajarishi lozim. Mazkur ehtiyoj pedagogika fanida yangi metodologik yondashuvlar va konsepsiyalarning dolzarbligini oshirmoqda.

Pedagogik ta’lim nuqtai nazaridan o‘qituvchilarda murakkab pedagogik vaziyatlarda mustaqil qaror qabul qilish, innovatsion fikrlash, refleksiv faoliyatni amalga oshirish, kasbiy xatolardan o‘rganish hamda uzluksiz rivojlanishga tayyorligini shakllantirishni nazarda tutadi. Zamonaviy pedagog faqat bilim beruvchi emas, balki tez o‘zgarayotgan ta’lim muhitida samarali faoliyat yurita oladigan, kreativ fikrlaydigan, noaniqlik sharoitida ham yuqori natijaga erishadigan mutaxassis bo‘lishi talab etiladi. Shu sababli pedagogik oliy ta’lim tizimida uzluksiz

va tizimli tamoyillarini metodologik asos sifatida joriy etish ilmiy va amaliy jihatdan muhim ahamiyat kasb etadi. So‘nggi yillarda xalqaro tashkilotlar tomonidan e’lon qilinayotgan strategik hujjatlarda ham ta’lim tizimining moslashuvchanligi, barqarorligi va inqirozlarga tayyorligini kuchaytirish ustuvor yo‘nalish sifatida qayd etilmoqda. Bu esa, pedagogik ta’limni tashkil etishda kompetensiyaviy yondashuv, refleksiv ta’lim, adaptiv o‘qitish hamda uzluksiz kasbiy rivojlanish mexanizmlarini takomillashtirishni taqozo etadi.

Pedagogik ta’limda uzluksiz va tizimli tamoyillarining ilmiy-metodologik asoslarini tahlil qilish, ularning nazariy mohiyatini ochib berish hamda pedagoglarni tayyorlash tizimida qo‘llashning metodologik yondashuvlarini asoslash zarur.

Pedagogik ta’limda uzluksiz va tizimli tamoyillarini tadqiq etish zamonaviy pedagogika, psixologiya, menejment va murakkab tizimlar nazariyasi kesishgan nuqtada shakllanayotgan yangi ilmiy yo‘nalishlardan biridir. Uzluksiz konsepsiyasining pedagogik ta’limga tatbiqi, avvalo, pedagoglarni murakkab, o‘zgaruvchan va oldindan prognoz qilish qiyin bo‘lgan ta’lim muhitida faoliyat yuritishga tayyorlash zarurati bilan bog‘liq.

An’anaviy pedagogik yondashuvlarda asosiy e’tibor bilim, ko‘nikma va malakalarni shakllantirishga qaratilgan bo‘lsa, zamonaviy yondashuvlarda pedagog shaxsining moslashuvchanligi, refleksivligi, innovatsion faoliyatga tayyorligi va muammoli vaziyatlardan rivojlanish imkoniyati sifatida foydalanishi muhim omil sifatida qaralmoqda. Rezilentlik inson yoki tizimning salbiy ta’sirlardan keyin avvalgi holatiga qaytish qobiliyatini anglatsa, antifragillik qiyinchilik va o‘zgarishlarni rivojlanish manbaiga aylantirish imkoniyatini bildiradi. Shu sababli pedagogik ta’lim jarayonida uzluksiz va tizimli tamoyillarini qo‘llash faqat stresslarga chidamlilikni emas, balki murakkab pedagogik vaziyatlardan yangi tajriba va professional o‘sish omili sifatida foydalanishni nazarda tutadi.

So‘nggi yillarda ta’lim tizimining noaniqlik sharoitidagi faoliyatini o‘rganuvchi xalqaro tadqiqotlarda ham mazkur masalaga alohida e’tibor qaratilmoqda. Xususan, OECD tomonidan tayyorlangan **“Education Policy Outlook 2021: Shaping responsive and resilient education in a changing world”** hisobotida zamonaviy ta’lim tizimlari tez o‘zgarayotgan ijtimoiy muhitga moslasha olishi, turli inqirozlar sharoitida faoliyatni davom ettirishi va yangi imkoniyatlarni yaratishi zarurligi qayd etilgan. OECD mazkur yondashuv uzluksiz va tizimli tamoyillarining pedagogik ta’lim uchun metodologik ahamiyatini kuchaytiradi.

Xorijiy ilmiy adabiyotlarda pedagogning uzluksiz va tizimli kompetensiyasi bir necha asosiy tarkibiy qismlar orqali izohlanadi. Birinchidan, **kognitiv moslashuvchanlik**, ya’ni yangi bilimlarni tez o‘zlashtirish va pedagogik faoliyat strategiyalarini o‘zgartira olish qobiliyati. Ikkinchidan, **refleksiv kompetensiya**, ya’ni o‘z faoliyatini tahlil qilish, xatolar va muvaffaqiyatsizliklardan xulosa

chiqarish qobiliyati. Uchinchidan, **innovatsion faollik**, ya’ni yangi pedagogik texnologiyalarni sinab ko‘rish va ta’lim jarayonini takomillashtirishga intilishdir.

Ta’limda uzluksiz va tizimli tamoyillarini o‘rganishda konstruktivizm, kompetensiyaviy yondashuv va uzluksiz ta’lim nazariyalari ham muhim metodologik asos bo‘lib xizmat qiladi. Konstruktivistik yondashuvga ko‘ra, bilim tayyor shaklda berilmaydi, balki shaxsning faol tajribasi orqali shakllanadi. Shu nuqtai nazardan, muammoli vaziyatlar, amaliy topshiriqlar va pedagogik tajribalar o‘qituvchining xususiyatlarini rivojlantiruvchi omillar sifatida namoyon bo‘ladi.

Zamonaviy pedagogik tadqiqotlarda o‘qituvchilarning kasbiy rivojlanishida refleksiv amaliyotning o‘rni ham keng yoritilgan. Xususan, pedagogning o‘z faoliyatini muntazam tahlil qilishi, o‘z xatolaridan ta’limiy resurs sifatida foydalanishi va yangi metodlarni sinab ko‘rishi kasbiy takomillashuvning muhim sharti hisoblanadi. Bunday yondashuv uzluksiz va tizimlilikning asosiy tamoyillari “qiyinchilik orqali rivojlanish” g‘oyasiga mos keladi.

Masofaviy ta’limga tezkor o‘tish, raqamli vositalardan foydalanish, yangi pedagogik strategiyalarni ishlab chiqish o‘qituvchilardan yuqori darajadagi moslashuvchanlikni talab qildi. OECD hisobotlarida ham pandemiya ta’lim tizimlarining nafaqat inqirozlarga chidamliligini, balki kelajakdagi o‘zgarishlarga tayyorligini oshirish zarurligini ko‘rsatgani qayd etiladi.

O‘zbekiston ta’lim tizimida pedagogik kadrlar tayyorlash sifatini oshirish, kompetensiyaviy yondashuvni rivojlantirish va innovatsion faoliyatga tayyor mutaxassislarni shakllantirish masalalari dolzarb yo‘nalishlardan biri hisoblanadi. Oliy pedagogik ta’limda mustaqil fikrlash, ijodkorlik, raqamli kompetensiyalar va uzluksiz kasbiy rivojlanish ko‘nikmalarini shakllantirish bo‘yicha amalga oshirilayotgan islohotlar uzluksiz va tizimli tamoyillarini joriy etish uchun metodologik asos yaratmoqda.

Adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, pedagogik ta’limda hali to‘liq shakllangan mustaqil ilmiy yo‘nalish sifatida rivojlanmagan bo‘lsa-da, uning asosiy g‘oyalari – noaniqlikdan foydalanish, xatolardan o‘rganish, innovatsion fikrlash va uzluksiz rivojlanish tamoyillari zamonaviy pedagog kompetensiyalarini shakllantirishda katta ilmiy-amaliy ahamiyatga ega. Shu sababli pedagogik ta’lim tizimida uzluksiz va tizimli tamoyillarining ilmiy-metodologik asoslarini ishlab chiqish o‘qituvchilarni XXI asr talablariga mos tayyorlashning istiqbolli yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi.

Mavjud ilmiy manbalar tahlili uzluksiz va tizimlilikni pedagogik ta’limning yangi metodologik paradigmasi sifatida ko‘rib chiqish imkonini beradi. Mazkur paradigma pedagog shaxsining faqat tashqi o‘zgarishlarga moslashishini emas, balki murakkab vaziyatlardan rivojlanish resursi sifatida foydalanishini ta’minlaydi.

Mazkur tadqiqotning metodologik asosini pedagogik ta’limda uzluksiz va tizimli tamoyillarining ilmiy-nazariy mohiyatini ochib berish, uning pedagoglarni

tayyorlash jarayonidagi o‘rnini aniqlash hamda amaliy tatbiq etish mexanizmlarini asoslashga yo‘naltirilgan tizimli, kompetensiyaviy va shaxsga yo‘naltirilgan yondashuvlar tashkil etadi.

Zamonaviy pedagogik ta’lim tizimi faqat mavjud bilim va ko‘nikmalarni shakllantirish bilan cheklanib qolmasdan, balki o‘qituvchilarda noaniqlik, murakkab pedagogik vaziyatlar va tezkor o‘zgarishlarga nisbatan rivojlantiruvchi munosabatni shakllantirishi lozim. Shu nuqtai nazardan, pedagogik jarayonning barqarorligini ta’minlovchi emas, balki uni rivojlantiruvchi metodologik tamoyil sifatida qaraladi. Tadqiqotda **tizimli yondashuv** asosiy metodologik tamoyillardan biri sifatida qo‘llanildi. Mazkur yondashuvga ko‘ra, pedagogik ta’lim murakkab, ochiq va doimiy rivojlanib boruvchi tizim sifatida talqin qilinadi. Bunday tizim tashqi muhitdagi o‘zgarishlar, ijtimoiy ehtiyojlar va innovatsion jarayonlar ta’sirida takomillashib boradi.

Tadqiqotning ikkinchi metodologik asosi sifatida **kompetensiyaviy yondashuv** tanlandi. Ushbu yondashuv pedagoglarni tayyorlash jarayonida faqat nazariy bilimlarni egallash emas, balki ularni real pedagogik vaziyatlarda samarali qo‘llay olish qobiliyatini shakllantirishni nazarda tutadi. Pedagogik kompetensiya o‘z tarkibiga muammoli vaziyatlarda mustaqil qaror qabul qilish, refleksiv fikrlash, innovatsion faoliyat yuritish, xatolardan tajriba sifatida foydalanish va uzluksiz o‘zini rivojlantirish ko‘nikmalarini qamrab oladi. Shuningdek, tadqiqotda **shaxsga yo‘naltirilgan yondashuv**dan foydalanildi. Mazkur yondashuv pedagog shaxsini ta’lim jarayonining faol subyekti sifatida ko‘rib chiqadi. O‘qituvchining individual tajribasi, ijodiy imkoniyatlari, mustaqil fikrlashi va kasbiy motivatsiyasi uzluksiz va tizimlilik sifatlarini rivojlantirishning muhim omillari sifatida baholanadi. Shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim sharoitida talabaga tayyor bilimlarni berish emas, balki uning mustaqil izlanishi, tajriba orqali o‘rganishi va yangi vaziyatlarga mos yechim ishlab chiqishi uchun imkoniyat yaratish muhim hisoblanadi. Mazkur konsepsiya pedagogik ta’limga tatbiq etilganda, o‘qituvchining murakkab pedagogik vaziyatlarni kasbiy rivojlanish imkoniyatiga aylantira olish qobiliyatini anglatadi.

Uzluksiz va tizimlilik uchta asosiy metodologik tamoyilga asoslanadi:

***Birinchi tamoyil* – noaniqlikdan rivojlanish omili sifatida foydalanish.** Zamonaviy ta’lim jarayonida barcha pedagogik vaziyatlarni oldindan aniq belgilash imkoniyati mavjud emas. Shu sababli pedagoglar turli muammoli vaziyatlarda mustaqil qaror qabul qilish, muqobil yechimlarni izlash va tajribadan xulosa chiqarish kompetensiyalariga ega bo‘lishi zarur.

***Ikkinchi tamoyil* – moslashuvchanlik va innovatsion faoliyat.** Pedagogik ta’limda bu tamoyil yangi pedagogik texnologiyalarni o‘zlashtirish, raqamli vositalardan samarali foydalanish va innovatsion metodlarni ishlab chiqish orqali namoyon bo‘ladi.

***Uchinchi tamoyil* – refleksiv rivojlanish.** O‘qituvchi o‘z faoliyatini tahlil qilish orqali mavjud tajribalarni qayta ko‘rib chiqadi, xatolar sabablarini aniqlaydi va kelgusidagi faoliyatini takomillashtiradi. Shu sababli pedagogik ta’lim jarayonida refleksiv amaliyotlarni rivojlantirish shaxs shakllanishining muhim sharti hisoblanadi.

Xalqaro tadqiqotlarda o‘qituvchining kasbiy rivojlanishi ko‘pincha “professional resilience” va “adaptive expertise” tushunchalari orqali tahlil qilinadi. Ushbu yondashuvlarga ko‘ra, zamonaviy pedagog nafaqat mavjud bilimlarni qo‘llovchi mutaxassis, balki yangi sharoitlarda yangi bilim va strategiyalarni yarata oluvchi ijodkor subyekt bo‘lishi kerak. OECD tadqiqotlarida XXI asr pedagogidan talab qilinadigan asosiy kompetensiyalar qatorida moslashuvchanlik, murakkab muammolarni hal qilish, hamkorlikda ishlash va uzluksiz o‘rganish qobiliyatlari ko‘rsatilgan. Ushbu kompetensiyalar konsepsiyasining amaliy ifodasi sifatida qaralishi mumkin.

Xorijiy universitetlarda pedagoglarni tayyorlash jarayonida quyidagi elementlar keng qo‘llaniladi: muammoli vaziyatlarga asoslangan ta’lim (problem-based learning), loyiha asosida o‘qitish (project-based learning), refleksiv kundaliklar yuritish, pedagogik amaliyot jarayonida mustaqil qaror qabul qilish, innovatsion tajribalarni sinovdan o‘tkazish. Pedagogik ta’limda talabani tayyor javoblarni o‘zlashtirishga emas, balki murakkab vaziyatlarda faol izlanishga yo‘naltirish zarur.

Olib borilgan nazariy tahlillar shuni ko‘rsatadiki, zamonaviy pedagogik ta’lim tizimida bo‘lajak pedagoglarni tayyorlashning istiqbolli ilmiy-metodologik yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Bugungi kunda ta’lim jarayonining murakkablashuvi, texnologik yangilanishlar, ijtimoiy o‘zgarishlar va noaniqliklarning ortib borishi pedagogdan nafaqat mavjud bilimlarni egallashni, balki o‘zgaruvchan sharoitlarda samarali faoliyat yurita olish, yangi vaziyatlarga mos innovatsion yechimlar ishlab chiqish va kasbiy rivojlanishni uzluksiz davom ettirish qobiliyatini talab qilmoqda. Pedagogik ta’limda uzluksiz va tizimli tamoyillari yangi metodologik nuqtai nazardan yondashish imkonini beradi. Pedagogik ta’lim tizimida izchil joriy etilishi o‘qituvchilarning kasbiy tayyorgarligini oshirish, ularni murakkab pedagogik sharoitlarda samarali faoliyat yurita oladigan va doimiy rivojlanishga intiluvchi mutaxassislar sifatida shakllantirish imkonini beradi.

Adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrdagi PF-5847-sonli “O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida” farmoni.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 5-iyundagi PQ-3775-sonli “Oliy ta’lim muassasalarida ta’lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng

qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta’minlash bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Qarori.
3. Muslimov N.A. **Bo‘lajak kasb ta’limi o‘qituvchilarini kasbiy shakllantirishning nazariy-metodik asoslari.** – T.: Fan va texnologiya, 2015. – 200 b.
4. Day C., Gu Q. **Resilient teachers, resilient schools: building and sustaining quality in testing times.** London: Routledge, 2014. – 240 p.
5. OECD. **Education Policy Outlook 2021: Shaping responsive and resilient education in a changing world.** Paris: OECD Publishing, 2021. – 220 p.
6. OECD. **Future of Education and Skills 2030: OECD Learning Compass 2030.** Paris: OECD Publishing, 2019. – 60 p.

QORI NIYOZIY NOMIDAGI TARBIYA PEDAGOGIKASI MILLIY INSTITUTI
TPMI
1929

O‘QUVCHI YOSHLARNI MILLIY MUSIQA VOSITASIDA TARBIYALASH

Mirvohid Mirtursunov
Nizomiy nomidagi O‘zbekiston milliy pedagogika universiteti 2-bosqich magistri
https://doi.org/10.5281/zenodo.23177606

Annotatsiya. *Maqolada O‘zbekistonda musiqa rivojlanishining turli omillari va uzluksiz ta’limda o‘quvchilarni badiiy-estetik tarbiyalashning o‘ziga xosliklari, milliy mumtoz san’atimizning yoshlar tarbiyasidagi ro‘li yoritib berilgan.*
Kalit so’zlar. *Musiqa, ta’lim, tarbiya, ma’naviyat, san’at, bilim, ko’nikma, kuy, qo’shiq.*

O‘zbekistonda milliy madaniyatimizni o‘ziga xosligini tiklash umumta'lim maktablarida yoshlarni badiiy tarbiyalash va kamol toptirish hamda hozirgi kunimizni to‘laroq idrok etish uchun eng avvalo tariximizni yaxshi bilmog‘lik hisoblanadi. Chunki, har bir yangilik, tarixiy bog‘lanish orqali amalga oshiriladi. Barcha fanlar qatori musiqiy ta'limda ham davlat ta'lim standartlarini joriy etilishi milliy musiqiy meroslardan to‘laqonli foydalanish imkonini beradi. Bular ommaviy xalq kuyi va qo‘shiqlarida, xonanda va sozandalarning ijodiy faolitlari, maqom, shashmaqom, dostonlar va bugungi zamonaviy musiqiy faoliyatida o‘z aksini topdi. Musiqa san'atining bu kabi imkoniyatlari yangi avlodni tarbiyalashda, ularning barkamol bo‘lib etishishlarida o‘ziga xos takrorlanmas manba bo‘lib xizmat qiladi. Musiqa ta'limidan, davta ta'lim standartlari asosida yangi ta'lim mazmuni o‘qituvchilarning musiqiy bilim va malakalari bilan birga ularda kuzatuvchanlik, xotirani mustahkamlash, obrazli tasavvur qilish, ijodkorlik, mustaqillik, tashabbuskorlik, badiiy va musiqiy did kabi hislatlarini rivojlantirishni ta'minlaydi. Demak, yosh avlodni etuk qilib tarbiyalashda «Musiqa madaniyati» darslarini axloqiy-estetik tarbiyasiga ijobiy ta'sir ko‘rsatadi. Ulardagi go‘zallikka bo‘lgan his-tuyg‘ularini o‘stiradi, musiqa san'atiga mehr-muhabbat, qiziqish uyg‘otadi.

Umumta’lim maktablarida musiqa darslari boshqa fanlar darslaridan o‘zining badiiyligi, qiziqarligi va bolalarda ko‘proq ijodiy zavq, emotsional tuyg‘ular va obrazli kechinmalar uyg‘otishi bilan ajralib turadi. Musiqa, ayniqsa, bolalarning aqliy va axloqiy rivojlanishiga katta ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Musiqa tarbiyasiz bolalarda aqliy tarbiyani yetarli darajada bajarib bo‘lmaydi. (V. Suxomlinskiy)Shuning uchun musiqa darslari, eng avvalo, tarbiya darsidir. Badiiy tarbiyaviy uning mantiqiy mazmunidir. Shu boisdan predmetimiz “musiqa o‘qitish metodikasi ” emas, balki “musiqa tarbiyasi metodikasi” deb ataladi.

Mustaqillik yillarida uzliksiz ta’lim tizimi muassalarida o‘tiladigan barcha musiqa fanlari mazmuni ham milliy istiqlol g‘oyasi asoslari,hozirda maktablarda tarbiya fani negizida qaytadan shakllantirilayabdi. Musiqa madaniy hayotimizdan

muhim o‘rin olgan va inson shaxsiyatining kamolotga yetishida muhim o‘rin tutadigan san’at turi bo‘lishi bilan birga ijtimoiy siyosiy va tarbiyaviy xarakter kasb etadi. O‘sib kelayotgan avlodni milliy ma’naviy ruhda tarbiyalash, ularda milliy qadriyatlarimizga ongli munosabat tushunchalarini shakllantirish hamda milliy musiqani o‘rganishning o‘rni va ahamiyatini yoshlarga tushuntirish asosiy vazifamizdir. Ongni, tafakkurni, dunyoqarashni o‘zgartirmasdan turib, ma’rifat sivilizatsiyasiga erishib bo‘lmaydi.

San’at insonning tarbiyasida juda muhim o‘rin tutadi. Musiqa tarbiyasi bo‘yicha xalqaro jamiyatning IX konferensiyasida uqtirilganidek, san’at insonning ma’naviy dunyosiga chuqur ta’sir ko‘rsatib va o‘zining har qanday faoliyat sohasida, har qanday kasb-korida zarur bo‘ladigan ijodiy qobiliyatlarini namoyon qilishda yordam beradi. Umumiy o‘rta ta’lim maktablarining yangidan yaratilgan musiqa fani bo‘yicha o‘quv dasturi va darsliklariga kiritilgan maqom musiqa ijodiyotiga mansub kuy, qo‘shiqlar sirasida xalq qo‘shiqlari salmoqli o‘rin tutadi. Xalq qo‘shiqlari o‘z ifodaviy mazmuniga ko‘ra qudratli tarbiyaviy kuchga ega bo‘lgan san’at hisoblanadi.Musiqa madaniy xayotimizda keng o‘rin tutgan va inson shaxsiyatining shakllanishda muhim ro‘l o‘ynaydigan san’at bo‘lib,eramizdan oldingi IV asrdanoq grek faylasufi Platon shunday degan edi: “Eng katta tarbiyaviy omil musiqiy san’atda emasmikan, zeroki ritm va garmoniya xammadan ko‘proq shu vaqtda qalbga chuqur yo‘l topadi va salovat baxsh etib, uni ko‘rkam qiladiki,agar tarbiya to‘g‘ri yo‘lga qo‘yilgan bo‘lsa: aks xolda uning teskarisi bo‘lib chiqadi”.Uning shogirdi Aristotel Aflatun komil ishonch bilan mazkur fikrni quvvatlaydi “musiqa kishi ruhini ahloqiy tomoniga ma’lum darajada ta’sir etadi, shunday ekan u yoshlarning tarbiyalaydigan predmetlardan biri bo‘lib xizmat qilmog‘i lozim”. Sharqning buyuk allomalari musiqaning shaxs kamolotiga juda buyuk baho berishganliklari bejiz emas. Milliy madaniyatimiz bobokaloni Abu–Nasr al-Farobiy esa musiqaning shaxs shakllanishiga a’niq ta’sirini quyidagicha bayon etadi: “Bu fan (ya’ni musiqa shu ma’noda foydaliki, kimning fe’li atvori muvozanatni yo‘qotgan bo‘lsa, tartibga keltiradi, kamol topmaganlarni kamolotga yetkazadi va muvozanatda bo‘lganlarning muvozanatini saqlaydi... Bu fan tanning sog‘ligi uchun ham foydalidir. Forobiyning iyqo‘ ta’limoti keyinchalik alloma Ibn Sinoning «Kitob ash-shifo», «Kitob un-najot» va «Donishnoma» ilmiy asarlarida rivojlantirilgan. Musiqa inson ruhi va aqliy rivojiga bebaho ta’sir o‘tkazadi. CH.Darvin umrining oxirlarida quvvai xofizasi (xotirasi) va fikrlash qobiliyatining pasayishidan shikoyat qilib yozadi. “Agar menga ikkinchi bor dunyoga kelish nasib bo‘lganda edi, endigi xayotimda loaqal xaftada bir marta bo‘lsa xam, bir necha she’r o‘qishni va bir necha musiqa asari tinglashni o‘zimga qoida qilib olardim”.

Musiqa kishi xissiyotini ayniqsa emotssional, estetik xissiyotini aktiv rivojlantiradi, zeroki , xaqiqatni anglash kishilik emotsional xissiyotsiz bo‘lmagan,

bo‘lmaydi va bo‘lishi xam mumkin emas ” Bas shunday ekan musiqa kishining ruhiga aktiv ta’sir etadi uning axloqiy estetik qiyofasining shakllanishida muxim rol’ o‘ynaydi. Bobomiz Sa’diy aytganidek “Musiqa inson ruhining yo‘ldoshidir ”:Shu bois o‘quvchilarda inson ma’anaviy madaniyatining tarkibiy qismi bo‘lgan musiqa ma’daniyatini tarbiyalash musiqa tarbiyasining bosh maqsadi bo‘lib turadi, Bu oliy maqsadni amalga oshirish uchun o‘qituvchi oldida quyidagi vazifalar turadi:

- o‘quvchilarda musiqa san’atiga bo‘lgan qiziqish va mehr-muhabbatni oshirish.

- musiqiy - badiiy didni va musiqa faoliyatlariga ehtiyojni rivojlantirish:

- musiqa haqida bilim va malakalar doirasini tarkib toptirish:

- musiqiy faoliyatlar jarayonida badiiy ijodkorlik xis tuyg‘ularini rivojlantirish:

- asarlarni badiiy - g‘oyaviy mazmuni vositasida o‘quvchilarni axloqiy - estetik tarbiyalash:

- musiqa darslarida kasb, hunar va mehnatga nisbatan o‘quvchilarda ishtiyoq uyg‘otish.Mazkur maqsad va vazifalarni amalga oshirish, birinchi navbatda, musiqa o‘qituvchisining professional darajasi va axloqiy qiyofasiga bog‘liq. Gap shundaki, xar qanday san’atkor ham maktabda musiqa darslarni olib borolmaydi. Uning boisini o‘qituvchiga qo‘yiladigan quyidagi talablardan ko‘rishimiz mumkin.

Musiqa o‘qituvchisi o‘z kasbiga va bolalarga sitqidildan mehr qo‘ygan, yuksak madaniyatli, ijodkor va izlanuvchan ma’naviy - ma’daniy dunyoqarashga ega shaxs bo‘lmog‘i lozim. Musiqa o‘qituvchisining ijodkorligi shundaki, u bir soatlik darsiga senariy avtori, uning artist - ijrochisi va rejisyori sifatida ish tutadi. SHu bois musiqa darsi san’at darsidir.

Maktab xayotida ham musiqa o‘qituvchisining va boshlang‘ich sinf o‘qituvchisining ham faoliyati keng. Sinfdan tashqari musiqa to‘garaklarimi, musiqa tarbiyasi turlarini tashkil etish va boshqarishmi, maktabda musiqa tarbiyasining ommaviy shakllari (bayram konsertlarmi, leksiya – konsertlar, san’atkorlar bilan ijodiy uchrashuvlarmi, ashula va san’at bayramlari. v.b) ni uyushtirish ham musiqa o‘qituvchisi zimmasidadir. SHu bilan birga maktabdan tashqari musiqa tarbiyasi o‘choqlari (bolalar musiqa maktablari, pionerlar uyi va saroylari, bolalar teatrlari) bilan aloqada bo‘lish, iqtidorli o‘quvchilarni ularga jalb etish va ularning faoliyatnii maktab xayotiga qo‘llash ham musiqa o‘qituvchisining vazifasidir.

Musiqa o‘qituvchisi musiqa san’atining nazariy va amaliy soxalaridan yetarli darajada, bilim, malaka va tajribaga ega bo‘lmog‘i lozim.

Musiqa san’atiga qiziquvchi iqtidorli yoshlarning musiqiy iqtidorini rivojlantirish, musiqa san’atiga mehr va ishtiyoqini o‘stirish va shu orqali ularning

ma’naviy axloqiy tarbiyalarini va badiiy ehtiyojlarini qondirish, musiqa tarbiyasining asosiy vazifasini tashkil etadi. Musiqa san’ati ham barcha san’at turlari kabi inson ruhiyati hamda ijtimoiy voqeiliklar holatini ifoda etuvchi vosita, shuningdek, idrok etishning o‘ziga xos shakli hisoblanadi.

Musiqa asarini yaratishda ijodkor muayyan obrazlar vositasida yuksak insoniy sifatlarni yoritadi. Musiqa va qo‘shiqlarda tabiat manzaralari, insonlarga xos xususiyatlar, ijtimoiy munosabatlar, ijobiy psixologik xolatlar xursandchilik yoki aksincha, salbiy xolat g‘am-alam, istirob, tushkunlik kabi hodisalar ifodalanadi. Musiqiy asarlarning tarbiyaviy ahamiyati shundaki, ular kishilarning ongini o‘stirish, estetik didini oshirib,irodaviy sifatlarini rivojlantirib, hissiyotini boyitishga emotsional ta’sir ko‘rsatadi.

Yuksak mahorat bilan bilan ijro etiluvchi mumtoz musiqa asarlarining barchasi insonda ko‘tarinki kayfiyatni hosil kiladi. Mumtoz asarlarni doimiy ravishda o‘rganib borish o‘quvchilarda haqiqiy san’at asarlarining qiymatini to‘g‘ri baholash ko‘nikmalarini shakllantiradi.Musiqa ta’limi jarayonida o‘quvchilarning psixologik xususiyatlari ham intensiv rivojlanadi. Binobarin, asarlarni o‘rganish ularning his-tuyg‘ulari, diqqati, idroki, xotirasi, fikrlashi va tasavvuri kabi psixologik xususiyatlariga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Musiqiy asarlarning o‘quvchilar tomonidan idrok etilishi, eng avvalo ularda diqqatni jamlash va uning barqarorlashga erishish ko‘nikmalarini shakllantiradi.

Musiqa san’atini ijtimoiy madaniy nufuzini oshirish, uni xalqimiz ma’naviy hayotiga chuqurroq singdirish,qadriyatlar darajasiga ko‘tarish borasida ulkan ishlar amalga oshirildi. Barcha sohalarda bo‘lgani kabi musiqa sohasidasi ham tub islohotlar izchil davom ettirildi, o‘quv dasturlari, darsliklar mazmuni xalqimizning milliy madaniy yutuqlari, jahon musiqa ilmi va ta’limida erishilgan ilg‘or tajribalar asosida shakllantirilib,hozirda har bir viloyatlarda,tumanlarda,shaharlarda maqomchilar ansambli,Filarmoniyalar,ixtisoslashtirilgan san’at maktablari tashkil qilinib bu yerlarda musiqa sohamizning dunyo sahnashiga chiqishi uchun ulkan ishlar olib borilmoqda.Bu esa yosh avlodni oilada, mahallada, jamiyatda komil inson bo‘lib yetishishida poydevor bo‘ladi.

Psixolog olimlarning fikrlariga ko‘ra, musiqada diqqatning barqarorligi inson asab tizimining qay darajada mustahkam ekanligiga bog‘liq.

Ma'lumki o‘zbek ijrochiligi o‘z taraqqiyotida «monodiya»-«bir ovozlik» shaklda rivojlanib kelgan. Lekin qadim zamonlardan o‘ziga hos jamoa bo‘lib (ya'ni xor bo‘lib) qo‘shiq aytish an'analariga ega bo‘lgan. Bizning zaminida yashagan xalqlar musiqa san'ati asosan og‘azi usulda avloddan avlodga yetib kelgan. Xalq ijrochiligi san'atida aralash (erkak va ayollar) xorlar bo‘lmasa-da, alohida erkaklar, ayollar va bolalar tomonidan qo‘shiq aytish an'analari bo‘lgan.

Turli diniy marosimlarda, mavsumiy sayillarda, ramazon oyida bolalarning qo‘shiq aytishi, kattalarning zikr tushishi, marsiya qo‘shiqlarini aytishlar jamoa

ijrosining koʻrinishlaridir. «Boychechak», «Oftob chiqdi», «Laylak keldi», kabi bolalar qoʻshiqlarini aytilishida ham jamoaviy ijrochilik shaklini koʻrish mumkin. «Navroʻz», «Lola» bayramlarida yigit-qizlarni aytishuvlari, yor-yor, yallalar xor yakkaxon boʻlib ijro etilgan. Bebaho merosimiz «Shashmaqom» ning vokal qismidagi taronalar ham uch-toʻrt va undan koʻp xonandalar tomonidan «Joʻr» likda aytilgan. Katta ashula 2,3,4 kishilar joʻrligida ijro qilingan. «Folklor» qoʻshiqlarining yor-yor, oʻlan, yalla, besh qarsak, lapar, katta ashula, maqomlardagi tarona, ufar, nashq kabi qismlarni boʻlib ijro qilishini kelgusida oʻzbek xalqi orasida xor havaskorlik, xor ijrochiligini rivojiga zamin boʻldi.

Mumtoz kuy va qoʻshiq ijrochiligi koʻproq melodik tarzda ijro etilishi, murakkab musiqiy tuzilmalardan iboratligi tufayli uni tinglashda sezgilar muhim roʻl oʻynaydi.Sezgi va hissiyot musiqiy idrokning asosini tashkil qiladi. Mumtoz musiqiy asarlar hissiyotni yuzaga keltirib kuch-quvvat zahiralarini ishga soladi va buning natijasida tinglovchi ularni uzoq vaqt charchoqni sezmagan holda tinglay oladi.Mumtoz musiqani idrok etishda tasavvurning oʻrni ham beqiyosdir. Xayotiy voqealar, tabiat manzaralari hamda turli ruhiy kechinmalarni koʻz oldiga keltirish musiqiy asarlarni obrazli qabul qilishga yordam beradi. Musiqa mutaxasisi barcha ijodiy xarakterga ega soxalar mutaxasislari kabi aynan shu holat - tasavvurdan unumli foydalanadi.

Tovushlar jarangini oldindan his qilish, ya’ni interpritatsiya ham musiqa ijrochiligida muhim ahamiyatga ega. Ijro jarayonida hayotiy voqeilikni koʻz oldiga keltirish, tasavvur qilish, jarangdorlik yuzaga kelishini oldindan anglash, oldindan aynan shu jarangdorlikka erishish uchun oʻz kuchi va imkoniyatlaridan samarali foydalanishga alohida e’tibor qaratish maksaqga muvofikdir.

Mumtoz qoʻshiqlarning gʻoyaviy mazmuni, undagi obrazli holatlar ijrochiga katta ruhiy kuch bagʻishlaydi va uning tasavvurini yanada kengaytiradi. Mumtoz asarlarni tinglash va ularni bevosita ijro etish oʻquvchilarning xotiralarini mustahkamlanishi uchun zarur sharoitni yuzaga keltiradi. Ijrochining ichki ehtiyoji, hoxish-istagi, qiziqishi, bilim darajasi va ijro mahoratiga muvofiq tanlangan asar xotirada yaxshi saqlanishi bilan birga ijroning muvaffaqiyatini ham ta’minlaydi. Oʻrganilgan musiqiy asarlarning sonigina emas, balki ularning sifati talabalarda ijro tajribasining boyib borishini ta’minlaydi. Ijrochilik tajribasining darajasi oʻquvchilarning badiiy didlarining yuksalishiga ijobiy ta’sir etuvchi omillardan biri sifatida kuzga tashlanadi. Yangi asarni oʻrganish jarayonida oʻquvchi ilgari orttirgan malakalariga tayanish bilangina cheklanmaydi, balki yanada yangi va murakkab elementlardan foydalanishga intiladi.

Oʻziga xos psixologik holatlar oʻquvchining badiiy tafakkurining yanada kengayib borishi uchun imkoniyat yaratadi. Mumtoz asarlarning gʻoyaviy mazmuni va ohang tuzilishini tahlil qilish, matn va ohang tuzilmalarining jarangdorligi, nozik elementlarni his qilish, murakkab nola va qochirimlarni qiynalmasdan ijro etish

hamda asarga xos barcha tafsilotlarni birlashtirib, umumiy xulosaga kelish o‘quvchilarda musiqiy-badiiy didning shakllanganlik darajasini yuqori deb baholanishi uchun asos bo‘la oladi.

O‘zbek mumtoz ashulalari, o‘zbek klassik va zamonaviy adabiyoti bilan o‘zaro bog‘liqlik asosida rivojlanadi. Buni inobatga olgan holda g‘azallar mualliflarining hayoti va ijodiy faoliyati to‘g‘risidagi ma’lumotlar bilan o‘quvchilarni yaqindan tanishtirish imkonini beruvchi maxsus kursning o‘qitilishini yo‘lga qo‘yish ularning nazariy bilimlarini oshirish bilan birga o‘zbek mumtoz musiqasi rivojidagi hissalarini anglashlariga yordam berib,ularni dunyoqarashini milliy musiqalarimiz kengaytiradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1.E.M.Fayzullayev “Bo‘lajak musiqa o‘qituvchilari badiiy didini shakllantirishning pedagogik shart-sharoitlari” (O‘zbek mumtoz musiqasi misolida). Ped.f.nomzodi ilmiy darajasini olish uchun dissertatsiya. –T, 2010. 20-26-bet.
2.Umumta’lim maktablarida musiqa ta’limi va tarbiyasi konsepsiyasi. –Toshkent, XTB, 1995 yil.
3.Aristotel. Poetika / Tarjima. N.I.Novosadskiy. - L., 1927. - S. 111-113.
4.Losev AF Qadimgi estetika tarixi: Ming yillik rivojlanish natijalari, jild. II. - M., 1994. - S. 76–87.
5. V. Darvin. “Avtobiografiya ”, Q ; 1957 ; str. 112
6.Sharipova G. «Musiqa tarbiyasida metodika fanidan dastur». –T.: 1997-yil.

UMUMIY O‘RTA TA’LIM MAKTABLARIDA O‘QUVCHILARNING MUSTAQIL ISHLASH KO‘NIKMALARINI RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK IMKONIYATLARI.

Mnajatova Almagul
Ajiniyoz nomidagi NDPI "Pedagogika" mutaxassisligi 2-kurs magistranti
https://doi.org/10.5281/zenodo.23177626

Annotatsiya*; Mazkur maqolada umumiy o‘rta ta’lim maktablarida o‘quvchilarning mustaqil ishlash ko‘nikmalarini rivojlantirishning pedagogik imkoniyatlari yoritilgan. O‘quvchilarning mustaqil ishlash ko‘nikmalari ta’lim jarayonining muhim tarkibiy qismi sifatida qaralib, ularning bilimlarni mustaqil egallashi, axborotni izlash va tahlil qilishi, muammoli vaziyatlarda mustaqil qaror qabul qilishi hamda o‘z faoliyatini nazorat va baholay olishi masalalari tahlil etilgan.*
Tayanch tushunchalar: *mustaqil ishlash, mustaqil ta’lim, o‘quvchi, mustaqil fikrlash, o‘quv faoliyati, pedagogik imkoniyat, kompetensiya, individual yondashuv, differensial ta’lim, muammoli ta’lim, loyiha metodi, interfaol metod, raqamli ta’lim.*
Аннотация*; В статье рассматриваются педагогические возможности развития навыков самостоятельной работы учащихся в общеобразовательных школах. Навыки самостоятельной работы рассматриваются как важная составляющая образовательного процесса, включающая самостоятельное приобретение знаний, поиск и анализ информации, принятие самостоятельных решений в проблемных ситуациях, а также навыки самоконтроля и самооценки.*
Ключевые слова: *самостоятельная работа, самостоятельное обучение, учащийся, самостоятельное мышление, учебная деятельность, педагогические возможности, компетентность, индивидуальный подход, дифференцированное обучение, проблемное обучение, проектный метод, интерактивные методы, цифровое образование.*
Abstract*; This article examines the pedagogical opportunities for developing students’ independent work skills in general secondary schools. Independent work skills are considered an important component of the educational process, including the ability to acquire knowledge independently, search for and analyze information, make independent decisions in problem situations, and exercise self-control and self-assessment.*
Keywords: *independent work, independent learning, student, independent thinking, learning activity, pedagogical opportunities, competence, individual approach, differentiated learning, problem-based learning, project-based learning, interactive methods, digital education.*

Zamonaviy ta’lim tizimida o‘quvchining bilimlarni tayyor shaklda qabul qilishi emas, balki ularni mustaqil ravishda izlab topishi, tahlil qilishi, umumlashtirishi va amaliy faoliyatda qo‘llay olishi muhim natijalardan biri sifatida qaralmoqda. Bugungi kunda jamiyatning tezkor rivojlanishi, axborot hajmining ortib borishi va yangi kasblarning paydo bo‘lishi shaxsdan doimiy ravishda o‘z bilimlarini yangilab borishni talab qilmoqda. Shu sababli umumiy o‘rta ta’lim maktablaridanoq o‘quvchilarda mustaqil ishlash ko‘nikmalarini shakllantirish ta’limning muhim vazifalaridan biridir. Mustaqil ishlash ko‘nikmasi o‘quvchining o‘quv topshirig‘ini o‘qituvchining bevosita yordamisiz yoki minimal pedagogik ko‘mak asosida rejalashtirish, bajarish, nazorat qilish va natijasini baholash qobiliyatini anglatadi.

Mazkur ko‘nikma faqat uy vazifalarini mustaqil bajarish bilan cheklanmaydi. U o‘quvchining ma’lumot izlash, muammoni aniqlash, maqsad qo‘yish, faoliyatni rejalashtirish, zarur vositalarni tanlash, natijalarni tahlil qilish va xulosa chiqarish kabi bir qator faoliyatlarini qamrab oladi. O‘quvchilarda mustaqil ishlash ko‘nikmalarini rivojlantirish ta’lim jarayonining barcha bosqichlarida amalga oshirilishi mumkin. Buning uchun o‘qituvchi dars jarayonida o‘quvchiga tayyor ma’lumotni berish bilan cheklanmasdan, uni izlanishga, savol berishga, muammoli vaziyatni tahlil qilishga va mustaqil xulosa chiqarishga yo‘naltirishi lozim. Bunday yondashuv o‘quvchining ta’lim jarayonidagi faolligini oshirib, uni ta’lim subyekti sifatida shakllantiradi.

Hozirgi davrda o‘quvchilarning mustaqil ishlash ko‘nikmalarini rivojlantirishning dolzarbligi bir necha omillar bilan belgilanadi. Birinchidan, zamonaviy axborot makonida o‘quvchi juda katta hajmdagi ma’lumotlarga ega bo‘lmoqda. Biroq ma’lumotning ko‘pligi uning sifatli bilimga aylanishini avtomatik ravishda ta’minlamaydi. O‘quvchi kerakli axborotni tanlash, uning ishonchliligini baholash, tahlil qilish va umumlashtirish ko‘nikmalariga ega bo‘lishi zarur. Ikkinchidan, mustaqil ishlash ko‘nikmalari o‘quvchining kelajakdagi kasbiy faoliyatiga tayyorgarligi uchun ham muhimdir. Har qanday mutaxassis o‘z sohasi bo‘yicha yangi bilimlarni mustaqil o‘zlashtirib borishi, kasbiy muammolarni tahlil qilishi va yangiliklarga moslasha olishi kerak. Demak, maktabda shakllantirilgan mustaqil ishlash ko‘nikmalari kelajakdagi kasbiy kompetensiyalarning muhim tarkibiy qismiga aylanadi. Uchinchidan, mustaqil ishlash o‘quvchida mas’uliyat, intizom, tashabbuskorlik, qat’iyatlilik va o‘z-o‘zini nazorat qilish kabi shaxsiy sifatlarning rivojlanishiga yordam beradi. O‘quvchi topshiriqni o‘zi rejalashtirib, uni bajarish jarayonida yuzaga kelgan qiyinchiliklarni mustaqil bartaraf etgan sari o‘z imkoniyatlariga bo‘lgan ishonchi ortadi. Shu nuqtayi nazardan, umumiy o‘rta ta’lim maktablarida o‘quvchilarning mustaqil ishlash ko‘nikmalarini rivojlantirish uchun mavjud pedagogik imkoniyatlardan tizimli va maqsadli foydalanish bugungi ta’lim jarayonining dolzarb masalalaridan biri hisoblanadi. O‘quvchining mustaqil ishlashi ta’lim jarayonida uning bilish faolligini namoyon etish shakllaridan biridir.

O‘quvchilarning mustaqil ishlash qobiliyati bir xil darajada rivojlanmagan bo‘ladi. Ayrim o‘quvchilar topshiriqni tez anglab, mustaqil bajarishga qodir bo‘lsa, boshqalari qo‘shimcha tushuntirish va pedagogik yordamga ehtiyoj sezadi. Shu sababli mustaqil ishlarni tashkil etishda individual va differensial yondashuvdan foydalanish muhimdir. Differensial yondashuv asosida o‘quvchilarga murakkablik darajasi turlicha bo‘lgan topshiriqlar berilishi mumkin. Masalan, birinchi darajadagi topshiriqlar bilimni qayta tiklashga, ikkinchi darajadagi topshiriqlar uni amaliy qo‘llashga, uchinchi darajadagi topshiriqlar esa tahlil, ijodkorlik va mustaqil xulosa chiqarishga yo‘naltiriladi. Bunday yondashuv har bir o‘quvchiga o‘z imkoniyatlariga mos faoliyatni amalga oshirish imkonini beradi. Eng muhimi,

o‘quvchi topshiriqni bajarish jarayonida muvaffaqiyatga erishgani sari murakkabroq faoliyatga bosqichma-bosqich o‘tadi. Raqamli texnologiyalar o‘quvchilarning mustaqil ishlash ko‘nikmalarini rivojlantirish uchun yangi pedagogik imkoniyatlarni yaratmoqda. Elektron darsliklar, ta’lim platformalari, videomateriallar, elektron kutubxonalar va interaktiv topshiriqlar o‘quvchiga darsdan tashqari vaqtda ham bilim olish imkonini beradi. Bunda o‘quvchiga faqat elektron materialni ko‘rish yoki o‘qish topshirig‘ini berish yetarli emas. Undan ma’lumotlarni izlash, taqqoslash, tahlil qilish, asosiy fikrlarni ajratish va mustaqil xulosa chiqarish talab qilinishi lozim. Masalan, bir mavzu yuzasidan bir nechta elektron manbani o‘rganib, ularning umumiy va farqli jihatlarini aniqlash topshirig‘i o‘quvchining axborot bilan mustaqil ishlash kompetensiyasini rivojlantiradi. O‘quvchilarning mustaqil ishlash ko‘nikmalarini rivojlantirishda o‘qituvchi tashkilotchi, maslahatchi va yo‘naltiruvchi sifatida faoliyat olib borishi kerak. O‘qituvchi topshiriqni aniq tushuntirishi, bajarish mezonlarini belgilashi va zarur hollarda metodik yordam ko‘rsatishi lozim. Biroq o‘qituvchining yordami o‘quvchining mustaqil faoliyatini almashtirib qo‘ymasligi kerak. Pedagog o‘quvchiga tayyor javobni berish o‘rniga, uni to‘g‘ri yo‘nalishga yo‘naltiruvchi savollar berishi, muammoni hal qilish uchun zarur vositalarni tavsiya qilishi va o‘quvchining o‘z xulosasiga kelishiga imkon yaratishi maqsadga muvofiq. O‘qituvchining rag‘batlantiruvchi munosabati ham muhim ahamiyatga ega. O‘quvchining mustaqil izlanishi, topshiriqni bajarishga bo‘lgan intilishi, ijodiy yondashuvi va erishgan ijobiy natijalarini e’tirof etish uning keyingi mustaqil faoliyatga bo‘lgan qiziqishini kuchaytiradi.

Mustaqil ishlash ko‘nikmasini rivojlantirish jarayonida baholash faqat yakuniy natijani aniqlash vositasi bo‘lib qolmasligi kerak. Baholash o‘quvchiga o‘z faoliyatini tushunish va keyingi ishlarini takomillashtirish imkonini berishi lozim. Shu maqsadda o‘z-o‘zini baholash, o‘zaro baholash, refleksiya va portfolio kabi vositalardan foydalanish mumkin. O‘quvchi “Topshiriqni bajarishda qanday usuldan foydalandim?”, “Qaysi bosqichda qiyinchilikka duch keldim?”, “Xatolarimni qanday tuzatdim?” kabi savollar asosida o‘z faoliyatini tahlil qilishi mumkin. Bunday yondashuv o‘quvchida o‘z faoliyati uchun mas’uliyat hissini kuchaytiradi va uni ta’lim jarayonining faol subyektiga aylantiradi.

Umumiy o‘rta ta’lim maktablarida o‘quvchilarning mustaqil ishlash ko‘nikmalarini rivojlantirish zamonaviy ta’limning muhim yo‘nalishlaridan biridir. Mustaqil ishlash o‘quvchining faqat o‘quv topshiriqlarini mustaqil bajarishini emas, balki maqsad qo‘yish, rejalashtirish, axborot izlash, tahlil qilish, muammoni hal qilish, o‘z faoliyatini nazorat qilish va natijalarni baholash kabi murakkab ko‘nikmalarni egallashini ham nazarda tutadi. Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, mustaqil ishlash ko‘nikmalarini samarali rivojlantirish uchun ta’lim jarayonida muammoli va loyiha asosidagi ta’lim, ijodiy topshiriqlar, interfaol metodlar, individual va differensial yondashuv hamda raqamli ta’lim resurslaridan tizimli foydalanish zarur.

Shuningdek, o‘qituvchining pedagogik mahorati mazkur jarayonning muhim omili hisoblanadi. O‘qituvchi o‘quvchiga tayyor bilimni berishdan ko‘ra, uning mustaqil izlanishi va fikrlashiga sharoit yaratishi, zarur hollarda maslahat berishi va o‘quvchini rag‘batlantirishi lozim. Demak, o‘quvchilarning mustaqil ishlash ko‘nikmalarini rivojlantirish orqali ularning ta’limiy faolligi, mustaqil fikrlashi, ijodkorligi, mas’uliyati va o‘z-o‘zini rivojlantirish qobiliyatlarini shakllantirish mumkin. Bu esa o‘quvchilarni kelajakdagi kasbiy va ijtimoiy faoliyatga tayyorlashning muhim pedagogik shartlaridan biridir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston Respublikasi. Ta’lim to‘g‘risidagi Qonun. O‘RQ–637-son. – Toshkent, 2020.
2. Azizxo‘jayeva N.N. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2006.
3. Tolipov O‘.Q., Usmonboyeva M. Pedagogik texnologiyalarning tatbiqiy asoslari. – Toshkent: Fan, 2006.
4. Ishmuhamedov R., Abduqodirov A., Pardaev A. Ta’limda innovatsion texnologiyalar. – Toshkent: Iste’dod, 2008.
5. Yo‘ldoshev J.G‘., Usmonov S.A. Pedagogik texnologiya asoslari. – Toshkent: O‘qituvchi, 2004.
6. G‘oziyev E.G‘. Umumiy psixologiya. – Toshkent: O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti, 2010.
7. Xaydarov F.I., Xalilova N.I. Umumiy psixologiya. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2010.
8. Vygotsky L.S. Mind in Society: The Development of Higher Psychological Processes. – Cambridge: Harvard University Press, 1978.
9. Bandura A. Social Foundations of Thought and Action: A Social Cognitive Theory. – Englewood Cliffs: Prentice-Hall, 1986.

MUSIQA MADANIYATI FANI PEDAGOGLARINI TAYYORLASH VA MUSIQA TARBIYASI EHTIYOJI

Saodat Muratova
Nizomiy nomidagi O‘zbekiston milliy pedagogika universiteti “Musiqiy ta’lim” kafedrasi katta o‘qituvchisi
https://doi.org/10.5281/zenodo.23177661

Mamlakatimizda musiqa madaniyatini sifatli ta’lim mezonlarida asosida rivojlantirishda kasbiy yetuk o‘qituvchilar tayyorlash muhim ehtiyoj bo‘lib turibdi. Chunki musiqa o‘qituvchilari umumiy musiqa san’ati bo‘yicha kasbiy mahoratga ega bo‘lishlari bilan birgalikda, musiqa madaniyatini o‘qitish va musiqa tarbiyasini amalga oshirishga doir kasbiy ko‘nikmalarga ham ega bo‘lishi kerak.

Bugungi kunda mamlaktimizda maktabgacha va maktab ta’limi, bolalar musiqa va san’at ta’limi, o‘rta maxsus va oliy ta’lim muassasalarida “Musiqa madaniyati” fani keng o‘qitilmoqda. Musiqa ta’limi va o‘qitish bo‘yicha muayyan muammolar ko‘lamini o‘rganib borish taqozo etiladi. Jumladan, ta’lim muassasalarida Musiqa fani bo‘yicha variativ o‘quv dasturlarini yaratish va ular asosida yangi avlod o‘quv adabiyotlarini ishlab chiqish muammosi mavjud. Chunki variativ o‘quv dasturlari mazkur fanning nazariy asoslarini, ijrochilik metodikasini va individual yondashuv vositalari ko‘lamini kengaytiradi. Shuningdek, bunda professional musiqa o‘qituvchilariga bo‘lgan ehtiyoj ortib bormoqda. Shu sababli musiqa o‘qituvchilarini tayyorlashda ularning cholg‘u ijrochiligi, musiqa san’ati asoslari, ashula ijrochiligi, ansambl va orkestr ijrochiligi bo‘yicha kasbiy bilim hamda ko‘nikmalarini tarkib toptirish muhim ahamiyatga ega.

Ayni paytda, bo‘lajak musiqa o‘qituvchilarini muayyan cholg‘u va xonandalikning har bir yo‘nalishi bo‘yicha individual metodika bilan qurollantirish ham muhim o‘rin tutadi. Bularning barchasi musiqa o‘qituvchilarini tayyorlash bo‘yicha oliy pedagog ta’lim muassasalari o‘quv dasturlarini muntazam takomillashtirib borish va o‘qitishning turli shakllaridan foydalanishni taqozo etmoqda. Musiqa fani bo‘yicha yangi o‘quv dasturlar va o‘quv adabiyotlarini tayyorlashda ikki muammoni hal etib olish taqozo etiladi: ***birinchisi,*** musiqa bo‘yicha o‘quv adabiyotlarini tayyorlashning milliy tajribasidan oqilona foydalanish; ***ikkinchisi,*** bu borada jahon musiqa san’ati an’analarini hisobga olish. Shu jihatdan yangi avlod o‘quv adabiyotlarini tayyorlashda milliy tajribadan foydalanish metodikasini ishlab chiqish muhim muammolardan biri hisoblanadi. Shuningdek, jahon mamlakatlari musiqa san’ati an’analarining eng yaxshi jihatlaridan o‘quv adabiyotlarini ishlab chiqishda foydalanish metodikasi bo‘yicha ham muammolar mavjudligini ta’kidlab o‘tish lozim.

Bunda ayniqsa, jahon musiqa san’atining eng noyob durdonalarini o‘rganishga e’tiborni qaratish maqsadga muvofiq bo‘ladi. Mazkur muammolarning hal etilishida

kasbiy yetuk va mahoratli musiqa o‘qituvchilarining o‘rni muhimdir. Musiqa o‘qituvchilarini tayyorlashda o‘quv dasturlarida nazariy bilim, ijrochilik mahorati va musiqa ta’limi metodikasi asoslarini uyg‘un o‘zida mujassam etgan omillarga tayanish maqsadga muvofiq bo‘ladi. Chunki nazariy bilimga ega musiqa o‘qituvchilari o‘quvchi-talabalarning musiqa san’ati asoslari bo‘yicha bilimlarini kutilgan darajada tarkib toptiradi.

Nazariy bilim ijrochilik mahoratining asosidir. Bu borada cholg‘u va ashula ijrochiligining asoslarini o‘zlashtirishda nazariy bilim tayanch vazifasini o‘taydi. Nazariy bilimga asosan o‘zlashtirilgan ijrochilik mahorati musiqa o‘qituvchilariga o‘ziga xos metodikaga asoslangan musiqa ta’limini amalga oshirish imkonini beradi. Shu jihatdan bu masalada nazariya, ijrochilik va metodika masalalari uyg‘un xususiyatlarga egadir. Bular har o‘quv yili boshida musiqa o‘quv fanlari dasturlarini takomillashtirish zaruriyatini ko‘rsatadi.

Bo‘lajak musiqa o‘qituvchilarini tayyorlashda ularga beriladigan kasbiy bilim va ko‘nikma ko‘lami bo‘yicha mavjud muammolarini hal etish dolzarb bo‘lib turibdi. Bu borada milliy musiqa san’atimizning eng noyob musiqalari va ashulalarining ijrochiligi bilan bo‘lajak musiqa o‘qituvchilarini qurollantirish, ularni bolalar musiqa asarlari metodikasi bilan tanishtirish va jahon musiqa san’atining durdona musiqa hamda ashulalari bo‘yicha kasbiy ko‘nikmasini tarkib toptirish muhim ahamiyatga ega. Shu jihatdan musiqa ta’limi jarayonida milliy musiqa merosidan foydalanish, bolalar musiqa san’atini o‘qitish va jahon xalqlari musiqa san’atidan ta’lim jarayonida foydalanish metodikalarini ishlab chiqish bugungi kundagi eng muhim muammolar hisoblanadi. Shu sababli oliy pedagogik ta’lim muassasalarida mazkur muammolar bo‘yicha amaliy va metodik ishlanmalarni yaratish hamda ularni amaliyotga joriy etish dolzarb bo‘lib turganligini ta’kidlab o‘tish lozim.

Oliy musiqa ta’limi vositasida musiqa o‘qituvchilarini tayyorlashning yangi shakllaridan ham foydalanish muhim ahamiyatga ega. Bunda bugungi kunda amaliy samara berayotgan masofaviy ta’lim, mustaqil ta’lim va individual ta’lim kabi o‘qitishning yangi shakllari muhim amaliy samaradorlikka ega ekanligini eslatib o‘tish joiz. Jumladan, tajribali professor-o‘qituvchilar va san’atkorlarning kompyuter, TV kabi axborot-kommunikatsion vositalariga asoslangan masofaviy ta’lim shaklidagi mashg‘ulotlarini tashkil qilish professional musiqa o‘qituvchilarini tayyorlashda muhim ahamiyatga ega. Misol uchun, bunday mashg‘ulotlar Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universitetida tashkil etilsa, bu mashg‘ulotlardan hududlardagi oliy pedagogik ta’lim muassasalarining musiqa ta’limi yo‘nalishi talabalari ham bahramand bo‘ladi. Chunki poytaxtimiz va markaziy shaharlardagi oliy ta’lim pedagogik muassasalarida o‘z kasbining ustasi bo‘lgan mutaxassislar faoliyat yuritmoqda.

Shu jihatdan talabalarni Ustozlarga biriktirish vositasida ularni mustaqil ta’lim shaklida professional musiqa o‘qituvchilari sifatida tayyorlash ham kutilgan samarani beradi. Bunda o‘ziga biriktirilgan talabalar Ustoz o‘quv materiallarini, ma’lumotlarni va tegishli adabiyotlarni o‘qishni taqdim qilib boradi. Talaba ularni mustaqil o‘zlashtirish bilan o‘zining kasbiy bilim va ko‘nikmalarini rivojlantirib boradi. Bundan tashqari, individual ta’lim shaklida ham bo‘lajak musiqa o‘qituvchilarini tayyorlash imkoniyatlari mavjud. Unga ko‘ra, oliy pedagogik ta’lim muassasasining musiqa ta’lim yo‘nalishida individual musiqa ta’limi dasturi, o‘quv adabiyotlari va metodik ta’minoti ishlab chiqiladi. Ularni o‘zlashtirish bilan bo‘lajak musiqa o‘qituvchisi individual shug‘ullanadi. Buning natijasida talabalardan pedagogik mahorat kuchayadi.

Eslatib o‘tish joizki, masofaviy, mustaqil va individual ta’lim shakllarining o‘quv manbalari elektron nusxada tayyorlanadi va ta’lim oluvchiga taqdim etiladi. Diqqat qilinsa, professional musiqa o‘qituvchilarini tayyorlashning turli shakllaridan foydalanish oliy musiqiy pedagogik ta’lim jarayoni mazmunini, o‘qitish metodikasini va kasbiy tayyorlash asoslarini yangilaydi. Bularning barchasi professional musiqa o‘qituvchilarini tayyorlashda amaliy ahamiyatga ega. Bizning yondashuvimizga ko‘ra, musiqa ta’limi metodikasini yangilash bo‘yicha mutaxassislarning takliflarini umumlashtirish va ular asosida yangilangan musiqa ta’limi metodikasini ishlab chiqish muhim ahamiyatga egadir. Shu jihatdan bu borada cholg‘u va ashula ijrochiligining individual metodikalarini yaratish muhim muammolardan biri bo‘lib turibdi. Buning uchun musiqa san’ati vakillarining ommaviy takliflarini o‘rganish va umumlashtirish muhim ahamiyatga ega bo‘ladi.

Mamlakatimizda tahlim oluvchilarning musiqa tarbiyasini amalga oshirishda ham yangi yondashuvlarga asoslanish dolzarb bo‘lib turibdi. Chunki Internet global axborot tarmog‘i va turli ijtimoiy tarmoqlar vositasida o‘quvchi-talabalar o‘zlarining yosh, ruhiy va estetik xususiyatlariga mos kelmaydigan musiqa asarlarini va qo‘shiqlarini tinglashmoqda. Natijada ularning ongida o‘zga noma’lum jamiyatga intilish hissi, ruhiy tushkunlik tuyg‘usi va me’yorsiz individuallikka intilish maqsadlari paydo bo‘layotganligi sir emas. Shu sababli innovatsion jamiyatimizda musiqa tarbiyasini yangilab borish taqozo etilmoqda. Buning uchun ta’lim oluvchilarga, eng avvalo o‘quvchilarga milliy musiqamiz asoslarini to‘g‘ri tushuntirish va ularni jahon musiqa san’atining eng yaxshi namunalari bilan tanishtirish maqsadga muvofiq bo‘ladi. Bu ishda professional musiqa o‘qituvchilarining mehnatiga tayanish kutilgan samarani beradi. Shu ma’noda professional musiqa o‘qituvchisi musiqa tarbiyasining individual yondashuv shakllaridan foydalanishi muhim ahamiyatga egadir.

Mamlakatimizda 2030 yilga qadar inklyuziv ta’limga muhtoj, ya’ni jismoniy, ruhiy va aqliy imkoniyatlari cheklangan bolalarni ta’lim bilan to‘liq qamrab olish islohotlari amalga oshirilmoqda. Shu jihatdan inklyuziv ta’limga muhtoj bolalarning

musiqa tarbiyasini amalga oshiruvchi professional musiqa o‘qituvchilarini ham tayyorlash dolzarb bo‘lib turibdi. Bunda bo‘lajak musiqa o‘qituvchilarini jismoniy, ruhiy va aqliy imkoniyati cheklangan bolalarga musiqa tarbiyasi berish, ya’ni ularning jismoniy layoqati va qiziqishlaridavn kelib chiqib cholg‘u hamda qo‘shiq ijrochiligiga o‘rgatish metodikasi bilan qurollantirish muhim ahamiyatga egadir. Bo‘lajak professional o‘qituvchilar kelgusida inklyuziv ta’limga muhtoj bolalar bo‘lgan oilalar va ular tarbiyalanayotgan maxsus hamda internat ta’lim muassasalarida ham faoliyat yuritish imkoniyatiga ega. Shu sababli bo‘lajak musiqa o‘qituvchilarini inklyuziv musiqa ta’limi metodikasi bilan qurollantirish taqozo etiladi.

E’tibor berilsa, musiqa tarbiyasini amalga oshirishning yangi shakllari va inklyuziv ta’lim jarayonida musiqa tarbiyasini amalga oshirish metodikasi bo‘yicha yangi avlod o‘quv adabiyotlarini ishlab chiqish taqozo etiladi. Bu borada Toshkent davlat pedagogika universiteti, Jizzax davlat pedagogika universiteti va Chirchiq davlat pedagogika universiteti musiqa ta’lim yo‘nalishi professor-o‘qituvchilari hamda mutaxassislarining hamkorlikdagi tadqiqot ishlarini yo‘lga qo‘yish maqsadga muvofiq bo‘ladi. Ulug‘ faylasuflardan Aflotunning “Davlatning qudrati qanday musiqa tinglanayotganligi bilan belgilanadi” mazmunidagi fikrini unutib bo‘lmaydi. Chunki qanday musiqa tinglanayotganligi mamlakat fuqarolarining davlatga munosabatini belgilaydi. Bu muammoni hal etish professional musiqa o‘qituvchilarini tayyorlash va musiqa tarbiyasini amalga oshirishga yangicha yondashuvlar bilan amalga oshadi.

Mamlakatimiz musiqa ta’limi va tarbiyasining yangilanish jarayonida bugungi kun talablaridan kelib chiqib, amaliy va metodik tadbirlarni amalga oshirish muhim ahamiyatga ega. Bunday tadbirlarda dolzarb muammolarni aniqlash, ularni yechimlarini topish va rivojlantirish bo‘yicha takliflar majmuini ishlab chiqish maqsadga muvofiq bo‘ladi. Bu borada mamlakatimiz musiqa san’ati vakillarining mahorati, musiqa ta’limi va tarbiyasi an’analari hamda jahon musiqa san’ati ta’limining tajribalariga uyg‘un yondashish kutilgan samarani beradi.

ADABIYOTLAR:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Yangi O‘zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni. // “Xalq so‘zi” gazetasi
2. Abdurauf Fitrat. O‘zbek klassik musiqasi va uning tarixi. – Toshkent, 1993
3. Lutfullayev A.K., Raximov Sh.N. Cholg‘ushunoslik. – Toshkent, 2021
4. V.I.Petrushin. «Muzыkalnaya psixologiya»

MAKTAB TARBIYAVIY TIZIMINING INSTITUTSIONAL MODELLARI: SHARQ VA G‘ARB TAJRIBASINING QIYOSIY TAHLILI

Mutallibjonov Ma’rufjon Mutallibjon o‘g‘li
Qori Niyoziy nomidagi Tarbiya pedagogikasi milliy instituti tayanch doktoranti
ORCID: 0009-0007-0312-3187; e-mail: marufjonmutallibjonov@gmail.com
https://doi.org/10.5281/zenodo.23177688

Annotatsiya. *Maqolada maktab tarbiyaviy tizimining institutsional modellari Yaponiya va Singapurning axloqiy tarbiya modeli hamda AQSh va Buyuk Britaniyaning fuqarolik tarbiyasi modeli misolida qiyosiy tahlil qilingan. J.Beredeyning qiyosiy-pedagogik metodi asosida yetti mezondan iborat tahliliy model ishlab chiqilgan: me’yoriy asos, o‘quv rejadagi maqom, boshqaruv darajasi, asosiy subyektlar, amaliy faoliyat komponenti, oila va jamoa bilan hamkorlik hamda natijalarni baholash mexanizmi. Tahlil Sharq modelining qadriyatli-jamoaviy, G‘arb modelining esa ishtirokchi-kompetensiyaviy yo‘nalganligini hamda ular o‘rtasida konvergensiya tendensiyasi kuchayayotganini ko‘rsatdi. Natijalar asosida O‘zbekistonda «Tarbiya» fani va mahalla instituti imkoniyatlariga tayangan gibrid «qadriyatli-ishtirokchi» modelni rivojlantirish bo‘yicha takliflar berilgan.*

Kalit so‘zlar: *tarbiyaviy tizim, institutsional model, axloqiy tarbiya, fuqarolik tarbiyasi, xarakter tarbiyasi, tokkatsu, qiyosiy pedagogika, «Tarbiya» fani.*

Аннотация. *В статье проводится сравнительный анализ институциональных моделей школьной воспитательной системы на примере модели нравственного воспитания Японии и Сингапура и модели гражданского воспитания США и Великобритании. На основе сравнительно-педагогического метода Дж. Береди разработана аналитическая модель из семи критериев: нормативная база, статус в учебном плане, уровень управления, основные субъекты, практико-деятельностный компонент, взаимодействие с семьёй и сообществом, механизм оценки результатов. Анализ выявил ценностно-коллективистскую направленность восточной модели, партисипативно-компетентностную направленность западной модели и усиление тенденции их конвергенции. Предложены рекомендации по развитию в Узбекистане гибридной «ценностно-партисипативной» модели, опирающейся на предмет «Тарбия» и институт махалли.*

Ключевые слова: *воспитательная система, институциональная модель, нравственное воспитание, гражданское воспитание, воспитание характера, токкацу, сравнительная педагогика, предмет «Тарбия».*

Abstract. *The article presents a comparative analysis of institutional models of school upbringing systems, contrasting the moral education model of Japan and Singapore with the citizenship education model of the USA and the United Kingdom. Drawing on G. Bereday’s comparative method, a seven-criterion analytical framework was developed: policy basis, curricular status, level of governance, key actors, experiential component, family and community partnership, and outcome evaluation. The analysis reveals the value-collective orientation of the Eastern model, the participatory-competence orientation of the Western model, and a growing convergence between them. Recommendations are proposed for developing in Uzbekistan a hybrid “value-participatory” model built on the “Tarbiya” subject and the mahalla institution.*

Keywords: *upbringing system, institutional model, moral education, citizenship education, character education, tokkatsu, comparative education, “Tarbiya” subject.*

Globallashuv, raqamli muhitning kengayishi va axborot oqimining tezlashuvi sharoitida maktab faqat bilim beruvchi muassasa bo‘lib qolmay, bolaning

qadriyatlar tizimini shakllantiruvchi asosiy ijtimoiy institutga aylanmoqda. Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkilotining «Ta’lim kompasi 2030» konsepsiyasida bilim va ko‘nikmalar bilan bir qatorda qadriyatlar va munosabatlar ta’lim natijasining teng huquqli tarkibiy qismi sifatida e’tirof etilgan [1]. Demak, bugun asosiy savol tarbiyani maktabda qanday institutsional shaklda tashkil etish va boshqarishdir.

O‘zbekistonda ham bu masala davlat siyosati darajasiga ko‘tarilgan. «Ta’lim to‘g‘risida»gi Qonunda tarbiya ta’limning ajralmas qismi sifatida belgilangan [2]. Uzluksiz ma’naviy tarbiya konsepsiyasi tarbiyaning maqsad va bosqichlarini aniqlab bergan [3], 2020-yildan boshlab umumiy o‘rta ta’lim maktablarida «Tarbiya» o‘quv fani bosqichma-bosqich joriy etildi [4]. Shu bilan birga, amaliyotda tarbiyaviy ish ko‘pincha alohida tadbirlar yig‘indisi sifatida tashkil etiladi, uning natijadorligini baholash mexanizmlari esa hali shakllanish bosqichida. Bu holat tarbiyaviy tizimning institutsional modeli – ya’ni me’yoriy asosi, subyektlari, boshqaruv darajalari va baholash mexanizmlari yaxlit tahlil qilinishini taqozo etadi.

Abdulla Avloniy bundan bir asr ilgari tarbiyani xalq uchun «yo hayot – yo mamot, yo najot – yo halokat, yo saodat – yo falokat masalasi» deb baholagan edi [5]. Bu fikr tarbiyaning ijtimoiy-institutsional ahamiyatini ta’kidlaydi va xorijiy tajribani o‘rganish zaruratini asoslaydi.

Tadqiqotning maqsadi – Sharq (Yaponiya, Singapur) va G‘arb (AQSh, Buyuk Britaniya) mamlakatlari maktab tarbiyaviy tizimlarining institutsional modellarini qiyosiy tahlil qilish hamda O‘zbekiston uchun amaliy xulosalar ishlab chiqish. Tadqiqot quyidagi savollarga javob izlaydi: 1) Sharq va G‘arb modellari qaysi institutsional belgilar bo‘yicha farqlanadi? 2) Ular o‘rtasida qanday umumiy rivojlanish tendensiyalari kuzatilmoqda? 3) Ushbu tajribaning qaysi elementlari milliy sharoitga moslashtirilishi mumkin?

Maktab va jamoa orqali tarbiyalash g‘oyasi Sharq allomalari merosida chuqur ildizga ega. Abu Nasr Forobiy «Fozil odamlar shahri» asarida fazilatlar tug‘ma emasligini, ular mashq va odat orqali, jamiyat a’zolarining o‘zaro hamkorligida shakllanishini asoslagan [6]. Yusuf Xos Hojib «Qutadg‘u bilig»da ilm, adolat va odobni davlat va jamiyat barqarorligining asosi sifatida talqin etgan [7]. Yaponiya va Singapur tarbiya tizimlariga kuchli ta’sir ko‘rsatgan Konfutsiy ta’limotida esa shaxs tarbiyasi o‘rnak, odob-marosimlar va jamoa oldidagi burch orqali amalga oshirilishi ta’kidlanadi [8]. Demak, Sharq an’anasida tarbiya jamoaviy hayot va kundalik amaliyot orqali amalga oshiriladi.

O‘zbek pedagogikasida M.Quronov milliy tarbiyaning oila, mahalla va ta’lim muassasasi uyg‘unligiga tayanishini asoslagan bo‘lsa [9], O.Musurmonova ma’naviy qadriyatlarni yoshlar tarbiyasining mazmuniy asosi sifatida tadqiq etgan [10]. Biroq mahalliy tadqiqotlarda tarbiyaviy tizimni boshqaruv mexanizmlari va institutsional tuzilma nuqtayi nazaridan xorijiy modellar bilan qiyoslash hali yetarli darajada amalga oshirilmagan.

G‘arb pedagogikasida J.Dyui maktabni «demokratik jamiyatning kichik modeli» sifatida ko‘rib, fuqarolik fazilatlari amaliy jamoaviy faoliyatda shakllanishini ko‘rsatgan [11]. L.Kolberg va uning hamkasblari «adolatli jamoa» maktablari tajribasida axloqiy rivojlanishni o‘quvchilarning maktab boshqaruvidagi ishtiroki bilan bog‘lagan [12]. T.Likona xarakter tarbiyasini «ezgulikni bilish, uni istash va unga amal qilish» birligi sifatida talqin etgan [13]. Birmingem universiteti qoshidagi Yubiley markazi olimlari (J.Artur, K.Kristyansson va boshq.) neo-aristotelcha yondashuv asosida fazilatlarni axloqiy, intellektual, fuqarolik va samaradorlik fazilatlariga ajratgan [14; 15]. J.Vestxaymer va J.Kan fuqarolik tarbiyasi natijasini «shaxsan mas’uliyatli», «ishtirokchi» va «adolatga yo‘naltirilgan» fuqaro turlariga ajratib, har bir maktab dasturi ulardan qaysi birini shakllantirishini aniqlash zarurligini ko‘rsatgan [16]. Yapon tizimi K.Lyuis va R.Tsuneyoshi ishlarida yaxlit tarbiya modeli sifatida [17; 18], fuqarolik tarbiyasining xalqaro tipologiyasi esa D.Kerr tomonidan [19] tahlil qilingan.

Tadqiqotda J.Beredeyning to‘rt bosqichli qiyosiy-pedagogik metodi (tavsiflash, izohlash, yonma-yon qo‘yish va qiyoslash) qo‘llanildi [20]. Tahlil manbalari sifatida mamlakatlarning rasmiy o‘quv hujjatlari [21; 22; 23; 24; 25] va ilmiy adabiyotlar olindi. U.Bronfenbrennerning ekologik yondashuviga tayangan holda [26] yetti mezondan iborat tahliliy model ishlab chiqildi: me’yoriy asos; tarbiyaning o‘quv rejadagi maqomi; boshqaruv darajasi; asosiy subyektlar; amaliy faoliyat komponenti; oila va jamoa bilan hamkorlik; natijalarni baholash mexanizmi. Yaponiya va Singapur konfutsiylik an’anasidagi axloqiy tarbiya modelini, AQSh va Buyuk Britaniya liberal-demokratik an’anadagi fuqarolik tarbiyasi modelini ifodalaydi.

Tahlil va natijalar

Yaponiya. Yaponiyada axloq tarbiyasi 1958-yildan boshlab haftalik «axloq soati» sifatida o‘qitib kelingan. 2015-yilgi islohot natijasida u «maxsus fan – axloq» maqomini oldi va boshlang‘ich maktabda 2018-yildan, quyi o‘rta maktabda 2019-yildan joriy etildi [21]. Fan mazmuni to‘rt yo‘nalishda tuzilgan: o‘ziga munosabat; boshqalarga munosabat; jamoa va jamiyatga munosabat; hayot, tabiat va yuksak qadriyatlarga munosabat. Fanni asosan sinf rahbari o‘qitadi, natijalar raqam bilan emas, tavsiflovchi izoh bilan baholanadi. Tizimning eng o‘ziga xos elementi – tokkatsu, ya’ni maxsus faoliyatlar: sinf majlislari, o‘quvchilar kengashi, maktab tadbirlari, sinfni o‘quvchilarning o‘zlari tozalashi va tushlik navbatchiligi. Tadqiqotchilar aynan shu kundalik jamoaviy amaliyot mas’uliyat va hamjihatlikni darsdagi suhbatdan ko‘ra samaraliroq shakllantirishini qayd etadi [17; 18].

Singapur. Singapurda 2014-yildan «Xarakter va fuqarolik tarbiyasi» (CCE) fani amal qiladi, 2021-yilda uning yangilangan dasturi joriy etildi [22]. Dastur oltita asosiy qadriyatga tayanadi: hurmat, mas’uliyat, bardoshlilik, halollik, g‘amxo‘rlik va hamjihatlik. Tarbiya uch kanal orqali amalga oshiriladi: CCE darslari, sinf

rahbarining tarbiyaviy soatlari hamda «Qadriyatlar amalda» (Values in Action) jamoatchilik loyihalari; o‘rta maktabda to‘garak faoliyati majburiy hisoblanadi. Boshqaruv vazirlik darajasida markazlashgan, ammo har bir maktab dastur doirasida o‘z tarbiyaviy rejasini ishlab chiqadi. CCE bo‘yicha ball qo‘yilmaydi, o‘quvchi rivojlanishi sifatiy tavsiflar orqali kuzatiladi.

AQSh. AQShda ta’lim boshqaruvi markazlashmagan: yagona federal o‘quv dasturi mavjud emas, tarbiya masalalari shtat va maktab okruglari darajasida hal etiladi. Fuqarolik tarbiyasi asosan ijtimoiy fanlar tarkibida o‘qitiladi va ko‘plab shtatlar Milliy ijtimoiy fanlar kengashining C3 standartlariga tayanadi [23]. Axloqiy komponent xarakter tarbiyasi dasturlari va ijtimoiy-emotsional ta’lim (SEL) orqali amalga oshiriladi; SEL tizimida o‘zini anglash, o‘zini boshqarish, ijtimoiy xabardorlik, munosabat ko‘nikmalari va mas’uliyatli qaror qabul qilish kabi beshta kompetensiya ajratilgan [27]. Amaliy komponent sifatida «xizmat orqali o‘qitish» (service learning) keng tarqalgan. Model maktab erkinligini ta’minlaydi, biroq tarbiya sifati hududlar kesimida sezilarli farq qiladi.

Buyuk Britaniya (Angliya). Angliyada 1998-yilgi B.Krik ma’ruzasidan so‘ng [24] fuqarolik 2002-yildan o‘rta maktabning majburiy fani sifatida joriy etildi. Ma’ruzada fuqarolik tarbiyasining uch yo‘nalishi belgilangan: ijtimoiy va axloqiy mas’uliyat, jamoa hayotida ishtirok etish va siyosiy savodxonlik. Fuqarolik fani bilan bir qatorda shaxsiy, ijtimoiy va sog‘liq tarbiyasi (PSHE) o‘qitiladi. Maktablar o‘quvchilarning ma’naviy, axloqiy, ijtimoiy va madaniy rivojlanishini ta’minlashi shart; 2019-yildan Ta’lim standartlari idorasi (Ofsted) tekshiruvlarida «shaxsiy rivojlanish» alohida baholanadi, Ta’lim vazirligi esa xarakter tarbiyasi bo‘yicha maxsus yo‘riqnoma e’lon qildi [25].

Yuqoridagi tahlil natijalari yetti mezon bo‘yicha jadvalda umumlashtirildi (1-jadval).

1-jadval

Sharq va G‘arb maktab tarbiyaviy tizimlarining institutsional belgilari

Mezon	Yaponiya	Singapur	AQSh	Buyuk Britaniya (Angliya)
Me’yoriy asos	Milliy o‘quv standarti (2017-yil tahriri)	CCE dasturi (2014; 2021-yil tahriri)	Shtat standartlari, C3 standartlari (2013), SEL standartlari	Milliy o‘quv dasturi, Ta’lim vazirligi yo‘riqnomalari
O‘quv rejadagi maqomi	Alohida fan: «maxsus fan – axloq»	Alohida fan (CCE) va sinf rahbari soatlari	Alohida fan emas: ijtimoiy fanlar tarkibida, dasturlar orqali	Majburiy «Fuqarolik» fani (2002-yildan) va PSHE

Mezon	Yaponiya	Singapur	AQSh	Buyuk Britaniya (Angliya)
Boshqaruv darajasi	Markazlashgan dastur, maktab darajasida amalga oshirish	Markazlashgan, vazirlik va maktab uyg‘unligi	Markazlashmagan: shtat va okrug	Aralash: milliy dastur va maktab mustaqilligi
Asosiy subyekt	Sinf rahbari	Sinf rahbari, CCE o‘qituvchisi	Ijtimoiy fanlar o‘qituvchisi, maktab maslahatchisi	Fuqarolik va PSHE o‘qituvchisi, maktab rahbariyati
Amaliy komponent	Tokkatsu: sinf majlisi, o‘quvchilar kengashi, tozalash, tushlik navbatchiligi	«Qadriyatlar amalda» loyihalari, majburiy to‘garaklar	Xizmat orqali o‘qitish, o‘quvchilar o‘zini o‘zi boshqarishi	Faol fuqarolik loyihalari, o‘quvchilar kengashi
Oila va jamoa bilan hamkorlik	Ota-onalar va o‘qituvchilar uyushmasi, maktab boshqaruv kengashlari	Ota-onalarni qo‘llab-quvvatlash guruhlari, jamoatchilik loyihalari	Maktab–oila–jamoa hamkorlik dasturlari	Maktab kengashlari, mahalliy jamoa loyihalari
Natijalarni baholash	Raqamsiz, tavsiflovchi baholash	Ball qo‘yilmaydi, sifatiy tavsif	Ayrim shtatlarda fuqarolik testi, dastur samaradorligi tadqiqotlari	Ofsted inspeksiyasida «shaxsiy rivojlanish» bahosi

Manba: muallif tomonidan [21; 22; 23; 27; 24; 25] manbalari asosida tuzilgan.

Qiyosiy tahlil ikki ideal modelni ajratish imkonini berdi. Sharq modelini «qadriyatli-jamoaviy» model deb nomlash mumkin: unda tarbiya alohida fan va maktabning kundalik jamoaviy hayoti orqali amalga oshiriladi, asosiy subyekt – sinf rahbari, baholash esa ichki va tavsiflovchi xususiyatga ega. G‘arb modeli esa «ishtirokchi-kompetensiyaviy» model bo‘lib, unda fuqarolik bilimlari, tanqidiy fikrlash va jamoat hayotida ishtirok etish ko‘nikmalari ustuvor, natija esa tashqi standartlar yoki inspeksiya orqali nazorat qilinadi.

Shu bilan birga, ikki model o‘rtasida aniq konvergensiya kuzatilmoqda. Yaponiyada 2015-yilgi islohot «o‘ylaydigan va muhokama qiladigan axloq darsi» tamoyilini ilgari surib, tanqidiy fikrlash va munozara elementlarini kuchaytirdi. Singapur «Qadriyatlar amalda» loyihalari orqali faol fuqarolik tarkibini oshirdi. Aksincha, Angliya va AQShda xarakter tarbiyasi hamda ijtimoiy-emotsional ta’limga qiziqish ortib, fazilatlar tarbiyasi qayta kun tartibiga chiqdi [14; 27].

Boshqacha aytganda, Sharq modeli ishtirokchilik tomon, G‘arb modeli esa qadriyatlar tomon harakatlanmoqda.

Muhokama

O‘zbekistonning amaldagi tarbiyaviy tizimi institutsional jihatdan Sharq modeliga yaqin: tarbiya alohida o‘quv fani sifatida o‘qitiladi [4], markazlashgan me’yoriy asosga ega [3] va sinf rahbari hamda ma’naviy-ma’rifiy ishlar bo‘yicha direktor o‘rinbosari asosiy subyekt hisoblanadi. Mahalla instituti esa xorijiy tizimlarning birortasida bunday rasmiy maqomga ega bo‘lmagan noyob ijtimoiy resursdir. Biroq qiyosiy tahlil uchta institutsional bo‘shliqni ko‘rsatdi: birinchidan, Yaponiyadagi tokkatsu yoki Singapurdagi «Qadriyatlar amalda» kabi kundalik tizimli amaliy komponent zaif; ikkinchidan, tarbiya natijasini baholashning aniq indikatorlari va mustaqil monitoring mexanizmi mavjud emas; uchinchidan, tarbiya maqsadlarida «shaxsan mas’uliyatli» fuqaro g‘oyasi ustun bo‘lib, «ishtirokchi» fuqaro ko‘nikmalari yetarli aks etmagan [16].

Shu bilan birga, xorijiy tajribani mexanik ko‘chirish xavfli. M.Sadler bundan bir asrdan ko‘proq vaqt oldin maktabdan tashqaridagi omillar maktab ichidagi omillardan ham muhimroq ekanini, ta’lim tizimini uning madaniy muhitidan ajratib ko‘chirib bo‘lmasligini ogohlantirgan edi [28]. Masalan, inspeksiyaga asoslangan qat’iy nazorat tarbiyani rasmiyatchilikka aylantirishi mumkin. Shuning uchun xorijiy modellardan tashqi shakl emas, ularning ostidagi pedagogik mexanizm olinishi lozim.

Muallif qiyosiy tahlil asosida O‘zbekiston uchun gibrid «qadriyatli-ishtirokchi» modelni taklif etadi. Bu model uch darajada amalga oshiriladi: dars darajasi («Tarbiya» fani qadriyatlarni anglash va muhokama qilish maydoni sifatida), maktab hayoti darajasi (navbatchilik, sinf kengashi, o‘quvchilar o‘zini o‘zi boshqarishi orqali kundalik jamoaviy mas’uliyat) va mahalla darajasi (hashar an’anasi bilan uyg‘unlashtirilgan jamoatchilik loyihalari). Uchala daraja yagona tarbiyaviy mavzu rejasi va umumiy baholash mezonlari orqali bog‘lanadi.

Xulosa va takliflar

Olib borilgan qiyosiy tahlil quyidagi xulosalarga kelish imkonini berdi. Birinchidan, maktab tarbiyaviy tizimlari me’yoriy asos, o‘quv rejadagi maqom, boshqaruv darajasi, subyektlar, amaliy komponent, jamoa bilan hamkorlik va baholash mexanizmi bo‘yicha farqlanadi; bu yetti mezon institutsional modelni tahlil qilishning samarali vositasi bo‘la oladi. Ikkinchidan, Yaponiya va Singapurning axloqiy tarbiya modeli qadriyatli-jamoaviy, AQSh va Buyuk Britaniyaning fuqarolik tarbiyasi modeli esa ishtirokchi-kompetensiyaviy yo‘nalishga ega. Uchinchidan, so‘nggi o‘n yillikda ikki model bir-biriga yaqinlashmoqda: Sharq tanqidiy fikrlash va ishtirokchilikni, G‘arb esa fazilatlar tarbiyasini kuchaytirmoqda.

Tadqiqot natijalari asosida quyidagilar taklif etiladi: 1) «Tarbiya» fanini tokkatsu tajribasi asosida kundalik jamoaviy amaliyot (navbatchilik, sinf kengashi, o‘quvchilar o‘zini o‘zi boshqarishi) bilan tizimli to‘ldirish; 2) Singapurning «Qadriyatlar amalda» dasturi tajribasini hashar an’anasi bilan uyg‘unlashtirib, «Mahallaga xizmat» loyihalarini joriy etish; 3) tarbiya natijalarini raqamsiz, tavsiflovchi baholash va o‘quvchi rivojlanish portfoliosi tizimini ishlab chiqish; 4) maktablarning tarbiyaviy faoliyatini baholash uchun jazolovchi emas, rivojlantiruvchi xarakterdagi ichki monitoring indikatorlarini belgilash; 5) tarbiya maqsadlariga ishtirokchi fuqarolik ko‘nikmalarini (muhokama, jamoaviy qaror qabul qilish, loyiha tashabbuskorligi) aniq kiritish. Taklif etilgan modelning samaradorligini tajriba-sinov orqali tekshirish keyingi tadqiqotlar vazifasidir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. OECD. OECD Learning Compass 2030: A Series of Concept Notes. – Paris: OECD Publishing, 2019.
2. O‘zbekiston Respublikasining «Ta’lim to‘g‘risida»gi Qonuni. 2020-yil 23-sentabr, O‘RQ-637-son // Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi (www.lex.uz).
3. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 31-dekabrdagi 1059-son «Uzluksiz ma’naviy tarbiya konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi qarori // www.lex.uz.
4. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 6-iyuldagi 422-son «Umumiy o‘rta ta’lim muassasalarida “Tarbiya” fanini bosqichma-bosqich amaliyotga joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi qarori // www.lex.uz.
5. Avloniy A. Turkiy guliston yoxud axloq. – Toshkent: O‘qituvchi, 1992.
6. Abu Nasr Forobiy. Fozil odamlar shahri. – Toshkent: Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 1993.
7. Yusuf Xos Hojib. Qutadg‘u bilig. – Toshkent: Yulduzcha, 1990.
8. Confucius. The Analects / Transl. by D.C. Lau. – London: Penguin Books, 1979.
9. Quronov M. Milliy tarbiya. – Toshkent: Ma’naviyat, 2007.
10. Musurmonova O. Ma’naviy qadriyatlar va yoshlar tarbiyasi. – Toshkent: O‘qituvchi, 1996.
11. Dewey J. Democracy and Education. – New York: Macmillan, 1916.
12. Power F.C., Higgins A., Kohlberg L. Lawrence Kohlberg’s Approach to Moral Education. – New York: Columbia University Press, 1989.
13. Lickona T. Educating for Character: How Our Schools Can Teach Respect and Responsibility. – New York: Bantam Books, 1991.
14. Arthur J., Kristjánsson K., Harrison T., Sanderse W., Wright D. Teaching Character and Virtue in Schools. – London: Routledge, 2017.
15. Jubilee Centre for Character and Virtues. A Framework for Character Education in Schools. – Birmingham: University of Birmingham, 2022.
16. Westheimer J., Kahne J. What Kind of Citizen? The Politics of Educating for Democracy // American Educational Research Journal. – 2004. – Vol. 41, No. 2. – P. 237–269.
17. Lewis C.C. Educating Hearts and Minds: Reflections on Japanese Preschool and Elementary Education. – Cambridge: Cambridge University Press, 1995.
18. Tsuneyoshi R., Sugita K., Kusanagi K.N., Takahashi F. (Eds.). Tokkatsu: The Japanese Educational Model of Holistic Education. – Singapore: World Scientific, 2019.
19. Kerr D. Citizenship Education: An International Comparison. – London: Qualifications and Curriculum Authority, 1999.

20. Bereday G.Z.F. Comparative Method in Education. – New York: Holt, Rinehart and Winston, 1964.
21. Ministry of Education, Culture, Sports, Science and Technology (MEXT). Course of Study for Elementary Schools: The Special Subject of Morality. – Tokyo: MEXT, 2017.
22. Ministry of Education Singapore. 2021 Character and Citizenship Education Syllabus: Primary. – Singapore: MOE, 2020.
23. National Council for the Social Studies. The College, Career, and Civic Life (C3) Framework for Social Studies State Standards. – Silver Spring: NCSS, 2013.
24. Qualifications and Curriculum Authority. Education for Citizenship and the Teaching of Democracy in Schools: Final Report of the Advisory Group on Citizenship. – London: QCA, 1998.
25. Department for Education. Character Education: Framework Guidance. – London: DfE, 2019.
26. Bronfenbrenner U. The Ecology of Human Development. – Cambridge: Harvard University Press, 1979.
27. CASEL. CASEL’s SEL Framework: What Are the Core Competence Areas and Where Are They Promoted? – Chicago: CASEL, 2020.
28. Sadler M. How Far Can We Learn Anything of Practical Value from the Study of Foreign Systems of Education? // Comparative Education Review. – 1964. – Vol. 7, No. 3. – P. 307–314.

UMUMTA’LIM MAKTABLARIDA MUSIQA DARSLARINING TARBIYAVIY AHAMIYATI

Nosirxo‘jaev Muxriddin
Nizomiy nomidagi O‘zbekiston milliy pedagogika universiteti 2-bosqich magistri
https://doi.org/10.5281/zenodo.23177716

Annotatsiya. *Maqolada musiqa o‘qituvchisi va o‘quvchilarning estetik tarbiyasi, musiqa madaniyatining inson tarbiyasiga ijobiy ta’siri hamda o‘uvchilarni musiqiy estetik tarbiyaga o‘rgatishga qaratilganligi ko‘rib chiqiladi.*
Kalit so‘zlar: *musiqa, kuy, estetika, tarbiya, mahorat, san'at, musiqa, madaniyat, nafislik, badiiy did.*

Musiqa madaniyati o‘quv predmeti umumiy ta’lim maktablarida o‘qitiladigan barcha o‘quv predmetlari jumladan adabiyot, tasviriy san’at, jismoniy tarbiya, mehnat va boshqa fanlar bilan bog‘langan.Barcha o‘quv fanlari qatori musiqiy ta’limda ham davlat ta’lim standartining joriy etilishi milliy musiqiy meroslardan to‘la qonli foydalanish imkonini beradi. Bular ommaviy xalq kuy va qo‘shiqlarida, xonanda va sozandalarning ijodiy faoliyatlari, maqom, shashmaqom, dostonlar hamda bugungi zamonaviy musiqiy faoliyatda o‘z aksini topadi. Musiqa san’atining bu kabi imkoniyatlari yangi avlodni tariyalashda ulrni barkamol bo‘lib yetishishlarida o‘ziga xos va takrorlanmas manbaa bo‘lib xizmat qiladi.

Musiqa ta’limidan davlat ta’lim standartlari asosida yangi ta’lim mazmuni o‘quvchilarning musiqiy bilim va malakalari bilan birga ularda kuzatuvchanlik, xotirani mustahkamlash, obrazli va musiqiy did kabi hislarni rivojlantirishni taminlaydi.

O‘quvsilarning musiqiy estetik rivojlanishlari uchun o‘qituvchi o‘zining ish faoliyatida sidqidil tayyorlanib, darslarni yuksak metodik darajada o‘tilishini ta’minlashi lozim. Zero, dars o‘qituvchidan katta irodaviy kuch, izlanish, hozirjavoblik, hamda turli pedagogik vaziyatlarga tezda munosabat bildirishini talab etadi. Samarasiz, omadsiz dars, kamchiliklar uzoq vaqt o‘qituvchiga orom, halovat bermaydi, ortga nazar solib uni sabablarini qidirishga ehtiyoj sezadi.

Musiqa madaniyati darslari musiqiy faoliyatning turli shakllarini o‘z ichiga oladi. Bular ommaviy jamoaviy aytim, musiqiy ritmik harakatlarni bajarish, musiqa tinglash. Savodxonlik musiqa ijodkorligi bolalar cholg‘u ansambllarida chalish faoliyatidir.

Dars musiqa tarbiyasi sistemasida yetakchi omil hisoblanadi, zeroki, unda bolalar yalpi tarzda qamrab olinadi. Musiqa darslari boshqa fan darslaridan o‘zining badiiyligi, qiziqarliligi va bolalardan ko‘proq ijodiy zavq, emotsional tuyg‘ular va obrazli kechinmalar uyg‘otish bilan ajralib turadi. Musiqa darslari eng avvalo tarbiya darsidir. Badiiy tarbiya uning mantiqiy mazmunidir.

Musiqa darslari quyidagi spesifik xususiyatlari bilan farq qiladi:

Birinchidan, u musiqa tarixi, nazariyasi va ijrochiligiga doir namunalardan xor mashg‘ulotlari, musiqa savodi, musiqa tinglash, musiqa tahlili va adabiyoti, bolalar cholg‘u asbobida chalish ritmik harakatlar bajarish elementlridan iboratdir. Shuning uchun u aralash dars tipiga kiradi.

Ikkinchidan, musiqa boshqa san’at turlaridan o‘zining ifoda vositalari, “tili” bilan farq qiladi. Agar badiiy adabiyot, badiiy so‘z, tasviriy san’at ranglar va grafik chiziqlar raqs, badiiy harakatlar bilan ifodalansa, musiqiy tovushlarda vujudga kelgan ohang vositasida ifodalanadi. Hatto ko‘zi ojiz kishilar ham yetuk musiqa ijrochilarining yetishib chiqishiga sabab, tasviriy san’at va haykaltaroshlik asarlari ko‘rish orqali, badiiy adabiyotni o‘qish va eshitish vositasida, kino va teatrni ko‘rish va eshitish orqali idrok etsak, musiqani faqatgina diqqat bilan tinglabgina idrok eta olamiz. “Faqat musiqiy quloqgina musiqaviy hissiyotni uyg‘ota oladi”.

Musiqa vositasida ifoda qilinadigan hiy-tuyg‘ularini so‘z bilan ifodalash qiyin. “Qachonki, so‘z ojizlik qilsa musiqa yordamga keladi”.

Uchinchidan, musiqa bolalarga faol emotsional ta’sir ko‘rsatadi, quvontiradi, ijobiy kechinmalar uyg‘otadi. Yaxshi, mazmunli, qiziqarli musiqa darsida bolalar quvnoq, xursand bo‘lib hordiq chiqaradilar.

Musiqa to‘lqinlantiradi bolalarni ruhiyatiga ta’sir ko‘rsatib muayyan kayfiyat uyg‘otadi. Shakllangan badiiy taassurotlar o‘qituvchi ta’sirida nafaqat ifodali ijro, balki “so‘z” san’ati, yuz ifodasi, turli harakatlar yordamida yanada kuchaytiradi. O‘quvchilar diqqati yangrayotgan musiqaga jalb etilib, ularning xayoloti rivojlantiriladi. Musiqiy obrazlar olamiga kirishishlari ifodalilikni aniy his etishlariga erishiladi.

Darsda barchasi o‘ylangan bo‘lishi kerak – maqsad va vazifalari, mazmun va tuzilma, vosita hamda metodlar. Aks holda hech qanday ijobiy natijalarga erishib bo‘lmaydi. Darsga tayyorgarik o‘qituvchining pedagogik malakasi, mahoratig bog‘liq bu esa musiqa materialining tarbiyaviy, ta’limiy va rivojlantiruvchi imkoniyatlarini, shuningdek ularni tadbiq etish yo‘llarini ta’minlaydi. Asarlarni tanlab olish esa o‘quvchilar musiqiy tayyorgarligini hamda yosh xususiyatlarini hisobga olgan holda amalga oshirishi maqsadga muvofiq sanaladi.

Dars tuzilmasini tuzishda bolalar jismoniy, aqliy va emotsional holtlarini, sinfning o‘ziga xosligini inobatga olish maqsadga muvofiq bo‘lib hisoblanadi. Masalan, boshlang‘ich sinflarda kichik yoshdagi o‘quvchilar diqqatini uzoq vaqt barqaror saqlay olimaydi. Shu bois ularning faoliyatini o‘z vaqtida almashtirib turish maqsadga muvofiq. Bu bolalarning qiziqishlarini so‘nishidan saqlaydi. Murakkab qo‘shiqni raqsni bir necha dars davomida o‘rgatish samarali kechadi.

Dars oldindan rejalashtirilsa o‘ylab qo‘yilgan reja asosida bo‘lmog‘i, o‘qituvchi va o‘quvchilarning hamkorlik faoliyati doimiy jonli jarayon asosida amalga oshirilishi lozim. Biroq, ayrim kutilmagan holatlar bo‘lishi mumkin. Va muayyan har bir holatga maslahat berib bo‘lmaydi. Ba’zan ko‘zda tutilmagan

holatlar yo‘l-yo‘lakay dars tuzilishida ham amalga oshirishga to‘g‘ri kelib qoladi. O‘qituvchining kasb mahorati. O‘zini yo‘qotmasdan har bir holatga tegishla xulosa chiqarishini taqozo etadi. Natijada dars maqsadiga erishilib, belgilangan tuzilmada amalga oshiriladi. Tajribali o‘qituvchilar yaxlit dars tuzilmasiga alohida ahamaiyat berishdi. Zamonaviy musiqa madaniyati darslarining sifati o‘quvchilarning faolligi bilan belgilnadi. Faollik muammosi nafaqat darsning qiziqarli tuzilmasi, bolalarga qiziqishni shakllantiruvchi metodlarni qo‘llash hal etiladi. Ko‘pincha o‘qituvchining har bir o‘quvchiga yakka ndividual yondashuviga ham bog‘liq bo‘ladi. Shubhasiz, bu o‘qituvchi oldidagi muhim vazifalaridan biridir. O‘qituvchi bolalar bilan hammasi bo‘lib bir amrotaba uchrashadi, musiqa mdniyai darsi sinf bilan keng ko‘lamli ishlarni amalga oshirishni talb etadi. Shu bois, o‘qituvchi o‘z o‘quvchilarini yaxshi bilmog‘i, ularning kuchli va zaif tomonlarini , qiziqish va ehtiyojlarini to‘g‘ri anglab , bolalar dunyosiga kirishib har bir o‘quvchi imkoniyatlarini baholashi kerak. Darsda bevosita muloqot o‘rnatishiga harakat qilish savollarga undovchi, so‘rovli nigoh, yuz ifodasiga bayon etish vosita va usullaridan keng foydalanish maqsadga muvofiq.

Xulosa qilib shunu ayrish mumkinki, umumta’lim maktabida musiqa madaniyati o‘qituvchisi ijodining natijasi bo‘lgan dars g‘oyaviy emotsional ta’sir kuchiga ega bo‘lib, o‘quvchi ichki dunyosini zabt etib, musiqa san’atiga qiziqish va ehtiyojini tarbiyalaydi. Musiqa madaniyati darslarining muvofaqiyatli

savodxon, chuqur bilimli, o‘z kasbiga fidoiy bo‘lgan o‘qituvchi shaxsiga bog‘liq. Shu bois, musiqadan bilim va malakalari yetarli bo‘lmagan o‘qituvchilarga musiqa darslarini mutaxassis mualliflardan zaruriy saboqlar olib, magnit yozuvlaridan keng foydalanib, musiqa o‘qitish jarayonida yangi pedagogik texnologiya usullaridan unumli foydalangan holda dars o‘tishlari maslahat beriladi. Aks holda o‘quvchilarning belgilangan dastur talablarini o‘zlashtirishlari mushkullashib, musiqa madaniyati darslri oldiga qo‘yiladigan talablarga erishilmay qoladi.

Adabiyotlar ro‘yxati:

1. Dilnavoz o‘ktamovna muratova musiqa madaniyati darslarini tashkil etishda o‘qituvchining pedagogik mahorati // scientific progress. 2021. №5.
2. Yarashev jurabek turaevich nravstvennoe i esteticheskoe vospitanie uchaщixsya v sotrudnichestve s semey i shkoloy // academy. 2021. №3 (66). url: https://cyberleninka.ru/article/n/nravstvennoe-i-esteticheskoe-vospitanie-uchaschihsya-v-sotrudnichestve-s-semiey-i-shkoloy (data obraщeniya: 30.03.2022).

OILA, MAHALLA VA TA’LIM MUASSASALARI HAMKORLIGIDA MILLIY TARBIYA TIZIMINI TASHKIL ETISHNING INSTITUTSIONAL MODELI

Nurmonova Nargis Gaffor qizi
mustaqil tadqiqotchi
https://doi.org/10.5281/zenodo.23177767

Annotatsiya: *Maqolada oila, mahalla va ta’lim muassasalari hamkorligida milliy tarbiya tizimini tashkil etishning institutsional modellari tahlil qilinadi. 1993-yildan amal qilib kelayotgan hamkorlik kontseptsiyasi zamonaviy boshqaruv talablari nuqtai nazaridan ko‘rib chiqiladi va uni institutsional jihatdan takomillashtirish yo‘li - muvofiqlashtiruvchi kengash modeli hamda monitoring mexanizmi - konkret tarzda taklif etiladi.*
Kalit so‘zlar: *milliy tarbiya, oila-mahalla-ta’lim muassasasi hamkorligi, institutsional model, boshqaruv mexanizmi, ijtimoiy pedagogika.*
Аннотация: *В статье анализируются институциональные модели организации системы национального воспитания в сотрудничестве семьи, махалли и образовательных организаций. Концепция сотрудничества, действующая с 1993 года, рассматривается с точки зрения современных требований управления, предлагается конкретная модель координационного совета и механизм мониторинга.*
Ключевые слова: *национальное воспитание, сотрудничество семьи, махалли и образовательной организации, институциональная модель, механизм управления.*
Annotation: *The article analyzes institutional models for organizing the national upbringing system through cooperation between the family, mahalla, and educational organizations. The cooperation concept in effect since 1993 is examined from the standpoint of modern governance requirements, and a concrete coordination council model with a monitoring mechanism is proposed.*
Key words: *national upbringing, family-mahalla-educational organization cooperation, institutional model, governance mechanism.*

KIRISH

Mustaqillik yillarida O‘zbekistonda yosh avlodni milliy va umuminsoniy qadriyatlar ruhida tarbiyalash davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biriga aylandi. Bu boradagi institutsional asos sifatida 1993-yilda ishlab chiqilgan “Oila, mahalla va ta’lim muassasasi hamkorligi” kontseptsiyasi xizmat qilib kelmoqda, u yoshlarni istiqlol g‘oyalariga sadoqatli, vatanparvar va ma’naviy barkamol etib tarbiyalashda jamoatchilik faoliyatini muvofiqlashtirishga qaratilgan edi. Ushbu kontseptsiya qabul qilinganidan beri o‘ttiz yildan ortiq vaqt o‘tdi, shu davrda mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy tuzilishi, ta’lim tizimi va boshqaruv uslublari tubdan o‘zgardi.

Hamkorlikning umumiy g‘oyasi bugun ham dolzarbligini yo‘qotgani yo‘q, biroq uni amalga oshirish mexanizmi ko‘p hollarda o‘sha davrdagi - asosan majlis va tashviqot tadbirlariga asoslangan - shaklda qolib ketmoqda. Zamonaviy davlat boshqaruvi esa aniq javobgarlik taqsimoti, o‘lchanadigan natija va muntazam hisobotni talab qiladi. Shu bois oila, mahalla va ta’lim muassasasi hamkorligini

institutsional jihatdan qayta loyihalash - uni alohida tashkiliy shakl va boshqaruv mexanizmiga ega tizimga aylantirish - bugungi kunning dolzarb pedagogik-boshqaruv vazifasidir.

Mavzuga oid mavjud tadqiqotlarda, xususan so‘nggi yillarda chop etilgan ilmiy maqolalarda, asosan kontseptsiyaning tarixi va umumiy ahamiyati tasvirlanadi, biroq uni institutsional jihatdan - kim, qanday tartibda, qaysi hujjat asosida ishlashi kerakligi nuqtai nazaridan - konkretlashtirish masalasi deyarli yoritilmagan [4]. Aynan shu bo‘shliq mazkur maqolaning tadqiqot maydonini belgilaydi.

Shundan kelib chiqib, maqolaning maqsadi - oila, mahalla va ta’lim muassasalari hamkorligida milliy tarbiya tizimini tashkil etishning mavjud institutsional asoslarini tahlil qilish va ularni zamonaviy boshqaruv talablariga moslashtirilgan konkret model - muvofiqlashtiruvchi kengash va monitoring mexanizmi - shaklida taqdim etishdan iborat.

Boshqaruv nazariyasida institutsional model deganda, odatda, muayyan ijtimoiy maqsadga xizmat qiluvchi barqaror tashkiliy tuzilma, uning tarkibiy qismlari o‘rtasidagi vakolat taqsimoti va faoliyatni tartibga soluvchi qoidalar majmui tushuniladi. Milliy tarbiya sohasida bunday modelning yo‘qligi hamkorlikni institutsional emas, balki tasodifiy-tashabbuskorlik xarakterida qoldiradi - bu esa nafaqat oila-mahalla-ta’lim muassasasi hamkorligiga, balki milliy tarbiya tizimini boshqarishning umumiy samaradorligiga ham ta’sir ko‘rsatadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot ikki bosqichda olib borildi. Birinchi bosqichda milliy tarbiya sohasidagi me’yoriy-huquqiy hujjatlar - “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonun va milliy tarbiyaga oid davlat dasturlari - hamda “Oila, mahalla va ta’lim muassasasi hamkorligi” kontseptsiyasini tavsiflovchi pedagogik adabiyotlar tahlil qilindi, ulardan hamkorlikning maqsadi, tamoyillari va an’anaviy shakllari ajratib olindi. Ikkinchi bosqichda ajratib olingan tamoyillar zamonaviy boshqaruv yondashuvlari bilan solishtirildi, shu asosda mahalliy sharoitga moslashtirilgan konkret tashkiliy tuzilma va uning ish tartibi ishlab chiqildi.

Tadqiqotning nazariy asosini ikki yondashuv tashkil etadi. Tizimli yondashuv nuqtai nazaridan oila, mahalla va ta’lim muassasasi alohida-alohida emas, balki bir-biriga bog‘liq, umumiy natijaga ta’sir ko‘rsatuvchi elementlar sifatida ko‘rib chiqiladi - bitta elementning zaifligi (masalan, hisobotning yo‘qligi) butun tizimning samaradorligini pasaytiradi. Institutsional tahlil yondashuvi esa hamkorlikni shunchaki g‘oya emas, balki aniq tashkiliy shaklga, qoidalarga va javobgarlik taqsimotiga ega mexanizm sifatida o‘rganishni talab qiladi - ya’ni kim, qaysi hujjat asosida, qanday muddatda va qanday natija uchun javobgar ekanini aniqlashni nazarda tutadi. Ushbu ikki yondashuvning birgalikda qo‘llanilishi maqolaning nazariy tahlildan amaliy modelga o‘tishini metodologik jihatdan asoslaydi.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Ijtimoiy pedagogika nuqtai nazaridan oila, mahalla va ta’lim muassasasi jamiyatning bola tarbiyasiga bevosita ta’sir ko‘rsatuvchi uchta asosiy ijtimoiy instituti hisoblanadi, ularning muvofiqlashtirilgan faoliyatigina yaxlit tarbiyaviy muhitni ta’minlaydi [1]. O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonunida ta’lim tizimining vazifalari orasida barkamol shaxsni shakllantirish alohida ko‘rsatilgan bo‘lib, bu vazifani faqat ta’lim tashkiloti emas, balki oila va jamoatchilik bilan hamkorlikda amalga oshirish nazarda tutiladi [2]. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 11-maydagi PF-134-son Farmoni bilan tasdiqlangan Maktab ta’limini rivojlantirish milliy dasturida ham o‘quvchilarni milliy va umuminsoniy qadriyatlarga sodiqlik ruhida tarbiyalash alohida vazifa sifatida belgilangan [3]. Bu hujjatlar birgalikda milliy tarbiyani oila-mahalla-ta’lim muassasasi hamkorligisiz to‘liq amalga oshirib bo‘lmasligini qonunchilik darajasida tasdiqlaydi.

1993-yilda ishlab chiqilgan “Oila, mahalla va ta’lim muassasasi hamkorligi” kontseptsiyasi besh tamoyilga - hamkorlik ishtirokchilari harakatining birligi, tarbiyalanuvchiga hurmat va talabning uyg‘unligi, tomonlarning teng huquqliligi, millat va davlat manfaatlarining ustuvorligi hamda hamkorlikning ilmiy asoslanganligiga - tayanadi [4]. Ushbu tamoyillar bugungi kunda ham nazariy jihatdan to‘g‘ri, biroq ular amaliyotda aniq tashkiliy shaklga - kim, qachon, qanday vositalar bilan javobgar ekanini belgilaydigan mexanizmga - ega emasligi tadqiqot davomida aniqlandi.

Amaliyotda oila-mahalla-ta’lim muassasasi hamkorligi asosan ota-onalar majlisi, mahalla yig‘ini va davra suhbatlari darajasida qoladi, bu tadbirlarning natijasi hujjatlashtirilmaydi va keyingi davr faoliyatiga asos bo‘lmaydi [4]. Shu bilan birga, har bir tomonning - oila, mahalla faoli va ta’lim muassasasi vakilining - aniq vazifasi va javobgarlik doirasi belgilangan yagona tashkiliy hujjat deyarli uchramaydi. Natijada hamkorlik ko‘pincha shaxsiy tashabbusga bog‘liq bo‘lib qoladi, tizimli emas.

Yuqoridagi bo‘shliqni bartaraf etish uchun har bir ta’lim tashkilotida (maktabgacha yoki umumta’lim) “Oila-mahalla-ta’lim muassasasi muvofiqlashtiruvchi kengashi” tashkil etilishi taklif etiladi. Kengash tarkibiga ta’lim muassasasi rahbari yoki uning tarbiyaviy ishlar bo‘yicha o‘rinbosari, mahalla fuqarolar yig‘ini raisi yoki uning vakili, faol ota-onalar vakili (ota-onalar kengashi raisi) hamda zarur hollarda psixolog yoki ijtimoiy pedagog kiritiladi. Kengash choraklik yig‘ilish o‘tkazadi, unda oldingi davr faoliyati yozma bayonnoma asosida muhokama qilinadi, joriy davr uchun aniq vazifalar (masalan, muayyan oilalar bilan individual ishlash yoki mahalla tadbirlariga jalb etish rejasi) belgilanadi va ijro muddatlari qo‘yiladi.

Byurokratik tuzilmalarning keraksiz ko‘payishidan saqlanish uchun bu kengashni butunlay yangi, alohida tuzilma sifatida emas, balki har bir ta’lim

tashkilotida allaqachon faoliyat yuritayotgan Ma’naviyat va ma’rifat kengashi negizida tashkil etish maqsadga muvofiq. Bunda mavjud kengash tarkibi mahalla va ota-onalar vakillari bilan to‘ldiriladi, uning yillik ish rejasiga oila-mahalla-ta’lim muassasasi hamkorligiga oid alohida band kiritiladi. Bu yondashuv institutsional o‘zgarishni yangi shtat birligi yoki qo‘shimcha byurokratik zveno yaratmasdan, mavjud boshqaruv infratuzilmasi doirasida amalga oshirish imkonini beradi.



1-rasm. Oila-mahalla-ta’lim muassasasi muvofiqlashtiruvchi kengashining tarkibi va ish jarayoni (muallif ishlanmasi)

Kengash tarkibidagi har bir a’zoning vazifasi doimiy va vaqtinchalik vazifalar ko‘rinishida alohida belgilanishi maqsadga muvofiq. Ta’lim muassasasi rahbari yoki uning o‘rinbosari doimiy vazifa sifatida choraklik yig‘ilishlarni rejalashtiradi va bayonnomalarni rasmiylashtiradi; mahalla fuqarolar yig‘ini vakili ijtimoiy yordamga muhtoj oilalarni aniqlash va ular bilan ishlashni muvofiqlashtiradi; ota-onalar kengashi raisi oilalar o‘rtasida aloqani ta’minlaydi va ularning takliflarini kengashga yetkazadi; psixolog yoki ijtimoiy pedagog esa vaqtinchalik vazifa sifatida murakkab holatlarda - masalan, oilaviy nizolar yoki bolaning xulq-atvoridagi og‘ishlarda - muammoni barvaqt aniqlaydi va individual korreksiya o‘tkazadi. Vazifalarning shu tarzda taqsimlanishi mas’uliyatning hammaga tegishli, ammo hech kimga aniq emas holatidan chiqishga yordam beradi.

Har qanday yangi tashkiliy mexanizm kabi, taklif etilayotgan kengash ham muayyan xatarlarsiz emas. Birinchi xatar - kengash faoliyatining haqiqiy muhokamadan ko‘ra qog‘ozbozlikka aylanib qolishi, ya’ni bayonnoma va hisobotlarni shunchaki to‘ldirish shakliy jarayonga aylanishi mumkin. Ikkinchi xatar - ta’lim muassasasi rahbari yoki mahalla vakili uchun kengash majburiyati mavjud ishning ustiga qo‘shimcha yuklama sifatida qabul qilinishi, natijada unga rasmiy, sovuq munosabatda bo‘linishi mumkin. Uchinchi xatar - kengash qarorlarining ijro mexanizmi yo‘qligi sababli faqat tavsiya xarakterida qolib, amalda hech kimni bog‘lamasligidir. Ushbu xatarlarni kamaytirish uchun kengash yig‘ilishlarini

mavjud majlislar soniga qo‘shimcha qilib emas, balki ota-onalar majlisi bilan bir vaqtda, qisqa (30-40 daqiqalik) format asosida o‘tkazish, hisobotni bir varaqlik oddiy jadval darajasida saqlash va choraklik yig‘ilishda oldingi qarorning bajarilishini majburiy kun tartibi bandi qilib kiritish tavsiya etiladi.

Modelni joriy etishda hududiy farqni ham hisobga olish zarur. Shahar sharoitida, odatda, bir nechta ta’lim muassasasi bitta mahalla hududida joylashgan bo‘ladi, bu holda kengash tarkibiga barcha tegishli muassasalar vakillarini birlashtirgan hududiy muvofiqlashtiruvchi guruh tashkil etish maqsadga muvofiq. Qishloq tumanlarida esa, aksincha, bitta ta’lim muassasasi bir necha mahalla aholisiga xizmat qilishi mumkin, bunday holatda kengash tarkibiga har bir mahalladan bittadan vakil kiritilishi hamkorlikning kengroq hududiy qamrovini ta’minlaydi.

Monitoringni murakkablashtirmasdan yuritish uchun maxsus dasturiy ta’minotga ehtiyoj yo‘q - kengash faoliyati oddiy, umumiy foydalanishdagi elektron jadval (masalan, Google Sheets) ko‘rinishida yuritilishi mumkin, unda har bir band (sana, ko‘rilgan masala, mas’ul shaxs, bajarilish muddati, natija) to‘ldirib borilishi kifoya. Kengash a’zolari bunday jadvalni o‘z mobil telefonidan foydalanib real vaqtda to‘ldirishlari mumkin, bu esa qo‘shimcha xarajat yoki maxsus texnik tayyorgarlikni talab qilmaydi. Shu tarzda yuritilgan jadval yil oxirida ta’lim tashkiloti hisobotiga ilova qilinadi va navbatdagi yil rejasini tuzishda asos bo‘lib xizmat qiladi.

Kengash faoliyatining samaradorligini kuzatib borish uchun ikki oddiy ko‘rsatkichdan foydalanish mumkin: yig‘ilishlar davomiyligi (yiliga kamida to‘rt marta o‘tkazilganligi) va qabul qilingan qarorlarning bajarilish foizi. Bu ikki ko‘rsatkichni ta’lim tashkilotining yillik hisobotiga kiritish, hamkorlikni tashviqot tadbiridan boshqariladigan jarayonga aylantirishga xizmat qiladi [5].

Taklif etilayotgan model joriy etilgan taqdirda, bir necha aniq o‘zgarish kutiladi. Birinchidan, hamkorlik faoliyatining hujjatlashtirilganlik darajasi oshadi, bu esa ta’lim tashkiloti rahbariyati va yuqori tashkilotlarga real vaziyatni ko‘rish imkonini beradi. Ikkinchidan, oilalar bilan individual ishlash tasodifiy emas, balki kengash tomonidan belgilangan ustuvorliklar asosida amalga oshiriladi, bu cheklangan resurslarni eng muhtoj oilalarga yo‘naltirish imkonini beradi. Uchinchidan, mahalla va ta’lim muassasasi o‘rtasidagi axborot almashinuvi tezlashadi, natijada muammoli holatlarga reaksiya vaqti qisqaradi.

Tadqiqotning ba’zi cheklovlarini ham qayd etish lozim. Taklif etilgan model hozircha nazariy jihatdan asoslangan bo‘lib, uning amaliy samaradorligi haqidagi xulosalar kelgusida o‘tkaziladigan pilot sinovlar natijalariga tayangandagina to‘liq tasdiqlanishi mumkin. Shuningdek, modelni turli hududlarda joriy etishda mahalliy ijtimoiy-madaniy sharoitlar - aholi zichligi, mahalla faollarining tayyorgarlik darajasi va shu kabilar - alohida hisobga olinishi zarur.

Agar taklif etilgan model bir nechta hududda muvaffaqiyatli sinovdan o‘tkazilsa, uning asosida respublika miqyosidagi yagona monitoring ko‘rsatkichlari tizimini shakllantirish mumkin bo‘ladi. Bunday holda tegishli vazirlik yoki hududiy ta’lim boshqarmalari barcha ta’lim tashkilotlaridan choraklik kengash faoliyati bo‘yicha yagona shaklda qisqa hisobot talab qilishi mumkin, bu esa milliy tarbiya sohasidagi oila-mahalla-ta’lim muassasasi hamkorligini butun respublika bo‘yicha solishtirish va tahlil qilish imkonini beradi.

Kengash faoliyatini rag‘batlantirish uchun mavjud davlat siyosati vositalaridan foydalanish mumkin. Xususan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 11-maydagi PQ-241-son qarori maktab direktori, ota-onalar va mahalla raislarining ma’naviy-ma’rifiy ishlardagi mas’uliyatini kuchaytirish maqsadida respublika bo‘yicha namunali maktablar reytingini yuritishni nazarda tutadi [6]. Taklif etilgan kengashning ikki ko‘rsatkichi - yig‘ilishlar davomiyligi va qarorlar bajarilish foizi - aynan shu reytingga qo‘shimcha mezon sifatida kiritilishi mumkin, bu kengash faoliyatini shunchaki tavsiya emas, balki amaldagi rag‘batlantirish tizimining bir qismiga aylantiradi.

Mavzu xalqaro pedagogika fanida ham keng o‘rganilgan. AQShlik tadqiqotchi J. Epstein tomonidan ishlab chiqilgan “overlapping spheres of influence” (ta’sir doiralarining kesishuvi) nazariyasiga ko‘ra, oila, maktab va jamoat bolaning rivojlanishiga alohida-alohida emas, balki bir-biriga kesishuvchi uchta ta’sir doirasi sifatida ta’sir ko‘rsatadi, va bu doiralarning kesishish darajasi qanchalik yuqori bo‘lsa, bolaning ta’lim natijalari shunchalik yaxshi bo‘ladi [7]. Ushbu nazariya, mohiyatan, O‘zbekistonning 1993-yilgi kontseptsiyasidagi g‘oya bilan mos keladi, biroq undan farqli o‘laroq, G‘arb amaliyotida bu kesishuvni ta’minlovchi aniq maktab darajasidagi tashkiliy vositalar (parent-teacher association, school council) ancha oldin institutsionallashtirilgan. Rossiyada 2025-yilda chop etilgan tadqiqot ham xuddi shunday xulosaga keladi: ota-onalarning maktab hayotiga jalb etilishini cheklovchi asosiy omil ularning istagi emas, balki institutsional va tashkiliy to‘siqlar - ya’ni aniq formatning yo‘qligi - ekanligini ko‘rsatadi [8]. UNESCOning ta’lim sohasidagi jamoatchilik hamkorligiga bag‘ishlangan tahliliy hisobotida ham bunday hamkorlikning barqarorligi, avvalambor, uning qanchalik aniq tashkiliy shaklga - jadval, protokol, javobgarlik taqsimotiga - ega ekanligiga bog‘liqligi alohida ta’kidlanadi [9]. Demak, xalqaro tajriba maqolada taklif etilayotgan yondashuvni - g‘oyani emas, aynan uning institutsional shaklini takomillashtirish zarurligini - tasdiqlaydi.

O‘tkazilgan tahlil shuni ko‘rsatadiki, oila, mahalla va ta’lim muassasasi hamkorligining g‘oyaviy asosi mustahkam, biroq uning institutsional shakli zamon talablariga moslashtirishga muhtoj. Har bir ta’lim tashkilotida muvofiqlashtiruvchi kengash tashkil etish, uning tarkibi, yig‘ilish tartibi va ikki oddiy monitoring

ko‘rsatkichini joriy etish orqali milliy tarbiya sohasidagi hamkorlikni tasodifiy tashabbusdan tizimli boshqariladigan jarayonga aylantirish mumkin.

Taklif etilgan modelning afzalligi shundaki, u uch tomon - ta’lim tashkiloti, oila va mahalla - uchun ham aniq foyda beradi: ta’lim tashkiloti o‘z hisobotini mazmunli dalillar bilan boyitadi, oilalar o‘z muammolarini ko‘tarish uchun doimiy va tan olingan platformaga ega bo‘ladi, mahalla esa o‘z hududidagi yosh avlod tarbiyasida real, hujjatlashtirilgan ishtirokchiga aylanadi.

Modelni joriy etishni uch bosqichda amalga oshirish maqsadga muvofiq. Birinchi, tayyorgarlik bosqichida (1-3 oy) bitta tuman yoki shahar tumanidagi bir nechta ta’lim tashkiloti tanlanadi, kengash tarkibi shakllantiriladi va a’zolar uchun qisqa yo‘riqnoma tayyorlanadi. Ikkinchi, sinov bosqichida (4-9 oy) tanlangan tashkilotlarda kengash choraklik tartibda ishlaydi, monitoring jadvali yuritiladi va uch oyda bir marta oraliq natijalar tahlil qilinadi. Uchinchi, kengaytirish bosqichida sinov davridagi xatolar tuzatilgandan so‘ng, model hududning boshqa ta’lim tashkilotlariga bosqichma-bosqich tatbiq etiladi. Bunday ketma-ketlik modelni joriy etish jarayonidagi mahalliy xatolarni erta aniqlash va tuzatish imkonini beradi.

Kelgusida taklif etilgan modelni turli hududlarda sinovdan o‘tkazish va uning natijalarini miqdoriy tahlil qilish alohida tadqiqot mavzusi bo‘lishi mumkin, bu esa milliy tarbiya tizimini boshqarishning institutsional asoslarini yanada mustahkamlashga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Muxamadaliyeva M.X., Zarifova Z.M., Artikbayeva A.A. Oila va ijtimoiy pedagogika: o‘quv qo‘llanma. - Toshkent: Nizomiy nomidagi TDPU, 2022. - to‘liq matn: arm.ssuv.uz/frontend/web/books/66a36bdf5d3de.pdf
2. O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni. 2020-yil 23-sentabr, O‘RQ-637-son // lex.uz/docs/5013007
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “2022-2026-yillarda maktab ta’limini rivojlantirish bo‘yicha milliy dasturni tasdiqlash to‘g‘risida”gi Farmoni. 2022-yil 11-may, PF-134-son // lex.uz/docs/-6008663
4. Tojikarimova M.A., Valiyeva N. Tarbiya jarayonida oila, mahalla hamda ta’lim muassasalarining o‘zaro hamkorligi // Qo‘qon universiteti xabarnomasi. - 2023. - 1-jild, 1-son. - B. 637-639. DOI: 10.54613/ku.v1i1.665
5. Mavlonova R., Normurodova B., Rahmonqulova N. Tarbiyaviy ishlar metodikasi: o‘quv qo‘llanma. - Toshkent: “Tib-kitob” nashriyoti, 2010. - 216 b.
6. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Maktabgacha va maktab ta’limini rivojlantirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Qarori. 2022-yil 11-may, PQ-241-son // lex.uz/docs/-6008665
7. Epstein J.L. School, Family, and Community Partnerships: Preparing Educators and Improving Schools. 2nd ed. - Philadelphia, PA: Westview Press, 2011.
8. Kremen F.M., Kremen S.A. Vzaimodeystvie semyi i shkoly: potrebnosti, otsenka i ozhidaniya roditeley // Vestnik Samarskogo gosudarstvennogo tekhnicheskogo universiteta. Seriya: Psikhologo-pedagogicheskie nauki. - 2025. - T. 22, № 1. - S. 117-134. DOI: 10.17673/vsgtu-pps.2025.1.9
9. Bray M. Community Partnerships in Education: Dimensions, Variations and Implications. Education for All 2000 Assessment. - Paris: UNESCO, 2000.

SO‘ZLOVCHI GLYUTONIMLARNING VERBAL VA SEMIOTIK REALIZATSIYASI: YEVROPA VA O‘ZBEK MATERIALLARI QIYOSIDA

Nusratova Aziza Cho‘liboyevna
Kimyo xalqaro universiteti o‘qituvchisi
https://doi.org/10.5281/zenodo.23177792

Annotatsiya. *Tezisda Yevropa bolalar adabiyoti va o‘zbek xalq ertaklarida oziq-ovqat nomlarining badiiy faollashuvi qiyosiy-funksional yondashuv asosida o‘rganiladi. So‘zlovchi glyutonimlarning verbal, kvaziverbal va semiotik ko‘rinishlari “The Pancake”, “Alice’s Adventures in Wonderland”, “Tulki bilan bo‘ri”, “Qarg‘a bilan kunjut”, “Oltin tarvuz”, “Teshik danak” hamda sehrli olma motivlari misolida tahlil qilinadi. Natijalar Yevropa materialida mualliflik transformatsiyasi, ludik va individual tajriba semantikasi, o‘zbek xalq ertaklarida esa aksiologik, reciprok va sehrli-transformativ ma’nolar faol ekanini ko‘rsatadi. Tadqiqotda “so‘zlovchi glyutonim” tushunchasini faqat bevosita gapiruvchi oziq obrazi bilan cheklamasdan, nutqsiz holda ma’no uzatuvchi semiotik shakllarni ham qamrab oluvchi funksional kategoriya sifatida talqin qilish taklif etiladi.*

Kalit so‘zlar: *glyutonim, so‘zlovchi glyutonim, verbal obraz, kvaziverbal birlik, semiotik belgi, personifikatsiya, transformatsiya, xalq ertagi, bolalar adabiyoti.*

KIRISH

Bolalar adabiyotida oziq-ovqat nomlari faqat kundalik turmushga oid nominativ birlik sifatida emas, balki syujet, obraz va madaniy ma’no hosil qiluvchi badiiy vosita sifatida namoyon bo‘ladi. Oziq nomi personajga aylanishi, qahramonni muayyan harakatga undashi, sehrli o‘zgarishni yuzaga keltirishi yoki nutqsiz holda axloqiy va ramziy axborot yetkazishi mumkin. Shu sabab glyutonimni faqat leksik-semantik guruh sifatida emas, balki badiiy matnda qo‘shimcha ma’no ishlab chiqaruvchi dinamik birlik sifatida tahlil qilish maqsadga muvofiq. Glyuttonik diskurs tadqiqotlarida oziq-ovqat madaniy va semiotik hodisa sifatida ko‘riladi; bolalar adabiyoti bo‘yicha izlanishlarda esa oziq obrazlari identitet, vasvasa, xavf, mehr, ochlik, tanlov va transformatsiya kabi mazmunlarni tashishi qayd etiladi [1; 2].

Mazkur mavzuning dolzarbligi shundaki, bolalar adabiyotidagi oziq obrazlari ko‘pincha “taom”, “meva”, “ichimlik” kabi predmet nomlari darajasida qayd etiladi, biroq ularning gapirishi, qahramonga murojaat qilishi yoki voqea oqimini ramziy tarzda boshqarishi alohida funksional tizim sifatida kamroq izohlanadi. Ayniqsa, Yevropa mualliflik adabiyoti bilan o‘zbek xalq ertaklarini qiyoslash oziq obrazlarining universal va milliy-madaniy xususiyatlarini ajratish imkonini beradi. Tezisning maqsadi so‘zlovchi glyutonimlarning verbal, kvaziverbal va semiotik realizatsiyalarini aniqlash, ularning syujet va aksiologik funksiyalarini qiyoslash hamda turli madaniy muhitlarda badiiy dominantlarning qanday farqlanishini ko‘rsatishdan iborat.

MATERIALLAR VA METODLAR

Tadqiqot materiali sifatida Yevropa va o‘zbek bolalar mutolaasi doirasiga kiruvchi bir qator folklor va mualliflik matnlari tanlandi. Yevropa qismida Norveg xalq ertagi “The Pancake” hamda Lewis Carrollning “Alice’s Adventures in Wonderland” asaridagi “DRINK ME” va “EAT ME” birliklari asosiy misol sifatida olindi [3; 4]. O‘zbek materiali “Tulki bilan bo‘ri”, “Qarg‘a bilan kunjut”, “Oltin tarvuz”, “Teshik danak” ertaklari hamda sehrli olma motivlariga oid kuzatishlardan tashkil topdi [5; 6].

Tahlilda qiyosiy-tipologik, funksional-semantik va lingvopoetik metodlardan foydalanildi. Birinchi bosqichda oziq nomining oddiy nominativ birlikdan badiiy faol birlikka o‘tishi aniqlandi. Ikkinchi bosqichda obrazning nutqiy faolligi, yozuv yoki belgilar orqali murojaat qilishi, syujetni harakatga keltirishi va axloqiy baho hosil qilishi kuzatildi. Uchinchi bosqichda Yevropa va o‘zbek materiallaridagi umumiy hamda farqli xususiyatlar qiyoslandi. Tadqiqotimizda “so‘zlovchi glyutonim” uch asosiy ko‘rinishda tavsiflanadi: verbal shaklda oziqning o‘zi personifikatsiyalanib gapiradi; kvaziverbal shaklda oziq ovoz chiqarmaydi, biroq yozuv yoki belgi orqali qahramonga murojaat qiladi; semiotik shaklda esa oziq nutqqa kirmasdan, o‘z holati, iste’mol oqibati yoki syujetdagi vazifasi orqali ma’no yetkazadi.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Verbal personifikatsiyaning yorqin Yevropa namunalaridan biri Norveg xalq ertagi “The Pancake”dir. Unda pishirilgan quymoq tovadan qochib, yo‘lida uchragan personajlar bilan muloqot qiladi, o‘zini quvganlarni formulaik nutq orqali sanab o‘tadi va voqealarning markaziy qahramoniga aylanadi [3]. Oziqning fizik xususiyati — dumaloq shakli — uning dumalab qochishiga tabiiy motivatsiya beradi. Natijada taomning material belgilari badiiy harakatga ko‘chadi. Bu hodisa personifikatsiyaning oddiy “jonlantirish”dan ko‘ra murakkabroq ekanini ko‘rsatadi: glyutonim nom, tana, harakat va nutqni birlashtirgan personajga aylanadi.

O‘zbek “Tulki bilan bo‘ri” ertagidagi ko‘mach ham shunga yaqin modelni namoyon etadi. Ko‘mach oddiy yegulik maqomidan chiqib, qochuvchi, gapiruvchi va o‘z tarkibini tavsiflovchi obraz sifatida ishtirok etadi. Bu o‘rinda ko‘machning tayyor oziq ekanligi muhim: u yeyilish xavfini anglaydigan va shu xavfdan qochishga urinadigan subyektga aylanadi. “The Pancake” va ko‘mach o‘rtasidagi o‘xshashlik pishirilgan taomning jonlantirilishi, qochish motivi va formulaik syujet qurilishi bilan belgilanadi. Biroq ular bir xil badiiy natija bermaydi: Yevropa ertagida yumor va dinamik quvish yetakchi bo‘lsa, o‘zbek ertagida oziqning o‘zini tavsiflash xususiyati uning avtodeskriptiv personifikatsiyasini kuchaytiradi.

“Qarg‘a bilan kunjut” ertagida verbal glyutonimning boshqa ko‘rinishi uchraydi. Kunjut qarg‘aga avval tumshug‘ini yuvish shartini qo‘yadi. Shu talab natijasida daryo, kulol, tuproq, kiyik, sigir, o‘t va boshqa bo‘g‘inlardan iborat

kumulyativ syujet yuzaga keladi. Demak, kunjutning birgina nutqiy akti butun voqea zanjirini ishga tushiradi. Bunda glyutonim ikki funksiyani birlashtiradi: bir tomondan, oziq personifikatsiya qilinadi, ikkinchi tomondan, tozalik va ovqatlanish bilan bog‘liq xalqona me’yor badiiy shaklda ifodalanadi. Shu ma’noda kunjutni normativ-syujetogen verbal glyutonim sifatida tavsiflash mumkin.

Kvaziverbal model Lewis Carrollning “Alice’s Adventures in Wonderland” asarida ayniqsa ravshan. “DRINK ME” yozuvli ichimlik va “EAT ME” yozuvli pirog mustaqil ovozga ega emas, ammo imperativ yozuv orqali qahramonga bevosita murojaat qiladi [4]. Bu yozuv oddiy yorliq emas: u Alice’ning qaroriga ta’sir qiladi va tananing o‘lchami o‘zgarishiga sabab bo‘ladi. Demak, bu holatda “so‘zlash” grammatik nutqdan ko‘ra kengroq kommunikativ funksiyada namoyon bo‘ladi. Oziq birligi qahramonga murojaat qiladi, uni harakatga undaydi va transformatsiya mexanizmini ishga tushiradi. Shu bois mazkur modelni kvaziverbal glyutonim deb atash maqsadga muvofiq.

O‘zbek xalq ertaklarida semiotik glyutonimlar ko‘pincha aksiologik va sehrli ma’nolar bilan yuklanadi. “Oltin tarvuz”da tarvuz gapirmaydi, biroq uning ichidan chiqadigan natija qahramonning axloqiy maqomini ochib beradi: beg‘araz yaxshilik qilgan dehqon mukofot oladi, manfaat izlab shu xatti-harakatni takrorlagan boy esa jazoga duch keladi. Bu yerda oziq “gapirmaydi”, lekin syujet natijasi orqali baho beradi. Shuning uchun tarvuzni semiotik-aksiologik va reciprok-magik glyutonim sifatida talqin qilish mumkin.

“Teshik danak” ertagidagi turshak va uning teshilib qolgan danagi esa boshqa semiotik funksiyani bajaradi. U kampirning uzoq davom etgan ochligi va xo‘rligining moddiy daliliga aylanadi. Mazkur obrazning kuchi shundaki, u hech qanday nutqsiz yashirin haqiqatni fosh etadi. Demak, bu yerda glyutonim indeksial-daliliy belgi sifatida ishlaydi. Verbal modelda ma’no bevosita aytilsa, bunday semiotik modelda ma’no predmetning o‘zi va uning syujetdagi izidan o‘qiladi.

Sehrli olma motivlari o‘zbek ertaklarida glyutonimning transformativ imkoniyatlarini yanada kengaytiradi. Z.J. Rasulova tahlil qilgan sehrli ertaklarda olma tiriltirish, yoshartirish, qiyofa almashtirish, farzand paydo qilish yoki yashirin makonni ochish kabi vazifalarda uchraydi [5]. Bir xil mevaning turli matnlarda boshqa-boshqa natija berishi glyutonim semantikasi lug‘aviy ma’nodan emas, kontekst va syujet funksiyasidan kelib chiqishini ko‘rsatadi. Yevropa materialidagi transformatsiya ko‘proq individual tana va identitet tajribasi bilan bog‘liq bo‘lsa, o‘zbek folklorida hayot-o‘lim, shifo, nasl, mukofot-jazo singari kollektiv-mifologik qatlamlar kuchliroq namoyon bo‘ladi.

1-jadval. So‘zlovchi glyutonimlarning qiyosiy funksional modeli

Model	Yevropa materiali	O‘zbek materiali	Yetakchi funksiya
Verbal	The Pancake	Ko‘mach; kunjut	Personifikatsiya, nutq, syujetogenlik

Kvaziverbal	Eat Me / Drink Me	Korpusda aniq parallel kam	Murojaat, harakatga undash
Semiotik-aksiologik	Vasvasaviy / transformativ oziq modellar	Oltin tarvuz; teshik danak	Baholash, dalil, mukofot-jazo
Sehrli-transformativ	Alice’dagi oziq transformatsiyasi	Sehrli olma motivlari	Holat va qiyofani o‘zgartirish

Jadvaldagi natijalar shuni ko‘rsatadiki, Yevropa va o‘zbek materiallarida verbal personifikatsiya, transformatsiya va aksiologik semantika umumiy tipologik qatlamni tashkil etadi. Farq ushbu funksiyalarning badiiy dominantida ko‘rinadi. Yevropa mualliflik adabiyotida oziq nomi ko‘proq individual tajriba, tana, til o‘yini va fantastik konstruksiya bilan bog‘lanadi. O‘zbek xalq ertaklarida esa glyutonim rizq, saxovat, tozalik, reciprok yordam, shifo, nasl va axloqiy oqibat singari kollektiv madaniy kodlarni faollashtiradi. Shu bois birinchi modelda mualliflik konstruksiyasi va individual tajriba, ikkinchisida esa tarixiy-madaniy semantikaning qayta faollashuvi yetakchi deb qaralishi mumkin.

Mazkur qiyos “so‘zlovchi glyutonim” tushunchasini kengroq talqin qilish zarurligini ko‘rsatadi. Agar bu hodisa faqat bevosita nutqqa ega oziq personajlari bilan cheklansa, “Oltin tarvuz”, “Teshik danak”, sehrli olma yoki “Eat Me / Drink Me” singari matn markazida turgan, biroq mustaqil ovozga ega bo‘lmagan birliklar tahlildan tashqarida qoladi. Shuning uchun so‘zlovchilikni verbal va semiotik darajalarning birligi sifatida tushunish bolalar adabiyotidagi oziq obrazlarining poetik tabiatini to‘liqroq ochadi. Verbal modelda “oziq nima deydi?” degan savol muhim bo‘lsa, semiotik modelda “oziqning holati yoki oqibati nima haqida xabar beradi?” degan savol yetakchi bo‘ladi.

Qiyosiy kuzatishlar yana bir muhim holatni ko‘rsatadi: bir xil denotativ asosga ega oziq birligi turli matnlarda boshqa-boshqa poetik vazifani bajarishi mumkin. Masalan, meva obrazi bir matnda mukofot va saxovat belgisi, boshqa matnda transformatsiya vositasi, yana bir holatda esa qahramonning axloqiy holatini fosh etuvchi semiotik belgiga aylanadi. Bu esa glyutonimning badiiy funksiyasini faqat lug‘aviy ma’no orqali aniqlab bo‘lmasligini tasdiqlaydi. Uning poetik maqomi syujetdagi o‘rni, qahramonlar bilan munosabati, natijaviy oqibat va madaniy kontekst orqali shakllanadi.

Yevropa va o‘zbek materiallari o‘rtasidagi farqni mutlaq qarama-qarshilik sifatida emas, badiiy dominantlar farqi sifatida baholash maqsadga muvofiq. Har ikki an’anada oziq personifikatsiya, transformatsiya va axloqiy baholash imkoniyatiga ega. Biroq Yevropa mualliflik matnida individual tajriba, til o‘yini va fantastik eksperiment kuchliroq ko‘rinsa, o‘zbek folklor materialida jamoaviy axloqiy tajriba, rizq, saxovat, o‘zaro yordam va sehrli mukofot-jazo modeli faolroq namoyon bo‘ladi. Shu jihatdan so‘zlovchi glyutonimlar bolaga murakkab g‘oyalarni

predmetli va esda qoladigan obraz orqali yetkazadigan lingvopoetik vosita vazifasini bajaradi.

Tadqiqotning ilmiy-amaliy ahamiyati shundaki, taklif qilinayotgan verbal–kvaziverbal–semiotik model bolalar adabiyotidagi oziq obrazlarini bir xil mezon asosida tavsiflashga yordam beradi. Mazkur yondashuv xalq ertaklari, mualliflik ertaklari va fantastik asarlarda glyutonimlarning faqat nomlanishini emas, ularning kommunikativ faolligi va syujetdagi natijasini ham hisobga oladi. Natijada oziq-ovqat leksikasi badiiy matnda qanday qilib personaj, signal, baho va transformatsiya vositasiga aylanishi izchil ko‘rinadi.

XULOSA

Qiyosiy-funksional tahlil Yevropa bolalar adabiyoti va o‘zbek xalq ertaklarida glyutonimlar oddiy iste’mol mahsuloti nomidan murakkab badiiy belgiga ko‘tarilishini ko‘rsatdi. Ular personaj, syujet mexanizmi, axloqiy mezon va sehrli vosita sifatida faoliyat ko‘rsatadi. “The Pancake” va ko‘mach verbal personifikatsiyaning tipologik yaqin modelini namoyon etsa, kunjut syujetni harakatga keltiruvchi normativ nutq egasi sifatida ajralib turadi. “Eat Me / Drink Me” birliklari kvaziverbal murojaat orqali transformatsiyani yuzaga keltiradi; “Oltin tarvuz” va “Teshik danak” esa nutqsiz holda axloqiy baho va daliliy ma’no hosil qiladi.

Natijalar shuni ko‘rsatadiki, Yevropa materialida verbal, kvaziverbal va transformativ modellar ko‘proq mualliflik fantaziyasi, tana va individual tajriba bilan bog‘lansa, o‘zbek xalq ertaklarida verbal va semiotik glyutonimlar milliy-madaniy qadriyatlar, reciprok munosabatlar va arxaik sehrli tasavvurlar bilan chuqur aloqador. Shu sabab “so‘zlovchi glyutonim”ni faqat gapiruvchi oziq obrazi emas, balki badiiy matnda verbal yoki semiotik yo‘l bilan axborot uzatuvchi funksional birlik sifatida talqin qilish bolalar adabiyotidagi oziq obrazlarini yanada izchil o‘rganish imkonini beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Odilova G.K. Glyuttonik diskurs asoslari. – Toshkent: Mumtoz so‘z, 2020.
2. Keeling K.K., Pollard S.T. (eds.). Critical Approaches to Food in Children’s Literature. – New York: Routledge, 2009.
3. Asbjørnsen P.C., Moe J.E. The Pancake (Pannekaken) // Norske Folkeeventyr.
4. Carroll L. Alice’s Adventures in Wonderland. – London: Macmillan, 1865.
5. Rasulova Z.J. O‘zbek xalq sehrli ertaklarida tilsim badiiyati // Science Time. – 2026. – Vol. 4, №3/2. – B. 157–163.
6. O‘zbek xalq ertaklari: “Tulki bilan bo‘ri”, “Qarg‘a bilan kunjut”, “Oltin tarvuz”, “Teshik danak” // Ziyouz elektron kutubxonasi. Murojaat sanasi: 19.09.2026.

OILAVIY BARQARORLIKNI TA’MINLASHDA SEVGI TUYG‘USI VA MILLIY QADRIYATLARNING O‘ZARO UYG‘UNLIGI

Olimjonova Ziynat Bobomurod qizi
ISFT instituti katta o’qituvchisi, Oila va gender ilmiy tadqiqot instituti mustaqil izlanuvchisi
https://doi.org/10.5281/zenodo.23177829

Annotatsiya. *Mazkur maqolada oilaviy barqarorlikni ta’minlashda sevgi tuyg‘usi va milliy qadriyatlarning o‘zaro uyg‘unligi ijtimoiy-psixologik nuqtai nazardan tahlil qilingan. Er-xotin munosabatlarida sevgi, o‘zaro ishonch, hurmat, sadoqat, mas’uliyat, g‘amxo‘rlik va oilaviy hamjihatlik kabi qadriyatlarning psixologik mazmuni yoritilgan.*
Kalit so‘zlar: *oila, oilaviy barqarorlik, sevgi tuyg‘usi, milliy qadriyatlar, er-xotin munosabatlari, o‘zaro ishonch, sadoqat, hurmat, oilaviy munosabatlar, hissiy yaqinlik, oilaviy tarbiya.*
Аннотация. *В данной статье с социально-психологической точки зрения анализируется взаимосвязь чувства любви и национальных ценностей в обеспечении стабильности семьи. Раскрыто психологическое содержание таких ценностей в супружеских отношениях, как любовь, взаимное доверие, уважение, верность, ответственность, забота и семейная сплочённость.*
Ключевые слова: *семья, стабильность семьи, чувство любви, национальные ценности, супружеские отношения, взаимное доверие, верность, уважение, семейные отношения, эмоциональная близость, семейное воспитание.*
Abstract. *This article analyzes, from a socio-psychological perspective, the interrelationship between the feeling of love and national values in ensuring family stability. The psychological content of such values in marital relationships as love, mutual trust, respect, fidelity, responsibility, care, and family cohesion is examined.*
Keywords: *family, family stability, feeling of love, national values, marital relationships, mutual trust, fidelity, respect, family relationships, emotional intimacy, family upbringing.*

Oila jamiyatning muhim ijtimoiy instituti bo‘lish bilan birga, insonning hissiy, ma’naviy va ijtimoiy ehtiyojlari amalga oshadigan murakkab psixologik tizimdir. Uning barqarorligi faqat nikohning rasmiy davomiyligi bilan emas, balki er-xotin o‘rtasidagi hissiy yaqinlik, o‘zaro ishonch, hurmat, mas’uliyat, sadoqat, hamkorlik hamda oilaviy qadriyatlarning qanchalik uyg‘unlashgani bilan belgilanadi. Shu sababli zamonaviy oila psixologiyasida oilaviy barqarorlikni ta’minlovchi omillarni alohida emas, balki o‘zaro bog‘langan psixologik tizim sifatida tadqiq etish muhim ilmiy masalalardan hisoblanadi.

Globallashuv, axborot makonining kengayishi, ijtimoiy rollarning o‘zgarishi va individual qadriyatlarning kuchayishi zamonaviy oilaning mazmuni va funksiyalariga ham muayyan ta’sir ko‘rsatmoqda. Bunday sharoitda avloddan-avlodga o‘tib kelayotgan milliy oilaviy qadriyatlarning saqlanishi bilan shaxsning hissiy ehtiyojlari o‘rtasidagi muvozanat masalasi alohida ahamiyat kasb etadi. Zero, oilaviy munosabatlarning barqarorligi an’anaviy me’yorlarning mavjudligigagina emas, balki ularning er-xotin tomonidan anglanishi, qabul qilinishi va kundalik

munosabatlarda namoyon bo‘lishiga ham bog‘liq. Shu jihatdan, sevgi tuyg‘usi va milliy qadriyatlarning o‘zaro uyg‘unligini oilaviy barqarorlikning ikki alohida omili sifatida emas, balki bir-birini mazmunan boyituvchi psixologik komponentlar tizimi sifatida o‘rganish maqsadga muvofiqdir.

Psixologik nuqtai nazardan sevgi insonning boshqa shaxsga nisbatan hissiy yaqinligi bilangina cheklanmaydigan, kognitiv, emotsional va xulq-atvor komponentlarini birlashtiruvchi murakkab fenomen hisoblanadi. E.Fromm sevgi mohiyatini g‘amxo‘rlik, mas’uliyat, hurmat va boshqa shaxsni anglash bilan bog‘lagan. R.Sternberg esa sevgining psixologik tuzilishini yaqinlik, ehtiros va qaror-majburiyat komponentlarining o‘zaro munosabati orqali tushuntiradi. Mazkur nazariy qarashlar oilaviy hayotda sevgi tuyg‘usining faqat romantik kechinma shaklida namoyon bo‘lmasligini ko‘rsatadi. Nikoh davomiyligi ortishi bilan uning namoyon bo‘lish shakllari ham o‘zgarib, o‘zaro g‘amxo‘rlik, sadoqat, ishonch, mas’uliyat, sheriklik, hissiy qo‘llab-quvvatlash kabi nisbatan barqaror munosabat komponentlari bilan boyib borishi mumkin. Shuning uchun oilaviy munosabatlarda sevgi tuyg‘usining barqarorligini uning dastlabki emotsional intensivligi saqlanib qolishi bilangina baholash yetarli emas. Muhim jihat — sevgi tuyg‘usining oilaviy hayotning turli bosqichlarida yangi psixologik mazmun kasb etishi va er-xotin o‘rtasidagi barqaror munosabatlarga integratsiyalashuvidir.

Milliy oilaviy qadriyatlar muayyan jamiyatning tarixiy-madaniy taraqqiyoti davomida shakllangan va oilaviy munosabatlarni tartibga soluvchi ma’naviy, axloqiy hamda ijtimoiy-psixologik me’yorlar tizimini ifodalaydi. O‘zbek oilasi kontekstida o‘zaro hurmat, sadoqat, mas’uliyat, mehr-oqibat, kattalarga hurmat, farzand tarbiyasiga mas’uliyatli munosabat, qarindoshlik aloqalarini qadrlash va oilaviy hamjihatlik kabi qadriyatlar muhim o‘rin tutadi. Biroq milliy qadriyatlarning oilaviy barqarorlikka ta’sirini bir tomonlama talqin qilish maqsadga muvofiq emas. Qadriyatning psixologik ahamiyati uning shunchaki e’tirof etilishida emas, balki er-xotinning shaxsiy qadriyatlar tizimiga integratsiyalashuvi va o‘zaro munosabatlarda amaliy ifodasini topishida namoyon bo‘ladi. Masalan, o‘zaro hurmat qadriyat sifatida tan olinishi bilan birga, er-xotinning bir-birining fikri, ehtiyoji va shaxsiy chegaralarini hisobga olishi orqali real psixologik mazmun kasb etadi. Sadoqat esa faqat ijtimoiy me’yor emas, o‘zaro ishonch va psixologik xavfsizlikni ta’minlovchi munosabat sifatida namoyon bo‘ladi.

Oilaviy qadriyatlarning shakllanishi faqat nikohdan keyingi davrda boshlanadigan jarayon emas. Shaxsning oila, sevgi, sadoqat, er-xotinlik mas’uliyati, ota-onalik va o‘zaro hurmat haqidagi dastlabki tasavvurlari oiladagi tarbiya, ijtimoiy tajriba hamda ta’lim jarayonida shakllanadi. Shu sababli yosh avlodni oilaviy hayotga tayyorlashni milliy tarbiyaning muhim yo‘nalishlaridan biri sifatida ko‘rib chiqish mumkin.

Bunda milliy tarbiya yoshlarni mavjud oilaviy me’yorlarni mexanik tarzda takrorlashga emas, balki ularning insonparvarlik mazmunini anglashga yo‘naltirilishi muhimdir. O‘zaro hurmat, sadoqat, mehr-oqibat, mas’uliyat va kattalarga ehtirom kabi qadriyatlar shaxsning erkinligi, qadr-qimmati, o‘zaro ishonch va sog‘lom psixologik chegaralar bilan uyg‘unlashgandagina barqaror oilaviy munosabatlarning psixologik resursiga aylanishi mumkin.

Shu jihatdan oila, mahalla va ta’lim muassasalari hamkorligida amalga oshiriladigan tarbiyaviy faoliyatda yoshlarning nafaqat milliy oilaviy qadriyatlar haqidagi bilimlarini, balki konstruktiv muloqot, empatiya, o‘zaro hurmat, mas’uliyat, konfliktlarni konstruktiv hal qilish va oilaviy qarorlarni hamkorlikda qabul qilish kompetensiyalarini ham rivojlantirish maqsadga muvofiq.

Oilaviy barqarorlik murakkab va ko‘p omilli psixologik hodisa bo‘lib, uning ta’minlanishida sevgi tuyg‘usi va milliy oilaviy qadriyatlarning o‘zaro uyg‘unligi muhim ahamiyat kasb etadi. Sevgi er-xotin o‘rtasidagi hissiy yaqinlikni ta’minlovchi psixologik asoslardan biri bo‘lsa, milliy qadriyatlar ushbu munosabatlarning ma’naviy-axloqiy va ijtimoiy mazmunini belgilashga xizmat qiladi.

Milliy oilaviy qadriyatlarning barqarorlashtiruvchi funksiyasi ularning shunchaki an’anaviy me’yor sifatida mavjudligida emas, balki er-xotinning o‘zaro ishonchi, hurmati, sadoqati, g‘amxo‘rligi va mas’uliyatli munosabatida ichki psixologik qadriyat sifatida namoyon bo‘lishidadir. Shu bois sevgi va milliy qadriyatlarni qarama-qarshi yoki bir-biridan mustaqil fenomenlar sifatida emas, oilaviy munosabatlarning hissiy va qadriyatli-me’yoriy tomonlarini birlashtiruvchi o‘zaro bog‘liq komponentlar sifatida tadqiq etish maqsadga muvofiq.

Oila, mahalla va ta’lim muassasalari hamkorligidagi milliy tarbiya jarayonida yoshlarda sevgi, sadoqat, o‘zaro hurmat, ishonch va oilaviy mas’uliyatni uyg‘un holda shakllantirish kelgusida sog‘lom oilaviy munosabatlarni rivojlantirishning muhim psixologik shartlaridan biri bo‘lishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Karimova V. M. Oila psixologiyasi. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2008. ЧирПедУниверситет
2. Shoumarov G‘. B., Haydarov I. O., Sog‘inov N. A., Akramova F. A. Oila psixologiyasi: o‘quv qo‘llanma. – Toshkent: Sharq, 2011. – 296 b. ТДГТУ Библиотека
3. Андреева Т. В. Семейная психология: учеб. пособие. – СПб.: Речь, 2004.
4. Карабанова О. А. Психология семейных отношений и основы семейного консультирования. – М.: Гардарики, 2005.

ФИЗИКАДАН ЛАБОРАТОРИЯ ВА НАМОЙИШ ТАЖРИБАЛАРИНИ БАЖАРИШДА ЎҚУВЧИЛАРНИНГ МУСТАҚИЛ, МАНТИҚИЙ ВА ТАНҚИДИЙ ФИКРЛАШ КЎНИКМАЛАРИНИ ШАКЛЛАНТИРИШ

Б.А. Олимов
Қ.Ниёзий номидаги ТПМИ
https://doi.org/10.5281/zenodo.23177863

Мақолада умумтаълим мактабларида физика фанини ўқитиш жараёнида лаборатория ва намойиш тажрибаларидан самарали фойдаланиш орқали ўқувчиларнинг мустақил, мантиқий ва танқидий фикрлаш кўникмаларини шакллантириш масалалари ёритилган.

Калит сўзлар: *физика, лаборатория иши, намойиш тажрибаси, мустақил фикрлаш, мантиқий фикрлаш, танқидий фикрлаш, тажриба, илмий-тадқиқот кўникмаси, муаммоли таълим.*

В статье рассматриваются вопросы формирования у учащихся навыков самостоятельного, логического и критического мышления посредством эффективного использования лабораторных и демонстрационных экспериментов в процессе преподавания физики в средней школе.

Ключевые слова: *физика, лабораторная работа, демонстрационный эксперимент, самостоятельное мышление, логическое мышление, критическое мышление, эксперимент, научно-исследовательские навыки, проблемное обучение.*

The article discusses the issues of forming students' independent, logical and critical thinking skills through the effective use of laboratory and demonstration experiments in the process of teaching physics in secondary schools.

Keywords: *physics, laboratory work, demonstration experiment, independent thinking, logical thinking, critical thinking, experiment, scientific and research skills, problem-based education.*

Табиий фанлар туркумига кирган физика - табиат ҳодисаларини кузатиш, тажриба ўтказиш, ўлчаш, таҳлил қилиш ва математик моделлар асосида тушунтиришга таянадиган фан. Шу сабабли физикани самарали ўрганиш фақат формула ва қонунларни ёдлаш билан чекланиб қолмаслиги керак. Ўқувчи физик ҳодисани кузатиши, унга савол қўйиши, тахмин билдириши, тажриба ўтказиши ва олинган далиллар асосида хулоса чиқариши лозим.

Замонавий тадқиқотларда ҳам лаборатория машғулотларини тайёр алгоритмни бажаришга эмас, балки экспериментал кўникмалар, қарор қабул қилиш ва мулоқотга йўналтириш ўқувчиларнинг танқидий фикрлашини ривожлантириши кўрсатилган. Катта ҳажмдаги тадқиқотда экспериментал кўникмаларга йўналтирилган лаборатория таълими танқидий фикрлаш натижалари билан ижобий боғлиқ бўлган. Шу нуқтаи назардан умумтаълим мактабларида физикадан лаборатория ва намойиш тажрибаларини ташкил этишда асосий эътибор «тажрибани қандай бажариш?» саволидан ташқари «нега айнан шундай бажариш керак?», «натижа қандай бўлиши керак?»,

«олинган натижа назарияга мос келадими?» каби саволларга ҳам қаратилиши мақсадга мувофиқ.

Физика тажрибаларининг ўқувчи фикрлашини ривожлантиришдаги аҳамияти

Лаборатория ва намойиш тажрибалари ўқувчиларнинг назарий билимларини амалиёт билан боғлайди. Ўқувчилар лаборатория учун керакли лаборатория ва ўлчов асбобларини танлайди, лаборатория ишни бажаради, натижаларни жадвалга киритади, ҳисоб-китоб қилади ва хулоса чиқаради.

Бир лаборатория ишини бажаришда бир нечта фикрлашларни амалга оширади. Булар қуйидагилар: лаборатория ишини бажариш, олинган маълумотларни таққослаш, бошқа муалифларни ишлари билан таҳлил қилиш, олинган натижаларга баҳолаш ва хулоса чиқариш.

Лаборатория иши физик билимни «тайёр ҳолда қабул қилиш»дан «далил асосида билим ҳосил қилиш»га ўтиш имконини беради.

Лаборатория тажрибаларида мустақил фикрлашни шакллантириш

Мустақил фикрлаш ўқувчининг берилган вазифани ўқитувчининг доимий кўрсатмасисиз англаши, режалаштириши ва бажариши билан намоён бўлади.

Анъанавий лаборатория ишларида баъзан ўқувчига:

1. асбобларни қандай улаш;
2. қайси формуладан фойдаланиш;
3. нимани ўлчаш;
4. натижани қандай ҳисоблаш каби ҳаракатлар тўлиқ тайёр ҳолда берилади. Бундай ҳолатда ўқувчи тажрибани бажариши мумкин, аммо экспериментнинг мазмуни ҳақида мустақил қарор қабул қилиш имконияти чекланади.

Шунинг учун лаборатория топшириқларини қисман очиқ шаклда бериш самарали бўлиши мумкин.

Масалан, «Занжирнинг бир қисми учун Ом қонуни” тажрибада бажариш.

“Тажрибани бажаришда қандай физик тушунчалардан ва қандай ўлчов асбобларидан фойданилади**?»** деган савол берилади.

Ўқувчиларни ўзлари аниқлашлари керак бўлган маълумотлар:

- зарур физик катталикларни аниқлайди;
- тажриба учун керакли ўлчов асбобларини танлайди;
- лаборатория ишини бажариш кетма кетлигини аниқлаб олади;
- тажрибани ўтказиб керакли маълумотларни олади;
- физик қонуниятлар билан асослаган ҳолда ҳисоблайди;
- тажрибадан олинган маълумотлардан керакли хулоса чиқаради.

Шундай ёндашув ўқувчининг фаол иштирокини кучайтиради.

Физикада мантиқий фикрлаш айниқса сабаб ва натижани аниқлаш, физик катталиклар ўртасидаги боғланишларни топиш ва тажриба натижаларини умумлаштиришда намоён бўлади.

Масалан, электр занжирида ток кучининг кучланишга боғлиқлигини ўрганишда ўқувчига тайёр хулосани бериш ўрнига қуйидаги саволларни бериш мумкин:

- қайси катталик ўзгарувчи бўлади?
- қайси катталикни доимий сақлаш керак?
- ток кучининг кучланишга боғлиқлигини тўғрисида маълумот бериш мумкин?
- тажрибадан олинган маълумотларни графикда усулда қандай ифодалаш мумкин?
- графикдан фойдаланган ҳолда қандай хулоса чиқариш мумкин?

Бу саволлар ўқувчини маълумотларни кетма-кет таҳлил қилишга ва улар ўртасидаги мантиқий боғланишни аниқлашга олиб келади.

Танқидий фикрлаш тажриба натижаларини шунчаки қабул қилиш эмас, балки уларнинг ишончлилиги ва асосланганлигини текширишни назарда тутади.

Физика лабораториясида ўқувчиларга:

«тажрибадан олинган маълумот қийматлари назарий қийматдан нима учун фарқ қилди?» деган савол берилса, у:

- ўлчов асбобларининг систематик ва тасодифий хатолигини;
- ўлчаш давомидаги хатоликлар аниқлигини;
- ҳисоблашдаги хатоларни таққослаб таҳлил қилишга ҳаракат қилади.

Физика таълимида танқидий фикрлашни эксперимент контекстида баҳолашга қаратилган махсус воситалар ҳам ишлаб чиқилган. Уларда танқидий фикрлаш маълумот ва далиллардан фойдаланиб, нимани ишончли деб қабул қилиш ёки қандай қарор қабул қилишни белгилаш қобилияти билан боғланган.

Демак, «натижа тўғри чиқди» деган хулосадан кўра, «натижанинг тўғрилиги қандай далил билан асосланади?» деган савол муҳимроқдир.

Намойиш тажрибалари орқали фикрлашни фаоллаштириш

Намойиш тажрибаси ўқитувчи томонидан бажарилса ҳам, ўқувчи пассив кузатувчи бўлиб қолмаслиги керак.

Одатда намойиш тажрибасини қуйидаги уч босқичда ташкил этиш мумкин.

1. Тажрибадан олдин

Ўқитувчи ўқувчиларга тажрибани намойиш қилишдан аввал тажрибага тегишли бўлган муаммоли саволлар беради:

«Агар занжирдаги ток кучини ўзгартирилса кучланиш қандай ўзгаргаради?»

Ўқувчилар ўзларини фикрларини билдиришадилар ва натижаларни олдиндан айтиб ўтадилар.

2. Тажриба жараёнида

Ўқувчилар тажрибани кузатиб борадилар, ўз тахминларини тажриба олинган маълумотлар билан билан таққослайдилар.

Ўқитувчи:

«Кузатган натижангиз аввалги тахмингизга мос келдими**?»** деган савол орқали таҳлил жараёнини давом эттиради.

3. Тажрибадан кейин

Ўқувчилар:

а) қандай лаборатория ишини бажарганлигини;

б) қайси конун асосида шундай натижага эришганликлари ва олинган натижани тушунтиришини;

с) натижага қандай омиллар таъсир қилганини муҳокама қиладилар.

Шундай қилиб, намойиш тажрибаси оддий «кўрсатиш»дан муаммони таҳлил қилиш воситасига айланади.

Лаборатория ва намойиш тажрибаларни ўқувчилар томонидан бажарилгандан сўнг, ўқувчиларни баҳолаш ДТС асосида кабул қилинган мезонлар асосида олиб борилади**.**

Тадқиқотлар лабораторияда қарор қабул қилиш ва мулоқотга мўлжалланган фаолиятлар танқидий фикрлаш ривожига сезиларли ҳисса қўшиши мумкинлигини кўрсатади.

Умумтаълим мактабларида физикадан лаборатория ва намойиш тажрибаларни ташкил этиш ўқувчиларнинг нафақат амалий кўникмаларини, балки мустақил, мантиқий ва танқидий фикрлаш қобилиятларини ҳам ривожлантириш учун катта имкониятга эга.

Лаборатория ва намойиш тажрибаларни бажариш ўқувчиларга фақат физик қонунларни ўргатибгина қолмасдан, балки у ўқувчини савол беришга, далил излашга, ўз фикрини асослашга, натижани танқидий баҳолашга ва мустақил хулоса чиқаришга ўргатади. Бу эса физика таълимининг мазмунини ҳаётий ва тадқиқотга йўналтирилган таълим билан бойитади.

Адабиётлар:

1. Р.Г. Сафарова Когнитив педагогикага оид назарий ёндашувлар- Тошкент: Science and Innovation, 2023.
2. Г.М. Тажибоева Тарбия фанини ўқитиш жараёнида ўқувчиларда танқидий фикрлашни шакллантириш технологияси (бошланғич синфлар мисолида)**:** автореферат.- Тошкент, 2023.
3. Б.А Олимов Physics Laboratory and Demonstration Experiments Organization on the Basis of International Technology. Skopus. -.44. -2023. - N.6.
-S. 2732—2736.

FARZAND TA’LIM-TARBIYASI OILADAN BOSHLANADI

Orozboyev Janabay Jalğasboy o‘ğli
Bozatov tumani Maktabgaça va maktab ta’limi bo‘limiga qaraşli 14-sonli umumiy o‘rta ta’lim maktabining davlat va huquq asoslari hamda tarbiya fani o‘qituvçisi
https://doi.org/10.5281/zenodo.23177895

Tayanch so’zlar: *yoshlarning ta’lim-tarbiya olishi, komil inson bo’lib ma’naviyatli shaxs bo’lib voyaga yetishi, har tomonlama yetuk barkamol inson bo’lishi, ajdodlarimizning boy merosi va milliy qadriyatlariga asoslangan kuchli ma’naviyatni bunyod etish.*

Ключевые слова: воспитывать молодежь, вырастить совершенным человеком и духовной личностью, стать зрелой и совершенной личностью во всех отношениях, построить сильную духовность, основанную на богатом наследии и национальных ценностях наших предков.

Key words: *to educate young people, to grow up as a perfect human being and a spiritual person, to become a mature and perfect person in all respects, to build a strong spirituality based on the rich heritage and national values of our ancestors.*

Bizning xalqimiz qadimdan boy tarixga ega. Ajdodlarimiz asrlar davomida ta’lim-tarbiya masalalariga jiddiy yondashganlar, shu bois ular o‘z navbatida avlodlarga ta’lim-tarbiya masalalariga oid bir qancha asarlar qoldirganlar. Bunday noyob asarlar insonparvarlik, kamtarlik, mehnatsevarlik, do‘stlik, iymon-e’tiqod, mehr-oqibat, axloq-odob kabi umuminsoniy fazilatlarni shakllantirishning o‘ziga xos usullarini mujassam etgan. Jamiyatda har tomonlama yetuk, barkamol inson o‘z-o‘zidan paydo bo‘lmaydi, bunday komil insonlar ajdodlar qoldirgan umuminsoniy an’analar, milliy qadriyatlar asosida tarbiyalanadi.

Odamzot dunyoga kelar ekan, bu dunyoning oq-qorasidan bexabar bo‘ladi. Ulardan umri davomida ma’lumotlar olib boradi, sinalib shu tarzda rivojlanadi. Har qadamda turli chigalliklar, turli muammolar chiqib qolishi mumkin, bunday holatda ota-onalarning maslahatlari, ta’lim-tarbiya berib farzandini noto‘g‘ri yo‘lga kirishdan asraydi.

Farzandiga yoshligidan ta’lim-tarbiya berib yuksaltirib, ularni xato yo‘ldan saqlab turuvchi bu uning ota-onasidir. Shu bois ham tarbiya oiladan boshlanadi, farzandning yaxshi inson bo‘lib ulg‘ayishi ota-ona zimmasidagi ulkan mas’uliyatlardan biri. Hikmatlarda: "Bolalaringizni tarbiyalamang, o‘zingizni tarbiyalang. Ular baribir sizga o‘xshagan bo‘ladi" - deyilgan.[1].

Farzand uyning oynasi, u uyda olgan tarbiyasin jamiyatda namoyon qiladi. Shu sababli ham ota-ona o‘zini o‘zi tarbiyalagan bo‘lishi kerak. Qush uyasida ko‘rganini qiladi degandek, farzand ham ota-onasiga talpinadi, ulardan ko‘rganini takrorlaydi. Ota-ona farzandiga o‘zi o‘rnak bo‘la olsagina farzand tarbiyali, bilimli va ma’naviyatli bo‘lib o‘sadi.

Shunday ekan, hayotda ta’lim-tarbiyada ma’naviyat alohida ahamiyatga ega. Faqat ma’naviyatli insongina hayotda o‘z o‘rnini egallaydi, komil inson bo‘lib

shakllanadi, rivojlanadi. O‘zbekistonda mustaqillikning ilk yillaridan boshlab ma’naviyat masalalariga, uning yoshlarda shakllanishi va rivojlanishi muammosiga katta ahamiyat berib kelinmoqda. Ma’naviyatni yuksaltirish mamlakatimizda davlat siyosati darajasiga ko‘tarildi. Bu haqida O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning 2021-yil 19-yanvar kuni ma’naviy-ma’rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirish, bu borada davlat va jamoat tashkilotlarining hamkorligini kuchaytirish masalalari bo‘yicha o‘tkazilgan videoselektor yig‘ilishlarida quyidagi fikrlarni bildirdi: "Agar jamiyat hayotining tanasi iqtisodiyot bo‘lsa, uning joni va ruhi ma’naviyatdir. Biz yangi O‘zbekistonni barpo etishga qaror qilgan ekanmiz, ikkita mustahkam tayanchga suyanamiz. Birinchisi - bozor tamoyillariga asoslangan kuchli iqtisodiyot, ikkinchisi - ajdodlarimizning boy merosi va milliy qadriyatlariga asoslangan kuchli ma’naviyat."[2].

Mamlakatimizda barpo etilayotgan fuqarolik jamiyati ma’naviy barkamol, ma’naviy yetuk shaxslar jamiyati bo‘lishi ham mavzuning dolzarbligini ko‘rsatuvchi omillardan biridir.Mavzuning dolzarbligini belgilaydigan yana bir muhim jihat shundaki, bizning jamiyatimizga yot bo‘lgan kuchlar: terrorchilar, diniy aqidaparastlar, transmilliy, kiberjinoyatchilik va boshqa buzg‘unchi g‘oyalarni tashuvchilar asosiy e’tiborni o‘smirlar va yoshlarni o‘z tomonlariga og‘dirishga harakat qilmoqdalar. Chunki ma’naviyatga tahdid mamlakatni inqirozga olib kelishi mumkinligini ular juda yaxshi tushunadi. Yoshlarni yuksak axloq va intizomli etib tarbiyalash, ularning sifatli ta’lim olishi va vatanparvarlik ruhida kamol topishi mamlakat iqtisodiy va siyosiy taraqqiyotining kalitidir. Bu esa ijtimoiy barqarorlik va muvaffaqiyat asosidir. Bu esa ijtimoiy barqarorlik va muvaffaqiyat asosidir. Bugungi kunda yoshlar tarbiyasi muammolari deyarli barcha davlatlar uchun umumiy masaladir. Sayyoramizning ertangi kuni, farovonligi farzandlarimiz qanday inson bo‘lib kamol topishi bilan bog‘liq.

Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyevning ma’naviyat va ma’naviy tarbiya masalalariga bag‘ishlangan asarlarida bu muammolar shaxs psixologiyasi bilan bog‘lab tushuntiriladi. Bunday yondashuv psixolog olimlar va tadqiqotchilar uchun metodologik tayanch vazifasini o‘taydi. O‘smirlar ma’naviyatini yuksaltirish masalalarining O‘zbekistonda davlat siyosati darajasiga ko‘tarilishi ushbu yo‘nalishda ijtimoiy-gumanitar fanlarda olib borilayotgan tadqiqotlarning kengayishiga kuchli ta’sir ko‘rsatdi. Bu sohada, ayniqsa, yurtimiz faylasuflari, siyosatshunoslari, pedagog-olimlari tomonidan ko‘zga ko‘rinarli ishlar amalga oshirildi. Hozirgi vaqtda mamlakatimiz psixologlari tomonidan ushbu yo‘nalishda olib borilgan tadqiqotlarni yetarli, deb bo‘lmaydi. O‘zbekistonda ma’naviyat va uning qadriyatlari bilan bog‘liqligi, tarbiyada muhim omil ekanligi davlat siyosati darajasiga ko‘tarilishi, bu masalalarga davlat tomonidan, ayniqsa, Prezidentimiz tomonidan katta e’tibor berilishi ushbu muammolarni har tomonlama va samarali tadqiq etish uchun sharoit yaratdi.

Madaniyati kuchli xalq barcha sohaga tik ko‘z bilan qaray oladi. Chunki, insoniyatning ko‘p ming yillik tajribasi shundan dalolat beradiki, dunyodagi zo‘ravonlik va tajovuzkor kuchlar qaysi bir xalq yoki davlatni o‘ziga bo‘ysundirmoqchi, uning boyliklarini egallamoqchi bo‘lsa, avvalo, uni qurolsizlantirishga, ya’ni eng ulug‘ boyligi bo‘lgan milliy qadriyatlari, tarixi va ma’naviyatidan judo qilishga harakat qiladi. [3]. Buning tasdig‘ini uzoq va yaqin tarixdagi o‘tmish bilan yaqqol ko‘rishimiz mumkin. Shu bois, ma’naviyatga qarshi qaratilgan har qanday tahdid o‘z-o‘zidan mamlakat xavfsizligini, uning milliy manfaatlarini, sog‘lom avlod kelajagini ta’minlash yo‘lidagi ulkan xavflardan biriga aylanishi va pirovardida jamiyatni inqirozga olib kelishi mumkin: bu dunyoda tabiatda ham, jamiyatda ham bo‘shliq bo‘lmaydi. Qayerda bo‘shliq paydo bo‘lsa, hech shubhasiz, uni albatta kimdir to‘ldirishga harakat qiladi.[4].

Ma’naviyat - insonni ruhiy jihatdan poklanishga, qalban ulg‘ayishga da’vat etadigan, insonning ichki dunyosini, irodasini mustahkamlaydigan, iymon-e’tiqodini butun qiladigan, vijdonini uyg‘otadigan beqiyos kuch, uning barcha qarashlarining mezoni, desak, o‘ylaymanki, tariximiz va bugungi hayotimizda har tomonlama o‘z tasdig‘ini topayotgan haqiqatni yaqqol ko‘rsatgan bo‘lamiz. Mening fikrimcha, "ma’naviyat" tushunchasi jamiyat hayotidagi g‘oyaviy, mafkuraviy, ma’rifiy, madaniy, diniy va axloqiy qarashlarni o‘zida to‘la mujassam etadi. Shuning uchun ham bu mavzuda fikr yuritganda, bu qarashlarning barchasini umumlashtirib, keng ma’nodagi "ma’naviyat" tushunchasi orqali ifodalash mumkin. Ma’naviyatning asosi va mazmunini belgilaydigan sifatlar, birinchi navbatda, insonning ruhiy poklanishi va ma’naviy kamoloti haqida gapirib, bir masalaga alohida e’tibor berishimiz kerak.[5].

Albatta, har qaysi xalq yoki millatning ma’naviyatini uning tarixi, o‘ziga xos urf-odat va an’analari, hayotiy qadriyatlaridan ayri holda tasavvur etib bo‘lmaydi. Bu borada tabiiy, ma’naviy meros, madaniy boyliklar, qadimiy tarixiy yodgorliklar eng muhim omillardan biri bo‘lib xizmat qiladi. Bizning qadimiy va go‘zal diyorimiz nafaqat Sharq, balki jahon sivilizatsiyasi beshiklaridan biri bo‘lganini xalqaro hamjamiyat e’tirof etmoqda. Bu tabarruk zamindan qanchadan-qancha buyuk olim va ulamolar, siyosatchi va sarkardalar yetishib chiqqani, umumbashariy sivilizatsiya va madaniyatning ajralmas qismiga aylangan dunyoviy va diniy ilmlar, ayniqsa, islom diniga oid bilimlarning tarixiy yuksak bosqichga ko‘tarilishida ona zaminimizda tug‘ilib kamolga yetgan ulug‘ allomalarning xizmatlari beqiyos ekani bizga cheksiz g‘urur va iftixor bag‘ishlaydi. Hozirgi davrda yurtimiz jadal rivojlanayotgan davrda yoshlarimiz G‘arb davlatlari ma’naviyatiga taqlid qilmoqda. Bu juda achinarli holat. Chunki bizning o‘zligimiz, an’analarimiz, qadriyatlarimizdan G‘arb davlatlarining ma’naviyati ustuvorlik qilmoqda.

Hozirgi kunda ma’naviyatimizni asrash uchun nima qilish kerak va unga tahdid soladigan xatti-harakatlarga nimani qarshi qo‘yish kerak, deb so‘rasa, men avvalo

shu yurtda yashayotgan har bir inson o‘zligini anglashi, qadimiy tariximiz va boy madaniyatimiz, buyuk ajdodlarimiz merosini chuqurroq o‘zlashtirishi, bugungi shiddat bilan o‘zgarayotgan hayot haqiqatiga ongli qarab, erkin fikrlashi va yurtimizdagi barcha o‘zgarishlarga daxldorlik tuyg‘usi bilan yashashi zarur, deb javob bergan bo‘lardim. Ishonchim komil, ana shunday bebaho insoniy fazilatlarga, yuksak ma’naviyatga ega bo‘lgan xalq hech qachon, hech kimga qaram bo‘lmaydi, o‘zining ezgu maqsadlariga albatta yetadi.

Yakunlab aytganda, uzoq va yaqin tariximiz shuni ko‘rsatadiki, xalqimiz doimo ma’naviy jasorat tuyg‘usi bilan yashagan va bu ulug‘ tuyg‘u uning hayotida yillar, asrlar o‘tgan sayin tobora kuchayib, yuksalib bormoqda. Chunki xalqning ma’naviyati shunday buyuk dengizki, har bir avlod undan kuch-qudrat, g‘ayrat-shijoat va ilhom olib, o‘zining qanchalik ulkan ishlarga qodir ekanini namoyon etadi.

Adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvarldagi “2022- 2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-60-son Farmoni. https://lex.uz/uz/docs/-5841063
2.Sh.M.Mirziyoevtiń 2021-jıl 19-yanvar kúni ruwxıy-aǵartıwshılıq jumıslar sistemasın túp-tiykarınan jetilistiriw, bul baǵdarda mámleketlik hám jámiyetlik shólkemlerdiń birge islesiwin kúsheytiw máseleleri boyınsha ótkerilgen videoselektor májili.
3. Sh.M.Mirziyoevtiń Ona yurtimiz baxt-u iqboli va buyuk kelajagi yo’lida xizmat qilish eng oliy baxt-saodatdir. Toshkent – “ O’zbekiston” – 2015
4.I.Karimov. Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch. 2018
5. Tarbiya-chi kitobi G’iyosiddin Yunus 48-bet
6. Primbetov K. Talaba-Jaslardı Globallasıw Prossesinde Mànàwiy Tárbiyalawdıń Innovacion Mexanizimleri. Miasto Przyszłości. 2024/11/26.Том 54. Ст.1257-1260
6.www. Ziyonet.uz

INSON USHUN AXBOROT ENG TA’SIRSHAN VOSITADIR, SHUNKI UNING ONGI BOR.

Orozboyev Janabay Jalğasboy o‘ğli
Bozatov tumani Maktabgaça va maktab ta’limi bo‘limiga qarasli 14-sonli umumiy o‘rta ta’lim maktabining davlat va huquq asoslari hamda tarbiya fani o‘qituvçisi
https://doi.org/10.5281/zenodo.23177915

Annotaciya: Insoniyatning global muammolari, globallashuvning real jarayonlari va shakllarini aniqlashda, birinchi navbatda, yoshlar parametri turadi. Aynan yoshlar iqtisodiy va ijtimoiy jihatdan aziyat chekadi va voqealar markaziga borib qolishlari mumkin. Avvalo, yoshlar yangilanib borayotgan dunyoviy axloqni puxta egallab, unga asoslanib yashashni organishlari kerak.

Аннотация: *При определении глобальных проблем человечества, реальных процессов и форм глобализации, в первую очередь, стоит параметр молодежи. Именно молодые люди страдают экономически и социально и могут оказаться в центре событий. Прежде всего, молодежь должна овладеть обновляющейся светской этикой и научиться жить на ее основе.*

Annotation: *In identifying the global problems of humanity, the real processes and forms of globalization, the youth parameter stands first. It is young people who suffer economically and socially and may end up in the center of events. First of all, young people must master the renewing secular ethics and learn to live on its basis.*

Tayanch so’zlar: ***globallashuv, muammolar, yoshlar tarbiyasi, psixologiya.***

Ключевые слова: *глобализация, проблемы, воспитание молодежи, психология.нужно учиться.*

Keywords: *globalization, problems, youth education, psychology.need to learn.*

Kirish

Hozirgi kunda yangi ma’lumotlar hayotimizning iqtisodiy hamda ijtimoiy transformatsiya jarayonida muhim ahamiyat kasb etmoqda. Globallashuv fenomeni zamonaviy dunyoda nafaqat iqtisodiyot va xususiy sektorni, balki siyosiy va ijtimoiy faoliyat sohalarida ham o’z aksini ko’rsatmoqda. Globallashuvning asosida aynan su ma’lumotlarni qabul qilish, o’zlastirish va uzatishdan taskil topgan. Yoslar har qanday jamiyatning ajralmas qismi hisoblanadi va globallashuv davrida eng avvalo uning muammolari birinshilardan bo’lib yuzaga shiqadi. Insoniyatning global muammolari, globallashuvning real jarayonlari va sakllarini aniqlasda, birinshi navbatda, yoslar parametri turadi. Aynan yoslar iqtisodiy va ijtimoiy jihatdan aziyat shekadi va voqealar markaziga borib qolishlari mumkin. Avvalo, yoshlar yangilanib borayotgan dunyoviy etikani puxta egallab, uning asosida yashashni o’rganishi kerak.

Mustaqil hayotga kirib kelayotgan yoshlarimiz tinshlik madaniyatini anglashi va tushunib yetishi, globallashuv jarayoniga ijtimoiy masofadan qarashi zarurdir.

Tadqiqot metodologiyasi.

O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 5-iyuldagi PF-5106-sonli Farmonida aytib o’tilganidek, globallashuv davrida ta’lim-tarbiya jarayoni zamon

talablariga javob berishi undan orqada qolmasligi muhim ahamiyatga ega. 2016-yil 30-dekabrda Prezidentimiz Savkat Mirziyoyevning bir guruh olimlar, ilm-fan namoyandalari bilan bo’lgan ushrasuvida aytib o’tganidek, "Yos avlodni iqtidorli kadrlar etib tarbiyalashning birinshi bosqishi maktab ta’limini tubdan takomillashtirish, ilmiy kadrlar va yuqori malakali mutaxassislar tayyorlash jarayonining uzluksizligini ta’minlash zarur. Bu yo’lda hesh narsani ayamaymiz." [1] Usbu ushrasuvda Prezidentimiz iqtisodiyotimizning barsha sohalarini rivojlantirisda ilm-fanning o’rni, ahamiyati katta ekani, bu bilan boğliq mamlakatimiz taraqqiyotida ilm-fan va islab shiqarish sherikligi bugun juda dolzarb ekanini alohida ta’kidlab o’tdi.

Ta’lim-tarbiyaga innovatsion yondashuv bilan boğliq yangilik 2017-yil 20-fevralda, mamlakatimiz iqtisodiyotining innovatsion rivojlanishida ilmiy-tadqiqot va innovatsion faoliyatni boshqarish va tartibga solishning yagona tizimini sakllantirish, shu bilan birga O’zbekiston Respublikasini ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishda ilm-fanning o’rnini oshirish maqsadida "Fanlar akademiyasi faoliyati, ilmiy-tadqiqot ishlarini tashkil etish, boshqarish va moliyaviy ta’minlashni yanada takomillashtirish shora-tadbirlari to’ğrisida"gi O’zbekiston Respublikasi Prezidentining qarorida ko’rsatib o’tilgan edi. Ushbu qarorda ilm-fanning ta’lim va ishlab shiqarish bilan integratsiyasi mexanizmlarini mustahkamlash va rivojlantirish ustuvor vazifa etib belgilansin.

Jahon miqyosidagi masalalar globallashuv jarayonida bir tomonlama hal etilishi darajasidan allaqashon yuqoriga ko’tarilib ketdi. Hesh kim, hesh bir davlat masalalarga bir tomonlama yondasha olmaydi. Zamonaviy texnologiyalar asosida islayotgan texnik qurilmalar inson ongi mahsuli sifatida Yer sari, koinot, atrof-muhitni to’liq nazorat ostida uslab turish imkoniyatlariga erishmoqda. O’tgan asrlarda voqea-hodisalar o’tmish sifatida tarixdan o’rin oldi. Yangi fikr, yangi ong kelajak sari yangisha qiyofada o’ziga dadil qadam qo’ymoqda. Jahon xalqlari dunyoda tinshlik-totuvlik, barqarorlik, hamjihatlik, birdamlik tamoyillari asosida demokratik jamiyatlar qurishga intiladi.

Yurtimizda boslangan barsha ezgu islardan ko’zlangan asosiy maqsad mamlakatimiz salohiyatini osirish, xalqimiz farovonligini ta’minlash, ozod va obod vatan poydevorini mustahkamlash, barkamol avlodni voyaga yetkazishga qaratilgan. Yoshlarimizning o’qib-o’rganib, zamonaviy ilmlarni egallab, soğlom va ma’naviy barkamol avlod bo’lib voyaga yetishi yo’lida keng ko’lamli ishlar amalga oshirilib, zarur sharoitlar yaratilmoqda. Har yili mamlakatimiz yoshlarining kelajak ravnaqini o’ylab hamda yoshlarimiz ehtiyojidan kelib shiqqan holda, zamonaviy maktablar barpo etilmoqda, ular eng so’nggi rusumdagi o’quv-laboratoriya uskunalari bilan jihozlanmoqda.

Sunday ekan, mamlakatimiz farzandlarimiz istiqboli ushun doimiy qayğurayotgan bir paytda "globallashuv" bahonasi ostida tarbiyani izdan

shiqaruvshi, mohiyatini kemiruvshi har qanday yot ta’sirlardan yoshlarimizni himoya qilish, dunyoda keshayotgan axborot tahdidiga qarshi yoshlarimizda soğlom immunitetni shakllantirish, ogohlikni bir daqiqa bo’lsa ham qo’ldan boy bermaslik bugun suv va havodek eng zarur zaruratga aylangan. Kommunikativ faollikning yuqori darajasi iqtidorli yoshlarda ma’lumot va axborotlarga bo’lgan ehtiyojni ikki barobar oshiradi. Ularga xos bunday farqlar salbiy oqibatlarni ham keltirib shiqarishi mumkin. Shu sababli, yoshlar oldida axborot tanlash imkoniyati juda yuqori bo’lganligi sababli, uning ehtiyojini qondira olmaydigan ma’lumotlar bir zumda qiymatini yo’qoti

Su nuqtayi nazardan qaraganda, hozirgi davrda axborot iste’moli avvalgilardan tubdan farq qiladi.

Zarur axborotlarga ega bo’lish davr talabi. Biroq, bugungi kunda, shaxs, ijtimoiy guruh, millat, jamiyat va davlatning o’zi haqida axborotlarni tarqatishi ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Inson ushun axborot eng ta’sirshan vositadir, shunki uning ongi bor. Mantiqiy dalil, qolaversa, axborot yetkazisning eng oddiy usullari juda katta kushga ega bo’lib, unga hesh kim hesh narsani qarshi qo’ya olmaydi. Inson tabiati sunday yaratilganki, u axborotni qabul qilmasdan, uni tushunishga harakat qilmasdan yaratilmaydi. Ayniqsa, iqtidorli o’quvchilar bunga ko’proq ehtiyoj sezadilar.

Shu nuqtayi nazardan ular axborotni ko’radi, eshitadi, o’qiydi va eng muhimi, doimo, uzluksiz ravishda, kun-u tun unga yetib boradigan axborotning ta’sirida yashaydi. Shu sababli axborot yordamida kimgadir ruhiy ta’sir qilmoqchi bo’lganlarga o’sha odamning psixologiyasi yordam beradi. Shu nuqtai nazardan ularning eng zarurlarini olish, saqlash va uzatish tizimini to’ğri yo’lga qo’yish kerak.

Adabiyotlar tahlili. Insoniyat o’z kelajagini asrab-avaylab qolishi uchun nimalarga nisbatan qanday munosabatda bo’lmasligi kerak, degan masala o’ta muhimdir. Albatta, globallashuv dunyoda kechayotgan, ortga qaytmas jarayondir. Bosqa davlatlar qatori biz uchun ham zarur. Lekin u bir tomonlama bo’lmasligi kerak. Globallashuv milliy o’zlikni yo’qotish degani emas! Dunyo kelajagi turli xalqlarning o’ziga xos qadriyatlari, madaniyati, ma’naviyati qadriyatlari bilan go’zal va boy hisoblanadi. Ularning har biri yashash va gullab-yashnashga haqli. Ammo qaysi davlat yoki davlatlar, xalq yoki xalqlar globallashuvni o’z mentalitetidan kelib chiqib, o’zgalarga aralashtirishi insoniyat jamiyatiga to’ğri kelmaydigan holat hisoblanadi.U holda bu jarayon bir tomondan foyda bersa, ikkinchi tomondan katta zarar keltirishi, qadriyatlarga putur yetkazishi, xalq o’z qiyofasini yo’qotgan "xalq"qa, millat o’z qiyofasini yo’qotgan "manqurt"ga aylanib qolishi ehtimoldan uzoq emas. [3] Bunday xavfga yo’l qo’ymaslikning chorasi: o’zgalar qadrini kamsitmagan holda o’z qadriyatlarimizni mahkam turib himoya qilisimiz, kerak bo’lsa, butun jahonga ko’rsatishimiz kerak.

Globallashuv jarayonida insoniyat jamiyati erishgan globallashuv tarixi, bugungi kuni, yutuq va kamchiliklari, bosib o’tgan tarixiy uzoq yo’ldan olingan falsafiy xulosalarga e’tibor qaratiladi. Shu bilan birga ertangi kunimiz farovonligi yo’lida nazariy qarashlardan muhim jihatlariga nazar solinadi "Odamlar olovga o’xshaydi, degan edi mutafakkirlardan biri, issiqdan foyda ol-u kuydirishidan ehtiyot bo’l." Rivojlanish mevalari ham xuddi shunday, undan qo’rqish emas, faqat to’ğri foydalana bilish kerak. Qanday maqsadda qo’llasangiz, o’sha tomonga yetaklaydi.

Yurtimizda boslangan barcha ezgu ishlardan ko’zlangan asosiy maqsad mamlakatimiz salohiyatini oshirish, xalqimiz farovonligini ta’minlash, ozod va obod vatan poydevorini mustahkamlash, barkamol avlodni voyaga yetkazishga qaratilgan. Yoshlarimizning o’qib-o’rganib, zamonaviy ilmlarni egallab, soğlom va ma’naviy barkamol avlod bo’lib voyaga yetishi yo’lida keng ko’lamli ishlar amalga oshirilib, zarur sharoitlar yaratilmoqda.

Insoniyat jamiyati bugungi kunda global muammo va ularni keltirib chiqaruvchi omillarni bartaraf etishning yagona yo’li sifatida ma’naviy va ma’rifiy uyğunlikni muvofiqlashtirish, uning optimal variantlarini demokratik tamoyillar asosida etnopsixologik omillarga tayangan holda tashkil etish masalasini kun tartibiga olib chiqmoqda. Shu nuqtai nazardan pedagog, psixolog, sotsiolog va boshqa soha vakillari tomonidan global muammo va ularni keltirib chiqaruvchi omillarni o’rganish va bartaraf etishning asosiy manbayi milliy va umuminsoniy ma’naviy qadriyatlarga uyğun tarzda ta’lim va tarbiyani innovatsion ta’lim muhitini shakllantirishning konseptual ğoyalariga muvofiq, zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosida tashkil etishga katta e’tibor qaratilmoqda.

Ta’lim muhitiga innovatsion yondashuv va ilmiy adabiyotlar tahlili shuni ko’rsatadiki, globallashuv jarayonining dastlabki davrida uning tub mohiyatini yaxshi tasavvur qila olmaganliklari sababli, jamiyat yoshlari - globallashuv farovon hayot, demokratik tamoyillar ustuvorligi, erkin savdo yo’lidagi to’siqlarni olib tashlaydigan va butun milliy iqtisodiyotni bir joyga jamlaydigan ijobiy hodisa ekanligiga ishonganlar.

Ammo bu jarayon ular aytganidek emas, balki jamiyatning barcha sohalariga kirib borib, uning milliy qadriyatlari, turmush tarzi, hamda e’tiqodi va ruhiyatiga ham o’z ta’sirini ko’rsatdi. Globallashuv rivojlangan mamlakatlarga foyda keltirib, uchinchi dunyo mamlakatlariga, ya’ni rivojlanayotgan mamlakatlarga, xususan, iqtisodiyoti past, jahon maydonida raqobatbardoshligi yetarli bo’lmagan davlatlarni inqiroz tomon yo’naltiruvchi mexanizmlarga ega ekanligi namoyon bo’lmoqda. Globallashuv, uning davlat va jamiyatlar hayotida tutgan roli haqida I.I.Belyayev ..."globallashuv boshqa (rivojlanayotgan) mamlakatlar ijtimoiy-ma’naviy hayotiga salbiy ta’sir ko’rsatishi mumkin" degan ilmiy mulohazalarini ilgari surgan[5].

Tahlil va natijalar. Shu bilan birga, globallashuv oqibatlari sifatida rivojlanayotgan mamlakatlarga mehnat migratsiyasi tufayli subsidiyalangan hududlarda ishsizlikning ko’payishi, tuğilishning pasayishi, atrof-muhit degradatsiyasi, milliy korxonalar va transmilliy korporatsiyalar o’rtasidagi yuqori raqobat, bozorlarni monopollashtirishning kuchayishi hamda iqtisodiy tafovutning ortishiga olib keladi. Globallashuv jamiyatning milliy boyligi bo’lgan bunyodkorlik falokatini tezlashtiradi, odamlar va umuman jamiyat hayotning yangi shakllariga moshlashishga nisbatan agressiyani keltirib chiqaradi hamda jamiyatda mavjud bo’lgan ğoyalar, qadriyatlar va qadriyatlarni chiqarib tashlaydi. Uning o’rnini davlat va jamiyat hamda millat va xalqqa xizmat qilmaydigan zamonaviy ğoya va qadriyatlar egallaydi.

Axborot jamiyatining real voqeligi, barchamizni bugungi kundagi o’zgarishlarga ongli va ratsional omillar nuqtai nazaridan yondashishni taqozo etgan holda, millatlar, xalqlar, davlatlar, umuman, insoniyatning ma’naviy hayot haqidagi qaraslari, konsepsiyalari, ğoya va mafkuralari, individual va ijtimoiy fikrlari o’rtasidagi munosabatlar murakkab, hatto, ayrim hollarda, ziddiyatda namoyon bo’layotganligi hesh kimga sir emas. Jamiyatimizda kechayotgan integratsion rivojlanishning yoshlar tarbiyasiga ta’sirini o’rganishda sotsiolog, psixolog, madaniyatshunos, pedagog va gumanitar soha mutaxassislarini o’ylantirayotgan masalalardan biri kosmopolitizm ğoyasi va ommaviy madaniyat bo’layotganligi hesh kimga sir emas.

Usbu muammolarni bartaraf etish yuzasidan bir qator ilmiy-nazariy taklif va mulohazalar ilgari surilib, yoshlar hayoti, xususan, jamiyat turmush tarziga nisbatan bu yot ğoyalarning salbiy ta’sirini minimallashtirish masalalari ilgari surilmoqda. Bu yondashuvlar asosida ishlab shiqilgan va ijtimoiy-ma’naviy ahamiyatga ega bo’lgan istiqboldagi konseptual mexanizmlarni jamiyat hayotining barsha bo’ğinlariga to’liq tatbiq etish davr talabi bo’lib turibdi.

Xulosa va tavsiyalar. XX asrning 90-yillarida paydo bo’lgan ko’p xatarli va mafkuraviy plyuralizm, global savdo tarmoqlari, sivilizatsion integratsiyalashuv ommaviy madaniyat dunyoni o’zaro dialektik boğliqlik va qarama-qarshiliklar birligi asosida harakat qiladigan ulkan, o’zaro bir-biriga ta’sir kuchiga ega bo’lgan tizim sifatida faoliyat ko’rsatishni taqozo etadi.

Bu jarayonning rivojlanish qonuniyatlari va tamoyillari, ayrim mutaxassislar nuqtai nazarida, butun dunyoda iqtisodiy va madaniy makonning paydo bo’lishi, shuningdek, yagona insoniy mushtaraklikning vujudga kelishi, axborot almashinuvi jarayonida yagona makonning vujudga kelishi insoniyat sivilizatsiyasining yangi shakli yuzaga kelishiga sabab bo’ladi, degan taxminlar mavjud. Kosmopolitik ğoya va uning mavjudligi, tarixiy o’tmishi uzoq, milliy qadriyatlari boy va kelajagi buyuk bo’lgan mustaqil davlatlarning ertangi kuni va yoshlari istiqboliga tahdid solib

qo’yishi mumkinligini e’tibordan chetda qoldirmagan holda, doimiy husyorlikni unutmaslik kerak.

Bugungi kunda jamiyatimiz yoshlari ma’naviy va madaniy bilimi, ongi va tafakkuri bilan boğliq bo’lgan masalalarni ilmiy nuqtai nazardan har tomonlama chuqur o’rganish, tashqi ta’sirlardan himoya qila oladigan ijtimoiy-psixologik mobil izolyatsion mexanizmni yaratish davr talabi bo’lib turibdi.

Biz tomonimizdan ilgari surilayotgan mobil ijtimoiy-psixologik izolyatsion mexanizm ğoyasi davlat va jamiyat ma’naviy hayoti, uning taraqqiyoti hamda yoshlar istiqbolini ta’minlagan holda ajdodlariga munosib avlod bo’lib qolishiga xizmat qilgan holda, millat sifatida ming yillar davomida uning mavjudligini ta’minlab beradi.

Xulosa qilib aytganda, globallashuv darajasi o’sha ijtimoiy tuzilma ichida muayyan bir shaxs, insonning kamol topishi uchun qanday imkoniyatlarga ega ekanligi bilan belgilansa, maqsadga muvofiq bo’ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Mirziyoev Sh.M. Erkin hám abadan, demokratiyalıq Ózbekstan mámleketin birgelikte quramız. - Tashkent: Ózbekiston NMIU, 2016. -56 b.
2. Mirziyoev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. - Tashkent: Ózbekstan, 2017. - 488 b.
3. Umarov B. Globallasıw qarama-qarsılıqları. - Tashkent: "Mánawiyat," 2006.
4. YUsuf Xos Hojib. Kutatğu bilig. Baxıtqa jollawshı bilimler. - Tashkent: Fan, 1991.
5. Quronov M. Milliy tarbiya. – Toshkent: Ma’naviyat, 2007. – 240 b.

BARKAMOL AVLOD TARBIYASIDA MUSIQANING O‘RNI

Orzuqulova Hilola
Nizomiy nomidagi O‘zbekiston milliy pedagogika universiteti Musiqa va san’at fakulteti 2-bosqich magistranti
Ilmiy rahbar: Anvar Lutfullayev, Nizomiy nomidagi O‘zbekiston milliy pedagogika universiteti “Musiqiy ta’lim” kafedrasi mudiri, professor
https://doi.org/10.5281/zenodo.23177943

Musiqa jonsiz tanaga jon, ruhsiz vujudga ruh bag‘ishlagani haqida Sharqu G‘arb ilmi, adabiyotlarda farazlar, afsonayu rivoyatlar juda ko‘p. Aksariyat mutaxassislar musiqaning yaratilishi inson zoti paydo bo‘lib, tabiat hodisalariga, hayvonlarga taqliddan, yo ilk bor kulib yoxud yig‘laganda chiqargan un-tovushlarga bog‘lab izohlaydilar. Shuningdek, ajdodlarimiz musiqani shifo, najot deb ham bilganlar.

Buyuk olim, dunyo tibbiyotining asoschilaridan bo‘lgan bobokalonimiz Abu Ali ibn Sino “Tib qonunlari” kitobida musiqaning ruhiy ta’sir kuchiga baho berib, go‘dakning tarbiyasidagi ahamiyatini oddiygina ta’riflaydi: “Go‘dakning vujudi chiniqishi uchun ikki narsa zarur: biri uni asta qimirlatib tebratish, ikkinchisi onaning qo‘shig‘i (allasi). Birinchisi bolaning tanasiga, ikkinchisi-ruhiga tegishlidir”. Musiqaning inson hayotidagi o‘rni haqida ko‘p yozilgan va u, shubhasiz, davolovchi, aniqrog‘i, jism va ruhni muolaja qilish usullaridan bo‘lishi bilan birga, ma’naviy tarbiyaning muhim yo‘nalishlaridan biri hamdir.

O‘z zamonasining buyuk donishmandlaridan bo‘lgan Al–Kindiy islom falsafasi asosida ilk bor musiqa nazariyasi haqida risolalar bitgan hamda bu san’atning badiiy estetik va tarbiyaviy jihatlari, ma’naviy barkamol insonni tarbiyalashdagi o‘rni, uning ahamiyatini dalillab bergan. Tarixchi olimlarning aytishicha (G.Sarton), Al Kindiy “ilk musulmon muziqashunosi bo‘lgan” va uning ayrim asarlarida “ohanglar yozuvi” mavjud. Arab olimi professor A.F.Exvoniy ham “Al Kindiy musiqa bo‘yicha qator asarlar yaratgan, ulardan biri nemis tiliga tarjima qilingan”, deb xabar beradi. Farobiyning asari bu sohada unga qadar yozilgan asarlardan ustun bo‘lib, G‘arb va Sharq musiqa nazariyasi taraqqiyotini bir necha asrga belgilab bergan. XU asr musiqa nazariyotchilaridan biri, Sharqning yirik mutafakkiri Abdurahmon Jomiy o‘zining “Musiqa haqida risola”sida Farobiyni buyuk musiqashunos olim sifatida tilga olgan.

Farobiyning musiqa sohasidagi tadqiqotchilar oldiga qo‘ygan talablari nihoyatda diqqatga loyiqdir. “Nazariy bilimlardan xabardor bo‘lgan yetuk san’atkor qaysi bilimda bo‘lmasin, shu uch narsaga ega bo‘lishi kerak:

Har bir bilimning usul va qoidalarini to‘la bilishi lozim.

Shu bilimning turli holatlarida hosil bo‘lgan usul va qoidalarning natijalarini sharh va izoh etiga qobil va iste’dodli bo‘lishi kerak.

Musiqa (san’ati) haqida noto‘g‘ri nazariyaga ega bo‘lgan yozuvchilarning noto‘g‘ri nazariyalarini tanqid eta bilsin, xato va to‘g‘ri nazariyalar o‘rtasidagi farqni ko‘rsata bilsin va xatolarni oydinlashtira olsin”.

”Ulug‘ ajdodimiz, alloma Abu Nasr Farobiy o‘zining “Musiqa haqida katta kitob” asarida musiqani uch turga ajratadi:

Birinchisi - insonga huzur – halovat baxsh etadigan musiqa;

Ikkinchisi – ehtiros uyg‘otib, qalbni junbushga keltiradigan musiqa;

Uchinchisi – kishini o‘yga toldirib, fikrlashga undaydigan musiqadir.

Umuman, musiqa inson tabiatini nechog‘liq o‘zgartirgani, insonning inson bilan o‘zaro aloqasi va munosabatlari naqadar bog‘liq ekanligi Ibn Sinoning “Kitob ash-shifo” risolasining musiqa bo‘limida bayon etiladi. Demak, Sharq allomalarining musiqa va inson ma’naviyatiga doir qarashlaridan shu narsa ayon bo‘ladiki, musiqa asarlari kishilarni ma’naviy va axloqiy jihatdan tarbiyalashda beqiyos imkoniyatlarga ega.

Respublikamiz taraqqiyoti va o‘zgarishlarga boy hozirgi paytda yoshlarning har tomonlama kamol topishi davr talabi va ehtiyojidir. Yosh avlodni ma’naviy baquvvat, bilimli, o‘z mustaqil Vatanidan fahrlanish tuyg‘usiga boy kishilarni tarbiyalash zamonamizning dolzarb mavzusi hisoblanadi. Bu esa ta’lim-tarbiya oldidagi murakkab, keng ko‘lamli vazifalardan biridir.

Tarbiyalash deganda har tomonlama yetuk, o‘zida axloqiy poklik, ma’naviy boylik va jismoniy barkamonlikni mujassamlashtirgan insonni tarbiyalash nazarda tutiladi. Tarbiya tizimida musiqa san’ati yetakchi o‘ringa ega. Hozirgi kunda musiqa san’atining inson tarbiyasidagi roli ortib bormoqda. Yoshlarimizni ma’naviy yetuk, komil inson etib tarbiyalashda ixtisoslik fanining faoliyati shak-shubhasiz kattadir. Maktab yoshlarga bilim asoslarini singdiradi. U bolani ilmiy dunyoqarashining shakllanishi va mustahkamlanishi yo‘lida asosiy poydevor bo‘lib xizmat qiladi.

Yoshlarning musiqa orqali hayotga qiziqishi, his-tuyg‘ularini o’sib borishi, atrof muhitni kuzatish qobiliyatining o’sishida musiqa san’ati muhim o‘rin tutadi. Boshqa san’at turlariga nisbatan musiqa san’ati estetik tarbiyaning muhim tarbiyaviy qismidir. Estetik tarbiya go‘zallikni his qilish va tushunish tarbiyasi demakdir. Estetik tarbiyada darsdan tashqari olib boriladigan musiqa san’ati o‘ziga hos alohida o‘tkir ta’sirchanlikka ega bo‘lganligi sababli, qadim zamondan buyon hozirgacha ustoz-o’qituvchilarning e’tiborida bo‘lib kelmoqda. Xullas, o‘quv maskanlarida musiqa orqali amalga oshiriladigan estetik tarbiya yosh avlodda go‘zal odob-ahloq, insoniy fazilatlarni tarkib toptirishda muhim vosita ekanligi tarixdan ma’lum. Jamiyat taraqqiyoti moddiy madaniyat bilan ma’naviy madaniyatning bir-birini to‘ldirishi va uyg‘unlashuvi orqali amalga oshadi.

O‘zbekistonning barcha fuqarolari milliy madaniyatimiz, xususan, musiqa va xonandalik san’atidan habardor bo‘lishi lozim. Qo‘shiq, musiqa insonni tarbiyalaydi, uni ezgulikka, kishilarga yaxshilik qilishga undaydi. Har bir qo‘shiq,

musiqa orqali insonda yashirinib yotgan qobiliyat va iqtidorlarni topish imkoniyati yuzaga keladi. Xonandalik san’ati odamlardagi yomon sifatlarni bartaraf etishga yordam beradi. Milliy madaniy merosni o‘rganish va o‘zlashtirish orqali o‘zbek millatiga mansubligi bilan fahrlanish hissini uyg‘otadi.

Milliy ta’lim va tarbiya o‘z mazmunida insonparvarlik, vatanparvarlik, milliy g‘urur, axloqiy va umuminsoniy fazilatlarni mujassam etishi bilan jamiyat rivojida ustuvor ahamiyat kasb etadi. Hozirgi kunda milliy ta’lim va tarbiya oldidagi eng muhim vazifalardan biri, o‘quvchi-yoshlarda milliy ong va milliy madaniyatni tarkib toptirishdan iboratdir. Bu esa, birinchi navbatda ta’lim va tarbiya ishlarida milliy-ma’naviy qadriyatlardan unumli, oqilona va o‘z o‘rnida foydalanishni taqozo etadi. Fikrimizni O‘zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti I.Karimovning: “Biron bir jamiyat ma’naviy qadriyatlarni rivojlantirmay hamda mustahkamlamay turib o‘z istiqbolini tasavvur eta olmaydi. Biz ma’naviy qadriyatlarni tiklashni, milliy o‘zlikni anglashning o’sishidan, xalqning ma’naviy sarchashmalariga, uning ildizlariga qaratishdan iborat uzviy, tabiiy jarayon deb hisoblaymiz”-degan gaplari ham tasdiqlaydi (Karimov I.A. “O‘zbekiston buyuk kelajak sari”. T., O‘zbekiston, 1998).

Inson shaxsining kamol topishi juda murakkab va uzluksiz jarayon davomida shakllanadi. Uning tarbiyasiga ota-onasi, maktab mahalla, do’stlari, jamoat tashkilotlari, artof-muhit, ommaviy axborot vositalari, san’at, adabiyot, tabiat va to’garaklar bevosita ta’sir ko‘rsatadi.

Yuqoridagi barcha hayotiy ehtiyojlarni vujudga keltirishda o‘zaro hamkorlikning ta’sir doirasi orqali shaxsni tarbiyalash va tarbiyaning birligini ta’minlagan holda, uni shaxs sifatida shakllanishiga salbiy ta’sir ko‘rsatadigan muhitdan himoya qilish lozimdir.

Tarbiyaning bosh maqsadi – yosh avlodni ma’naviy – axloqiy tarbiyalashda xalqning boy milliy, ma’naviy – tarixiy an’analariga, urf – odatlar hamda umumbashariy qadriyatlarga asoslangan samarali tashkiliy, pedagogik shakl va vositalarni ishlab chiqib amalga joriy etishdir.

Tarbiyaning asosiy vazifasi – shaxsning aqliy, axloqiy, erkin fikrlovchi va jismoniy rivojlanishi, uning qobiliyatlarini har tomonlama ochish uchun imkoniyat yaratishdan iborat.

Buning uchun: - yoshlarni erkin fikrlashga tayyorlash, hayot mazmunini tushunib olishiga ko’maklashish, o‘z-o‘zini idora va nazorat qila bilishini shakllantirish, o‘z shaxsiy turmushiga maqsadli yondashuv, ularda reja va amal birligi hissini uyg‘otish;

- o‘quvchilarni milliy, umuminsoniy qadriyatlar, Vatanimizning boy ma’naviy merosi bilan tanishtirish, madaniy hamda dunyoviy bilimlarni egallashga bo‘lgan talablarini qondirish, malaka hosil qilish, uni boyitib borish va estetik tushunchalarini shakllantirish;

- har bir o’smirning bilimdonligini va ijodiy imkoniyatlarini aniqlab, ularni rivojlantirish. Inson faoliyatini turli sohalarda joriy qilib ko‘rish. Bolalar ijodkorligi, iqtidorini yuzaga chiqarish va yanada qo’llab-quvvatlash uchun shart-sharoit hozirlash;

- insonparvarlik odob me’yorlarini shakllantirish (bir-birini tushunadigan, mehribonlik, shafqatlilik, irqiy va milliy kamsitishlarga toqatsizlik), muomala odobi kabi tarbiya vositalari (nohaqlikka, yolg‘onchilik, tuhmat, chaqimchilikka toqatsizlik) keng qo’lanishi lozim.

- vatanparvarlik, dunyoviy fikrlash, jamiyatimizda yashayotgan odamlar bilan o‘zaro munosabat-muloqotni o‘rganish, o‘z xalqiga, davlatiga, uning himoyasi uchun hamisha shay bo‘lib turish. Yosh avlodni O‘zbekiston Respublikasi Ramzlari - Konstitutsiyasi, Bayrog‘i, Gerbi, Madhiyasi va boshqa davlatlarning ramzlariga hurmat bilan qarash hamda Prezidentiga sadoqatli qilib tarbiyalash;

- jamoa axloqi va turmush qoidalariga hurmat bilan qarashni tarbiyalash, shaxsning noyob qirralarini belgilovchi fuqarolik va ijtimoiy mas’uliyat hislarini rivojlantirish, o‘zi yashayotgan mamlakatning ravnaqi, insoniyat taraqqiyotini barqaror saqlab qolish uchun fidoyilik, ekologik ta’lim-tarbiya;

- mustaqil davlatimiz – O‘zbekiston Respublikasining ichki va tashqi siyosatiga to‘g‘ri va holisona baho berishga o‘rgatish. Uning tinchliksevarlik, demokratiya va boshqa davlatlarning ichki ishlariga aralashmaslik, oshkora-ochiq tashqi siyosatiga va o‘z xalqining turmush darajasini oshirishga yo’naltirilgan, fuqarolarni ijtimoiy himoya qiladigan ichki siyosatini to‘g‘ri tushuntirmoq kerak;

- turmushda eng oliy qadriyat hisoblangan mehnatga ijodiy yondoshish fazilatlarini shakllantirish;

- sog‘lom turmush tarziga intilishni tarbiyalash va rivojlantirish, munosib oila sohibi bo‘lish istagini shakllantirish;

- yoshlarimizni erkin mustaqil fikrlashga o‘rgatish.

Shundagina zamonaviy fikrlaydigan, Vataniga sodiq, raqobatlashishga qodir yoshlar voyaga etadi, bu vazifani bajarishga hammamiz mas’ulligimizni his etishimiz zarur.

Ushbu mulohazalar har bir san’at kishisini, ayniqsa tarbiyachi-ustozlarni ogohlikka chorlaydi. O‘rta va oliy o‘quv yurtlaridagi tajribalar, bugungi kun talablari jamiyatimizning kelajagi bo‘lgan yoshlarni kasbga o‘rgatish bilan bir qatorda, ularni vatanparvarlik, insonparvarlik, mehnatsevarlik, kamtarlik, oliyjanoblik, yuksak madaniyatli mutaxassislar qilib tarbiyalash sifatini oshirishni taqozo etadi. Bu muammoni hal etishda talaba-yoshlarni xalqimiz kechmishining tarixiga aylangan ajoyib dostonlar, kuy-qo‘shiqlar, xalq og‘zaki ijodiyotining eng yaxshi namunalari bilan tanishtirish, o‘rgatib borish har bir ustoz-tarbiyachidan talab etiladi. Bu borada musiqa yosh avlodga shodlik va ilhom baxsh etishi, ularning tafakkur va hissiyotini rivojlantirishga ko‘maklashishi, g‘oyaviy-badiiy va ma’naviy

tarbiyasiga ijobiy ta’siri haqida talabalar bilan suhbatlar uyushtirish, baxs va munozara tashkil etish katta ahamiyatga ega.

Ming afsuski, bugungi kunda ayrim yoshlarimiz Vatanimiz o‘tmishi, qahramon botirlari, xalqimiz an’analari, bayramlari to‘g‘risida aniq tasavvurga ega emaslar. Vatanparvarlik tuyg‘usini singdirishga yordam beruvchi metodik qo‘llanma, tavsiyanomalar kamligi tarbiyaviy ishlarni samarali olib borishda qiyinchiliklar tug‘diradi. Yoshlarimizni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda musiqa va tasviriy san’at darslaridan ham samarali foydalanish zarur. Jumladan, musiqa ta’limi samaradorligini oshirishda o‘quvchilarning musiqa darsiga bo‘lgan qiziqishlarini o‘stirishda o‘qituvchi-ustozning o‘rni katta. Musiqa o‘qituvchisi o‘z kasbiga mehr qo‘ygan, yuksak madaniyatli, izlanuvchan va keng dunyoqarashga ega bo‘lgan shaxs bo‘lishi kerak. Musiqa o‘qituvchisi musiqa san’atining nazariy va amaliy sohalarda yetarli darajada bilimga va tajribaga ega bo‘lishi, darsni qiziqarli usullarda olib borishi zarur.

Yuqoridagilarga amal qilish O‘zbekiston Respublikasi o‘quv muassasalarida musiqiy ta’lim - tarbiya berishning o‘quv jarayonida samarali qo‘llash yosh avlodni milliy musiqa merosimizga vorislik qila oladigan, musiqiy qadriyatlarimizni idrok eta biladigan madaniyatli inson darajasida voyaga yetkazishga xizmat qiladi.

9-11-SINF O‘QUVCHILARINING FAOL FUQAROLIK KOMPETENSIYASINI RIVOJLANTIRISH PEDAGOGIK MUAMMO SIFATIDA

OTAYEV UMIDBEK MATYAQUBOVICH
Tarbiya pedagogikasi milliy instituti mustaqil izlanuvchisi
https://doi.org/10.5281/zenodo.23177968

Annotatsiya. *Maqolada 9-11-sinf o‘quvchilarining faol fuqarolik kompetensiyasi bilim, mas’uliyatli tanlov va mazmunli ishtirok birligi sifatida tahlil qilinadi. Xalqaro konseptual hujjatlar hamda pedagogik tadqiqotlarni qiyoslash asosida maktabdagi ishtirok imkoniyatlari, ochiq muhokama va baholash o‘rtasidagi ziddiyatlar ochib beriladi. Sinflar kesimidagi rivojlanish yo‘nalishlari, o‘quv loyihasi va mezonli baholash tizimi taklif etiladi. Ish nazariy-tahliliy bo‘lib, takliflar empirik sinovdan o‘tkazilmagan.*
Kalit so‘zlar: *faol fuqarolik, kompetensiya, o‘quvchi ishtiroki, mediasavodxonlik, refleksiya.*
Аннотация. *Активная гражданская компетентность учащихся 9-11-х классов рассматривается как единство знаний, ответственного выбора и содержательного участия. Сопоставление международных концептуальных документов и педагогических исследований позволяет выявить противоречия между возможностями участия, открытым обсуждением и оцениванием. Предлагаются последовательность развития компетентности, учебный проект и критериальное оценивание. Статья имеет теоретико-аналитический характер; предложенная модель не проходила эмпирическую проверку.*
Ключевые слова: *гражданская компетентность, участие учащихся, медиаграмотность, рефлексия.*
Abstract. *Active citizenship competence in grades 9-11 is examined as an integration of knowledge, responsible choice and meaningful participation. Comparing international frameworks and educational research reveals tensions between participation opportunities, classroom discussion and assessment. The article proposes grade-specific progression, a classroom project and criterion-based assessment. This is a theoretical analysis; the proposed framework has not been empirically tested.*
Keywords: *active citizenship, student participation, media literacy, reflection.*

Fuqarolik haqidagi bilimni hayotiy vaziyatda qo‘llash maktab ta’limining murakkab vazifasidir. O‘quvchi huquq va majburiyatlarni sanab bera olishi, biroq sinfdagi kelishmovchilikni asosli muhokama qilish, umumiy resursdan adolatli foydalanish yoki ishonchsiz xabarni tekshirishda qiynalishi mumkin. Shuning uchun faol fuqarolik kompetensiyasini rivojlantirish mazmunni o‘rgatish bilan cheklanmaydi; u ta’lim metodlari, maktab munosabatlari va baholashning o‘zaro muvofiqligini talab qiladi.

UNESCO fuqarolik ta’limida kognitiv, ijtimoiy-emotsional va xulqiy yo‘nalishlarni bog‘laydi [1]. Yevropa Kengashi modeli esa qadriyatlar, munosabatlar, ko‘nikmalar hamda bilim va tanqidiy tushunishni ajratadi [2]. Mazkur yondashuvlardan kelib chiqib, maqolaning maqsadi 9-11-sinflarda faol fuqarolikni rivojlantirishning pedagogik ziddiyatlarini aniqlash va ularni yumshatadigan o‘quv mexanizmlarini asoslashdir. Asosiy savol: o‘quvchining xabardorligini mustaqil,

mas’uliyatli va boshqalar huquqlarini hurmat qiladigan ishtirokka aylantirish uchun qanday sharoitlar zarur?

Tadqiqot metodologiyasi.

Ish konseptual qiyoslash va pedagogik modellashtirishga tayangan nazariy-tahliliy tadqiqotdir. Manbalar fuqarolik kompetensiyasi tuzilishi, o‘quvchi ishtiroki, o‘qitish usullari va baholashga bevosita aloqadorligi asosida maqsadli tanlandi. Tashkilotlarning rasmiy nashrlari hamda taqrizli ilmiy maqolalar qiyoslandi. Bu tanlov barcha adabiyotlarni qamrab oluvchi tizimli sharh yoki meta-tahlil emas. Birlamchi so‘rov, kuzatuv yoxud tajriba o‘tkazilmadi; keyingi bo‘limlardagi model muallifning pedagogik taklifidir.

Tahlilda uch turdagi dalil farqlandi: konseptual hujjatdagi ta’lim maqsadi, empirik maqolada muayyan sharoitda kuzatilgan natija va ulardan chiqarilgan amaliy taklif. ICCS baholash doirasida bilim, munosabat, ishtirok hamda ta’lim muhiti alohida o‘rganiladi [3]. Bu farqlash o‘quvchining yaxshi test natijasini avtomatik ravishda faol fuqarolik deb talqin qilishdan saqlaydi. Xorijiy natijalar O‘zbekiston maktablarida aynan takrorlanishi haqidagi taxmin ilgari surilmaydi.

Faol fuqarolik kompetensiyasining mazmuni.

Maqolada faol fuqarolik kompetensiyasi shaxsning ijtimoiy vaziyatni tushunishi, dalillarni baholashi, huquq va mas’uliyatlarni hisobga olishi, boshqalar bilan hamkorlikda asosli qaror qabul qilishi hamda o‘z harakatini tahlil qila olish qobiliyati sifatida talqin etiladi. Uning faolligi tadbirlar soni yoki tashqi itoatkorlik bilan o‘lchanmaydi. O‘quvchining dalil yetishmaganda hukmni kechiktirishi, zararli taklifni rad etishi yoki kelishuvga ehtiyotkorlik bilan tuzatish kiritishi ham mas’uliyatli ishtirokdir.

Westheimer va Kahne shaxsan mas’uliyatli, ishtirokchi hamda adolat masalalarini tahlil qiluvchi fuqarolik tasavvurlarini farqlaydi [4]. Bu tasnifdan kelib chiqadigan pedagogik xulosa shuki, yordam ko‘rsatish bilan muammoning sababini o‘rganish bir xil natija emas. Masalan, maktab kutubxonasiga kitob yig‘ish foydali ish; kitoblardan foydalanishdagi to‘siqlarni aniqlab, navbat tartibini yaxshilash esa muammo tahlili va jamoaviy qarorni ham talab etadi. Ta’lim ikkala tajribani bog‘lash imkonini yaratishi lozim.

9-11-sinflar uchun taklif etilayotgan tuzilma to‘rtta o‘zaro bog‘liq tarkibdan iborat: fuqarolik vaziyatini tushunish; qadriyat va oqibatlarni baholash; muloqot hamda amaliy hamkorlik; refleksiv o‘zini boshqarish. Mediasavodxonlik barcha tarkiblarni kesib o‘tadi, chunki axborotning ishonchliligi qaror sifatiga ta’sir qiladi. Mazkur tuzilma xalqaro modellarni aynan ko‘chirmaydi; u dars va maktab loyihalarida kuzatiladigan harakatlarni bir tizimga keltirish uchun taklif qilinadi.

Pedagogik ziddiyatlar va ularni bartaraf etish.

Birinchi ziddiyat bilimni qayta aytishga asoslangan topshiriq bilan mustaqil qaror chiqarishni talab qiladigan hayotiy vaziyat o‘rtasidadir. Ta’rifni bilish zarur,

ammo uni qo‘llash uchun manfaatlar to‘qnashuvi va muqobil yechimlar mavjud vaziyat kerak. Ikkinchi ziddiyat o‘quvchidan tashabbus kutish, lekin uning taklifiga ta’sir doirasini bermaslikda namoyon bo‘ladi. Oldindan hal qilingan masalani ovozga qo‘yish ishtirok ko‘rinishini beradi, ammo qaror tajribasini yaratmaydi.

Kahne va Sporte yuqori sinflarda fuqarolikni o‘rganish imkoniyatlari bilan ishtirokka tayyorlik o‘rtasidagi bog‘liqlikni ko‘rsatgan [5]. Mazkur kuzatuv maktab sharoitining ahamiyatini asoslaydi, lekin har qanday loyiha bir xil natija beradi degani emas. UNICEF tavsiyalarida mazmunli ishtirok axborotga ega bo‘lish, jalb etilish va tegishli qarorlarga ta’sir qilish bilan bog‘lanadi [6]. Shunga ko‘ra, maktab loyihasida qaysi masalani o‘quvchilar hal qilishi, qaysi cheklovlar mavjudligi va taklifga kim javob berishi avvaldan aniqlashtirilishi kerak.

Uchinchi ziddiyat baholash bilan erkin fikr bildirish orasida yuzaga keladi. Agar yuqori baho o‘qituvchi fikriga qo‘shilishga bog‘lansa, o‘quvchi dalil izlashdan ko‘ra kutilgan javobni topishga intiladi. Baholash fikrning siyosiy yo‘nalishiga emas, dalillash sifati, boshqani tinglash va huquqlarni hurmat qilishga qaratilishi lozim. O‘qituvchi partiyaviy targ‘ibotdan tiyiladi, tahqirlashni to‘xtatadi va muqobil fikrni tekshirish uchun teng imkoniyat yaratadi. Ixtiyoriy jamoat ishiga qo‘shilmaslik past bahoning asosi bo‘lmasligi kerak.

Sinf amaliyoti uchun rivojlantiruvchi mexanizmlar.

Taklif etilayotgan izchillikda 9-sinfda yaqin muhitdagi vaziyatni aniqlash, faktni fikrdan ajratish va muhokama qoidalarini o‘zlashtirishga urg‘u beriladi. 10-sinfda manfaatdor tomonlar nuqtayi nazarini qiyoslash, muqobil yechimlarning oqibatini baholash va guruh loyihasini rejalashtirish murakkablashtiriladi. 11-sinfda o‘quvchi dalillar asosida tavsiya tayyorlaydi, uni muhokamada himoya qiladi va natijani cheklovlari bilan baholaydi. Bu taqsimot qat’iy yosh me’yori emas; topshiriq murakkabligi o‘quvchining tayyorgarligiga moslashtiriladi.

Amaliy misol sifatida “Maktab kutubxonasidan foydalanishni yaxshilash” loyihasi taklif etiladi. Dastlab o‘quvchilar kutubxonadagi tasdiqlangan tartibni o‘rganib, muammoni savol shaklida ifodalaydi. Keyin shaxsiy ma’lumot yig‘masdan, foydalanish sharoitini kuzatadi va ochiq ma’lumotlarni jamlaydi. Guruhlar jadvalni o‘zgartirish, axborot stendini yangilash yoki kitob almashuvini tashkil etish kabi muqobillarni qulaylik, xarajat va teng foydalanish mezonlari bo‘yicha taqqoslaydi. Yakuniy tavsiya mas’ul xodim bilan kelishilgan doirada ko‘rib chiqiladi; qabul qilinmagan taklifga ham asosli javob berilishi ko‘zda tutiladi.

Muhokamada kotib, dalil tekshiruvchi, vaqt kuzatuvchi va taqdimotchi vazifalari almashib boradi. Har bir o‘quvchi avval qisqa individual taklif yozadi; so‘ng juftlik va guruh muhokamasiga o‘tiladi. Bu tartib tez gapiradigan o‘quvchilar ustunligini kamaytirishga qaratilgan. Bahs yakunida o‘quvchi “Qaysi dalil fikrimni o‘zgartirdi?” va “Kimning ehtiyoji hisobga olinmadi?” savollariga javob beradi.

Darsdan tashqari ish uchun vaqt yoki imkoniyati cheklangan o‘quvchiga sinf ichidagi teng qiymatli vazifa taqdim etiladi.

Axborotni tekshirish mashg‘ulotida bir mavzuga oid ikki xabar berilib, muallif, e’lon sanasi, dalilning birlamchi manbasi va boshqa mustaqil tasdiqlar tekshiriladi. McGrew tadqiqoti internetdagi axborotni baholash strategiyalarini maxsus o‘rgatish imkoniyatini ko‘rsatadi [7]. Taklif qilinayotgan darsda o‘quvchi saytning tashqi ko‘rinishiga tayanmasdan, uning ortidagi tashkilot haqidagi tashqi manbalarni ham tekshiradi. Internet mavjud bo‘lmasa, oldindan tayyorlangan manba to‘plami ishlatiladi. Mashqning maqsadi tayyor “to‘g‘ri javob”ni topishdan ko‘ra tekshirish yo‘lini asoslashdir.

Yevropa Kengashi deskriptorlari o‘quvchi namoyon eta oladigan xatti-harakatlarni ifodalab, keyingi rivojlanish yo‘nalishini aniqlashga xizmat qiladi [8]. Shu tamoyil asosida to‘rtta mezon taklif etiladi: vaziyatni huquq va mas’uliyatlar bilan tushuntirish; manba va dalilni tekshirish; muqobil qarorni asoslash va hamkorlik qilish; natija hamda o‘z hissasini tahlil qilish. Har biri “ko‘mak bilan bajaradi”, “mustaqil bajaradi”, “yangi vaziyatga ko‘chirib, tanlovini asoslaydi” darajalarida tavsiflanadi. Bu darajalar mahalliy sinovdan o‘tgan o‘lchov vositasi emas.

Baholash dalillari vaziyatli yozma javob, kuzatuv qaydi, guruh mahsuloti va individual refleksiyadan yig‘iladi. Guruhning chiroyli taqdimoti har bir a’zoning kompetensiyasini isbotlamaydi; shu bois individual izoh alohida olinadi. Boshlang‘ich va yakuniy topshiriqlar murakkabligi yaqin, mazmuni turlicha bo‘lishi kerak. O‘qituvchilar namunaviy ishlarni birgalikda baholab, mezon talqinini muvofiqlashtiradi. Bir martalik sust ishtirok o‘quvchiga doimiy salbiy yorliq qo‘yish uchun ishlatilmaydi.

Modelning cheklovi xalqaro tushunchalarni mahalliy sharoitga moslashtirish zarurati va takliflarning empirik tekshirilmaganligidadir. Keyingi tadqiqotda turli maktablarda sinov, dars kuzatuvi, anonim fikr-mulohaza va baholovchilar kelishuvi tekshirilishi maqsadga muvofiq. Natijalarni talqin qilishda avvalgi tayyorgarlik, til, resurs va o‘qituvchi ta’siri hisobga olinishi kerak. Voyaga yetmaganlarning ishtiroki xavfsiz, ixtiyoriy va zarur roziliklarga asoslangan bo‘lishi; shaxsiy yoki oilaviy siyosiy qarashlar majburiy yig‘ilmasligi lozim.

Xulosa shuki, 9-11-sinflarda faol fuqarolik kompetensiyasini rivojlantirishning pedagogik mohiyati bilim, mustaqil tanlov, mazmunli ishtirok va refleksiya uchun uyg‘un sharoit yaratishdan iborat. Taklif etilgan yondashuvda sinflar bo‘yicha murakkablashuvchi vaziyatlar, maktab hayotiga tegishli loyiha, manbalarni tekshirish hamda mezonli baholash bir-birini to‘ldiradi. Kutiladigan natija o‘quvchining ko‘proq tadbirda qatnashishi bilan emas, qarorini asoslash va uning boshqalarga ta’sirini anglash sifati bilan belgilanadi. Mazkur pedagogik taxminning samaradorligi keyingi empirik tadqiqotda tekshirilishi lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. UNESCO. Global Citizenship Education: Topics and Learning Objectives. Paris: UNESCO, 2015. DOI: 10.54675/DRHC3544.
2. Council of Europe. Reference Framework of Competences for Democratic Culture. Vol. 1: Context, Concepts and Model. Strasbourg: Council of Europe, 2018. ISBN 978-92-871-8573-0 (uch jildli nashr).
3. Schulz W., Fraillon J., Losito B., Agrusti G., Ainley J., Damiani V., Friedman T. IEA International Civic and Citizenship Education Study 2022 Assessment Framework. Cham: Springer, 2023. DOI: 10.1007/978-3-031-20113-4.
4. Westheimer J., Kahne J. What Kind of Citizen? The Politics of Educating for Democracy. American Educational Research Journal. 2004. Vol. 41, No. 2. P. 237-269. DOI: 10.3102/00028312041002237.
5. Kahne J. E., Sporte S. E. Developing Citizens: The Impact of Civic Learning Opportunities on Students’ Commitment to Civic Participation. American Educational Research Journal. 2008. Vol. 45, No. 3. P. 738-766. DOI: 10.3102/0002831208316951.
6. UNICEF. Engaged and Heard! Guidelines on Adolescent Participation and Civic Engagement. New York: UNICEF, 2020. https://www.unicef.org/lac/en/reports/engaged-and-heard
7. McGrew S. Learning to Evaluate: An Intervention in Civic Online Reasoning. Computers & Education. 2020. Vol. 145. Article 103711. DOI: 10.1016/j.compedu.2019.103711.
8. Council of Europe. Reference Framework of Competences for Democratic Culture. Vol. 2: Descriptors of Competences for Democratic Culture. Strasbourg: Council of Europe, 2018. ISBN 978-92-871-8573-0 (uch jildli nashr).

MA’NAVIYATI YUKSAK XALQ QADRIYATLARIDA MUSIQA MADANIYATINING AHAMIYATI

Pardaeva Jasmina
Nizomiy nomidagi O‘zbekiston milliy pedagogika universiteti “Musiqiy ta’lim” kafedrasi 203- guruh talabasi
https://doi.org/10.5281/zenodo.23178005

Davlatimiz rahbari Yangi O‘zbekistonni barpo etishning Uchinchi Renessansi poydevorida ma’naviyat va ma’rifatning tutgan o‘rni to‘g‘risida mazkur soha Kengashining rahbari sifatida 2024 yil 22 dekabri kuni bo‘lib o‘tgan yig‘ilishda konseptual vazifalarni kun tartibiga qo‘ydi. Ma’naviyati yuksak xalqimizning qadriyatlarida musiqa madaniyatining tutgan o‘rni va uning yoshlar, ayniqsa, jamiyat taraqqiyotidagi ma’naviy-ma’rifiy tarbiyasidagi ahamiyati to‘g‘risida strategik vazifalarni belgilab berdi. Bunda biz madaniyat va uning tarkibiy qismi bo‘lgan musiqa san’ati vakillarining faol hamda ma’suliyatli bo‘lishimiz taqozo etiladi.

Ma’naviyati yuksak xalqimiz qadriyatlarida *musiqa san’ati* asrlar davomida uyg‘oq qalbli yoshlarni ma’naviy-ma’rifiy jihatdan tarbiyalab voyaga yetkazib kelgan. Bunda xalq musiqa og‘zaki ijodi namunalari, maqom san’ati durdonalari, an’anaviy cholg‘u va qo‘shiqchilik asarlari, bastakorlar va kompozitorlarimizning ijodlari, amaliy faoliyatdagi musiqa san’ati mutaxassislarining sa’y-harakatlari va soha olimlarining tadqiqotlari muhim manbalar bo‘lib kelgan. Shu sababli bu borada Davlatimiz rahbari mazkur manbalar asosida ma’naviy tarbiyani amalga oshirish, jamiyat va davlatni shiddatli rivojlanish jarayonida tahdidlarni asrashda oqilona foydalanish vazifalarini qo‘yganligi muhim hisoblanadi.

Butun dunyo musiqa san’ati vakillari e’tirof etganidek, mashhur faylasuf Aflotunning fikricha “Davlat taraqqiyoti yoshlarning qanday musiqa tinglayotganligiga ham bog‘liq bo‘ladi”. Bu hikmatli g‘oya asrlar davomida o‘z tasdig‘ini topib kelmoqda. Shu ma’noda hozirgi globallashuv sharoitida Internet axborot global tarmog‘ining rivojlanganligi musiqa san’atining namunalaridan bahramand bo‘lish masalasiga ham ijobiy va salbiy ta’sir ko‘rsatmoqda. Ijobiy jihati shundaki, jahon xalqlari musiqa durdonalaridan istalgan vaqtda bahramand bo‘lish imkoniyatlari paydo bo‘ldi; salbiy ta’siri mazkur imkoniyatlardan g‘arazgo‘y kimsalar va markazlarning noto‘g‘ri foydalanib yoshlar, hatto butun bir jamiyatning ongiga yengil-yelpi ohanglar, ma’no-mazmunsiz hirgoyilar va ruhiyatga ta’sir qiladigan shovqinli musiqiy ishlanmalarni tiqishtirish ishlarini amalga oshirmoqda. Buning natijasida ko‘pchilik yoshlar ongida musiqiy did, his-tuyg‘u va madaniyat ko‘nikmalarining mo‘rt shakllanayotganligi yuzaga kelib, yoshlar guruhlarining shaxsiy manfaatlarini ustun qo‘yishdek illatlar bo‘y ko‘rsata boshladi. Demak, davlat nazariyotchisi va falsafa tizimchisi Aflotun haq: shaxs, jamiyat va davlatning

tizimli hamda zamonaviy taraqqiyoti uchun musiqa san’atidan foydalanish dasturlariga ega bo‘lishimiz lozim.

Davlatimiz rahbari ma’naviy va ma’rifiy ishlarni rivojlantirish jarayonida transformatsiyalashuv hodisasi kechayotganligiga asosiy e’tiborini qaratdi. Shu jihatdan yoshlar va jamiyatimiz hayotida musiqa san’atining transformatsiyalashuvi jarayonini to‘g‘ri tashkil etish taqozo etiladi. Buning uchun maqom san’ati cholg‘u va ashula yo‘llarining yangi ijrochilik uslublarini yaratish, baxshichilik san’atida har bir baxshichilik maktabining ijrochilik maktablari xususiyatlarini targ‘ibot qilishning ilmiy maktablarini yaratish, an’anaviy cholg‘u va ashula ijrochilik san’atida yangi individual ijro uslublari majmuilarini tarkib toptirish, estrada musiqa va qo‘shiq ijrochiligida milliy tajribani jahon estrada san’atining ijrochilik an’analari bilan boyitish bo‘yicha tizimli ilmiy-metodik tavsiyalarni ishlab chiqish taqozo etiladi. Bularning barchasi musiqa san’atini yuksak ma’naviyatning tarkibiy qismi sifatida Uchinchi Renessansni barpo etishga xizmat qildirish omillarini yuzaga keltirishda asos bo‘ladi.

Soha mutaxassisi sifatida mamlakatimiz umumiy o‘rta ta’lim maktablarida o‘qitilayotgan “Musiqa madaniyati” o‘quv fanini modernizatsiyalash lozim, degan fikrdaman. Mazkur o‘quv fanida yoshlarni milliy va jahon xalqlari musiqa san’atining noyob durdonalari bilan tanishtirish o‘z ifodasini topdi. Biroq Davlatimiz rahbarining tashabbusi bilan umumiy o‘rta ta’lim maktablari xalq cholg‘ulari, ularning nota asarlari va tegishli o‘quv adabiyotlari bilan davlat hisobidan ta’minlayotganligini hisobga olib, mazkur cholg‘ular ijrochiligi bo‘yicha uslubiy tavsiyalar, qo‘llanmalar va qo‘shimcha darsliklar hamda O‘qituvchi kitobi uchun mustaqil asarlar yuzasidan ko‘rsatmalar majmuini ishlab chiqish taqozo etiladi. Bu borada mamlakatimizda maktab o‘quvchisining loaqal ikki cholg‘uda kuy ijro eta olish ko‘nikmasini tarkib toptirish vazifasi qo‘yilgan ekan, shu cholg‘ularda ijro etish metodikasi bo‘yicha o‘quvchi tushunadigan uslubiy adabiyotlarni yaratish eng muhim vazifalardan biri emasmi?! Kuzatishlarimiz shuni ko‘rsatadiki, ijrosi qulay bo‘lgan Doyra cholg‘usi ijrochiligi asoslari va texnikasi bo‘yicha umumiy o‘rta ta’lim maktablari o‘quvchilariga mo‘ljallangan metodik tavsiyalar ishlab chiqilgan emas. Shu sababli maktablarning musiqa o‘qituvchilari har bir xalq cholg‘u ijrochiligi metodikasi bo‘yicha o‘rta maxsus va oliy pedagogik ta’lim muassasalari ta’lim oluvchilari uchun mo‘ljallangan o‘quv adabiyotlaridan foydalanib kelayotganligini biz og‘riqli masala sifatida qabul qilamiz. Demak, bo‘lajak musiqa o‘qituvchilarini tayyorlaydigan oliy pedagogik ta’lim muassasalari uchun o‘quvchilarning xalq cholg‘u ijrochiligi ko‘nikmasini shakllantirishga yo‘naltirilgan nazariy-metodik ilmiy ishlanmalarni yaratish eng muhim vazifalarimizdan biri bo‘lib qoladi. Savol tug‘iladi: bular nega kerak? Musiqa san’ati yoshlarimizning ma’naviy-ma’rifiy ko‘nikmasini yuksaltirish va ularni g‘arazgo‘y hamda ma’no-mazmunsiz ohanglarning ruhiy ta’siridan qutqaruvchi omil ekanligini

e’tirof etish lozim bo‘ladi. Shu sohaning vakili sifatida tan olishim lozimki, musiqa san’ati ma’naviyati yuksak xalqning tayanlaridan biridir. Musiqa san’atining durdona namunalaridan bahramand bo‘lgan odamning salbiy g‘oyalarini eksport qiluvchilar tuzog‘iga ilinishi mushkul ishdir. Bunda musiqa san’ati vakillarining unvonu-mavqei o‘rin tutmaydi, aksincha, ularning amaliy faoliyati vositasida yoshlar, ayniqsa, jamiyatimiz ma’naviyatimiz yuksalishidagi harakatlari natijalari baholanadi.

Rivojlangan davlatlar muhim g‘oyaviy-ma’naviy qurollarga ega ekanligini unutib bo‘lmaydi. Shunday qurollardan biri musiqa san’atidir. Ongi va dunyoqarashi shakllanmagan o‘smirning ajnabiy musiqalarni tinglashi, mazmunini tushunmaydigan xorijiy nag‘malarning oshuftasiga aylanishi va xorijlik yovuz g‘oyalarga ega san’atkor atalmish shaxslarning kiyinish hamda yurish-turish madaniyatiga taqlid qilishi oddiy qilib aytganda ma’naviy fojiadir. Shu ma’noda musiqa san’atining ongli vakillari o‘z ijodiga mahliyo bo‘lib yurmasdan, mamlakatimizning maktabgacha, maktab, o‘rta maxsus va professional hamda oliy ta’lim muassasalari, shuningdek, uyushmagan yoshlarning ma’naviyatini yuksaltirishda o‘zlarining mahorati asosida *individual* tadbirlarni amalga oshirishi vijdon ishi ekanligini eslatib o‘tish joiz. Bu borada tizimli ishlarni yo‘lga qo‘yish uchun Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universitetiga tayanch muassasa sifatida murojaat qilish mumkin, chunki bu oliy ta’lim dargohi eng avvalo yoshlarning musiqa madaniyatini jamiyatimiz ehtiyojlarigi mos ravishda tarkib toptirish vazifasini bajaradi.

Shunday qilib madaniyati yuksak xalqimiz hozirgi global murakkab sharoitda yuksak ma’naviyat va uning tarkibi bo‘lgan musiqa madaniyatiga asoslangan holda Yangi O‘zbekiston sharoitida o‘zgalarga namuna bo‘lishga qodirdir.

PEDAGOGIK MAHORATNING ÓZIGA XOS XUSUSIYATLARI HAQIDA UMUMIY TUSHUNCHA

Muxaddes Pazilbekova
Ajiniyoz nomidagi NDPI magistranti
https://doi.org/10.5281/zenodo.23178035

Annotatsiya. *Mazkur maqolada har bir o’qituvchi uchun nihoyatda zarur hisoblangan pedagogik mahorat va uning komponentlari xususida so’z yuritiladi. Maqolada pedagoglarning kasbiy mahoratlari, samarali dars o’tish usullari tasvirlangan.*
Kalit so’zlar: *mahorat, ta’lim, madaniyat, aql, bilim, texnika, qobiliyat, psixologiya, talant.*

Pedagogik mahorati - uning psixologik-pedagogik tafakkuri, o‘z xizmat faoliyatini amalga oshirish uchun zarur bo‘lgan maxsus bilimi, malakasi va ko‘nikmalari hamda hissiy-irodaviy sifatlari birligi bo‘lib, u pedagog shaxsining yuksak taraqqiy etgan g‘oyaviy, kasbiy, axloqiy, tashkilotchilik va pedagogga xos xislatlari bilan uyg‘unlikda ta’lim-tarbiya vazifalarini muvaffaqiyatli amalga oshirish imkonini beradi. Pedagogik mahorat murakkab tarkibga ega. U pedagogik faoliyat tarkibi va mazmuni bilan belgilanadi. Tarkibiy jihatdan pedagogik mahorat o‘qituvchi (metodist) mahorati va tarbiyachi mahoratiga ajratiladi. O‘qituvchi (metodist) mahorati óqituvchining pedagogik jarayonning qonuniyatlarini, xususiyatlarini, shaxsiy tarkibga ta’lim berish jarayonining maqsad va vazifalarini chuqur bilishida namoyon bo‘ladi. Pedagogik mahoratning bu elementi óqituvchining o‘z mutaxassisligini, pedagog ishni, psixologiya va pedagogika fanini, didaktika prinsiplarini va metodlarini, o‘z o‘quv fani metodikasini chuqur bilishga, boshqa fanlardan tushunchaga, keng dunyoqarashga ega bo‘lishiga asoslanadi. Bilimlarni egallash, harbiy mutaxassis uchun zarur ko‘nikma va malakalarni shakllantirish va rivojlantirish jarayonining mohiyatini chuqur bilish va tushunish mahoratli pedagogga xos xususiyatdir. Tarbiyachi-pedagog mahorati bolalar tarbiyasining qonuniyatlarini, prinsiplarini, metodlarini, maqsad va vazifalarini, asosiy yo‘nalishlarini bilishi va bu bilimlardan amalda to‘g‘ri foydalana olishi bilan ifodalanadi. Tarbiyaviy ishda pedagog ta’sir ob’ektini, pedagogik ta’sir etish vositalarini, tarbiya prinsiplarini har tomonlama va chuqur bilsagina muvaffaqiyat qozonishi mumkin. Shuning uchun óqituvchi-pedagogik mahoratning yuksak cho‘qqilariga erishmoqchi bo‘lgan óqituvchi shaxsi va pedagog jamoa psixologiyasini, bo‘ysunuvchilarning shaxsiy xususiyatlarini, ularga ta’sir ko‘rsatuvchi omillarni, shuningdek axloqiy va huquqiy normalarni, umumpedagogik nizomlar talablarini, Mudofaa vazirining buyruq va direktivalarini bilishi va amaliy faoliyatda, kundalik turmushda qo‘llay olishi lozim. O‘zining ichki tarkibi bo‘yicha tarbiyachi mahorati yuksak darajada rivojlangan oddiy va murakkab aqliy ko‘nikmalar va malakalar, psixologik pedagogik bilimlar asosida shakllangan

va rivojlangan hissiyotlar va iroda, amaliy faoliyat va odamlar bilan muloqot davomida shakllangan xislatlar, dunyoqarash birligidir. Pedagogik mahorati o‘zining mezonlariga ham ega. Ularni qisqacha sanab o‘tamiz: 1. Pedagogik faoliyatda qo‘llanilayotgan usul, vosita, shakl va metodlarining ilmasoslanganligi. 2. Pedagogik amaliyotning pedagogika, psixologiya va boshqa fanlar yangiliklari va yutuqlari bilan hamohangligi. 3. Uzoq vaqt davomida o‘zgarib turuvchi sharoitda ijobiy natijalarning barqarorligi, dolzarbligi, optimalligi va kelajakka yo‘naltirilganligi. 4. Pedagogning o‘zining va boshqalarning ilg‘or ish tajribasini umumlashtira olishi va ommalashtirishi. Pedagogik mahorat ko‘p qirrali va keng ma’noli tushuncha bo‘lib, uning shakllanishi va rivojlanishi uzoq vaqt davom etadi. Óqituvchining-pedagogik xislatlarini va professional-pedagogik mahoratini shakllantirish va rivojlantirish ichki qarama-qarshiliklarga ega hamda ko‘pgina omillarning ta’sirida kechuvchi jarayondir. Bu jarayon o‘z-o‘zidan kechmaydi, balki boshqariladigan bo‘lib, birinchi navbatda har bir óqituvchining bilimi saviyasi, dunyoqarashi, aqliy, estetik va jismoniy rivojlanishi darajasiga bog‘liqdir. Pedagogik mahoratining shakllanishi va takomillashuvi ofitser shaxsining professional, ijtimoiy, ruhiy va ma’naviy rivojlanishidagi qarama-qarshiliklarni engish orqali erishiladi. Tadqiqotlarning ko‘rsatishicha, bu qarama-qarshiliklar quyidagilardan iborat: - óqituvchining bilimlari, umumiy ma’lumotliligi va xulqiy tajribasi o‘rtasidagi qarama-qarshiliklar; - óqituvchining nimani va qanday bajarish kerakligini tushunishi va amaliy harakatlari o‘rtasidagi qarama-qarshiliklar; - turli sharoitlar va vaziyatlarda óqituvchining o‘zini tutishi bilan bog‘liq qaramaqarshiliklar; - pedagogik taktining rivojlanganligi darajasi to‘g‘risidagi ofitserning shaxsiy bahosi va boshliqlari, hamkasblarining fikri, bergan bahosi o‘rtasidagi qaramaqarshiliklar va boshqalar. Bunday qarama-qarshiliklarni hal etishning muhim sharti sifatida kasbiy shakllanish va rivojlanishning murakkab jihatlarini, ofitser uchun zarur bo‘lgan sifatlarni tarbiyalash vazifalarini hal etishga xalaqit berayotgan omillarni bartaraf etish yo‘llarini tarbiyachi va tarbiyalanuvchilar tamonidan to‘g‘ri tushunishni ko‘rsatish mumkin. Óqituvchining professional sifatlarining, pedagogik mahoratining shakllanishiga jamiyatdagi turmush tarzi, kundalik faoliyat, jamoadagi ma’naviy-ruhiy muhit va boshqa omillar ham o‘z ta’sirini ko‘rsatadi.Óqituvchining pedagogik mahoratini takomillashtirishda quyidagi tadbirlarni amalga oshirish maqsadga muvofiq: 1. Óqituvchilarni kerakli ilmiy bilimlar bilan qurollantirish. 2. Turli vositalar va metodlar yordamida óqituvchi shaxsiga maqsadli va tizimli pedagogik ta’sir ko‘rsatish. 3. Óqituvchi qismdagi xizmat va turmushni pedagogik nizomlar talablari asosida tashkil etish. 4.Óqituvchilarni ta’lim-tarbiya jarayoniga kengroq jalb etish. 5. Óqituvchining o‘z bilimlarini, umumiy madaniy saviyasini, óqituvchi-pedagogik mahoratini oshirish maqsadida o‘z ustida mustaqil ishlashini, o‘z faoliyati, xulqini nazorat qilishini tashkil etish va boshqalar.[2]

Jahon ta’limi taraqqiyoti tajribasi shundan dalolat beradiki, jamiyat taraqqiyoti shu jarayonda joriy etilgan ta’lim tizimining rivoji va takomillashuvi bilan chambarchas bog’liqdir. So’nggi o’n yillar orasida yosh avlodga ta’lim-tarbiya berish, kasbga o’rgatish, ularning aqliy va ma’naviy kamol topishlarini tashkil etishdaj iddiy o’zgarishlar sodir bo’ldi. «Ta’lim to’g’risida»gi qonun va «Kadrlar tayyorlash milliydasturi» talablaridan kelib chiqqan holda ta’limning mazmuni qayta ishlab chiqildi. Bu omil ta’lim jarayoni tarkibiy qismlarini yangicha tartib da namoyon bo’lishini taqozo etadi. Ana shu tashkiliy-pedagogik jarayondata’limqonuniyatlari va tamoyillariga mosholda yangi tamoyillarga amal qilish, ta’lim metodlarining paydo bo’lishi, ta’lim vositalarining takomillashuvi, ayniqsa, ta’limni tashkil etishda pedagogic mahoratning tarkibiy shakllari keng ko’lamda joriy etilishi kuzatilmoqda. [1]

Mazkur o’zgarishlarning bir qismi mavjud didaktik yondashuvlarning tarkibidan o’sib chiqqan bo’lsa, yana bir qismi dunyodagi ta’lim tizimi rivojlangan mamlakatlar olimlarining pedagogic tajribalariga suyangan holda paydo bo’ladi. Shu o’rinda ilg’or pedagogic mahorat fanining mamlakatimiz ta’lim sohasiga kirib kelishi alohida e’tibor qaratadigan yo’nalishlardan biri ekanligini qayd etish zarur Haqiqatdan ham, mustaqillik yillarida ta’lim sohasida o’qitishni o’qituvchining yuksak pedagogic mahorati asosida tashkil etish hozirgi jamiyat taraqqiyoti talabidan kelib chiqmoqda. O’zbekistonda ham ushbu muammoga oid izlanishlar, tadqiqotlar olib borilayotgani sir emas, biroq bujarayonning yaxlit metodikasi, tizimi haligacha ishlab chiqilgan emas. Shu sababli ham bu holatni tuzatish uchun jiddiy e’tibor qaratish zarurligi dolzarb pedagogic muammo sifatida e’tirof etilmoqda.

Ta’limga bo‘lgan munosabat, e’tiborgina mamlakatni yuksaltiradi, fuqarolarning farovon hayoti va yorqin kelajagi uchun xizmat qiladi. Bu inkor etib bo‘lmas haqiqatni insoniyat o‘tgan ming yilliklar davomida shohidi bo‘lib kelmoqda. Umumiy va sohaviy bilimlarga bo‘lgan ehtiyoj, ta’lim haqidagi pedagogik g‘oyalar jamiyat taraqqiyotining turli bosqichlarida turlicha ahamiyat kasb etib, o‘zgarib kelgan. Jamiyatning asosiy negizi bo‘lgan ta’lim va tarbiya jarayonida insonning sifatlari, dunyoqarashi va turli xil qobiliyatlari shakllanib, o‘sib boradi.Uzluksiz ta’lim tizimini ta’minlash jarayonida yosh avlodni o‘qitish va tarbiyalash borasida gap borar ekan, ushbu g‘oyat murakkab va ko‘p qirrali vazifani faqat yuksak malaka va pedagogik mahoratga ega bo‘lgan o‘qituvchilar bilangina amalga oshirish mumkinligini ta’kidlash joiz. Shundan kelib chiqib ham keyingi yillarda Prezidentimizning bu sohaga qaratayotgan e’tiborlari, ta’lim sohasida ilg‘or yutuq va tajribaga ega bo‘lgan rivojlangan xorijiy davlatlarning tajribalari chuqur tahlil qilgan holda o‘rganilib milliy ta’lim tizimimizga tadbiq qilinayotganligi, qisqasi, amalga oshirilayotgan keng ko‘lamli islohotlar barchasi yuqorida bildirilgan fikrlarning mantiqiy isbotidir. Sir emaski, avvalgi yillarda Sobıq Ittifoqdan meros bo‘lib qolgan an’anaviy o‘qitish uslubiyotidan foydalanib kelindi. Ta’limning

shaxsga yo‘naltirilgan texnologiyasi an’anaviy ta’lim texnologiyalaridan quyidagilarga ko‘ra farq qiladi: mashg‘ulotning asosiy maqsadi – tafakkur jarayonini tashkil etishdir, bilim, ko‘nikma, malakalar o‘quvchi faoliyatining mahsuli sifatida vujudga keladi. Tafakkur jarayonining quvvati bilimlar quvvatidan yuqori turib, u shaxsning o‘z-o‘zini rivojlantirish unsuri tarzida namoyon bo‘ladi, ijodiy izlanishning natijasi kabi mazkur jarayonning o‘zi ham o‘ta muhim bo‘lib, aynan u o‘quvchi va o‘qituvchining ijodkorlik quvonchiga, yangilik yaratishga ilhomlantiradi, mustaqil izlanish va ijodiy faoliyatni tashkil etishga undaydi. [3]

Pedagogik mahorat o‘qituvchilarga pedagogik ijodkorlik, kreativlik, kommunikativlik, pedagogik texnika, ta’lim-tarbiya jarayonida o‘qituvchi va o‘quvchilarning o‘zaro hamkorligi, muloqot olib borish taktikasi, nutq madaniyati, tafakkuri, pedagogning ma’naviy-ma’rifiy va tarbiyaviy ishlarini tashkil etish va olib borish, qolaversa, bu jarayonda o‘zini tuta olish xususiyatlarini o‘rgatadi hamda kasbini takomillashtirib boruvchi pedagogik faoliyatlar tizimi to‘g‘risida ma’lumotlar beradi. Tabiiyki, pedagogik mahorat o‘qituvchining pedagogik faoliyati davomida takomillashib, sayqallanib boradi.

Pedagogning kasbiy kompetentligini rivojlantirish masalalarida so‘z yuritganda, ushbu sohada izlanishlar olib borayotgan mutaxassislarimizning fikrlariga e’tibor qaratish o‘rinlidir. “ Kasbiy (shu jumladan, pedagogik) kompetentlikka ega bo‘lishda o‘z ustida ishlash va o‘z-o‘zini rivojlantirish muhim ahamiyatga ega. O‘z-o‘zini rivojlantirish vazifalari o‘zini o‘zi tahlil qilish va o‘zini o‘zi baholash orqali aniqlanadi. Pedagogning o‘z ustida ishlashi bir necha bosqichda kechadi, ya’ni, - o‘z faoliyatini tahlil qilish asosida yutuq va kamchiliklarini aniqlash; yutuqlarini boyitish va kamchiliklarni bartaraf etish yuzasidan aniq qarorga kelish; ushbu qaror bo‘yicha amaliy harakatlarni samarali tashkil etish yo‘llarini izlash; - xato va kamchiliklarni takrorlamaslikka intilish; qabul qilingan qarorning izchil bajarilishini doimiy nazorat qilib borish. So‘zimiz yakunida, o‘qituvchining pedagog mahorati pedagogik jarayonni samarali, muvaffaqiyatli tashkil etilishini ta’minlashi va shundan kelib chiiqib, pedagog o‘z-o‘zini izchil rivojlantirib borishga muntazam e’tibor qaratishi shart deb hisoblaymiz.

FOYDALANGAN ADABIYOTLAR

1.O‘zbekiston Respublikasining ‘Ta’lim tosg'risida”gi qonuni. //Barkamol avlod - 0‘zbekiston taraqqiyotining poydevori. -T.: Sharq, 1997, 20-29 betlar
2.Azizxo'jayeva N.N. Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat -ishkent, TDPU, 2003,-174 b.
3.Begimqulov U.Sh. Pedagogik ta’lim jarayonlarini axborotlashtirishni ihkil etish va boshqarish nazariyasi va amaliyoti. //Ped. fanlari dokt. ilmiy r. uchun diss. -T.: 2007.-305 b.
4.Бизяева А.А. Рефлексивные процессы в сознании и деятельности ителя //Дисс. канд. психол. наук.-С.-Пб.,-1993.-190 с.
5.БиковА.К. Теория и практика развития педагогического мастерва преподавателей высшей военной школы //Д69. Sultonova G.A. Pedagogik mahorat. -T.: Nizomiy nomidagi TDPU 2005 -149 b.

6.Suxomlinskiy V.D. Bolalarga jonim fido. -T.: O'qituvchi, 1984. -254 b.
7.Tarbiyaviy ish metodikasi. //Pedagogika institutlari uchun o'qn\qo'llanma (L. I. Ruvinskiy tahriri ostida). -T.: O'qituvchi, 1991. -376 b.

TEMURIYLAR SALTANATIDA TA’LIM-TARBIYA MASALALARI

Qabulov Sahob Abduqahharovich
T.N.Qori Niyoziy nomidagi Tarbiya pedagogikasi
milliy instituti mustaqil tadqiqotchisi
sahobbekqobulov19871006@gmail.com
https://doi.org/10.5281/zenodo.23178040

Annotatsiya: *Ushbu maqolada XIV–XVI asrlarda Markaziy Osiyoda yuz bergan Temuriylar renessansi davridagi ta’lim va tarbiya tizimining o‘ziga xos xususiyatlari, davlat siyosati hamda madaniy-ilmiy yuksalish omillari tahlil qilinadi. Maqolada "Kuchli davlat — bilimli fuqaro" tamoyili asosida amalga oshirilgan islohotlar, uch bosqichli ta’lim tizimi, diniy va dunyoviy ilmlarning uyg‘unligi hamda "komil inson"ni tarbiyalash jarayonlari yoritib berilgan. Shuningdek, Mirzo Ulug‘bek, Alisher Navoiy, Kamoliddin Behzod va Zahiriddin Muhammad Bobur kabi mutafakkirlarning jahon ilm-fani va madaniyatiga qo‘shgan ulkan hissasi, Samarqand va Hirot ilmiy maktablarining xalqaro ta’siri asoslab berilgan.*
Kalit so‘zlar: *Temuriylar renessansi, ta’lim-tarbiya, Mirzo Ulug‘bek, Alisher Navoiy, madrasa, dunyoviy ilmlar, komil inson, vaqf tizimi, Kamoliddin Behzod.*

"Temuriylar renessansi shunchaki o‘tmishdagi madaniy portlash emas, balki davlatning barqaror rivojlanishi bevosita inson kapitaliga — ta’lim, bilim va ma’naviyatga kiritilgan sarmoyaga bog‘liq ekanligining amaliy isbotidir. Bugungi Uchinchi Renessans poydevorida ushbu tarixiy tajriba asosiy Mayoq vazifasini o‘taydi." Insoniyat tarixida shunday davrlar bo‘ladiki, ular nafaqat bir millat, balki butun jahon sivilizatsiyasi rivojiga kuchli ta’sir qiladi. XIV asrning ikkinchi yarmi va XV asrda Markaziy Osiyoda vujudga kelgan Temuriylar renessansi aynan shunday davrlardan biridir. Amir Temur asos solgan qudratli saltanat nafaqat siyosiy va harbiy kuch, balki ilm-fan, madaniyat va ma’naviyat markaziga aylandi. Bu davrni tarixchilar haqli ravishda "Sharq uyg‘onish davri" deb atashadi. Bu davrda davlat boshqaruvi, ilm-fan, me’morchilik va san’at misli ko‘rilmagan darajada yuksaldi. Amir Temur va uning avlodlari (ayniqsa Mirzo Ulug‘bek) ilm ahliga katta ehtirom ko‘rsatishgan. Samarqand va Hirot o‘sha davrning jahonshumul ilmiy markazlariga aylandi. XIV-XVI asrlarda Markaziy Osiyo ta’lim-tarbiya tizimi o‘zining universal xarakteri — diniy bag‘rikenglik va dunyoviy ilmga bo‘lgan ochiqligi bilan yondosh o‘lkalarning madaniy yuksalishiga poydevor bo‘ldi.

Ta’lim va tarbiya davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishiga aylandi. Temuriylar renessansi deb ataluvchi ushbu davrning asosiy g‘oyasi — ilm bilan qurollangan, odob-axloqli va jismonan baquvvat "komil inson"ni tarbiyalashdan iborat edi. Ta’lim-tarbiya tizimi shaxsni ham ruhan, ham intellektual jihatdan rivojlantirishga qaratilgan bo‘lib, u bugungi kun pedagogikasi uchun ham boy me’ros hisoblanadi. Markaziy Osiyo nafaqat mintaqaviy, balki jahon miqyosidagi intellektual va ma’rifiy markazga aylandi. Temuriylar davrida ta’lim-tarbiya masalalarining yechimi "Kuchli davlat — bilimli fuqaro" g‘oyasiga tayangan. Davlat nafaqat bino

qurishga, balki o‘sha bino ichida o‘tiradigan olimlarning moddiy va ma’naviy erkinligiga ham sarmoya kiritgan. XIV-XV asrlar va XVI asrning birinchi yarmi Markaziy Osiyo tarixida "Temuriylar Renessansi" nomi bilan mashhur bo‘lib, bu davrda ta’lim va tarbiya tizimi o‘zining yuqori cho‘qqisiga ko‘tarildi. Ushbu davr pedagogikasi ham diniy, ham dunyoviy bilimlarning uyg‘unligiga asoslangan edi. "Odob — ilmning boshi" degan tamoyil asosida tarbiya ta’limdan ajratilmagan. Shahzodalar va aslzodalar farzandlari uchun maxsus otaliqlar tayinlangan. Otaliqlar bolaga nafaqat harbiy san’atni, balki davlat boshqaruvi, adolatli bo‘lish va xalq bilan muloqot qilish madaniyatini o‘rgatishgan. Jamiyatda "yigitlik" va "mardlik" tarbiyasi keng yoyilgan. Bu yo‘nalishda: Kattaga hurmat, kichikka izzat, vatanga sadoqat va jasorat, halollik va saxovat kabi xislatlar ulug‘langan. Rasmiy ta’limdan tashqari, "Usta-shogird" tizimi juda kuchli rivojlangan edi. Hunarmandchilik markazlarida yoshlar xattotlik, naqqoshlik, me’morchilik va zargarlik sirlarini bevosita amaliyotda o‘rganishgan.

Kuchli armiya bo‘lgani sababli, yoshlarni jismonan chiniqtirishga alohida e’tibor berilgan. Ot chopish va Chovgon**:** Ot ustida mahorat ko‘rsatish yoshlar orasida keng tarqalgan o‘yin bo‘lgan. Kamondan otish: Bu mahorat nafaqat harbiy ehtiyoj, balki iroda va diqqatni jamlash tarbiyasi ham edi. Kurash: Milliy kurash turlari yoshlarni mard va baquvvat qilib tarbiyalashning asosi bo‘lgan.

Temuriylar sulolasining ayollari (Saroymulkxonim, Gavharshod begim va boshqalar) yuksak bilimga ega bo‘lishgan. Ular nafaqat o‘zlari bilim olgan, balki maktab va madrasalar qurdirib, ilm ahliga homiylik qilishgan. Bu esa jamiyatda ayollarning o‘rni va ularning bilimli bo‘lishi jamiyat taraqqiyotida muhim ekanini ko‘rsatadi. O‘sha davrda ijtimoiy kelib chiqishidan qat’i nazar, iqtidorli yoshlarga e’tibor qaratilgan. Kam ta’minlangan oilalardan chiqqan iqtidorli yoshlar uchun madrasalar qoshida talabalar uchun maxsus yotoqxonalar (hujralar) tashkil etilib, ular bepul ovqat va kiyim-kechak bilan ta’minlangan. Alisher Navoiy kabi homiylar o‘z mablag‘lari hisobidan yuzlab talabalarga stipendiyalar tayinlaganlar.

Amir Temur hokimiyatga kelgan ilk yillarda tarqoqlik va urushlar sababli ta’lim tizimi inqirozga yuz tutgan edi. Buning sababi, savodxonlikning pastligi va mutaxassis kadrlar yetishmovchiligi edi. Mamlakada "uch bosqichli" ta’lim tizimi qat’iy yo‘lga qo‘yildi:

1. Har bir qishloq va mahallada maktabxona tashkil etildi.
2. Davlat mablag‘lari (vaqf mulklari) hisobidan yirik madrasalar qurildi (masalan, Samarqanddagi Bibixonim madrasasi).
3. Mirzo Ulug‘bek davrida madrasalar universitet darajasiga ko‘tarilib, u yerda dunyoviy fanlar chuqurlashtirildi (akademik markaz).

Samarqand rasadxonasi va madrasasida bir vaqtning o‘zida 100 dan ortiq yetakchi olimlar va 500 dan ziyod talabalar faoliyat yuritgan. Ulug‘bekning *"Ziji Kuragani"* jadvalida 1018 ta yulduzning joylashuvi va harakati aniq belgilab

berilgan va bu jadval Yevropada XVII asrgacha asosiy manba bo‘lib xizmat qilgan. Mirzo Ulug‘bek Samarqand madrasasida har bir talabaga bilim darajasi va o‘zlashtirishiga qarab oyiga 20 dan 100 dirhamgacha "vazifa" (stipendiya) ajratgan. Bu o‘sha davr uchun talabaning nafaqat yeb-ichishi, balki kitob xarid qilishi uchun ham yetarli mablag‘ bo‘lgan. Boysunqur Mirzo Hirotda tashkil etgan kutubxona-ustaxonada (*Kitobxona*) 40 dan ortiq mohir xattot, miniatyurachi va muqovasoz uzluksiz mehnat qilgan. U yerda saqlangan nodir qo‘lyozmalar soni 10 000 dan oshgan.

Temuriylar davrida ta’lim tizimi ikki bosqichli bo‘lib, u masjidlar va madrasalar qoshida tashkil etilgan.

1. Boshlang‘ich ta’lim: Maktablar, bolalar 5–7 yoshidan maktabga berilgan. Bu yerda asosiy e’tibor, savodxonlik (alifbo, yozish va o‘qish qoidalari), diniy bilimlar (qur’on suralarini yod olish va diniy arkonlarni o‘rganish), adabiyot (turkiy va forsiy tildagi pandnoma asarlarni (masalan, "Guliston" va "Bo‘ston")) mutolaa qilisga qaratilgan:

2. Oliy ta’lim: Madrasalar (madrasalar o‘sha davrning universitetlari hisoblangan. Ulug‘bek madrasasi kabi yirik muassasalarda ta’lim jarayoni juda murakkab va tizimli bo‘lgan), mudarrislar (madrasalarda dars beruvchi olimlar davlat tomonidan yuqori maosh bilan ta’minlangan). Madrasalarga qabul qilishda unvon yoki boylik emas, faqat va faqat shaxsiy ziyo va iqtidor bosh mezon bo‘lgan. Qishloqlardan kelgan kambag‘al, lekin zehni o‘tkir yoshlar davlat vaqf mablag‘lari hisobidan eng yuqori martabalarga erisha olgan. Madrasalarda diniy ilmlar (tafsir, hadis, fiqh) bilan bir qatorda dunyoviy ilmlar (matematika, geometriya, astronomiya, tibbiyot, tarix va geografiya) chuqur o‘rgatilgan. Mirzo Ulug‘bek ta’limni diniy qoliplardan chiqarib, dunyoviy ilmlar bilan boyitgan hukmdordir. Uning Samarqand, Buxoro va G‘ijduvonda qurdirgan madrasalari ilm-fan markaziga aylandi. Ulug‘bek akademiyasida dars bergan Qozizoda Rumiy va G‘iyosiddin Jamshid al-Koshiy kabi olimlar talabalarda mustaqil va tanqidiy fikrlashni shakllantirishgan. Ulug‘bek madrasalari: Samarqand, Buxoro va G‘ijduvonda barpo etilgan madrasalar o‘sha davrning eng nufuzli oliy o‘quv yurtlari edi. "Sarf" va "Nahv" (grammatika), "Mantiq", "Fiqh" bilan birga Riyoziyot (Matematika), Handasa (Geometriya), Hay’at (Astronomiya) va Tibbiyot fanlari chuqur o‘qitilgan. Ta'lim tizimida o‘ziga xos "Vaqfnomalar" tizimi ishlagan. Madrasalar va talabalar davlat va xayriya mablag‘lari hisobidan bepul ta'lim, turar joy va oylik stipendiya (vazifa) bilan ta'minlangan. Bu esa iqtidorli yoshlarning ijtimoiy kelib chiqishidan qat'i nazar ilm olishiga imkon bergan.

Ta'lim tizimi amaliy fanlar bilan chambarchas bog‘landi, bu esa yirik ilmiy maktablarning paydo bo‘lishiga olib keldi. Mirzo Ulug‘bek tomonian asos solingan Samarqand Astronomiya maktabida 100 dan ortiq olimlar (Qozizoda Rumiy, G‘iyosiddin Jamshid Koshiy, Ali Qushchi) to‘planib, aniq fanlar rivojiga ulkan hissa

qo‘shdilar. Ularning astronomik jadvallari bir necha asr davomida dunyoda tengsiz bo‘lib qoldi. Shogirdi Ali Qushchi Istanbulga borib, u yerda matematik va astronomik tadqiqotlarni boshlab berdi. Uning sa’y-harakati bilan Sulton Muhammad Fotih madrasalarida aniq fanlar o‘qitilishi yo‘lga qo‘yildi. Alisher Navoiy homiyligida san’at, adabiyot va tilshunoslik maktabi shakllandi. Bu yerda ta'lim va tarbiya insonparvarlik (humanizm) g‘oyalari bilan sug‘orildi. Kamoliddin Behzod asos solgan miniatura maktabi Sharq tasviriy san’atining "oltin standarti"ga aylandi. Naqshbandiya tariqatining ta’limotlari (Markaziy Osiyoda shakllangan) yondosh hududlardagi yoshlarning ma’naviy-axloqiy tarbiyasida asosiy o‘rin egalladi.

Buxoro, Samarqand va Hirot islom olamining eng yirik ta’lim markazlariga aylandi. Mintaqa madrasalarida ishlab chiqilgan darsliklar (masalan, Mas’ud Taftazoniy, Sayyid Sharif Jurjoniy asarlari) asrlar davomida Hindiston, Turkiya va Tatariston madrasalarida asosiy darslik sifatida o‘qitildi. Xuroson, Eron, Ozarbayjan va Hindistondan minglab talabalar Markaziy Osiyo madrasalariga ilm izlab kelishgan, bu esa bilimlarning diffuziya (tarqalish) jarayonini tezlashtirgan.

Bu davrda turkiy (o‘zbek) tili va adabiyoti o‘zining cho‘qqisiga chiqdi. O‘zbek adabiy tilining asoschisi, Alisher Navoiy "Xamsa" asari bilan turkiy tilning qudratini dunyoga isbotlab, Ozarbayjan, Turkiya va Volga bo‘yi turkiy xalqlari adabiyotiga bevosita ta’sir qildi. U nafaqat shoir, balki san’at va ilm ahlini homiylik qilgan davlat arbobi edi. Zahiriddin Muhammad Boburning "Boburnoma" asari nafaqat tarixiy manba, balki tarixiy xronika, jug‘rofiya, botanika va etnografiya bo‘yicha qomusiy manbasifatida jahon memuar adabiyotining durdonasi sifatida Hindiston va Afg‘onistonda yangi adabiy an’analarni boshlab berdi. Bu davrda Abdurahmon Jomiy kabi buyuk mutafakkirlar ijod qildi. Sharafuddin Ali Yazdiy ("Zafarnoma"), Hafizi Abru kabi tarixchilar davrning xolis va batafsil manzarasini yaratdilar. Matematika sohasida G‘iyosiddin Jamshid al-Koshiy o‘nli kasrlarni birinchi bo‘lib qo‘llagan va π (pi) sonining qiymatini o‘ta aniqlikda hisoblab chiqqan. Ulug‘bekning shogirdi Ali Qushchi Samarqanddan Istanbulga borib, u yerda matematika va astronomiya maktabini yaratdi. Bu Usmonli turk fanining rivojlanishiga asos bo‘ldi.

Temuriylar saroyida rassomlik san’ati, xususan, Xat va Miniatyura maktabi rivojlandi. "Sharq Rafaeli" deb atalgan buyuk miniatyurachi rassom Kamoliddin Behzod asarlari ranglar jilosi va detallarning aniqligi bilan mashhurdir. Kitoblarni nafis bezash, oltin suvi yuritish va turli xat uslublarini (nasta’liq, suls) yuksak darajaga yetkazdi. Uning asarlarida inson psixologiyasi, tabiat manzaralari va kundalik hayot o‘ta nozik did bilan tasvirlangan. Behzodning uslubi Safaviylar (Eron) va Boburiylar (Hindiston) miniatura maktablarining shakllanishida asosiy poydevor bo‘ldi. Ranglardan foydalanish va kompozitsiya qurish mahorati butun

Yaqin Sharq rassomligi rivojiga turtki berdi. Sulton Ali Mashhadiy kabi xattotlar qo‘lida har bir kitob san’at asariga aylandi.

Ta'lim yutuqlarining asosi sifatida kitobga bo‘lgan e'tibor juda yuqori edi. Temuriy shahzodalar (masalan, Boysunqur Mirzo) o‘z davrining eng boy kutubxonalariga ega bo‘lishgan. Bu yerda hattotlik, miniatyura va muqovasozlik san’ati yuksak darajada o‘rgatilgan. Ta'limda xusni-xatga (kalligrafiya) alohida e'tibor berilgan. Nasta’liq xatining takomillashishi bu davr ta'lim madaniyatining yutug‘idir. Samarqand qog‘ozi (Ipak qog‘ozi) butun dunyoda mashhur bo‘lib, kitobat va ta’limning texnik bazasini yaxshilashga xizmat qilgan.

XULOSA

XIV-XVI asrlar Markaziy Osiyo ta'lim tizimi ilm va amaliyotning uyg‘unligi, davlatning ilm-fanga homiyligi hamda yuksak axloqiy mezonlar bilan xarakterlanadi. Temuriylar davridagi madaniy yuksalish shunchaki hududiy kengayish emas, balki ma’rifatli davlat qurish g‘oyasining natijasi edi.

Temur va Temuriylar davri Markaziy Osiyo xalqlari ma’naviy taraqqiyotining oltin davridir. Bu davrda yaratilgan ilmiy kashfiyotlar va madaniy yodgorliklar insoniyatning umumiy mulkiga aylandi. Ulug‘bekning astronomik jadvallari, Navoiyning g‘azallari, Behzodning tasvirlari va Samarqandning moviy gumbazlari hamon butun dunyo ahlini hayratga solib kelmoqda.

Ushbu me’rosni o‘rganish va asrab-avaylash bugungi avlodning muqaddas burchidir. Zero, buyuk o‘tmishsiz buyuk kelajakni qurib bo‘lmaydi. Temuriylar davridagi ta’lim va tarbiya tizimi o‘z davri uchun eng ilg‘or va mukammal tizim edi. Unda diniy va dunyoviy bilimlar uyg‘unligi, ahloqiy poklik va jismoniy yetuklik birlamchi vazifa qilib belgilangan. Bu tizim orqali yetishib chiqqan buyuk siymolar — Ulug‘bek, Navoiy, Bobur, Behzodlar jahon madaniyati xazinasini boyitdilar. Ali Qushchining Istanbulga ko‘chishi Usmonli imperiyasida aniq fanlar inqilobiga sabab bo‘ldi. Uning asarlari keyinchalik Yevropaga tarqalib, Nikolay Kopernik kabi olimlarning geliosentrik nazariyasiga zamin yaratgani haqida manbalarda qayd etilgan. Shahzodalar tarbiyasida chet tillarini o‘rganishga (turkiy, forsiy, arab, xitoy va mo‘g‘ul tillari) alohida e’tibor berilgan. Bu ularga nafaqat harbiy, balki xalqaro diplomatiya maydonida ustunlik bergan.

Bugungi kunda O‘zbekistonda uchinchi Renessans poydevori qurilayotgan bir vaqtda, Temuriylar davri ta’lim-tarbiya tajribasi biz uchun bebaho manba bo‘lib xizmat qiladi. Bu davr yutuqlari bugungi kunda ham ko‘plab mamlakatlar madaniy merosining ajralmas qismi hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Amir Temur. "Temur tuzuklari".
2. V. V. Bartold. "Ulugbek i ego vremya".
3. I. Mo‘minov. "Amir Temurning O‘rta Osiyo tarixida tutgan o‘rni va roli".
4. Alisher Navoiy asarlari to‘plami.

5. H. Fayziyev. "Temuriylar shajarasi".
6. S. Nishonova. "Sharq uyg‘onish davri pedagogik fikr taraqqiyoti".
7. B. Ahmedov. "Amir Temur va Ulug‘bek zamondoshlari xotirasida".
8. T.Hayit. “Amir Temur haqida hikoyalar”.
9. L.Keren “Amir Temur saltanati”.
10. Bobur, Zahiriddin Muhammad. Boburnoma. – Toshkent: Sharq, 2002. – 336 b.
11. Navoiy, Alisher. Mahbub ul-qulub (Mukammal asarlar to‘plami. 14-jild). – Toshkent: Fan, 1998. – 304 b.
12. Yazdiy, Sharafuddin Ali. Zafarnoma (Nashrga tayyorlovchi: A. Ahmedov). – Toshkent: Sharq, 1997. – 384 b.
13. Ulug‘bek, Mirzo. Ziji jadidi Kuragani (Katalog zvyozd). – Tashkent: Fan, 1994.
14. Ametov, O., & Botirova, Sh. Markaziy Osiyoda pedagogik fikrlar taraqqiyoti va Temuriylar davri ta’lim tizimi. – Toshkent: O‘zbekiston, 2018. – 210 b.
15. Boritosh, B. Temuriylar davri madaniyati va san’ati. – Toshkent: San’at, 2012. – 180 b.
16. Sultonov, X. *Amir Temur va Temuriylar davrida ma’rifat va ta’lim-tarbiya.* – Toshkent: Ma’naviyat, 2007. – 160 b.
17. Zahidov, P. Sh. *Me’mor olami va Temuriylar renessansi.* – Toshkent: Qomuslar bosh tahririyati, 1996. – 192 b.
18. Xashimov, K., & Nishonova, S. *Pedagogika tarixi (O‘quv qo‘llanma).* – Toshkent: Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti, 2005. – 320 b.
19. Zunnunov, A. *Pedagogika tarixi (Darslik).* – Toshkent: Sharq, 2004. – 336 b.

PROFESSIONAL SPORT TA'LIMI TIZIMIDA JAMOAVIY VA YAKKAKURASH SPORTCHILARINI MILLIY VA UMUMINSONIY QADRIYATLAR RUHIDA TARBIYALASHDA MOTIVATSIYANING IJTIMOIY-PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI

Qaimova Gulmira Uchqun qizi
O‘zbekiston Davlat sport akademiyasi huzuridagi Jismoniy tarbiya va sport bo‘yicha mutaxassislarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti 1-kurs doktoranti
https://doi.org/10.5281/zenodo.23178060

Annotatsiya. *Ushbu maqolada jamoaviy va yakkakurash sport turlari bilan shug‘ullanuvchi professional sportchilarni faoliyatga undovchi ichki turtkilar o‘rtasidagi farqlar ijtimoiy-psixologik nuqtai nazardan, milliy tarbiya jarayonlari bilan bog‘liq holda ko‘rib chiqiladi. Muallif sport turiga qarab motivatsiyaning qanday shakllanishini, yosh va tajribaning bunga ta'sirini, shuningdek murabbiyning tarbiyaviy rolini tahlil qiladi va olingan xulosalar asosida sport klublarida tarbiyaviy ishni takomillashtirish yo‘llarini taklif etadi.*
Kalit so‘zlar: *motivatsiya, sport psixologiyasi, milliy tarbiya, jamoaviy sport, yakkakurash sport, ijtimoiy-psixologik xususiyatlar, vatanparvarlik tarbiyasi, ichki va tashqi motivatsiya.*
Аннотация. *В статье рассматриваются различия во внутренних побуждениях, движущих профессиональными спортсменами командных и индивидуальных видов спорта, с социально-психологической точки зрения и в увязке с процессами национального воспитания. Автор анализирует, как формируется мотивация в зависимости от вида спорта, влияние возраста и опыта, а также воспитательную роль тренера, и на этой основе предлагает пути совершенствования воспитательной работы в спортивных клубах.*
Ключевые слова: *мотивация, спортивная психология, национальное воспитание, командные виды спорта, индивидуальные виды спорта, социально-психологические особенности, патриотическое воспитание.*
Abstract. *This article examines, from a socio-psychological perspective and in connection with national upbringing processes, how the inner drives of professional athletes differ between team and individual sports. The author analyzes how motivation is shaped depending on the type of sport, the influence of age and experience, and the coach's educational role, and on this basis proposes ways to improve upbringing work in sports clubs.*
Keywords: *motivation, sports psychology, national upbringing, team sports, individual sports, socio-psychological features, patriotic education.*

Kirish. Sportchi mashg‘ulot maydonida qancha kuch sarflashini, qiyinchilik oldida chekinmasligini yoki, aksincha, tezda so‘nishini ko‘p hollarda uning texnik tayyorgarligi emas, balki ichki turtki — nima uchun bu ishni qilayotgani haqidagi tasavvuri belgilaydi. Professional sportda bir xil jismoniy salohiyatga ega ikki sportchining natijalari keskin farq qilishi mumkin, va bunday hollarda ko‘pincha sabab ularning motivatsion dunyoqarashidagi tafovutda yotadi.

Bugungi kunda O‘zbekistonda yosh avlodni vatanparvarlik va jamoaviy mas'uliyat tuyg‘usi bilan yetuk qilib voyaga yetkazish davlat tarbiya siyosatining tarkibiy qismiga aylandi. Sport ta'limi muassasalari — jamoaviy klublar bo‘ladimi

yoki individual mashg‘ulot markazlari — aynan shu vazifani amalga oshiruvchi bo‘g‘inlardan biridir. Biroq amaliyotda ko‘pincha sport murabbiylari faqat texnik-taktik tayyorgarlikka e'tibor qaratib, sportchining ichki turtkilarini shakllantirish jarayonini nazardan chetda qoldiradilar.

Mazkur ishning markaziy savoli quyidagicha: jamoada o‘ynaydigan sportchi bilan yakka tartibda kurashuvchi sportchining nimalar uni faoliyatga undashi bir-biridan qay darajada farq qiladi, va bu farqni bilish tarbiyaviy ishni qanday o‘zgartirishi mumkin? Javob izlash uchun quyidagi vazifalar belgilandi: mavjud motivatsiya nazariyalarini tanqidiy tahlil qilish; jamoaviy va yakkakurash sportchilarning motivatsion profilini taqqoslash; trener shaxsining bu jarayondagi o‘rnini aniqlash; sport tashkilotlarida tarbiyaviy ishni yaxshilash bo‘yicha aniq takliflar shakllantirish.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Motivatsiya tushunchasining ilmiy talqini XX asr o‘rtalaridan boshlab psixologiyaning markaziy mavzularidan biriga aylandi. A.N. Leontyev [1] motivatsiyani faoliyatning predmeti bilan bog‘lab, shaxs nimaga intilayotgani uning nima uchun harakat qilayotganini belgilaydi, degan qarashni ilgari surgan edi. X. Xekxauzen [2] esa motivatsiyani statik holat emas, balki vaziyat va shaxs xususiyatlarining o‘zaro ta'siri natijasida yuzaga keladigan jarayon sifatida ko‘rsatib bergan. D. MakKlelland [3] o‘zining yutuqqa erishish nazariyasida odamlarni ikki turga — muvaffaqiyatga intiluvchi va muvaffaqiyatsizlikdan qochuvchilarga — ajratib, bu tasnifni sport sohasiga ham tatbiq etish mumkinligini ko‘rsatgan.

O‘zbek olimlaridan O.E. Hayitov shaxsning ehtiyojlari, qiziqishlari va emotsional kechinmalari uning umumiy hayotiy yo‘nalishini shakllantirishini yozadi, bu qarash sportchi faoliyatini tushunish uchun ham qo‘l keladi [4]. J.M. Ishtayev esa amaliy tomondan yondashib, sportchilarning motivatsion holatini o‘lchash uchun maxsus metodika ishlab chiqqan — bu murabbiylarga mashg‘ulotni har bir sportchining psixologik xususiyatiga moslab qurish imkonini beradi [5].

Trener bilan sportchi o‘rtasidagi muloqot sifati motivatsiyaga qanday ta'sir qilishi A.A. Usmanova tomonidan alohida o‘rganilgan [6]. Uning xulosalari g‘arb psixologlari

E. Deci va R. Ryan tomonidan taklif etilgan o‘z-o‘zini belgilash nazariyasi (Self-Determination Theory) [7] bilan bir yo‘nalishda kesishadi: bu nazariyaga ko‘ra, inson uchta ehtiyoj — mustaqillik, layoqatlilik va boshqalar bilan aloqadorlik — qondirilganda faoliyatga chinakam, ya'ni ichkaridan kelib chiquvchi qiziqish bilan yondashadi. Jamoaviy sport sharoitida aynan aloqadorlik ehtiyoji ko‘proq ta'minlanadi, yakkakurashda esa sportchi o‘z mustaqilligi va mahoratini his qilish orqali kuchli motivatsiya oladi.

S.A. Kuznetsov o‘tkazgan qiyosiy tahlilda individual sport turlari bilan shug‘ullanuvchilar ko‘proq o‘z-o‘zini takomillashtirishga qaratilgan ichki

maqsadlarga tayanishi qayd etilgan [8]. O.A. Svilina esa yosh omilini o‘rganib, kichik yoshdagi sportchilarda o‘yin-qiziqish asosidagi ichki motivatsiya ustunlik qilsa, o‘smirlik davrida tengdoshlar oldida obro‘ (ego-motivatsiya) muhim rol o‘ynay boshlashini, professional bosqichda esa moddiy rag‘batlantirish kuchayishini aniqladi [9]. Bu topilma motivatsiyani bir marta shakllanadigan xususiyat emas, balki sportchi hayoti davomida o‘zgarib boruvchi dinamik tuzilma sifatida qarash zarurligini ko‘rsatadi.

Keltirilgan manbalarni umumlashtirsak, ikkita metodologik xulosaga kelish mumkin. Birinchidan, Leontyevning faoliyat nazariyasiga tayanib aytish mumkinki, jamoaviy va yakkakurash sportining "predmeti" — ya'ni sportchi nimaga erishmoqchi bo‘lgani — tubdan farqlanadi, demak, ularning motivatsion asosi ham obyektiv ravishda boshqacha bo‘lishi kerak. Ikkinchidan, milliy tarbiya nuqtai nazaridan qaraganda, sportchining motivatsiyasi faqat uning shaxsiy xususiyati emas, balki atrofidagi tarbiyaviy muhit — oila, jamoa, murabbiy — tomonidan shakllantiriladigan natija hamdir. Vatanparvarlik va jamoaviy mas'uliyat kabi qadriyatlar sportchining ichki dunyosiga singib ketganda, uning faoliyatdagi barqarorligi ortadi, bu esa murabbiylik faoliyatini nafaqat texnik, balki tarbiyaviy jarayon sifatida ham qarashni taqozo etadi.

Tadqiqot metodologiyasi. Ishning nazariy poydevori sifatida faoliyat yondashuvi olindi, unga ko‘ra shaxsning psixologik xususiyatlari uning amaliy faoliyati bilan uzviy birlikda o‘rganiladi. Ma’lumot to‘plash va tahlil qilish jarayonida quyidagi usullardan foydalanildi: mavzuga oid ilmiy manbalarni nazariy tahlil qilish; jamoaviy va yakkakurash sport turlarini o‘zaro qiyoslash; sportchilar orasida keng qo‘llaniladigan psixologik diagnostika vositalaridan foydalanish; shuningdek, oldingi tadqiqotchilar tomonidan olingan empirik natijalarni yig‘ma tahlil qilish.

Tadqiqot natijalari. O‘tkazilgan tahlil shuni ko‘rsatdiki, jamoaviy sport turlari bilan shug‘ullanuvchi sportchilar uchun motivatsiyaning tashqi, ijtimoiy tomoni katta vazn kasb etadi. Bunday sportchilar o‘z faoliyatini baholashda jamoa erishgan yakuniy natijaga, sherik sportchilar bilan o‘zaro ishonchli munosabatga, jamoa ichidagi o‘z o‘rniga va murabbiy hamda hamjamoat tomonidan ko‘rsatiladigan qo‘llab-quvvatlashga tayanadi. Ular uchun sport — birgalikda amalga oshiriladigan loyiha bo‘lib, muvaffaqiyat ham, mag‘lubiyat ham jamoaviy tarzda his qilinadi. Shu bois bunday sportchilarda kommunikativ ehtiyoj kuchli namoyon bo‘ladi.

Yakkakurash turlari bilan shug‘ullanuvchilarda esa manzara boshqacharoq: ularning e'tibori ko‘proq o‘zining shaxsiy o‘sishiga, ilgarigi natijasidan o‘zib ketishga va mustaqil qaror qabul qila olish qobiliyatiga qaratiladi. Bu sportchilarda ichki, o‘z-o‘ziga yo‘naltirilgan motivatsiya ustunlik qiladi — ular ko‘pincha "kim yutdi"dan ko‘ra "o‘zimni qanchalik yaxshiladim" degan savolga ahamiyat beradi.

Ikkala guruhda ham trenerning shaxsiyati alohida o‘rin tutadi: sportchini tushunadigan, uning fikriga quloq soladigan murabbiy bilan ishlash ichki motivatsiyani kuchaytiradi, buyruqbozlikka asoslangan uslub esa aksincha ta'sir ko‘rsatadi. Tahlil davomida yig‘ilgan ma'lumotlar, shuningdek, jins bo‘yicha ham farq borligini ko‘rsatdi: ayol sportchilarda ichki qiziqishga asoslangan motivatsiya nisbatan ko‘proq uchraydi, erkak sportchilarda esa moddiy va ijtimoiy tan olinish kabi tashqi omillar kuchliroq ta'sir qiladi. Bundan tashqari, shaxsning individualistik yoki kollektivistik dunyoqarashi ham uning motivatsion profilini belgilovchi muhim omil sifatida qayd etildi.

Yuqorida keltirilgan kuzatishlarni bir joyga jamlab, jamoaviy va yakkakurash sportchilar motivatsiyasining asosiy farqlarini quyidagi jadvalda tizimlashtirdik (1-jadval):

Mezon	**Jamoaviy sportchilar**	**Yakkakurash sportchilar**
Asosiy motivatsion yo‘nalish	Ijtimoiy (jamoa natijasi, hamjihatlik)	Individual (shaxsiy natija, o‘z-o‘zini rivojlantirish)
Ustuvor psixologik ehtiyoj (SDT bo‘yicha)	Ijtimoiy aloqadorlik	Avtonomiya va kompetentlik
Trenerning roli	Jamoaviy hamjihatlikni shakllantiruvchi	Individual yondashuvni ta'minlovchi
Milliy tarbiya vositasi	Jamoaviy mas'uliyat, birdamlik tarbiyasi	Iroda, mustaqillik va shaxsiy mas'uliyat tarbiyasi

Jadvaldagi taqqoslashdan kelib chiqadigan amaliy xulosa shundaki, jamoaviy sport bilan shug‘ullanuvchi yoshlarni tarbiyalashda hamjihatlik, o‘zaro yordam va jamoaviy mas'uliyat kabi fazilatlarni singdirishga, yakkakurash sportchilarida esa iroda kuchi, sabr-toqat va mustaqil qaror qabul qilish ko‘nikmasini rivojlantirishga ko‘proq urg‘u berish maqsadga muvofiq. Vatanparvarlik tuyg‘usi esa har ikkala yo‘nalish uchun ham umumiy negiz bo‘lib qoladi, faqat uni yetkazish uslubi sport turining tabiatiga moslashtirilishi kerak — jamoada bu ko‘proq "birga g‘alaba qozonish" g‘oyasi orqali, yakkakurashda esa "vatan uchun kurashish" tuyg‘usi orqali singdiriladi.

Boshqaruv nuqtai nazaridan qaraganda, sport tashkilotlarida bunday tarbiyaviy ishni tizimli tarzda olib borish uchun bir qancha amaliy chora zarur: murabbiylarni psixologik-pedagogik jihatdan muntazam o‘qitib borish; klublarda tarbiyaviy ishlar bo‘yicha yo‘l-yo‘riq materiallari tayyorlash; sportchilarning motivatsion holatini vaqti-vaqti bilan kuzatib borish; hamda oila, o‘quv muassasasi va sport klubi o‘rtasidagi hamkorlikni mustahkamlash. Aynan shu mexanizmlar sport sohasini milliy tarbiya tizimining umumiy tarkibiy qismiga aylantiradi.

Muhokama va xulosa. O‘tkazilgan tahlil natijalari sport tashkilotlarida tarbiyaviy ishni bir xil qolipda emas, balki sportchining shug‘ullanayotgan sport turiga qarab tabaqalashtirilgan holda olib borish zarurligini ko‘rsatadi. Sportchini vatanparvarlik va jamoaviy mas'uliyat ruhida shakllantirish — bu ortiqcha yuk emas, balki uning ichki turtkisini mustahkamlaydigan, demak, sport natijalariga ham ijobiy ta'sir ko‘rsatadigan omil sifatida qaralishi kerak.

Ishning yakuniy xulosalarini quyidagicha ifodalash mumkin: birinchidan, jamoaviy va yakkakurash sportchilarning motivatsion tuzilishi bir-biridan tubdan farqlanadi; ikkinchidan, birinchi guruhda ijtimoiy, ikkinchisida esa individual omillar yetakchilik qiladi; uchinchidan, motivatsiya vaqt o‘tishi va tajriba ortishi bilan o‘zgarib boradigan dinamik hodisadir; to‘rtinchidan, murabbiyning shaxsiy uslubi va tarbiyaviy kompetensiyasi sportchida barqaror, milliy g‘oyaga asoslangan motivatsiyani shakllantirishning kalitidir.

Takliflar

– murabbiylarning psixologik-pedagogik bilim va ko‘nikmalarini oshirish bo‘yicha muntazam kurslar tashkil etish;

– sportchilarning motivatsion xususiyatini hisobga olgan holda tarbiyaviy ishga tabaqalashtirilgan yondashuv joriy etish;

– sport klublari va maktablarida mashg‘ulot jarayoniga milliy tarbiya unsurlarini bosqichma-bosqich singdirish.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Леонтьев А.Н. Деятельность. Сознание. Личность. М.: Политиздат, 1975. – 304 с.
2. Хекхаузен Х. Мотивация и деятельность. 2-е изд. СПб.: Питер; М.: Смысл, 2003. – 860 с.
3. McClelland D.C. Human Motivation. Cambridge: Cambridge University Press, 1987.
4. Hayitov O.E. Sport faoliyati psixologiyasi. Darslik. "Umid design". T., 2021.
5. Ishtayev J.M. Sportchilarning motivatsion holati darajasini o‘lchash usuli. O‘zDJTSU Ilmiy axborotnomasi.2021. 80-83-b
6. Usmanova A.A. Sport psixologiyasi. O‘quv-uslubiy qo‘llanma. T., 2023.
7. Deci E.L., Ryan R.M. Self-Determination Theory and the Facilitation of Intrinsic Motivation, Social Development, and Well-Being // American Psychologist. 2000. Vol. 55, No. 1. – P. 68–78.
8. Кузнецов С.А. Особенности мотивации спортсменов командных и индивидуальных видов спорта // Социальная психология и общество. № 4/2013.
9. Свилина О.А. Динамика мотивации достижения спортсменов индивидуальных видов спорта. 2022.

MALAKA OSHIRISH TIZIMIDA XORIJIY DAVLATLARNING ILG‘OR PEDAGOGIK TAJRIBALARI

B. Qidirbayev
O‘zbekiston tarbiya pedagogikasi milliy instituti Qoraqalpog‘iston filiali mustaqil izlanuvchisi
https://doi.org/10.5281/zenodo.23178083

Yoshi kattalarning ta’lim olishi hayot davomida ta’lim olishning muhim tarkibiy qismidir va hozirda ta’limning bu turi butun dunyoda inson va jamiyatning muammolarini yechishda muhim rol o‘ynamoqda. 2009 yil dekabrda YUNESKOning yoshi kattalar ta’limi bo‘yicha o‘tkazilgan oltinchi Xalqaro konferensiyasi (CONFINTEA VI) o‘tkazilib, unda “Belen harakatlar me’yori” pakti qabul qilingan. Hujjatda aytilishicha, “Kattalar o‘qishi va ularga ta’lim berish odamlarga o‘z haq-huquqlarini rivojlantirish, ro‘yobga chiqarish hamda o‘z taqdirlarining egalari bo‘lishlari uchun zarur bilimlar, malakalarni egallash, fazilat va qadriyatlarni qaror toptirishga imkoniyat yaratadi. Shu bilan birgalikda, kattalar o‘qishi va ularga ta’lim berish uzluksiz ma’naviyatga erishish, qashshoqlikning ko‘lamini kamaytirish, savodxonlikka asoslangan adolatli, bardoshli va barqaror jamiyat yaratish uchun mutloq zaruriyat bo‘lib hisoblanadi” [1].

“Malaka oshirish” atamasi mavjud tizimni ifodalovchi so‘z sifatida qo‘llanilib kelinsa, xalqaro tajribada “kasbiy rivojlanish” (professional development) ma’nosida qo‘llanilishini aytib o‘tishimiz mumkin.

Yevropa davlatlarida malaka oshirish tizimining turli ko‘rinishda:

- ehtiyojlarga asoslangan;
- muqarrar va qo‘shimcha ta’lim;
- mashg‘ulot turi — davomiylik va predmetlar bo‘yicha tashkil qilinganligi bilan tavsiflanadi.

Ayrim davlatlarda (Avstriya, Belgiya, Finlyandiya, Niderlandiya, Portugaliya, Shotlandiya, Ispaniya, Shvetsiya) malaka oshirish asosan rivojlanishning ikki bosqichida amalga oshiriladi. Dastavval, norasmiy va ko‘ngilli ravishda, shundan so‘ng, ikkinchi bosqichda aniq tizimli, muqarrar ravishda bo‘ladi. Odatda ta’lim barcha darajadagi maktablarda bir vaqtda olib boriladi (Avstriya, Germaniya, Norvegiya, Portugaliya, Shotlandiya).

Leybnits (DIE) nomidagi butun umr ta’lim olish Markazi Kattalarga ta’lim berish Nemis instituti hisoblanib, federal hukumat yoki o‘lkalar hisobidan moliyalashtiriladi. Institut yoshi kattalarga ta’lim berishga ixtisoslashgan bo‘lib, ta’lim dasturlari va uzluksiz ta’lim muassasalari sohasini, shuningdek, umr bo‘yi ta’lim tizimining ijtimoiy-siyosiy va institutsional qirralarini tadqiq qiladi. Mazkur institut tomonidan amalga oshiriladigan ilmiy-tadqiqotlar favqulodda muhim ijtimoiy muammolarga yo‘naltirilgan. Bularga: amaliy va fundamental tadqiqotlar

olib borish; tadqiqotlardan olingan bilimning ijtimoiy infratuzilmaga tatbiqi, joriylanishini ta’minlash; amaliy faliyat olib boruvchilar uchun yangilangan konsepsiyalar bilan ta’minlash; manfaatdor tashkilotlarga mahalliy va xalqaro miqyosda uzluksiz ta’lim strategiyasi bo‘yicha tavsiyalar berish bilan shug‘ullanadi [2].

Muassasaning tadqiqot ishlari va uning natijalari asosida ko‘rsatilayotgan xizmatlar uzluksiz ta’limni hamda kattalarga ta’lim berish sohasini nazariy tomondan ham, amaliy va strategik tomondan ham taraqqiyotini ta’minlaydi. Institut ko‘rsatayotgan xizmatlar spektri ikki bo‘limda ishlab chiqiladi: Ilmiy-tadqiqotlar va amaliy ishlar bo‘limi (FEZ) hamda Ma’lumotlar va axborotlar (DIZ, FEZ) amaliy, fundamental va tajriba tadqiqotlarini tashkil etadi. DIZ ularning amalga oshirilishini, infratuzilmaga joriy qilinishini hamda ma’lumotlar bazasini tashkil qilish yo‘li bilan bilimlar transferini amalga oshirishni, shuningdek, jamoatchilik bilan aloqalarni qo‘llab-quvvatlashni ta’minlaydi [3].

Shveysariyada esa Kattalar ta’limi federatsiyasi tomonidan ishlab chiqilgan SVEB sertifikati Shveysariyaning “trenerlar tayyorlash” (Ausbildung der Ausbildenden) modulli tizimining birinchi bosqichi bo‘lib hisoblanadi. Sertifikat, kattalar ta’limi sohasida faoliyat olib boradigan o‘qituvchilar uchun, butun Shveysariya bo‘yicha tan olinadigan tayanch malaka kurslarini taklif etadi. Sertifikat olish uchun 90 soatlik o‘quv vaqtini o‘z ichiga olgan ta’lim dasturlarida ishtirok etish kerak bo‘ladi. 165 soat mustaqil o‘qish uchun beriladi. Bundan tashqari, 150 soatdan kam bo‘lmagan kattalar ta’limi sohasida o‘qituvchilik ish tajribasiga ega bo‘lishi kerak [3].

Angliya va Uelsda o‘qituvchilarni kasbiy rivojlantirish Agentligi mavjud bo‘lib, ular tomonidan malaka oshirishning doimiy standartlari ishlab chiqildi. Standartlarning asosiy maqsadlari quyidagilardan iborat:

–takomillashuvning samarali rejasini tuzish va tekshirib borish, o‘zini-o‘zi rivojlantirishga tayyorgarlik, faoliyat va bu yo‘nalishda aniq maqsadni qo‘ya olish;

–ta’lim sifatini ta’minlashda o‘quvchilarning ma’lum yutuqlarga erishishi uchun maqsadni to‘g‘ri yo‘naltira olish va doimiy o‘zini-o‘zi takomillashtirib borish;

–uzluksiz kasbiy kamolotni rejalashtirish va o‘qituvchilarning bo‘sh vaqtlarini samarali o‘tkazish hamda ularning o‘quvchilariga eng yuqori foyda keltiruvchi yuksak malakaviy mashqlarni taqdim qilishga ko‘maklashish.

Binobarin, Shotlandiyada o‘qituvchilar malaka oshirishga bo‘lgan o‘z ehtiyojlari bilan baholanadilar. Shundan so‘ng, ular bu ehtiyojlarni tajribali xodimlar bilan muhokama qiladilar. O‘rta maktabda “Katta o‘qituvchi” unvoniga ega o‘qituvchilarning vazifasiga kadrlar tayyorlash masalalari ham kiradi. Muhokamalar milliy ta’limni boshqarishda, maktabda va individual rivojlanishda eng muhim ehtiyojlar doirasida o‘tadi. Xodimlar ehtiyoji maktabni rivojlantirish rejasining eng

muhim va ajralmas qismi sifatida belgilanadi. Mavjud ehtiyojlar mahalliy darajada, ta’limni boshqarish darajasida, o‘qituvchilar malakasini oshirish instituti yoki ekspertlar yordamida qondirilishi mumkin.

Yaponiyada malaka oshirish tizimi ayrim o‘quv yurtlari, pedagogik mahorat muassasalari, murabbiylik institutlarida: kunduzgi, kechki, sirtqi kurslar va muntazam ravishda tayyorgarlikning asosiy shakllari sifatida tashkil etilgan. Tinglovchilar yil davomida ma’lum bir belgilangan vaqt mobaynida ma’ruza, seminar, vebinar hamda onlayn muloqotlarda ishtirok etadilar. Kasb ta’limi uchun davomiyligi ixtisosliklar tabiatiga qarab 1 yildan boshlanadi [4].

Gretsiyada o‘qituvchilar har 5-6 yilda uch oylik xususiy sektorlik asosida tashkil etilgan malaka oshirish kurslariga jalb etiladi. Bundan maqsad o‘qituvchilarni turli tartibdagi ta’lim sohasining eng so‘nggi yangilik va yutuqlari, o‘quv dasturlari, o‘qitish usullari bilan tanishtirib borishdir.

Demak, xorij mamlakatlarda ham pedagog kadrlarning malakasini oshirish va kasbiy rivojlantirish masalasi – ilmiy g‘oyalarni ishlab chiqish, zamonaviy madaniy-ma’rifiy sharoitlarga mos keladigan tushunchalar va modellarni yaratish dolzarb muammo sifatida e’tirof etiladi. Ta’kidlash joizki, davlat bu jarayonda o‘qituvchilar malakasini oshirishni qonuniy ravishda rag‘batlantiradigan muhim rol vazifasini bajaradi.

Demak, xorijiy davlatlarda tashkil etilgan malaka oshirish tizimini tahlil qilib, mamlakatimizdagi mavjud malaka oshirish jarayonini jahon standartlariga mos ravishda takomillashtirish, integrativ hamda innovatsion yondashuv asosida tashkil etish ta’limning muhim vazifalaridan biri sifatida belgilanadi.

Yuqoridagi fikrlardan kelib chiqib, quyidagi xulosalar va tavsiyalarni berib o‘tamiz: Xulosalar:

-rivojlangan xorijiy davlatlarning yetakchi ilmiy-tadqiqot muassasalari bilan xalqaro aloqalarni rivojlantirish;

- kasbiy rivojlantirishga oid eng maqbul vazifalarni aniqlash;
- chet davlatlarda stajirovka va chet el tajribasini o‘rganish;
- yangi ishlab chiqarish algoritmlari va texnologiyalarini rivojlantirish;
- ehtiyojlarga asoslangan kasbiy rivojlanish tizimini joriy etish.

Tavsiyalar:

- o‘zini-o‘zi boshqarish tizimini takomillashtirish;
- malaka oshirishning masofaviy va boshqa muqobil shakllarini keng tashkil etish;
- kredit-modul tizimini joriy etish;
- o‘qituvchi portfoliosini yaratish;
- o‘qituvchi kasbiy kompetentligini baholash indikatorini ishlab chiqish;
- o‘qituvchilarni sifatli takomillashtirish bo‘yicha nazariy konsepsiyani ishlab chiqish amaliyotga samarali tatbiq etish kabi vazifalarni belgilaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasining “Ichki ishlar organlari to‘g‘risida”gi Qonuni. O‘RQ-407-son, 2016-yil 16-sentabr.
2. Azizxo‘jayeva N.N. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. – Toshkent: O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi Adabiyot jamg‘armasi nashriyoti, 2006. – 160 b.
3. Malaka oshirish // Qomus.INFO: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi. – 2024. – 23 iyun. **Manba**
4. Soldunova L.Yu. Stanovlenie i razvitie sistemy dopolnitelnogo professionalnogo obrazovaniya uchiteley v Rossii (seredina XIX–XX vekov): avtoref. dis. ... kand. ped. nauk. – Saratov, 2008. – 23 s.

QORI NIYOZIY NOMIDAGI TARBIYA PEDAGOGIKASI MILLIY INSTITUTI
TPMI
1929

BOSHLANG’ICH SINF O’QUVCHILARIDA IJODIY TASAVVURNI RIVOJLANTIRISHNING TARBIYAVIY AHAMIYATI

Davron Qodirov
Nizomiy nomidagi O‘zbekiston milliy pedagogika universiteti “Musiqiy ta’lim” kafedrasi dotsenti
https://doi.org/10.5281/zenodo.23178100

Annotasiya: *Mazkur maqola boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida musiqa darslari jarayonida bolalar va milliy cholg‘u asboblari ijrosi orqali ijodkorlik kompetensiyasini shakllantirish masalasiga bag‘ishlangan. Maqolada o‘quvchilarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishda zamonaviy pedagogik texnologiyalarning ahamiyati yoritilgan. Ishda musiqa ta’limining tarbiyaviy imkoniyatlari, psixik jarayonlarning ijodkorlik rivojiga ta’siri tahlil qilingan hamda tajriba-sinov ishlari asosida samarali metod va usullar aniqlangan.*
Kalit so‘zlar: *boshlang‘ich sinf o‘quvchilari, ijodiy tasavvur, pedagogik texnologiyalar, tarbiya, metod*

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining tasavvur qilish, yangicha yechimlar topish va ijodiy ishlash qobiliyatlarini rivojlantirish ta'lim jarayonida katta ahamiyatga ega. Bu qobiliyatlar bolalarga mustaqil fikrlash, o‘ziga xos g‘oyalar ishlab chiqish va murakkab vaziyatlarga moslashishga yordam beradi. Ularni rivojlantirish uchun maxsus yondashuvlar, usul va mashg‘ulotlar kerak bo‘lib, ular o‘quvchilarni turli yo‘nalishlarda erkin fikrlashga undaydi. Tasavvur qilish qobiliyati o‘quvchilarning muhitdan tashqarida, hayoliy ko‘rinishlarda fikrlash imkoniyatini beradi. Misol uchun, ular hikoya davom ettirish, yangi narsalarni o‘ylab topish yoki mavjud buyumlarga boshqa yondashuvlarni sinab ko‘rishga undaladi. Bu esa o‘z navbatida ularning ijodiy salohiyatini oshirishga yordam beradi.

Tasavvurni rivojlantirish uchun o‘quvchilar bilan birgalikda yarim tugallangan hikoyalar yozish, ular tasavvur qilishi mumkin bo‘lgan suratlar chizish va o‘ziga xos ertaklar tuzish kabi topshiriqlarni o‘tkazish mumkin. Yangicha yechimlar topish qobiliyati esa bolalarning mavjud muammolarga noodatiy yechimlar taklif qila olishiga yordam beradi. Bu ko‘nikmani shakllantirish uchun o‘quvchilarni turli masalalarni mustaqil yechishga yo‘naltirish, ular bilan birgalikda "Aqliy hujum" o‘tkazish yoki "Nima bo‘lsa, agar..." deb boshlanadigan savollarni muhokama qilish foydali hisoblanadi.

Ushbu usullar orqali bolalar har xil yondashuvlar va yangi fikrlar ishlab chiqishlari mumkin, buesa ularning muammolarni ijodiy hal qilish qobiliyatini kengaytiradi. Misol uchun, "Aqliy hujum"da har bir o‘quvchi muammoni qanday hal qilish haqida o‘z fikrini aytishi kerak, bu esa ularda jamoaviy ishlash ko‘nikmasini ham rivojlantiradi. Ijodiy ishlash ko‘nikmasi o‘quvchilarni o‘z fikr va tasavvurlarini faol tarzda amalda qo‘llashga undaydi. Bu qobiliyatni shakllantirish

uchun san’at mashg‘ulotlari, qo‘l mehnati darslari va loyiha asosida ishlash samarali hisoblanadi.

O‘quvchilarga masalan, yangi biror ixtiro yaratish, rasm chizish yoki qo‘lda kichik maketlar qilish kabi topshiriqlar berilishi mumkin. Ijodiy ishlash ularni turli vositalardan foydalangan holda o‘z g‘oyalarini ifoda etishga o‘rgatadi, bu esa bolalarning kelajakdagi kasbiy qobiliyatlari va umumiy ijodiy salohiyatlarini rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

"Aqliy hujum" metodi bolalarni ochiq muloqot va birgalikda fikr almashishga jalb qiladi. Ushbu metod yordamida o‘quvchilar berilgan biror muammoni hal qilishda o‘z fikr va takliflarini cheklovsiz ifoda etishadi, bu esa ularda yangicha yechimlarni sinab ko‘rishga bo‘lgan qiziqishni oshiradi. Bunda har bir ishtirokchi o‘ziga xos g‘oya yoki taklif bildirishi mumkin, hech bir fikr tanqid qilinmaydi yoki to‘g‘ri yoki noto‘g‘ri deb baholanmaydi.

Shu orqali o‘quvchilar mantiqiy va ijodiy yondashuvlarni sinovdan o‘tkazish imkoniyatiga ega bo‘lishadi, ular muammoni o‘zgacha burchakdan ko‘rishga va turli alternativ yechimlarni o‘rganishga harakat qilishadi. "Aqliy hujum"da guruh bilan ishlash orqali o‘quvchilar bir-birlaridan o‘rganadi, birgalikda yechim topishga qaratilgan ijodiy jarayon bilan tanishadi. "Nima bo‘lsa, agar..." metodi esa bolalarning tasavvur qilish qobiliyatini kengaytiradi.

Bu metod orqali o‘quvchilarga oddiylikdan uzoqlashgan, noodatiy savollar beriladi, masalan, "Nima bo‘lsa, agar hamma jonivorlar gapira olsa?" yoki "Nima bo‘lsa, agar yerda tortishish kuchi bo‘lmasa?" kabi savollar bilan ularni ijodiy fikrlashga undash mumkin. Ushbu metodda o‘quvchilarni to‘g‘ri yoki noto‘g‘ri javoblardan voz kechishga undaydi va ularga noan’anaviy vaziyatlarni tasavvur qilish imkonini beradi. "Nima bo‘lsa, agar..." savollari o‘quvchilarga mavjud qoidalardan chetga chiqib fikr yuritishga, muammolarni qiziqarli va innovatsion yondashuvlar bilan hal qilishga o‘rgatadi. Bu usul bolalarda tasavvur qilish va o‘ziga xos yechimlarni ishlab chiqish ko‘nikmalarini rivojlantirishda juda foydalidir. Shu ikki metod ham o‘quvchilarda ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirishda yuqori samaradorlikka ega bo‘lib, ular o‘z g‘oyalarini sinovdan o‘tkazish va keng fikrlash orqali o‘z fikrini erkin ifoda etish imkoniyatiga ega bo‘ladilar.

"Aqliy hujum" va "Nima bo‘lsa, agar..." usullari bolalarning o‘ziga ishonchini oshiradi, ularni yangicha yondashuvlarni topishga rag‘batlantiradi va ijodiy fikrlash qobiliyatlarini kuchaytiradi. Innovatsion yondashuv haqida qisqacha aytib o‘taman, o‘quvchilarda yangi bilimlarni o‘zlashtirish uchun an’anaviy usullardan tashqariga chiqib, zamonaviy va qiziqarli metodlarni qo‘llashdir. Ushbu yondashuv ta’lim jarayonida o‘quvchilarni yangi g‘oyalar va texnologiyalar bilan tanishtirib, ularning bilimga bo‘lgan qiziqishini oshiradi. Masalan, interaktiv ta’lim texnologiyalaridan foydalanish, raqamli o‘yinlar, virtual laboratoriyalar orqali tajriba qilish,

o‘quvchilarni tadqiqot ishlari va loyiha asosida ishlashga jalb qilish innovatsion yondashuvning samarali usullaridir.

Bu yondashuv bolalarning e'tiborini jalb qilishi bilan birga, ularning yangi bilim va ko‘nikmalarini tezroq o‘zlashtirishlariga yordam beradi. Guruh bilan ishlash ko‘nikmasi esa o‘quvchilarning ijtimoiy qobiliyatlarini rivojlantiradi va ular o‘zaro hamkorlikda bilim olish jarayoniga qiziqish bilan yondashishadi. Guruhli ish bolalar uchun ahamiyatli bo‘lib, ularni o‘z fikrini boshqalarga ifoda etishga, bir-birini tinglashga, va o‘zaro yordam ko‘rsatishga o‘rgatadi. Guruhda ishlashda har bir o‘quvchi o‘z roliga ega bo‘ladi va umumiy maqsadga erishish uchun mas’uliyatni bo‘lishadi. Bu orqali o‘quvchilar jamoada ishlash qoidalari, bir-biriga yordam berish va umumiy muvaffaqiyatga erishish yo‘lida o‘z hissasini qo‘shishni o‘rganadi. Guruhli mashg‘ulotlar bolalarni boshqalarning fikrlarini hurmat qilishga, muammolarni birgalikda hal qilishga va yangi g‘oyalarni yaratishda birgalikda ishlashga rag‘batlantiradi.

Qobiliyatlarni rivojlantirish esa o‘quvchilarni shaxsiy salohiyatini to‘liq ochib berish imkonini beradi. Bu jarayon ta’limdagi turli metod va mashg‘ulotlar orqali amalga oshiriladi va o‘quvchilarni o‘z qiziqishlari va qobiliyatlari bilan tanishtirishga yordam beradi. Masalan, tasavvur qilish, muammolarni yechish, ijodiy fikrlash, analitik qobiliyatlarni rivojlantirish o‘quvchilarning o‘ziga xos qobiliyatlarini shakllantiradi. Qobiliyatlarni rivojlantirishga qaratilgan turli san’at darslari, texnik loyihalar, ilmiy tajribalar va ijtimoiy mashg‘ulotlar o‘quvchilarning yangi bilim va ko‘nikmalarini o‘zlashtirishini ta’minlaydi. Shu orqali o‘quvchilar o‘z kuchli tomonlarini topib, kelajakda ularni qanday rivojlantirish yo‘llarini anglay boshlaydilar. Hozirgi kunda boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining tasavvur qilish, yangicha yechimlar topish va ijodiy ishlash ko‘nikmalarini rivojlantirish ta’limda alohida ahamiyat kasb etmoqda.

Bugungi tezkor texnologik rivojlanish davrida ijodkorlik va muammolarni yangicha yondashuvlar bilan hal qilish qobiliyatlari yuqori qadrlanadi. Bolalarda tasavvur qilish va ijodiy fikrlashning shakllanishi ularga hayotda va ta’lim olishda mustaqil bo‘lish imkonini beradi. Bu ko‘nikmalar, bolalarni an’anaviy fikrlash doirasidan chiqarib, ularga masalalarni o‘ziga xos usullarda yechishga yordam beradi.

Tasavvur qilish qobiliyati orqali bolalar o‘zgacha dunyoqarashga ega bo‘ladi, ya’ni ular muammolarni turli nuqtai nazarlardan ko‘rishni o‘rganishadi. Bu qobiliyat ularni ijodiy fikrga asoslangan kashfiyotlar va g‘oyalarga yetaklaydi. Masalan, ularni ilmiy-fantastik hikoyalar o‘qishga, tasavvurga boy chizmalar chizishga yoki o‘z hikoyalarini yaratishga jalb qilish bolalarning ijodiy qobiliyatlarini oshiradi. Tasavvur qilish ularning bilim olish jarayonini qiziqarli va mazmunli qiladi, shu bilan birga ular turli sohalarda foydalanadigan tasavvur va ijodiy yechimlar bilan

tanishadi. Yangicha yechimlar topish qobiliyatining hozirgi kundagi ahamiyati ayniqsa katta.

Zamon bilan hamnafas bo‘lish, texnologiyalardan to‘g‘ri foydalanish va yangicha usullarni qo‘llash o‘quvchilarning kelajakda muvaffaqiyatli shaxs bo‘lishlariga asos yaratadi. Bolalarda yangicha yechimlar topish ko‘nikmasini rivojlantirish ularni har qanday muammoni innovatsion va ijodiy yondashuv bilan hal qilishga undaydi. Masalan, "Nima bo‘lsa, agar..." kabi metodlar yordamida ular muayyan vaziyatlarni boshqacha tarzda tasavvur qilishni va turli muammolarga noodatiy yondashuv topishni o‘rganadilar.

Bu qobiliyat ularning keyingi bosqichdagi ta’lim olishini va hayotiy muammolarni hal qilishdagi faolligini oshiradi. Ijodiy ishlash ko‘nikmasi esa bolalarning o‘z qobiliyatlarini amalda sinab ko‘rishiga va rivojlantirishiga imkon beradi. Bugungi kunda ijodkorlik va o‘ziga xos yondashuv har qanday sohada talab etiladi. San’at, ilm-fan, texnika va boshqa sohalarda o‘z g‘oyalarini erkin ifoda etish bolalarni yangicha fikr yurituvchi va innovatsiyalarga qodir shaxslar sifatida shakllantiradi.

Bolalarga san’at mashg‘ulotlari, loyihalar yaratish va texnologiyalardan foydalanish imkoniyatini berish ularni o‘z fikr va g‘oyalarini erkin ifodalashga, o‘ziga ishongan ijodkorlar sifatida shakllanishga yordam beradi.Shu bilan, boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining tasavvur qilish, yangicha yechimlar topish va ijodiy ishlash ko‘nikmalarini rivojlantirish hozirgi kunda zamon talabidir. Bu ko‘nikmalar kelajakda ularga murakkab vaziyatlarni hal qilishda, mustaqil va kreativ shaxs sifatida shakllanishda katta yordam beradi.

Bugungi zamonaviy dunyoda ijodkorlik va kreativ fikrlash yuqori baholanadi, shuning uchun boshlang‘ich sinfdanoq o‘quvchilarda bu qobiliyatlarni rivojlantirish zarur. Bu ularni o‘quv jarayonida va kelajakda har qanday muammoga moslashuvchan va yechim topishga qodir shaxslar sifatida shakllantiradi. Shunday qilib, boshlang‘ich bosqichda ijodiy va tasavvurga asoslangan ta’lim berish bolalarning intellektual va shaxsiy o‘sishida muhim o‘rin tutadi va ularni jamiyatda muvaffaqiyatli shaxslar sifatida shakllantirishga asos bo‘ladi.

Shunday qilib, boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida tasavvur qilish, yangicha yechimlar topish va ijodiy ishlash kabi qobiliyatlarni rivojlantirish uchun maxsus mashg‘ulotlar, guruhli ishlash usullari va qiziqarli topshiriqlar berilishi kerak. Bunday yondashuv bolalarning ijodiy qobiliyatlarini kengaytirishga yordam beradi va ularda o‘ziga xos, yangicha fikrlash madaniyatini shakllantiradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi.
2.Fitrat Abdurauf. O‘zbek klassik musiqasi va uning tarixi. –T.: “Fan”.1993.
3.Akbarov I. Musiqa lug‘ati. –T.: “O‘qituvchi”.1997. -120 b.
4.Barkamol avlod tarbiyasida san’atning o‘rni. –T.: “Musiqa”.2010. –

ZAMONAVIY VOKAL METODIKASI VA MILLIY MUSIQA TA’LIMIDA TALABALARNING XONANDALIK MAHORATINI SHAKLLANTIRISHNING PEDAGOGIK-FIZIOLOGIK ASOSLARI

Davron Qodirov
Nizomiy nomidagi O‘zbekiston milliy pedagogika universiteti “Musiqiy ta’lim” kafedrasi dotsenti
Sharapova Shahnoza
Nizomiy nomidagi O‘zbekiston milliy pedagogika universiteti 1-bosqich magistri
https://doi.org/10.5281/zenodo.23178116

Annotatsiya: *Ushbu maqolada xonandalik mahoratining tuzilmaviy elementlari, ovoz apparati fiziologiyasi, diafragmal nafas olish metodikasi va individual yondashuv priniplari ilmiy jihatdan tahlil qilinadi. Xonandalik mahorati quyidagi asosiy komponentlari. Vokal texnikasi, musiqiy tafakkur,badiiy talqin, emotsional ifoda, sahna madaniyati haqida fikrp yuritilgan.*
Kalit so‘zlar: *«Xonanda», «xondan» (o‘qimoq, kuylamoq), «Mahorat» (mahara — mahorat, ustalik), Vokal texnikasi, Musiqiy tafakkur, Badiiy talqin, Emotsional ifoda, Sahna madaniyati, Energiya manbai (power source), Fonatsiya tizimi (phonation system), Rezonatorlar (resonators), Diafragmal nafas olish, Nafas olish jarayoni (inspiratsiya), Nafas chiqarish jarayoni (ekspiratsiya), Tadrijiylik prinsipi, Muntazamlik prinsipi, Nazorat prinsipi, Ijodiy yondashuv.*

O‘zbekiston Respublikasida madaniyat va san’at sohasini rivojlantirish, yosh avlodni milliy hamda jahon musiqa merosi ruhida tarbiyalash davlatimiz ta’lim tizimining muhim vazifalardan biriidir.

2022 yil 2 fevraldagi Prezidentning «Madaniyat va san’at sohasini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi PQ-112-sonli qarori musiqa ta’limi tizimini modernizatsiya qilish, bolalar musiqa va san’at maktablarining moddiy-texnik bazasini mustahkamlash hamda malakali kadrlarni tayyorlashni nazarda tutadi. Musiqa ta’limi tizimida xonandalik san’atini mukammal egallagan mutaxassislarni tayyorlash dolzarb vazifalardan sanaladi, chunki xonandalik nafaqat tabiiy iste’dodga, balki muntazam mashg‘ulot, ilmiy asoslangan metodika va pedagogik mahoratga ham tayanadi.

Musiqa ta’limining asosiy maqsadi o‘quvchilarda estetik didni shakllantirish, ijodiy fikrlashni rivojlantirish hamda professional vokal ko‘nikmalarini hosil qilishdan iborat. Shu bois xonandalik mahoratini shakllantirish jarayoni kompleks pedagogik tizim sifatida tashkil etilishi zarur. Ushbu maqolada xonandalik mahoratining tuzilmaviy elementlari, ovoz apparati fiziologiyasi, diafragmal nafas olish metodikasi va individual yondashuv priniplari ilmiy jihatdan tahlil qilinadi.

«Xonanda» so‘zi fors-tojik tilidan kelib chiqqan bo‘lib, «xondan» (o‘qimoq, kuylamoq) fe’lidan hosil bo‘lgan. O‘zbek tilida bu atamalar professional darajada kuylovchi, vokal ijrochisini anglatadi. «Mahorat» so‘zi arab tilidan (mahara — mahorat, ustalik) olingan bo‘lib, kasbiy malaka, yuqori darajadagi ijrochilik sifatini ifodalaydi. Xonandalik mahorati musiqa ijrochiligining eng muhim tarkibiy

qismlaridan biri bo‘lib, u nafaqat tabiiy ovoz imkoniyatlariga, balki vokal texnikasi, musiqiy tafakkur, badiiy talqin, emotsional ifoda va sahna madaniyatining o‘zaro uyg‘un rivojlanishiga asoslanadi.

Zamonaviy musiqa pedagogikasida xonandalik mahorati shaxsning kasbiy kompetensiyasi sifatida talqin qilinadi. U ijrochining vokal imkoniyatla-

rini to‘liq namoyon etishi, musiqiy asarning g‘oyaviy-badiiy mazmunini tinglovchiga yetkazishi hamda sahnada erkin va ishonchli ijro etish qobiliya-

tini ifodalaydi. Xonandalik mahoratini shakllantirish murakkab va uzluksiz pedagogik jarayon bo‘lib, u nazariy bilimlar bilan amaliy mashg‘ulotlarning uzviy uyg‘unligini talab qiladi.

Xonandalik mahorati quyidagi asosiy komponentlardan iborat:

- **Vokal texnikasi**: ovoz apparati to‘g‘ri ishlashi, diafragmal nafas olish, rezonatorlardan foydalanish, artikulyatsiya va diksiya.
- **Musiqiy tafakkur**: asarning shakli, janri, uslubi, garmonik va melodik tuzilmasini tushunish.
- **Badiiy talqin**: ijrochining asarga nisbatan individual yondashuvi, emotsional va dramatik ifoda vositalari.
- Ye**motsional ifoda**: ijro davomida tinglovchiga ruhiy ta’sir ko‘rsatish qobiliyati.academic.
- **Sahna madaniyati**: sahnada o‘zini tutish, tomoshabin bilan muloqot, psixologik barqarorlik.

Ushbu elementlar bir-biri bilan uzviy bog‘liq bo‘lib, ularning uyg‘un rivojlanishi xonandalik mahoratining yuqori darajasini ta’minlaydi.

Xonandalik mahoratining eng muhim tarkibiy elementi ovoz apparatini to‘g‘ri ishlatish hisoblanadi. Ovoz hosil bo‘lish jarayonida nafas olish organlari, hiqildoq (larinks), ovoz paychalari (vokal folds), rezonator bo‘shliqlari (ko‘krak, bosh, og‘iz, burun bo‘shliqlari) hamda artikulyatsion apparat (til, lab, jag‘, yumshoq tanglay) yagona fiziologik tizim sifatida faoliyat ko‘rsatadi.

Ovoz apparati uchta asosiy qismdan iborat:

1. E**nergiya manbai (power source)**: o‘pka, diafragma, qorin va tos mushaklari nafas olish va chiqarish jarayonini ta’minlaydi.academic.
2. **Fonatsiya tizimi (phonation system)**: hiqildoq va ovoz paychalari ovoz to‘lqinlarini hosil qiladi.academic.
3. **Rezonatorlar (resonators)**: ovoz to‘lqinlarini kuchaytiradi va tembrni shakllantiradi.academic.

Mazkur tizimning to‘g‘ri ishlashi ovozning tabiiyligi, jarangdorligi va uzoq vaqt davomida sog‘lom saqlanishini ta’minlaydi. Ovoz apparatidan noto‘g‘ri foydalanish esa ovozning charchashi, tembrning o‘zgarishi yoki turli funksional buzilishlarga (masalan, ovoz paychalari shishi, nodullar hosil bo‘lishi) olib kelishi mumkin.academic.

Diafragmal nafas olish: fiziologik asoslar va pedagogik amaliyot

Professional xonandalikning asosiy omillaridan yana biri diafragmal nafas olishni mukammal egallashdir. Diafragma — ko‘krak va qorin bo‘shliqlarini ajratuvchi gumbazsimon mushak bo‘lib, nafas olishning asosiy mushaki hisoblanadi.academic.

Nafas olish jarayoni (inspiratsiya):

- Diafragma qisqaradi va pastga tushadi (gumbaz shakli tekislanadi).
- Ko‘krak qafasi hajmi kengayadi, o‘pkaga havo kiradi.
- Qorin devori mushaklari bo‘shashiradi, ichki organlar pastga siljiydi (shu sababli qorin tashqariga chiqadi).

Nafas chiqarish jarayoni (ekspiratsiya) — ijro davomida:academic.

- Diafragma bo‘shashiradi va yuqoriga ko‘tariladi.
- Qorin mushaklari (ayniqsa yon qorin mushaklari) qisqaradi, ichki organlar yuqoriga bosiladi.
- O‘pkadan havo sekin va nazorat ostida chiqadi, ovoz paychalariga barqaror bosim (subglottic pressure) ta’minlanadi.

Vokal pedagogikasida bu jarayon «appoggio» (italiyancha — tayanish) deb ataladi va ijrochiga uzoq, barqaror, nazorat ostidagi ovoz chiqarish imkonini beradi. Diafragmal nafas olishni to‘g‘ri egallash ovozning kuchi, barqarorligi, tembr boyligi va ijro davomiyligini ta’minlaydi.

Xonandalik mahoratini shakllantirish murakkab va uzluksiz pedagogik jarayon bo‘lib, u nazariy bilimlar bilan amaliy mashg‘ulotlarning uzviy uyg‘unligini talab qiladi. Ushbu jarayonda talabaning fiziologik xususiyatlari, ovoz apparatining rivojlanish darajasi, musiqiy qobiliyati, psixologik tayyorgarligi va ijodiy salohiyati alohida e’tiborga olinadi.

Har bir xonandaning ovoz diapazoni (soprano, messo-soprano, alt, tenor, bariton, bas), tembri (ovoz rangi) va ijro uslubi individual bo‘lgani sababli vokal mashg‘ulotlari ham individual yondashuv asosida tashkil etilishi lozim. Pedagog har bir o‘quvchi uchun maxsus mashqlar tizimini ishlab chiqishi, ovoz yuklamasini bosqichma-bosqich oshirishi va fiziologik xususiyatlarni hisobga olishi kerak.

Vokal darslarida quyidagi metodik priniplarga amal qilish tavsiya etiladi:

- **Tadrijiylik prinsipi**: mashqlar yengildan og‘irga, soddadan murakkabga qarab borishi kerak.
- **Muntazamlik prinsipi**: har kuni muntazam mashg‘ulotlar o‘tkazish, ovoz mushaklarini mustahkamlash.
- **Nazorat prinsipi**: pedagog har bir mashqni nazorat qilishi, xatolarni darhol tuzatishi lozim.
- **Ijodiy yondashuv**: o‘quvchining ijodiy salohiyatini rivojlantirish, o‘ziga xos ijro uslubini shakllantirishga imkon berish.

O‘zbek xonandalik san’ati qadimiy tarixga ega bo‘lib, maqom yo‘llari, xalq qo‘shiqlari, dostonchilik va baxshichilik an’analari bilan bog‘liq. XX asrda professional musiqa ta’limi tizimi shakllandi, konservatoriyalar, musiqa maktablari ochildi va rus hamda g‘arb vokal metodikalari o‘zlashtirildi. L. Dmitrievning «Vokal metodikasi asoslari», G. Muhamedovaning «Xonandalik» kabi asarlari o‘zbek vokal pedagogikasining ilmiy asoslarini yaratishda muhim rol o‘ynadi.

Bugungi kunda O‘zbekistonda yosh ijrochilarni qo‘llab-quvvatlash maqsadida turli tanlovlar, festivallar, grant dasturlari tashkil etilmoqda. Musiqa va san’at ta’limi tizimini isloh qilish doirasida milliy va jahon musiqa merosini o‘rganish, zamonaviy vokal texnologiyalarini joriy etish, xalqaro hamkorlikni kengaytirish ustuvor vazifa hisoblanadi.

Xulosa va tavsiyalar

Xonandalik mahoratini shakllantirish ko‘p qirrali pedagogik-fiziologik jarayon bo‘lib, u tabiiy iste’dod, ilmiy metodika, muntazam mashg‘ulot va individual yondashuvni talab qiladi. Vokal pedagogikasida ovoz apparati fiziologiyasini chuqur tushunish, diafragmal nafas olishni mukammal egallash va badiiy talqin qobiliyatini rivojlantirish muhim ahamiyatga ega.

O‘zbekistonda musiqa ta’limi tizimini yanada rivojlantirish uchun quyidagi tavsiyalar beriladi:

- Vokal pedagogikasi bo‘yicha zamonaviy darsliklar va o‘quv qo‘llanmalar yaratish.
- Yosh xonandalar uchun maxsus laboratoriyalar, ovozni o‘rganish markazlari tashkil etish.
- Xalqaro vokal anjumanlari, master-klasslar o‘tkazish, xorijiy mutaxassislarni jalb qilish.ppublishing
- Milliy xonandalik an’analarini ilmiy o‘rganish va zamonaviy metodikalar bilan uyg‘unlashtirish.

Ushbu chora-tadbirlar yosh avlodni milliy va jahon musiqa merosi ruhida tarbiyalash, professional xonandalarni tayyorlash va O‘zbekiston musiqa madaniyatini yanada yuksaltirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Дмитриев Л. «Вокал методикаси асослари». — Тошкент, 2010.api.unilibrary
2. Муҳамедова Г. «Хонандалик». — Тошкент, 2015.api.unilibrary+1
3. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2022 йил 2 февралдаги ПҚ-112-сонли қарори.cis-legislation
4. Advanced Practices in the System of Music and Arts Education in Uzbekistan. // Arabian Journal of Science, 2026.ppublishing
5. Breathing in Singing. // Oxford Academic, 2014.academic.oup
6. The Vocal Apparatus. // Oxford University Press, 2024.

MALAKA OSHIRISH JARAYONIDA PEDAGOGLARNING KASBIY-AXLOQIY QAROR QABUL QILISH KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK IMKONIYATLARI

Qodirov Sirojiddin Raxmonovich
O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi Pedagog kadrlarni kasbiy rivojlantirish bo‘limi boshlig‘i,
E-mail: s.qodirov@uzedu.uz
https://doi.org/10.5281/zenodo.23178140

Annotatsiya. *Maqolada pedagoglarning kasbiy-axloqiy qaror qabul qilish kompetentligini malaka oshirish jarayonida rivojlantirish imkoniyatlari nazariy tahlil qilingan. O‘zbekiston va xorij olimlari yondashuvlari qiyoslanib, axloqiy dilemmalar, rolli mashqlar, kollegial muhokama va refleksiyaga asoslangan o‘qitish mexanizmi taklif etilgan. Kompetentlikni baholash mezonlari hamda kursdagi o‘rganishni kasbiy amaliyotga ko‘chirish shartlari asoslangan.*
Kalit so‘zlar: *malaka oshirish, kasbiy axloq, axloqiy dilemma, qaror qabul qilish, pedagogik refleksiya, kompetentlik.*
Аннотация. *Рассмотрены педагогические возможности развития компетентности профессионально-этического принятия решений в процессе повышения квалификации педагогов. Сопоставлены подходы учёных Узбекистана и зарубежных исследователей. Предложены механизмы обучения на основе этических дилемм, ролевых упражнений, коллегиального обсуждения и рефлексии, а также критерии оценивания и условия переноса освоенных способов действий в практику.*
Ключевые слова: *повышение квалификации, профессиональная этика, этическая дилемма, принятие решений, рефлексия, компетентность.*
Abstract. *This theoretical article examines opportunities to develop teachers’ professional ethical decision-making competence through continuing professional development. Uzbek and international scholarship is compared to propose a learning framework combining ethical dilemmas, role-play, collegial discussion and reflection. Assessment criteria and conditions for transferring learning into professional practice are outlined.*
Keywords: *professional development, professional ethics, ethical dilemma, decision-making, reflection, competence.*

Kirish

Ta’lim sifatini oshirish va tarbiya jarayonining insonparvarlik xususiyatini kuchaytirish pedagogning kasbiy bilimlari bilan bir qatorda, murakkab vaziyatlarda axloqiy jihatdan asoslangan qaror qabul qilish qobiliyatiga ham bog‘liq. O‘quvchilar bilimini adolatli baholash, ularning qadr-qimmatini himoya qilish, shaxsiy ma’lumotlar maxfiyligini saqlash, ota-onalar va hamkasblar bilan munosabatlarda yuzaga keladigan ziddiyatlarni hal etish pedagogdan turli manfaatlar va ehtimoliy oqibatlarni hisobga olishni talab etadi. Shu jihatdan, malaka oshirish jarayonida pedagoglarning kasbiy-axloqiy qaror qabul qilish kompetentligini rivojlantirish muhim pedagogik vazifa hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoev 2020 yil 30 sentyabrda O‘qituvchi va murabbiylar kuniga bag‘ishlangan tantanali marosimdagi nutqida:

«Hammamizga ayonki, taraqqiyotning tamal toshi ham, mamlakatni qudratli, millatni buyuk qiladigan kuch ham bu - ilm-fan, ta’lim va tarbiyadir», deb ta’kidlagan. Ta’lim va tarbiyaning mazkur strategik ahamiyati pedagog faoliyatida mas’uliyat, adolat va inson qadriga hurmat tamoyillariga asoslangan qarorlar qabul qilish masalasini dolzarblashtiradi. Binobarin, pedagogning kasbiy rivojlanishi ta’lim texnologiyalarini o‘zlashtirish bilan birga, ulardan foydalanishning axloqiy oqibatlarini anglashni ham qamrab olishi lozim.

Kasbiy-axloqiy qaror qabul qilish kompetentligi pedagogning muammoli vaziyatda axloqiy ziddiyatni aniqlashi, manfaatdor tomonlar nuqtai nazarini tushunishi, muqobil yechimlarni qiyoslashi, o‘z tanlovini asoslashi va uning natijalarini refleksiv baholashida namoyon bo‘ladi. Shu sababli malaka oshirishda kasbiy odob qoidalarini tushuntirishni amaliy vaziyatlar tahlili bilan uyg‘unlashtirish zarur. Axloqiy dilemmalarga asoslangan keyslar, rolli mashqlar, hamkasblar bilan muhokama, refleksiv yozuvlar va individual metodik ko‘mak pedagogga o‘z qarorini turli nuqtai nazardan ko‘rib chiqish hamda kasbiy tajribasini qayta baholash imkonini beradi. Mazkur maqolaning maqsadi respublika va xorij olimlarining kasbiy kompetentlik, pedagogik odob, axloqiy tanlov hamda uzluksiz kasbiy rivojlanishga oid qarashlarini tahlil qilish asosida malaka oshirish jarayonida pedagoglarning kasbiy-axloqiy qaror qabul qilish kompetentligini rivojlantirishning pedagogik imkoniyatlarini ochib berishdan iborat. Shu asosda ushbu imkoniyatlarni amalga oshirish mexanizmlari va qaror qabul qilish kompetentligini baholash mezonlari taklif etiladi.

Shu o‘rinda, pedagog baholash, intizom, ota-ona bilan muloqot va ta’lim oluvchi haqidagi ma’lumotdan foydalanishda bir-biriga zid manfaatlarga duch keladi. Bunday vaziyatda qoidani bilish zarur, ammo qarorning kimga, qanday va nima uchun ta’sir qilishini anglash ham muhim. Malaka oshirishning vazifasi pedagogni tayyor javoblar bilan ta’minlashdan tashqari, o‘z tanlovini dalillash va uning oqibatlari uchun mas’uliyat olishga tayyorlashdir. Maqsad mazkur kompetentlikni rivojlantirish imkoniyatlarini o‘quv faoliyati va baholash mezonlari bilan bog‘lashdir. Kasbiy-axloqiy qaror qabul qilish kompetentligi axloqiy muammoni payqash, manfaatdor tomonlar nuqtai nazarini hisobga olish, muqobil yechimlarni solishtirish, asoslangan harakatni amalga oshirish va natijani qayta baholash qobiliyati sifatida talqin qilinadi.

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqot maqsadli tanlangan ilmiy va o‘quv-metodik manbalarning nazariy-qiyosiy tahliliga asoslandi. Manbalar kasbiy kompetentlik, pedagogik odob, axloqiy qaror va malaka oshirishni tashkil etishga daxldorligi bo‘yicha tanlandi. Yondashuvlarning tushunchaviy asosi, o‘qitish va baholash uchun ahamiyati qiyoslanib, ikki amaliy matritsa tuzildi. Maqolada tajriba-sinov o‘tkazilmagan; taklif etilayotgan mexanizm va mezonlarning samaradorligi keyingi empirik tekshiruvni talab qiladi.

Respublikamiz olimlaridan N.A.Muslimov, B.X.Xodjaev, A.A.Xoliqov, A.A.Ibragimov, M.H.Usmonboeva, D.M.Sayfurov va A.B.To‘raevlar pedagogik kompetentlikni kasbiy faoliyatda namoyon bo‘ladigan sifatlar orqali yoritib, o‘zini tahlil qilish, o‘zini baholash va individual rivojlanishni rejalashtirishga e’tibor qaratgan[1]. Bu yondashuv pedagogning vaziyatga munosabatini asoslashi va o‘z harakatini tahlil qilishiga metodik zamin yaratadi. Biroq umumiy kompetentlik mezonlarini axloqiy dilemmadagi aniq harakat ko‘rsatkichlariga aylantirish alohida metodik vazifadir.

B.X.Xodjaev pedagogik takt va odobni muloqot hamda ziddiyatli vaziyatlar bilan bog‘liq holda ko‘rib chiqadi; o‘quvchi qadr-qimmatini saqlash, adolatsizlik va tahdiddan saqlanish, nizoning sabablarini tahlil qilishga urg‘u beradi [2]. A.A.Xoliqov pedagogik mahorat tarkibida kasbiy refleksiya masalasini yoritadi [3]. Ushbu qarashlar asosida malaka oshirishda pedagogning qanday gapirgani bilan birga, nima sababdan shu qarorni tanlaganini muhokama qilish maqsadga muvofiq. Xushmuomalalik qarorning mazmunan adolatli ekanini o‘z-o‘zidan kafolatlamaydi deya izohlagan.

A.A.Ibragimov malaka oshirishni modernizatsiyalashda individual traektoriya, refleksiv-kommunikativ faoliyat, o‘zini va o‘zaro baholash imkoniyatlarini asoslaydi [4]. Bu ish etik kompetentlikka maxsus bag‘ishlanmagan bo‘lsa-da, axloqiy ehtiyojga mos o‘quv vazifasini tanlash va kursdan keyingi rivojlanishni davom ettirish uchun tashkiliy asos beradi. Mahalliy yondashuvlarni axloqiy tanlovning dalillari va kuzatiladigan natijalari bilan to‘ldirish zarur deb takidlagan.

Xorijiy mamlakatlar olimlaridan J.Restning o‘zining ilmiy qarashlarida axloqiy rivojlanish masalalariga to‘xtalagan bo‘lsa, M.Bibo, J.Rest hamda D. Narvaezlarning to‘rt komponentli yondashuvi axloqiy sezgirlik, hukm chiqarish, motivatsiya va harakatni amalga oshirish qobiliyatini ajratadi [5; 6]. Bular qat’iy ketma-ket bosqichlar emas, axloqiy xatti-harakatning turli tomonlaridir. Pedagog to‘g‘ri yechimni aytishi, ammo bosim ostida uni bajara olmasligi mumkin. Shuning uchun mashg‘ulotda dalillash bilan birga, mas’uliyatli harakatni mashq qilish ham zarur.

K.Tirri o‘qituvchilarning maktabdagi axloqiy dilemmalarini o‘rganib, qarorni asoslashda bola manfaatining ahamiyatini va yechimlarning vaziyatga bog‘liqligini ko‘rsatadi [7]. K.Tirri va E.Kuusisto kasbiy axloqni axloqiy sezgirlik, pedagogning maqsadlari va o‘quvchi imkoniyatlari haqidagi qarashlari bilan bog‘liq muhokama qiladi [10]. Bu yondashuvlar o‘quvchini «qobiliyatsiz» yoki «tartibsiz» deb oldindan belgilab qo‘yish qarorni qanday cheklashini tahlil qilish uchun asos bo‘ladi.

O.Shapira-Lishchinskiy tanqidiy voqealar tahlilida g‘amxo‘rlik va rasmiy talablar, maxfiylik va maktab qoidalari, hamkasbga sadoqat va kasbiy me’yorlar o‘rtasidagi ziddiyatlarni yoritadi [8]. Uning tadqiqoti malaka oshirish mazmunini real dilemmalar bilan boyitishga asos beradi. L. Desimone esa kasbiy rivojlanishda

mazmunga yo‘naltirilganlik, faol o‘rganish, muvofiqlik, davomiylik va jamoaviy ishtirokni muhim xususiyatlar sifatida ko‘rsatadi [9]. Ushbu xususiyatlarni etik tayyorgarlikka tatbiq etish mazkur maqolaning metodik taklifidir; xorijiy natijalarni mahalliy sharoitda tayyor samaradorlik dalili sifatida qabul qilish mumkin emas.

Pedagogik imkoniyatlar va amalga oshirish mexanizmlari. Malaka oshirish tajribani axloqiy nuqtai nazardan qayta ko‘rib chiqish uchun xavfsiz o‘quv muhitini yaratishi lozim. Tinglovchi tajribasi keys manbai bo‘ladi, biroq shaxslarni aniqlash mumkin bo‘lgan ma’lumotlar keltirilmaydi. Trener ishtirokchini ayblash o‘rniga uning dalillarini tekshiradi, muqobil nuqtai nazarni so‘raydi va qarorda e’tibordan chetda qolgan manfaatlarni ochib beradi.

1-jadval.

Kompetentlikni rivojlantiruvchi pedagogik imkoniyatlar

Imkoniyat	O‘quv mexanizmi	O‘quv natijasining dalili
Dilemmaga asoslangan keys	Zid qadriyatlar va kamida ikki yechim oqibatini qiyoslash	Dalillangan qaror bayonnomasi
Rolli mashq	Pedagog, o‘quvchi va ota-ona nuqtai nazaridan muloqot qilish	Hurmatli muloqot va rad etish usuli
Kollegial muhokama	Echimga qarshi dalil keltirish va uni qayta ko‘rib chiqish	Tahrirlangan yechim va asos
Refleksiv portfolio	Dastlabki qarorni keyingi tahlil bilan solishtirish	Xato sababi va o‘zgarish dalili
Individual hamrohlik	Kursdan keyin anonimlashtirilgan vaziyatni mentor bilan tahlil qilish	Amaliyotga ko‘chirish rejasi

O‘quv siklida boshlang‘ich keys orqali ehtiyoj aniqlanadi, yechim mashq qilinadi, fikr-mulohaza asosida qaror qayta yoziladi va amaliyotda kuzatish vazifasi belgilanadi. Dastlabki hamda yakuniy keyslar mazmunan farqli, ammo axloqiy murakkabligi jihatidan yaqin bo‘lishi kerak. Bir keysni takrorlash natijasi eslab qolish ta’sirini aks ettirishi mumkin.

Keys tahlili uchun quyidagi amaliy yo‘riq taklif etiladi: faktni taxmindan ajratish; manfaatdor tomonlarni va zid qadriyatlarni aniqlash; kasbiy talablar hamda vakolat chegarasini tekshirish; kamida ikki muqobil yechimni baholash; qaror va muloqot usulini asoslash; natijani kuzatish va zarur tuzatishni belgilash. Bu yo‘riq qat’iy algoritm emas: yangi ma’lumot oldingi xulosani qayta ko‘rib chiqishni talab qilishi mumkin.

Masalan, ota-ona farzandiga yuqoriroq baho qo‘yishni so‘ragan shartli vaziyatda pedagogning vazifasi bosimga munosabat bildirish bilan cheklanmaydi. U baholash mezonini tushuntiradi, ishda xato baholash ehtimolini tekshiradi, hamma uchun bir xil qayta ko‘rib chiqish tartibini taklif etadi. O‘quvchini qo‘llab-quvvatlash bahoni asossiz o‘zgartirishga tenglashtirilmaydi. Rolli mashqda aynan

shu qarorni hurmat bilan yetkazish, qarshilikni eshitish va o‘z mavqeini dalillash kuzatiladi.

Raqamli muloqot keysida esa o‘quvchi ishini ismi bilan umumiy guruhda muhokama qilishning ta’limiy foydasi maxfiylik va sha’nga ehtimoliy zarar bilan solishtiriladi. Tinglovchi anonimlashtirish, individual fikr-mulohaza yoki shaxsni ochmaydigan namunadan foydalanish kabi yechimlarni taklif qiladi. Zarur rozilik va ma’lumotni tarqatish chegaralari tekshiriladi. Qoidalarga muvofiqlik qarorning boshlang‘ich chegarasini belgilasa, etik tahlil uning adolatli, mutanosib va pedagogik jihatdan asosliligini ochib beradi.

Tadqiqot jarayonida baholash fikrlash va harakatning kuzatiladigan belgilariga tayanadi. 2-jadvaldagi darajalar shaxsga axloqiy yorliq qo‘yish uchun emas, muayyan vazifadagi natija va keyingi o‘quv ehtiyojini aniqlash uchun xizmat qiladi. Baholovchi yechimning shaxsiy qarashiga mosligini emas, dalillar sifatini tekshiradi.

2-jadval.

Kasbiy-axloqiy qarorni baholash uchun taklif etilayotgan mezonlar

Mezon	Boshlang‘ich daraja	Rivojlanayotgan daraja	Mustaqil qo‘llash
Axloqiy sezgirlik	Faqat qoida buzilishini ko‘radi	Ayrim tomonlar manfaatini ajratadi	Zid qadriyat va yashirin ta’sirni ochadi
Dalillangan tanlov	Bir yechimni izohsiz aytadi	Muqobillarni qisman qiyoslaydi	Echim, oqibat va e’tirozni asoslaydi
Mas’uliyatli harakat	Umumiy niyatni bildiradi	Qadamlarni aytadi, to‘siqni kam hisobga oladi	Vakolat, muloqot va yordam manbaini belgilaydi
Refleksiv tuzatish	Qarorini o‘zgarmas deb biladi	Kamchilikni ko‘rsatma bilan tan oladi	Yangi dalil asosida qarorini qayta ko‘radi

Mezonlar yozma keys yechimi, rolli mashq kuzatuvi va refleksiv yozuvni birgalikda tahlil qilish orqali qo‘llanadi. O‘zini baholash natijasi hamkasb yoki trener kuzatuvi bilan qiyoslanadi. Baholovchilar avval bir xil namuna ishlarini muhokama qilib, deskriptorlarni bir xil tushunishga kelishishi zarur.

Kursdan keyingi kuzatuv uchun pedagog shaxslar nomi keltirilmagan qaror qaydini yuritishi mumkin: vaziyat, tanlangan yechim, kutilgan oqibat va amaldagi natija. Mentor bilan qarorning qaysi qismi ishlagani va nimani o‘zgartirish zarurligi tahlil qilinadi. Joriy etishda vaqt yetishmasligi, rahbariyat bosimi va xatoni oshkor qilishdan qo‘rqish inobatga olinib, muhokama intizomiy jazolash vositasiga aylantirilmasligi kerak.

Xulosa shuki, kasbiy-axloqiy qaror qabul qilish kompetentligi malaka oshirish mazmuni, o‘qitish usuli va baholash muvofiqlashtirilganda rivojlantirilishi mumkin. Milliy pedagogik odob va refleksiya yondashuvlarini axloqiy sezgirlik hamda dilemma tahlili bilan bog‘lash bunga metodik asos bo‘ladi. Amaliy ustuvorliklar

sifatida kontekstli keyslar banki, rolli mashqlar, kollegial fikr-mulohaza va kursdan keyingi mentorlikni birlashtirish tavsiya etiladi. Natija pedagogning qoidani takrorlashida emas, tanlovini asoslashi, inson qadr-qimmatini saqlashi va yangi dalil asosida o‘z qarorini tuzata olishida baholanishi lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning O‘qituvchi va murabbiylar kuniga bag‘ishlangan tantanali marosimdagi nutqi. https://president.uz/uz/lists/view/3864
2. Muslimov N.A., Usmonboeva M.H., Sayfurov D.M., To‘raev A.B. Pedagogik kompetentlik va kreativlik asoslari. Toshkent: Nizomiy nomidagi TDPU huzuridagi PKQT va MO tarmoq markazi, 2015. 120 b.
3. Xodjaev B.X. Umumiy pedagogika. Toshkent: Sano-standart, 2017. 416 b.
4. Xoliqov A.A. Pedagogik mahorat. Toshkent: Iqtisod-moliya, 2011. 420 b.
5. Ibragimov A.A. Xalq ta’limi xodimlari malakasini oshirish tizimini modernizatsiyalash parametrlari. Toshkent: Navro‘z, 2019. 180 b.
6. Rest J.R. Moral Development: Advances in Research and Theory. Praeger, 1986. 241 p.
7. Bebeau M.J., Rest J.R., Narvaez D. Beyond the Promise: A Perspective on Research in Moral Education. Educational Researcher. 1999. 28(4). P. 18-26. DOI: 10.3102/0013189X028004018.
8. Tirri K. Teachers’ Perceptions of Moral Dilemmas at School. Journal of Moral Education. 1999. 28(1). P. 31-47. DOI: 10.1080/030572499103296.
9. Shapira-Lishchinsky O. Teachers’ Critical Incidents: Ethical Dilemmas in Teaching Practice. Teaching and Teacher Education. 2011. 27(3). P. 648-656. DOI: 10.1016/j.tate.2010.11.003.
10. Desimone L.M. Improving Impact Studies of Teachers’ Professional Development: Toward Better Conceptualizations and Measures. Educational Researcher. 2009. 38(3). P. 181-199. DOI: 10.3102/0013189X08331140.
11. Tirri K., Kuusisto E. Teachers’ Professional Ethics: Theoretical Frameworks and Empirical Research from Finland. Brill, 2022. DOI: 10.1163/9789004532649.

MILLIY TARBIYA JARAYONLARINI TASHKIL ETISHDA OILA VA MAKTAB HAMKORLIGI AN'ANALARI

L.M.Qoraxonova
Qori Niyoziy nomidagi TPMI “Mahalla-oila-maktab hamkorligi” ilmiy tadqiqot bo‘limi boshlig‘i, p.f.d.,(DSc), k.i.x.
https://doi.org/10.5281/zenodo.23178169

Ushbu maqolada uzluksiz ta'lim tizimida milliy tarbiya jarayonlarini samarli tashkil etish, yosh avlodni ma'naviy-axloqiy jihatdan kamolga etkazishda oila va maktab hamkorligining an'anaviy hamda zamonaviy pozitsiyalari tahlil qilinadi. Maqolada milliy tarbiyaning strukturaviy-funksional komponentlari (aksiologik, kognitiv, emotsional-motivatsion va faoliyatli) ilmiy asoslab berilgan. Shuningdek, oila va ta'lim muassasasi o'rtasidagi hamkorlik an'analarini pedagogik integratsiya asosida rivojlantirish bo'yicha amaliy tavsiyalar ilgari surilgan.
Kalit so'zlar: *Milliy tarbiya, oila va maktab hamkorligi, milliy qadriyatlar, aksiologik yondashuv, ta'lim-tarbiya integratsiyasi, pedagogik diagnostika, "Oila-mahalla-maktab" zanjiri.*

This article analyzes the traditional and modern aspects of cooperation between family and school in effectively organizing the process of national upbringing within the continuous education system and promoting the moral and spiritual development of the young generation. The paper scientifically substantiates the structural and functional components of national upbringing, including axiological, cognitive, emotional-motivational, and activity-based aspects. Additionally, practical recommendations are provided to enhance the traditions of family-school partnership through pedagogical integration.
Key words: *National upbringing, family and school cooperation, national values, axiological approach, educational integration, pedagogical diagnostics, "Family-neighborhood-school" chain.*

Shiddat bilan rivojlanayotgan XXI asrda — globallashuv, axborot oqimi va raqamli texnologiyalar inson hayotining barcha jabhalariga chuqur kirib borayotgan bir davrda, oldimizda juda muhim va strategik vazifa ko‘ndalang bo‘lmoqda. U ham bo‘lsa - **milliy o‘zligimizni, ma’naviy-axloqiy qadriyatlarimizni saqlab qolgan holda barkamol va komil insonni voyaga yetkazish** masalasidir.

Xalqimizda: *«Bir bolaga jumla jahon mas’ul»*, degan dono naql bor. Ma’naviyat va tarbiya jarayoni hech qachon bir tomonlama yoki yakka tartibda kechadigan hodisa emas. U yaxlit, tizimli va pedagogik jihatdan muvofiqlashtirilgan jarayonni talab etadi. Mana shu jarayonning eng mustahkam va yengilmas ikki ustuni - bu **OILA** va **MAKTAB**dir.

Globallashuv va axborot texnologiyalari shiddat bilan rivojlanayotgan hozirgi davrda yoshlar ma'naviyatini shakllantirish, ularni milliy va umuminsoniy qadriyatlar ruhida tarbiyalash masalasi har qachongidan ham dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. O'zbekiston Respublikasining Ta'lim to'g'risidagi qonunchiligi hamda Ma'naviyat va ma'rifat sohasidagi davlat siyosatida uzluksiz tarbiya tizimini takomillashtirish ustuvor vazifa qilib belgilangan.

Milliy tarbiya - bu shunchaki o'tmish urf-odatlari va qadriyatlarini takrorlash emas, balki xalqimizning asriy ma'naviy merosi, odob-axloq normalari va vatanparvarlik tuyg'ularini zamonaviy dunyoqarash bilan uyg'unlashtirgan holda komil insonni shakllantirishga qaratilgan maqsadli pedagogik jarayondir. Ushbu murakkab jarayonni muvaffaqiyatli amalga oshirishning bosh omili - **oila va maktab hamkorligi an'anala**rini yangi bosqichda qayta anglash va amaliyotga tatbiq etishdan iborat.

Pedagogik-psixologik tadqiqotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, milliy tarbiya jarayoni yaxlit tizim bo'lib, u quyidagi interaktiv komponentlardan tashkil topadi:

1. **Aksiologik (qadriyatli) komponent:**

Shaxsda milliy g'urur, ori-nomus, kattalarga hurmat, kichiklarga izzat, mehmondo'stlik, bag'rikenglik kabi fundamental qadriyatlarni shakllantiradi.

Milliy va umuminsoniy qadriyatlar o'rtasidagi muvozanatni ta'minlaydi.

2. **Kognitiv-intellektual komponent:**

O'quvchilarda milliy tarix, adabiyot, san'at, madaniy meros va xalq og'zaki ijodi haqida chuqur va tizimli bilimlarni paydo qiladi.

Milliy o'zlikni anglash imkonini beruvchi tafakkur bazasini yaratadi.

3. **Emotsional-motivatsion komponent:**

Vatan va oilaga bo'lgan samimiy muhabbat, milliy ramzlar hamda muqaddas qadamjolarga nisbatan ehtirom va faxr tuyg'usini uyg'otadi.

Tarbiyalanuvchining ma'naviy-axloqiy kamolotga intilishini ichki ehtiyojga aylantiradi.

4. **Xulq-atvoriy (faoliyatli-amaliy) komponent:**

Egallangan milliy bilim va qadriyatlarni kunlik muloqot, jamoat ishlari hamda oilaviy hayotda namoyon etish ko'nikmasini shakllantiradi.

Salbiy illatlar va yot g'oyalarga nisbatan ma'naviy immunitetni mustahkamlaydi.

Oila va maktab - tarbiya jarayonining ikki asosiy ustuni bo'lib, ularning har biri o'ziga xos ijtimoiy-pedagogik pozitsiya va funksiyaga ega.

Oila pozitsiyasi: Birlamchi tarbiya va milliy muhit

Oila — milliy tarbiyaning birinchi va eng ta'sirchan maskanidir. Sharqona oila an'analarida bolaga til burchi, muomala odobi va ma'naviy tamal toshlari aynan oilaviy muhitda qo'yiladi.

- **Burchi:** Milliy qadriyatlarni shaxsiy namuna (ota-ona ibrati) orqali singdirish, oilaviy qadriyat va udumlarni saqlash hamda bolada mehnatsevarlik va mas'uliyatni shakllantirish.
- **Xususiyati:** Emotsional yaqinlik va samimiyatga asoslangan doimiy pedagogik ta'sir.

Maktab pozitsiyasi: Tizimlashtirilgan pedagogik va ilmiy maskan

Maktab oilada berilgan tarbiya poydevorini ilmiy-nazariy jihatdan boyitadi, boyitilgan bilimlarni ijtimoiy amaliyotga tatbiq etadi.

- **Burchi:** Tarbiya jarayonini ilmiy asosda rejalashtirish, o'quvchining ijtimoiy moslashuvini ta'minlash, milliy g'oya va madaniyatni fanlar integratsiyasi orqali chuqur singdirish.
- **Xususiyati:** Professional-pedagogik yondashuv va tizimlilik.

Hamkorlikning an'anaviy va zamonaviy mexanizmlari

Tarmoq	An'anaviy shakllar	Zamonaviy innovatsion yondashuvlar
Muloqot	Ota-onalar majlislari, uyga tashriflar	Onlayn platformalar, ma'naviy-ma'rifiy forumlar, interaktiv so'rovnomalar
Birgalikdagi faoliyat	Bayram va ochiq darslar	"Ota-onalar universiteti", oilaviy tanlovlar ("Kitobxon oila", "Sog'lom oila")
Diagnostika	Og'zaki suhbatlar	Psixologik-pedagogik monitoring, oilaviy muhit va o'quvchi xulqini tahlil qiluvchi raqamli indikatorlar

Oila va maktab hamkorligini takomillashtirish bo'yicha tavsiyalar:

1. **"Oila - Mahalla - Maktab" hamkorlik zanjirini raqamlashtirish va metodik boyitish:**
   - Ota-onalar uchun milliy tarbiya metodikasi bo'yicha maxsus raqamli qo'llanma va onlayn-resurslar bazasini yaratish.
2. **"Ota-onalar universiteti" faoliyatini mazmunan yangilash:**
   - Mashg'ulotlarga tajribali pedagoglar, psixologlar va ma'naviyat targ'ibotchilarini jalb etgan holda, oilada milliy qadriyatlarni singdirishning zamonaviy usullarini o'rgatish.
3. **Amaliy va loyihaviy yondashuvni joriy etish:**
   - O'quvchilarda milliy g'urur va milliy merosga hurmatni oshirish maqsadida oilaviy loyihalar (masalan, *"Oila tarixi va shajarasi"*, *"Mening mahallam qadriyatlari"*, *"Milliy qadriyatlarimiz – bizning nigohimizda"*) loyihalarini tashkil etish.
4. **Pedagogik va oilaviy diagnostikani yo'lga qo'yish:**
   - O'quvchilarning ma'naviy-axloqiy darajasini va oilaviy muhit ko'rsatkichlarini muntazam tahlil qilib borish orqali profilaktik va korreksion ishlarni o'z vaqtida amalga oshirish.

Milliy tarbiya jarayonlarini tashkil etishda oila va maktab hamkorligi — bu oddiy muloqot shakli emas, balki jamiyatning ma'naviy va kognitiv barqarorligini ta'minlovchi strategik hamkorlikdir. Oila va maktabning yagona maqsad yo'lida birlashishi, xalqimizning ko'p asrlik tarbiya an'analariga tayanishi va ularni zamonaviy pedagogik texnologiyalar bilan boyitishi kelajakda har tomonlama barkamol, milliy va umuminsoniy qadriyatlarni hurmat qiluvchi komil insonlarni voyaga yetkazishning bosh garovidir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Inomova M.O. Oilada bolalarni ma'naviy-axloqiy tarbiyalashda milliy qadriyatlardan foydalanish. – T.: TDPU, 2004.
2. Musurmonova A. Oila ma'naviyati – milliylik ko'zgusi. – Toshkent: "Fanga riyoziyot", 2012.
3. Hasanboev J. va boshqalar. Pedagogika: O'quv qo'llanma. – T.: "Noshir", 2011.

BIOLOGIK EKSKURSIYALAR ASOSIDA O‘QUVCHILARNING EKOLOGIK KOMPETENSIYASINI RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK-METODIK ASOSLARI

Quldosheva Dilso‘z Sunnatovna
Navoiy viloyati pedagogik mahorat markazi “Aniq va tabiiy fanlar metodikasi” kafedrasi katta o‘qituvchisi
https://doi.org/10.5281/zenodo.23178197

Annotatsiya. *Ushbu tezisda biologik ekskursiyalarni ta’lim jarayoniga integratsiya qilish orqali o‘quvchilarda ekologik kompetensiyani rivojlantirishning pedagogik-metodik asoslari yoritiladi. Tadqiqotning maqsadi ekskursiya faoliyatini kompetensiyaviy yondashuvga mos loyihalash, indikatorlar tizimini belgilash va baholash mexanizmini ishlab chiqishdan iborat. Metodlar sifatida kuzatuv, diagnostik test, portfel tahlili va rubrikalash qo‘llanadi. Yangilik sifatida ekskursiya ssenariysi, xavfsizlik protokoli va natijaviylik mezonlari uyg‘unlashtiriladi.*

Аннотация. *В тезисе раскрываются педагогико-методические основы развития экологической компетентности учащихся на базе биологических экскурсий. Целью является проектирование экскурсионной деятельности в логике компетентностного подхода, определение системы индикаторов и разработка механизма оценивания. Используются наблюдение, диагностические тесты, анализ портфолио и оценивание по рубрикам. Научная новизна заключается в согласовании сценария экскурсий, протоколов безопасности и критериев результативности.*

Annotation. *This thesis examines pedagogical and methodological foundations for developing students’ ecological competence through biology-based field excursions. The aim is to design excursion activities within a competency-based approach, define measurable indicators, and propose an assessment mechanism. Methods include systematic observation, diagnostic testing, portfolio analysis, and rubric-based evaluation. Scientific novelty is provided by integrating excursion сценарий design, safety protocols, and outcome criteria into a coherent instructional model.*

Kalit so‘zlar: *ekologik kompetensiya; biologik ekskursiya; kompetensiyaviy yondashuv; kuzatuv; rubrika asosida baholash; portfel; mahalliy ekotizim*

Ключевые слова: *экологическая компетентность; биологическая экскурсия; компетентностный подход; наблюдение; оценивание по рубрикам; портфолио; локальная экосистема.*

Keywords: *ecological competence; biology field excursion; competency-based education; systematic observation; rubric-based assessment; learning portfolio; local ecosystem.*

Ekologik kompetensiya ta’lim natijasi sifatida o‘quvchining tabiatga mas’uliyatli munosabat, ekologik muammolarni ilmiy asosda anglash va amaliy qaror qabul qilishga tayyorlik kabi integrativ sifatlarini bildiradi. Ushbu kompetensiya mexanizmi bilim, ko‘nikma, qadriyat va xulqiy odatlarning bir-birini to‘ldirishi orqali shakllanadi, ya’ni faktlarni bilishning o‘zi yetarli bo‘lmay, ularni real muhitda qo‘llash va baholash talab etiladi. Masalan, o‘quvchi suv havzasida biotik ko‘rsatkichlarni kuzatib, suvning ifloslanish ehtimolini taxmin qilsa, u nafaqat biologik tushunchalarni eslaydi, balki ekologik xavfni tushuntira oladi va profilaktik chorani taklif qiladi. Raqamlar ekologik ta’limda amaliy tajribaning kuchini

ko‘rsatadi: sinfda o‘qitiladigan mavzuning 60–70 foizi mazmunan eslab qolinsa-da, dala sharoitidagi faoliyatdan so‘ng tushunchalarni qo‘llash ko‘rsatkichlari odatda 20–30 foizga oshishi kuzatiladi, chunki ko‘rish, o‘lchash va solishtirish bir vaqtda ishga tushadi. Ilmiy izoh shundan iboratki, konstruktivistik ta’lim nazariyalariga ko‘ra bilimlar kontekstda qayta quriladi va aynan ekskursiya konteksti ekologik sabab-oqibat bog‘lanishlarini idrok etish uchun optimal didaktik maydon yaratadi.

Biologik ekskursiya tushunchasi o‘quv jarayonini tabiiy ob’ektlar bilan bevosita muloqotda tashkil etuvchi, oldindan rejalashtirilgan va metodik boshqariladigan dala mashg‘ulotidir. Uning mexanizmi “tayyorgarlik – dala tadqiqoti – qayta ishlash – refleksiya” zanjiri orqali ishlaydi, bunda har bir bosqich o‘quvchining bilish faoliyatini maqsadga yo‘naltirib, xavfsizlik, etnik va o‘lchov madaniyatini ham shakllantiradi. Masalan, “Mahalliy daryo bo‘yida bioindikatsiya” ekskursiyasida o‘quvchilar makrozoobentos turlarini aniqlab, tolerantlik indeksini hisoblaydi va natijani xarita bilan bog‘laydi. Statistik jihatdan, 25–30 nafar o‘quvchidan iborat guruhda 4–5 kishilik kichik jamoalarda ishlash kuzatuvning aniqligini oshiradi, chunki takroriy o‘lchovlar soni ko‘payib, xatolik 10–15 foizgacha kamayadi. Dala pedagogikasi bo‘yicha tadqiqotlar kichik guruhlar kognitiv yuklamani taqsimlashini, natijada o‘quvchi bir vaqtning o‘zida ham kuzatish, ham qayd etish, ham talqin qilishga ulgurishini asoslaydi.

Ekologik kompetensiyani rivojlantirishning pedagogik asosi kompetensiyaviy yondashuvga tayanib, natijani faqat bilim bilan emas, balki faoliyat va munosabat indikatorlari bilan o‘lchashni talab qiladi. Bu yondashuv mexanizmi o‘quv maqsadlarini “nimalarni biladi”dan “nima qila oladi va nima uchun shunday qiladi”ga ko‘chirish orqali ishlaydi, shuning uchun ekskursiya topshiriqlari ham muammoli vaziyat, tadqiqot savoli, dalillarga tayanish va xulosa chiqarish bosqichlarini o‘z ichiga oladi. Masalan, “Maktab hududidagi chiqindilar oqimi” mavzusida o‘quvchi plastmassa, qog‘oz, organik fraksiyalar ulushini aniqlab, qayta ishlash bo‘yicha mini-loyiha tayyorlaydi va iqtisodiy-ekologik foydani hisoblaydi. Raqamlar bilan ifodalaganda, 2 haftalik kuzatuvda bir sinf hududidan kuniga o‘rtacha 1,5–2,0 kg maishiy chiqindi yig‘ilishi qayd etilsa, saralash joriy etilgach, poligonga ketadigan qismi 25–35 foizga kamayishi mumkin, bu esa kompetensiyaning amaliy natijasini ko‘rsatadi. Ekologik xulqni shakllantirish nazariyalari (attityud–niyat–xulq modeli) real faoliyat va ijtimoiy tasdiq mavjud bo‘lganda barqaror odat yuzaga kelishini ta’kidlaydi.

Metodik jihatdan ekskursiyalarni loyihalash didaktik maqsad, ob’ekt tanlovi, tadqiqot usullari va baholash mezonlari birligini ta’minlashni anglatadi. Ushbu loyihalash mexanizmi “kompetensiya komponenti – indikator – topshiriq – dalil – baho” mantiqiy zanjiriga qurilganda o‘qituvchi ham jarayonni boshqaradi, ham natijani shaffof o‘lchaydi. Masalan, “O‘rmonchada tur xilma-xilligini baholash” topshirig‘ida indikator sifatida tur boyligi, uchrash chastotasi va antropogen izlar

(tap-tap yo‘lak, chiqindi, shikastlangan daraxt) qayd etiladi, dalil sifatida esa fotosurat, herbarizatsiyasiz eskiz, GPS nuqta va jadval taqdim etiladi. Raqamli me’yor sifatida 45 daqiqalik dala segmentida har bir guruh kamida 12–15 ta tur bo‘yicha qayd yozsa, material keyingi darsda statistik tahlil uchun yetarli bo‘ladi, chunki namunalar soni kam bo‘lsa, xulosa ishonchliligi pasayadi. Ekologiyada minimal namunaviylik tamoyili mavjud bo‘lib, u ta’limiy tadqiqotda ham soddalashtirilgan shaklda qo‘llanadi va o‘quvchini ilmiy ehtiyotkorlikka o‘rgatadi.

Ekskursiya jarayonida o‘lchash va qayd etish madaniyati ekologik kompetensiyaning markaziy metodik elementi hisoblanadi. Bu elementning mexanizmi standartlashtirilgan protokollar, ya’ni sana, joy, ob-havo, kuzatuvchi, uskunalar va natijalarni bir xil formatda rasmiylashtirish orqali ta’minlanadi, natijada o‘quvchi dalilni sub’ektiv taassurotdan ajratishni o‘rganadi. Masalan, pH va nitrat miqdorini baholashda o‘quvchi indikator qog‘ozi yoki ekspress-testdan foydalanib, rang shkalasi bo‘yicha qiymatni jadvalga kiritadi va “me’yor–og‘ish” bo‘yicha xulosa beradi. Raqamlar sifatida, ichimlik suvida nitratning gigiyenik me’yori ko‘pincha 45–50 mg/l atrofida keltiriladi, o‘quv eksperimentida esa natija 60 mg/l chiqsa, sabablar (o‘g‘it oqimi, drenaj) muhokama qilinadi va xavf bahosi tuziladi. Kimyoviy indikatorlar bilan ishlash o‘quvchining fanlararo tafakkurini kuchaytiradi, chunki ekologik muammo biologik jarayonlar bilan birga kimyoviy aylanishlar orqali ham izohlanadi; masalan, nitrifikatsiya jarayoni $NH_4^+ \rightarrow NO_2^- \rightarrow NO_3^-$ ketma-ketligi orqali kechadi va bu o‘g‘itlar ta’sirini tushunishga yordam beradi.

Baholash masalasi ekologik kompetensiyani rivojlantirishda metodik hal qiluvchi bo‘lib, u faqat yakuniy test bilan cheklanmasligi kerak. Baholash mexanizmi diagnostik test, kuzatuv varaqasi, portfel va rubrika asosida formatif baholashni uyg‘unlashtirsa, o‘quvchi jarayon davomida o‘z xatolarini ko‘rib, tuzatish imkoniga ega bo‘ladi. Masalan, rubrikada “ma’lumot yig‘ish aniqligi”, “dalilni talqin qilish”, “ekologik yechim taklifi” va “jamoada hamkorlik” kabi mezonlar 4 darajada tavsiflanadi, portfelga esa jadval, xarita, qisqa hisobot va refleksiya matni kiritiladi. Raqamli ifoda sifatida, 4 darajali rubrikada 16 ballik shkala qo‘llansa, sinf bo‘yicha o‘rtacha ko‘rsatkich 9 balldan 12 ballga ko‘tarilishi ekskursiya siklining natijadorligini ko‘rsatadi, shu bilan birga dispersiya kamayishi baholash barqarorligini bildiradi. Ta’lim o‘lchovlarida ishonchlilik va haqiqiylik tushunchalari mavjud bo‘lib, rubrika mezonlari aniq deskriptorlar bilan berilganda baholash kelishuv oshadi va baho sub’ektivligi pasayadi.

Quyidagi jadval ekskursiya asosidagi ekologik kompetensiya indikatorlarini pedagogik natija bilan bog‘lashga xizmat qiladi va u metodik rejalashtirishda minimal standart sifatida ko‘riladi. Jadvalning mexanizmi shundan iboratki, har bir indikatorga mos dalil turi va baholash usuli belgilanadi, bu esa o‘qituvchiga ham hujjatlashtirishni, ham tahlilni yengillashtiradi. Masalan, “kuzatuv aniqligi”

fotosurat va protokol bilan, “tahliliy xulosa” esa argumentli matn bilan tasdiqlanadi, natijada o‘quvchi dalil keltirish madaniyatini egallaydi. Raqamli mezonlar indikatorlarni operatsionallashtiradi: kamida 3 ta manba turidagi dalil, kamida 2 ta alternativ izoh, kamida 1 ta amaliy tavsiya kiritilishi kabi talablar qo‘yiladi. Indikatorlashtirish pedagogik diagnostikaning asosiy talabidir, chunki kompetensiya bevosita ko‘rinmaydi va faqat faoliyat mahsuli orqali bilvosita baholanadi.

Ekskursiyalarni tashkil etishda xavfsizlik va etika pedagogik-metodik tizimning ajralmas qismi bo‘lib, u o‘quvchining sog‘lig‘i, tabiatga zarar yetkazmaslik va ilmiy halollik talablarini qamrab oladi. Bu yo‘nalishning mexanizmi xavf tahlili, yo‘riqnoma, marshrut kartasi, birinchi yordam qoidalari va “iz qoldirmaslik” tamoyillarini amaliyotga kiritish orqali ishlaydi. Masalan, suv bo‘yida ishlashda sirpanish xavfi, o‘simlik changiga allergiya, hasharot chaqishi kabi omillar oldindan baholanadi va guruhda mas’ul shaxslar belgilanadi, bunda o‘quvchilar ham o‘zini boshqarish ko‘nikmasini oladi. Raqamlar bilan ifodalaganda, 30 nafar o‘quvchi bilan ekskursiyada kamida 2 nafar kattalar hamrohligi, har 10 o‘quvchiga bitta nazorat segmenti va aloqa vositasi mavjudligi tavsiya etiladi, bu tashkiliy barqarorlikni oshiradi. Xavfsizlik protokoli mavjud bo‘lmagan dala mashg‘uloti didaktik yutuqlarni “xavf narxi” bilan kamaytirishi mumkin, shuning uchun pedagogik sifat menejmenti doirasida xavfsizlik ham ta’lim natijasining sharti sifatida qaraladi.

Tarixiy nuqtayi nazardan, tabiatni bevosita o‘rganish g‘oyasi Sharq tabobati va tabiiyotshunoslik an’analarida erta shakllangan, keyinchalik esa maktab biologiyasi metodikasida dala amaliyoti sifatida institutsional tus olgan. Bu rivojlanish mexanizmi ilmiy bilimning laboratoriyadan tabiiy muhitga chiqishi, ya’ni ekologiya fanining XX asrda alohida yo‘nalish sifatida mustahkamlanishi bilan bog‘liq. Masalan, 1866 yilda E. Gekkel “ekologiya” atamasini ilmiy muomalaga kiritib, organizm va muhit munosabatini tizimli talqin qilishga urg‘u berdi, bu esa keyinchalik ta’lim mazmuniga ham ko‘chdi. Raqamli tarixiy fakt sifatida, XX asrning ikkinchi yarmida biosfera va bioxilma-xillik muammolari bo‘yicha nashrlar keskin ortgani, o‘quv dasturlarida ham “muhitni muhofaza qilish” bo‘limlarining ulushi kengayganini ko‘rish mumkin. Ta’lim mazmuni doimo fan taraqqiyotining didaktik proyeksiyasidir, shuning uchun biologik ekskursiyalar bugun faqat “sayr” emas, balki ilmiy savodxonlikni shakllantiruvchi tadqiqot maydoni sifatida qayta talqin etiladi. Har bir o‘quvchini real hayotga bog‘lashning eng samarali yo‘li darslarda amaliyotning keng qo‘llanilishidir.





Biologik ekskursiyada o‘quvchilarning faoliyat bosqichlari va vazifalari

Faoliyat bosqichi	Vazifa	Baholash mezoni	O‘quvchi soni (ta)
Tayyorgarlik	Mavzuni o‘rganish va tadqiqot savollarini shakllantirish	Test natijalari	30

Dala tadqiqoti	Biotik ko‘rsatkichlarni aniqlash va o‘lchash	Kuzatuvlar aniqligi	30
Qayta ishlash	Ma’lumotlarni tahlil qilish va xaritaga joylash	Portfolio tahlili	30
Refleksiya	Xulosa chiqarish va tavsiyalar berish	Rubrikalar bo‘yicha baholash	30
Xavfsizlik	Xavfsizlik protokoliga rioya qilish	Kuzatuvlar asosida	30

Xulosa qilib aytkanda, biologik ekskursiyalar ekologik kompetensiyani rivojlantirish uchun yuqori didaktik salohiyatga ega bo‘lgan, ammo metodik jihatdan puxta loyihalashni talab etadigan ta’lim shaklidir. Taklif etilgan pedagogik-metodik asos kompetensiya indikatorlarini aniq belgilash, dala protokollarini standartlashtirish, rubrika va portfel orqali baholashni uyg‘unlashtirish hamda xavfsizlik-etik me’yorlarni jarayonning markaziga qo‘yishga tayanadi. Natijada o‘quvchi ekologik bilimni real vaziyatda qo‘llash, dalil to‘plash va tahlil qilish, hamda amaliy yechim taklif etish bo‘yicha barqaror tajribaga ega bo‘ladi. Shuningdek, fanlararo integratsiya kuchayib, biologik kuzatuvlar kimyoviy ko‘rsatkichlar va geografik xaritalash bilan bir tizimda talqin qilinadi. Umuman olganda, ekskursiya asosidagi ta’lim ekologik madaniyatni shakllantirishni nafaqat mazmun darajasida, balki o‘quvchi faoliyati va xulqiy odatlar darajasida ham ta’minlaydigan samarali model sifatida asoslanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati.

1. Zimnyaya I. A. Klyuchevye kompetentsii kak rezultativno-tselevaya osnova kompetentnostnogo podkhoda v obrazovanii. Moskva, Issledovatelskiy tsentr problem kachestva podgotovki spetsialistov, 2004. 42 s.
2. Khutorskoy A. V. Kompetentnostnyy podkhod v obuchenii: nauchno-metodicheskoe posobie. Moskva, Eydos, 2013. 256 s.
3. Ajzen I. Attitudes, Personality and Behavior. New York, McGraw-Hill, 2005. 178 p.
4. Odum E. P. Fundamentals of Ecology. Philadelphia, Saunders, 1971. 574 p
5. Campbell N. A., Reece J. B. Biology. San Francisco, Pearson Benjamin Cummings, 2008. 1267 p
6. UNESCO. Education for Sustainable Development: Learning Objectives. Paris, UNESCO Publishing, 2017. 64 p.
7. Qodirov B. B., Raxmonov A. R. Biologiya o‘qitish metodikasi: darslik. Toshkent, O‘qituvchi, 2019. 320 b

MUSIQA MADANIYATI PEDAGOGLAR TAYYORLASH VA MUSIQA TARBIYASI EHTIYOJI

Voxid Qo‘ziboev
Nizomiy nomidagi O‘zbekiston milliy pedagogika universiteti “Musiqiy ta’lim” kafedrasi o‘qituvchisi
https://doi.org/10.5281/zenodo.23178215

“Yangi O‘zbekiston strategiyasi”da belgilangan sifatli ta’limga erishish vazifalari va ijrosi jarayonida musiqa madaniyatini rivojlantirish ham muhim o‘rin tutadi. Chunki musiqa madaniyati Yangi O‘zbekiston taraqqiyotining asoslaridan biridir.

Mamlakatimizda musiqa madaniyatini sifatli ta’lim mezonlarida asosida rivojlantirishda kasbiy yetuk *o‘qituvchilar tayyorlash* muhim ehtiyoj bo‘lib turibdi. Chunki musiqa o‘qituvchilari umumiy musiqa san’ati bo‘yicha kasbiy mahoratga ega bo‘lishlari bilan birgalikda, musiqa madaniyatini o‘qitish va musiqa tarbiyasini amalga oshirishga doir kasbiy ko‘nikmalarga ham ega bo‘lishi kerak. Bugungi kunda mamlaktimizda maktabgacha va maktab ta’limi, bolalar musiqa va san’at ta’limi, o‘rta maxsus va oliy ta’lim muassasalarida Musiqa fani keng o‘qitilmoqda. Bunda professional musiqa o‘qituvchilariga bo‘lgan ehtiyoj ortib bormoqda. Shu sababli musiqa o‘qituvchilarini tayyorlashda ularning cholg‘u ijrochiligi, musiqa san’ati asoslari, ashula ijrochiligi, ansambl va orkestr ijrochiligi bo‘yicha kasbiy bilim hamda ko‘nikmalarini tarkib toptirish muhim ahamiyatga ega. Ayni paytda, bo‘lajak musiqa o‘qituvchilarini muayyan cholg‘u va xonandalikning muayyan yo‘nalishi bo‘yicha individual metodika btlan qurollantirish ham muhim o‘rin tutadi. Bularning barchasi musiqa o‘qituvchilarini tayyorlash bo‘yicha oliy pedagog ta’lim muassasalari o‘quv dasturlarini muntazam takomillashtirib borish va o‘qitishning turli shakllaridan foydalanishni taqoza etmoqda.

Musiqa o‘qituvchilarini tayyorlashda o‘quv dasturlarida nazariy bilim, ijrochilik mahorati va musiqa ta’limi metodikasi asoslarini uyg‘un o‘zida mujassam etgan omillarga tayanish maqsadga muvofiq bo‘ladi. Chunki nazariy bilimga ega musiqa o‘qituvchilari o‘quvchi-talabalarning musiqa san’ati asoslari bo‘yicha bilimlarini kutilgan darajada tarkib toptiradi. Nazariy bilim ijrochilik mahoratining asosidir. Bu borada cholg‘u va ashula ijrochiligining asoslarini o‘zlashtirishda nazariy bilim tayanch vazifasini o‘taydi. Nazariy bilimga asosan o‘zlashtirilgan ijrochilik mahorati musiqa o‘qituvchilariga o‘ziga xos metodikaga asoslangan musiqa ta’limini amalga oshirish imkonini beradi. Shu jihatdan bu masalada nazariya, ijrochilik va metodika masalalari uyg‘un xususiyatlarga egadir. Bular har o‘quv yili boshida musiqa o‘quv fanlari dasturlarini takomillashtirish zaruriyatini ko‘rsatadi.

Oliy musiqa ta’limi vositasida musiqa o‘qituvchilarini tayyorlashning yangi shakllaridan ham foydalanish muhim ahamiyatga ega. Bunda bugungi kunda amaliy samara berayotgan masofaviy ta’lim, mustaqil ta’lim va individual ta’lim kabi o‘qiitshning yangi shakllari muhim amaliy samaradorlikka ega ekanligini eslatib o‘tish joiz. Jumladan, tajribali professor-o‘qituvchilar va san’atkorlarning kompyutor, TV kabi axborot-kommunikatsion vositalariga asoslangan masofaviy ta’lim shaklidagi mashg‘ulotlarini tashkil qilish professional musiqa o‘qituvchilarini tayyorlashda muhim ahamiyatga ega. Misol uchun, bunday mashg‘ulotlar Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universitetida tashkil etilsa, bu mashg‘ulotlardan hududlardagi oliy pedagogik ta’lim muassasalarining musiqa ta’limi yo‘nalishi talabalari ham bahramand bo‘ladi. Chunki poytaxtimiz va markaziy shaharlardagi oliy ta’lim pedagogik muassasalarida o‘z kasbining ustasi bo‘lgan mutaxassislar faoliyat yuritmoqda. Shu jihatdan talabalarni Ustozlarga biriktirish vositasida ularni mustaqil ta’lim shaklida professional musiqa o‘qituvchilari sifatida tayyorlash ham kutilgan samarani beradi. Bunda o‘ziga biriktirilgan talabalar Ustoz o‘quv materiallarini, ma’lumotlarni va tegishli adabiyotlarni o‘qishni taqdim qilib boradi. Talaba ularni mustaqil o‘zlashtirish bilan o‘zining kasbiy bilim va ko‘nikmalarini rivojlantirib boradi. Bundan tashqari, individual ta’lim shaklida ham bo‘lajak musiqa o‘qituvchilarini tayyorlash imkoniyatlari mavjud. Unga ko‘ra, oliy pedagogik ta’lim muassasasining musiqa ta’lim yo‘nalishida individual musiqa ta’limi dasturi, o‘quv adabiyotlari va metodik ta’minoti ishlab chiqiladi. Ularni o‘zlashtirish bilan bo‘lajak musiqa o‘qituvchisi individual shug‘ullanadi. Buning natijasida talabalardan pedagogik mahorat kuchayadi. Eslatib o‘tish joizki, masofaviy, mustaqil va individual ta’lim shakllarining o‘quv manbalari elektron nusxada tayyorlanadi va ta’lim oluvchiga taqdim etiladi.

Diqqat qilinsa, professional musiqa o‘qituvchilarini tayyorlashning turli shakllaridan foydalanish oliy musiqiy pedagogik ta’lim jarayoni mazmunini, o‘qitish metodikasini va kasbiy tayyorlash asoslarini yangilaydi. Bularning barchasi professional musiqa o‘qituvchilarini tayyorlashda amaliy ahamiyatga ega.

Mamlakatimizda tahlim oluvchilarning *musiqa tarbiyasini* amalga oshirishda ham yangi yondashuvlarga asoslanish dolzarb bo‘lib turibdi. Chunki Internet global axborot tarmog‘i va turli ijtimoiy tarmoqlar vositasida o‘quvchi-talabalar o‘zlarining yosh, ruhiy va estetik xususiyatlariga mos kelmaydigan musiqa asarlarini va qo‘shiqlarini tinglashmoqda. Natijada ularning ongida o‘zga noma’lum jamiyatga intilish hissi, ruhiy tushkunlik tuyg‘usi va me’yorsiz individuallikka intilish maqsadlari paydo bo‘layotganligi sir emas. Shu sababli innovatsion jamiyatimizda musiqa tarbiyasini yangilab borish taqoza etilmoqda. Buning uchun ta’lim oluvchilarga, eng avvalo o‘quvchilarga milliy musiqamiz asoslarini to‘g‘ri tushuntirish va ularni jahon musiqa san’atining eng yaxshi namunalari bilan

tanishtirish maqsadga muvofiq bo‘ladi. Bu ishda professional musiqa o‘qituvchilarining mehnatiga tayanish kutilgan samarani beradi. Shu ma’noda professional musiqa o‘qituvchisi musiqa tarbiyasining individual yondashuv shakllaridan foydalanishi muhim ahamiyatga egadir.

Mamlakatimizda 2030 yilga qadar inklyuziv ta’limga muhtoj, ya’ni jismoniy, ruhiy va aqliy imkoniyatlari cheklangan bolalarni ta’lim bilan to‘liq qamrab olish islohotlari amalga oshirilmoqda. Shu jihatdan inklyuziv ta’limga muhtoj bolalarning musiqa tarbiyasini amalga oshiruvchi professional musiqa o‘qituvchilarini ham tayyorlash dolzarb bo‘lib turibdi. Bunda bo‘lajak musiqa o‘qituvchilarini jismoniy, ruhiy va aqliy imkoniyati cheklangan bolalarga musiqa tarbiyasi berish, ya’ni ularning jismoniy layoqati va qiziqishlaridavn kelib chiqib cholg‘u hamda qo‘shiq ijrochiligiga o‘rgatish metodikasi bilan qurollantirish muhim ahamiyatga egadir. Bo‘lajak professional o‘qituvchilar kelgusida inklyuziv ta’limga muhtoj bolalar bo‘lgan oilalar va ular tarbiyalanayotgan maxsus hamda internat ta’lim muassasalarida ham faoliyat yuritish imkoniyatiga ega. Shu sababli bo‘lajak musiqa o‘qituvchilarini inklyuziv musiqa ta’limi metodikasi bilan qurollantirish taqoza etiladi.

E’tibor berilsa, musiqa tarbisini amalga oshirishning yangi shakllari va inklyuziv ta’lim jarayonida musiqa tarbiyasini amalga oshirish metodikasi bo‘yicha yangi avlod o‘quv adabiyotlarini ishlab chiqish taqoza etiladi. Bu borada pedagogika universitetlaridagi musiqa ta’limi yo‘nalishi professor-o‘qituvchilari hamda mutaxassislarining hamkorlikdagi tadqiqot ishlarini yo‘lga qo‘yish maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Ulug‘ faylasuflardan Aflotunning “Davlatning qudrati qanday musiqa tinglanayotganligi bilan belgilanadi” mazmunidagi fikrini unutib bo‘lmaydi. Chunki qanday musiqa tinglanayotganligi mamlakat fuqarolarining davlatga munosabatini belgilaydi. Bu muammoni hal etish professional musiqa o‘qituvchilarini tayyorlash va musiqa tarbiyasini amalga oshirishga yangicha yondashuvlar bilan amalga oshadi.

MUSIQA TA’LIMI O‘QITUVCHILARINI TAYYORLASHDA “MUSIQA O‘QITISHDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALAR” FANINI TAKOMILLASHTIRISHNING MUHIM JIHATLARI

Voxid Qo‘ziboev
Nizomiy nomidagi O‘zbekiston milliy pedagogika universiteti “Musiqiy ta’lim” kafedrasi o‘qituvchisi
Erkinova Jasmina
Nizomiy nomidagi O‘zbekiston milliy pedagogika universiteti “Musiqiy ta’lim” kafedrasi 301- guruh talabasi
https://doi.org/10.5281/zenodo.23178227

Annotatsiya. *Ushbu maqolada, bo‘lajak musiqa ta’limi o‘qituvchilarini kasbiy faoliyatga tayyorlashda, “Musiqa o‘qitishda innovatsion texnologiyalar” fanini o‘rganish va uni takomillashtirishning muhim jihatlari tahlil qilinib, taklif va tavsiyalar berilgan.*
Kalit so‘zlar: *innovatsiya, texnologiya, texnologiyalashtirish, kasbiy faoliyat, zamonaviy yondashuv, pedagogik texnologiya, zamonaviy ta’lim, pedagogik mahorat kompetensiya.*

Oliy ta’lim muassasalarida mashg’ulotlarini zamonaviy ta’lim texnologiyalari vositasida tashkil etish va unga oid o‘quv adabiyotlarni zamon talabi asosida tayyorlash va amaliyotga tadbiq etish, har bir professor-o‘qituvchilarining asosiy vazifalardan biridir.

Oliy ta’limni modernizatsiya qilishning ustuvor yo‘nalishlarini belgilash, zamonaviy bilim, ko‘nikma ega, tanqidiy, mantiqiy va kreativ fikrlaydigan yuqori malakali kadrlar tayyorlash jarayonini sifat jihatidan yangi bosqichga ko‘tarish, ilg’or ta’lim texnologiyalariga asoslangan holda ijtimoiy soha va iqtisodiyot tarmoqlarini rivojlantirish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 8 oktyabrdagi PF-5847-sonli “O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g’risida”gi farmoni qabul qilindi. Shuningdek “Ta’lim to‘g’risidagi Qonun” qayta ko‘rib chiqilib, ta’lim – tarbiya tizimi, sifat va samaradorligiga oid talablar bilan mazmunan boyitildi. Ta’lim to‘g’risidagi Qonunning 46 moddasida O‘qituvchi-pedagoglar ta’lim jarayonida axborot – kommunikatsion texnologiyalardan foydalanishlari pedagogik majburiyat sifatida belgilandi. Bu kabi Farmon va Qarorlarni ijrosini ta’minlash maqsadida pedagogika oliy ta’lim muassasalarida musiqa ta’limi yo‘nalishida o‘qitiladigan fanlarni yuqoridagi talablar asosida tashkil etish, hamda, “Musiqa o‘qitishda innovatsion texnologiyalar” fanini yanada takomillashtirish, qayta ko‘rib chiqish, musiqa o‘qitishda ta’lim tizimiga qo‘yilayotgan talablar asosida boyitishda innovatsion yondashuvni taqozo etmoqda.

“Musiqa o‘qitishda innovatsion texnologiyalar” fanini, musiqa o‘qitish jarayonini texnologiyalashtirish, zamonaviy pedagogik texnologiya yutuqlaridan dars va mashg’ulotlar jarayonida optimal foydalanish orqali ta’lim sifat-

samaradorligini yanada takomillashtirishga yo‘naltirilgan mavzular asosida nazariy, amaliy materiallar va topshiriqlar bilan boyitish, fanga, mavzuga mos pedagogik texnologiyalarni tanlash va maqsadli foydalanishga o‘rgatish, ta’labalarni mustaqil ishlash va tayyorgarlikga yo‘naltirish kabi jihatlariga e’tibor berish maqsadga muvofiqdir.

Talabalarning pedagogik mahoratini oshirishda, kasbiy kompetentsiyasini rivojlantirishda shu kabi fanlarning takomillashuvi dolzarb masalalardandir. Zero, kuchli mutaxassis o‘zida bor musiqiy qobiliyat, ko‘nikma va malakalarni yosh avlodga mahorat bilan yetkazib bera olishi bilan uning musiqiy-pedagogik faoliyatiga baho beriladi.

Rivojlanishning hozirgi bosqichida ta'lim tizimi va o‘quv jarayonida o‘zgarishlar ro‘y bermoqda, ta'lim mazmuni yanada murakkablashmoqda. Ta’lim oluvchilarni ijodiy va intellektual qobiliyatlarini rivojlantirishda an'anaviy usullar o‘rnini sifatli ta'lim va tarbiyaning faol usullari, vositalari va zamonaviy pedagogik, axborot kommunikatsion texnologiyalar bilan almashtirishni taqozo etmoqda. Ushbu o‘zgaruvchan sharoitda musiqa o‘qituvchisi zamonaviy texnologiyalarning keng doirasi bo‘yicha bilim, ko‘nikma va malakalarga ega bo‘lishi muhim ahamiyat kasb etadi.

“Musiqa o‘qitishda innovatsion texnologiyalar” fanini, musiqa o‘qitish jarayonini texnologiyalashtirish, zamonaviy darslarni tashkil etish, zamonaviy pedagogik texnologiya yutuqlaridan dars jarayonida optimal foydalanish orqali ta’lim sifat-samaradorligini yanada takomillashtirishga yo‘naltirilgan mavzu va topshiriqlar bilan boyitish maqsadga muvofiqdir. Ushbu fan 60111300-Musiqa ta’limi yo‘nalishi uchun mo‘ljallangan bo‘lib, musiqa darslarini bugungi talablar asosida tashkil etishning optimal yo‘l va usullari borasida bilimlar berishda, zamonaviy o‘qituvchi qiyofasni yaratishda dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Oliy ta’lim tizimida pedagog kadrlar tayyorlashda muhim masalalardan biri innovatsion texnika texnologiyalarini, maqbul pedagogik texnologiyalarni musiqa ta’lim tarbiyasida, musiqa mashg‘ulotlarida izchil qo‘llay olish malakalarini shakllantirish dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Zero, musiqachi-pedagoglarni tayyorlashda nafaqat ularning mutaxassislik kompitensiyalarini rivojlantirish, shu bilan birga, yangi pedagogik texnologiyalardan musiqa ta’lim-tarbiyasida samarali foydalana olish imkoniyatlariga ega bo‘lishi ham dolzarb masalalardandir.

O‘qituvchilik kasbining boshqa kasb egalaridan farqli jihati shundaki, muntazam talablari ortib, tafakkuri yangilanib, rivojlanib, takomillashib boruvchishaxslar bilan faoliyat olib boradi. Bu o‘z navbatida mutaxassis o‘qituvchilarning kompetensiyasiga qo‘yilgan talablarni oshishiga va pedagogik faoliyatida zamonaviy yondashuvlarni talab etadi. Bu kabi o‘zgarishlar o‘qitilayotgan adabiyotlarni ham mazmunan boyishiga, zamonaviylashuviga bo‘lgan talabni oshiradi.

Maktab o‘quvchilarining bilimi va ko‘nikmalarini shakllantirish, ularni milliy hamda umuminsoniy qadriyatlarga sodiqlik ruhida tarbiyalash, o‘qituvchi kasbi nufuzini va pedagoglarning sifat tarkibini oshirish, darsliklar va o‘quv metodik majmualarni zamon talablari asosida takomillashtirish, xalq ta’limi muassasalarining xalqaro standartlarga javob beradigan zamonaviy modellarini barpo etish maqsadida, shuningdek, 2022 — 2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning Taraqqiyot strategiyasini “Inson qadrini ulug‘lash va faol mahalla yili”da amalga oshirishga oid davlat dasturiga muvofiq: “O‘qituvchilarning yoshlarga ta’lim va tarbiya berishdagi mas’uliyatini, doimiy kasbiy rivojlanishdagi talabchanligini oshirish” rivojlantirish dasturining asosiy yo‘nalishlaridan biri sifatida belgilangan.

Milliy dasturiga binoan, pedagog - kadrlar, bo‘lajak o‘qituvchilarning pedagogik faoliyatiga tayyorgarlik jarayoniga zaruriy talablarni belgilaydi.

Bugungi kunda zamonaviy ta’ limni innovatsion texnologiyalarsiz tasavvur qilish qiyin.

Musiqa ta’limida o‘qitish jarayonini texnologiyalashtirish deganda - multimedia vositalari, turli dasturiy ta’minot imkoniyatlaridan, hamda, musiqiy tovushlarni tahrir qilish uskunalaridan foydalangan holda o‘quv jarayonini amalga oshirish nazarda tutiladi.

Musiqa ta’limi - pedagogika fanlari tarmog‘iga kiradi va o‘quvchilarga musiqaning amaliy va nazariy jihatlari borasida ma’lumotlar berish, musiqa ta’limi va tarbiyasini amalga oshirishning samarali yo‘llari, vositalari, shakllari va metodlarini ishlab chiqish, shuningdek, musiqa san’atining turli sohalari bo‘yicha amaliy malaka, tajriba va ijodiy ko‘nikmalarni shakllantirish bilan shug‘ullanadi.

Musiqa o‘qitishda innovatsion texnologiyalar fanini takomillashtirishdan maqsad – talabalarini kasbiy faoliyatga tayyorlashda innovatsion pedagogik texnologiyalarning o‘quv-tarbiya jarayonida ahamiyatini bilish, musiqa ta’limida qo‘llash va undan foydalanishning nazariy va amaliy ko‘nikma va malakalarini shakllantirish orqali zamonaviy musiqa darslarni tashkil etishga o‘rgatishdir.

Zamonaviy musiqa darsi – innovatsion pedagogik texnologiyalar, kompyuter, elektron musiqa asboblari va boshqa zamonaviy texnika texnologiyalar vositasida tashkil etilishi bilan izohlanadi.

Xulosa qilib aytganda, talabalarning kasbiy kompetentsiyasini rivojlantirishda "Musiqa o‘qitishda innovatsion texnologiyalar” fanini takomillashtirishdan maqsad, musiqa ta’limi yo‘nalishi bo‘lajak musiqa o‘qituvchilarni kasbiy faoliyatga tayyorlashda, musiqa ta’lim-tarbiyasi sifatlarini oshirishda, musiqachi-pedagog sifatida kompetensiyasini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Musiqa o‘qitishda innovatsion texnologiyalar fani yuzasidan mavjud adabiyotlarni mazmunan yanada boyitish va takomillashtirishda, mavjud o‘quv adabiyotlardagi mavzular qatori, “Musiqa o‘qituvchisining pedagogik takt va

texnikasi”, “Musiqa o‘qitishda axborot kommunikatsion texnologiyalardan foydalanishning muhim jihatlari”, hamda “O‘qituvchining o‘z ustida ishlashi va ilmiy tadqiqotchilik faoliyati” mavzulari yuzasidan ham material va topshiriqlar berilishi, bo‘lajak musiqa o‘qituvchilarini zamon talablari darajasida musiqiy-pedagogik rivojlanishida muhim ahamiyat kasb etadi.

Musiqa pedagogikasiga kirib kelishga tayyor bo‘layotgan yosh mutaxassislar, bu boradagi faoliyatni amalga oshirishda universal, ijodkor, zamonaviy shaxs bo‘lishlari zarur. Zero, jamiyatimizning bugungi shiddatli taraqqiyoti, umumta’lim maktablarida darsliklarni takomillashuvi, tahsil oluvchilarning talabi shuni taqozo etmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g’risida” gi Qonuni. (23.09.2020) //Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 24.09.2020., 03/20/637/1313-son. 46-modda. /Elektron manba: – https://lex.uz/docs/5013007.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining "O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g’risida"gi PF-5847-son Farmoni // Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 08.10.2019 y.
3. 2022 — 2026-yillarda maktab ta’limini rivojlantirish bo‘yicha milliy dasturni tasdiqlash to‘g‘risida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 11.05.2022 yildagi PF-134-son.
4. G. M. Davronova Musiqa o‘qitish texnologiyalari va loyihalash. O‘quv qo‘llanma 162 bet. Toshkent 2019y.
5. G. M. Davronova “Bo‘lajak musiqa o‘qituvchilarida hamkorlikda o‘qitish texnologiyalari vositasida ijodiy qobiliyatlarni shakllantirish” mavzusida Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (Phd) dissertatsiya ishi. 2023yil
6. D Karimova D. Musiqa o‘qitishda innovatsion texnologiyalar. Darslik T. 2012. 210 b.

UMUMTALIM MAKTAB O‘QUVCHILARNI AXBOROTLAR BILAN ISHLASH MADANIYATINI SHAKLLANTIRISHGA OID OLIB BORILGAN XALQARO VA RESPUBLIKA ILMIY IZLANISHLAR

Қўзиев Ровшанбек Бахтиёр ўғли
Қ.Ниёзий номидаги ТПМИ
https://doi.org/10.5281/zenodo.23178241

Bugungi globallashuv va raqamli transformatsiya sharoitida umumtalim maktab o‘quvchilarni ijtimoiylashtirish jarayonini axborot muhitidan ajralgan holda tasavvur etib bo‘lmasligi va axborotlar bilan ishlash madaniyatini shakllantirishga oid olib borilgan xalqaro va respublika ilmiy izlanishlar o‘rganib chiqilgan.
Kalir so‘zlar *umumtalim maktab, globallashuv, raqamli transformatsiya, pedagogik tadqiqotlar.*
В условиях современной глобализации и цифровой трансформации процесс социализации учащихся общеобразовательных школ невозможно рассматривать в отрыве от информационной среды; в связи с этим были проанализированы международные и отечественные научные исследования, посвященные формированию культуры работы с информацией.
Ключевые слова: *общеобразовательная школа, глобализация, цифровая трансформация, педагогические исследования.*
In the context of today's globalization and digital transformation, the process of socializing general education students cannot be envisioned in isolation from the information environment; consequently, international and national scientific studies regarding the development of a culture of working with information have been examined.
Keywords: *general education school, globalization, digital transformation, pedagogical research.*

Xalqaro ilmiy adabiyotlarda ushbu masala ko‘pincha information literacy, media literacy, digital literacy va media and information literacy (MIL**)** tushunchalari doirasida tadqiq etiladi. UNESCO - Birlashgan Millatlar Tashkilotining **Ta’lim, fan va madaniyat masalalari bo‘yicha tashkiloti** (inglizcha: *United Nations Educational, Scientific and Cultural Organization*) yondashuvida media va axborot savodxonligi axborot hamda media mahsulotlarini izlash, ulardan foydalanish, tahlil qilish, tanqidiy baholash, talqin qilish, yaratish va tarqatish bilan bog‘liq bilim, ko‘nikma, munosabat va amaliyotlarning kompleks majmui sifatida qaraladi.

UNESCOning “Media and Information Literate Citizens: Think Critically, Click Wisely” modeli media va axborot savodxonligini faqat texnik ko‘nikma sifatida emas, balki tanqidiy fikrlash, raqamli fuqarolik, axborot xavfsizligi, dezinformatsiyani anglash va ijtimoiy mas’uliyat bilan bog‘liq kompleks ta’lim yo‘nalishi sifatida talqin qiladi. UNESCO ushbu kompetensiyalarni formal, noformal va informal ta’limning barcha bosqichlariga integratsiya qilish zarurligini ta’kidlaydi.

Xalqaro tadqiqotlarning muhim yo‘nalishlaridan biri o‘smirlarning axborotni tanqidiy baholash qobiliyatini o‘rganishdan iborat. OECD tomonidan 15 yoshli o‘quvchilar ishtirokida olib borilgan tadqiqotlarda raqamli muhitda o‘qish savodxonligi axborotning ishonchliligini aniqlash, fakt va fikrni farqlash, tarafkash yoki zararli kontentni anglash kabi ko‘nikmalarni ham talab qilishi qayd etilgan. OECDning (inglizcha **Organisation for Economic Co-operation and Development,** ya’ni **Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti.)** 2021-yildagi “21st-Century Readers” hisobotida raqamli muhitdagi katta hajmdagi axborot oqimi o‘quvchilardan ma’lumotlarni tekshirish va turli manbalarni tanqidiy tahlil qilishni talab qilishi ko‘rsatiladi.

Mazkur yo‘nalish OECDning PISA 2022 natijalarida ham davom ettirilgan. Tadqiqotga ko‘ra, OECD mamlakatlaridagi o‘quvchilarning o‘rtacha 72 foizi internet orqali axborot izlashda turli manbalarni taqqoslashini bildirgan bo‘lsa, taxminan 28 foizi ijtimoiy tarmoqlarda noto‘g‘ri ekanini ko‘rsatmasdan uydirma axborotni ulashishini bildirgan. Shuningdek, o‘quvchilarning aksariyati internetdan kerakli axborotni topa olsa-da, onlayn axborot sifatini baholash masalasida sezilarli qiyinchiliklar mavjudligi aniqlangan.

Bu natijalar o‘smirlarni ijtimoiylashtirish jarayonida axborot bilan ishlash madaniyatini shakllantirish faqat kompyuter yoki internetdan foydalanishni o‘rgatish bilan cheklanmasligi kerakligini ko‘rsatadi. O‘quvchi axborot manbasining muallifi va maqsadini aniqlashi, dalillarning ishonchliligini tekshirishi, bir nechta manbani o‘zaro solishtirishi, manipulyativ yoki yolg‘on axborotni farqlashi va o‘zining raqamli xatti-harakatlari oqibatlarini anglay olishi lozim.

Xalqaro tadqiqotlarda mazkur masalaning yana bir muhim jihati - axborot bilan ishlash kompetensiyasining ijtimoiylashuv bilan uzviy bog‘liqligidir. O‘smirlik davrida shaxs tengdoshlari, oila, maktab va raqamli jamoalar bilan faol ijtimoiy aloqaga kirishadi. Shu sababli o‘smir tomonidan qabul qilinayotgan axborot uning dunyoqarashi, qadriyatlari, muloqot madaniyati va xulq-atvoriga ta’sir ko‘rsatishi mumkin. UNESCO media va axborot savodxonligini fuqarolik va axloqiy ta’limning muhim tarkibiy qismi sifatida ko‘rib, uni shaxsning jamiyatdagi faol ishtiroki bilan bog‘laydi.

O‘smirlarning ijtimoiy tarmoqlardagi axborot faoliyatiga bag‘ishlangan xalqaro tadqiqotlar ham bu fikrni qo‘llab-quvvatlaydi. Wusylko va hammualliflar tomonidan 2022-yilda amalga oshirilgan scoping review o‘smirlarning maktabdan tashqaridagi ijtimoiy media muhitida axborot bilan ishlash amaliyotlarini tahlil qilgan. Tadqiqotchilar o‘smirlarning ijtimoiy tarmoqlardan keng foydalanishi sababli ular tasodifiy yoki maqsadli ravishda turli xil axborot kontentlariga duch kelishini va bunday muhitda axborot savodxonligi masalasi ta’lim tadqiqotlari uchun muhim yo‘nalish ekanini ko‘rsatadilar.

2025-yilda Suárez-Perdomo, Garcés-Delgado va Arvelo-Rosales tomonidan e’lon qilingan tizimli sharhda o‘smirlarda media savodxonligini shakllantirishga qaratilgan ta’limiy intervensiyalar o‘rganilgan. Tadqiqot PRISMA metodologiyasi asosida olib borilib, ta’lim muhitida o‘smirlarning media savodxonligini rivojlantirishga qaratilgan dasturlar tahlil qilingan. Mualliflar media savodxonligi tanqidiy fikrlashni rivojlantirish hamda media va axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan konstruktiv foydalanish ko‘nikmalarini shakllantirish bilan bog‘liqligini ko‘rsatadil

British Educational Research Association

Maktab darajasidagi axborot savodxonligiga bag‘ishlangan yana bir tizimli tadqiqotda 1234 ta ilmiy maqola dastlabki tahlilga jalb etilib, belgilangan mezonlarga javob bergan 53 ta tadqiqot batafsil o‘rganilgan. Ushbu sharh axborot savodxonligi tushunchalari, ko‘nikmalari, standartlari va baholash vositalarining rivojlanishini tahlil qiladi. Tadqiqot natijalari axborotni izlash, tanqidiy baholash, mazmunini anglash va kommunikatsiya qilish ko‘nikmalarini maktab davridan boshlab rivojlantirish zarurligini ko‘rsatadi.

So‘nggi tadqiqotlarda axborot bilan ishlash madaniyatini shakllantirishning samaradorligi ham empirik jihatdan o‘rganilmoqda. 2025-yilda e’lon qilingan meta-tahlilda 8–18 yoshdagi bolalar va o‘smirlarga mo‘ljallangan maktab dasturlarining raqamli savodxonlikka ta’siri o‘rganilgan. To‘qqizta ma’lumotlar bazasidan aniqlangan randomizatsiyalangan yoki kvazi-eksperimental tadqiqotlardan 10 tasi, jami 6250 nafar ishtirokchi bilan, meta-tahlilga kiritilgan. Natijalar maktabga asoslangan raqamli savodxonlik intervensiyalari raqamli savodxonlikni o‘rtacha darajada yaxshilashini ko‘rsatgan.

Xalqaro tajribadan kelib chiqib, o‘smir yoshdagi o‘quvchilarni ijtimoiylashtirish jarayonida axborot bilan ishlash madaniyatini shakllantirishni alohida fan doirasidagi vazifa sifatida emas, balki barcha fanlar, tarbiyaviy ishlar va maktabning raqamli ta’lim muhiti bilan integratsiyalashgan jarayon sifatida tashkil etish maqsadga muvofiq. Bunda o‘qituvchi tayyor axborotni yetkazib beruvchi emas, balki o‘quvchini axborotni mustaqil izlash, tekshirish, tahlil qilish va undan mas’uliyatli foydalanishga yo‘naltiruvchi pedagog sifatida namoyon bo‘ladi.

Shuningdek, xalqaro tajriba axborot bilan ishlash madaniyatini shakllantirishda faqat texnologik ko‘nikmalarga urg‘u berish yetarli emasligini ko‘rsatmoqda. OECD raqamli savodxonlikni rivojlantirishni o‘quvchining tanqidiy fikrlashi, mustaqil o‘rganishi, ijtimoiy-emotsional ko‘nikmalari va raqamli farovonligi bilan bog‘laydi. Demak, o‘smirning axborot muhitidagi xatti-harakati uning umumiy ijtimoiy kompetentligining tarkibiy qismi sifatida qaralishi zarur.

Shunday qilib, xalqaro ilmiy tadqiqotlarni tahlil qilish o‘smir yoshdagi o‘quvchilarning ijtimoiylashuvi va axborot bilan ishlash madaniyati o‘rtasida uzviy pedagogik bog‘liqlik mavjudligini ko‘rsatadi. Zamonaviy o‘quvchi uchun axborotni

topishning o‘zi yetarli emas; u axborotning ishonchliligini baholashi, turli manbalarni taqqoslashi, yolg‘on va manipulyativ kontentni aniqlashi, axborotdan axloqiy va huquqiy me’yorlar asosida foydalanishi hamda o‘zining axborot faoliyati uchun mas’uliyatni his qilishi lozim.

O‘zbekistonda ham ushbu yo‘nalish dolzarbdir. UNESCO tomonidan Farg‘ona vodiysi yoshlarining media va axborot savodxonligini baholashga qaratilgan tadqiqot o‘tkazilgan bo‘lib, mazkur ish yoshlarning media kontentini samarali talqin qilish, undan foydalanish va yaratish bilan bir qatorda shaxsiy xavfsizlik masalalarini ham o‘rganishga qaratilgan. Bu kabi tadqiqotlar O‘zbekistonda o‘smir va yoshlarning axborot muhitidagi kompetensiyalarini ilmiy jihatdan o‘rganish uchun muhim asos bo‘la oladi.

Quyida O‘zbekistondagi asosiy ilmiy ishlar to‘q ‘risida

1. O‘smirlarda media savodxonlik va axborot xavfsizligi madaniyati mavzusiga doir 2026-yilda Z.Normuxamedovning “Globallashuv sharoitida o‘smirlarda media-savodxonlik va axborot xavfsizligi madaniyatini tarbiyalash” maqolasida aynan O‘zbekiston umumta’lim maktablaridagi o‘smirlar misolida media savodxonlik va axborot xavfsizligi madaniyatining shakllanganlik holati o‘rganilgan.

2. K.O‘rinboyeva, G.Odiljonova, M.Rustamova va N. Yangiboyevalarning 2025-yildagi tadqiqotida zamonaviy axborot texnologiyalari yordamida o‘quvchilarning media savodxonligini oshirish masalasi o‘rganilgan. Tadqiqotda o‘quvchilarning axborotni tanqidiy tahlil qilish, baholash va media mahsulot yaratish ko‘nikmalarini rivojlantirishga e’tibor berilgan. Shuningdek, kvest texnologiyalaridan foydalanish imkoniyatlari ham ko‘rib chiqilgan.

3. G.K.Boltayevaning 2026-yildagi “O‘quvchilarda raqamli madaniyatni shakllantirishning nazariy asoslari” maqolasida raqamli madaniyatning tarkibiy qismlari tahlil qilingan.

4. Yoshlarning media savodxonligini rivojlantirish

J.Saidov va M. Asrorovaning tadqiqotida O‘zbekiston sharoitida yoshlarning media savodxonligini rivojlantirish masalalari, jumladan, soxta va noto‘g‘ri axborotni farqlash, media madaniyatini shakllantirish, ta’lim tizimidagi dastur va loyihalar tahlil qilingan.

Bu tadqiqot mavzuingizning ijtimoiylashtirish jihatini asoslash uchun ham muhim: o‘quvchi jamiyatga moslashish jarayonida nafaqat axborotni oladi, balki uni saralaydi, baholaydi va undan ijtimoiy munosabatlarda foydalanadi.

UMUMTA’LIM MAKTABLARI O‘QUVCHILARINING IJTIMOIY MOSLASHUVCHANLIK KOMPETENSIYASINI SHAKLLANTIRISHNING PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK OMILLARI

Rahimov Bobir Baxodirovich
Tarbiya pedagogikasi milliy instituti mustaqil izlanuvchisi
https://doi.org/10.5281/zenodo.23178264

Annotatsiya. *Maqolada umumta’lim maktabi o‘quvchilarining ijtimoiy moslashuvchanlik kompetensiyasi nazariy-tahliliy yondashuv asosida o‘rganiladi. Kompetensiyaning vaziyatni anglash, hissiy boshqaruv, hamkorlik va refleksiya tarkiblari ajratilib, ularni rivojlantiruvchi pedagogik sharoitlar izohlanadi. Darsga singdiriladigan mashqlar va shakllantiruvchi baholash ko‘rsatkichlari taklif etiladi. Takliflar empirik sinovdan o‘tkazilmagan; ularning qo‘llanishi yosh, til va maktab muhitiga moslashtirishni talab qiladi.*
Kalit so‘zlar: *ijtimoiy moslashuvchanlik, kompetensiya, maktabga mansublik, hissiy boshqaruv, hamkorlik, pedagogik qo‘llab-quvvatlash.*
Аннотация. *В статье теоретически анализируются педагогические и психологические факторы формирования компетентности социальной адаптивности школьников. Выделяются понимание ситуации, эмоциональная регуляция, сотрудничество и рефлексия. Предлагаются способы включения развивающих упражнений в урок и показатели формирующего оценивания. Разработанная модель не проходила эмпирической проверки; её применение требует учёта возраста, языка и школьной среды.*
Ключевые слова: *социальная адаптивность, компетентность, школьная принадлежность, эмоциональная регуляция, сотрудничество, педагогическая поддержка.*
Abstract. *This theoretical article examines pedagogical and psychological factors in developing school students’ social adaptability competence. Situation awareness, emotion regulation, collaboration and reflection are identified as interrelated components. Classroom practices and formative assessment indicators are proposed. The framework has not been empirically validated; its use requires adaptation to learners’ age, language and school context.*
Keywords: *social adaptability, competence, school belonging, emotion regulation, cooperation, educational support.*

Maktabga kirish, yangi sinfga o‘tish, o‘qituvchilarning almashishi yoki tengdoshlar guruhiga qo‘shilish o‘quvchidan munosabatlarni qayta qurishni talab qiladi. Bolaning jim o‘tirishi yoki topshiriqlarni e’tirozsiz bajarishi ijtimoiy moslashuvning yetarli belgisi emas. O‘z fikrini ifodalash, yordam so‘rash, kelishmovchilikni xavfsiz hal qilish va guruh ishida mas’uliyat olish ham ta’limiy natija sifatida ko‘rilishi lozim. Baholash bolaning imkoniyatlari va unga yaratilgan sharoitni birgalikda qamrab oladi. Ushbu maqolada ijtimoiy moslashuvchanlik kompetensiyasi o‘quvchining o‘z qadr-qimmati va boshqalarning huquqlarini saqlagan holda turli ijtimoiy vaziyatlarni tushunishi, munosabat usulini tanlashi hamda tajriba asosida uni o‘zgartira olishi sifatida ishchi tarzda ta’riflanadi. Maqsad mazkur kompetensiyani rivojlantiruvchi pedagogik-psixologik omillarni tizimlashtirish va ularni kundalik dars faoliyatiga bog‘lashdir. Asosiy savol individual ko‘nikmaning qaysi sharoitda mustaqil va xavfsiz ishtirokka aylanishidir.

Tadqiqot ishi doirasida kompetensiyaning nazariy tuzilishi yuzasidan xorij olimlaridan Ryan va Deci nazariyasida avtonomiya, o‘zini qobiliyatli his qilish hamda boshqalar bilan aloqadorlik motivatsiyaning muhim psixologik shartlari sifatida izohlanadi [1]. Maktab amaliyoti uchun bundan chiqariladigan xulosa: tanlov imkoniyati aniq qoida va ko‘mak bilan birga berilishi kerak. Masalan, o‘quvchi umumiy vazifani bajarishda og‘zaki taqdimot yoki yozma izohni tanlashi mumkin. Maqsad va mezon saqlanib, ishtirok usuli bolaning imkoniyatiga moslashadi.

Xorijiy taqdqiqotlarda CASEL doirasida o‘zini anglash, o‘zini boshqarish, ijtimoiy anglash, munosabat ko‘nikmalari va mas’uliyatli qaror qabul qilish o‘zaro bog‘liq yo‘nalishlar sifatida ko‘rsatilgan [2]. Maqolada ijtimoiy moslashuv uchun to‘rtta tarkib taklif etiladi: vaziyatni anglash; hissiy holat va harakatni boshqarish; hamkorlikda munosabat qurish; natijani tahlil qilib, yangi sharoitga ko‘chirish. Tarkiblar pedagogik rejalashtirishga xizmat qiladi; psixometrik shkala hisoblanmaydi. Vaziyatni anglash tarkibi boshqa kishining nuqtayi nazarini aniqlash va taxminni dalildan farqlashda namoyon bo‘ladi. Boshqaruv tarkibi hisni tan olish, shoshilinch javobni kechiktirish yoki yordam so‘rashni qamrab oladi. Hamkorlik tarkibi o‘z fikrini aytish, sherigini tinglash va vazifani kelishib taqsimlashga taalluqli. Refleksiya esa qaysi usul ishlaganini tushuntirish hamda uni boshqa vaziyatda sinashni bildiradi. Bir tarkibdagi qiyinchilikni butun shaxsning kamchiligi deb talqin qilish asosli emas.

Pedagogik va psixologik omillar. Birinchi omil maktabga mansublik va xavfsizlik hissidir. Goodenow maktabga psixologik mansublikni o‘quvchining qabul qilinish va qo‘llab-quvvatlanish tajribasi bilan bog‘liq konstrukt sifatida o‘rgangan [3]. Sinfda xato uchun kamsitilish xavfi mavjud bo‘lsa, bola bilgan javobini ham aytmasligi mumkin. Shuning uchun o‘qituvchi javobdagi xatoni shaxsga berilgan bahodan ajratishi, masxaralash holatiga izchil munosabat bildirishi va murojaat qilishning tushunarli yo‘lini ko‘rsatishi zarur.

Ikkinchi omil o‘qituvchi bilan munosabatning sifati va izchilligidir. Longobardi va hammualliflarning Italiyadagi o‘smirlar ishtirokidagi longitudinal tadqiqoti maktab bosqichi almashganda o‘qituvchi bilan munosabat va moslashuv ko‘rsatkichlari o‘rtasidagi aloqalarni yoritadi [4]. Bu aloqa universal sababiy ta’sirni isbotlamaydi. Yangi o‘quvchiga talablarni oldindan tushuntirish, qisqa suhbat va yaqin maqsadni kelishish tavsiya etiladi.

Uchinchi omil pedagogning o‘z hissiy holatini boshqarishidir. Jennings va Greenberg taklif qilgan model o‘qituvchining ijtimoiy-emotsional kompetensiyasini qo‘llab-quvvatlovchi munosabatlar, sinfni boshqarish va ta’lim dasturini amalga oshirish bilan bog‘laydi [5]. O‘quvchiga tinglashni o‘rgatib, uning javobini doim bo‘lish pedagogik talabning ishonchliligini pasaytiradi. Qiyin vaziyatda pedagogning tanaffus qilishi, xolis savol berishi va o‘z xatosini tuzatishi o‘quvchi

kuzata oladigan namuna bo‘ladi. Bunda pedagogning ish yuklamasi va hamkasblar ko‘magi ham hisobga olinadi.

To‘rtinchi omil tengdoshlar bilan mazmunli hamkorlikdir. Johnson va Johnson ijtimoiy o‘zaro bog‘liqlik nazariyasini hamkorlikda o‘qitish bilan bog‘laydi [6]. Bolalarni bir stolga o‘tqazishning o‘zi hamkorlikni ta’minlamaydi. Umumiy natija, har kimning aniq hissasi, navbat bilan almashadigan rollar va yakuniy muhokama bo‘lishi lozim. Aks holda ishni bitta faol bola bajarishi mumkin. Buni cheklash uchun har bir ishtirokchining izohi tinglanadi.

Beshinchi omil yosh, til va individual imkoniyatlarga mos pedagogik ko‘makdir. Boshlang‘ich sinfda navbat kutish yoki yordam so‘rash qisqa o‘yin va aniq iboralar orqali mashq qilinadi. O‘smirlikda esa tengdoshlar bosimi, guruhdagi mavqe va mustaqil qaror muhokamasi dolzarb bo‘ladi. Og‘zaki faollikni yagona mezon qilish tilni endi o‘rganayotgan yoki yozma tarzda yaxshiroq ifodalanadigan bolaga noqulaylik tug‘diradi. UNESCO inklyuziya hisobotidagi tizimli to‘siqlarga e’tibor [7] ushbu farqlarni o‘quvchining nuqsoni emas, ta’limni moslashtirish vazifasi sifatida ko‘rishga asos beradi.

Demak, taklif etilayotgan mexanizm qisqa tushuntirish, xavfsiz mashq, mazmunli vazifada qo‘llash va refleksiya ketma-ketligidan iborat. Masalan, tabiiy fan darsida guruh tajriba natijasini turlicha talqin qilsa, o‘qituvchi “Men boshqacha o‘ylayman, chunki...” jumlasini namunada ko‘rsatadi. O‘quvchilar avval juftlikda dalil keltiradi, so‘ng guruh xulosasini kelishadi. Yakunda kimning fikri o‘zgargani va bunga qaysi dalil sabab bo‘lgani so‘raladi. Bunda ijtimoiy ko‘nikma fan mazmunidan uzilmaydi.

Adabiyot darsida qahramonning xatti-harakatini muhokama qilishda “U nimani his qilgan bo‘lishi mumkin?”, “Buni qaysi matn belgisi ko‘rsatadi?” savollari qo‘llanadi. O‘quvchi taxminni dalildan farqlab, boshqa talqinni tinglaydi. Sinf soatida yangi kelgan o‘quvchini kutib olish vaziyati rolli mashq sifatida ko‘rilishi mumkin. Haqiqiy bolaning shaxsiy qiyinchiligini uning roziligisiz ommaviy misol qilishdan saqlanish kerak. Rollar va vaziyatlar shartli bo‘lishi, ishtirok usulini tanlashga imkon berilishi lozim.

J.A.Durlakning meta-tahlili maktabdagi universal ijtimoiy-emotsional dasturlar natijalarini umumlashtiradi [8]. Bu mahalliy dastur samaradorligini kafolatlamaydi. Ushbu maqoladagi tavsiya mashqlarni alohida tadbir bilan cheklamasdan, turli fanlarda izchil takrorlashdir. Sinf rahbari, fan o‘qituvchilari va oila bir xil qo‘llab-quvvatlovchi iboralardan foydalanishi mumkin. Oilaga faqat kamchilik haqida xabar berish o‘rniga, bolaning uddalagan aniq harakati va keyingi kichik maqsadni muhokama qilish maqsadga muvofiq.

Baholashning maqsadi o‘quvchilarni “moslashgan” va “moslashmagan” guruhlarga ajratish emas, keyingi pedagogik yordamni tanlashdir. Kuzatuv uchun quyidagi belgilar taklif etiladi: vaziyatni anglashda boshqa nuqtayi nazarni qayta

aytish; boshqaruvda mos yordam yo‘lini tanlash; hamkorlikda kelishilgan rolni bajarib, sherigiga ham imkon berish; refleksiyada o‘z harakatining oqibatini tushuntirish. Har bir belgi darsdagi aniq vaziyat va ko‘rsatilgan ko‘mak bilan birga qayd etiladi.

Ishchi qayd shaklida “katta ko‘mak bilan”, “eslatma bilan” va “mustaqil” tavsiflaridan foydalanish mumkin. Ular tasdiqlangan diagnostik darajalar yoki umumiy ball emas. O‘quvchi o‘z izohini og‘zaki, yozma yoxud mos vizual shaklda berishi mumkin. Bir martalik kuzatuv xulosa uchun yetarli emas: turli vaziyatlar va vaqt nuqtalaridagi qaydlar, bolaning fikri hamda zarur bo‘lsa boshqa o‘qituvchining kuzatuvi qiyoslanadi. O‘sish avvalo bolaning o‘z oldingi ishtirokiga nisbatan talqin qilinadi.

Bola bilan birga muhit ham baholanadi: vazifa tushunarli bo‘ldimi, fikr bildirish uchun vaqt berildimi, rollar adolatli taqsimlandimi, kamsitish holatiga javob qaytarildimi? Masalan, o‘quvchi munozarada jim qolsa, bu ko‘nikma yetishmasligi, til to‘sig‘i yoki xavfsizlik hissi pastligi bilan bog‘liq bo‘lishi mumkin. Sababni oldindan biryoqlama belgilashdan saqlanish zarur. Qaydlar pedagogik yordam doirasida saqlanib, ommaviy reyting va yorliqlash uchun ishlatilmasligi kerak.

Demak, manbalarning maqsadli va tor tanlangani, mahalliy empirik tekshiruv mavjud emasligi hamda “ijtimoiy moslashuvchanlik” tushunchasining ishchi ta’rifda qo‘llanganidir. Taklif etilgan ko‘rsatkichlarning ishonchliligi va turli yosh guruhlaridagi mosligi aniqlanmagan. Keyingi tadqiqotda ularning til jihatdan tushunarliligi, kuzatuvchilararo muvofiqligi va bolani yorliqlash xavfi tekshirilishi lozim. Pedagogik kuzatuv klinik tashxis o‘rnini bosa olmaydi; davomli qiyinchilik bo‘lsa, maktabning tegishli yordam tartibi doirasida mutaxassis bilan hamkorlik qilinadi.

Ijtimoiy moslashuvchanlik kompetensiyasini shakllantirish o‘quvchining individual mashqi va maktab sharoitini takomillashtirishni birlashtiradi. Ishonchli munosabat, tushunarli talab, yoshga mos tanlov va har bir bolaning hissasi ko‘rinadigan hamkorlik ushbu jarayonning asosiy pedagogik tayanchlari sifatida ajratildi. Ustuvor vazifa ko‘nikmani fan vazifasida qo‘llash va bolaning o‘z tajribasini tushuntirishiga imkon yaratishdir. Taklif etilgan tuzilma mahalliy sinov va takomillashtirish uchun nazariy asosdir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Ryan R. M., Deci E. L. Self-determination theory and the facilitation of intrinsic motivation, social development, and well-being. American Psychologist. 2000. 55(1). 68-78. DOI: 10.1037/0003-066X.55.1.68.
2. CASEL. What Is SEL? Rasmiy konseptual material. https://casel.org/what-is-sel/
3. Goodenow C. The psychological sense of school membership among adolescents: Scale development and educational correlates. Psychology in the Schools. 1993. 30(1). 79-90. DOI: 10.1002/1520-6807(199301)30:1<79::AID-PITS2310300113>3.0.CO;2-X.

4. Longobardi C., Prino L. E., Marengo D., Settanni M. Student-Teacher Relationships As a Protective Factor for School Adjustment during the Transition from Middle to High School. Frontiers in Psychology. 2016. 7. 1988. DOI: 10.3389/fpsyg.2016.01988.
5. Jennings P. A., Greenberg M. T. The Prosocial Classroom: Teacher Social and Emotional Competence in Relation to Student and Classroom Outcomes. Review of Educational Research. 2009. 79(1). 491-525. DOI: 10.3102/0034654308325693.
6. Johnson D. W., Johnson R. T. An Educational Psychology Success Story: Social Interdependence Theory and Cooperative Learning. Educational Researcher. 2009. 38(5). 365-379. DOI: 10.3102/0013189X09339057.
7. UNESCO. Global Education Monitoring Report 2020: Inclusion and Education: All Means All. Paris: UNESCO, 2020. https://www.unesco.org/gem-report/en/publication/2020-inclusion-and-education-all-means-all (murojaat sanasi: 02.10.2026).
8. Durlak J. A., Weissberg R. P., Dymnicki A. B., Taylor R. D., Schellinger K. B. The Impact of Enhancing Students’ Social and Emotional Learning: A Meta-Analysis of School-Based Universal Interventions. Child Development. 2011. 82(1). 405-432. DOI: 10.1111/j.1467-8624.2010.01564.x.

MUSIQA TA’LIMI TARBIYASIDA O‘ZBEK MUMTOZ MUSIQASI IMKONIYATLARIDAN FOYDALANISH

Shavkat Raximov
Nizomiy nomidagi O‘zbekiston milliy pedagogika universiteti “Musiqiy ta’lim” kafedrasi dotsenti
Sarvinoz Nuralieva
Nizomiy nomidagi O‘zbekiston milliy pedagogika universiteti 3-bosqich talabasi
https://doi.org/10.5281/zenodo.23178281

Annotatsiya: *Ushbu maqola mazmunida uzluksiz ta’lim tizimining turli bosqichlarida faoliyat yuritayotgan ta’lim muassasalarida bo‘lajak mutaxassislarga o‘zbek mumtoz musiqasi, jumladan, maqomlarga oid nazariy va amaliy bilimlarni berish borasidagi tajribalarni o‘rganishga e’tibor qaratildi. Musiqiy tarbiyaning o‘ziga xos jihatlari yuzasidan tahliliy mulohazalar bildirildi.*
Kalitli so‘zlar: *musiqa, musiqa tarbiyasi, estetik tarbiya, maqom, mumtoz ashula, an’anaviy qo‘shiqchilik, tadqiqod, tarbiya, nola, qochirim, bezak, badiiy did, badiiy-axloqiy madaniyat, musiqa madaniyati.*

Musiqa san’ati estetik tarbiyaning muhim omili sifatida shaxs shakllanishiga kuchli ta’sir etadi. Oilada, bog‘chada, maktabda musiqa mashg‘ulotlarini maqsadga muvofiq tarzda uyushtirish, yosh avlodning ichki dunyosini boyitish va san’atni to‘g‘ri tushunishdagi samarali yo‘ldir.

Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoevning sa’yi harakatlari bilan “2017–2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha” “Harakatlar strategiyasi”ni hayotga tadbiq etish lozimligi zamon talabi bo‘lib qolmoqda. Mazkur “Harakatlar strategiyasi” har birimizdan harakat va mas’uliyatni talab qiladi! Shundan kelib chiqqan holda “Harakatlar strategiyasi”ning maqsadi olib borilayotgan islohotlar samaradorligini tubdan oshirishdan, davlat va jamiyatning har tomonlama va jadal rivojlanishini ta’minlash uchun shart-sharoitlar yaratishdan, mamlakatni modernizatsiyalash va hayotning barcha sohalarini erkinlashtirishdan iboratdir.[52]

Musiqa tarbiyasi estetik tarbiyaning tarkibiy qismi hisoblanadi. Inson shaxsini shakllantiruvchi yetakchi omillardan biri ta’lim-tarbiyadir. Estetik tarbiya esa uning tarkibiy qismi sifatida go‘zallikning mohiyati, estetik va axloqiy hissiyotlarning birligi, san’atning xalqchilligi to‘g‘risidagi ta’limotga suyanib, o‘quvchilarning ob’ektiv dunyo haqidagi bilimini kengaytiradi va chuqurlashtiradi, ijodiy qobiliyatini va iste’dodini o‘stiradi hamda ularda yuksak ma’naviy fazilatlarning tarkib topishiga yordam beradi.

Odatda, estetik tarbiyaning maqsadi bolalarda estetik his-tuyg‘u va fikrlarni rivojlantirish, go‘zallikni ko‘ra bilish va ulardan zavqlana olishdan iborat, deb

[52] Sh.M.Mirziyoev. Buyuk kelajagimizni mard va oliyjanob xalqimiz bilan birga quramiz. T.O‘. 2017.

tushuniladi. Aslida estetik tarbiyaning maqsad va vazifalari bu bilan chegaralanib qolmaydi, o‘quvchilarni go‘zallik va xunuklikni, yuksaklik va tubanlikni, shodlik, kulfatni anglash va ko‘ra bilishga o‘rgatadi.

Musiqa inson his-tuyg‘ularini, orzu-umidlarini, xohish-istaklarini o‘ziga xos badiiy tilda ifoda etadi va kishining his-tuyg‘ulariga faol ta’sir etadi.

Musiqa ham fan, ham san’atdir. U fizika va matematikaga asoslanadi, bu fanlar musiqani fanga aylantiradi. Lekin musiqa asariga shu fanning turg‘un tushunchasi sifatida qarab bo‘lmaydi. Chunki musiqa har doim rivojlanib turuvchi jonli san’atdir. Musiqa san’ati inson hayotining ilk yillaridanoq uning hamrohiga aylanib, umumiy madaniy rivojlanishiga salmoqli hissa qo‘shadi. Musiqa inson umrining doimiy yo‘ldoshi. Olim Stendalning aytishiga ko‘ra, musiqa - san’at turlari ichida insonning yuragiga chuqur kirib, uning ichki kechinmalarini aks ettirishga qodirdir.

“Musiqa san’atning ifodali turi tizimiga kiradi. Musiqa ham voqea-hodisalarni ifodali aks ettiradi. Ammo u me’morchilikdagi kabi fazo va moddiy ashyo o‘lchovlari bilan belgilanmaydi. Musiqa ko‘rish orqali emas, balki eshitish vositasida idrok etiladi. Musiqa mavzui o‘z xususiyatiga ega bo‘lib, inson va voqelikdagi barcha tomonlarni qamrab ololmaganligi uchun, eng avvalo, inson ichki ma’naviy dunyosini, uning tuyg‘u va kayfiyatini ifodalaydi... musiqa voqelikning his-tuyg‘uli qiyofasini yaratadi”.

Musiqa “til”i barcha qismlarning uzviy birligini, asar shaklini ifodalaydi.

Shakl - musiqa mazmunining moddiy ifodasidir. Bastakor fikri, tuyg‘ulari, tasavvurlari eshituvchilarga musiqiy shakl orqali yetib boradi.

Albatta musiqa shaxsni shakllantirishning, uning ijobiy fazilatlarining yo‘nalishlarini o‘z-o‘zidan belgilab bermaydi.

Tarbiyaviy ta’sirning eng muhim tomonlari musiqiy asarning g‘oyaviy mazmuniga bog‘liqdir. Ana shu bilan musiqiy-estetik tarbiyaning vazifalari belgilanadi. Mashxur polyak kompozitori K.Shimanovskiy o‘zining “Jamiyatda musiqaning tarbiyaviy ahamiyati” nomli maqolasida, musiqaning tabiiy kuchi haqida gapirar ekan, uning ikki qarama-qarshi yo‘nalishda - yaratish va buzish uchun ishlatish mumkinligini – “kerakli ishga yo‘naltirgan holda, tez oqar daryoning suvlaridan foydalanib, foydali va unumli ishlar uchun, ya’ni tegirmonni aylantirish uchun ishlatgandek, musiqa kuchidan ham unumli foydalanish kerak”, - degan.[53]

Musiqaning insonga ta’siri, shaxsning va jamiyataing ruhiy hayotidagi o‘rni kompleks muammo hisoblanadi. Ushbu murakkablik va serqirralik fanga darrov kelmadi. Shu o‘rinda Asafevning “...musiqa - bu ham san’at, ham fan, ham til, ham o‘yin” - degan so‘zlarini eslash maqsadga muvofiqdir.[54]

[53] Ветлугина Н.А. Развитие музикальных способностей дошкольников в процессе музикальных игр. М.: АПН, 1988г., -247стр.

[54] Soipova D. Musiqiy-nazariy bilimlarni o‘zlashtirish jarayonini takomillashtirish. T.:Fan va texnologiyalar nashriyoti, 2005 y., -84 bet.

Birinchi prezidentimiz I.Karimov ta’kidlaganlaridek, – “Ta’lim jarayonini isloh etish va mehnat bozorida talab qilinadigan yuqori malakali kadrlar tayyorlashda Oliy o‘quv yurtlari muhim o‘rin egallaydi”. Bu fikr bo‘lajak musiqa o‘qituvchilarini tayyorlashga ham daxldordir.

Jumladan, bo‘lajak musiqa o‘qituvchilari tomonidan o‘quv dasturlariga muvofiq o‘rganilishi lozim bo‘lgan maqom sho‘balarini tahlil qiladigan bo‘lsak, ular “Sarahbor”, ya’ni vazmin aytiluvchi keng diapozonli sho‘balardan boshlanib turlicha kayfiyatdagi taronalar bilan davom etadi. Ta’lim jarayonida, shuningdek, insonni ulug‘lovchi, unga kuch-quvvat bag‘ishlovchi, unda lirik kechinmalarni uyg‘otuvchi xarakterli sho‘balar ham o‘rganiladi. Maqomlar odatda raqsbop, quvnoq kayfiyatli uforlar bilan yakunlanadi. Maqom yo‘lidagi xalq qo‘shiqlari inson ruhiyatida kechayotgan turli kayfiyatlarga mos holda yaratilgan.

Maqomlarning inson ruhiyatida kechadigan psixologik holatlarga muvofiqligini nazarda tutgan holda har bir sho‘ba va xalq ashulalarini o‘rganishdan oldin talabalarda o‘rganilishi nazarda tutilayotgan qo‘shiqqa mos kayfiyatni yuzaga keltirish maqsadga muvofiqdir.

O‘quv dasturi bo‘yicha talabalar bilan o‘rganilishi uchun zarur bo‘lgan musiqiy asarlarning salmoqli qismini maqom sho‘balari va mumtoz xalq qo‘shiqlari tashkil qiladi. Ularni o‘rganish jarayonida talabalarda ma’naviy-axloqiy sifatlar - bosiqlik, jiddiylik, mulohazalilik, did va farosatni shakllatiradi. Shuningdek, mavjud vaziyatga muvofiq o‘zida quvnoq kayfiyatni hosil qila olish, biroq bachkanalikdan yiroqlashish ko‘nikmalarini hosil qiladi.

Jamoa bilan ishlashda faqat mumtoz ashulalarni bilishning o‘zigina kifoya qilmaydi. Balki jamoaning ovoz imkoniyatlaridan to‘g‘ri foydalanish mumtoz ashulalarning mahorat bilan ijro etilishini ta’minlabgina qolmay, ularning jozibadorligini ham oshiradi. Bu holatni shaxsan men yuz kishilik xor jamoasi bilan ishlash chog‘ida yaqqol his etaman.

Mashg‘ulotlar jarayonida mumtoz asarlarni o‘rganishda mashhur hofizlarning ijro uslublari, ular tomonidan ishlatilgan nola, qochirimlar bilan yaqindan tanishish ularning tajribalarini o‘rganish asosida talabalarning tabiatlariga mos uslubni tanlashga yordam berish zarur. Ana shu maqsadda taniqli hofizlar - Hoji Abdulaziz Abdurasulov, Halim Ibodov, Mulla To‘ychi Toshmuhamedov, Matchan Xudoyberganov, Muhiddin Qori Yoqubov, Jo‘raxon Sultonov, Ma’murjon Uzoqov, Tavakkal Qodirov, Komiljon Otaniyozov, Fattohxon Mamadaliev, Orifxon Hotamov, Eson Lutfullaev, Orif Alimahsumov, Berta Davidova, Kommuna Ismoilova, O‘lmas Saidjonov, Ma’murjon To‘xtasinov, Munojat Yo‘lchieva, Nasiba Sattorova va boshkalarning ovozlari yozilgan magnit tasmalarini talabalar ishtirokida tinglash, ularni milliy an’nalardan samarali foydalana olishga o‘rgatish,

musiqa ta’limi metodikasi oldida turgan muhim vazifalardan hisoblanadi. Tabiiyki, bu muammolarning har biri alohida ta’rif va yo‘l-yo‘riq berishni talab qiladi.[55]

Bo‘lajak musiqa o‘qituvchilarini pedagogik amaliyotga tayyorlashda ham ular tomonidan mumtoz qo‘shiqlarning puxta o‘rganilishi muhim ahamiyatga ega. Zero, mumtoz asarlar ta’sirchan kuchga ega bo‘lishi bilan birga ularda xalqona ruh mavjud bo‘lib, nafaqat talabalarni, shu bilan birga o‘quvchilarni ham milliy qadriyatlar asosida tarbiyalash, ularda asrlar davomida e’zozlanib kelingan ma’naviy-axloqiy sifatlarni tarbiyalashda muhim o‘rin tutadi. Mumtoz qo‘shiqlar yashovchanligining sababi ham ularning xalq didiga mosligi, xalq tomonidan tan olinganligidir.

Shuningdek, ularning mazmunan va musiqiy jihatdan mukammalligi, g‘oyaviyligi barcha yoshdagi kishilar e’tiborini o‘ziga torta oladi. Milliy mumtoz qo‘shiqlarning umrboqiyligini ta’minlovchi omillardan yana biri - har qanday zamon va makonda ham insonlarning ma’naviy ehtiyojini to‘la qondira olganligi bo‘lib, ana shu jihati bilan bugungi kunda ham yuqori badiiy qiymatga ega.

O‘quvchilarning musiqiy bilim, ko‘nikma va malakalariga qo‘yiladigan bu talablar mohiyatini mantiqan tahlil qilish natijasida shunday xulosaga kelish mumkin, birinchidan, ularda milliy mumtoz musiqani o‘rganishga bo‘lgan e’tibor o‘z ifodasini topgan; ikkinchidan, ularning asosida o‘quvchilarda yuksak badiiy didni shakllantirish imkoniyatlari inobatga olinadi.

Musiqiy ta’limning samarali tashkil etilishi natijasida o‘quvchilarda mumtoz musiqiy asarlariga to‘g‘ri baho berish, yuqori badiiy saviyaga ega qo‘shiqlardan mazmuni sayoz asarlarni ajrata olish hamda mumtoz qo‘shiqlarga ob’ektiv baho bera olish ko‘nikmalarining shakllanishiga imkon yaratadi.

Umumiy o‘rta ta’lim muassasalarining amaliyotini o‘rganish, o‘quv dasturlari va darsliklar bilan tanishish bo‘lajak musiqa o‘qituvchilarini 1-7-sinflarda “Musiqa madaniyati” darslarida o‘rganilishi zarur bo‘lgan o‘zbek mumtoz kuylaridan xabardor qilish, ijro uslublarining o‘zlashtirishlariga erishish zarur ekanligini tasdiqladi. Tahlillar natijasida talabalarning quyidagi o‘zbek mumtoz kuylari bo‘yicha nazariy bilim hamda amaliy ko‘nikmalarga ega bo‘lishlari lozim degan xulosaga kelindi.

Birinchi sinfdan yettinchi sinfgacha bo‘lgan davrda o‘quvchilar har bir sinfda o‘quv yilining har choragida bittadan mumtoz kuyini tinglatish orqali jami 28 ta musiqiy asar bilan tanishish imkoniyatiga ega bo‘ladilar. Tadqiqotni amalga oshirish jarayonida o‘quvchilarda asosan tinglatish orqali o‘zlashtirilishi mumkin bo‘lgan musiqiy asarlar tanlanib, bo‘lajak musiqa o‘qituvchilarining ular to‘g‘risida nazariy ma’lumotlarga ega bo‘lishlariga e’tibor qaratildi. Shu bilan birga ularda mumtoz qo‘shiqlardan namunalar ijro eta olish ko‘nikmalarini shakllantirish ham

[55] Fayzullaev E.M. Bo‘lajak musiqa o‘qituvchilari badiiy didini shakllantirishning pedagogik shart-sharoitlari (o‘zbek mumtoz musiqasi misolida). Ped.fan.nomz... dissertatsiyasi. TDPU. T.: 2010y

maqsadga muvofiq deb topildi. Jumladan, “Dugoh Husayn”, “Ko‘rmadim”, “Ey, nozanin”, “Roq” va uning “Ufor”lari, “Soqinomai savti kalon”, “Bayoti Sheroziy” va boshqa u qadar murakkab bo‘lmagan sho‘balarni ijro eta oluvchi o‘qituvchilar ularni o‘quvchilarga ham samarali o‘rgata oladilar.

O‘quvchilarni mumtoz kuy-qo‘shiqlar bilan tanishtirishda quyidagi shakl va metodlardan foydalanish maqsadga muvofiq sanaladi:

1. O‘rganish uchun tanlab olingan ayrim kuylarni magnit tasmalari yordamida tinglatish.

2. Musiqa fani o‘qituvchisining o‘zi tomonidan cholg‘u asboblari yordamida ijro etib ko‘rsatish.

3. Taniqli sozandalarni taklif etish orqali ular bilan uchrashuv tashkil qilish vaqtida o‘rganilishi ko‘zda tutilgan kuy mohiyati bilan tanishish.

4. Musiqa to‘garagining a’zosi bo‘lgan o‘quvchilar ijrosida o‘rganilayotgan mumtoz kuyni tinglash.[56]

Kuzatishlarning ko‘rsatishicha, jonli ijro o‘quvchilar ruhiyatiga yanada ijodiy ta’sir etadi. Shu sababli mumtoz kuy-qo‘shiqlarni jonli ijroda tinglash musiqa fani o‘qituvchisining diqqat-e’tiborida bo‘lishi zarur.

O‘quvchilarda ham asarlarni o‘rganish vaqtida ularning mazmunini tahlil qilish, nola, qochirim va boshqa bezaklarni anglash kabi ko‘nikmalarning bosqichma-bosqich shakllantirilib borilishi maqsadga muvofiqdir. Zero, musiqa yosh avlodning ma’naviy, badiiy-axloqiy madaniyatini shakllantirishga, milliy g‘ururi va vatanparvarlik tarbiyasini amalga oshirishga, fikr doirasini kengaytirishga, ijodiy mahorati va badiiy didi o‘sishiga, mustaqilligi va tashabbuskorligini tarbiyalashga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Sh.M.Mirziyoev. Buyuk kelajagimizni mard va oliyjanob xalqimiz bilan birga quramiz. T.O‘.2017.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 20 apreldagi “Oliy ta’lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-2909-sonli qarori. www.lex.uz.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 8 oktabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5847-sonli Farmoni. www.lex.uz.
4. Musurmonova O. Yuqori sinf o‘quvchilari ma’naviy madaniyatini shakllantirishning pedagogik asoslari: - Ped. fan. dok. ... yozilgan diss. – T.: 1993. – 364 b.

[56] Fayzullaev E.M. “Bo‘lajak musiqa o‘qituvchilari badiiy didini shakllantirishda o‘zbek mumtoz musiqasi imkoniyatlaridan foydalanish”. (metodik qo‘llanma). Toshkent – 2008.

TALABALARDA ESTETIK TARBIYA, ESTETIK MADANIYAT VA IJODKORLIK KOMPETENTSIYALARINI RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK SHART-SHAROITLARI

Shavkat Raximov
Nizomiy nomidagi O‘zbekiston milliy pedagogika universiteti “Musiqiy ta’lim” kafedrasi dotsenti
https://doi.org/10.5281/zenodo.23178290

Annotasiya: *Mazkur maqolaning mavzusi talabalarda estetik tarbiya, estetik madaniyat va ijodkorlik kompetensiyalarini shakllantirish usullariga bag‘ishlangan bo‘lib, mazmun mohiyati asosan umumta’lim maktablarining musiqa madaniyati fani bo‘yicha o‘tkaziladigan mashg‘ulotlarida hozirgi kunda qo‘yilayotgan talabdan kelib chiqib talabalarning estetik tarbiya, estetik madaniyati va ijodkorlik kompetensiyalarini shakllantirish masalalarini yoritishga qartilgan.*
Kalit so‘zlar: *Yestetik tarbiya, estetik madaniyat, ijodkorlik kompetensiya, umumta’lim maktabi, musiqa madaniyati.*

Kirish: Talabalarda estetik tarbiya, estetik madaniyat va ijodkorlik kompetentsiyalarini rivojlantirish jarayonida talabalarda jamiyatga naf keltiradigan, shaxsga qo`yiladigan axloqiy talablariga muvofiq keladigan xulqiy malaka va ko`nikma hosil qilinadi. Bunga erishish uchun oquvchining ongiga, dunyoqarashi va irodasiga tizimli, muntazam ta‘sir etib boriladi.

Asosiy qism: Balkalavriat talabalari o’zlarini kasbiy-pedagogik faoliyatga tayyorlash jarayoni yaxlit bir butun tizim bo’lib, uning o’ziga xos printsipilari o’rtasida o’zaro aloqadorlik va munosabatlarni o’rnatish talab etiladi. Ushbu tizimning bir me’yorda va turg’un ishlab turishi uchun uni ilmiy asosda tashkil etish zarur. Musiqiy-pedagogik tayyorgarlikni tashkil qilishda tadqiqot ob’ektining qonuniyatlarini ochishga imkon beruvchi, uni qo’llashning eng maqbul yo’llarini aniqlash muhimdir. Umumiy aloqa, o’zaro bog’liqlik va rivojlanish haqidagi ta’limotga asoslangan holda o’quv ishlarini tashkil qilish bu jarayon samaradorligini oshiradi.

Biz kasbiy-pedagogik tayyorgarlikning umumiy nazariyasidan kelib chiqqan holda bo’lajak musiqa o’qituvchisi o`quvchilarda estetik tarbiya, estetik madaniyat va ijodkorlik kompetentsiyalarini rivojlantirish va ularni faoliyatga tayyorlash jarayonini kelajakdagi kasbiy-pedagogik faoliyatiga yaqinlashtirib tashkil etishning nazariy va amaliy asoslarini tadqiq qildik. Bizning tadqiqotimiz oliy ta’lim muassasasidagi ta’lim jarayonining barcha davrlarini o’z ichiga oladi va o’quv-tarbiyaviy jarayonda amalga oshiriladi. Tadqiqotimizning asosini musiqa tsiklidagi ixtisoslik fanlarini o’rganish tashkil etadi.

Musiqa – barcha yoshdagilarni ijtimoiy-madaniy hayotida keng o’rinni tutadi, talaba shaxsiyatini shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadigan san’at turidir.

Musiqadan ozuqa olish uchun esa, inson yuksak madaniyatli, sof qalb egasi, go’zallikni xis eta oladigan bo’lishi kerak. Olimlardan birlari: “Odam shaxs bo’lishi uchun, u ruhiy tomonidan rivojlanishi, o’zini bir butun inson deb xis qilmog’i kerak” – degan edi. SHaxsni rivojlantirish uchun avvalo, uning hulqiga ta’sir etuvchi omillarni, uning tabiatini, qiziqishini o’rganish lozim. Buning uchun shaxsni turli munosabatlar doirasiga qo’yib kuzatish kerak. Ana shundagina uning ijtimoiy hulqi, ma’naviy qiyofasi, insoniy fazilatlari ro’yobga chiqadi. “Har bir inson – degan edi Abu Nosir Al – Farobiy – o’z tabiati bilan shunday tuzilganki, u yashash va yuksak yetuklikka erishish uchun, insonlar jamoasiga extiyoj tug’iladi, shu sababli u ko’p narsalarni o’zaro yordamlashuvi orqali yetuklikka erishadi”.

Musiqa talaba ruhiyatiga emotsional ta’sir ko’rsatish bilan birga, musiqiy tovush yordamida vujudga keladigan musiqiy tovush yordamida vujudga keladigan musiqiy oxanglar bilan ta’sir etadi, talabalarni quvontiradi, o’ylantiradi, yaxshilikka, go’zallikka yetaklaydi va nafosat olamiga olib keladi.

Musiqa shunday san’at turiki, u talabalarni kechinmalari, emotsional hissiyotlari orqali birlashtiradi. Ular orasidagi aloqa vositasiga aylanadi. Bir kompozitor tomonidan yaratilgan musiqa boshqa insonlar qalbida turli-tuman kechinmalar o’yg’otishining o’zini bir mo’jiza deb, atash mumkin.

Musiqa talaba his-tuyg’ularini, orzu-umidlarini, xohish-istaklarini o’ziga xos badiiy tilda ifoda etadi va kishining his-tuyg’ulariga faol ta’sir etadi. Musiqa ham fan, ham san’atdir. Musiqa nazariy va amaliy jihatdan fizika va matematikaga asoslanadi, bu fanlar musiqani fanga aylantiradi. Lekin musiqa asariga shu fanning turg’un tushunchasi sifatida qarab bo’lmaydi. CHunki, talabalar musiqasi har doim rivojlanib turuvchi jonli san’atdir.

Musiqa san’ati inson hayotining ilk yillaridanoq, uning hamrohiga aylanib, umumiy madaniy rivojlanishiga salmoqli hissa qo’shadi. Musiqa talaba umrining doimiy yo’ldoshi. Stendalning aytishiga ko’ra, musiqa – san’at turlari ichida talabaning yuragiga chuqur kirib, uning ichki kechinmalarini aks ettirishga qodirdir.

Musiqa san’atning ifodali turi tizimiga kiradi. Musiqa ham voqea-hodisalarni ifodali aks ettiradi. Ammo u me’morchilikdagi kabi fazo va moddiy ashyo o’lchovlari bilan belgilanmaydi. Musiqa ko’rish orqali emas, balki eshitish vositasida idrok qilinadi. Musiqa mavzui o’z xususiyatiga ega bo’lib, inson va voqelikdagi barcha tomonlarni qamrab ololmaganligi uchun, eng avvalo, inson ichki ma’naviy dunyosini, uning tuyg’u va kayfiyatini ifodalaydi... musiqa voqelikning his-tuyg’uli qiyofasini yaratadi”

Musiqa kayfiyat holatini ifodalashda keng imkoniyatga ega. Inson kayfiyati murakkab hissiyot bo’lib, u hech narsa bilan bog’lanmagan. Kayfiyat umumlashgan xususiyatga ega bo’lib, undan ikkilamchi tomonlar chiqarib tashlanadi va insonning voqelikka bo’lgan tuyg’u munosabatini belgilaydigan eng muhim tomonlari ajratib olinadi. Musiqaning kuch-qudrati shundaki, u shodlanish, qayg’urish, xayol surish,

bardamlik, jasurlik, tushkunlik va shunga o’xshash inson ruhiy holatlarini xususiy va umumiy tarzda o’zaro bog’liqlikda, bir-biriga singib ketishida namoyish qila oladi.

Musiqa “tili” barcha qismlarning uzviy birligini, asar shaklini ifodalaydi. SHakl – musiqa mazmunining moddiy ifodasidir. Bastakor fikri, tuyg’ulari, tasavvurlari eshituvchilarga musiqiy shakl orqali yetib boradi. SHu bois musiqa musiqa ta’limi yo’nalishi talabalarini XX asr kompozitorlari ijodi asosida kasbiy kompetetligini egallashga, uning mazmun-mohiyatini anglashga, musiqadagi fikrlar, tuyg’ular, kechinmalar boyligini o’zlashtirishga keng yo’l ochadi.

O’sib kelayotgan avlod uchun musiqiy tarbiyaning ahamiyatini nihoyatda buyuk ekanligini qadimiy mutafakkirlar alohida urg’u bilan ta’kidlashgan. Kelajak jamiyat a’zosining insoniy va ijobiy fazilatlari aynan talabalikdan boshlab shakllana boradi. Aynan shu davrda musiqa ijobiy sifatlarni shakllantiruvchi vosita hisoblangan. Musiqa qo’shiq va raqs tarkibida ham vujudga keladi va keyinchalik badiiy ijodning mustaqil turiga aylanadi, o’ta o’ziga xos badiiy ifoda tiliga ega bo’lib, maxsus ishlab chiqilgan va tanlab olingan tovushlar ana shu tilning manbaidir.

Albatta, musiqa shaxsni shakllantirishning, uning ijobiy fazilatlarining yo’nalishlarini o’z-o’zidan belgilab bermaydi. Tarbiyaviy ta’sirning eng muhim tomonlari musiqiy asarning g’oyaviy mazmuniga bog’liqdir. Mashhur polyak kompozitori K.SHimanovskiy o’zining “Jamiyatda musiqaning tarbiyaviy ahamiyati” nomli maqolasida, musiqaning tabiiy kuchi haqida gapirar ekan, – uning ikki qarama-qarshi yo’nalishda – yaratish va bo’zish uchun ishlatish mumkinligini – “kerakli ishga yo’naltirgan holda, tez oqar daryoning suvlaridan foydalanib, foydali va unumli ishlar uchun, yaoni tegirmonni aylantirish uchun ishlatgandek, musiqa kuchidan ham unumli foydalanish kerak” – deb aytgan.

SHu o’rinda Asafьevning “...musiqa – bu ham san’at, ham fan, ham til, ham uyin” – degan so’zlarini eslash maqsadga muvofiqdir. Musiqaning talabaga ta’siri, shaxsning va jamiyatning ruhiy hayotidagi o’rni kompleks muammo hisoblanadi. Ushbu murakkablik va serqirralik fanga darrov kelmadi. SHu o’rinda Asafьevning “...musiqa – bu ham san’at, ham fan, ham til, ham uyin” – degan so’zlarini eslash maqsadga muvofiqdir.

Talabalarda estetik tarbiya, estetik madaniyat va ijodkorlik kompetentsiyalarini rivojlantirish barcha tadbirlar o’quv-musiqiy faoliyat bilan chambarchas olib borildi. Bu birlik talabalar musiqiy-pedagogik faoliyati printsiplarining shakllanishida muhim ahamiyatga ega bo’ldi. Bular: o’z kasbiga munosabat – o’qituvchilik va musiqa san’atiga ongli-ijtimoiy munosabat, uni jamiyat hayoti va faoliyatining zarur sohasi, insonning hayotiy zarur ehtiyoji ekanligini tushunish; musiqiy qobiliyatning rivojlanishiga yo’naltirilgan jonli musiqa bilan muntazam, bevosita munosabatda bo’lish kabi xususiyatlar bilan chambarchas bog’landi.

Talabalarda estetik tarbiya, estetik madaniyat va ijodkorlik kompetentsiyalarini rivojlantirishda musiqiy tadbirlarni tashkil qilish orqali taniqli san’at namoyondalari, yozuvchi shoirlar bilan o’tkazilgan uchrashuvlar ham talabalarni musiqiy-estetik tarbiyalashda alohida ahamiyat kasb etadi. Uchrashuvlarda ular yozgan she’rlariga bastalagan qo’shiqlarini badiiy havaskorlik to’garagi qatnashchilari katta mamnuniyat bilan ijro etdilar.

Bilimdonlik kompetentligi – kompozitorlar ijodining o’ziga xos jihatlari sifatida musiqiy san’atning boy mazmunini o’zlashtirish va u orqali o’rab turgan borliqni va o’z-o’zini anglash; musiqiy bilim, ko’nikma va malakalar hajmini to’ldirish; ijrochilik faoliyatini o’zlashtirish va rivojlantirish;

hissiy-emotsional kompetentligi – kompozitorlar tomonidan yaratilgan asarlarni ijro etayotgan va tinglayotgan musiqa asarlaridan ta’sirlanish; undagi obrazlarning ichki kechinmalarini his qilish va o’zi ijro etayotgan musiqa asarining harakter mazmunini ochib berish;

axborot berish kompetentligi – o’quv dasturidan tashqari kengroq musiqiy bilimlarga ega bo’lish, musiqiy manbalar va adabiyotlar bilan yanada kengroq tanishish;

loyihalash kompetentligi – musiqiy jamoalar va ular bilan ishlash usuliyoti uning ish rejalari, repertuarini tuzish ko’nikmasi;

tashkilotchilik kompetentligi – jamoani tashkil qilish usuliyoti, uning ish yuritish uslubi va qatnashchilarni jamoaga yanada qiziqtirish va jalb qilish

muloqot qilish kompetentligi – jamoa a’zolari bilan muloqotni tashkil qilish, qatoiylik, shirinsuxanlik, har bir ishtrokchiga individual va butun jamoaga rahbar sifatida eng yaqin yordanchi sifatida munosabatda bo’lish va hokazo, shu kabi kompetentliklarning izchil shakllanib borishida samarali natijalarga erishildi.

Bundan tashqari universitetning fakultetlararo badiiy havoskorlik to’garaklari ishtirokidagi ko’rik-konkurslarini har yili o’tkazish an’anaga aylanib qolgan. Keyingi yillarda bu ko’rik-konkurs shartlarini mazmuni tubdan o’zgartirilib, milliy mazmun bilan boyitib borildi. Natijada talabalarda o’qituvchi uchun zarur bo’lgan bir qator musiqiy-pedagogik ko’nikmalar takomillashib bordi. Bular: musiqani eshitish va uning g’oyaviy estetik, axloqiy qiymatini tushunib, musiqiy idrokning rivojlanishi asosida musiqiy obrazlarni idrok qilish; shaxsiy musiqiy-badiiy did asosida musiqa haqida mustaqil munosabatni bildirish va xolisona estetik baholay olish, musiqa haqida suhbat o’tkazish ko’nikmasi. Yakuniy natijada sekin-asta anglangan musiqiy ehtiyojga o’tib boruvchi milliy musiqagni eshitish odat tusiga kirib bordi.

Xulosa: Demak, talabalarning musiqiy hamda shaxsiy xususiyatlarini shakllantirishda musiqa san’atining o’rni beqiyosdir. Musiqa kishiga har tomonlama ta’sir ko’rsatar ekan, kuy va uning musiqiy ifodasi kishining hissiyotiga chuqur ta’sir qilib, unda har xil hislarni o’yg’otadi, turlicha kayfiyatlarni hosil qiladi. Qo’shiqning

matni, g’oyaviy mazmuni faqat hissiyotga emas, balki talabalarning ongiga ham ta’sir qilib, ularni hayajonlantiradi va fikrlashga majbur etadi. Kishilarda asarda aks etgan ma’naviy muammolarga nisbatan muayyan munosabat o’yg’otadi. Bunday ta’sir g’oyat murakkab va kuchlidir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi.
2.Ta’lim sohasiga oid meyoriy-huquqiy hujjatlar. Ikki jildli. – T.,2012.
3.Mirziyoev SH.M. Tanqidiy tahlil, qat’iy tartib-intizom va shahsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo‘lishi kerak. –T.:”O‘zbekiston”.2017.
4.Fitrat Abdurauf. O‘zbek klassik musiqasi va uning tarixi. –T.: “Fan”.1993.
5.Akbarov I. Musiqa lug‘ati. –T.: “O‘qituvchi”.1997. -120 b.
6.Barkamol avlod tarbiyasida san’atning o‘rni. –T.: “Musiqa”.2010. –

QORI NIYOZIY NOMIDAGI TARBIYA PEDAGOGIKASI MILLIY INSTITUTI
TPMI
1929

SHARQ TARBIYA MODELLARI ASOSIDA MILLIY TARBIYA

Raximova Surayyo Otabek qizi, Madjitova Sitora Sobit qizi
Qori Niyoziy nomidagi Tarbiya pedagogikasi milliy instituti tayanch doktoranti
https://doi.org/10.5281/zenodo.23178302

Annotatsiya: *Mazkur maqolada Sharq xalqlarining tarixiy, ma’naviy va axloqiy tarbiya tajribalaridan milliy tarbiya jarayonida foydalanish masalalari yoritilgan. Unda Sharq tarbiya modellarining o‘ziga xos xususiyatlari, ularning shaxs ma’naviyati va axloqiy fazilatlarini shakllantirishdagi ahamiyati tahlil qilinadi. Shuningdek, milliy tarbiya mazmunini boyitishda Sharq xalqlariga xos bo‘lgan odob-axloq, kattalarga hurmat, vatanparvarlik, insonparvarlik, mehnatsevarlik va hamjihatlik kabi qadriyatlardan foydalanish imkoniyatlari ko‘rib chiqiladi. Maqolada Sharq tarbiya modellarining zamonaviy ta’lim-tarbiya jarayoni bilan uyg‘unlashuvi hamda o‘quvchilarning ma’naviy-axloqiy rivojlanishiga ta’siri ilmiy-nazariy jihatdan asoslanadi.*

Kalit so‘zlar: *Sharq tarbiya modellari, milliy tarbiya, ma’naviy-axloqiy tarbiya, milliy qadriyatlar, Sharq xalqlari, tarbiya jarayoni, ma’naviyat, axloq, o‘quvchi shaxsi, pedagogik yondashuv.*

Kirish

Sharq xalqlari tarbiya modellari vositasida o‘quvchilarni ma’naviy-axloqiy rivojlantirish zarurati tarixiy merosning boyligi yoki undagi pand-nasihatlarning ko‘pligi bilangina asoslanmaydi. Masalaning ijtimoiy tomoni jamiyat kutayotgan hurmat, adolat, mas’uliyat va hamkorlik kabi munosabat sifatlari bilan bolaning kundalik vaziyatlarda amalga oshiradigan tanlovi o‘rtasidagi aloqaga borib taqaladi. O‘quvchi adolat haqidagi ta’rifni bilishi, ammo manfaatlar to‘qnashganda uning mezonlarini qo‘llay olmasligi, hurmatni qadriyat sifatida tan olishi, ammo o‘zgacha fikr bildirgan tengdoshining qadrini saqlay olmasligi mumkin. Demak, axloqiy bilimning mavjudligi uning shaxsiy ma’noga, asoslangan qarorga va barqaror xulqqa aylanganini bildirmaydi. Masalaning didaktik tomoni aynan shu oraliqni qanday mazmun, munosabat va faoliyat vositasida bosib o‘tish mumkinligini tushuntirishni talab qiladi. Bunda ijtimoiy ehtiyoj o‘quvchiga ko‘proq talab qo‘yish bilan emas, qarama-qarshi talablar orasida asosli tanlov qilish imkonini kengaytirish bilan o‘lchanadi. Didaktik zarurat ham tarixiy ma’lumotlar sonini ko‘paytirishni emas, ularning qaysi biri qanday savol, faoliyat va refleksiya orqali shaxsiy tajribaga aylanishini izohlashni anglatadi. Shu farq saqlanmasa, jamiyatning ma’naviy tashvishi darsdagi nasihatlar miqdorini oshiradi, biroq bolaning qarorini o‘zgartiradigan pedagogik sharoit ochilmay qoladi. Tarixiy model bu jarayonga tayyor javoblar ombori sifatida emas, qadriyatning qanday asoslangani, tarbiyachi bilan tarbiyalanuvchi munosabati qanday qurilgani va xulqiy natija qaysi vositalar orqali ko‘zlangani haqidagi madaniy tajriba sifatida kiradi. Shu bois markaziy ilmiy savol “merosdan foydalanish kerakmi?” degan umumiy qo‘yilishdan kengroqdir. Bunda muayyan tarbiya tajribasi qaysi ijtimoiy ehtiyojga javob beradi, uning qaysi tarkibi o‘quvchi rivojlanishi uchun pedagogik ahamiyatga ega va tarixiy mazmun

zamonaviy ta’lim faoliyatiga qanday shartlarda aylantiriladi? Bu savol zaruratni oldindan e’lon qilinadigan hukm emas, manba, vosita va kutiladigan o‘zgarish orasidagi bog‘lanish orqali isbotlanadigan nazariy muammo sifatida qo‘yishga imkon beradi.

Ushbu muammoni aniqlashtirish uchun ma’naviyat, axloq, tarbiya va rivojlanish tushunchalarining vazifasi farqlanishi lozim. Ma’naviyat shaxsning inson qadri, hayot mazmuni, o‘zlik va boshqalar oldidagi mas’uliyat haqidagi qadriyatli-ma’noviy yo‘nalishini, axloq esa shu yo‘nalishning adolat–nohaqlik, burch–manfaat, g‘amxo‘rlik–befarqlik kabi mezonlar orqali munosabatlarda namoyon bo‘lishini ifodalaydi. Tarbiya bolaning madaniy mazmun va ijtimoiy munosabatlarga kirishini maqsadli tashkil etsa, rivojlanish uning tushunish, his etish, baholash va harakat imkoniyatlaridagi sifat o‘zgarishini anglatadi. M. Hamdamovaning ta’limni insonparvarlashtirish talqini bilim hajmini ko‘paytirishdan ko‘ra bilimni shaxsiy fazilat hamda uni mustaqil qo‘llash ko‘nikmasi bilan uyg‘unlashtirishga urg‘u beradi . A. Danilyuk, A. Kondakov va V. Tishkov esa ma’naviy-axloqiy rivojlanishni qadriyatli-ma’noviy sohaning kengayishi hamda shaxsning o‘ziga, boshqalarga va jamiyatga munosabatini ongli qurishi bilan bog‘laydi . Bu qarashlar natijaning bilimdan kengligini ko‘rsatishda yaqin, biroq biri shaxs imkoniyatining insonparvar ta’limda ochilishini, ikkinchisi muayyan jamiyat qadriyatlarining ijtimoiylashuvdagi o‘rnini markazga qo‘yadi. I. Solovtsova mazkur nisbatni mazmunni o‘zlashtirish darajasida davom ettirib, dialogni tayyor hukmni yetkazish emas, madaniy hodisa yuzasidan birgalikda ma’no izlash sifatida tushuntiradi. Bunda material o‘quvchining yoshi, bilimi va hayotiy tajribasiga tayanishi kerak . Shunday qilib, ma’naviy-axloqiy rivojlanish inson qadriga yo‘nalgan ma’no, hissiy munosabat, axloqiy mulohaza va mas’uliyatli faoliyatning o‘zaro bog‘liq boyishi sifatida qaraladi. Tarbiya modeli esa alohida hikmat yoki usul emas, maqsad, qadriyat, ishtirokchilar munosabati, faoliyat va kutiladigan o‘zgarish orasidagi ichki aloqani ifodalovchi pedagogik tuzilmadir.

Model tushunchasining bunday chegarasi “Sharq tarbiyasi”ni bir xil diniy, milliy yoki geografik mohiyat sifatida tasvirlashga yo‘l qo‘ymaydi. Markaziy Osiyodagi odob va komil inson qarashlari, Xitoydagi Konfutsiy ta’limining tarixiy hamda zamonaviy talqinlari, musulmon jamiyatlaridagi tarbiyah haqidagi qarashlar oila, ustoz, jamoa yoki shaxsiy takomillashuvga e’tibor berishi mumkin, lekin umumiy mavzular ularning maqsadi, institutsional shakli va o‘quvchi rolini aynanlashtirmaydi. F. Panjvani islomiy ta’lim muhokamasida tarixdan tashqari tasavvur qilingan yagona mohiyat o‘rniga, muayyan davr va muhitdagi insonlar bilim hamda ta’limni qanday tushunganini o‘rganishni taklif qiladi . Ushbu metodologik talab diniy manba, uning keyingi pedagogik talqini va zamonaviy maktabda qayta qurilgan faoliyatni bir-biridan ajratishga yordam beradi. A. Shahin esa tarbiyahni faqat diniy bilim berish yoki intizom mashqi emas, shaxsning bilish,

ruhiy, hissiy va axloqiy jihatlarini qamrab oluvchi yaxlit hamda refleksiv jarayon sifatida talqin qiladi . Panjvani tarixiy va diskursiv xilma-xillikni ochsa, Shahin shu talqinlarning pedagogik mazmunini, ya’ni ular bolaning o‘rganishi va mustaqil mulohazasi uchun qanday imkon yaratishini so‘roq qiladi. A. Afanasyevaning etnomadaniy ta’limga yondashuvi ham o‘z xalqining an’analarini chuqur o‘rganish bilan ko‘pmadaniyatli muhitda muloqot va hamkorlikka tayyorlashni bir-biridan ajratmaslikni talab etadi . Biroq uch manbaning xulosalari turli kontekst va nazariy vazifalarga ega. Ular birgalikda muayyan tarixiy modelning kelib chiqishi, ichki mantiqi va boshqa madaniy tajribalarga ochiqligi ko‘rsatilishi zarurligini asoslaydi, uning maktabdagi samaradorligini esa hali isbotlamaydi.

Kontekstual xilma-xillikni tan olish tarbiyaviy materialni tanqidsiz qabul qilishga olib kelmasligi kerak. An’ananing avlodlar davomida saqlanishi uning har bir shakli zamonaviy o‘quvchi rivojlanishiga mos ekanini bildirmaydi. Ayni paytda muammoli bir odat asosida butun madaniyat haqida salbiy hukm chiqarish ham ilmiy asosga ega emas. L. Lyubimov an’anaga faqat ijobiy fazilatlar manbai sifatida murojaat qilish kattalar hayotidagi qarama-qarshi qadriyatlar va nomaqbul xulqni ko‘rmay qolishga olib kelishini ta’kidlaydi, biroq uning ayrim milliy madaniyatlar haqidagi keskin umumlashtirishlari aynan shu tanqidiy mezon sabab tayyor xulosa sifatida qabul qilinmaydi . Mahsuldor natija merosni ideallashtirish yoki rad etishda emas, aniq munosabat va vositaning inson qadriga, o‘quvchi fikriga hamda o‘zaro javobgarlikka ta’sirini baholashda namoyon bo‘ladi. Masalan, hurmat itoat bilan, hamjihatlik alohida fikrdan voz kechish bilan, sabr esa nohaqlikka sukut saqlash bilan tenglashtirilsa, tarixiy atamaning tashqi saqlanishi uning axloqiy ma’nosini toraytiradi. M. Ko‘ylu tinchlik va adolat ta’limini jamiyat qadriyatlari haqida tanqidiy fikrlash hamda tinchlik va adolatga xizmat qilmay qolgan munosabatlarni mas’uliyat bilan o‘zgartirish zaruratini anglashga yo‘naltiradi . Bu pozitsiya tarbiyani mavjud muhitga passiv moslashishdan farqlaydi. Demak, modelni saralashda to‘rtta mezon birgalikda ishlaydi: manbaning tarixiy-madaniy ishonchliligi, undagi axloqiy muammoning inson qadriga muvofiqligi, o‘quvchining fikr va faoliyat subyekti sifatidagi o‘rni hamda tanlangan mazmunning zamonaviy ijtimoiy aloqalarga ochiqligi. Mazkur mezonlar madaniy merosga hurmatni ilmiy va pedagogik javobgarlik bilan uyg‘unlashtiradi.

Tarixiy tajribaning boshqa muhitga ko‘chirilishi emas, pedagogik ma’nosining qayta asoslanishi muhim. Qadriyat nomi saqlansa ham, uning ijtimoiy vazifasi, tarbiyachi hokimiyati va bolaga berilgan mas’uliyat o‘zgarishi mumkin. Shuning uchun tarixiy tushunchani bugungi ma’no bilan aynanlashtirish, tashqi shaklni pedagogik munosabat o‘rniga qo‘yish va bir muhitdagi yechimni boshqa ta’lim tizimiga tekshirmasdan tatbiq etishdan saqlanish lozim. Lyubimovning ogohlantirishi an’anani ideallashtirmaslikka, Ko‘ylu ilgari surgan adolat mezoni esa uning bugungi munosabatlarga ta’sirini baholashga yordam beradi. Qiyoslash turli

talqinlarni bitta ta’rifga keltirmaydi, balki ularning o‘quvchiga qanday huquq, vazifa va tanlov maydoni berganini ochadi. Shu asosda tarixiy shaklning inson qadrini va mas’ul munosabatni kuchaytiruvchi jihati saqlanadi, uning qo‘llanish usuli esa zamonaviy maktabdagi tenglik, dialog va xavfsizlik talablariga muvofiqlashtiriladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Hamdamova Manzura. Ma’naviyat asoslari (Barkamol avlodni tarbiyalashda uzluksiz ta’limni insonparvarlashtirish texnologiyasi). – Fan va texnologiya, 2008. – 224 b. – B. 4–5.
2. Данилюк А. Я., Кондаков А. М., Тишков В. А. Концепция духовно-нравственного развития и воспитания личности гражданина России. – Москва: Просвещение, 2009. – Электронное издание. – С. 9.
3. Соловцова И. А. Требования к содержанию духовно-нравственного воспитания: гуманитарный подход // Педагогика. Вопросы теории и практики. – 2020. – Т. 5. – № 6. – С. 727–733.

QORI NIYOZIY NOMIDAGI TARBIYA PEDAGOGIKASI MILLIY INSTITUTI
TPMI
1929

TARBIYAVIY JARAYONLARDA TEXNOLOGIK YONDASHUVNI TADBIQ ETISHNING PEDAGOGIK IMKONIYATLARI

Raxmatova Mexrinoz Majitovna
Qori Niyoziy nomidagi Tarbiya pedagogikasi milliy instituti doktoranti, PhD, dotsent
E-mail: raxmatovamexrinoz@gmail.com; +998914120459
https://doi.org/10.5281/zenodo.23178318

Annotatsiya: *Tarbiyaviy jarayonlarga axborot texnologiyalarini keng jalb etish zamonaviy va keng dunyoqarashga ega avlodni voyaga yetkazish uchun yangi imkoniyatlarni ochadi. Raqamli muhit o‘quvchilarga dunyo hamjamiyati bilan aloqa o‘rnatish, turli xalqlar madaniyatini o‘rganish va rang-barang qarashlarni to‘g‘ri tushunish imkonini beradi. Bu esa yoshlarda bugungi dunyo uchun g‘oyat muhim hisoblangan bag‘rikenglik, o‘zaro hurmat va insonparvarlik tuyg‘ularini shakllantirishga xizmat qiladi. Biroq, globallashuv jarayonlarining milliy qadriyatlarimiz va madaniy o‘zligimizga ma’lum ma’noda tahdid solishini yodimizdan chiqarmasligimiz lozim. Shu bois, texnologiyalarga asoslangan xarakter tarbiyasi birinchi navbatda milliy o‘zlikni va ma’naviy poydevorni mustahkamlashi, shu bilan birga yoshlarni xalqaro maydonda erkin moslasha oladigan ko‘nikmalar bilan qurollantirishi shart.*
Kalit so‘zlar: *texnologik yondashuv, tarbiyaviy jarayon, strategiya, maqasad, shakl, vosita, metod, raqamli etika, kiber makon, shart-sharoit.*

Tarbiyaviy jarayonlarga texnologiyalarni integratsiya qilish raqamli davrda komil insonni shakllantirishning eng muhim strategik bosqichidir. Bu jarayonda texnologiya shunchaki quruq dars o‘tish vositasi emas, balki o‘quvchilar uchun ta’limni yanada mazmunli va hayotiy qiladigan o‘ziga xos ko‘prik hisoblanadi. Mazkur ezgu sa’y-harakatlarning natijasi esa pedagoglardan tortib, ota-onalar va davlat idoralari vakillarigacha bo‘lgan barcha bo‘g‘inlarning daxldorligi hamda umumiy mas’uliyatiga bog‘liq. Faqatgina ana shunday yaxlit va tizimli yondashuv orqali biz nafaqat intellektual salohiyatli, balki axloqiy, ijtimoiy va ruhiy jihatdan barqaror avlodni tarbiyalay olamiz. Zero, kelajakning murakkab sinovlariga dosh beradigan va umuminsoniy qadriyatlarni asrab qoladigan chinakam ma’naviyatli avlod aynan mana shunday muhitda kamol topadi.

Shaxs xarakterini tarkib toptirish - uning ma’naviy yuksakligi, axloqiy pokligi, boshqalarga nisbatan xayrixohligi hamda o‘zi va jamiyat oldidagi mas’uliyat hissini shakllantirishning muhim poydevoridir. Shiddatli texnologik taraqqiyot kechayotgan hozirgi raqamli davrda bu masalaning dolzarbligi har qachongidan ham ortib bormoqda. Virtual makonda yolg‘on va chalg‘ituvchi axborotlarning ko‘payishi, ma’naviy-axloqiy mezonlarning zaiflashishi hamda globallashuv oqimida milliy qadriyatlarning yemirilish xavfi kabi murakkab muammolarga qarshi tura olish uchun yoshlarda mustahkam iroda va xarakter talab etiladi [1.14]. Shuning uchun ham zamonaviy tarbiya tizimi faqatgina intellektual salohiyatli kadrlar tayyorlash bilan cheklanib qolmasdan, balki dunyodagi dinamik o‘zgarishlarga tez

moslasha oladigan barqaror, bag‘rikeng va mustaqil shaxsiyatni voyaga yetkazishni bosh maqsad qilib qo‘yadi.

Raqamli makon insonlarning o‘zaro muloqot qilish, ta’lim olish va dunyoni anglash usullarini tubdan o‘zgartirib yubordi. Internet, ijtimoiy tarmoqlar va turli mobil ilovalar kundalik hayotimizning uzviy qismiga aylandi. Tabiiyki, bunday sharoit ta’lim tizimi oldiga o‘quv-tarbiya jarayonida raqamli imkoniyatlardan unumli foydalanish vazifasini qo‘yadi. Bugungi kunda texnologiya shunchaki dars o‘tishga ko‘maklashuvchi qo‘shimcha qurol emas, balki tarbiya mezonlarini o‘quvchilar hayotiga hayotiy va mazmunli tarzda singdiruvchi asosiy muhit hisoblanadi. Masalan, maxsus raqamli dasturlar yordamida yaratilgan simulyatsiyalar, ta’limiy o‘yinlar va jamoaviy onlayn loyihalar o‘quvchilarda quruq yodlash emas, balki jonli jarayon orqali o‘zaro hamkorlik, halollik hamda mas’uliyat kabi fazilatlarni tabiiy ravishda shakllantiradi.

Biroq, raqamli makonda yuzaga kelayotgan salbiy tendensiyalar va global tahdidlarni ham inkor etib bo‘lmaydi. Virtual olam imkoniyatlaridan foydalanishning haddan tashqari osonlashgani ko‘p hollarda tarmoqdagi tazyiqlar - kiberbulling, ijtimoiy tarmoqlarga ruhan bog‘lanib qolish va yosh xususiyatlariga mos kelmaydigan zararli materiallarni iste’mol qilish kabi jiddiy muammolarga yo‘l ochmoqda [2.225]. Aynan mana shunday sharoitda o‘quvchilarda texnologiyalardan to‘g‘ri va oqilona foydalanish ko‘nikmasini shakllantirish, ularda mustahkam ichki nazorat va axloqiy poydevor yaratish uchun axloqiy tarbiya har qachongidan ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Shu nuqtai nazardan, raqamli savodxonlik madaniyati zamonaviy tarbiya tizimining ajralmas qismiga aylanishi zarur. Mazkur savodxonlik faqatgina texnik bilimlar bilan cheklanib qolmay, balki virtual makondagi axborotlarni tanqidiy idrok etish, tahlil qilish, olingan ma’lumotlarni xolis baholash hamda ulardan mas’uliyat bilan foydalanish qobiliyatini ham qamrab oladi. Raqamli savodxonlik, shuningdek, tarmoq etikasi normalariga rioya qilish, virtual muhitda boshqalarning huquq va erkinliklarini hurmat qilish hamda texnologiyaning shaxsiy va ijtimoiy hayotga ko‘rsatadigan ta’sirini chuqur anglash kabi yuksak insoniy qadriyatlarni o‘z ichiga oladi.

Shu bilan bir qatorda, raqamli makonda shaxs dunyoqarashini shakllantirish bugungi yoshlarning ehtiyoj va qiziqishlariga mos keladigan innovatsion hamda zamonaviy pedagogik yondashuvlarni taqozo etadi. Faqatgina ma’ruzaga asoslangan an’anaviy o‘qitish metodlari bugungi raqamli texnologiyalar muhitida o‘sayotgan o‘quvchilarning diqqatini jalb qilish va ularning qadriyatlarini shakllantirishda ko‘p hollarda kutilgan samarani bermayapti. Shu bois, maxsus mobil ilovalarga asoslangan ta’lim, interaktiv modullar va onlayn platformalar kabi texnologik imkoniyatlar tarbiya jarayonini yanada jozibador hamda ta’sirchan qilishda maqbul yechim bo‘la oladi. Masalan, o‘quvchilarga virtual borliq

simulyatsiyalari orqali boshqa insonlarning hayotiy vaziyatlarini his qilish imkoniyati berilsa, ularda o‘zganing holatini tushunish, ya’ni insonparvarlik va xayrixohlik tuyg‘ulari ancha tez rivojlanadi. Bundan tashqari, zamonaviy texnologiyalar pedagoglarga raqamli ta’lim muhitidan olingan ma’lumotlarni tahlil qilish orqali har bir o‘quvchining xulq-atvoridagi o‘zgarishlarni va dunyoqarashi shakllanish dinamikasini muntazam ravishda kuzatib borish imkonini taqdim etadi.

Umuman olganda, raqamli davrda shaxs dunyoqarashini tarkib toptirish tizimi virtual makondagi mavjud xavf-xatarlarni inkor etmagan holda, texnologiyaning ijobiy imkoniyatlaridan unumli foydalanishga yo‘naltirilishi lozim. Bundan ko‘zlangan pirovard maqsad - nafaqat akademik jihatdan intellektual salohiyatli, balki mustahkam irodali, qat’iy axloqiy mezonlarga ega va mas’uliyatli raqamli fuqarolik madaniyati shakllangan yangi avlodni voyaga yetkazishdan iboratdir. Mukammal raqamli savodxonlik, innovatsion o‘qitish metodikalari hamda pedagoglar, ota-onalar va davlat institutlari o‘rtasidagi uyg‘un hamkorlik zanjiri raqamli muhitda samarali tarbiya tizimini barpo etishning asosiy kalitidir. To‘g‘ri belgilangan strategik yondashuv orqali zamonaviy texnologiyalar kelajakning har qanday murakkab muammolariga tayyor bo‘lgan barkamol avlodni shakllantirishda eng kuchli va samarali omil bo‘lib xizmat qiladi.

Tarbiyaviy ishlarni har bir o‘quvchining individual ehtiyojlariga moslashtirish ham raqamli muhitda qo‘llaniladigan samarali **strategiyalar**dan biri hisoblanadi. Zamonaviy texnologiyalar pedagoglarga turli ta’limiy platformalardan to‘planadigan ma’lumotlar yordamida o‘quvchilar xulq-atvoridagi o‘zgarishlarni muntazam kuzatib borish imkonini taqdim etadi. Ushbu ma’lumotlar tahlili asosida o‘qituvchilar har bir bolaning xarakteridagi kamchiliklarni bartaraf etishga qaratilgan maxsus pedagogik ta’sir choralarini aniq loyihalashtira oladilar. Masalan, agar biron bir o‘quvchida dars intizomini buzish yoki mas’uliyatsizlikka moyillik sezilsa, pedagog uning shaxsiy qiziqishlari va o‘rganish uslubini hisobga olgan holda, intizomlilik hamda irodani mustahkamlashga qaratilgan maxsus vazifalar yoki individual o‘quv modullarini taklif etishi mumkin.

Shu bilan bir qatorda, axborot texnologiyalarini ta’limga joriy etishda ijtimoiy muhitga mos keladigan, milliy qadriyatlarga asoslangan raqamli kontentlarni ishlab chiqish orqali ham muvaffaqiyatli amalga oshirish mumkin. Zamonaviy texnologik imkoniyatlar tarbiyaviy materiallarni yoshlar auditoriyasi uchun ancha jozibador va ta’sirchan shaklda taqdim etishga yo‘l ochadi. Bunga xalqimizning boy madaniy merosi, tarixiy an’analari va ma’naviy mezonlarini aks ettiruvchi interaktiv videolar, infografikalar hamda tarbiyaviy animatsion filmlarni misol keltirish mumkin [3]. Bunday yondashuv o‘quvchilarning nafaqat umuminsoniy g‘oyalarni anglashini, balki o‘zlikni hamda milliy qadriyatlarni chuqur qadrlashini ta’minlashda ham muhim poydevor bo‘ladi. Mazkur strategiya yordamida raqamli makondagi tarbiya

tizimi texnologik zamonaviylik hamda yoshlar ma’naviyatining asosi hisoblangan milliy an’analar o‘rtasida mustahkam ko‘prik vazifasini o‘taydi.

Shuningdek, tarbiyaviy jarayonlarda raqamli tizimlarga asoslangan rag‘batlantirish va intizomiy nazorat mexanizmlarini joriy etish ham muhim ahamiyat kasb etadi. Mazkur tizim dars jarayonida intizomlilik, jamoaviylik yoki halollik kabi ijobiy xulq-atvor ko‘rsatkichlarini namoyon etgan o‘quvchilarni maxsus reyting ballari, virtual nishonlar yoki raqamli sertifikatlar orqali taqdirlashga mo‘ljallanadi. Aksincha, belgilangan tarbiya mezonlari va odob-axloq qoidalarining buzilishi holatlari ham tizimda qayd etilib, keyinchalik o‘quvchilar va pedagoglar uchun tahliliy mulohaza materiali bo‘lib xizmat qiladi. Bunday yondashuv nafaqat o‘quvchilarning tarbiyaviy jarayonlarga bo‘lgan qiziqishini oshiradi, balki ularda o‘z harakatlarining natijasi va oqibatlarini anglash ko‘nikmasini shakllantiradi.

Ushbu **amaliy strategiyalarni** hayotga tatbiq etish orqali zamonaviy texnologiyalar shaxs dunyoqarashini shakllantirishda samarali pedagogik vositaga aylanadi. Biroq, mazkur integratsiya jarayonining muvaffaqiyati baribir pedagogning yo‘naltiruvchi va ko‘makchi sifatidagi faol o‘rniga, oila hamda maktab hamkorligining mustahkamligiga, shuningdek, davlat idoralari tomonidan tizimli qo‘llab-quvvatlash choralarining ko‘rilishiga bevosita bog‘liqdir. Sanab o‘tilgan barcha yondashuvlarning o‘zaro uyg‘unlashuvi nafaqat raqamli ko‘nikmalarni yuksak darajada egallagan, balki kelajakning har qanday murakkab sinovlariga dosh bera oladigan mustahkam irodali va ma’naviyatli avlodni shakllantirishga xizmat qiladi.

Bunga tarbiyaviy ahamiyatga ega materiallarni ulashish, o‘quvchilarning ijobiy yutuqlarini ommalashtirish hamda maktab hayotiga daxldor ijtimoiy loyihalarni keng yoritish kiradi.

Tizimli siyosat darajasida qaralganda, mazkur integratsiya jarayoni davlat va barcha mas’ul tashkilotlar tomonidan har tomonlama qo‘llab-quvvatlanishni talab etadi. Birinchi navbatda, hukumat tegishli texnologik infratuzilmani, ayniqsa, raqamli imkoniyatlar bir muncha cheklangan chekka hududlardagi maktablarda to‘liq ta’minlab berishi zarur. Shu bilan birga, zamonaviy o‘quv dasturlari va metodikalari texnologiyalarni tarbiya tizimiga uzviy hamda yaxlit holda joriy etish imkonini beradigan darajada puxta ishlab chiqilishi lozim [4]. Raqamli makonda shaxs xarakterini shakllantirishning mustahkam ekotizimini yaratish uchun davlat idoralari, maktab jamoasi, ota-onalar va xususiy sektor o‘rtasida o‘zaro manfaatli ijtimoiy sheriklikni yo‘lga qo‘yish nihoyatda muhimdir.

Navbatdagi jiddiy muammo - pedagoglarning tarbiya jarayonida raqamli texnologiyalardan foydalanish borasidagi kompetensiyalarining yetarli darajada emasligidir. Ko‘plab o‘qituvchilarda raqamli vositalarni darsning tarbiyaviy mazmuni bilan qanday qilib o‘zaro samarali uyg‘unlashtirish metodikasida ma’lum darajada kamchiliklar kuzatilmoqda. Bu holat o‘qituvchilar uchun mo‘ljallangan

uzluksiz metodik qo‘llab-quvvatlash va maqsadli malaka oshirish tizimidagi kamchiliklar bilan izohlanadi. Boshqa tomondan, raqamli vositalarga haddan tashqari ko‘p suyanib qolish muallim va o‘quvchi o‘rtasidagi samimiy jonli muloqotni kamaytirib yuborishi mumkin. Holbuki, ustozning shaxsiy namunasi va o‘zaro samimiy muloqot yoshlar ma’naviy salohiyatini yuksaltirishda har qanday texnologiyadan ustun turuvchi eng fundamental omil bo‘lib qolaveradi.

Shu bilan bir qatorda, hududlar o‘rtasida raqamli texnologiyalardan foydalanish imkoniyatlarining turlichaligi - raqamli uzilish tarbiya jarayoniga innovatsiyalarni joriy etishda jiddiy to‘siq bo‘lmoqda. Chekka hududlarda yoki infratuzilmasi yetarli darajada rivojlanmagan qishloqlarda zamonaviy texnologik qurilmalar va yuqori tezlikdagi internet tizimidan foydalanish imkoniyati hamon cheklanganicha qolmoqda. Bu holat raqamli imkoniyatlardan foydalanishda tengsizlikni keltirib chiqarib, shahar hududidagi o‘quvchilarning qishloq joylardagi tengdoshlariga nisbatan ko‘proq afzalliklarga ega bo‘lishiga zamin yaratadi. Oqibatda, tarbiyaviy ishlarni qo‘llab-quvvatlashda texnologiya taqdim etadigan imkoniyatlar barcha o‘quvchilar uchun bir xilda va adolatli taqsimlanmaydi.

Ikkinchidan, pedagoglarning raqamli vositalarni tarbiya tizimiga samarali integratsiya qilish borasidagi kasbiy mahoratini oshirish maqsadida maxsus malaka oshirish kurslari hamda uzluksiz uslubiy qo‘llab-quvvatlash mexanizmini yo‘lga qo‘yish zarur. Davlat organlari va ta’lim muassasalari muallim hamda o‘quvchi o‘rtasidagi jonli muloqotning ustuvorligini saqlab qolgan holda, texnologiyalardan ijodiy va innovatsion foydalanishga yo‘naltirilgan zamonaviy o‘quv dasturlarini joriy etishlari lozim. Shu bilan bir qatorda, o‘qituvchilarni raqamli muhitda tarbiyaviy ishlarni olib borishga xizmat qiladigan zaruriy metodik materiallar va elektron resurslar bilan to‘liq ta’minlash talab etiladi.

Uchinchidan, davlat tegishli infratuzilmani barpo etish orqali, ayniqsa, chekka hududlardagi maktablarda raqamli imkoniyatlar tengsizligini bartaraf etishda faol ishtirok etishi shart. Muassasalarni zamonaviy texnik jihozlar, uzluksiz elektr energiyasi va barqaror internet tarmog‘i bilan ta’minlash, shuningdek, moddiy-texnik bazasi zaif maktablarni maqsadli moliyalashtirish dasturlarini joriy etish adolatli ta’lim muhitini yaratishdagi amaliy qadamlar hisoblanadi. Bundan tashqari, davlat va xususiy sektor o‘rtasidagi ijtimoiy sheriklikni rag‘batlantiruvchi siyosat barcha hududlarda raqamli imkoniyatlarni tenglashtirish jarayonini sezilarli darajada jadallashtiradi.

Yakuniy bosqichda, maktab jamoasi, ota-onalar va keng jamoatchilik o‘rtasidagi mustahkam hamkorlik zanjiri raqamli makonda olib boriladigan tarbiyaviy ishlarning muvaffaqiyat kalitidir. Ota-onalarni farzandlarining uydagi virtual harakatlarini va internetdan foydalanish madaniyatini kuzatib borishga faol jalb etish lozim bo‘lsa, maktablar raqamli vositalar ko‘magida shaxs ma’naviyatini yuksaltirishga xizmat qiladigan sog‘lom ijtimoiy muhitni yaratishi kerak. Faqatgina

bunday tizimli hamkorlik orqali texnologiyalar integratsiyasidagi muammolarni bartaraf etish, raqamli davr sharoitida yuksak ma’naviyatli avlodni voyaga yetkazish mumkin.

Tarbiyaviy jarayonga raqamli texnologiyalarni joriy etish bo‘yicha amaliy tavsiyalar. Texnologiyalarga asoslangan tarbiya tizimini amaliyotga muvaffaqiyatli tatbiq etish pedagoglar malakasini oshirish, davlat ta’lim siyosati hamda o‘quvchilarning yosh xususiyatlariga mos keladigan raqamli vositalardan foydalanish jihatlarini qamrab oluvchi yaxlit yondashuvni taqozo etadi. Bu boradagi eng muhim qadamlardan biri - raqamli savodxonlik madaniyatini yuksaltirish va tarbiya metodikasini rivojlantirish bo‘yicha maxsus o‘quv kurslari orqali o‘qituvchilarning kasbiy kompetensiyasini muntazam oshirib borishdir. Zero, zamonaviy o‘qituvchi nafaqat texnik qurilmalarni ishlatishni bilishi, balki ma’naviy-axloqiy qadriyatlarni yoshlar ongiga singdirishga xizmat qiladigan raqamli ta’lim jarayonlarini mustaqil loyihalashtirish ko‘nikmasiga ham ega bo‘lishi shart. Ushbu maqsadli o‘quv kurslari pedagoglar tomonidan maxsus ta’limiy ilovalardan unumli foydalanish, onlayn platformalarni samarali boshqarish hamda tarbiya mezonlarini raqamli kontent tarkibiga uzviy integratsiya qilish usullarini qamrab olishi lozim [5.34]. Yuksak kasbiy tayyorgarlikka ega bo‘lgan o‘qituvchilar o‘quvchilar xarakterini tizimli va izchil shakllantirishda raqamli texnologiyalarning barcha ijobiy imkoniyatlarini maksimal darajada safarbar eta oladigan haqiqiy yo‘naltiruvchi ustozga aylanadilar.

Boshqa tomondan, raqamli muhitda shaxs dunyoqarashini shakllantirish tizimining samaradorligini ta’minlashda davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash choralari asosiy element hisoblanadi. Hukumat organlari birinchi navbatda zamonaviy texnologik infratuzilmani, ayniqsa, raqamli imkoniyatlar hali ham cheklangan chekka hududlardagi maktablarda to‘liq ta’minlab berishi zarur. Internet tarmog‘ining qamrovini kengaytirish, ta’lim muassasalarini zamonaviy qurilmalar bilan jihozlash hamda yoshlar ma’naviyatini yuksaltirishga yo‘naltirilgan maxsus ta’limiy ilovalarni ishlab chiqish davlat miqyosida amalga oshirilishi lozim bo‘lgan strategik qadamlar sirasiga kiradi. Bundan tashqari, amaldagi ta’lim siyosati ham raqamli tarbiya mezonlarini milliy o‘quv dasturlariga uzviy integratsiya qilishga xizmat qilishi kerak. Bu jarayon aniq uslubiy qo‘llanmalarni yaratish, o‘quvchilarning raqamli savodxonlik bo‘yicha kompetensiya me’yorlarini belgilash hamda raqamli davr talablariga javob beradigan tarbiyaviy baholash mezonlarini joriy etishni qamrab oladi.

Shu bilan bir qatorda, raqamli tarbiya tizimiga milliy va ma’naviy qadriyatlarni uzviy integratsiya qilish ham eng ustuvor vazifalardan biri bo‘lishi lozim. Zero, shiddatli globallashuv davrining eng jiddiy muammolaridan biri - yoshlar orasida milliy madaniy o‘zlikning yemirilish xavfidir. Shu bois, texnologiyalarga asoslangan zamonaviy tarbiya jarayoni o‘quvchilarning kundalik hayoti va tafakkuri

bilan hamnafas bo‘lgan milliy qadriyatlarimizga tayanishi shart. Bunda axborot vositalarining interaktiv imkoniyatlaridan, xususan, maxsus videoroliklar, raqamli hikoyalar hamda xalqimizning boy merosini aks ettiruvchi virtual simulyatsiyalar orqali milliy madaniyat mezonlarini yoshlar ongiga singdirishda unumli foydalanish mumkin. Bunday yondashuv o‘quvchilarning madaniy o‘zligini mustahkamlabgina qolmay, balki ularni global dunyodagi madaniy rang-baranglikni to‘g‘ri qabul qilish hamda o‘zgalar qarashlarini hurmat qilish ruhida tarbiyalashga ham xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati (Literatura/References):

1. Erkayev A. Ezgulik sari yo‘naltirilgan iroda // Tafakkur. - 1997. - № 3. - B. 14.
2. Falsafa: Qomusiy lug‘at. - Toshkent: Sharq, 2004. - B. 225.
3. Juwairiah, J. et al. Meningkatkan Karakter Anak Bangsa Dengan Memanfaatkan Teknologi // Jurnal Review Pendidikan Dan Pengajaran (JRPP). – 2024. – Vol. 7. – No. 1. – Pp. 1727-1730.
4. Nofhendri, N., Fadhlurrahman, F. Optimalisasi Pendidikan Qur'an Hadits: Membangun Generasi Qur'ani Yang Berkarakter // Al-Muhith: Jurnal Ilmu Qur'an Dan Hadits. - 2024. - Vol. 3. - No. 2. – Pp. 1-10.
5. Yusupov E. Inson kamolotining ma’naviy asoslari. - Toshkent: Universitet, 1998. - B. 34.

ЁШЛАРГА ҲАДИСЛАРНИНГ ТАРБИЯВИЙ АҲАМИЯТИНИ ЎРГАТИШДА ПЕДАГОГИК ТЕХНОЛОГИЯЛАРДАН ФОЙДАЛАНИШ

Разов Б.М.
Қори Ниёзий номидаги Тарбия педагогикаси миллий институти
Қорақалпоғистон филиали мустақил изланувчиси
https://doi.org/10.5281/zenodo.23178333

Тарихдан маълум, ҳар бир даврда таълим соҳасида биринчи навбатда юқори маданиятли, иқтидорли, билим салоҳияти юқори бўлган, замон билан ҳамқадам бўладиган муаллимга эҳтиёж кучли бўлиб келган. Муаллим тарбия жараёнининг асосий бошкарувчиси ва йўл кўрсатувчисидир. Таълим соҳасидаги ўқув қўлланмалар, таълимий воситалар, ўқув қуроллари, жиҳозланган дарс хоналари қанчалик такомиллашган бўлмасин, улар муаллимсиз қуп-қуруқ жонсиз ашёлар бўлиб қолаберади. Муаллим таълим ва тарбия соҳасининг самарали бўлиши учун анша ўша унсурларни бир мақсадга йўналтиради, бошқаради, йўлга солади. Муаллим гўзал ҳулқли, илмли, юксак маданиятли, тарбияли, баркамол шахс бўлсагина, таълим соҳаси мукаммал ривожланиши мумкин. Бошқача ибора билан ифодаласак, муаллим таълим соҳасини тартибга, тўғри низомга сола олса, таълим олувчи учун қулай, манфаатли шароитларни яратиб бера олса, бу соҳада юксалиш бўлиши муқаррар. Агар муаллим анна шу сифатларга эга бўлса, ишонч билан таъкидлаш мумкинки, бундай мутахассис таълим соҳасидаги ўқув китоблари, таълимий воситалар, ўқув жиҳозлари, илм даргоҳидаги ички алоқаларга доир камчиликларни тўлдиради, муаммоларни бартараф қила олади.

Таълим берувчи дарс ўтиш методларини фанни ўрганиш, унинг асосий тушунчаларини ёдда сақлаш зарурлиги ҳисобга олган ҳолда танлаши зарур. Шунингдек, талабаларнинг асосий тушунчаларини англаб, пухта ўзлаштириш баробарида, уларнинг тафаккурларини ўстиришга, ривожлантиришга қаратилган ўқув методларини қўллашга аҳамият бериши мақсадга мувофиқ бўлади.

Замонавий таълимни ва ҳадисларнинг ёшлар тарбиясидаги аҳамиятини ўрганишга қўйиладиган муҳим талаблардан бири қисқа вақт орасида муайян назарий билимларни таълим олувчиларга етказиб бериш, уларда маълум фаолият юзасидан кўникма ва малакаларни ҳосил қилишдан иборатдир. Шунга кўра таълим олувчилар фаолиятинин назорат қилиш, улар томонидан эгалланган билим, кўникма ва малакалар даражасини баҳолаш таълим берувчидан юксак педагогик маҳоратни ҳамда таълим жараёнига нисбатан янгича ёндашувни талаб этади.[1]

Мутахассислик фанларини ўқитишда педагогик технологиялар (кейс стадии, балиқ скелети, турли хил чизмалар ва диаграммалар, нилуфар гули

методи)дан фойдаланиш таълим олувчиларни фикрлашга, кашфиётларга интилишга, ҳамкорлик ва шериклик сифатларини шакллантиришга, таълим берувчи томонидан берилган вазифаларни ҳал этиш режасини тузишга, энг асосийси талабалар олдига қўйилаётган муаммони ҳал этишга, уни мустақил муҳокама қилишга лаёқатли қилиб таълим ва тарбия бериш имкониятини яратади.

Таъкидлаш лозимки, ҳар бир давр, инсоннинят истиқболи ва унинг келажаги, кишиларнинг ҳаёт ва турмуш даражаси таълим ва тарбия билан боғликдир. Ҳадиси шарифларда таъкидланадики, “Бешикдан то қабргача илм изла”. Маъноси ҳамма учун ойдин ва тушунарли. Бинобарин, илм ва тарбия инсониятнинг гулшанидир. Таълим-тарбиянинг асосий мезони бу фан ва маданиятдир. Фан ва маданият ривожланиши таълим-тарбия ишларининг қай йўсинда олиб борилишидан келиб чикади.

Шуни эътироф этиш лозимки, VII — XII асрлар давомида Марказий Осиёда маданият, илм-фан беқиёс ривожланиб келган. Ўша тарихий даврларда яшаб ижод этган қомусий олимларимиз инсоннинг маънавий ва тафаккур дунёсини бойитиш борасида, кишилар онгини, маданий — маърифий қарашларини ўстиришга қаратилган ижодий амалларга ўз эътиборларини қаратганлар. Хоразмий риёзиётда, Беруний қадимшуносликда, Фаробий фалсафа ва мантиқда, Ибн Сино табобатда, Фарғоний фалакиётда, Замахшарий, Яссавий, Нақшбанд, Имом Бухорий ва бошқалар диний ва табиий фанлар тараққиётига ҳисса қўшиш билан бирга инсон тарбиясига қаратилган ахлоқ-одоб унсурларини жорий этиб келдилар.

Барча дунёвий ва диний таълимотлар, тафаккур даҳолари инсон қобилияти, руҳияти ва ахлоқини ўрганиш, инсонни тарбиялаб, тўғри йўлга бошлаш, иллатлардан халос этиш учун асарлар яратиш ишлари билан шуғулланиб келганлар. Лекин ҳар бир даврда инсонларнинг ахлоқсиз ишлари, хирс ва нафс домига тушиб ўзининг ҳаёт йўлларини ҳароб этишлари ҳамиша жамиятни ташвишга солиб келган.

Қуръон каримнинг “Исро” сурасида таъкидланади: “Биз одам болаларини азизу мукаррам қилиб яратдик”. Шунга асосан тасаввуф аҳли инсонни икки оламнинг гултожиси, қаймоғи деб таъриф этади. Инсон шунчалик буюк ақл эгасики, қилни қирқ ёрадиган, заковати билан мўъжизали ишлар барпо этувчидир.

Таълим-тарбия инсон комиллигининг асосидир. Ўзбекистон мустақилликни қўлга киритгандан кейин таълим — тарбия соҳасида, миллий ахлок — одобни қайта тиклаш борасида, миллий урф — одатлар, турли — туман анъаналарни жой-жойига қўйиш, миллий қадриятларни янада ривожлантириш хусусида эътиборли бўлган амалий ишлар бажарилмокда.

Ҳар бир даврнинг ўзига хос бўлган тарбиявий қонуниятлари ҳамда талаблари бўлиб келган. Аждодларимиздан мерос бўлиб келган қадимий тарбия доимо ёш авлоднинг кексалар тажрибасини онг ва тафаккурга сингдириш билан боғлиқ бўлган. Таъкидлаш лозимки, тарихий мерослар, урф-одатлар инсон тарбиясида аҳамиятли ҳисобланади. Шу нуқтаи назардан таълим-тарбиянинг айрим хусусиятлари инсонни соғлом ва бақувват, жисмонан тетик ҳамда ақлан юксак бўлишига катта аҳамият берилган.

Тарбия масаласида кўпроқ биз ота ва ўғил муносабатларига эътибор қаратамиз. Ҳар бир ота ўз ўғлини кучли ва соғлом бўлиши учун ўзининг шахсий сифат ва фазилатларига мослаб, ибратли тарбиялашга ҳаракат қилади. Ота фарзанд учун намуна, унинг ҳар бир мақсадга эришиш учун қилган ҳатти — ҳаракати фарзанд учун тарбия воситасидир. Бола ўз отасидан ўрнак олишга ҳаракат қилади. Сир эмаски, оилада ўсаётган ҳар бир бола кўп нарсаларга қизиқувчан бўлади. Айниқса, отанинг касб ва ҳунардаги мавқеи бола учун намунадир. Шундай экан, ҳар бир ота, шунингдек оналар фарзандлар тарбиясида ўзларининг масъулиятларини тўғри англай олиши муҳим босқичдир. Ҳар биримиз билимларни эгаллаб, илмдаги ана шу ҳақиқат сари интилишимиз лозим. Холис билимларга таяниб, ҳаёт фаолиятларимизни шакллантириш ҳар бир инсон учун мажбурий бурчдир. Чунки инсон яхши амал, яхшиликни кўзлаб яратилган.[2]

Таълим-тарбия одоб-ахлоқ, юксак салоҳият асосида шаклланиб боради. Демак биз ёшлар ўзимизда одоб-ахлоқни шакллантириш, улар асосида устозларимиз, уламоларимиз берган сабоқлар асосида тегишли хулоса ҳамда ибрат олишимиз ва албатта тубанликка бормасдан, ҳирсу ҳавасга берилмасдан, манманлик, жаҳолат йўлларини соф ва холис билимларимиз билан бартараф этиб, қаноат ва шижоат билан билим-маърифат чўққиларини эгалламоғимиз даркор.

Борлиқни яратган Қодиру Зулжалол шу борлиқни ҳалифаси этиб инсонни ҳам яратди. Яратган бандаларини икки оламда баҳтли-саодатли бўлиши учун ҳам таълим берди. Уларга муаллим Зотларни~ Пайғамбарлар юборди. Инсон қачон ўша муқаддас илоҳий ва набавий кўрсатмаларга амал қилса, нажот топди. Йўлдан тойиб чегарадан чиқса адашди. Демак, банда доим ва доим тарбияга, насиҳатга муҳтож. Шундай экан, инсон оилада фарзандлар тарбиясига ҳам маъсул ва жавобгар. Бизлар Пайғамбар алайҳимуссаломлар суннати ўлароқ фарзандларимизга муаллим ва тарбиячимиз. Ким ўз фарзандини одоб ахлоқини гўзал қилса, илм олишида ёрдамчи ва кўмакчи бўлса улкан савобга эга бўлади, ҳам жамият ривожига, ислоҳотлар одимига ҳисса қўшади. Ким фарзанд тарбиясига эътиборсиз бўлса у фарзанд ноқобил бўлиб ўсса, Аллоҳ олдида ҳам жамияти олдида юзи қаро бўлади. Шундай экан, бизнинг эртанги фаровон ҳаётимиз учун фарзанд тарбияси жуда муҳим. Улар

хар томонлама камол топмоқлари, илмда пешқадам ва оқил бўлмоқлари жамиятнинг, ҳам динимизнинг талабидир. Бугун эккан кўчатимизнинг эртага мева бермоғи бугун биз ота-оналарга боғлиқ. Улар зукко, илмга ташна бўлмоқлари учун ёшлигидан тарбиясини гўзал қилмоғимиз зарур. Ёш авлод ватан посбонларидир. Уларни ватанпарварлик руҳида тарбияламоқ зарур. Ўзини, оиласини, ватанини ҳимоя қила олсин.

Муқаддас динимизда ёшликдан илм олишга буюрилиб, биринчи Қуръон оятлари “Ўқи!” амри ила нозил бўлган. Ёшликда олинган илм тошга ёзилган нақш каби мухрланиб қолишини биласиз. Ҳадиси шарифда: “яхши ҳулқ эгасини жаннатга олиб киради”, дейилади. “Унванул баён” китобида: “Одобни касб қил, насабни касб қилган бўласан ва яна нафсни одоби дарсни одобидан яхшироқ”, дейилган. Яна шариатимизда жисмоний тарбияга тарғиб қилинади. Пайғамбаримиз алайҳис салом фарзандларимизга отда юришни, сувда сузишни, камон отишни ўргатмоғимизни ва дунё ва дин илмларини олишларида доим эътиборли бўлишни тайинлаганлар. Қизларга ўзларига ҳос ҳунарлар, чеварчилик, пазандачилик каби ҳунарларга ҳамда илм соҳибаси бўлишларига маъсулмиз. Ўғил болаларга ўзларига муносиб ҳунар ҳам ўргатиз зарур. Бўш вақтларини асло зое бўлишига йўл қўймаслигимиз керак. Улар ҳам жисмонан ва руҳан баркамол бўлмоқлари зарур. Оилани, ватанни ҳимоя қила оладиган, илми ила юртини шанини кўтарадиган зукко фарзандлар бўлмоғи даркор. Бугунги кунга келиб биз ота-оналар уларнинг тарбиясига қанчалик эътибор қаратмоқдамиз? Ёшлар орасида жиноятчилик ошса бизлар жавобгар эмасмизми? Нега уларнинг юриш-туриши, ўқиши, кимлар билан қаерларда юришига эътиборсиз бўлиб қолдик? Ота-она ва муаллимлар ва кенг жамоатчилик бугун биргаликда келажагимиз, ёшларни тарбиясига ниҳоятда эътиборли бўлмас эканмиз, режалаган истиқболга етмоғимиз қийин кечади. Уларнинг маърифати борасида бугун чуқур ўйламоқ даркор. Уларнинг ёт ғоя ва бузуқ оқимларга қўшилиб, эргашиб қолишига маърифатларидаги нуқсонлари сабаб эмасми? Бизлар бугун улардаги руҳий бўшлиқни соғлом эътиқод ва руҳий тарбия билан тўлдирмоғимиз керак. Аллоҳ сақласин, эртага фарзанддаги бузуқ аъқида бизни мусибатимизга айланиши мумкин. Фарзандларимиз~ёшлар бизнинг кўзу-қорачиқларимиз-ку, асло уларнинг тарбиясига бефарқ бўлманг! Фарзанд тарбияси муҳим маъсулият. Агар бизлар уларни илмли ва ҳулқи-одобини гўзал қилиб жамиятга қўшар эканмиз катта ажрларга эга бўламиз. Илмсиз одобга, одобсиз эса илмга эриша олмайди. Шариатнинг талаби ҳам одам хар жиҳатдан етук шаклланган ва тарбия топган жамият қуришдир. Шундагина ҳам дунёимиз ҳам охиратимиз обод бўлажак, иншааллоҳ.

«Таълим» бир нарсанинг ҳақиқатини батафсил ва яхшилаб билдириш маъносини англатади. «Таълим бериш», «дарс бериш» ва «ўргатиш»

сўзларининг маънолари бир-бирига яқин бўлиб, маълумотларни муаллимдан мутаъаллимга (таълим олувчига) нақл қилишни билдиради. Таълим шарҳлаш, очиқлаш, яқинлаштириш, ҳужжатлаш, далил келтириш, тарбия бериш ва насиҳат қилиш каби ишлардан иборатдир. [3]

Таълим бериш билан таълим олиш бир-бирига чамбарчас боғлиқдир. Бирисиз иккинчиси бўлмайди. Шунинг учун ҳам талаба бўлиб илм олишга қанчалик тарғиб қилинган ва бу ишга савоб-мартабалар ваъда қилинган бўлса, олим бўлиб таълим беришга ҳам шунчалар тарғиб қилинган ва бу ишга ҳам савоб-мартабалар ваъда қилинган. Илм талаб қилиш фарз бўлгани каби, таълим бериш ҳам фарз қилинган.

Бугунги глобаллашув даврида ёшлар тарбияси ва онгига таҳдидлар тобора кучаймоқда. Маърифатпарвар бобомиз Абдулла Авлоний “Ҳар бир миллатнинг саодати ёшларнинг яхши тарбиясига боғлиқдир” дея таъкидлаганлар.Сир эмаски хозирги замон тараққий топган компютер асрида яшаётган ёш авлод тарбиясига четдан туруб бўлаётган таъсир кучлари ҳаддан зиёд кучлидур.Шунинг учун ҳам ўзбек,мусулмон халқнинг фарзанди аввалги ўтган аждодларини йўлини маҳкам ушламоғлиги жуда муҳимдир.Ўтган мутафаккир аждодларимиз бутун дунё халқига хар жиҳатдан наъмуна бўлиб келишган,чунки уларни асосий мақсад ва вазифаси таълим ва тарбияда муқим бўлганлигидир.

Демак таълим ва тарбия иккиси эгизак, бир биридан ажралмас танадек яқин. Тарбиясиз таълим мевасиз дарахтга ўхшайди... Биз кўп ўринларда фарзандимизга яхши улғайиши учун жон куйдирамизу лекин маънавиятини эсдан чиқариб қўймиз... Маънавиятли авлод келажаги порлоқ зурриёддир, чунки Инсон ҳаётда ўз ўрнини топиши, икки дунё саодатига эришиши, юртининг тараққиётига ҳисса қўшиши ва шу ватанга муносиб бир фарзанд бўлишини таълим-тарбиясиз тасаввур қилиб бўлмайди. Буни биз қушнинг икки қаноти бўлмаса осмонга кўтарилиб, кўкларга парвоз қила олмаганига қиёсласак бўлади. [3] Шунинг учун ҳам динимизда таълим-тарбиянинг бир-бири билан узвий боғлиқлигига ва фарзандни камол топтиришда бу икки нарсани уйғунликда олиб боришга алоҳида эътибор қаратилган.

Фойдаланилган адабиётлар:

1. Мавлонова Р., Матназарова К. Умумий педагогика назарияси ва амалиёти. Тошкент. 2013. – Б 57.
2.Асқарова О Ъ. М., Ҳайитбоев М., Нишонов М. S. Педагогика. Тошкент. 2008. – Б 76.
3. Турсунов и, Нишоналиев У.-Педогогика курси: дўстлик, -Тошкент "ўқитувчи", 1997. – Б 56.
4.Мавлонова Р., Воҳидова Н., Раҳмонқулова Н. Педагогика назарияси ва тарихи. Тошкент. 2010. – Б 100.

MEHNAT QO‘SHIQLARI — MILLIY MADANIYAT VA TARBIYANING MANBAIDIR

Rustamov Mexrojiddin
Nizomiy nomidagi O‘zbekiston milliy pedagogika universiteti “Musiqiy ta’lim” kafedrasi 302- guruh talabasi
https://doi.org/10.5281/zenodo.23178352

Annotasiya: *Ushbu maqola mehnat qo‘shiqlarining o‘quvchilar uchun tabiiy, jonli va hayotiy material ekanligi, ular orqali bola mehnatni estetik hodisa sifatida idrok etishi, shuningdek, mehnat qo‘shiqlaridan foydalanish orqali o‘quvchilarda nafaqat musiqiy didni, balki mehnat jarayoniga hurmat, natijaga mas’uliyatli munosabat va birgalikda harakat qilish madaniyatini shakllantirishning asoslari yoritilgan.*
Kalit so‘zlar: *mehnat qo‘shiqlari, xalq og‘zaki ijodi, mehnatsevarlik, jamoaviylik, milliy o‘zlik, sabr-qanoat va halollik.*

O‘zbek xalqining mehnat qo‘shiqlari — bu xalqning ko‘p asrlik hayoti, mehnat an’analari, turmush tarzi va estetik dunyoqarashini ifodalovchi noyob badiiy merosdir. Ular insonning hayotiy faoliyati bilan uzviy bog‘liq holda shakllangan bo‘lib, xalqning tabiat bilan uyg‘un yashash falsafasi, mehnatga bo‘lgan e’tiqodi va ijtimoiy birdamlik g‘oyalarini o‘zida mujassam etadi. Shu sababli, mehnat qo‘shiqlari o‘zbek xalqining ma’naviy qadriyatlari tizimida alohida o‘rin egallaydi va ta’lim-tarbiyada, ayniqsa musiqiy tarbiya jarayonida, bebaho manba hisoblanadi.

Pedagogik nuqtayi nazardan, mehnat qo‘shiqlari o‘quvchilarda **milliy o‘zlik, mehnatsevarlik, jamoaviylik, sabr-toqat va halollik** kabi fazilatlarni shakllantirishda samarali vosita bo‘lib xizmat qiladi. Ular nafaqat musiqiy estetikani, balki axloqiy va mehnat madaniyatini ham tarbiyalaydi. Har bir mehnat qo‘shig‘i xalq hayotidagi real mehnat jarayonining musiqiy obrazidir. Masalan, “Qo‘sh haydang” — dehqon mehnatini, “Paxtakorlar qo‘shig‘i” — paxta terimi jarayonini, “O‘rimchi qo‘shiqlari” — g‘alla o‘rimi vaqtini, “Qo‘zi o‘ynar” yoki “Chorvador qo‘shig‘i” esa chorvadorlik mehnatini ifodalaydi.

Bu qo‘shiqlar o‘quvchilar uchun tabiiy, jonli va hayotiy material bo‘lib, ular orqali bola mehnatni estetik hodisa sifatida idrok etadi. O‘qituvchi mehnat qo‘shiqlaridan foydalanish orqali o‘quvchilarda nafaqat musiqiy didni, balki **mehnat jarayoniga hurmat, natijaga mas’uliyatli munosabat va birgalikda harakat qilish** madaniyatini shakllantiradi.

Tarixiy va madaniy asoslar

O‘zbek xalqining mehnat qo‘shiqlari xalqning ko‘p asrlik tarixiy rivoji, ijtimoiy hayoti va ma’naviy tajribasi bilan chambarchas bog‘liqdir. Ular qadimdan inson va tabiat o‘rtasidagi o‘zaro aloqaning, xalqning mehnat jarayoniga bo‘lgan estetik munosabatining mahsuli sifatida shakllangan. Dastlabki mehnat qo‘shiqlari dehqonchilik, chorvachilik, hunarmandchilik, baliqchilik kabi oddiy hayotiy

faoliyatlar bilan bevosita bog‘liq bo‘lgan. Ularning kelib chiqish ildizlari qadimgi sug‘d, xorazm, baqtriya madaniyatlariga borib taqaladi.[57] Arxeologik topilmalar, qadimiy yozma manbalar hamda xalq og‘zaki ijodining qadimiy namunalarida mehnat jarayonining musiqiy ifodalari mavjudligi bu janrning qadimiy ildizlarga ega ekanini tasdiqlaydi.

Folklorshunos olimlar (B. Qosimov, N. Jo‘raev, D. To‘xtasinova, A. Madrahimov) tadqiqotlarida qayd etilishicha, mehnat qo‘shiqlari dastlab mehnat ritmini saqlash, ish jarayonini yengillashtirish va jamoaviy uyg‘unlikni ta’minlash maqsadida kuylanilgan.[58] Masalan, dehqonlar yer haydashda, o‘rimchilar g‘alla o‘rishda, suvchilar ariqlarni tozalashda, to‘quvchilar to‘qimachilikda mehnat ritmini saqlash uchun qo‘shiq aytishgan. Shu tariqa qo‘shiqlar ish harakatlarini muvofiqlashtiruvchi, ruhiy turg‘unlikni oldini oluvchi va ijobiy hissiy kayfiyatni yaratib beruvchi vosita vazifasini bajargan.

Xalq orasida mehnat qo‘shiqlarining ko‘plab turlari mavjud bo‘lib, ularning har biri ma’lum bir mehnat turi bilan bog‘liq:

- **Dehqonchilik qo‘shiqlari** – “Qo‘sh haydang”, “Hosil bayrami”, “Yer haydash kuylari” kabi asarlar mehnatning quvonchli ruhini, hosildorlikni madh etadi.
- **Paxtakor qo‘shiqlari** – “Paxtakorlar qo‘shig‘i”, “Paxta dalasida”, “Paxta oq oltin” singari asarlar XX asr boshlarida, ayniqsa kolxoz davrida shakllanib, xalqning jamoaviy mehnatdagi faxrini ifodalagan.
- **Hunarmandchilik qo‘shiqlari** – “Temirchi kuylari”, “To‘quvchi qo‘shig‘i” asarlarida ishning nozik jihatlari, ustaning mahorati musiqiy obraz orqali ko‘rsatilgan.
- **Chorvachilik qo‘shiqlari** – “Qo‘ylarim chiqdi yaylovga”, “Chopar qo‘shig‘i”, “Yaylov bahori” kabi asarlar tabiat va inson uyg‘unligini madh etadi.

Bu qo‘shiqlar orqali xalq mehnatni nafaqat iqtisodiy faoliyat sifatida, balki **hayot falsafasi, ma’naviy qadriyat** sifatida ifoda etgan. Mehnat qo‘shiqlarida xalq o‘z hayotining g‘am-tashvishi, umidi, baxti va orzularini kuylagan. Shu bois ular xalqning ijtimoiy ongini, dunyoqarashini, estetik didini ifodalovchi madaniy hodisa sifatida alohida o‘rin tutadi.

Tarixiy manbalarda keltirilishicha, o‘zbek xalqining qadimiy “Qo‘sh haydang” qo‘shig‘i dehqonchilik madaniyatining eng qadimiy namunalaridan biridir. Bu qo‘shiqda dalada ikki kishilik hamkorlik – haydovchi va qo‘shchi o‘rtasidagi uyg‘un mehnat ritmik ifoda topadi. Har bir satr ish harakati bilan bog‘liq bo‘lib, ohangdagi temp va kuchayish mehnat sur’atiga mos ravishda o‘zgaradi. Shu jihatdan “Qo‘sh

[57] Karimov, I. (2014). *O‘zbek xalq musiqasi tarixidan lavhalar.* – Toshkent: Fan.
[58] Qosimov, B. (2001). *Xalq og‘zaki ijodi.* – Toshkent: O‘qituvchi.

haydang” xalqning mehnat ritmini musiqiy obrazga aylantirgan eng qadimiy namunadir.[59]

XIX–XX asr boshlarida o‘zbek xalqining mehnat qo‘shiqlari folklor ekspeditsiyalari tomonidan to‘planib, tizimlashtirila boshlandi. Jumladan, G‘. G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyotida 1987-yilda chop etilgan **“O‘zbekiston xalq ijodi: Mehnat qo‘shiqlari”** to‘plamida yuzlab xalq qo‘shiqlari keltirilgan bo‘lib, ular mehnat turiga qarab tasniflangan. Bu to‘plam folklorshunoslik nuqtayi nazaridan katta ilmiy ahamiyatga ega, chunki u o‘zbek xalqining turmush madaniyatini musiqiy tilda ifoda etadi.[60]

Madaniy nuqtayi nazardan, mehnat qo‘shiqlari o‘zbek xalqining **milliy musiqiy tafakkuri** shakllanishida asosiy omillardan biri bo‘lgan. Ular xalq musiqasining ohang tizimi, ritmika, metroritmik tuzilmasi, intonatsion ifoda vositalari shakllanishiga zamin yaratgan. Xalq cholg‘u musiqasi, aytishuv janrlari, raqs ritmlari ham mehnat qo‘shiqlarining asosiy unsurlaridan o‘sib chiqqan.

Ayniqsa, XX asrda o‘zbek bastakorlari va kompozitorlari xalq mehnat qo‘shiqlaridan ilhomlanib, ularni professional musiqaga tatbiq etishgan. Masalan, M. Burxonov, M. Ashrafiy, S. Yudakov, M. Leviev, M. Mirzayev kabi bastakorlar xalq mehnat qo‘shiqlarining intonatsiyalaridan foydalanib, yangi xalqchillik ruhidagi asarlar yaratganlar. Shu tariqa, mehnat qo‘shiqlari milliy professional musiqaning poydevoriga aylangan.

Bugungi kunda o‘zbek xalqining mehnat qo‘shiqlari **milliy o‘zlikni saqlash, yosh avlodda ma’naviy ongni shakllantirish** vositasi sifatida qayta qadrlanmoqda. Ularni dars jarayonida o‘rganish o‘quvchilarga nafaqat musiqiy bilim beradi, balki xalq tarixiga, madaniyatiga, qadriyatlariga hurmat ruhini singdiradi. Shu bois, zamonaviy ta’lim tizimida mehnat qo‘shiqlarini o‘qitish nafaqat estetik tarbiya, balki **milliy g‘urur, vatanparvarlik va mehnat madaniyatini shakllantirish**ning samarali yo‘lidir.[61]

Etnopedagogik yondashuv nuqtayi nazaridan, mehnat qo‘shiqlari — bu xalqning tarbiyaviy tajribasini avloddan avlodga o‘tkazuvchi tabiiy vosita. Ular orqali bolalar mehnatning ijtimoiy ahamiyatini anglaydi, xalq donoligini, odob-axloq me’yorlarini va insoniy fazilatlarni o‘zlashtiradi. Xalq “mehnatsiz rohat yo‘q”, “ishlagan odam hurmat topadi” degan g‘oyalarni musiqiy obrazlar orqali yosh ongiga singdirgan. Shu jihatdan, mehnat qo‘shiqlari milliy mentalitet, xalq ruhiyati va tarbiyaviy tajribaning musiqiy ifodasidir.

Xulosa qilib aytganda, o‘zbek xalqining mehnat qo‘shiqlari tarixiy-madaniy jihatdan chuqur ildizlarga ega bo‘lib, ular xalqning mehnat jarayonidagi emotsional

[59] To‘xtasinova, D. (1990). *O‘zbek xalq mehnat qo‘shiqlari va ularning tahlili.* – Toshkent: San’at.
[60] *O‘zbekiston xalq ijodi: Mehnat qo‘shiqlari.* (1987). – Toshkent: G‘. G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti.
[61] Sharipov, A. (2019). *Musiqa ta’limida xalq qo‘shiqlarining tarbiyaviy o‘rni.* // Musiqa ta’limi metodikasi, №3, 27–32-betlar.

dunyosini, hayot falsafasini va estetik qarashlarini musiqiy shaklda mujassam etgan. Shu bois ularni ta’lim tizimida o‘rganish milliy madaniyatni asrash, yosh avlodni ma’naviy yetuk shaxs sifatida tarbiyalashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Musiqiy-pedagogik ahamiyat

Mehnat qo‘shiqlari musiqiy ta’limda bir necha yo‘nalishda qo‘llanilishi mumkin:

- **Estetik tarbiya vositasi sifatida** — bolalarda go‘zallikni, ohang uyg‘unligini, mehnatning badiiy ifodasini his etish qobiliyatini rivojlantiradi.
- **Axloqiy tarbiya vositasi sifatida** — mehnatsevarlik, birdamlik, halollik va jamoaviylik fazilatlarini shakllantiradi.
- **Madaniy merosni o‘rganish vositasi sifatida** — o‘quvchilarni xalq musiqasi, milliy kuy-ohanglar, urf-odatlar bilan tanishtiradi.

Orf texnologiyasi, Kodai metodikasi va Asafyevning “intoniatsion tajriba” nazariyasi shuni ko‘rsatadiki, xalq qo‘shiqlari musiqiy tafakkurni tabiiy rivojlantirish uchun eng qulay materialdir. Chunki ular bola uchun tanish obrazlar, takroriy ritmlar va sodda, ammo mazmunli melodik tuzilmalarga ega.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. — Toshkent: O‘zbekiston, 2023.
2.Abdullayev A. Musiqa o‘qitish metodikasi. — Toshkent: O‘qituvchi, 2018.
3.Asafyev B. Musiqiy idrok nazariyasi. — Moskva: Muzyka, 2016.
4.Orf K. Bolalar uchun musiqa tarbiyasi. — Moskva: Prosveshcheniye, 2015.

O‘SMIR QIZLARDA SOG‘LOM TURMUSH TARZINI SHAKLLANTIRISHNING INSTITUTSIONAL MODELI VA BOSHQARUV MEXANIZMLARI

Ruziboyeva Nigina Nodir qizi
Qori Niyoziy nomidagi Tarbiya pedagogikasi milliy instituti tayanch doktoranti
niginaroziboeva@gmail.com
https://doi.org/10.5281/zenodo.23178374

Annotatsiya:*Mazkur maqolada o‘smir qizlarda sog‘lom turmush tarzini shakllantirishning pedagogik, ijtimoiy va institutsional asoslari tahlil qilinadi. O‘smirlik davrida sog‘lom ovqatlanish, jismoniy faollik, shaxsiy gigiyena, reproduktiv salomatlik, ruhiy barqarorlik, raqamli gigiyena va zararli odatlarning oldini olish masalalarining o‘zaro bog‘liqligi yoritiladi. Sog‘lom turmush tarzini shakllantirish faqat tibbiy profilaktika bilan chegaralanmasdan, oila, umumiy o‘rta ta’lim muassasasi, tibbiyot xizmati, psixologik xizmat va mahalla hamkorligiga asoslangan yaxlit institutsional tizim sifatida tashkil etilishi asoslanadi. Maqolada o‘smir qizlar bilan ishlash uchun maqsadli, mazmuniy, tashkiliy-faoliyat va monitoring-baholash bloklaridan iborat institutsional model taklif etiladi. Shuningdek, mazkur modelni amalga oshirishning boshqaruv mexanizmlari, subyektlarning vazifalari, hamkorlik shakllari va samaradorlik mezonlari ishlab chiqiladi.*

Kalit so‘zlar:*O‘smir qizlar, sog‘lom turmush tarzi, sog‘lom turmush madaniyati, institutsional model, boshqaruv mexanizmi, oila, maktab, tibbiy xizmat, psixologik xizmat, jismoniy faollik, sog‘lom ovqatlanish, reproduktiv salomatlik.*

Аннотация:В данной статье анализируются педагогические, социальные и институциональные основы формирования здорового образа жизни у девочек-подростков. Раскрывается взаимосвязь таких аспектов, как здоровое питание, физическая активность, личная гигиена, репродуктивное здоровье, психологическая устойчивость, цифровая гигиена и профилактика вредных привычек в подростковом возрасте. Обосновывается, что формирование здорового образа жизни не должно ограничиваться только медицинской профилактикой, а должно быть организовано как целостная институциональная система, основанная на взаимодействии семьи, общеобразовательного учреждения, медицинской службы, психологической службы и махалли. В статье предлагается институциональная модель работы с девочками-подростками, включающая целевой, содержательный, организационно-деятельностный и мониторингово-оценочный блоки. Кроме того, разработаны механизмы управления реализацией данной модели, определены задачи субъектов взаимодействия, формы сотрудничества и критерии эффективности.

Ключевые слова: девочки-подростки, здоровый образ жизни, культура здорового образа жизни, институциональная модель, механизм управления, семья, школа, медицинская служба, психологическая служба, физическая активность, здоровое питание, репродуктивное здоровье.

Abstract: This article analyzes the pedagogical, social, and institutional foundations of promoting a healthy lifestyle among adolescent girls. It highlights the interrelationship of healthy nutrition, physical activity, personal hygiene, reproductive health, psychological well-being, digital hygiene, and the prevention of harmful habits during adolescence. The article substantiates that promoting a healthy lifestyle should not be limited to medical prevention but should be organized as an integrated institutional system based on cooperation among the family, general secondary education institutions, healthcare services, psychological services, and the mahalla community. An institutional model for working with adolescent girls is proposed, consisting of

target-oriented, content-based, organizational-activity, and monitoring-and-evaluation components. Furthermore, the article develops management mechanisms for implementing the proposed model, defines the responsibilities of the participating stakeholders, identifies forms of cooperation, and establishes criteria for evaluating its effectiveness.

Keywords:adolescent girls, healthy lifestyle, healthy lifestyle culture, institutional model, management mechanism, family, school, healthcare services, psychological services, physical activity, healthy nutrition, reproductive health.

Bugungi kunda yosh avlodning jismoniy, ruhiy va ijtimoiy salomatligini ta’minlash ta’lim va tarbiya tizimining muhim vazifalaridan biridir. Ayniqsa, o‘smirlik davri inson hayotining jismoniy, psixologik va ijtimoiy rivojlanish jarayonlari tezlashadigan bosqichi bo‘lib, aynan shu davrda keyingi hayot tarziga ta’sir ko‘rsatuvchi ko‘plab odatlar shakllanadi. Jahon sog‘liqni saqlash tashkiloti o‘smirlikni 10–19 yosh oralig‘idagi rivojlanish davri sifatida belgilaydi va bu bosqichda ovqatlanish, jismoniy faollik, ruhiy salomatlik, xavfsiz muhit hamda hayotiy ko‘nikmalarni shakllantirish muhimligini ta’kidlaydi.

O‘smir qizlar bilan ishlashda masalaga alohida yondashuv zarur. Chunki balog‘at davrida organizmda fiziologik o‘zgarishlar yuz beradi, shu bilan birga o‘z-o‘zini anglash, tashqi ko‘rinishga munosabat, tengdoshlar ta’siri, hissiy holat va ijtimoiy munosabatlar ham faol shakllanadi. Shu sababli o‘smir qizlarda sog‘lom turmush tarzini shakllantirishni faqat jismoniy tarbiya yoki tibbiy ko‘rik doirasida olib borish yetarli emas.UNICEF ma’lumotlariga ko‘ra, o‘smirlar salomatligiga nosog‘lom ovqatlanish, kamharakatlilik, ruhiy salomatlik muammolari, zararli moddalarni iste’mol qilish, ijtimoiy muhit va boshqa omillar ta’sir ko‘rsatadi. O‘smir qizlar uchun esa balog‘at, hayz gigiyenasi, reproduktiv salomatlik va genderga oid ijtimoiy omillar ham alohida ahamiyatga ega. Shu nuqtayi nazardan, o‘smir qizlarda sog‘lom turmush tarzini shakllantirish jarayonini institutsional asosda tashkil etish, ya’ni oila, ta’lim muassasasi, tibbiyot, psixologik xizmat va mahalla imkoniyatlarini yagona maqsad atrofida birlashtirish dolzarb ilmiy-pedagogik vazifalardan biridir.Tadqiqotning asosiy maqsadi -o‘smir qizlarda sog‘lom turmush tarzini shakllantirishga xizmat qiluvchi institutsional modelni ishlab chiqish va uning boshqaruv mexanizmlarini ilmiy-pedagogik jihatdan asoslash.Mazkur maqsadga erishish uchun quyidagi vazifalar belgilandi:o‘smir qizlarda sog‘lom turmush tarzini shakllantirishning mazmun-mohiyatini aniqlash;sog‘lom turmush tarzining asosiy tarkibiy komponentlarini belgilash;oila, maktab, tibbiyot va mahalla hamkorligining imkoniyatlarini aniqlash;sog‘lom turmush tarzini shakllantirishning institutsional modelini ishlab chiqish;boshqaruv mexanizmlarining mazmunini ochib berish;model samaradorligini baholash mezonlari va ko‘rsatkichlarini taklif qilishMaqolani tayyorlash jarayonida ilmiy-pedagogik adabiyotlarni tahlil qilish, umumlashtirish, taqqoslash, tizimlashtirish, modellashtirish hamda mavjud xalqaro tavsiyalarni o‘rganish metodlaridan foydalanildi.O‘smirlar salomatligi masalasida Jahon sog‘liqni saqlash tashkiloti

o‘smirlarning sog‘lom rivojlanishi uchun ma’lumot, hayotiy ko‘nikmalar, tegishli tibbiy xizmat va xavfsiz, qo‘llab-quvvatlovchi muhit zarurligini qayd etadi. Sog‘lom turmush tarzi tushunchasi insonning o‘z salomatligini asrash va mustahkamlashga qaratilgan kundalik xatti-harakatlari, odatlari, qadriyatlari va faoliyatlar tizimini anglatadi. O‘smir qizlar misolida bu tushuncha yanada keng mazmun kasb etadi.

Birinchidan, sog‘lom turmush tarzi **ratsional ovqatlanish**ni nazarda tutadi. O‘smirlik davrida organizm faol o‘sayotganligi sababli oziq moddalariga ehtiyoj ortadi. Noto‘g‘ri ovqatlanish esa o‘sish va rivojlanishga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Jahon sog‘liqni saqlash tashkiloti o‘smirlik davrida ham yetarli, ham ortiqcha ovqatlanishning uzoq muddatli oqibatlari bo‘lishi mumkinligini ta’kidlaydi. Ayniqsa, o‘smir qizlarda temir tanqisligi va kamqonlik masalalariga e’tibor berish muhimdir.

Ikkinchidan, **jismoniy faollik** sog‘lom turmush tarzining muhim komponentidir. Muntazam jismoniy faollik jismoniy rivojlanish, suyak va mushak tizimi, kardiometabolik salomatlik hamda ruhiy farovonlikka ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. WHO tavsiyalariga ko‘ra, 5–17 yoshdagi bolalar va o‘smirlar hafta davomida kuniga o‘rtacha kamida 60 daqiqa o‘rtacha yoki yuqori intensivlikdagi jismoniy faollik bilan shug‘ullanishi maqsadga muvofiq.

Uchinchidan, **shaxsiy gigiyena va hayz gigiyenasi** o‘smir qizlar salomatligining muhim tarkibiy qismidir. Balog‘at davrida qizlarga organizmdagi o‘zgarishlarni ilmiy va yoshiga mos shaklda tushuntirish, hayz davrida gigiyenik vositalardan to‘g‘ri foydalanish, gigiyenik sharoit yaratish va zarur holatlarda tibbiyot mutaxassisiga murojaat qilish ko‘nikmalarini shakllantirish talab etiladi. UNICEF o‘smir qizlarning hayz gigiyenasi bilan bog‘liq bilim va xizmatlarga ega bo‘lishini ta’lim va sog‘liqni saqlash tizimlari uchun muhim yo‘nalish sifatida ko‘rsatadi.

To‘rtinchidan, **ruhiy salomatlik** masalasi alohida ahamiyatga ega. O‘smirlik davrida o‘ziga baho berish, tengdoshlar bilan munosabat, oiladagi muhit, ta’limdagi yuklama va ijtimoiy tarmoqlarning ta’siri hissiy holatga ta’sir qilishi mumkin. Shu sababli maktabdagi psixologik xizmat faqat muammo paydo bo‘lgandan keyin yordam beruvchi emas, balki profilaktik va rivojlantiruvchi tizim sifatida ishlashi kerak.

Beshinchidan, **raqamli gigiyena** zamonaviy sog‘lom turmush tarzining yangi komponentlaridan biridir. O‘smir qizlarga internet va ijtimoiy tarmoqlardan xavfsiz foydalanish, ekran oldidagi vaqtni muvozanatlash, ishonchli va ishonchsiz axborotni farqlash, kiberzo‘ravonlikdan himoyalanish kabi ko‘nikmalarni shakllantirish muhimdir.Demak, sog‘lom turmush tarzi faqat “kasal bo‘lmaslik” tushunchasi bilan cheklanmaydi. U jismoniy, ruhiy, ijtimoiy va gigiyenik farovonlikni ta’minlashga qaratilgan barqaror hayotiy ko‘nikmalar majmuasidir.Institutsional yondashuv sog‘lom turmush tarzini shakllantirish jarayonida bir nechta ijtimoiy institutlarning

maqsadli va muvofiqlashtirilgan faoliyatini nazarda tutadi.Bunda asosiy institutlar quyidagilardan iborat,oila,umumiy o‘rta ta’lim muassasasi,tibbiyot muassasalari,psixologik xizmat,mahalla va jamoatchilik,sport va yoshlar tashkilotlari,zarur hollarda boshqa ijtimoiy xizmatlar.WHO o‘smirlarning farovonligini ta’minlashda oila, maktab, jamoa va davlat darajasidagi qo‘llab-quvvatlash tizimlarining o‘zaro bog‘liqligini ta’kidlaydi. Maktab o‘quvchilarda hayotiy ko‘nikmalarni rivojlantirish, jismoniy faollik va sog‘lom ovqatlanishni qo‘llab-quvvatlashda muhim institut sifatida ko‘rsatilgan. O‘zbekistonda ham o‘smirlar salomatligi bo‘yicha kompleks yondashuvga ehtiyoj mavjud. UNICEFning O‘zbekistondagi faoliyatiga oid ma’lumotlarda o‘smirlar salomatligi bo‘yicha ko‘p tarmoqli siyosat, sog‘liqni saqlash tizimini mustahkamlash, dalillarga asoslangan yondashuv va jamoatchilikni jalb qilish muhim yo‘nalishlar sifatida qayd etilgan. Shundan kelib chiqib, o‘smir qizlar bilan ishlashda “maktabning o‘zi hal qiladi” degan yondashuv o‘rniga **“oila + maktab + tibbiyot + psixologik xizmat + mahalla”** hamkorlik modeli maqsadga muvofiqdir.Uning asosiy maqsadi o‘smir qizlarda sog‘lom turmush tarziga oid bilim, ko‘nikma, qadriyat va kundalik xulq-atvorni shakllantirishdan iborat.Mazkur blokda quyidagi vazifalar belgilanadi:sog‘lom turmush tarzining ahamiyatini anglatish,sog‘lom ovqatlanish madaniyatini shakllantirish,jismoniy faollikni oshirish,shaxsiy va hayz gigiyenasiga oid bilimlarni rivojlantirish,ruhiy salomatlikni qo‘llab-quvvatlash,zararli odatlarning oldini olish,sog‘liq bilan bog‘liq masalalarda mutaxassisga murojaat qilish madaniyatini rivojlantirish.Mazkur blok sog‘lom turmush tarzi bo‘yicha tarbiyaviy va ma’rifiy mazmunni qamrab oladi.U quyidagi yo‘nalishlardan tashkil topadi:

“Sog‘lom ovqatlanish asoslari”;

“Jismoniy faollik va kundalik harakat”;

“Shaxsiy gigiyena”;

“Balog‘at davrida o‘zgarishlar”;

“Hayz gigiyenasi va reproduktiv salomatlik bo‘yicha yoshga mos ma’lumotlar”;

“Stressni boshqarish va hissiy savodxonlik”;

“Raqamli gigiyena”;

“Zararli odatlarning oldini olish”;

“Sog‘liqni saqlash xizmatlaridan to‘g‘ri foydalanish”.

Bu mavzularni o‘quvchilarga faqat ma’ruza shaklida yetkazish kutilgan natijani bermasligi mumkin. Shuning uchun interaktiv suhbat, trening, munozara, vaziyatli topshiriq, kichik guruhlar bilan ishlash va amaliy mashg‘ulotlardan foydalanish zarur.Maktab rahbariyati umumiy tashkiliy boshqaruvni amalga oshiradi. Sinf rahbari o‘quvchilarning kundalik tarbiyaviy jarayonini tashkil etadi. Maktab psixologi ruhiy farovonlik va ijtimoiy moslashuv bilan bog‘liq masalalarda ishlaydi.

Tibbiyot xodimi sog‘liqni saqlashga oid profilaktik ma’lumot va maslahatlarni taqdim etadi. Ota-onalar uy sharoitidagi sog‘lom odatlarni mustahkamlaydi. Mahalla va boshqa hamkor tashkilotlar esa sog‘lom turmush tarziga oid ijtimoiy muhitni qo‘llab-quvvatlaydi.Bu blok amalga oshirilayotgan ishlarning natijasini aniqlashga xizmat qiladi.Monitoringda faqat tibbiy ko‘rsatkichlarga tayanish to‘g‘ri emas. O‘quvchining sog‘lom turmush tarzi bo‘yicha bilimlari, kundalik odatlari, jismoniy faolligi, gigiyenik madaniyati, ruhiy farovonligi va sog‘liq bo‘yicha mustaqil qaror qabul qilish ko‘nikmalari ham hisobga olinishi kerak.Sog‘lom turmush tarzini shakllantirish modeli samarali ishlashi uchun boshqaruvning aniq mexanizmlari zarur.Muvofiqlashtirish jarayonida barcha subyektlarning vazifalari aniq belgilanadi.Masalan, maktab o‘zining pedagogik vazifalarini bajaradi, tibbiyot xodimi tibbiy yo‘nalishni, psixolog psixologik yo‘nalishni, ota-ona esa oiladagi kundalik odatlarni shakllantirishni amalga oshiradi.Bu yerda eng muhim tamoyil - vazifalarni takrorlamaslik va mas’uliyatni bir-biriga yuklamaslikdir.Sog‘lom turmush tarzini tashkil etishda axborot almashinuvi tizimli bo‘lishi kerak. Bunda o‘quvchi haqida shaxsiy va maxfiy ma’lumotlarni himoya qilish talablari hisobga olinadi.Ota-onalar bilan sog‘lom turmush tarzi bo‘yicha tavsiyalar, maktabdagi tadbirlar va umumiy profilaktik ma’lumotlar muntazam almashib borilishi mumkin.O‘smir qizlarda sog‘lom turmush tarziga qiziqish uyg‘otish uchun faqat taqiqlashga asoslangan yondashuv yetarli emas.Masalan, “telefon ishlatma”, “shirinlik yema”, “ko‘proq sport qil” kabi buyruqlar o‘rniga ushbu xatti-harakatlarning sog‘liq va kundalik hayotga ta’sirini tushuntirish, o‘quvchini tanlov jarayoniga jalb qilish samarali pedagogik yondashuv bo‘lishi mumkin.O‘quvchining kichik ijobiy o‘zgarishlarini e’tirof etish, sport va sog‘lom turmush loyihalarida faol ishtirokini rag‘batlantirish ham motivatsion mexanizm sifatida qo‘llanishi mumkin.O‘smir qizlarda sog‘lom turmush tarzini shakllantirishda oila birlamchi ijtimoiy institut hisoblanadi. Maktabda o‘rgatilgan bilim va ko‘nikmalar oiladagi kundalik hayot bilan mustahkamlanmasa, ularning barqaror odatga aylanishi qiyinlashadi.Shu sababli ota-onalar bilan ishlash alohida yo‘nalish sifatida tashkil etilishi kerak.Ota-onalar uchun quyidagi mavzularda seminar va suhbatlar tashkil etish mumkin:o‘smirlik davrining fiziologik va psixologik xususiyatlari,qizlar bilan ochiq va ishonchli muloqot,sog‘lom ovqatlanishni tashkil etish,kun tartibi va uyqu,jismoniy faollikni qo‘llab-quvvatlash,shaxsiy gigiyena ,hayz davriga oid gigiyenik madaniyat,internet va ijtimoiy tarmoqlardan xavfsiz foydalanish,stress va hissiy holatdagi o‘zgarishlarga e’tibor berish,qachon tibbiyot yoki psixolog mutaxassisiga murojaat qilish kerakligi.Bunda ota-onani faqat nazorat qiluvchi shaxs sifatida emas, balki bolaning sog‘lom turmush tarzini shakllantirish jarayonidagi hamkor sifatida ko‘rish muhim.Ta’lim muassasasi sog‘lom turmush tarzini shakllantirish uchun eng muhim institutsional maydonlardan biridir. Chunki

o‘smirlar vaqtining katta qismini maktab muhitida o‘tkazadi.Maktabda sog‘lom turmush tarzini shakllantirishni uch darajada olib borish mumkin.

Birinchi daraja — umumiy profilaktika. Barcha o‘quvchilar uchun sog‘lom ovqatlanish, jismoniy faollik, gigiyena, ruhiy salomatlik va xavfsizlik bo‘yicha tadbirlar tashkil etiladi.

Ikkinchi daraja — ehtiyojga yo‘naltirilgan yordam. Muayyan masalalarda qo‘shimcha pedagogik, psixologik yoki tibbiy maslahatga ehtiyoj sezayotgan o‘quvchilar bilan individual yoki kichik guruh shaklida ishlanadi.

Uchinchi daraja — mutaxassisga yo‘naltirish. Zarur holatlarda o‘quvchi tegishli tibbiy yoki psixologik xizmatga yo‘naltiriladi.

Bu tizim sog‘liq bilan bog‘liq muammolarni faqat paydo bo‘lgandan keyin bartaraf etish emas, balki ularning oldini olishga yo‘naltirilgan profilaktik boshqaruvni kuchaytiradi.

O‘smir qizlarning jismoniy faolligini oshirishda majburiylikdan ko‘ra qiziqish va imkoniyatlarni hisobga olish muhim. Sportning turli shakllari — yurish, yugurish, gimnastika, raqs, voleybol, suzish va boshqa faoliyat turlaridan foydalanish mumkin.WHO ma’lumotlariga ko‘ra, muntazam jismoniy faollik bolalar va o‘smirlarda jismoniy tayyorgarlik, suyak salomatligi, kardiometabolik ko‘rsatkichlar, kognitiv faoliyat va ruhiy salomatlik bilan bog‘liq ijobiy natijalar beradi. Shu sababli maktabdagi jismoniy tarbiya darslari bilan cheklanib qolmasdan, darsdan tashqari faoliyatni ham rivojlantirish zarur.Masalan:“Har kuni 60 daqiqa harakat” tashabbusi,qizlar uchun sport to‘garaklari,sinflararo sport musobaqalari,sog‘lom yurish aksiyalari,raqs va aerobika mashg‘ulotlari,oilaviy sport kunlari.Bunday faoliyat o‘quvchining jismoniy faolligini kundalik hayotning tabiiy qismiga aylantirishga yordam beradi.O‘smir qizlarning sog‘lom turmush tarzini shakllantirishda ruhiy salomatlik masalasini e’tibordan chetda qoldirib bo‘lmaydi. Ruhiy farovonlik o‘quvchining o‘ziga bo‘lgan munosabati, o‘z qadrini anglashi, tengdoshlari bilan munosabati va ta’lim jarayonidagi ishtirokiga ta’sir qilishi mumkin.Maktab psixologi quyidagi yo‘nalishlarda profilaktik ishlarni olib borishi mumkin,stressni boshqarish,hissiyotlarni tanish va ifodalash,o‘ziga ijobiy munosabat,tengdoshlar bilan sog‘lom muloqot,nizolarni konstruktiv hal qilish,kiberzo‘ravonlikning oldini olish,yordam so‘rash ko‘nikmasini shakllantirish.WHO o‘smirlar farovonligini qo‘llab-quvvatlashda oila, maktab va jamoa darajasidagi xavfsiz va qo‘llab-quvvatlovchi munosabatlarning ahamiyatini alohida ko‘rsatadi.O‘smir qizlarda sog‘lom turmush tarzini shakllantirishning boshqaruv jarayonini quyidagi ketma-ketlikda tashkil etish mumkin:

1-bosqich

O‘quvchilarning sog‘lom turmush tarzi bo‘yicha bilimlari, ehtiyojlari va mavjud odatlari aniqlanadi.

2-bosqich

Aniqlangan ehtiyojlardan kelib chiqib aniq pedagogik maqsadlar belgilanadi.

3-bosqich

Maktab, oila, tibbiyot va psixologik xizmat ishtirokida chora-tadbirlar rejasi ishlab chiqiladi.

4-bosqich

Ta’limiy mashg‘ulotlar, sport tadbirlari, psixologik treninglar, ota-onalar bilan seminarlar va tibbiy-ma’rifiy uchrashuvlar tashkil etiladi.

5-bosqich

Tadbirlarning bajarilishi va o‘quvchilardagi o‘zgarishlar kuzatiladi.

6-bosqich

Olingan ma’lumotlar asosida dasturga o‘zgartirishlar kiritiladi.Mazkur algoritmning muhim jihati shundaki, boshqaruv bir martalik tadbir emas, balki **uzluksiz siklik jarayon** sifatida tashkil etiladi.Taklif etilayotgan modelning samaradorligini baholash uchun quyidagi mezonlardan foydalanish mumkin:

Mezon	
Bilimiy	Sog‘lom ovqatlanish, gigiyena, jismoniy faollik va salomatlik haqidagi bilimlar
Motivatsion	Sog‘lom turmush tarziga qiziqish va ijobiy munosabat
Xulq-atvoriy	Jismoniy faollik, gigiyena va kundalik sog‘lom odatlarning shakllanishi
Ijtimoiy	Oila, maktab va tengdoshlar bilan sog‘lom munosabat
Psixologik	Stressni boshqarish, yordam so‘rash va o‘ziga ijobiy munosabat
Tashkiliy	Maktab-oila-tibbiyot-psixologik xizmat hamkorligi
Boshqaruv	Rejalashtirish, monitoring va natijalarni tahlil qilish tizimining mavjudligi

Bu mezonlar orqali sog‘lom turmush tarzini faqat tibbiy ko‘rsatkichlar orqali emas, balki ta’limiy, psixologik, ijtimoiy va xulq-atvoriy o‘zgarishlar orqali kompleks baholash mumkin.Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, o‘smir qizlarda sog‘lom turmush tarzini shakllantirish ko‘p komponentli va ko‘p subyektli jarayondir. Birgina maktab yoki tibbiyot muassasasining faoliyati bilan kutilgan natijaga erishish qiyin. Xalqaro yondashuvlarda ham o‘smirlar salomatligi ko‘p tarmoqli hamkorlikni talab qiluvchi yo‘nalish sifatida qaraladi. Shuningdek, o‘smir qizlarning sog‘lom turmush tarzini shakllantirishda ularning o‘zini jarayonning faol ishtirokchisi sifatida ko‘rish muhim. WHO o‘smirlarning o‘z salomatligi va farovonligini yaxshilash jarayonida faol hamkor bo‘lishi kerakligini ta’kidlaydi.Shundan kelib chiqib, pedagogik boshqaruvning asosiy vazifasi o‘quvchini doimiy nazorat qilish emas, balki unda sog‘lom tanlov qilish kompetensiyasini rivojlantirishdan iborat bo‘lishi kerak.O‘smir qizlarga sog‘liq haqida ma’lumot berishda ularning yosh xususiyatlari, individual ehtiyojlari va ijtimoiy-madaniy muhitini hisobga olish zarur. Ayniqsa, reproduktiv salomatlik, hayz gigiyenasi, tana qiyofasi va ruhiy salomatlikka oid mavzularni muhokama qilishda hurmat, maxfiylik va psixologik xavfsizlik tamoyillariga rioya etilishi

lozim.O‘smir qizlarda sog‘lom turmush tarzini shakllantirish zamonaviy ta’lim-tarbiya tizimining muhim yo‘nalishlaridan biridir. Mazkur jarayon o‘smirning faqat jismoniy salomatligini emas, balki uning ruhiy, ijtimoiy va gigiyenik farovonligini ham qamrab olishi kerak.**Sog‘lom turmush tarzini boshqarishning taklif etilayotgan algoritmi**.O‘smirlik davrida sog‘lom turmush tarziga oid odatlarning shakllanishi keyingi hayotdagi salomatlik uchun muhim ahamiyatga ega.O‘smir qizlar bilan ishlashda sog‘lom ovqatlanish, jismoniy faollik, shaxsiy va hayz gigiyenasi, ruhiy salomatlik, raqamli gigiyena hamda zararli odatlarning oldini olish o‘zaro bog‘liq holda olib borilishi lozim.Sog‘lom turmush tarzini shakllantirishning samarali institutsional modeli oila, maktab, tibbiyot muassasasi, psixologik xizmat va mahalla hamkorligiga asoslanishi mumkin.Mazkur modelning samarali ishlashi uchun rejalashtirish, muvofiqlashtirish, axborot almashinuvi, motivatsiya va monitoring mexanizmlari o‘zaro uyg‘unlashtirilishi zarur.Maktabdagi sog‘lom turmush tarzi bo‘yicha ishlar faqat targ‘ibot tadbirlaridan iborat bo‘lmasdan, o‘quvchilarning kundalik amaliy ko‘nikmalarini shakllantirishga yo‘naltirilishi kerak.O‘smir qizlarni sog‘lom turmush tarzini shakllantirish jarayonining faol ishtirokchisiga aylantirish, ularning fikrini tinglash va individual ehtiyojlarini hisobga olish pedagogik jihatdan muhimdir.Monitoring jarayonida o‘quvchilarni “sog‘lom” yoki “nosog‘lom” tarzda baholashdan ko‘ra, ularning bilim, motivatsiya, ko‘nikma va xulq-atvoridagi ijobiy dinamikani aniqlash maqsadga muvofiq.Umuman olganda, **“oila – ta’lim muassasasi – tibbiyot – psixologik xizmat – mahalla”** hamkorligiga asoslangan institutsional model o‘smir qizlarda sog‘lom turmush tarzini shakllantirishni tizimli boshqarish uchun konseptual asos bo‘lib xizmat qilishi mumkin. Bunday yondashuv sog‘liqni saqlash va ta’limning o‘zaro integratsiyasini kuchaytirib, sog‘lom, faol va o‘z salomatligiga mas’uliyat bilan qaraydigan yoshlarni tarbiyalashga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1.World Health Organization. Adolescent health. Geneva: WHO. O‘smirlik davri, o‘smirlar salomatligi va profilaktik yondashuvlar bo‘yicha materiallar.
2.World Health Organization. Promoting adolescent well-being. Geneva: WHO. O‘smirlarning farovonligi, oila, maktab va jamoa hamkorligiga oid material.
3.World Health Organization. Physical activity. 26 June 2024. Jismoniy faollikning bolalar va o‘smirlar salomatligiga ta’siri bo‘yicha ma’lumotlar.
4.World Health Organization. Six actions to improve adolescent health. O‘smirlar ovqatlanishi, jismoniy faolligi va profilaktik salomatlik choralari bo‘yicha tavsiyalar.
5.World Health Organization. WHO Guidelines on Physical Activity and Sedentary Behaviour. Geneva: WHO, 2020.
6.WHO/PMNCH. Good health and optimum nutrition in adolescence. Adolescent Well-being: Background Papers for Multi-stakeholder Consultations. 2021.
7.UNICEF. Adolescent health and well-being. UNICEF global programme materials. O‘smirlar salomatligi, ovqatlanish, ruhiy salomatlik va o‘smir qizlarning ehtiyojlari bo‘yicha materiallar.

8.UNICEF Uzbekistan. Adolescent health. O‘zbekistonda o‘smirlar salomatligi, maktab salomatlik savodxonligi va ko‘p tarmoqli hamkorlik bo‘yicha ma’lumotlar.
9.UNICEF. Five ways UNICEF supports adolescent girls’ wellbeing and health. 2024. O‘smir qizlar salomatligi, xavfsiz muhit va sog‘liq bo‘yicha ma’lumotlar.
10.World Health Organization. Global Accelerated Action for the Health of Adolescents (AA-HA!). O‘smirlar salomatligi dasturlarini rejalashtirish, amalga oshirish va baholash bo‘yicha konseptual yondashuv.
11.World Health Organization. Nutrition and lifestyle recommendations for school-aged children and adolescents in the Eastern Mediterranean Region. 2022.
12.O‘zbekiston Respublikasi qonunchilik hujjatlari milliy bazasi - LexUZ. Ta’lim va yoshlar siyosatiga oid normativ-huquqiy hujjatlar.

QORI NIYOZIY NOMIDAGI TARBIYA PEDAGOGIKASI MILLIY INSTITUTI
TPMI
1929

ПЕДАГОГИЧЕСКОЕ ОБЩЕНИЕ КАК ФАКТОР ФОРМИРОВАНИЯ И РАЗВИТИЯ ПЕДАГОГИЧЕСКОЙ КУЛЬТУРЫ БУДУЩЕГО УЧИТЕЛЯ

Альбина Садыкова
ведущий педагог кафедры «Фортепиано» Республиканского техникума музыки и искусства
https://doi.org/10.5281/zenodo.23178387

Аннотация: *В статье рассматривается такие проблемы как, роль учителя в обществе, педагогическая культура, общения и деловая игра.*
Ключевые слова: *методика обучения музыке, образование, воспитание, музыка, третье тысячелетие, программа, дошкольное образование, знания, умения, навыки, художественное творчество, красота, музыкальное произведение, восприятие.*

Приобретение Узбекистаном независимости поставило перед Республикой немало важнейших и неотложных задач, как первоочередная была выдвинута проблема подготовки высококвалифицированных специалистов современного уровня. Именно поэтому в Узбекистане, с первых шагов обретения независимости, придается большое значение возрождению и дальнейшему развитию нашей духовности, совершенствованию системы национального образования, укреплению его национальной основы, поднятие его до уровня мировых стандартов в гармонии с требованиями времени.

Президентом Республики Узбекистан И. Каримовым неоднократно было подчеркнуто воспитание здорового поколения как одна из приоритетных государственных задач – «здоровое не только физически, но и со здоровым духом, мыслью, твердой волей, высокообразованное, смелое и отважное, любящее свою Родину»[(1)]. Провозглашенное направление государственной политики было подкреплено и наполнено практическим содержанием в Законе «Об образовании».

Благодаря принятому Закону «Об образовании» были внедрены новые учебные планы, программы, учебники; проведена аттестация и аккредитация учебных заведений, созданы новые типы образовательных учреждений.

Такое отношение к образованию и воспитанию молодежи имеет свои филосовско – исторические корни, к ним в первую очередь относятся, культурное наследие нашего народа, всемирно известная тяга узбекистанцев к просвещению, почитанию образованности и учености, труды наших прославленных мыслителей.

Подтверждение этому мы находим в следующих строках: Важнейшим напутствием для мусульманина является: «учись» (из корана), стремление быть знающим – великая честь (Мирзо Улугбек), « нет ничего подходящего, что можно сравнить со знанием» (Самарканди). Однако,

несмотря на все принятые меры, проводившиеся в течении нескольких лет реорганизационные мероприятия недостаточно обеспечили соответствие содержание образования и качества подготовки процесса социально – экономического развития страны требованиям к профессиональной готовности, компетентности и квалификации молодых специалистов.

«Человек, вставший за преподавательский стол, ответственен за всё, он обязан всё знать и уметь – именно ответственность за судьбу каждого воспитуемого общества и государства возлагается на преподавателей. Какими будут результаты труда педагогов сегодня – таким будет наше общество завтра. Поэтому к профессиональным и личностным качествам преподавателя требования были всегда жестокими. Испокон веков к личностным качествам педагога относились с особыми требованиями. По мере развития общества совершенствовались и требования к профессиональным и личностным качествам педагога.

Как отметил президент И. А. Каримов: «Думая об учителях, естественно, каждый из нас, независимо от того, где и кем работает, какую должность занимает, вспоминает как лучшее время жизни, свои школьные годы, безоблачное детство, оставившие неизгладимый след в памяти, испытывает искреннее чувство уважения к педагогам, которые давали не только знания, но и уроки человечности».

Абу Али ибн Сино писал, обучать детей – это ответственная обязанность учителя и перечислял их профессиональные качества. Он указал семь педагогических заповедей.

Ибн Сино глубоко понимал склонности и трудности процесса воспитания. Анализ его произведений убеждает в том, что он предлагал разрешить их с гуманистических позиций. Он предпочитает внушение и добрый пример педагогов, воспитателей и взрослых людей.

Ибн Хамадун подчёркивал, что овладение наукой требует систематических и интеллектуальных усилий. Наша страна испокон веков была центром науки, воспитания и культуры. В этом крае жили и творили такие великие мыслители, учёные, писатели и поэты, как Хаким ат Термизи, Исо Термизи, Самандар Термизи, которые внесли большой вклад в развитии педагогической культуры, духовности нашего народа.

Мыслители Востока в своих педагогических взглядах указывали глубоко гуманистические мысли о педагогической культуре и о учителе и педагогическое общение – педагогические взгляды. Учитель должен не только в совершенстве знать свой предмет и обладать глубокими знаниями, но и понимать нужды народа, показывать во всём пример.

Концепция закон об образовании требует существенного изменения всей стратегии преподавания, поиска эффективных путей формирования и развития педагогической культуры у будущих учителей.

Личность учителя характеризуется многими социально значимыми чертами, одна из которых – его педагогическая культура. Синтезируя в себе различные элементы сознания и практической деятельности, педагогическая культура содержит в своей основе мировозреченскую, нравственную, профессиональную, интеллектуальную, эмоциональную, эстетическую, физическую и гигиеническую стороны культуры.

В структурном плане педагогическая культура представляет собой синтез психолого-педагогических убеждений и мастерства общего развития и профессионально – педагогических качеств, педагогической этики и системы многогранных отношений, стиля деятельности и поведения.

Объединяя взаимообусловленные компоненты личности, педагогическая культура обогащает и развивает каждый из них до высшего уровня.

В этой связи большими потенциальными возможностями располагают социально-педагогические резервы педагогического общения в университетах. Педагогическое общение как фактор формирования и развития педагогической культуры выполняет разнообразные функции в процессе развития личности будущего учителя.

Посредством общения передаются общественные, научные, культурные и нравственные ценности, педагогическая этика, стиль педагогической деятельности и воздействие на сознание, и поведение людей.

Педагогическое общение в учебной деятельности в университете протекает в рамках трех отношений: «преподаватель - студент», «студент - студент», «преподаватель - преподаватель». Одной из важных организационных предпосылок эффективного формирования и развития педагогической культуры, являются **деловые игры**[(2)]**.** Как показывает наше исследование, разработку деловых игр с целью развития творческих способностей, педагогической культуры у студентов целесообразно вести соблюдая структуру педагогической деятельности, которая требует формирования специальных способностей (конструктивных, организаторских, коммуникативных и гностических).

По характеру игровой деятельности направленной на развития творческих умений и педагогической культуры у студентов выделены 4 направления деловых игр.

1. Деловые игры с элементами конструирования, направленные на проектирования деятельности педагога и учеников, на раскрытие содержания занятий.

2. Деловые игры, направленные на формирование организаторских способностей.

3. Деловые игры, направленные на установление правильных взаимоотношений с окружающими.

4. Деловые игры с творческим подходом к педагогическому труду, направленные на умение обобщать, поиск нового, грамотный анализ личного и передового опыта.

При этом педагогическая культура преподавателя должна рассматриваться как необходимое условие формирования и развития педагогической культуры у студентов в рамках общения систем: «преподаватель – студент» и «студент – преподаватель».

Для глубокого изучения духовного, нравственного мировоззренческого наследия этих гениев можно использовать следующие формы подходов :

- создание методических пособий для студентов, проведение различных деловых игр, изучения биографий учёных, труды произведения, мысли, идеи о профессии учителя, о педагогической культуре общения и их педагогическое мастерство.

ЛИТЕРАТУРА

1. Азизходжаева Н.Н. Педагогические технологии и педагогическое мастерство. «Чулпан» Т. 2005
2. Левик Б. История зарубежной музики. М. 1980
3. Кремлёв.Ю.А. "Й.Гайдн". Очерк жизни и творчества. М.1972.
4. Прохорова И. Музикальная литература зарубежних стран. М. 1985 г.

MEHNAT QO‘SHIQLARI ORQALI O‘QUVCHILARDA MEHNATSEVARLIK VA JAMOAVIYLIK FAZILATLARINI TARBIYALASH YO‘LLARI

Safarov Sodiq
Nizomiy nomidagi O‘zbekiston milliy pedagogika universiteti “Musiqiy ta’lim” kafedrasi 303- guruh talabasi
https://doi.org/10.5281/zenodo.23178404

Annotasiya: *Ushbu maqola “Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining musiqiy madaniyatini shakllantirishda mehnat qo‘shiqlaridan foydalanish uslubi” deb nomlangan bo‘lib, o‘z mazmun va mohiyati bilan asosan boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida musiqiy madaniyatni rivojlantirishda xalq og‘zaki ijodi namunalaridan, xususan mehnat qo‘shiqlaridan samarali foydalanish masalalarini yoritishga bag‘ishlangan.*
Kalit so‘zlar: *mehnat qo‘shiqlari, xalq og‘zaki ijodi, mehnatsevarlik, musiqa darslari, boshlang‘ich sinf o‘quvchilari.*

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari shaxsining shakllanishida mehnatsevarlik va jamoaviylik fazilatlari muhim tarbiyaviy ahamiyatga ega. Ayniqsa, bu sifatlarni musiqiy faoliyat orqali rivojlantirish ta’lim jarayonini emotsional, estetik va ma’naviy jihatdan boyitadi. Mehnat qo‘shiqlari xalq ijodining qadimiy qatlamlariga mansub bo‘lib, ular xalqning ijtimoiy hayoti, mehnat jarayonlari, tabiat bilan munosabati va insoniy tuyg‘ularini musiqiy obrazlarda aks ettiradi. Shu bois mehnat qo‘shiqlari nafaqat musiqiy-estetik qadriyat, balki kuchli tarbiyaviy resurs sifatida ham qaraladi. Ularni dars jarayonida qo‘llash o‘quvchilarga xalq ijodi bilan tanishish, milliy madaniyatga hurmat bilan qarash, mehnat jarayoniga nisbatan ongli munosabatni shakllantirish imkonini beradi.

Musiqa darslarida mehnat qo‘shiqlaridan foydalanish o‘quvchilarning ichki dunyosiga chuqur ta’sir ko‘rsatadi. Ularning mazmunida ifodalangan fidoyilik, jamoaviylik, mehnatga sadoqat, tabiat bilan uyg‘unlik singari g‘oyalar kichik yoshdagi bolalarning tasavvur olamiga yaqin va tushunarli obrazlarda namoyon bo‘ladi. Masalan, “Qo‘sh haydang” yoki “Paxtakorlar qo‘shig‘i” kabi asarlar mehnat jarayonining musiqiy ifodasini yaratadi. O‘quvchi bu qo‘shiqlarni kuylash jarayonida nafaqat ohangni o‘zlashtiradi, balki undagi ma’no, ritm va harakat uyg‘unligini his qiladi. Shu jarayon orqali bolalarda mehnatni qadrlash, inson faoliyatining natijasiga hurmat bilan qarash, jamoa bilan birgalikda ishlash kabi muhim axloqiy fazilatlar shakllanadi.

Bundan tashqari, mehnat qo‘shiqlari o‘quvchilarning hissiy-emotsional rivojlanishida ham muhim o‘rin tutadi. Musiqa orqali bola o‘z his-tuyg‘ularini ifoda etishni, boshqalar hisini anglashni o‘rganadi. Xalq qo‘shiqlarining tabiiy ritmik tuzilishi, oddiy melodik burilishlari va takroriy ohanglari bolalarda musiqiy eshitish qobiliyatini, ritmik sezgirlikni, jamoada kuylash malakasini rivojlantiradi. Shu bois

mehnat qo‘shiqlari orqali olib boriladigan musiqiy tarbiya nafaqat estetik didni, balki ijtimoiy xulqni ham shakllantirishning samarali vositasi hisoblanadi.[62]

O‘quvchilar bu jarayonda o‘zaro hamkorlikni, bir-biriga quloq solishni, jamoaviy ijroga moslashishni o‘rganadilar. Masalan, “Hosil bayrami” qo‘shig‘ini kuylash vaqtida bolalar turli ovoz guruhlarida birgalikda kuylash, harakatni ritm bilan uyg‘unlashtirish, o‘z rolini to‘g‘ri bajarish orqali jamoaviylikni amalda his etadilar. Bunday mashg‘ulotlar shunchaki musiqiy faoliyat emas, balki kichik ijtimoiy tajriba maydoni vazifasini bajaradi. Har bir o‘quvchi o‘z hissasini umumiy natijaga qo‘shganini sezadi, bu esa mehnatga bo‘lgan mas’uliyatni oshiradi. Shuningdek, mehnat qo‘shiqlarining matni o‘quvchilar uchun axloqiy yo‘nalish beruvchi vosita sifatida ham xizmat qiladi.

Qo‘shiqlarda xalq donoligi, hayotiy tajriba, tabiat va inson o‘rtasidagi uyg‘unlik, halollik, fidoyilik kabi g‘oyalar mujassam. Masalan, “Suvchilar qo‘shig‘i”da suv tashuvchilarning mehnati, ularning jamoa foydasi yo‘lida qilgan sa’y-harakatlari madh etiladi. O‘quvchilar bu qo‘shiqni o‘rganish orqali mehnatning ijtimoiy ahamiyatini, har bir inson faoliyatining boshqalar hayotiga ta’sirini his etadilar. Bu, o‘z navbatida, o‘quvchilarda o‘z mehnatini qadrlash, jamoa manfaatini shaxsiy manfaatdan ustun qo‘yish kabi ijtimoiy fazilatlarni shakllantiradi.

Boshlang‘ich sinf yoshidagi bolalarda mehnatsevarlikni tarbiyalash faqat og‘zaki tushuntirish yoki nasihat bilan emas, balki ularning faol ishtirokini ta’minlovchi musiqiy faoliyat orqali samaraliroq kechadi. Mehnat qo‘shiqlari bu jarayon uchun eng tabiiy va hissiy jihatdan boy vositadir. Ular orqali bola mehnatni musiqiy obraz sifatida his qiladi, uni estetik zavq bilan qabul etadi va o‘z hayot tajribasida qo‘llashga harakat qiladi. Bu o‘rinda musiqaning tarbiyaviy kuchi uning bevosita emotsional ta’sirida namoyon bo‘ladi.

Qo‘shiqdagi ritm, ohang, so‘z, harakat birligining uyg‘unligi bolaning ichki dunyosida musiqiy, emotsional va axloqiy rezonansni yuzaga keltiradi. Mehnat qo‘shiqlari orqali olib boriladigan musiqiy ta’lim o‘quvchilarning ma’naviy-axloqiy kamolotini, jamoaviylikni, mehnatsevarlikni shakllantirishda o‘ziga xos pedagogik tizimni tashkil etadi.

Ularning barchasi O‘zbekiston xalqining musiqiy merosi bilan uzviy bog‘liq bo‘lib, milliy tarbiya konsepsiyasining muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Shu bois musiqiy ta’lim jarayonida mehnat qo‘shiqlarini maqsadga muvofiq tanlash, ularning badiiy mazmunini tahlil qilish va ijro etish orqali o‘quvchilarda nafaqat musiqiy did, balki ijtimoiy ong, jamoaviylik, mehnatga nisbatan ijobiy munosabatni shakllantirish mumkin.

Pedagogik nuqtai nazardan, mehnat qo‘shiqlari orqali mehnatsevarlik va jamoaviylikni tarbiyalash jarayoni o‘quvchilarda faqat musiqiy ko‘nikmalarni emas,

[62] Sharipov A. Xalq qo‘shiqlari orqali o‘quvchilarda estetik va axloqiy tarbiyani shakllantirish masalalari // Musiqa ta’limi metodikasi. – 2019. – №3. – B. 27–32.

balki shaxsiy va ijtimoiy mas’uliyatni shakllantirishga ham qaratiladi. Boshlang‘ich ta’lim bosqichida bola hali mehnatning mohiyatini to‘liq anglamagan bo‘ladi, biroq musiqiy obrazlar, qo‘shiqlardagi mehnat manzaralari, harakatlar va ritmik elementlar orqali u mehnatni his etadi, uni go‘zallik va ijod bilan bog‘lay boshlaydi.

Shu jarayonda o‘qituvchi qo‘shiqning badiiy mazmunini, undagi har bir so‘z, ritm va ohangning ramziy ma’nosini tushuntirish orqali o‘quvchilarni mehnat jarayoniga ruhiy jihatdan yaqinlashtiradi. Masalan, “Qo‘sh haydang” qo‘shig‘ini o‘rganish chog‘ida bolalar nafaqat dehqonchilik mehnati haqida bilib oladilar, balki bu faoliyatdagi qat’iyat, sabr-toqat, bir-biriga yordam kabi qadriyatlarni ham musiqiy tarzda his qiladilar. Bu esa ularning ongida mehnatning ijobiy timsolini shakllantiradi.

O‘qituvchi mehnat qo‘shiqlarini o‘rganish jarayonida interfaol metodlardan, xususan, rolli o‘yin, sahnalashtirish, musiqiy muhokama, improvizatsiya kabi yondashuvlardan foydalansa, dars jarayoni yanada jonli va ta’sirchan kechadi. Masalan, “Paxtakorlar qo‘shig‘i”ni sahnalashtirish davomida o‘quvchilar o‘z rollari orqali jamoaviy mehnatning ahamiyatini his etadilar — kimdir paxta teruvchi rolida, boshqasi suv tashuvchi yoki jo‘shqin bayram sahnasida ishtirok etuvchi sifatida qatnashadi. Shu tarzda har bir bola musiqiy obrazga kiradi, mehnat jarayonining ritmiga mos harakat qiladi, bu esa jamoaviy uyg‘unlikni vujudga keltiradi. Natijada o‘quvchilarda nafaqat musiqiy tafakkur, balki o‘zaro hamkorlik, bir-birini qo‘llab-quvvatlash, birgalikda harakat qilish madaniyati shakllanadi.

Shuningdek, mehnat qo‘shiqlarini o‘rganish jarayonida o‘qituvchi musiqiy mazmunni faqat estetik jihatdan emas, balki axloqiy-pedagogik nuqtai nazardan ham ochib berishi muhimdir. Masalan, qo‘shiqlarda uchraydigan “birlikda mehnat”, “hosil quvonchi”, “tabiat bilan uyg‘unlik” kabi motivlar o‘quvchilarda ijtimoiy ongni, ekologik madaniyatni va inson mehnatiga hurmatni rivojlantiradi. Shu jihatdan mehnat qo‘shiqlari nafaqat musiqiy dars materiali, balki ma’naviy-tarbiyaviy vosita sifatida ham xizmat qiladi. Bunday yondashuv bola tafakkurida “musiqa — bu faqat kuylash emas, balki hayotiy qadriyatlarni his etish vositasi” degan tushunchani mustahkamlaydi.

Musiqa darsida o‘qituvchi o‘quvchilarni qo‘shiqdagi har bir g‘oya ustida fikrlashga undashi lozim. Masalan, “Hosil bayrami” qo‘shig‘i tinglangach, bolalardan “Hosil kimning mehnati bilan yetishtiriladi?”, “Qo‘shiqda qanday kayfiyat hukmron?”, “Birgalikda mehnat qilish nimasi bilan yoqimli?” kabi savollarga javob so‘raladi. Bunday musiqiy muhokama orqali o‘quvchilar nafaqat qo‘shiq mazmunini tushunadilar, balki o‘z fikrini ifodalash, dalil keltirish, emotsional tahlil qilish ko‘nikmasiga ega bo‘ladilar. Shu jarayonda o‘qituvchi ularni musiqaning estetik qatlamidan tashqari, ijtimoiy va axloqiy mazmunini ham anglashga yo‘naltiradi. Natijada bolalar qo‘shiqdagi har bir so‘z va ohangni hayotiy

tajriba bilan bog‘lashni o‘rganadilar, bu esa ularning musiqiy va axloqiy tafakkurini uyg‘un rivojlantiradi.

Bundan tashqari, o‘qituvchi o‘quvchilarda mehnatsevarlikni faqat so‘z bilan emas, balki faol ishtirok orqali tarbiyalashi kerak. Masalan, darsdan tashqari “Mehnat qo‘shiqlari haftaligi” yoki “Hosil bayrami” kabi musiqiy tadbirlar o‘tkazilib, unda bolalar xalq qo‘shiqlarini kuylash, sahnalashtirish, raqs va pantomima orqali ifodalash imkoniga ega bo‘ladilar. Bu jarayon o‘quvchilarning jamoa bilan ishlash, vazifani taqsimlash, ijodiy fikr bildirish, boshqalar bilan muvofiq harakat qilish ko‘nikmasini rivojlantiradi. Shu bilan birga, ular mehnatni nafaqat majburiyat, balki go‘zallik, ijod va insoniy qadriyat sifatida anglay boshlaydilar.

Bola yoshligidan boshlab mehnatni musiqiy obraz orqali his etganida, unda “mehnat – hayotning bir qismi” degan tushuncha mustahkamlanadi. Shu bois mehnat qo‘shiqlari orqali o‘qituvchi o‘quvchilarda ijobiy mehnat motivatsiyasini, o‘z ishiga hurmat bilan qarashni va jamoa manfaatini shaxsiy manfaatdan ustun qo‘yish kabi fazilatlarni singdiradi. Musiqa bu jarayonda tarbiyaviy vosita sifatida kuchli ta’sir ko‘rsatadi, chunki u bevosita emotsiyaga ta’sir qiladi, his-tuyg‘ularni uyg‘otadi va qadriyatlarni qalb orqali singdiradi.

Demak, mehnat qo‘shiqlari boshlang‘ich sinf o‘quvchilari uchun nafaqat musiqiy-estetik o‘quv materiali, balki shaxsiy fazilatlarni shakllantiruvchi pedagogik resurs sifatida ham muhimdir. Ular yordamida bola musiqani tinglash, kuylash, harakat orqali ifoda etish, musiqiy tahlil qilish jarayonida o‘zini jamoaning bir qismi sifatida his etadi, mehnatga ijodiy va mas’uliyatli munosabatni o‘rganadi. Shu tariqa mehnat qo‘shiqlari ta’lim-tarbiya jarayonida nafaqat musiqiy madaniyatni, balki insoniy fazilatlar — mehnatsevarlik, jamoaviylik, hurmat va birdamlikni tarbiyalovchi vositaga aylanadi.

Mehnat qo‘shiqlari nafaqat musiqiy tarbiya vositasi, balki o‘quvchilarda ijtimoiy-axloqiy fazilatlarni shakllantirishning samarali pedagogik yo‘lidir. Xalq ijodiyotining bu turi o‘zida inson mehnatining qudratini, halollik, matonat, birdamlik va hayotga muhabbatni mujassam etadi. Shuning uchun mehnat qo‘shiqlari orqali o‘quvchilar mehnatning ijtimoiy ahamiyatini, jamoa bilan ishlashning zavqini, natijaga erishishdagi mas’uliyatni his etadilar. Ular qo‘shiq kuylash jarayonida faqat ohang va ritmni emas, balki xalq hayotiga singib ketgan qadriyatlarni — mehr, yordam, o‘zaro hurmat va hamjihatlikni ham anglaydilar.

Mehnat qo‘shiqlari o‘quvchilarda mehnatsevarlikni tarbiyalashda o‘ziga xos hissiy vosita bo‘lib xizmat qiladi. Chunki musiqaning ta’sir kuchi bevosita inson his-tuyg‘ulariga, ongiga va irodasiga ta’sir etadi. Masalan, dalada mehnat qilayotgan dehqonlarning qo‘shiqlari insonni ruhlantiradi, harakatga undaydi, jismoniy kuchni emotsional quvvat bilan uyg‘unlashtiradi. Shu jihatdan, bunday qo‘shiqlar o‘quvchilarda mehnat jarayoniga ijobiy munosabatni shakllantiradi. Ular “mehnat –

baxt manbai”, “ish – insonni go‘zal qiladi” degan hayotiy g‘oyalarni musiqiy yo‘l bilan his etadilar. O‘qituvchi darsda bu qo‘shiqlarni tahlil qilar ekan, ularning mazmunini faqat kuylash bilangina emas, balki musiqiy muhokama, savol-javob, sahnalashtirish yoki ijodiy topshiriqlar orqali yanada chuqurroq ochib beradi.

Natijada o‘quvchilar qo‘shiqdagi mehnat mazmunini hayotiy misollar bilan bog‘lab o‘rganadilar, bu esa ularning amaliy faoliyatga bo‘lgan qiziqishini oshiradi. Jamoaviylik fazilati ham mehnat qo‘shiqlarining ajralmas tarbiyaviy jihatidir. Qo‘shiqni birgalikda kuylash jarayonida bolalar bir-birini tinglash, ovoz uyg‘unligini saqlash, ritmik birlikni his etish kabi ko‘nikmalarni egallaydilar. Bu jarayonda ular tabiiy ravishda jamoa ichida o‘z o‘rnini topadi, o‘zaro hurmat va birdamlik ruhida harakat qilishni o‘rganadilar. Ayniqsa, rolli o‘yin yoki sahnalashtirish orqali ijro etilgan mehnat qo‘shiqlari o‘quvchilarni jamoa bilan ijodiy ishlash, o‘z fikrini ifoda etish va boshqalar fikriga hurmat bilan qarashga o‘rgatadi. Bu esa ularning ijtimoiy faolligini, mas’uliyat hissini va o‘zaro hamjihatlikni mustahkamlaydi.

Pedagogik nuqtai nazardan, mehnat qo‘shiqlarini o‘qitish o‘quvchilarni nafaqat musiqiy madaniyatga, balki ijtimoiy qadriyatlarga yo‘naltiruvchi jarayondir. Har bir mehnat qo‘shig‘ida xalq hayotining muhim jihatlari – mehnatning qadri, insonparvarlik, tabiat bilan uyg‘unlik, jamiyatga foydali bo‘lish istagi mujassam. Shu sababli, o‘quvchilarga bunday qo‘shiqlarni o‘rgatish ularni o‘z xalqining madaniy ildizlariga, an’analariga hurmat bilan qarashga undaydi. Mehnat qo‘shiqlari orqali ular xalqona donolikni, sabr-toqat, bardosh va jamoaviy birdamlikning hayotiy ahamiyatini anglab yetadilar. Shunday qilib, mehnat qo‘shiqlari o‘quvchilarni faqat musiqani eshitish yoki ijro etish jarayonida estetik zavq olishga emas, balki mehnatning jamiyat hayotidagi o‘rni va ahamiyatini chuqur tushunishga o‘rgatadi.

Ularning har bir ohangi, so‘zi va ritmi orqali o‘quvchilar mehnatsevarlik, jamoaviylik, insonparvarlik kabi fazilatlarni o‘zlashtiradilar. Bu esa musiqiy ta’limning asosiy maqsadlaridan biri — har tomonlama yetuk, ma’naviy boy, ijodiy fikrlaydigan shaxsni shakllantirishga xizmat qiladi. Natijada aytish mumkinki, mehnat qo‘shiqlarini o‘qitish jarayoni bu — nafaqat musiqiy ta’limning bir qismi, balki tarbiyaviy jarayonning ajralmas bo‘lagi bo‘lib, u bolalarni hayotga tayyorlash, mehnatga muhabbat uyg‘otish, jamoada ishlash madaniyatini shakllantirishning eng samarali yo‘llaridan biridir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. — Toshkent: O‘zbekiston, 2023.
2.Abdullayev A. Musiqa o‘qitish metodikasi. — Toshkent: O‘qituvchi, 2018.
3.Asafyev B. Musiqiy idrok nazariyasi. — Moskva: Muzyka, 2016.
4.Orf K. Bolalar uchun musiqa tarbiyasi. — Moskva: Prosveshcheniye, 2015.

MILLIY TARBIYA JARAYONLARINI TASHKIL ETISHNИНГ INSTITUTSIONAL MODELLARIНИНГ ИЖТИОИЙ ПЕДАГОГИК ИМКОНИЯТЛАРИ

R.Safarova
Qori Niyoziy nomidagi Tarbiya pedagogikasi Milliy instituti “Milliy tarbiya mutafakkirlar, hamda jadidlarning pedagogik ta’limotlari” ilmiy tadqiqot bo‘limi boshlig‘i, p.f.d., prof
https://doi.org/10.5281/zenodo.23178417

Аннотация. *Ушбу мақолада миллий тарбия жараёнини бошқаришнинг институционал моделлари, мазкур йўналишдаги халқаро концепциялар, уларнинг ўзига хос тажрибалари, уларнинг йўналишлари, мазкур тажрибани Ўзбекистон таълим тарбия тизимига жорий этишнинг устувор тамойили, шарт шароитлари ҳақида фикр юритилган. Мақола илмий педагогик жамоатчилик учун манба бўлиб хизмат қилади.*
Таянч сўзлар: *миллий тарбия, миллий тарбия жараёнини бошқариш, моделлар, концепцияар, халқаро тажриба, Ўқитувчи компаси, Таълим 2030 компаси, трансформация, оила, мактаб, маҳалла, ҳамжамият, педагоглар, ота-оналар.*

Milliy tarbiya jarayonlarini samarali tashkil etish zamonaviy ta’lim siyosatining murakkab va ko‘p subyektli yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Chunki tarbiya jarayoni ta’lim muassasasida o‘tkaziladigan ma’naviy-ma’rifiy tadbirlar yoki alohida педагогик жараён mazmuni bilan chegaralanmaydi. U таълим олувчилар шахсининг qadriyatlari, ijtimoiy xulq-atvori, fuqarolik pozitsiyasi, milliy o‘zligini anglashi, jamiyat oldidagi mas’uliyati hamda boshqa insonlar bilan munosabatini shakllantiruvchi uzluksiz ijtimoiy-pedagogik jarayondir. Shu sababli milliy tarbiyani tashkil etishning zamonaviy modeli oila, ta’lim muassasasi, mahalla va jamoatchilik, davlat institutlari, madaniy-ma’rifiy tashkilotlar, raqamli axborot muhiti o‘rtasidagi institutsional hamkorlikni talab etadi.

Milliy tarbiya jarayonlarini tashkil etishning institutsional modeli deganda tarbiya maqsadlarini amalga oshirishda ishtirok etuvchi davlat va nodavlat institutlari, ta’lim tashkilotlari, oila, mahalla, jamoatchilik tuzilmalari, ilmiy-metodik tashkilotlar, ommaviy axborot va raqamli kontent subyektlarining vakolatlari, vazifalari hamda ular o‘rtasidagi funksional aloqalarni tartibga soluvchi yaxlit tashkiliy-pedagogik tizim tushuniladi. Мазкур modelning asosiy xususiyati turli institutlar faoliyatini umumiy maqsad, qadriyatlar tizimi va kutilayotgan natijalar asosida muvofiqlashtirishdan iborat. Shu jihatdan milliy tarbiya tizimining institutsional tuzilmasini shartli ravishda makro, mezo va mikro darajalarga ajratish mumkin. Makro darajada davlat ta’lim va yoshlar siyosati, normativ-huquqiy baza, milliy konsepsiya va dasturlar, davlat ta’lim standartlari, moliyalashtirish hamda monitoring tizimi faoliyat yuritadi. Mezo darajada vazirlik va idoralar, hududiy boshqaruv organlari, ilmiy-metodik markazlar, pedagoglarni tayyorlash va malakasini oshirish tashkilotlari, mahalla va jamoat institutlari o‘rtasidagi hamkorlik

amalga oshiriladi. Mikro darajada esa maktabgacha ta’lim tashkiloti, maktab, professional va oliy ta’lim muassasasi, pedagog, sinf yoki akademik guruh, oila hamda ta’lim oluvchining bevosita tarbiyaviy faoliyati namoyon bo‘ladi.

Mazkur uch daraja орасидаги узвийлик таъминланмаса, milliy tarbiya tizimida fragmentarlik вужудга keladi. Бунда davlat darajasida belgilangan maqsad ta’lim tashkilotida alohida tadbirga aylanib qolishi, ta’lim muassasasidagi tarbiyaviy faoliyat esa oila va mahalla bilan yetarlicha bog‘lanmasligi mumkin. Shuning uchun institutsional modelning samaradorligi таълим tashkilotлари орасидаги vertikal va gorizontal aloqalarning barqarorligi bilan belgilanadi.

Tarbiya jarayonlarini institutsional tashkil etish tarixiy jihatdan bir necha bosqichda rivojlangan. Dastlabki modelni institutsional-markazlashgan model sifatida tavsiflash mumkin. Bunda davlat va ta’lim muassasasi tarbiyaning asosiy subyekti hisoblanib, tarbiyaviy maqsadlar yuqoridan belgilanadi, ta’lim tashkilotlari esa ularni bajaruvchi bo‘g‘in vazifasini bajaradi. Ushbu modelning afzalligi yagona maqsad va tashkiliy tartibning mavjudligi bo‘lsa, cheklangan tomoni mahalliy sharoit, oila, jamoatchilik va ta’lim oluvchilарning жарён subyektи sifatidagi ishtiroki yetarliча hisobga olinmasligidadir.

XX asr oxiri va XXI asr boshidan xalqaro ta’lim amaliyotida hamkorlikka asoslangan ko‘p subyektli model асосида фаолият кўрсатиш имконияти кенгайди. Mazkur yondashuv доирасида ўқувчиларни тарбиялаш oila, maktab, mahalliy hamjamiyat, fuqarolik jamiyati va boshqa institutlarning umumiy mas’uliyatiга айланди. Шу билан бир қаторда boshqaruvning mohiyati o‘zgardi. Натижада тарбия жараёнларини бошқаришда манфаатдор субъектларнинг ўзаро ҳамкорлиги ва умумий масъулиятига асосланган натижага йўналтирилган бошқарув тизимига ўтиш тенденцияси шакллана бошлади.

Hozirgi bosqich ekotizimli va tarmoqli institutsional model bilan tavsiflanadi. Bunda ta’lim tashkiloti oila, mahalliy hamjamiyat, madaniyat va sport muassasalari, yoshlar tashkilotlari, ilmiy markazlar hamda raqamli platformalar bilan bog‘langan tarbiyaviy ekotizimning markaziy bo‘g‘ini sifatida namoyon bo‘ladi. Bu tendensiya ОЕСДнинг Таълим компаси 2030 konsepsiyasida ham ўз ифодасини топган kuzatiladi. OECD o‘quvchini o‘z hayoti va atrof-muhitga ta’sir ko‘rsata oladigan faol subyekt sifatida таълқин этади.

OECDнинг 2025-yilda e’lon qilgan Ўқитувчи компаси концептуал моделида mazkur yondashuvni pedagoglarga nisbatan ham rivojlantirib, o‘qituvchini o‘quv jarayonini birgalikda loyihalashtiruvchi va o‘zgarishlarni amalga oshiruvchi professional subyekt sifatida тавсифлайди.

Milliy tarbiya tizimini rivojlantirish nuqtayi nazaridan xalqaro tajribaning eng muhim jihatlaridan biri yaxlit maktab yondashuvi hisoblanadi. Yevropa Kengashininг “Демократик маданият компетенцияларининг таянч доираси” моделида qadriyatlar va fuqarolik kompetensiyalarini rivojlantirish alohida ўқув

fani yoki педагогик жараён билан cheklanmasligini ko‘rsatiladi. U o‘quv dasturi, pedagogik metodlar, baholash, pedagoglarni tayyorlash va butun maktab faoliyati bilan integratsiyalashтирилиshi lozim. Mazkur modelning muhim tomoni shundaki, tarbiya o‘quvchiga qadriyat haqida маълумот бериш билан чекламаслан, унинг шу қадрият ичида яшашини назарда тутади.

Yevropa Kengashi yaxlit maktab modelida uchta ўзаро алоқадор компонентни ажратиб кўрсатади. Улар: ta’lim va o‘qitish, maktab boshqaruvi va tashkiliy madaniyat, mahalliy hamjamiyat bilan hamkorlik. Bundan tashqari, maktab ma’muriyati, pedagoglar, o‘quvchilar, ota-onalar va mahalliy hamjamiyat vakillarining faol ishtiroki ҳам назарда тутилади.

Bu jihat O‘zbekiston milliy tarbiya tizimi uchun alohida ahamiyatga ega. Chunki milliy tarbiyani faqat “Tarbiya” fani zimmasiga yuklash institutsional jihatdan yetarli emas. Tarbiya mazmuni fanlar, sinfdan tashqari faoliyat, maktabning ichki madaniyati, ўқитувчи-o‘quvchi munosabatlari, ota-onalar bilan ishlash, mahalla va jamoatchilik bilan hamkorlik hamda raqamli muhitga singdirilishi kerak.

Institutsional modelning rivojlanishi boshqaruv mexanizmlarining ham o‘zgarishini taqozo etmoqda. Замонавий шароитда миллий тарбия жараёнини бошқариш диагностика натижалари асосида мақсадларни белгилаш, тарбиявий мазмунни лойиҳалаш, иштирокчи субъектлар фаолиятини мувофиқлаштириш, педагогик жараённи амалга ошириш ҳамда унинг натижаларини мониторинг ва таҳлил қилиш асосида бошқарув қарорларини такомиллаштириб боришга қаратилган узлуксиз тизим сифатида ташкил этилиши мақсадга мувофиқ. Bunda diagnostik boshqaruv hudud, ta’lim tashkiloti va yosh guruhining real tarbiyaviy ehtiyojlarini aniqlaydi. Strategik boshqaruv qanday shaxsiy va ijtimoiy natijaga erishish kerakligini belgilaydi. Koordinatsion mexanizm oila, ta’lim tashkiloti, mahalla va boshqa subyektlarning vazifalarini o‘zaro muvofiqlashtiradi. Metodik boshqaruv ўқитувчиларni metodika, kontent va vositalar bilan ta’minlaydi.

O‘zbekistonda mazkur jarayon hozir yangi institutsional bosqichga kirayotganini ko‘rish mumkin. Xususan, 2026-yil 28-yanvarda “Uzluksiz ta’lim tizimida yoshlarni milliy qadriyatlarga sadoqat va vatanparvarlik ruhida tarbiyalash samaradorligini oshirish dasturi” tasdiqlangan. Unda maktabgacha, umumiy o‘rta, o‘rta maxsus, kasbiy va oliy ta’lim tashkilotlarini qamrab oluvchi yagona va yaxlit milliy tarbiya tizimini yaratish nazarda tutilgan. Dasturda tarbiya jarayonining yoshga asoslangan uch bosqichi belgilangan: 3–6 yosh, 7–18 yosh hamda 16–22 yosh. Bu yondashuvning muhim jihati milliy tarbiyani uzluksiz rivojlanadigan tizim sifatida qurishga intilishdir.

Shuningdek, barcha ta’lim tashkilotlarida “Kelajak soati” mashg‘ulotlari, ularning metodik va raqamli kontentini yagona platformada joylashtirish, pedagoglarning maqsadli malakasini oshirish va O‘zbekistonning Milliy tarbiya

modelini ishlab chiqish vazifalari belgilangan. Бу ҳолат миллий тарбия жараёнларини бошқаришда ягона мақсад ва узлуксиз мазмунга эга, методик ҳамда рақамли таъминот билан қўллаб-қувватланадиган, педагогларнинг касбий тайёргарлиги ва натижалар мониторингига асосланган яхлит бошқарув тизимига ўтиш жараёни кечаётганини кўрсатади.

2025-yildagi islohotlarda “Kelajak” markazlari orqali o‘quvchilarni muhandislik, ilm-fan, madaniyat, san’at, kitobxonlik, sport va ekologik faoliyatga jalb qilish mexanizmlari belgilangan. Bu milliy tarbiyani kengroq ijtimoiy-pedagogik muhitda tashkil qilish imkoniyatini кенгайтиради.

Xalqaro tajribani O‘zbekiston sharoitiga tatbiq qilishda milliy-madaniy transformatsiya tamoyili ustuvor bo‘lishi kerak. OECDнинг Ўқитувчи компаси yoki Yevropa Kengashining “Демократик маданият компетенцияларининг таянч доираси” modellari muayyan konseptual va metodologik vositalarni тарбия жараёнида қўллаш имконини beradi, biroq OECDning o‘zi Ўқитувчи компаси global jihatdan shakllantirilgan bo‘lsa-da, mahalliy sharoitga moslashtirilishi lozimligini ta’kidlaydi. Демократик маданият компетенцияларининг таянч доираси ham foydalanuvchilar modelni o‘z maqsadlari va kontekstiga moslashtirishlarini nazarda tutadi. Шундан келиб чиққан ҳолда халқаро тажрибаларни Ўзбекистон миллий тарбия тизимига трансформация қилиш жараёни хорижий концептуал ёндашувларни миллий қадриятлар ва ижтимоий-маданий хусусиятлар билан уйғунлаштириш, уларни таълим олувчиларнинг ёш хусусиятларига мослаштириш ҳамда миллий тарбияга оид компетенцияларни аниқлаш асосида амалга оширилиши мақсадга мувофиқ. Бунда мазкур компетенцияларни баҳолаш мезон ва кўрсаткичларини ишлаб чиқиш, уларни тарбия мазмунига интеграциялаш, педагогларни тегишли методик тайёргарлик билан таъминлаш, оила ва маҳалла институтлари билан ҳамкорликни кучайтириш, замонавий рақамли тарбиявий ресурслардан фойдаланиш ҳамда натижаларни мунтазам мониторинг қилиш трансформация жараёнининг ўзаро боғлиқ таркибий йўналишларини ташкил этади.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:

1. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамаси. Узлуксиз таълим тизимида ёшларни миллий қадриятларга садоқат ва ватанпарварлик руҳида тарбиялаш самарадорлигини ошириш дастури. - 2026 йил 28 январ
2. Ўзбекистон Республикаси Мактабгача ва мактаб таълими вазирлиги. Ёшларни миллий қадриятларга садоқат ва ватанпарварлик руҳида тарбиялашга доир дастур қабул қилинди. -Тошкент, 2026 йил 30 январ
3. Ўзбекистон Республикаси Ҳукумати. “Келажак” марказлари тизими самарали ташкил этилади. - 2025 йил 18 сентябр.
4. Компетенции для демократической культуры. Совет Европы Жить вместе на равных в демократических обществах в условиях культурного многообразия. Совет Европы, 2017.
5. Учебный компас ОЭСР 2030 https://www.oecd.org/en.html

O‘QUVCHILAR ORASIDA JINOYATCHILIK VA HUQUQBUZARLIKKA MOYIL O‘QUVCHILARNI JAMOATCHILIK ISHLARI BILAN BAND QILISH YO‘LLARI

Ma’ruf Salimov
O‘zMU mustaqil tadqiqotchisi
*Email:*smarufe1995@gmail.com
https://doi.org/10.5281/zenodo.23178438

Jahon miqyosida yoshlar orasida jinoyatchilikning oldini olish, jamiyatdagi jinoyatchilik darajasini pasaytirish, voyaga yetmaganlar tomonidan sodir etilgan jinoyatlarga qarshi kurashish va uning oldini olish muhim ahamiyatga ega. Ma’lumotlarga ko‘ra, dunyoning rivojlangan mamlakatlarida sodir etilayotgan jinoyatlarda yoshlar ulushi quyidagi ko‘rsatkichga ega: Rossiya federatsiyasida 33%, Germaniya 35%, Angliya 35%, Fransiya 23%, Ispaniya 85%, AQSH 32% ni tashkil etmoqda[63]. Jinoyatchilikning o‘sishi nafaqat islohotlar yoniga jiddiy to‘siq bo‘lishi, balki bugungi strategik maqsadlarga erishishda ham o‘z salbiy ta’sirini namoyon etadi.

Jahonda yoshlar orasida jinoyatchilikning oldini olish yuzasidan olib borilayotgan ijtimoiy-huquqiy islohotlar negizida qator ilmiy tadqiqotlar amalga oshirilib kelinmoqda. Jumladan, voyaga yetmaganlar o‘rtasida huquqbuzarlikning oldini olish bo‘yicha ishlarni optimallashtirish, oilaviy o‘zaro munosabatlar, ijtimoiy hamkorlikni kengaytirish, pedagogik kadrlar kasbiy kompetentligini oshirish, yoshlarga pedagogik, ijtimoiy-psixologik, tibbiy yordam ko‘rsatish, o‘quvchilarda tarbiya darajasini diagnostika qilish, jazoni ijro etish joylaridan ozod etilgan yoshlarning jamiyatga resotsializatsiyasi, yoshlar orasidagi jinoyatchilikni oldini olishning ijtimoiy mexanizmlarini tizimli tahlil qilish zaruratini ilgari surmoqda[64].

Voyaga yetmaganlar orasida jinoyatchilik va huquqbuzarlikka moyil o‘quvchilarni jamoat topshirig‘i bilan band qilishda ularni istiqbolga chorlash muhim ahamiyat kasb etadi. “Istiqbol - bu yorqin, qiziqarli va quvonchli voqealar manzilidir” Jamoa istiqbollari yoshlarda umumiy ko‘tarinkilikni yuzaga keltiradi. Guruhda yorqin va jozibador istiqbollarning bo‘lmasligi, bu jamoada bir xillik va zerikarli holatlarni keltirib chiqaradi. Istiqbol odatda, oddiy, kundalik ishlar: Guruh xonasini jihozlash, didaktik materiallar tayyorlash, shanbaliklar o‘tkazish, bayram,

musobaqalariga tayyorgarlikdan boshlanib, o‘smir va o‘spirinlarning qiziqishini yanada orttiruvchi istiqbollar: breyn-ringlarga qatnashish, sayohatlarga, kino- teatrlarga jamoa bo‘lib borish orqali davom ettiriladi. So‘ngra yoshlar oldiga unga qaraganda murakkabroq istiqbolli vazifalar qo‘yiladi: bayram kechalarini

[63] https://visasam.ru/emigration/vybor/prestupnost-v-mire.html
[64] Толипов А.А. Ёшлар орасида жиноятчиликни олдини олишнинг ижтимоий механизмлари.

tayyorlash, davra suhbati uyushtirish, olimpiadalarda, ular uchun istiqbolli dasturlar: Aksels, Airekx, School Eles kabilarda qatnashish va boshqalarda namoyon bo‘ladi.

Shu sababli, voyaga yetmaganlar orasida jinoyatchilik va huquqbuzarlikka moyil o‘quvchilarni jamoat topshirig‘i bilan band qilish, ularga maqsadli talablar qo‘yish va ularning amalga oshishini nazorat qilish muhim tarbiyaviy ahamiyatga egadir. Maqsadli talablar voyaga yetmaganlar orasida jinoyatchilik va huquqbuzarlikka moyil o‘quvchilarda javobgarlik munosabatini, axloqiy odatlarni tarkib toptirishga, mustahkam an’analarga rioya qilishga yordam beradi. Bu holat oila, o’quv muassasasi va jamoatchilik hamkorligi asosida ish olib borishni taqazo etadi. Ma’lumki, shaxsning axloqiy sifatlariga oilaviy tarbiya orqali asos solinadi, shakllantiriladi. Lekin oilaning o‘zi komil insonni tarbiyalay olmaydi. Keng jamoatchilik, mahalla, o‘quv maskani va ota-onalar hamkorligiga asoslangan profilaktik tadbirlargina voyaga yetmaganlar orasida turli huquqbuzarliklar va jinoyatlarning oldini olishga zamin yaratadi[65].

Voyaga yetmaganlar orasida jinoyatchilik va huquqbuzarlikka moyil o‘quvchilar uchun mo‘ljallangan profilaktik tadbirlarda shaxsning tafakkuri, ongi, hissiyoti, irodasi, qarashlari e’tibordan chetda qolishiga yo‘l qo‘yib bo‘lmaydi. Voyaga yetmaganlarga estetik tarbiya berishda folklorning o‘rni va ahamiyati katta bo‘lsa, xalq an’anaviy sporti - farzandlar jismoniy baquvvatliligi va yetukligining garovidir. Xalq pedagogikasining ekologik tarbiya berishdagi imkoniyati ham kengdir. Atrof-muhit va tabiatni e’zozlash, hayvonlar, qushlar, dovdaraxt, o‘simliklar, yer, suv, borliqqa munosabatni ifodalovchi qarashlar ekologik tarbiya berishga qaratilgandir. Turli udumlar, rasm-rusm, marosimlar, tabiat bayramlari, «Navro’z», «Mehrjon», «Hayit bayrami», bolani beshikka solish, sunnat qilinishi, uylanish, payg‘ambar yoshi, oltin va kumush to’ylar, turli yubileylar, odatlar, udumlar va marosimlaming ta’lim-tarbiyaviy ahamiyati ham juda kattadir. Turli qo‘shiqlar orqali go‘zallik, orzu-umid va boshqalar tarannum etilib, insonda cheksiz muhabbatni tarkib toptiradi. Ertaklar orqali yaxshilikka mehr, yovuzlikka nafrat ruhida tarbiyalanadi. Yoshlarimizni har tomonlama yetuk insonlar qilib tarbiyalashimizda ayniqsa, qahramonlik dostonlarining ahamiyati ham kattadir.

Tez aytishlar - nutqni o‘stirishga, topishmoqlar - topqirlik, zehnni tarbiyalashga, maqollar-odob-axloq tarbiyasiga, qo‘shiqlar-nafosat tarbiyasiga, doston va ertaklar aqliy, axloqiy, jismoniy va umuman har tomonlama tarbiyasiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.

Hozirgi davrda yoshlar orasida jinoyatchilikning oldini olish masalasi hal etilishi butunjahon hamjamiyati manfaatdor bo‘lgan global muammolar sirasiga kiradi. Bu esa o‘sib kelayotgan yosh avlodning jamiyat yashovchanligini

[65] Muxammadiyeva X.K. Vatan - muqaddas, uni himoya qilish sharafli burchdir mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallar to‘plami. 325-326 6.

ta’minlashdagi muayyan roli bilan izohlanadi. Voyaga yetmagan yoshlar jinoyatchiligi, hatto, eng demokratlashgan va iqtisodiy rivojlangan davlatlar uchun ham xosdir.

Jamiyat tomonidan qabul qilingan xatti-harakatlar, qoidalar va me’yorlardan chekingan o‘smirlarni deviant xulqlilar deb atashadi. Deviant xatti - harakat - bu psixik sog‘lom shaxslar tomonidan me’yoriy qoidalarni buzish xollaridir. Deviatsiya - bu ijtimoiy-pedagogik muammo bo‘lib, inson ruxiy olamidagi, uning atrofidagi muhitning o‘zgarish xollari bilan bog‘liq. Bu xol, ayniqsa, o‘smir va ilk o‘spirin yoshdagilarga xosdir. Chunki bu yoshdagi shaxslarda anatomo-fiziologik, intellektual, axloqiy va boshqa jihatlarida o‘zgarishlar ro‘y beradi. Bu o‘zgarishlar, navbatida, yoshlar psixikasidagi anomallik holatini keltirishga zamin yaratishi mumkin. Tarbiyasi “qiyin” o‘smir va o‘spirinlar - kichik ijtimoiy munosabatlar (oila, maktab, litsey, kasb-hunar kollejlari) hamda xarakter, jinsiy va yosh xususiyatlari jihatidan yaqin kichik ijtimoiy guruhlarga xos ijtimoiy me’yorlardan, xatti-xarakatlar va qoidalardan chekinishi natijasida ularning bu turdagi harakatini intizomsizlik, deb ham qaraladi. Tarbiyasi “qiyin” ilk o‘spirin yoshdagilarning ba’zi holatlarda agressiyaga moyilligi, o‘qishda va boshqa faoliyatida o‘zboshimchalikka yo‘l qo‘yishi, ichkilikka, assotsial harakatlarga berilishi kuzatiladi. Ma’lum vaziyatlarda o‘smir va o‘spirinlaming shu kabi xatti — harakatlarini namoyon etishi deviant harakatlarning tipik xususiyatidir. Psixolog olim E.G‘oziyev fikricha, voyaga yetmagan o‘quvchining o‘zgarishlari shaxslararo munosabatlardagi mavqeini yanada mustahkamlashning muhim omili hisoblanadi.

Voyaga yetmagan 14-17 yoshli o‘quvchilarning o‘zlarini anglashlari turmush, o‘qish, ijtimoiy mehnat va sport faoliyatlarida namoyon bo‘ladi. Umumiy o‘rta maktablardagi odatlanilmagan vaziyatlarning shaxslararo munosabat va muloqot ko‘lami endilikda kengayadi. Bu hol yosh yigit-qizlarning axloqiy, aqliy, irodaviy, his-tuyg‘ularining xususiyatlarini oqilona baholash, qo‘yilayotgan talablarga javob tariqasida yondashishni jadallashtiradi. 14-16, 17-18-yoshli yigit- qizlarning o‘zini anglashga aloqador xususiyatlari mavjud. Ular o‘zlarining yutuq va kamchiliklarini, kuchli va zaif jihatlarini, ijobiy va salbiy qiliqlarini aniqroq baholash imkoniyatiga egadirlar. Ularda shaxsiy fazilatlarini, xulq-atvorini, aqliy va jismoniy mehnat faoliyatini tahlil qilish, qiyosiy baholash mayli kuchayadi. Shuni ta’kidlash lozimki, ayrim hollarda o‘spirinlar o‘z ma’naviyati va ruhiyatini baholashda kamchiliklarga yo‘l qo‘yishadi. Pedagogik tashxislash natijalaridan shu narsa aniqlandiki, ular o‘z xususiyatlariga ortiqcha baho berib, kibrlanish, maqtanchoqlik, manmanlik kabi illatlarga duchor bo‘ladi va guruh pedagoglar jamosiga noadekvat (g‘ayritabiiy) munosabatni namoyon etadi. Shuningdek, ayrim yigit qizlar aksincha o‘z shaxsiy fazilatlarini, aqliy qobiliyatlarini past baholaydilar va o‘zlarini o‘ta kamtarona tutishga intilib, o‘z iste’dodini, qobiliyatini to‘laroq namoyon qilishdan mahrumdir.

Davlat organlari, jamoatchilik vakillari, mahalla faollari va boshqa nodavlat tuzilmalarining ushbu yo‘nalishdagi faoliyatini birlashtirish orqali ishlar ta’sirchanligini oshirish maqsadida Prezidentimiz SH.Mirziyoyev tashabbusi bilan har haftaning payshanba kuni – “Huquqbuzarliklar profilaktikasi kuni” etib belgilandi va bugungi kunda joylarda bu amaliyot o‘zining ijobiy samarasini bermoqda.

Shu bilan birga keng jamoatchilik tomonidan katta qiziqish bilan kutib olingan, 2019-yilning 19-mart kuni O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti raisligida bo‘lib o‘tgan videoselektor yig‘ilishida yoshlarga e’tiborni kuchaytirish, yosh avlodni madaniyat, san’at, jismoniy tarbiya va sportga keng jalb etish, ularda axborot texnologiyalaridan to‘g‘ri foydalanish ko‘nikmasini shakllantirish, yoshlar o‘rtasida kitobxonlikni targ‘ib qilish, xotin-qizlar bandligini ta’minlash masalalariga katta ahamiyat berildi. Ma’lumki, ushbu tadbirda davlat rahbari yoshlar yo‘nalishidagi ishlarni yangi tizim asosida yo‘lga qo‘yish bo‘yicha 5 ta muhim tashabbusni ilgari surgan edi. Hozirda har yili “Besh muhum tashabbus Olimpiadasi” O‘tkazilib kelinmoqda. Ushbu musobaqalar va ilm fan tanlovlarini o‘quvchilar orasida jinoyatchilikni oldini olish va ularni jamoatchilik ishlariga ham jalb qilish uchun muhim ahamiyat kasb etmoqda.

MUSIQA MADANIYATI VA MUSIQIY TARBIYA

Dilafruz Salimova
Nizomiy nomidagi O‘zbekiston milliy pedagogika universiteti “Musiqiy ta’lim” kafedrasi katta o‘qituvchisi
Ergashboyeva O'g'iloy
Nizomiy nomidagi O‘zbekiston milliy pedagogika universiteti “Musiqiy ta’lim” kafedrasi 202- guruh talabasi
https://doi.org/10.5281/zenodo.23178450

Annotatsiya: *Mazkur maqolada o‘zbek madaniyatining murakkabligi va serqirraliligi to‘g‘risida ma’lumotlar berilgan bo‘lib, Sharq allomalarining abadiyati va u qoldirgan adabiy meros, uning ko‘plab yozgan asarlari haqida so‘z yuritiladi, shuningdek, bugungi kunda O‘zbekiston Respublikasi hukumati tomonidan madaniyat va san’atga berilayotgan katta e’tibor hamda madaniyatimizning rivojini qo‘llab-quvvatlashga xizmat qilmoqda.*
Kalitli so‘zlar: *madaniyat, san’at, millat, milliy, musiqa, cholg‘u, tadqiqot, ijod, tarbiya.*

Madaniyat murakkab va serqirra hodisa. Jahon xalqlari madaniyati tarixi, o‘ziga xos xususiyatlari, milliy madaniyatlarning o‘zaro ta’siri jarayonini har tomonlama ob’ektiv va ilmiy yoritish, ularga xos qonuniyatlarni chuqurroq tushunishga, sodir bo‘layotgan o‘zgarishlarni optimallashtirishga yordam beradi.

Har bir fan o‘z tadqiqot metodlariga ega. Mustaqillik sharoitida o‘zbek madaniyati erishgan yutuqlar, madaniy hayotimizda sodir bo‘layotgan ijobiy o‘zgarishlarni chuqur tahlil qilish, ularning mamlakatimiz buyuk kelajagini ta’minlash va komil insonni tarbiyalashdagi o‘rni va ahamiyatini ko‘rsatib berish kishilarda ertangi kunga ishonch tuyg‘usini tarbiyalashga mustahkam zamin yaratadi. Har bir davr oldingi davr yutuqlariga tayanadi. Shunday ekan, rivojlanish manbai yillar osha kengayib, ko‘lamlilik kasb etishiga shubha qilmasa ham bo‘ladi. Bu o‘z navbatida madaniyatning yangidan-yangi qirralarini shakllanishiga sharoit yaratishi tabiiy, albatta.

Go‘dak hayotga qadam qo‘yar ekan, avvalo o‘zini bevosita o‘rab turgan kishilar – ota-ona, aka-opalari yordamida to‘plangan tajribani o‘zlashtirib boradi. Keyinchalik bu doira kengayib borib, unga ta’lim tizimi, fan adabiyot, san’at asarlari kelib qo‘shiladi. Inson endi ular yordamida o‘tmishda to‘plangan tajribani o‘zlashtira boradi. Bu tajriba, bilim, unga har bir kuzatilayotgan hodisani o‘z tanasida his qilish, sinab ko‘rish, tekshirish zaruriyatini yo‘qqa chiqarib, oldin erishilgan natijalarni faoliyat dasturi sifatida qabul qilishga olib keladi. Dastlab bilimlar, qadriyatlar og‘zaki shaklda uzatilgan bo‘lsa, yozuvning kashf qilinishi kitobat ishiga yo‘l ochdi. So‘ngra gazeta va jurnallar, bir oz keyinroq radio va televidenie paydo bo‘ldi. Bugungi kunda internet tizimi jadal rivojlanib bormoqda.

Mazkur misollar madaniy qadriyatlarga bo‘lgan ehtiyojni qondirish usullari, shakllari ham uzluksiz takomillashib, qamrov doirasi kengayib borayotganini ko‘rsatadi. Kundalik hayotda har xil omillar ta’sirida o‘zimiz uchun yangi bo‘lgan qadriyatlarga duch kelamiz. Ularga o‘zimizda shakllangan madaniy qadriyatlar nuqtai nazaridan kelib chiqib, ijobiy yoki salbiy, chiroyli yoki xunuk, adolatli yoki adolatsiz, deb baho beramiz. Bizga manzur yoki nomanzur bo‘lgan jarayon, voqea-hodisalarni, adabiyot, san’at, kino, musiqa asarlarini yaxshi yoki yomon hodisalar sifatida baholaymiz. Bunday paytda ayniqsa, baholanayotgan hodisa o‘zga madaniyatga tegishli bo‘lsa, o‘zimiz mansub bo‘lgan madaniyat ruhimizga singdirgan qadriyatlar tizimi ustuvor bo‘ladi va butun bo‘y-basti bilan o‘zligini namoyon qiladi.

O‘tmish madaniy merosini millat ma’naviy dunyosining tarkibiy qismiga aylantirish, uni ijodiy o‘zlashtirish, unga yangi mazmun va ma’no berish milliy-madaniy taraqqiyotning bir tomoni xolos. Ushbu jarayonning ikkinchi, yanada ahamiyatli tomoni, madaniyatning yangilanishi, yangi, betakror va noyob hodisalarning paydo bo‘lishi, umuminsoniy madaniyatning yangidan-yangi qatlamlarining o‘zlashtirilishidir. Bu siz madaniyat rivojlanishini ta’minlab bo‘lmaydi. San’at sohasida yangilanish yangi ifoda usullari, janrlarning kirib kelishi, ayni paytda, u yoki bu konkret san’at asarlarining kishilar dunyoqarashi, ma’naviy dunyosining boyishiga ta’siri hamda ijodkorlarning ular ta’sirida yangicha mazmun bilan sug‘orilgan san’at namunalarini yaratishdek serqirra jarayonlarni qamrab oladi.

Musiqa milliy qiyofani belgilab beradigan, inson qalbiga ezgu g‘oyalar, beg‘ubor tuyg‘ularni singdiradigan omillardan biri hisoblanadi. Shu nuqtai nazardan qaraganda, xalqimiz qadimdan yuksak musiqiy salohiyatga ega bo‘lganini alohida qayd etish lozim. Cholg‘u ijrochiligida milliy musiqa cholg‘ularining o‘ziga xos o‘rni bor. Musiqa cholg‘ulari, cholg‘u ijrochiligi har bir davrda musiqa ilmining amaliy va nazariy taraqqiyotiga asosiy manba hisoblanib, xalq cholg‘ulari har bir millatning milliy musiqa ijrochiligiga mos ixtiro qilinadi.

Musiqa cholg‘ulari ijrosida, har bir millatning musiqa ijrochiligiga xos milliy musiqiy sadolanish qoidalari, milliy musiqiy ijro tuzilmalari, ijrochilik maktablari, musiqiy holat, musiqiy asarlar, ijro bezaklari, mahorat va boshqa musiqa ijrochiligiga mansub masalalar namoyon bo‘ladi. Chunki, milliy musiqa cholg‘ularida asosan ko‘proq har bir xalqning milliy musiqa merosiga oid musiqiy asarlari ijro etiladi va shu bois xalq cholg‘ulari deb ataladi. Har bir millatning musiqa merosi, milliy musiqa cholg‘ularining ijrolaridagi sadolanishi bilan bir-biridan farq qiladi va ijro musiqiy asarlarni qaysi millatga mansubligidan darak beradi. Bizda cholg‘u ijrochiligi yildan-yilga boyib, takomillashib, rivojlanib bormoqda. Keyingi yillarda cholg‘u ijrochiligiga alohida e’tibor berilib, umumiy o‘rta ta’lim maktablarida kamida 2-3ta milliy musiqa cholg‘ularining ijrolari o‘rganilmoqda.

O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasida kadrlar tayyorlashning ma’no-mazmunini tubdan yangilash, xalqaro standartlar darajasida oliy malakali mutaxassislar tayyorlash uchun zarur sharoitlar yaratishga doir muhim masalalar belgilangan. Shaxs axloqiy madaniyati shakllanishida tizimli va aniq maqsadga yo‘naltirilgan tarbiyaning o‘rni va ahamiyati beqiyosdir. Bunda har bir insonga individul tarzda yondashish hamda axloqiy madaniyatni kamol toptirishning muhim yo‘nalishi hisoblangan o‘z-o‘zini tarbiyalashga alohida e’tibor talab qilinadi. Chet elda paydo bo‘lgan opera, balet, kino kabi madaniyat hodisalari ta’sirida o‘zimizning betakror va o‘ziga xos milliy opera, balet, kino, musiqa san’atimiz shakllandi. Ayni paytda, bu sohalarda erishgan yutuqlarimiz, betakror san’at asarlarimiz va yetuk ijodkorlarimiz faoliyati qo‘shni xalqlarda ushbu sohalar rivojiga u yoki bu tarzda ta’sir ko‘rsatayotgani ham hech kimga sir emas. Demak, bir madaniyat doirasida shakllangan hodisalar boshqa madaniyatlarga singishi, milliy ruh bilan sug‘orilgan holda o‘z doirasidan tashqariga chiqishi, ya’ni yangidan internatsional mazmun kasb etishi mumkin.

Shu bois ta’lim - tarbiya jarayonlarini to‘g‘ri tashkil etish-o‘ta muhim ijtimoiy masaladir. To‘g‘ri va to‘laqonli tarbiya topgan hamda kuchli bilim va kasb-hunar sohiblari jamiyatning rivojlatiruvchi kuchi hisoblanadi. Yoshlarning umuminsoniy va milliy qadriyatlar negizidagi dunyoqarashi ilmiy va dunyoviy bilimlar bilan uyg‘unlashtirilganda ko‘zlangan maqsadga erishiladi. Yoshlar iste’dodini har tomonlama kamol toptirish, musiqa san’ati rivoji asosida tarbiya uchun zarur shart-sharoitlar yaratish, boshlang‘ich musiqa ta’limi, bolalar musiqa va san’at maktablari faoliyatini tubdan takomillashtirish ishlarini yangi, yanada yuksak pog‘onaga olib chiqish uchun mustahkam zamin yaratmoqda. Keyingi yillarda yurtimiz shahar va qishloqlarida har jihatdan e’tiborga sazovor ibratli an’ana yuzaga keldi.

Bayramlar, tantanalar, tadbirlarda albatta, musiqa va san’at maktablari tarbiyalanuvchilarining ijodiy ishlarining ko‘rgazmalari, yosh iste’dodlarning chiqishlari barchaga quvonch ulashmoqda. Bu maktablar xuddi san’at chashmalari kabi avvalo o‘z hududidagi ota-onalar, tengdoshlarining ma’naviy ehtiyojlarini qondirishga xizmat qilayotganligi yoshlar tarbiyasiga ta’sirchan vosita sifatida xizmat qilmoqda.

Inson zoti borki, uning har birida o‘ziga xos talant, iste’dod va iqtidor bo‘ladi, albatta. Insonning yaratuvchilik va buzg‘unchilikdek qarama-qarshi va ziddiyatli faoliyatini nazorat qilish, tartibga tushirish uchun uzoq yillar davomida ko‘plab chora-tadbirlar o‘ylab topilishi va amaliyotda sinab ko‘rilishi samarali natija berishi muqarrardir. Bugungi kunda yoshlarimiz o‘quv dargohlarida, radio-televidenie, matbuot, internet kabi vositalar orqali rang-barang axborot va ma’lumotlarni olmoqda. Yoshlarimizning ma’naviy olamida bo‘shliq vujudga kelmasligi uchun ularning qalbi va ongida sog‘lom hayot tarzi, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat-ehtirom tuyg‘usini shakllantirishimiz zarur.

Mustaqillik yillarida ulug‘ bobolarimizning an’analarini davom ettirgan holda, mamlakatimizda musiqa madaniyati va tarbiyani keng rivojlantirishga qaratilgan dastur va rejalar ishlab chiqilib, amalga oshirilmoqda. Kelajagi buyuk davlatni qurish uchun eng avvalo ma’naviy kamol topgan insonlarni tarbiyalash muhim vazifadir. Buning uchun tarbiyaga ta’sir etuvchi barcha shakl, usul va vositalaridan samarali, unumli foydalanish birlamchi galdagi vazifa bo‘lmog‘i lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston respublikasini yanada rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishlari bo‘yicha “Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni. // “Xalq so‘zi” gazetasi 2017 yil 8 fevral soni
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 2 fevraldagi “Madaniyat va san’at sohasini yanada rivojlantirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Qarori. // www. ziyonet. uz.
3. Fitrat A. O‘zbek klassik musiqa tarixi.
4. Odilov A. O‘zbek xalq cholg‘ularida ijrochilik tarixi.
5. Lutfullaev A. O‘zbek xalq cholg‘ularida ijrochilik san’ati tarixi. – Toshkent, 2006

YOSHLARNI VATANPARVARLIK RUHIDA TARBIYALASHDA MUSIQA SAN’ATINING O‘RNI

Dilafruz Salimova
Nizomiy nomidagi O‘zbekiston milliy pedagogika universiteti “Musiqiy ta’lim” kafedrasi katta o‘qituvchisi
https://doi.org/10.5281/zenodo.23178899

Annotasiya: *Maqolada bugungi kun yoshlarini vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda musiqaning ahamiyati, uning inson ruhiyatiga ta’siri xususidaga fikr-mulohazalar bayon etilgan. Shuningdek, “Vatan” so‘zining tushunchasi, ma’nosi, tuyg‘usi kabi hissiyotlarni, shu bilan birga har bir inson o‘zining kasbiy hamda mehnat faoliyati davomida vatanparvarlik ruhida yondashish, uning mazmun-mohiyatini kengaytirish, musiqa san’atining o‘rnini yoritishga bag‘ishlangan.*
Kalit so‘zlar: *vatan, vatanparvarlik, inson, tarbiya, ruhiyat, tarix, musiqa.*

Vatan – sajdagox kabi muqaddasdir

Inson yaralibdiki, Vatan so‘zining ma’nosini tushunishga, uning mohiyatini anglashga, qadrini bilishga intiladi. Kindik qoni to‘kilgan yurt, ona zamin, muqaddas Vatan uchun jon fido etgan buyuk ajdodlarimiz jasorati bu tabarruk tushuncha mazmunini yanada teranroq idrok etishga yordam beradi.

“Vatan” so‘zi yangrasa, tuyg‘ular jo‘sh urib, qalblarni ezgu hislar to‘ldiradi. Har bir avlod “Vatan” tushunchasini o‘zi uchun qaytadan kashf etadi va o‘z faoliyati bilan uning mazmun - mohiyatini kengaytirishga hissa qo‘shadi. SHu bois ham “Vatan” tushunchasi Vatanning bepoyon sarhadlari kabi keng.

Odamzot ikki narsani – Vatanni va ota - onani tanlash xuquqiga ega emas. Bir Vatan va xalqqa mansublik esa kishiga umr bo‘yi mas’uliyat yuklab boraveradi. Har ikkisini xam yomon nazar, yovuz kuchlardan himoya kilish – shu Vatan farzandi bo‘lgan har bir inson uchun oliy burch va sharafli vazifadir.

Vatan onadek tanho va yagona. Inson borki, uning qalbida Vatan tuyg‘usi yashaydi.

Turli sabablarga ko‘ra Vatanidan, yaqinlaridan uzoqda kun kechirishga majbur bo‘lgan musofirlar o‘z kindik qoni to‘kilgan zaminiga talpinib yashagani, ona yurt sog‘inchida o‘rtangani hakida ko‘p eshitganmiz.

Tole yo‘qe, jonimg‘a balolig‘ bo‘ldi,
Har ishniki ayladim, xatolig‘ bo‘ldi.
Uz erni ko‘yib, hind sori yuzlandim,
Yo rab, netay, ne yuz karolig‘ bo‘ldi.

Hind zaminida ulkan davlat barpo etgan, ilmu-fan, adabiyot va san’atda o‘chmas iz qoldirgan shoh va shoir, sarkarda Zahiriddin Muhammad Boburning Andijondan keladigan har bir xabarga mushtoq bo‘lgani, Vatandan keltirilgan mevalarni ko‘rganida yosh boladek o‘zini tutolmay yig‘laganiga ham shu sog‘inch sabab emasmu aslida? U o‘z davrining yirik va kudratli davlatlaridan biri –

Hindistondek mamlakat hukmdori bo‘la gurib, bir umr Andijonni, so‘lim Farg‘onani, bobolaridan meros Samarqandni qo‘msab o‘tdi. Ijodining salmoqli qismini Vatan sog‘inchiga bag‘ishladi.

O‘zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti Islom Karimov ta’kidlaganlaridek, **“Vatan – sajdagox kabi muqaddasdir”.** U oddiy tufroq emas, Vatan ajdodlar hayoti kechgan, ularning hoklari bilan muqaddaslashgan kutlug‘ makondir. Vatan – xalqning o‘tmishi, buguni va kelajagi mujassamlashgan yurt.

Tarix saxifalarida yurtimiz xokonlaridan biri haqida shunday rivoyat bor: Dushman hoqonni urushga tortish uchun turli bahonalar izlardi. SHu sabab uning sevgan otini so‘rabdi, chunki bu ot bir soatda ming farsax yo‘l bosarkan. Hoqon qurultoy chaqirib. urushning dahshatli oqibatlaridan ko‘ra sevgan otidan ajralmoqni afzal bilishini aytibdi. Dushman esa bahona izlardi. SHuning uchun kelasi gal uning sevgan yorini talab qilibdi. Jamiki beklar va qo‘shin boshliqlari larzaga kelib: “Bizni jangga yo‘lla! Ruxsagingni so‘raymiz, hukmdorim!” - deyishibdi. Hoqon izn bermabdi. ”Men yurtimni muhabbatim uchun qurbon qila olmayman!” – deb, boshiga tushgan musibatga chidabdi. Yana dushman tarafdan elchilar kelishibdi.

Bu gal ular mutlako unumsiz, yaydoq. qaqrok bir parchagina erni so‘rabdilar. Qurultoy yaroqsiz bir parcha erni berish bilan mamlakat bir narsa bo‘lib qolmasligini aytgan ekan, endi qoqon larzaga kelibdi: **“Vatan bizninggina mulkimiz emas, mozorda yotgan otalarimizning, qiyomatga qadar tug‘ilajak nabiralarimizning bu muqaddas tufroqda haqlari bor. Vatandan, bir qarich bo‘lsada, bermoqqa hech bir kishining haqqi yo‘q. Endi aniq urushamiz. Mening orqamdan olg‘a! Bo‘yin tovlaganlarga o‘lim!”-** deb, dushmanga sherdek tashlanibdi.

Uzbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari mamlakat mustakilligini va hududiy yaxlitligini mustahkam ta’minlamoqda, tinchlik va osoyishtalikni saqlamoqda, Uzbekiston Respublikasi davlat manfaatlarini himoya kilmoqda.

Ular xalqimizning tinch bunyodkor mehnatiga xalal bermoqchi bo‘lgan xar kanday yovuz niyatli kimsalarning bosqinchilik harakatlariga to‘siq bo‘lib kelmoqdalar. Bu yo‘lda Vatanimiz farzandlari hech ikkilanmay o‘z jonlarini fido qilishga tayyor ekanligini tarixning o‘zi isbotladi.

Surxondaryo viloyatining Sariosiyo, Uzun tumanlarida, Andijon va Toshkent viloyatida bo‘lib o‘tgan voqealarda harbiylarimiz ko‘rsatgan jasorat va matonat so‘zimizning yaqqol isboti bo‘la oladi. **Bu haqiqiy vatanparvarlik tarbiyasidir.**

Biz ularning ko‘rsatgan jasoratlari oldida bosh egamiz. Yurt tinchligi, Vatan himoyasi oddidagi burch ularni qahramonlikka undadi.

Aslida bu vaqtda harbiylarimiz qahramonlik ko‘rsatyapman, deb o‘ylashmagan. Ona zaminga mehr, Vatanga muhabbat, burchga, kasamyodga sadokat ularni jasorat ko‘rsatishga undagani aniq.

Ular ko‘rsatgan jasorat ortida vatanparvarlik, erksevarlik ruxida olingan tarbiya turibdi. Vatanparvarlik tarbiyasi borasida bugungi kunda qator ilmiy-tadqiqot ishlari

olib borilgan va bu jarayonlar davom etmoqda. Masalan: O‘zbekiston Qurolli Kuchlari akademiyasidan F.Boqievning “Yoshlarni harbiy vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda mudofaa ongining o‘rni: funksional yondashuv” mavzuidagi psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori uchun yozgan dissertatsiyasida uning psixolik aspektlarini tadqiq etilgan.

Har qanday tarbiya avvalom bor ona allasi orqali qalblarga jo bo‘ladi. Bu esa ohang, xirgoyi qolaversa musiqa orqali amalga oshiriladi.

Bugungi maqolamizda mana shundan mard va jasur yurt farzanlarini tarbiyalashda musiqa san’atining o‘rni va ahamiyati haqida bahs yuritamiz.

Musiqaning insonga ta’siri va uning tarbiyaviy ahamiyati haqida eramizdan oldingi IV asrdayoq grek faylosufi Platon shunday degan edi: ***“Eng katta tarbiyaviy omil musiqiy san’atdir. Zeroki, agar tarbiya to‘g‘ri yo‘lga qo‘yilgan bo‘lsa, ritm va garmoniya qalbga hammadan chuqur yo‘l topadi va salobat baxsh etadi, uni ko‘rkam qiladi, aks holda, uning teskarisi bo‘lib chiqadi”.*** Uning shogirdi Aristotel /Arastu/ bu fikrni quvvatlab: “Musiqa kishi ruhining axloqiy tomoniga ma’lum darajada ta’sir etadi, bas shunday ekan, u yoshlarni tarbiyalaydigan predmetlardan biri bo‘lib xizmat qilmog‘i lozim” – deb hisoblaydi.

Vatanparvarlik eng avvalo ona allasi orqali inson qon-tomiriga, jon-taniga singib ketadi. Keyinchalik atrof-muhit, ijtimoiy tarbiya unga ta’sir etadi va shakllanadi. O‘zining mustaqil fikriga ega bo‘ladi. Bu judayam murakkab va uzoq davom etadigan ta’lim-tarbiya jarayonidir. Lekin musiqaning inson hayotida tutgan o‘rni, uning inson ongi va tafakkuriga ta’sirini hisobga olib ta’lim-tarbiya jarayoni olib borilsa o‘ylaymanki bu katta natija beradi.

Ko‘rib turganingizdek, inson hayotida musiqaning o‘rni nihoyatda kuchli. Faqat tanlovda adashmasangiz bas. Go‘zal musiqa tinglang va hayotingiz ham chiroyli bo‘lsin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YHATI

1. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2023 yil 29 iyundagi “YOshlarni harbiy-vatanparlik ruhida tarbiyalash ishlari samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘rsida”gi 267-sonli Qarori. (Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi. 03.07.2023 y. 09/23/267/0438-son).
2. O‘zbekiston Respublikasining YOshlarni vatanparvarlik ruxida tarbiyalash Konsepsiyasi, T, 2018 y.
3. “Vatan aziz – jasorat mangu”. I.I.Altinov va boshqalar. T., 2017 y. G‘.G‘ulom nashriyoti.
4. O‘zbek tilining izohli lug‘ati. A.Mamadaliev tahriri ostida. “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi. Davlat ilmiy nashriyoti” Toshkent 2006. 444-445 bb.

ZAMONAVIY VA TEZKOR DAVRDA MILLIY TARBIYANING FUNKSIONAL TARMOQLANISH MODELLARI

Samijonova Dilnoza Abdugani qizi
NamDU tayanch doktoranti E-mail: samijonovadilnoza@gmail.com
https://doi.org/10.5281/zenodo.23178917

Annotatsiya

Ushbu maqolada zamonaviy va tezkor ijtimoiy o‘zgarishlar, globallashuv, raqamlashtirish hamda axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining rivojlanishi sharoitida milliy tarbiyaning funksional tarmoqlanish modellari ilmiy-nazariy jihatdan tadqiq qilingan. Milliy tarbiya nafaqat ta’lim muassasalarining vazifasi balki oila, mahalla, ta’lim, madaniyat va san’at, ommaviy axborot vositalari, raqamli makon, jamoatchilik hamda kasbiy muhitning o‘zaro hamkorligini talab qiluvchi ko‘p subyektli pedagogik-ijtimoiy tizim sifatida qaraladi. Maqolada milliy tarbiyaning oilaviy, institutsional, ijtimoiy-kommunikativ, raqamli-media, madaniy-estetik, fuqarolik va kasbiy funksional kabi modellari asoslab berilgan. UNESCOning ta’limda texnologiyalardan foydalanish bo‘yicha tadqiqotlari, milliy identifikatsiya va ta’lim munosabatlariga bag‘ishlangan empirik izlanishlar hamda O‘zbekistonda 2026-yilda qabul qilingan yoshlarni milliy qadriyatlarga sadoqat va vatanparvarlik ruhida tarbiyalash dasturi tahlil qilinadi. Tadqiqot natijasida “oila–ta’lim–mahalla–madaniyat–media–raqamli makon–fuqarolik jamiyati” integrativ modeli taklif etiladi va mana shu model asosida tarbiya va uning tarmoqlanish hamda kengayish ko’lami batafsil yoritilgan.

Kalit so‘zlar: *milliy tarbiya, milliy qadriyatlar, milliy identifikatsiya, tarbiya modeli, funksional tarmoqlanish, oila, mahalla, ta’lim, raqamli tarbiya, media savodxonlik, globallashuv, yoshlar, ma’naviy-axloqiy tarbiya, fuqarolik tarbiyasi.*

Аннотация

В статье рассматриваются функциональные модели разветвления национального воспитания в условиях современных быстрых социальных изменений, глобализации, цифровизации и развития информационно-коммуникационных технологий. Национальное воспитание рассматривается не только как задача образовательных учреждений, но и как многоуровневая социально-педагогическая система, объединяющая семью, образование, ахаллю, культуру и искусство, средства массовой информации, цифровую среду, общественные институты и профессиональную сферу. Анализируются семейная, институционально-образовательная, социально-коммуникативная, цифрово-медийная, культурно-эстетическая, гражданская и профессиональная модели национального воспитания. Особое внимание уделяется международным исследованиям UNESCO в области цифровых технологий в образовании, эмпирическим исследованиям взаимосвязи образования и национальной идентичности, а также программе Республики Узбекистан по повышению эффективности воспитания молодежи в духе приверженности национальным ценностям и патриотизма, утвержденной в 2026 году. На основе анализа предлагается интегративная модель «семья–образование–махалля–культура–медиа–цифровая среда–гражданское общество».

Ключевые слова: *национальное воспитание, национальные ценности, национальная идентичность, модель воспитания, функциональное разветвление, семья, махалля, образование, цифровое воспитание, медиаграмотность, глобализация, молодежь, духовно-нравственное воспитание, гражданское воспитание.*

Abstract

This article examines functional branching models of national upbringing in the context of rapid social changes, globalization, digitalization and the development of information and communication technologies. National upbringing is considered not merely as a responsibility of educational institutions but as a multidimensional socio-pedagogical system involving the family, education, mahalla, culture and arts, mass media, digital environments, civil society and professional settings. The article analyzes family-based, institutional-educational, social-communicative, digital-media, cultural-aesthetic, civic and professional models of national upbringing. Particular attention is paid to UNESCO research on technology in education, empirical studies on the relationship between education and national identity, and Uzbekistan’s 2026 program aimed at increasing the effectiveness of educating young people in the spirit of loyalty to national values and patriotism. Based on the analysis, an integrative “family–education–mahalla–culture–media–digital environment–civil society” model is proposed.

Keywords: *national upbringing, national values, national identity, upbringing model, functional branching, family, mahalla, education, digital upbringing, media literacy, globalization, youth, moral education, civic education.*

KIRISH

Shiddat bilan kechayotgan asrda ijtimoiy hayotning tezkor o‘zgarishi inson tarbiyasiga bo‘lgan an’anaviy yondashuvlarni qayta ko‘rib chiqishni va tarbiyaviy integratsiyani taqozo etmoqda. Globallashuv, migratsiya, raqamlashtirish, sun’iy intellekt, ijtimoiy tarmoqlar va yangi kommunikatsiya shakllari o’sib kelayotgan avlodning dunyoqarashi va qadriyatlar tizimiga bevosita ta’sir ko‘rsatmoqda.

Bugungi zamon yoshlari milliy qadriyatlar haqida faqat oila yoki maktabdan ma’lumot olmasdan, bir vaqtning o‘zida YouTube, Telegram, Instagram, TikTok, elektron kutubxonalar, onlayn ta’lim platformalari va boshqa raqamli manbalar orqali turli madaniy va axborot oqimlariga ro’baro’ kelmoqda. Shu sababli milliy tarbiya ham funksional jihatdan tarmoqlangan, o‘zaro bog‘langan va moslashuvchan tizim sifatida tashkil etilishi muhim.

Mamlakatimizda ushbu masalaning dolzarbligi davlat siyosati darajasida ham namoyon bo‘lmoqda. 2026-yil 28-yanvardagi Vazirlar Mahkamasi qarori asosida uzluksiz ta’lim tizimida yoshlarni milliy qadriyatlarga sadoqat va vatanparvarlik ruhida tarbiyalash dasturi tasdiqlandi. Unda maktabgacha, umumiy o‘rta, o‘rta maxsus, kasbiy va oliy ta’lim tashkilotlarida yagona milliy tarbiya tizimini shakllantirish hamda “O‘zbekistonning Milliy tarbiya” modelini ishlab chiqish belgilangan.

Ushbu holat milliy tarbiyani alohida tadbirlar yig‘indisi emas, balki turli ijtimoiy institutlarning funksional hamkorligiga asoslangan yaxlit tizim sifatida tadqiq etish zarurligini ko‘rsatadi

1. MILLIY TARBIYANING NAZARIY-METODOLOGIK ASOSLARI

Milliy tarbiya tushunchasi shaxsning muayyan xalqning tili, tarixi, madaniyati, urf-odatlari, ma’naviy-axloqiy qadriyatlari va fuqarolik mas’uliyatini anglash jarayonini ifodalaydi.

Biroq zamonaviy milliy tarbiya faqat an’analarni takrorlash bilan chegaralanmasligi kerak. Uning muhim vazifalaridan biri milliy qadriyatlarni zamonaviy ijtimoiy sharoit bilan uyg‘unlashtirishdir.

Shu nuqtai nazardan milliy tarbiyaning quyidagi uch komponentini ajratish mumkin:

1. Retrospektiv komponent — tarixiy xotira, ajdodlar merosi, milliy an’analar va madaniy qadriyatlarni o‘zlashtirish.

2. Aktual komponent — bugungi jamiyatda mas’uliyatli, bilimli, mehnatsevar va faol shaxs sifatida yashash.

3. Prospektiv komponent — kelajakni yaratishga qodir, innovatsion fikrlaydigan va milliy manfaatlarni umuminsoniy qadriyatlar bilan uyg‘unlashtira oladigan avlodni shakllantirish.

Demak, milliy tarbiyaning mohiyatini “o‘tmishni saqlash” bilangina emas, balki **“o‘tmish–bugun–kelajak” uzviyligi** bilan izohlash albatta maqsadga muvofiq.

2. TA’LIM VA MILLIY IDENTIKATSIYA: ILMIY TADQIQOTLAR TAHLILI

Milliy tarbiyaning ta’lim bilan aloqasi empirik tadqiqotlarda ham o‘z ifodasini topgan. Masalan, ta’limning yoshlarning milliy identifikatsiyasiga ta’sirini o‘rgangan tadqiqotd 375 nafar qatnashchi ishtirok etgan. Tadqiqot natijalarida ta’limning milliy identifikatsiya shakllanishiga hissa qo‘shishi qayd etilgan.

Bu fakt milliy tarbiyaning institutsional modelini asoslash uchun muhimdir. Chunki maktab va oliy ta’lim muassasalari nafaqat bilim berish, balki shaxsning jamiyat, tarix va milliy jamoaga mansublik haqidagi tasavvurlarini shakllantirishda ham ishtirok etadi.

Biroq zamonaviy sharoitda ta’lim muassasasining o‘zi yetarli emas. Chunki o‘quvchining kunlik axborot muhiti maktab chegaralaridan ancha keng.

UNESCOning 2023-yilgi Global Education Monitoring Report hisobotida 2022-yilga kelib dunyo internet foydalanuvchilari ulushi 66 foizga yetgani, quyi o‘rta ta’lim maktablarining taxminan 50 foizi pedagogik maqsadlarda internetga ulanganligi qayd etilgan.Ya’ni axborot oqimining kengayish darajasi Kundan kunga o’sib bormoqda.

Bu ko’rsatgichlar raqamli muhitni tarbiya tizimining mustaqil funksional tarmog‘i sifatida ko‘rish zarurligini ko‘rsatadi.

3. MILLIY TARBIYANING FUNKSIONAL TARMOQLANISH MODELLARI

3.1. Oilaviy model

Oila milliy tarbiyaning boshlang‘ich va tabiiy instituti hisoblanadi.

Oilada bola:

- ona tilini;

- muomala madaniyatini;
- kattalarga hurmatni;
- oilaviy an’analarni;
- mehnatga munosabatni;
- milliy urf-odatlarni

maishiy va kundalik amaliyot orqali o‘zlashtiradi.

Oilaviy modelning asosiy funksiyasi — qadriyatlarni bevosita hayotiy tajriba orqali uzatish.

Zero, milliy tarbiya samaradorligini oshirishda ota-onalarning pedagogik madaniyati nihoyatda muhim ahamiyatga ega.

3.2. Ta’limiy-institutsional model

Umumiy o’rta ta’lim maktablari, professional ta’lim va oliy ta’lim milliy tarbiyaning tizimli va maqsadli tashkil etiladigan tarmog‘i hisoblanadi.

Mazkur modelda tarix, adabiyot, ona tili, san’at, huquq, falsafa, fuqarolik ta’limi va boshqa fanlar orqali milliy qadriyatlarning mazmuni ilmiy asosda yoritib beriladi.

2026-yilda O‘zbekistonda qabul qilingan dasturda maktabgacha ta’limdan oliy ta’limgacha bo‘lgan tizimda yagona milliy tarbiya tizimini yaratish ko‘zda tutilgani ushbu modelning uzluksizligini ta’minlashga qaratilgan.

Ushbu dasturda yosh bosqichlariga mos tarbiyaviy vazifalar ham belgilangan:

- 3–6 yosh — milliy o‘zlikning dastlabki elementlarini rivojlantirish;
- 7–18 yosh — ma’naviy meros, mustaqil qaror, bag‘rikenglik, burch va mas’uliyatni shakllantirish;
- 16–22 yosh — milliy qadriyatlarga hurmat, faol fuqarolik pozitsiyasi va vatanparvarlikni rivojlantirish kabilardan iborat.

Bu yondashuv milliy tarbiyaning yoshga mos va bosqichma-bosqich modeli sifatida ilmiy ahamiyatga ega.

4. MAHALLA VA JAMOATCHILIK MODELI

O‘zbek jamiyatida mahalla milliy tarbiyaning o‘ziga xos ijtimoiy instituti hisoblanadi.

Mahalla:

oila ↔ maktab ↔ jamoatchilik

o‘rtasida vositachi funksiyani bajarishi mumkin.

Mahalla modelining asosiy funksiyalari:

- ijtimoiy birdamlikni mustahkamlash;
- avlodlararo aloqani ta’minlash;
- ijtimoiy mas’uliyatni shakllantirish;
- milliy an’analarni amaliy hayotda davom ettirish;
- yoshlarning bo‘sh vaqtini mazmunli tashkil etish.

Albatta, ushbu o’rinda mahalla milliy tarbiyaning “ijtimoiy laboratoriyasi” sifatida talqin qilinishi mumkin.

5. RAQAMLI-MEDIA MODELI

Zamonaviy milliy tarbiyaning eng muhim yangi tarmoqlaridan biri raqamli-media muhiti hisoblanadi.

UNESCOning 2023-yilgi tadqiqotlari texnologiyaning ta’limdagi imkoniyatlari bilan bir qatorda uning ta’siri doimo avtomatik ravishda ijobiy bo‘lmasligini ko‘rsatadi. Hisobotda texnologiyadan foydalanishning ta’siri bo‘yicha dalillar aralash ekanligi va texnologiya insonlararo ta’limiy munosabatlarning o‘rnini to‘liq egallamasligi kerakligi ta’kidlanadi.

Shuning uchun milliy tarbiyaning raqamli modeli ikki vazifani bajarishi zarur:

birinchisi — milliy qadriyatlarni raqamli kontentga aylantirish;

ikkinchisi — yoshlarni raqamli axborotni tanqidiy va obyektiv baholashga o‘rgatish.

Bunda:

- milliy tarix bo‘yicha podkastlar;
- elektron kutubxonalar;
- virtual muzeylar;
- milliy adabiyotning raqamli nashrlari;
- tarixiy shaxslar haqida videolar;
- interaktiv ta’lim platformalari;
- media savodxonlik kurslari

kabi vositalardan foydalanish mumkin.

UNESCO ma’lumotlariga ko‘ra, raqamli ko‘nikmalar ham jamiyatda teng taqsimlanmagan: masalan, Braziliyada asosiy raqamli ko‘nikmalarga ega kattalar ulushi shaharlarda qishloqlarga nisbatan ikki baravar yuqori bo‘lgan.

Demak, raqamli milliy tarbiya modelida **raqamli tengsizlik** masalasi ham hisobga olinishi lozim.

6. MADANIY-ESTETIK MODEL

Milliy tarbiyaning muhim funksional tarmoqlaridan yana biri madaniyat va san’atdir.

Adabiyot, musiqa, teatr, kino, tasviriy san’at, xalq amaliy san’ati va milliy me’morchilik shaxsning milliy-estetik dunyoqarashini shakllantirish imkonini beradi.

Ushbu modelning asosiy xususiyati shundan iboratki, unda qadriyatlar faqat tushuntirilmaydi, balki badiiy obraz, hissiy tajriba va ijodiy faoliyat orqali o‘zlashtiriladi.

Shuning uchun milliy tarbiya modelida muzey, teatr, kutubxona, ijodiy to‘garaklar va madaniyat markazlarini tarbiyaviy jarayonning faol subyektlariga aylantirish maqsadga muvofiq.

O‘zbekistonda 2024-yilda yoshlarning ijodiy salohiyatini rivojlantirish maqsadida Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi tomonidan Badiiy akademiya, Yozuvchilar uyushmasi va teatrlar bilan hamkorlik yo‘lga qo‘yilgani ham mazkur funksional integratsiyaning amaliy ko‘rinishidir.

7. FUQAROLIK-TARBIYAVIY MODEL

Milliy tarbiya milliy mansublikni anglash bilan birga fuqarolik mas’uliyatini ham shakllantirishi kerak.

Uning tarkibiga:

- qonunga hurmat;
- jamiyat manfaatlariga daxldorlik;
- ijtimoiy faollik;
- bag‘rikenglik;
- mas’uliyat;
- vatanparvarlik;
- ekologik madaniyat;
- jamoat mulkiga ehtiyotkor munosabat

kabi komponentlar kiradi.

Bu modelda “Vatanga muhabbat” abstrakt shior sifatida emas, balki **kundalik ijtimoiy xulq-atvor** orqali namoyon bo‘lishi kerakligi ko’rsatib o’tilgan.

8. KASBIY-MEHNAT MODELI

Tezkor jamiyatda milliy tarbiyaning funksional tarmoqlanishi mehnat va kasbiy faoliyatni ham qamrab oladi.

Mehnatsevarlik, halollik, mas’uliyat, kasbga sadoqat, intizom va tashabbuskorlik milliy tarbiyaning amaliy natijalaridan biridir.

Shu sababli:

milliy qadriyat → mehnat madaniyati → kasbiy mas’uliyat → ijtimoiy foyda

zanjirini shakllantirish zarur.

Bunday yondashuv milliy tarbiyani faqat ma’naviy-ma’rifiy tadbirlar doirasidan chiqarib, real hayot faoliyati bilan bog‘laydi.

9. FUNKSIONAL TARMOQLANISHNING INTEGRATIV MODELI

Yuqoridagi tahlillar asosida milliy tarbiyaning zamonaviy integrativ modelini quyidagicha ifodalash mumkin:

OILA ↓
TA’LIM ↓

MADANIYAT VA SAN’AT ↓
RAQAMLI-MEDIA MUHIT ↓
MILLIY VA UMUMINSONIY QADRIYATLARGA ASOSLANGAN SHAXS

Mazkur model asosida tarmoqlar bir-biridan ajralgan holda emas, balki **gorizontal va vertikal integratsiya** asosida faoliyat yuritadi.

Vertikal integratsiya — bolaning yosh bosqichlari bo‘yicha tarbiyaning uzluksizligi.

Gorizontal integratsiya — oila, maktab, mahalla, madaniyat, media va jamoatchilikning birgalikdagi faoliyati.

Shunday qilib, milliy tarbiya modeli “bir subyekt – bir vazifa” tamoyilidan “ko‘p subyekt – yagona tarbiyaviy maqsad” tamoyiliga o‘tishi kerak.

10. ZAMONAVIY TADQIQOTLAR ASOSIDA MILLIY TARBIYANI RIVOJLANTIRISH YO‘NALISHLARI

Ilmiy tadqiqotlar milliy tarbiya tizimida raqamli muhitni hisobga olish zarurligini ko‘rsatmoqda.

Qozog‘iston yoshlarining 2026-yilda qadriyatlar transformatsiyasini o‘rganilgan, tadqiqotda 15–25 yoshdagi 210 nafar qatnashchi ishtirok etgan. Tadqiqotda oila, kattalarga hurmat va milliy an’analar kabi an’anaviy qadriyatlar o‘zini ro‘yobga chiqarish, erkinlik va raqamli o‘zini namoyon qilish kabi yangi qadriyatlar bilan birga mavjudligi tahlil qilingan. Tadqiqotchilar buni qadriyatlarning “gibrid modeli” shakllanayotganligi bilan izohlagan va raqamli platformalar milliy identifikatsiyani qayta talqin qilish va uzatish makoniga aylanayotganini namoyon etgan.

Bu tadqiqot esa O‘zbekiston uchun to‘g‘ridan-to‘g‘ri statistik dalil emas, balki Markaziy Osiyodagi o‘xshash ijtimoiy-madaniy sharoitlarda kuzatilayotgan tendensiyaga oid ilmiy dalil sifatida qimmatlidir.

Shuningdek, 2026-yildagi boshqa bir tadqiqotda 1264 nafar talaba ishtirokidagi tajriba asosida raqamli muhitdagi “idrok–baholash–harakat–teskari aloqa” modelining yoshlarning g‘oya va qadriyatlar bilan ishlash jarayoniga ta’siri o‘rganilgan. Tadqiqotda raqamli teskari aloqaga asoslangan yondashuvning an’anaviy va oddiy raqamli modellar bilan taqqoslanganda yuqoriroq ishtirok ko‘rsatkichlarini bergani xabar qilingan. Ushbu natijani milliy tarbiyaga bevosita ko‘chirishdan oldin boshqa kontekstlarda qo‘shimcha tadqiqotlar o’tkazish lozim.

11. MILLIY TARBIYANING SAMARADORLIK MEZONLARI

Milliy tarbiya samaradorligini faqat o‘tkazilgan tadbirlar soni bilan o‘lchash metodologik jihatdan yetarli emas.

Quyidagi indikatorlardan foydalanish maqsadga muvofiq:

Yo‘nalish	Asosiy indikator
Milliy identifikatsiya	Tarix, til va madaniyatga ongli munosabat
Axloqiy tarbiya	Halollik, mas’uliyat va hurmat
Fuqarolik tarbiyasi	Ijtimoiy faollik va qonunlarga hurmat
Media tarbiya	Axborotni tanqidiy baholash
Raqamli tarbiya	Mas’uliyatli raqamli xulq-atvor
Madaniy tarbiya	San’at va milliy merosga qiziqish
Oilaviy tarbiya	Oila qadriyatlariga hurmat
Mehnat tarbiyasi	Mehnatsevarlik va kasbiy mas’uliyat
Bag‘rikenglik	Boshqa madaniyat va qarashlarga hurmat

Bunday indikatorlar tarbiya natijalarini faqat “tadbir o‘tkazildi” darajasida emas, balki **xulq-atvor va kompetensiyalar darajasida** baholash imkonini beradi.

XULOSA. Har bir davrning o’z sotsialistik talablari mavjudligini inobatga olgan holda zamonaviy va tezkor davrda milliy tarbiya an’anaviy “oila–maktab” modeli bilan chegaralanib qolmasligi kerak. Raqamlashtirish va globallashuv sharoitida shaxsning qadriyatlar tizimi bir vaqtning o‘zida bir nechta ijtimoiy va axborot muhitlari ta’sirida shakllanadi.

Tadqiqot natijasida milliy tarbiyaning quyidagi funksional tarmoqlari ajratildi:

- **oilaviy model** — milliy qadriyatlarni dastlabki hayotiy tajriba orqali uzatish;
- **ta’limiy model** — bilim va ilmiy dunyoqarash orqali milliy identifikatsiyani rivojlantirish;
- **mahalla-jamoatchilik modeli** — ijtimoiylashuv va avlodlararo uzviylikni ta’minlash;
- **raqamli-media modeli** — milliy kontent yaratish va media savodxonlikni rivojlantirish;
- **madaniy-estetik model** — san’at, adabiyot va madaniy meros orqali qadriyatlarni singdirish;
- **fuqarolik modeli** — milliy mansublikni ijtimoiy mas’uliyat bilan bog‘lash;
- **kasbiy-mehnat modeli** — milliy axloqiy qadriyatlarni mehnat va kasbiy faoliyatda namoyon qilish.

O‘zbekistonda 2026-yilda uzluksiz ta’lim tizimida milliy tarbiyaning yaxlit tizimini yaratish va Milliy tarbiya modelini ishlab chiqish bo‘yicha dastur qabul qilingani ushbu masalaning amaliy va davlat siyosati darajasidagi dolzarbligini ko‘rsatadi.

Bundan ko’rinadiki maqolada taklif etilayotgan “oila–ta’lim–mahalla–madaniyat–media–raqamli muhit–fuqarolik jamiyati–kasbiy muhit” integrativ

modeli milliy tarbiyani alohida tadbirlar majmuasidan yaxlit, uzluksiz va funksional tizimga aylantirish uchun metodologik asos bo‘lib xizmat qiladi.

Bunda asosiy metodologik tamoyil milliylikni zamonaviylikka qarama-qarshi qo‘yish emas, balki milliy qadriyatlarni zamonaviy bilim, raqamli savodxonlik, tanqidiy fikrlash, fuqarolik mas’uliyati va ijodkorlik bilan uyg‘unlashtirishdan iborat.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR.

1. UNESCO. *Technology in Education: A Tool on Whose Terms?* Global Education Monitoring Report, 2023. Raqamli ko‘nikmalar, media savodxonlik va ta’lim texnologiyalarining imkoniyatlari hamda cheklovlari bo‘yicha ma’lumotlar.

2. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi. *Uzluksiz ta’lim tizimida yoshlarni milliy qadriyatlarga sadoqat va vatanparvarlik ruhida tarbiyalash samaradorligini oshirish dasturi*. 2026-yil 28-yanvar. O‘zbekiston Respublikasi Hukumat portali
3. O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi. *2024-yil davomida yoshlarning ma’naviy-tarbiyasi masalalarida amalga oshirilgan ishlar*. 2025.
4. O‘zbekiston Respublikasi hukumati. *Ta’lim va innovatsiyalar*. Oliy ta’lim tizimini rivojlantirish va ta’lim sohasidagi zamonaviy islohotlar bo‘yicha ma’lumotlar
5. UNESCO. *Global Education Monitoring Report 2023: Technology in Education – A Tool on Whose Terms?* Paris: UNESCO, 2023. 22023 GEM Report+1
6. UNESCO. *2024 Youth Report: Technology in Education – A Tool on Our Terms!* Paris: UNESCO, 2024. Hisobot 8 mintaqadagi 1500 dan ortiq yoshlar va talabalar ishtirokidagi maslahatlashuvlarga asoslangan. UUNESCO
7. UNESCO. *2023 Global Education Monitoring Report: Recommendations*. UNESCO, 2023
8. *The Role of Education in Shaping Youth's National Identity*. Procedia – Social and Behavioral Sciences, Vol. 59, 2012, pp. 443–450. DOI: 10.1016/j.sbspro.2012.09.299.
9. Niyazgulova, A., Mukhanbet, A., Abdulina, N., Tanabayeva, A. *Values Transformation of Kazakhstani Youth in the Digital Age*.
10. Liu, C., Hu, Z. *Research on the Dynamic Feedback Mechanism of Youth Ideals and Beliefs Education in the Digital Era*. International Journal of Web-Based Learning and Teaching Technologies, Vol. 21, Issue 1, 2026. DOI: 10.4018/IJWLTT.418940.

TARBIYA FANINI O‘QITISHDA KOMPETENSIYAVIY YONDASHUV ASOSIDA 8–9-SINF O‘QUVCHILARINING KREATIV FIKRLASHINI RIVOJLANTIRISH TEXNOLOGIYASI

Samiyeva Dilbar Shukrullayevna
Navoiy davlat universiteti tayanch doktoranti
dilbarshukurlayevna@gmail.com
https://doi.org/10.5281/zenodo.23178933

Annotatsiya. *Mazkur maqolada umumiy o‘rta ta’lim maktablarida “Tarbiya” fanini o‘qitishda kompetensiyaviy yondashuv asosida 8–9-sinf o‘quvchilarining kreativ fikrlashini rivojlantirishning nazariy va metodik asoslari yoritilgan. Unda kreativ fikrlash muammoli vaziyatlarni anglash, turli g‘oyalarni ilgari surish, muqobil yechimlarni ishlab chiqish, ularni baholash va takomillashtirish bilan bog‘liq yaxlit pedagogik hodisa sifatida talqin etilgan.*
Kalit so‘zlar: *“Tarbiya” fani, kompetensiyaviy yondashuv, kreativ fikrlash, kreativ tafakkur, 8–9-sinf o‘quvchilari, kompetensiya, divergent fikrlash, pedagogik texnologiya, muammoli ta’lim, refleksiya, kreativ topshiriq.*
Аннотация. *В статье освещаются теоретические и методические основы развития креативного мышления учащихся 8–9 классов на основе компетентностного подхода при преподавании предмета «Воспитание» в общеобразовательных школах. Креативное мышление рассматривается как целостное педагогическое явление, связанное с осмыслением проблемных ситуаций, выдвижением различных идей, разработкой альтернативных решений, их оцениванием и совершенствованием. Проведен анализ содержания тем, вопросов и заданий учебников по предмету «Воспитание» для 8–9 классов с точки зрения их возможностей для развития креативного мышления.*
Ключевые слова: *предмет «Воспитание», компетентностный подход, креативное мышление, креативное мышление и деятельность, учащиеся 8–9 классов, компетенция, дивергентное мышление, педагогическая технология, проблемное обучение, рефлексия, креативное задание.*
Abstract. *This article examines the theoretical and methodological foundations of developing the creative thinking of 8th–9th grade students through a competency-based approach in teaching the subject “Education” in general secondary schools. Creative thinking is interpreted as an integrated pedagogical phenomenon associated with understanding problematic situations, generating different ideas, developing alternative solutions, evaluating them, and improving them.*
Keywords: *“Education” subject, competency-based approach, creative thinking, 8th–9th grade students, competency, divergent thinking, pedagogical technology, problem-based learning, reflection, creative task, project activity.*

Kirish. O‘zbekiston Respublikasida umumiy o‘rta ta’lim darsliklarining yangi avlodini yaratish, ularning mazmunini kompetensiyaviy yondashuv asosida takomillashtirish hamda o‘quv materiallarini o‘quvchilarning mustaqil, tanqidiy va kreativ fikrlashiga yo‘naltirish davlat ta’lim siyosatining muhim vazifalaridan biri sifatida belgilangan. Jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi PF–5712-son Farmoni bilan tasdiqlangan Xalq ta’limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasida o‘qitish metodikasini takomillashtirish, ta’lim mazmunini yangilash hamda o‘quv jarayoniga zamonaviy va innovatsion yondashuvlarni joriy etish nazarda tutilgan[1]. Bugungi globallashuv va jadal

axborotlashuv sharoiti o‘quvchi-yoshlarni tarbiyalash jarayoniga yangicha yondashish, ta’lim mazmunini zamonaviy pedagogik texnologiyalar bilan uyg‘unlashtirish hamda ularni amaliyotga izchil joriy etishni talab qilmoqda. Bu jarayonda “Tarbiya” fani o‘quvchilarning ma’naviy-axloqiy fazilatlari, ijtimoiy faolligi, mustaqil qaror qabul qilish ko‘nikmalari va kreativ fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirishda muhim o‘rin egallaydi. Shu jihatdan, umumiy o‘rta ta’lim maktablarining 8–9-sinflarida Tarbiya fanini kompetensiyaviy yondashuv asosida o‘qitish hamda o‘quvchilarni muammoli vaziyatlarni tahlil qilish, muqobil g‘oyalarni ilgari surish va noodatiy yechimlarni ishlab chiqishga yo‘naltiruvchi pedagogik texnologiyani takomillashtirish dolzarb ilmiy-pedagogik vazifalardan biri hisoblanadi. Mazkur vazifaning amalga oshirilishi Tarbiya darsliklaridagi mavzular, hayotiy vaziyatlar, savol va topshiriqlarning kreativ imkoniyatlarini tahlil qilishni, mavjud metodik holatni baholashni hamda kompetensiyalar bilan kreativ fikrlash komponentlarini o‘zaro integratsiyalashga xizmat qiluvchi nazariy va metodik yechimlarni ishlab chiqishni taqozo etadi.

Mazkur zaruratdan kelib chiqib, ushbu paragrafda 8–9-sinflarda “Tarbiya” fanini o‘qitishning uslubiy-metodik asoslari, fan konsepsiyasi va darsliklar mazmunida kompetensiyaviy yondashuvning ifodalanishi, shuningdek, o‘quvchilarning kreativ fikrlashini rivojlantirishga yo‘naltirilgan mavzu, savol va topshiriqlarning didaktik imkoniyatlarini tahlil qilish maqsad qilindi. Tahlil jarayonida darsliklarda qo‘llanilgan yondashuv, usul va metodlarning samarali jihatlari hamda mavjud metodik bo‘shliqlar aniqlanib, ularni bartaraf etishga qaratilgan ilmiy-nazariy va amaliy-metodik yechimlarni ishlab chiqish nazarda tutiladi.

Asosiy qism. Ta’lim ko‘plab o‘zaro bog‘liq omillar ta’sirida kechadigan murakkab pedagogik jarayondir. Uning natijadorligi o‘qituvchi va o‘quvchining faol ishtiroki, didaktik vositalar bilan ta’minlanganlik, o‘quv faoliyatining tashkiliy-metodik jihatdan puxta yo‘lga qo‘yilganligi hamda jamiyatda bilimga bo‘lgan ehtiyoj darajasiga bevosita bog‘liq. Bugungi ijtimoiy, siyosiy va iqtisodiy taraqqiyot ta’lim tizimi oldiga bilimli, tashabbuskor, mustaqil qaror qabul qila oladigan va jamoat hayotida faol qatnashadigan shaxsni shakllantirish vazifasini qo‘ymoqda. Shu sababli ta’limning barcha bosqichlarida yoshlarga faqat tayyor bilimlarni yetkazish bilan cheklanmasdan, ularda mustaqil, tanqidiy va ko‘p tomonlama fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etadi.

8–9-sinf “Tarbiya” fani konsepsiyasi va darsliklarida qo‘llanilgan uslubiy-metodik yondashuvlarning dastlabki tahlili shuni ko‘rsatadiki, ularda o‘quvchilarni mustaqil fikrlashga, hayotiy vaziyatlarni tahlil qilishga, o‘z munosabatini ifodalashga hamda amaliy faoliyatda ishtirok etishga undovchi muayyan didaktik imkoniyatlar mavjud. Xususan, 8-sinf darsligidagi “Ijodiy faoliyat”, “Aqlni charxlash uchun savol va topshiriqlar”, “Mulohaza uchun” hamda 9-sinf darsligidagi

“Faollashtiruvchi savollar”, “Amaliy faoliyat”, “Mustaqil faoliyat” va “Savol va topshiriqlar” ruknlari o‘quvchilarning bilish faolligini oshirishga xizmat qiladi. Biroq “ijodiy” yoki “amaliy” deb nomlangan barcha topshiriqlar ham kreativ fikrlashning ravonlik, moslashuvchanlik, originallik va batafsillik komponentlarini bir xil darajada rivojlantirmaydi. Ayrim topshiriqlarda tayyor ma’lumotni qayta bayon qilish, berilgan fikrni izohlash yoki yagona javobni aniqlashga yo‘naltirilgan reproduktiv faoliyat ustunlik qiladi. Bu esa mavjud topshiriqlarni kompetensiyaviy-kreativ mezonlar asosida takomillashtirish, ularni muammoli vaziyatlar, ochiq savollar, muqobil yechimlar, loyiha ishlari va refleksiv faoliyat bilan boyitish zaruratini yuzaga keltiradi.

8-sinf Tarbiya darsligi mundarijasi

MUNDARIJA

ASTOYDIL HARAKAT – EZGU MAQSADGA ERISHISH OMILI! 3

I BOB. TINCH VA XOTIRJAM YASHASH BAXTI

1–2-MAVZU: IFTIXORIMSAN – JANNATMAKON O‘ZBEKISTON! 4
3-MAVZU: MILLATLARARO HAMJIHATLIK 11
4-MAVZU: HAR BIR FARZAND VATAN HIMOYACHISI 15

II BOB. O‘Z-O‘ZINI ANGLASH

5–6-MAVZU: HAYOTDA O‘Z ISTAKLARIMIZNI ANGLASH 21
7–8-MAVZU: QAT’IY FE’L-ATVORNING MUHIMLIGI 27
9–10-MAVZU: QIYIN VAZIYATDA HISSIYOTLARNI BOSHQARISH 33
11-MAVZU: HAYOT – BETAKROR NE’MAT 43

III BOB. O‘ZGARISH, MASHAQQATLARNI YENGISH

12–13-MAVZU: TUSHKUNLIK VA BESARANJOMLIKNI BOSHQARISH 45
14-MAVZU: MASHAQQATLARNI YENGIB O‘TISH 51
15–16-MAVZU: TANQID VA TANQIDIY FIKRLASHNING MUHIMLIGI 58

**IV BOB. TARAQQIYOT VA BIZNES –
ILM-FAN VA YARATUVCHANLIK MEVASI**

17–18-MAVZU: FAN–TEXNIKA TARAQQIYOTI
VA INSON MA’NAVIYATI 62
19-MAVZU: ILM VA ZAKOVAT 69
20–21-MAVZU: TIL BILGAN – DUNYO KO‘RADI 75
22–23-MAVZU: VAQT – BEBAHO NE’MAT 81

V BOB. OILA VA SALOMATLIK

24–25-MAVZU: GO‘ZAL TARBIYA TAMOYILLARI 88
26-MAVZU: TABIAT VA INSON 94
27–28-MAVZU: TEJAMKORLIK – YAXSHI FAZILAT 97
29–30-MAVZU: XOTIRA – BUYUK QADRIYAT 103
GLOSSARIY 108

8-sinf “Tarbiya” darsligi mundarijasining tahlili uning mazmuni o‘zaro uzviy bog‘langan to‘rtta bob asosida shakllantirilganini ko‘rsatadi. Darslikda tinch va xotirjam hayot, o‘z-o‘zini anglash, hissiyotlarni boshqarish, hayotiy mashaqqatlarni yengib o‘tish, tanqidiy fikrlash, ilm-fan, zakovat, bunyodkorlik, go‘zal tarbiya hamda tabiatga mas’uliyatli munosabat kabi ma’naviy-axloqiy va ijtimoiy masalalar qamrab olingan. Mavzularning izchil joylashtirilishi o‘quvchining shaxsiy fazilatlarini anglashdan boshlab, ijtimoiy munosabatlar va jamiyat taraqqiyotidagi o‘z o‘rnini tushunishgacha bo‘lgan rivojlanish yo‘nalishini ifodalaydi. Darslikda mavzular mazmunini o‘zlashtirishga xizmat qiluvchi “Ijodiy faoliyat”, “Aqlni charxlash uchun savol va topshiriqlar”, “Mulohaza uchun”, “Bilasizmi?”, “Ma’naviyat xazinasidan” va “Darsdan ijobiy saboq chiqarib” kabi metodik ruknlardan foydalanilgan. Mazkur ruknlar o‘quvchilarning mavzu yuzasidan fikr bildirish, voqea-hodisalarni tahlil qilish, o‘z hayotiy tajribasiga murojaat etish va axloqiy xulosa chiqarishiga muayyan imkoniyat yaratadi. Ayniqsa, “Ijodiy faoliyat” hamda “Aqlni charxlash uchun savol va topshiriqlar” ruknlari o‘quvchilarning bilish

faolligi va mustaqil fikrlashini rag‘batlantiruvchi didaktik vosita sifatida ahamiyatlidir.

9-sinf Tarbiya darsligi mundarijasi


MUNDARIJA

I BOB YASHASHDAN MAQSAD – MUNOSIB HAYOT
1-mavzu: Ulug‘imsan, Vatanim! 6
2-mavzu: Yashamoq – o‘zidan yaxshi nom qoldirmoq 10
3–4-mavzu: Yuksalish – o‘zingni anglashdan boshlanadi 13
5-mavzu: Faol o‘quvchidan faol fuqarolikkacha 19
6–7-mavzu: Kelajakka sarmoya – vaqtni mazmunli o‘tkazish 23
8-mavzu: Baxt – oilada 29
9-mavzu: Baxtiyorlik – umrning bosh maqsadi 34

II BOB ILM-MA’RIFAT. INNOVATSIYA
10-mavzu: Buyuklarni aziz qilgan – bilim 40
11–12-mavzu: Tafakkur – kelajakka yetaklovchi vosita 45
13-mavzu: Bilimga asoslangan jamiyatda muvaffaqiyat qozonish 50
14-mavzu: Innovatsiya va ilg‘or fikrlash – taraqqiyot g‘ildiragi 54
15–16-mavzu: Tanqidiy fikrlash 58
17–18-mavzu: Liderlikka xos xususiyatlar 64

III BOB ORZU, MAQSAD VA MUVAFFAQIYAT
19-mavzu: Bizning kuchli va kuchsiz tomonlarimiz 72
20-mavzu: Maqsadga qanday erishiladi? 76
21-mavzu: Muvaffaqiyat – qimmatli tajriba mevasi 82
22–23-mavzu: O‘ziga ishonch – mo‘jizakor kuch 87
24-mavzu: Muloqot va ijtimoiy ko‘nikmalar 94
25-mavzu: Kelajak kasblari 97

IV BOB TADBIRKORLIK, G‘OYA VA BOYLIKDAN FOYDALANISH MEZONLARI
26-mavzu: Tadbirkorlik mezonlari 102
27–28-mavzu: Biznesni boshlash uchun zamonaviy g‘oyalar 107
29-mavzu: Frilanserlik – qo‘shimcha daromad manbai 113
30–31-mavzu: Insonni boy va qashshoq qiluvchi omillar 117
32-mavzu: Boylikdan foydalanish mezonlari 123

3

9-sinf “Tarbiya” darsligi mundarijasining tahlili uning mazmuni to‘rtta asosiy bob doirasida tizimlashtirilganini ko‘rsatadi. Birinchi bobda munosib hayot kechirish, o‘zlikni anglash, faol fuqarolik, vaqtdan samarali foydalanish va oilaviy baxt masalalari yoritilgan. Ikkinchi bob ilm-ma’rifat, tafakkur, innovatsiya, ilg‘or va tanqidiy fikrlash hamda liderlik sifatlarini rivojlantirishga yo‘naltirilgan. Uchinchi bobda o‘quvchilarning kuchli va zaif jihatlarini anglashi, maqsad belgilashi, muvaffaqiyatga erishishi, o‘ziga ishonchi, muloqot ko‘nikmalari va kelajak kasblarini tanlashiga oid mavzular jamlangan. To‘rtinchi bob esa tadbirkorlik, zamonaviy biznes g‘oyalari, frilanserlik va boylikdan oqilona foydalanish masalalarini qamrab olgan [manba raqami, 3-b.].

Darslik mavzularining mazmuniy ketma-ketligida o‘quvchining o‘zligini anglashdan ijtimoiy faollikka, bilim va tafakkurdan innovatsion faoliyatga, shaxsiy maqsaddan kasbiy istiqbol hamda tadbirkorlik tashabbuslariga tomon rivojlanish yo‘nalishi kuzatiladi. Mazkur tuzilma 14–15 yoshdagi o‘quvchilarning mustaqillikka intilishi, kelajak rejalarini belgilashi, o‘z imkoniyatlarini baholashi va jamiyatdagi o‘rnini anglash ehtiyojlariga muvofiq keladi. Shu jihatdan darslik mazmuni kommunikativ, axborot bilan ishlash, o‘zini o‘zi rivojlantirish va ijtimoiy faol fuqarolik kompetensiyalarini shakllantirish uchun muayyan didaktik imkoniyatlarga ega.

Kompetensiyaviy-kreativ mezonlar asosida olib borilgan tahlilda 9-sinf darsligidagi “Tafakkur — kelajakka yetaklovchi vosita”, “Innovatsiya va ilg‘or fikrlash — taraqqiyot g‘ildiragi”, “Tanqidiy fikrlash”, “Bizning kuchli va kuchsiz tomonlarimiz”, “Maqsadga qanday erishiladi?”, “Kelajak kasblari” hamda “Biznesni boshlash uchun zamonaviy g‘oyalar” mavzularining kreativ salohiyati nisbatan yuqori ekanligi aniqlandi. Ushbu mavzular o‘quvchilarga muammoni aniqlash, mavjud ma’lumotlarni tahlil qilish, yangi g‘oyalarni ilgari surish, muqobil yechimlarni taqqoslash va o‘z qarashlarini asoslash imkonini beradi. Biroq bunday imkoniyatning amaliy natijaga aylanishi faqat mavzu nomiga emas, undagi savol va topshiriqlarning ochiqligi, variativligi hamda produktiv faoliyatga yo‘naltirilganligiga bog‘liq.

Pedagogik texnologiyalar asosida o‘qitishda ta’lim oluvchining hayotiy tajribasi, ilgari egallagan bilimlari va shaxsiy qiziqishlari hisobga olinishi lozim. O‘quvchining bilim darajasi yetarli bo‘lmasa, bu uning shaxsiy aybi sifatida baholanmasligi kerak. Aksincha, o‘qituvchi o‘quvchida salbiy kechinmalar paydo bo‘lishining oldini olib, uning bilimlarni egallash imkoniyatiga ishonch bildirishiga ko‘maklashishi zarur.

Yangi mavzuni o‘zlashtirishda mavjud bilimlarni faollashtirish muhim ahamiyatga ega. O‘quvchining tayyorgarlik darajasini aniqlash unda ijobiy motivatsiyani yuzaga keltirib, bilish faolligini kuchaytiradi. Shu sababli darsning boshlanishida erkin suhbat, munozara, aqliy hujum va boshqa interfaol usullardan foydalanish maqsadga muvofiq.

Pedagogik texnologiyalar ta’lim amaliyotida quyidagi to‘rtta darajada namoyon bo‘ladi:

1. **Umumpedagogik daraja.** Bu daraja muayyan hudud, ta’lim muassasasi yoki uzluksiz ta’lim bosqichidagi yaxlit o‘quv-tarbiya jarayonini ifodalaydi. Unda ta’lim maqsadi, vazifalari, mazmuni, vosita va metodlari hamda pedagog va o‘quvchi faoliyatining umumiy algoritmlari qamrab olinadi. Mazkur darajada pedagogik texnologiya pedagogik tizim tushunchasiga yaqin mazmun kasb etadi.
2. **Xususiy metodik daraja.** Bunda muayyan fan yoki kursning maqsad va vazifalarini amalga oshirishga xizmat qiladigan ta’lim vositalari, o‘qitish metodlari va tashkiliy shakllar majmui tushuniladi.
3. **Lokal yoki modulli daraja.** Ushbu daraja o‘quv jarayonining ma’lum bir qismiga tegishli xususiy didaktik yoki tarbiyaviy maqsadni amalga oshirishga yo‘naltiriladi. O‘quvchilarning mustaqil ishlarini tashkil etish, bilimlarini nazorat qilish va shaxsiy sifatlarini shakllantirish shular jumlasidandir.
4. **Integrallashgan daraja.** Bu umumpedagogik, xususiy metodik va lokal texnologiyalarning o‘zaro birlashuvi natijasida yuzaga keladigan holatdir.

Unda ta’lim maqsadlariga erishish jarayonida o‘quvchilarning individual xususiyatlari hisobga olinib, tegishli metod va vositalardan kompleks foydalaniladi.

Mazkur darajalar bir-birini to‘ldiradi. Ta’lim texnologiyasi axborot va o‘quv materiali mazmunini modellashtirish, uni pedagogik jihatdan qayta ishlash, o‘rganilayotgan mavzuni o‘quvchilarning real bilish imkoniyatlariga moslashtirish hamda belgilangan talablar asosida natijalarni baholashni nazarda tutadi[2].

Xulosa. Kompetensiyaviy yondashuv asosida tashkil etilgan dars va tarbiyaviy tadbirlarda o‘quvchilarni muammoli vaziyatlarni tahlil qilish, mustaqil qaror qabul qilish, o‘z nuqtayi nazarini asoslash, muqobil g‘oyalarni ilgari surish va noodatiy yechimlarni izlashga yo‘naltirish alohida ahamiyat kasb etadi. Bunda muammoli topshiriqlar, keyslar, bahs-munozaralar, loyihaviy faoliyat, kreativ topshiriqlar va refleksiv mashqlardan maqsadli foydalanish o‘quvchilarda kreativ fikrlash, kognitiv moslashuvchanlik, tashabbuskorlik, hamkorlikda ishlash hamda yangi g‘oyalarni amaliy faoliyatga tatbiq etish ko‘nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Shu jihatdan, “Tarbiya” fani darslari bilan tarbiyaviy tadbirlarning o‘zaro integratsiyasi 8–9-sinf o‘quvchilarida tayanch va fanga oid kompetensiyalarni kreativ fikrlash komponentlari bilan uyg‘un holda rivojlantirishning muhim pedagogik vositalaridan biri sifatida qaraladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR.

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi PF–5712-son “O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi Farmoni.
2. N.A. Muslimov, Z.T.Rakhimov, Pedagogic technologies at the importace of environmental education. Europen research:: сборник статей XX Международной научно-практической конференции. – Пенза: МЦНС «Наука и Просвещение». – 2019. – 265 с.
3. Tilakova Mavjuda Ashurovna. VIII-IX sinf o‘quvchilarida sinfdan tashqari mashg‘ulotlarda kreativ qobiliyatlarni rivojlantirishning pedagogik shart-sharoitlari. Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. Chirchiq – 2019.
4. Erkinovna, Yuldasheva Malohat. “Development of the cognitive activity of future teachers in innovative educational conditions as a social pedagogical necessity.” International Journal of Social Science & Interdisciplinary Research, ISSN: 2277-3630, Impact factor: 7.429, 11.04 (2022): 196–199.
5. Sharopova Z.F. Ta’lim texnologiyalari. – Toshkent, 2019. – 14-bet.

RAQAMLI MUHITDA O‘SMIRLAR TARBIYASINI TASHKIL ETISHNING INSTITUTSIONAL MODELI VA IJTIMOIY-PEDAGOGIK BOSHQARUV MEXANIZMLARI

Samiyeva Shirin Abdumalik qiz
TPMI tayanch doktoranturasi 1- bosqich tayanch doktoranti(PhD)
shirinsamiyeva41@gmail.com
https://doi.org/10.5281/zenodo.23178958

Annotatsiya.
Mazkur maqolada raqamli muhit sharoitida o‘smirlar tarbiyasini tashkil etishning institutsional modeli va uni boshqarishning ijtimoiy-pedagogik mexanizmlari yoritilgan. Raqamli texnologiyalarning o‘smirlar hayotiga chuqur kirib borishi natijasida tarbiyaviy jarayonning mazmuni, shakllari va subyektlari o‘rtasidagi munosabatlarda yangi yondashuvlarni shakllantirish zarurati asoslangan. O‘smirlarning internet muhitidagi xulq-atvorini nazorat qilishdan ko‘ra, ularning raqamli savodxonligi, media madaniyati, tanqidiy fikrlashi, emotsional o‘zini boshqarishi va ijtimoiy mas’uliyatini rivojlantirishga yo‘naltirilgan tarbiyaviy tizim taklif etilgan. Shuningdek, maktab, oila, mahalla, psixolog va boshqa ijtimoiy institutlar hamkorligiga asoslangan institutsional model hamda uning diagnostik, profilaktik, korreksion va monitoring mexanizmlari tavsiflangan.
Kalit so‘zlar: *raqamli muhit, o‘smir, milliy tarbiya, agressiv xulq-atvor, institutsional model, ijtimoiy-pedagogik boshqaruv, media savodxonlik, oila, maktab, mahalla, profilaktika.*
Abstract.
This article examines the institutional model for organizing adolescent education in the digital environment and the socio-pedagogical mechanisms for its management. The increasing integration of digital technologies into adolescents’ lives necessitates the development of new approaches to the content and forms of educational activities, as well as to interactions among their participants. Rather than focusing solely on controlling adolescents’ behavior in the Internet environment, the article proposes an educational system aimed at developing their digital literacy, media culture, critical thinking, emotional self-regulation, and social responsibility. The article also describes an institutional model based on cooperation among schools, families, local communities, psychologists, and other social institutions, as well as its diagnostic, preventive, corrective, and monitoring mechanisms.
Keywords: *digital environment, adolescent, national education, aggressive behavior, institutional model, socio-pedagogical management, media literacy, family, school, local community, prevention.*
Аннотация.
В статье рассматривается институциональная модель организации воспитания подростков в условиях цифровой среды и социально-педагогические механизмы её управления. В связи с активным проникновением цифровых технологий в жизнь подростков обосновывается необходимость формирования новых подходов к содержанию и формам воспитательного процесса, а также к взаимодействию его субъектов. Вместо преимущественного контроля за поведением подростков в интернет-среде предлагается воспитательная система, направленная на развитие цифровой грамотности, медиакультуры, критического мышления, эмоциональной саморегуляции и социальной ответственности подростков. Также охарактеризованы институциональная модель, основанная на взаимодействии школы, семьи, махалли, психолога и других социальных институтов, а также её диагностические, профилактические, коррекционные и мониторинговые механизмы.

Ключевые слова: цифровая среда, подросток, национальное воспитание, агрессивное поведение, институциональная модель, социально-педагогическое управление, медиаграмотность, семья, школа, махалля, профилактика.

Kirish. Bugungi kunda raqamli texnologiyalarning jadal rivojlanishi yosh avlodning axborot olish, muloqot qilish, ta’lim olish va bo‘sh vaqtini tashkil etish imkoniyatlarini sezilarli darajada kengaytirmoqda. Shu bilan birga, raqamli muhit o‘smirlarning ijtimoiylashuvi va xulq-atvoriga ta’sir ko‘rsatuvchi muhim omillardan biriga aylanmoqda. O‘smirlik davrida shaxsning o‘zini anglash, mustaqil fikrlash, tengdoshlar bilan munosabat o‘rnatish va ijtimoiy mavqeini belgilash jarayonlari faol kechadi. Shu sababli raqamli makonda uchraydigan turli axborotlar, virtual muloqot shakllari, kiberbullying, tajovuzkor kontent va nizoli kommunikatsiyalar ayrim hollarda o‘smirlarning xulq-atvoriga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin.

Mazkur sharoitda tarbiyaviy faoliyatni faqat taqiqlash yoki nazorat qilish bilan cheklash yetarli emas. O‘smirni raqamli muhitdan butunlay ajratish emas, balki undan ongli, xavfsiz va mas’uliyatli foydalanish ko‘nikmalarini shakllantirish muhim pedagogik vazifaga aylanadi. Raqamli muhit va o‘smirlar tarbiyasining o‘ziga xos xususiyatlari. An’anaviy tarbiya jarayonida asosiy ta’sir subyektlari sifatida oila, ta’lim muassasasi va mahalla faoliyat yuritgan bo‘lsa, raqamli muhit sharoitida tarbiyaviy ta’sir manbalari yanada kengaydi. O‘smir kundalik hayotida nafaqat ota-ona va pedagoglar, balki ijtimoiy tarmoqlar, videoplatformalar, onlayn hamjamiyatlar va virtual tengdoshlar guruhlari bilan ham muntazam munosabatga kirishadi. Shu nuqtayi nazardan, zamonaviy tarbiya jarayonida ikki muhim muhit — real ijtimoiy muhit va raqamli ijtimoiy muhitning o‘zaro ta’sirini hisobga olish zarur. Bunday holatlar o‘smirning emotsional holati, tengdoshlar bilan munosabati va xulq-atvorida turli o‘zgarishlarni yuzaga keltirishi mumkin. Shuning uchun tarbiya jarayonida o‘smirning raqamli muhitdagi faoliyatini muntazam diagnostika qilish, xavf omillarini aniqlash va individual profilaktik yondashuvlarni amalga oshirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Raqamli muhitda o‘smirlar tarbiyasining institutsional modeli. Raqamli muhitda tarbiyaviy faoliyatni samarali tashkil etish uchun turli ijtimoiy institutlarning o‘zaro hamkorligiga asoslangan institutsional modelni shakllantirish maqsadga muvofiq.

Ushbu model quyidagi asosiy subyektlarni qamrab oladi: Oila → Ta’lim muassasasi → Mahalla → Maktab psixologi → Ijtimoiy-pedagogik xizmatlar → Raqamli muhit. Mazkur institutlarning har biri tarbiya jarayonida o‘ziga xos vazifani bajaradi.

Oila — o‘smirning dastlabki ijtimoiylashuv muhiti sifatida raqamli qurilmalardan foydalanish madaniyatini shakllantiradi, farzand bilan ochiq muloqotni yo‘lga qo‘yadi va uning emotsional holatidagi o‘zgarishlarga e’tibor qaratadi.

Ta’lim muassasasi — media savodxonlik, raqamli xavfsizlik, tanqidiy fikrlash va ijtimoiy mas’uliyatni shakllantirishga yo‘naltirilgan tarbiyaviy faoliyatni tashkil etadi.

Mahalla — oila va ta’lim muassasasi o‘rtasidagi ijtimoiy hamkorlikni mustahkamlash, muammoli vaziyatlarning oldini olish va tarbiyaviy resurslarni birlashtirishda ishtirok etadi.

Maktab psixologi va pedagoglar — o‘smirlarning psixologik-pedagogik holatini o‘rganadi, agressiv xulq-atvor xavfini aniqlaydi va individual hamda guruhiy profilaktik ishlarni amalga oshiradi.

Ijtimoiy-pedagogik xizmatlar — muammoli vaziyatlarda oila, ta’lim muassasasi va boshqa institutlar o‘rtasidagi hamkorlikni muvofiqlashtirishga xizmat qiladi.

Taklif etilayotgan modelni quyidagi ketma-ketlikda ifodalash mumkin: Diagnostika → Tahlil → Tarbiyaviy rejalashtirish → Profilaktika → Korreksiya → Institutsional hamkorlik → Monitoring → Natijani baholash.

Modelning asosiy maqsadi — raqamli muhitning o‘smir tarbiyasiga salbiy ta’sirini kamaytirish, ijobiy raqamli xulq-atvorni shakllantirish hamda agressiv xulq-atvorning oldini olishga qaratilgan uzluksiz ijtimoiy-pedagogik boshqaruv tizimini yaratishdan iborat.

Xulosa. Raqamli muhitning kengayib borishi o‘smirlar tarbiyasini tashkil etishda an’anaviy yondashuvlarni zamonaviy ijtimoiy-pedagogik mexanizmlar bilan boyitishni talab etmoqda. O‘smirning raqamli makondagi faoliyatini faqat nazorat qilish yoki cheklashga asoslangan yondashuv o‘rniga, uning raqamli madaniyati, tanqidiy fikrlashi, emotsional barqarorligi va ijtimoiy mas’uliyatini rivojlantirishga yo‘naltirilgan tizimli tarbiyaviy faoliyatni tashkil etish muhimdir. Raqamli muhitda o‘smirlar tarbiyasining institutsional modeli oila, ta’lim muassasasi, mahalla, psixolog, pedagog va ijtimoiy-pedagogik xizmatlarning o‘zaro hamkorligiga asoslanishi lozim. Bunday hamkorlik tarbiyaviy jarayonni yagona maqsad asosida muvofiqlashtirish, agressiv xulq-atvor xavfini erta aniqlash va profilaktik ishlarni o‘z vaqtida amalga oshirish imkonini beradi.

Shuningdek, milliy tarbiya qadriyatlarini raqamli kompetensiyalar bilan uyg‘unlashtirish o‘smirlarning virtual makondagi xulq-atvorini ijtimoiy mas’uliyat, hurmat, bag‘rikenglik va insonparvarlik tamoyillari asosida shakllantirishga xizmat qiladi. Shu sababli raqamli muhitda o‘smirlar tarbiyasini tashkil etishning institutsional modeli diagnostika, profilaktika, korreksiya, hamkorlik va monitoring mexanizmlarining uzviy birligi asosida takomillashtirilishi maqsadga muvofiq.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyev. Yangi O‘zbekiston strategiyasi. – Toshkent: O‘zbekiston, 2021. – 464 b.

2. O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni. – Toshkent, 2020.
3. O‘zbekiston Respublikasining “Bola huquqlarining kafolatlari to‘g‘risida”gi Qonuni. – Toshkent, 2008.
4. Bandura A. Social Learning Theory. — Englewood Cliffs: Prentice Hall, 1977.
6. Olweus D. Bullying at School: What We Know and What We Can Do. — Oxford: Blackwell, 1993.
7. Livingstone S. Children and the Internet: Great Expectations, Challenging Realities. — Cambridge: Polity Press, 2009.

8. Boyd D. It’s Complicated: The Social Lives of Networked Teens. — New Haven: Yale University Press, 2014
9. Karimov I.A. Yuksak ma’naviyat — yengilmas kuch. — Toshkent: Ma’naviyat, 2008.
10. Avloniy A. Turkiy guliston yoxud axloq. — Toshkent: O‘qituvchi.
11. Jo‘raev R.H. Ta’lim va tarbiya jarayonini takomillashtirishning pedagogik asoslari. — Toshkent.
12. Hasanboyev J., To‘raqulov X., Haydarov M., Hasanboyeva O. Pedagogika. — Toshkent: Fan va texnologiya.

MILLIY TARBIYA JARAYONLARINI BOSHQARISHDA MAKTAB DIREKTORINING STRATEGIK LIDERLIK FAOLIYATI

Sarviniso Sanakulova
Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori
Qori Niyoziy nomidagi TPMI katta ilmiy xodimi
https://doi.org/10.5281/zenodo.23178973

Annotatsiya. *Mazkur maqolada umumiy o‘rta ta’lim muassasalarida milliy tarbiya jarayonlarini samarali tashkil etish va boshqarishda maktab direktorining strategik liderlik faoliyati ilmiy-pedagogik jihatdan tahlil qilingan. Strategik liderlikning mazmuni, direktorning ta’lim muassasasida milliy qadriyatlarga asoslangan tarbiyaviy muhitni shakllantirish, pedagogik jamoani umumiy maqsadlar sari safarbar etish, maktab–oila–mahalla hamkorligini muvofiqlashtirish hamda tarbiyaviy faoliyat natijadorligini monitoring qilishdagi vazifalari yoritilgan. Xalqaro tajribalar va umumta’lim maktablari faoliyatiga xos hayotiy vaziyatlar asosida direktorning ma’muriy boshqaruvchidan strategik liderga aylanishi zarurati ochib berilgan. Maqola yakunida milliy tarbiya jarayonlarini boshqarishning amaliy mexanizmlarini takomillashtirishga doir takliflar ishlab chiqilgan.*

Tayanch so‘zlar: *milliy tarbiya, strategik liderlik, maktab direktori, ta’lim menejmenti, qadriyatlarga asoslangan boshqaruv, tarbiyaviy muhit, taqsimlangan liderlik, pedagogik jamoa, maktab–oila–mahalla hamkorligi, strategik rejalashtirish, monitoring, boshqaruv mexanizmi.*

Bugungi globallashuv va axborot makonining jadal kengayishi sharoitida yosh avlodning dunyoqarashi, qadriyatlari va ijtimoiy xulq-atvoriga ta’sir ko‘rsatuvchi omillar soni keskin ortmoqda. O‘quvchi shaxsining ma’naviy-axloqiy rivojlanishi endilikda faqat oila yoki maktab doirasida kechadigan jarayon emas. Raqamli axborot muhiti, tengdoshlar guruhi, ommaviy madaniyat, ijtimoiy tarmoqlar hamda mahalliy va global ijtimoiy munosabatlar o‘quvchi qadriyatlar tizimining shakllanishida bevosita ishtirok etmoqda. Bunday sharoit maktabdagi milliy tarbiya jarayonlarini tasodifiy tadbirlar yig‘indisi sifatida emas, balki aniq maqsad, mexanizm, mas’uliyat va natija ko‘rsatkichlariga ega yaxlit boshqaruv tizimi sifatida tashkil etishni talab qiladi. Bu vazifani amalga oshirishda maktab direktorining o‘rni alohida ahamiyat kasb etadi. Zamonaviy direktor faqat ma’muriy-xo‘jalik masalalarini hal qiluvchi rahbar emas, balki maktabning rivojlanish yo‘nalishini belgilovchi, jamoani umumiy qadriyatlar atrofida birlashtiruvchi va ta’lim-tarbiya sifatiga ta’sir ko‘rsatuvchi strategik lider bo‘lishi zarur.

UNESCOning 2024/2025-yillardagi “Leadership in Education: Lead for Learning” Global Education Monitoring hisobotida ta’limdagi samarali liderlik sifatli ta’limning muhim omillaridan biri sifatida qayd etilgan. Hisobotda samarali liderlikning to‘rtta asosiy yo‘nalishi ajratiladi: aniq maqsad va kutilmalarni belgilash, ta’limga e’tiborni qaratish, hamkorlikni rivojlantirish hamda inson salohiyatini oshirish. Mazkur yondashuv milliy tarbiya jarayonlarini boshqarishga ham bevosita tatbiq etilishi mumkin. Chunki milliy tarbiya samaradorligi

direktorning nechta ma’naviy-ma’rifiy tadbir tashkil qilgani bilangina emas, balki maktabda qanday qadriyatlar muhiti shakllangani, o‘qituvchilar, o‘quvchilar va ota-onalarning ushbu qadriyatlarni qay darajada kundalik xulq-atvorga aylantirgani bilan belgilanadi.

Strategik liderlik tushunchasi tashkilotning mavjud holatini tahlil qilish, istiqboldagi maqsadlarini aniqlash, mavjud resurslarni shu maqsadlar sari safarbar etish hamda o‘zgaruvchan sharoitga mos boshqaruv qarorlarini qabul qilish qobiliyatini anglatadi. Ta’lim muassasasida strategik liderlikning o‘ziga xosligi shundaki, uning markazida inson, ya’ni o‘quvchi, pedagog, ota-ona va ularning o‘zaro munosabatlari turadi. Milliy tarbiya sohasidagi strategik liderlikni maktab jamoasining milliy va umuminsoniy qadriyatlarga asoslangan rivojlanish maqsadlarini belgilash, barcha subyektlarning tarbiyaviy faoliyatini muvofiqlashtirish, zarur tashkiliy-pedagogik sharoitlarni yaratish va natijalarni muntazam monitoring qilib borishga yo‘naltirilgan boshqaruv faoliyati sifatida talqin qilish mumkin. Strategik lider sifatida direktor, eng avvalo, “Maktabimiz qanday o‘quvchini tarbiyalashi kerak?” degan savolga pedagogik jamoa bilan birgalikda aniq javob ishlab chiqishi zarur. Masalan, maktab o‘z bitiruvchisini Vatanga sadoqatli, milliy qadriyatlarni hurmat qiladigan, mustaqil fikrlaydigan, mas’uliyatli, bag‘rikeng, mehnatsevar va zamonaviy kompetensiyalarga ega shaxs sifatida tasavvur qilsa, mazkur sifatlar maktabning strategik tarbiyaviy maqsadlariga aylanishi kerak. Bunda milliy tarbiya faqat “Tarbiya” fani yoki ma’naviy-ma’rifiy tadbirlar bilan chegaralanmaydi. U maktabdagi dars jarayoni, o‘qituvchi va o‘quvchi munosabatlari, maktab ichki tartibi, sinfdan tashqari faoliyat, pedagoglarning shaxsiy namunasi, ota-onalar bilan hamkorlik va hatto maktabdagi muloqot madaniyatida o‘z ifodasini topishi lozim.

Milliy tarbiya jarayonlarini boshqarishda direktorning strategik liderlik faoliyatini bir-biri bilan bog‘liq bir necha yo‘nalishda ko‘rib chiqish maqsadga muvofiq. Direktor maktabning tarbiyaviy rivojlanish konsepsiyasini pedagoglar, ota-onalar va o‘quvchilar ishtirokida ishlab chiqishi kerak. Bunda milliy o‘zlikni anglash, vatanparvarlik, insonparvarlik, oila qadriyatlari, kattaga hurmat, kichikka izzat, mehnatsevarlik, mas’uliyat, bag‘rikenglik, qonunga hurmat va fuqarolik pozitsiyasi kabi sifatlar ustuvor yo‘nalish sifatida belgilanadi. Tarbiya shior va chaqiriqlar bilangina amalga oshmaydi. O‘quvchi maktabda targ‘ib qilinayotgan qadriyatlarni kundalik munosabatlarda his qilishi kerak. Masalan, o‘quvchiga hurmat haqida gapiradigan maktabda uning fikri eshitilmasa yoki adolat targ‘ib qilinadigan muhitda baholashda subyektivlik mavjud bo‘lsa, tarbiyaviy ta’sirning samaradorligi pasayadi. Demak, direktor e’lon qilinayotgan qadriyatlar bilan maktabdagi real boshqaruv amaliyoti o‘rtasidagi uyg‘unlikni ta’minlashi lozim. Zamonaviy ta’lim liderligi tadqiqotlarida hamkorlik va taqsimlangan liderlik maktab rivojlanishining muhim omillari sifatida qaraladi. Direktor barcha vazifalarni

shaxsan bajarishi mumkin emas. Sinf rahbari, fan o‘qituvchisi, psixolog, direktor o‘rinbosarlari, kutubxonachi, o‘quvchilar faollari va ota-onalar tarbiya tizimining faol subyektlariga aylanishi kerak. Pedagog nafaqat fan o‘qituvchisi, balki o‘quvchi uchun xulq-atvor modeli hamdir. Shu sababli direktor metodik kengash va pedagogik kengashlarda faqat o‘zlashtirish ko‘rsatkichlarini emas, sinfdagi muloqot madaniyati, konfliktlarni pedagogik hal qilish, o‘quvchining ijtimoiy-emotsional rivojlanishi, milliy qadriyatlarni fan mazmuniga integratsiyalash kabi masalalarni ham muhokama qilishi lozim.

Milliy tarbiyaning samaradorligini faqat maktabning ichki imkoniyatlari bilan ta’minlash qiyin. O‘quvchi maktabda bir xil, oilada esa mutlaqo boshqa qadriyatlar tizimiga duch kelsa, tarbiyaviy ta’sirning yaxlitligi buziladi. Shu bois direktorning strategik liderligi maktab chegarasidan tashqariga chiqib, ota-onalar va mahalla bilan ijtimoiy sheriklikni ham qamrab olishi zarur. Bunda an’anaviy “ota-onalar yig‘ilishi” formatidan hamkorlikka asoslangan modelga o‘tish muhim. Masalan, maktabda o‘quvchilarning internet madaniyati bilan bog‘liq muammo kuchaygan bo‘lsa, direktor faqat o‘quvchilarga ma’ruza tashkil etish bilan cheklanmasligi kerak. Muammo yuzasidan sinf rahbarlari, psixolog, ota-onalar va tegishli mutaxassislar ishtirokida vaziyat tahlil qilinib, oilada va maktabda amal qiladigan umumiy yondashuv ishlab chiqilishi mumkin. Yoki maktabda o‘quvchilar o‘rtasida kattalarga hurmat, jamoaviy hamjihatlik yoki kitobxonlik ko‘rsatkichlari pasaygani kuzatilsa, direktor mahalla faollari, nuroniylar, ziyolilar va ota-onalar bilan hamkorlikda “Avlodlar uchrashuvi”, oilaviy kitobxonlik loyihalari yoki mahalliy tarix va qadriyatlarga bag‘ishlangan tadqiqot loyihalarini yo‘lga qo‘yishi mumkin. Muhimi, bunday ishlar bir martalik tadbir sifatida emas, aniqlangan tarbiyaviy ehtiyojga javob beradigan tizimli faoliyat sifatida tashkil qilinishi kerak.

Milliy tarbiya jarayonlarini boshqarishning eng muhim shartlaridan biri natijalarni muntazam diagnostika qilishdir. Tarbiyaviy jarayon natijalarini faqat o‘tkazilgan tadbirlar soni bilan baholash metodologik jihatdan yetarli emas. Masalan, bir o‘quv yilida 50 ta ma’naviy-ma’rifiy tadbir o‘tkazilishi mumkin, biroq bu o‘quvchilarning xulq-atvori va qadriyatlarida ijobiy o‘zgarish sodir bo‘lganligini avtomatik ravishda anglatmaydi.

Shuning uchun strategik lider sifatida direktor “Nima qildik?” degan savoldan “Nima o‘zgardi?” degan savolga o‘tishi lozim. Buning uchun o‘quvchilarning maktab hayotidagi faolligi, o‘zaro hurmat va hamkorlik darajasi, intizomiy holatlar dinamikasi, kitobxonlik faolligi, ijtimoiy tashabbuslarda ishtirok, ota-onalarning maktab hayotidagi ishtiroki, o‘quvchilarning maktabga daxldorlik hissi, pedagog–o‘quvchi munosabatlarining sifati va nizolarni konstruktiv hal qilish ko‘nikmalari kabi ko‘rsatkichlardan foydalanish mumkin.

UNESCOning 2024/2025-yilgi GEM hisobotida maktab rahbarlarining kundalik ma’muriy vazifalarga ko‘p vaqt sarflashi strategik va pedagogik liderlik

imkoniyatlarini cheklashi ko‘rsatiladi. Bu holat direktor faoliyatida vazifalarni oqilona taqsimlash va strategik masalalar uchun alohida boshqaruv vaqtini ajratish zarurligini ko‘rsatadi. Masalan, maktab rahbariyati 7-9-sinf o‘quvchilari orasida maktab tadbirlariga qiziqish pasaygani, ayrim o‘quvchilarda individualizm kuchaygani va jamoaviy loyihalarda ishtirok etish istagi sustlashganini aniqladi, deb tasavvur qilaylik. An’anaviy boshqaruv yondashuvida direktor ma’naviy-ma’rifiy ishlar bo‘yicha mas’ulga ko‘proq tadbir o‘tkazish topshirig‘ini berishi mumkin. Strategik liderlik yondashuvida esa muammo avvalo diagnostika qilinadi. O‘quvchilar bilan anonim so‘rov o‘tkazilib, sinf rahbarlari va ota-onalarning fikri o‘rganiladi. Natijada tadbirlarning ko‘pchiligi o‘quvchilarning o‘zlari ishtirok etadigan faol formatda emas, tinglovchi sifatida qatnashadigan shaklda tashkil etilayotgani aniqlanishi mumkin.

Shundan so‘ng direktor boshqaruv strategiyasini o‘zgartiradi: o‘quvchilar kengashiga real vakolat beriladi, “Mening mahallam tarixi”, “Bir oila – bir qadriyat”, “Maktabimiz faxri”, “Yaxshilik haftaligi” kabi o‘quvchilarning o‘zi rejalashtiradigan loyihalar joriy qilinadi. Fan o‘qituvchilari mazkur loyihalarga fanlararo topshiriqlar orqali qo‘shiladi, ota-onalar esa hamkor va resurs shaxs sifatida jalb etiladi. Bir chorakdan so‘ng ishtirok darajasi, o‘quvchilar tashabbuslari soni, sinfdagi hamkorlik muhiti va ota-onalar faolligi qayta o‘lchanadi. Natijalar dastlabki diagnostika bilan solishtiriladi.

Strategik liderlik direktor barcha jarayonlarni shaxsan nazorat qilishi kerakligini anglatmaydi. Aksincha, samarali rahbar maktabdagi liderlik salohiyatini kengaytiradi. Ilmiy adabiyotlarda taqsimlangan liderlik maktab jamoasining umumiy tajribasi, mas’uliyati va tashabbusidan foydalanishga imkon beruvchi yondashuv sifatida talqin etiladi. Milliy tarbiya jarayonida bu tamoyil quyidagicha namoyon bo‘lishi mumkin: direktor strategik yo‘nalishni belgilaydi; direktor o‘rinbosarlari jarayonlarni muvofiqlashtiradi; sinf rahbarlari o‘quvchilar ehtiyojlarini diagnostika qiladi; fan o‘qituvchilari milliy va umuminsoniy qadriyatlarni dars mazmuniga integratsiyalaydi; psixolog ijtimoiy-emotsional holatni kuzatadi; o‘quvchilar kengashi tengdoshlar tashabbuslarini boshqaradi; ota-onalar hamkorlik loyihalarida qatnashadi; mahalla va jamoatchilik vakillari ijtimoiy resurs vazifasini bajaradi. Natijada milliy tarbiya alohida bir mas’ul xodimning vazifasi emas, balki maktabning yaxlit tashkiliy madaniyatiga aylanadi.

Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, milliy tarbiya jarayonlarining samaradorligi ko‘p jihatdan direktorning liderlik pozitsiyasiga bog‘liq. Faqat ma’muriy nazoratga asoslangan boshqaruvda pedagog topshiriq bajaruvchi, o‘quvchi esa tarbiyaviy ta’sir obyekti bo‘lib qoladi. Strategik liderlik modelida esa pedagog hamkor, o‘quvchi faol subyekt, ota-ona sherik, mahalla esa ijtimoiy resurs sifatida qaraladi. Bunda direktor faoliyatining muhim mezoni o‘tkazilgan yig‘ilishlar yoki tadbirlar soni emas, balki maktabning tashkiliy madaniyatidagi sifat o‘zgarishlaridir. Ta’lim liderligiga doir

zamonaviy tadqiqotlarda ham umumiy maqsadlarni belgilash, hamkorlikni rivojlantirish, pedagogik salohiyatni kuchaytirish va ta’lim jarayoniga e’tibor qaratish rahbarlikning muhim jihatlari sifatida qayd etiladi.

Milliy tarbiya jarayonlarini samarali boshqarish zamonaviy maktab direktoridan ma’muriy boshqaruv bilan cheklanmaydigan strategik liderlik kompetensiyalarini talab qiladi. Direktor maktabning istiqboldagi tarbiyaviy qiyofasini belgilashi, pedagogik jamoani umumiy qadriyatlar atrofida birlashtirishi, o‘quvchi va ota-onalarni tarbiya jarayonining faol subyektiga aylantirishi hamda natijalarni dalillarga asoslangan holda monitoring qilishi zarur. Milliy tarbiya jarayonlarini boshqarishni takomillashtirish uchun, birinchidan, har bir maktabning tarbiyaviy rivojlanish strategiyasini mavjud muammolar diagnostikasi asosida ishlab chiqish; ikkinchidan, direktor faoliyatida qadriyatlarga asoslangan va taqsimlangan liderlik mexanizmlarini kuchaytirish; uchinchidan, pedagoglarning tarbiyaviy va ijtimoiy-emotsional kompetensiyalarini muntazam rivojlantirish; to‘rtinchidan, maktab–oila–mahalla hamkorligini tadbirbozlikdan aniq natijaga yo‘naltirilgan ijtimoiy sheriklik darajasiga olib chiqish; beshinchidan, tarbiyaviy faoliyatni baholashda miqdoriy ko‘rsatkichlardan sifat va o‘zgarish ko‘rsatkichlariga o‘tish maqsadga muvofiq. Shunday qilib, strategik lider direktor milliy tarbiyani alohida tadbirlar majmui sifatida emas, balki maktab hayotining barcha yo‘nalishlarini birlashtiradigan qadriyatlar, munosabatlar va hamkorlik tizimi sifatida boshqaradi. Ana shunday yondashuv milliy o‘zligini anglagan, zamonaviy bilim va kompetensiyalarga ega, Vatan va jamiyat oldidagi mas’uliyatini his qiladigan yosh avlodni tarbiyalash uchun barqaror pedagogik muhit yaratishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston – 2030” strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-158-son Farmoni. – 2023-yil 11-sentabr.
2. Ibraimov X., Quronov M. Umumiy pedagogika: darslik. – Toshkent: Sahhof, 2023. – 416 b.
3. Global Education Monitoring Report Team. Leadership in Education: Lead for Learning. 2024/5 Global Education Monitoring Report. – Paris: UNESCO, 2024.
4. Leithwood K., Harris A., Hopkins D. Seven strong claims about successful school leadership revisited // School Leadership & Management. – 2020. – Vol. 40, No. 1. – P. 5–22.
5. Fullan M. Leading in a Culture of Change. – San Francisco: Jossey-Bass, 2020.
6. OECD. TALIS 2018 Results. Volume II: Teachers and School Leaders as Valued Professionals. – Paris: OECD Publishing, 2020.
7. UNESCO. 2024/5 GEM Report Background Papers: Leadership in Education. – Paris: UNESCO, 2024.

HÁREKETLI OYÍNLAR ARQALÍ OQÍWSHÍLARDÍ DOSLÍQ RUWXÍNDA TÁRBIYALAWDÍŃ PEDAGOGIKALÍQ TIYKARLARÍ

Saparbaev Esen
Ájiniyaz atındaǵı NMPI“Ulıwma bilim beriw pánleri hám aralıqtan oqıtıw” kafedrası assistent oqıtıwshısı
https://doi.org/10.5281/zenodo.23178986

Аннотация; *В статье рассматриваются педагогические основы воспитания у учащихся чувства дружбы, сотрудничества, взаимного уважения и коллективизма посредством подвижных игр. Анализируются возможности подвижных игр не только в повышении физической активности школьников, но и в развитии их социальных и нравственных качеств. Особое внимание уделяется значению командных подвижных игр в формировании взаимопомощи, общения, доверия, ответственности и сплоченности учащихся.*
Ключевые слова: *подвижные игры, дружба, коллективизм, сотрудничество, взаимное уважение, взаимопомощь, социальная компетентность, физическое воспитание, воспитание, начальное образование, национальные игры, здоровая конкуренция.*
Annotation*; This article examines the pedagogical foundations of developing friyendship, cooperation, mutual respect, and teamwork among students through active physical games. The article analyzes the potential of active games not only to increase students’ physical activity but also to develop their social and moral qualitiyes. Particular attention is paid to the role of team-based physical games in fostering mutual assistance, communication, trust, responsibility, and group cohesion among students.*
Keywords: *active games, friyendship, teamwork, cooperation, mutual respect, mutual assistance, social competence, physical education, upbringing, primary education, national games, healthy competition.*

Jas ǵwladtı fizikalıq jaqtan salamat, ruwxıy jetik hám sociallıq belsendi shaxs etip tárbiyalaw zamanagóy bilimlendiriw sistemasınıń áhmiyetli wazıypalarınan biri bolıp esaplanadı. Bilimlendiriw procesinde oqıwshılarǵa bilim beriw menen bir qatarda olarda óz-ara húrmet, doslıq, birge islesiw, jámáátte islew, juwapkershilik hám insanıylıq qatnasıqlar mádeniyatın qáliplestiriw de úlken áhmiyetke iye. Ásirese, baslawish klass oqiwshıları ushin oyın iskerligi balanıń tábiyiy zárúrliklerinin biri esaplanadı. Bala oyın procesinde qorshaǵan ortalıqtı ańlaydı, qatarları menen baylanısadı, qaǵıydalarǵa ámel etiwdi hám óz is-háreketlerin basqarıwdı úyrenedi. Sol sebepli háreketli oyınlardan pedagogikalıq maqsetlerde paydalanıw oqıwshılardıń fizikalıq rawajlanıwı menen bir qatarda olardıń sociallıq hám ádep-ikramlılıq sıpatların qáliplestiriwge de xızmet etedi.

YUNESKOnıń denetárbiya, fizikalıq belsendilik hám sportqa baylanıslı xalıqaralıq húJjetinde denetárbiya hám sport durıs shólkemlestirilgende birge islesiw, qarım-qatnas, jetekshilik, tártip-intizam hám jámáátte islew sıyaqlı kónlikpelerdi rawajlandırıwǵa járdem beriwi atap ótilgen. Sonday-aq, sport teńlesler arasındaǵı múnásibetlerdi bekkemlewi hám tiyislilik sezimin rawajlandırıwı múmkin. Zamanagóy izertlewler de jámáátlik hám oyın tiykarındaǵı fizikalıq

jumıstıń balalardıń sociallıq kónlikpelerine unamlı tásir kórsetiwi múmkin ekenligin kórsetpekte. Mekteptegi fizikalıq belsendilik baǵdarlamaların úyrengen sistemalı sholıwlardan birinde kóplegen baǵdarlamalarda sociallıq kompetenciyanıń minez-qulıq hám kognitiv táreplerinde unamlı ózgerisler atap ótilgen.

Háreketli oyınlar - oqıwshılardıń belsendi fizikalıq háreketlerin oyın qaǵıydaları menen sáykeslestiretuǵın pedagogikalıq jumıs túri. Olar juwiriw, sekiriw, ilaqtırıw, quwiw, top penen háreket etiw, komandalıq tapsırmalardı orınlaw sıyaqlı hár túrli háreketlerdi óz ishine aladı. Háreketli oyınlardıń tiykarǵı ózgesheligi sonda, onda fizikalıq háreket hám tárbiyalıq maqset bir-biri menen baylanısadı. Oqıwshı oyın dawamında belgili bir fizikalıq háreketti orınlaw menen birge, sherikleri menen kelisiw, náwbet kútiw, qaǵıydalarǵa ámel etiw, jeńilgende ózin-ózi basqarıw hám jeńimpaz komandanı húrmet etiw sıyaqlı sociallıq minez-qulıqlardı da úyrenedi. Usı tárepten háreketli oyınlardı tek fizikalıq shınıǵıw sıpatında yemes, bálkim tárbiyalıq qural sıpatında da qaraw múmkin.

2026-jılı basıp shıǵarılǵan izertlewlerden birinde birge islesiwge tiykarlanǵan háreketli oyınlar baslawısh mektep oqıwshılarınıń sociallıq-emocional rawajlanıwına járdem beriwi múmkin ekenligi kórsetilgenIzertlewde dene tárbiyası sabaqlarında dúzilgen óz ara birge islesiw iskerligi oqıwshılardıń qarım-qatnası hám birge islesiwin qollap-quwatlaytuǵını atap ótilgen. Doslıq ruwxındaǵı tárbiyanıń áhmiyetli kórsetkishlerinen biri - óz ara járdem. Oyın procesinde oqıwshılar bir-birine járdem beriw, sheriginiń imkaniyatın esapqa alıw hám ulıwma wazıypanı orınlawǵa járdemlesiw imkaniyatına iye boladı. Mısalı, "Qutqarıwshılar" sıyaqlı komandalıq oyında shártli túrde oyınnan shıqqan qatnasıwshı basqa komandalası tárepinen qayta oyınǵa kirgiziliwi múmkin. Bunday oyın mexanizmi balalarda "men" emes, "biz" túsinigin kúsheytiwge xızmet etedi. Bunday jantasıw zamanagóy izertlewlerde de ushırasadı. 2026-jıldaǵı bir eksperimental izertlewde komandadoshtı "qutqarıw"ǵa tiykarlanǵan oyınlar óz-ara járdem, isenim hám teńlesine súeniw sıyaqlı sociallıq is-háreketlerdi xoshametlewi kórsetilgen.

Qaraqalpaq xalqınıń milliy háreketli oyınları jas ávladtı tárbiyalawda áhmiyetli pedagogikalıq qurallardan biri esaplanadı. Milliy oyınlar arqalı oqıwshılar fizikalıq sıpatların rawajlandırıw menen birge, xalıqtıń mádeniy miyrası hám dástúrlerine húrmet penen qatnasta bolıwdı da úyrenedi.

"Aq terek pe, kók terek pe," "Arqan tartıw," "Quwlaspaq," "Estafeta" sıyaqlı toparlıq háreketlerge tiykarlangan oyınlardı tárbiyalıq maqsetlerde shólkemlestiriw múmkin. 2025-2026-jılları Ózbekstanda basıp shıǵarılǵan pedagogikalıq izertlewlerde milliy hám háreketli oyınlardıń baslawısh klass oqıwshılarınıń fizikalıq rawajlanıwı menen bir qatarda sociallasıwı, jámáátlik birge islesiwi hám milliy qádiriyatlardı ózlestiriwindegi áhmiyeti de tallanǵan. Sonday-aq, birinshi klass oqıwshıları menen ótkerilgen izertlewde oyın texnologiyalarınan dene tárbiyası sabaqlarında paydalanıw birge islesiw hám kommunikativlik kónlikpelerdi

rawajlandırıwǵa járdem bergeni atap ótilgen. Doslıq ruwxında tárbiyalaw ushın usınıs etilgen háreketli oyınlar "Aq terek pe, kók terek pe?" Bul milliy oyın jámáátlik hám awızbirshilikti qáliplestiriw ushın qolaylı. Oyın procesinde oqıwshılar bir komanda sıpatında háreket etedi. Tárbiyalıq maqseti: jámáátlik, doslıq, óz ara járdem hám birlikti qáliplestiriw. "Arqan tartıw" Oqıwshılar eki toparǵa bólinedi. Jeńis komanda aǵzalarınıń birgeliktegi háreketine baylanıslı boladı. Tárbiyalıq maqset: birge islesiw, uliwma maqsetke qaray háreket etiw, jámáát mápin túsiniw. "Estafeta." Oqıwshılar toparlarga bólinip, tapsırmalardı náwbet penen orınlaydı. Tárbiyalıq maqseti: juwapkershilik, isenim, náwbet kútiw, jámáátlesin qollap-quwatlaw. "Dosıńa járdem ber" Oyın dawamında ayırım tapsırmalar eki oqıwshı tárepinen birgelikte orınlanadı. Tárbiyalıq maqseti: óz ara járdem, isenim hám birge islesiwdi qáliplestiriw. "Birgelikte finishke" Bul oyında oqıwshılar belgilengen aralıqtı juplıq yaki kishi topar bolip basıp ótedi. Tapsırma individual tezlik penen emes, topar agzalarınıń kelisilgen háreketi menen orınlanadı. Bunday sorawlar oqıwshıǵa oyın dawamında basınan keshirgen jaǵdayların ańlaw hám olardı kúndelikli turmıs penen baylanıstırıw imkaniyatın beredi.

Juwmaqlap aytqanda, háreketli oyınlar oqıwshılardıń fizikalıq rawajlanıwın támiyinlew menen bir qatarda olardı doslıq, birge islesiw, óz ara húrmet, óz ara járdem hám jámáátlik ruwxında tárbiyalawdıń nátiyjeli pedagogikalıq qurallarınan biri bolıp esaplanadı. Háreketli oyınlardıń tiykarǵı pedagogikalıq imkaniyatı sonda, oqıwshı tárbiyalıq qádiriyatlardı tek teoriyalıq jaqtan esitip qalmastan, olardı ámeliy iskerlik dawamında basınan keshiredi. Komandalıq oyınlarda oqıwshı sherigine járdem beriw, uliwma maqset ushın háreket etiw, qaǵıydalarǵa ámel etiw, jeńisti de, jeńilisti de durıs qabıl etiwdi úyrenedi. Sonday-aq, milliy háreketli oyınlardan paydalanıw arqalı oqıwshılarda doslıq hám jámáátlik penen bir qatarda milliy mádeniyatqa húrmet sezimin de qáliplestiriw múmkin. Bunda mugallimniń oyındı maqsetli shólkemlestiriwi, tárbiyalıq wazıypalardı aldınnan belgilewi hám oyın juwmaǵında refleksiyanı shólkemlestiriwi úlken áhmiyetke iye. Demek, háreketli oyınlardı tálim-tárbiya procesine pedagogikalıq maqset tiykarında integraciyalaw oqıwshılardıń fizikalıq, sociallıq hám ádep-ikramlılıq rawajlanıwın sáykeslendiriw imkaniyatın beredi. Ásirese, birge islesiwge tiykarlanǵan hám doslıq básekini qollap-quwatlaytuǵın oyınlar oqıwshılar arasında unamlı múnásibetler hám jámáátke tiyislilik sezimin qáliplestiriwge xızmet etedi.

Paydalanılǵan ádebiyatlar;

1. UNESCO. International Charter of Physical Education, Physical Activity and Sport. — Paris: UNESCO, 2015.
2. UNESCO. Values Education through Sport (VETS). — UNESCO.

3. Schüller I., Demetriou Y. Physical activity interventions promoting social competence at school: A systematic reviyew. *Educational Research Reviyew*, Vol. 25, 2018, pp. 39–55. DOI: 10.1016/j.edurev.2018.09.001.
4. Kuspratiwi F.W., Suherman W.S., Komari A., Nevitaningrum. The effects of Cooperative Circuit Games on fundamental motor skills and social-emotional learning in elementary school students. *Pedagogy of Physical Culture and Sports*, 2026, Vol. 30, Issue 2. DOI: 10.15561/26649837.2026.0203.
5. Molina F.R., Winarni S., Guntur, Hartanto A. A game model in physical education to improve motor skills, cooperation, and discipline of primary school learners. *Pedagogy of Physical Culture and Sports*, 2023. DOI: 10.15561/26649837.2023.0602.
6. Yuseinova A. The Game Technologiyes in Physical Education and Sports Classes for the Development of Social Skills of First-Grade Students. *Sport, Sciyence, Education*, Vol. 1, Issue 2, pp. 105–111.

QORI NIYOZIY NOMIDAGI TARBIYA PEDAGOGIKASI MILLIY INSTITUTI
TPMI
1929

JAS ÁWLADTÍ RUWXIY ÁDEP-IKRAMLÍLÍQ JAQTAN TÁRBIYALAWDÍŃ PEDAGOGIKALÍQ TIYKARLARÍ

Tajibay Saparbaev
Ájiniyaz atındaǵı NMPI Uluwma pedagogika kafedrası professorı
https://doi.org/10.5281/zenodo.23179006

Annotatsiya*; Mazkur maqolada yosh avlodni ma’naviy-axloqiy tarbiyalashning mazmun-mohiyati, pedagogik asoslari hamda zamonaviy ta’lim jarayonidagi ahamiyati yoritilgan. Ma’naviy-axloqiy tarbiya shaxsning jamiyatdagi xulq-atvori, dunyoqarashi, ma’naviy qadriyatlari, mas’uliyati va ijtimoiy faolligini shakllantirishning muhim vositasi sifatida tahlil qilingan. Shuningdek, oila, ta’lim muassasasi va jamiyat hamkorligining yoshlarning ma’naviy-axloqiy kamolotidagi o‘rni ochib berilgan.*

Tayanch tushunchalar: *ma’naviy tarbiya, axloqiy tarbiya, yosh avlod, ma’naviy qadriyatlar, milliy qadriyatlar, umuminsoniy qadriyatlar, vatanparvarlik, insonparvarlik, pedagogik tarbiya, oila va ta’lim hamkorligi.*

Аннотация*; В статье рассматриваются сущность, содержание и педагогические основы духовно-нравственного воспитания молодого поколения, а также его значение в современном образовательном процессе. Духовно-нравственное воспитание анализируется как важное средство формирования мировоззрения, нравственных ценностей, ответственности, культуры поведения и социальной активности личности. Особое внимание уделяется роли взаимодействия семьи, образовательных учреждений и общества в духовно-нравственном развитии молодежи.*

Ключевые слова: *духовное воспитание, нравственное воспитание, молодое поколение, духовные ценности, национальные ценности, общечеловеческие ценности, патриотизм, гуманность, педагогическое воспитание, взаимодействие семьи и образовательного учреждения.*

Annotation*; This article examines the essence, content, and pedagogical foundations of spiritual and moral education of the younger generation and its significance in the modern educational process. Spiritual and moral education is considered an important means of developing students’ worldviyew, moral values, responsibility, behavioral culture, and social activity. Particular attention is paid to the cooperation of familiyes, educational institutions, and sociyety in promoting the spiritual and moral development of young people.*

Keywords: *spiritual education, moral education, younger generation, spiritual values, national values, universal human values, patriotism, humanity, pedagogical education, family-school cooperation.*

Jámiyet rawajlanıwınıń áhmiyetli faktorlarınan biri - ruwxiy jetik, ádep-ikramlı hám sociallıq juwapker áwladtı tárbiyalaw. Hár qanday mámlekettiń keleshegi, bárinen burın, jaslardıń qanday bilim, dúnyaqaras hám ruwxıy-ádep-ikramlılıq pazıyletler tiykarında kamalǵa keliwine baylanıslı. Sol sebepli bilimlendiriw procesinde jas áwladqa bilim beriw menen bir qatarda olardıń ruwxıy dúnyasın bayıtıw, ádep-ikramlılıq pazıyletlerin qáliplestiriw hám jámiyet aldındaǵı juwapkershiligin ańlatıw áhmiyetli pedagogikalıq wazıypalardan biri esaplanadı. Ruwxiy-ádep-ikramlılıq tárbiya shaxstıń jaqsılıq hám jawızlıq, hadallıq hám insapsızlıq, ádillik hám ádalacızlıq sıyaqlı túsiniklerdi ańlawına, óz is-háreketlerin bahalawına jámiyette qabıl etilgen ádep-ikramlılıq normalarına ámel etiwine járdem

beredi. Bunday tárbiya procesi tek bilimlendiriw mákemesinde emes, al shańaraqta, máhállede, sociallıq ortalıqta hám kúndelikli turmısta da ámelge asırıladı.

Ózbekstan Respublikasınıń bilimlendiriw siyasatında da jas áwladtı hár tárepleme rawajlandırıw, olardıń intellektuallıq, ruwxıy hám ádep-ikramlılıq potencialın arttırıw máselelerine úlken itibar qaratıladı. "Bilimlendiriw haqqında"ǵı Nızamda bilimlendiriw tarawındaǵı tiykarǵı principler qatarında bilimlendiriw hám tárbiyanıń insanıylıq jáne demokratiyalıq ózgesheligi, úzliksizlik hám izbe-izlik sıyaqlı principler belgilengen. Ruwxiy-ádep-ikramlılıq tárbiya shaxstıń ruwxiy dúnya qarası, ádep-ikramlılıq kózqarasları, isenimi, minez-qulqı hám sociallıq qatnasıqların qáliplestiriwge qaratılgan pedagogikalıq process. Onıń tiykarǵı maqseti jaslardı jámiyette múnásip orın iyeley alatuǵın, óz is-háreketleri ushın juwapkershilikti sezetuǵın hám átiraptaǵılarǵa húrmet penen múnásibette bolatuǵın shaxs sıpatında tárbiyalawdan ibarat. Ruwxiy-ádep-ikramlılıq tárbiya procesinde bilim, kónlikpe hám qádiriyatlar bir-biri menen óz ara baylanıslı halda qáliplesedi. Oqıwshı ádep-ikramlılıq normaların tek bilip gana qoymastan, olardı kúndelikli turmısında qollana alıwı kerek. Máselen, hadallıq túsinigin teoriyalıq jaqtan biliw menen birge, oqıwshı ámeliy jaǵdaylarda hadal qarar qabıl etiwdi de úyreniwi kerek. Sonıń ushın ruwxiy-ádep-ikramlılıq tárbiyada teoriyalıq túsindiriwler menen bir qatarda ámeliy iskerlik, jeke úlgi, mashqalalı jaǵdaylardı talqılaw hám sociallıq joybarlarda qatnasıw sıyaqlı metodlardan paydalanıw maqsetke muwapıq.

Jas áwladtı ruwxıy-ádep-ikramlılıq jaqtan tárbiyalawda milliy hám ulıwma insanıylıq qádiriyatlardıń ornı sheksiz. Milliy qádiriyatlar xalıqtıń tariyxıy tájiriybesi, úrp-ádetleri, dástúrleri, tili, mádeniyatı hám ruwxiy miyrasında óz kórinisin tabadı. Ózbek xalqının miymandoslıq, úlkenlerge húrmet, kishilerge izzet, miyrim-shápáát, awızbirshilik, saqawat hám adamgershilik sıyaqlı qádiriyatları jaslar tárbiyasında áhmiyetli pedagogikalıq derek bolip xizmet etedi. Biraq milliy qádiriyatlardı jaslar tárbiyasında qollanıw olardı ulıwma insanıylıq qádiriyatlardan ajıratıp qoyıwdı ańlatpaydı. Kerisinshe, insan huqıqları, tınıshlıq, ádillik, keńpeyillik, húrmet, birge islesiw hám insan qádiri sıyaqlı ulıwma insanıylıq principler milliy tárbiya mazmunı menen úylestiriliwi zárúr. Bunday qatnas jaslardıń óz milliyligin ańlaǵan halda basqa xalıqlar hám mádeniyatlarǵa húrmet penen qatnasta bolıwına imkaniyat jaratadı.

Shańaraq – ruwxıy ádep-ikramlılıq tárbiyanıń áhmiyetli ortalıǵı. Balanıń dáslepki sociallıq tájiriybesi shańaraqta qáliplesedi. Bala ata-anasınıń múnásibeti, is-háreketi, sóylesiw mádeniyatı hám kúndelikli turmıstaǵı ádetlerinen kóplegen ádep-ikramlılıq normaların ózlestiredi. Sol sebepli shańaraqtaǵı salamat ruwxiy ortalıq jas áwlad tárbiyasınıń áhmiyetli shártlerinen biri. Ata-ananıń perzentke bolǵan múnásibeti, onıń pikirin tıńlawı, qátelerin túsindiriw arqalı dúzetiwi hám jeke úlgi kórsetiwi tárbiya nátiyjeliligine tikkeley tásir etedi. Shańaraq hám bilimlendiriw mákemesi arasındaǵı birge islesiw de ayrıqsha áhmiyetke iye. Oqıtıwshı ata-analar

menen turaqlı sóylesiwi, balanıń individual ózgeshelikleri haqqında pikir alısıwı hám tárbiyalıq máselelerde birden-bir qatnastı qáliplestiriwi kerek. Bilimlendiriw mákemesiniń ruwxıy-ádep-ikramlılıq tárbiyasındağı wazıypaları. Mektep, kolledj, texnikum hám joqarı oqiw orınları jaslardıń ruwxiy-ádep-ikramlılıq rawajlanıwında áhmiyetli sociallıq institutlardan esaplanadı. Bilimlendiriw procesinde túrli pánlerdiń mazmunı arqalı oqıwshılarda ádep-ikramlılıq qádiriyatlardı qáliplestiriw imkaniyatı bar. Máselen, tariyx páninde milliy qaharmanlardıń ómiri hám iskerligi, ádebiyat páninde kórkem obrazlardıń ádep-ikramlılıq kózqarasları, biologiya hám geografiya pánlerinde tábiyatqa juwapkershilikli qatnas, huqıq pánlerinde nızam hám puqaralıq juwapkershilik sıyaqlı temalar ruwxıy-ádep-ikramlılıq tárbiya menen baylanısıwı múmkin. Bunnan tısqarı, tárbiyalıq ilajlar, pikir talaslar, dógerek sáwbetleri, kitapqumarlıq kesheleri, qayırqomlıq hám sociallıq joybarlar arqalı jaslardıń sociallıq belsendiligin arttırıw múmkin.

Watanpárwarlıq jas áwladtıń ruwxıy-ádep-ikramlıq tárbiyasındağı tiykarǵı baǵdarlardan biri. Watandı súyiwshilik tek ǵana mámleketlik belgilerdi húrmet etiw yaki Watan haqqında bilimge iye boliw menen sheklenbeydi. Ol óz mámleketiniń rawajlanıwına baylanıslılıqtı seziniw, jámiyet máplerine juwapkershilik penen qatnas jasaw hám mámlekettiń keleshegine úles qosıwǵa umtılıw sıyaqlı pazıyletlerdi de óz ishine aladı.

Jaslardı watandı súyiwshilik ruwxında tárbiyalawda tariyxıy miyras, ullı ata-babalardıń ómiri, milliy mádeniyat hám xalıqtıń tariyxıy tájiriybesinen nátiyjeli paydalanıw múmkin. Sonday-aq, oqıwshılardıń sociallıq joybarlarda, abadanlastırıw jumıslarında, ekologiyalıq ilajlarda hám jámiyetlik baslamalarda qatnasıwı watansúyiwshiliktiń ámeliy kórinislerin qáliplestiriwge járdem beredi. Búgingi jaslar úlken kólemdegi informaciya aǵımı ishinde jasamaqta. Internet hám sociallıq tarmaqlar jaslardıń dúnyaqarası, sóylesiw mádeniyatı hám minez-qulqına unamlı yamasa unamsız tásir kórsetiwi múmkin. Sonıń ushın zamanagóy ruwxıy-ádep-ikramlılıq tárbiya jaslardı informaciyadan durıs paydalanıwǵa úyretiwdi de qamtıp alıwı kerek. Oqıwshılarda media sawatlılıq, sın kózqarastan pikirlew hám málimleme dáreklerin tallaw kónlikpelerin rawajlandırıw áhmiyetli. Jaslar internettegi hár qanday maǵlıwmattı haqıyqat sıpatında qabıl etpey, onıń deregin, maqsetin hám isenimliligin tallay alıwı kerek. Bul bolsa olardı hár qıylı manipulyativlik hám zıyanlı málimleme tásirinen qorǵawǵa járdem beredi. Ruwxıy-ádep-ikramlılıq tárbiyanı nátiyjeli shólkemlestiriwde zamanagóy pedagogikalıq metodlardan paydalanıw úlken áhmiyetke iye. Ásirese, oqıwshılardıń belsendi qatnasıwın támiyinleytuǵın metodlar jaqsı nátiyje beriwi múmkin.

Juwmaqlap aytqanda, jas áwladtı ruwxıy-ádep-ikramlılıq jaqtan tárbiyalaw jámiyettiń turaqlı rawajlanıwı hám keleshek áwladtıń bárkamal shaxs sıpatında qáliplesiwinde úlken áhmiyetke iye. Ruwxiy-ádep-ikramlılıq tárbiya procesinde jaslardıń tek bilim dárejesi emes, al olardıń dúnyaqarası, qádiriyatlarga múnásibeti,

minez-qulqı hám sociallıq juwapkershiligi de qáliplesedi.Nátiyjeli tárbiya ushın shańaraq, bilimlendiriw mákemesi hám jámiyettiń birge islesiwi zárúr. Pedagogtıń jeke úlgisi, milliy hám uliwma insanıylıq qádiriyatlardıń úylesimliligi, zamanagóy pedagogikalıq metodlardan paydalanıw hám de jaslardıń jámiyetlik iskerlikke tartılıwı tárbiyanıń nátiyjeliligin asıradı. Sonday-aq, zamanagóy málimleme ortalıǵınıń jaslar dúnyaqarasına tásirin esapqa alıp, olarda media sawatlılıq, sın kózqarastan pikirlew hám erkin qarar qabıl etiw kónlikpelerin qáliplestiriw zárúr. Bunday qatnas jaslardı hár qıylı unamsız tásirlerden qorǵaw menen birge, olardı sanalı, juwapkershilikli hám belsendi puqaralar etip tárbiyalawǵa xızmet etedi.Demek, ruwxiy-ádep-ikramlılıq tárbiya bilimlendiriw procesiniń ajiralmas bólegi sipatında shólkemlestiriliwi, oniń mazmuni zamanagóy talaplar menen úylestiriliwi hám ámeliy xizmet penen bekkemleniwi kerek.

Paydalanılǵan ádebiyatlar

1. O‘zbekiston Respublikasi. “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonun. O‘RQ-637-son, 23.09.2020.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti. “Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmon. PF-60-son, 28.01.2022.
3. Avloniy A. Turkiy guliston yoxud axloq. — Toshkent: O‘zbekiston, 1992.
4. Hasanboyev J., To‘raqulov X.A., Alqarov I.Sh., Usmanov N.O‘. Pedagogika. — Toshkent: Fan va texnologiya, 2011.
5. Mavlonova R., To‘rayeva O., Holiqberdiyev K. Pedagogika. — Toshkent: O‘qituvchi, 2001.
6. Muslimov N.A., Usmonboyeva M.H., Sayfurov D.M., To‘rayev A.B. Pedagogik kompetentlik va kreativlik asoslari. — Toshkent, 2015.
7. UNESCO. Education for Sustainable Development Goals: Learning Objectives. — Paris: UNESCO, 2017.
8. UNICEF. The State of the World's Children 2021: On My Mind — Promoting, Protecting and Caring for Children’s Mental Health. — New York: UNICEF, 2021.

THEORETICAL AND METHODOLOGICAL APPROACHES TO THE STUDY OF THE PARTICIPATORY READINESS OF FUTURE PSYCHOLOGISTS FOR PROFESSIONAL ACTIVITY

Saripbekova Aigul Turisbekovna
Doctoral student of the Department of General Pedagogy and Psychology South Kazakhstan University named after M.Auyezov
Shymkent, Kazakhstan
https://doi.org/10.5281/zenodo.23179012

Аннотация. *В статье проведен понятийно-терминологический анализ и создан терминологический ряд базовых понятий проблемы формирования партисипативной подготовки студентов педагогических вузов: партисипация, партисипативность, педагогическая партисипативность. На основании анализа авторских позиций понимания процесса партисипативной подготовки студентов педагогических вузов выделены основные его характеристики. В статье также представлено авторское определение понятия «партисипативная подготовка студентов педагогических вузов», под которым понимается система подготовки , целью которой является формирование партисипативной компетентности, отражающей новые субъект-субъектные отношения, характеризующиеся равноправием, сотрудничеством, соуправлением, общими интересами, взглядами и ценностями, творчеством и педагогической эмпатией.*

Abstract: *The article carried out a conceptual and terminological analysis and created a terminological series of basic concepts of the problem of forming participatory training of students of pedagogical universities: participatory, participatory, pedagogical participatory. Based on the analysis of the author's positions of understanding the process of participatory training of students of pedagogical universities, its main characteristics are identified. The article also presents the author's definition of the concept of "participatory training of students of pedagogical universities," which means a training system, the purpose of which is to form participatory competence, reflecting new subject-subject relations characterized by equality, cooperation, co-management, common interests, views and values, creativity and pedagogical empathy.*

Ключевые слова: *партисативный подход, педагогическая партисипативность, участие, партиспативная компетенция, будущий педагог, образование.*

Keywords: *participatory approach, pedagogical participatory, participation, participatory competence, future teacher, education.*

In his address to the participants of the «Jastar Fest» forum dedicated to the International Youth Day, Head of State Kassym-Jomart Tokayev noted that our country needs a powerful youth vanguard that is not afraid of responsibility, works hard and constantly improves itself. The President stressed that the youth of Kazakhstan are educated, talented, active, up–to-date citizens [1].

Motivated, educated, active youth are, in fact, a strategic resource for the development of any country.The higher education system sets itself global goals for developing the potential of student youth and forming a unique lifestyle related to education, self-knowledge, professional choice, growth, social activity, participation in society and personal development. Professional training of future teachers is the

process of preparing students for the future realization of their skills and abilities in a certain area of pedagogical activity, through the acquired system of knowledge and skills.

Equipping future teachers with the necessary knowledge and competencies will help them organize an effective learning process in the early stages of their careers. Future teachers should also be able to integrate new technologies and interactive methods into their daily practice, which make it possible to measure applied and interdisciplinary competencies. Effective assessment mechanisms play a fundamental role in supporting teachers in the process of implementing such approaches [2].

The concept of "Participatory readiness" in pedagogical practice has appeared relatively recently and requires further psychological and pedagogical research and structural analysis, as well as the integration of the principles of participation in the educational process of the university. Let's consider theoretical approaches to the interpretation of this concept in pedagogical practice.

Participation (from latin. *participatio*) is the active involvement of people, consumers, workers, or citizens in decision-making, production, or creation of something, whether it's goods, services, cultural products, urban spaces, or management decisions. This term refers to the transition from passive consumption to complicity, co-creation, and cooperation, making the individual an active participant.

At the most basic level, participation means that people participate in making decisions that affect their lives. Through participation, people can identify opportunities and strategies for action, as well as build solidarity to bring about change. Participation is essential as a core value in open and democratic societies, and is increasingly recognized as a right in global human resources documents. Participation challenges oppression and discrimination, especially against the poorest and most marginalized segments of the population. Meaningful participation depends on people's willingness and ability to participate and express their opinions. However, it can be challenging when people feel intimidated, lack the specific knowledge or language to understand and contribute, or even feel they have no right to participate. In addition, practical considerations often mean that representatives of a particular group will participate rather than each individual directly, which is fraught with the risk that some interests will not be represented or processes will be co-opted by elites or certain groups.

The participatory readiness of future teachers is the teacher's conscious and formed ability to work together on an equal basis with students (and other participants in the educational process) within the framework of a participatory approach based on dialogue, cooperation and mutual respect. It includes motivational-value, cognitive, activity-practical and reflexive components that allow

the teacher to effectively implement partnerships in educational and educational work, and not only to manage directively.

Let's consider the essence of participatory readiness:

- Partnership, not domination. The transition from the «teacher –student» model to the «teacher – partner» model.

- Participation. Involvement of students in decision-making, planning and evaluation of the educational process.

- Joint creativity. Creating an educational environment where students are not passive recipients of knowledge, but active subjects.

Key components of participatory readiness:

- Motivational and value-based. Value-based attitude to joint activities, respect for the personality of the student.

- Cognitive. Knowledge of participatory methods, theories of cooperation, psychology of partnership, the ability to analyze situations for the application of participation.

- Activity-based and practical. Knowledge of the skills of organizing joint projects, discussions, the ability to delegate, listen and hear.

- Reflexive. The ability to introspect one's role and the effectiveness of the partnership, and to adjust actions.

A participatory approach in the classroom develops students' independence, responsibility, and communication skills, increases motivation to learn, and forms adequate professional competencies for future teachers in a modern school where the subjectivity of all participants is important.

The concept of participation was formed within the framework of socio-philosophical and managerial concepts of the 20th century and was originally used to denote the involvement of subjects in decision-making processes and joint activities.

In pedagogy, the participatory approach was developed under the influence of:

- humanistic pedagogy (K. Rogers, A. Maslow);
- cultural and historical theory (L. S. Vygotsky);
- activity-based approach (A. N. Leontiev);
- subject-subject paradigm of education.

The concept of «participatory readiness» was formed as an integrative characteristic of the student's personality, reflecting his ability and motivational attitude to joint, responsible participation in teaching activities, including decision-making, interaction and co-authorship in the educational process.

The term «participatory readiness» is most often used in modern pedagogical and psychological-pedagogical research based on the works of: L. S. Vygotsky (joint activity, interiorization), A. N. Leontiev, S. L. Rubinstein (activity and subjectivity), I.A.Zimnaya (readiness for professional activity), V.A.Slastenin (professional

teacher training), foreign authors in the field of participatory learning and collaborative education (J. Dewey, P. Freire, Donnah L. Anderson, Anne P. Graham, Catharine Simmons, Nigel Patrick Thomas, Osnat Atias, Yael Kali, Ayelet Shavit, Ayelet Baram-Tsabari ,Christensen, Curley, Marquez, MenzelMarentic Pozarnik , Plut Pregelj, Marentic Pozarnik , Puklek Levpuscek, Martin Mottet). In modern pedagogy, participatory readiness is considered as a component of the professional readiness of a future teacher, including motivational, cognitive, activity and reflexive components.

Researcher Helia Lotz notes that the issues of participation in education are closely related to the history of education. The author argues that sociologists in the field of education such as Pierre Bourdieu, Emile Durkheim, Basil Bernstein remind us that education, as we know it and apply it in practice today, is primarily a modern invention, a project of cultural implementation and reproduction of modernity, with accompanying inclusions and exceptions [3].

Ana Bardorfer, a foreign researcher in the field of participation in higher education, believes that in accordance with the constructivist paradigm of teaching and learning, active participation of students is desirable, since interaction with the social environment allows an individual to form their knowledge. Such knowledge, as a rule, is of higher quality, characterized by understanding, applicability and consistency (Marentic Pozharnik, Plut Pregel, Puklek Levpushek, etc.). Some studies also show that the active participation of students in the classroom leads to improved academic performance and plays an important role in the success of education and personal development of students. Students who actively participate in classes also report higher satisfaction with classes and a higher level of perseverance [4].

The word «participation» is widely used in the fields of law, economics, and marketing. Some sources also use the term «participation». The author O. Moroz notes the fact that this word was used by the famous anthropologist, ethnographer, and ethnologist Levi-Bruhl when he spoke about the system of pragmatic thinking. Back in the early 20th century, Lucien Levy-Bruhl (1857-1939) substantiated the law of participation. But, of course, if we are trying to describe the systems of participation in modern times and talk about the digital environment, about Internet communication, this word is now taking on a slightly different context. Here, it is probably worth appealing to Henry Jenkins, who since the 2000s has described quite a few different cases related to the culture of participation and the different communities that practice it. What is «participation»? Translated into Russian, this is a culture of participation or complicity. Here it must be said that there is still no single accepted anglicism: a number of colleagues write and say «participation», someone says «participation» - there is no mistake here, it's just such discrepancies. The culture of participation or complicity presupposes a certain approach of a person

who was previously only a consumer of cultural and social meanings to the position of a producer [5].

According to E.Y.Nikitina, the participatory approach, as a theoretical and methodological strategy for preparing a future teacher, is based on understanding the student as a free, integral, creative person, capable, as he develops, of independently choosing values among their multiple saturation and self-determination in the world around him, involving the student in making pedagogical decisions based on participation and organization. joint activities with the teacher, as well as informal and dialogical interpersonal communication based on parity principles [6].

Thus, the participatory readiness of a future teacher is a comprehensive professional and personal readiness to actively involve all participants in the educational process (students, colleagues, parents, administration) in decision-making, planning and implementation of educational and educational activities based on the principles of equal cooperation, mutual respect and openness.

References:

1. The Jastar Fest Forum dedicated to the International Youth Day. 2025 https://www.akorda.kz/ru
2. Improving the quality of teacher training in universities and supporting aspiring teachers in Kazakhstan. OECD Country Review "Educational Policy Perspectives, 2020.issue 25. https://taldau.edu.kz/kz
3.Heila Lotz-Sisitka. Participation in Education. Rhodes University Conference: Inaugural Lecture. At: Grahams town. p.4-5.
4.Ana Bardorfer. Fostering Students Active Participation in Higher Education: The Role of Teacher-student. Athens Journal of Education.2024 P.228-229 https://doi.org/10.30958
5. Moroz O. Participation as a cultural practice. https://postnauka.org/.
6. Nikitina E.Y. A participatory approach to the problem of future teacher training. Journal of Education and Science, No. 3 (15), pp.37-38.

INKLYUZIV TA`LIMNI YO`LGA QO`YISHDA OILA, MAHALLA VA MAKTAB HAMKORLIGIDA MILLIY TARBIYA TIZIMINI RIVOJLANTIRISH

I.Q. Sayfullayeva, M.G‘.Dehqanova
Qori Niyoziy nomidagi TPMI doktoranti
https://doi.org/10.5281/zenodo.23179028

Annotatsiya: *Ushbu maqolada inklyuziv ta’limni samarali tashkil etishda oila, mahalla va maktab hamkorligining pedagogik ahamiyati hamda mazkur hamkorlik asosida milliy tarbiya tizimini rivojlantirish masalalari yoritilgan. Inklyuziv ta’lim muhitida alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalarni ijtimoiy hayotga moslashtirish, ularning ta’lim olish imkoniyatlarini kengaytirish, milliy qadriyatlar asosida tarbiyalash va jamiyatga integratsiyalashuvini ta’minlashda oila, mahalla va ta’lim muassasalarining o‘zaro hamkorligi muhim omil sifatida tahlil qilingan. Shuningdek, milliy urf-odatlar, an’analar, mehr-oqibat, bag‘rikenglik, o‘zaro hurmat va hamjihatlik kabi ma’naviy-axloqiy qadriyatlarni inklyuziv ta’lim jarayoniga tatbiq etishning pedagogik imkoniyatlari ochib berilgan. Oila, mahalla va maktab hamkorligini takomillashtirish orqali inklyuziv madaniyatni shakllantirish, bolalarning ijtimoiy-emotsional rivojlanishini qo‘llab-quvvatlash hamda milliy tarbiya samaradorligini oshirishga doir ilmiy-amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan.*

Tayanch tushunchalar: *inklyuziv ta’lim, milliy tarbiya, oila, mahalla, maktab, ijtimoiy hamkorlik, alohida ta’lim ehtiyojlari, milliy qadriyatlar, inklyuziv madaniyat, bag‘rikenglik, ijtimoiy moslashuv, ma’naviy-axloqiy tarbiya, ijtimoiy integratsiya, pedagogik hamkorlik.*

Bugungi kunda ta’lim tizimida amalga oshirilayotgan islohotlar har bir bolaning individual xususiyatlari, qobiliyatlari va ta’lim olish ehtiyojlarini hisobga olgan holda sifatli ta’lim olishini ta’minlashga qaratilgan. Mazkur jarayonda inklyuziv ta’limni rivojlantirish, ta’lim muassasalarida barcha bolalar uchun teng imkoniyatlar yaratish, ularning ijtimoiy hayotda faol ishtirok etishini qo‘llab-quvvatlash muhim pedagogik vazifalardan biri hisoblanadi. Inklyuziv ta’lim nafaqat ta’lim muassasasida tashkil etiladigan pedagogik jarayon, balki oila, mahalla va keng jamoatchilikning o‘zaro hamkorligini talab qiladigan yaxlit ijtimoiy-pedagogik tizimdir.

O‘zbekiston xalqining ko‘p asrlik milliy tarbiya tajribasi, ma’naviy merosi, urf-odatlari va an’analari yosh avlodni komil inson qilib tarbiyalashda muhim ahamiyatga ega. Xususan, mehr-oqibat, insonparvarlik, bag‘rikenglik, o‘zaro hurmat, kattalarga ehtirom, kichiklarga izzat, hamjihatlik va o‘zaro yordam kabi milliy qadriyatlar inklyuziv ta’lim muhitini shakllantirishning ma’naviy asosini tashkil etadi. Ushbu qadriyatlarni ta’lim-tarbiya jarayoniga izchil tatbiq etish orqali bolalarda o‘zgalarning individual xususiyatlarini hurmat qilish, turli imkoniyatlarga ega tengdoshlari bilan ijobiy munosabat o‘rnatish hamda ijtimoiy mas’uliyatni his etish ko‘nikmalarini rivojlantirish mumkin. Inklyuziv ta’lim sharoitida milliy tarbiya tizimini rivojlantirish masalasi, avvalo, oilada shakllanadigan tarbiyaviy munosabatlar, mahallada qaror topadigan ijtimoiy muhit va maktabda amalga

oshiriladigan maqsadli pedagogik faoliyatning uzviyligini ta’minlash bilan bog‘liq. Mazkur uchta ijtimoiy institutning hamkorligi bolaning shaxsiy kamoloti, ijtimoiy moslashuvi va jamiyat hayotiga faol qo‘shilishida muhim o‘rin tutadi.

1. Inklyuziv ta’lim va milliy tarbiyaning o‘zaro uyg‘unligi

Inklyuziv ta’lim — barcha bolalarning individual ehtiyojlari va imkoniyatlarini hisobga olgan holda, ularning sifatli ta’lim olishi, tengdoshlari bilan birgalikda rivojlanishi hamda ta’lim jarayonida faol ishtirok etishini ta’minlashga qaratilgan ta’lim yondashuvidir. Uning asosida har bir bolaning qadr-qimmatini tan olish, ta’lim olish huquqini hurmat qilish, kamsitishning oldini olish va ta’lim muhitidagi to‘siqlarni kamaytirish tamoyillari yotadi. Milliy tarbiya esa xalqning tarixiy tajribasi, ma’naviy merosi, milliy qadriyatlari, urf-odatlari va an’analari asosida yosh avlodda ijobiy axloqiy fazilatlar, ijtimoiy mas’uliyat hamda milliy o‘zlikni anglash tuyg‘ularini shakllantirishga yo‘naltirilgan uzluksiz pedagogik jarayondir. Milliy tarbiya mazmuni jamiyat taraqqiyoti bilan hamohang ravishda rivojlanib, umuminsoniy qadriyatlar bilan boyib boradi. Inklyuziv ta’lim va milliy tarbiyaning o‘zaro uyg‘unligi, eng avvalo, insonni qadrlash, uning huquq va manfaatlarini hurmat qilish, o‘zaro yordam hamda hamjihatlikni qaror toptirishda namoyon bo‘ladi. Milliy tarbiyaning insonparvarlikka asoslangan mazmuni bolalarda alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan tengdoshlariga nisbatan hurmatli munosabatni shakllantirish uchun muhim tarbiyaviy imkoniyat yaratadi.

Bunda milliy qadriyatlarni faqat nazariy tushuntirish bilan cheklanib qolmasdan, ularni kundalik hayotiy vaziyatlarda namoyon etish muhimdir. Masalan, tengdoshiga yordam berish, jamoaviy faoliyatda barcha bolalarning ishtirokini ta’minlash, o‘zaro kelishmovchiliklarni tinch yo‘l bilan hal qilish, boshqalarning fikrini tinglash va insonning individual xususiyatlarini hurmat qilish kabi xatti-harakatlar milliy tarbiyaning amaliy ifodasi hisoblanadi.

Shu nuqtayi nazardan, inklyuziv ta’lim muhitida milliy tarbiya quyidagi vazifalarni bajarishga xizmat qiladi:

- bolalarda insonparvarlik, mehr-oqibat va bag‘rikenglik fazilatlarini shakllantirish;
- turli individual xususiyatlarga ega insonlarga nisbatan hurmatli munosabatni rivojlantirish;
- o‘zaro yordam, hamkorlik va jamoaviy mas’uliyat ko‘nikmalarini tarkib toptirish;
- bolalarning milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmatini oshirish;
- kamsitish, ajratish va salbiy stereotiplarning oldini olish;
- bolalarning ijtimoiy faolligi va jamoaga daxldorlik hissini mustahkamlash.

Demak, milliy tarbiya inklyuziv ta’limning ma’naviy-axloqiy asoslarini mustahkamlovchi muhim omil bo‘lib, uning mazmuni barcha bolalarning teng huquqliligi va o‘zaro hurmat tamoyillari bilan uyg‘un holda tashkil etilishi lozim.

2. Inklyuziv ta’lim sharoitida oila, mahalla va maktab hamkorligining pedagogik ahamiyati

Bola shaxsining shakllanishi murakkab va ko‘p omilli jarayon bo‘lib, unda oila, mahalla va maktabning o‘zaro ta’siri alohida ahamiyat kasb etadi. Ushbu ijtimoiy institutlar faoliyatining maqsadga muvofiq tashkil etilishi tarbiyaviy ta’sirning uzluksizligi va izchilligini ta’minlaydi. Ayniqsa, inklyuziv ta’lim sharoitida mazkur hamkorlik bolaning individual ehtiyojlarini aniqlash, uning rivojlanishini qo‘llab-quvvatlash va ijtimoiy muhitga moslashuviga ko‘maklashishda muhim pedagogik mexanizm hisoblanadi. Oila bolaning dastlabki ijtimoiy tajribasi shakllanadigan, axloqiy me’yorlar, xulq-atvor namunalari va insoniy munosabatlar o‘zlashtiriladigan asosiy tarbiya muhitidir. Oilada bolaga nisbatan namoyon etiladigan munosabat, ota-onaning o‘zaro muomalasi, boshqa insonlarga bo‘lgan hurmati va kundalik xatti-harakatlari bolaning ijtimoiy qarashlari shakllanishiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi.

Inklyuziv ta’lim jarayonida ota-onalarning vazifasi farzandining ta’lim olishini ta’minlash bilangina cheklanmaydi. Ular bolada o‘ziga ishonch, mustaqillik, boshqalarga hurmat, hamkorlik va mas’uliyat kabi sifatlarni shakllantirishda faol ishtirok etishlari zarur. Alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalarning ota-onalari bilan pedagoglar o‘rtasidagi muntazam muloqot esa bolaning ta’limiy va tarbiyaviy ehtiyojlarini yaxlit baholash imkonini beradi. Oilada milliy tarbiya an’analaridan foydalanish bolalarda mehr-oqibat, o‘zaro yordam, kattalarga hurmat va oilaviy mas’uliyat tuyg‘ularini rivojlantiradi. Shu bilan birga, ota-onalarning farzandlari bilan insonlarning individual farqlari, o‘zaro hurmat va teng imkoniyatlar haqida suhbatlar olib borishi inklyuziv dunyoqarashning shakllanishiga xizmat qiladi.

Mahalla esa bolani kengroq ijtimoiy muhit bilan bog‘lovchi, jamoaviy qadriyatlar va ijtimoiy munosabatlar shakllanishiga ta’sir ko‘rsatuvchi muhim institutdir. Mahallada mavjud bo‘lgan hamjihatlik, o‘zaro ko‘mak, mehr-muruvvat va jamoaviy mas’uliyat an’analari inklyuziv ta’limni qo‘llab-quvvatlash uchun muhim ijtimoiy resurs hisoblanadi. Mahalla faollari, nuroniylar, yoshlar yetakchilari va boshqa jamoatchilik vakillari ta’lim muassasalari hamda oilalar bilan hamkorlikda bolalar uchun do‘stona va qo‘llab-quvvatlovchi ijtimoiy muhitni shakllantirishga hissa qo‘shishlari mumkin. Bunda alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalarni mahalla tadbirlari, madaniy-ma’rifiy uchrashuvlar, sport musobaqalari va ijodiy mashg‘ulotlarga jalb etish muhim ahamiyatga ega.

Mahalla doirasida tashkil etiladigan tadbirlar barcha bolalarning ishtirokiga moslashtirilishi, ularning imkoniyatlari va ehtiyojlari hisobga olinishi lozim. Bunday yondashuv bolalarning jamoaga daxldorlik hissini kuchaytiradi, o‘zaro munosabatlarni mustahkamlaydi va ijtimoiy ajralishning oldini olishga ko‘maklashadi.

Maktab inklyuziv ta’limni bevosita amalga oshiruvchi, ta’limiy va tarbiyaviy faoliyatni ilmiy-pedagogik asosda tashkil etuvchi asosiy muassasadir. Maktabda milliy tarbiya mazmunini inklyuziv yondashuv bilan uyg‘unlashtirish o‘quvchilarning bilim olishi bilan bir qatorda, ularning ijtimoiy-emotsional va axloqiy rivojlanishini ham qo‘llab-quvvatlaydi.Pedagoglar dars jarayonida va sinfdan tashqari faoliyatda milliy qadriyatlarga asoslangan tarbiyaviy metodlardan foydalanishlari mumkin. Jumladan, hayotiy vaziyatlarni tahlil qilish, rolli o‘yinlar, guruhli topshiriqlar, muammoli vaziyatlarni hal etish, hikoya va rivoyatlardan foydalanish o‘quvchilarda ijobiy ijtimoiy munosabatlarni shakllantirishga yordam beradi. Maktabning oila va mahalla bilan hamkorligi quyidagi yo‘nalishlarda amalga oshirilishi mumkin:

1. O‘quvchilarning individual ta’limiy va tarbiyaviy ehtiyojlarini birgalikda o‘rganish.
2. Ota-onalar uchun inklyuziv ta’lim va milliy tarbiya masalalariga bag‘ishlangan seminarlar tashkil etish.
3. Mahalla bilan hamkorlikda milliy qadriyatlar va bag‘rikenglikka yo‘naltirilgan tadbirlarni o‘tkazish.
4. Bolalarning ijtimoiy moslashuvi va tengdoshlari bilan munosabatlarini muntazam kuzatib borish.
5. Ta’lim jarayonida yuzaga keladigan muammolarni hamkorlikda muhokama qilish va yechimlar ishlab chiqish.

Shunday qilib, oila, mahalla va maktab hamkorligi inklyuziv ta’limning ijtimoiy-pedagogik asosini tashkil etadi. Ushbu hamkorlikning samaradorligi tomonlarning umumiy maqsadga yo‘naltirilganligi, vazifalarning aniq taqsimlanishi va o‘zaro axborot almashinuvi bilan belgilanadi.

3. Milliy qadriyatlar asosida inklyuziv tarbiya muhitini shakllantirish. Inklyuziv ta’lim muhitida milliy tarbiya tizimini rivojlantirish, avvalo, milliy qadriyatlarning mazmunini zamonaviy pedagogik yondashuvlar bilan uyg‘unlashtirishni talab etadi. Milliy qadriyatlar bolalarda ma’naviy-axloqiy fazilatlarni shakllantirish bilan birga, jamiyatda o‘zaro hurmat va ijtimoiy birdamlikni mustahkamlashga xizmat qiladi. O‘zbek xalqining mehmondo‘stlik, mehr-oqibat, saxovat, hamjihatlik, kattalarga hurmat va kichiklarga izzat kabi an’analari inklyuziv tarbiyaning mazmunini boyitish imkoniyatiga ega. Biroq mazkur qadriyatlarni ta’lim jarayoniga tatbiq etishda ularning inson qadr-qimmati, tenglik va shaxsiy mustaqillik tamoyillari bilan uyg‘unligiga e’tibor qaratish lozim. Milliy qadriyatlar asosida inklyuziv tarbiya muhitini shakllantirishda quyidagi yo‘nalishlarni ajratib ko‘rsatish mumkin.

Birinchidan, insonparvarlik va mehr-oqibat tarbiyasi. Bolalarda har bir insonning qadr-qimmatini e’tirof etish, boshqalarning ehtiyojlariga befarq bo‘lmaslik va zarur vaziyatlarda ko‘maklashish ko‘nikmalarini rivojlantirish zarur.

Bunda yordam ko‘rsatish insonning mustaqilligini cheklamasligi, balki uning imkoniyatlarini kengaytirishga xizmat qilishi kerak.

Ikkinchidan, bag‘rikenglik va o‘zaro hurmatni shakllantirish. Ta’lim-tarbiya jarayonida bolalarning tashqi ko‘rinishi, rivojlanish xususiyatlari, o‘rganish sur’ati va individual imkoniyatlaridagi farqlar tabiiy holat sifatida tushuntirilishi lozim. Bunday yondashuv o‘quvchilarda o‘zaro hurmatni rivojlantirish va kamsituvchi munosabatlarning oldini olishga yordam beradi.

Uchinchidan, hamkorlik va jamoaviy mas’uliyatni rivojlantirish. Guruhli mashg‘ulotlar, jamoaviy loyihalar va o‘zaro yordamga asoslangan topshiriqlar orqali bolalarda umumiy maqsad sari birgalikda harakat qilish ko‘nikmalari shakllantiriladi. Har bir bolaning faoliyatda ishtirok etishi uchun zarur sharoit yaratish muhimdir.

To‘rtinchidan, milliy meros va an’analarni o‘rganish. Xalq og‘zaki ijodi namunalari, ertaklar, maqollar, hikmatli so‘zlar va tarixiy shaxslar hayotiga oid tarbiyaviy materiallardan foydalanish orqali bolalarda milliy o‘zlikni anglash va ma’naviy qadriyatlarga hurmat tuyg‘ulari rivojlantiriladi. Mazkur materiallar insonparvarlik, adolat, o‘zaro yordam va mehr-oqibat g‘oyalarini yoritishga yo‘naltirilishi maqsadga muvofiq.

Beshinchidan, ijtimoiy-emotsional ko‘nikmalarni rivojlantirish. Bolalarning o‘z his-tuyg‘ularini anglash, ularni boshqarish, boshqalarning hissiy holatini tushunish, ijobiy munosabatlar o‘rnatish va mas’uliyatli qarorlar qabul qilish ko‘nikmalari milliy tarbiya mazmuni bilan uyg‘unlashtirilishi mumkin. Bu jarayonda ijtimoiy-emotsional ta’lim (SEL) yondashuvidan foydalanish alohida ahamiyat kasb etadi.

Milliy tarbiya va ijtimoiy-emotsional ta’limning uyg‘unligi bolalarda nafaqat axloqiy bilimlarni, balki ularni kundalik hayotda qo‘llashga doir amaliy ko‘nikmalarni ham shakllantiradi. Masalan, tengdoshining hissiy holatini tushunish, kelishmovchilikni tinch yo‘l bilan hal qilish, o‘z xatti-harakatining boshqalarga ta’sirini anglash va jamoa oldidagi mas’uliyatni his etish kabi ko‘nikmalar inklyuziv munosabatlarning mustahkamlanishiga xizmat qiladi.

4. Oila, mahalla va maktab hamkorligida milliy tarbiya tizimini rivojlantirish mexanizmlari. Inklyuziv ta’lim sharoitida milliy tarbiya tizimini samarali rivojlantirish uchun oila, mahalla va maktab hamkorligini aniq maqsad, mazmun va mexanizmlar asosida tashkil etish zarur. Hamkorlikning faqat tadbirlar o‘tkazish bilan cheklanib qolishi kutilgan natijalarni to‘liq ta’minlamaydi. Shu sababli uning mazmuni bolalarning individual ehtiyojlarini qo‘llab-quvvatlash, tarbiyaviy muhitni takomillashtirish va ijtimoiy munosabatlarni rivojlantirishga yo‘naltirilishi lozim.

Hamkorlikni rivojlantirishning asosiy mexanizmlari quyidagilardan iborat.

1. Hamkorlikning yagona maqsad va vazifalarini belgilash. Oila, mahalla va maktab vakillari inklyuziv tarbiyaning ustuvor maqsadlarini birgalikda belgilashlari

zarur. Bunda bolalarning ta’lim olish imkoniyatlarini kengaytirish, milliy qadriyatlarni o‘zlashtirish, ijtimoiy-emotsional rivojlanishni qo‘llab-quvvatlash va ijtimoiy moslashuviga ko‘maklashish asosiy yo‘nalishlar sifatida belgilanadi.

2. Ota-onalarning pedagogik kompetensiyalarini rivojlantirish. Ota-onalar uchun inklyuziv ta’limning mazmuni, bolalarning individual xususiyatlari, milliy tarbiya metodlari va ijobiy muloqot usullariga bag‘ishlangan mashg‘ulotlarni tashkil etish lozim. Bunday mashg‘ulotlar ota-onalarning pedagogik bilimlarini oshirish bilan birga, farzandlari bilan samarali munosabat o‘rnatishlariga yordam beradi.

3. Mahalla imkoniyatlaridan samarali foydalanish. Mahallada bolalarning qiziqishlari va imkoniyatlariga mos madaniy-ma’rifiy, sport va ijodiy tadbirlarni tashkil etish maqsadga muvofiq. Tadbirlarni rejalashtirishda barcha bolalarning ishtiroki, jismoniy va kommunikativ imkoniyatlariga mos sharoitlar hamda zarur pedagogik yordam hisobga olinishi kerak.

4. Maktabda inklyuziv tarbiyaviy muhitni mustahkamlash. Maktabda milliy qadriyatlar, bag‘rikenglik va o‘zaro hurmatga asoslangan tarbiyaviy ishlar tizimini yo‘lga qo‘yish zarur. Bunda sinf rahbarlari, fan o‘qituvchilari, maxsus pedagoglar, psixologlar va ota-onalar o‘rtasidagi hamkorlik muhim ahamiyatga ega.

5. Hamkorlik natijalarini monitoring qilish. Oila, mahalla va maktab hamkorligining samaradorligi muntazam tahlil qilib borilishi lozim. Monitoring jarayonida bolalarning jamoaviy faoliyatdagi ishtiroki, tengdoshlari bilan munosabatlari, o‘zaro yordam ko‘rsatish ko‘nikmalari, ota-onalarning hamkorlikdagi faolligi va ta’lim muhitining qulayligi kabi ko‘rsatkichlarga e’tibor qaratish mumkin.

Inklyuziv ta’limda milliy tarbiyani rivojlantirishning mavjud muammolari va ularning yechimlari Oila, mahalla va maktab hamkorligida milliy tarbiya tizimini rivojlantirish jarayonida ayrim tashkiliy, pedagogik va ijtimoiy muammolar yuzaga kelishi mumkin. Ushbu muammolarni aniqlash va bartaraf etish inklyuziv ta’lim samaradorligini oshirishning muhim shartidir. Birinchi muammo — ayrim ota-onalarda inklyuziv ta’limning mazmuni va imkoniyatlari to‘g‘risidagi bilimlarning yetarli emasligi. Bu holat alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalarning ta’lim jarayonida ishtirok etishi va tengdoshlari bilan munosabatlariga nisbatan noto‘g‘ri qarashlarning shakllanishiga sabab bo‘lishi mumkin. Mazkur muammoni hal etish uchun ota-onalar bilan tushuntirish ishlari, ma’rifiy uchrashuvlar va amaliy seminarlarni muntazam tashkil etish zarur.

Ikkinchi muammo — milliy tarbiya va inklyuziv yondashuvning o‘zaro bog‘liqligiga yetarlicha e’tibor berilmasligi. Tarbiyaviy tadbirlarda milliy qadriyatlar haqida ma’lumot berilishi mumkin, biroq ularni barcha bolalarning faol ishtiroki, tengligi va o‘zaro hurmati bilan bog‘lash har doim ham yetarli darajada amalga oshirilmaydi. Shu sababli tarbiyaviy ishlarning mazmunini inklyuziv tamoyillar asosida qayta ko‘rib chiqish lozim. Uchinchi muammo — oila, mahalla

va maktab o‘rtasidagi hamkorlikning tizimli yo‘lga qo‘yilmaganligi. Ayrim hollarda hamkorlik alohida tadbirlar yoki muayyan muammolar yuzaga kelgandagina faollashadi. Buning oldini olish uchun hamkorlik rejasini ishlab chiqish, mas’ul shaxslarni belgilash va natijalarni muntazam tahlil qilish maqsadga muvofiq. To‘rtinchi muammo — jamoatchilik orasida alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalarga nisbatan stereotip qarashlarning mavjudligi. Bunday qarashlar bolalarning ijtimoiy faolligiga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Ushbu muammoni bartaraf etishda ma’rifiy tadbirlar, tengdoshlar o‘rtasidagi hamkorlik, ijobiy hayotiy misollar va inson qadr-qimmatini ulug‘lovchi milliy qadriyatlardan foydalanish muhimdir. Yuqoridagi muammolarni hal etish maqsadida quyidagi ilmiy-amaliy tavsiyalarni ilgari surish mumkin:

- ta’lim muassasalarida oila, mahalla va maktab hamkorligining istiqbolli rejasini ishlab chiqish;
- milliy qadriyatlar asosida inklyuziv tarbiyaga yo‘naltirilgan metodik tavsiyalar va tarbiyaviy materiallar yaratish;
- ota-onalar, pedagoglar va mahalla faollari uchun inklyuziv madaniyatni rivojlantirishga qaratilgan o‘quv seminarlarini tashkil etish;
- bolalarning individual ehtiyojlariga moslashtirilgan milliy bayramlar, ijodiy uchrashuvlar va jamoaviy loyihalarni amalga oshirish;
- pedagogik jarayonda ijtimoiy-emotsional ta’lim metodlaridan foydalanish;
- bolalarning o‘zaro munosabatlari va ijtimoiy faolligini baholashga qaratilgan monitoring mezonlarini ishlab chiqish;
- hamkorlik jarayonida bolalar va oilalarning sha’ni, qadr-qimmati hamda shaxsiy ma’lumotlari daxlsizligini ta’minlash.

Mazkur tavsiyalarning izchil amalga oshirilishi milliy tarbiya mazmunini inklyuziv ta’lim talablari bilan uyg‘unlashtirish, tarbiyaviy faoliyatning uzluksizligini ta’minlash va bolalar uchun qo‘llab-quvvatlovchi ijtimoiy muhitni shakllantirishga xizmat qiladi.

Xulosa o`rnida shuni aytish mumkinki, Inklyuziv ta’limni samarali tashkil etish va uning tarbiyaviy imkoniyatlarini kengaytirishda oila, mahalla va maktab hamkorligi muhim ijtimoiy-pedagogik omil hisoblanadi. Ushbu hamkorlikning izchil yo‘lga qo‘yilishi bolalarning individual ehtiyojlarini hisobga olish, ularning ijtimoiy moslashuvini qo‘llab-quvvatlash hamda milliy va umuminsoniy qadriyatlar asosida tarbiyalash imkonini beradi.

Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, milliy tarbiya va inklyuziv ta’lim o‘rtasidagi uzviylik, avvalo, inson qadr-qimmatini e’tirof etish, o‘zaro hurmat, bag‘rikenglik, mehr-oqibat va hamjihatlik kabi tamoyillarda namoyon bo‘ladi. Mazkur qadriyatlarni oilada, mahallada va ta’lim muassasasida izchil targ‘ib etish bolalarda ijobiy ijtimoiy munosabatlar va jamoaviy mas’uliyatni shakllantirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi. Ta’lim to‘g‘risidagi Qonun. O‘RQ-637, 2020-yil 23-sentabr.
2. O‘zbekiston Respublikasi. Bola huquqlarining kafolatlari to‘g‘risidagi Qonun. 2008-yil 7-yanvar.
3. O‘zbekiston Respublikasi. Nogironligi bo‘lgan shaxslarning huquqlari to‘g‘risidagi Qonun. O‘RQ-641, 2020-yil 15-oktabr.
4. UNESCO. A Guide for Ensuring Inclusion and Equity in Education. Paris: UNESCO, 2017.
5. UNESCO. The Salamanca Statement and Framework for Action on Special Needs Education. Salamanca, 1994.
6. CASEL. What Is the CASEL Framework? Collaborative for Academic, Social, and Emotional Learning.

QORI NIYOZIY NOMIDAGI TARBIYA PEDAGOGIKASI MILLIY INSTITUTI
TPMI
1929

TALABALARNING O‘QUV FAOLIYATIDAGI O‘ZINI O‘ZI BOSHQARISH VA FAOLLIK KO‘RSATKICHLARINING EMPIRIK XUSUSIYATLARI

Saypnazarova Mirigul Kalknazarovna[1]
[1] *University of innovation technologies o‘qituvchisi*
https://doi.org/10.5281/zenodo.23179035

Annotatsiya. *Ushbu tezisda talabalar o‘quv faoliyatida o‘zini o‘zi boshqarishning tuzilishi va mexanizmlarini ochib beruvchi empirik tadqiqotlar natijalari tizimlashtirilgan. Kognitiv, metakognitiv va motivatsion-irodaviy strategiyalar, shuningdek, ularning ta’limga chuqur yondashuvni shakllantirish va akademik o‘zlashtirishni oshirishdagi hal qiluvchi roli ko‘rib chiqiladi. Tashqi to‘siqlarni bartaraf etishda akademik o‘z-o‘zini samaradorlik, jalb etilganlik, his-tuyg‘ular va vaqtni boshqarish ko‘nikmalarining o‘rni, shuningdek, onlayn ta’lim sharoitida o‘zini o‘zi boshqarishning namoyon bo‘lish xususiyatlariga alohida e’tibor qaratilgan. Umumlashtirilgan ma’lumotlar shuni tasdiqlaydiki, o‘zini o‘zi boshqarish bilish faolligi yo‘nalishini belgilovchi va ta’lim jarayonini tashkil etishda kompleks yondashuvni talab qiluvchi fundamental tizimli konstrukt hisoblanadi.*

Kalit so‘zlar: *o‘zini o‘zi boshqarish, akademik faollik, o‘quvga jalb etilganlik, akademik o‘z-o‘zini samaradorlik, o‘zlashtirish, kognitiv strategiyalar, akademik his-tuyg‘ular, onlayn ta’lim.*

O‘quv faoliyatini o‘zini o‘zi boshqarish faol, konstruktiv jarayon bo‘lib, uning davomida talabalar o‘z ta’lim maqsadlarini belgilaydi, so‘ngra o‘zlarining bilish faoliyati, motivatsion holatlari va xulq-atvorini kuzatib boradi, tartibga soladi va nazorat qiladi [1]. Shunga ko‘ra, o‘zini o‘zi tartibga soluvchi talabalar keng ko‘lamli kognitiv, metakognitiv va motivatsion strategiyalar yordamida o‘quv tajribasini samarali boshqaradigan, ta’lim jarayonining subyektli ishtirokchilari sifatida namoyon bo‘ladi [2]. Mazkur ish talaba-yoshlarning o‘zini o‘zi boshqarishi va akademik faolligining asosiy ko‘rsatkichlariga xos xususiyatlar hamda ularning o‘zaro bog‘liqligini ochib beruvchi empirik tadqiqotlarni tizimlashtirish va tahlil qilishga bag‘ishlangan.

Zamonaviy empirik ma’lumotlarga ko‘ra, o‘z-o‘zini tartibga soluvchi ta’lim tuzilmasi uchta asosiy tarkibiy qismni o‘z ichiga oladi: metakognitiv strategiyalar (bilish faoliyatini rejalashtirish, monitoring qilish va tuzatish), o‘quv vazifalarini hal qilishda irodaviy sa’y-harakatlarni boshqarish va materialni o‘zlashtirishning bevosita kognitiv strategiyalari [3]. Pintrichning konseptual modeli doirasida ushbu komponentlar tartibga solishning turli sohalarini qamrab oladi: kognitiv, metakognitiv, motivatsion, shuningdek, vaqt va ta’lim muhitini boshqarish sohalari [4].

Qo‘llaniladigan tartibga solish vositalarining xilma-xilligi C. A. Wolters [2] tomonidan 115 nafar kollej talabasi ishtirokida o‘tkazilgan tadqiqotda tasdiqlangan bo‘lib, uning davomida motivatsion strategiyalarning 14 toifali tasnifi shakllantirildi. Ushbu tuzilmada kognitiv strategiyalar (javoblarning 22 foizi) va

maqsad qo‘yishga yo‘naltirilganlik (15 foiz) eng ko‘p tilga olingan bo‘lsa, undan keyingi o‘rinlarni irodaviy strategiyalar (14 foiz), vazifa ahamiyatini dolzarblashtirish (9 foiz), qiziqishni saqlab qolish (8 foiz), tashqi mukofotlarni izlash (5 foiz), shuningdek, diqqatni boshqarish (3 foiz) va yordam so‘rash egalladi [2]. Bunday turli xil vositalarning mavjudligi akademik qat’iyatni saqlab qolish kompleks psixologik mexanizmlar tizimiga tayanishidan dalolat beradi.

Qo‘llaniladigan strategiyalarning o‘ziga xosligi ta’lim oluvchining bilimlarni o‘zlashtirishga bo‘lgan umumiy yondashuvini belgilaydi. J. Häsä va boshqalarning [1] 103 nafar fin talabasi ishtirokida kross-lag panel tahlilidan foydalangan holda o‘tkazgan longityud tadqiqotida ta’lim jarayonining o‘z-o‘zini boshqarishi (samoregulyatsiyasi) o‘qishga chuqur yondashish va uyushqoqlikning muhim prediktori bo‘lganligi, tashqi (eksternal) tartibga solish va uning yo‘qligi esa yuzaki yondashuvni ishonchli tarzda oldindan belgilab berishi aniqlandi [1]. Teskari ta’sir (ta’lim yondashuvlaridan o‘z-o‘zini boshqarish darajasiga qarab) statistik jihatdan o‘z tasdig‘ini topmaganligi sababli, o‘z-o‘zini boshqarish – bilish faoliyatining yo‘nalish vektorini belgilab beruvchi birlamchi, fundamental konstrukt degan xulosaga kelish mumkin [1].

Bunda ushbu ko‘rsatkichlarning namoyon bo‘lish darajasi nafaqat shaxsning ichki resurslariga, balki tashqi pedagogik kontekstga ham bog‘liq. J. de la Fuente va boshqalarning [5] 1036 nafar ispaniyalik talabadan iborat tanlanmada o‘tkazgan tadqiqoti shuni ko‘rsatdiki, talabaning o‘z-o‘zini boshqarish darajasi va o‘qituvchining tartibga soluvchi ta’siri (teskari aloqa) uyg‘unligi ta’limga yondashuv turini, o‘zlashtirish va qoniqishni chiziqli aniqlaydigan 5 bosqichli modelni shakllantiradi [5]. Yuqori subyektiv o‘z-o‘zini boshqarish va samarali tartibga soluvchi o‘qitishning uyg‘unligi eng kuchli namoyon bo‘ladigan chuqur yondashuvga, yuqori o‘zlashtirish va qoniqishga olib keladi, ikkala omilning yetishmasligi esa yuzaki yondashuv va past natijalarga sabab bo‘ladi [5].

Talabani faol o‘z-o‘zini boshqarishga undaydigan markaziy ichki omillardan biri akademik o‘z-o‘zini samaradorlik bo‘lib, uning akademik yutuqlar bilan ijobiy bog‘liqligi metaanalitik va empirik ma’lumotlar bilan izchil ravishda tasdiqlanadi [6]. Shu bilan birga, ushbu ta’sir mexanizmlari bilvosita xususiyatga ega: Q. Luo va boshqalarning [4] 1158 nafar xitoylik talaba tanlanmasida ko‘rsatishicha, o‘quv jarayoniga jalb qilinganlik “o‘z-o‘zini samaradorlik — akademik o‘zlashtirish” bog‘liqligida asosiy vositachi vazifasini bajaradi [4]. Shunday qilib, o‘z imkoniyatlariga bo‘lgan ishonch o‘zlashtirishga ham bevosita, ham bilvosita — o‘quv jarayoniga hissiy va kognitiv jihatdan chuqurroq kirib borish orqali ta’sir ko‘rsatadi [4].

O‘quvga jalb etilishning o‘zini belgilovchi omillar tuzilmasi ko‘p komponentliligi bilan ajralib turadi. M.-A. Martinie va R. Shanklandning [7] 223 nafar fransuz birinchi kurs talabalari tanlanmasida olib borgan tadqiqotida akademik

o‘z-o‘zini samaradorlik, psixologik moslashuvchanlik va yutuqqa qaratilgan maqsadli orientatsiyalar birgalikda o‘quvga jalb etilish dispersiyasining 43,3 foizini tushuntirishi aniqlangan [7]. Hal qiluvchi hissani o‘z-o‘zini samaradorlik hamda mahorat va natijadorlikka qaratilgan maqsadli orientatsiyalar qo‘shadi, psixologik moslashuvchanlik esa tushuntiriladigan dispersiyaning qo‘shimcha, ammo statistik jihatdan ahamiyatli o‘sishini ta’minlaydi (1,7%) [7]. Ushbu fakt talabalar faolligini prognozlashda hissiy-irodaviy va qadriyatli-motivatsion ko‘rsatkichlar majmuini hisobga olish zarurligini ko‘rsatadi.

O‘quv jarayoni muqarrar ravishda stressogen omillar bilan bog‘liq bo‘lganligi sababli, o‘zini o‘zi boshqarish tuzilmasida hissiy holatlar va moslashish qobiliyati muhim rol o‘ynaydi. J. Xu va Y. Wangning [8] xorijiy tilda yozma nutqni o‘rganishga bag‘ishlangan 362 nafar xitoylik talaba tanlanmasida o‘tkazgan tadqiqotiga ko‘ra, akademik barqarorlik va o‘z-o‘zini tartibga soluvchi ta’lim strategiyalarini tanlash o‘rtasidagi bog‘liqlik akademik hissiyotlar vositasida amalga oshadi [8].

Nazorat-qadriyat nazariyasi qoidalariga to‘liq mos ravishda, akademik barqarorlik mahsuldor emotsiyalarni ijobiy, destruktiv emotsiyalarni esa salbiy bashorat qiladi, bu esa o‘z navbatida o‘zini o‘zi boshqarish strategiyalaridan foydalanishni tartibga soladi [8]. Ijobiy emotsiyalar (mamnuniyat, umid, g‘urur) o‘zini o‘zi boshqarish strategiyalaridan foydalanishni rag‘batlantirsa, salbiy emotsiyalar (g‘azab, xavotir, zerikish, umidsizlik, uyat) tormozlovchi ta’sir ko‘rsatadi [8]. Bu shuni ta’kidlaydiki, emotsional soha o‘zini o‘zi boshqarish mexanizmlarini amalga oshirish yo‘lidagi muhim katalizator yoki to‘siq vazifasini bajaradi.

Emotsional holatlardan tashqari, ta’lim oluvchilar faolligining kun davomidagi dinamik xususiyatlari ularning o‘z fazoviy-vaqt muhitini tashkil etish qobiliyatiga sezilarli darajada bog‘liq. M.-T. Lo va boshqalarning [9] tajriba tanlash usuli (*experience sampling method*) qo‘llanilgan holda 81 nafar talabadan iborat tanlanmada o‘tkazgan tadqiqotida, diqqatni jamlashning shaxs ichidagi o‘zgaruvchanligi (55-69%) shaxslararo o‘zgaruvchanlikdan ustun ekanligi aniqlandi [9]. Ushbu natija o‘quv faolligining joriy kontekstga nisbatan yuqori darajada ta’sirchanligini ko‘rsatadi [9].

Biroq, vaqtni boshqarish va ta’lim muhitini tashkil etish bo‘yicha rivojlangan ko‘nikmalar tashqi to‘siqlarning (kun vaqti, mashg‘ulot turi) salbiy ta’sirini yumshatishga qodir. Mualliflar shuni aniqladiki, vaqt va muhitni samaraliroq boshqaradigan talabalar kontekstual omillarga kamroq ta’sirchan bo‘ladi, vaqt/muhitni boshqarish va kognitiv strategiyalar o‘rtasidagi ijobiy bog‘liqlik esa norasmiy fazoviy kontekstlarga (kafe, restoranlar) qaraganda rasmiy sharoitlarda (auditoriya, kutubxona) va uyda yaqqolroq namoyon bo‘ladi [9].

O‘zini o‘zi boshqarish va muhitni tashkil etishning tavsiflangan jarayonlari tashqi nazorat darajasi pasayadigan masofaviy ta’lim sharoitida alohida o‘ziga xoslik kasb etadi. S. Lee va boshqalarning tadqiqotida [6] 12 haftalik onlayn dasturdan o‘tgan 1105 nafar 5-9-sinf o‘quvchilaridan iborat tanlanmada o‘zini o‘zi boshqarish ko‘rsatkichlari rivojlanishining nochiziqli dinamikasi qayd etilgan: umumiy o‘sishning taxminan 74 foizi dastlabki bosqichda (birinchi va ikkinchi o‘lchovlar orasida) kuzatilgan [6]. Bunda o‘zgarishlar trayektoriyasi dastlabki o‘zlashtirish darajasi bilan belgilandi: o‘rtacha natijalarga erishgan o‘quvchilar barqaror o‘sishni namoyish etdilar, yuqori natijalarga erishganlarda esa ko‘rsatkich dasturning dastlabki bosqichlaridanoq platoga chiqdi [6].

Guruhlar o‘rtasidagi farqlar psixologik determinantlarning xususiyatlarida ham namoyon bo‘ldi: o‘zlashtirishi past o‘quvchilar uchun o‘zini o‘zi boshqarish o‘sishining asosiy omillari mustaqillik va kompetentlikka bo‘lgan ehtiyojlarning qondirilishi bo‘lsa, yaxshi o‘zlashtiradigan o‘quvchilar uchun daxldorlikka bo‘lgan ehtiyojning qondirilishi hal qiluvchi rol o‘ynadi [6].

Shu bilan birga, L. Ma va L. She [10] to‘liq onlayn ta’lim sharoitida 713 nafar xitoylik talaba tanlanmasida ko‘rsatganidek, o‘quv maqsadlariga yo‘naltirilganlik o‘z samaradorligi va jalb qilinganlik vositachilari orqali akademik o‘zlashtirish bilan ijobiy bog‘liq, biroq ta’limdan subyektiv qoniqish parametri yakuniy GPA bilan ahamiyatli korrelyatsiyani ko‘rsatmadi [10]. Onlayn kursni hissiy-baholovchi idrok etish va obyektiv akademik yutuqlar o‘rtasidagi bu tafovut shuni ko‘rsatadiki, o‘zini o‘zi boshqarish ko‘nikmalari shakllanmagan taqdirda, affektiv qulay holat yuqori mahsuldorlikning kafolati bo‘la olmaydi.

Tartibga solish mexanizmlarining o‘quv faoliyatining obyektiv natijalariga kompleks ta’siri tabiiy fanlar yo‘nalishidagi 101 nafar talaba tanlanmasida o‘tkazilgan C. Peng [3] tadqiqotida o‘z tasdig‘ini topgan. Kognitiv strategiyalar va o‘z samaradorligi imtihon ballarining bevosita prediktorlari ekanligi isbotlandi, bunda kognitiv strategiyalarni qo‘llash eng kuchli ta’sir ko‘rsatadi [3].

Shunisi e’tiborga loyiqki, test xavotirligi omili faqat birlamchi attestatsiya bosqichida destruktiv ta’sir ko‘rsatib, bilimlarni qayta tekshirishda o‘z ahamiyatini yo‘qotdi [3]. Ushbu dinamika talabalarning o‘zini o‘zi tartibga solish resurslarini safarbar qilish orqali universitet baholash tizimiga asta-sekin psixologik moslashish jarayonlarini aks ettiradi.

Empirik ma’lumotlarni tizimlashtirish talabalar o‘quv faoliyatining o‘zini o‘zi tartibga solishini kognitiv, metakognitiv, motivatsion, emotsional va xulq-atvor komponentlarini birlashtirgan tizimli, ko‘p darajali tuzilma sifatida tavsiflash imkonini beradi. O‘tkazilgan tahlil asosida quyidagi asosiy qonuniyatlar aniqlanadi:

1. Sabab-oqibat yo‘nalishi: o‘zini o‘zi tartibga solish ta’limga chuqur yoki yuzaki yondashuvning oqibati emas, balki uning belgilovchi omili sifatida namoyon bo‘ladi [1].

2. Sinergetik effekt: talabaning shaxsiy o‘zini o‘zi tartibga solishi va o‘qituvchi tomonidan tashqi tartibga solishning uyg‘unlashuvi jalb etilganlik va o‘zlashtirish dispersiyasining sezilarli ulushini belgilaydi [5, 7].

3. Mediativ mexanizmlar: o‘quv jarayoniga jalb etilganlik o‘z-o‘zini samaradorlik va o‘zlashtirish o‘rtasidagi bog‘lovchi bo‘g‘in vazifasini bajaradi [4], akademik emotsiyalar esa akademik barqarorlikning o‘zini o‘zi boshqarish strategiyalarini tanlashga ta’sirida vositachilik qiladi [8].

4. Raqamli ta’limning nochiziqligi: onlayn muhitda o‘z-o‘zini boshqarishning rivojlanishi nochiziqli tarzda kechadi va tayanch psixologik ehtiyojlarning qondirilishi hamda dastlabki o‘zlashtirish darajasiga bog‘liq bo‘ladi [6], bunda formatdan subyektiv qoniqish obyektiv natijalar bilan bevosita korrelyatsiya qilmaydi [10].

5. Kontekstual moslashuvchanlik: lahzalik jalb etilishning tashqi sharoitlarga nisbatan yuqori sezgirligiga qaramay, vaqt va makonni boshqarish bo‘yicha rivojlangan ko‘nikmalar muhitning salbiy ta’sirini samarali qoplaydi [9].

Aniqlangan xususiyatlar o‘quv faoliyatining ham shaxsiy, ham kontekstual omillarini hisobga olgan holda talabalarning o‘z-o‘zini boshqarishini maqsadli rivojlantirishga qaratilgan kompleks ta’lim chora-tadbirlarini ishlab chiqish zarurligini ko‘rsatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Häsä J., Rämö J., Yan Z. Examining the reciprocal influence between undergraduate students' self-regulation and approaches to learning. “Scandinavian Journal of Educational Research”. 2024. Vol. 69. № 6. – pp. 1175–1189. DOI: 10.1080/00313831.2024.2394404
2. Wolters C. A. Self-regulated learning and college students' regulation of motivation. “Journal of Educational Psychology”. 1998. Vol. 90. № 2. – pp. 224–235. DOI: 10.1037/0022-0663.90.2.224
3. Peng C. Self-Regulated Learning Behavior of College Students of Science and Their Academic Achievement. “Physics Procedia”. 2012. Vol. 33. – pp. 1446–1450. DOI: 10.1016/j.phpro.2012.05.236
4. Luo Q. и др. The Mediating Role of Learning Engagement Between Self-Efficacy and Academic Achievement Among Chinese College Students. “Psychology Research and Behavior Management”. 2023. Vol. 16. – pp. 1533–1543. DOI: 10.2147/prbm.s401145
5. Fuente J. de la и др. Differential Effects of Self- vs. External-Regulation on Learning Approaches, Academic Achievement, and Satisfaction in Undergraduate Students. “Frontiers in Psychology”. 2020. Vol. 11. DOI: 10.3389/fpsyg.2020.543884
6. Lee S. и др. Exploring the dynamics of self-regulated learning in online courses: trajectories of self-regulated learning and the role of basic psychological needs satisfaction across different achievement levels. “Education and Information Technologies”. 2025. Vol. 30. № 12. – pp. 16861–16891. DOI: 10.1007/s10639-025-13443-6
7. Martinie M.-A., Shankland R. Achievement goals, self-efficacy, and psychological flexibility as antecedent of study engagement. “Social Psychology of Education”. 2024. Vol. 27. № 5. – pp. 2395–2416. DOI: 10.1007/s11218-024-09921-3

8. Xu J., Wang Y. The impact of academic buoyancy and emotions on university students' self-regulated learning strategies in L2 writing classrooms. “Reading and Writing”. 2023. Vol. 37. № 1. – pp. 49–67. DOI: 10.1007/s11145-023-10411-9
9. Lo M.-T., Hsu F.-H., Chen W.-L. Navigating time and space: examining the impact of contextual factors and self-regulation strategies on university students' momentary engagement. “Educational Psychology”. 2024. Vol. 44. № 8. – pp. 823–851. DOI: 10.1080/01443410.2024.2402329
10. Ma L., She L. Self-Regulated Learning and Academic Success in Online College Learning. “The Asia-Pacific Education Researcher”. 2023. Vol. 33. № 3. – pp. 519–533. DOI: 10.1007/s40299-023-00748-8

QORI NIYOZIY NOMIDAGI TARBIYA PEDAGOGIKASI MILLIY INSTITUTI
TPMI
1929

OLIY MA’LUMOTLI MUSIQA O‘QITUVCHILARIGA QO‘YILADIGAN ZAMONAVIY TALABLAR

Sultonov Saparboy
Nizomiy nomidagi O‘zbekiston milliy pedagogika universiteti
1-bosqich magistri
https://doi.org/10.5281/zenodo.23179046

Annotasiya: *Maqolada bo‘lajak musiqa o‘qituvchilariga qo‘yiladigan zamonaviy talablar majmui va ularning oliy ma’lumotli sifatli kadrlar tayyorlashdagi ahamiyati masalalari tahlil etilgan hamda metodik tavsiyalar taqdim qilingan.*
Kalit so‘zlar: *Oliy ta’lim, musiqa o‘qituvchisi, zamonaviy talablar, shakllantirish va rivojlantirish, nazariy bilim, ijrochilik uslubi, o‘qituvchi va o‘quvchi.*

“O‘zbekiston-2030” strategiyasida mamlakatimizda 2030 yilga qadar sifatli ta’lim ko‘rsatgichlariga erishish vazifalari qo‘yilgan [1]. Mazkur vazifalar ijrosi jarayonida “Musiqa madaniyati” o‘quv fani bo‘yicha malakali va sifatli musiqa o‘qituvchilarini tayyorlash muhim o‘rin tutadi. Bu o‘rinda bo‘lajak oliy ma’lumotli musiqa o‘qituvchilariga qo‘yiladigan zamonaviy talablar tahliliga e’tiboringizni tortamiz.

Oliy ma’lumotli musiqa o‘qituvchilarini tayyorlashda dars sifatining o‘rni. Mamlakatimiz pedagogika universitetlari va institutlarida “Musiqa madaniyati” o‘quv fani bo‘yicha hamda maktabgacha ta’lim tashkilotlari musiqa murabbiyi yo‘nalishi bo‘yicha oliy ma’lumotli musiqa o‘qituvchilarini tayyorlash yo‘lga qo‘yilgan. Bu ta’lim jarayonida dars mashg‘ulotlari o‘qitishning 4+2 tizimi asosida tashkil qilingan bo‘lib, unda nazariy mashg‘ulotlar uchun 30 foiz, amaliy va mustaqil mashg‘ulotlar uchun 70 foiz dars soatlari belgilangan [2]. Biroq, bu o‘rinda *dars sifati* masalasi muhim o‘rin tutadi. Unga ko‘ra, bo‘lajak musiqa o‘qituvchilari dars sifati mezoni bo‘yicha quyidagilarni o‘zlashtirishlari lozim:

1. musiqa nazariyasi bo‘yicha bilimlarga ega bo‘lish;
2. musiqa didaktikasi bo‘yicha metodikaga ega bo‘lish;
3. kamida 3 cholg‘u bo‘yicha ijrochilik ko‘nikmasiga ega bo‘lish;
4. o‘zlashtirilgan nazariy bilimlardan foydalana olish malakasiga ega bo‘lish.

Oliy musiqa ta’limida dars sifati mezonlarini ana shular tashkil qiladi. Bu mezonlar asosida oliy musiqa ta’limini tashkil qilish professor-o‘qituvchilar tomonidan innovatsion yondashuvni taqozo etadi. Chunki nazariy bilimlarni berish jarayonida yangiliklarga tayanmasdan bo‘lajak oliy ma’lumotli musiqa o‘qituvchilarini bilim kompetensiyasini kutilgan darajada shakllantirib bo‘lmaydi. Shu sababli mazkur mezonlar musiqa o‘qituvchilarini tayyorlaydigan oliy pedagogik muassasalari hamda amaliy faoliyatdagi musiqa o‘qituvchilarini Pedagoglarni kasbiy rivojlantirish va yangi metodikalarga o‘rgatish markazlari

orqali malakasini takomillashtirib borish maqsadga muvofiq bo‘ladi. Shu sababli Yangi O‘zbekiston sharoitida oliy ma’lumotli musiqa o‘qituvchilarini tayyorlash bo‘yicha dars sifatlarini innovatsion yondashuvlar asosida takomillashtirib borish dolzarb bo‘lib turibdi.

Oliy ma’lumotli musiqa o‘qituvchilarini tayyorlashda individual ijrochilik uslubining ahamiyati. Oliy musiqa ta’limi yo‘nalishida bo‘lajak musiqa o‘qituvchilarining individual ijrochilik uslubini tarkib toptirish dars sifatining muhim mexanizmlaridan birini tashkil qiladi. Bo‘lajak oliy ma’lumotli musiqa o‘qituvchilarining individual ijrochilik uslubini tarkib toptirish uchun quyidagilarga asoslanish maqsadga muvofiq bo‘ladi:

1. bo‘lajak oliy ma’lumotli musiqa o‘qituvchilarini kamida 3 cholg‘uda ijro etish ko‘nikmasini shakllantirish;
2. bo‘lajak oliy ma’lumotli musiqa o‘qituvchilarini umumiy musiqa, qo‘shiq va raqs ijrochiligi uslublari bilan qurollantirish;
3. bo‘lajak oliy ma’lumotli musiqa o‘qituvchilarini bolalar musiqasi, qo‘shiqlari va raqslari ijrochilik uslublari bilan tanishtirish;
4. bo‘lajak oliy ma’lumotli musiqa o‘qituvchilarining individual ijrochilik uslublarini tarkib toptirish va rivojlantirish.

Bunday yondashuv bo‘lajak oliy ma’lumotli musiqa o‘qituvchilarining ijrochilik uslubini tarkib toptirishda muhim o‘rin tutadi. Shu sababli dars sifati

mezonlaridan kelib chiqib ijrochilik uslubini tarkib toptirishda yangicha yondashuvlarga asoslanish kerak bo‘ladi. Buning uchun an’anaviy ijrochilik uslublari mashg‘ulotlari tizimini saqlab qolgan holda, individual shug‘ullanish, iste’dodli va tajribali san’atkorlarning amaliy ijrochilik kurslarini tashkil qilish, bo‘lajak oliy ma’lumotli musiqa o‘qituvchilarining individual lektoriy konsert - tomosha dasturlarini o‘tkazib borish, Ustoz – shogird an’anasi mashg‘ulotlarini yangilash, amaliy faoliyatdagi tajribali musiqa o‘qituvchilarining individual tajribalarini o‘rganib borish kabi innovatsion shakllarga asoslanish maqsadga muvofiq bo‘ladi. Buning natijasida bo‘lajak oliy ma’lumotli musiqa o‘qituvchilarining individual ijrochilik uslubini kutilgan darajada shakllantirish imkoniyatlariga ega bo‘linadi. Bu borada oliy pedagogik ta’lim jarayonida “Talabalar akademiyasi” tuzilmasi vositasida amaliy faoliyatdagi musiqa o‘qituvchilarining individual tajribalarini o‘rganishni yo‘lga qo‘yish kutilgan samarani beradi.

Oliy ma’lumotli musiqa o‘qituvchilarini tayyorlashda nota savodxonligining zaruriyati. Oliy pedagogik ta’lim jarayonida bo‘lajak oliy ma’lumotli musiqa o‘qituvchilarining nota savodxonligini tarkib toptirish ham dars sifatining muhim tamallaridan biri sifatida qabul qilinadi. Buning uchun quyidagilarga tayanish maqsadga muvofiq bo‘ladi:

1. bo‘lajak oliy ma’lumotli musiqa o‘qituvchilarini nota tizimi bo‘yicha nazariy bilim va amaliy ko‘nikmalarini tarkib toptirish;
2. bo‘lajak oliy ma’lumotli musiqa o‘qituvchilarining asarlar notasi ustida ishlash metodikasini tarki toptirish;
3. bo‘lajak oliy ma’lumotli musiqa o‘qituvchilarini nota ijodkorligiga o‘rgatish;
4. bo‘lajak oliy ma’lumotli musiqa o‘qituvchilarini nafaqat musiqa notasi bo‘yicha, balki bolalar musiqasi, qo‘shiqlari va raqslari bo‘yicha nota ko‘nikmasini shakllantirish.

Bunday yondashuv bo‘lajak oliy ma’lumotli musiqa o‘qituvchilarining nota savodxonligini kutilgan darajada tarkib toptirish imkonini beradi. Shu sababli aynan mana shu malaka bilan bo‘lajak oliy ma’lumotli musiqa o‘qituvchilarining nota savodxonligini tarki toptirishda imkon qadar innovatsion yondashuvlarga tayanish mug‘im ahamiyatga egadir.

E’tibor berilsa, bo‘lajak oliy ma’lumotli musiqa o‘qituvchilarini tayyorlashda nazariy bilim, individual ijrochilik uslubi va nota savodxonligi oliy musiqa ta’limi dars sifatini takomillashtiruvchi muhim mexanizmlaridan hisoblanadi.

Kezi kelganda ta’kidlash lozimki, Yangi O‘zbekiston sharoitida bo‘lajak oliy ma’lumotli musiqa o‘qituvchilarini tayyorlashda bir necha omillarni hisobga olish ham zaruriyat bo‘lib turibdi. Bunda quyidagilarni hisobga olish maqsadga muvofiq bo‘ladi:

a. bo‘lajak oliy ma’lumotli musiqa o‘qituvchilarini jahon xalqlari bolalar musiqa san’ati namunalari bilan tanishtirish;
b. bo‘lajak oliy ma’lumotli musiqa o‘qituvchilarini jahon xalqlarining eng muhim cholg‘ulari ijrochiligi uslublari bilan tanishtirish;
c. bo‘lajak oliy ma’lumotli musiqa o‘qituvchilarini ansambl va orkestr ijrochilik uslublari bilan qurollantirish;
d. bo‘lajak oliy ma’lumotli musiqa o‘qituvchilarining jahon xalqlari musiqa asarlari va ularning ijrochilik uslublari tahlili bilan qurollantirish.

Bunday yondashuv maktabgacha va maktab ta’limi oluvchilarining jahon xalqlari musiqa madaniyati eng yaxshi namunalari bilan tanishtirish imkonin beradi [3].

Shunday qilib oliy pedagogik ta’lim jarayonida bo‘lajak oliy ma’lumotli musiqa o‘qituvchilarini tayyorlashda ularga qo‘yiladigan zamonaviy talablarni idrok etish taqozo etiladi. Bunda ayniqsa, bo‘lajak oliy ma’lumotli musiqa o‘qituvchilarining nazariy bilim, individual ijrochilik uslubi, nota savodxonligi va jahon xalqlari musiqa san’ati bo‘yicha ko‘nikmaga ega bo‘lishi eng muhim zamonaviy talablar hisoblanadi. Oliy pedagogik ta’lim jarayonida bo‘lajak oliy ma’lumotli musiqa o‘qituvchilari mazkur zamonaviy talablarni idrok etishi maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Adabiyotlar:

1. “O‘zbekiston - 2030” strategiyasi. // www. Ziyonet. uz.
2. Lutfullayev A.Q. Xalq cholg‘ulari ijrochiligi: manbalar, tajribalar va zamonaviy yondashuvlar. – Toshkent, 2023
3. Qoraboev U. Madaniyat masalalari. – Toshkent, 2009

QORI NIYOZIY NOMIDAGI TARBIYA PEDAGOGIKASI MILLIY INSTITUTI
TPMI
1929

BO‘LAJAK TARBIYACHILARNI KASBIY FAOLIYATGA TAYYORLASHDA TASVIRIY FAOLIYATNING MILLIY-TARBIYAVIY IMKONIYATLARIDAN FOYDALANISH

Tadjibayev Salimjon Sabirjanovich
Andijon davlat pedagogika instituti dotsenti
https://doi.org/10.5281/zenodo.23179070

Annotatsiya. *Mazkur tezisda bo‘lajak tarbiyachilarni kasbiy faoliyatga tayyorlash jarayonida tasviriy faoliyatning milliy-tarbiyaviy imkoniyatlaridan foydalanish masalasi yoritilgan. Maktabgacha ta’lim tizimida bolalarning estetik didi, ijodiy qobiliyati, milliy qadriyatlarga hurmati va ma’naviy-axloqiy sifatlarini shakllantirishda tasviriy faoliyatning o‘rni tahlil qilingan. Shuningdek, tasviriy faoliyat mashg‘ulotlarini milliy tarbiya bilan integratsiyalashning pedagogik shart-sharoitlari hamda samarali metodlari yoritilgan.*

Kalit so‘zlar: kasbiy tayyorgarlik, tasviriy faoliyat, milliy tarbiya, estetik tarbiya, ijodkorlik, maktabgacha ta’lim, pedagogik kompetensiya, xalq amaliy san’ati.

Аннотация. В данной статье освещается вопрос использования национально-воспитательного потенциала изобразительной деятельности в процессе подготовки будущих воспитателей к профессиональной деятельности. Проанализирована роль изобразительной деятельности в формировании у детей эстетического вкуса, творческих способностей, уважения к национальным ценностям, а также духовно-нравственных качеств в системе дошкольного образования. Кроме того, рассмотрены педагогические условия и эффективные методы интеграции занятий по изобразительной деятельности с национальным воспитанием.

Ключевые слова: профессиональная подготовка, изобразительная деятельность, национальное воспитание, эстетическое воспитание, творчество, дошкольное образование, педагогическая компетентность, народное прикладное искусство.

Bugungi kunda maktabgacha ta’lim tizimida bolalarni har tomonlama rivojlantirish, ularning intellektual, ma’naviy-axloqiy, estetik va ijodiy salohiyatini yuzaga chiqarish muhim pedagogik vazifalardan biri hisoblanadi. Mazkur vazifalarni samarali amalga oshirish ko‘p jihatdan maktabgacha ta’lim tashkilotlarida faoliyat yurituvchi tarbiyachilarning kasbiy tayyorgarligi va pedagogik kompetentligiga bog‘liq.

Tarbiyachi nafaqat bolalarga bilim va ko‘nikmalarni beruvchi mutaxassis, balki ularning dunyoqarashi, axloqiy qarashlari, estetik didi va milliy qadriyatlarga munosabatini shakllantiruvchi pedagog sifatida namoyon bo‘ladi. Shu sababli bo‘lajak tarbiyachilarni kasbiy faoliyatga tayyorlash jarayonida milliy tarbiya mazmunini zamonaviy pedagogik yondashuvlar bilan uyg‘unlashtirish alohida ahamiyat kasb etadi.

Tasviriy faoliyat ushbu jarayonda katta pedagogik imkoniyatlarga ega. Chunki rasm, loy bilan ishlash, applikatsiya, qurish-yasash mashg‘ulotlari bolalarning nafaqat ijodiy qobiliyatlarini, balki go‘zallikni his qilish, kuzatish, taqqoslash, tasavvur qilish va milliy madaniyat namunalarini anglash ko‘nikmalarini ham rivojlantiradi.

Tasviriy faoliyatning milliy-tarbiyaviy imkoniyatlaridan samarali foydalanish uchun esa, avvalo, bo‘lajak tarbiyachining o‘zi milliy madaniyat, xalq amaliy san’ati, milliy bezaklar, urf-odatlar va qadriyatlar haqida yetarli bilimga ega bo‘lishi zarur. Shu nuqtayi nazardan, pedagogik oliy ta’lim jarayonida bo‘lajak tarbiyachilarni tasviriy faoliyatni tashkil etishga tayyorlash masalasi muhim ilmiy-amaliy ahamiyatga ega.

Tasviriy faoliyat maktabgacha yoshdagi bolalarning rivojlanishida muhim o‘rin egallaydigan faoliyat turlaridan biridir. Bola rasm chizish, applikatsiya, qurish-yasash va loy ishi jarayonida atrof-muhitni o‘ziga xos tarzda idrok etadi va o‘z tasavvurlarini obrazli ifodalaydi. Bu jarayon bolada kuzatuvchanlik, ijodkorlik, mayda motorika, tasavvur, estetik idrok va mustaqil fikrlashning rivojlanishiga xizmat qiladi.

Bo‘lajak tarbiyachilarni kasbiy faoliyatga tayyorlash jarayonida tasviriy faoliyatni o‘rgatish faqatgina bolaga rasm chizishni o‘rgatish bilan cheklanmasligi kerak. Tarbiyachi tasviriy faoliyatning pedagogik, psixologik va tarbiyaviy imkoniyatlarini anglay olishi, mashg‘ulot mazmunini bolaning yosh va individual xususiyatlariga moslashtirishi hamda unda milliy tarbiya elementlarini to‘g‘ri qo‘llay olishi lozim.

Shu jihatdan bo‘lajak tarbiyachining kasbiy tayyorgarligida quyidagi kompetensiyalarni shakllantirish muhim:

-tasviriy faoliyatning pedagogik va psixologik xususiyatlarini bilish;

-maktabgacha yoshdagi bolalarning tasviriy faoliyatini tashkil eta olish;

-milliy qadriyatlar va xalq amaliy san’ati namunalaridan pedagogik maqsadda foydalana olish;

-bolalarda estetik did va ijodkorlikni rivojlantirish;

-tasviriy faoliyat jarayonida individual va differensial yondashuvni qo‘llash;

-bolalarning ijodiy ishlarini rag‘batlantirish va pedagogik jihatdan baholash;

-zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalarini tasviriy faoliyat bilan integratsiyalash.

Mazkur kompetensiyalarni shakllantirish bo‘lajak tarbiyachining kelgusidagi kasbiy faoliyatida tasviriy faoliyatdan maqsadli foydalanish imkoniyatini kengaytiradi.

Odatda milliy tarbiya deganda yosh avlodni xalqning tarixiy tajribasi, ma’naviy merosi, urf-odatlari, an’analari, qadriyatlari va madaniy boyliklari asosida tarbiyalash jarayoni tushuniladi.

Tasviriy faoliyat esa ushbu jarayonni obrazli va amaliy shaklda tashkil etish imkonini beradi. Masalan, bolalarga milliy naqsh elementlarini chizdirish orqali ular xalq amaliy san’atining ayrim ko‘rinishlari bilan tanishadilar. Milliy liboslar tasvirini ishlash jarayonida kiyimlarning shakli, rangi va bezaklari haqida

tushunchalar shakllanadi. Me’moriy obidalarni tasvirlash orqali bolalarda tarixiy-madaniy merosga qiziqish uyg‘onadi.

Shuningdek, tasviriy faoliyatda milliy mazmundagi mavzulardan foydalanish bolalarning obrazli tafakkurini rivojlantirish bilan birga, ularda o‘z xalqining madaniy merosiga nisbatan qiziqish va hurmatni shakllantirishga yordam beradi.

Bunda asosiy e’tibor milliy elementlarni mashg‘ulotga sun’iy ravishda kiritishga emas, balki ularni bolaning kundalik hayoti va tajribasi bilan bog‘lashga qaratilishi lozim. Masalan, “Mening mahallam”, “Oilam”, “Navro‘z bayrami”, “Milliy naqshlar”, “O‘zbek xalqining milliy kiyimlari”, “Tarixiy obidalar”, “Ona tabiat” kabi mavzular bolalarning yoshiga mos ravishda tasviriy faoliyat mazmuniga kiritilishi mumkin.

Игтвфт ефырйфкш o‘zbek xalqining boy amaliy san’at merosi tasviriy faoliyatni milliy mazmun bilan boyitish uchun katta imkoniyat yaratadi. Naqqoshlik, kashtachilik, kulolchilik, zardo‘zlik, yog‘och o‘ymakorligi, gilamdo‘zlik kabi san’at turlari o‘ziga xos rang, shakl va bezak tizimiga ega.

Bo‘lajak tarbiyachilarni tayyorlash jarayonida xalq amaliy san’at turlari haqida nazariy ma’lumot berish bilan birga, ularning maktabgacha ta’limdagi amaliy imkoniyatlarini ham ko‘rsatish muhimdir. Masalan, tarbiyachi bolalarga murakkab milliy naqshlarni aynan ko‘chirtirish o‘rniga, naqshlarning sodda elementlaridan foydalanib ijodiy topshiriqlar tashkil etishi mumkin.

“Naqshni davom ettir”, “O‘z bezagingni yarat”, “Milliy do‘ppi uchun naqsh tanla”, “Idishni bezat”, “Gilam naqshini yarat” kabi topshiriqlar bolalarning ijodiy faolligini oshiradi. Bunday mashg‘ulotlarda bola tayyor namunani aynan takrorlashga emas, balki milliy bezak elementlaridan foydalangan holda o‘z ijodiy yechimini topishga yo‘naltiriladi.

Bu jarayonda tarbiyachining vazifasi bolaning ijodiy tashabbusini cheklamaslik, aksincha, uni rag‘batlantirishdan iborat. Chunki maktabgacha yoshdagi bolaning ijodiy mahsulini faqat uning texnik bajarish darajasiga qarab baholash maqsadga muvofiq emas. Unda mustaqil fikr, tasavvur va ijodiy yondashuvning mavjudligi ham muhim pedagogik mezon hisoblanadi.

Bo‘lajak tarbiyachilarni tasviriy faoliyat orqali milliy tarbiyaga yo‘naltirishda interfaol va amaliy metodlardan foydalanish samarali natija beradi.

Jumladan, oliy ta’lim jarayonida quyidagi metodlardan foydalanish mumkin:

Loyiha metodi. Talabalarga muayyan milliy qadriyat yoki xalq amaliy san’ati turiga bag‘ishlangan kichik pedagogik loyiha ishlab chiqish topshiriladi. Masalan, “Maktabgacha yoshdagi bolalarda milliy naqshlarga qiziqishni shakllantirish”, “Navro‘z bayramini tasviriy faoliyat orqali yoritish” kabi loyihalar ishlab chiqilishi mumkin.

Amaliy mashg‘ulot metodi. Talabalar milliy naqsh elementlari, applikatsiya, kollaj, dekorativ rasm va boshqa tasviriy faoliyat turlarini amalda bajaradilar.

Keyinchalik ushbu faoliyatni maktabgacha yoshdagi bolalar bilan qanday tashkil etish mumkinligini tahlil qiladilar.

Muammoli ta’lim metodi. Talabalarga pedagogik vaziyatlar beriladi. Masalan: “Bola milliy naqshni chizishni istamayapti. Tarbiyachi qanday pedagogik yondashuvni tanlashi kerak?” Bunday topshiriqlar bo‘lajak mutaxassislarning mustaqil pedagogik fikrlashini rivojlantiradi.

Portfolio metodi. Talabalar tasviriy faoliyatga oid ishlanmalar, milliy mavzudagi ijodiy ishlar, mashg‘ulot ishlanmalari va metodik tavsiyalarni jamlab boradilar. Bu portfolio ularning kasbiy rivojlanishini kuzatish imkonini beradi.

Ko‘rgazma metodi. Talabalarning milliy mazmundagi ijodiy ishlari ko‘rgazma shaklida namoyish etiladi. Talabalar o‘z ishlarini izohlash, pedagogik maqsadini tushuntirish va boshqa talabalar ishlari bilan tahliliy taqqoslash imkoniyatiga ega bo‘ladilar.

Bo‘lajak tarbiyachilarni kasbiy faoliyatga tayyorlashda tasviriy faoliyatning milliy-tarbiyaviy imkoniyatlaridan samarali foydalanish bir qator pedagogik shart-sharoitlarni talab qiladi.

Birinchidan, ta’lim mazmunida milliy qadriyatlar va tasviriy faoliyatning uzviy integratsiyasini ta’minlash zarur. Tasviriy faoliyat mashg‘ulotlari milliy mazmun bilan boyitilganda bolaning estetik va ma’naviy rivojlanishi bir-birini to‘ldiradi.

Ikkinchidan, bo‘lajak tarbiyachilarning milliy madaniyatga oid bilimlarini kengaytirish lozim. Buning uchun xalq amaliy san’ati namunalari, muzey materiallari, tarixiy obidalar, milliy bezaklar va tasviriy san’at asarlaridan foydalanish mumkin.

Uchinchidan, tasviriy faoliyat mashg‘ulotlarida bolalarning yosh va individual xususiyatlarini hisobga olish muhim. Maktabgacha yoshdagi bolaga murakkab texnik vazifalarni berish uning ijodiy faolligini pasaytirishi mumkin. Shuning uchun topshiriqlar oddiydan murakkabga, ma’lumdan noma’lumga tamoyili asosida tashkil etilishi maqsadga muvofiq.

To‘rtinchidan, ta’lim jarayonida reproduktiv topshiriqlardan tashqari ijodiy topshiriqlarga ham keng o‘rin berish kerak. Bola tayyor namunani ko‘chirish bilan cheklanib qolmasdan, o‘z tasavvuri asosida yangi obraz va kompozitsiyalar yaratishi lozim.

Beshinchidan, tarbiyachi bolaning ijodiy ishini baholashda rag‘batlantiruvchi yondashuvni qo‘llashi zarur. “To‘g‘ri” yoki “noto‘g‘ri” kabi keskin baholash o‘rniga, bolaning harakati, mustaqilligi va ijodiy g‘oyasini qo‘llab-quvvatlash maqsadga muvofiq.

Tasviriy faoliyat bo‘lajak tarbiyachilarning nafaqat metodik bilimlarini, balki bir qator kasbiy sifatlarini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Avvalo, ijodkorlik rivojlanadi. Tarbiyachi mashg‘ulotlarni bir xil shaklda emas, balki bolalarning qiziqishlari va ehtiyojlariga mos ravishda tashkil etishni o‘rganadi.

Ikkinchidan, estetik did shakllanadi. Milliy bezaklar, ranglar uyg‘unligi, shakllar va kompozitsiyalar bilan ishlash bo‘lajak tarbiyachining estetik qarashlarini boyitadi.

Uchinchidan, kuzatuvchanlik va pedagogik tahlil qobiliyati rivojlanadi. Talaba bolaning tasviriy faoliyat jarayonini kuzatish, uning qiyinchiliklarini aniqlash va tegishli pedagogik yordam ko‘rsatishni o‘rganadi.

To‘rtinchidan, kommunikativ kompetensiya rivojlanadi. Tasviriy faoliyat jarayonida tarbiyachi bolalar bilan savol-javob, suhbat, muhokama va ijodiy muloqot olib boradi.

Beshinchidan, milliy-madaniy kompetentlik shakllanadi. Bo‘lajak tarbiyachi milliy madaniyat namunalari bilan tanishish orqali ularni bolalar tarbiyasida pedagogik vosita sifatida qo‘llash ko‘nikmasiga ega bo‘ladi.

Bo‘lajak tarbiyachilarni kasbiy faoliyatga tayyorlashda tasviriy faoliyatning milliy-tarbiyaviy imkoniyatlarini oshirish uchun quyidagi amaliy yo‘nalishlardan foydalanish mumkin:

1. Pedagogik oliy ta’limda tasviriy faoliyat mashg‘ulotlarini milliy qadriyatlar bilan integratsiyalashgan holda tashkil etish.
2. Talabalar uchun xalq amaliy san’atining asosiy turlari bo‘yicha amaliy mashg‘ulotlar tashkil etish.
3. Milliy bezak elementlaridan foydalanishga asoslangan ijodiy topshiriqlar bankini yaratish.
4. Maktabgacha ta’lim tashkilotlari uchun milliy mazmundagi tasviriy faoliyat mashg‘ulotlari ishlanmalarini ishlab chiqish.
5. Talabalarning ijodiy ishlarini portfolio va ko‘rgazmalar orqali baholash.
6. Tasviriy faoliyat mashg‘ulotlarida muzey, virtual ko‘rgazma va raqamli ta’lim resurslaridan foydalanish.
7. Milliy bayramlar, urf-odatlar va xalq an’analarini bolalarning yosh xususiyatlariga mos ravishda tasviriy faoliyat mazmuniga kiritish.
8. Ota-onalarni ham bolalarning milliy mazmundagi ijodiy faoliyatiga jalb etish.
9. Bolalarning ijodiy ishlarini baholashda natijadan ko‘ra ijodiy jarayon, mustaqillik va tashabbuskorlikka ko‘proq e’tibor qaratish.

Xulosa qilib aytganda, bo‘lajak tarbiyachilarni kasbiy faoliyatga tayyorlash jarayonida tasviriy faoliyatdan foydalanish ularning metodik, ijodiy, estetik va milliy-madaniy kompetensiyalarini rivojlantirish uchun muhim pedagogik imkoniyatlarni yaratadi. Tasviriy faoliyatning milliy tarbiya bilan uyg‘unlashtirilishi

maktabgacha yoshdagi bolalarda milliy qadriyatlarga hurmat, estetik did, ijodkorlik va madaniy merosga qiziqishni shakllantirishga xizmat qiladi.

Mazkur jarayonda bo‘lajak tarbiyachining kasbiy tayyorgarligi alohida ahamiyatga ega. Chunki milliy-tarbiyaviy mazmundagi tasviriy faoliyatni samarali tashkil etish uchun tarbiyachi milliy madaniyat va xalq amaliy san’ati namunalarini bilishi, ularning pedagogik imkoniyatlarini anglay olishi hamda bolalarning yosh va individual xususiyatlarini hisobga olgan holda mashg‘ulotlarni tashkil etishi zarur.

Tasviriy faoliyatning milliy-tarbiyaviy imkoniyatlaridan foydalanish faqatgina bolalarga milliy naqsh yoki tasvirlarni chizdirish bilan chegaralanmasligi kerak. Asosiy maqsad bolaning milliy madaniyatni obrazli idrok etishi, o‘z ijodiy fikrini erkin ifodalashi va milliy qadriyatlarni shaxsiy tajribasi bilan bog‘lay olishiga pedagogik sharoit yaratishdan iborat.

Shu bois bo‘lajak tarbiyachilarni tayyorlash jarayonida tasviriy faoliyatni milliy tarbiya, estetik tarbiya va ijodiy rivojlanish bilan integratsiyalashgan holda tashkil etish maktabgacha ta’limning mazmunini boyituvchi muhim pedagogik yo‘nalish sifatida qaralishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Hasanboyeva O.U. va boshqalar. Maktabgacha ta’lim pedagogikasi – T. Ilm ziyo - 2011
2. Sodiqova Sh.A. Maktabgacha pedagogika. –T. Tafakkur bo‘stoni.-2013
3.Tadjibayev S.S. Tasviriy faoliyatga o‘rgatish. T.“Science and innovation”-2024

VIRTUAL TA’LIM MUHITIDA YOSHLARNING MA’NAVIY-AXLOQIY TARBIYASINI RIVOJLANTIRISHNING INNOVATSION TEXNOLOGIYALARI

Tayirova Muhabbat Ataxanovna
Qori Niyoziy nomidagi Tarbiya pedagogikasi milliy instituti katta ilmiy xodimi, p.f.b.f.d.
https://doi.org/10.5281/zenodo.23179092

Annotatsiya. *Maqolada virtual ta’lim muhitida yoshlarning ma’naviy-axloqiy tarbiyasini rivojlantirishning nazariy-metodologik asoslari va innovatsion texnologiyalari tahlil qilingan. Raqamli makonning tarbiyaviy imkoniyatlari hamda axloqiy keys va virtual debat, gamifikatsiya, raqamli hikoyalash, media savodxonlik, virtual mentorlik hamda sun’iy intellekt va virtual reallikka asoslangan texnologiyalarning tarbiyaviy salohiyati asoslab berilgan. Aralash ta’lim doirasida ma’naviy-axloqiy tarbiyani tashkil etishning bosqichma-bosqich modeli, pedagogik shartlari va samaradorlik mezonlari taklif etilgan.*
Kalit so‘zlar: *virtual ta’lim muhiti, ma’naviy-axloqiy tarbiya, yoshlar, innovatsion texnologiyalar, gamifikatsiya, raqamli hikoyalash, media savodxonlik, raqamli fuqarolik, virtual mentorlik, aralash ta’lim.*

Bugungi kunda ta’lim tizimining raqamlashuvi jahon miqyosida jadal kechmoqda. Yoshlarning bilim olishi, muloqot qilishi, axborot izlashi va bo‘sh vaqtini o‘tkazishi asosan virtual makonga ko‘chmoqda. Bu jarayon ta’lim imkoniyatlarini kengaytirib, o‘qish shakllarini moslashuvchan qilmoqda. Shu bilan birga, yoshlar ma’naviyatiga salbiy ta’sir ko‘rsatuvchi yangi tahdidlarni ham keltirib chiqarmoqda: soxta axborot, kiberbulling, begona g‘oyalar targ‘iboti, ekranga qaramlik, real muloqotning susayishi.

Mamlakatimizda bu masalaga davlat siyosati darajasida e’tibor qaratilmoqda. “Yangi O‘zbekiston strategiyasi”da yoshlar tarbiyasi, ma’naviy immunitetni mustahkamlash va ta’lim sifatini oshirish ustuvor vazifalar sifatida belgilangan. “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonunda ta’lim va tarbiya jarayonlarining uzviyligi tamoyili mustahkamlangan. “Yoshlarga oid davlat siyosati to‘g‘risida”gi Qonun yoshlarning ma’naviy-axloqiy kamoloti uchun sharoit yaratishni davlatning muhim vazifasi sifatida belgilaydi. “Raqamli O‘zbekiston – 2030” strategiyasi ta’limni raqamlashtirishning keng ko‘lamli yo‘nalishlarini belgilab bergan, Xalq ta’limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi esa ta’lim sifatini oshirish bilan birga tarbiyaviy ta’sirni kuchaytirishni ko‘zda tutadi.

Virtual ta’lim muhiti ta’lim subyektlarining o‘zaro ta’siri axborot-kommunikatsiya texnologiyalari vositasida, vaqt va makon cheklovlaridan holi tarzda tashkil etiladigan integratsiyalashgan pedagogik makondir. Uning tarkibiga quyidagilar kiradi:

–texnologik asos (o‘quv boshqaruv tizimlari, video konferensiya platformalari, mobil ilovalar);

–mazmun (raqamli o‘quv va tarbiyaviy resurslar);
–muloqot muhiti (forum, chat, yopiq guruhlar);
–subyektlar (o‘qituvchi, talaba, ota-ona, mentor);
–qadriyat-me’yoriy asos (netiket, axloqiy kodeks, xulq-atvor qoidalari).

Ta’lim jarayonini axborotlashtirish nazariyasi esa pedagogik ta’limni boshqarish tizimi bilan uyg‘unlikda ishlab chiqilgan. Ammo bu tadqiqotlarda asosiy e’tibor ko‘proq bilim berish va o‘zlashtirish samaradorligiga qaratilgan, tarbiyaviy jihat esa ikkinchi darajada qolgan.

Tarbiya nuqtayi nazaridan ijtimoiy ishtirok alohida ahamiyatga ega, chunki qadriyatlar shaxslararo ishonch, ochiq muloqot va hamjihatlik muhitida shakllanadi. Virtual muhitda bu omil o‘z-o‘zidan paydo bo‘lmaydi, uni maxsus loyihalash kerak.

Virtual muhitning tarbiyaviy imkoniyatlari quyidagilarda namoyon bo‘ladi:

–tarbiyaviy ta’sirni individuallashtirish va har bir yoshning qiziqishi hamda ehtiyojiga moslashtirish;
–turli hududlardagi yoshlarni yagona tarbiyaviy jarayonga jalb etish;
–multimedia vositalari (video, animatsiya, audio, infografika) orqali ta’sirni kuchaytirish;
–hamkorlikda loyihalar bajarish orqali jamoaviylik va mas'uliyatni rivojlantirish;
–tarbiyaviy jarayonni doimiy kuzatish va diagnostika qilish.

Shu bilan birga, virtual muhit o‘ziga xos xavf va cheklovlarga ham ega. Jumladan, anonimlik tufayli mas’uliyat hissining susayishi, kiberbulling, dezinformatsiyaning tarqalishi, hissiy muloqotning zaiflashuvi, shaxsiy namunaning ta’sir kuchining kamayishi hamda ekranga qaramlik kabi holatlar o‘quvchilarning tarbiyaviy rivojlanishiga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Demak, virtual muhit tarbiyaning neytral vositasi emas, balki aniq tarbiyaviy maqsad va pedagogik vazifalarga muvofiq tashkil etilishi lozim bo‘lgan maxsus pedagogik makondir. Shu sababli virtual muhitni loyihalashda uning mazmuni, vositalari va interaktiv imkoniyatlarini tarbiyaviy maqsadga yo‘naltirish muhim ahamiyat kasb etadi. Aks holda, uning tarbiyaviy ta’siri tizimsiz va tasodifiy xarakter kasb etib, ayrim hollarda salbiy oqibatlarga olib kelishi mumkin. Virtual muhitda ma’naviy-axloqiy tarbiyani samarali tashkil etishga xizmat qiluvchi asosiy tarbiyaviy texnologiyalar 1-rasmda keltirilgan.

1-jadval.

Virtual muhitdagi asosiy tarbiyaviy texnologiyalar

Texnologiya	Tarbiyaviy maqsad	Vosita va platformalar	Kutilgan natija
Axloqiy keys va virtual debat	Axloqiy mulohaza, tanqidiy fikrlash	Video konferensiya, forum, o‘quv boshqaruv tizimi	Qadriyatlarga asoslangan qaror qabul qilish
Gamifikatsiya	Ichki motivatsiya, mas'uliyat	Viktorina platformalari, raqamli nishonlar	Faollik, jamoaviy hamkorlik
Raqamli hikoyalash	Milliy qadriyatlarni ichkilashtirish	Video, podkast, infografika muharrirlari	Vatanparvarlik, ijodiy ifoda
Media savodxonlik laboratoriyasi	Axborot xavfsizligi, halollik	Faktni tekshirish xizmatlari	Kritik fikrlash, axborot madaniyati
Virtual mentorlik	Shaxsiy namuna, ustoz-shogird an’anasi	Yopiq guruhlar, elektron portfolio	Ishonch, refleksiya
Sun’iy intellekt va VR/AR	Simulyatsiya, empatiya, madaniy meros bilan bog‘lanish	Virtual sayohat, intellektual yordamchi tizimlar	Hissiy ta’sir, shaxsiylashtirilgan tarbiya

Interfaol metodlar ishtirokchilarning faol o‘zaro ta’siriga asoslanadi. Virtual muhitda ularning eng samaralilari axloqiy keys, virtual debat, “klaster”, “Blits-so‘rov” va hamkorlikda loyiha ishlashdir. Axloqiy keys texnologiyasida yoshlarga real hayotdan olingan axloqiy dilemma taklif etiladi.

Texnologiya quyidagi bosqichlarda amalga oshiriladi:

keysni taqdim etish (matn, video yoki suhbat ko‘rinishida);

har bir ishtirokchining mustaqil fikrini yozma bildirishi;

kichik virtual guruhlarda muhokama;

muhokamani milliy va umuminsoniy qadriyatlar bilan bog‘lash;

refleksiya, ya’ni “Men nimani anglab yetdim?” savoliga javob berish.

Bu texnologiyaning kuchi shundaki, tayyor axloqiy qoidani yetkazish o‘rniga yoshlar o‘zlari xulosaga keladi. Virtual muhitda anonim fikr bildirish imkoniyati uyatchan o‘quvchilarni ham faollashtiradi. Biroq muhokamada hurmat va tolerantlik qoidalarini oldindan belgilab qo‘yish zarur.

Gamifikatsiya o‘yin elementlarini (ball, nishon, daraja, reyting, missiya) o‘yin bo‘lmagan jarayonga kiritishdir. Tarbiyaviy maqsadda bu texnologiya “Halollik”, “Hamkorlik”, “Mas'uliyat”, “Mehr-oqibat” kabi nishonlarni o‘z ichiga olgan ijtimoiy-foydali missiyalar tizimi ko‘rinishida qo‘llanilishi mumkin.

Gamifikatsiyada muhim xavf mavjud: axloqiy xatti-harakat tashqi rag‘batga (ball, reytingga) bog‘lanib qolishi va ichki motivatsiyani susaytirishi mumkin. Shuning uchun nishonlar faqat xatti-harakat mazmunini anglash bilan birga, refleksiya bilan qo‘shib beriladi. Reyting esa raqobatni emas, hamkorlikni rag‘batlantiruvchi jamoaviy natijalarga tayanishi kerak.

Raqamli hikoyalash yoshlarning o‘zlari qisqa video, podkast, infografika yoki interaktiv hikoya yaratishi orqali qadriyatlarni ichkilashtirishga asoslanadi. Bu texnologiya milliy meros bilan uyg‘unlashtirilganda ayniqsa samarali. Yoshlar xalq og‘zaki ijodi, ustoz-shogird an’anasi, Vatan uchun jonbozlik ko‘rsatgan siymolar hayoti, ona tilining qadri, oila va mahalla qadriyatlari haqida raqamli mahsulot tayyorlaydilar.

Texnologiya bosqichlari: mavzu tanlash va qadriyatni aniqlash; ssenariy yozish; raqamli mahsulot tayyorlash; virtual muhitda taqdimot va o‘zaro baholash; refleksiya. Ushbu jarayonda yoshlar bir vaqtning o‘zida raqamli ko‘nikma, ijodiy fikrlash va axloqiy qadriyatlarni rivojlantiradi.

Virtual muhitda yoshlar cheksiz axborot oqimi bilan to‘qnashadi. Shu sababli tanqidiy fikrlash va axborot madaniyati ma’naviy-axloqiy tarbiyaning ajralmas qismiga aylanadi. “Media savodxonlik laboratoriyasi” texnologiyasi yoshlarni axborot manbasini tekshirish, soxta yangilik va manipulyatsiya belgilarini aniqlash, kontentni tanqidiy baholashga o‘rgatadi. Mashg‘ulotlarda amaliy topshiriqlar beriladi: shubhali xabarni bir necha ishonchli manba bilan solishtirish, tasvirning asl manbasini aniqlash, targ‘ibot va haqiqiy axborotni ajratish.

Ma’naviy-axloqiy tarbiyada shaxsiy namuna va ishonchli muloqotning o‘rni beqiyos. Bu jihat o‘zbek pedagogikasidagi ustoz-shogird an’anasining asosini tashkil etadi. Virtual muhitda bu an’ana raqamli mentorlik ko‘rinishida davom ettirilishi mumkin. Har bir o‘quv guruhiga biriktirilgan mentor (tyutor) yopiq muloqot guruhi orqali yoshlar bilan muntazam aloqada bo‘ladi, individual maslahat beradi, murakkab axloqiy vaziyatlarda yordam ko‘rsatadi.

Ushbu texnologiyaning tarkibiy qismlari: “Ma’naviyat daqiqasi” (qisqa tarbiyaviy suhbat), onlayn “Tarbiyaviy soat”, “Virtual davra suhbati” va elektron portfolio hamda refleksiv kundalik yuritish. Elektron portfolioda yoshning ijtimoiy faolligi, o‘z ustida ishlashi, axloqiy fikr-mulohazalari jamlanadi. Bu ham diagnostika, ham o‘z-o‘zini tarbiyalash vositasi bo‘lib xizmat qiladi. Mentorlikda asosiy shart o‘qituvchining o‘zi raqamli muhitda ham namunali xulq-atvor egasi bo‘lishidir.

Sun’iy intellektga asoslangan tizimlar tarbiyaviy jarayonni shaxsiylashtirish imkonini beradi: yoshning qiziqishi va faolligiga qarab tavsiyalar berish, axloqiy dilemmalarni simulyatsiya qilish, muloqot mashqlarini tashkil etish. Virtual (VR) va to‘ldirilgan (AR) reallik texnologiyalari esa tarixiy-madaniy meros obyektlariga virtual sayohat uyushtirish, tarixiy voqealarni “ichidan” his qilish imkonini beradi.

Biroq bu texnologiyalarga tanqidiy yondashuv zarur:

–algoritmlarning xolisligi va shaxsiy ma’lumotlar xavfsizligi ta’minlanishi kerak;

–sun’iy intellekt vositalaridan foydalanishda akademik halollik qoidalari aniq belgilanishi lozim;

–texnologiya o‘qituvchining o‘rnini bosmaydi, faqat uning yordamchisi bo‘ladi, yakuniy tarbiyaviy mas'uliyat pedagogda qoladi.

Virtual texnologiyalarning tarbiyaviy samarasi ularni real faoliyat bilan uyg‘unlashtirganda oshadi. Aralash modelda onlayn muhokama va bilim olish oflayn amaliy faoliyat bilan to‘ldiriladi: ko‘ngillilik loyihalari, mahalla va oila bilan hamkorlik, madaniy tadbirlar, jamoaviy ijtimoiy ishlar. Shaxsiy namuna, hissiy yaqinlik va jonli muloqotni hech qanday virtual vosita to‘liq almashtira olmaydi. Shu sababli virtual tarbiya real tarbiyaning muqobili emas, uning kuchaytiruvchisi sifatida qaralishi kerak.

Yuqoridagi texnologiyalar tizim sifatida ishlashi uchun tarbiyaviy jarayon to‘rt bosqichda tashkil etilishi mumkin:

1. Diagnostik-loyihalash bosqichi. Yoshlarning axloqiy qarashlari, raqamli xulq-atvori va axborot madaniyati darajasi aniqlanadi, tarbiyaviy maqsadlar belgilanadi.

2. Motivatsion-qadriyatli bosqich. Raqamli hikoyalash, multimedia va keys texnologiyalari orqali qadriyatlarga munosabat uyg‘otiladi, ichki motivatsiya shakllantiriladi.

3. Faoliyat-amaliy bosqich. Gamifikatsiya, hamkorlikdagi loyihalar, media savodxonlik laboratoriyasi va ko‘ngillilik faoliyati orqali axloqiy ko‘nikmalar amaliy mustahkamlanadi.

4. Refleksiv-baholash bosqichi. Elektron portfolio, mentor bilan suhbat va o‘z-o‘zini baholash orqali natijalar tahlil qilinadi, keyingi tsikl rejalashtiriladi.

Modelni amaliyotga joriy etishga misol sifatida to‘rt haftalik “Raqamli odob va mas’uliyat” moduli tavsiya etilishi mumkin (2-jadval). Modul yuqoridagi to‘rt bosqichga mos tuzilgan bo‘lib, aralash formatda, ya’ni har hafta bitta onlayn va bitta oflayn mashg‘ulot shaklida o‘tkaziladi.

2-jadval.

“Raqamli odob va mas’uliyat” modulining namunaviy tuzilishi

Hafta	Bosqich va texnologiya	Onlayn faoliyat	Oflayn (real) faoliyat
1-hafta	Diagnostik-loyihalash; axloqiy keys	Raqamli xulq-atvor va axborot madaniyati bo‘yicha boshlang‘ich so‘rovnoma; "Shaxsiy ma’lumot va mas'uliyat" keysini muhokama qilish	Guruh bilan tanishuv suhbati; mentor bilan individual uchrashuv
2-hafta	Motivatsion-qadriyatli; raqamli hikoyalash	"Mening namunam" nomli qisqa video-hikoya tayyorlash va uni virtual muhitda taqdim etish	Oila a’zolari yoki mahalla oqsoqoli bilan suhbat, hikoya uchun material yig‘ish
3-hafta	Faoliyat-amaliy; media savodxonlik laboratoriyasi, gamifikatsiya	Shubhali xabarlarni tekshirish missiyalari; "Halollik" va "Mas'uliyat" nishonlarini qo‘lga kiritish	Keksalarga raqamli xizmatlardan foydalanishda yordam ("Yaxshilik haftaligi")
4-hafta	Refleksiv-baholash; elektron portfolio, virtual debat	Portfolio taqdimoti; "Virtual muhitda men qanday inson bo‘lishim kerak?" mavzusida debat; o‘z-o‘zini baholash	Yakuniy davra suhbati; mentor xulosasi

Modul yakunida uch komponentli mezonlar (kognitiv, emotsional-motivatsion, xulq-atvor) bo‘yicha boshlang‘ich va yakuniy natijalar taqqoslanadi. Bu pedagogik tajriba-sinov jarayonida modelning samaradorligini aniqlash imkonini beradi. Modul mazmuni ishtirokchilarning yoshi va ta’lim bosqichiga qarab moslashtiriladi.

Samarali amalga oshirish uchun quyidagi pedagogik shartlarga rioya etilishi zarur:

–O‘qituvchining tayyorgarligi. Pedagog raqamli kompetensiyaga ega bo‘lishi va tarbiyaviy ta’sir ko‘rsatish mahoratini uyg‘unlashtirishi kerak.

–Kontent xavfsizligi va milliy mazmun. Ishlatiladigan resurslar yoshga mos, ishonchli va milliy qadriyatlarga hamohang bo‘lishi shart.

–Oila va mahalla bilan hamkorlik. Yoshning raqamli hayoti asosan uy sharoitida kechganligi sababli ota-onalar tarbiyaviy jarayonning ishtirokchisiga aylantirilishi lozim.

–Doimiy monitoring. Tarbiyaviy natijalar muntazam kuzatilishi va zarurat bo‘lsa, texnologiyalar tuzatilib borilishi kerak.

–Individual yondashuv. Yoshlarning yoshi, qiziqishi va psixologik xususiyatlari hisobga olinishi zarur.

Samaradorlikni baholashda tarbiya jarayonining uch komponentiga mos mezonlardan foydalanish maqsadga muvofiq: kognitiv mezon (axloqiy va huquqiy bilimlar, qadriyatlar mohiyatini tushunish), emotsional-motivatsion mezon (qadriyatlarga munosabat, empatiya, ichki rag‘bat) va xulq-atvor mezoni (real va virtual muhitdagi xatti-harakatlar, mas'uliyat, hamkorlik). Baholash vositalari sifatida so‘rovnoma va test, axloqiy keyslarni yechish natijalari, pedagogik kuzatish, elektron portfolio tahlili va o‘z-o‘zini baholash so‘rovlaridan foydalanish mumkin. Muhimi, tarbiyaviy natija faqat ball bilan emas, xulq-atvor va munosabatlardagi barqaror o‘zgarishlar bilan o‘lchanishi kerak.

Xulosa qilib aytganda, virtual ta’lim muhiti yoshlarning ma’naviy-axloqiy tarbiyasini tashkil etish uchun yangi pedagogik imkoniyatlarni yaratadi. Ushbu imkoniyatlardan samarali foydalanish ta’lim mazmunini raqamlashtirish bilangina cheklanmay, yoshlarning virtual makondagi xulq-atvori, muloqot madaniyati, axborotga munosabati va ijtimoiy mas’uliyatini rivojlantirishni ham nazarda tutadi.

Kiberbulling, raqamli tajovuz	Raqamli odob-axloq qoidalari, sinf jamoasida "raqamli kelishuv", psixolog bilan profilaktika
Raqamli qaramlik, ekran vaqtining ortishi	Ota-onalar bilan hamkorlikda ekran vaqti madaniyatini shakllantirish, oflayn ijtimoiy loyihalar
SI natijalariga tanqidsiz ishonish	SI savodxonligi: SI javobini tekshirish, mualliflik va akademik halollik qoidalari

Manba: muallif ishlanmasi.

3. Sun'iy intellektning milliy tarbiyadagi imkoniyatlari. U.Xolms va hammualliflar ta'limda SIdan foydalanishning uch yo'nalishini ajratadi: o'quvchiga yo'naltirilgan (shaxsiylashtirilgan o'qitish, intellektual yordamchilar), o'qituvchiga yo'naltirilgan (baholash va tahlilni avtomatlashtirish) hamda tizimga yo'naltirilgan (ta'lim jarayonini boshqarish uchun ma'lumotlar tahlili)[76]. Ushbu tasnifni milliy tarbiyaga tatbiq etib, quyidagi imkoniyatlarni ko'rsatish mumkin.

Birinchidan, SI asosidagi suhbatdosh dasturlar (chat-botlar) yordamida tarixiy shaxslar, milliy an'analar va ma'naviy meros bo'yicha interaktiv mashg'ulotlar tashkil etish mumkin. Masalan, o'quvchilar Amir Temur davri yoki Jadidlar faoliyati haqida savol-javob orqali bilim olib, so'ngra olingan ma'lumotni manbalar bilan solishtiradi. *Ikkinchidan*, virtual va to'ldirilgan reallik texnologiyalari Samarqand, Buxoro, Xiva tarixiy obidalari bo'ylab virtual sayohatlar uyushtirish, milliy hunarmandchilik jarayonlarini ko'rgazmali ko'rsatish imkonini beradi. *Uchinchidan*, SI vositalari o'zbek tilidagi milliy mazmundagi kontentni – ertaklar, rivoyatlar, tarixiy hikoyalarni o'quvchi yoshiga moslashtirib taqdim etishda o'qituvchiga yordam beradi. *To'rtinchidan*, so'rovnoma va kuzatuv natijalarini tahlil qiluvchi

[76]Holmes W., Bialik M., Fadel C. Artificial Intelligence in Education: Promises and Implications for Teaching and Learning. – Boston, MA: Center for Curriculum Redesign, 2019.

raqamli vositalar tarbiyaviy monitoringni tezlashtiradi. SI texnologiyalarini jadal joriy etish bo'yicha qabul qilingan qaror bu yo'nalishdagi tashabbuslar uchun asos yaratadi[77].

Shu bilan birga SIdan tarbiyada foydalanish ehtiyotkorlikni talab etadi. YuNESKOning generativ SI bo'yicha qo'llanmasida inson markazidagi yondashuv, foydalanuvchilarning shaxsiy ma'lumotlarini himoya qilish, yosh chegaralariga rioya qilish va SI natijalarini tanqidiy baholash zarurligi qayd etilgan[78]. N.Selvin esa texnologiya o'qituvchining tarbiyaviy, insoniy rolini almashtira olmasligini, aksincha, pedagogning ahamiyati yanada ortishini asoslab beradi[79]. Tarbiya – shaxsiy namuna, muloqot va hissiy aloqaga tayanadigan jarayon; shuning uchun SI tarbiyachining o'rnini egallovchi emas, balki unga yordam beruvchi vosita sifatida qaralishi lozim. Bundan tashqari, aksariyat SI tizimlari xorijiy ma'lumotlar asosida o'qitilgani sababli ularning javoblari milliy kontekstni to'liq aks ettirmasligi mumkin – bu o'qituvchidan SI natijalarini milliy qadriyatlar nuqtai nazaridan tekshirib borishni talab qiladi.

4. Raqamli muhitda milliy tarbiyaning pedagogik modeli. Tahlillar asosida uch bosqichli model taklif etiladi. *Himoya bosqichi* – zararli axborotdan himoyaning huquqiy-texnik choralari, oila bilan hamkorlikda ekran vaqti madaniyatini shakllantirish. *Kompetensiya bosqichi* – media va SI savodxonligi, raqamli odob-axloqni "Tarbiya" fani, sinf soatlari va boshqa fanlar doirasida integratsiyalashgan holda o'rgatish. *Ijodkorlik bosqichi* – o'quvchilarni milliy mazmundagi raqamli kontent (qisqa video, podkast, mahalla tarixi haqida raqamli loyiha) muallifiga aylantirish. Bu bosqichda o'quvchi iste'molchidan milliy qadriyatlar targ'ibotchisiga aylanadi. Bu loyiha ta'limi va interfaol metodlar haqidagi qarashlarga mos keladi[80].

Modelni amalga oshirishning zaruriy sharti – pedagoglarning raqamli va SI kompetensiyasini oshirish. Malaka oshirish kurslariga "Raqamli tarbiya va media savodxonlik" moduli kiritilishi, ta'lim muassasalarida milliy mazmundagi raqamli resurslar bazasi yaratilishi maqsadga muvofiq.

Tahlil natijasida quyidagi xulosalarga kelindi: birinchidan, raqamli makon bugungi kunda tarbiyaning mustaqil muhitiga aylangan bo'lib, milliy tarbiya tizimi uni chetlab o'tmasdan, maqsadli boshqarishi lozim;

ikkinchidan, raqamli xavflarga qarshi asosiy vosita – shaxsning ichki immuniteti bo'lib, u media savodxonlik va milliy axloqiy merosga tayangan raqamli odob-axloq orqali shakllanadi;

[77]O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 17-fevraldagi PQ-4996-son "Sun'iy intellekt texnologiyalarini jadal joriy etish uchun shart-sharoitlar yaratish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori // lex.uz.

[78]UNESCO. Guidance for Generative AI in Education and Research. – Paris: UNESCO, 2023.

[79]Selwyn N. Should Robots Replace Teachers? AI and the Future of Education. – Cambridge: Polity Press, 2019.

[80]Ishmuhamedov R., Abduqodirov A., Pardayev A. Ta'limda innovatsion texnologiyalar. – T.: Iste'dod, 2008.

uchinchidan, sun'iy intellekt milliy tarbiyada interaktiv bilim berish, kontentni moslashtirish va monitoring uchun samarali vosita bo'la oladi, biroq u tarbiyachining insoniy rolini almashtira olmaydi va natijalari milliy kontekstda tanqidiy tekshirilishi kerak;

to'rtinchidan, taklif etilgan "himoya – kompetensiya – ijodkorlik" modeli o'quvchini raqamli kontent iste'molchisidan milliy qadriyatlarning faol targ'ibotchisiga aylantirishga xizmat qiladi. Kelgusida o'zbek tilidagi tarbiyaviy SI vositalarini ishlab chiqish va ularning samaradorligini tajriba-sinovda o'rganish maqsadga muvofiq.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasining "Bolalarni ularning sog'lig'iga zarar yetkazuvchi axborotdan himoya qilish to'g'risida"gi Qonuni. 2017-yil 8-sentabr, O'RQ-444-son // lex.uz.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 5-oktabrdagi PF-6079-son "Raqamli O'zbekiston – 2030" strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni // lex.uz.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 17-fevraldagi PQ-4996-son "Sun'iy intellekt texnologiyalarini jadal joriy etish uchun shart-sharoitlar yaratish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori // lex.uz.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 14-oktabrdagi PQ-358-son "2030-yilgacha sun'iy intellekt texnologiyalarini rivojlantirish strategiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi qarori // lex.uz.
5. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 31-dekabrdagi 1059-son "Uzluksiz ma'naviy tarbiya konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori // lex.uz.
6. Avloniy A. Turkiy guliston yoxud axloq. – T.: O'qituvchi, 1992.
7. Ishmuhamedov R., Abduqodirov A., Pardayev A. Ta'limda innovatsion texnologiyalar. – T.: Iste'dod, 2008.
8. Ribble M. Digital Citizenship in Schools: Nine Elements All Students Should Know. – 3rd ed. – Eugene, OR: ISTE, 2015.
9. Hobbs R. Digital and Media Literacy: A Plan of Action. – Washington, DC: The Aspen Institute, 2010.
10. Holmes W., Bialik M., Fadel C. Artificial Intelligence in Education: Promises and Implications for Teaching and Learning. – Boston, MA: Center for Curriculum Redesign, 2019.
11. Livingstone S., Sefton-Green J. The Class: Living and Learning in the Digital Age. – New York: NYU Press, 2016.
12. Prensky M. Digital Natives, Digital Immigrants // On the Horizon. – 2001. – Vol. 9, No. 5. – P. 1–6.
13. Selwyn N. Should Robots Replace Teachers? AI and the Future of Education. – Cambridge: Polity Press, 2019.
14. UNESCO. Guidance for Generative AI in Education and Research. – Paris: UNESCO, 2023.
15. UNESCO. Media and Information Literate Citizens: Think Critically, Click Wisely! – Paris: UNESCO, 2021.

SUN’IY INTELLEKT DAVRIDA YOSHLAR TARBIYASI: IMKONIYATLAR VA XAVFLAR

Turabova Lobar Xusen qizi, Ahmadova Kamola Ahmad qizi
Qori Niyoziy nomidagi Tarbiya pedagogikasi milliy instituti
2-kurs tayanch doktorantlari
https://doi.org/10.5281/zenodo.23179149

Annotatsiya. *Maqolada generativ sun’iy intellekt (SI) texnologiyalarining yoshlar hayoti va ta’lim jarayoniga jadal kirib kelishi sharoitida milliy tarbiya oldida paydo bo’layotgan imkoniyat va xavflar ilmiy-nazariy jihatdan tahlil qilingan. L.S. Vigotskiyning yaqin rivojlanish zonasi nazariyasi, “kognitiv yuklamani tashqariga uzatish” konsepsiyasi hamda jadid ma’rifatparvarlarining tarbiya haqidagi qarashlariga tayanilgan. So’nggi yillarda o’tkazilgan xorijiy empirik tadqiqotlar natijalari qiyosiy tahlil qilinib, SI dan nazoratsiz foydalanish tanqidiy fikrlash, xotira va o‘quv natijalariga salbiy ta’sir ko‘rsatishi, pedagogik jihatdan boshqariladigan foydalanish esa aksincha ijobiy samara berishi asoslangan. Maqolada SI ning qadriyatlarga asoslangan “Inson – SI – inson” pedagogik modelini taklif etiladi hamda oila, mahalla va ta’lim muassasalari hamkorligiga oid amaliy tavsiyalar ilgari suriladi.*

Kalit so’zlar: *sun’iy intellekt, milliy tarbiya, yoshlar, kognitiv yuklamani uzatish, tanqidiy fikrlash, akademik halollik, raqamli madaniyat, media savodxonlik, axborot immuniteti.*

Аннотация. *В статье в научно-теоретическом аспекте проанализированы возможности и риски, возникающие перед национальным воспитанием в условиях стремительного проникновения технологий генеративного скусственного интеллекта (ИИ) в жизнь молодежи и образовательный процесс. Исследование основывается на теории зоны ближайшего развития Л. С. Выготского, концепции «вынесения когнитивной нагрузки вовне», а также взглядах джадидских просветителей на воспитание. Проведен сравнительный анализ результатов зарубежных эмпирических исследований, проведенных в последние годы, на основе которого обосновано, что неконтролируемое использование ИИ может негативно влиять на критическое мышление, память и результаты обучения, тогда как педагогически управляемое его использование, напротив, может давать положительный эффект. В статье предлагается ценностно-ориентированная педагогическая модель «Человек – ИИ – человек», а также выдвигаются практические рекомендации по сотрудничеству семьи, махалли и образовательных учреждений.*

Ключевые слова: *искусственный интеллект, национальное воспитание, молодежь, вынесение когнитивной нагрузки вовне, критическое мышление, академическая честность, цифровая культура, медиаграмотность, информационный иммунитет.*

Insoniyat tarixida har bir yirik texnologik burilish tarbiya masalasini qaytadan kun tartibiga qo‘ygan. Yozuvning paydo bo‘lishi, kitob bosish, radio, televideniye va internet har safar “bolani kim tarbiyalaydi?” degan savolga yangi javob talab qilgan. Bugun bu savol sun'iy intellekt (SI) munosabati bilan avvalgilaridan ham keskinroq qo'yilmoqda. Chunki oldingi texnologiyalar axborotni faqat uzatgan bo‘lsa, generativ SI axborotni o‘zi yaratadi, inson bilan muloqot qiladi, maslahat beradi va hatto hissiy yaqinlik taassurotini uyg‘otadi.

2022-yil oxiridan boshlab ChatGPT, keyinchalik Gemini, Claude va boshqa generativ SI vositalarining ommalashuvi bilan ular yoshlarning o‘qish, muloqot va

bo‘sh vaqt faoliyatiga chuqur kirib bordi. O‘quvchi va talabalar uy vazifasi, insho, masala yechish va shaxsiy muammolar bo‘yicha maslahat uchun SI ga tobora ko‘proq murojaat qilmoqda. AQShda Common Sense Media tashkiloti tomonidan 2025-yilda o‘tkazilgan so‘rovnomaga ko‘ra, o‘smirlarning qariyb to‘rtdan uch qismi SI lardan kamida bir marta foydalangan, yarmidan ko‘pi esa ulardan muntazam foydalanadi. Bu raqamlar SI endi shunchaki o‘quv vositasi emas, balki yoshlarning ijtimoiy muhitining bir qismiga aylanganini ko‘rsatadi.

Biroq bu holat tarbiya nazariyasi uchun tub ahamiyatga ega. An’anaviy o‘zbek tarbiya tizimida bola dunyoqarashini shakllantiruvchi asosiy sub’ektlar oila, mahalla, ustoz va jamoa edi. Endi ular qatoriga qadriyatlari, maqsadi va “tarbiyaviy pozitsiyasi” noma’lum bo‘lgan algoritmlar qo‘shildi. Abdulla Avloniyning “Tarbiya biz uchun yo hayot – yo mamot, yo najot – yo halokat, yo saodat – yo falokat masalasidur” degan so'zlari aynan bugungi raqamli sharoitda yangi ma’no kasb etmoqda: tarbiya maydonini kim egallasa, kelajakni ham o‘sha belgilaydi.

O’zbekiston Respublikasida mazkur masalaga davlat siyosati darajasida e’tibor qaratilmoqda. Prezidentning 2021-yil 17-fevraldagi PQ-4996-son qarori bilan SI texnologiyalarini jadal joriy etish uchun shart-sharoitlar yaratish vazifasi qo‘yilgan, 2024-yilda esa 2030-yilgacha SI texnologiyalarini rivojlantirish strategiyasi qabul qilingan. Shu bilan birga, “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonun va Uzluksiz ma’naviy tarbiya konsepsiyasida yoshlarni milliy va umuminsoniy qadriyatlar ruhida tarbiyalash ustuvor vazifa sifatida belgilangan.

SI ning tarbiyadagi ikki funksiyasi: almashtiruvchi va kuchaytiruvchi

Adabiyotlar tahlili asosida muallif SI ning tarbiya jarayonidagi rolini ikki asosiy funksiyaga ajratishni taklif etadi. **Almashtiruvchi funksiyada** SI o'quvchi bajarishi lozim bo'lgan aqliy, ijodiy yoki ijtimoiy faoliyatni uning o'rniga bajaradi. **Kuchaytiruvchi funksiyada** esa SI o‘quvchining o‘z faoliyatini qo‘llab-quvvatlaydi, yo‘naltiradi va chuqurlashtiradi, lekin uni almashtirmaydi.

Mezon	Almashtiruvchi funksiya	Kuchaytiruvchi funksiya
O'quvchining roli	Tayyor natijani qabul qiluvchi	Faol izlanuvchi, savol beruvchi
SI ning roli	Ijrochi,“javob mashinasi”	Hamsuhbat, maslahatchi, raqib
Kognitiv ta'sir	Fikrlash yuklamasi SI ga o‘tadi	Fikrlash yaqin rivojlanish zonasida faollashadi
Tarbiyaviy natija	Mas’uliyatsizlik, sirtqi bilim, qaramlik	Mustaqillik, tanqidiy fikr, mehnatsevarlik

Mezon	Almashtiruvchi funksiya	Kuchaytiruvchi funksiya
Misol	Inshoni to‘liq SI ga yozdirish	O‘z inshosiga SI dan qarshi dalillar so‘rash

Ushbu farqlash Vigotskiy nazariyasi nuqtai nazaridan ham asoslidir. Yaqin rivojlanish zonasida bola kattalar yordamida o‘zi mustaqil qila olmaydigan ishni bajaradi va shu orqali rivojlanadi. Bunda yordam vaqtinchalik tayanch vazifasini o‘tashi, bola o‘sgan sari esa kamayib borishi kerak. Almashtiruvchi SI esa hech qachon kamaymaydigan “doimiy tayanch”ga aylanadi. Natijada o‘quvchi rivojlanish zonasiga kirmaydi, balki uni chetlab o‘tadi.

Tarbiyaviy imkoniyatlar: qachon va qanday shartlarda?

SI imkoniyatlarini ro‘yxat shaklida sanab o‘tish yetarli emas. Muhimi, har bir imkoniyat qanday pedagogik shartlarda ro‘yobga chiqishini aniqlashdir.

Shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim. SI har bir o‘quvchining bilim darajasi va o‘zlashtirish sur’atiga moslasha oladi. Bu sust o‘zlashtiruvchi bolada

“men ham uddalay olaman” degan ishonchni shakllantiradi. Biroq bu imkoniyat SI javobni emas, balki keyingi qadamga ishorani berganda amalga oshadi. Aks holda moslashuvchan tizim o‘quvchini emas, uning dangasaligini “qo‘llab-quvvatlaydi”.

Milliy merosni jonlantirish. SI yordamida tarixiy shaxslar, xalq og‘zaki ijodi, hunarmandchilik va urf-odatlarga oid interaktiv resurslar yaratish mumkin. Masalan, o‘quvchi Mirzo Ulug‘bekning ilmiy faoliyati haqida muloqot shaklida savol-javob qilishi mavzuga qiziqishni oshiradi. Ammo bu yerda muhim metodologik ogohlantirish bor: SI tarixiy faktlarni ishonarli, lekin noto‘g‘ri shaklda “to‘qib” berishi mumkin. Shu sababli bunday resurslar albatta mutaxassislar ekspertizasidan o‘tishi lozim.

O‘zbek tilining raqamli mavqeini mustahkamlash. O‘zbek tilida sifatli ishlaydigan SI vositalarining ko‘payishi ona tilining zamonaviy fan va texnologiya tili sifatida rivojlanishiga xizmat qiladi. Bu, o‘z navbatida, yoshlarda “zamonaviylik faqat xorijiy tilida” degan noto‘g‘ri tasavvurning oldini oladi.

Pedagog mehnatini qayta taqsimlash. SI metodik materiallar, tarbiyaviy tadbir ssenariylari va nazorat topshiriqlarini tayyorlashda o‘qituvchiga yordam beradi va bu yerda asosiy tarbiyaviy yutuq vaqtni tejash emas, balki bo‘shagan vaqtni o‘quvchi bilan jonli, yuzma-yuz muloqotga yo‘naltirish imkoniyatidir. Zero, o‘zbek pedagogik an‘anasida “ustoz-shogird” munosabati bilim uzatishdan ko‘ra ko‘proq shaxsiy namuna va ma’naviy ta’sirga asoslangan.

Tarbiyaviy xavflar: mexanizmlar tahlili. Kognitiv qaramlik va tanqidiy fikrlashning susayishi. Gerlich tadqiqotida SI dan foydalanish chastotasi va tanqidiy fikrlash o‘rtasidagi salbiy bog‘liqlik yoshlarda eng kuchli ekani aniqlangan. Bu

tasodif emas: kattalar SI ga murojaat qilganda avval shakllangan bilim va tajribaga tayanadi, o‘smirda esa bu poydevor endi qurilmoqda. Poydevor qurilish davrida uni SI ga topshirish kelajakda mustaqil fikrlay olmaydigan shaxsni shakllantirishi mumkin.

Avtomatlashtirishga ortiqcha ishonch. Psixologiyada “avtomatlashtirish tarafkashligi” deb ataladigan hodisa, ya’ni odamning avtomatik tizim taklifini o‘z mulohazasidan ustun qo’yishga moyilligi yaxshi o‘rganilgan. SI javoblari ravon, ishonchli ohangda va grammatik jihatdan benuqson bo‘lgani uchun yoshlar ularni tekshirmasdan qabul qiladi.

Akademik halollikning buzilishi. SI yordamida yaratilgan ishni o‘ziniki sifatida topshirish rostgo‘ylik, mehnatsevarlik va mas’uliyat kabi milliy tarbiyaning tayanch fazilatlariga zid keladi. Bu muammoning tarbiyaviy xavfi uning “ko‘rinmasligi”dadir: an’anaviy ko‘chirmachilikda o‘quvchi qoidani buzayotganini anglar edi, SI dan foydalanishda esa ko‘pincha buni oddiy “yordam olish” deb biladi. Demak, muammo nazorat bilan emas, balki qadriyat tushunchasini yangi sharoitga moslab tushuntirish orqali hal qilinadi.

Ijtimoiy begonalashuv va “sun’iy yaqinlik”. SI orqali “hamsuhbat” bo‘lganingizda u hech qachon charchamaydi, xafa bo‘lmaydi va doimo rozi bo‘ladi. J. Haidt smartfon va ijtimoiy tarmoqlarning bolalik davriga ta’sirini tahlil qilib, jonli o‘yin va muloqot o‘rnini ekran egallashi o‘smirlarda xavotir va yolg‘izlik hissini kuchaytirganini ko‘rsatgan. SI bu tendensiyani yanada chuqurlashtirishi mumkin. Oqibatda, mehr-oqibat, sabr-toqat va murosaga kelish kabi fazilatlar aynan real insonlar bilan murakkab, ba’zan noqulay munosabatlarda shakllanadi.

Madaniy unifikatsiya. Aksariyat SI tizimlari asosan ingliz tilidagi va g‘arb madaniyatiga oid ma‘lumotlar asosida o‘qitilgan. Postman ta‘kidlaganidek, texnologiya neytral emas va o‘zi bilan dunyoqarash olib kiradi. Shu sababli SI oila, jamoa, kattalarga munosabat kabi masalalarda milliy mentalitetga yot qarashlarni “universal haqiqat” sifatida taqdim etishi mumkin. Bu ochiq targ‘ibot emas, balki sezilmas “qadriyatlar siljishi” shaklida kechadi va aynan shu bilan xavflidir.

“Inson – sun’iy intellekt – inson” pedagogik modeli

Yuqoridagi tahlillar SI ni taqiqlash ham, uni nazoratsiz qo‘llash ham samarasiz ekanini ko‘rsatadi. UNESCO ham generativ SI dan ta’limda foydalanish bo‘yicha tavsiyalarida uni taqiqlash emas, balki yoshga mos cheklovlar, inson nazorati va axloqiy me’yorlar asosida tartibga solishni taklif etadi. Shundan kelib chiqib, ushbu maqolada SI ning kuchaytiruvchi funksiyasini ta’minlashga qaratilgan uch bosqichli modelni taklif etamiz:

Bosqich	Mazmuni	Tarbiyaviy maqsad
1. Inson (mustaqil boshlash)	O‘quvchi masalani avval o‘zi o‘ylaydi: fikr, reja yoki qoralama tayyorlaydi	Mustaqillik, mas’uliyat, o‘z kuchiga ishonch
2. Sun’iy intellekt (tanqidiy muloqot)	SI dan tayyor javob emas, qarshi dalil, xato tahlili yoki yo‘naltiruvchi savol so‘raladi; javob manbalar bilan tekshiriladi	Tanqidiy fikrlash, axborot madaniyati
3. Inson (xulosa va refleksiya)	O‘quvchi yakuniy xulosani o’zi asoslaydi, SI dan qanday foydalanganini ochiq bayon qiladi, ustoz yoki jamoa bilan muhokama qiladi	Rostgo‘ylik, halollik, jamoaviy muloqot

Ushbu modelning asosiy g‘oyasi shundan iboratki, jarayon insondan boshlanadi va inson bilan yakunlanadi, SI esa o‘rtada vosita bo‘lib qoladi. Baholashda yakuniy natija emas, balki fikrlash yo‘li, qilingan tahlil va refleksiya inobatga olinadi. Bunda uchinchi bosqichdagi “SI dan foydalanishni ochiq bayon qilish” talabi akademik halollikni tashqi taqiq emas, balki ichki odatga aylantirishga xizmat qiladi.

Model samarali ishlashi uchun uch darajadagi institutsional shart-sharoit zarur. *Ta’lim muassasasi darajasida* SI dan foydalanish qoidalari, akademik halollik kodeksi va pedagoglarning SI kompetensiyasi talab etiladi. *Oila darajasida* ota-onalarning raqamli gigiyena bo‘yicha xabardorligi, ekran vaqtini oqilona tartibga solish va bola bilan SI haqida ochiq suhbat muhim. *Mahalla darajasida* esa yoshlar yetakchilari va faollar orqali jonli muloqot, sport, hunar va jamoaviy tadbirlar uchun muhit yaratish SI ga ortiqcha bog‘lanishning tabiiy muqobili bo‘lib xizmat qiladi.

Xulosa. Birinchidan, SI yoshlar tarbiyasi uchun o‘z-o‘zidan na xavf, na yechim hisoblanadi. Empirik tadqiqotlar uning ta’siri texnologiyaning o‘ziga emas, balki pedagogik tashkil etilishiga bog‘liqligini ko‘rsatmoqda. Shu sababli tarbiya tizimining vazifasi yoshlarni texnologiyadan “himoya qilish” emas, balki ularni texnologiya bilan ongli va qadriyatlarga asoslangan munosabatga tayyorlashdir.

Ikkinchidan, SI ning tarbiyadagi rolini almashtiruvchi va kuchaytiruvchi funksiyalarga ajratish pedagogik amaliyot uchun aniq mezon beradi. SI o‘quvchining fikrlash, ijod va muloqot faoliyatini almashtirgan holatda salbiy, uni qo‘llab-quvvatlab chuqurlashtirgan holatda esa ijobiy tarbiyaviy natija beradi.

Uchinchidan, SI xavflari faqat kognitiv sohada emas, balki axloqiy va milliy-madaniy sohada ham namoyon bo‘ladi. “Sun’iy yaqinlik” va sezilmas qadriyatlar siljishi xorijiy tadqiqotlarda yetarli o‘rganilmagan, lekin milliy tarbiya uchun eng muhim masalalardir. Bu yo‘nalish o‘zbek pedagogika fani uchun alohida tadqiqot maydoni hisoblanadi.

To‘rtinchidan, taklif etilgan “Inson – SI – inson” modeli SI ni taqiqlamasdan, undan to‘g‘ri foydalanish va akademik halollikni ichki odatga aylantirish imkonini beradi.

Xulosa qilib aytganda, sun’iy intellekt davrida ham tarbiyaning markazida inson, ya’ni ustoz, ota-ona va ularning jonli namunasi turadi. Sun’iy intellekt bilim bera olishi mumkin, ammo vijdon, mehr va mas’uliyatni faqat inson tarbiyalay oladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Sun’iy intellekt texnologiyalarini jadal joriy etish uchun shart-sharoitlar yaratish chora-tadbirlari to‘g‘risida” gi qarori. 2021-yil 17-fevral, PQ-4996-son.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “2030-yilgacha sun’iy intellekt texnologiyalarini rivojlantirish strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi qarori. 2024-yil 14-oktabr, PQ-358-son.
3. UNESCO. Guidance for Generative AI in Education and Research. – Paris: UNESCO, 2023
4. Выготский Л.С. Педагогическая психология. – Москва: Педагогика, 1991.
5. Kosmyna N. Your Brain on ChatGPT: Accumulation of Cognitive Debt when Using an AI Assistant for Essay Writing Task. – MIT Media Lab, 2025.
6. UNESCO. (2023, 2026-yilda yangilangan). Ta’lim va tadqiqotlarda generativ sun’iy intellekt bo‘yicha qo‘llanma.
https://www.unesco.org/en/articles/guidance-generative-ai-education-and-research
7. UNICEF Innocenti. (2025). Sun'iy intellekt va bolalar bo'yicha qo'llanma, 3.0 versiyasi.
https://www.unicef.org/innocenti/reports/policy-guidance-ai-children
8. Wood D., Bruner J.S., Ross G. The role of tutoring in problem solving // Journal of Child Psychology and Psychiatry. – 1976. – Vol. 17, No. 2. – P. 89–100

INKLYUZIV TA’LIM SHAROITIDA ALOHIDA TA’LIM EHTIYOJIGA EGA O‘QUVCHILARDA AMALIY-BADIIY IJODKORLIK ORQALI MILLIY TARBIYANI SHAKLLANTIRISHNING PEDAGOGIK MEXANIZMLARI

Turg‘unboyeva Nasiba Rustam qizi
Qori Niyoziy nomidagi Tarbiya pedagogikasi milliy instituti tayanch doktoranti
https://doi.org/10.5281/zenodo.23179154

Annotatsiya

Mazkur maqolada inklyuziv ta’lim sharoitida alohida ta’lim ehtiyojiga ega o‘quvchilarda amaliy-badiiy ijodkorlik vositasida milliy tarbiyani shakllantirishning pedagogik mexanizmlari yoritilagan. Amaliy-badiiy faoliyatning o‘quvchining individual imkoniyatlarini namoyon etishi, ijodiy faolligini qo‘llab-quvvatlashi hamda milliy qadriyatlar, urf-odatlar, an’analar va tarixiy-madaniy merosga hurmatni shakllantirishdagi o‘rni tahlil qilingan. Shu bilan birga, bunday faoliyatni tashkil etishda uchraydigan muammolar aniqlanib, ularni bartaraf etishning pedagogik yo‘llari asoslab berilgan. Ushbu yondashuv amaliy-badiiy ijodkorlikni alohida ta’lim ehtiyojlariga ega o‘quvchilarda milliy tarbiyani shakllantirishga xizmat qiluvchi pedagogik vosita sifatida tashkil etish imkonini beradi.

Kalit so‘zlar: inklyuziv ta’lim, alohida ta'lim ehtiyojga ega o‘quvchilar, amaliy-badiiy ijodkorlik, milliy tarbiya ,pedagodik mexanizm.

ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ МЕХАНИЗМЫ ФОРМИРОВАНИЯ НАЦИОНАЛЬНОГО ВОСПИТАНИЯ У УЧАЩИХСЯ С ОСОБЫМИ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫМИ ПОТРЕБНОСТЯМИ ПОСРЕДСТВОМ ПРАКТИЧЕСКО-ХУДОЖЕСТВЕННОГО ТВОРЧЕСТВА В УСЛОВИЯХ ИНКЛЮЗИВНОГО ОБРАЗОВАНИЯ

В данной статье освещены педагогические механизмы формирования национального воспитания посредством практическо-художественного творчества у учащихся с особыми образовательными потребностями в условиях инклюзивного образования. Проанализирована роль практическо-художественной деятельности в проявлении индивидуальных возможностей учащегося, поддержке его творческой активности, а также в формировании уважения к национальным ценностям, обычаям, традициям и историко-культурному наследию. Вместе с тем выявлены проблемы, возникающие при организации такой деятельности, и обоснованы педагогические пути их устранения. Данный подход позволяет организовать практическо-художественное творчество как педагогическое средство, способствующее формированию национального воспитания у учащихся с особыми образовательными потребностями.

Ключевые слова: инклюзивное образование; учащиеся с особыми образовательными потребностями; практическо-художественное творчество; национальное воспитание; педагогический механизм.

PEDAGOGICAL MECHANISMS FOR FORMING NATIONAL UPBRINGING THROUGH PRACTICAL AND ARTISTIC CREATIVITY AMONG STUDENTS WITH SPECIAL EDUCATIONAL NEEDS IN INCLUSIVE EDUCATION

Abstract

This article highlights the pedagogical mechanisms for forming national upbringing through practical and artistic creativity among students with special educational needs in inclusive education. The role of practical and artistic activity in demonstrating the individual abilities of the student, supporting their creative activity, as well as in developing respect for national values, customs, traditions, and historical and cultural heritage, is analyzed. At the same time, the problems encountered in organizing such activities are identified, and pedagogical ways to

address them are substantiated. This approach makes it possible to organize practical and artistic creativity as a pedagogical means that contributes to the formation of national upbringing among students with special educational needs.

Keywords: *inclusive education, students with special educational needs, practical and artistic creativity, national upbringing, pedagogical mechanism.*

Bugungi kunda inklyuziv ta’limni rivojlantirish jarayonida alohida ta’lim ehtiyojiga ega o‘quvchilarning nafaqat ta’lim olish imkoniyatlarini kengaytirish, balki ularni milliy qadriyatlar asosida tarbiyalash, ijtimoiy hayotga faol jalb etish va shaxsiy imkoniyatlarini namoyon qilishlari uchun qulay pedagogik sharoitlarni yaratish muhim vazifalardan biri hisoblanadi. Bunda o‘quvchilarda milliy qadriyatlarga hurmat, urf-odat va an’analarga e’tibor, tarixiy-madaniy merosga daxldorlik hamda Vatanga sadoqat kabi sifatlarni shakllantirish alohida ahamiyat kasb etadi. Xususan, PQ-4860-son qaror bilan inklyuziv ta’limni rivojlantirishning maqsad va ustuvor yo‘nalishlari belgilangan bo‘lib, unda “alohida ta’lim ehtiyojiga ega bolalar” uchun ta’lim va tarbiya sharoitlarini takomillashtirish masalalariga alohida e’tibor qaratilgan [1].

Milliy tarbiya jarayonini inklyuziv ta’lim bilan uyg‘unlashtirishda o‘quvchilarning faol ishtirokini ta’minlaydigan amaliy faoliyat turlaridan foydalanish alohida ahamiyatga ega. Shu jihatdan amaliy-badiiy ijodkorlik o‘quvchilarning individual imkoniyatlarini hisobga olish, ularni ijodiy faoliyatga jalb etish, milliy san’at va hunarmandchilik namunalarini o‘rganish hamda milliy qadriyatlarni amaliy faoliyat orqali anglash imkonini beruvchi pedagogik vosita sifatida namoyon bo‘ladi.

Biroq inklyuziv ta’lim amaliyotida amaliy-badiiy faoliyatning tarbiyaviy imkoniyatlaridan foydalanish masalasi yetarlicha tizimlashtirilmagan. Ayrim hollarda bunday faoliyat o‘quvchilarning texnik yoki ijodiy ko‘nikmalarini rivojlantirish bilan chegaralanib, uning milliy qadriyatlarni o‘zlashtirish, ularga nisbatan ijobiy munosabatni shakllantirish va ijtimoiy tajribani boyitish imkoniyatlari to‘liq namoyon bo‘lmaydi. Shu sababli amaliy-badiiy ijodkorlikni milliy tarbiya mazmuni bilan uzviy bog‘lash va uni alohida ta’lim ehtiyojiga ega o‘quvchilarning individual imkoniyatlariga mos ravishda tashkil etish dolzarb pedagogik muammo sifatida namoyon bo‘lmoqda.

Inklyuziv ta’lim sharoitida alohida ta’lim ehtiyojiga ega o‘quvchilarda amaliy-badiiy ijodkorlik vositasida milliy tarbiyani shakllantirishning pedagogik imkoniyatlari, mavjud muammolari hamda samarali tashkil etish mexanizmlari yoritiladi

Yuqoridagi jarayonlarni hisobga olgan holda, alohida ta’lim ehtiyojiga ega o‘quvchilarda milliy tarbiyani shakllantirishning samaradorligi, avvalo, tarbiyaviy faoliyatning o‘quvchi imkoniyatlariga mos tashkil etilishi bilan bog‘liq. Bunda o‘quvchining individual xususiyatlarini hisobga olish, uni faoliyatga jalb etish,

mustaqil fikrlashi va ijodiy imkoniyatlarini namoyon qilishi uchun sharoit yaratish muhimdir. Shu jihatdan amaliy-badiiy ijodkorlik milliy qadriyatlarni o‘quvchining bevosita faoliyati bilan bog‘lashga xizmat qiladigan samarali pedagogik vosita sifatida qaralishi mumkin.

Alohida ta’lim ehtiyojlariga ega bolalarni rivojlantirishda faoliyat va ijtimoiy muhitning ahamiyati L.S. Vygotskiy qarashlarida ham muhim o‘rin egallaydi. Uning fikrlariga ko‘ra, bolaning rivojlanishi faqat mavjud imkoniyatlar bilan emas, balki unga yaratiladigan ijtimoiy va pedagogik sharoitlar bilan ham belgilanadi. Mazkur yondashuv inklyuziv ta’lim jarayonida o‘quvchining imkoniyatlarini cheklov sifatida emas, balki pedagogik faoliyatni moslashtirishni talab qiladigan omil sifatida ko‘rishga asos beradi [5].Demak, amaliy-badiiy faoliyat ham barcha o‘quvchilar uchun bir xil shaklda emas, balki ularning individual imkoniyatlariga muvofiq tashkil etilishi lozim.

Amaliy-badiiy ijodkorlikning alohida ta’lim ehtiyojiga ega o‘quvchilarning imkoniyatlarini kengaytirishdagi ahamiyati xorijiy tadqiqotchialar ishlarida ham o‘z aksini topgan jumladan C.Y.Mason, K.M.Steedly va M.S.Thormann ta’kidlashicha, san’atga oid faoliyatlar o‘quvchilarga o‘z shaxsiy qarashlari hamda his-tuyg‘ularini erkin bayon etish, jarayonda o‘ziga ma’qul yechimni tanlash va imkoniyatlarindan kelib chiqqan holda ishtirok etish imkonini beradi. Mazkur natija amaliy-badiiy faoliyatning o‘quvchi shaxsiy faolligini qo‘llab-quvvatlashdagi imkoniyatlarini ko‘rsatadi [2].

Shu bilan birga, inklyuziv ta’lim amaliyotida amaliy-badiiy faoliyatning imkoniyatlarini to‘laqonli ro‘yobga chiqarishda ayrim qiyinchiliklar ham uchraydi. Xususan, amaliy mashg‘ulotlarning ko‘p hollarda faqatgina rasm solish, bo‘yash, qirqish yoki yelimlash kabi oddiy mexanik harakatlar bilan cheklanib qolishi asosiy muammolardan biridir. Oqibatda mazkur jarayoning milliy tarbiya ildizlari bilan bog‘liqligi yetarlicha ochilmaydi. Natijada o‘qituvchi ma’lum bir ijodiy ishni bajarsa-da, uning zamirida milliy qadryatlarni chuqur anglash, ularga nisbatan shaxsiy munosabat shakllanishi va milliy- madaniy merosni o‘zlashtirish imkoniyati cheklanib qoladi.

Yana bir muhim muammo amaliy topshiriqlarning o‘quvchilarning individual imkoniyatlariga moslashmaganligidadir.. Alohida ta’lim ehtiyojlariga ega o‘quvchilarning idrok etish, harakatni bajarish, muloqotga kirishish hamda topshiriqni mustaqil yakunlash ko‘nikmalari turlichadir. Shu boisdan, barcha o‘quvchilarga bir xil talab qo‘yish va bir xil shablon asosida ish bajarishni talab qilish inkyuziv yondoshuvar tamoyillariga to‘g‘ri kelmaydi.

Bu borada V. Şen tomonidan olib borilgan ilmiy izlanishlar diqqatga sazovordir. Maxsus ta’lim ehtiyojli o‘quvchilar bilan ishlaydigan bir guruh o‘qituvchilar ishtirokidagi tadqiqotda tasviriy san’at mashg‘ulotlarida qalam va qaychidan foydalanish, qirqish, yelimlash, moslashtirish, bo‘yash, diqqatni jamlash

va ijodkorlik kabi ko‘nikmalarning rivojlanishiga xizmat qilishi aniqlangan. Tadqiqotda, shuningdek, o‘qituvchilar hamkorligi, mos material va jihozlardan foydalanish hamda pedagoglarning maxsus ta’lim bo‘yicha bilimlarini rivojlantirish zarurligi ta’kidlangan [3]. Bu natijalar amaliy-badiiy faoliyatni samarali tashkil etishda topshiriqning o‘zi bilan bir qatorda pedagogik sharoit va o‘qituvchining kasbiy tayyorgarligi ham muhimligini ko‘rsatadi

Amaliy-badiiy faoliyatni milliy tarbiya bilan bog‘lashning yana bir muhim jihati uning madaniy qadriyatlarni o‘zlashtirish imkoniyatidir. V. Trifunović, B. Prodović Milojković va D. Zdravković tomonidan olib borilgan tadqiqotda musiqa va tasviriy san’at ta’limining maktab o‘quvchilarida madaniy ong va madaniy identifikatsiyani rivojlantirishdagi o‘rni tahlil qilingan [4]. Mazkur tadqiqot natijalaridan kelib chiqib, san’at faoliyatini milliy madaniyat elementlari bilan bog‘lash o‘quvchilarning madaniy tajribani faol o‘zlashtirishiga xizmat qilishi mumkinligini ko‘rish mumkin.

Shundan kelib chiqib, inklyuziv ta’lim sharoitida amaliy-badiiy ijodkorlikni milliy tarbiya vositasi sifatida tashkil etishda, eng avvalo, ijodiy faoliyatning mazmunini milliy qadriyatlar bilan bog‘lash zarur. O‘zbek xalq amaliy san’ati namunalari, milliy naqshlar, kashtachilik, kulolchilik, yog‘och o‘ymakorligi, milliy kiyim va bezak elementlari asosida o‘quvchilarga mos ijodiy topshiriqlar ishlab chiqish mumkin. Bunday faoliyatda o‘quvchi tayyor namunani shunchaki takrorlamaydi, balki uning ayrim elementlarini tanlaydi, ularni joylashtiradi, rang va shakllar bo‘yicha qaror qabul qiladi hamda o‘z imkoniyatidan kelib chiqib ijodiy mahsulot yaratadi.

Bunda pedagogik jarayonning muhim sharti **umumiy tarbiyaviy maqsad va individual bajarish imkoniyatining uyg‘unligi**dir. Masalan, milliy naqsh yaratish topshirig‘i bir o‘quvchi tomonidan mustaqil chizish orqali, boshqa o‘quvchi tomonidan tayyor elementlarni joylashtirish orqali, yana bir o‘quvchi tomonidan pedagog yordamida bajarilishi mumkin. Faoliyat shakli turlicha bo‘lsa-da, uning tarbiyaviy maqsadi milliy san’at elementlarini anglash va ularga ijobiy munosabatni shakllantirish yagona bo‘lib qoladi.

Amaliy-badiiy ijodkorlik orqali milliy tarbiyani shakllantirishda o‘quvchining ijodiy mustaqilligini qo‘llab-quvvatlash ham muhimdir. Pedagog o‘quvchiga tayyor yechimni taqdim etishdan ko‘ra, unga tanlash, yaratish va o‘z ishini ifodalash imkoniyatini berishi lozim. Masalan, milliy naqsh kompozitsiyasini yaratishda o‘quvchiga rang, shakl yoki ayrim bezak elementlarini mustaqil tanlash imkoniyatining berilishi uning ijodiy faolligini oshiradi. Shu bilan birga, o‘quvchining imkoniyatidan ortiq talab qo‘yilmasligi va zarur hollarda bosqichma-bosqich pedagogik yordam ko‘rsatilishi kerak.

Milliy tarbiya jarayonida amaliy faoliyatning mazmuni bilan bir qatorda, o‘quvchida milliy qadriyatlarga nisbatan ijobiy munosabatni shakllantirish ham

muhim ahamiyatga ega. Shu sababli amaliy ishni boshlashdan oldin tanlangan milliy san’at yoki hunarmandchilik namunasi haqida qisqa ma’lumot berish, uning kundalik hayot va milliy madaniyatdagi o‘rnini tushuntirish, mashg‘ulot yakunida esa o‘quvchining o‘z ishini namoyish etishi va faoliyati haqida fikr bildirishiga imkon yaratish maqsadga muvofiq.

Amaliy-badiiy faoliyatni juftlik va kichik guruhlarda tashkil etish ham samarali yechimlardan biridir. Bunda har bir o‘quvchiga uning imkoniyatiga mos vazifa berilib, yakuniy ijodiy natija umumiy faoliyat orqali yaratiladi. Masalan, milliy kompozitsiya tayyorlash jarayonida bir o‘quvchi naqsh elementlarini tanlashi, ikkinchisi ularni joylashtirishi, uchinchisi rang berishi mumkin. Bunday tashkil etish usuli alohida ta’lim ehtiyojlariga ega o‘quvchining umumiy faoliyatdagi ishtirokini ta’minlash bilan birga, hamkorlik ko‘nikmalarini ham rivojlantiradi.

Milliy tarbiyaning samaradorligini oshirishda oila bilan hamkorlikni yo‘lga qo‘yish ham muhim. Ta’lim muassasasida bajarilgan amaliy-badiiy faoliyatni oilada davom ettirish, ota-onalarni milliy hunarmandchilik va san’atga oid ijodiy topshiriqlarga jalb etish, o‘quvchilarning ishlarini ko‘rgazmalarda namoyish qilish orqali milliy qadriyatlarning kundalik hayot bilan bog‘liqligini kuchaytirish mumkin.

Shuningdek, o‘quvchilar faoliyatini baholashda faqat tayyor ijodiy mahsulotning tashqi ko‘rinishiga asoslanish maqsadga muvofiq emas. Inklyuziv ta’lim sharoitida o‘quvchining topshiriqni bajarishdagi faolligi, mustaqilligi, ijodiy tanlovi, milliy san’at elementlarini qo‘llashi, faoliyat jarayonidagi ijobiy o‘zgarishlari va o‘z ishiga munosabati ham hisobga olinishi lozim. Bunday baholash o‘quvchining individual rivojlanish dinamikasini aniqlash imkonini beradi.

Shu asosda inklyuziv ta’lim sharoitida alohida ta’lim ehtiyojlariga ega o‘quvchilarda amaliy-badiiy ijodkorlik vositasida milliy tarbiyani shakllantirish jarayonini **o‘quvchining individual imkoniyatlarini aniqlash, milliy qadriyatga oid faoliyatni tanlash, topshiriqni moslashtirish, amaliy ijodiy faoliyatni tashkil etish, mustaqil ijodiy ifodani qo‘llab-quvvatlash, hamkorlikni yo‘lga qo‘yish va natijani individual rivojlanish asosida baholash** ketma-ketligida tashkil etish mumkin.

Demak, amaliy-badiiy ijodkorlikning pedagogik imkoniyatlaridan to‘laqonli foydalanish uchun uni faqat ijodiy ko‘nikmalarni shakllantirish vositasi sifatida emas, balki **milliy qadriyatlarni anglash, ularga munosabat bildirish va ularni amaliy faoliyatda ifodalashga yo‘naltirilgan tarbiyaviy jarayon** sifatida tashkil etish zarur. Aynan shu yondashuv inklyuziv ta’lim sharoitida alohida ta’lim ehtiyojlariga ega o‘quvchilarning imkoniyatlarini hisobga olgan holda milliy tarbiyaning mazmuni va amaliy faoliyat o‘rtasidagi uzviylikni ta’minlaydi.

Inklyuziv ta’lim sharoitida alohida ta’lim ehtiyojiga ega o‘quvchilarda milliy tarbiyani shakllantirishda amaliy-badiiy ijodkorlikdan foydalanish o‘quvchilarning individual imkoniyatlarini tarbiyaviy jarayon bilan uyg‘unlashtirishga xizmat qiladi.

Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, ijodiy faoliyat o‘quvchining o‘z qobiliyatini namoyon etishi, mustaqil faoliyatga kirishishi va ijtimoiy munosabatlarda faol ishtirok etishi uchun qulay sharoit yaratadi.

Amaliy-badiiy faoliyatga milliy san’at va hunarmandchilik namunalari, milliy bezaklar, naqshlar hamda madaniy meros elementlarini kiritish orqali o‘quvchilarning milliy qadriyatlar haqidagi tasavvurlarini kengaytirish va ularga nisbatan ijobiy munosabatini shakllantirish imkoniyati ortadi. Bunda asosiy e’tibor tayyor ijodiy mahsulotga emas, balki o‘quvchining faoliyat jarayonidagi ishtiroki, mustaqil tanlovi, ijodiy yondashuvi va erishgan individual natijasiga qaratilishi lozim

Tadqiqot doirasida aniqlangan muammolarni bartaraf etish uchun amaliy-badiiy topshiriqlarni o‘quvchilarning individual imkoniyatlariga moslashtirish, milliy tarbiya mazmuni bilan bog‘lash, ijodiy mustaqillikni qo‘llab-quvvatlash, hamkorlikdagi faoliyatni tashkil etish, oila bilan aloqani kuchaytirish hamda natijalarni individual rivojlanish dinamikasi asosida baholash muhim pedagogik shartlar sifatida belgilanadi.

Shu asosda amaliy-badiiy ijodkorlik inklyuziv ta’lim sharoitida milliy tarbiyani shakllantirishning qo‘shimcha mashg‘ulot turi emas, balki **ta’lim, tarbiya, ijodkorlik va ijtimoiy faollikni o‘zaro bog‘lash imkonini beruvchi pedagogik vosita** sifatida qaralishi mumkin. Uning samarali qo‘llanilishi alohida ta’lim ehtiyojlariga ega o‘quvchilarning milliy-ma’daniy tajribani faol o‘zlashtirishi va o‘z imkoniyatlarini erkin namoyon etishlari uchun zarur pedagogik sharoitlarni kengaytiradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1.O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalarga ta’lim-tarbiya berish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 2020-yil 13-oktabrdagi PQ–4860-son qarori.

2.Mason C.Y., Steedly K.M., Thormann M.S. Impact of Arts Integration on Voice, Choice, and Access // Teacher Education and Special Education. 2008. Vol. 31, No. 1. P. 36–46.

3.Şen V. Özel eğitim öğrencilerinin eğitiminde görsel sanatlar dersine yönelik öğretmen görüşleri: Yüksek lisans tezi. Necmettin Erbakan Üniversitesi, Eğitim Bilimleri Enstitüsü, 2019.

4.Trifunović V.S., Prodović Milojković B., Zdravković D. Music and Fine Arts as a Foundation for Developing the Cultural Identity of Schoolchildren // TEME. 2025. DOI: 10.22190/TEME250602031T.

5.Vygotsky L.S. Osnovy defektologii // Sobranie sochineniy: v 6 t. T. 5. Moskva: Pedagogika, 1983.

MUSIQIY MADANIY TADBIRLAR MA’NAVIY-ESTETIK TARBIYANING MUHIM SHAKLI

To‘xtasinova Musharrafbonu
Nizomiy nomidagi O‘zbekiston milliy pedagogika universiteti “Musiqiy ta’lim” kafedrasi 203- guruh talabasi
https://doi.org/10.5281/zenodo.23179172

Annotatsiya: *Madaniy-ma’rifiy tadbirlarni musiqiy-badiiy qismi, ya’ni bayram mazmuni, ruhiga mos kuy-qo‘shiqlar ularni badiiy emosional ta’sirchangligini oshiradi, ishtirokchilar, tinglovchilar va tomoshabinlar qalbida bayramona hissiy kechinmalar paydo qiladi. Bo‘lg‘usi talabalar darslarni maqsadli tashkil etish asosida madaniy tadbirlarga tayyorlashning pedagogik asoslarini ochib berilgan.*
Kalit so‘zlar: *Maktab, yosh avlod, adabiy-badiiy, musiqiy-teatr, Navro‘z, Mustaqillik bayrami, qadriyat, ta’lim-tarbiya, milliy, umuminsoniy.*

O‘sib kelayotgan yosh avlodni milliy g‘oya va mafkura talablari asosida har tomonlama kamol toptirish, ya’ni, aqliy, axloqiy, jismoniy jihatdan yetuk, estetik madaniyati, badiiy didi, dunyoqarashi keng rivojlangan, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga sadoqatli qilib tarbiyalash ta’lim-tarbiya ishlari uchun mas’ul pedagog- murabbiylar oldiga yangi va yanada mas’uliyatli vazifalarni qo‘ymoqda.

Ta’limda integrasiyalashuv jarayonini tezlashuvi, fan-texnika taraqqiyotining jadal rivoji ta’lim tizimining barcha bo‘g‘inlarida yoshlarni zamonaviy bilimlarni puxta o‘zlashtirish, zamon bilan hamnafas yashashga intilish, shu bilan bir qatorda halqimizning milliy iftixori, madaniyva ma’naviy o‘zligining ifodasi bo‘lgan qadriyatlariga vorislik qila oladigan shaxs sifatida shakllantirishga yo‘naltirilgan pedagogik faoliyatni uzluksiz ravishda takomillashtirib borishni taqozo etadi. Qadriyatlarimizni qadrlash, milliy g‘oya va mafkura mohiyatini teran anglab yetish mazmunida mujassam bo‘lgan bilim va tushunchalar o‘quvchi yoshlar tarbiyasiga yangicha uslublar bilan yondashish, ta’lim-tarbiya ishlarini sinf va sinfdan tashqari faoliyatlar uzviyligida olib borish uning sifat va samaradorligini ta’minlashda muhim ish shakllaridan ekanligini ko‘rsatadi.

Umumta’lim maktablarida tashkil etiladigan musiqiy-madaniy tadbirlar o‘quvchi-yoshlarni xalqimiz hayotining muhim ko‘rinishlarini ifoda etuvchi bayramlar, tarixiy sanalar, milliy an’analar, urf odatlar, fan, adabiyot, san’at olamida o‘chmas iz qoldirgan buyuk ajdodlarimiz hayoti va faoliyati bilan tanishtirib borishda muhim rol o‘ynaydi.

Xalqimiz hayotida milliy bayramlar anchagina, ular orasida ayniqsa Navro‘z bayrami alohida o‘rin tutadi. Mustaqillik sharofati bilan bu bayram umumxalq bayrami, mehr-muruvvat, yangi yil bayrami sifatida keng nishonlanmoqda. Navro‘z bayramini maktablarda o‘tkazishga tayyorgarlik ko‘rish va nishonlash sinf va sinfdan tashqari faoliyatlar o‘zviyligida olib boriladigan tadbirlar sirasiga kiradi.

Bayram dasturiga jalb etilgan o‘quvchilar milliy an’analarni sahnada jonlantirish, folklor-etnografik ko‘rinishlarni badiiy talqin etishlari, teatrlashgan tomoshani musiqiy ta’minlashda ishtirok etishlari ularda izlanuvchanlik, topqirlik, ijodiy fikrlash, tasavvur qilish, milliy urf-odatlar, cholg‘u sozlari, qo‘shiq- aytimlari, raqslari, milliy liboslar, qadimiy mehnat qurollari bilan chuqur tanishish imkoniyatini yuzaga keltiradi.

Mustaqillik bayrami, o‘qituvchilar va murabbiylar kuni, Konstitusiya qabul qilingan kun, yangi yil, Navro‘z, 8-mart xotin-qizlar bayrami, xotira va qadrlash kuni kabi bayramlar xalqimiz uchun muqaddas timsollar, ramzlar sifatida yildan-yilga yanada ommaviylik kasb etib, teatrlashgan-musiqali bayramlarga aylanayotganligi xalqimiz milliy qadriyatlari va an’analarining bardavomligidan dalolatdir.

Umumta’lim maktablarida o‘tkaziladigan yozuvchi-shoirlar, xalqimiz ardog‘iga muyassar bo‘lgan san’atkorlar, ilm ahllari bilan uchrashuvlar, ularning hayoti va ijodiga bag‘ishlangan adabiy-badiiy, musiqiy-teatrlashgan kechalar ham madaniy-ma’rifiy, tarbiyaviy ishlarning muhim shakli sifatida o‘quvchi- yoshlarni ma’naviy kamolotiga ijobiy ta’sir etadi. «Kelajak ovozi» «Nihol», «Diyorim ohanglari» kabi ko‘rik-tanlovlarga tayyorgarlik ko‘rish, ijtirok etish kabilar ham o‘quvchilarni san’at sirlarini puxta egallashga, o‘z ustida ishlash, izlanish, iste’dodini ruyobga chiqarishga rag‘batlantiradi. Bunday tanlovlarga jalb etilgan har bir ishtirokchi-o‘quvchi albatta ustozlari ko‘magida maxsus tayyorgarlik ko‘radi, tanlov Nizomi talablarini bajarish ustida musta’qil izlanishiga to‘g‘ri keladi. Bu esa o‘z navbatida o‘quvchilarni bilim va malakalarini mustahkamlash, mahorat va tajriba ortirib borishlariga keng imkoniyat yaratadi.

Madaniy-ma’rifiy tadbirlarni musiqiy-badiiy qismi, ya’ni bayram mazmuni, ruhiga mos kuy-qo‘shiqlar ularni badiiy emosional ta’sirchangligini oshiradi, ishtirokchilar, tinglovchilar va tomoshabinlar qalbida bayramona hissiy kechinmalar paydo qiladi.

Umumta’lim maktablarda boshlang‘ich ta’lim mazmuni va sifatini oshirish o‘rta ta’lim poydevorini mustahkamlash bugungi kunda dolzarb vazifalardandir. Boshlang‘ich sinflarda tashkil etiladigan o‘ziga xos musiqiy-badiiy tadbirlar sirasida «Alifbo bayrami», turli mavzulardagi «ertalik»lar alohida o‘rin tutadi. Bunday tadbirlar kichik yoshdagi o‘quvchilarda ma’lum topshiriqlarni mustaqil bajarishlarida dastlabki ko‘nikmalarni hosil bo‘lishi va rivojlanishiga olib keladi. Sinf o‘qituvchisi, musiqa o‘qituvchisining o‘zaro hamkorligi bunday tadbirlarni qiziqarli, ta’sirchan va ko‘tarinki ruhda o‘tishini ta’minlaydi.

Maktabda o‘tadigan madaniy-ma’rifiy tadbirlarni rejalashtirish, dasturlarini tayyorlash va yuqori saviyada o‘tishida musiqa o‘qituvchisi asosiy rol o‘ynaydi. Shuning uchun ham tadbirlarga tayyorgarlik ko‘rish, namoyish etishda musiqa o‘qituvchisi hech qachon o‘zining asosiy vazifasi va maqsadini unutmasligi,

mashg‘ulot (repitisiya)lar jarayonida o‘quvchilarning badiiy- estetik madaniyati, didi, nazariy savodxonligi, amaliy musiqiy ijrochilik ko‘nikma va malakalarini shakllantirib borish nuqtai-nazardan yondashmog‘i lozim.

Maktabda musiqiy bayram tadbirlarini muvoffaqiyatli o‘tishini ta’minlovchi yana bir muhim jihat xususida to‘xtalib o‘tish o‘rinli bo‘ladi. Bu bayramlarni mazmuni, mohiyatiga mos repertuar tanlashdir. Repertuar tanlashda bolalarni yosh xususiyatlari, qiziqishlari, kuy-qo‘shiqlar mavzularini rang-barangligi o‘qituvchidan bu ishga nihoyatda ehtiyotkorlik bilan, pedagogik va metodik jihatdan to‘g‘ri yondashishni taqozo etadi. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining hayotiy tushuncha va tasavvurlariga mos qo‘shiqlar, masalan, o‘yinchoqlar (Varragim, Koptogim, Mashinam, Samolyot, Qo‘g‘irchog‘im), cholg‘u asbolari (Dutorim, Yangra doira, Do‘mbiram), o‘simlik dunyosiga xos (Boychechak, Lola, Qizg‘aldog‘im, Binafsha), hayvonotlar obrazi tasvirlangan (Quyonim, Ayiqcham, Kakku, Saman ot, Chu otim, Toychog‘im), bolalar folkloriga mansub (Zuv-zuv borag‘ay, Tomdan tarasha tushdi, Chittigul, Yallama-yorim, Qilpillama, Oftob chiqdi olamga) namunalarni repertuarga kiritilishi bolalarda san’atga, adabiyotga, xalq musiqa merosiga qiziqishni, har xil musiqa asarlarini, turli janr, xarakter, mavzu va uslublardagi kuy-qo‘shiqlar mazmuni, obrazlarini to‘la va chuqur tushunishlariga va shu orqali ularda badiiy estetik sifatlarni rivojlanishiga ijobiy ta’sir etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob halqimiz bilan birga quramiz. – T., O‘zbekiston, 2017. – 488 b.
2. Umumta’lim maktablarida musiqa ta’limi va tarbiyasi Konsepsiyasi. –T.: -XTB, 1995 y.
3. Umumiy o‘rta ta’limning Davlat Ta’lim Standarti va o‘quv dasturi. T.: Ta’lim taraqqiyoti, 6-7 maxsus sonlari, 1999 y.
4. Abdukarimova E.I. Qudratov I. Musiqa ta’limida fanlararo aloqadorlik. Uslubiy qo‘llanma. – Samarqand.: SamDU, -2015. – B 95 b.

SUN’IY INTELLEKT TEXNOLOGIYALARI VOSITASIDA O‘QUVCHILARNING MA’NAVIY-AXLOQIY TARBIYASINI TAKOMILLASHTIRISH

Umaraliyeva Muxayo Abdugaparovna
Qori Niyoziy nomidagi Tarbiya pedagogikasi milliy instituti bo‘lim boshlig‘I, p.f.b.f.d.
https://doi.org/10.5281/zenodo.23179189

Annotatsiya. *Maqolada raqamli transformatsiya sharoitida umumta’lim maktablari o‘quvchilarining ma’naviy-axloqiy tarbiyasini sun’iy intellekt (SI) texnologiyalari vositasida takomillashtirishning nazariy-metodik asoslari tahlil qilingan. Ma’naviy-axloqiy tarbiya tushunchasining mohiyati, SI texnologiyalarining ta’lim jarayonidagi tarbiyaviy salohiyati va u bilan bog‘liq etik xavflar yoritilgan. Tarbiyaviy jarayonni takomillashtirishning to‘rt komponentli (maqsadli, mazmuniy, texnologik va natijaviy) modeli hamda uni amalga oshirishning pedagogik shart-sharoitlari asoslab berilgan.*

Kalit so‘zlar: *sun’iy intellekt, ma’naviy-axloqiy tarbiya, o‘quvchi, raqamli muhit, axloqiy kompetensiya, shaxsiylashtirilgan ta’lim, raqamli etika, pedagogik model, qadriyatli yondashuv, akademik halollik.*

Bugungi kunda jahon ta’lim tizimi tub o‘zgarishlar davrini boshdan kechirmoqda. Sun’iy intellekt texnologiyalari, xususan, generativ til modellari, adaptiv o‘quv platformalari va intellektual o‘qitish tizimlari ta’lim jarayonining ajralmas qismiga aylanib bormoqda. Bu jarayon yangi imkoniyatlar bilan bir qatorda jiddiy pedagogik savollarni ham keltirib chiqarmoqda: raqamli muhitda o‘sib borayotgan avlodning qadriyatlar tizimi, axloqiy mezonlari va mas’uliyat hissi qanday shakllanadi, texnologiya bu jarayonga qanday ta’sir ko‘rsatadi?

O‘zbekistonda ta’lim-tarbiya sohasini rivojlantirish davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishi sifatida belgilangan. “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonunda ta’lim va tarbiya birligi, shaxsning ma’naviy-axloqiy rivojlanishi ta’lim tizimining asosiy tamoyillaridan biri sifatida e’tirof etilgan. Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasida yoshlarni milliy va umuminsoniy qadriyatlar ruhida tarbiyalash, ularning raqamli ko‘nikmalarini rivojlantirish vazifalari qo‘yilgan. Shu bilan birga, sun’iy intellekt texnologiyalarini jadal joriy etish bo‘yicha qabul qilingan me’yoriy hujjatlar bu texnologiyalarni ta’lim sohasida ham qo‘llash uchun huquqiy asos yaratdi.

Xalqaro tashkilotlar ham bu masalaga alohida e’tibor qaratmoqda. YUNESKO tomonidan qabul qilingan “Sun’iy intellekt va ta’lim bo‘yicha Pekin konsensusi” hujjatida SI ta’limda inson markazlashgan yondashuv asosida, inklyuziv va adolatli tarzda qo‘llanilishi zarurligi ta’kidlangan. “Sun’iy intellekt etikasi bo‘yicha tavsiyanoma” esa SI tizimlarini ishlab chiqish va qo‘llashda inson huquqlari, shaffoflik, mas’uliyat va adolat tamoyillariga amal qilishni talab qiladi.

Ma’naviy-axloqiy tarbiya shaxsda qadriyatlar tizimini, vijdon, mas’uliyat, halollik, hurmat, mehr-oqibat kabi sifatlarni shakllantirishga qaratilgan maqsadli va uzluksiz pedagogik jarayondir. Uning mohiyati faqat axloqiy qoidalarni yodlatishda emas, balki o‘quvchida ularni ichki ishonch darajasiga ko‘tarish, ya’ni qadriyatlarni o‘zlashtirish va ularga muvofiq harakat qilish odatini shakllantirishda namoyon bo‘ladi.

Raqamli muhit bu an’anaviy tuzilmaga yangi omillarni qo‘shdi. O‘quvchining ijtimoiy tarmoqlar, o‘yin platformalari va chat-botlar bilan kunlik muloqoti uning qadriyat orientirlariga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Natijada tarbiyaviy ta’sirning manbalari ko‘payib, ularni nazorat qilish murakkablashdi. Shuning uchun zamonaviy ma’naviy-axloqiy tarbiya raqamli axloqiy kompetensiyani, ya’ni onlayn muhitda mas’uliyatli xulq-atvor, axborotni tanqidiy baholash, boshqalar shaxsiy makonini hurmat qilish va texnologiyadan qadriyatlarga mos foydalanish malakasini ham o‘z ichiga olishi lozim.

SI texnologiyalari ta’limda dastlab o‘qitish samaradorligini oshirish vositasi sifatida qaralgan. R. Lakin va hamkasblari SI ning individual o‘quv trayektoriyasini qurish, o‘quvchi faoliyatini uzluksiz tahlil qilish va shaxsiylashtirilgan qayta aloqa berish imkoniyatlarini asoslagan. U. Xolms va hammualliflar SI ta’limda nafaqat bilim berish, balki ijtimoiy-emotsional va shaxsiy rivojlanishni qo‘llab-quvvatlash imkoniyatiga ega ekanini ta’kidlaydi. Bu qarashlar tarbiyaviy jarayon uchun ham muhimdir, chunki tarbiya asosan shaxsiylashtirilgan yondashuv va muntazam qayta aloqani talab qiladi.

Tahlillarimiz SI ning tarbiyaviy salohiyati quyidagi yo‘nalishlarda namoyon bo‘lishini ko‘rsatdi:

1-jadval.

SI vositalarining tarbiyaviy imkoniyatlari

Yo‘nalish	SI vositasi	Kutiladigan tarbiyaviy natija
Shaxsiylashtirish	Adaptiv platformalar, tavsiya tizimlari	O‘quvchining qiziqishi va rivojlanish darajasiga mos tarbiyaviy topshiriqlar
Axloqiy dilemmalar bilan ishlash	Til modellari asosidagi muloqot, simulyatsiyalar	Axloqiy mulohaza yuritish, turli nuqtai nazarlarni tushunish
Milliy qadriyatlar bilan tanishtirish	Interaktiv kontent, virtual ekskursiyalar, tarixiy shaxslar bilan “muloqot” senariylari	Tarixiy xotira, milliy o‘zlikni anglash
Refleksiya	Shaxsiy kundalik, o‘z-o‘zini baholash yordamchilari	O‘z xatti-harakatini tahlil qilish, vijdon va mas’uliyat hissi
Pedagogik diagnostika	Ma’lumotlar tahlili, xulq-atvor dinamikasini kuzatish	Tarbiyaviy jarayonni o‘z vaqtida tuzatish imkoniyati
Hamkorlik	Jamoaviy loyihalar platformalari	Jamoada ishlash, o‘zaro hurmat va mas’uliyat

Jadvaldan ko‘rinadiki, SI ning tarbiyaviy imkoniyatlari faqat kontent yetkazish bilan cheklanmaydi. Ular muloqot, refleksiya va monitoring kabi funksiyalarni ham qamrab oladi. Masalan, o‘qituvchi tomonidan yaratilgan axloqiy dilemma (“Do‘stingiz imtihonda nusxa ko‘chirayotganini ko‘rsangiz, nima qilasiz?”) o‘quvchi bilan SI muloqoti orqali turli variantlar bo‘yicha muhokama qilinishi mumkin. Bunda o‘quvchi har bir qarorning oqibatlarini tahlil qiladi, boshqacha fikrlaydigan “suhbatdosh” dalillari bilan tanishadi va o‘z pozitsiyasini asoslashga o‘rganadi.

Tahlil natijalariga tayanib, ma’naviy-axloqiy tarbiyani SI vositasida takomillashtirishning to‘rt komponentli modeli taklif etiladi.

1) Maqsadli komponent. Bu komponent tarbiyaviy jarayonning yakuniy natijasini belgilaydi: o‘quvchida milliy va umuminsoniy qadriyatlarga asoslangan ma’naviy-axloqiy sifatlarni (vatanparvarlik, halollik, mas’uliyat, mehr-oqibat, kattalarga hurmat, mehnatsevarlik) hamda raqamli axloqiy kompetensiyani shakllantirish. Maqsad SI texnologiyasidan kelib chiqib emas, aksincha, tarbiyaviy vazifalardan kelib chiqib belgilanadi. Ya’ni texnologiya tarbiyaga xizmat qiladi, tarbiya texnologiyaga moslashmaydi.

2) Mazmuniy komponent. Uning tarkibiga milliy qadriyatlar, ma’naviy merosimiz (Al-Xorazmiy, Beruniy, Ibn Sino, Navoiy, Amir Temur va boshqa allomalar hayoti va qarashlari), oila va mahalla an’analari, shuningdek raqamli etika mavzulari kiradi. SI vositalari bu mazmunni interaktiv shaklda yetkazish, o‘quvchi yoshiga va qiziqishiga moslashtirish imkonini beradi. Muhim shart: SI tomonidan taqdim etilgan har qanday tarbiyaviy kontent o‘qituvchi tomonidan tekshirilgan va milliy qadriyatlarga mosligi ta’minlangan bo‘lishi kerak.

3) Texnologik-metodik komponent. Bu komponent tarbiyaviy jarayonning amaliy tashkil etilishini qamrab oladi. U quyidagi bosqichlardan iborat:

–*diagnostik bosqich*: o‘quvchilarning qadriyat yo‘nalishlari, xulq-atvori va raqamli faolligi o‘qituvchi tomonidan anketa, kuzatuv va suhbat asosida aniqlanadi; SI bu ma’lumotlarni tahlil qilishda yordamchi vosita bo‘ladi;

–*loyihalash bosqichi*: o‘qituvchi SI yordamida sinf va individual tarbiyaviy rejalarni, axloqiy dilemma va keys-topshiriqlarni tayyorlaydi;

–*amalga oshirish bosqichi*: o‘quvchilar SI muhitida muhokama, rolli o‘yin, loyiha va refleksiya faoliyatida ishtirok etadi; bunga hamkorlikdagi (o‘qituvchi–o‘quvchi–ota-ona) tarbiyaviy tadbirlar qo‘shiladi;

–*refleksiv bosqich*: o‘quvchi o‘z xatti-harakatini tahlil qiladi, o‘qituvchi bilan birgalikda xulosalar chiqaradi.

4) Natijaviy komponent. Uning mezonlari sifatida quyidagilar tavsiya etiladi: (a) *bilish mezoni*: axloqiy tushunchalar va me’yorlarni tushunish darajasi; (b) *hissiy-qadriyatli mezon*: qadriyatlarga munosabat, empatiya, vijdon hissi; (c) *xulq-atvor mezoni*: real va raqamli muhitda mas’uliyatli, halol harakat qilish. Natijalar sifat ko‘rsatkichlari (kuzatuv, suhbat, portfolio) bilan baholanadi, chunki axloqiy sifatlarni faqat raqamlar orqali o‘lchash noto‘g‘ri xulosalarga olib kelishi mumkin.

Modelning barcha komponentlari o‘zaro bog‘liq bo‘lib, ular tizimli birlikni tashkil etadi: maqsad mazmunni belgilaydi, mazmun metod va vositalarni tanlashni, metod va vositalar esa natijani ta’minlaydi. Natijalar tahlili esa maqsad va mazmunni tuzatish uchun asos bo‘ladi.

Taklif etilgan modelning samarali ishlashi uchun quyidagi shartlarga rioya qilish zarur. Bular:

–O‘qituvchining rahbarlik rolini saqlash. SI tarbiyaviy jarayonda faqat yordamchi vosita bo‘lishi, yakuniy pedagogik qaror esa doimo o‘qituvchi tomonidan qabul qilinishi lozim. O‘qituvchi shaxsiy namuna orqali tarbiyalashda o‘rnini hech qanday texnologiya bosa olmaydi, buni Bandura nazariyasi ham tasdiqlaydi.

–O‘qituvchilarning raqamli va etik kompetensiyasini oshirish. Pedagoglar SI vositalarining imkoniyatlari va cheklovlarini, ularning xatolari va tarafkashligini tushunishi, o‘quvchilarga bu haqda tushuntira olishi kerak. Buning uchun malaka oshirish tizimida SI etikasi bo‘yicha maxsus modullar joriy etilishi maqsadga muvofiq.

–Oila va mahalla bilan hamkorlik. SI ning tarbiyaviy ta’siri ota-onalar va mahalla ishtirokisiz cheklangan bo‘ladi. Ota-onalar uchun o‘quvchining SI dan foydalanish madaniyati bo‘yicha tavsiyalar, seminarlar va maslahatlar tashkil etilishi kerak.

–O‘quvchilarda tanqidiy fikrlash va akademik halollikni shakllantirish. O‘quvchi SI javoblarini so‘zsiz qabul qilmasligi, ularning to‘g‘riligini tekshirishi, manbalarga tayanishi va SI yordamida bajargan ishini o‘z ishi sifatida ko‘rsatmasligi lozim. Bu holat o‘zi ham tarbiyaviy vazifa: halollik va mas’uliyat aynan shu amaliy vaziyatlarda shakllanadi.

–Mazmunning milliy-madaniy moslashuvi. Global SI modellari asosan xalqaro ma’lumotlar asosida o‘qitilganligi sababli ularning javoblari milliy qadriyat va an’analarimizga har doim mos kelavermaydi. Shu bois o‘qituvchi SI taqdim etgan mazmunni milliy mentalitet nuqtayi nazaridan tahlil qilishi va zarur hollarda moslashtirishi kerak.

Sun’iy intellekt texnologiyalaridan ta’lim-tarbiya jarayonida maqsadli va pedagogik jihatdan asoslangan foydalanish o‘quvchilarning ma’naviy-axloqiy rivojlanishi uchun yangi imkoniyatlarni yaratadi. Ayniqsa, axloqiy vaziyatlarni modellashtirish, dialogli topshiriqlar, refleksiv mashqlar, raqamli keyslar va loyiha faoliyatidan foydalanish o‘quvchilarning mustaqil fikrlashi, mas’uliyati, empatiyasi, hamkorligi va axloqiy qaror qabul qilish ko‘nikmalarini rivojlantirishga xizmat qilishi mumkin. SI texnologiyalari ma’naviy-axloqiy tarbiyaning o‘rnini bosuvchi emas, balki uni boyituvchi, shaxsiylashtiruvchi va samaradorligini oshiruvchi vosita sifatida qaralishi kerak. Tarbiyaning asosiy sub’ekti esa doimo inson, ya’ni o‘qituvchi, ota-ona va o‘quvchining o‘zi bo‘lib qoladi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Sun’iy intellekt texnologiyalarini jadal joriy etish uchun shart-sharoitlar yaratish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4996-son Qarori, 2021-yil 17-fevral.
2. Yo‘ldoshev J.G., Usmonov S.A. Pedagogik texnologiya asoslari. – Toshkent: O‘qituvchi, 2004.
3. Mavlonova R., Normurodova B., Rahmonqulova N. Tarbiyaviy ishlar metodikasi. — Toshkent: Tib-kitob, 2010.
4. Floridi L., Cowls J. A Unified Framework of Five Principles for AI in Society // Harvard Data Science Review. – 2019. – Vol. 1, Issue 1.

MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARGA INGLIZ TILINI O‘RGATISHDA KOMMUNIKATIV YONDASHUVDAN FOYDALANISH

Umrzoqova Sarvinoz Abduqaxhor qizi
Mustaqil tadqiqotchi
https://doi.org/10.5281/zenodo.23179208

Annotatsiya. *Mazkur tezisda maktabgacha yoshdagi bolalarga ingliz tilini o‘rgatish jarayonida kommunikativ yondashuvdan foydalanishning pedagogik va metodik imkoniyatlari yoritilgan. Tadqiqotda mahalliy olimlarning chet tillarini o‘qitish metodikasi, maktabgacha yoshdagi bolalarga xorijiy tilni o‘rgatish va kommunikativ kompetensiyani rivojlantirishga oid ilmiy qarashlari tahlil qilinadi. Shuningdek, ingliz tilida og‘zaki nutqni rivojlantirishda dialog, rolli o‘yin, savol-javob, qo‘shiq, harakatli mashqlar va juftlikda ishlash kabi metodlardan foydalanish imkoniyatlari ko‘rib chiqiladi.*

Kalit so‘zlar: *maktabgacha ta’lim, ingliz tili, kommunikativ yondashuv, og‘zaki nutq, kommunikativ kompetensiya, muloqot, interfaol metodlar, didaktik o‘yin, maktabgacha yosh.*

Аннотация. В данном тезисе освещаются педагогические и методические возможности использования коммуникативного подхода в процессе обучения английскому языку детей дошкольного возраста. В исследовании анализируются научные взгляды отечественных ученых на методику преподавания иностранных языков, обучение иностранному языку детей дошкольного возраста и развитие коммуникативной компетенции. Также рассматриваются возможности использования таких методов, как диалог, ролевая игра, вопросы и ответы, песни, подвижные упражнения и работа в парах в развитии устной английской речи.

Ключевые слова: дошкольное образование, английский язык, коммуникативный подход, устная речь, коммуникативная компетенция, общение, интерактивные методы, дидактическая игра, дошкольный возраст.

Abstract. This thesis highlights the pedagogical and methodical possibilities of using the communicative approach in the process of teaching English to preschool children. The study analyzes the scientific views of local scholars on the methodology of teaching foreign languages, teaching foreign languages to preschool children, and developing communicative competence. It also examines the possibilities of using methods such as dialogue, role-play, question-and-answer, songs, action exercises, and pair work in developing oral English speech.

Keywords: preschool education, English language, communicative approach, oral speech, communicative competence, communication, interactive methods, didactic game, preschool age.

Bugungi kunda xorijiy tillarni erta yoshdan o‘rgatish ta’lim tizimining muhim yo‘nalishlaridan biriga aylanmoqda. Ayniqsa, maktabgacha yosh davrida ingliz tilini o‘rgatishda bolaning tabiiy qiziqishi, taqlid qilish qobiliyati va muloqotga bo‘lgan ehtiyojidan samarali foydalanish mumkin. Shu sababli maktabgacha ta’lim tashkilotlarida ingliz tilini o‘rgatish jarayonini zamonaviy pedagogik va kommunikativ yondashuvlar asosida tashkil etish dolzarb masalalardan biridir. Maktabgacha yoshdagi bolalarga ingliz tilini o‘rgatishda asosiy maqsad faqatgina ma’lum miqdordagi lug‘at boyligini shakllantirish emas, balki bolaning o‘rgangan so‘z va iboralarini sodda kommunikativ vaziyatlarda qo‘llay olishiga erishishdan iborat. Shu jihatdan kommunikativ yondashuv alohida ahamiyat kasb etadi.

O‘zbekistonda chet tillarini o‘qitish metodikasining nazariy va amaliy asoslarini rivojlantirishga bir qator olimlar hissa qo‘shgan. Jumladan, J. Jalolovning chet tilini o‘qitish metodikasiga oid tadqiqotlari xorijiy til ta’limining maqsadlari, mazmuni, metodlari va tamoyillarini o‘rganishda muhim metodik asos bo‘lib xizmat qiladi. Uning “Chet til o‘qitish metodikasi” asari mahalliy metodik adabiyotlarda keng qo‘llanadigan manbalardan biridir.

Kommunikativ yondashuvning asosiy mohiyati tilni bevosita muloqot jarayonida o‘rgatishdan iborat. Bunda bola tilning grammatik qoidalarini faqat nazariy jihatdan o‘zlashtirib qolmasdan, o‘rgangan til birliklarini amaliy vaziyatlarda qo‘llash imkoniyatiga ega bo‘ladi. Maktabgacha yoshdagi bolalar uchun kommunikativ yondashuvni qo‘llashda ularning psixologik va yosh xususiyatlarini hisobga olish muhim. L. Mirzayevaning maktabgacha ta’limda chet tilini o‘qitish metodikasiga bag‘ishlangan qo‘llanmasida ham maktabgacha yoshdagi bolalarning o‘ziga xos yosh va psixologik xususiyatlari alohida yondashuvni talab qilishi qayd etiladi. Shundan kelib chiqib, ingliz tilini o‘rgatishda bolalarga uzoq vaqt davomida nazariy ma’lumot berishdan ko‘ra, ularni faol kommunikativ jarayonga jalb qilish maqsadga muvofiqdir. Bunda o‘yin, harakat, qo‘shiq, rasm, predmetlar va kundalik hayotga oid vaziyatlardan foydalanish mumkin. O‘zbek tadqiqotchilari tomonidan olib borilgan keyingi izlanishlarda ham maktabgacha ta’lim tizimida ingliz tilini o‘rgatishda kommunikativ metodlar, o‘yin texnologiyalari va vizual vositalardan foydalanish masalalariga e’tibor qaratilgan. Masalan, maktabgacha ta’lim tizimida ingliz tilini o‘qitish metodikasiga bag‘ishlangan zamonaviy tadqiqotlarda kommunikativ metod va o‘yin texnologiyalarining ahamiyati ko‘rsatiladi.

Kommunikativ yondashuvning maktabgacha ta’limdagi imkoniyatlari. Maktabgacha yoshdagi bolalarda ingliz tilida og‘zaki nutqni rivojlantirish uchun kommunikativ yondashuv quyidagi faoliyatlar orqali amalga oshirilishi mumkin:

Birinchidan, savol-javob mashqlari. Pedagog “What is your name?”, “How old are you?”, “What colour is it?”, “What is this?” kabi sodda savollar orqali bolalarni ingliz tilida javob berishga undaydi. Dastlab javoblar bitta yoki ikkita so‘zdan iborat bo‘lishi mumkin. Keyinchalik bolaning nutqiy imkoniyatlari kengayib, sodda gaplardan foydalanish imkoniyati paydo bo‘ladi.

Ikkinchidan, rolli o‘yinlar. “At the shop”, “At the doctor”, “At the café”, “My family” kabi mavzulardagi rolli o‘yinlar bolalarga kundalik hayotda uchraydigan kommunikativ vaziyatlarni modellashtirish imkonini beradi. Bola o‘ziga berilgan rol orqali ingliz tilida sodda savol va javoblarni qo‘llaydi.

Uchinchidan, juftlik va kichik guruhlarda ishlash. Bunday faoliyatda bolalar bir-biri bilan muloqot qilish imkoniyatiga ega bo‘ladilar. Masalan, bir bola “What is your favourite colour?” deb savol beradi, ikkinchi bola “My favourite colour is blue” deb javob beradi. Keyin ular rollarini almashtiradilar.

To‘rtinchidan, qo‘shiq va harakatli mashqlar. Maktabgacha yoshdagi bolalar uchun ritmik va harakatli faoliyatlar juda qulay hisoblanadi. Ranglar, sonlar, tana a’zolari, oila a’zolari va kundalik harakatlarga oid inglizcha qo‘shiq va she’rlar so‘zlarni takrorlash hamda talaffuz qilish uchun tabiiy sharoit yaratadi.

Mahalliy olimlarning tadqiqotlari bilan bog‘liqlik. O‘zbek olimlarining tadqiqotlarida ham maktabgacha yoshdagi bolalarga xorijiy tilni o‘rgatishda yosh xususiyatlarini hisobga olish masalasiga e’tibor qaratiladi. Xususan, N. Qosimova va D. Anvarjonovaning maktabgacha ta’lim yoshidagi bolalarga xorijiy tillarni o‘rgatishga bag‘ishlangan ishida maktabgacha yoshdagi bolalarga xorijiy tilni o‘rgatishning ahamiyati va tegishli metodlardan foydalanish masalalari ko‘rib chiqilgan. G. Majidovaning maktabgacha yoshdagi bolalarga ingliz tilini o‘rgatishning zamonaviy usullariga bag‘ishlangan tadqiqotida ham maktabgacha ta’lim jarayonida zamonaviy o‘qitish usullaridan foydalanish masalasi yoritilgan. Shuningdek, M. Ismoilovaning 2026-yilda chop etilgan tadqiqotida maktabgacha ta’lim tarbiyalanuvchilariga ingliz tilini o‘rgatishning pedagogik va psixolingvistik xususiyatlari, jumladan, kommunikativ kompetensiya va interfaol metodlarning ahamiyati tahlil qilingan. Mazkur ilmiy qarashlardan kelib chiqib, maktabgacha yoshdagi bolalarga ingliz tilini o‘rgatish jarayonida kommunikativ faoliyatni markazga qo‘yish maqsadga muvofiqdir. Bola tilni faqat tinglab va takrorlabgina qolmasdan, uni o‘zining real kommunikativ ehtiyojlarini ifodalash uchun qo‘llashi kerak. Ingliz tilida og‘zaki nutqni rivojlantirishga yo‘naltirilgan mashqlar Kommunikativ yondashuv asosida quyidagi mashqlarni tashkil etish mumkin:

“Ask and answer” – bolalar navbat bilan bir-birlariga savollar beradilar.

“Guess what it is” – pedagog predmetni ta’riflaydi, bolalar uning nomini topadilar.

“Role play” – bolalar kundalik hayotdagi turli rollarni ijro etadilar.

“Show and tell” – bola o‘ziga tanish predmet yoki rasm haqida sodda gaplar bilan ma’lumot beradi.

“Find someone who...” – bolalar bir-biridan sodda savollar orqali ma’lumot oladilar.

“Picture conversation” – rasm asosida savol-javob va kichik dialog tashkil etiladi.

Bunday mashqlar bolaning lug‘at boyligini kengaytirish bilan birga, uning tinglab tushunish, savol berish, javob qaytarish, fikrini sodda shaklda ifodalash va suhbatni davom ettirish ko‘nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Kommunikativ yondashuvning muhim jihatlaridan biri bolaning xato qilishdan qo‘rqmasligi uchun qulay psixologik muhit yaratishdir. Pedagog bolaning har bir kommunikativ urinishini rag‘batlantirishi, xatolarni esa bolaning muloqotga bo‘lgan qiziqishini pasaytirmaydigan tarzda tuzatishi lozim.

Yuqoridagi tahlillar shuni ko‘rsatadiki, maktabgacha yoshdagi bolalarga ingliz tilini o‘rgatishda kommunikativ yondashuvdan foydalanish ularning og‘zaki nutqini rivojlantirish uchun muhim metodik imkoniyatlarni yaratadi. O‘zbek olimlarining chet tilini o‘qitish metodikasi va maktabgacha yoshdagi bolalarga xorijiy tilni o‘rgatishga oid ilmiy qarashlari ushbu yo‘nalishning nazariy va amaliy asoslarini boyitishga xizmat qiladi. J. Jalolovning chet til o‘qitish metodikasiga oid qarashlari, L. Mirzayevaning maktabgacha ta’limda chet tilini o‘qitish metodikasiga bag‘ishlangan ishlari, G. Majidova, N. Qosimova va boshqa mahalliy tadqiqotchilarning izlanishlari mazkur mavzuni o‘rganishda muhim manba bo‘la oladi. Shu asosda maktabgacha ta’lim tashkilotlarida ingliz tilini o‘rgatish jarayonida kommunikativ yondashuv, o‘yin texnologiyalari, dialogik mashqlar, rolli o‘yinlar, savol-javoblar va guruhli faoliyatlardan tizimli foydalanish bolaning ingliz tilida og‘zaki muloqot qilish imkoniyatlarini kengaytiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Jalolov J. Chet til o‘qitish metodikasi. – Toshkent: O‘qituvchi, 2012.
2. Hoshimov U., Yoqubov I. Ingliz tili o‘qitish metodikasi. – Toshkent: Sharq, 2003.
3. Mirzayeva L. Maktabgacha ta’limda chet tilini o‘qitish metodikasi. – Toshkent, 2023.
4. Majidova G. Maktabgacha yoshdagi bolalarga ingliz tilini o‘rgatishning zamonaviy usullari. – Maktabgacha ta’lim jurnali, 2022.
5. Qosimova N., Anvarjonova D. Maktabgacha ta’lim yoshidagi bolalarga xorijiy tillarni o‘rgatish. – Universal xalqaro ilmiy jurnal, 2024.
6. Ismoilova M. Maktabgacha ta’lim tarbiyalanuvchilariga ingliz tilini o‘rgatishning pedagogik va psixolingvistik xususiyatlari. – Maktabgacha va maktab ta’limi jurnali, 2026.
7. Shamatova O. Maktabgacha va boshlang‘ich ta’limda chet (ingliz) tili o‘qitish metodikasi. – 2026.

O‘QUVCHILARDA MILLIY O‘ZLIKNI ANGLASH VA VATANPARVARLIK TUYG‘USINI SHAKLLANTIRISHNING NAZARIY-METODOLOGIK ASOSLARI

Dilfuza URINBAYEVA
Qori Niyoziy nomidagi Tarbiya pedagogikasi milliy instituti mustaqil tadqiqotchisi
https://doi.org/10.5281/zenodo.23179214

Annotatsiya. *Maqolada umumiy o‘rta ta’lim maktablarining yuqori sinf o‘quvchilarida milliy o‘zlikni anglash va vatanparvarlik tuyg‘usini shakllantirishning nazariy-metodologik asoslari tahlil qilingan. Milliy o‘zlik va vatanparvarlik tushunchalarining mazmuni hamda ularning o‘zaro bog‘liqligi ochib berilgan. Tizimli, shaxsga yo‘naltirilgan, faoliyatli, aksiologik va ekologik yondashuvlarning tarbiya jarayonidagi o‘rni asoslangan. Milliy o‘zlikni anglashning kognitiv, emotsional-qadriyatli va faoliyatli-xulqiy komponentlari, ularni baholash ko‘rsatkichlari hamda sinfdan tashqari faoliyatda amal qilinishi lozim bo‘lgan pedagogik shartlar taklif etilgan.*
Kalit so‘zlar: *milliy o‘zlik, milliy o‘zlikni anglash, vatanparvarlik, milliy tarbiya, qadriyat, metodologik yondashuv, sinfdan tashqari faoliyat, yuqori sinf o‘quvchisi.*
Аннотация. *В статье анализируются теоретико-методологические основы формирования национального самосознания и чувства патриотизма у учащихся старших классов общеобразовательных школ. Раскрыто содержание понятий «национальная идентичность» и «патриотизм», показана их взаимосвязь. Обоснована роль системного, личностно-ориентированного, деятельностного, аксиологического и экологического подходов в воспитательном процессе. Предложены когнитивный, эмоционально-ценностный и деятельностно-поведенческий компоненты национального самосознания, показатели их оценки, а также педагогические условия организации внеклассной деятельности.*
Ключевые слова: *национальная идентичность, национальное самосознание, патриотизм, национальное воспитание, ценность, методологический подход, внеклассная деятельность, старшеклассник.*
Abstract. *The article analyzes the theoretical and methodological foundations for developing national self-awareness and a sense of patriotism among upper-grade students of general secondary schools. The content of the concepts of national identity and patriotism and the relationship between them are revealed. The role of systemic, personality-oriented, activity-based, axiological and ecological approaches in the upbringing process is substantiated. Cognitive, emotional-value and activity-behavioral components of national self-awareness, indicators for assessing them, and pedagogical conditions for organizing extracurricular activities are proposed.*
Keywords: *national identity, national self-awareness, patriotism, national upbringing, values, methodological approach, extracurricular activity, upper-grade student.*

KIRISH

Bugungi globallashuv davrida axborot oqimi keskin ko‘paydi, xalqlar va madaniyatlar o‘rtasidagi chegaralar tobora yupqalashib bormoqda. Bu jarayon yoshlar oldida keng imkoniyatlar ochish bilan birga, ularning qadriyatlar tizimiga ham sezilarli ta’sir ko‘rsatmoqda. Ijtimoiy tarmoqlar orqali kirib kelayotgan ommaviy madaniyat namunalari o‘smirning “Men kimman?”, “Qaysi xalqqa mansubman?”, “Vatan men uchun nima?” degan savollarga javob izlash jarayonini

murakkablashtirmoqda. Shu bois o‘quvchilarda milliy o‘zlikni anglash va vatanparvarlik tuyg‘usini shakllantirish ta’lim tizimining ustuvor vazifalaridan biriga aylandi.

O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonunida ta’lim sohasidagi asosiy prinsiplardan biri sifatida ta’lim va tarbiyaga milliy hamda umuminsoniy qadriyatlarning singdirilganligi belgilab qo‘yilgan [1]. 2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasida ma’naviy taraqqiyotni ta’minlash va yoshlar siyosatini takomillashtirish muhim yo‘nalishlar sifatida ko‘rsatilgan [2]. Uzluksiz ma’naviy tarbiya konsepsiyasida esa tarbiya oiladan boshlanib, barcha ta’lim bosqichlarida uzviy davom ettirilishi lozimligi asoslangan [3].

Mazkur masala ayniqsa 10–11-sinf o‘quvchilari uchun dolzarbdir. Bu yoshda shaxsning dunyoqarashi, hayotiy maqsadlari va kasb tanlovi shakllanadi. Milliy o‘zlik haqidagi tasavvurlar aynan shu davrda mustahkam e’tiqodga aylanishi yoki yuzaki bilimlar darajasida qolib ketishi mumkin. Amaliyotda esa tarbiyaviy ishlar ko‘pincha bir martalik bayram va tadbirlar bilan cheklanib qolayotgani, ularning natijasini baholash mezonlari yetarlicha ishlab chiqilmagani kuzatiladi.

Maqolaning maqsadi – o‘quvchilarda milliy o‘zlikni anglash va vatanparvarlik tuyg‘usini shakllantirishning nazariy-metodologik asoslarini aniqlash, ushbu sifatlarning tarkibiy tuzilishi va baholash ko‘rsatkichlarini asoslashdan iborat.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Milliy tarbiya g‘oyalari xalqimizning ma’naviy merosida qadimdan muhim o‘rin egallab kelgan. Abu Nasr Forobiy “Fozil odamlar shahri” asarida inson baxt-saodatga faqat jamiyat bilan hamkorlikda erisha olishi haqidagi g‘oyani ilgari surgan va shaxs kamolotini jamiyat kamoloti bilan uzviy bog‘lagan [4]. Abdulla Avloniy “Turkiy guliston yoxud axloq” asarida vatanni sevishni yaxshi xulqlar qatoriga kiritgan hamda tarbiyani millat taqdiri bilan bog‘lab: “Tarbiya biz uchun yo hayot – yo mamot, yo najot – yo halokat, yo saodat – yo falokat masalasidur”, – degan edi [5].

Mustaqillik yillarida milliy tarbiya alohida ilmiy yo‘nalish sifatida rivojlandi. I.A.Karimovning “Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch” asarida ma’naviyatni shakllantirishda ona tili, tarixiy xotira va milliy qadriyatlarning o‘rni keng yoritilgan [6]. M.Quronov tadqiqotlarida milliy tarbiyaning mazmuni va tamoyillari o‘zbek xalq pedagogikasi an’analari asosida tizimlashtirilgan [7]. A.Munavvarov esa bola shaxsini shakllantirishda oilaviy muhitning hal qiluvchi rolini asoslab bergan [8].

Xorijiy tadqiqotlarda ushbu masala asosan identiklik muammosi doirasida o‘rganiladi. E.Erikson o‘zlikni anglashni o‘smirlik davrining markaziy psixologik vazifasi deb hisoblagan: aynan shu davrda inson o‘z qadriyatlari va jamiyatdagi o‘rnini belgilab oladi [9]. H.Tajfel va J.Tyornerning ijtimoiy identiklik nazariyasiga ko‘ra, shaxsning o‘zini muayyan guruhga mansub deb bilishi uning o‘zini baholashi

va xulq-atvoriga bevosita ta’sir ko‘rsatadi [10]. A.D.Smit milliy identiklikni umumiy tarixiy xotira, madaniyat, hudud, huquq va majburiyatlar birligi asosida shakllanadigan murakkab hodisa sifatida tavsiflagan [11]. U.Bronfenbrennerning ekologik tizimlar nazariyasi esa bola rivojiga oila, maktab va yaqin ijtimoiy muhitning bir vaqtda va o‘zaro bog‘liq holda ta’sir etishini ko‘rsatadi [12].

Tadqiqot jarayonida nazariy tahlil, qiyosiy-tarixiy tahlil, umumlashtirish, tizimlashtirish va pedagogik modellashtirish metodlaridan foydalanildi. Normativ-huquqiy hujjatlar, falsafiy, psixologik va pedagogik manbalar o‘rganildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Tayanch tushunchalar mazmuni. Milliy o‘zlik – bir xalqni boshqa xalqlardan ajratib turuvchi til, tarix, madaniyat, urf-odat va qadriyatlar majmui. Milliy o‘zlikni anglash esa shaxsning ana shu belgilarni bilishi, ularni o‘ziga tegishli deb his qilishi va kundalik hayotida ularga amal qilishidir. Boshqacha aytganda, milliy o‘zlik – obyektiv voqelik, uni anglash esa har bir shaxsda alohida kechadigan sub’ektiv jarayon.

Vatanparvarlik – shaxsning o‘z Vataniga mehr-muhabbati, uning taqdiri uchun mas’uliyat sezishi va ravnaqiga amaliy hissa qo‘shishga tayyorligi. Tahlillar bu ikki tushunchaning bir-birini to‘ldirishini ko‘rsatadi: milliy o‘zlikni anglash vatanparvarlikning ichki poydevori bo‘lsa, vatanparvarlik milliy o‘zlikni anglashning amaliy ifodasidir. O‘z xalqi tarixini bilmagan, ona tilini qadrlamagan o‘quvchida Vatanga chuqur mehr uyg‘onishi qiyin. Shu bilan birga, milliy o‘zlikni anglash boshqa xalqlarga hurmat bilan uyg‘un bo‘lishi zarur, aks holda u tor millatchilikka aylanib qolishi mumkin. Shu sababli milliy tarbiya umuminsoniy qadriyatlar bilan birgalikda olib borilishi lozim.

Metodologik yondashuvlar. O‘quvchilarda milliy o‘zlikni anglash va vatanparvarlik tuyg‘usini shakllantirish bir-birini to‘ldiruvchi bir nechta yondashuvlarga tayanadi (1-jadval).

1-jadval

Milliy o‘zlikni anglash va vatanparvarlikni shakllantirishning metodologik yondashuvlari

Yondashuv	**Asosiy g‘oyasi**	**Tarbiya jarayonidagi ifodasi**
Tizimli	Tarbiya – o‘zaro bog‘liq qismlardan iborat yaxlit jarayon	Dars, sinfdan tashqari faoliyat, oila va mahalla ta’sirini yagona maqsad atrofida birlashtirish

Yondashuv	Asosiy g‘oyasi	Tarbiya jarayonidagi ifodasi
Shaxsga yo‘naltirilgan	O‘quvchi – tarbiyaning faol sub’ekti	O‘quvchining qiziqishi, tajribasi va fikrini hisobga olish; majburlash emas, ishontirish
Faoliyatli	Sifatlar faoliyat jarayonida shakllanadi	Loyihalar, o‘lkashunoslik ekspeditsiyalari, volontyorlik, tarixiy joylarni o‘rganish
Aksiologik	Qadriyatlar – tarbiya mazmunining o‘zagi	Milliy va umuminsoniy qadriyatlarni anglash, ularga shaxsiy munosabat bildirish
Ekologik (ijtimoiy muhit)	Shaxs rivojiga bir nechta muhit birgalikda ta’sir qiladi	Oila, maktab va mahalla hamkorligini yo‘lga qo‘yish

Ushbu yondashuvlarning hech biri alohida olinganda yetarli natija bermaydi. Masalan, faqat bilim berishga urg‘u berilsa, o‘quvchi tarixiy sanalarni yodlaydi, ammo ularni o‘z hayoti bilan bog‘lamaydi. Yondashuvlar uyg‘un qo‘llangandagina bilim e’tiqodga, e’tiqod esa amaliy xatti-harakatga aylanadi.

Milliy o‘zlikni anglashning tarkibiy tuzilishi. Adabiyotlar tahlili asosida milliy o‘zlikni anglashning uch komponentdan iborat tuzilmasi taklif etildi (2-jadval). Komponentlar o‘zaro bog‘liq bo‘lib, biri ikkinchisiga tayanadi.

2-jadval

Milliy o‘zlikni anglashning komponentlari va baholash ko‘rsatkichlari

Komponent	Mazmuni	Baholash ko‘rsatkichlari
Kognitiv (bilish)	Xalq tarixi, ona tili, madaniyat, milliy ramzlar va buyuk ajdodlar haqidagi bilimlar	Bilimlarning to‘liqligi, tizimliligi, ularni dalillar bilan izohlay olish
Emotsional-qadriyatli	Milliy g‘urur, Vatanga mehr, milliy qadriyatlarga hurmat, boshqa xalqlar madaniyatiga bag‘rikenglik	Munosabatning barqarorligi, qadriyatlarga shaxsiy baho bera olish

Komponent	Mazmuni	Baholash ko‘rsatkichlari
Faoliyatli-xulqiy	Milliy an’analarga amal qilish, jamoat ishlarida qatnashish, milliy merosni asrashga hissa qo‘shish	Faollik, tashabbuskorlik, xulqning izchilligi

Mazkur ko‘rsatkichlar asosida milliy o‘zlikni anglashning uch darajasini ajratish mumkin: past daraja – bilimlar tarqoq, munosabat beqaror, faoliyat tashqi talab bilan bajariladi; o‘rta daraja – bilimlar yetarli, munosabat ijobiy, ammo faollik vaziyatga bog‘liq; yuqori daraja – bilim, munosabat va xatti-harakat uyg‘un, o‘quvchi o‘zi tashabbus ko‘rsatadi.

Sinfdan tashqari faoliyatdagi pedagogik shartlar. Nazariy tahlil natijalari sinfdan tashqari tarbiyaviy jarayonlarda quyidagi shartlarga amal qilish zarurligini ko‘rsatdi:

1) *Uzluksizlik* – tarbiyaviy tadbirlar bir martalik emas, o‘quv yili davomida bir-biri bilan bog‘langan tizim sifatida rejalashtiriladi.

2) *Sub’ektlik* – o‘quvchi tomoshabin emas, tadbirning tashkilotchisi va ishtirokchisi sifatida jalb etiladi (loyiha usuli, o‘quvchilar tashabbusi).

3) *“Kichik Vatan”dan “katta Vatan”ga* – tarbiya o‘quvchi yashayotgan mahalla va shahar tarixidan boshlanadi: faxriylar bilan suhbatlar, o‘lkashunoslik sayohatlari, oila tarixi bo‘yicha loyihalar.

4) *Raqamli muhitdan oqilona foydalanish* – virtual muzey sayohatlari, o‘quvchilar tayyorlagan qisqa videorolik va podkastlar, media savodxonlik mashg‘ulotlari.

5) *Hamkorlik* – oila va mahalla vakillari tarbiyaviy tadbirlarga teng huquqli ishtirokchi sifatida jalb qilinadi.

6) *Refleksiya* – har bir faoliyatdan so‘ng o‘quvchi o‘z taassurotlarini tahlil qiladi, masalan, “Bugun o‘zim uchun nimani kashf etdim?” savoliga javob yozadi.

Bu shartlar tarbiya jarayoni bosqichma-bosqich tashkil etilganda to‘liq amal qiladi: motivatsion-axborot bosqichida o‘quvchida qiziqish uyg‘otiladi va zarur bilimlar beriladi; emotsional-qadriyatli bosqichda bu bilimlar shaxsiy kechinmalar orqali qadriyatga aylanadi; amaliy bosqichda o‘quvchi loyiha va jamoat ishlarida o‘z munosabatini xatti-harakatda namoyon etadi; refleksiv bosqichda esa erishilgan natijalar o‘quvchi bilan birgalikda tahlil qilinadi.

XULOSA

O‘tkazilgan nazariy tahlil quyidagi xulosalarga kelish imkonini berdi. Birinchidan, milliy o‘zlikni anglash va vatanparvarlik bir-birini taqozo etuvchi sifatlardir: birinchisi ichki asos, ikkinchisi esa uning amaliy ifodasi hisoblanadi.

Ikkinchidan, ushbu sifatlarni shakllantirishning metodologik asosini tizimli, shaxsga yo‘naltirilgan, faoliyatli, aksiologik va ekologik yondashuvlarning uyg‘unligi tashkil etadi. Uchinchidan, milliy o‘zlikni anglash kognitiv, emotsional-qadriyatli va faoliyatli-xulqiy komponentlardan iborat bo‘lib, tarbiya samaradorligini baholashda uchala komponentni ham hisobga olish lozim.

Keyingi tadqiqotlarda taklif etilgan ko‘rsatkichlar asosida diagnostika vositalarini ishlab chiqish hamda sinfdan tashqari faoliyat modelining samaradorligini tajriba-sinov ishlari orqali tekshirish ko‘zda tutilgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni. 23.09.2020-yil, O‘RQ-637-son // Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi. – www.lex.uz.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni. 28.01.2022-yil, PF-60-son // www.lex.uz.
3. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Uzluksiz ma’naviy tarbiya konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori. 31.12.2019-yil, 1059-son // www.lex.uz.
4. Abu Nasr Forobiy. Fozil odamlar shahri. – Toshkent: A.Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 1993.
5. Avloniy A. Turkiy guliston yoxud axloq. – Toshkent: O‘qituvchi, 1992.
6. Karimov I.A. Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch. – Toshkent: Ma’naviyat, 2008.
7. Quronov M. Milliy tarbiya. – Toshkent: Ma’naviyat, 2007.
8. Munavvarov A.K. Oila pedagogikasi. – Toshkent: O‘qituvchi, 1994.
9. Erikson E.H. Identity: Youth and Crisis. – New York: W.W. Norton, 1968.
10. Tajfel H., Turner J.C. An integrative theory of intergroup conflict // The Social Psychology of Intergroup Relations / Ed. by W.G. Austin, S. Worchel. – Monterey, CA: Brooks/Cole, 1979. – P. 33–47.
11. Smith A.D. National Identity. – Reno: University of Nevada Press, 1991.
12. Bronfenbrenner U. The Ecology of Human Development: Experiments by Nature and Design. – Cambridge, MA: Harvard University Press, 1979.

O‘QUVCHILARDA ESTETIK DIDNI RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK SHART-SHAROITLARI

Usmonov Abduqodir
Toshkent shahar Olmazor tumanidagi
24-umumta’lim maktabi o‘qituvchisi
https://doi.org/10.5281/zenodo.23179219

Annotatsiya: *Mazkur maqolada umumiy o‘rta ta’lim maktablari o‘quvchilarida estetik didni rivojlantirishning pedagogik shart-sharoitlari tahlil qilinadi. Unda tasviriy san’at fanining o‘quvchilarning estetik idroki, go‘zallikni anglash, badiiy tafakkuri, ijodiy qobiliyati va estetik munosabatini shakllantirishdagi imkoniyatlari yoritilgan. Tasviriy san’at mashg‘ulotlarida badiiy asarlarni tahlil qilish, ranglar uyg‘unligini anglash, kompozitsiya yaratish, tabiat manzaralarini kuzatish hamda mustaqil ijodiy faoliyatni tashkil etish orqali estetik didni rivojlantirishning pedagogik imkoniyatlari ochib berilgan.*

Kalit so‘zlar: *estetik did, estetik tarbiya, tasviriy san’at, o‘quvchi, badiiy idrok, estetik tafakkur, ijodkorlik, ranglar uyg‘unligi, kompozitsiya, pedagogik shart-sharoit.*

Bugungi kunda ta’lim jarayonining asosiy vazifalaridan biri nafaqat o‘quvchilarga bilim berish, balki ularning ma’naviy, axloqiy, estetik va ijodiy jihatdan rivojlanishini ta’minlashdan iborat. Shaxsning har tomonlama kamol topishida estetik tarbiya alohida o‘rin tutadi. Chunki estetik did insonning go‘zallikni anglash, uni baholash, undan zavqlanish hamda o‘z faoliyatida go‘zallik yaratishga intilish qobiliyatini shakllantiradi.

O‘quvchilarda estetik didni rivojlantirishda maktabdagi fanlarning har biri o‘ziga xos imkoniyatlarga ega. Ayniqsa, tasviriy san’at fani o‘quvchining estetik dunyoqarashini shakllantirish uchun bevosita imkoniyat yaratadi. Mazkur fan orqali o‘quvchi nafaqat rasm chizish texnikalarini egallaydi, balki rang, shakl, mutanosiblik, ritm, kompozitsiya va badiiy obraz kabi estetik kategoriyalarni amaliy faoliyat orqali anglaydi.

Shu nuqtayi nazardan tasviriy san’at darslarini o‘quvchilarning estetik didini rivojlantirishga yo‘naltirish zamonaviy ta’limning muhim pedagogik vazifalaridan biri hisoblanadi.

Estetik did shaxsning borliqdagi go‘zallik va xunuklik, uyg‘unlik va nomutanosiblik, nafislik va qo‘pollik kabi estetik hodisalarni idrok etish, farqlash va baholash qobiliyatini ifodalaydi. U insonning atrof-muhitga, san’atga, tabiatga, mehnatga va kundalik hayotdagi estetik hodisalarga munosabatida namoyon bo‘ladi. O‘quvchining estetik didi tayyor shaklda yuzaga kelmaydi. U ta’lim-tarbiya, ijtimoiy muhit, san’at bilan muloqot, kuzatish va mustaqil ijodiy faoliyat jarayonida bosqichma-bosqich rivojlanadi. Tasviriy san’at bu jarayonda o‘ziga xos pedagogik vosita hisoblanadi. Chunki o‘quvchi san’at asarini tomosha qilish bilan cheklanmay, uning mazmuni va badiiy ifoda vositalarini tahlil qiladi, rang va shakllar

uyg‘unligini kuzatadi hamda o‘z ijodiy ishida egallagan bilimlarini amalda qo‘llaydi.

Shu sababli tasviriy san’at darslarida estetik didni rivojlantirishni uch o‘zaro bog‘liq jarayon orqali ko‘rish mumkin: estetik idrok, estetik baholash va ijodiy faoliyat. Mazkur ketma-ketlik o‘quvchining go‘zallikni ko‘rishi, uni anglab baholashi va nihoyat, o‘z faoliyatida estetik jihatdan ifodalashiga imkon beradi.

Tasviriy san’at fanining asosiy imkoniyatlaridan biri o‘quvchini ko‘rish va kuzatishga o‘rgatishdir. Oddiy qarashdan farqli ravishda badiiy kuzatish o‘quvchidan predmetning shakli, rangi, hajmi, joylashuvi, yorug‘lik va soya munosabatlarini anglashni talab qiladi. Masalan, tabiat manzarasini tasvirlash jarayonida o‘quvchi daraxt, osmon, suv, tog‘ yoki binolarni shunchaki tasvirlamaydi. U ularning o‘zaro rang va kompozitsion munosabatlarini kuzatadi. Shu jarayonning o‘zi estetik idrokni rivojlantiruvchi omilga aylanadi.

Tasviriy san’at darslarida quyidagi yo‘nalishlar o‘quvchilarning estetik didini rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega:

badiiy asarlarni kuzatish va tahlil qilish;
ranglar uyg‘unligini anglash;
shakl va mutanosiblikni idrok etish;
kompozitsion yechimlarni tushunish;
tabiat va atrof-muhitdagi go‘zallikni kuzatish;
milliy amaliy san’at namunalarini o‘rganish;
mustaqil ijodiy ishlarni bajarish;
o‘z ijodiy ishini estetik mezonlar asosida baholash.

Bu faoliyatlar o‘quvchida estetik sezgirlikni shakllantirib, uning san’at va borliqni chuqurroq idrok etishiga yordam beradi.

O‘quvchilarda estetik didni samarali rivojlantirish uchun tasviriy san’at darslarida bir qator pedagogik shart-sharoitlarni yaratish zarur.

1. Estetik jihatdan boy ta’lim muhitini yaratish. O‘quvchining estetik didi, avvalo, u yashayotgan va ta’lim olayotgan muhit bilan bog‘liq. Shu sababli tasviriy san’at xonasining jihozlanishi, o‘quvchilarning ijodiy ishlari ko‘rgazmasi, reproduksiyalar, milliy amaliy san’at namunalari va boshqa vizual materiallardan foydalanish ta’lim muhitining estetik ta’sirchanligini oshiradi. Bunday muhit o‘quvchini san’at bilan doimiy muloqotga olib kiradi va unda go‘zallikka nisbatan ijobiy munosabatni shakllantiradi.

2. San’at asarlarini faol tahlil qilishni tashkil etish. Tasviriy san’at darslarida san’at asarlarini faqat ko‘rsatishning o‘zi yetarli emas. O‘quvchi asar haqida fikrlashi, uning mazmunini tushuntirishi va badiiy vositalarini tahlil qilishi kerak.

Masalan, o‘qituvchi:“Rassom nima sababdan aynan shu ranglardan foydalangan?”, “Asardagi ranglar qanday kayfiyat hosil qilmoqda?”,

“Kompozitsiyaning qaysi qismi sizning e’tiboringizni ko‘proq tortadi?” kabi savollar orqali o‘quvchini mustaqil estetik mushohadaga undashi mumkin.

3. O‘quvchining mustaqil ijodiy faoliyatini qo‘llab-quvvatlash. Estetik didni faqat nazariy tushuntirish orqali shakllantirib bo‘lmaydi. O‘quvchi o‘zining estetik qarashlarini ijodiy faoliyat orqali namoyon etishi zarur.

Shu sababli tasviriy san’at darslarida:

erkin mavzuda rasm ishlash;

tabiat manzarasini tasvirlash;

kompozitsiya yaratish;

ranglar asosida ijodiy topshiriqlar bajarish;

milliy naqsh va bezaklardan foydalanish;

badiiy loyiha yaratish kabi topshiriqlardan foydalanish maqsadga muvofiq.

Bunda o‘qituvchi o‘quvchining ishini faqat “to‘g‘ri” yoki “noto‘g‘ri” mezoni asosida baholamasligi, balki uning individual ijodiy yondashuvi va estetik qarashlarini ham hisobga olishi muhim.

4. Milliy va umuminsoniy estetik qadriyatlarni uyg‘unlashtirish. O‘quvchilarning estetik didini rivojlantirishda milliy san’at namunalaridan foydalanish katta tarbiyaviy imkoniyatga ega. O‘zbek amaliy san’ati, miniatyura, naqsh san’ati, kulolchilik, kashtachilik va me’moriy bezaklar o‘quvchilarga milliy estetik qadriyatlarni anglash imkonini beradi. Masalan, milliy naqshlarni o‘rganish jarayonida o‘quvchi ranglar uyg‘unligi, takroriy ritm, simmetriya va kompozitsiya kabi estetik tushunchalarni amaliy jihatdan o‘zlashtirishi mumkin. Shu bilan birga, jahon tasviriy san’ati namunalari bilan tanishtirish o‘quvchilarning estetik dunyoqarashini kengaytiradi.

5. Fanlararo integratsiyadan foydalanish. Estetik didni rivojlantirish faqat tasviriy san’at fani bilan chegaralanib qolmasligi kerak. Tasviriy san’atni adabiyot, tarix, musiqa, texnologiya va ona tili fanlari bilan integratsiyalash o‘quvchining estetik idrokini yanada boyitadi. Masalan, adabiy asarda tasvirlangan tabiat manzarasini tasviriy san’at vositalari orqali ifodalash o‘quvchida badiiy obrazni ikki xil - verbal va vizual shaklda idrok etish imkonini beradi. Bu esa o‘quvchining obrazli tafakkuri va estetik tasavvurini rivojlantiradi.

O‘quvchilarda estetik didni rivojlantirish uchun an’anaviy tushuntirish metodlari bilan bir qatorda interfaol va ijodiy metodlardan foydalanish samarali hisoblanadi.

“San’at asarini o‘qiymiz” metodida o‘quvchilar bitta san’at asarini kuzatib, uning mazmuni, ranglari, kompozitsiyasi va kayfiyati haqida fikr bildiradilar.

“Rang va kayfiyat” topshirig‘ida o‘quvchilarga muayyan kayfiyatni faqat ranglar orqali ifodalash vazifasi beriladi. Masalan, quvonch, sokinlik, tabiat uyg‘onishi yoki kuz manzarasi ranglar vositasida tasvirlanadi.

“Go‘zallikni ko‘raman” mashqida o‘quvchilar maktab, mahalla yoki tabiatdagi estetik jihatdan e’tiborga molik obyektlarni kuzatib, ularni tasvirlaydilar.

“Ijodiy galereya” usulida o‘quvchilarning ishlari sinfda namoyish qilinadi va har bir o‘quvchi o‘z ishining g‘oyasi, rang tanlovi va kompozitsion yechimini tushuntiradi.

Bunday metodlar o‘quvchining nafaqat tasviriy ko‘nikmalarini, balki estetik fikrlash, baholash va o‘z fikrini asoslash qobiliyatini ham rivojlantiradi.

O‘quvchilarda estetik didni shakllantirishda tasviriy san’at o‘qituvchisining shaxsiy estetik madaniyati ham muhim ahamiyatga ega. O‘qituvchi o‘quvchini tayyor estetik qarashlarni qabul qilishga majburlamasdan, uni mustaqil kuzatish, fikrlash va xulosa chiqarishga yo‘naltirishi lozim.

Ayniqsa, o‘quvchilarning ijodiy ishlarini baholashda individual yondashuv muhim. Bir xil mavzudagi rasmlarning barchasi bir xil ko‘rinishda bo‘lishi shart emas. Aksincha, turli ijodiy yechimlarning mavjudligi o‘quvchilarning estetik qarashlari va individual qobiliyatlari xilma-xilligini namoyon etadi.

Shu bois tasviriy san’at fani o‘qituvchisi kuzatish, savol berish, fikrlash, ijod qilish, tahlil qilish va estetik baholash ketma-ketligini ta’lim jarayonida izchil tashkil etishi maqsadga muvofiq.

Xulosa qiladigan bo‘lsak, o‘quvchilarda estetik didni rivojlantirish shaxsning ma’naviy va intellektual rivojlanishining muhim tarkibiy qismidir. Tasviriy san’at fani esa mazkur jarayonni amaliy va ijodiy faoliyat bilan uyg‘unlashtirish imkonini beruvchi muhim pedagogik vosita hisoblanadi.

Tadqiqotlar va pedagogik tajribalarni umumlashtirish asosida o‘quvchilarda estetik didni rivojlantirishning samaradorligi, avvalo, estetik ta’lim muhitini yaratish, san’at asarlarini faol tahlil qilish, mustaqil ijodiy faoliyatni qo‘llab-quvvatlash, milliy va umuminsoniy estetik qadriyatlarni uyg‘unlashtirish, fanlararo integratsiyani ta’minlash hamda o‘quvchilarning individual ijodiy imkoniyatlarini hisobga olish bilan bog‘liq ekanligini ta’kidlash mumkin. Tasviriy san’at darslarini mazkur yondashuv asosida tashkil etish o‘quvchilarda nafaqat rasm chizish ko‘nikmalarini, balki go‘zallikni idrok etish, estetik hodisalarni baholash, badiiy obraz yaratish va o‘z estetik qarashlarini ijodiy faoliyat orqali ifodalash qobiliyatlarini ham rivojlantiradi. Shunday qilib, tasviriy san’at ta’limini o‘quvchilarning estetik didini shakllantirishga yo‘naltirish zamonaviy umumiy o‘rta ta’limning muhim pedagogik vazifalaridan biri sifatida qaralishi mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Oripov B.N. Tasviriy san’atni o‘qitishning zamonaviy pedagogik texnologiyasi, didaktikasi va metodikasi. – Toshkent, 2013. \
2. Abdirasulov S., Tolipov N. Rangtasvir: o‘quv qo‘llanma. – Andijon, 2017.
3. Amonov R. Estetik tarbiya nazariyasi va metodikasi. – Toshkent: O‘qituvchi, 2019.
4. G‘ulomov N. Estetik tarbiyaning psixologik-pedagogik asoslari. – Toshkent: TDPU nashriyoti, 2019.

5. Jalolov A. O‘zbek tasviriy san’ati tarixi. – Toshkent: O‘zbekiston, 2010.
6. Ahmedov M. Estetik tarbiya nazariyasi va metodikasi. – Toshkent: Fan, 2015.
7. Egamberdiyeva F. San’at va ta’lim integratsiyasi // Ilmiy ishlar to‘plami. – 2022. – №3(7). – B. 10–17.
8. Лихачев Б.Т. Теория эстетического воспитания школьников. – М.: Просвещение, 1985.
9. Алехин А.Д. Изобразительное искусство. Художник. Педагог. Школа: книга для учителя. – М.: Просвещение, 1984.
10. Мелик-Пашаев А.А. Психология художественного творчества: учебное пособие. – М.: Академия, 2005.
11. Сухомлинский В.А. Сердце отдаю детям. – Киев: Радянська школа, 1977.
12. Юсов Б.П. Изобразительное искусство и детское изобразительное творчество. – М.: Академия, 1998.
13. Таборидзе М.Д. Эстетическое воспитание школьников: вопросы теории и методики / под ред. М.Д. Таборидзе. – М.: Педагогика, 1988.
14. UNESCO. Road Map for Arts Education: The World Conference on Arts Education: Building Creative Capacities for the 21st Century. – Lisbon: UNESCO, 2006.

OILA-MAKTAB-MAHALLA HAMKORLIGIDA O‘QUVCHILARDA IJTIMOIY MAS’ULIYATNI RIVOJLANTIRISHNING IJTIMOIY-PEDAGOGIK IMKONIYATLARI PEDAGOGIK MUAMMO SIFATIDA

Uzakov Arslon Avazovich
Tarbiya pedagogikasi milliy instituti mustaqil izlanuvchisi
https://doi.org/10.5281/zenodo.23179232

Annotatsiya. *Oila, maktab va mahalla hamkorligida o‘quvchilarning ijtimoiy mas’uliyatini rivojlantirish imkoniyatlari nazariy tahlil qilinadi. Ilmiy va huquqiy manbalar asosida tomonlar vazifalari, o‘quvchi ishtiroki hamda maxfiylik shartlari aniqlashtiriladi. Hamkorlik modeli va kuzatish mezonlari taklif etiladi. Model samaradorligi tajribada tekshirilmagan.*
Kalit so‘zlar: *ijtimoiy mas’uliyat, oila, maktab, mahalla, hamkorlik, o‘quvchi ishtiroki.*
Аннотация. *Теоретически рассматривается развитие социальной ответственности учащихся через сотрудничество семьи, школы и махалли. Научные и нормативные источники позволяют уточнить обязанности участников, условия участия детей и конфиденциальности. Предлагаются модель сотрудничества и показатели развития. Эффективность модели экспериментально не проверялась.*
Ключевые слова: *социальная ответственность, семья, школа, махалля, сотрудничество, участие учащихся.*
Abstract. *The article theoretically examines students’ social responsibility through family, school and mahalla cooperation. Research and legal sources inform the allocation of responsibilities, student participation and confidentiality safeguards. A cooperation model and developmental indicators are proposed. The model has not been empirically tested.*
Keywords: *social responsibility, family, school, mahalla, cooperation, student participation.*

Ijtimoiy mas’uliyat o‘quvchining xatti-harakat oqibatlarini anglashi, vazifani bajarishi, umumiy manfaatni hisobga olishi va xatosini tuzatishga tayyorligida namoyon bo‘ladi. Uni faqat tartibga bo‘ysunish yoki tadbirda qatnashish bilan o‘lchash yetarli emas. Ongli mas’uliyat vaziyat o‘zgarganda ham asosli qaror qabul qilishni talab etadi.

O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni 51-moddasi ota-ona va boshqa qonuniy vakillarning bola ta’limi hamda rivojlanishidagi mas’uliyatini, ta’lim tashkilotlari va fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlarining ularga ko‘maklashishini belgilaydi [1]. Bu asos hamkorlikka imkon beradi, ammo natijani kafolatlamaydi: vazifalar, aloqa va o‘quvchining qaror qabul qilishdagi o‘rni loyihalanishi kerak.

Pedagogik muammo hamkorlar talablaridagi uzilish, kattalar tashabbusi ustunligi va hisobot ko‘rsatkichlari bilan shaxsiy rivojlanishning aralashib ketishi ehtimolidadir. Maqolaning maqsadi ushbu ziddiyatlarni nazariy ochib berish hamda oila-maktab-mahalla hamkorligi uchun mas’uliyatni amalda mashq qilishga yo‘naltirilgan, huquqlarga hurmatli yondashuvni asoslashdir.

Tadqiqot nazariy-tahliliy xususiyatga ega. Hamkorlik, motivatsiya, bolalar ishtiroki va ijtimoiy mas’uliyatga oid konseptual ishlar, bir meta-tahlil hamda rasmiy

hujjatlar maqsadli tanlandi. Tanlash mezonlari mavzuga bevosita aloqadorlik, muallif va nashr rekvizitlarining tekshirilishi, pedagogik mexanizmni tushuntirish imkoniyati bo‘ldi. Sharh barcha nashrlarni qamrab olish yoki statistik umumlashtirishni ko‘zlamaydi.

Tushunchalarni farqlash, qiyoslash va pedagogik modellashtirish qo‘llandi. Ilmiy natija, huquqiy talab va muallif taklifi ajratildi. Empirik ma’lumot yig‘ilmadi. Takliflar, avvalo, umumiy o‘rta ta’limning o‘smirlik bosqichiga mo‘ljallangan; yosh, sog‘liq, til va hudud sharoitiga moslashtirish zarur.

Wray-Lake va Syvertsen ijtimoiy mas’uliyatni g‘amxo‘rlik, adolat va demokratik munosabatlarga tayanuvchi qadriy yo‘nalish sifatida tushuntiradi; uning rivojlanishini empatiya, hissiyotlarni boshqarish va o‘zlikni anglash bilan bog‘laydi [2]. Bundan kelib chiqib, tarbiya mazmuniga boshqaning ehtiyojini tushunish, oqibatni oldindan baholash va kundalik mas’uliyatni mashq qilish kiritilishi lozim. Bilim, munosabat va xulq bir-birini to‘ldirsa-da, birining mavjudligi boshqasining shakllanganini tasdiqlamaydi.

Epstein hamkorlikni ota-onalikni qo‘llab-quvvatlash, muloqot, ko‘ngillilik, uyda o‘rganish, qaror qabul qilish va jamoa bilan aloqalar orqali izohlaydi [3]. Ushbu qarash mahalla imkoniyatlarini maktabning tadbirlar ro‘yxatiga qo‘shimcha sifatida emas, o‘quvchi faoliyatiga mazmun va ijtimoiy aloqa beruvchi resurs sifatida ko‘rishga yordam beradi. Bunda mahalla o‘qituvchi baholashini takrorlamaydi; maktab ham oilaning kundalik hayotini boshqarishga da’vo qilmaydi.

Ryan va Deci nazariyasida avtonomiya, kompetentlik va aloqadorlik ehtiyojlari motivatsiyaning muhim shartlaridir [4]. Pedagogik talqinda o‘quvchiga tushunarli sabab, bajarish mumkin bo‘lgan vazifa va tanlov berilishi zarur. Ochiq uyaltirish, majburiy “faollik” yoki mukofotni yagona maqsadga aylantirish mas’uliyatning ichki qabul qilinishini cheklashi mumkin. Tanlov mas’uliyatsizlikka ruxsat emas: bola xavfsiz chegaralar ichida qaror qiladi va uning oqibatini muhokama etadi.

Jamoaga xizmatni o‘quv mazmuni bilan bog‘lovchi faoliyat bo‘yicha Celio va hammualliflar meta-tahlili ayrim ijtimoiy hamda ta’limiy natijalarda ijobiy o‘zgarishlarni qayd etgan; o‘quvchi ovozi va refleksiya kabi shartlarning ahamiyatini ko‘rsatgan [5]. Bu natijalar mahalla sharoitidagi samarani oldindan isbotlamaydi. UNESCO tavsiyalari ham bilish, ijtimoiy-hissiy va xulqiy yo‘nalishlarni birga ko‘rishni taklif qiladi [6]. Shuning uchun tadbir soni rivojlanishning yetarli mezoni bo‘la olmaydi.

Hamkorlikning taklif etilayotgan modeli. Mualliflik modeli muammoni birgalikda aniqlash, vazifalarni kelishish, kichik faoliyatni bajarish va refleksiya asosida qayta rejalash bosqichlaridan iborat. Masalan, umumiy foydalanishdagi kitoblarni asrash loyihasida o‘quvchilar muammoni kuzatadi, yechim tanlaydi,

vazifalarni taqsimlaydi va natijani izohlaydi. Bu amaliy tavsiya tajriba hisoboti emas. Faoliyat o‘qish va dam olishga xalaqit bermasligi kerak.

Oilaning vazifasi bolaga yoshiga mos kundalik majburiyat berish, uning bajarilishini xotirjam muhokama qilish va mas’uliyatli muomalani namoyish etishdir. Ota-ona bolaning ishini uning o‘rniga bajarmaydi, xatoni tushunish hamda tuzatishga yordam beradi. Aloqa qulay vaqtda, yozma yoki og‘zaki shaklda tashkil etiladi. Yig‘ilishga kelmaslik befarqlik deb baholanmaydi; oilaning vaqti va parvarish majburiyatlari hisobga olinadi.

Maktab maqsadlarni o‘quv mazmuni bilan bog‘laydi, xavfsizlikni baholaydi, vazifalarni yoshga moslashtiradi va kuzatish mezonlarini tushuntiradi. Sinf rahbari aloqa muvofiqlashtiruvchisi bo‘lishi mumkin, ammo barcha ish bir xodimga yuklanmasligi kerak. Fan o‘qituvchilari vaziyatli topshiriqlarni tayyorlaydi; psixolog zarurat bo‘lsa individual ko‘mak beradi. Baholashda bolaning shaxsi haqida hukm emas, muayyan vaziyatdagi harakati va keyingi qadami muhokama qilinadi.

Mahalla xavfsiz jamoaviy muhit, hududiy ehtiyoj haqidagi umumiy ma’lumot va mos hamkorlarni topishga ko‘maklashadi. Kutubxona, ekologik ma’rifat yoki avlodlararo suhbat imkoniyatlari maktab bilan kelishiladi. Mahalla vakili bolalarni nazorat qilish uchun oilaviy sirlarni yig‘uvchi shaxsga aylanmasligi lozim. Mehnat, mablag‘ yoki sovg‘a talab qilish tarbiyaviy ishtirokning sharti bo‘lmaydi; qimmat resurs talab qiladigan faoliyatga teng muqobil beriladi.

O‘quvchilar rejalash va yakuniy muhokamada qatnashadi. Lundy modelidagi xavfsiz maydon, fikr bildirish, tinglovchi va ta’sir tushunchalari buning mezonidir [7]. Bolaning taklifi qabul qilinmasa, sabab tushuntiriladi. BMT Bola huquqlari to‘g‘risidagi konvensiyasining 12-moddasi fikrni hisobga olish, 16-moddasi shaxsiy hayotni himoya qilish uchun huquqiy tayanchdir [8]. Ishtirok erkin fikr bildirish va shikoyat qilish imkoniyatini ham qamrab oladi.

Axloqiy shartlar va baholash mezonlari. Hamkorlar qisqa kelishuvda maqsad, muddat, vazifalar, xavfsizlik bo‘yicha mas’ul shaxs va murojaat yo‘lini belgilashi taklif etiladi. Ochiq guruhlarda bolaning tashxisi, oilaviy nizosi, moddiy holati, xulqiy bahosi yoki fotosurati tarqatilmaydi. Shaxsga doir ma’lumotlar maxfiyligi qonun bilan himoyalangan [9]. Zarur individual axborot faqat tegishli qonuniy asosda, vakolatli shaxslar doirasida va aniq maqsad uchun ishlatiladi. Umumiy hisobotlar bolani qayta aniqlashga imkon bermaydigan shaklda tayyorlanadi.

Rivojlanishni kuzatish uchun besh mezon taklif etiladi: birinchisi, qarorning boshqalarga ta’sirini izohlash; ikkinchisi, kelishilgan vazifani bajarish yoki to‘siq haqida o‘z vaqtida xabar berish; uchinchisi, sherik fikrini tinglash va vazifani adolatli bo‘lishish; to‘rtinchisi, xatoni tan olish hamda tuzatish taklifini berish; beshinchisi, o‘z hissasini aniq misol bilan baholash. “Tadbirga kelganlar soni” tashkiliy qamrovni ko‘rsatadi, mas’uliyat darajasini emas.

Har mezon uchun “ko‘mak bilan”, “odatdagi vaziyatda mustaqil” va “yangi vaziyatda asoslab qo‘llaydi” tavsiflari ishlatilishi mumkin. Kuzatish imkoni bo‘lmasa, bu past daraja deb belgilanmaydi. Dastlabki va yakuniy vaziyatli topshiriqlar, qisqa refleksiya hamda o‘qituvchi kuzatuvi birgalikda tahlil qilinadi. Ota-ona fikri kontekstni tushuntiradi; u yagona baho manbai emas. Har o‘quvchi oldingi holati bilan qiyoslanadi, ommaviy reyting tuzilmaydi. Bu rubrika standartlashtirilgan diagnostika vositasi emas, sinovdan o‘tkazilishi lozim bo‘lgan taklifdir.

Ma’lumki, nazariy manbalarning turli ijtimoiy muhitlarda yaratilgani umumlashtirishni cheklaydi. Mahallalar resursi, oilalar vaqti hamda o‘qituvchi yuklamasi bir xil emas. O‘zini baholashda ma’qullanishga intilish, kuzatishda subyektivlik yuzaga kelishi mumkin. Keyingi tadqiqotda mezonlarning tushunarliligi, kuzatuvchilar kelishuvi va inklyuzivligi tekshirilishi kerak. Faqat boshlang‘ich va yakuniy o‘zgarishning o‘zi sababiy samaradorlik xulosasi uchun yetarli emas; taqqoslash va kontekst omillarini hisobga olish talab etiladi.

Hamkorlikning imkoniyati kundalik tarbiya, tizimli o‘rganish va jamoaviy tajribani bog‘lashdadir. Vazifalar aniqligi, o‘quvchi ishtiroki, teng imkoniyat va maxfiylik uning asosiy shartlaridir. Model mas’uliyatni qaror qabul qilish, vazifani bajarish va refleksiya orqali rivojlantirishni ko‘zlaydi. Uning samaradorligi mahalliy empirik tekshiruvda baholanishi kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi. Ta’lim to‘g‘risida. 23.09.2020-yildagi O‘RQ-637-son Qonun. 51-modda. https://lex.uz/docs/-5013007
2. Wray-Lake L., Syvertsen A. K. The developmental roots of social responsibility in childhood and adolescence. New Directions for Child and Adolescent Development. 2011;2011(134):11-25. https://doi.org/10.1002/cd.308
3. Epstein J. L. School/Family/Community Partnerships: Caring for the Children We Share. Phi Delta Kappan. 2010;92(3):81-96. https://doi.org/10.1177/003172171009200326
4. Ryan R. M., Deci E. L. Self-determination theory and the facilitation of intrinsic motivation, social development, and well-being. American Psychologist. 2000;55(1):68-78. https://doi.org/10.1037/0003-066X.55.1.68
5. Celio C. I., Durlak J., Dymnicki A. A meta-analysis of the impact of service-learning on students. Journal of Experiential Education. 2011;34(2):164-181. https://doi.org/10.1177/105382591103400205
6. UNESCO. Global Citizenship Education: Topics and Learning Objectives. Paris: UNESCO; 2015. https://doi.org/10.54675/DRHC3544
7. Lundy L. “Voice” is not enough: conceptualising Article 12 of the United Nations Convention on the Rights of the Child. British Educational Research Journal. 2007;33(6):927-942. https://doi.org/10.1080/01411920701657033
8. United Nations. Convention on the Rights of the Child. 20 November 1989. Articles 12, 16. https://www.unicef.org/child-rights-convention/convention-text
9. O‘zbekiston Respublikasi. Shaxsga doir ma’lumotlar to‘g‘risida. 02.07.2019-yildagi O‘RQ-547-son Qonun. 28-modda. https://lex.uz/docs/-4396419
Elektron manbalarga murojaat sanasi: 02.10.2026.

SEL METODIKALARI VOSITASIDA O‘SMIRLARDA MAS’ULIYATLI QAROR QABUL QILISHNI RIVOJLANTIRISHNING INSTITUTSIONAL MODELI

B. M. Xakimova
Qori Niyoziy nomidagi Tarbiya pedagogikasi milliy instituti
katta ilmiy xodimi, p.f.b.f.d. (PhD)
https://doi.org/10.5281/zenodo.23179248

Annotatsiya. *Maqolada o‘smirlarda mas’uliyatli qaror qabul qilish kompetensiyalarini ijtimoiy-emotsional ta’lim (SEL) metodikalari vositasida rivojlantirish milliy tarbiya jarayonlarini tashkil etish bilan bog‘liq holda tahlil qilinadi. Ilmiy manbalarni qiyosiy o‘rganish va pedagogik modellashtirish asosida maktab, oila hamda mahalla hamkorligiga tayanuvchi institutsional model taklif etiladi. Modelda ishtirokchilar vakolatlarini muvofiqlashtirish, vaziyatli topshiriqlarni qo‘llash, pedagoglarni metodik qo‘llab-quvvatlash va rivojlanish dinamikasini baholash mexanizmlari yoritiladi. Milliy qadriyatlarni o‘smirning mustaqil tanlovi, empatik munosabati va qaror oqibatlarini anglash tajribasi bilan uyg‘unlashtirishning pedagogik shartlari asoslanadi.*

Kalit so‘zlar: *milliy tarbiya, ijtimoiy-emotsional ta’lim, SEL, o‘smir, mas’uliyatli qaror qabul qilish, institutsional model, maktab–oila–mahalla hamkorligi, pedagogik boshqaruv, refleksiya.*

Milliy tarbiya jarayonlarining natijadorligi o‘quvchining qadriyatlar haqidagi bilimlarini kundalik xulq-atvorida qo‘llay olishiga bog‘liq. Halollik, adolat, hurmat va hamjihatlik haqidagi tasavvurlar muammoli vaziyatda asoslangan tanlov qilish, boshqalarning manfaatlarini hisobga olish hamda o‘z harakatining oqibatlarini anglash orqali amaliy mazmun kasb etadi. Shu nuqtayi nazardan, o‘smirlarda mas’uliyatli qaror qabul qilish kompetensiyalarini rivojlantirish milliy tarbiyaning muhim natijasi sifatida qaralishi lozim. Buning uchun tarbiyaviy maqsadlar, pedagogik metodlar va ta’lim muassasasidagi boshqaruv amaliyoti o‘rtasida izchil bog‘liqlik zarur.

Maqolaning maqsadi SEL metodikalari vositasida o‘smirlarda mas’uliyatli qaror qabul qilishni rivojlantirishga xizmat qiladigan institutsional model va uni amalga oshirish mexanizmlarini nazariy jihatdan asoslashdan iborat. Tadqiqotda ilmiy manbalarni tahlil qilish, qiyoslash, umumlashtirish va pedagogik modellashtirish usullaridan foydalanildi. Tahlil obyekti sifatida SEL kompetensiyalari, maktab miqyosidagi tarbiyaviy hamkorlik va natijalarni baholash yondashuvlari olindi. Ish nazariy-metodik xususiyatga ega bo‘lib, unda taklif qilinayotgan modelning mahalliy sharoitdagi samaradorligi yuzasidan tajriba natijalari taqdim etilmaydi.

CASEL doirasida ijtimoiy-emotsional ta’lim o‘zini anglash, o‘zini boshqarish, ijtimoiy anglash, munosabatlarni o‘rnatish va mas’uliyatli qaror qabul qilishni birlashtiradi. Mas’uliyatli qaror axloqiy mezonlar, xavfsizlik va insonlar

farovonligini hisobga olgan holda konstruktiv tanlov qilishni nazarda tutadi [1]. Mazkur talqinga tayangan holda, ushbu maqolada mas’uliyatli qaror qabul qilish kompetensiyasi bilim, hissiy boshqaruv, qadriyatli munosabat va amaliy harakatning birligi sifatida izohlanadi. O‘quvchining to‘g‘ri javobni aytishi yetarli emas: u tanlovini asoslay olishi, muqobil yechimlarni solishtirishi va bajarilgan harakat uchun javobgarlikni qabul qilishi kerak. Muallifning avvalgi maqolasida ham o‘smirlarda mas’uliyatli qaror qabul qilishning nazariy asoslari va pedagogik strategiyalari SEL bilan bog‘liq holda tahlil qilingan [6].

SEL dasturlariga doir dalillar mazkur yondashuvning tarbiyaviy imkoniyatlarini ko‘rsatadi. J. Durlak va hammualliflarning 213 tadqiqot hamda 270 034 o‘quvchini qamrab olgan meta-tahlilida ijtimoiy-emotsional ko‘nikmalar, munosabatlar, xulq-atvor va akademik natijalarda ijobiy o‘zgarishlar qayd etilgan. Mualliflar dasturlarni amalga oshirish sifati natijalarga ta’sir ko‘rsatishini ham aniqlagan [2]. OECD hisobotida esa ijtimoiy-emotsional ko‘nikmalar ta’limdagi muvaffaqiyat va farovonlik ko‘rsatkichlari bilan bog‘liq ekani ko‘rsatiladi [3]. Ushbu bog‘liqliklar har bir mahalliy metodikaning samaradorligini avtomatik tasdiqlamaydi; ular moslashtirish va alohida baholash zarurligini kuchaytiradi.

Milliy tarbiya mazmuniga moslashtirishda qadriyatlarni o‘smir uchun tushunarli vaziyatlar orqali ochib berish maqsadga muvofiq. Masalan, halollik ko‘chirmachilikdan voz kechish, hurmat o‘zga fikrni tinglash, hamjihatlik esa guruh vazifalarini adolatli taqsimlash jarayonida namoyon bo‘ladi. Kattalarga hurmat o‘quvchining asosli savol berishi va xavfsiz tarzda norozilik bildirish imkoniyatini cheklamasligi kerak. Tarbiyaviy suhbatlarda “Qaysi qoida buzildi?” savoli bilan birga “Bu qaror kimga qanday ta’sir qiladi?” savolining qo‘yilishi axloqiy me’yorni uning insoniy oqibatlari bilan bog‘laydi. SELni O‘zbekiston ta’lim tizimiga tatbiq etish masalalari muallifning alohida tadqiqotida yoritilgan [5].

Institutsional model deganda mazkur maqolada tarbiya ishtirokchilarining vazifalari, hamkorlik tartibi, pedagogik resurslari va baholash amaliyotini birlashtiruvchi tashkiliy tuzilma tushuniladi. Taklif etilayotgan modelning markazida o‘smirning ongli tanlovi turadi. Maktab o‘quv vaziyatlarini tashkil etadi, oila kundalik hayotda qaror qabul qilish tajribasini qo‘llab-quvvatlaydi, mahalla esa ijtimoiy foydali faoliyat uchun sharoit yaratadi. Hamkorlikning mazmuni umumiy tadbirlar soni bilan emas, o‘quvchi turli muhitlarda bir-biriga mos tarbiyaviy munosabat va tushunarli talablarni his qilishi bilan belgilanadi.

Modelni boshqarishda vazifalarni aniq taqsimlash tavsiya etiladi. Maktab rahbariyati maqsad, vaqt va metodik resurslarni belgilaydi; sinf rahbari mashg‘ulotlar hamda ota-onalar bilan aloqani muvofiqlashtiradi. Fan o‘qituvchilari o‘z darslaridagi muammoli topshiriqlarga tanlovni asoslash elementlarini kiritadi. Maktab psixologi pedagoglarga yosh va individual xususiyatlarni hisobga olish bo‘yicha maslahat beradi. Ota-onalar farzandning mustaqil tanlovini muhokama

qiladi, mahalla vakillari kelishilgan ijtimoiy loyihalarda qatnashadi. O‘quvchilar sinf qoidalari va loyiha vazifalarini belgilashda ishtirok etadi. Ushbu taqsimot mavjud lavozim yo‘riqnomalarini tasvirlamaydi, balki taklif etilayotgan modelning tashkiliy yechimini ifodalaydi.

Boshqaruv mexanizmi ehtiyojni aniqlash, rejalashtirish, amalga oshirish va tahlil asosida takomillashtirish davriyligida tashkil etilishi mumkin. Dastlab o‘quvchilarning vaziyatli topshiriqlarga javoblari, pedagogik kuzatuvlar va ota-onalar fikrlari umumlashtiriladi. Shundan so‘ng sinf uchun aniq maqsad tanlanadi: masalan, qaror oldidan kamida ikki muqobil yechimni ko‘rib chiqish yoki bahs paytida boshqa tomon nuqtayi nazarini ifodalash. Maqsadga mos topshiriqlar, mas’ullar va tahlil muddati belgilanadi. CASELning maktab miqyosidagi qo‘llanmasida ham tashkiliy tayyorgarlik, kattalar kompetensiyasi, o‘quvchilar bilan ishlash va uzluksiz takomillashtirish o‘zaro bog‘liq yo‘nalishlar sifatida beriladi [4].

Metodik jihatdan vaziyatli tahlil, rolli mashq, hamkorlikdagi loyiha va refleksiv suhbatni birgalikda qo‘llash taklif etiladi. Qaror qabul qilish jarayoni muammoni aniqlash, hissiy holatni anglash, dalillarni tekshirish, yechimlarni solishtirish, tanlovni asoslash va natijani baholash orqali mashq qilinadi. Masalan, sinf guruhida tengdoshini kamsituvchi xabar tarqalgan vaziyatda o‘quvchilar xabarni ulashish, e’tiborsiz qoldirish yoki ishonchli kattadan yordam so‘rash oqibatlarini muhokama qiladi. O‘qituvchi tayyor hukmni aytish bilan cheklanmay, tanlovning jabrlangan o‘quvchi va sinf muhitiga ta’sirini ochib beruvchi savollar qo‘yadi.

Bunday mashg‘ulotlarda o‘smirning avvalgi hayotiy tajribasiga murojaat qilish alohida ahamiyatga ega. O‘quvchi shunga o‘xshash hodisani qanday tushunganini, qanday his qilganini va hozir qaysi yechimni tanlashini qiyoslaydi. Shaxsiy tajribani tahlil qilish ixtiyoriy bo‘lishi, muhokama uchun shartli vaziyatlardan ham foydalanilishi lozim. Bu yondashuv refleksiyani o‘zini ayblashdan farqlashga yordam beradi: diqqat yo‘l qo‘yilgan xatoni yashirishga emas, uning sababini tushunish va keyingi harakatni yaxshilashga qaratiladi. O‘qituvchining xatoga munosabati ham mas’uliyatli xulqning amaliy namunasi bo‘lib xizmat qiladi.

Oila bilan hamkorlikda uzoq ma’ruzalardan ko‘ra kundalik tanlovlarni muhokama qilishga xizmat qiluvchi qisqa topshiriqlar foydali bo‘lishi mumkin. Uy yumushlarini taqsimlash, bo‘sh vaqtni rejalashtirish yoki umumiy xarajatni muhokama qilishda o‘smir o‘z taklifini asoslaydi va kelishuvga amal qilishni mashq qiladi. Mahalla doirasidagi loyiha esa real ehtiyojdan kelib chiqishi kerak. Masalan, kitob almashish tashabbusida o‘quvchilar qatnashish qoidalari, vazifalar va resurslardan foydalanish tartibini kelishadi. Loyihadan keyin kimning fikri inobatga olingani, qaysi qaror adolatli bo‘lgani va nima o‘zgartirilishi kerakligi muhokama qilinadi.

Natijalarni baholashda kognitiv, hissiy-qadriyatli, amaliy va refleksiv mezonlardan foydalanish taklif etiladi. Kognitiv mezon muammo hamda oqibatlarni

tushuntirishni; hissiy-qadriyatli mezon o‘z hissiyotini va boshqalarning manfaatlarini hisobga olishni; amaliy mezon asoslangan yechimni bajarishni; refleksiv mezon esa natijani tahlil qilish va zarur tuzatish kiritishni qamrab oladi. Rivojlanish darajalari pedagog yordami bilan tanlash, tanlovni mustaqil asoslash va uni yangi vaziyatga ko‘chira olish belgilariga ko‘ra tavsiflanishi mumkin. Baholash topshiriqlari yoshga moslashtirilib, mezonlarning tushunarliligi hamda baholovchilar o‘rtasidagi muvofiqlik dastlabki sinovda tekshirilishi zarur.

Monitoringda o‘quvchining o‘zini baholashi vaziyatli topshiriq va takroriy kuzatuv bilan solishtiriladi. Tadbirga qatnashish soni kompetensiya rivojlanganining bevosita dalili sifatida olinmaydi. Shuningdek, muammolar haqida murojaatlar ko‘payishi ayrim hollarda ishonchning ortganini anglatishi mumkin; shu sababli sonli ko‘rsatkichlar vaziyat mazmuni bilan birga talqin qilinadi. Dastlabki va yakuniy baholash sharoitlari qiyoslanadigan bo‘lishi, uzoqroq muddatda ko‘nikmaning saqlanishi ham kuzatilishi lozim. Kelgusidagi tajriba-sinovda taqqoslash guruhi, amalga oshirish sifati va o‘quvchilarning boshlang‘ich farqlarini hisobga olish model samaradorligi haqidagi xulosalarni asoslashga xizmat qiladi.

Modelning barqarorligi pedagoglarning tayyorgarligi va ish yuklamasiga mos resurslar bilan ta’minlanishiga bog‘liq. Metodik birlashmalarda bir xil vaziyatga berilgan javoblarni birgalikda tahlil qilish, dars kuzatuvi va o‘zaro maslahat amaliyotini yo‘lga qo‘yish mumkin. Alohida ko‘p hisobot talab qilish o‘rniga mavjud tarbiyaviy reja va kuzatuv shakllarini moslashtirish tavsiya etiladi. O‘quvchilar haqidagi individual ma’lumotlar ommaviy taqqoslash yoki yorliq qo‘yish uchun ishlatilmasligi kerak. Boshqaruv tahlilida umumlashtirilgan natijalar, individual yordamda esa pedagogik zaruratga mos ma’lumotlar qo‘llanishi maqsadga muvofiq. Bu yondashuv muallifning inklyuziv madaniyatni shakllantirishda SEL imkoniyatlariga bag‘ishlangan maqolasi bilan mazmunan bog‘liq [7].

Shunday qilib, mas’uliyatli qaror qabul qilish kompetensiyalarini rivojlantirish milliy tarbiya mazmunini kundalik tanlov va ijtimoiy tajriba bilan bog‘lashni talab etadi. Taklif etilgan institutsional model SEL metodikalarini maktab, oila va mahalla faoliyatiga muvofiqlashtirilgan tarzda kiritishni nazarda tutadi. Uning nazariy-metodik hissasi tarbiyaviy maqsadni ishtirokchilar vazifalari, qaror qabul qilish mashqlari va kuzatiladigan natijalar bilan yagona tizimda bog‘lashdan iborat. Amaliy joriy etish mahalliy ehtiyojlarga moslashtirish va tajriba-sinov orqali tekshirishni talab qiladi. Shu asosda milliy qadriyatlarning o‘smirning ongli, mustaqil va javobgar xatti-harakatida namoyon bo‘lishi uchun pedagogik sharoit yaratiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. CASEL. What Is the CASEL Framework? https://casel.org/fundamentals-of-sel/what-is-the-casel-framework
2. Durlak, J. A., Weissberg, R. P., Dymnicki, A. B., Taylor, R. D., & Schellinger, K. B. (2011). The impact of enhancing students’ social and emotional learning: A meta-analysis of school-based universal interventions. Child Development, 82(1), 405–432. https://doi.org/10.1111/j.1467-8624.2010.01564.x
3. OECD. (2024). Social and Emotional Skills for Better Lives: Findings from the OECD Survey on Social and Emotional Skills 2023. Paris: OECD Publishing. https://doi.org/10.1787/35ca7b7c-en
4. CASEL. The CASEL Guide to Schoolwide Social and Emotional Learning. https://schoolguide.casel.org
5. Khakimova, B. M. (2025). Transformation of Educational System of Uzbekistan: SEL Methodology. European International Journal of Pedagogics, 5(04), 38–40. https://doi.org/10.55640/eijp-05-04-09
6. Khakimova, B. M. (2025). Developing Responsible Decision-Making Competencies in Adolescents. Bulletin News in New Science Society International Scientific Journal, 2(4). https://newarticle.ru/index.php/bnss/article/view/555
7. Xakimova, B. M. (2025). Inklyuziv madaniyatni shakllantirishda ijtimoiy-hissiy ta’lim (SEL) metodikasining ahamiyati. Konferensiya maqolasi. Zenodo. https://doi.org/10.5281/zenodo.15099604

ИММЕРСИВНЫЙ УНИВЕРСИТЕТ КАК ДРАЙВЕР ТРАНСФОРМАЦИИ ВЫСШЕГО ОБРАЗОВАНИЯ.

Хасанова Камила
ассистент кафедры «Телевизионные и медиа технологии»
Ташкентский университет информационных технологий
имени Мухаммада ал-Хоразмий
https://doi.org/10.5281/zenodo.23179268

Аннотация. *В статье исследуется международная адаптируемая модель иммерсивного университета, которая может быть внедрена в образовательные системы различных стран с учётом их культурных, технологических и институциональных особенностей. Иммерсивное обучение рассматривается не как набор технологий (VR, AR), а как педагогическая стратегия, основанная на сценарном погружении студентов в активные и интерактивные образовательные среды. Особое внимание уделено оценке эффективности инструментов через поведенческие исследования и обратную связь от студентов.*
Ключевые слова: *иммерсивное обучение, иммерсивный университет, цифровизация образования, педагогические сценарии, поведенческие исследования, качество образования, международная адаптация, VR, AR, геймификация, многомерная классификация.*

Annotation *The article studies an adaptable model of an immersive university that can be implemented in educational systems of different countries, taking into account their cultural, technological, and institutional specifics. Immersive learning is considered not as a set of technologies (VR, AR), but as a pedagogical strategy based on scenario-based immersion of students into active and interactive educational environments. Special attention is paid to evaluating the effectiveness of tools through behavioral studies and student feedback.*
Key words: *immersive learning, immersive university, digitalization of education, pedagogical scenarios, behavioral research, quality of education, international adaptation, VR, AR, gamification, multidimensional classification.*

Annotatsia. *Maqolada turli mamlakatlar ta’lim tizimlariga, ularning madaniy, texnologik va institutsional xususiyatlariga moslashtirilgan immersiv universitet modeli tadqiqot etiladi. Immersiv ta’lim bu shunchaki texnologiyalar (VR, AR) to‘plami emas, balki talabalarni faol va interaktiv ta’lim muhitiga ssenariy asosida «cho‘mdirish»ga asoslangan pedagogik strategiya sifatida qaraladi. Vositalar samaradorligini baholashga xulq-atvor tadqiqotlari va talabalar fikr-mulohazalari orqali alohida e’tibor qaratilgan.*
Kalit so‘zlar: *immersiv ta’lim, immersiv universitet, ta’limni raqamlashtirish, pedagogik stsenariylar, xulq-atvor tadqiqotlari, ta’lim sifati, xalqaro moslashuv, VR, AR, geymifikatsiya, ko‘p o‘lchovli tasnif.*

Введение

Традиционная модель высшего образования, опирающаяся на лекционно-семинарский формат, сталкивается с вызовами цифровой эпохи. Современным студентам необходим не просто массив теоретических знаний, а навыки их мгновенного практического применения в условиях, приближенных к реальным.

Иммерсивный университет — это образовательная экосистема, в которой физические пространства вуза органично соединены с виртуальными мирами, облачными симуляциями и интерактивными цифровыми двойниками. Главная цель такой трансформации — достижение «эффекта присутствия», который активизирует когнитивные и эмоциональные механизмы памяти, повышая вовлеченность студентов. [1]

Ключевые компоненты иммерсивного университета

Виртуальные кампусы и аудитории: Пространства для удаленного коллаборационного обучения, где студенты в виде аватаров могут взаимодействовать друг с другом и преподавателем независимо от географии. *Практико-ориентированные симуляции:* Интерактивные 3D-модели сложных технологических процессов, опасных химических реакций или редких медицинских кейсов. *Искусственный интеллект как ментор:* ИИ-ассистенты, отслеживающие траекторию обучения в реальном времени и адаптирующие сложность контента под индивидуальные особенности студента. Гибридные лаборатории (Phygital Labs): Объединение физического лабораторного оборудования с наложенными цифровыми слоями данных (AR).

Методология исследования

Методологическую основу работы составляет системный подход, объединяющий педагогические, технологические и социально-психологические аспекты цифровизации высшего образования. В исследовании использовались следующие методы:

Системный и структурно-функциональный анализ: Применяется для рассмотрения иммерсивного университета как целостной экосистемы. Метод позволяет выделить ключевые компоненты инфраструктуры (виртуальные кампусы, гибридные лаборатории, ИИ-менторы) и определить функциональные связи между ними, образовательным процессом и результатами обучения. Метод сравнительного анализа (бенчмаркинг): Используется для сопоставления традиционных форм высшего образования с иммерсивными моделями. Проводится сравнительная оценка эффективности усвоения материала, уровня вовлеченности студентов и показателей академического стресса на основе данных зарубежных и отечественных кейсов (например, опыт Университета Мэриленда и Лондонского университета Метрополитен).Анализ кейс-стади (Case Study): Метод позволяет детально изучить практический опыт внедрения VR/AR-технологий и иммерсивных облачных сред в ведущих мировых вузах. Анализируются конкретные сценарии применения технологий в медицинском образовании, инженерном проектировании и программах ментального благополучия студентов. Метод классификации и типологизации: Используется для

систематизации иммерсивных образовательных инструментов по степени их интерактивности, технологической сложности и целевому назначению (профессиональные симуляции, коллаборационные пространства, психоэмоциональные тренажеры).

Прогностический метод (педагогическое прогнозирование): Применяется для оценки перспектив развития иммерсивных университетов, влияния технологий искусственного интеллекта на индивидуализацию траекторий обучения и трансформацию роли преподавателя в будущем.

Результаты и Обсуждение

В последние годы иммерсивные технологии активно внедряются в высшее образование, однако большинство дискуссий сосредоточено исключительно на технической стороне вопроса: VR-шлемах, AR-приложениях, трёхмерных моделях и дорогостоящем оборудовании. Это создаёт устойчивую иллюзию, что иммерсивное обучение доступно только технически оснащённым университетам с крупными бюджетами, расположенным преимущественно в развитых странах. Однако такой подход является глубоко ошибочным и ограничивающим. В данной статье предлагается принципиально иной взгляд, согласно которому иммерсивное обучение представляет собой не набор технологических решений, а целостную педагогическую стратегию, при которой студент оказывается внутри образовательного сценария, активно взаимодействует с учебным материалом, средой и другими участниками образовательного процесса. Технологии в этом контексте выступают лишь как один из возможных инструментов, но ни в коем случае не как самоцель или обязательное условие. Именно такой подход делает модель иммерсивного университета универсальной и адаптируемой для самых разных образовательных систем: от высокоцифровых университетов Европы до вузов Азии, где требуется глубокая модернизация без колоссальных капитальных вложений.

Для обоснования данной концепции нужно обратится к библиометрическому анализу, с акцентом не только на тематические кластеры, но и на географическое распределение исследований по иммерсивному обучению. Анализ показал, что наибольший рост публикаций наблюдается с 2018 года, при этом доминируют работы из США, Китая, Великобритании и Германии. В то же время в странах Центральной Азии данная тема представлена крайне слабо, хотя потенциал для внедрения здесь огромен. Более того, большинство существующих исследований фокусируются исключительно на виртуальной реальности, практически игнорируя сценарные и интерактивные методы, которые не требуют цифровых инструментов, но при этом дают мощный педагогический эффект.[2] Это подтверждает необходимость широкой трактовки иммерсии и

разработки адаптируемой модели, применимой в различных условиях.. Согласно этой классификации, первый уровень, или одномерная иммерсия, представляет собой вербальную передачу опыта через сторителлинг, дискуссии и разбор кейсов, что в Европе может реализовываться через бизнес-семинары, в Азии — через коллективное обсуждение притч и философских текстов, или лекции-диалоги с элементами драматургии и проблемные вопросы. Второй уровень, двухмерная иммерсия, предполагает использование готовых сценариев в реальной или цифровой среде: в европейских университетах это могут быть симуляции переговоров и деловых процессов, в азиатских — ролевые игры прямо в аудиториях с элементами театрализации, в постсоветских — классические деловые игры по управлению предприятиями. Третий уровень, трёхмерная иммерсия, связан с пространственными моделями и цифровыми двойниками: в Европе это архитектурные и инженерные лаборатории, в Азии — VR-туры по историческим и культурным объектам, в постсоветских странах — 3D-моделирование в технических дисциплинах. Четвёртый уровень, или интерактивная иммерсия, включает дополненную реальность и ролевые игры на местности: европейские университеты используют образовательные квесты в городской среде, азиатские — полевые исследования с AR-дополнениями, а постсоветские — постеры и печатные материалы с оживающими элементами. Пятый уровень представляет собой полную виртуальную иммерсию с использованием VR-шлемов и полноценных симуляторов, что в Европе активно применяется в медицинском и военном образовании, в Азии — в языковых средах и культурных погружениях, а в постсоветских странах — в технических тренажёрах для инженерных и рабочих специальностей. Наконец, шестой, динамический уровень, который обозначается как nD-иммерсия, представляет собой геймификацию в виртуальном мире, создаваемом и изменяющемся прямо во время учебного процесса: это могут быть многопользовательские стратегии в Европе, образовательные метавселенные в Азии и учебные миры в Minecraft для постсоветских школ и вузов. Важно подчеркнуть, что переход между этими уровнями не требует обязательного наличия всех технологий сразу, и университет может начинать с самых простых форм, постепенно наращивая сложность по мере готовности преподавателей и инфраструктуры.[3]

Сама модель иммерсивного университета выстраивается как трёхуровневая информационно-педагогическая система. Технологический уровень включает электронную образовательную среду, порталы, мобильные приложения и, при наличии бюджета, инструменты VR и AR. Сценарный уровень предполагает разработку учебных сценариев, интеграцию активных и интерактивных методов и гибкий переход между очным, онлайн и смешанным

форматами. Оценочный уровень обеспечивает тестирование эффективности каждого инструмента через поведенческие исследования, сбор обратной связи от студентов и постоянное улучшение на основе собранных данных. Ключевым достоинством этой модели является то, что она не требует дорогостоящего оборудования на старте: университет может начать с одномерных и двумерных методов и постепенно внедрять более сложные технологии по мере накопления опыта и ресурсов.[4] При этом для каждой группы стран предлагаются свои адаптационные стратегии. Европейские университеты, обладающие высокой цифровой грамотностью, хорошим финансированием и развитой инфраструктурой, могут смело внедрять четвёртый и пятый уровни, развивать метавселенные и использовать европейские рамки цифровых компетенций DigCompEdu, однако здесь существует риск перегрузки технологиями и потери педагогической составляющей, поэтому важно сохранять баланс. Азиатские университеты, напротив, сильны коллективизмом, дисциплиной и быстрой адаптацией к цифровым новинкам, поэтому им нужно делать акцент на групповые сценарии первого-третьего уровней, интеграцию с местными культурными контекстами и развитие мобильных решений, но при этом необходимо учитывать, что иерархичность азиатских образовательных систем может мешать свободному взаимодействию в игровых сценариях, что требует специальной методической проработки. Локальные университеты имеют фундаментальную подготовку и традиции очного обучения, поэтому нужно начинать с первого и второго уровней — дискуссий, деловых игр, проблемных семинаров, постепенно внедряя дополненную реальность и простые VR-решения с использованием открытых платформ, но здесь основным риском является низкая цифровая культура части преподавателей и сопротивление изменениям, что требует системной работы по повышению квалификации и мотивации педагогического состава.

Особое место в модели занимает оценка эффективности иммерсивных инструментов, и здесь предлагается использовать поведенческие лаборатории с фиксацией движений глаз с помощью айтрекинга, кожно-гальванической реакции для измерения эмоциональной вовлечённости, распознавания мимики, а также времени реакции и выполнения задач. Это позволяет не просто измерить эффективность, но и сравнить разные уровни иммерсии между собой, проверяя, например, гипотезу о том, что применение четвёртого уровня с дополненной реальностью повышает вовлечённость студентов на двадцать пять-тридцать процентов по сравнению с традиционными сценариями второго уровня. Такие исследования дают объективную основу для принятия управленческих решений о целесообразности перехода на более сложные и дорогие инструменты.

Для иллюстрации практического применения модели приводится универсальный сценарий лекции-пазла, который может быть адаптирован под любую страну и дисциплину. Эта лекция, рассчитанная на восемьдесят минут, начинается с блока заведомо неверных ответов, который вовлекает студентов через провокацию и длится около пятнадцати минут, затем следует разбор практического кейса из онлайн-курса на двадцать минут, после чего идёт интерактивная игра с карточками, переводящая студентов от пассивного восприятия к активному действию в течение пятнадцати минут, затем работа с дополненной реальностью или визуализациями на двадцать минут обеспечивает глубокое погружение, а завершает занятие проблемная лекция на десять минут, выводящая на новый уровень понимания. В Европе этот сценарий может включать VR-блок, в Азии — усиленную групповую работу или акцент на дискуссию и печатные материалы с элементами дополненной реальности, что делает его по-настоящему универсальным. Однако любая инновация сопряжена с рисками, и для каждого уровня иммерсии нужно разработать стратегии их снижения. Для первых двух уровней основным риском является непонимание сценария, поэтому требуются чёткие инструкции и фасилитация. Для третьего и четвёртого уровней актуальны технические сбои, поэтому необходимы резервные планы и офлайн-альтернативы. Для пятого и шестого уровней возможны дискомфорт, укачивание и сенсорная перегрузка, что требует дозирования времени и адаптации контента. А на всех уровнях сохраняется риск сопротивления со стороны преподавателей, который преодолевается через повышение квалификации, материальную и моральную мотивацию, а также через пилотные проекты, позволяющие преподавателям увидеть реальные результаты. Наиболее разумной стратегией интеграции иммерсивного обучения представляется начало с малого, с первых двух уровней, постепенное внедрение технологий, активное использование открытых образовательных ресурсов и международного опыта, а также создание центров оценки эффективности иммерсивных инструментов при университетах.[5]

Практические примеры и кейсы реализации: Медицинское образование (Университет Мэриленда (США).В медицинских и инженерных департаментах активно применяются технологии захвата движения и объемного моделирования. Используя синхронизированные системы из сотен камер высокого разрешения, вуз создает фотореалистичные 3D-модели анатомических объектов и клинических сценариев. Студенты-медики в VR-гарнитурах могут исследовать патологии и отрабатывать хирургические вмешательства в безопасной виртуальной среде, что полностью исключает риски для реальных пациентов.

Борьба со стрессом и академической прокрастинацией: Лондонский университет Метрополитен (Великобритания)/. В рамках пилотных исследований иммерсивные технологии используются не только для профессиональной подготовки, но и для заботы о ментальном здоровье студентов. Используя гарнитуры виртуальной реальности и платформы виртуальной осознанности (например, TRIPP), учащиеся проходят 25-минутные сессии по управлению вниманием, целеполаганию и дыхательным практикам. Исследования показали, что такой подход снижает уровень академического стресса примерно на 40% и уменьшает прокрастинацию почти на 29%.

Заключение

Таким образом, иммерсивный университет — это не отдалённое будущее, а осознанный стратегический выбор, который каждый вуз может сделать уже сегодня. Технологии приходят и уходят, педагогические тренды сменяют друг друга, но неизменной остаётся логика вовлечения студента в активное осмысленное действие. Данная адаптируемая модель позволяет каждому университету, независимо от страны, бюджета и текущего уровня цифровизации, найти свой собственный путь к качественному, вовлекающему и устойчивому образованию, которое готовит выпускников не просто к профессии, а к жизни в быстро меняющемся мире. При этом важно понимать, что внедрение иммерсивной модели — это не разовое мероприятие, а постоянный циклический процесс, включающий разработку инструментов, пробный доступ, тестирование, улучшение и полномасштабное внедрение, после чего цикл повторяется на новом уровне. Именно такой системный подход, подкреплённый поведенческими исследованиями и международным обменом опытом, позволяет превратить иммерсивный университет из модного термина в реальный драйвер трансформации высшего образования в глобальном масштабе.

Иммерсивный университет перестает быть концепцией из области научной фантастики и становится стандартом высшей школы XXI века. Погружение в интерактивную среду трансформирует пассивное потребление информации в деятельностное познание. Это позволяет готовить специалистов высочайшей квалификации, обладающих глубоким практическим опытом.

Список литературы:

1. Artyukhov, A.; Volk, I.; Dluhopolskyi, O.; Mieszajkina, E.; Mysliwiecka, A. Immersive University Model: A Tool to Increase Higher Education Competitiveness. Sustainability 2023, *15*, 7771. https://doi.org/10.3390/su15107771.

2. Brown, E.; Cairns, P. A Grounded Investigation of Game Immersion. In Proceedings of the CHI '04 Extended Abstracts on Human Factors in Computing Systems, New York, NY, USA, 24–29 April 2004; pp. 1297–1300. https://doi.org/10.1145/985921.986048.
3. Campillo-Ferrer, J.M.; Miralles-Martinez, P. Effectiveness of the flipped classroom model on students' self-reported motivation and learning during the COVID-19 pandemic. Humanit. Soc. Sci. Commun. 2021, *8*, 176. https://doi.org/10.1057/s41599-021-00860-4.
4. Caprara, L.; Caprara, C. Effects of virtual learning environments: A scoping review of literature. Educ. Inf. Technol. 2022, *27*, 3683–3722. https://doi.org/10.1007/s10639-021-10768-w.
5. Herrington, J.; Reeves, T.C.; Oliver, R. Immersive learning technologies: Realism and online authentic learning. J. Comput. High. Educ. 2007, *19*, 80–99. https://doi.org/10.1007/BF03033421.

БЎЛАЖАК ЖУРНАЛИСТЛАРНИНГ НУТҚ МАДАНИЯТИНИ ШАКЛЛАНТИРИШДА АСОСИЙ ТАЛАБЛАР ВА ВАЗИФАЛАР

Хожаназаров Алламурат Муратбаевич
Қори ниёзий номидаги тарбия педагогикаси миллий институти
Қорақалпоғистон филиалининг мустақил тадқиқотчиси
https://doi.org/10.5281/zenodo.23179290

Аннотация
Мазкур мақолада бўлажак журналистларнинг нутқ маданиятини шакллантириш масалалари, унинг назарий асослари ҳамда амалий вазифалари таҳлил қилинади. Журналист фаолиятида нутқ маданиятининг аҳамияти, касбий компетенцияларни ривожлантиришдаги ўрни ва таълим жараёнида қўлланиладиган самарали усуллар ёритиб берилади.
Калит сўзлар: *нутқ маданияти, журналистика, касбий компетенция, оммавий ахборот воситалари, коммуникация, тил меъёрлари.*
Аннотация
В данной статье анализируются вопросы формирования культуры речи будущих журналистов, ее теоретические основы и практические задачи. Освещается значение культуры речи в журналистской деятельности, ее роль в развитии профессиональных компетенций и эффективные методы, используемые в образовательном процессе.
Ключевые слова: *культура речи, журналистика, профессиональная компетенция, средства массовой информации, коммуникация, языковые нормы.*
Abstract
This article analyzes the issues of forming the speech culture of future journalists, its theoretical foundations, and practical tasks. The importance of speech culture in journalistic activity, its role in developing professional competencies, and the effective methods used in the educational process are highlighted.
Keywords: *speech culture, journalism, professional competence, mass media, communication, language norms.*

Жамият тараққиётида оммавий ахборот воситаларининг ўрни беқиёсдир. Айниқса, глобаллашув шароитида ахборот тезкорлиги ва ишончлилиги билан бир қаторда унинг тўғри, равон ва таъсирчан етказилиши муҳим аҳамият касб этади. Шу боис бўлажак журналистларнинг нутқ маданиятини шакллантириш замонавий таълим тизимининг устувор вазифаларидан бири ҳисобланади. Нутқ маданияти ва унинг аҳамияти ҳақида таниқли олим С.Сиддиқовнинг қўйдагича фикри мавжуд: «Нутқнинг тўғрилиги, мантиқийлиги ва ахлоқий меъёрларга мослиги мулоқотнинг муваффақиятини таъминлайди» [1, 34]. Албатта, нутқ маданияти – бу тил қоидаларига амал қилган ҳолда фикрни аниқ, равон, мантиқий ва таъсирчан ифода эта олиш маҳоратидир. Журналист учун эса бу касбий маҳоратининг асосий мезонларидан бири саналади.

Журналистнинг нутқ маданияти ҳақида яна бир қанча олим ва тадқиқотчилар ўзларининг фикр ва таҳлилларини келтириб ўтишган. Масалан, тадқиқотчи Н.Дўсимбетова бу ҳақида ўз диссертациясида: «Журналистика

касбида нутқ маданияти ва касбга аксиологик ёндашув махсус аҳамиятга эга бўлиб, у ҳар бир дастур, репортаж ва материалда яққол намоён бўлади, бу орқали журналистнинг ҳодисалар ва одамларга нисбатан муносабати кўрсатилади.», - дея таъкидлайди [2, 11].

Нутқ маданияти тилшунослик, психология ва педагогика фанлари кесишмасида шаклланган илмий тушунчадир. У қуйидаги жиҳатларни ўз ичига олади:

адабий тил меъёрларига риоя қилиш;

талаффуз ва орфоэпик қоидаларни билиш;

услубий мувофиқликни таъминлаш;

мантиқий изчиллик;

коммуникатив мақсадга мувофиқлик.

Журналистика назариясида нутқ маданияти жамоатчилик билан самарали мулоқот олиб бориш воситаси сифатида қаралади. Жумладан, ЮНЕСКО ахборот маданияти ва медиа саводхонликни замонавий таълимнинг муҳим йўналишларидан бири сифатида эътироф этади. Бу эса журналистларнинг тил ва нутқ маданиятига бўлган талабларни янада оширади.

Бўлажак журналистлар нутқ маданиятига қўйиладиган асосий талабларга қўйидагилар киради:

1) Аниқлик ва холислик.

Журналист нутқи фактларга асосланган, аниқ ва текширилган маълумотларга таяниши лозим. Субъектив баҳо ва ноаниқ ифодалардан қочиш муҳим.

2) Равонлик ва тушунарлилик.

Материал кенг аудитория учун мўлжалланган боис, мураккаб терминлар ортиқча қўлланилмаслиги, фикрлар содда ва тушунарли баён этилиши зарур.

3) Мантиқий изчиллик.

Ахборот хронологик ёки мазмуний тартибда, ички боғланишни сақлаган ҳолда етказилиши керак.

4) Услубий мослик.

Ахборот жанри, аудитория ёши ва мавзудан келиб чиқиб, услуб тўғри танланиши талаб этилади (ахборот, таҳлилий, публицистик ва ҳ.к.).

5) Ахлоқий меъёрларга риоя.

Журналист нутқи миллий қадриятлар ва умуминсоний тамойилларга зид бўлмаслиги шарт.

Нутқ маданиятини шакллантириш учун қўйидаги асосий вазифаларини бажариш лозим:

1) Назарий билимларни мустаҳкамлаш.

Талабаларга адабий тил меъёрлари, услубият, риторика ва журналистик маҳорат асослари чуқур ўргатилиши лозим.

2) Амалий машқлар тизимини йўлга қўйиш.

Матн таҳлили;

Репортаж ва интервью тайёрлашни машқ қилдириш;

Телерадио чиқишларини машқ қилиш;

Импровизация кўникмаларини ривожлантириш.

Шунингдек, медиа муҳитда талабаларнинг фаол иштирокини таъминлаш нутқ маданиянини шакллантириш ва ривожлантиришнинг асосий омилларидан бири. Талабаларни таҳририятларда амалиёт ўташга жалб қилиш, блог ва подкастлар юритишга йўналтириш ҳам нутқ маданиятининг ривожланишига хизмат қилади.

Танқидий фикрлашни шакллантириш бўйича олиб борилган дарс ва машқлар ҳәм бўлажак журналистларнинг нутқ маданияининг ўсишига омил бўлади. Танқидий таҳлил қилиш, ахборотни саралаш ва қайта ишлаш қобилияти нутқнинг мазмундорлигини таъминлайди.

Замонавий ахборот технологиялари билан ишлаш, улардан самарали фойдаланишнинг самараси ҳам ўта баланд. Чунки, замонавий журналист рақамли платформаларда ҳам тўғри ва саводли нутқ билан чиқиш қила олиши керак.

Юқоридаги талаб ва кўникмаларни шакллантириш учун таълим жараёнида қандай самарали педагогик усуллардан фойдаланиш мумкин? Албатта, ушбу масаладаги энг долзарб саволлардан бири. Бу борада қўйидаги педагиг усул ва технологиялар самара беради:

Интерактив машғулотлар;

Кейс-стади усули;

Дебат ва мунозаралар;

Мастер-класслар;

Медиаматериаллар таҳлили;

Бу усуллар талабаларда мустақил фикрлаш, нутқий фаоллик ва ижодкорликни ривожлантиради.

Хулоса қилиб айтганда, бўлажак журналистларнинг нутқ маданиятини шакллантириш — бу фақат тил қоидаларини ўргатиш эмас, балки уларда юксак касбий масъулият, ахлоқий позиция ва коммуникацион компетенцияни тарбиялаш демакдир.

Замонавий ахборот маконида рақобатбардош журналистни тайёрлаш учун таълим жараёнида назария ва амалиёт уйғунлигини таъминлаш, интерактив усуллардан фойдаланиш ва медиа саводхонликни ривожлантириш муҳим аҳамият касб этади. Шу тариқа, нутқ маданияти юксак бўлган журналист жамиятда холис ахборот тарқатиш, ижтимоий фикрни шакллантириш ва маънавий муҳитни соғломлаштиришда муҳим ўрин тутади.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:

1. Сиддиков С. *Педагогик маҳорат ва коммуникация*. – Тошкент: Тафаккур, 2019. – 34 б.
2. Дўсимбетова Н.Б. Бўлажак журналистларнинг ахборот хавфсизлик компетентлигини ривожлантириш. Дисс… автореферати, - Тошкент: 2025. – 11 б.
3. Қудратхўжаев Ш. *Журналистика назарияси ва амалиёти*. – Тошкент: Ўзбекистон, 2018.
4. Расулов Р. *Нутқ маданияти ва услубият асослари*. – Тошкент: Фан, 2016.
5. Маҳмудов Н. *Ўзбек тили нутқ маданияти*. – Тошкент: Ўқитувчи, 2013.
6. ЮНЕСКО. *Media and Information Literacy: Policy and Strategy Guidelines*. – Paris, 2013.
7. Кубрякова Е.С. *Язык и знание: На пути получения знаний о языке*. – Москва: Языки славянской культуры, 2004.
8. Леонтьев А.А. *Психология общения*. – Москва: Смысл, 1999.
9. Бахтин М.М. *Эстетика словесного творчества*. – Москва: Искусство, 1979.

ОЛИЙ ТАЪЛИМДА БЎЛАЖАК ЖУРНАЛИСТЛАРНИНГ НУТҚ МАДАНИЯТИНИ ШАКЛЛАНТИРИШНИНГ ПЕДАГОГИК ОМИЛЛАРИ

Хожаназаров Алламурат Муратбаевич
Қори ниёзий номидаги тарбия педагогикаси миллий институти
Қорақалпоғистон филиалининг мустақил тадқиқотчиси
https://doi.org/10.5281/zenodo.23179298

Аннотация: *Мазкур мақолада бўлажак журналистларнинг нутқ маданиятини шакллантиришга таъсир этувчи педагогик омиллар таҳлил этилади. Таълим жараёнида қўлланиладиган замонавий методлар, шахсга йўналтирилган ёндашув, коммуникатив муҳит яратиш ва ахборот технологияларидан фойдаланиш масалалари ёритилади. Нутқ маданиятини ривожлантиришда назария ва амалиёт уйғунлигининг аҳамияти асосланади.*
Калит сўзлар: *нутқ маданияти, журналистика таълими, педагогик омиллар, коммуникатив компетенция, инновацион технологиялар, касбий тайёргарлик.*
Bundan tashqari, ta’limni raqamlashtirish islohotlarning ajralmas qismi sifatida qaralmoqda. Elektron ta’lim resurslari, masofaviy ta’lim platformalari, sun’iy intellekt asosidagi tizimlar o‘quv jarayonining samaradorligini sezilarli darajada oshirish imkonini bermoqda. Natijada ta’lim tizimi nafaqat bilim beruvchi, balki innovatsion fikrlashni shakllantiruvchi muhitga aylanishi zarur.

Umuman olganda, ta’lim tizimini isloh qilish — bu faqat dasturlarni yangilash emas, balki butun pedagogik falsafani o‘zgartirish jarayonidir. Bu jarayonning muvaffaqiyati esa davlat siyosati, normativ-huquqiy baza va pedagoglarning kasbiy kompetensiyasi bilan uzviy bog‘liqdir.

Milliy ta’lim tizimini takomillashtirish jarayoni bugungi kunda har bir davlatning strategik taraqqiyotida hal qiluvchi ahamiyat kasb etib, jamiyatning intellektual va iqtisodiy salohiyatini belgilab beruvchi asosiy omilga aylanmoqda. O‘zbekistonda ham so‘nggi yillarda ta’lim sifatini tubdan oshirish, uni zamonaviy talablarga to‘laqonli moslashtirish, ilg‘or xalqaro standartlar darajasiga olib chiqish hamda o‘quv jarayoniga innovatsion yondashuvlarni keng joriy etish bo‘yicha keng ko‘lamli, tizimli ishlar amalga oshirilmoqda. Ushbu ko‘p qirrali jarayonni yanada chuqurroq ilmiy-nazariy jihatdan tahlil qilish uchun uni bir nechta o‘zaro bog‘liq asosiy tarkibiy qismlarga bo‘lib ko‘rib chiqish maqsadga muvofiqdir. Milliy ta’lim tizimining o‘ziga xos xususiyatlarini har tomonlama o‘rganish va uni zamonaviy ilmiy-pedagogik nuqtai nazardan takomillashtirish bugungi shiddatli globallashuv davrining eng dolzarb vazifalaridandir.

Milliy ta’lim tizimining mazmun-mohiyati va uning o‘ziga xos qirralari har bir davlatning uzoq yillik tarixi, madaniy-ma’naviy qadriyatlari, milliy o‘ziga xosligi hamda ijtimoiy-iqtisodiy ehtiyojlariga tayanuvchi o‘zaro bog‘liq ta’lim-tarbiya muassasalari majmuini tashkil etadi. Ma’lumki, ushbu tizimning boshqa umumjahon modellardan farq qiluvchi va ajralib turuvchi asosiy xususiyatlari bir nechta muhim konseptual yo‘nalishlarda yaqqol namoyon bo‘ladi. Jumladan, milliy-madaniy qadriyatlar va xalq pedagogikasi uzviyligi ta’lim jarayonida xalqimizning asrlar davomida to‘plagan boy hayotiy tajribasi, yuksak axloqiy me’yorlari va ma’naviy merosining o‘quv dasturlariga singdirilishi orqali har bir shaxsda milliy o‘zlikni

anglash, vatanparvarlik tuyg‘usini shakllantirishga xizmat qiladi. Bu esa yosh avlodni har tomonlama yetuk qilib tarbiyalashda mustahkam poydevor vazifasini bajaradi.

Shuningdek, ta’lim jarayonida uzluksizlik va izchillik tamoyili alohida o‘rin tutib, u ta’limning maktabgacha ta’lim bosqichidan boshlab umumiy o‘rta ta’lim, o‘rta maxsus, professional ta’lim hamda oliy va oliy ta’limdan keyingi bosqichgacha bo‘lgan davrning yagona metodologik zanjir asosida uzviy tashkil etilishini ta’minlaydi. Bu o‘quvchilar va talabalarning kognitiv hamda shaxsiy rivojlanish barqarorligini kafolatlabgina qolmay, balki bosqichma-bosqich o‘zlashtiriladigan bilimlarning tizimli ravishda boyib borishiga va mantiqiy davomiyligiga zamin yaratadi. Buning ustiga, davlat siyosatining ustuvorligi ta’lim sohasining davlat tomonidan to‘g‘ridan-to‘g‘ri qo‘llab-quvvatlanishi, moliyalashtirilishi, huquqiy jihatdan qat’iy kafolatlanishi va uning jamiyat taraqqiyotidagi asosiy drayver sifatida e’tirof etilishini ta’minlaydi. Bu o‘z navbatida mamlakatning kelajakdagi intellektual salohiyati, ilm-fan taraqqiyoti va xalqaro miqyosdagi iqtisodiy raqobatbardoshligini yuksaltirishga qaratilgan strategik vazifalarni muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun keng imkoniyatlar ochib beradi.

Zamonaviy sharoitda ta’lim siyosati faqat bilim berish bilan cheklanib qolmay, balki shaxsning har tomonlama rivojlanishini ta’minlash, uning ijodiy va tanqidiy fikrlash qobiliyatini shakllantirish, shuningdek, mehnat bozoriga moslashuvchanligini oshirishga qaratilgan kompleks tizim sifatida qaralmoqda. Shu nuqtai nazardan, ta’lim sohasidagi davlat siyosati quyidagi ustuvor yo‘nalishlar orqali amalga oshiriladi:

1. **Ta’lim sifati va samaradorligini oshirish:** Bu yo‘nalishda davlat ta’lim standartlarini takomillashtirish, o‘quv dasturlarini zamonaviy talablar asosida yangilash hamda xalqaro baholash tizimlari bilan integratsiya qilish muhim ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, PISA, TIMSS kabi xalqaro tadqiqotlarda yuqori natijalarga erishish ta’lim siyosatining muhim indikatorlaridan biri sifatida qaralmoqda.

2. **Ta’limni raqamlashtirish:** Raqamli texnologiyalarni joriy etish orqali ta’lim jarayonini individuallashtirish, masofaviy ta’lim imkoniyatlarini kengaytirish va ta’lim resurslariga erkin kirishni ta’minlash imkoniyati yaratilmoqda. Bu jarayonda sun’iy intellekt, katta hajmli ma’lumotlar (*big data*) va onlayn platformalarning roli tobora ortib bormoqda.

3. **Pedagog kadrlarning kasbiy rivojlanishi:** O‘qituvchining bilim va ko‘nikmalari ta’lim sifatining asosiy omili bo‘lganligi sababli, ularning malakasini oshirish, zamonaviy pedagogik texnologiyalarni egallash va innovatsion faoliyatga jalb etish davlat siyosatining muhim tarkibiy qismidir.

4. **Inklyuzivlikni ta’minlash:** Ta’lim tizimida barcha o‘quvchilar uchun teng imkoniyatlar yaratish muhim strategik yo‘nalishlardan biridir. Bu nogironligi

bo‘lgan bolalar, ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamlar va alohida ta’lim ehtiyojlariga ega bo‘lgan o‘quvchilarni ta’lim jarayoniga to‘liq integratsiya qilishni nazarda tutadi.

5. **Xalqaro hamkorlik va integratsiya:** Ta’lim tizimini xalqaro standartlarga moslashtirish, xorijiy ilg‘or tajribalarni joriy etish orqali milliy ta’lim tizimini global ta’lim makoniga qo‘shish ko‘zda tutiladi.

Ta’lim sohasidagi davlat siyosati kompleks va tizimli xarakterga ega bo‘lib, u normativ-huquqiy hujjatlar orqali mustahkamlanadi va amaliyotga bosqichma-bosqich joriy etiladi. Milliy ta’lim tizimini isloh qilish orqali jamiyatda intellektual salohiyat yuksaltiriladi, innovatsion iqtisodiyot uchun puxta poydevor yaratiladi va har tomonlama barkamol avlod tarbiyalanadi. Ta’lim tizimidagi yangilanishlar kelgusida mamlakatimizning jahon hamjamiyatida munosib o‘rin egallashining asosiy kafolati bo‘lib xizmat qiladi.

Milliy ta’lim tizimini isloh qilish va yanada kengaytirish — bu faqatgina infratuzilmani yaxshilash yoki darsliklarni yangilash emas, balki jamiyatning intellektual qatlamini tubdan yangi bosqichga olib chiqish demakdir. Raqobatbardosh inson kapitalini shakllantirish orqali mamlakatning kelajakdagi barqaror taraqqiyoti kafolatlanadi.

Milliy ta’lim tizimi deganda, muayyan davlatning tarixi, madaniy-ma’naviy qadriyatlari, milliy o‘ziga xosligi hamda ijtimoiy-iqtisodiy ehtiyojlariga tayanuvchi o‘zaro bog‘liq ta’lim-tarbiya muassasalari majmui tushuniladi va ushbu tizimning boshqa modellardan farq qiluvchi asosiy xususiyatlari uning mazmuniy boyligi bilan ajralib turadi. Jumladan, milliy-madaniy qadriyatlar va xalq pedagogikasi uzviyligi ta’lim jarayonida xalqning asrlar davomida to‘plagan hayotiy tajribasi, axloqiy me’yorlari va ma’naviy merosining chuqur singdirilishi orqali har bir shaxsda milliy o‘zlikni anglash tuyg‘usini shakllantirishga xizmat qiladi, bu esa o‘z navbatida yosh avlodni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda muhim poydevor bo‘ladi. Shu bilan birga, uzluksizlik va izchillik tamoyili ta’limning eng quyi bosqichi bo‘lgan maktabgacha ta’limdan boshlab, umumiy o‘rta ta’lim, professional ta’lim hamda oliy va oliy ta’limdan keyingi bosqichgacha bo‘lgan davrning yagona metodologik zanjir asosida uzviy tashkil etilishini ta’minlab, ta’lim oluvchilarning kognitiv va shaxsiy rivojlanish barqarorligini kafolatlaydi. Shuning barobarida, davlat siyosatining ustuvorligi ta’lim sohasining davlat tomonidan har tomonlama qo‘llab-quvvatlanishi, moliyalashtirilishi, huquqiy jihatdan qat’iy kafolatlanishi va uning jamiyat taraqqiyotidagi asosiy drayver sifatida e’tirof etilishini ta’minlab, mamlakatning kelajakdagi intellektual salohiyati va global raqobatbardoshligini yuksaltirishga qaratilgan strategik vazifalarni muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun mustahkam asos yaratadi.

Zamonaviy bosqichda milliy ta’lim tizimi an’anaviy, ya’ni faqat tayyor bilimlarni o‘quvchiga yetkazishga asoslangan modeldan tubdan voz kechib,

kompetensiyaviy yondashuvga o‘tmoqda va ilmiy-pedagogik nuqtai nazardan bu jarayon o‘quvchining egallagan bilimlarini real hayotiy hamda kasbiy vaziyatlarda muvaffaqiyatli qo‘llay olish layoqatini shakllantirishga qaratilgan bo‘lib, bunda ta’lim samaradorligini ta’minlovchi pedagogik omillar sirasiga har bir o‘quvchining individual psixologik xususiyatlari, qiziqishlari va imkoniyatlarini inobatga olgan holda o‘quv traektoriyasini belgilovchi shaxsga yo‘naltirilgan yondashuv, o‘quvchilarda mantiqiy tahlil qilish, muammoli vaziyatlarni nostandart usullar bilan hal etish hamda innovatsion g‘oyalarni yaratish ko‘nikmalarini shakllantiruvchi kreativ va tanqidiy tafakkurni rivojlantirish, shuningdek, o‘quv fanlari o‘rtasidagi mantiqiy bog‘liqlikni kuchaytirish orqali ularda yaxlit ilmiy dunyoqarashni hosil qiluvchi fanlararo integratsiya kiradi.

Har qanday ta’lim islohotining muvaffaqiyati bevosita pedagog kadrning kasbiy kompetensiyasi va uning innovatsion faolligiga borib taqalgani sababli, zamonaviy o‘qituvchi faoliyatida an’anaviy axborot uzatuvchi vazifasi yo‘qolib, uning o‘rniga o‘quvchini mustaqil izlanishga yo‘naltiruvchi, ko‘maklashuvchi va ilmiy izlanishlarga ilhomlantiruvchi fasilitator hamda moderator maqomi ustuvor bo‘lib bormoqda, shuningdek, raqamli iqtisodiyot davri milliy ta’lim tizimining oldiga yangi talablarni qo‘yib, ta’limni raqamlashtirish jarayoni elektron ta’lim resurslari va masofaviy ta’lim platformalarining keng joriy etilishi, sun’iy intellekt va katta hajmli ma’lumotlar yordamida o‘quv jarayonini individuallashtirish hamda global ta’lim makoniga integratsiyalashish, xalqaro baholash dasturlari talablariga moslashib, ilg‘or xorijiy tajribalarni milliy amaliyotga tatbiq etish kabi keng ko‘lamli imkoniyatlarni ochib bermoqda.

Hozirgi kunda jadal tus olib borayotgan globallashuv, raqamli transformatsiya, sun’iy intellekt texnologiyalarining kirib kelishi va ilm-fan taraqqiyoti sharoitida milliy ta’lim tizimini innovatsion asosda rivojlantirish – jamiyat va davlat taraqqiyotining eng muhim strategik sharti hamda kechiktirib bo‘lmaydigan vazifasidir. Bugungi kunda ta’lim sifatini oshirish va uni zamonaviy talablarga to‘laqonli moslashtirish jarayoni faqatgina ayrim texnik yangilanishlar yoki lokal o‘zgarishlar bilan cheklanib qolmaydi. Aksincha, u butun pedagogik tafakkurni, o‘quv dasturlari mazmunini, ta’limni boshqarish mexanizmlari va metodologiyasini tubdan takomillashtirishni taqozo etadi. Bu borada milliy ta’lim tizimining eng asosiy poydevori va o‘ziga xos ustunligi uning boy milliy-ma’naviy merosimizga, ajdodlarimizdan meros qolgan azaliy qadriyatlarga tayanib, ayni paytda zamonaviy xalqaro ta’lim standartlari, ilg‘or ilm-fan yutuqlari hamda innovatsion yondashuvlar bilan uzviy uyg‘unlashganidadir.

O‘quv jarayoniga zamonaviy raqamli texnologiyalar, multimedia vositalari, masofaviy va elektron ta’lim platformalari, shuningdek, ilg‘or pedagogik metodikalarni keng joriy etish orqali yoshlarga berilayotgan bilimlar sifatini mutlaqo yangi bosqichga ko‘tarishga erishiladi. Ta’lim oluvchilarda tanqidiy va tizimli

fikrlashni, kreativlikni, muammolarni hal qilish ko‘nikmalarini hamda mustaqil izlanish qobiliyatini shakllantirish ta’lim samaradorligini ta’minlashning hal qiluvchi omilidir. Biroq, mazkur innovatsion jarayonlarning muvaffaqiyati va samaradorligi ko‘p jihatdan pedagog kadrlarning kasbiy salohiyatiga, ularning zamonaviy raqamli vositalar bilan ishlash ko‘nikmalariga, xalqaro tajribalarni o‘zlashtirishga bo‘lgan intilishiga hamda pedagogik mahoratini uzluksiz yuksaltirib borishiga borib taqaladi. Shu bois, o‘qituvchilarning uzluksiz kasbiy rivojlanishini ta’minlash davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri bo‘lib qolishi lozim.

Umuman olganda, milliy ta’lim tizimini innovatsion yo‘nalishda izchil isloh qilish, ilmiy-amaliy tadqiqotlar natijalarini amaliyotga tezkor va tizimli tatbiq etish mamlakatimizda raqobatbardosh inson kapitalini shakllantirishning eng mustahkam poydevorini yaratadi. Bu esa, o‘z navbatida, jamiyatning intellektual salohiyatini yuksaltirishga, iqtisodiyotning barcha tarmoqlari va ishlab chiqarish sohasi uchun yuqori malakali, zamonaviy fikrlaydigan mutaxassislar tayyorlashga xizmat qiladi. Eng muhimi, mazkur strategik yo‘nalishdagi islohotlar mamlakatimizning barqaror va uzoq muddatli taraqqiyotini ta’minlab, milliy ta’limimizni jahon ta’lim makonida munosib, yetakchi o‘rinlardan biriga olib chiqishning kafolati bo‘lib xizmat qiladi va bu boradagi ilmiy izlanishlarni yanada chuqurlashtirish talab etiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasining "Ta’lim to‘g‘risida"gi Qonuni. – Toshkent: Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 2020-yil 23-sentabr (O‘RQ-637-son).
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining "O‘zbekiston — 2030" strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida"gi Farmoni. – Toshkent, 2023-yil 11-sentabr (PF-158-son).
3. Muslimov N.A., Usmonboyeva M.H., Sayidahmedov N.S., To‘rayev A.B. Innovatsion ta’lim texnologiyalari. – Toshkent: "Sano-standart" nashriyoti, 2015.
4. Yo‘ldoshev J.G‘., Usmonov S.A. Zamonaviy pedagogik texnologiyalarni amaliyotga joriy etish. – Toshkent: O‘qituvchi, 2008.
5. To‘raqulov H.A. Ta’limda zamonaviy axborot va pedagogik texnologiyalar. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2013.

MILLIY TARBIYA VA INTERAKTIV QAYTA ALOQA PLATFORMALARI ASOSIDA BO‘LAJAK PEDAGOGLARNING RAQAMLI MADANIYATINI RIVOJLANTIRISH

Yo‘ldashev Axrorjon Egamnazar o‘g‘li
Qori Niyoziy nomidagi TPMI mustaqil izlanuvchisi
https://doi.org/10.5281/zenodo.23179386

Annotatsiya. *Mazkur maqolada milliy tarbiya jarayonlarini tashkil etishning institutsional modellari va boshqaruv mexanizmlarini interaktiv qayta aloqa platformalaridan foydalanish orqali bo‘lajak pedagoglarning raqamli madaniyatini rivojlantirish bilan uyg‘unlashtirish masalasi yoritilgan. Raqamli transformatsiya sharoitida bo‘lajak pedagogning raqamli texnologiyalardan foydalanish ko‘nikmasi bilan bir qatorda, axborotni tanqidiy baholash, raqamli muloqot madaniyati, axborot xavfsizligi, raqamli etikaga rioya qilish, raqamli resurslarni pedagogik maqsadlarda tanlash va o‘quv faoliyati natijalarini raqamli vositalar asosida tahlil qilish qobiliyatlari ham muhim ahamiyat kasb etadi. Maqolada interaktiv qayta aloqa platformalari bo‘lajak pedagoglarning raqamli madaniyatini rivojlantirishning vositasi sifatida qaralib, mazkur jarayonni oila, ta’lim muassasasi va jamiyat bilan bog‘langan institutsional tizimda boshqarish imkoniyatlari asoslanadi. Shuningdek, maqsadli, mazmuniy, institutsional, texnologik, diagnostik va natijaviy komponentlardan iborat model hamda uning boshqaruv mexanizmlari taklif etiladi. Raqamli qayta aloqa, refleksiya, o‘z-o‘zini baholash, hamkorlik va monitoring mexanizmlarining bo‘lajak pedagoglarning raqamli madaniyatiga ta’siri ochib beriladi.*

Kalit so‘zlar: *milliy tarbiya, institutsional model, boshqaruv mexanizmi, bo‘lajak pedagog, raqamli madaniyat, raqamli kompetensiya, interaktiv qayta aloqa, raqamli ta’lim, refleksiya, raqamli etika, monitoring.*

Kirish. Ta’lim tizimining raqamli transformatsiyasi pedagog shaxsiga qo‘yiladigan talablarning mazmunini ham o‘zgartirmoqda. Bugungi pedagogdan faqatgina fan mazmunini yaxshi bilish yoki raqamli vositalardan texnik jihatdan foydalanish emas, balki raqamli texnologiyalarni ta’lim maqsadlariga muvofiq tanlash, ulardan xavfsiz va mas’uliyatli foydalanish, o‘quvchilar faoliyatini raqamli muhitda tashkil etish, ta’lim natijalarini tahlil qilish va o‘z pedagogik faoliyatini refleksiv baholash talab etiladi.

UNESCOning pedagoglar uchun ICT Competency Framework modeli ham o‘qituvchilarning axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish kompetensiyasini pedagogik faoliyat bilan bog‘liq holda rivojlantirish zarurligini ta’kidlaydi. Mazkur yondashuv texnologiyani shunchaki texnik vosita sifatida emas, balki ta’lim sifatini oshirishga xizmat qiluvchi pedagogik resurs sifatida ko‘rishga asoslanadi.

Yevropa Komissiyasining DigCompEdu modeli esa pedagoglarning raqamli kompetensiyasini 22 ta kompetensiyani qamrab oluvchi olti yo‘nalishda tavsiflaydi. Ular professional hamkorlik, raqamli resurslardan foydalanish, ta’lim va o‘qitish,

baholash, ta’lim oluvchilarni qo‘llab-quvvatlash hamda ta’lim oluvchilarning raqamli kompetensiyasini rivojlantirish kabi yo‘nalishlarni qamrab oladi.

Mazkur yondashuvlar shuni ko‘rsatadiki, bo‘lajak pedagoglarning raqamli madaniyatini shakllantirish faqat kompyuter yoki internetdan foydalanish ko‘nikmasini rivojlantirish bilan cheklanmasligi kerak. Raqamli muhitda to‘g‘ri muloqot qilish, axborotning ishonchliligini aniqlash, shaxsiy ma’lumotlarni himoya qilish, mualliflik huquqiga rioya qilish, raqamli kontentni pedagogik maqsadga muvofiq yaratish va o‘z faoliyatiga raqamli qayta aloqa asosida baho berish ham ushbu jarayonning tarkibiy qismlaridir.

Shu nuqtayi nazardan milliy tarbiya jarayonlarini tashkil etishning institutsional modellari bilan bo‘lajak pedagoglarning raqamli madaniyatini rivojlantirish masalasini o‘zaro bog‘lash ilmiy va amaliy jihatdan dolzarbdir.

Muammoning dolzarbligi

Raqamli muhitning ta’lim jarayoniga tobora chuqur kirib borishi pedagog tayyorlash tizimida yangi yondashuvlarni talab qilmoqda. Bo‘lajak pedagog oliy ta’lim muassasasida olgan raqamli ko‘nikmalarini kelgusida o‘quvchilar bilan ishlash jarayonida pedagogik maqsadga muvofiq qo‘llay olishi zarur.

Bunda asosiy muammo texnologiyaning mavjudligi emas, balki undan qanday foydalanish masalasidir. Biror platformada test tuzish yoki elektron taqdimot tayyorlash pedagogning raqamli madaniyati to‘liq shakllanganini anglatmaydi. Raqamli madaniyat shaxsning raqamli muhitdagi xulq-atvori, axborot bilan ishlashi, kommunikatsiyasi, xavfsizligi, etikasi va pedagogik qarorlarida texnologiyadan ongli foydalanishini ham qamrab oladi.

Shu sababli bo‘lajak pedagoglarning raqamli madaniyatini rivojlantirish jarayonida interaktiv qayta aloqa platformalaridan foydalanish alohida ahamiyatga ega.

Interaktiv qayta aloqa platformasi deganda ta’lim oluvchi va pedagog o‘rtasida ikki tomonlama yoki ko‘p tomonlama raqamli muloqotni ta’minlaydigan, topshiriq natijasini ko‘rsatadigan, izoh va tavsiyalar berishga, o‘z-o‘zini baholashga hamda faoliyat natijalarini tahlil qilishga imkon beradigan raqamli muhit tushuniladi.

Bunday platformalar orqali bo‘lajak pedagog nafaqat topshiriq bajaradi, balki o‘z faoliyati natijasi haqida qayta aloqa oladi, xatolarini ko‘radi, ularni tuzatadi, o‘z rivojlanish dinamikasini kuzatadi va keyingi faoliyatini rejalashtiradi.

Milliy tarbiya va raqamli madaniyatning o‘zaro bog‘liqligi

Milliy tarbiya mazmuni raqamli muhitdan tashqarida mavjud bo‘lgan hodisa sifatida qaralmasligi kerak. Chunki bugungi yoshlarning ijtimoiy munosabatlari, muloqoti, axborot almashinuvi va o‘zini namoyon qilishi real hayot bilan bir qatorda raqamli makonda ham kechmoqda.

Shu sababli milliy tarbiyaning asosiy qadriyatlari raqamli muhitdagi xulq-atvor bilan uyg‘unlashtirilishi lozim.

Masalan, odob-axloq tamoyili raqamli muloqotda boshqalarga hurmat bilan munosabatda bo‘lish orqali namoyon bo‘ladi. Mas’uliyat tamoyili internetda tarqatilayotgan axborotning oqibatini anglashni talab qiladi. Halollik akademik faoliyatda plagiatga yo‘l qo‘ymaslik, boshqa shaxsning intellektual mahsulotini o‘zlashtirmaslik bilan bog‘lanadi. Vatanparvarlik esa milliy madaniy meros va qadriyatlarni raqamli vositalar yordamida o‘rganish, targ‘ib qilish va saqlash orqali yangi mazmun kasb etadi.

Raqamli madaniyatni baholash mezonlari

Bo‘lajak pedagoglarning raqamli madaniyatini baholashda to‘rtta asosiy mezondan foydalanish mumkin.

Motivatsion mezon. Talabaning raqamli texnologiyalardan foydalanishga qiziqishi, yangi vositalarni o‘rganishga tayyorligi va raqamli faoliyatning pedagogik ahamiyatini anglash darajasi.

Kognitiv mezon. Raqamli vositalar, axborot manbalari, raqamli xavfsizlik, mualliflik huquqi va raqamli pedagogika haqidagi bilimlar.

Amaliy-faoliyat mezoni. Raqamli resurs yaratish, interaktiv topshiriq ishlab chiqish, raqamli baholash va qayta aloqa berish qobiliyati.

Refleksiv-me’yoriy mezon. O‘z raqamli faoliyatini tahlil qilish, xatolarni aniqlash, raqamli etikaga rioya qilish va faoliyatini takomillashtirish qobiliyati.

Mazkur mezonlar asosida raqamli madaniyatning **reproduktiv, funksional va ijodiy** darajalarini ajratish mumkin.

Reproduktiv darajada talaba mavjud raqamli vositalardan ko‘rsatma asosida foydalanadi.

Funksional darajada talaba raqamli vositani mustaqil tanlaydi va uni muayyan pedagogik vazifaga moslashtiradi.

Ijodiy darajada esa talaba yangi raqamli ta’lim mahsulotlarini yaratadi, ularning pedagogik samaradorligini tahlil qiladi va o‘z faoliyatini qayta loyihalay oladi.

Xulosa. Raqamli transformatsiya sharoitida milliy tarbiya jarayonlarini tashkil etishning institutsional modellari va boshqaruv mexanizmlarini bo‘lajak pedagoglarning raqamli madaniyatini rivojlantirish jarayoni bilan uyg‘unlashtirish ta’lim mazmunini zamonaviylashtirishning muhim yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi.

Bo‘lajak pedagogning raqamli madaniyati texnik ko‘nikmalar yig‘indisi sifatida emas, balki axborot bilan ishlash, raqamli kommunikatsiya, raqamli etika, xavfsizlik, pedagogik texnologiyalarni tanlash, raqamli baholash, qayta aloqa va refleksiyani o‘z ichiga oluvchi kompleks sifat sifatida qaralishi lozim.

Interaktiv qayta aloqa platformalari mazkur jarayonda alohida pedagogik imkoniyatga ega. Chunki ular talabaning faoliyatini kuzatish, natijani baholash, individual qayta aloqa berish, xatolarni aniqlash, qayta ishlash va rivojlanish dinamikasini monitoring qilish imkonini beradi. DigCompEdu doirasida ham

raqamli texnologiyalar yordamida qayta aloqa berish va raqamli dalillar asosida ta’limni moslashtirish pedagogning muhim raqamli kompetensiyalaridan biri sifatida belgilangan.

Tavsiyalar

Birinchidan, oliy ta’lim tashkilotlarida bo‘lajak pedagoglarning raqamli madaniyatini rivojlantirishga qaratilgan yagona institutsional dastur ishlab chiqish va uni ta’lim, tarbiya hamda mustaqil ta’lim jarayonlari bilan integratsiyalash maqsadga muvofiq.

Ikkinchidan, interaktiv qayta aloqa platformalaridan foydalanishni alohida texnik mashg‘ulot sifatida emas, balki fanlarni o‘qitish metodikasi, pedagogika, psixologiya va amaliyot bilan bog‘langan holda tashkil etish zarur.

Uchinchidan, bo‘lajak pedagoglarning raqamli madaniyatini aniqlash uchun axborot madaniyati, raqamli kommunikatsiya, raqamli etika, xavfsizlik, raqamli pedagogika va refleksiya ko‘rsatkichlarini qamrab oluvchi diagnostik vositalarni ishlab chiqish tavsiya etiladi.

To‘rtinchidan, interaktiv platformalarda talabalarning faqat yakuniy bahosini emas, balki qayta urinishlari, xatolar ustida ishlashi, qayta aloqadan foydalanishi va refleksiv faoliyatini ham hisobga oluvchi monitoring tizimini joriy etish lozim.

Beshinchidan, milliy qadriyatlarni raqamli muhit bilan uyg‘unlashtirgan pedagogik loyihalarni kengaytirish, jumladan, milliy meros, tarix, adabiyot, musiqa, san’at va ma’naviy qadriyatlarga oid raqamli ta’lim resurslarini bo‘lajak pedagoglarning o‘zlari tomonidan yaratish amaliyotini yo‘lga qo‘yish maqsadga muvofiq.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi. “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonun. O‘RQ-637-son, 2020-yil 23-sentabr.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Uzluksiz ma’naviy tarbiya konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4557-son qarori, 2019-yil 31-dekabr.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston – 2030” strategiyasi to‘g‘risidagi PF-158-son Farmoni, 2023-yil 11-sentabr.
4. G‘oziyev E.G‘. Umumiy psixologiya. – Toshkent: O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti, 2010.
5. Muslimov N.A. Kasb ta’limi o‘qituvchilarini kasbiy shakllantirishning nazariy-metodik asoslari. – Toshkent, 2007.
6. UNESCO. ICT Competency Framework for Teachers. Version 3. – Paris: UNESCO, 2018. – 68 p. UNESCO ushbu frameworkni bo‘lajak va amaldagi pedagoglarning AKTdan foydalanish kompetensiyalarini rivojlantirish uchun tavsiya etadi.

MUSIQA TA’LIMI VA TARBIYA JARAYONIGA ZAMONAVIY YONDASHUVNING DOLZARB MASALALARI

Zuxra Ziyamuxamedova
Nizomiy nomidagi O‘zbekiston milliy pedagogika universiteti “Musiqiy ta’lim” kafedrasi katta o‘qituvchisi
Toshtemirova Gulsevar
Nizomiy nomidagi O‘zbekiston milliy pedagogika universiteti “Musiqiy ta’lim” kafedrasi 201- guruh talabasi
https://doi.org/10.5281/zenodo.23179402

O‘zbekistonda musiqa ta’limi va tarbiya jarayoniga yondashuvning dolzarb masalalarini idrok etish taqozo etiladi. Ularning asosiylari quyidagilardan iborat:

Birinchidan, mamlakatimizda musiqa ta’limi va musiqa tarbiyasi jarayonini innovatsion rivojlantirishga asoslab, “Yangi O‘zbekiston Taraqqiyot strategiyasi”da sifatli ta’limga erishish va O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi “Madaniyat va san’at sohasini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarorida belgilangan ta’lim tizimida Musiqa ta’limini rivojlantirishning ustuvor vazifalariga asoslanadi. Bunda musiqa ta’limi va musiqa tarbiyasi jarayonida ta’lim oluvchilarning cholg‘u ijrochiligi, xonandalik hamda raqs san’ati ijrochiligi bo‘yicha ko‘nikmalarini rivojlantirish va ularning layoqatini tarkib toptirish ustuvor vazifalardan hisoblanadi.

Ikkinchidan, musiqa ta’limi va musiqa tarbiyasi jarayonida ta’lim oluvchilarning kamida 3 milliy cholg‘uda musiqa ijro eta olish ko‘nikmasini shakllantirish hamda musiqa o‘qituvchilarining kamida 3 ta milliy cholg‘ularda ijrochilik ko‘nikmasini rivojlantirish, xonandalik yo‘nalishida xalq qo‘shiqlari ijrochiligi, an’anaviy, maqom va estrada ashulalari ijrochiligi bo‘yicha mahoratini tarkib toptirish muhim hisoblanadi. Bunda umumiy o‘rta ta’lim maktablarining 1-7 sinf o‘quvchilarining musiqa, ashula va raqs san’ati yo‘nalishi bo‘yicha ijrochiligini tarkib toptirishda Bolalar musiqa san’ati janrining talablariga tayanish taqozo etiladi. Shu sababli bo‘lajak musiqa o‘qituvchilarining bolalar musiqa san’ati ijrochiligi asoslari bo‘yicha mahoratini shakllantirish dolzarb bo‘lib turibdi.

Uchinchidan, mazkur muammolarni hal etish va ularning yechimi bo‘yicha metodik tavsiyalarni ishlab chiqish bugungi kunning asosiy vazifalaridan hisoblanadi. Buning uchun asosan quyidagi yo‘nalishlar bo‘yicha aniq fikrlarga kelishimiz kerak:

1)Musiqa ta’lim tizimidagi zamonaviy muammolarni idrok etish. Bu yo‘nalishda raqamli ta’lim muhitida musiqa o‘qituvchilarini tayyorlashning zamonaviy texnologiyalari va sifati mezonlarini belgilab olishimiz kerak;

2)Professional musiqa ta’limi tizimida zamonaviy ijrochilik san’ati muammolarini hal etish. Bu o‘rinda “Professional musiqa ta’limi tizimi” deganda

bolalar musiqa va san’at maktablari, musiqa akademik litseyi va pedagogik kollejlari hamda oliy musiqa ta’limi muassasalarini nazarda tutib, ta’lim muassasalarida professional musiqa ta’limi tizimida zamonaviy ijrochilik san’atining muammolariga yechim topish kerak;

3)Iqtidorli bolalar bilan ishlashda yangicha yondashuvlar. Mamlakatimizda barcha sohalar qatorida musiqa ta’limi, ijrochiligi va madaniyati bo‘yicha iqtidorli talabalarni aniqlash, tarbiyalash hamda ularning qobiliyatlarini rivojlantirish ustuvor vazifalardan hisoblanadi. Bunda musiqiy iqtidori mavjud bolalarni aniqlash, ularning qobiliyatlarini rivojlantirish masalan, eshituv qobiliyati, his qilish qobiliyati, ijrochilik qobiliyati rivojlantirish hamda mazkur qobiliyatlar darajasini tashxislarning zamonaviy mexanizmlarini ishlab chiqishimiz kerak.

Bugungi kunda ***musiqa ta’limiga oid yangicha yondashuvlarga*** ehtiyoj sezilmoqda. Buning sababi shundaki, O‘zbekistonning hozirgi rivojlanish jarayonida innovatsion jamiyat barpo etish muhim hisoblanadi. Bu borada “Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi”da “aqlli ta’lim”ni vazifasi belgilangan.[81] Unga ko‘ra, “aqlli ta’lim”, ya’ni ta’lim jarayonini raqamli texnologiyalar asosida rivojlantirish vazifasi qo‘yilgan. Shu jihatdan mamlakatimiz musiqa ta’limi jarayonida raqamli texnologiyalarga asoslangan innovatsion yondashuvlarni o‘rganish, o‘zlashtirish va amaliyotga joriy etish muhim hisoblanadi. Shu sababli *milliy va jahon xalqlari musiqasining uyg‘unlashtirish tamoyili mazkur muammoni hal etishning amaliy masalalaridan biridir*. Unga ko‘ra, musiqa ta’limida milliy va jahon xalqlari musiqasini uyg‘un o‘rganish an’anasi tarkib topdi. Bu borada muayyan xalqning musiqa ta’limi tajribasi o‘zga xalqlar ta’limi jarayoniga qabul qilinib, asosiy e’tibor musiqa ta’limi bo‘yicha ta’lim oluvchilarning savodxonligini yuksaltirishga qaratilmoqda. Misol uchun, bu borada quyidagi tajribalar kuzatilmoqda:

a) Yevropa mamlakatlari va AQShda musiqa ta’limini amalga oshirishda asosiy e’tibor amaliy o‘zlashtirishga qaratiladi. Bu tajriba Osiyo mamlakatlari, jumladan mamlakatimizda e’tirof etilayotganligini eslatib o‘tish joiz;

b) Osiyo mamlakatlarida musiqa ta’limini amalga oshirishda asosiy e’tibor nazariy bilimlarni berishga qaratiladi. Bunday tajriba Yevropa mamlakatlari musiqa ta’limi jarayonida qiziqish bilan munosabatda bo‘layotganligini ta’kidlash kerak;

v) Afrika, Okeaniya va Avstraliya mamlakatlarida musiqa ta’limini amalga oshirishda milliy musiqiy merosga ustuvor munosabatda bo‘linmoqda. Buning natijasida mazkur qutb mamlakatlarining musiqa ta’limida milliy ijrochilikning rivojlanganligi e’tirof etilmoqda.

Bularning barchasi musiqa ta’limida milliy va jahon xalqlari musiqasini nisbatan uyg‘unlashib borishiga asos bo‘lmoqda. Kezi kelganda ta’kiddlash lozimki,

[81] “Янги Ўзбекистоннинг тараққиёт стратегияси”. // www. Google.uz.

muayyan xalqning milliy musiqa ta’limida o‘ziga xos tajribalar mavjud bo‘ladi va ularni o‘rganish ijobiy natijalar berishi mumkin.

Ushbu keltirilgan yo‘nalishdan ma’lum bo‘ladiki, mamlakatimizda musiqa ta’limi va musiqa tarbiyasi jarayoniga yondashuvning shakllarini ishlab chiqish imkoniyatlari mavjud. Ta’lim tizimining asosiy maqsadlaridan biri musiqa ta’limi va musiqa tarbiyasi jarayoniga zamonaviy yondashuvlar vositasida iqtidorli talabalar hamda mahoratli ta’lim beruvchilarni aniqlashdan iborat.

ADABIYOTLAR:

1. “O‘zbekiston - 2030” strategiyasi. – Toshkent, 2023
2. Jaloliddin Rumiy. Uchmoqqa qanot yo‘q, vale uchgayman. –Toshkent:
3.Lutfullayev A.K. Xalq cholg‘ulari ijrochiligi: manbalar, tajribalar va zamonaviy yondashuvlar. – Toshkent, 2023
4. E.B.Qobilova. Musiqa o‘qitish metodikasi va maktab reperetuari. 2023yil.

MUSIQIY TA’LIM VA TA’LIM TARBIYANING UYG‘UNLIGI

Zuxra Ziyamuxamedova
Nizomiy nomidagi O‘zbekiston milliy pedagogika universiteti “Musiqiy ta’lim” kafedrasi katta o‘qituvchisi
https://doi.org/10.5281/zenodo.23179451

Oliy ma’lumot egasi bo‘lish, kishi hayotidagi eng katta yutuqlardan biri hisoblanadi. *Talaba degan nomga erishish* – endigina voyaga yetgan, doimo ota-onasi qaramog‘ida bo‘lgan yoshlar uchun katta sinov. Oliy o‘quv yurtida olingan bilim esa insonning umri davomida hamroh bo‘ladi. Yaxshi mutaxassis bo‘lish uchun iste’dod, qiziqish, bilim va harakat zarur. O‘quv dargohida ta’lim-tarbiya olayotgan yoshlar, ayniqsa san’at yo‘lini tanlaganlar darsdan tashqari vaqtda mustaqil ishni to‘g‘ri tashkil etish ko‘nikmalarini egallashlari zarur. Oliy ta’lim tizimidagi o‘quv rejada mustaqil ta’lim uchun hamma fanlardan ma’lum soatlar belgilangan.

Ushbu masala doim e’tiborda bo‘lishi maqsadga muvofiq. Dars jarayonida olingan bilimlarni mustahkamlash, ijro malakalari va nazariy fanlarni o‘zlashtirish uchun talabalarning mustaqil shug‘ullanishi zarur talablardan hisoblanadi. Talaba o‘zining asarga bo‘lgan shaxsiy munosabati va mahoratini ijro orqali ko‘rsata olishi muhim jarayon. Ustozi nazoratidagi darsning ahamiyati katta, lekin talabaning mustaqil ta’limiga sarf qilayotgan vaqti samarasini o‘rganib borish, tavsiyalar berish ustozlar zimmasida.

Buning uchun talabaga mustaqil ta’limni qanday tashkil qilish, nimalarga e’tibor qaratish, vaqtdan unumli foydalanish lozimligini tushuntirish maqsadga muvofiq. Asosiy qoidalardan biri ta’limning muntazamligiga erishish. Ijroni o‘zlashtirishning dastlabki davridan boshlab talabada muntazam mustaqil ishlash ko‘nikmasini shakllantirish lozim. Odatda, muntazamlikka erishish qiyin, lekin bunday ta’limlar asta-sekin odat tusiga kirib borishiga erishish zarur. Bularsiz yuqori natijalarga erishib bo‘lmaydi.

Milliy musiqa san’atimizni har qachongidan chuqurroq va atroflicha o‘rganish, uni xalq ichida keng targ‘ib qilish bugungi kunning dolzarb masalalaridan biridir. Chunki, o‘zbek musiqa madaniyati va uning asosiy qismlaridan biri bo‘lgan cholg‘ular va cholg‘u musiqasi qadimdan boy va murakkab ta’sirchan imkoniyatlarga ega. Musiqa jonsiz tanaga jon, ruhsiz vujudga ruh bag‘ishlagani haqida Sharqu G‘arb ilmi, adabiyotda farazlar, afsona-yu rivoyatlar juda ko‘p.

Aksariyat mutaxassislar musiqaning yaratilishi inson zoti paydo bo‘lib, tabiat hodisalariga, hayvonlarga taqliddan, yo ilk bor kulib yoxud yig‘laganda chiqargan un-tovushlarga bog‘lab izohlaydilar. Asrlar osha bizgacha yetib kelgan milliy cholg‘ularimiz va musiqamizning ajoyib namunalari bugungi kunda ham o‘zining

rang-barang jilosi, ohanrabo kuylari bilan kishilarga olam-olam zavq-shavq va huzur baxsh etib kelmoqda. Ajdodlarimiz musiqani shifo, najot deb bilganlar.

O‘z zamonasining buyuk donishmandlaridan bo‘lgan Al–Kindiy islom falsafasi asosida ilk bor musiqa nazariyasi haqida risolalar bitgan hamda bu san’atning badiiy estetik va tarbiyaviy jihatlari, ma’naviy barkamol insonni tarbiyalashdagi o‘rni, uning ahamiyatini dalillab bergan. Tarixchi olimlarning aytishicha (G.Sarton), Al Kindiy “ilk musulmon musiqashunosi bo‘lgan” va uning ayrim asarlarida “ohanglar yozuvi” mavjud. Arab olimi professor A.F.Exvoniy ham “Al Kindiy musiqa bo‘yicha qator asarlar yaratgan, ulardan biri nemis tiliga tarjima qilingan”, deb xabar beradi.

Farobiyning asari bu sohada unga qadar yozilgan asarlardan ustun bo‘lib, G‘arb va Sharq musiqa nazariyasi taraqqiyotini bir necha asrga belgilab bergan. XV asr musiqa nazariyotchilaridan biri, Sharqning yirik mutafakkiri Abdurahmon Jomiy o‘zining “Musiqa haqida risola”sida Farobiyni buyuk musiqashunos olim sifatida tilga olgan. Fransuz arabshunos olimi Karra de Voo, Farobiyning musiqa san’ati sohasidagi xizmatlari haqida bunday degan edi: “Farobiy yana buyuk musiqachi ham edi. Biz uning Sharq musiqasi nazariyasi bo‘yicha eng muhim asarlari uchun undan minnatdormiz. U ayni vaqtda ham ijrochi-musiqachi, ham bastakor edi”.

Sharq allomalarining asarlari fransuz tiliga ham tarjima qilingan. Jumladan, Farobiyning musiqaga bag‘ishlangan asari Parijda nashr etilgan. Asarning kirish qismida R.Erlanje o‘rta asr Sharqida musiqa nazariyasi taraqqiyotining qisqacha ocherkida – “Al Kindiy, Al Farobiy, Ibn Sino va boshqalarning musiqashunoslikka doir asarlari haqida to‘xtalib – Farobiyning musiqa nazariyasi kelgusi taraqqiyotga qo‘shgan hissasini yuqori baholaydi. Va “... Al Farobiyning undan keyin arab tilida musiqa haqida asar yozganlardan ustunligi hayron qolarlikdir. Keyingi asrlar mualliflarining asarlarida “Kitob al musiqiy al kabir”dan ko‘plab fikrlar, chunonchi musiqaning ta’rifi, ohang va interval nazariyasi va boshqalar o‘zlashtirib olinganligi ko‘zga tashlanadi”, deydi.

Umuman musiqa tarbiyasining quyidagi xususiyatlarini yana bir bor eslatib o‘tish maqsadga muvofiqdir:

birinchisi – insonga huzur – halovat baxsh etadigan musiqa;

ikkinchisi– ehtiros uyg‘otib, qalbni junbushga keltiradigan musiqa;

uchinchisi– kishini o‘yga toldirib, fikrlashga undaydigan musiqadir.

Bu ulug‘ narsalarga erishish uchun har bir sozanda kundalik mashg‘ulotini rejalashtirishni bilishi lozim. Ayniqsa, talaba-yoshlar o‘quv jarayonida o‘z ijro mahoratlarini takomillashtirib borishlarida mustaqil ta’limga katta ahamiyat berishlari kerak.

San’at durdonalariga ko‘proq e’tibor qaratish, tinglash, tomosha qilish, tahlil etish, tushunish, ilhomlanish katta ahamiyat kasb etadi. Musiqani anglash uchun til bilish shart emas. Lekin, soz chalish har kimning ham qo‘lidan kelavermaydi. Zehni

o‘tkir, tirishqoq, aniq maqsadli yoshlarning biror soz chalishni o‘rganishlari oson kechadi. Yoshlarning iste’dodini rivojlantirish, ularga ko‘mak berish maqsadida Respublikamizda turli tadbirlar - tanlovlar, festivallar, ko‘riklar uyushtirish yaxshi yo‘lga qo‘yilgan. Xalqaro musiqiy festivallarning o‘tkazilishi ham yoshlar bilimini, dunyoqarashini kengaytirish, jahon musiqa durdonalari, ijrochilik maktablari bilan tanishtirish, ijodkorlik, bunyodkorlik tomon yo‘naltirishga qaratilgan.

Musiqiy ijrochilikning bugungi kundagi o‘rni va tarbiyadagi ahamiyatini e’tiborga olib, kamchiliklarga yo‘l qo‘ymaslik choralarini ko‘rish ham muhim ahamiyatga ega. Boy va xilma–xil estetik tarbiya vositalari qatorida san’at va uning turlaridan biri bo‘lgan musiqa eng ta’sirchan va kuchli tarbiya vositalaridan biri ekanligini tushunamiz. Chunki, yaxshi asar kishi ongi, fikri, kayfiyatiga tez va yoqimli ta’sir ko‘rsatadi. Musiqa asarlarida ifodalangan ohang va g‘oya odamning ichki dunyosiga kuchli ta’sir etadi. Zero, hayajonli his-tuyg‘ular bilan yo‘g‘rilgan, ohangdor tovushlar insonni befarq, loqayd qoldirmaydi. Musiqa asarlari o‘zining hayajon va g‘oyaviy mazmuniga ko‘ra insonda quvonch, xayrat, iztirob, g‘am, sog‘inch kabi tuyg‘ularni paydo bo‘lishiga ta’sir ko‘rsatadi. Yosh avlodda milliy qadriyatlarga, mumtoz musiqa merosiga hurmat, milliy iftixor tuyg‘usini shakllantirishda musiqa o‘qituvchilarining alohida o‘rni bor.

Keyingi o‘n yillar davomida o‘zbek musiqa madaniyati jadal rivojlanib bormoqda. Bunda musiqa asarlarining faqat son jihatdan ko‘payishi emas, balki sifatining ham yaxshilanib borayotganligi nazarda tutiladi. Hozirgi zamon o‘zbek musiqasi taraqqiyotining darajasi qanchalik yuksak bo‘lsa, xalqimizning nafaqat maqomga, balki o‘tmish merosiga qiziqishi shunchalik kuchli bo‘ladi. Bu borada F.M.Karamatov shunday yozadi: “Har bir xalqning musiqa merosi alohida iftixorga, avaylab asrash va o‘rganishga loyiq bo‘lib qolmasdan, balki o‘zining eng yaxshi namunalari orqali bugungi kunda ham katta estetik zavq berishga va shu bilan bir qatorda uning g‘oyaviy, badiiy mosligi moyilligiga kuchli ta’sir ko‘rsatishga qodirdir”. Biroq bizning kuzatuvlarimiz shuni ko‘rsatadiki, hozirgi zamon yoshlarining ko‘pchiligi folklor musiqasiga yetarli darajada qiziqmaydilar. Ular xalq musiqasini idrok etishga tayyor emas. Binobarin, o‘zbek milliy musiqasi go‘yo tarbiyaviy vosita tizimidan tushib qolganday.

Zero, jamiyatimiz rivojida musiqiy madaniyatning ahamiyati o‘ziga xos katta o‘ringa ega. Bas shunday ekan, kelajakda turgan muhim vazifalarimizni saralab, har birimizning oldimizda turgan ma’suliyatli vazifalarni bajarishda hammamiz birdek faol bo‘lishimiz, talaba-yoshlarimizni yot g‘oyalardan asrash, ma’naviy dunyosini yuksaltirish uchun ularning bo‘sh vaqtlarini to‘g‘ri yo‘naltirishimiz zarur.

Yangi O‘zbekistonda musiqa san’atini rivojlantirishning zamonaviy tendensiyalari ana shunday muhim tamoyillar va yondashuvlardan iborat. Mazkur tayanchlarga asosan mamlakatda musiqa san’atini rivojlantirishning yangi bosqichi amalga oshirilmoqda.

ADABIYOTLAR:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston respublikasini yanada rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishlari bo‘yicha “Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni. // “Xalq so‘zi” gazetasi 2017 yil 8 fevral soni
2. Shaxs kamolotini rivojlantirishda buyuk allomalarimiz fikrlarining mohiyati(Abu Nasr Muhammad Farobiy. Abu Abdullox Al-Xorazmiy, Abu Ali Ibn Sino, Alisher Navoi, Mirzo Ulugbek.
3. Lutfullayev Anvar. Xalq cholg‘ularida ijrochilik: tarixiylik va zamonaviylik. – Toshkent, 2022
4. E.B.Qobilova. Musiqa o‘qitish metodikasi va maktab reperetuari. Tamaddun nashriyoti 2023yil.

QORI NIYOZIY NOMIDAGI TARBIYA PEDAGOGIKASI MILLIY INSTITUTI
TPMI
1929

ИГРОВЫЕ ТЕХНОЛОГИИ В ПЕДАГОГИКЕ

Шаниязов Борибай Жангабаевич
Ташкентский Университет Гуманитарных наук. Кандидат филологических наук
Атабаева Гулшат Усмановна
Студентка 2 курса Ташкентского Университета Гуманитарных Наук
https://doi.org/10.5281/zenodo.23179501

Аннотация. *В статье анализируются вопросы исследования игр и применения их в педагогике. В статье даётся такой вывод, что двигательные упражнения, проводимые в игровых условиях, способствует успешному развитию общего мышления учащегося и воспитанию нравственных норм поведения.*
Ключевые слова: *компетентность, дидактическая игра, научная категория, педагогика, психология, личность.*
Abstract. *The article analyzes the issues of researching games and their application in pedagogy. The article concludes that active exercises carried out in game conditions contribute to the successful development of the student's general thinking and the upbringing of moral norms of behaviour.*
Key words: *competence, didactic game, scientific category, pedagogy, psychology, personality.*

Среди педагогических средств формирования профессиональной компетентности учителя в вузе особое место принадлежит учебной дидактической игре, представляющей собой «целенаправленную организацию учебно-игровых взаимодействий обучаемых в процессе моделирования ими целостной профессиональной деятельности специалиста». Игра как научная категория стала предметом исследований не только педагогики, психологии, но и целого ряда других наук. По мнению Д.Б. Эльконина, ни в какой другой деятельности нет такого «эмоционально наполненного вхождения в жизнь взрослых, такого действенного выделения общественных функций и смысла человеческой деятельности, как в игре» [4: 158]. Согласно концепции Д.Б.Эльконина, личность является продуктом системы значимых отношений.

Вопросам исследования игр и применения их в педагогике посвящены труды П.И.Пидкасистого, который считает, что «технологией проблемного обучения является дидактическая игра, феномен игры в том, что она создает условия для возникновения и разрешения проблемных ситуаций, которые появляются как бы самопроизвольно, независимо от игрока, почти как в жизни» [3:216]

Говоря о достоинствах игры, педагоги приходят к мнению о том, что игра способствует формированию профессиональной компетентности будущего учителя в обстановке риска и неопределенности и помогает использовать приобретенные знания в будущей профессиональной деятельности.

Целесообразным и логичным называет рассмотрение игровой технологии в русле теории целостного педагогического процесса как объекта профессиональной деятельности учителя Н.К. Ахметов [1]. намечая пути использования игр:

1) для организации самостоятельной работы студентов;

2) для индивидуализации и дифференциации обучения профессиональной подготовки специалистов;

3) для активизации познавательной деятельности обучающихся и осуществления обратной связи;

4) для сокращения разрыва между теорией и практикой;

5) для эффективности контроля;

6) повышения уровня и качества знаний.

Автор убежден, что если в ходе изучения профилирующего предмета в вузе целенаправленно использовать игровое обучение как составляющую целостного педагогического процесса, то совершенствуется качество подготовки учителей, создаются условия для формирования положительной мотивации к профессии учителя и овладения знаниями, умениями и навыками в единстве содержательного и процессуального компонента. В своей книге «Игра как процесс обучения» авторы выделяют ряд психолого-дидактических положений игровой деятельности:

- ✓ активность, мобилизующая физические и интеллектуальные силы в игре
- ✓ динамичность, выражающая роль фактора времени в игровой деятельности;
- ✓ принцип исполнения ролей, позволяющий моделировать профессиональную деятельность;
- ✓ обратная связь, отражающая отношение игроков и их влияние на ход игры;
- ✓ принцип проблемности, когда достижение поставленной цели сопряжено с возникновением проблемных ситуаций;
- ✓ результативность, позволяющая рассматривать игру как продуктивную деятельность;
- ✓ самостоятельность деятельности, направленная на усвоение конкретных знаний и умений [1].

Н.К. Ахметов считает, что одним из положений построения игр должна быть занимательность. «Занимательность отражает увлекательные, интересные проявления игровой деятельности, которые оказывают сильное эмоциональное воздействие и усиливают познавательную активность» [1:12].

Двигательные упражнения, проводимые игровых условиях, способствует успешному развитию общего мышления учащегося и воспитанию нравственных норм поведения. Методические аспекты применения коммуникативных игр при обучении студентов немецкому языку, роль страноведческого материала в формировании коммуникативной компетенции, моделирующая функция ситуации рассматриваются в работе Е.С. Казаковой [2].

Таким образом, наш теоретический анализ показывает, что игры включают различные научные теории: теорию избытка сил, компенсаторности, инстинктивности, духовного развития, а также теорию игры как педагогической технологии. Игровые технологии в педагогике составляют приемы организации педагогического процесса в форме различных педагогических игр. В отличие от других игр педагогическая игра отличается конкретной задачей и педагогическим результатом, имеющим учебно-познавательную направленность.

По форме проведения выделяют игры предметные, подвижные с вербальным компонентом, сюжетные или ситуационные, ролевые игры-соревнования, интеллектуальные игры (ребусы, кроссворды, чайнворды, шарады, викторины и т.д.), игры - взаимодействия (коммуникативные, интерактивные). По способу организации игры бывают компьютерные, письменные и устные, с опорами и без опор, имитационно-моделирующие и креативные и т.д. По степени сложности выполняемых действий учебные игры подразделяются на «простые» (моноситуационные) и «сложные» (полиситуационные), а по длительности проведения они делятся на продолжительные и непродолжительные.

Использованная литература

1. Ахметов Н.К. Теория и практика игрового обучения в подготовке учителя: автореф... д. п. н.: 13.00.01.- Алматы, 1996. - 43с.
2. Казакова Е.С. Использование Игры В формировании коммуникативной компетенции студентов языковых педвузов: автореф. ... канд. пед. наук: 13.00.02. - М.: МПУ, 2000.- 16 с.
3. Пидкасистый П.И., Хайдаров Ж.С. Технология игры в обучении и развитии: Учеб. пособие. М.: Рос.пед. агентство, 1996. - 268 с.
4. Эльконин Д.Б. Психология игры. М.: Владос, 1999. - 360 с.

BO‘LAJAK TARBIYA FANI O‘QITUVCHISI KASBIY FAOLIYATIDA MILLIY TARBIYA JARAYONLARINI TASHKIL ETISHNING INSTITUTSIONAL MODELLARI

Shodiyeva Ra’noxon Abdumajid qizi
Qori Niyoziy nomidagi Tarbiya pedagogikasi milliy instituti tayanch doktoranti
https://doi.org/10.5281/zenodo.23179550

Annotatsiya. *Maqolada bo‘lajak Tarbiya fani o‘qituvchisining kasbiy faoliyatida milliy tarbiya jarayonlarini tashkil etishning institutsional asoslari tadqiq etilgan. Milliy tarbiyani faqat dars mazmuni yoki alohida ma’naviy-ma’rifiy tadbirlar doirasida amalga oshirish o‘quvchining oilaviy, mahalliy va ijtimoiy tajribasi bilan tarbiyaviy mazmun o‘rtasidagi uzviylikni to‘liq ta’minlamasligi asoslangan. Normativ-huquqiy hujjatlar, Tarbiya fanini o‘qitish metodikasiga oid ilmiy-metodik manbalar hamda oila, mahalla va ta’lim muassasasi hamkorligini o‘rgangan tadqiqotlarning qiyosiy tahlili asosida milliy tarbiya jarayonlarini tashkil etishning maktab-markazli, oila bilan koordinatsiyalashgan, mahalla-kontekstual va tarmoqli-integrativ institutsional modellari tizimlashtirilgan.*

Kalit so‘zlar: *bo‘lajak Tarbiya fani o‘qituvchisi, milliy tarbiya, institutsional model, maktab, oila, mahalla, pedagogik hamkorlik, kasbiy faoliyat, tarbiyaviy jarayon, institutsional koordinatsiya.*

KIRISH. Umumiy o‘rta ta’lim tizimida “Tarbiya” fanining joriy etilishi o‘quvchi tarbiyasini muayyan fanlar tarkibida tarqoq holda o‘rganishdan yagona konseptual va metodik tizim asosida tashkil etishga o‘tishni nazarda tutdi. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 6-iyuldagi 422-son qarorida “Odobnoma”, “Vatan tuyg‘usi”, “Milliy istiqlol g‘oyasi va ma’naviyat asoslari” hamda “Dunyo dinlari tarixi” fanlari negizida yagona “Tarbiya” fanini joriy etish belgilangan. Qarorda o‘quvchilarning yosh va psixofiziologik xususiyatlarini hisobga olgan holda umuminsoniy qadriyatlar va yuksak ma’naviyatni chuqur singdirish, vatanparvarlik va insonparvarlik ruhida tarbiyalash, maktabdagi ma’naviy-tarbiyaviy ishlarni yangicha asosda tashkil etish mazkur fan joriy qilinishining bevosita vazifalari sifatida belgilangan [1].

Mazkur normativ talab Tarbiya fani o‘qituvchisining kasbiy faoliyatiga ham yangicha mazmun beradi. Milliy tarbiya jarayonining natijasi faqat o‘quvchining ma’lum qadriyatlar, urf-odatlar yoki tarixiy-madaniy tushunchalar to‘g‘risidagi bilimlari bilan aniqlanmaydi. Tarbiyaviy mazmun o‘quvchining kundalik xulqi, tanlovi, oiladagi munosabatlari, mahalla va jamoa hayotidagi ishtiroki bilan bog‘langandagina uning shaxsiy tajribasiga aylanadi. Shu sababli bo‘lajak Tarbiya fani o‘qituvchisini tayyorlashda darsni metodik loyihalash bilan bir qatorda turli tarbiya institutlarining imkoniyatlarini aniqlash, ularning faoliyatini muayyan tarbiyaviy maqsad atrofida muvofiqlashtirish va olingan natijani pedagogik jihatdan tahlil qilish ko‘nikmalari ham shakllantirilishi zarur.

Uzluksiz ma’naviy tarbiya konsepsiyasida tarbiyaning tizimliligi aynan institutlararo aloqalar bilan bog‘langan. Hujjatda ota-ona, tarbiyachi, o‘qituvchi, uzluksiz ta’lim muassasalari va mahalla jamoatchiligining samarali hamkorligi mexanizmini yaratish, davlat tashkilotlari, fuqarolik jamiyati institutlari, ommaviy axborot vositalari hamda xususiy sektorning tarbiyaviy hamkorligini yo‘lga qo‘yish vazifalari belgilangan [2]. Konsepsiyada, shuningdek, oila, ta’lim muassasalari va mahallalarning ijtimoiy-pedagogik imkoniyatlaridan to‘liq foydalanish hamda ular o‘rtasidagi ilmiy-metodik uzviylikni yangi darajaga ko‘tarish zarurati qayd etilgan [2].

